Qo‘qon DPI

ILMIY XABARLAR

ISSN: 3030-3958

№ 7/2025

Qo‘qon DPI.

Ilmiy xabarlar

Кокандский ГПИ.

Научный вестник

№7/2025

УЎК 5/9(08)
КБК 72я5
Қ 99

Bosh muharrir: Qo‘qon davlat universiteti rektori D.Sh.Xodjayeva
Mas’ul muharrirlar:
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor Sh.Y.Pulatov
Mas’ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i O.Bazarov
Nashr uchun mas’ul: M.I.Sobirova

MUASSIS:
Qo‘qon davlat universiteti

Qo‘qon DPI.
ILMIY XABARLAR-
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.
Кокандский ГПИ.
Jurnal bir yilda o‘n ikki marta chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

"Qo‘qon DPI.Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san’atshunoslik fan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.

Tahririyat manzili:
150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy.
Tel.: (0373) 542-38-38.
Сайт: www.kspi.uz
journal.kspi.uz
ISBN: 978-9943-7182-7-2
“CLASSIC” nashriyoti 2025

TABIIY FANLAR
И.И.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ)
Sh.S.Nomozov,texnika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB)
V.U.Xo‘jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
M.T.Isog‘aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
T.O.Turginov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘ZB)
А.Ж.Хусанов-физика-математика фанлари номзоди, доцент (O‘ZB)
O.A.Turdiboyev, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
G‘.M.Ochilov, kimyo fanlari nomzodi, professor (O‘ZB)
B.Numonov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
M.Madumarov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)

FILOLOGIYA FANLAR
Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR)
И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ)
В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ)
К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ)
Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ)
S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
G.Islailov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB)

IJTIMOIY FANLAR
Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ)
З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ)
D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)
M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)

PEDAGOGIKA FANLAR
Р.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ)
Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ)
Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ)
X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB)
B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)
B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)
N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)
N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK 597.551.2

AYDAR-ARNASOY KO‘LLAR TIZIMIDAGI *RUTILUS ARALENSIS* (BERG, 1916) TURINING REPRODUKTIV BIOLOGIYASI

Azizov Nabi Yarashovich, Mirzayev Ulug‘bek To‘rayevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti
e-mail: n.y.azizov@gmail.com, (+998) 90 917-27-71

Annotatsiya. *Maqolada Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimidagi Orol qizilko‘zining (Rutilus aralensis) ko‘payish qobiliyatiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Tadqiqot natijasida Orol qizilko‘zining individual mutlaq serpushtligi baliqning yoshi, tana uzunligi va vaznining o‘sishi bilan ortib borishi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi, Sharqiy Arnasoy, Tuzkon, Aydarko‘l, Orol qizilko‘zi, Rutilus aralensis, serpushtlik.*

Kirish. Aydar-Arnasay ko‘llar tizimi – O‘zbekistonning Jizzax va Navoiy viloyatlari hududida, Sirdaryoning o‘rta oqimida joylashgan bo‘lib, 1969-1970 yillarda favqulodda Chordara suv omboridan Arnasoy botig‘iga katta hajmda ortiqcha suvning yo‘naltirishi natijasida shakllangan. Ko‘llar tizimiga Aydar ko‘li (tizimdagi eng katta va eng chuqur ko‘l), Tuzkon ko‘li va Sharqiy Arnasoy ko‘llari kiradi. So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi, tashqi suv manbalaridan tashlanayotgan chuchuk suv miqdori ayrim yillarda kamayishi va boshqa qator omillar sabab ko‘llar tizimidagi suvning sathi 2 metrgacha pasayib, suv hajmi 36,8 mlrd metr kubga tushgan. Suvning minerallashuv darajasi 5,1-8,6 gramm/litrga oshgan, ko‘lning oxirgi qismlarida esa mineralizatsiya darajasi 12-15 gramm/litrga yetgan deyiladi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2023 yil 16-fevral kuni bo‘lib o‘tgan Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo‘mitasi majlisining Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida amalga oshirilayotgan va o‘rganish ishlari haqidagi axborotida [https://senat.uz/].

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining gidrologik sharoitlari suv sathi rejimining o‘zgarishlari tufayli ancha beqarordir. Ko‘llar tizimining gidrologik rejimining beqarorligi ushbu suv havzasining gidrokimyoviy rejimining beqarorligini keltirib chiqaradi, bu esa o‘z navbatida suv organizmlari, jumladan, baliqlarning rivojlanishiga ham ta’sir qiladi [8].

Adabiyotlar tahlili. Baliqlarning reproduktiv qobiliyatlari baliqlar sonini va suv havzalarining xom-ashyo bazasini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu borada Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi asosiy ovlanadigan baliq turlarining ekologik xususiyatlariga oid ma’lumotlar З.А.Халматов [14], Y.A. Golubenko [5], I.S. Tagaev [13], E.Sh. Gafurov [4], A.S. Abduvaliev va boshq. [1] hamda K.A. Perepada va boshq. [9] ilmiy ishlarida keltirilgan.

Ushbu maqolada Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi orol qizilko‘zining reproduktiv biologiyasi – jinsiy voyaga yetishi, urchishi, serpushtligini va uni baliq yoshi, tana uzunligi va vazni bilan o‘zaro bog‘liqligini tavsiflovchi ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Orol qizilko‘zi bo‘yicha materiallar 2021-2024 yilning mart-may oylarida Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi – Sharqiy Arnasoy, Tuzkon va Aydarko‘l ko‘llaridan umumiy qabul qilingan usullar yordamida yig‘ilgan [10].

Baliqlarning jinsiy voyaga yetishi, urchishi, ko‘payish biologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar umumiy qabul qilingan usullarga asosan olib borilgan [11-12]. Urg‘ochi baliqlarning IV-bosqichdagi uvildiriqlari asosida – individual mutlaq (*IMS*) va individual nisbiy serpushtligi (*INS*), yetuklilik koeffitsiyenti (*Yk*, %) hisoblab chiqilgan [12]. O‘zgaruvchan belgilar o‘rtasidagi bog‘liqlik xarakterini aniqlash uchun bir faktorli regression tahlil metodi qo‘llanilgan [7].

Tadqiqot natijalari. Orol qizilko‘zi – *Rutilus aralensis* (Berg, 1916) ekologik jihatdan turli yashash joylariga keng moslashgan evribiont turlardan biri bo‘lib, ko‘p sonliligi, keng tarqalishi va antropogen ta’sirlarga chidamliligi bilan ajralib turadi. O‘zbekistonning tekislik qismidagi suv havzalarida (daryolar, ko‘llar, suv omborlari) keng tarqalgan [2-3, 6] oddiy, kam qiymatli tur bo‘lsada, ko‘p sonli ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliqlar qatoriga kiradi.

Biz tomondan olib borilgan tadqiqotlar natijasida Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimiga kiruvchi Sharqiy Arnasoy, Tuzkon va Aydarko‘l ko‘llarida Orol qizilko‘zini keng tarqalganligi, son jihatidan esa boshqa barcha ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliqlardan ustunlik qilishi aniqlandi.

Ma’lumotlarimiz bo‘yicha Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida, asosan tana uzunligi 11-23 *sm* gacha, vazni 39-200 *g* gacha bo‘lgan Orol qizilko‘z baliqlari uchradi. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi Orol qizilko‘zi 3-4 yoshda tanasining uzunligi 11,0-13,0 *sm* bo‘lganda jinsiy voyaga yetadi. Urchish davri – aprel-may oylariga to‘g‘ri keladi. Ikralarini bir vaqtning o‘zida tashlaydi. Urchuvchi to‘dadagi jinslar nisbati ko‘llar tizimi bo‘yicha urg‘ochilari ustunlik qilgan holda 3:1ga teng bo‘ladi. Urg‘ochi Orol qizilko‘z baliqlarining urchishdan oldingi yetuklik darajasi Arnasoy ko‘lida 7,6-14,6 (10,4±0,30) foiz, Tuzkon ko‘lida – 8,9-13,6 (10,7±0,52) Aydarko‘l ko‘lida – 7,2-,12,6 (10,5±0,34) foizgacha tebranib turishi aniqlandi (1-jadval).

Ko‘llar tizimida aprel oyining o‘rtalaridan boshlab, suv harorati 14-16°C bo‘lganda birinchi urchuvchi Orol qizilko‘z baliqlari paydo bo‘la boshlaydi. Sharqiy Arnasoy ko‘lidagi tana uzunligi 11,6-22,8 *sm* va vazni 39-195 *g* bo‘lgan urg‘ochi Orol qizilko‘zining mutlaq serpushtligi 8295-27135 (16513,5±1051,9) ikrani, Tuzkon ko‘lida tana uzunligi 12,3-21,5 *sm* va vazni 44-187 *g* bo‘lgan baliqlarda 10092-27370 (18143,0±920,7) ikrani, Aydarko‘l ko‘lida

esa uzunligi 13,1-21,4 *sm* va vazni 56-193 *g* bo‘lganlarida 8118-23926 (15730,1±1167,0) ikrani tashkil qildi (1-2-jadvallar).

1-jadval. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi kesimida urg‘ochi Orol qizilko‘zining reproduktiv ko‘rsatkichlari

Ko‘llar	***l, sm***	***W, g***	***Yk, %***	***IMS***	***INS***	***n***
Arna-soy	11,6 – 22,8 / 16,2	39 – 195 / 99,8	7,6 – 14,6 / 10,4	8295 – 27135 / 16513,5	159,6 – 339,5 / 223,8	29
Tuz-kon	12,3 – 21,5 / 16,7	44 – 187 / 112,7	8,9 – 13,6 / 10,7	10092 – 27370 / 18143,0	168,9 – 348,0 / 219,6	26
Aydar-ko‘l	13,1 – 21,4 / 16,5	56 – 193 / 95,0	7,2 – 12,6 / 10,5	8118 – 23926 / 15730,1	143,2 – 258,4 / 225,4	16

2-jadval. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi urg‘ochi Orol qizilko‘zining serpushtligi (umumlashtirilgan ma’lumotlar)

Yoshi	***l, sm***	***W, g***	***IMS***	***INS***	***n***
2+	11,6 – 14,5 / 13,3	39 – 80 / 61,4	8118 – 15840 / 11118,8	164,8 – 348,0 / 261,6	15
3+	13,5 – 17,8 / 15,5	68 – 120 / 86,2	8992 – 18984 / 14776,4	179,8 – 258,4 / 227,4	25
4+	15,9 – 19,7 / 17,6	87 – 165 / 115,6	15570 – 23040 / 19246,9	178,6 – 253,3 / 214,3	18
5+	18,5 – 22,8 / 20,4	118 – 195 / 168,3	21990 – 27370 / 24588,7	143,2 – 231,7 / 179,9	13

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi Orol qizilko‘zining individual mutlaq serpushtligi baliqlarning yoshi, tanasining uzunligi va vaznining ortishi bilan chambarchas bog‘liq holda oshib borishi aniqlandi (1-3-rasmlar).

Individual mutlaq serpushtlik baliqning yoshi, tana o‘lchamlariga (uzunligi va vazni) bog‘liqlik shakli to‘g‘ri chiziqli regressiya tenglamasi bilan ifodalanadi:

IMS = 1882×l – 14135 (r = 0,973; P<0,01);

IMS = 121,57×W + 4354,1 (r = 0,953; P<0,05);

IMS = 4482,2×t + 1656,5 (r = 0,893; P<0,05).



1-rasm. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi Orol qizilko‘zi urg‘ochilarini serpushtligining baliq tanasi uzunligi bilan o‘zaro bog‘liqligi



2-rasm. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi Orol qizilko‘zi urg‘ochilarini serpushtligining baliq vazni bilan o‘zaro bog‘liqligi



3-rasm. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi Orol qizilko‘zi urg‘ochilarini serpushtligining baliq yoshi bilan o‘zaro bog‘liqligi

Xulosa. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida ollb borilgan tadqiqotlar natijasida Orol qizilko‘zi 3-4 yoshda uzunligi 11,0-13,0 *sm* bo‘lganda jinsiy voyaga yetishi, urchishdan oldingi yetuklik darajasi uzunligi 11,6-22,8 *sm* bo‘lgan baliqlarda 7,2-14,6 (10,5±0,17) foizni tashkil qilishi aniqlandi.

Sharqiy Arnasoy va Tuzkon ko‘llaridagi Orol qizilko‘zining serpushtligi (16513,5±1051,9; 18143,0±920,7), Aydarko‘l ko‘lidagi baliqlarning serpushtligidan (15730,1±1167,0) yuqoriroq ekanligi bilan ajralib turdi.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida Orol qizilko‘zi urg‘ochilarining mutlaq serpushtligi baliq yoshi, tana uzunligi va vaznini bilan o‘zaro kuchli bog‘langanligi va aksincha nisbiy serpushtlikning o‘zgarishi baliqning yoshi, tana uzunligi hamda vazniga aloqador emasligi korrelyatsion va regression tahlil asosida aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдувалиев А.С., Перепада К.А., Худойберганова Г.М. Условия размножения некоторых промысловых видов рыб Айдаро-Арнасайской системы озер. // Использование географических информационных систем и симуляционных моделей для исследования и принятия решений в бассейнах рек Центральной Азии: Тезисы докладов Международной конференции молодых ученых, Ташкент, 6-10 июля, 2004 г. – Ташкент, 2004. – С. 84.

2. Абдуллаев М.А., Урчинов Д. Промысловые рыбы водоёмов низовьев р. Зарафшан. – Ташкент: Фан, 1989. – 61 с.

3. Аманов А.А. Экология риб водоемов юга Узбекистана и сопредельных республик. – Ташкент: Фан, 1985. – 160 с.

4. Гафуров Э.Ш. Особенности естественного воспроизводства основных промысловых карповых видов рыб Айдаро-Арнасайской системы озер: Автореф. дисс. … канд. биол. наук. – Т., 2003. – 22 с.

5. Голубенко Ю.А. Экология и рыбохозяйственное значение хищных рыб водоёмов полупустынной зоны Узбекской ССР (на примере Арнасайской системы озер): Автореф. дисс… канд. биол. наук. – Л., 1982. – 24 с.

6. Камилов Г.К. Рыбы и биологические основы рыбохозяйственного освоения водохранилищ Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1973. – 234 с.

7. Лакин Г.Ф. Биометрия. Учебное пособие для биол. спец. вузов. 4-е изд. – М.: Высш. шк., 1990. – 352 с.

8. Мирзаев У.Т. Видовое и промысловое разнообразие рыб Айдар-Арнасайской системы озер Узбекистана. // Биоразнообразие и рациональное использование природных ресурсов: Материалы докладов Всероссийской научно-практической

конференции с международным участием, посвященной 50-летию кафедры ботаники ДГПУ. Россия, Махачкала, 27-28 раз 2013. – Махачкала: АЛЕФ (ИП Овчинников М.А.), 2013. – С. 114-115.

9. Перепада К.А., Худойберганова Г.М., Мирзаев У.Т. Воспроизводительная способность некоторых промысловых видов рыб озера Тузкан Узбекистана. // Актуальные проблемы экологической физиологии, биохимии и генетики животных: Материалы Международной научной конференции. – Саранск: Изд-во Мордовского университета, 2005. – С. 171-173.

10. Правдин И.Ф. Руководство по изучению рыб. 4-е изд. – М.: Пищевая промышленность, 1966. – 376 с.

11. Сакун О.Ф., Буцкая Н.А. Определение стадий зрелости и изучение половых циклов рыб. – Мурманск: Главрыбвод, 1968. – 47 с.

12. Спановская В.Д., Григораш В.А. К методике определения плодовитости единовременных и порционно икрометущих рыб // В кн.: Типовые методики исследования продуктивности видов рыб в пределах их ареалов. – Вильнюс: Мокслас, 1976. Ч.2. – С. 54-62.

13. Тагаев И.С. Экология основных видов семейства карповых рыб (Cyprinidae) и их роль в биоценозах озёр Арнасайской системы бассейна р. Сырдарьи: Автореф. дисс... канд. биол. наук. – Москва, 1991. – 22 с.

14. Халматов З.А. Материалы к биологии сазана Арнасайской системы озер. // В кн.: Биол. основы рыбного хоз-ва водоемов Средней Азии и Казахстана. – Ташкент, 1972. – С. 268-269.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK: 639. 331: 574.5

ORCID: 0009-0007-4654-4731

BALIQLAR EKOLOGIYASI. EKOLOGIK OMILLARNI BALIQLAR HAYOT FAOLIYATIGA TA’SIRI.

Norbaev Bakhrom Baxtiyorovich
(PhD), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiya universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.
Normurodova Gulmira G’ulom qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti Zoologiya kafedrasi tayanch-doktoranti.
Email: gulmiranormurodova92@gmail.com
Dexqonov Bobur Baxodirovich
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiya universiteti,Xususiy zootexniya va yaylov chorvachiligi kafedra assistenti

Annotatsiya: Maqolada baliqlar ekologiyasi, baliqlar organizmining hayot faoliyatiga ta’sir etuvchi tabiiy (abiotik – zichlik, harorat, oqim, yorug‘lik rejimi, bosim, suvning tiniqligi, gaz tarkibi, sho‘rlik, mineralizatsiya biotik-bu yashash shariotida tirik organizmlarning bir biriga umumiy ta’sirini o’rganadi.)

Baliqlarga ta’sir etuvchi biotik omillarni tur ichida, turlararo va shuningdek boshqa suv hayvonlari bilan (gidrobiontlar) o‘zaro ta’sir qismlarga ajratish mumkin. Antropogen omillar-inson xo‘jalik faoliyati daryolar, ko‘llar va dengizlarning suv resurslaridan kompleks foydalangan holda baliq zahiralarining ko‘payishida katta ta’sir ko‘rsatadi. Suv hayvonlarining nafas olish xususiyatlari suvning turli xil fizik va kimyoviy, hamda yashash joyining havosiga asoslangan.Kislorod miqdori suvning harorati bilan chambarchas bog‘liq. Hozirgi vaqtda mamlakatning ichki suv havzalaridan nafaqat baliqchilik, balki xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari ham foydalanmoqda.

Аннотация: В статье рассматривается экология рыб и влияние природных (абиотических) факторов, таких как плотность, температура, течение, световой режим, давление, прозрачность воды, газовый состав, соленость и минерализация, на жизнедеятельность организма рыб. Биотические факторы подразделяются на внутри- и межвидовые взаимодействия, а также взаимодействия с другими водными организмами (гидробионтами). Антропогенные факторы – это хозяйственная деятельность человека, которая, комплексно используя водные ресурсы рек, озёр и морей, оказывает

значительное влияние на увеличение рыбных запасов. Особенности дыхания водных животных зависят от различных физических и химических свойств воды, а также от газового состава среды обитания. Содержание кислорода тесно связано с температурой воды. В настоящее время внутренние водоёмы страны используются не только для рыбного хозяйства, но и для других отраслей народного хозяйства.

Abstract: The article discusses fish ecology and the effects of natural (abiotic) factors such as density, temperature, water flow, light regime, pressure, water transparency, gas composition, salinity, and mineralization on the vital functions of fish organisms. Biotic factors are divided into intraspecific and interspecific interactions, as well as interactions with other aquatic organisms (hydrobionts). Anthropogenic factors—human economic activities—have a significant impact on the replenishment of fish stocks through the integrated use of the water resources of rivers, lakes, and seas. The respiratory characteristics of aquatic animals depend on various physical and chemical properties of the water, as well as the air composition of their habitats. The oxygen content is closely linked to water temperature. Currently, the country’s inland water bodies are used not only for fisheries but also for other sectors of the national economy.

Kalit so‘zlar: *Abiotik, biotik va antropogen omillar, harorat, kislorod, vodorod ionlari konsentratsiyasi (ph), suvning umumiy mineralizatsiyasi, polikultura.*

Ключевые слова: *Абиотические, биотические и антропогенные факторы, температура, кислород, концентрация водородных ионов (ph), общая минерализация воды, поликультура.*

Keywords: *Abiotic, biotic and anthropogenic factors, temperature, oxygen, hydrogen ion concentration (pH), total mineralization of water, polyculture.*

KIRISH. Baliqlar ekologiyasi – bu baliqlarning atrof-muhit bilan, shu jumladan abiotik (harorat, yorug‘lik, oqim, sho‘rlik), biotik (boshqa gidrobiontlar bilan o‘zaro ozuqaviy aloqasi, raqobat, yirtqichlik) va antropogen (inson omili: suv inshoatlari, baliqlari oziqlantirish, baliqlarni iqlimlashtirish) omillari bilan bog‘liqligini o‘rganadigan fan. Suv ekosistemasida baliqlar muhim rol o‘ynaydi, odamlar va boshqa hayvonlar uchun ozuqa hisoblanib, oziqa zanjirida ishtirok etadi.

Baliq ekologiyasi baliqlarning kunlik, mavsumiy va hayotiy siklini, uning abiotik va biotik muhit bilan o‘zaro munosobatini o‘rganadi [2].

Baliqlar, birinchi navbatda, suvda yashovchi hayvonlar bo‘lib, ular butun hayotini suvda o‘tkazadilar, shuning uchun suvning xususiyatlari ularning hayotiy faoliyatiga va so‘ngida suv havzasi ixtiofaunasining tarkibiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi [7].

Baliqlar hayotiga ta’sir qiluvchi tashqi omillarni biotik (boshqa organizmlar bilan o‘zaro ta’siri) va abiotik (atrof-muhitning fizik-kimyoviy xususiyatlari) ga bo‘lish mumkin [4].

Tashqi muhitning barcha omillar kompleksini ikki guruhga bo‘lish mumkin: abiotik va biotik [3].

Baliqlarga ta’sir qiluvchi omillarni tabiiy (abiotik va biotik) va antropogen omillarga bo‘lish mumkin. Tabiiy omillarga harorat, yorug‘lik, suv oqimi, sho‘rlanish, kislorod va tabiiy ozuqalar mavjudligi kiradi. Antropogen omillar – suvning ifloslanishi, gidrotexnik inshoatlarning qurilishi, baliq ovlash va iqlish o‘zgarishi kabi baliq populyatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan inson faoliyati [6].

Hozirgi kunda inson omilining atrof muhitga tabora kuchli (salbiy va ijobiy) ta’siri natijasida inson bilan hayvon va o‘simliklarni o‘zaro aloqasi juda murakkab va ba’zan bashorat qilish qiyin. Shu sababdan baliqlarning hayotiy faoliyatiga inson omilining ta’sirini o‘rganishga, akvakultura baliqchiligida ilmiy tadqiqotlar olib borishga e’tibor qaratish zarur.

Baliqlar yashash muhitiga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy abiotik, biotik va antropogen omilar hisoblanadi. Akvakultura ob’ektlarini sun’iy ko‘paytirishda birinchi ikki omil guruhi asosiy ta’sir ko‘rsatadi [8].

Abiotik omillar bu – tirik organizmlarga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan suvning fizik va kimyoviy xususiyatlaridir. Suvning fizik xususiyatlariga – zichlik, harorat, oqim, yorug‘lik rejimi, bosim, suvning tiniqligi, kimyoviy xususiyatlariga esa, gaz tarkibi, sho‘rlik, mineralizatsiya va boshqa xususiyatlar kiradi [2; 8].

Abiotik tashqi omillarga birinchi navbatda baliqlar yashaydigan suv muhitidagi harorat, suvda erigan gazlar (kislorod, karbonad angidrit), pH, sho‘rlik darajasi va boshqalar kiradi.

Baliqlar butun hayoti davomida suvda yashaydigan asosiy hayvonlardir.
Suv ularni oziq-ovqat va kislorod bilan ta’minlaydi, metabolik mahsulotlarni olib ketadi, shuning uchun atrof-muhitdagi suvning fizik-kimyoviy xususiyatlari qaysiki, baliqchilik xo‘jaligining samaradoligini belgilovchi eng muhim omillardan biri sanaladi [1].

Baliqchilikda havzalarida suvdan foydalanishdan oldin gidrokimyoviy, toksikologik va ixtiopatologik keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak, shuningdek suvni foydalanishga tayyorlash usullarini (aeratsiyalash, tozalash va h.k.) normal holatga keltirish lozim. Suv sifatini normada saqlab turish uchun, bir qancha muhim jihatlar mavjud. Suv sifatining asosiy parametrlaridan, bular –harorat, erigan kislorod, suvning pH reaksiyasi, organik va noorganik moddalar birikmalari [5].

Harorat. Suvning harorati baliqlarni o‘sish tezligini, voyaga yetishish davrini, oziqlanish me’yorini va boshqa hayotiy jarayonlarni belgilaydigan asosiy abiotik omil hisoblanadi. Xususan, o‘sish sur’ati harorat muhitiga bevosita bog‘liq. Bundan shuni aniqlash mumkinki, suv haroratining ma’lum chegaragacha ko‘tarilishi bilan, baliqlarning o‘sishi tezlashadi, haroratni pasayishi bilan sekinlashadi [5].

Suvning harorati - tashqi muhitning universal va hal qiluvchi ekologik omillardan biridir. Chunki baliqlar poykiloterm (sovuq qonli) organizm bo‘lib, ularning aktivligi suv haroratiga bog‘liq bo‘ladi.

Bizning faunamizdagi sazan, karp, karas, lin, oqdo‘ngpeshona, oq amur, singari iliqsevar baliqlar suvning harorati 17-25 ^{o}C gradus selsiy bo‘lganda ancha intensiv oziqlanadi, harorat tushgan sari baliqlarning oziqlanish aktivligi pasayadi. Qishda ba’zi baliqlar oziqlanishdan

to‘xtaydi va ular qishni suv havzasining chuqur joylariga tushib kam harakat holatda ba’zida anabioz holda o‘tkazadi. Yilning iliq bahor va yoz fasllarida ko‘payadi.

Salqinsevar baliqlar uchun optimal yashash harorati 8 dan 16 ^{o}C gacha bo‘ladi. Baliqlar qishda ham oziqlanishda davom etadi. Kuz va qish oylarida (ko‘pchilik lososimonlar baliqlar) tabiiy ko‘payadi. Ko‘pchilik forel balig‘ining ekologik formalari, taymenlar bahori faslida suv harorati ko‘tarilganda oziqlanish aktivlig yo‘qoladi. Bu baliqlar past suv haroratida organimzi ancha intensiv ishlaydi [8].

Karp baliqlari uchun 10 dan 25 16 ^{o}C darajagacha optimal hisoblanadi. Suvning harorati 20-26 ^{o}C daraja bo‘lganda, karp baliqlari beriladigan ozuqani yaxshi o‘zlashtiradi, eng yuqori o‘sish jadalligi suvning harorati 25-27 ^{o}C darajaga yetganda kuzatiladi.

Kislorod. Suvda erigan kislorod miqdori suv havzasida bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ladigan ikkita jarayonga bog‘liq. Bir tomondan bu suvni kislorod bilan boyitadigan jarayondir. Bularga o‘simlik fotosintezi, shuningdek atmosfera havosidan qabul qilinadi, boshqa tomondan suvdagi erigan kislorod miqdorini kamaytiradigan turli oksidlanish (organik moddalarni oksid) jarayonidir.

Suv havzalarida erigan kislorod suv o‘tlarning kunduzi fotosintezi hisobidan shakllanadi, tunda barcha tirik organizmlar tomonidan o‘zlashtiriladi.

Suvda kislorod yetishmasa baliqlar suv yuzasiga ko‘tarilib, og‘zi orqali havo oladi. Kislorod yetishmaydigan suvlarda baliqlar ko‘p yashamaydi. Shuning uchun ham yoz oylarida hovuzlarda suvning haddan ziyod qizib (32 ^{o}C yuqori) ketishi, suvdagi organik moddalar (ammmoniy azot, ammiak, karbonad kislota, fosfor, vodorod sulfid va xk) miqdori me’yoriy ko‘rsatkichlardan ortiqcha bo‘lishi, hovuzlarning baliqlantirish soni juda zich bo‘lsa, qish mavsumida suv havzalarining usti muzlab, muz ostida kislorod yetishmay qolishi natijasida, baliqlarni massaviy nobud bo‘lishiga (zamor) olib keladi.

Suv hayvonlarining nafas olish xususiyatlari suvning turli xil fizik va kimyoviy, hamda yashash joyining havosiga asoslangan. Suvning zichligi, havoning zichligiga nisbatan 780 maratoba zichroqdir. Suvning yopishqoqlik xususiyati ham ancha yuqori. Havoga nisbatan suvdagi kislorod diffuziya koeffitsenti 10000 marta kam. Diffuziya tezligining suv va havoda turlicha bo‘lishi, ularda kislorod saqlanishi bir biridan farq qiladi. Bir litr havo tarkibida o‘rtacha 210 mg kislorod mavjud bo‘lib, bir litr suvda esa, bor yo‘g‘i 6,4 mg kislorod saqlaydi (20 ^{o}C haroratda), ya’ni 33 marta kam.

Kislorod miqdori suvning harorati bilan chambarchas bog‘liq. U suvda karbonad angidritga nisbatan 28 marta va azotga nisbatan esa 2 marta qiyin eriydi. Sho‘r va dengiz suvida chuchuk suvga qaraganda kam eriydi [3] .

Harorat ko‘tarilishi bilan suvda erigan gazlar miqdori kamayadi. Dengiz va okeanlardagi gaz rejimi chuchuk suv havzalariga nisbatan ancha barqaror bo‘ladi.

Har bir baliq turining hayoti ma’lum bir bir miqdordagi suvda erigan kislorodga moslashgan. Lasosimon baliqlar katta miqdordagi kislorod talab qilsa, karpsimon baliqlar (karas, lin) kam miqdorda bor yo‘g‘i 0,5 mg/l kislorod yashashi uchun yetarli hisoblanadi.

Suvning erigan kislorod bilan to‘yinganligi darajasi yoz va qish oylarida ham iliqsevar baliqlar urchitiladigan hovuzlarda 6 mg/l dan, salqinsevar baliqlar urchitiladigan hovuzlarda esa 8 mg/l dan yuqori bo‘lishi maqsadga muvofiq. Erigan kislorod miqdori ushbu chegaralardan kamayib ketganda baliqlarning ishtahasi yo‘qoladi, natijada o‘sishi va umumiy fiziologik holati yomonlashadi [5].

Vodorod ionlari konsentratsiyasi (rN). Vodorod indeksi pH, atrof muhitning asosiy omillardan biri sanaladi. Vodorod ko‘rsatkichi pH suvdagi vodorod ionlar soni va suvdagi muhitni kislotali, neytral va ishqoriy ekanligini belgilaydi. Tushinish qulay bo‘lishi uchun: neytral suvda pH 7 atrofida, kislotali suvda pH 7 dan past (qaysiki kislota ko‘p), ishqorli suvda pH 7 dan baland bo‘ladi. Ko‘pchilik baliqlar uchun vodorod ko‘rsatkichi pH neytral muhit qo‘lay hisoblanadi. Karpsimon baliqlar uchun optimal pH ko‘rsatkichi 7,5-8,5 oralig‘ida bo‘lganligi ma’qul.

Suvda turli reaksiyalar natijasida pH ko‘rsatkichi har mavsum yoki butun sutka davomida doimo o‘zgarib to‘radi. Ayniqsa yozda elodeya, rdest, ko‘kyashil va sochsimon suvo‘tlarning jadal o‘sishi va fotosintez jarayoni faolligi oshganda pH ko‘rsatkichi 8-8,8 gacha ko‘tariladi. So‘ndirilmagan ohak, gipoxloridkalsiy, mis kuporosi va gerbitsidlar kislotali muxitni neytrallaydi, bu degani suvdagi pH ko‘rsatkichini ko‘taradi.

Suvning umumiy mineralizatsiyasi (tuz tarkibi) - suvdagi erigan moddalarning (neorganik tuzlar, organik moddalar) umumiy miqdorining ko‘rsatkichi. Shuninder bu ko‘rsatkich, suvda erigan qattiq moddalar yoki tuzlar deb ham ataladi. Tuzlar deb - oddiy yoki murakkab tuzilishga ega, metal kationi + va kislota qoldig‘iga OH aytiladi. Suvda erigan gazlar suvning umumiy mineralizatsiyasiga kirmaydi. Dunyoda ingliz tili suvning umumiy mineralizatsiyasi “umumiy erigan zarrachalar miqdori” - Total Dissolved Solids (TDS). Suvning umumiy mineralizatsiyasi TDS metr yordamida aniqlanadi.

Erigan moddalarning miqdori bo‘yicha tabiiy suvlar shartli ravishda 3 guruhga bo‘linadi: chuchuk, sho‘rxok va sho‘r. Chuchuk suv tarkibida 1 g/l gacha, sho‘rxok suv tarkibida 1-15 g/l, sho‘r suv tarkibida 15-40 g/l erigan tuzlar bo‘ladi. Baliqchilik xo‘jaligida suv sifati umumiy qattiqligi bilan baholanadi. Dengiz va chuchuk suv havzalaridagi suvlar o‘zlarining tarkibidagi tuzlar miqdori bilan bir – biridan farq qiladilar. Dengiz suvlarida asosan xlorli tuzlar erigan holatda bo‘ladi. Chuchuk suv havzalarida esa karbonat va sulfat tuzlari ko‘p bo‘lib, ular suvning “qattiq” yoki “yumshoq” ligini belgilab beradi.

Biotik omillar. Atrof muhitning biotik omillari – bu yashash shariotida tirik organizlarning bir biriga umumiy ta’siri. U barcha tirik organizmlarni tur ichida va turlararo o‘zaro aloqa shakllarini o‘z ichiga qamrab oladi [6].

Baliqlarga ta’sir etuvchi biotik omillarni tur ichida, turlararo va shuningdek boshqa suv hayvonlari bilan (gidrobiontlar) o‘zaro ta’sir qismlarga ajratish mumkin [7].

Baliqlar suv havzasida boshqa gidrobiontlar bilan turli aloqalarga kirishadi. Bu aloqalar muayyan bir tur vakillari orasida (tur ichidagi aloqa) yoki boshqa tur vakillari (turlararo aloqa)

hamda sistematik boshqa guruhlar o‘zaro ta’sir doirasida paydo bo‘ladi. Baliqlardagi turli-tuman o‘zaro aloqa shakllari oziqlanish (simbioz yoki raqobat, yirtqich va o‘lja, parazit va ho‘jayn) va himoyalanish (baliq to‘dalarini shakllanishida, avlodlariga g‘amho‘rlik qilish) jarayonida shakllanadi [3].

Akvakultura tarzda samarali baliq yetishtirishga ta’sir qiluvchi biotik omilar qo‘yidagilarga bo‘linadi;

- monokultura – bir turdagi baliqlarni boqish (karp, forel, osyotr);
- polikultura – bir qancha turdagi baliqlarni birgalikda yetishtirish;
- kannibalizm;
- yashash va oziqlanish sharoitida raqobat;
- baliqlantirish zichligi;
- oziqlantirish;
- hayotchanlik;
- baliq to‘dasining vazn-o‘lcham strukturasi;
- ozuqaviy o‘zaro aloqa;
- saralash;
- baliq dushmanlari – yirtqich baliqlar, hayvonlar (norka, ondatra), qushlar va boshqalar;
- kasallik va parazitizm.

Hovuz baliqchiligida tovar baliq yetishtirishda baliqlarni o‘sish va rivojlanishida o‘zaro aloqasida biotik omillardan biri hisoblangan polikultura omilining ta’siri katta ahamiyatga ega.

Polikultura — hovuzda bir necha turdagi baliqlarni birgalikda yetishtirish. Hovuz baliq mahsuldorligini oshirishning muhim usullaridan biri hovuzda o‘stirilayotgan baliq turlari sonini kengaytirishdir. Polikultura ming yillik tarihga ega baliqchilikning bir formasi. Xitoy va boshqa Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlar baliqchiligida, ming yillik an’analargaga ko‘ra hovuz va boshqa suv havzalarda, yuqori mahsuldorlikka erishish imkonini beruvchi polikulturada turli kombinatsiyalashgan baliq turlarini yetishtirish. Yevropa davlatlarida polikultura usuli tabora keng tarqalmoqda, bu yerda karpni o‘txo‘r baliqlar bilan birgalikda yetishtirish hovuz baliq mahsuldorligini 25-30% gacha oshirish mumkin.

Polikultura usulida baliq yetishtirishning afzalliklari:

- monokulturada yetishtirilgan baliqlar havzaning tabiiy ozuqa bazasidan yetarlicha foydalana olmasligi;

- oziqlanishida konkurent bo‘lmasligi, ikki tur baliqni bir hil oziqlanmasligi;

- ba’zi baliq turi boshqa turning axlati (ekskremint) bilan oziqlanishi mumkin masalan: tilyapiya, karp va oqdo‘ngpeshona

- bir necha turdagi baliqlarni birgalikda boqish, hovuzdagi tabiiy ozuqalardan to‘la foydalanish imkonini beradi.

- profilaktika tadbiri sifatida, chunki turli xildagi baliqlar bir kasallik bilan har xil darajada chalinadi.

Hovuz baliqchiligida bitta tur baliq dominant bo‘lib, qolganlari esa qo‘shimcha tur hisoblanadi. Baliqlantirish variantini baliqchi xo‘jalikdagi mavjud ozuqaga qarab tanlaydi.Agar xo‘jalikda dominant tur sifatida oq do‘ngpeshona tanlansa, bunday paytda baliq ozuqasi, asosan fitoplanktonlar bo‘ladi. Buning uchun organik va mineral o‘g‘it asosiy manba hisoblanadi. Agarda oq amur tanlansa, unda asosiy ozuqa yashil o‘simlik (o‘t, qamish, ryaska, azola, volfiya) hisoblanadi. Siz karpni tanlasangiz, unda tabiiy ozuqa va omuxta yemga asoslanasiz.

Isroilda karp, oq do‘ngpeshona, tilyapiya, kefal birgalikda yetishtiriladi, qaysiki polikulturada karpning ulishi 80% atrofida. O‘zbekistonda esa polikultura asosida karpni oq do‘ngpeshona va oq amur bilan birgalikda yetishtiriladi.

Antropogen omillar ta’siri. Inson xo‘jalik faoliyati daryolar, ko‘llar va dengizlarning suv resurslaridan kompleks foydalangan holda baliq zahiralarining ko‘payishida katta ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi vaqtda mamlakatning ichki suv havzalaridan nafaqat baliqchilik, balki xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari ham foydalanmoqda [9].

XULOSA. Shunday qilib, so‘nggi bir necha o‘n yilliklarda akvakulturaning atrof-muhitiga ta’siri oshib bormoqda. Rivojlanishning ushbu tarmog‘i suvda organik moddalar va xo‘jalik chiqindilarning to‘planishi, baliq xo‘jaliklarining tabiiy suv havzalardagi sanoat ov baliqchiligiga ta’siri, shuningdek baliqchilik xo‘jaliklarining joylashishi to‘fayli atrof-muhitning yomonlashishi bilan bog‘liq ekologik muammolarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Insonning xo‘jalik faoliyati ekologik tizimlarning holatiga ta’sir qiladi. Insoniyatning o‘ziga xos ekologik tizimi mavjud bo‘lib, u boshqa ekologik tizimlarga ta’sir qiladi. Muayyan bosqichlarda ekologik tizimlar antropogen ta’sirning hujumini ushlab turishga qodir [4]. Baliqlarni yetishtirish sharoitlari va ularga ta’sir etuvchi abiotik va biotik omilalar o‘zaro ta’sir aloqasini yaxshi bilish, suv havzalaridagi biologik jarayonlarni va baliq mahsuldorligini oshirishni muvaffaqqiyatli boshqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бессонов Н.М., Привезенцев Ю.А. Рыбохозяйственная гидрохимия. -М.: Агропромиздат, 1987. – 160 с.

2. Гаджиев Р.В., Джафорова С.К., Мамедов Ч.А. Экология рыб. Учебник. Баку, Издательство «Бакы Университети», 2017, 256 с.

3. Григорев С.С., Седова Н.А. Индустриальное рыбоводство. В 2 ч. Ч. 1. Петропавловск-Камчатский: Камчат ГТУ, 2008. – 186 с.

4. Дуктов А.П., Лавушев В.И. Экология аквакультуры. Курс лекций: учебно-методическое пособие – Горки : БГСХА, 2022. – 103 с

5. Норбоев Б.Б. Зарафшон дарёси сув ҳавзаларида товар балиқ етиштиришда венгер карп балиқ зотидан самарали фойдаланиш. Дис. қ.х.ф.ф.д. (PhD). Самарқанд – 2022. – 136 б.

6. Сунъий интелект Google қидирув тизимидан

7. Усов М.М., Усова О.В. Экология рыб: учебно-методическое пособие / Горки : БГСХА, 2023. – 138 с.

8. Хрусталев Е.И., Курапова Т.М., Гончаренок О.Е., Чебан К.А. Корма и кормление рыб в аквакультуре: учебник для СПО.- 3-е изд., стер. – Санкт-Петербург: Лан, 2023, - 388 с.

9. http://rybpro.ru

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

ГЕОМЕТРИК ТУГУНЛАРНИНГ ЙИҒМА ЧИЗМАЛАРИ ВА УЛАРНИ ДЕТАЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Холдарова Дилзода Усмонжон кизи
магистрант КДУ
E-mail: xoldarovadilzoda@gmail.com
Telefon:+998911538786

Аннотация. Илмий мақолада муҳандислик графикасига тегишли бўлган умумий кўриниш чизмалари ва йиғиш чизмалар бўйича йиғма бирликларни деталларга ажратиш амали асосида “тугун” назарияси ётишлиги ва бу наза-риянинг графика амалиётида қандай қўлланилиши ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: йиғма бирлик, умумий кўриниш чизмаси, арқон тугуни, текис эгри чизиқ тугуни, орнамент тугуни, тугун предикат, техник қурилма туганаги, ёғоч конструкция туганаги, туганак детали, умумий кўриниш чизма-си асосида йиғма бирликни деталларга ажратиш (деталлаштириш).

Аннотация. В научной статье освещен материал, связанный с чертежами общего вида, с тем, что под действием деталировки на основе сборочного чертежа сборочной единицы, лежит теория узлов и применением этой теории к практике графики.

Ключевые слова: сборочная единица, чертеж общего вида, веревочный узел, узел плоской кривой линии, узел в орнаменте, узловой предикат, узел технического устройства, узел деревянной конструкции, деталировка сбороч-ной единицы на основе ее чертежа общего вида.

Annotation. The scientific article highlights the material related to general drawings, with the fact that under the influence of detailing based on the assembly drawing of an assembly unit, the theory of nodes and the application of this theory to the practice of graphics lies.

Keywords: assembly unit, general view drawing, rope knot, flat curve line knot, ornament knot, nodal predicate, technical device node, wooden structure node, detailing of the assembly unit based on its general view drawing.

КИРИШ. Татбиқ жойига қараб, ***“тугун”*** сўзи ҳар хил жойда ҳар хил нарсани англатавериши мумкин. Масалан:

– тўқимачилик ва тикувчиликда (1-расм) – ип учларини боғлаб (тугиб) ҳосил қилинган ***тугун;*** рўзғорда – йўқлов учун белбоққа нарсалар солиб, белбоғнинг қарама-қарши учларини ўзаро боғлаб ясалган ***тугун*** (бўғча);

– математикада – қутб координаталаридаги тенгламаси $\rho = a \operatorname{ctg} k\varphi$ кў-ринишида бўлган текис эгри чизиқлар (2-расм: а, б, в) оиласини ташкил этув-чи ***тугунлар*** [4];

орнаменталистикада – симметрия, ритм, цикл каби талаблар асосида нуқта ҳаракати натижасида пайдо бўлган ёпиқ эгри чизиқ (3-расм);



б)

3-расм.



а) б) в)

4-расм.

– топологияда – бир ўлчовли сфера (айлана) нинг уч ўлчовли Эвклид фазосига ётқизилиши (4-расм), ***тугунлар назарияси*** нинг асосий ғояси; ге-ометрияда – элементар жуфтликлар орасидаги устма-устлик (≡), ўтишлик (⊃), ётишлик (⊂), кесишув (∩) каби ҳодисалар натижасини ифода этувчи гоно-метрик ва лонгометрик предикатлар билан бирга ***тугун предикатлар*** [2]***;***

– техникада – машина ёки механизмда аниқ бир техник вазифани адо эттиришга мўлажаллаб бир нечта деталдан иборат ҳолда ясалган алоҳида қисм (5-расм), йиғма бирлик (***узел –*** тугунак, тугун); қурилиш чизмачилигида (6-расм) – ёғоч конструкциялар (фермалар) ва дурадгорлик буюмларидаги бир нечта деталнинг махсус бирикмаси (***узел*** – тугунак) ва ҳ.к.



5-расм.

а)



б)

6-расм.

Тугунларни таҳлил қилиш ва тадқиқ этиш ишлари уларнинг қайси со-ҳага оидлигига қараб, ўша соҳага хос илмий усулларда амалга оширилади. Хусусан,

муҳандислик графикасида тугун йиғма бирлик деб қаралади ва йиғ-ма чизмаси асосида ўша бирликнинг деталларга ажратилиши тугунга оид масаланинг ҳал этилиши деб баҳоланади.

АДАБИЁОТЛАР ТАХЛИЛИ. Деталлаштириладиган тугунлар сифатида, мисол учун, ёғоч конструк-цияларда қўлланиладиган тугунакларни олайлик. Ёғоч конструкцияларда қўлланиладиган тугунакларнинг геометрик жиҳатдан энг қизиқарлилари ва таҳлил қилиш пайтида кишини бир мунча ўйлашга ундайдиганлари кўпроқ А.С. Пугачёвнинг “Чизмачилик бўйича бошқотиргич масалалар” [5] китобида мавжуд. А.С. Пугачёв китобидаги туганакларга оид масалаларни ечишга киришишдан олдин ёғоч конструкциялар ҳақида, уларнинг таркибидан ўрин олган тугунаклар ҳақида қичқа тўхтаб ўтиш маъқул ҳисобланади.

Абдурахманов Ш., Бутаев А. “Развитие критического мышления через пространственное представление и техническое рисование “ maqolasida, Бирюков Б.В. “Жар холодных чисел и пафос бесстрастной логики. Фор-мализация мышления от античных времен до эпохи кибернетики” асарида

Математика терминлари изоҳли луғати (В.А. Диткин таҳрири остида). Камолов М., Икромов Ж., Сайдалиев Р. ва бошқалар олимлар педагогик масъулият муаммосининг мураккаблиги ва кўп қирралилиги унинг моҳиятини, табиатини, тузилишини тушунишга, шунингдек уни ўрганиш усулларига ёндашганлар.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ: Маълумки, дурадгорликда кўпроқ кўндаланг кесими тўғри тўртбурчак шаклидаги ёғоч (рейка) ларни ўзаро бир-бирининг давомидек қилиб, “т” ҳар-фидек қилиб, “г” ҳарфидек қилиб, қийшиқ қилиб, учта рейкани уч қанотли паррак шаклида, учта рейканинг ҳар иккитасини ўзаро перпендикуляр ва-зиятда жойлаштириб бирлаштириш каби амалларни бажаришга тўғри келади. Дурадгорлик ҳунари вакилларининг маҳсулотларида бундай вазифалар ижросининг олиймақом намуналарини кўрамиз.

7- ва 8-расмларда иккита рейкани бир-бирининг давомидек қилиб бир-лаштиришда бирлаштирилаётган қисмларга қандай қиёфалар берилиши мум-кинлигига оид мисоллар келтирилмоқда. Бу ерда деталларнинг чизмалари юқорида тасвирларнинг қийшиқ бурчакли диметрия турида ва бирикмалар-нинг чизмалари қуйида тасвирларнинг фронтал проекция турида қайд этилмоқда.

ТАХЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР:



7-расм.



8-расм.



а) б) в) г)

9-расм.

9-а расмда иккита рейканинг “т” симон тарзда, 9-б расмда “х” симон тарзда, 9-в ва 9-г расмларда “г” симон тарзда бирлаштирилишига оид наму-налар кўрсатилмоқда. Бу ерда шу нарсани таъкидлаш мумкинки, расмлардаги деталлар ва бирикмаларнинг барчаси чизмаларнинг стандарт изометрия деб номланувчи турида тасвирланган. Шунингдек, 9-в ва 9-г расмлар асосида айтиш мумкинки, турли шартлар асосида рейкаларни бирлаштиришда бир-лаштирилувчи қисмлар қиёфасини танлашда ҳамма пайтда ҳам ечимларнинг кўплаб вариантларга эга бўлиши мумкинлиги ҳолати мавжуд. Бу фикрни мав-зуимизга оид илмий ва услубий адабиётлардаги намуналардаги кўп вари-антлилик ҳам тасдиқлайди [3].



а) б)

10-расм.

10-расмда учта рейкани уч қанотли паррак тарзида бирлаштириш вари-антлари келтирилмоқда. Бу ердаги чизмалар тасвирларнинг қийшиқ бурчакли горизонтал изометрия турида бажарилган.



а) б) в)

11-расм.

Рейкаларни бирлаштиришда уларнинг учтасидан ҳар иккитасини ўзаро перпендикуляр вазиятда жойлаштириб бирлаштириш кенг тарқалган ва жуда кўп вариантларда бажариш мумкин бўлган масалалардан ҳисобланади. 11-расмда учта рейканинг ҳар иккитасини ўзаро перпендикуляр вазиятда бир-лаштириш вариантларининг чизмалари келтирилмоқда. Бу ердаги чизма-лардан 11-а перспективада, 11-б қийшиқ бурчакли горизонтал изометрияда, 11-в стандарт изометрияда қайд этилган.



а) б) в)

12-расм.

Ёғоч конструкцияларнинг деталларини бирлаштиришга оид илмий ва услубий адабиётга мурожаат қилсак, усталар томонидан бундай бирлашти-ришларнинг жуда кўп тури ихтиро қилинган эканининг гувоҳи бўламиз. 12-а расмда кўндаланг кесими квадрат шаклидаги учта рейка марказдаги якка кубда бир-бири билан кесиштириб, сўнг ўтказиб

юборилгандек қилиб бирлаштирилган. 12-б расмда шундай иш бир хил ўлчамдаги учта тахтача мисолида ҳал қилинган. 12-в расмдаги конструкцияда худди шу масала тахтачалар эмас, балки бир хил ўлчамдаги тўғри тўртбурчак шаклидаги фанера бўлаклари воситасида амалга оширилган. Бу ерда, қўшимча равишда, яна шу нарсани қайд этиш мумкинки, фанералардан қирқиб олинадиган тўғри тўртбурчаклар “олтин тўртбурчаклар” бўлиб, улардан ҳар бирининг узун томони 1 га, қисқа томони 0,618 га тенг. Агар шу расмдаги тугунакни ташкил этиб турган тўрт-бурчакларга тегишли учлардан ўзаро яқин жойлашган ҳар учтасига тенг ёнли учбурчак ўтиргизилса, жами учбурчаклар икосаэдр ҳосил қилади.

6-а ва 6-б расмларда тасвирланган конструкциялар ҳақида ҳам шуларга ўхшаш фикрлар айтиш мумкин. Лекин мазкур тугунакларни деталлаштиришга келгусидаги мақолаларимиздан бирини бағишлашни ваъда қилган ҳолда, энди эътиборимизни А.С. Пугачёвнинг “Чизмачилик бўйича бошқотиргич масалалар” [5] китобидаги худди шундай айрим масалаларга қаратамиз.



а) б) в) г)

13-расм.

А.С. Пугачёв китобидан қуйидагидек масалалар ўрин олган: 1) берилган биргина проекцияси бўйича жисм қиёфасини аниқлаш – 9 хил масала; 2) жисм қиёфасини унинг учта кўриниши силуэти асосида аниқлаш – 11 хил масала; 3) ҳар хил шаклга эга учта тешик учун ягона тиқин констукциялаш – 12 хил масала; 4) учта проекциясига асосан симдан модел тайёрлаш – 36 хил масала; 5) берилган иккита проекцияси асосида жисм қиёфасини аниқлаш – 182 хил масала; 6) ёғоч конструкциялар тугунакларининг йиғма чизмаларини деталлаштириш – 11 хил масала.



а) б) в) г)

14-расм.

А.С. Пугачев китобидаги график масалаларга хос хусусият – уларнинг ҳар бири юксак даражада ижодий характерга эга ва ҳар бир масаланинг кўп ҳолда кўплаб вариантларда ечим қабул қила олишидадир. Мазкур илмий ма-қола мавзуси нуқтаи назаридан ўша масалаларнинг энг қизиқарлилари “Ёғоч конструкциялар тугунакларининг йиғма чизмаларини деталлаштириш” бўли-мида жойлашган.

13-расмда шу бўлимдан ўрин олган бир нечта график масала келтирил-моқда. Чизмаларнинг бари стандарт фронтал диметрияда бажарилган. Барча масала бир хил шартга эга: ёғоч конструкцияни деталларга ажратинг.

ХУЛОСА. Юқорида кўриб ўтилган мисоллар асосида шу нарсани айтиш мум-кинки, ёғоч конструкция тугунаги кўп ҳолда 2 ёки 3 та деталдан иборат, улардан бири маълум қиёфадаги ўйиқликка, бошқаси ёки бошқалари шу ўйиқликка қиёфадош бўлган суқма турумга эга бўлади. Ёғоч конструкцияни деталларга ажратишда ва деталларнинг қиёфаларини аниқлашда ана шундай мувофиқликни таъминлашга ҳаракат қилинади. 14-расмда 13-расмда берил-ган график масалаларни қай йўсинда ечиш мумкинлиги намуналари келти-рилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдурахманов Ш., Бутаев А. Развитие критического мышления через пространственное представление и техническое рисование //Ежемесячный научный журнал «Молодой ученый», 2011, №11 (34), Том II. – С.: 151 – 154.

2. Бирюков Б.В. Жар холодных чисел и пафос бесстрастной логики. Фор-мализация мышления от античных времен до эпохи кибернетики. – М.: Знание, 1985. – С.: 101 – 110.

3. Интернетдаги “Врубка”, “Соединение деталей деревянных конструк-ций” каби сайтларга қаранг.

4. Математика терминлари изоҳли луғати (В.А. Диткин таҳрири остида). Ўзбек тилига таржимонлар: Камолов М., Икромов Ж., Сайдалиев Р. – Тош-кент: “Ўқитувчи”, 1974. – 552 б.

5. Пугачев А.С. Занимательные головоломки по черчению. – Л.: Судостроение, 1965. – 191 с.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

QO‘LDA AJRATISH USULI ORQALI TEKSTIL TOVARLARINI MIQDORIY ANALIZI.

Bahrom Baturovich Dautov
Markaziy bojxona laboratoriyasi Bojxona ekspertizasi bo’limi boshlig‘i, kapitan
Baxtiyor Yormaxamatovich Abduganiyev
Bojxona instituti Bojxona nazorati kafedrasi professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada tekstil tovarlarini miqdoriy tahlil qilishda qo‘lda ajratish usulining qo‘llanilishi batafsil ko‘rib chiqiladi. Ushbu usul, to‘qimachilik mahsulotlarining tarkibini aniqlashda, turli xil tolalarni alohida ajratishga asoslanadi. Tadqiqotda ishlatilgan metodlar va usullar, shu jumladan mikroskopik tekshirish, spektroskopiya va laboratoriya tahlil usullari haqida ma’lumot berilgan. Tadqiqot jarayonining barcha bosqichlari, ishlatilgan materiallar va uskunalar, shuningdek, namunalarni tahlil qilishda qo‘llaniladigan aniq me’yorlar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье подробно рассматривается применение метода ручного разделения для количественного анализа текстильных товаров. Этот метод основан на выделении различных волокон из состава текстильных изделий. В исследовании приведены методы и способы, использованные для анализа, включая микроскопию, спектроскопию и лабораторные методы анализа. Описаны все этапы исследования, использованные материалы и оборудование, а также конкретные стандарты, применяемые при анализе образцов.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the application of the manual separation method for the quantitative analysis of textile products. The method is based on isolating different fibers in the composition of textile materials. The study presents the methods and techniques employed, including microscopic examination, spectroscopy, and laboratory analysis. It outlines all stages of the research process, the materials and equipment used, and the specific standards applied during sample analysis.

Kalit so‘zlar. Tekstil tovarlari, qo‘lda ajratish usuli, miqdoriy tahlil, laboratoriya tahlili, mikroskopik tekshirish, spektroskopiya, tola tarkibi.

Ключевые слова. Текстильные товары, метод ручного разделения, количественный анализ, лабораторный анализ, микроскопия, спектроскопия, состав волокон.

Keywords. Textile products, manual separation method, quantitative analysis, laboratory analysis, microscopic examination, spectroscopy, fiber composition.

Kirish.

To'qimachilik aralashmalari va to'qimachilik matolarining miqdoriy tahlili hozirgi vaqtda sanoat sharoitida alohida qiziqish uyg'otmoqda. Ushbu doirada IQ spektroskopiyasi foydalanish aralash mahsulotlarni tarkibini tez va aniq miqdoriy tahlil qilish uchun ssamarali hisoblanadi [1].

Bugungi kunda paxta va poliefir tolalaridan aralashtirilgan to‘qimachilik mahsulotlari bozorda katta ulushga ega. Ushbu aralashmalarning foydali xususiyatlari ularni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar orasida mashhur tanlovga aylantirgan [2].

Engil sanoat, ayniqsa to‘qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarish, jahon iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega tarmoq hisoblanadi. So‘nggi yillarda bir qator mamlakatlar ushbu sohada yuqori natijalarga erishib, xalqaro bozorda yetakchi o‘rinni egallamoqda. Xitoy dunyodagi eng yirik ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi davlat bo‘lib, to‘liq ta’minot zanjiri va arzon ishchi kuchi bilan ajralib turadi. Bangladesh tayyor kiyim-kechak sanoatida ikkinchi o‘rinda turadi va eksportining asosiy qismi Yevropaga yo‘naltirilgan. Vyetnam tez rivojlanayotgan mamlakatlardan bo‘lib, xalqaro savdo kelishuvlari orqali eksport hajmini oshirmoqda. Hindiston paxta xomashyosining yirik ishlab chiqaruvchisi sifatida to‘qimachilikning turli yo‘nalishlarini qamrab olgan. Turkiya sifat, tezkor yetkazib berish va Yevropa bozoriga yaqinligi bilan farq qiladi. Italiya va Ispaniya esa yuqori sifatli va modaga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishda yetakchilik qiladi [3 - 5].

Tayyor tikuvchilik mahsulotlari sohasi hozirgi kunda O‘zbekiston kabi Bangladesh iqtisodiyotining asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Sifatni ta’minlash tizimini takomillashtirish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [6 - 10].

Asosiy qism.

Ushbu usul qo‘lda ajratilishi mumkin bo‘lgan bir xil aralashmani hosil qilmaydigan barcha turdagi to‘qimachilik tolalariga nisbatan qo‘llaniladi.

Qo‘llaniladigan atamalar va qisqartmalar quyidagilar hisoblanadi:

Laboratoriya namunasi – tolali bo‘lmagan moddalardan tozalangan, laboratoriya tadqiqotlarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan namunaning bir qismi;

Elementar namuna – laboratoriya namunasidan olingan individual sinov natijasini olish uchun zarur bo‘lgan materialning bir qismi;

Tolali bo‘lmagan modda – kelib chiqishi tabiiy bo‘lgan tolali bo‘lmagan materiallar, moylash moddalari va yopishtiruvchi moddalar kabi texnologik qo‘shimchalar;

To‘qimachilik mahsulotining tarkibiy qismlarini aniqlagandan so‘ng, tolali bo‘lmagan materiallar to‘qimachilik mahsulotidan mos usul yordamida tozalaniladi, tolalar qo‘lda ajratiladi, quritiladi, tortiladi va har bir aralashmadagi tolaning tarkibi hisoblanadi.

Tadqiqotni o‘tkazishda amaldagi barcha reaktivlar analitik sof bo‘lishi kerak.

- Petroley efiri, qaynash oralig‘i 40^{o} C dan 60 ^{o}C gacha.

Kamida 3 daraja tozalikdagi suv:

3-darajadagi suv “Adrona” markali suv tozalash tizimi orqali tozalangan suv ishlatilgan. Tozaligi 3-darajaga keltirilgan suvning fizik ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan:

Xarakteristikasi	Tozaligi 1 daraja	Tozaligi 2 daraja	Tozaligi 3 daraja
25 °Cdagi rN	-	-	5,0…7,0
25 °C da nisbiy elektr o‘tkazuvchanlik, mkSm/sm	0,1	1	5
Kislorod (O_2) miqdori mg/l	-	< 0,08	< 0,4
Optik zichlik birligida, 10 mm kyuvetada 254 nm to‘lqin uzunligida nur yutilishi	< 0,001	< 0,01	-
110°C da qaynatib, bug‘latishdan so‘ng qolgan qoldiq, mg/kg	-	< 1	< 2
Kremniy (SiO2) miqdori, mg/l	< 0,01	< 0,02	-

Quyidagi qurilmalardan foydalanildi:

- 250 ml Soxlet ekstraktori.
- Eksikator indikatorli silikagel bilan.
- Namunalarni quritish uchun mo‘ljallangan quritgich 105^{o} C ±3^{o}C.
- Elektron laboratoriya tarozilari 0,0001 g.
- Suv hammomi.
- Agilent Cary 630 infraqizil spektrometr, o‘lchash diapazoni 4000 – 400 sm^{-1}.
- optik mikroskop.
- tortish uchun maxsus qopqoqlik shisha byukslar.
- slaydlar va qoplovchi oynalar.
- preparatsiya uchun ignalar.
- Qaychi.
- Pinset.
- Tolalarning sifat tahlili uchun idishlar.

Tolalarni identifikatsiya qilish quyidagicha amalga oshirildi:

Laboratoriyaga taqdim yetilgan namunadagi tolalarni sifat tahlildan o‘tkazish, uning qaysi tolalardan iboratligini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

Namuna olishda namunaga qo‘yiladigan bir nechta talablarni o‘z ichiga oladi.

Identifikatsiya uchun olingan namunalar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- tolalar yoki iplar bir xil turdagi tolalardan yoki ikki yoki undan ortiq tolalar aralashmasidan iborat bo‘ladimi;

- namuna ikki yoki undan ortiq ipdan iborat ikkilamchi, o‘ralgan yoki o‘ralgan ip bo‘ladimi, bu iplar bir xil yoki har xil bo‘ladimi va ularning har biri tolalar aralashmasidan iboratmi yoki yo‘qmi;

- to‘qilgan va trikotaj matolar bir xil yoki turli xil iplardan yasalganmi, ular ham bir yoki bir nechta turdagi tolalardan iborat bo‘lishi mumkin.

Har xil turdagi tolalar bir xil rangda yoki bir xil turdagi tolalar turli xil ranglarda bo‘yalgan bo‘lishi mumkin.

Ish jarayoni bir necha bosqichlar bo‘lindi va bosqichma bosqich amalga oshirildi.

Vizual tekshirish. Namuna tekshiriladi va uning shakli (bo‘shashgan iplar ,iplar, matolar, trikotaj va boshqalar) va ko‘rinishi o‘xshashlik baholanadi. Agar namuna to‘qilmagan yoki trikotaj material bo‘lsa, iplar matoni yirtish yoki kesish orqali ajratiladi. Mato bo‘lsa, arqoq va tanda iplari ajratiladi va alohida tekshiriladi. Agar ip rangi, porlashi, qalinligi yoki boshqa ko‘rinadigan xususiyatlari bilan farq qilsa, ularning har biri ham alohida tekshiriladi.

Mikroskopik tekshirish. Namunaning oz miqdorini pinset bilan slaydga qo‘yiladi, tolalarni ajratib olinadi, bir tomchi glitserin surtiladi, qopqoq oynasi bilan yopiladi va o‘tayotgan yorug‘lik mikroskopi ostida tekshiriladi.

Namunaning mikroskopik tasviri ISO/TR 11827 da berilgan tavsif va fotosuratlar bilan taqqoslanadi, shuningdek boshqa ma’lum mikroskopik tasvirlar bilan tekshiriladi.

Spektroskopik tekshiruv. Namunaning infraqizil spektrlari FT-IR Cary 630 qurilmasining foydalanuvchi qo‘llanmasiga muvofiq qayd yetiladi.

Olingan spektrlar FT-IR Cary 630 qurilmasining kutubxonasida taqdim yetilgan kimyoviy tolalar va tolalar aralashmalari spektrlari bilan taqqoslanadi.

Spektral tahlil ma’lumotlari FT-IR Cary 630 spektrometrining kompyuterida saqlanadi

Tadqiqotning o‘tkazish iqlim sharoiti.

Sinovlar namunaning quruq og‘irligiga asoslanganligi sababli, ular normal sharoitda amalga oshiriladi.

Sinov namunasini tayyorlash.

Oddiy xona sharoitida quritilgan namuna Soxlet apparatida petroley efiri bilan 1 soat davomida soatiga kamida 6 sikl chastotasi bilan ekstraksiya qilinadi. Namunani olib tashlaganingizdan so‘ng, petroley efirining bug‘lanishiga ruxsat beriladi.

Namunani 1 soat davomida sovuq suvda (1 g namunani taxminan 100 ml suvda) namlang va (65±5°) asta-sekin aralashtiriladi. Namuna siqiladi va xona xaroratida quritiladi.

Tolali bo‘lmagan moddalarni petroley efiri yordamida olib tashlash mumkin bo‘lmagan hollarda, ular tolaning tarkibiy qismlariga ta’sir qilmaydigan boshqa usullar bilan chiqariladi. Petroley efiri tarkibida elastan bo‘lgan tolali aralashmalarni olishda ham ishlatilmaydi.

Tahlil jarayoni. Taxminan 1 g og‘irlikdagi elementar namuna oldindan ishlov berilgan namunadan olinadi va tolalar tarkibi bo‘yicha qo‘lda ajratiladi.

Ikkinchi elementar namuna xuddi shu tarzda tayyorlanadi. To‘qimachilik mahsulotlarini tahlil qilishda har safar parallel tahlil o‘tkaziladi.

Namunalarni quritish, sovitish va tortish paytida namunalarga, byuksga, tigelga yoki namuna qoldiqlarga qo‘lqopsiz qo‘llar bilan tegish taqiqlanadi.

Namuna tortish byukslariga joylashtiriladi, qopqog‘i uning yoniga joylashtiriladi va pechda 8 soat davomida qopqog‘i ochiq holda quritiladi. Byukslar qopqog‘i bilan yopiladi va eksikatorda kamida 2 soat sovitiladi, tortiladi, keyin yana pechda 2 soat quritiladi. Yana eksikatorda kamida 2 soat sovitiladi va tarozida tortiladi. Agar ikkita tortish orasidagi farq namuna massasining 0,05% dan kam bo‘lsa, namunaning massasi doimiy hisoblanadi va quritish takrorlanmaydi. Agar vazndagi farq kattaroq bo‘lsa, namuna yana 1 soat davomida quritiladi, sovitiladi va tortiladi. Bu namunaning doimiy massasi olinmaguncha takrorlanadi. Quritish 105 S ±3 C da amalga oshiriladi.

Sovitgandan so‘ng (kamida 2 soat) namuna bilan 0,0001 g aniqlikda tortiladi. Tortish 2 daqiqada amalga oshiriladi.

Bo‘sh idish darhol tortiladi.

Natijalarni hisoblash va ifodalash

Har bir tola komponentining massasi tola aralashmasining umumiy massasiga nisbatan foiz ko‘rinishida ifodalanadi.

Sof quruq komponent quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$P_1 = 100 \times \frac{m_2 - m_1}{S}, \quad P_2 = 100 \times \frac{m_4 - m_3}{S}, \text{ bunda:}$$

P_1-birinchi sof quruq komponentning og‘irligi bo‘yicha foizi;

P_2-ikkinchi sof quruq komponentning og‘irligi bo‘yicha foizi;

S-birinchi va ikkinchi komponentlarning sof quruq massalarining yig‘indisi, g

m_1, m_3-bo‘sh quritilgan byuksning massasi, g;

m_2, m_4-byuksdagi quritilgan komponentning massasi;

$m_2 – m_1$ — birinchi sof quruq komponentning massasi, g;

$m_4 – m_3$-ikkinchi sof quruq komponentning massasi, g;

$$S = (m_2 – m_1) + (m_4 – m_3)$$

Komponentlarning massasi formulaga muvofiq namlik koeffitsiyenti bilan hisoblanadi:

$$P_{M1} = \frac{100 \times P_1 (1 + 0{,}01 a_1)}{P_1 (1 + 0{,}01 a_1) + (100 - P_1)(1 + 0{,}01 a_2)}, \; P_{M2} = \frac{100 \times P_2 (1 + 0{,}01 a_2)}{P_2 (1 + 0{,}01 a_2) + (100 - P_2)(1 + 0{,}01 a_1)}$$

P_{M1}, P_{M2} – namlik tarkibidan hisoblangan birinchi yoki ikkinchi komponentning foizi;

P_1, P_2 – birinchi yoki ikkinchi komponentning sof quruq komponentining og‘irligi bo‘yicha foizi;

a_1-birinchi komponentdagi namlik foizining koeffitsiyenti;

a_2-ikkinchi komponentdagi namlik foizining koeffitsiyenti.

Foiz sifatida ifodalangan ba’zi shartli namlik qiymatlari jadvalda ko‘rsatilgan.

№	Tolalarning nomlanishi	Namlik ko‘rsatkichi %

1.	Paxta	8,5
2.	Zig‘ir	12,0
3.	Rami (oqartirilgan tola)	8,5
4.	Haqiqiy nasha	12,0
5.	Mis-ammiak tolasi	13,0
6.	Modal tola	13,0
7.	Viskoza	13,0
8.	Liotsell	13,0
9.	Poliefir shpatel tolasi Poliefir iplar	1,50 1,50

Natijalar (ikkita parallel tadqiqot natijalarining o‘rtacha arifmetikasi) bitta kasr aniqligi bilan berilgan. Tadqiqot ma’lumotlari va natijalari ishchi jurnalda qayd yetiladi.

Tadqiqot hisoboti.

Sinov hisobotida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

Komponentlarning individual sinov natijalari va ularning arifmetik o‘rtacha ko‘rsatkichlari, bir kasr aniqligi bilan ifodalanganligi.

Natijalar quruq namuna uchun olinganligi, lekin belgilangan namlik bo‘yicha sanab o‘tilganligi (yoki natijalar quruq namuna uchun olinganligi, lekin belgilangan namlik va oldindan ishlov berish paytida olib tashlangan tolali bo‘lmagan moddalar bo‘yicha sanab o‘tilganligi) yoki mijoz tomonidan talab qilingan bo‘lsa, natijalar olinganligi haqidagi bayonot faqat quruq namuna uchun ko‘rsatiladi.

Natijalar butun materialdan yoki faqat uning tarkibiy qismlaridan biridan olinganligi haqidagi bayonot.

Sifat kafolati.

Takroriylik sharoitida usulning aniqligi ikki parallel natijalar orasidagi mutlaq farqni hisoblash orqali boshqariladi, bu esa takrorlanish chegarasi bilan taqqoslanadi. Qayta ishlab chiqarish sharoitida usulning aniqligi boshqaruv diagrammasi bilan boshqariladi. Diagrammadagi nazorat nuqtasi har 20 ta namunada, lekin kamida 3 oyda bir marta amalga oshiriladi. Nazorat materiali sifatida tegishli kompozitsiyaning sotib olingan materiali savdoda qo‘llaniladi.

Har besh yilda malaka tekshiruvlarida (PT) yoki laboratoriyalar-aro taqqoslashlarda (ILC) qatnashiladi.



1-rasm. Oqsil asosli iplarning IQ-spektri.

Oqsil asosli iplarning IR-spektri tahlili quyidagicha:

Spektrda ko'rinadigan asosiy chiziqlar oqsil tarkibiga va uning molekulyar tuzilishiga mos keladi. Bu spektrda amalda oqsilning asosiy guruhlarining vibratsiya signallari, ayniqsa N–H, C=O va CH guruhlarining vibratsiyalari aniqlanadi.

~3295 cm^{-1} - bu joyda keng va kuchli signal N–H cho'qqilari bo'lib, oqsil molekulasidagi amin guruhlariga xosdir. Bu signal oqsil ichida amin guruhlarining mavjudligini ko'rsatadi. ~1632-1633 cm^{-1} - bu joyda karbonil (C=O) guruhining vibratsiyalari joylashgan. Oqsil molekulasida peptid bog'lanishining asosiy signali, ya'ni amidayz bog'lanishi bo'lib, oqsil strukturasining muhim belgisidir. ~1516 cm^{-1} - bu joyda N–H deformatsion va aromatik guruhlar vibratsiyalari bo'lishi mumkin. Oqsil tarkibida amin guruhlarining deformatsion vibratsiyasi yoki aromatik guruhlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. ~1452-1451 cm^{-1} - CH_2 va CH_3 guruhlarining deformatsion vibratsiyalari ushbu joyda ko'rinadi, bu esa oqsil molekulasining organik qismlarini ifodalaydi. ~1240-1248 cm^{-1} - bu joyda C–N, C–O bog'lanishlariga xos vibratsiyalar bo'lishi mumkin. Oqsil ichida amidayz va boshqa bog'lanishlar bilan bog'liq. ~1537-1550 cm^{-1} - bu joyda amidayz guruhining deformatsion vibratsiyalari yoki aromatik guruhlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Oqsil asosli iplarning IR-spektrida asosiy belgilovchi signallar N–H (3295 cm^{-1}) va C=O (1632-1633 cm^{-1}) guruhlarining vibratsiyalaridir, bu oqsil molekulasining peptid bog'lanishini anglatadi. Aromatik va organik guruhlarning vibratsiyalari spektrda ko'rinadi (1516, 1452-1451, 1240-1248, 1537-1550 cm^{-1}). Spektr yordamida oqsil tarkibi va molekulyar tuzilmasi haqida muhim ma'lumotlar olinadi, ayniqsa, oqsilning tozaligi va tarkibini baholash uchun.



2-rasm. Poliefir asosli iplar IQ-spektri.

Poliefir asosli iplarning IR-spektri tahlili: Spektrda asosiy chiziqlar poliefirning kimyoviy tuzilishi va tarkibiy qismlariga mos keladi. Asosiy vibratsiyalar karbonil (C=O), CH_2 guruhlarining vibratsiyalari va bog'lanishlar bilan bog'liq.

~2959-2958 cm^{-1} - CH_2 guruhlarining vibratsiyasiga mos keladi. Bu spektrda organik guruhlar va metil, metilid guruhlar mavjudligini ko'rsatadi. ~2859-2850 cm^{-1} - bu joyda CH_2 guruhlarining deformatsion vibratsiyalari bo‘lishi mumkin, ip tarkibidagi alkogruhlarga ishora qiladi. ~1716-1717 cm^{-1} - bu joyda karbonil (C=O) guruhining kuchli, keng spektral signali joylashgan. Poliefirlarning asosiy xususiyati bo‘lib, efir bog‘lanishiga xos. ~1462-1472 cm^{-1} - CH_2 va CH_3 guruhlarining deformatsion vibratsiyalari. ~1249-1240 cm^{-1} - bu joyda C–O va efirlarga xos vibratsiyalar mavjud, poliefir tuzilmasining bog'lanishlarini ko‘rsatadi. ~1018-1010 cm^{-1} - C–O bog‘lanishlarining deformatsion vibratsiyalari, bu poliefirlarning asosiy bog‘lanishlaridan biri. ~956-957 cm^{-1} va ~837-835 cm^{-1} - bu joylar C–O bog'lanishlarining deformatsion vibratsiyalari yoki aromatik guruhlar bilan bog'liq bo‘lishi mumkin. ~374-374 cm^{-1} - bu joyda nozik signallar bo‘lib, ular ba’zan bog'lanishlarning deformatsion vibratsiyalariga mos keladi.

Poliefir asosli iplarning IR-spektrida karbonil (C=O) guruhining kuchli va keng spektral signali (1716-1717 cm^{-1}) asosiy belgi hisoblanadi. CH_2 guruhlarining vibratsiyalari spektrda aniq ko'rinadi (2959-2850 cm^{-1}). C–O bog'lanishlari va deformatsion vibratsiyalar spektrda ko‘rinadi (1249-1010 cm^{-1}). Spektrda efir bog‘lanishlariga xos signallar mavjud, bu poliefirning asosiy xususiyatidir.



3-rasm. Polipropilen asosli iplar IQ-spektri.

Polipropilen asosli iplarning IR-spektri tahlili:

IR-spektrda polipropilenning kimyoviy tarkibi va molekulyar tuzilishi haqida ma'lumotlar mavjud. Spektrda asosiy vibratsiyalar, ayniqsa, CH_2 guruhlarining deformatsion va vibratsion signallari, shuningdek, molekulaning strukturasiga xos bo‘lgan signallar aniqlanadi.

~2914 cm^{-1} - CH_2 guruhlarining simmetrik va deformatsion vibratsiyalari. ~2851 cm^{-1} - CH_2 guruhlarining deformatsion vibratsiyasi. ~1450-1460 cm^{-1}- CH_2 guruhlarining deformatsion vibratsiyalari. ~1375-1376 cm^{-1}- CH_3 guruhlarining vibratsiyalari, agar mavjud bo‘lsa.

Polipropilen iplarning IR-spektri asosida CH_2 guruhlarining vibratsiyalari aniq ko'rinadi, ularning simmetrik va deformatsion vibratsiyalari spektrda mavjud. Spektrda karbonil (C=O) signali yo'q, bu polipropilenga xos bo‘lib, u kimyoviy tarkibida efir yoki karbonil guruhining mavjud emasligini ko‘rsatadi. CH_2 guruhlarining vibratsiyalari asosiy signal bo‘lib, molekulaning strukturasi va tarkibi haqida muhim ma'lumot beradi.

Xulosa. Qo‘lda ajratish usuli metodika, to‘qimachilik mahsulotlarining tarkibidagi tolali bo‘lmagan moddalarni ajratish uchun qo‘llaniladi. Bu jarayon mikroskopik va spektroskopik tahlillar yordamida amalga oshiriladi. Namuna olish va tahlil qilishda aniq talablar belgilangan, tolalar yoki iplar sifat tahlildan o‘tkaziladi.

Sinov jarayonida faqat yuqori sifatli reaktivlar va uskuna ishlatiladi. Natijalar sinov hisobotida taqdim etiladi, bu esa usulning aniq va qayta ishlanishini ta’minlaydi. Ushbu metodika to‘qimachilik mahsulotlarini identifikatsiya qilishda yuqori aniqlikni va sifat nazoratini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. C.Ruckebusch, F.Orhan, A.Durand, T.Boubellouta, Jean-Pierre Huvenne/Quantitative Analysis of Cotton–Polyester Textile Blends from Near-Infrared Spectra/ Researchgate. June 2006. Applied Spectroscopy 60(5):539-44 DOI:10.1366/000370206777412194.

2. M.Kahoush, N.Kadi/Towards sustainable textile sector: Fractionation and separation of cotton/ polyester fibers from blended textile waste /Sustainable Materials and Technologies Volume 34, December 2022, e00513

3. Working Today to Shine Tomorrow, BKMEA magazine published by iART, Page-04, (2014).

4. Ahmed, M., & Ahmad, N. (2011). An application of Pareto analysis and cause-and-effect diagram (CED) for minimizing rejection of raw materials in lamp production process. Management Science and Engineering, 5(3), 87-95.

5. Shafiq, M. (2012). Implementation of quality management systems and business excellence frameworks in Pakistani textile companies. Journal of Quality and Technology Management, 7(2), 11-23.

6. Saluja, Mohit, “Importance of Quality in Today’s Textile”, www.fibre2fashion.com

7. Hasin, Akhtar, Dr. M.Ahsan, Quality Control and Management; Bangladesh Business Solution; Page No 3; (2007) https://qualityinspection.org/four-simple-steps-for-starting-to-do-quality-control

8. ISO 9000 standard, clause 3.2.11

9. Rahman, M. M., &Masud, A. K. M. (2011). Quality Improvement in Garments Industry Through TQM Approach. In Proceedings of the International Conference on Mechanical Engineering, ICME11-RT (Vol. 44).

10. Bounds, G. M. (1994). Beyond total quality management: Toward the emerging paradigm. McGraw-Hill College.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK: 1963

ORCID: 0009-0007-9328-3984

BURCHOQDOSHLAR (*FABACEAE*) OILASIGA MANSUB FASOL O‘SIMLIKLIGINING MAHSULDOR VA ROVOT NAVLARI MORFOLOGIK TAVSIFI VA FENOLOGIYASI

Umirzaqova Gulmira Egamberdi qizi

Termiz davlat pedagogika instituti,

Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi

(Biologiya) mutaxassisligi 2-kurs magistranti.

gulmiraumirzaqova29@gmail.com

+998 91 908-08-49

ANNOTATSIYA: Fasolning Mahsuldor va Rovot navlarini Surxondaryo viloyatida ekib o‘stirilib, fenologik fazalari kuzatildi. O‘simlikning Mahsuldor navi may oyining boshidada g‘unchalaydi, 5-6 mayda gulga kiradi, gullash fazasi 7-15-iyungacha davom etadi, meva va urug‘lari 5-7 iyulgacha pishib yetiladi.

Rovot navi may oyining birinchi o‘nkunligining oxiriga borib g‘unchalay boshladi, gullash fazasi 8-13 maydan 10-18 iyunga qadar davom etadi, meva va urug‘lari iyul oyining birinchi o‘nkunligigacha pishib yetiladi.

KALIT SO‘ZLAR: Mahsuldor va Rovot navlari, vegetatsiya fazalari, g‘unchalash, gullash, fenospektrlar, generativ novdalar, zigomorf gullar.

KIRISH. Fasol (*Phaseolus*) burchoqdoshlar (*Fabaceae*) oilasiga mansub bo‘lib, 97 turni o‘z ichiga oladi.o‘simliklarning bir turi bo‘lib, ikkala yarim sharning issiqroq bo‘lgan mintaqalarida Ular mevasi va urug‘i (loviya) uchun yetishtiriladi, ba’zi turlari (masalan, qizil gulli loviya (*Phaseolus coccineus*)) ham manzarali o‘simliklar sifatida ishlatiladi [https://www.agro.uz/11-0356/].

Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra respublika hududlarida 330,5 ming gektardan ortiq maydonlarga dukkakli don ekinlari ekilgan bo‘lib, shundan 35,8 ming gektari (11%) fasol ekini ulushiga to‘g‘ri keladi. Fasol asosiy ekin sifatida 5,1 ming gektar va takroriy ekin sifatida 4,5 ming gektar maydonlarga hamda 6,1 ming gektar bog‘ qator oralariga joylashtirilgan. Bugungi kunda Andijon, Jizzax, Namangan, Samarqand, Toshkent, Qashqadaryo, Farg‘ona, Sirdaryo, Surxondaryo viloyatlari fermer va dehqon xo‘jaliklari tomonidan parvarishlanmoqda. To‘la pishmagan dukkaklari tarkibida 18% oqsil, 2% qand, 22

mg/100 g C vitamini bo‘ladi. Donning tarkibida 20-31% oqsil, 0,7-3,6% moy, 50-60% kraxmal, 2,3-37,1% to‘qima, 3,1-4,8% kul moddasi mavjud. Fasol ekinining o‘suv davri qisqa, ertapisharligi sababli respublikamiz sharoitida bir yilda ikki marta don hosili yetishtirish imkoniyati mavjud. Jumladan, erta bahorda asosiy ekin sifatida va kuzgi boshoqli don ekinlaridan bo‘shagan maydonlarga takroriy ekin sifatida ekish tavsiya etiladi [1].

О.В.Аверчев va О.С.Татаров ma’lumotlariga qaraganda Ukrainada yetishtiriladigan fasol doni tarkibida 33% gacha protein, 50-60 % kraxmal, 5-8 % kletchatka mavjud. Singdiruvchanlik nuqtai nazaridan fasol oqsili go‘sht va baliq oqsillarining hazm bo‘lishiga yaqinlashadi (86-90 %). Yashil holatda fasol ko‘p miqdorda vitaminlarni o‘z ichiga oladi va ajoyib ta’mga ega. Fasol konserva va kolbasa ishlab chiqarishda, non pishirishda va xalq tabobatida keng qo‘llaniladi [2].

TADQIQOT MAQSADI VA VAZIFALARI: O‘simliklarning morfologik tuzilishini, gullash, meva va urug‘ berish biologiyasini hamda fenologik fazalarining davomiyligini o‘rganish ishning asosiy maqsadi qilib olindi.

Bunda ishning vazifasi o‘simliklarga ekologo-morfologik tasnif berish, generativ organlarning tuzilishi hamda fenologik kuzatuvlar olib boorish va fenospektrlarini tuzishdan iborat bo‘ldi.

ISHNING OBYEKTI VA METODLARI. Tadqiqotning ob’ekti sifatida *Phaseolus vulgaris* L. turiga mansub bo‘lgan, Samarqand Qishloq xo‘jaligi institutida yaratilgan mahalliy Mahsuldor va Ravot navlari tanlab olindi. Ushbu navlar 2012-yil Davlat reyestriga kiritilgan. Urug‘lar 2025 yil 6 aprel kuni Termiz tumani va Termiz shahrida ajratilgan yer maydonlarida 50 x 30 sm sxemada ekib o‘stirildi.

O‘simliklar ustida fenologik kuzatuvlar olib borishda I.N.Beydeman [3], gullash jarayonlarini o‘rganishda A.N.Ponomarev [4,5], R.Y.Levina [6] metodikalaridan va o‘zimizning bir necha yillik olib borgan tajribalarimiz natijalaridan foydalanildi [7]. O‘simliklarning rivojlanish davri davomida kuzatuvlar mart-iyul oylarida olib borildi.

KUZATISH NATIJALARI.

O‘simliklar ustida 2025 yil aprel-may-iyun oylari davomida kuzatuvlar olib borildi. Fasol o‘simligining 2 xil – Mahsuldor va Rovot navlarining urug‘lari Samarqand shahridan olib kelinib, aprelning birinchi o‘n kunligida ochiq dalaga ekildi. Mahsuldor nav Termiz sharoitiga yaxshi moslashib, urug‘lari tekis unib chiqdi, aksariyat qismi (80%) vegetatsiya fazalarini to‘liq bosib o‘tib, generativ fazaga o‘tdi.

Ammo Rovot navi bir tekis unib chiqmadi va aksariyat qismi (50%) vegetatsiya fazalarini to‘liq bosib o‘tib, generativ fazaga o‘tishdi. Bu fazaga o‘tgan o‘simliklarning har birida 4-5 tadan generativ novdalar hosil bo‘ladi.

2025 yil 6-aprel kuni ekilgan urug‘lar, aprel oyining ikkinchi o‘nkunligida (11.04.2025 yil) 5 kun oralig‘ida unib chiqa boshladi. Aprel oyining uchinchi o‘nkunligida Mahsuldor navinig unuvchanligi 68 % ga, Rovot naviniki esa 72 % yetdi.



1-rasm. A – urug‘larning unib chiqishi, B – birinchi (chin) barglarning hosil bo‘lishi, D – uch bo‘lakli murakkab barglarning shakllanishi, E – birinchi generayiv novdalarining hosil bo‘lishi va gunchalash hamda gullash fazasiga o‘tishi, F – gullash va meva hosil qilish fazalari, G – mevalarining yetilish fazasi.

Har ikkala nav o‘simliklarning urug‘pallalari yer ustiga urug‘ po‘stini ko‘tarib chiqaradi, yani urug‘larning unishi yer ustki unish tipida bo‘ladi. Urugpallalar o‘simlikda 7-8 kun mobaynida saqlanib turadi. O‘simlikda aprel oyida vegetativ organlari kuchli o‘sib, bir necha tartibli novdalari hosil qiladi va tik o‘sa boshlaydi. Aprel oyining oxiriga borib o‘simlikning bo‘yi 20-30 sm gacha yetadi, yon novdalarining uzunligi 10-20 sm ni tashkil qiladi.

O‘simlikning Mahsuldor navi may oyining birinchi o‘nkunligida g‘unchalay boshladi. O‘simlikning g‘unchalash fazasi 7-9 kun davom etadi. May oyining birinchi o‘nkunligida (5-6-may) dastlabki gullar ochilib, o‘simlik gullash fazasiga o‘tadi. O‘simlikning gullash fazasi may oyining oxirgi, iyun oyining birinchi o‘nkunligiga qadar davom etadi, shundan keyin o‘simliklarda meva va urug‘lar yetila boshlaydi va iyun oyining oxirigacha pishib yetiladi (1-3-rasmlar).

Rovot navining urug‘lari aprel oyining ikkinchi o‘nkunligi (11-13 aprel) dan boshlab unib chiqa boshladi. Ikkinchi o‘nkunlikning oxiriga borib, Rovot navda o‘simliklar unib chiqqan urug‘lar soni 72 % ni tashkil qildi. Aprel oyida vegetativ organlari kuchli o‘sib, bir necha

novdalari hosil qiladi va ba’zilari yer bag‘irlab hamda tik o‘sa boshlaydi. May oylariga borib poyasining balandligi 35-40 sm gacha yetadi, novdalarini uzunligi 12-22 sm ni tashkil qiladi.

Rovot navi may oyining birinchi o‘nkunligining oxiriga borib, g‘unchalay boshladi. O‘simlikning g‘unchalash fazasi boshlashidan toki birinchi gullari ochilgunga qadar davri 5-6 kun davom etadi. May oyining ikkinchi o‘n kunligi boshlanishi bilan (12-13-may) o‘simlikda dastlabki gullar ochila boshlaydi va o‘simlik gullash fazasiga o‘tadi. O‘simlikning gullash fazasi may oyining ikkinchi o‘nkunligidan toki iyun oyining ikkinchi yarmigacha davom etadi va shundan keyin urug‘lari yetila boshlaydi, iyun oyining oxiriga borib vegetatstyasi tugaydi (2-3-rasm).

Shundan keyin barcha o‘simliklarda kunlik ochilgan gullar soni asta-sekin ko‘payadi va har ikkila nav o‘simliklarda gullash fazasi may oyining birinchi o‘n kunligidan toki, iyun oyining boshlariga qadar gullaydi.

Iyun oyidan boshlab mevalarning yalpi pishib yetilish fazasi boshlanadi. Barcha o‘simliklar iyul oyining birinchi o‘nkunligida o‘z vegetatsiyasini tugatadi.

A

B

D

E

F

G

2-rasm. Rovot navi: A-B-D-E-g‘unchalash fazasi, F-G-gullash fazasi.

O‘simliklarning fenologik fazalaridagi o‘zgarishlarni fenospektrlarda tasvirlashga harakat qildik (3-rasm).

Fenospektr ma’lumotlaridan ikkila navga mansub o‘simliklarning har bir fenologik fazalari orasida 3-4 kun farqni ko‘rish mumkin. Parvarish usullari bir xil bo‘lsa ham mahsuldor navda olingan ko‘chatlarning barcha fenologik fazalari ancha oldin boshlanib, oldinroq tugadi. Hususan, Mahsuldor navining barcha vegetatsiya fazalari Rovot naviga nisbatan besh-olti kun oldin tugadi.

Fasol o‘simligining Mahsuldor navlaridan yetishtirilgan vakillarining mavsumiy vegetatsiyasi 77-88 kun davom etgan bo‘lsa, vegetatsiya fazasi – 20-22 kun, g‘unchalash fazasi – 5-6 kun, gullash fazasi – 30-32 kun, mevalarining yetilish fazasi – 22-24 kun davom etdi.



3-rasm. Fasol o‘simligining fenospektrlari: 1-Mahsuldor navi; 2-Rovot navi.

Mahsuldor nav o‘simliklarining *vegetativ fazalari*: unib chiqishi – 10-12 aprel, birinchi chin barglarning to‘liq shakllanishi – 14-15 aprel, ikkinchi uch bo‘lakli murakkab barglarning shakllanishi – 22-23 aprel, uchinchi uch bo‘lakli murakkab barglarning shakllanishi – 4-8 maygacha, urug‘lar unib chiqishidan boshlab jami 18-20 kunni tashkil qildi.

Generativ fazalari: g‘unchalash – 4-8 may (4-5 kun), gullashning boshlanishi - 5-6 may, tugashi – 7-15-iyun (jami 25-31 kun, yalpi gullash fazasi – may oyining ikkinshi dekadasidan may oyining oxirigacha – jami 17-20 kun davom etadi), meva va urug‘larining yetilish fazasi jami 30-31 kun davom etadi. Generativ faza jami 59-68 kun davom etadi.

Rovot navi o‘simliklarida esa bu ko‘rsatgichlar mos ravishda quyidagicha bo‘ldi: mavsumiy vegetatsiyasi 87-94 kun, vegetatsiya fazasi – 24-26 kun, g‘unchalash fazasi – 4-5 kun, gullash fazasi – 33-35 kun, urug‘larning yetilish fazasi – 26-28 kun davom etdi.

Rovot navi o‘simliklarining *vegetativ fazalari*: unib chiqishi – 10-12 aprel, birinchi chin barglarning to‘liq shakllanishi – 14-18 aprel, ikkinchi uch bo‘lakli murakkab barglarning shakllanishi – 22-26 aprel, uchinchi uch bo‘lakli murakkab barglarning shakllanishi – 4-8 gacha, jami 24-26 kunni tashkil qildi.

Generativ fazalari: g‘unchalash – 4-8 may (4-5 kun), gullashning boshlanishi - 8-13 may, tugashi –10-18 iyun (yami 33-35 kun, yalpi gullash fazasi – may oyining ikkinshi dekadasidan iyun oyining o‘rtalarigacha – jami 22-26 kun davom etadi), meva va urug‘larining yetilish fazasi jami 26-28 kun davom etadi. Generativ faza jami 63-68 kun davom etadi.

O‘simliklarning yalpi gullash fazasi may oyining ikkinchi o‘nkunligidan va iyun oyining ikkinchi yarmigachaga to‘g‘ri keladi.

O‘SIMLIKNING MORFOBIOLOGIK TAVSIFI.

Poyasi bir yillik o‘tsimon bo‘lib, birinchi (bir juft) chin barglari oddiy, cho‘ziq yuraksimon, keyingi barglari uch bo‘lakli murakkab barglar bo‘lib, poyada ketma-ket joylashadi (1, 4-rasm).

O‘simlikdagi urug‘palla barglarining uzunligi 2 sm, eni- 1 sm, urug‘palla barglari bandsiz bo‘ladi, haqqiy bargining uzunligi 8-10 sm, eni-7-8 sm, bandlarining uzunligi 0.5 sm keladi. Uch bo‘lakli murakkab barglarining o‘ng va chap barchalari uzunli 8-10 sm, eni-7-8 sm, bandi 0.5 sm, markaziy barchagi uzunligi 9-11 sm, eni-8-9 sm, bandining uzunligi 2-4 smgacha bo‘ladi.

4-rasm. Loviya o‘simligining o‘simligi ikkita navining barglarining tuzilishi.

Barglarining shakli cho‘ziq yuragsimon, o‘tkir uchli, chetlari tekistekis bo‘lib, ostki tomoni och yashil, ustki tovoni to‘q-yashil rangda bo‘ladi.

Gullari kichik (12 - 20 mm) bandlari bilan barg qo‘ltiqlarida bittadan yoki shingil to‘pgulga birikadi, har bir to‘pgulda 8-15 tada gullar joylashadi (5-rasm).

5-rasm. Fasol o‘simligining Mahsuldor va Rovot navlarining to‘pgullari.

Gullari zigomorf, qo‘sh jinsli, besh a’zoli, o‘zgarmas strukturali, gulkosasi 5 ta tutash bargchalardan shakllangan, o‘lchamlari – 4-6 mm.

Gultojbarglari 5 ta (ustkisi yirik gultojibargi yelkancha, ikki yon tomonida joylashganlari eshkakchachalar va ikkita qo‘shilib o‘sgan pastki tojibarglari qayiqcha deb nomlanadi). Yelkancha deb nomlanadigan tojibargining o‘lchami 18-20 mm, eshkakchaning o‘lchami 14-16 mm, qayiqchaniki – 10-12 mm keladi.

Changchilari soni 10 ta, changchining har biri alohida-alohida erkin holda joylashgan, o‘lchami 15-16 mm. Urug‘chisi bitta mevachibarglarning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Tugunchasi ustki, o‘lchami 18-20 mm.

XULOSA.

Poyasi bir yillik o‘tsimon bo‘lib, birinchi (bir juft) chin barglari oddiy, cho‘ziq yuraksimon, keyingi barglari uch bo‘lakli murakkab barglar bo‘lib, poyada ketma-ket joylashadi. Gullari zigomorf, qo‘sh jinsli, besh a’zoli, o‘zgarmas strukturali, gulkosasi 5 ta tutash bargchalardan shakllangan. Gultojbarglari 5 ta (ustkisi yirik gultojibargi yelkancha, ikki yon tomonida joylashganlari eshkakchachalar va ikkita qo‘shilib o‘sgan pastki tojibarglari qayiqcha deb nomlanadi).

Changchilari soni 10 ta, changchining har biri alohida-alohida erkin holda joylashgan. Urug‘chisi bitta mevachibarglarning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Tugunchasi ustki.

Fasol o‘simligining vegetatsiyasi aprel oyining birinchi o‘n kunligida boshlanib, may oyining birinchi o‘n kunligidan g‘unchalash fazasiga o‘tadi. O‘simlik may oyining birinchi o‘nkunligidanoq gullashga kirishadi. O‘simlikda gullash fazasi 42-58 kun davom etadi va iyunning oxirida gullashdan to‘xtab, meva-va uruglari yetila boshlaydi.

O‘simlikning yalpi gullash davri may oyining ikkinchi o‘nkuligidan iyun oyining birinchi o‘nkunligiga to‘g‘ri keladi. Keyinchalik esa o‘simlikda kunlik ochilgan gullar soni asta-sekin kamayib boradi.

O‘simlikdagi urug‘larning yetila boshlashi may oyining oxiridan boshlanib, iyun oyining oxirigacha davom etadi. O‘simlikning vegetatsiya davri ham tugab, qurib qoladi.

Rovot navi o‘simliklardan olingan urug‘lar yetishtirilgan o‘simliklarda barcha vegetativ fazalar Mahsuldor nav o‘simliklarga qaraganda biroz (5-10 kunga) farq qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Atabayeva H.N., Xudayqulov J.B. O‘simlikshunoslik./darslik/.Toshkent:” MF MSH”, 2020,298 bet.

2. Аверчев О.В., Татаров О.С. Агроекологічне обгрунтування вирощування квасолі овочевої на краплинному зрошенні в умовах Півдня України // Вісник Уманського національного університету садівництва. 2017. -№1, -С. 33-37.

3. Бейдеман И.Н. Методика изучения фенологии растений и растительных сообществ. Новосибирск: Наука, 1974. 156 с.

4. Пономарев А.Н. Изучение цветения и опыления растений // Полевая геоботаника. М.– Л.: Изд-во АН СССР, 1960. Т. 2. С. 9–19.

5. Пономарев А.Н. Предмет и некоторые аспекты антэкологии // Вопросы антэкологии: материалы к симпозиуму по антэкологии. Пермь – Л.: Наука, 1969. С. 43–45.

6. Левина Р.Е. Репродуктивная биология семенных растений. Обзор проблемы. М.: Наука, 1981. 96 с.

7. Djumayev X.K. O‘simliklarning gullash biologiyasini o‘rganish metodikasi. Termiz davlat pedagogika instituti ilmiy xabarnomasi ilmiy-uslubiy jurnal. 2024/ №1. 64-69 betlar.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

ПРИМЕНЕНИЯ МОДИФИЦИРОВАННЫХ БЕНТОНИТОВ ДЛЯ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД

А.У.Исмадиёров
Наманганский государственный технический университет
М.Х.Уринбоева
Наманганский государственный технический университет
А.Б.Абдикамалова
Институт общей и неорганической химии АН РУз
З.Р.Машарипова
Институт общей и неорганической химии АН РУз
А.С.Арисланов
Наманганский государственный технический университет

Аннотация В данной статье рассматриваются вопросы адсорбционной очистки сточных вод, загрязнённых нефтепродуктами. Проведён обзор современных адсорбентов, модифицированные природные материалы (бентониты), обладающие высокой сорбционной способностью. Основное внимание уделено исследованию влияния различных факторов — pH среды, дозировки адсорбента, времени контакта и начальной концентрации загрязнителя — на эффективность процесса сорбции. Приведены кинетические и изотермические модели адсорбции, использованные для описания поведения систем «адсорбент–нефтепродукты». Результаты экспериментов показали, что применение модифицированных сорбентов позволяет достичь степени очистки до 90–95%. Работа подчёркивает перспективность адсорбционных методов как экологически безопасного и экономически целесообразного способа удаления нефтепродуктов из сточных вод.

Ключевые слова: мультикомпонент, адсорбция, бентонит, БПК, ХПК, ОЛБГ, ОКБГ, ОББГ, Fe-ЛБГ

Очистка сточных вод нефтеперерабатывающих предприятий является критически важной задачей системы управления промышленными стоками. Такие воды содержат сложный «состав» загрязнителей, от нефтяных углеводородов и продуктов их перегонки до фенолов, аммиака, сульфидов и органоминеральных соединений. Высокая токсичность даже при низких концентрациях и мультикомпонентный характер этих

стоков создают серьёзные экологические риски: от гибели водных организмов до деградации почв и загрязнения подземных водоносных горизонтов.

Традиционные подходы к очистке (механические, физико-химические, биологические) нередко не обеспечивают требуемого уровня удаления всех компонентов одновременно, особенно «упрямых» фракций нефтепродуктов и фенолов. Поэтому всё более активно разрабатываются и внедряются гибридные схемы, сочетающие несколько методов, а также дополнительные адсорбционные этапы с применением функциоанализированных глин и минералов. Адсорбция на органо- и неорганомодифицированных бентонитах демонстрирует высокую эффективность по удалению масляных пленок, растворённых углеводородов и связанных с ними органических соединений за счёт развитой пористой структуры, катионного обмена и специфического взаимодействия с поверхностными центрами.

Следующем этапом рассмотрены результаты исследования по адсорбционной очистке реальных сточных вод нефтеперерабатывающих установок на базе природных, обогащённых и Fe-модифицированных бентонитов.

Были исследованы составы 3-различных сточных вод ООО «Ферганский нефтеперерабатывающий завод», результаты которых приведены в табл. 1.

Таблица 1.

Состав и характеристики сточных вод

Характеристики	№1	№2	№3
pH	6,7	7,2	8,0
БПК, мг/л	174	25	138
ХПК, мг/л	450	1156	352
Взвешенные вещества, мг/л	152	21	63
Растворённые вещества, мг/л	42	78	2100
Общий органический углерод, мг/л	119	51	82,5
N аммонийный, мг/л	8,2	17,5	5,6
Фенолы, мг/л	-	257	7,65
Сульфиды, мг/л	2,2	10,8	5,3

Нефть и масла, мг/л	870	217	147,5

Три образца сточных вод заметно различаются по степени загрязнённости и составу. Образец № 1 (pH 6,7) характеризуется умеренными показателями: $БПК_5$ = 174 мг/л и ХПК = 450 мг/л, относительно высокими взвешенными веществами (152 мг/л) и большим содержанием нефти и масел (870 мг/л). Это указывает на сильное загрязнение углеводородами при средней биодеградируемости.

Образец № 2 (pH 7,2) имеет низкий $БПК_5$ = 25 мг/л при высоком ХПК = 1156 мг/л и экстремально высоким содержанием фенолов (257 мг/л) с сульфидами 10,8 мг/л. Низкая биологическая разлагаемость и большое число растворённых веществ (78 мг/л) говорят о присутствии трудноокисляемых и токсичных компонентов. Образец № 3 (pH 8,0) демонстрирует промежуточные значения $БПК_5$ = 138 мг/л и ХПК = 352 мг/л, высокое содержание растворённых веществ (2100 мг/л) и сравнительно невысокую концентрацию нефти и масел (147,5 мг/л).

Для изучения зависимости эффективности адсорбции нефти и нефтепродуктов от дозы бентонита сточную воду тщательно перемешивали и профильтровывали через бумажный фильтр (пористость 5–10 μm) для удаления крупных взвешенных частиц. Образцы бентонита высушивали при 105 °C до постоянной массы, затем просеивали через сито с размером ячейки 0,16 мм.

В три серии по шесть опытных проб вносли в 250 мл конические колбы по 100 мл профильтрованной сточной воды. В каждую колбу добавляли различное количество бентонита, чтобы получить отношения сорбент/вода (мг/мл), соответствующие расходам от 1 до 15 г/л.

Все пробы размещали на горизонтальном шейкере с амплитудой качания 20 мм при 150 об/мин. Температура проведения эксперимента поддерживалась на уровне (22 ± 2) °C. Время контакта сорбента с водой для всех доз составило 60 мин.

По окончании выдержки пробы фильтровали через мембранные фильтры 0,45 μm, чтобы удалить частицы глины. В 50 мл экстракционные колбы брали по 25 мл фильтрата, добавляли 5 мл углеводородного экстрагента (н-гексан) и проводили трехкратную экстракцию методом встряхивания (по 2 мин на каждую экстракцию). Объединённый экстракт высушивали на вращающемся испарителе при 40 °C, оставшийся осадок доводили до постоянной массы в эксикаторе и взвешивали на аналитических весах (точность 0,1 мг). Концентрацию нефти и масел в фильтрате определяли по разности массы экстракта и массе пустой колбы, рассчитанную на объём исходного образца.

Были исследованы влияния расхода бентонитов на удаление (а, мг/г) основного загрязнителя (общего масла и нефтепродуктов), результаты которых приведены на рис.1.



А)



Б)



В)

Рис. 1. Изменение концентрации нефтепродуктов в составе различных образцах сточных вод: А) №1; Б) №2; В) №3.

С увеличением расхода адсорбента эффективность удаления нефтепродуктов возрастает во всех трёх сериях образцов, однако характер кривых снижения концентрации чётко отражает различия в адсорбционных свойствах. У ЛБГ при малых дозах (1–3 г/л) концентрация нефти падает лишь на 3–9 % (с 870 до 795,6 мг/л), что свидетельствует об ограниченном числе доступных поверхностных и межслоевых центров. Линейная фаза удаления продолжается до 5 г/л (снижение до 746 мг/л), после чего при 10–15 г/л

начинается более выраженная регрессия (до 498 мг/л), обусловленная постепенным подключением менее доступных пор и дезагрегацией мелких агрегатов.

После обогащения (ОЛБГ) кривая смещается вниз: уже при 1 г/л удаляется ≈3,6 % нефти, при 3 г/л 11 %, а к 5 г/л почти 29 % (614,5 мг/л). Это отражает раскрытие щелевидных пор и увеличение удельной поверхности, благодаря чему к 10–15 г/л удаляется до 54–54 % исходного загрязнения.

Fe-ЛБГ демонстрирует кардинально иную динамику: при 1 г/л концентрация падает сразу на 17,6 % (до 716,5 мг/л), при 2 г/л на 41,9 %, а при 3 г/л на 64,4 %. В диапазоне 5–15 г/л достигается практически полное удаление: при 5 г/л остаётся всего 72,2 мг/л (≈92 % удаления), а при 15 г/л 12,2 мг/л (>98 %). Такая эффективность обусловлена синергией двух механизмов: традиционного ионного обмена и дополнительного захвата углеводородов на образованных при Fe-модификации гидроксидных центрах, а также стабилизацией раскрытых межслоевых пор оксидными «столбиками».

В воде № 2 (C_0 = 217 мг/л) эффект адсорбции более выражен для ОЛБГ, уже при 1 г/л C_1 = 193,1 мг/л (−11,0 %), при 5 г/л составляет 97,4 мг/л (−55,1 %), а к 15 г/л достигается 54,3 мг/л (−75,0 %). Это указывает на лучшую кинетику и более полное использование обменных и поверхностных групп в глине при умеренных исходных концентрациях.

В воде № 3 с значением C_0 = 147,5 мг/л относительное удаление ОЛБГ также высоко и при 1 г/л составляет 135,5 мг/л (−8,1 %), при 15 г/л 47,3 мг/л (−68,0 %).

На Fe-ЛБГ наблюдается стремительное снижение концентрации нефтепродуктов во всех трёх водах уже при малых дозах сорбента. В сильно загрязнённой воде № 1 (C_0 = 870 мг/л) добавление 1 г/л снижает C_1 до 716,5 мг/л (−17,6 %), а при 5 г/л остаётся лишь 72,2 мг/л (−91,7 %). В среднем загрязнённой воде № 2 (C_0 = 217 мг/л) уже при 2 г/л удаляется 56 % (C_1 = 95,3 мг/л), при 5 г/л 89 % (C_1 = 24,2 мг/л), а при 15 г/л степень очистки составляет >99 %. В слабо загрязнённой воде № 3 (C_0 = 147,5 мг/л) 2 г/л обеспечивают снижение до 38,5 мг/л (−73,9 %), 5 г/л до 9,5 мг/л (−93,6 %), и при 15 г/л остаётся всего 1 мг/л (−99,3 %).

Далее была изучена кинетика процесса удаления нефтепродуктов, результаты которых приведены на рис. 2.



Рис. 2. Кинетика снижения общего количества нефтепродуктов и масел при комнатной температуре. Расход адсорбентов 2 г/л.

Кинетические кривые при дозе адсорбента 2 г/л ясно демонстрируют три этапа удаления нефтепродуктов. У исходного ЛБГ снижение концентрации проходит относительно медленно. В первые 60 мин C_1 уменьшается с 870 до 820 мг/л (−6 %), а к 300 мин достигает 778,5 мг/л (−11 %). Такая динамика характерна для чистой формы смектита, начальная фаза обмена и диффузии в порах идет постепенно, а последующее насыщение поверхностных центров замедляет дальнейшую адсорбцию.

У обогащённого ОЛБГ кинетика выглядит чуть энергичной и к 60 мин C_1 опускается до 807,8 мг/л (−7,1 %), а к 300 мин до 701,2 мг/л (−19,4 %). Самый эффективный процесс наблюдается у Fe-ЛБГ и за первые 60 мин C_1 снижается до 505,8 мг/л (−41,9 %), а к 300 мин до 298,6 мг/л (−65,7 %). Такое резкое падение обусловлено синергией двух механизмов, т.е. ионного обмена и хемосорбции на вновь образованных Fe–OH группах, а также сохранением пористой структуры благодаря интеркалированию оксидных сьолбиков. Начальная быстрая фаза в первые 30–60 мин отражает лёгкую адсорбцию в наружных порах и на поверхностных центрах, а далее постепенный захват внутри межслоевых щелей и мелких капилляров.

Для оценки сорбционной эффективности Fe-ЛБГ в статическом режиме сточные воды обрабатывали при дозе 3 г/л и выдерживали контакт в течение 8 часов при комнатной температуре. По истечении времени контакта образцы фильтровали и определяли оставшиеся концентрации ключевых загрязнителей: нефтепродуктов, фенолов, аммонийного азота, общего органического углерода. Данные об общем процентном снижении каждой из этих характеристик представлены в табл. 2.

Таблица 2.

Состав и характеристики очищенных сточных вод

Характеристики	№1	№2	№3

pH	6,9	7,3	7,4
БПК, мг/л	12,5	9,6	13,2
ХПК, мг/л	52,2	48,5	28,5
Общий органический углерод, мг/л	3,2	1,9	1,5
N аммонийный, мг/л	7,9	11,2	4,8
Фенолы, мг/л		6,3	0,82
Сульфиды, мг/л	<1	<1	<1
Нефть и масла, мг/л	56	1,8	0,7

После восьмичасовой адсорбции на Fe-ЛБГ (3 г/л) биохимическое потребление кислорода ($БПК_5$) осталось на уровне 9–13 мг/л, что уже соответствует требованиям регламентов для окончательных стоков. Химическое потребление кислорода в образцах № 1; №2 и № 3 упало до 52,2; 48,5 и 28,5 мг/л соответственно.

Концентрации общего органического углерода после очистки не превышают 3,2 мг/л, аммонийного азота 7,9–11,2 мг/л, а фенолов и сульфидов фактически не обнаружено (< 1 мг/л). Наиболее показательным является удаление нефтепродуктов: в образце № 1 они снижаются до 56 мг/л, а в № 2 и № 3 до 1,8 и 0,7 мг/л соответственно, что подтверждает высокую эффективность Fe-ЛБГ в захвате масляных фракций.

Таким образом, адсорбционный этап с Fe-ЛБГ обеспечивает значительное удаление нефтепродуктов и других органических загрязнителей, при этом pH остается в нейтральной области, что облегчает последующее биологическое или химическое доочистное обеззараживание.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Абдикамалова А.Б. Разработка полифункциоанльных буровых растворов на основе глинистых минералов и отхода содового производства Каракалпакстана Автореф. дис. … док. (PhD) техн. наук (02.00.11). – Ташкент. 2018. – 47 с.

2. Арипов Э.А., Активные центры монтмориллонита и хемосорбция. Ташкент: Фан. 1983. 164 с.

3. Кормош Е.В. Модифицирование монтмориллонитсодержащих глин для комплексной сорбционной очистки сточных вод: дис. … канд. техн. наук. Белгород. 2009. 177 с.

4. Косарев, А.В. Математическая модель адсорбции тяжелых металлов на органобентоните / А.В. Косарев, В.А. Заматырина и др. // Вавиловские чтения-2014: Сб. статей межд. науч.–практ. конф., посвященной 127-й годовщине со дня рождения

академика Н.И. Вавилова. – Саратов: Буква, 2014. С. 290-291.

5. Бойченко Е.А., Заматырина В.А., Тихомирова Е.И. Оценка экологической эффективности использования органобентонита в системе водоподготовки // Бюллетень медицинских интернет конференций. Учредители: ООО "Наука и инновации". – 2013. Т. 6. - №6. – С. 977-978.

6. Уташев Ё.И., Абдикамалова А.Б., Эшметов И.Д. Интеркалированные системы в качестве адсорбентов // Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2020. № 6 (72). URL: https://7universum.com/ru/nature/archive/item/9524.

7. Конькова, Т.В. Получение и модифицирование пористых высокопористых материалов на основе оксидов алюминия и кремния с функциональными свойствами сорбентов и катализаторов**: дис. ... докт. техн. наук : 02.00.04 / Т.В.Конькова. – М., 2017. - 362 с.**

8. Kulkarni S.J., Goswami A.K. A review on wastewater treatment for petroleum industries and refineries // Int. J. Innov. Res. Sci. Eng. Technol. – 2015. – Vol. 1. – P. 280–283.

9. Aljuboury D.A.D.A., Palaniandy P., Abdul Aziz H.B., Feroz S. Treatment of petroleum wastewater by conventional and new technologies—A review // Glob. Nest J. – 2017. – Vol. 19. – P. 439–452.

10. Jain M., Majumder A., Ghosal P.S., Gupta A.K. A review on treatment of petroleum refinery and petrochemical plant wastewater: A special emphasis on constructed wetlands // J. Environ. Manag. – 2020. – Vol. 272. – Article 111057.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

ИССЛЕДОВАНИЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КОМПОНЕНТОВ В СИСТЕМЕ СУЛЬФАТ ВАННАДИЛА – НИТРАТ КАЛИЯ - ВОДА

Машарипова Замира Алимбаевна
базовый докторант
Ургенчского государственного университета, Узбекистан, г. Ургенч
Исакова Ойгул Мадаминжановна,
докторант (DcS), Наманганского государственного технологического университета, Узбекистан, г. Наманган,
Тураев Зокиржон,
д-р техн. наук, профессор Наманганского государственного технологического университета, Узбекистан, г. Наманган
Кузибаев Фахриддин Турсуналиевич,
преподователь кафедры, «Химическая инженерия» Наманганского г осударственного технологического университета *г. Наманган*

Аннотация: В данной работе исследовано взаимодействие ванадия с компонентами минеральных удобрений в водной среде. Для этого были проведены лабораторные опыты с использованием изомолярных серий растворов, содержащих сульфат ванадила ($VOSO_4$) и нитрат калия (KNO_3). Растворы готовились при постоянной ионной силе ($\mu = 0.1$) с варьируемым мольным соотношением $VOSO_4$:KNO_3 от 1:0 до 1:10. Реакции проводились при температуре 25 °C. pH контролировался буферными системами с заданными значениями 1.5 и 5.0. Результаты показали образование устойчивых комплексов при соотношении компонентов 5:5. Для установления состава образующегося соединения выделен осадок из концентрированого раствора солей при их соотношении 1:1. Химический и элементный анализ соединения показал следующий результат: $K_2SO_4 \cdot VOSO_4 \cdot 6H_2O$.

Ключевые слова: сульфат ваннадила, изомолярная серия растворов, плотность, вязкость, температура кристализации, спектроскопический метод анализа

Abstract: In this work, the interaction of vanadium with components of mineral fertilizers in an aqueous medium was studied. For this purpose, laboratory experiments were carried out using isomolar series of solutions containing vanadyl sulfate ($VOSO_4$) and potassium nitrate (KNO3). The solutions were prepared at a constant ionic strength ($\mu = 0.1$) with a variable molar ratio of $VOSO_4$:KNO3 from 1:0 to 1:10. Reactions were carried out at a temperature of 25°C. pH was controlled by buffer systems with specified values of 1.5 and 5.0. The results

showed the formation of stable complexes at a component ratio of 5:5. To establish the composition of the resulting compound, a precipitate was isolated from a concentrated solution of salts at their ratio of 1:1. Chemical and elemental analysis of the compound showed the following result: K2SO4·VOSO4·6H2O.

Keywords: vanadyl sulfate, isomolar series of solutions, density, viscosity, crystallization temperature, spectroscopic method of analysis

Введение

Естественные и антропогенные источники вносят вклад в содержание V в почве и окружающей среде. Механическое и химическое выветривание материнских пород и наличие минералов, содержащих V, в недрах почвы являются естественным источником ванадия в почвах. Более высокие концентрации ванадия обнаружены в основных породах по сравнению с кислыми или нейтральными породами. [1] Основные минералы, содержащие V, присутствующие в почвах, включают титаномагнетит, ванадинит, роскоелит, бравоит и патронит. [2]

9. No B.Y., Kim M.G. Melamine acetate preparation as a urea-formaldehyde resin additive for particleboard production // Journal of Applied Polymer Science. 2020. Vol. 137, No. 36. P. 49091. DOI: 10.1002/app.49091.

10. Zhang B., Jiang S., Du G., Cao M., Zhou X. Polyurea-formaldehyde resin: A novel wood adhesive with high bonding performance and low formaldehyde emission // The Journal of Adhesion. 2019. Vol. 95, No. 5-6. P. 1-16. DOI: 10.1080/00218464.2018.1495206.

11. Wang J., Zhang Y., Wu Y. Synthesis and characterization of a silane-modified urea-formaldehyde resin for particleboard production // Wood Science and Technology. 2020. Vol. 54. P. 1273-1288. DOI: 10.1007/s00226-020-01192-3.

12. Lee S., Park J.H. Sodium metasilicate as a reinforcing agent in urea-formaldehyde resin for enhanced mechanical and water-resistant properties // Polymer Composites. 2019. Vol. 40, No. 7. P. 2750-2759. DOI: 10.1002/pc.25092.

13. Zhang H., Liu J. Functionalization of urea-formaldehyde resin with ethylene glycol for improved flexibility and adhesion // Journal of Applied Polymer Science. 2021. Vol. 138, No. 15. P. 50234. DOI: 10.1002/app.50234.

14. Ghani A., Lee S.H., Ashaari Z. Monoethanolamine as an effective formaldehyde scavenger in urea-formaldehyde bonded particleboards // Construction and Building Materials. 2020. Vol. 236. P. 117563. DOI: 10.1016/j.conbuildmat.2019.117563.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK: 678.043.53 (661.718.5)

ORCID: 0000-0002-1588-2048

SINTEZ QILINGAN GIBRID SILAN-POLIOL-SILIKAT MODIFIKATORINING QAMISH-QIRINDILI PLITA XOSSALARIGA TA’SIRINI O‘RGANISH

Eshmurodov Xurshid Esanberdievich
t.f.f.d., dots.Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti dotsenti,
111116, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Toshkent tumani.
E-mail: khurshideshmurodov@mail.com
Djalilov Abdulakhat Turapovich,
k.f.d., prof., O‘z.FA akademigi, Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti direktori,
111116, Toshkent viloyati, Toshkent tumani.
E-mail: gup_tniixt@mail.ru
To'raev Xayit Xudaynazarovich
k.f.d., prof. Termiz davlat universiteti
190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy.
E-mail: hhturaev@rambler.ru
Ikramov Shohimardon Sayfidinovich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiya universiteti tadqiqotchisi,
190100, Termiz shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 288a.
Xodjayev Akbarali Akhmedovich
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi,
190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy.

Annotatsiya. Ushbu maqolada natriy metasilikat va tetraetoksisilan (TEOS) asosida sintez qilingan gibrid silan-poliol-silikat modifikatorini karbamid-formaldehid (UF) yelimni modifikatsiya qilishda qo‘llash natijalari bayon qilingan. Modifikator UF yelimning uchinchi sintez bosqichida qo‘shilib, qamish-qirindili plitalar ishlab chiqarishda sinovdan o‘tkazildi. Natijada, plitalarning gidrofobligi, mexanik mustahkamligi oshdi, formaldegid emissiyasi kamaydi. FTIR, SEM va TGA/DTA tahlillari modifikatorning UF yelimiga muvaffaqiyatli integratsiyasini tasdiqnladi. Ushbu usul qamish asosli plitalarni ishlab chiqarishda ekologik xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali yechim sifatida katta potentsialga ega.

Kalit so‘zlar: karbamid-formaldehid yelim, qamish-qirindili plitalar, gidrofoblik, formaldegid emissiyasi, mexanik mustahkamlik, ekologik xavfsizlik.

Аннотация. В данной статье представлены результаты применения синтезированного на основе натрий метасиликата и тетраэтоксисилана (ТЕОС)

гибридного силан-полиол-силикатного модификатора для модификации карбамидоформальдегидной (КФ) смолы. Модификатор добавлялся на третьем этапе синтеза КФ смолы и был протестирован при производстве плит из тростниковой стружки. В результате гидрофобность и механическая прочность плит увеличились, а эмиссия формальдегида снизилась. Анализы FTIR, SEM и TGA/DTA подтвердили успешную интеграцию модификатора в КФ смолу. Данный метод обладает большим потенциалом как экологически безопасное и экономически эффективное решение для производства плит на основе тростника.

Ключевые слова: карбамидоформальдегидная смола, тростниковые плиты, гидрофобность, эмиссия формальдегида, механическая прочность, экологическая безопасность.

Abstract. This article presents the results of using a hybrid silane-polyol-silicate modifier synthesized from sodium metasilicate and tetraethoxysilane (TEOS) to modify urea-formaldehyde (UF) resin. The modifier was added during the third synthesis stage of UF resin and tested in the production of reed-straw particleboards. As a result, the boards' hydrophobicity and mechanical strength increased, while formaldehyde emission decreased. FTIR, SEM, and TGA/DTA analyses confirmed the successful integration of the modifier into the UF resin. This method holds significant potential as an environmentally safe and cost-effective solution for producing reed-based particleboards.

Keywords: urea-formaldehyde resin, reed-based particleboards, hydrophobicity, formaldehyde emission, mechanical strength, environmental safety.

1. Kirish. Bugungi kunda zamonaviy qurilish va mebel sanoatida ekologik toza, suvga chidamli va mexanik mustahkam materiallarga talab ortib bormoqda. DSP va MDF kabi an’anaviy panellarning yuqori narxi va ekologik muammolar muqobil materiallarga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishiga olib kelmoqda [1, 2]. Qamish, somon kabi arzon va qayta tiklanadigan resurslar barqaror ishlab chiqarish uchun samarali xomashyo hisoblanadi [3]. O‘zbekistonning mahalliy qamish resurslaridan foydalanish xarajatlarni 20% ga kamaytirishga imkon berdi, bu mintaqaviy qurilish sanoati uchun yangi imkoniyatlar ochadi. O‘zbekistonda mavjud 130 ming gektardan ortiq tabiiy qamishzorlar yiliga 2 mln tonnagacha xomashyo ta’minlay oladi, bu mahalliy qurilish sanoati uchun iqtisodiy va ekologik jihatdan samarali o‘rinbosar hisoblanadi.

Qamish plitalari yog‘och plitalariga nisbatan xarajatlarni 15–20% kamaytiradi. Biroq, qamishning suvga chidamliligi yuqori ekanligi va mexanik mustahkamligi ayniqsa uning keng qo‘llanilishini ta’minlaydi [4, 5]. Karbamid-formaldegid (UF) smolalar bu va ko‘plab sohalarda eng ko‘p qo‘llaniladigan yelimlar hisoblanadi. Biroq, bu yopishtiruvchi moddalar gidrofilligi tufayli namlikka chidamliligi past, shuningdek, yelim tayyorlash jarayonida bog‘lanmagan erkin formalinning chiqishi kabi muammo mavjud [6, 7]. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun organosilikon modifikatorlaridan, xususan, tetraetoksisilan (TEOS) va natriy metasilikatdan foydalanish bu borada yuqori samara berishi ma’lum [8, 9]. Ushbu modifikatorlar zol-gel

jarayoni yordamida gidrofob siloksan tarmoqlari va yelim kompozitlarni hosil qiladi, suvga chidamliligini oshiradi va formalin chiqishini kamaytiradi [10,11]. Natriy metasilikat arzon va silikat tarmoqlari va yelim kompozitlarini hosil qiladi, etilenglikol esa elimning elastikligini oshiradi [12,13].

Organosilikon modifikatorlari karbamid-formaldegid yelimlarning suvga chidamliligini yaxshilaydi va formaldegidni yaxshi bog‘lashga yordam beradi [9,11]. Siloksan birikmalari yelimga qo‘shilganda, kontakt burchagi 95-115° gacha ko‘tariladi [9]. Monoetanolamin ham katalizator sifatida atrof-muhitning pH darajasini tartibga soladi, ham formaldegidni bog‘lash xususiyati tufayli, ekologik xavfsizlikni oshiradi [14, 15]. Modifikatsiyalangan karbamid-formaldegid yelimlar yordamida ishlab chiqarilgan qamishli plitalar suvga chidamliligi yaxshi va mexanik mustahkam bo‘ladi [5, 16]. 155-165°C, 14-15 MPa issiq presslash jarayoni qamish qirindilarini mahkam bog‘lab, plitaning qalinligini oshiradi [17].

Ushbu tadqiqotning maqsadi natriy metasilikat va TEOS asosida gibrid silan-poliol-silikat modifikatorini yaratish, uni karbamid-formaldegid yelimga qo‘shish imkoniyatlarini o‘rganish va uni qamish-qirindili plitalar ishlab chiqarishda qo‘llash hamda modifikatsiyalangan yelimlar yordamida panellarning suvga chidamliligini, mexanik mustahkamligi va ekologik xavfsizligini oshirishdir.

2. Materiallar va metodlar

2.1. Materiallar

Tadqiqotda quyidagi reagentlar va materiallar ishlatildi:

Natriy metasilikat (Na_2SiO_3): 10 g (0.082 mol, ≥98% tozalik) gibrid modifikator sintezi uchun silikat tarmoqlarini ta’minlovchi asosiy kremniy manbai sifatida ishlatildi [8]. Ushbu modda barqaror Si-O-Si tuzilmalari hosil qilishda muhim rol o‘ynaydi [12].

Karbamid (CH_4N_2O): 100 g (≥99%) UF yelim sintezi uchun asosiy komponent sifatida ishlatildi [6].

Formalin: 150 ml (37% formaldegid eritmasi) UF yelim sintezida karbamid bilan reaksiyaga kirish uchun ishlatildi [6].

Ammoniy xlorid (NH_4Cl): 10% eritma UF yelim sintezining ikkinchi bosqichida pH ni 6.5-7.0 gacha sozlash uchun ishlatildi [6].

Qamish qirindilari: Mahalliy qamish manbalaridan olindi, ikki fraksiyaga bo‘lindi: 5-15 mm o‘lchamli o‘rta qatlam uchun katta fraksiya va 1-5 mm o‘lchamli sirt qatlamlari uchun mayda fraksiya. Qirindilar namlik darajasi ≤5% gacha quritildi [4].

2.2. UF yelim sintezi va modifikatsiyasi. UF yelim uch bosqichli usul bo‘yicha sintez qilindi [6]. Birinchi bosqichda 100 g karbamid (≥99%) va 150 ml formalin (37%) 70°C da 1 soat aralashtirildi, monoetanolamin bilan pH 8.5 ga yetkazildi (METTLER TOLEDO pH-metr). Ikkinchi bosqichda ammoniy xlorid eritmasi yordamida pH 6.5-7.0 ga keltirildi, 90°C da 2 soat aralashtirib turildi. Uchinchi bosqichda pH 7.5-8.0 ga qayta sozlandi, harorat 30°C ga tushirildi va 5-10% gibrid modifikator qo‘shildi. Reaksion aralashma 300 rpm da 20 daqiqa aralashtirildi [9]. Yelimning xususiyatlari o‘lchandi, natija quyidagicha: qovushqoqlik - 400-450 mPa·s

(25°C), gellanish vaqti - 50-60 s (60°C), zichlik - 1200-1250 g/cm³ (piknometrik usul), oquvchanlik - 40-45 s.

Modifikatorning UF yelimiga bog‘lanishi quyidagicha boradi:

$$Si(OH)_4-(OCH_2CH_2OH)+HO-CH_2NHCONH_2 \rightarrow Si(OH)_3-(OCH_2CH_2OH)-O-CH_2NHCONH_2+H_2O \quad (1)$$

2.3. Qamish-qirindili plitalar ishlab chiqarish. Termiz tumani hududidagi qamishzorlardan yig‘ib olingan qamish quritilib, maydalandi va ikkita fraksiyaga bo‘lindi: o‘rta qatlam uchun 5-15 mm o‘lchamli katta fraksiya va yuza qatlam uchun 1-5 mm o‘lchamli mayda fraksiya. Qamish qirindilari namligi ≤5% gacha quritildi. 1200 g katta fraksiyaga 155 g modifikatsiyalangan UF yelim (12-13% massa nisbatda modifikator qo‘shilgan) va 300 g mayda fraksiyaga 65 g yelim qo‘shildi. Aralashma gidravlik pressda 155-165°C da, 14-15 MPa bosim ostida 6 daqiqa presslandi [17].

Yelim-qamish bog‘lanishi:

$$Si-O-CH_2NHCONH_2+HO-Selluloza \rightarrow Si-O-CH_2NHCONH_2 \cdots HO-Selluloza \quad (8)$$

Modifikatorning sintez shartlari (60°C, pH 8.5) optimal unumni ta’minladi, bu siloksan tarmoqlarining barqarorligini oshirdi [8].

3. Natijalar.

3.1. UF yelim xususiyatlari. Modifikatsiyalangan UF yelimning fizik-kimyoviy xususiyatlari aniqlanganda quyidagi natijalar qayd etildi: qovushqoqlik 425 ± 15 mPa·s (25°C), gellanish vaqti 55 ± 3 s (60°C), zichlik 1225 ± 25 g/cm^3 (piknometrik usul) va oquvchanlik 42 ± 2 s (25°C). Modifikator qo‘shilmagan nazorat namunasi bilan solishtirganda (qovushqoqlik 380 mPa·s, gellanish vaqti 65 s), modifikatsiyalangan yelimning qovushqoqlik va bog‘lanish tezligi oshdi, bu siloksan tarmoqlarining mustahkamligi bilan bog‘liq. DTG-60, SIMULTANEOUS DTA-TG APARATUS SHIMADZU (Yaponiya) qurilmasida yelim namunasi termik analiz qilinganida 300°C gacha 6.5 ± 0.5% massa yo‘qotishi aniqlandi.

3.2. Qamish-qirindili plitalar ishlab chiqarish. Qamish qirindilari asosidagi plitalar 155-165°C, 14-15 MPa, 6 daqiqa issiq presslash orqali tayyorlandi [17]. Plitalar katta fraksiya (5-15 mm, o‘rta qatlam) va mayda fraksiya (1-5 mm, sirt qatlamlari) dan iborat bo‘lib, yelimning ulushi qamish qirindilariga nisbatan 12-13% tashkil etdi [4]. SEM tahlili (QUORUM Q150 RS) yelim va qamish zarrachalari o‘rtasidagi mustahkam bog‘lanishni ko‘rsatdi, bu modifikatorning sellyulozadagi OH guruhlar bilan vodorod va kimyoviy bog‘lar hosil qilish qobiliyatiga bog‘liq.

3.3. Gidrofoblik sinovlari. Modifikatsiyalangan plitalarning gidrofob xususiyatlarini aniqlash uchun yelimning kontakt burchagi o‘lchandi va 108 ± 3° ni tashkil etgani qayd etildi, modifikatorsiz yelimda esa 82 ± 4°. Olingan plitaning suv yutuvchanligi GOST 10633-2018 bo‘yicha 24 soatlik sinovda 10.2 ± 0.5% ni ko‘rsatdi, bu modifikatorsiz plitalardan 15.8 ± 0.7% ni tashkil etadi [4]. Bu natijalar siloksan tarmoqlari va etilenglikolning gidrofoblikka ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi [9, 10].

3.4. Mexanik xususiyatlar. Plitalarning mexanik xususiyatlari quyidagicha ekanligi aniqlandi: zichlik 720 ± 20 kg/m^3, egilishga mustahkamligi 14.5 ± 0.6 MPa va shurup qotirishda

qarshiligi 45 ± 2 N/mm [17]. Bu ko‘rsatgichlar modifikatorsiz plitalar bilan solishtirganda (zichlik 680 kg/m³, egilishga mustahkamligi 11.2 MPa, shurup qarshiligi 38 N/mm), modifikatsiyalangan plitalar 20-30% ijobiy ko‘rsatkichlarga ega ekanligi ma’lum bo‘ldi, bu silikat-silan tarmoqlarining mustahkamlovchi ta’siriga bog‘liq [12, 17].

3.5. Formaldegid emissiyasi. Formaldegid emissiyasi modifikatsiyalangan plitalarda 0.08 ± 0.01 ppm ni tashkil etdi, bu E1 standartiga (<0.1 ppm) mos keladi [7, 18]. Modifikatorsiz plitalarda emissiya 0.15 ± 0.02 ppm bo‘lib, monoetanolaminning formaldegidni bog‘lashdagi samaradorligini tasdiqladi.

2-jadval

Gibrid silan-poliol-silikat modifikatori miqdorining qamish-qirindili plitalar xususiyatlariga ta’siri

Qamish-qirindili plitalar xususiyatlari	Modifikator miqdori (% massa)			
	0 (nazorat)	5	7.5	10
Zichlik (kg/m³, ±20) [19]	680	700	710	720
Egilishga mustahkamligi (MPa, ±0.6) [20]	11.2	12.8	13.8	14.5
Shurup qarshiligi (N/mm, ±2) [21]	38	42	44	45
Suv yutuvchanlik (%, ±0.5) [22]	15.8	12.5	11.0	10.2
Formaldegid emissiyasi (ppm, ±0.01) [23]	0.15	0.10	0.09	0.08
Kontakt burchagi (°, ±3) [24]	82	95	102	108

2-jadvaldan ko‘rinadiki, modifikator miqdorining oshishi plitalarning gidrofobligini (kontakt burchagi 82° dan 108° ga, suv yutuvchanlik 15.8% dan 10.2% ga), mexanik mustahkamligini (zichlik 680 dan 720 kg/m^3 ga, egilishga mustahkamligi 11.2 dan 14.5 MPa ga) oshirdi, formaldegid emissiyasini (0.15 dan 0.08 ppm gacha, E1 standarti) kamaytirdi. Siloksan tarmoqlari (Si-O-Si) sirt energiyasini pasaytirib gidrofoblikni oshirdi, etilenglikol esa sellyuloza bilan vodorod bog‘lari orqali bog‘ hosil qilishi hisobiga mexanik mustahkamlikning yuqori bo‘lishiga xizmat qildi. Monoetanolaminning kimyoviy bog‘lanishi natijasida formaldegidning kamayishi kuzatildi. 10% dan yuqori modifikator miqdori qovushqoqlikni 500 mPa·s dan oshirib, presslash jarayonini qiyinlashtiradi [9].



1-rasm. Modifikatsiyalanmagan KF yelim asosida olingan plitaning SEM tasviri



2-rasm. Modifikatsiyalangan KF yelim asosida olingan plitaning SEM tasviri

Karbamid-formaldegid (UF) yrlim asosida modifikatsiyalanmagan va modifikatsiyalanmgan qamish-qirindili plitalar skanerlovchi elektron mikroskopda (330x va 500x kattalashtirish, QUORUM Q150 RS) solishtirildi. 1-rasmda modifikatsiyalanmagan yelim qamish zarralari orasida kamroq yopishqoqlik va kattaroq bo‘shliqlarni (5-10 mkm) ko‘rsatdi, bu suvning yutilishini oshiradi va kontakt burchagini pasaytiradi. 2-rasmda gibrid silan-poliol-silikat modifikatori bilan modofikatsiyalangan yelim qamish sellyulozasi bilan bog‘lanishni (2-5 mkm qatlam) hosil qilganligi hisobiga gidrofobiklikni oshirganini ko‘rish mumkin. Modifikatsiyalangan yelimning afzalligi siloksan tarmoqlarining sirt energiyasi kamayishi va etilenglikolning elastikligi oshishi bilan ilmiy asoslanadi, bu esa plitaning suvga chidamliligi va barqarorligini sezilarli darajada oshiradi [10].

4. Muhokama

4.1. UF yelimning xususiyatlari. Modifikatsiyalangan UF yelimning qovushqoqlik (425 ± 15 mPa·s) va gellanish vaqti (55 ± 3 s) modifikatorsiz yelimdan (380 mPa·s, 65 s) yuqori bo‘ldi, bu siloksan tarmoqlarining mustahkamlovchi ta’siriga bog‘liq. TGA/DTA tahlili modifikatsiyalangan yelimning termik barqarorligini (300°C gacha 6.5 ± 0.5% massa yo‘qotishi) modifikatorsiz yelimdan (8.2%) yuqoriroq ekanligini ko‘rsatdi.

4.2. Qamish-qirindili plitalarning xususiyatlari. Siloksan tarmoqlari sirt energiyasini 40 mN/m dan 30 mN/m gacha pasaytiradi, bu kontakt burchagining oshishiga olib keladi [9]. Siloksan tarmoqlari hisobiga kontakt burchagi 108 ± 3° va suv yutuvchanlik 10.2 ± 0.5% modifikatorsiz plitalardan (82 ± 4°, 15.8 ± 0.7%) yuqori bo‘ldi. Natriy metasilikatning silikat tuzilmalari va etilenglikolning moslashuvchan zanjirlari hisobiga mexanik xususiyatlar, jumladan zichlik (720 ± 20 kg/m³), egilishga mustahkamligi (14.5 ± 0.6 MPa) va shurup qotilish qarshiligi (45 ± 2 N/mm), modifikatorsiz plitalardan 20-30% yuqori natija berdi. SEM tahlili yelim va qamish zarrachalari o‘rtasidagi mustahkam bog‘lanishni ko‘rsatdi (1-2-rasmlar).

4.3. Ekologik va iqtisodiy afzalliklar. Modifikatsiyalangan plitalar E1 standartiga mos keladigan past formaldegid emissiyasi tufayli ekologik xavfsizlikni ta’minlash imkonini beradi.

Qamishdan foydalanish karbonat angidrid emissiyasini an’anaviy yog‘och asosli plitalarga nisbatan taxminan 20% ga kamaytirdi. Natriy metasilikatning TEOSga nisbatan arzonligi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirdi.

5. Xulosa. Natriy metasilikat va tetraetoksisilan (TEOS) asosida zol-gel usulida sintez qilingan gibrid silan-poliol-silikat modifikatori qo‘llanilganda, karbamid-formaldegid yelimning qovushqoqligi, termik barqarorligi, qamish-qirindili plitalarning gidrofobligi, mexanik mustahkamligi oshdi, formaldegid emissiyasi 20% ga kamaydi. FTIR, SEM va TGA/DTA tahlillari yordamida modifikatorning siloksan tarmoqlari va monoetanolaminning formaldegid bog‘lash samaradorligi isbotlandi. Qamishning qo‘llanilishi karbonat angidrid emissiyasini 20% kamaytirdi, natriy metasilikat esa iqtisodiy samaradorlikni oshirdi. Ushbu tadqiqotda qamish-qirindili plitalarida natriy metasilikat va TEOSning sinergetik ta’siri birinchi marta o‘rgandi, bu an’anaviy modifikatorlarga nisbatan arzonroq yechim ekanligini ta’kidlash mumkin.

Adabiyotlar:

1. Yalçın Ö.Ü. Improved properties of particleboards produced with urea formaldehyde adhesive containing nanofibrillated cellulose and titanium dioxide // BioResources. 2023. Vol. 18, No. 2. P. 3267-3278. DOI: 10.15376/biores.18.2.3267-3278.

2. Artner M.A., de Cademartori P.H.G., Avelino F., Lomonaco D., Magalhães W.L.E. A novel design for nanocellulose reinforced urea-formaldehyde resin: A breakthrough in amino resin synthesis and biocomposite manufacturing // Cellulose. 2021. Vol. 28. P. 3435-3450. DOI: 10.1007/s10570-021-03739-4.

3. Nuryawan A., Rahmawaty, Tambun K.D., Risnasari I., Masruchin N. Hydrolysis of particleboard bonded with urea-formaldehyde resin for recycling // Heliyon. 2020. Vol. 6, No. 5. P. e03936. DOI: 10.1016/j.heliyon.2020.e03936.

4. Ren T., Wang Y., Wu N., Qing Y., Li X., Wu Y., Liu M. Degradation of urea-formaldehyde resin residues by a hydrothermal oxidation method into recyclable small molecular organics // Journal of Hazardous Materials. 2022. Vol. 426. P. 127783. DOI: 10.1016/j.jhazmat.2021.127783.

5. Li J., Zhang Y. Morphology and crystallinity of urea-formaldehyde resin adhesives with different molar ratios // Polymers. 2021. Vol. 13, No. 5. P. 673. DOI: 10.3390/polym13050673.

6. Ghani A., Ashaari Z., Bawon P., Lee S.H. Reducing formaldehyde emission of urea formaldehyde-bonded particleboard by addition of amines as formaldehyde scavenger // Building and Environment. 2018. Vol. 142. P. 188-194. DOI: 10.1016/j.buildenv.2018.06.020.

7. Kim M.G. Effects of resin formulation, catalyst, and curing temperature on particleboard binder-type urea-formaldehyde and melamine-modified urea-melamine-formaldehyde resins // Journal of Applied Polymer Science. 2004. Vol. 93. P. 2559-2569. DOI: 10.1002/app.20886.

8. Christjanson P., Pehk T., Siimer K. Hydroxymethylation and polycondensation reactions in urea-formaldehyde resin synthesis // Journal of Applied Polymer Science. 2006. Vol. 100. P. 1673-1680. DOI: 10.1002/app.23782.

9. No B.Y., Kim M.G. Melamine acetate preparation as a urea-formaldehyde resin additive for particleboard production // Journal of Applied Polymer Science. 2020. Vol. 137, No. 36. P. 49091. DOI: 10.1002/app.49091.

10. Zhang B., Jiang S., Du G., Cao M., Zhou X. Polyurea-formaldehyde resin: A novel wood adhesive with high bonding performance and low formaldehyde emission // The Journal of Adhesion. 2019. Vol. 95, No. 5-6. P. 1-16. DOI: 10.1080/00218464.2018.1495206.

11. Wang J., Zhang Y., Wu Y. Synthesis and characterization of a silane-modified urea-formaldehyde resin for particleboard production // Wood Science and Technology. 2020. Vol. 54. P. 1273-1288. DOI: 10.1007/s00226-020-01192-3.

12. Lee S., Park J.H. Sodium metasilicate as a reinforcing agent in urea-formaldehyde resin for enhanced mechanical and water-resistant properties // Polymer Composites. 2019. Vol. 40, No. 7. P. 2750-2759. DOI: 10.1002/pc.25092.

13. Zhang H., Liu J. Functionalization of urea-formaldehyde resin with ethylene glycol for improved flexibility and adhesion // Journal of Applied Polymer Science. 2021. Vol. 138, No. 15. P. 50234. DOI: 10.1002/app.50234.

14. Ghani A., Lee S.H., Ashaari Z. Monoethanolamine as an effective formaldehyde scavenger in urea-formaldehyde bonded particleboards // Construction and Building Materials. 2020. Vol. 236. P. 117563. DOI: 10.1016/j.conbuildmat.2019.117563.

15. Kim S., Kim H.J. Effect of amine-based additives on the formaldehyde emission and curing behavior of urea-formaldehyde resins // Journal of Wood Science. 2005. Vol. 51. P. 555-561. DOI: 10.1007/s10086-004-0689-0.

16. Wu Y., Qing Y., Liu M. Reed-based particleboards: A sustainable alternative for wood-based composites // BioResources. 2021. Vol. 16, No. 3. P. 5432-5445. DOI: 10.15376/biores.16.3.5432-5445.

17. EN 323:2001. Wood-based panels - Determination of density. European Committee for Standardization.

18. EN 717-1:2004. Wood-based panels - Determination of formaldehyde release - Part 1: Formaldehyde emission by the chamber method. European

19. ГОСТ 10634-88. Плиты древесностружечные. Методы определения плотности. Настоящий стандарт применялся для измерения плотности древесностружечных плит (720 ± 20 кг/м³).

20. ГОСТ 10635-88. Плиты древесностружечные. Методы определения прочности при изгибе. Прочность плит при изгибе (14,5 ± 0,6 МПа) определялась в соответствии с настоящим стандартом.

21. ГОСТ 10636-90. Плиты древесностружечные. Методы определения стойкости к растрескиванию. Стойкость к растрескиванию (45 ± 2 Н/мм) определялась в соответствии с настоящим стандартом.

22. ГОСТ 27935-88. Плиты древесностружечные и древесноволокнистые. Методы определения водопоглощения. Водопоглощение плит (10,2 ± 0,5%) определялось в соответствии с настоящим стандартом.

23. ГОСТ 30255-2014. Мебель и древесные материалы. Камерный метод измерения выделения формальдегида. На основе этого стандарта были проведены дополнительные испытания на выделение формальдегида.

24. ГОСТ 7934.2-74 описывает метод определения краевого угла смачивания для часовых масел.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK 597.554.3

SALOR KANALI DOG‘LI LABDORI *TRIPLOPHYSA STRAUCHII* (KESSLER, 1874) NING MORFOLOGIK TAVSIFI

Ismatillayeva Gulhayo Mexriddinovna
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti
E-mail: ismatillayevag@gmail.com, (+998) 93 995-08-69)

Annotatsiya. Maqolada dog‘li labdorning morfologik belgilarining o‘zgaruvchanligini o‘rganish natijalari keltirilgan. Tadqiqot uchun material sifatida 2025-yil mart-may oylarida Salor kanalidan ovlangan baliqlar xizmat qildi. Tadqiqotlar natijasida dog‘li labdorning morfometrik belgilarining o‘zgaruvchanligi 2,88-29,71% gacha ekanligi aniqlandi. Urg‘ochilari erkaklaridan tana balandligi va qalinligi, antepektoral, anteventral, anteanal masofalari, shuningdek, anal suzgich asosining uzunligi va ko‘krak qanotlarining uzunligi bo‘yicha farqlanishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Salor kanali, dog‘li labdor, Triplophysa strauchii, morfometrik belgilar, o‘zgaruvchanlik.

Kirish. Mamlakatimiz suv havzalari, shuningdek shahar ichi irrigatsion tizmlaridagi baliq turlarini aniqlash, holatini baholash, ularga nisbatan bo‘layotgan salbiy holatlar darajasini va sababini aniqlash, bartaraf etish yoki ta’sir qilish darajasini kamaytirish, baliq resurslaridan rekreatsion maqsadlarda barqaror foydalanish bo‘yicha kompleks chora tadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda O‘zbekistonda rekreatsion ahamiyatga ega bo‘lgan eng katta irrigatsion tizimlardan biri Bo‘zsuv irrigatsiya tizimi hisoblanadi. Salor kanali esa Bo‘zsuv kanalining chap tarmog‘i hisoblanadi. Salorning bosh qismi Salor GESning quyi chiqarish o‘zanida joylashgan. Zangiota tumanining janubidan o‘tib, Yangiyo‘l tumanida tugaydi. Umumiy uzunligi 60 km. Kanalning kengligi 10-15 m, chuqurligi 1-2 m. Bosh suv olish inshooti 20 m^3/sek suv o‘tkazishga mo‘ljallangan. Kanaldan Dam va Polvon ariqlari suv oladi. Toshkent shahrining bir nechta sanoat korxonalari, jumladan, Toshkent issiqlik elektr markazining suv ta’minoati uchun foydalaniladi. Salorga Bo‘rjar, Qorasuv oqovalari ham kelib qo‘shilgan. Natijada kanalning suvi birmuncha ko‘payib, undan Qoraqulduq va Niyozboshi ariqlari ajralib chiqgan [7].

Bu irrigatsion kanalda baliqchilikni ilmiy asoslangan me’yorlar bo‘yicha tashkillashtirish, undagi baliq resurslaridan rekreatsion maqsadlarda ratsional foydalanish yo‘llarini izlab topish, shuningdek, baliqlarning ko‘payish imkoniyatlari va ekologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha chuqur ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Ma’lumki, biologik invaziyalar ekotizimlar faoliyati va barqarorligining global o‘zgarishlariga olib keluvch hamda biologik xilma-xillikka ta’sir etuvchi asosiy tahdidlardan biri bo‘lib hisoblanadi [8-10]. Bu o‘rinda, dog‘li labdor invaziv tur sifatida mahalliy ixtiofauna tarkibini o‘zgarishiga, ba’zi turlarni yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

Chirchiq daryosi havzasi ixtiofaunasi va uning shakllanishi baliqlarning morfologik va ekologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar T.V. Salixov [5] va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida keltirilgan. Biroq, irrigatsiya tizimi, xususan Salor kanali baliqlarining tur tarkibi, tarqalishi, morfologik va ekologik xususiyatlari haqida ma’lumotlar mavjud emas. Shunga ko‘ra, dog‘li labdor populyatsiyalarining morfologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlarni olib borish uning O‘zbekiston suv havzalariga moslashish potentsialini va mahalliy ixtiofaunaga ta’sir etish darajasini aniqlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Materiallar 2025-yil mart-may oylarida Toshkent shahri hududidan oqib o‘tuvchi Salor kanalining bir nechta nuqtalaridan (41°21'20.65"N, 69°19'53.54"E; 41°21'34.13"N, 69°20'3.50"E; 41°21'54.26"N, 69°20'18.52"E; 41°21'57.71"N, 69°20'20.43"E; 41°22'3.58"N, 69°20'26.30"E; 41°22'19.40"N, 69°20'38.29"E; 41°22'3.25"N, 69°20'27.24"E; 41°20'50.70"N, 69°19'29.07"E): Salar ShFY, Oybek mahallasi, Respublika perinatal markazi, Toshkent halqa yo‘li (kanal bo‘ylab 200 metr pastda), Toshkent pediatriya tibbiyot instituti (institut oshxonasining orqa tomoni), Do‘rmon yo‘li O‘zbekkabel zavodi atrofi, Plastik oynalar do‘koni yaqinidan “Versha” to‘ri (qafas tipidagi tuzoq), katak o‘lchamlari 10 mm, uzunligi 2 metr bo‘lgan kichik tortma to‘r, katak o‘lchamlari 3 va 10 mm, diametri 50 va 80 sm bo‘lgan ixtiologik qo‘l to‘ri hamda qarmoqlardan foydalanilgan holda yig‘ildi. Dala sharoitida ovlangan baliq namunalari 5 % formaldegid eritmasi bilan fiksatsiya qilindi (biriktirildi) va keyingi qayta ishlash uchun laboratoriyaga yetkaziladi.

Yig‘ilgan baliq namunalarning morfologik belgilari 0,01 mm aniqlikdagi raqamli shtangensirkul yordamida I.F.Pravdin [4] qo‘llanmasida keltirilgan sxema bo‘yicha o‘lchandi. Har bir morfologik parametrning o‘rtacha ko‘rsatkichi (*M*), uning xatoligi (*m*), standart og‘ishi (*SD*), dispersiyasi (S^2) va variatsiya koeffitsienti (*CV*) hisoblab chiqildi [3].

Maqolada belgilarning quyidagi qisqartmasi keltirilgan: *SL* – baliq tanasining uzunligi; *CL* – bosh uzunligi; *D* – yelka suzgichi; *A* – anal suzgichi; *P* – ko‘krak suzgichi, *V* – qorin suzgichi; *PC* – dum suzgichi; *sp.br.* – jabra ustunchalari soni; *vert.* – umurtqalarining soni; *LR* – tumshuq uzunligi; *O* – ko‘z diametri; *PO* – ko‘z orti qismi; *HC* – bosh balandligi; *WC* – Boshning maksimal kengligi; *IO* – peshona kengligi; *LB* – Orqa juft mo‘lovlarining uzunligi; *BH* – tananing balandligi; *BW* – tananing qalinligi; *AD* – antedorsal masofa; *PD* – postdorsal masofa; *AP* – antepektoral masofa; *AV* – anteventral masofa; *AA* – anteanal masofa; *Lca* – dum o‘qining uzunligi; *Hca* – dum o‘qining balandligi; *Wca* – dum o‘qining qalinligi; *LD* – yelka suzgichi asosining uzunligi; *HD* – yelka suzgichi balandligi; *LA* – anal suzgichi asosining uzunligi; *HA* – anal suzgichi balandligi; *LP* – ko‘krak suzgichi uzunligi; *LV* – qorin suzgichi uzunligi; *P-V* – ko‘krak va qorin suzgichi oralig‘idagi masofa; *V-A* – qorin va anal suzgichi

oralig‘idagi masofa; *LPCs* – dum suzgichi yuqori qismining uzunligi; *LPCi* – dum suzgichi pastki qismining uzunligi.

Tadqiqot natijalari. Dog‘li labdor (*Triplophysa strauchii* (Kessler, 1874)) asosan Markaziy Osiyoda Tyan-Shan tog‘ining shimoliy qismidagi daryo va ko‘llarda (Balxash, Zaysan, Sassiqko‘l va Olako‘l havzalari, Tarim va Ili daryolari) keng tarqalgan [1, 6]. O‘zbekistonga (Damachi baliqchilik xo‘jaligiga) o‘tgan asrning ikkinchi yarmida Qozog‘istondan karp balig‘i keltirilgan davrida tasodifan kirib kelgan [2]. Dog‘li labdor O‘zbekistonda tarqalishi davomida asta-sekin suv havzalari muhiti sharoitlariga (suv oqimining tezligi, haroratining pastligi, ozuqa resurslarining nisbatan kamligi va boshq.) moslashdi hamda bo‘sh ekologik joyni egalladi.

L.S. Berg [1] ma’lumotlari bo‘yicha dog‘li labdorning dum o‘qi boshidan uzunroq yoki unga teng bo‘lib asosida siqilmagan, uning qalinligi balandligiga teng yoki undan kattaroqdir. Yelka suzgichining balandligi tananing maksimal balandligidan oshmaydi. Burun teshiklari bir-biriga yaqin joylashgan. Yelka va yon tomonlarda dumaloq qora dog‘lar, yelka va dum suzgichlarida esa qoramtir qator dog‘chalar bor. Yelka suzgichida III-IV 7-8 (9) ta, anal suzgichida III 5, ko‘krak suzgichida I 11-14, qorin suzgichida I 7-8 ta shu’lalar bor. Jabra ustunchalarining soni 11-17 ta, umuryqalarining soni 39-42 ta.

Bizning namunalarimizdagi dog‘li labdorning tanasi ko‘proq yoki kamroq cho‘zilgan, bosh va tana, tana va dum o‘qi o‘rtasidagi chegaralar yaxshi namoyon bo‘lmaydi. Tanasi yalang‘och, tangachalari yo‘q. Yon chizig‘i aniq ko‘rinadi. Ko‘krak va qorin suzgichlari yaxshi rivojlangan. Dum suzgichining yuqori bo‘lagi pastki qismidan uzunroq, ikkala bo‘laklari ham yumaloqroq. Og‘iz pastki va go‘shtli lablar bilan o‘ralgan. Mo‘ylovlari uch juft bo‘lib, ulardan ikkitasi tumshug‘ining oxirida, oxirgisi esa og‘iz burchaklarida joylashgan. Yelka suzgichida II 7-8 ta, anal suzgichda III 5, ko‘krak suzgichida I 11-12, qorin suzgichida I 7-8, dum suzgichida 16-18 ta shu’lalar mavjud. Jabra ustunchalarining soni 12-14 (12,28±0,11), umuryqalarining soni 38-40 (38,53±0,12) ta.

Salor kanalidagi dog‘li labdorning morfologik belgilari ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Salor kanalidagi dog‘li labdorning morfologik ko‘rsatkichlari (n = 36)

Belgilar	***Lim.***	***M±m***	***SD***	***S^2***	***Cv, %***
D	II 7-8	7,06±0,04	0,23	0,05	3,29
A	III 5	-	-	-	-
P	I 11-12	11,31±0,08	0,47	0,22	4,13
V	I 7-8	7,11±0,05	0,32	0,10	4,48
PC	16-18	16,67±0,14	0,86	0,74	5,17
sp.br.	12-14	12,28±0,11	0,66	0,43	5,37
vert.	38-40	38,53±0,12	0,70	0,48	1,81
SL, mm	24,85-117,58	70,21±4,54	9,23	7,47	38,79

CL, mm	8,80-19,93	14,12±0,40	2,39	5,72	16,93
Tana uzunligiga nisbatan % hisobida (*SL*)					
CL	13,95-36,68	22,42±1,11	6,66	44,36	29,71
LR	3,68-8,15	6,21±0,20	1,19	1,43	19,25
O	1,99-4,24	3,00±0,09	0,57	0,32	18,92
PO	3,13-7,54	4,92±0,15	0,89	0,79	18,03
HC	4,55-11,85	7,58±0,22	1,35	1,82	17,78
WC	3,36-7,62	6,06±0,17	1,04	1,09	17,23
IO	2,31-6,07	4,53±0,12	0,70	0,49	15,46
LB	3,21-7,26	4,60±0,13	0,77	0,60	16,82
BH	11,41-18,07	14,62±0,22	1,34	1,78	9,14
BW	7,02-13,32	8,97±0,22	1,31	1,72	14,62
AD	49,74-55,56	52,29±0,28	1,66	2,75	3,17
PD	30,24-37,64	32,00±0,27	1,60	2,55	4,99
AP	20,67-25,43	23,15±0,26	1,56	2,43	6,73
AV	51,55-56,56	53,49±0,26	1,54	2,38	2,88
AA	57,54-65,43	60,74±0,41	2,47	6,12	4,07
Lca	19,44-24,32	21,04±0,24	1,43	2,06	6,82
Hca	5,39-8,11	6,34±0,10	0,61	0,37	9,65
Wca	3,14-5,28	4,36±0,09	0,56	0,32	12,95
LD	9,00-12,93	10,88±0,18	1,11	1,23	10,19
HD	12,28-19,09	16,64±0,41	2,47	6,10	14,84
LA	5,73-7,86	6,82±0,12	0,69	0,48	10,15
HA	12,67-16,74	14,97±0,15	0,92	0,84	6,12
LP	14,06-19,27	15,80±0,22	1,33	1,77	8,41
LV	12,21-16,75	14,16±0,21	1,25	1,57	8,85
P-V	29,11-36,36	31,61±0,32	1,91	3,64	6,03
V-A	12,91-17,54	14,76±0,16	0,99	0,97	6,68
LPCs	13,66-18,67	15,50±0,18	1,07	1,15	6,92
LPCi	12,54-17,24	14,73±0,16	0,98	0,96	6,64
Tana balandligiga nisbatan % hisobida (*BH; Hca*)					
BW/BH	53,77-77,44	61,21±0,82	4,91	24,14	8,03
Wca/Hca	54,33-83,02	68,88±1,18	7,07	49,93	10,26
Bosh uzunligiga nisbatan % hisobida (*CL*)					
LR/CL	39,75-47,76	43,82±0,38	2,28	5,18	5,19
O/CL	15,80-27,55	21,34±0,48	2,88	8,27	13,48
PO/CL	31,15-41,78	34,84±0,39	2,32	5,37	6,65

HC/CL	44,18-69,70	53,99±1,02	6,15	37,82	11,39
WC/CL	29,28-54,94	43,24±1,00	5,99	35,85	13,85
IO/CL	21,37-45,95	32,48±0,82	4,92	24,22	15,15
LB/CL	24,87-44,59	33,00±0,80	4,80	23,05	14,55

1-jadvalda keltirilgan Salor kanalidagi dog‘li labdorning morfometrik belgilari variatsiya koeffitsientlari bo‘yicha xulosa chiqaradigan bo‘lsak, ularning aksariyati kam va yuqori o‘zgaruvchanlik xususiyatlarini namoyon qiladi. Tana uzunligiga (*SL*) nisbatan *CL, LR, O, PO, HC, WC, IO, LB, BW, Wca, LD, HD, LA* yuqori o‘zgaruvchan belgilar hisoblanadi. *BH, Hca, LP, LV* belgilar o‘rtacha o‘zgaruvchan, *AD, PD, AP, AV, AA, Lca, HA, P-V, VA, LPCs, LHCi* kam o‘zgaruvchan belgilar qatoriga kiradi.

Tananing balandligiga nisbatan uning qalinligi (*BW/BH*) o‘rtacha o‘zgaruvchanlikni (*CV* = 8,03), dum o‘qining balandligiga nisbatan uning qalinligi (*Wca/Hca*) esa yuqori o‘zgaruvchanlikni (*CV* = 10,26) namoyon etdi.

Bosh uzunligiga nisbatan tumshuq uzunligi (*LR/CL*) va ko‘z orti qismi (*PO/CL*) kam o‘zgaruvchan belgilar hisoblanadi. Qolgan barcha belgilari (*O/CL, HC/CL, WC/CL, IO/CL, LB/CL*) yuqori o‘zgaruvchanlikni namoyon etadi.

Salor kanalidagi dog‘li labdorlarning erkak va urg‘ochilari o‘rtasidagi farqlarning mavjudligini aniqlash maqsadida ularning morfometrik belgilarini o‘zaro solishtirdik (2-jadval).

2-jadval. Salor kanali dog‘li labdori urg‘ochi va erkaklarining morfometrik belgilarini solishtirma tahlili

Belgilar	**Urg‘ochilar (*n*=13)**		**Erkaklar (*n*=9)**		***t*$_{st}$**
	Lim.	***M±m***	***Lim.***	***M±m***	
SL, mm	60,47-117,58	86,42±5,73	64,81-107,49	89,25±5,14	-
CL, mm	12,95-19,93	15,10±0,57	13,74-17,13	15,83±0,43	-
Tana uzunligiga nisbatan % hisobida (*SL*)					
CL	13,95-21,42	17,92±0,65	15,39-21,97	18,03±0,67	0,113
LR	5,39-8,15	6,59±0,29	5,54-7,82	7,11±0,28	1,235
O	2,52-4,24	3,33±0,14	2,25-3,68	3,12±0,14	1,049
PO	4,13-7,54	5,19±0,25	4,95-5,95	5,61±0,11	1,332
HC	7,13-11,85	8,47±0,41	7,36-7,98	7,72±0,07	1,497
WC	6,28-7,62	6,92±0,12	4,89-6,88	6,23±0,20	*3,122
IO	4,11-6,07	4,89±0,16	4,10-4,97	4,69±0,11	0,918

LB	4,13-7,26	5,09±0,27	4,14-4,95	4,52±0,10	1,705
BH	14,05-18,07	15,66±0,30	11,41-15,36	13,35±0,48	*4,256
BW	8,13-13,32	9,82±0,47	7,02-9,65	8,06±0,26	*2,912
AD	51,34-55,56	52,95±0,40	51,78-55,45	53,66±0,40	1,212
PD	31,10-37,64	32,46±0,48	31,23-36,36	32,99±0,57	0,697
AP	23,17-25,43	24,66±0,19	21,39-24,78	23,10±0,42	*3,794
AV	53,13-56,56	55,03±0,36	51,97-54,72	53,12±0,29	*3,829
AA	60,11-65,43	63,20±0,50	57,93-63,58	60,32±0,58	*3,747
Lca	20,22-24,32	21,92±0,42	19,77-23,57	21,53±0,41	0,640
Hca	5,39-8,11	6,65±0,21	5,78-6,94	6,09±0,12	2,014
Wca	3,87-5,28	4,53±0,15	3,96-5,28	4,41±0,16	0,543
LD	10,87-12,93	11,50±0,17	9,00-12,69	10,88±0,47	1,410
HD	17,34-18,98	18,32±0,18	17,05-19,09	18,13±0,31	0,566
LA	7,01-7,86	7,45±0,08	5,73-7,23	6,43±0,16	*6,259
HA	12,67-16,74	15,07±0,38	13,50-15,62	14,72±0,23	0,712
LP	15,27-19,27	16,97±0,34	14,06-16,31	14,91±0,27	*4,423
LV	13,27-16,75	14,61±0,26	13,27-16,72	15,29±0,36	1,558
P-V	30,97-36,04	32,41±0,46	31,03-36,36	33,00±0,60	0,804
V-A	14,54-17,54	15,45±0,25	13,91-16,47	14,82±0,26	1,704
LPCs	15,16-18,67	16,19±0,28	15,11-17,43	15,94±0,26	0,635
LPCi	14,18-17,24	15,32±0,26	14,07-16,42	14,92±0,26	1,035
Tana balandligiga nisbatan % hisobida (*BH; Hca*)					
BW/BH	53,95-77,44	62,44±1,93	53,77-63,00	60,49±0,95	0,788
Wca/Hca	54,73-76,91	68,44±2,04	60,09-83,02	72,44±2,43	1,260
Bosh uzunligiga nisbatan % hisobida (*CL*)					
LR/CL	39,75-47,00	43,52±0,66	40,32-47,05	44,77±0,72	1,248

O/CL	17,67-27,55	22,19±0,88	15,80-23,65	19,68±0,74	2,047
PO/CL	31,15-38,13	34,28±0,69	33,01-41,78	35,56±0,86	1,162
HC/CL	47,20-63,12	56,03±1,26	44,67-56,04	49,09±1,49	*3,534
WC/CL	38,23-54,94	46,38±1,44	29,28-50,07	39,75±2,14	*2,670
IO/CL	25,26-37,98	32,61±0,99	25,63-34,16	29,75±0,78	*2,113
LB/CL	27,31-40,69	33,70±1,13	24,87-31,59	28,62±0,59	*3,511

Eslatma: $P \leq 0,05$ ahamiyatlilik darajasida aniqlangan farqlar yulduzcha (*) bilan belgilangan. Urg‘ochi va erkak baliqlar o‘rtasidagi farqlar tana uzunligi (*SL*) bilan bog‘liq belgilarining 8 tasida (*WC, BH, BW, AP, AV, AA, LA, LP*) va boshi bilan bog‘liq belgilarining 4 tasida (*HC/CL, WC/CL, IO/CL, LB/CL*) namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

Xulosa. Salor kanalidagi dog‘li labdorlarning morfometrik belgilarining variatsiya koeffitsiyentlarii 2,88-29,71 foizgacha o‘zgarib turishi, shundan tana uzunligiga nisbatan 13 belgi yuqori o‘zgaruvchan, 4 belgi o‘rtacha o‘zgaruvchan, 11 belgi esa kam o‘zgaruvchanlikka ega ekanligi aniqlandi. Bosh uzunligiga nisbatan 2 belgi kam o‘zgaruvchan, qolgan 5 belgi yuqori o‘zgaruvchanlikni namoyon etadi. Suningdek, tananing balandligiga nisbatan uning qalinligi o‘rtacha o‘zgaruvchan, dum o‘qi balandligiga nisbatan uning qalinligi esa yuqori o‘zgaruvchan belgilar qatoriga kirishi aniqlandi. Umuman olganda, dog‘li labdor yuqori morfologik o‘zgaruvchanlik bilan tavsiflanadi.

Dog‘li labdorlarning erkaklari urg‘ochilarga qaraganda kattaroq bo‘lishiga qaramasdan urg‘ochilarning tana balandligi va qalinligi, antepektoral, anteventral, anteanal masofalari hamda anal suzgichi asosining va ko‘krak suzgichi uzunliklarining katta ekanligi aniqlandi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Берг Л.С. Рыбы пресных вод СССР и сопредельных стран. – М.-Л.: Изд. АН СССР, 1949. Часть 2. – С. 851-854.

2. Камилов Г. О видовом составе сорных рыб в прудхозе «Дамащи» // Узбекский биол. журн., 1965. № 1. – С. 69.

3. Лакин Г.Ф. Биометрия. Учебное пособие для биол. спец. вузов. 4-е изд. – Москва, 1990. – 352 с.

4. Правдин И.Ф. Руководство по изучению рыб. 4-е изд. – М.: Пищевая промышленность, 1966. – 376 с.

5. Салихов Т.В. Ихтиофауна бассейна р. Сырдарьи в условиях антропогенного воздействия: Автореф. дис. ... канд. биол. наук. – Ташкент, 1990. – 22 с.

6. Турдаков Ф.А. Рыбы Киргизии. – Фрунзе: Изд-во АН Киргизской ССР, 1963. – С. 108-109.

7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 7-жилд. Парчин – Солиқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004. – Б.449.

8. Chapin F.S., Zaveleta E.S., Eviner V.T., Naylor R.L., Vitousek P.M., Lavorel S., Reynolds H.L., Hooper D.U., Sala O.E., Hobbie S.E., Mack M.C., Díaz S. Consequences of changing biotic diversity. // Nature, 2000. 405: – 234-242.

9. Ehrenfeld J.G. Ecosystem consequences of biological invasions. // Annu. Rev. Ecol. Evol. Syst., 2010. 41: – 59-80.

10. Simberloff D., Martin J., Genovesi P., Maris V., Wardle D.A., Aronson J., Courchamp F., Galil B., García-Berthou E., Pascal M., Pyšek P., Sousa R., Tabacchi E., Vilà M. Impacts of biological invasions: what’s what and the way forward. // Trends Ecol. Evol., 2013. 8(8): – 58-66.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

QOTISHINI TEZLASHTIRUVCHI KIMYOVIY QO‘SHIMCHANI SEMENT HAMIRI REALOGIYASIGA TA’SIRI

Norboyeva Madina Azamat qizi
Toshkent kimyo texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
Sottiqulov Elyor Sotimboevich
Texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim, Toshkent kimyo texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada portlandsement asosidagi qorishmalarning oquvchanlik xususiyatlariga kalsiy formiat va glyukonatning ta’siri eksperimental jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqotda 100 gr sement, 40 gr suv va 0,6 gr plastifikatordan iborat tarkibga 0,1–1,0 gr oralig‘ida kalsiy glyukonat va formiat aralashmasi qo‘shilib, aralashmaning oquvchanligi baholandi. Oquvchanlikni aniqlash uchun GOST 30515–2013 talablariga muvofiq mini-konus usuli qo‘llanildi. Tadqiqot natijalari kalsiy glyukonat va formiat aralashmasining 100 gramm sement miqdoriga nisbatan 0,5–0,6 gr miqdorlari sement-suv qorishmasining oquvchanligiga salbiy ta’sir etmadi. Shu bilan birga, yuqori konsentratsiyalarda suv ajralishi hodisasi kuzatilib, aralashmaning barqarorligi pasaygani aniqlandi.

Kalit so‘zlar. Portlandsement, oquvchanlik, kalsiy glyukonat va formiat aralashmasi, plastifikator, reologik xossalar, segregatsiya, gidratatsiya.

Аннотация В данной статье экспериментально изучено влияние кальция формиата и глюконата на удобоукладываемость смесей на основе портландцемента. В ходе исследования в состав, включающий 100 г цемента, 40 г воды и 0,6 г пластификатора, добавлялась смесь кальция формиата и глюконата в количестве от 0,1 до 1,0 г, после чего оценивалась удобоукладываемость смеси. Для определения удобоукладываемости применялся метод мини-конуса в соответствии с требованиями ГОСТ 30515–2013. Результаты исследования показали, что добавление 0,5–0,6 г смеси кальция глюконата и формиата на 100 г цемента не оказывает отрицательного влияния на удобоукладываемость цементно-водной смеси. Вместе с тем, при высоких концентрациях была зафиксирована явление выделения воды, что указывает на снижение стабильности смеси.

Ключевые слова: портландцемент, удобоукладываемость, смесь глюконата и формиата кальция, пластификатор, реологические свойства, сегрегация, гидратация.

Abstract This article experimentally investigates the effect of calcium formate and gluconate on the workability of Portland cement-based mixtures. In the study, a composition consisting of 100 g of cement, 40 g of water, and 0.6 g of plasticizer was supplemented with a

mixture of calcium formate and gluconate in the range of 0.1–1.0 g, and the workability of the mixture was evaluated. The mini-cone method was used to determine workability in accordance with the requirements of GOST 30515–2013. The results showed that adding 0.5–0.6 g of the calcium gluconate and formate mixture per 100 g of cement did not negatively affect the workability of the cement-water mixture. However, at higher concentrations, water bleeding was observed, indicating a decrease in the stability of the mixture.

Keywords: Portland cement, workability, calcium gluconate and formate mixture, plasticizer, rheological properties, segregation, hydration.

Kirish. So‘nggi yillarda qurilish materiallarining sifatini oshirish, ularning ishlovchanlik xossalarini yaxshilash va barqaror texnologik tarkiblar yaratish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda kimyoviy qo‘shimchalarning ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Ayniqsa, portlandsement asosidagi aralashmalarda plastifikatorlar, organik kislotalar va ularning tuzlari sement tizimlarining gidratatsyasini tezlashtirish xossalariga ta’sir ko‘rsatishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu tadqiqotda portlandsement-suv qorishmasining oquvchanlik va barqarorlik xususiyatlariga kalsiy glyukonat va formiat aralashmasining ta’siri o‘rganilgan bo‘lib, ularning sinergik ta’sirini baholash orqali optimal konsentratsiyani aniqlash, aralashmaning texnologik parametrlarini yaxshilash imkoniyatlari ko‘zda tutilgan.

Zamonaviy qurilish qorishmalarini tayyorlash uchun keng qo‘llaniladigan sement bog’lovchisi suv bilan aralashtirilganda qotishi mumkin bo‘lgan noorganik boglovchi modda. portland sement suvda yoki havoda qotadigan bog‘lovchi moddadir. Sement asosidagi qurilish materiallari va mahsulotlarining asosiy xarakteristikasi bu normal sharoitda 28 kunda qotishi. Biroq, hozirgi vaqtda sementni qotishini tezlashtiradigan kimyoviy moddalar ishlab chiqishga ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda, dastlabki uch kun ichida 70% yoki undan ko‘prog‘ini mustahkamlik oladi, bu monolit qurilishda ishlarni jadallashtirishni ta’minlash, tezlashtirish imkonini beradi shuningdek qurilish mahsulotlarini issiqlik bilan ishlov berish zaruratini kamaytiradi [1]. Beton qorishmalari va betonlar uchun zarur xususiyatlarini berishning asosiy usuli turli xil qo‘shimchalarni kiritishdir. Adabiyotlarda mavjud qo‘shimchalar turlari haqida umumiy ma’lumot berilgan va shuningdek, GOST 24211-2003 ga muvofiq mahalliy sanoatda eng ko‘p o‘rganilgan va keng qo‘llaniladigan qo‘shimchalar nomenklaturasi, ularning tasnifi betonda mineral biriktiruvchi moddalarni qotish jarayonlariga ta’sir qilish mexanizmi keltirilgan. Har xil turdagi qo‘shimchalarning sementning gidratatsiya jarayonlariga ta’siri ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘rganilgan [2]. Jahon amaliyotida hozirgi vaqtda sement va beton qo‘shimchalarining yagona tasnifi mavjud emas. Turli mamlakatlarda ularni tasniflash sxemalari ishlab chiqilgan. Ushbu sxemalar mualliflarning beton qo‘shimchalarini to‘g'ri tanlashni osonlashtirish istagiga asoslangan yoki ularning maqsadiga muvofiq yechimlar berilgan. Beton xususiyatlarini o‘zgartirish uchun ishlatiladigan eng ko‘p o‘rganilgan va keng qo‘llaniladigan qo‘shimchalar quyidagilarga bo‘linadi [2]. Bularga quyidagilar kiradi: plastifikatorlar (superplastifikatorlar, yuqori plastifikatorlar, o‘rta plastifikatorlar, zaif

plastiklashtiruvchi); barqarorlashtiruvchi; beton qorishmalarning saqlanishini tartibga solish (sekinlashtirish va tezlashtirish); g‘ovaklash (havo yig‘ish, ko‘pik hosil qilish, gaz hosil qilish) [3].

Sement beton texnologiyasida noorganik tuzlar sementning gidratsiyasi va qotish jarayonlarini tartibga soladi [4]. Ko‘plab noorganik qo‘shimchalardan eng ko‘pi elektrolitlar. Bunday qo‘shimchalar eruvchanlikning oshishiga olib keladi klinker minerallari va gidratlangan neoplazmalar qo‘shimcha ravishda kimyoviy ta’sir paytida turli xil tarkibdagi gidratlangan fazalarni shakllantirishga yordam beradi [4]. Sementni qotishini tezlatgichlar odatda NaCl, Na_2SO_4 va $CaCl_2$ boshqalar kabi tuzlaridir. Asosiy ta’siri ko‘rsatkichiga qarab, qo‘shimchalarning miqdori o‘zgaradi. Shu bilan birga, armatura, betonga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan ushbu qo‘shimchalarning qo‘shimcha ta’sirini yodda tutish kerak [4]. Tadqiqotchilar yangi noorganik moddalarning xususiyatlarini izlash, sintez qilish va o‘rganishni davom ettirmoqdalar. Ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar rivojlanmoqda, chunki bunday qo‘shimchalar beton texnologiyasida yuqori talabga ega. Olimlar ilgari $CaCl_2$, $Ba(NO_3)_2$, $CuSO_4$ va $CuSO_4$ [5] kabi bir qator noorganik tuzlarni qo‘llash samaradorligini isbotlagan.

Sement betonining kamchiliklaridan biri bu qotish jarayonini sovuqda sharoitlarda sekin borishidir [6]. Bunda qotishini tezlashtirish uchun issiqlik bilan ishlov berishning turli xil usullari qo‘llaniladi, bu kerakli tarkibga ega beton mahsulotlarini bir kundan keyin olish imkonini beradi. Biroq, issiqlik bilan ishlov berish energiya talab qiladi, bu beton strukturasiga ta’sir qiladi. Bundan tashqari, u ichki strukturani o’zgarishiga olib keladi, bu esa ko‘p sonli mikro yoriqlar to‘planishiga olib keladi va tovar narxini kamaytiradi [7]. Betonning qotishini tezlashtirishning yana bir usuli kimyoviy qo‘shimchalardan foydalanishdir. Ularni kiritish issiqlik bilan ishlov berishni kamaytiradi yoki undan butunlay voz kechiladi. Murakkab qo‘shimchalar eng samarali hisoblanadi, ular quyidagilarni birlashtiradi superplastifikator va qotishni tezlatuvchi qo‘shimcha [3-5]. Ushbu kombinatsiya qotishning birinchi kunidayoq o‘z ta’sirini ko‘rsatadi [8]. Sement gidratatsiyasi kinetikasining regulyatorlari betonning qotishini tezlashtiruvchilarni ishlatish imkonini beradi, ulardan foydalanish ko‘pincha zarur, ammo ba’zi hollarda qo‘shimcha miqdorini meyyoridan ortishi beton uchun salbiy oqibatlari bulishi mumkin. Xloridlarni qo‘llashda bu po‘lat armaturaning korroziyasi, kaliy va natriy tuzlaridan foydalanish gidroksidli korroziyani keltirib chiqaradi. Bunday tezlatgichlar mavjud: trietanolaminlar, formiat va sirka kislotasining kalsiyli tuzlari kabi organik moddalar [8].

Ushbu tadqiqotning maqsadi — portlandsement asosidagi aralashmaga turli miqdorlarda kalsiy glyukonat va formiat aralashmasi qo‘shilishi natijasida uning oquvchanlik xususiyatlarida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni baholashdan iborat, tadqiqotning muhim vazifalaridan biri qorishma barqarorligiga kalsiy glyukonat va formiat qo‘shimchalarining birgalikdagi ta’sirini baholashdan iborat.

Tadqiqotda foydalanilgan materiallar-Tadqiqot ishlari uchun asosiy bog‘lovchi material sifatida portlandsement tanlab olindi. Sement namunasi ГОСТ 31108–2020 talablariga javob beruvchi, mahalliy ishlab chiqaruvchidan olingan M500 markali portlandsement bo‘lib,

uning yirikligi va aktivligi oldindan laboratoriya sharoitida sinovdan o‘tkazilgan. Tadqiqotlarda distillangan suv ishlatildi, bu suv sementning gidratatsiyasi uchun zarur bo‘lgan kimyoviy tozalik talablariga javob beradi. Kimyoviy qo‘shimchalar sifatida polikarboksilat asosidagi plastifikator, kalsiy glyukonat va formiat ishlatildi. Plastifikator sifatida yuqori darajadagi suv kamaytirish xususiyatiga ega bo‘lgan, tijoratda mavjud bo‘lgan polikarboksilat superplastifikatori qo‘llanildi. Kalsiy glyukonat va formiat laboratoriya sharoitida sintez qilib olindi. Barcha tajribalar barqaror harorat va namlik sharoitida, standart usullar asosida olib borildi.

Tadqiqot usullari. Sement hamirining oquvchanlik va barqarorlik xususiyatlarini baholash uchun tadqiqotlar eksperimental laboratoriya sharoitida olib borildi. Ishlab chiqilgan tarkibga 100 gr portlandsement, 40 gr toza distillangan suv, 0,6 gr polikarboksilat asosidagi plastifikator va 0,1–1,0 gr oralig‘ida kalsiy glyukonat va formiat aralashmasi qo‘shildi. Aralashmalar belgilangan ketma-ketlikda mexanik laboratoriya aralashtirgich yordamida bir xil sharoitda aralashtirildi. Har bir tarkib uch marotaba takroran tayyorlanib, o‘rtacha natijalar qayd etildi. Oquvchanlik darajasi konus shaklidagi o‘lchov asbobida amalga oshirildi (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqotda foydalanilgan kesik konusning chizmasi

R_B-10mm, h-60 mm, R_H-20 mm, L-60,83 mm, a burchak-9,46^o

Ushbu qurilma metall konusdan iborat bo‘lib, u GOST 30515–2013 talablariga muvofiq foydalanildi. Qorishma konusga ehtiyotkorlik bilan solinib, sirtga chiqmagan holda to‘ldirildi va konus vertikal yo‘nalishda ko‘tarildi. Qorishmaning o‘z og‘irligi ostida gravitatsion yoyilish diametri o‘lchov liniyasi yordamida ikkita o‘zaro perpendikulyar yo‘nalishda o‘lchandi va o‘rtacha qiymati hisoblab chiqildi. Bundan tashqari, sinov davomida aralashma sirtida suv ajralishi (segregatsiya) holati mavjudligi vizual kuzatildi va qayd etildi. Ushbu suv ajralishining darajasi qorishmaning barqarorlik darajasini baholash mezoni sifatida tahlil qilindi. Natijalar

asosida kalsiy glyukonat va formiatni qorishmaning reologik xususiyatlariga ko‘rsatgan individual va kompleks ta’siri ilmiy jihatdan baholandi.

Sement qorishmasining oquvchanlik xususiyatlarini aniqlash uchun olib borilgan tadqiqotlar, amaldagi ГОСТ 31108–2020 (“Portlandsement. Texnik shartlar”) va ГОСТ 30515–2013 (“Beton aralashmalari. Ishlab chiqarish va sinash usullari”) standartlariga tayangan holda bajarilgan. Bu yondashuv aralashmaning reologik xususiyatlariga kalsiy glyukonat va formiatlarni ta’sirini aniqlash imkonini beradi. Sinovlar maxsus laboratoriya asbobi — konus shaklidagi qurilmada o‘tkazilgan bo‘lib, bu usul sement qorishmasining yoyilish xususiyatini aniqlashda yuqori aniqlik beradi. Kalsiy glyukonat va formiat aralashmasining miqdor jihatidan o‘zgarishi aralashmaning oquvchanlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin. Shu orqali plastifikator va kalsiy glyukonat va formiatning sinergik ta’sirini baholash, qorishmaning ishlovchanligi va texnologik samaradorligini optimallashtirish imkoniyati vujudga keladi. Tadqiqot natijalari, ayniqsa, beton tarkibidagi suv-sement nisbati barqaror holda saqlanayotgan sharoitda, kimyoviy qo‘shimchalarning individual va kompleks ta’sirini baholash uchun muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tajriba jarayonida qorishmaning oquvchanligi bilan bir qatorda uning barqarorlik darajasi ham tahlil qilindi. Amalga oshirilgan reologik baholash davomida ayrim hollarda aralashma yuzasida suv ajralishi - ya’ni segregatsiya hodisasi kuzatildi. Bu holat, odatda, aralashma tarkibidagi komponentlarning muvozanatsiz taqsimlanishi, ayniqsa, suvning qattiq fazadan ajralib chiqishi bilan izohlanadi. Bunday suv ajralishi hodisasi sementning suv bilan dastlabki reaksiyasi (ya’ni gidratatsiyaning boshlang‘ich bosqichlari) hamda plastifikator va kalsiy glyukonatva formiatning gidratatsiya kinetikasiga bo‘lgan ta’siri bilan bog‘liq. Shu sababli, suv ajralishi faqat ishlovchanlikning noxush belgisigina emas, balki keyingi strukturaviy jihatdan yaroqsizlik ehtimolining ko‘rsatkichi sifatida ham baholanishi kerak.

Tajriba natijalari sement aralashmasiga turli miqdordagi **kalsiy glyukonat va formiat** qo‘shilganda qorishmaning **oquvchanlik** xususiyatlari qanday o‘zgarishini ko‘rsatadi. Barcha tajribaviy tarkiblar 100 gr portlandsement, 40 gr suv va 0,6 gr plastifikator ishtirokida tayyorlangan. Faqatgina **kalsiy glyukonat va formiat aralashmasi** miqdori 0,1 gr dan 1,0 gr gacha bosqichma-bosqich oshirib borilgan. Sementni oquvchanligi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Sement hamiri oquvchanligiga kalsiy glyukonat va formiat aralashmasi miqdorini vaqt davomidagi ta’siri

Sement (g)	**Suv (g)**	**Plastifikator (g)**	**Kalsiy glyukanat**	**Oquvchanlik**	**1 soatdan keyingi oquvchanlik**
100	40	0,6	0,1	19	18
100	40	0,6	0,2	17	18

100	40	0,6	0,3	17,5	17,5
100	40	0,6	0,4	15,5	16,5
100	40	0,6	0,5	17	18
100	40	0,6	0,6	20	17
100	40	0,6	0,7	19	18,5
100	40	0,6	0,8	18	16,5
100	40	0,6	0,9	17	14
100	40	0,6	1	17	16

Natijalar shuni ko‘rsatadiki**, kalsiy glyukonatning 0,1–0,4 gr oralig‘ida** qo‘shilishi aralashmaning boshlang‘ich oquvchanligini biroz pasaytirgan bo‘lsa-da, 1 soat davomida barqaror oquvchanlikni saqlab qolishga yordam bergan. 0,5–0,6 gr miqdorlarda esa maksimal oquvchanlik (20 mm) qayd etilgan, bu glyukonat formiatning plastifikator bilan sinergik ta’sirini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, **0,9–1,0 g miqdorlarda** esa oquvchanlik keskin pasaygani va 1 soatdan keyin sezilarli darajada yomonlashgani (masalan, 14×14 mm gacha) kuzatiladi. Bu holat yuqori konsentratsiyadagi glyukonat formiat aralashmasi gidratatsiya jarayonini meyyoridan ko‘ra ko‘proqqa tezlashtirgani ifodalaydi.

Ushbu natijalar asosida kalsiy glyukonat va formiat aralashmasining optimal miqdori sifatida **0,5–0,6 g oralig‘i** deb qaralishi mumkin. Bu miqdor aralashmaga yaxshi oquvchanlikni saqlash bilan birga, vaqt o‘tishi bilan uning barqarorligini ham saqlab qolgan. Yuqori miqdorlarda esa oquvchanlikning pasayishi va barqarorlikning yomonlashuvi aniqlangan.

Xulosa

Ushbu maqolada portlandsement asosidagi aralashmaning oquvchanlik xususiyatlariga kalsiy glyukonat va formiat qo‘shimchasining ta’siri o‘rganilganda, aniqlandi-ki, 0,5–0,6 gr miqdorda qo‘shilgan kalsiy glyukonat va formiat aralashmaning reologik xossalarini yaxshilsaqlab, 3 soatdan keyin gidratatsiyani tezlashtiradi. Shuningdek, bu miqdorda ishlatilgan glyukonat 1 soat davomida aralashmaning barqaror ishlovchanligini saqlab turishga halaqit qilmaydi. Biroq, glyukonatning miqdori 0,9–1,0 gr gacha oshirilganda, aralashmada suv ajralishi hodisasi kuzatilib, oquvchanlik keskin pasayadi va gidratatsiya jarayoni juda tezlashib ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Адамцевич А. О., Пашкевич С. А., Пустовгар А. П. Использование калориметрии для прогнозирования роста прочности цементных систем ускоренного твердения //Magazine of Civil Engineering. – 2013. – №. 3 (38). – С. 36-42.

2. Боцман Л. Н. и др. Модифицирование бетона за счет введения различных видов добавок //Вестник Белгородского государственного технологического университета им. ВГ Шухова. – 2016. – №. 6. – С. 90-94.
3. Алфимова Н.И., Соловьева Л.Н., Гринев А.П., Огурцова Ю.Н. Влияние противоморозных добавок на свойства мелкозернистого.
бетона // В сборнике: Инновационные материалы и технологии (XX научные чтения) Материалы Международной научно-практической конференции. 2013. С. 16–20.
4. Урханова Л. А. и др. УЛУЧШЕНИЕ ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИХ СВОЙСТВ БЕТОНА МИКРОДОБАВКАМИ НЕОРГАНИЧЕСКИХ СОЛЕЙ //Вестник Восточно-Сибирского государственного университета технологий и управления. – 2025. – №. 1 (96). – С. 91-99.
5. *Урханова Л.А., Березовский П.В., Архинчеева Н.В.* Модифицирование цементного камня микродобавками неорганических солей // Строительные материалы. – 2021. – № 1–2. – С. 21–29.
6. Ягубкин А. Н., Бакатович А. А. Влияние химических добавок на свойства стеновых блоков из пшеничной соломы //Вестник Полоцкого государственного университета. Серия F. Строительство. Прикладные науки. – 2024. – №. 4. – С. 63-73.
7. Кашапов Р. Р. и др. Влияние комплексной добавки на твердение цементного камня //Строительные материалы. – 2015. – №. 5. – С. 27-30.
8. Васильев А. С., Барабанщиков Ю. Г. Эффективность добавок–ускорителей схватывания и твердения для торкрет-бетона //Magazine of Civil Engineering. – 2012. – №. 8 (34). – С. 72-78.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

FARMATSEVTIKADA — KORDISEPS QO‘ZIQORINING ROLI

Abdusamieva Sarvinoz Anvar qizi
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kordiseps qo‘ziqorinining farmatsevtikadagi ahamiyati, uning biologik faol moddalari, inson organizmiga ta’siri va zamonaviy tibbiyotda qo‘llanilishi haqida so‘z boradi. Ilmiy manbalar va tadqiqotlar asosida kordisepsning immunomodulyator, antioksidant, onkoprotektor va adaptogen xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, farmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqarishdagi istiqbollari ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Kordiseps, dorivor qo‘ziqorin, farmatsevtika, immunitet, antioksidant, adaptogen, bioaktiv moddalar, tabiiy dori vositalari, kordisepin.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение гриба кордицепс в фармацевтике, его биологически активные вещества, влияние на организм человека и применение в современной медицине. На основе научных источников и исследований анализируются иммуномодулирующие, антиоксидантные, онкопротекторные и адаптогенные свойства кордицепса. Также рассматриваются перспективы его использования в производстве фармацевтических препаратов.

Ключевые слова: Кордицепс, лекарственные грибы, фармацевтика, иммунитет, антиоксидант, адаптоген, биоактивные вещества, природные лекарственные средства.

Annotation: This article discusses the importance of the Cordyceps mushroom in pharmaceuticals, its biologically active compounds, effects on the human body, and its application in modern medicine. Based on scientific sources and studies, the immunomodulatory, antioxidant, oncoprotective, and adaptogenic properties of Cordyceps are analyzed. The prospects of using Cordyceps in the production of pharmaceutical products are also reviewed.

Keywords: Cordyceps, medicinal mushrooms, pharmaceuticals, immunity, antioxidant, adaptogen, bioactive compounds, natural medicines.

Kirish

So‘nggi yillarda tabiiy dorivor vositalarga qiziqish ortib bormoqda. Tabiatning noyob ne’matlaridan biri — Cordyceps sinensis va Cordyceps militaris kabi qo‘ziqorinlar inson salomatligi uchun qator foydali xususiyatlarga ega. Xitoy va Tibet tibbiyotida ming yillardan buyon ishlatilib kelinayotgan korditseps hozirda zamonaviy farmatsevtika sanoatida keng tatbiq etilmoqda. Bu qo‘ziqorin mitoxondrial faollikni kuchaytiradi, immun tizimini mustahkamlaydi, yallig‘lanishga qarshi ta’sir qiladi va xavfli kasalliklar — jumladan, onkologiya va diabetda ham foydali ekani ilmiy jihatdan isbotlangan.

1.Kordiseps qo‘ziqorinining botanik-biologik xususiyatlari

Kordiseps — entomopatogen qo‘ziqorin bo‘lib, asosan hasharotlar tanasida parazit sifatida rivojlanadi. Tabiatda asosan Tibet, Nepal, Xitoy, Butan va Himolay tog‘larida uchraydi.

Eng mashhur turlari: Cordyceps sinensis — “Tibet oltini” deb ataladi. Cordyceps militaris — sun’iy sharoitda yetishtirishga mos. Morflogik jihatdan korditseps to‘q sariq yoki apelsin rangda bo‘lib, tarkibida adenosin, korditsepin, polisaxaridlar, ergosterol, peptidlar va aminokislotalar mavjud.

2. Kordiseps tarkibidagi faol modda va ularning ta’siri

Adenosin — qon tomirlarini kengaytiruvchi va yurak-qon tomir tizimini mustahkamlovchi modda. Kordisepin (3’-deoksiadenosin) — antibakterial, viruslarga qarshi va onkoprotektor xususiyatlarga ega. Polisaxaridlar — immunomodulyator ta’sir ko‘rsatadi. Beta-glyukanlar — antioksidant va antikantserogen ta’sir ko‘rsatuvchi tabiiy molekulala.

3. Kordisepsning farmakologik xususiyatlari

3.1. Immunomodulyator ta’siri

Kordiseps immun tizimini faollashtiradi. 2021 yilda Xitoyda o‘tkazilgan tadqiqotda Cordyceps militaris ekstrakti limfotsitlar faolligini 35% ga oshirgani qayd etilgan (Zhao et al., 2021).

3.2. Antioksidant va yallig‘lanishga qarshi ta’siri

Kordiseps erkin radikallarni neytrallaydi, yallig‘lanish jarayonlarini susaytiradi (Park et al., 2020).

3.3. Onkoprotektor ta’siri

Kordisepin hujayra apoptozini rag‘batlantiradi, bu esa saraton hujayralarining yo‘q bo‘lishiga olib keladi (Lee et al., 2019).

3.4. Adaptogen xususiyati

Asab tizimini barqarorlashtiradi, stressga bardoshlilikni oshiradi. Sportchilar orasida jismoniy chidamlilikni 20–25% ga oshirgani kuzatilgan (Li et al., 2018).

4. Zamonaviy tibbiyotda qo‘llanilishi

Yo‘nalish	Maqsad	Kordiseps ta’siri
Onkologiya	Saraton terapiyasi	Apoptozni rag‘batlantiradi
Immunologiya	Immunitetni mustahkamlash	T-hujayralarni faollashtiradi
Kardiologiya	Qon aylanish tizimi	Qon bosimini barqarorlashtiradi
Endokrinologiya	Diabet nazorati	Insulin faolligini oshiradi
Urologiya	Erkaklar salomatligi	Testosteron balansini normallashtiradi

5. Kordiseps asosida ishlab chiqarilgan farmatsevtik mahsulotlar

1."Cordyceps Capsules" (Tibet Pharmaceuticals) — immunitetni oshiruvchi biologik faol qo‘shimcha sifatida qo‘llaniladi.

2."Cordyceps Plus" (Now Foods) — antioksidant va energiyani oshiruvchi mahsulot.

3."Jinshuibao" (Xitoy) — klinik sharoitda nafas yo‘llari, bronxit va diabetda qo‘llaniladi.

6. Kordisepsni yetishtirish va undan foydalanish istiqbollari

Sun’iy sharoitda Cordyceps militaris ni yetishtirish texnologiyalari muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Bu esa mahsulotni arzonlashtirish va farmatsevtik sanoatni kengaytirishga yo‘l ochmoqda. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

7. Kordiseps va metabolik sindrom

Kordiseps insulinga bo‘lgan sezuvchanlikni yaxshilaydi, glyukoza metabolizmini barqarorlashtiradi. 2017 yilda Xitoyda o‘tkazilgan klinik tadqiqotda, 2-tip diabet bilan og‘rigan bemorlarga Cordyceps sinensis kapsulalari berilgan, va 3 oy davomida qondagi glyukoza miqdori 17% ga kamaygani aniqlangan (Tang et al., 2017).

8. Kordisepsning nevrologik ta’siri

Kordiseps asab to‘qimalariga neyroprotektiv ta’sir ko‘rsatadi, bu esa Altsgeymer va Parkinson kasalliklarining profilaktikasida foydalidir. Kordisepin NGF (nerve growth factor) moddasini faollashtiradi. 2020 yilda Koreyada o‘tkazilgan tadqiqotda, kordiseps ekstrakti kognitiv faoliyatni 22% ga oshirgani qayd etilgan.

9. Kordiseps va sport farmakologiyasi

Kordiseps tabiiy adaptogen sifatida sportchilar uchun foydalidir. U mitoxondriya faolligini kuchaytiradi, ATP ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi va mushaklar chidamliligini oshiradi. 1993 yilda Xitoy sportchilari xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishgan va ularning ratsionida Cordyceps sinensis bo‘lgani ma’lum qilingan.

10.Yurak-qon tomir tizimiga foydasi

Kordiseps trombotsitlar agregatsiyasini kamaytiradi, bu esa infarkt va insult xavfini pasaytiradi. Endotelial funksiyani yaxshilaydi. 2015 yildagi tadqiqotda, 6 hafta davomida kordiseps qabul qilgan bemorlarda diastolik bosim 10–12 mm simob ustuniga pasaygan (Kim et al., 2015).

11. Antiviral va antibakterial xususiyatlari

Kordiseps gripp, gerpes, COVID-19 va gepatit B viruslariga qarshi faol namoyon qilgan. 2020 yildagi tadqiqotda Cordyceps militaris suvli ekstrakti SARS-CoV-2 proteazasini 73% inhibitsiya qilgan (Li et al., 2020). Shuningdek, Staphylococcus aureus, E. coli, Helicobacter pylori ga qarshi samarasi isbotlangan.

12. Gen ekspressiyasi va epigenetika

Kordiseps moddalari AMPK signal yo‘li orqali hujayra metabolizmini tartibga soladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, u mitoxondrial DNK faolligini kuchaytiradi va hujayralarning qarishini sekinlashtiradi. Epigenetik sohada esa DNK metilatsiyasini yaxshilashi aniqlangan.

13. Oziq-ovqat biotexnologiyasida qo‘llanilishi

Kordiseps asosida funksional oziq-ovqat mahsulotlari (energetik ichimliklar, kapsulalar, smuzi va batoniklar) ishlab chiqilmoqda. Cordyceps-biofortified mahsulotlari Yevropa va Yaponiyada biologik faol qo‘shimchalar sifatida savdoga chiqarilgan.

14. Klinik tadqiqotlar bilan bog‘liq aniq natijalar

14.1. Kordiseps va diabet: Jurnal: Journal of Alternative and Complementary Medicine, 2016. Ishtirokchilar: 95 nafar 2-tip diabet bilan kasallangan bemor Natija: HbA1c 0.9% ga, plazmadagi glyukoza 15% ga kamaygan

14.2. Kordiseps va yurak faoliyati: Manba: Chinese Journal of Integrative Medicine, 2019. Natija: Qon bosimi o‘rtacha 18/10 mm sim. ust. ga tushdi.

14.3. Korditsepin va saratonga qarshi mexanizmi: Manba: Cancer Letters, 2015. Natija: 48 soat ichida MCF-7 hujayralarining 50% kamaygani qayd etilgan

15. Kordiseps mahsulotlarining jahon bozoridagi ulushi Xitoy: $2.1 milliard (2023). Janubiy Koreya: $430 million, AQSH va Yevropa: $250 million. Narx: Quritilgan 1 kg korditseps — $1,000–$4,000 atrofida

16. Sun’iy yetishtirish texnologiyasi

Cordyceps militaris turini sun’iy sharoitda 25–28°C, pH 6.0–6.5 da bioreaktorlarda yetishtirish mumkin. Bunday usulda korditsepin kontsentratsiyasi 2.5% gacha yetadi. O‘zbekistonda bu amaliyot hozircha yo‘lga qo‘yilmagan, biroq istiqbollari katta.

17. Real farmatsevtik mahsulotlar misoli

Mahsulot	**Ishlab chiqaruvchi**	**Tarkibi**	**Qo‘llanilishi**
Jinshuibao	Livzon Group, Xitoy	Cordyceps sinensis ekstrakti	Yurak, diabet, immunitet
Cordyceps CS-4	Swanson Health, AQSh	Sintetik C. sinensis	Tonik, adaptogen
Cordygen	Millenium Sport Technologies	C. militaris + C. sinensis	Sportchilar uchun

Xulosa

Kordiseps dorivor qo‘ziqorini farmatsevtika sohasida muhim o‘rin tutadi. Uning antioksidant, immunomodulyator, onkoprotektor va adaptogen xususiyatlari ko‘plab kasalliklarni davolash va profilaktika qilishda foydalidir. Bugungi kunda kordiseps asosida yaratilgan mahsulotlar jahon bozorida yuqori talabga ega bo‘lib, kelajakda yangi dori vositalari ishlab chiqishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Irnazarov Sh.I., Khusinova G.D. The Practical Importance of Apricots and Their Dried Products in the Food Industry and Human Health // Education Science and Innovative Ideas in the World. – 2024. – P. 396–403.

2. Irnazarov Sh.I., Juraeva L.Yu. Chemical Composition of Dalahoy Plant and Its Use in Folk Medicine // Journal of New Century Innovations. – 2025. – P. 287–290. URL: https://scientific-jl.com/new

3. Ataboyeva H.N. va boshqalar. Botany. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. 4.Irnazarov Sh.I., Samatova M.Ch. Chemical Composition of Dill Plant and Its Health Benefits // Education

Science and Innovative Ideas in the World. – 2025. – P. 304–310. URL: https://global-science-review.com/

5. Irnazarov Sh.I., Kholikulova N.T. The Practical Importance of Growing Walnuts for Human Health and the Food Industry // Education Science and Innovative Ideas in the World. – 2025. – P. 404–409. URL: https://global-science-review.com/

6. Irnazarov Sh.I., Chorieva S.M. Medicinal Properties of Elecampane (Inula helenium) and Its Place in Folk Medicine // Education Science and Innovative Ideas in the World. – 2025. – P. 289–293. URL: https://global-science-review.com/

7. Irnazarov Sh.I., Abdug’apporova F.O. Carnation: The Role and Scientific Significance of Plants in Food and Medicine // Education Science and Innovative Ideas in the World. – 2025. – P. 294–298. URL: https://global-science-review.com/

8. Irnazarov Sh.I., Abdusamiyeva S.A. The Medicinal Properties of Cumin as a Food Product // Education Science and Innovative Ideas in the World. – 2025. – P. 410–413. URL: https://global-science-review.com/

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA ZOOLOGIYA FANIDAN EKSKURSIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH

Mavlonova Jasmina Salim qizi
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda ekskursiya darslarining o‘rni ochib berilgan. Ayniqsa, 7-sinf biologiya fanida qushlar mavzusi doirasida ochiq havoda o‘tkazilgan kuzatuvlar orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlash, real holatni tahlil qilish, yozib olish, savol berish va xulosa chiqarishga o‘rganadilar. Ushbu faoliyat o‘quvchilarni nafaqat fanga qiziqtiradi, balki ularni tabiatni asrashga ham undaydi.

Kalit so‘zlar: 7-sinf, ekskursiya, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, qushlar, kuzatish, in qurish, migratsiya, biologiya darsi, o‘quvchi faolligi.

Abstract: The article reveals the role of the excursion method in developing students' research skills. Especially in 7th-grade biology, through outdoor observations conducted within the framework of the topic of birds, students learn to think independently, analyze real situations, take notes, ask questions, and draw conclusions. This activity not only interests students in science, but also encourages them to protect nature.

Keywords: 7th grade, excursion, research skills, birds, observation, nest building, migration, biology lesson, student activity.

KIRISH. Maktabda ta’lim olish davrida bolaning intellektual va emotsional-irodaviy xususiyatlari jadal rivojlanadi, atrofdagi voqelik predmetlari va hodisalariga nisbatan to‘g‘ri munosabatning asoslari shakllanadi. Bolalarga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil-tizimli, maqsadli tarbiyaviy-ta’limiy ishdir, unda tabiat bilan tanishtirish jarayoni alohida o‘rin egallaydi. Tabiatga ekskursiya dars yoki faoliyatning alohida, o'ziga xos turi bo'lib, uni amalga oshirish tabiatdagi tabiat obyektlari va hodisalarini, o'simliklar va tuproq, hayvonlar va o'simliklar o'rtasidagi munosabatlarni, yilning turli fasllarida atrof-muhit omillarining hayotga ta'sirini bevosita kuzatish va o'rganish imkonini beradigan o'quv jarayonining shaklidir.

Zoologik ekskursiyalar ta’lim-tarbiya ishlarida katta ahamiyatga ega bo‘lib, hayvonot dunyosi bilan bevosita tanishishning o‘ziga xos imkoniyatidir. Ular sayyoramizda yashovchilar, ularning xilma-xilligi, xulq-atvor xususiyatlari va yashash muhiti haqidagi bilimlarni kengaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bunday ekskursiyalar tabiatga muhabbat uyg‘otadi, hayvonlarga ehtiyotkorona munosabatni shakllantiradi va biologik xilma-xillikni saqlash muhimligini anglashga yordam beradi. Ekskursiyalar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, bilimlarni amaliyotda mustahkamlashga yordam beradi, hamda kuzatuvchanlik va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Maktabda tabiatshunoslik va biologiyani o‘qitishda ekskursiyalardan foydalanish barcha davrlarda dolzarb bo‘lib kelgan, chunki inson tabiatning bir bo‘lagi va undan ajralmas, biologiyani o‘qitishni esa ekskursiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘tmishning mashhur arboblari tabiatni bilimning qudratli manbai, aql, his-tuyg‘u va irodani rivojlantirish vositasi deb bilishgan. Materialistik tasavvurlarning ulkan tarbiyaviy ahamiyati haqidagi fikrni A. I. Gersen shunday ifodalagan edi: "Bizningcha, tabiatshunosliksiz kuchli aqliy rivojlanishni tarbiyalash deyarli mumkin emas; hech bir fan sohasi aqlni bunday qat’iyatli, ijobiy qadamga, haqiqat oldida kamtarlikka, vijdonan mehnat qilishga va eng muhimi, oqibatlarni vijdonan qabul qilishga tabiatni o‘rganish kabi o‘rgatmaydi". Rus pedagogi K. D. Ushinskiy tabiatga tarbiya omili sifatida juda katta ahamiyat bergan, bolalarning ruhiyatiga tabiatning ijobiy ta’sirini va ularning
tabiat bilan muloqot jarayonida har tomonlama rivojlanishini ta’kidlagan. Uning fikriga ko‘ra "Tabiat mantiq‘i bolalar uchun eng tushunarli mantiqdir – ko‘rgazmali va shubhasiz. Har bir yangi predmet taqqoslash orqali aqlni charxlash, oldindan o‘zlashtirilgan tushunchalar doirasiga yangi tushunchalarni kiritish, o‘rganilgan turlarni bir tur ostiga birlashtirish imkoniyatini beradi"[1].

A. Ya. Gerd tabiatshunoslik fanini ishlab chiqishda quyidagilarga e’tibor qaratdi: darsni ekskursiya bilan o‘zaro bog‘lash zarurligini ko‘rsatdi, chunki faqat
tabiatda o‘quvchilar e’tiborini o‘sha hodisalarga qaratish imkoniyati mavjud, ularni o‘rganish sinfda kam uchraydi. A. Ya. Gerdning g‘oyalari biologiya o‘qitish metodikasi shakllanishining turli bosqichlarida olimlar V. V. Polovsov, B. Ye. Raykov, N. M. Verzilin, N. A. Rikov, V. M. Korsunskaya, Yu. P. Polyanskiy, I. N. Ponomareva va b. tomonidan rivojlantirildi [1].

Tadqiqotchilik ko‘nikmalari deganda quyidagilar tushuniladi: kuzatish , savol qo‘yish, ma’lumot to‘plash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, natijani taqdim eta olish. Bu ko‘nikmalarni shakllantirish maktab davrining o‘zida boshlanishi kerak. Zoologik ekskursiyalarda kuzatish obyektlari ro‘yxatiga an’anaviy ravishda qushlar (yil davomida), sut emizuvchilar (asosan ularning hayot faoliyati izlari), amfibiyalar, hasharotlar va o‘rgimchaksimonlar (yilning issiq faslida) kiradi. Yilning har qanday faslida zoologik ekskursiya obyektlarining asosiy qismini qushlar tashkil etadi. Shu bilan birga, ularni kuzatish uchun katta mahorat va sabr-toqat kerak. Ko‘pincha sayrayotgan yoki qichqirayotgan qushni darhol ko‘rishning iloji bo‘lmaydi, shuning uchun ekskursiyalarda obyektni "ko‘rib chiqishga" urinish uchun ko‘p vaqt sarflashga to‘g‘ri keladi (butalar, qalin daraxt shoxlari va shunga o‘xshash boshpanalarda). Shuning uchun ornitologik ekskursiyalarni o‘tkazish uchun eng yaxshi joylar past bo‘yli o‘rmonlar, yalangliklar va butazorlar, daryo qayirlari hisoblanadi.

TAQDIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA. Ekskursiyalar ham boshqa darslar kabi, faqat tabiat qo‘ynidagi darslardir. Shuning uchun maktablarning ekskursiyalarga munosabati darslarga bo‘lgan munosabat bilan bir xil bo‘lishi kerak. Ular maktab rejasiga kiritilgan, kurs dasturi bilan bog‘langan, har bir sinfda o‘quv fanining yillik va mavzuli rejalashtirishida ma’lum o‘rinni egallaydi. Ekskursiyalar jadvali shunday kelishtirilishi kerakki,

bitta fan bo‘yicha o‘tkaziladigan ekskursiya boshqa darslarni buzmasligiga e’tibor qaratiladi. Ekskursiyalarni rejalashtirish ularni boshqa mashg‘ulotlarni to‘xtatmagan holda amalga oshirish imkonini beradi. Har bir ekskursiya guruhi o‘ziga xos xususiyatlarga ega va ularni talab qiladi. Rahbar va o‘quvchilar jiddiy oldindan tayyorgarlik ko’rishlari lozim. Tayyorgarlik mavzuli va yillik rejani tuzishdan boshlanadi, bunda ekskursiyalarning vaqti va mavzulari belgilanadi. Aniq o‘tkazishdan oldin ekskursiyalarda o‘qituvchi adabiy manbalar va ekskursiya materiali bilan mavjud metodik ishlanmalarga asoslanib taxminiy reja tuzadi. Shundan so‘ng u joy bilan tanishadi. Bo‘lajak ekskursiyaning marshrutini, to‘xtash punktlarini belgilaydi, kuzatuv joy bilan bevosita tanishadi. Ekskursiya bir necha qismga bo‘linadi: kirish, asosiy qism va xulosa. Ekskursiyaning boshida o‘qituvchi talabalarni ekskursiyaning maqsadi, uning davomiyligi, taxminiy marshrut bilan tanishtiradi. Birinchi ekskursiyada o‘quvhchilar geografik o‘rni, relefi, gidrografiyasi, tuproqlari, o‘simliklari bilan tanishadi. O‘qituvchi tabiiy landshaftlarni insonlar faoliyati bilan bog‘liq xo‘jalik jihatidan o‘zgartirishlar kiritilganligiga e’tibor qaratadi.

Umumta’lim maktablarida 7-sinf o‘quvchilari bu borada faollikka tayyor, qiziqishi baland yoshdadir. Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on shahar 2 IDUMda biz ekskursiya darslarini yo‘lga qo’ydik. Bu yerda 3 ta 7-sinf bilan “ Qushlarning tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati” mavzusida ekskursiya tashkil etildi. 7-sinf biologiya fanida “Qushlar” mavzusi o‘rganiladi. Bu mavzuni chuqur va qiziqarli o‘rganish uchun qushlar yashaydigan joylarga ekskursiya uyushtirish katta ahamiyatga ega. Masalan, daryo bo‘ylari, o‘rmonzorlar, yoki qushxonalarga tashrif o‘quvchilarga real muhitda qushlarni ko‘rish imkonini beradi. Ekskursiya davomida bajariladigan talab va tartiblar, xavfsizlik qoidalari tushuntirildi. Qushlarni kuzatish uchun daftar, ruchka, kamera yoki telefon, durbin kabi asboblar tayyorlandi. Ekskursiyaning maqsadi aniq belgilandi: “Qushlarning turini aniqlash, ularning yashash joyini, ovqatlanish tarzini va hulq-atvorlarini o‘rganish.” Ekskursiya paytida: o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘lindi. Har bir guruh kuzatuvni olib bordi, rasmlar oldi, qaydlar yozildi. O‘qituvchi zarur joylarda yo‘l-yo‘riq berdi, savollar berdi, fikrlashga undaydi. Ekskursiyadan so‘ng: o‘quvchilar to‘plagan ma’lumotlar asosida kichik loyiha ishlari, devoriy gazeta yoki taqdimot tayyorlashdi. Har bir guruh o‘z kuzatuvini sinfda taqdim etdi. O‘qituvchi ularning kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash va taqdimot qilish ko‘nikmalarini baholaydi. Ekskursiyaning samaradorligi, o‘quvchining tabiatga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Mustaqil fikrlash, kuzatish, savol berish va javob topish malakasini rivojlantiradi. Jamoaviy ishlash va mas’uliyatni his qilishga o‘rgatadi. Nazariy bilimni amaliy faoliyatga bog‘laydi.

Ekskursiya muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun, masalan, rahbar ekskursiyadan oldin bir nechta qushlarni uyalarini topib qo’yishi, joylashuvini yaxshilab eslab qolishi kerak. Ma’lum bunday uyalarning "zaxirasi" har doim ekskursiyani normal o‘tkazishga yordam beradi, chunki ekskursiyaning o‘zida o‘qituvchiga ba’zan ko‘payish biologiyasi bo‘yicha kerakli materialni topib bo‘lmaydi. Obyektni uzoq vaqt qidirish esa tinglovchilarni chalg‘itadi va e’tiborini chalg‘itadi. Bundan tashqari, uyaning atrofidagi vaziyat ko‘zdan kechirish o‘zgarishsiz qolishi

kerak. Shuning uchun uyani ko‘rsatganda barcha ehtiyotkorlik choralariga rioya qilgan holda navbatma-navbat amalga oshirilishi lozim. Inson tomonidan muntazam oziqlantiriladigan qushlar, odatda kamroq ehtiyotkor bo‘lishadi, shuning uchun ularni topish muvaffaqiyatli bo‘lishlari mumkin. Qurg‘oqchil hududlarda ba’zi joylarda to‘plangan ko‘plab qushlar kichik suv havzalari atrofiga to‘planishi mumkin. Qushlarni jalb qilish uchun sun’iy uyalar o ‘rnatish ham juda samarali hisoblanadi. Ornitologik ekskursiyada qo'llanilishi kerak bo'lgan qoida - qiziqarli obyekt yoki noyob hodisaning yonidan o'tmaslikka intilish kerak. Guruh ornitologik ekskursiyalarni o'tkazishda kuzatilishi kerak bo'lgan ikkinchi qoida o'qituvchi hikoya va namoyishning birligiga intilishi kerak. Odatda, taqqoslash va umumlashtirish elementlaridan foydalangan holda, qushlarning kuzatish paytida bajaradigan harakatlari haqida gapirish kerak. Ekskursiyadan oldin o‘quvchilar oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

7-"A" sinfi uchun: Qushlarning uyasini kuzatish.

Siz tabiatga chiqasiz va qushlarning inini kuzatasiz. E’tibor qaratish zarur: uya qayerda qurilgan? (uy tomida, daraxtda, butalarda) , uya qanday ko‘rinishda? uya ichida qush bormi? qush og‘zida nima olib kelayapti? Topshiriq (yozma): “Men qaldirg‘ochning inini ko‘rdim. U uy tomida edi. Og‘zida qurt bor edi. Uyasiga olib kirdi.” Har bir o‘quvchi kamida 2 ta uya haqida yozadi.

7-"B" sinfi uchun: Qushlarning ovqatlanishini kuzatish

Vazifa: Qushlar nima yeyayotganini kuzatasiz. Nimalarga qaraysiz: qaysi jinsdagi qush oziqa tashiydi? Oziqani qayerdan topadi?havodami yoki yerda? Har bir o‘quvchi kamida 3 xil qush va 3 xil ovqatlanish joyini yozadi.

7-"V" sinfi uchun: Qushlarning ko‘chib yurishini (migratsiyasini) o‘rganish

Vazifa: Ko‘chib kelgan qushlarni kuzatamiz. Qaysi qush bahorda keladi, qaysi biri butun yil shu yerda bo‘ladi? Misol uchun: Qaldirg‘och bahorda keladi,kuzda ketadi. Chumchuq esa doim shu yerda bo‘ladi. Har o‘quvchi 3 ta qush haqida yozadi va o‘z fikrini aytadi:

Har bir ekskursiya xulosalar bilan yakunlanadi. Bu darsning juda muhim elementi bo'lib, unda butun guruh ishtirok etishi kerak. Shu bilan birga, kuzatilgan barcha asosiy narsalar esga olinadi, aniqlangan qushlarning ro'yxati birgalikda tuziladi va ularning sistematikasi aniqlanadi. Har sinf o‘z kuzatuvlarini taqdim qiladi. Rasmlar chiziladi yoki suratga tushiriladi. Eng faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ekskursiyalar muhim vositadir. Ayniqsa, qushlarga ekskursiya kabi jonli tabiatda kuzatuv olib boriladigan mashg‘ulotlar 7-sinf o‘quvchilari uchun biologiya fanini chuqurroq anglash, hamda mustaqil o‘rganishga rag‘batlantirishda samarali hisoblanadi. Shunday ekskursiyalarni rejalashtirish va tizimli tashkil etish orqali maktab ta’limida sifatli o‘zgarishlarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Верзилин, Н. М. Общая методика преподавания биологии: учебник для студентов биолог. факульт. пед. ин-тов. М. : Просвещение, 1972. – 368 с.

2. Мальчевский, А. С. Орнитологические экскурсии / А. С. Мальчевский // Жизнь наших птиц и зверей. – Вып. 4. – Л. : ЛГУ, 1981. – 296 с.
3.Пономарева, И. Н. Общая методика обучения биологии– М. : Academa, 2003.
4. Qodirov A., Yusupova N. Biologiya. 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

NAVOIY SHAHRIDA 2019-YIL CHANG ZARRALARINING ME’YORIDAN OSHGAN KUZATUVLARI VA UNING TAHLILI

Toshturdiyev Nurbek Nurali o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
Tel: +998 88 910 42 46
Email: nurbektoshturdiyev86@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada atmosfera havosida tarqaluvchi muallaq zarralarning kontsentratsiyasi, ularning paydo bo‘lish sabablari, sog‘liq va atrof-muhit uchun xavfliligi yoritilgan. Shuningdek, monitoring natijalari asosida zarrachalar darajasining yillik o‘zgaruvchanligi, me’yorlardan og‘ish holatlari va ushbu ko‘rsatkichlarga ta’sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi. Sanoat korxonalari, avtomobil transporti va iqlimiy sharoitlar bu o‘zgarishlarning asosiy sababi sifatida ko‘rsatilgan. Maqolada mavjud muammolarning oldini olish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ham keltiriladi. Tadqiqot natijalari havo sifatini nazorat qilish, ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: aerozol, atmosfera monitoringi, ekologik xavf, sog‘liq uchun ta’sir, sanoat chiqindilari, transport emissiyasi, nazorat stansiyasi, gigiyenik me’yor, statsionar kuzatuv, zarralar kontsentratsiyasi, metrologik omillar, yillik o‘zgaruvchanlik.

Аннотация: В данной научной статье рассматривается уровень содержания взвешенных частиц в атмосферном воздухе, причины их образования и потенциальная угроза для здоровья населения и окружающей среды. На основе результатов наблюдений проанализированы сезонные и годовые колебания, превышения предельно допустимых норм, а также влияние антропогенных и природных факторов. Основными источниками загрязнения определены промышленные предприятия, автотранспорт и климатические условия. Также предложены меры по снижению загрязнения воздуха. Результаты исследования важны для обеспечения экологической устойчивости и санитарного контроля.

Ключевые слова: аэрозоли, мониторинг атмосферы, экологический риск, влияние на здоровье, промышленные выбросы, транспортные эмиссии, станция наблюдения, гигиенический норматив, концентрация частиц, метеоусловия, годовая динамика, санитарные нормы.

Abstact: This scientific paper investigates the concentration of suspended particles in the air, their sources, and their adverse effects on both public health and the environment. Using long-term observation data, the study analyzes the fluctuations in pollutant levels, their exceedance of permissible standards, and the influence of anthropogenic and climatic factors. Industrial activities, vehicle emissions, and meteorological conditions are identified as primary

contributors. Furthermore, the paper proposes mitigation strategies aimed at reducing air contamination. The findings are essential for improving air quality monitoring and achieving environmental sustainability.

Keywords: aerosol, atmospheric monitoring, environmental risk, public health impact, industrial waste, vehicle emissions, observation station, hygienic standard, particle concentration, meteorological factors, annual variation, sanitary threshold.

KIRISH

Atrof-muhitning ifloslanishi, xususan, atmosfera havosining tarkibida zararli moddalarning ortishi global ekologik muammolardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Havo ifloslanishi inson salomatligi, biosfera holati hamda iqlim barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, sanoatlashtirilgan hududlarda muallaq chang zarralari va gazsimon moddalarning yuqori konsentratsiyasi ekologik xavflarning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda [1].

O‘zbekiston Respublikasi shaharlarida ham ushbu holat sezilarli darajada o‘zini namoyon qilmoqda. Sanoat korxonalari faoliyati, transport vositalari sonining oshishi, energetika sohasidagi chiqindilar atmosferaga chiqayotgan ifloslantiruvchi moddalarning asosiy manbalari hisoblanadi. Shu jumladan, chang zarralari (PM10 va PM2.5) atmosfera havosining ifloslanishida yetakchi komponentlar sifatida ajralib turadi [2].

Navoiy shahri misolida olib borilgan tadqiqotlar 2019-yilda chang konsentratsiyasining me’yoriy darajadan oshgan holatlarini aniqlagan. Bunda sanoat zonalari, qurilish faoliyati, tabiiy shamollar va transport oqimi asosiy ta’sir etuvchi omillar sifatida qayd etilgan. Chang zarralarining haddan tashqari ko‘payishi esa aholi, ayniqsa, nafas olish tizimi zaif bo‘lgan qatlamlar salomatligiga tahdid solmoqda [3].

Mazkur maqolada 2019-yilda Navoiy shahrida chang zarralari bo‘yicha kuzatuv natijalari, ularning dinamikasi, asosiy manbalari va sog‘liq uchun salbiy ta’sirlari statistik tahlil asosida o‘rganiladi. Maqsad – mavjud ekologik vaziyatni baholash, xavf darajalarini aniqlash hamda ifloslanishning oldini olish yo‘llari yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So‘nggi yillarda atmosfera havosining ifloslanishi global va mintaqaviy ekologik muammolarning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayni paytda ko‘plab ilmiy izlanishlar havodagi chang zarralari (PM10 va PM2.5), oltingugurt dioksidi (SO_2), azot oksidi (NO), azot dioksidi (NO_2), uglerod oksidi (CO) va boshqa zararli komponentlarning sog‘liq uchun xavfli ta’sirlarini chuqur tahlil qilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro ekologik tashkilotlar bu moddalarning havodagi me’yori va ularning inson organizmiga ta’siri bo‘yicha qat’iy tavsiyalarni ishlab chiqqan [4]. O‘zbekiston bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida ayniqsa sanoat shaharlari, xususan, Navoiy, Toshkent, Olmaliq, Chirchiq, Angren va Buxoro shaharlari havosida zararli moddalar konsentratsiyasi me’yordan oshib ketgan holatlar kuzatilgan [5]. Ushbu kuzatuvlar Respublikamizdagi Gidrometeorologiya

xizmati markazlari tomonidan olib boriladi. Bunda har yili doimiy monitoring asosida muhim ifloslantiruvchi komponentlar bo‘yicha o‘rtacha yillik ko‘rsatkichlar aniqlanadi.

Ushbu ilmiy maqola tayyorlashda adabiyotlar tahlilida xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hamda Gidrometeorologiya xizmati markazining statistik ma’lumotlaridan foydalanildi. Shu bilan birga, mahalliy va xorijiy olimlarning atmosfera ifloslanishi, uning salomatlikka ta’siri, tahlil usullari, normativ ko‘rsatkichlari haqida yozilgan ilmiy ishlari chuqur o‘rganildi [6].

Mazkur tadqiqotda asosiy ma’lumotlar sifatida 2019-yilda Gidrometeorologiya markazi tomonidan e’lon qilingan atmosfera havosi monitoringi natijalari tanlab olindi. Ushbu ma’lumotlar muallaq zarralar (chang), oltingugurt dioksidi (SO_2), azot oksidi (NO), uglerod oksidi (CO) kabi ifloslantiruvchi moddalar bo‘yicha o‘rtacha yillik ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Tahlil jarayonida statistik ko‘rsatkichlar taqqoslama tahlil, trend grafigi, yillik o‘zgarishlar dinamikasi, shuningdek, asosiy komponentlar bo‘yicha ekstremal qiymatlar asosida baholandi.

Statistik ma’lumotlarni qayta ishlash uchun Microsoft Excel dasturidan foydalanildi. Bu orqali har bir moddaning yillik qiymatlari grafik va jadval shaklida ifodalandi. Shu bilan birga, eng yuqori va eng past konsentratsiya ko‘rsatkichlari ajratib ko‘rsatildi, ularning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi tahlil qilindi. Tadqiqot yakunida, komponentlar inson salomatligiga qanday ta’sir qilishi mumkinligi xavf baholash modeli (Risk Assessment Method) asosida o‘rganildi [7]. Ushbu metodologik yondashuv ekologik holatni aniq baholash, mavjud muammolarni aniqlash va kelajak uchun takliflar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Atmosfera havosining ifloslanishi bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar, ayniqsa, chang zarralarining yillik va oylik miqdor jihatdan me’yorlardan oshgan holatlarini chuqur ko‘rib chiqishni talab qiladi. Navoiy shahrida 2019-yilda qayd etilgan kecha-kunduzlik kuzatuvlari shuni ko‘rsatadiki, yil davomida turli oylarda chang miqdorining gigiyenik me’yorlardan ortiq holatlari takror va muntazam tarzda ro‘y bergan. Bu holat ayniqsa yoz oylarida yuqori qayd etilgan bo‘lib, iqlimiy omillar, texnogen faollik va meteorologik sharoitlarning uyg‘unlashuvi bilan izohlanadi [8].

Quyidagi jadvalda Navoiy shahrida 2019-yil davomida chang zarralari miqdorining oylar kesimida me’yoridan oshgan holatlari keltirilgan.

1-jadval

Navoiy shahrida 2019-yil davomida chang zarralarining oy ichida necha marta me’yoridan oshgan holat kuzatilganligi (kecha-kunduzlik)

T/r	Oylar	2019-yil
1	Yanvar	3
2	Fevral	5

3	Mart	2
4	Aprel	3
5	May	4
6	Iyun	4
7	Iyul	14
8	Avgust	16
9	Sentabr	12
10	Oktabr	11
11	Noyabr	8
12	Dekabr	4



1-rasm. Navoiy shahrida 2019-yil me’yoridan oshgan chang zarralari kuzatuvlari miqdori (bir kecha kunduzlik)

2019-yilda Navoiy shahrida chang zarralarining me’yoridan oshgan holatlarini oylik kesimda o‘rganish natijasida hududdagi ekologik muammolar mavsumiy xarakter kasb etishini ko‘rish mumkin. Ushbu holat ayniqsa yoz oylarida kuchaygan. Iyul, avgust va sentabr oylarida 12–16 kun oralig‘ida me’yoriy chegaralar buzilgan bo‘lib, bu davrda atrof-muhitga antropogen bosim kuchayganini anglatadi. Yoz oylarida yuqori harorat, kam yog‘ingarchilik, kuchli shamollar va qurg‘oqchil iqlim sharoiti changning havoda uzoq vaqt saqlanib qolishiga zamin yaratgan. Ayniqsa, avgust oyida 16 marta me’yor oshgan bo‘lib, bu yil davomida eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi.

Ekologik jihatdan bu — aholi salomatligiga jiddiy tahdid tug‘diruvchi vaziyatdir. Chunki muallaq zarralar, ayniqsa PM_{10} va $PM_{2.5}$ o‘lchamdagi mikrozarralar inson nafas tizimiga chuqur kirib boradi va surunkali kasalliklar, bronxit, yurak-qon tomir muammolarini kuchaytiradi [8]. Bunday ko‘rsatkichlar sog‘liqni saqlash tashkilotlarining tavsiyalariga zid holat bo‘lib, chang konsentratsiyasining bunday yuqori ko‘rsatkichlari Navoiy shahrida havo sifatining yomonlashganini ko‘rsatadi.

Bahor va qish oylarida esa bu ko‘rsatkichlar nisbatan past bo‘lib, yanvar, mart va dekabr oylarida chang miqdori me’yoridan oshgan holatlar 2–4 kun bilan chegaralangan. Bu iqlimiy sharoitlar bilan izohlanadi: sovuq havoda chang zarralari tezroq cho‘kadi, yog‘ingarchilik esa havoni tabiiy tarzda tozalaydi. Biroq bu davrda ham sanoat va transport chiqindilarining hissa qo‘shayotganini inkor etib bo‘lmaydi. Muhimi shundaki, ushbu tendensiyalar yillar davomida takrorlanib kelmoqda. Bu esa ekologik monitoringni kuchaytirish, havoni filtrlash texnologiyalarini joriy etish, yashil hududlarni kengaytirish kabi tizimli choralarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi [9]. Ayniqsa, havoning ifloslanish darajasi yuqori bo‘lgan mavsumlarda aholini ogohlantirish, himoya choralarini ko‘rish, ekologik ma’rifatni oshirish dolzarb masalaga aylanmoqda [10]

2019-yil davomida Navoiy shahrida atmosfera havosidagi chang zarralari ayniqsa iyul, avgust, sentabr va oktyabr oylarida yuqori darajada qayd etilgan. Bu holat ko‘proq sanoat faoliyatining faollashgan, quruq va issiq iqlimiy sharoitlar hukm surgan, shamol tezligi yuqori bo‘lgan fasllarga to‘g‘ri keladi. Chang zarralarining miqdori kun davomida bir necha marta o‘lchab borilgan bo‘lib, ushbu kuzatuvlarda bir martalik me’yor – 0.50 mg/m³ – ko‘plab hollarda oshib ketgan. Quyida jadval tarzida bu me’yor oshishi holatlari ko‘rsatilgan.

2-jadval

Navoiy shahrida 2019-yil iyul, avgust, sentabr, oktabr oylari chang zarralarining me’yoridan oshgan kuzatuvlari miqdori (bir martalik kuzatuv)

Iyul			Avgust			Sentabr			Oktabr		
Kuzatilgan sana	Namuna olingan	Miqdori mø/m³	Kuzatilgan sana	Namuna olingan	Miqdori mø/m³	Kuzatilgan sana	Namuna olingan	Miqdori mø/m³	Kuzatilgan sana	Namuna olingan	Miqdori mø/m³
02.07	07:00	0.58	13.08	19:00	0.73	03.09	19:00	0.55	5.10	13:00	0.73
	13:00	0.64	14.08	13:00	0.52	04.09	13:00	0.52		19:00	0.52
	19:00	0.52	15.08	13:00	0.64	16.09	13:00	0.53	10.10	13:00	0.64
13.07	13:00	0.58		19:00	0.66	26.09	13:00	0.55	16.10	13:00	0.66
17.07	13:00	0.64	20.08	13:00	0.52	27.09	13:00	0.52	22.10	13:00	0.
18.07	13:00	0.52	31.08	13:00	0.54						
19.07	13:00	0.58									
20.07	07:00	0.54									
	13:00	0.73									
	19:00	0.52									
22.07	19:00	0.64									
25.07	13:00	0.66									
	19:00	0.52									

26.07	13:00	0.54									
30.07	19:00	0.59									

Ushbu jadvaldagi raqamlar, ayniqsa iyul va oktyabr oylarida bir necha marotaba 0.70 mg/m³ dan yuqori konsentratsiyalar aniqlangani, muammo qanchalik jiddiy ekanidan dalolat beradi. Iyul oyida birgina 20-iyul sanasida 07:00, 13:00 va 19:00 da olingan namunalar orasida har uchalasi me’yorni oshgan (0.54, 0.73 va 0.52 mg/m³), bu esa havoning kun davomida ham iflos bo‘lganini ko‘rsatadi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ifloslanish darajasi faqat ma’lum bir soatlarda emas, balki kun davomida yuqori saqlanib turadi. Bu esa aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, ayniqsa nafas olish yo‘llari kasalliklariga moyil bolalar va qariyalar uchun xavf yuqori bo‘ladi [11]. Chang zarralari inson organizmiga nafaqat tashqi nafas yo‘llari orqali, balki qon aylanish tizimi orqali ham kirib, yurak-qon tomir kasalliklarini kuchaytirishi mumkin [12].

Ayni paytda shamol tezligi yuqori bo‘lgan davrlarda chang ko‘chishi uzoq masofalarga yetib borishi mumkin, bu esa hududlararo ifloslanishga olib keladi [13]. Xususan, sentabr oyida 26-27-sanalar oralig‘ida qayd etilgan 0.52–0.55 mg/m³ ko‘rsatkichlar quruq, changli shamollar fonida kuzatilgan. Shuningdek, ekologik barqarorlikka salbiy ta’sir qiluvchi sanoat obyektlarining filtratsiya tizimi yaroqsiz holga kelgan bo‘lishi ehtimoli ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Chunki kuzatuvlar doimiy ravishda o‘sha hududlarda qayd etilmoqda. Bu esa ekologik nazorat organlari tomonidan monitoring ishlarini kuchaytirishni, korxonalarda esa ekologik standartlarga qat’iy rioya etilishini taqozo etadi [14].

Jami olganda, yuqoridagi tahlillar Navoiy shahridagi chang ifloslanishi mavsumiy, sutkalik va soatlik kesimda muhim o‘zgarishlarga ega bo‘lib, ekologik va sog‘liqni saqlash nuqtai nazaridan jiddiy e’tibor talab qiladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqotlar Navoiy shahrida 2019-yilda atmosfera havosida chang zarralari miqdorining qator oylar davomida me’yoriy chegaralardan oshganligini yaqqol ko‘rsatdi. Ayniqsa, yoz va kuz fasllarida – iyul, avgust, sentabr va oktabr oylarida bir kecha-kunduzlik kuzatuvlarda ham, bir martalik o‘lchovlarda ham yuqori ifloslanish holatlari kuzatildi. Chang zarralarining 0.50 mg/m³ me’yoridan ortiq miqdorda aniqlanishi bu davrda aholi salomatligi uchun sezilarli xavf tug‘dirganligini anglatadi.

Shuningdek, olingan statistik ma’lumotlar va diagrammalar asosida chang zarralarining ko‘payishida tabiiy omillar (quruq ob-havo, shamol tezligi), shuningdek, inson faoliyati – qurilish, transport vositalari harakati, sanoat chiqindilari kabi antropogen manbalar muhim rol o‘ynaganini ko‘rish mumkin. Monitoring natijalari mahalliy ekologik xizmatlar tomonidan doimiy ravishda nazorat qilinishi, yuqori ifloslanish davrlarida aholiga ogohlantirishlar berilishi, hamda sanitariya-profilaktika tadbirlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kelgusida bunday ifloslanishlarni kamaytirish uchun yashil zonalarni kengaytirish, changga qarshi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport vositalaridan chiqayotgan ifloslantiruvchi moddalarni kamaytirish va ommaviy ekologik nazorat mexanizmlarini

takomillashtirish tavsiya etiladi. Bu nafaqat atrof-muhit sifatini yaxshilashga, balki aholi sog‘lig‘ini saqlashga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR:

1. Karimov A.A., Mamadjanov A.M. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 248 b.
2. Bobomurodov S., Usmonov O. Atmosfera havosi va uning ifloslanishi. – Toshkent: Fan, 2015. – 192 b.
3. Tursunov D., Qodirov B. Shaharsozlik va ekologik xavfsizlik. – Samarqand: Zarafshon, 2020. – 176 b.
4. Hasanov S. A., Karimov B. T. Atmosfera havosining ifloslanishi va uning monitoringi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 112 b.
5. World Health Organization (WHO). Ambient (outdoor) air pollution. WHO Global Air Quality Guidelines. – Geneva: WHO, 2021. – 34 p.
6. Mamadaliev A. A., Xodjiev I. X. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2016. – 220 b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. Atmosfera havosining ifloslanish holati to‘g‘risida ma’lumotlar. 2019-yilgi yillik monitoring hisobot. – Toshkent: O‘zgidromet, 2020. – 45 b.
8. Yuldashev, M. R. (2019). Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
9. Alimov, D. A., & Qodirova, M. R. (2020). O‘zbekiston shaharlarida atmosfera havosining ifloslanishi darajasi va uning monitoringi. Ekologiya va tabiat resurslari, 4(1), 33–39.
10. World Health Organization (WHO). (2021). Ambient (outdoor) air pollution. Retrieved from https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/ambient-(outdoor)-air-quality-and-health
11. Nazarov, B. T. (2022). Atmosfera havosining chang zarralari bilan ifloslanishi va uning inson salomatligiga ta’siri. Gidrometeorologik tadqiqotlar jurnali, 2(3), 41–48.
12. Pope, C. A., & Dockery, D. W. (2006). Health effects of fine particulate air pollution: lines that connect. Journal of the Air & Waste Management Association, 56(6), 709–742.
13. Ma, Z., Hu, X., Sayer, A. M., et al. (2019). Satellite-based spatiotemporal trends in PM2.5 concentrations: China, 2004–2018. Environmental Health Perspectives, 127(6), 067011.
14. GOST 17.2.3.01-86. (2007). Atmosfera havosini muhofaza qilish. Atmosfera havosining ifloslanish me’yorlari. Moskva: Standartlashtirish davlat qo‘mitasi.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

NAVLARARO CHATISHTIRISH ASOSIDA YARATILGAN INGICHKA TOLALI “G‘UZOR” G‘O‘ZA NAVINING YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Pardayev Elshod Alisher o‘g‘li
elshod1122@mail.ru
https://orcid.org/0009-0006-1012-8712
Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada ingichka tolali yangi G‘uzor navining yaratilishi va uni yetishtrish agrotexnikasi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ingichka tolali g‘o‘za, nav, G‘uzor navi, irsiylanish, tizma, yetishtirish.

Аннотация: В статье представлены сведения о создании и его агротехникой возделывания нового тонковолокнистого хлопчатника сорта Гузар.

Ключевые слова: тонковолокнистый хлопчатника, сорт, сорт Гузар, наследование, линия, возделывание.

Abstract: The article presents information about the creation of a new fine-fiber cotton variety Guzar and their the cultivation techniques.

Keywords: fine-fiber cotton, variety, Guzar variety, inheritance, line, cultivation.

Kirish

Bugunki kunda dunyo paxtachilikni yanada rivojlantirish uchun tuproq-iqlim sharoitlarga moslashgan introgressiv duragay va tizmalar asosida istiqbolli navlarni yaratish, miqdoriy belgilarining o‘zgaruvchanlik darajasini aniqlash, morfobiologik belgilarining umumiy fenotipik o‘zgaruvchanligiga genetik va tashqi muhit omillarining ta’sirini tahlil qilish, qimmatli-xo‘jalik belgilarining o‘zaro korrelyatsiyasini aniqlash, hosildorlik va qimmatli-xo‘jalik belgilar shakllanish qonuniyatlarini ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib, bu borada ko‘plab tadqiqotlar olib borish zarur. Har bir g‘o‘za navi seleksionerlar tomonidan ma’lum bir oilalar ustida bir necha yillar davomida olib boriladigan maqsadli qayta-qayta tanlash uslublaridan foydalangan holda avval tizma, keyin esa nav darajasiga yetkaziladi. Hozirgi zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida g‘o‘zaning yangi navlariga xos bo‘lgan morfologik va qimmatli-xo‘jalik belgilari ko‘rsatkichlarini saqlagan holda, davlat standartlariga javob beradigan yangi g‘o‘za navlarga qo‘yilgan talablarga binoan, navdorligi yuqori, ayniqsa kasalliklarga chidamli, tola sifati I–tipga mansub bo‘lgan tola chiqimi yuqori bo‘lgan ingichka tolali g‘o‘za navlarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish, ularning urug‘chiligini takomillashtirish asosiy vazifalardan biridir.

G‘o‘zaning ingichka tolali G‘uzor navi kelib chiqishi, tanasi shakli, morfoxo‘jalik belgilarining ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘ziga xosdir. Quyida ushbu navning tavsifi va umumiy rasmi keltirilgan.

1-RASM. G‘O‘ZANING G‘UZOR NAVI

Kelib chiqishi: G‘o‘zaning G‘uzor navi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi institutida Ekologik genetika laboratoriyasida yaratilgan.

G‘o‘zaning navlararo *G. barbadense* L. turining yangi tizmalarida morfo-xo‘jalik belgilarini o‘rganish va maqsadli tanlov olib borish natijasida ingichka tolali g‘o‘zanining yangi yaratilgan L-450 tizmasi O‘zR QXV ning Tarmoqlararo komissiyasining qaroriga ko‘ra, “G‘uzor” nomi bilan 2021 yilda Davlat nav sinovi (DNS) ning Gruntnazoratida sinash uchun qabul qilindi. Bir qancha belgi ko‘rsatkichlari bilan nazorat navdan ustun bo‘lgan L-450 tizmasining belgi ko‘rsatkichlari ilovada keltirilgan.

Ingichka tolali Surxon-9 x Duru-Gavxar navlarini o‘zaro duragaylash va ko‘p yillik tanlov olib borish asosida yaratilgan, 0-tipli shoxlanishga ega, tezpishar nav

G. BARBADENSE L. (ONA) SURXON-9	**X**	*G. BARBADENSE* L. (OTA) DURU GAVHAR
F1 SURXON-9 X DURU GAVXAR T-450		

bo‘lib o‘suv davri – 125-127 kun, o‘simlik bo‘yi – 110-120 sm, asosiy poyadagi bo‘g‘imlar soni – 25 ta, bo‘g‘im oralig‘i – 4.0 sm, bitta ko‘sakdagi paxta vazni – 3.7 -4,0 g, 1000 ta chigit vazni – 133-136 g, tola chiqimi – 35 %, tola indeksi – 6.6 g, tola uzunligi – 39 mm, bitta o‘simlikdagi paxta vazni 60.0 g va undan yuqori, mic – 3.9, Str – 48.8 bo‘lib, navi sifatida takomillashtirib davlat talablarga javob beradigan nav darajasiga yetkazilgan.

Morfologik belgilari: Ingichka tolali g‘o‘zaning G‘uzor navi o‘rtapishar g‘o‘za navlar guruhiga kiradi. Nav populyatsiya o‘simliklari silindirsimon shaklida bo‘lib, nol tipdagi shoxlanishga ega, poyasi tik turuvchi o‘rtacha tuklangan, bo‘yi 110-120 sm. Barglari katta 5 panjali. Poyasi jigar rangda. Gullari limon rangda, antotsion dog‘lari bor, gul yonbarglari o‘rtacha kattalikda bo‘lib 12-13 tishli. Ko‘saklari yirik ellipissimon, burunli, sirti silliq, yashil rangli qalin qobiqli, 3-4 chanoqli yaxshi ochiladi. Paxtasi chanog‘idan to‘kilib ketmaydi. Xar bir chanog‘ida 7-8 tagacha chigit xosil qiladi. Chigitlari tuxumsimon yassi, tuklanishi kuchsiz tuki kulrang. O‘simliklarning morfologik belgilari (tashqi qiyofasi) va irsiy belgilari turg‘un.

Xo‘jalik belgilari: G‘uzor g‘o‘za navining rivojlanish davri respublikamiz janubiy hududlarida 125-127 kunni tashkil etadi.

Barglari kaftsimon, o‘lchami o‘rtacha kattalikda, 4-5 tishli. Och va to‘q yashil rangli. Barg o‘rta tomirlari kuchsiz tuklangan, shira chiqaruvchi va gossipol bezlari mavjud.

Gullari va gul kosacha barglari o‘rtacha kattalikda, sarg‘ish (limon rang) antotsian dog‘lar bor. Changdonlari to‘q sariq rangli.

Ko‘sak shakli ovalsimon, o‘rtacha kattalikda, yuzasi silliq, och yashil rangda, o‘tkir burunchali. Bir ko‘sakdagi paxtasining vazni 3,8-4,0 g.

Chigiti o‘rtacha kattalikda, tuxumsimon shaklda, o‘rtacha tuklangan, kulrang. 1000 dona chigiti massasi 133,0-136,0 g.

Ko‘sak tuplashi poyasining pastdan yuqori yarusigacha bir tekis boradi, ko‘saklar sifatli ochiladi.

Tolasi oq rangda, uzunligi 38,5-39,0 mm; chigitdan osonlik bilan ajraladi, tola chiqimi 36,0% ni tashkil etadi. Solishtirma uzilish kuchi (Str) 48,8, tolasining yuqori o‘rtacha uzunligi (Len) 1.19. Nisbiy uzilish og‘irligi 4.8. Uzilish og‘irligi 28.1 gs/teks. Metrik nomeri 6118 , Chiziqdagi zichligi 180 m/teks. Tola hosili - 12,4 s/ga., tolasi I- sanoat tipiga mansub. Tolasi jahon andozalari talabiga to‘liq mos keladi.

Chigit tarkibidagi yog‘ miqdori 23-24.5% tashkil etadi, mikroneyri 3,9 ga teng. Agrotexnika sifatli tarzda olib borilishi miqdoriy ko‘rsatkichlarni oshishiga olib keladi. G‘uzor navining xosildorligi 38.0-40.0 s/gani tashkil etadi. Sifatli va yuqori agrotexnikani qo‘llagan sharoitlarda hosildorlik ko‘rsatkichi yanada oshishi kuzatilgan. Ushbu nav vilt kasalligiga chidamli bo‘lib o‘simlik immun tizimi oshirilgan holda, bardoshlilik darajasi 98% ga yetkazilgan, shunda ham kasallangan g‘o‘zalar tolerantlik xususiyatlarini saqlab, hosildorlikka ta’sir qilmaydi. Ushbu qimmatli xususiyati nazorat navlarga nisbatan har tomonlama ustunligini namoyon qilib kelmoqda.

G‘o‘zaning yangi G‘uzor navi andoza navlarga nisbatan turli ekstremal muhitlarga tez moslashuvchanligi (adaptatsiyasi), qurg‘oqchilikka, kasalliklarga, zararkunanda-hashorotlarga chidamliligi, tolasining sifati va chiqimi, tezpisharligi, bilan farq qiladi. Respublikaning barcha mintaqalarida, shuningdek shimoliy hamda suv tanqis va tuprog‘i sho‘rlangan xududlarda ham ekib yuqori hosil olishi kuzatildi.

Bundan tashqari ushbu yangi g‘o‘za navi chigiti tarkibidagi faol izozimlari bilan seleksiya sohasida vilt kasalligiga eng chidamli navlar qatoriga kiritib andoza nav sifatida foydalanish mumkin.

NAVNI YETISHTIRISH AGROTEXNIKASI

Chigitni ekishga tayyorlash va ekish: Ushbu navni **u**rug‘larining unuvchanligi yuqoriligi va tezpisharligini hisobga olib, ekish muddatini biroz kechiktirish, ya’ni optimal sharoit yuzaga kelishi bilan 10-25 aprel oralig‘ida ekish mumkin. Har gektar maydonga sarflanadigan chigit miqdorini, tuksizlantirilgan bo‘lsa 20-25 kg, tukli chigit 45 kg.

Nihollarni yagonalash: Nihollarni yagonalash bitta-ikkitadan chinbarg chiqarganda bajarish maqsadga muvofiq.

Ko‘chat qalinligi: Poyasining shakli va tuzilishini hisobga olib, unumdor tuproq sharoitida 100-120 ming/ga. Och tusli buz tuproqlar va og‘ir mexanik tarkibli taqir va unumdorligi past, sho‘rlanishga moyil tuproqlarda 100-130 ming/ga tup ko‘chat yetarli bo‘ladi.

Mineral o‘g‘itlarni qo‘llash: Bu nav yuqori agrotexnik tadbirlarga, xususan mineral o‘g‘itlarga talabchan bo‘lgan holda suvni kam talab qiladi. Ko‘p yillik o‘rganishlarga ko‘ra aniqlandiki, G‘uzor navi ekin maydonlari azotli, fosforli, kaliyli o‘g‘itlarga boy bo‘lsa, uning biomassasi emas, balki hosildorligi oshib borishi kuzatildi. O‘g‘itlash me’yori (1 tonna hosil uchun): 1:0,5:0,4 tartibda, ya’ni sof holda N-60 kg/ga, P-40 kg/ga, K-25 kg/ga va o‘tloqi yerlarda azot miqdorini kamaytirib N-50 kg/ga, P-35 kg/ga, K-20 kg/gacha berish mumkin. Azotni normaga nisbatan 20% ni ekish bilan, qolgan qismini birinchi kultivatsiya vaqtida, shonalash davrida, gullash fazasi boshlanishida, fosforli o‘g‘itni teng qismlarga bo‘lib shudgor ostiga va o‘simliklar gullash davrida, kaliyli o‘g‘itini shudgorlashdan oldin va shonalash davrida beriladi, oziqlantirishini 10-iyuldan kechiktirmay tugallash zarur.

Sug‘orish: Yer osti, sizot suvlari yaqin joylashgan tuproqlarda 0-3-1; - bo‘z yerlarda 1-4-1 sug‘orish sxemasi qo‘llaniladi. Sug‘orish oralig‘i 20 kun atrofida bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, mo‘l sug‘orish shart emas, chunki bu navning ildiz tizimi yaxshi rivojlanganligi sababli tuproqdagi namlikdan unumli foydalanadi. Bu sug‘orishlar sonini kamaytirishni anglatmaydi, ammo gektar hisobiga beriladigan suv miqdorini kamaytirilishini bildiradi. Ya’ni, suvga talabchan navlarning 1 gektar maydoniga ishlatilishi kerak bo‘lgan miqdordagi suv bilan G‘uzor navining 1,5-2,0 gektar maydonini sug‘orsa bo‘ladi.

G‘uzor navining afzallik tomonlari: Chigitlar yerga ekilgandan o‘sib boshlagan boshlang‘ich fazasida asosan o‘simliklarning yer ostki qismlari yer ustki qismlariga nisbatan tez o‘sishi hisobiga poyasi baquvvat, qurg‘oqchilik sharoitlarida hosil elementlarini kam to‘kilishi, hosilning chanoqdan to‘kilmasligi, zararkunanda-hashoratlarga chidamliligi, tolasining sifati va

chiqimi yuqoriligi ayniqsa ushbu nav vilt kasalligiga chidamli bo‘lib kasallangan g‘o‘zalar tolerant holda bo‘lib, hosildorlikka ta’sir qilmaydi. Rasmdan ko‘rinib turibdiki 100% vilt bilan kasallangan ushbu g‘o‘za tupida ham 18-25 dona hosil elementini vegetatsiyasining oxiriga qadar saqlanib, keyinchalik poya va barglarida kasallik alomatlari aniqlandi (5-rasm).

Ushbu tadqiqotlarning ashyosi hisoblangan ingichka tolali g‘o‘zaning yangi G‘uzor navining yaratilib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tizimiga joriy etilishi oldidan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi yangi navlarning konkurs sinovlarini o‘tkazish uchun mo‘ljallangan dala tajriba maydonida 2018-2020 yillar davomida ekildi. Sinov natijalari turlicha belgi va xususiyatlari bo‘yicha tahlil qilinib, olingan natijalar o‘rganildi. Jamlangan ma’lumotlar andoza sifatida olingan Surxon-14 navi ko‘rsatkichlariga taqqoslab o‘rganildi (1-jadval).

1-jadval

G‘o‘zaning G‘uzor navining qimmatli-xo‘jalik belgilari andoza navlarga nisbatan tahlili

Belgilar	Nazorat navi Surxon-14	G‘uzor
Vegetatsiya davri, kun	118±1,02	125±1,07
O‘simlik uzunligi, sm	115±3,01	120±2,55
Bir tup g‘o‘zadagi ko‘saklar soni	17,0±0,75	21,0±0,60
Bir ko‘sak og‘irligi, g	3,5±0,19	4,0±0,22
1000 dona chigit vazni, g	120±1,29	135±1,34
Mikroneyr	4,0	3,9
Vilt kasalligiga chidamliligi %	85,0	96,0
Hosildorlik, s/ga	35,0	40,5
Urug‘ tarkibidagi yog‘ miqdori %	19,5	23,5
Tola chiqimi, %	35,0±0,80	36,0±0,42

1-jadval ma’lumotlaridan ma’lum bo‘lishicha, “G‘uzor” navining konkurs nav sinovidagi xo‘jalik belgilari ko‘rsatkichlari andoza “Surxon-14” naviga nisbatan qiyoslab o‘rganilgan jihatlari va boshqa xususiyatlariga ko‘ra, ijobiy farqlanishni namoyon etgan. Konkurs nav sinovida g‘o‘zaning yangi “G‘uzor” navi hosildorlik, bir dona ko‘sakdagi paxta xom ashyosi vazni, 1000 dona chigit vazni, tola sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha andoza “Surxon-14” naviga nisbatan taqqoslab baho berildi. 3 yillik konkurs nav sinovi natijalariga ko‘ra g‘o‘zaning yangi “G‘uzor” navida paxta hosildorligi o‘rtacha 55,6 s/ga tashkil etgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich andoza navda 51,3 s/ga ni tashkil etdi. Tola hosildorligi bo‘yicha andozadan 1,3 s/ga ustun keldi. Tezpisharlik bo‘yicha andozadan 7 kunga erta ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.01.2020 yildagi “Ingichka tolali paxta navlari yetishtirishni samarali tashkil qilish, yangi navlarni ko‘paytirish va rag‘batlantirish mexanizmini joriy etish to‘g‘risida”gi 47-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18-martdagi “Surxondaryo viloyatida ingichka tolali paxta yetishtirishni ilmiy asosda amalga oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-170-sonli Qarori.
3. Кимсанбоев О.Х. Наследование выхода волокна при межлинейной гибридизации тонковолокнистого хлопчатника *G.barbadense* L. Автореф.дисс.канд.с/х. наук., Ташкент, 1998, -23 с.
4. Avliyaqulov M.A., N.H. Durdiyev. Ingichka tolali g‘o‘za navlari agrotexnikasi. //Paxtachilik va donchilik ilmiy-ommabop jurnal. Toshkent, 2021 y. 77-84-betlar.
5. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. O‘ZPITI, Toshkent, 2007. B.61.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

TIOMOCHEVINA VA GLITSERINNING KONDENSATSIYA REAKSIYASI NATIJASIDA HOSIL BO‘LGAN BIRIKMANING STRUKTURA-XUSUSIYATLARIGA DOIR IQ-SPEKTROSKOPIK TADQIQOTLAR

G’afforova Shahlo Voxit qizi
Texnika fanlar falsafa doktori (PhD). Termiz davlat universiteti doktoranti.
To’rayev Xayit Xudoynazarovich
Kimyo fanlari doktori, professor. Termiz davlat universiteti professori.
Sottiqulov Elyor Sotimboyevich
Texnika fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim. Toshkent kimyo texnologiyalar tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi
Chaqanov Asadbek Hasan o’g’li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti

Annotatsiya Mazkur ilmiy ishda tiomochevina va glitserinning kondensatsiya reaksiyasi asosida yangi organik birikma sintez qilingan hamda ushbu moddaning molekulyar tuzilishi va funksional guruhlarining tabiatini aniqlash maqsadida IQ-spektroskopik (infraqizil spektroskopiya) tahlillar olib borilgan. Sintez jarayoni nazorat ostida tegishli stexiometrik nisbatlar va optimal harorat sharoitlarida amalga oshirildi. Hosil bo‘lgan birikmaning funksional guruhlari va ularning molekula ichidagi o‘zaro ta’sirini aniqlanganda, 3200–3400 sm^{-1} oralig‘ida O–H guruhlariga, 1500–1700 sm^{-1} oralig‘ida esa C=N va C=S bog‘lariga tegishli yutilish cho‘qqilari mavjudligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *tiomochevina, glitserin, kondensatsiya reaksiyasi, IQ-spektroskopiya, funktsional guruhlar, amid guruhi, selektiv sorbentlar.*

Аннотация: В настоящем научном исследовании был синтезирован новый органический соединение на основе реакции конденсации тиомочевины и глицерина, а также проведён ИК-спектроскопический анализ (инфракрасная спектроскопия) с целью определения молекулярной структуры и природы функциональных групп данного вещества. Процесс синтеза осуществлялся под контролем, при соблюдении соответствующих стехиометрических соотношений и оптимальных температурных условий. При изучении функциональных групп полученного соединения и их взаимного влияния внутри молекулы были выявлены полосы поглощения в диапазоне 3200-3400 $см^{-1}$, соответствующие O–H группам, а также в диапазоне 1500–1700 $см^{-1}$ для связей C=N и C=S.

Ключевые слова: *тиомочевина, глицерин, реакция конденсации, ИК-спектроскопия, функциональные группы, амидная группа, селективные сорбенты.*

Annotation

In this scientific study, a new organic compound was synthesized based on the condensation reaction of thiourea and glycerol. To determine the molecular structure and the nature of the functional groups of the resulting substance, infrared (IR) spectroscopic analysis was carried out. The synthesis process was conducted under controlled conditions with appropriate stoichiometric ratios and optimal temperature parameters. The IR spectral analysis of the synthesized compound revealed absorption peaks in the range of 3200–3400 cm^{-1} corresponding to O–H groups, and in the range of 1500–1700 cm^{-1} corresponding to C=N and C=S bonds, indicating the presence and intramolecular interactions of these functional groups.

Keywords: *thiourea, glycerol, condensation reaction, IR spectroscopy, functional groups, amide group, selective sorbents.*

Kirish. Zamonaviy kimyoda turli funksional guruhlarga boy bo‘lgan organik birikmalarning sintezi va ularning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oltingugurt va kislorod tutgan komponentlarning o‘zaro reaksiyalari selektiv sorbentlar, farmatsevtik vositalar va modifikatsiyalangan polimer materiallar ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda tiomochevina ($CS(NH_2)_2$) va glitserin ($C_3H_8O_3$) o‘rtasidagi reaksiya natijasida olingan mahsulot strukturasidagi o‘zgarishlar infraqizil (IQ) spektroskopiya yordamida tahlil qilindi.

Manbaalarda tuli rudalardan oltinni ajratib olishning innovatsion usullari bayon etilgan. Ushbu usullarda ruda avval gravitatsion-flotatsion boyitish orqali qayta ishlanadi, so‘ngra sianlash va ikki bosqichli sorbsion yuvish orqali oltin ajratib olinadi. Birinchi bosqichda promprodukt, ikkinchi bosqichda esa flotokontsentrat sorbsiyaga uchraydi. Bu jarayon sorbentning oltinni to‘plash qobiliyatini 1,5–2 martaga oshirish imkonini beradi [1].

Oltin va palladiyni kislotali eritmalardan ajratib olish uchun yangi turdagi to‘rli sopolimer sorbent ishlab chiqilgan. Ushbu sopolimer malein angidridi va N,N-bis-(viniloksietil)-ditiokarbamat kaliy asosida polimerizatsiya orqali sintez qilingan bo‘lib, u yuqori sorbsion qobiliyatga ega. Tadqiqotlarda ushbu sorbentning oltin bo‘yicha sig‘imi 340–360 mg/g, palladiy bo‘yicha esa 65 mg/g ekani ko‘rsatilgan. Ayniqsa, 20–30 daqiqa ichida sorbsiya muvozanatiga erishilishi texnologiyaning samaradorligini ko‘rsatadi. Ushbu sorbent kislotali muhitda, hatto og‘ir metallarning katta miqdori ishtirokida ham oltinni yuqori selektivlikda ajratib olish imkonini beradi [2].

Murakkab tarkibli xlorid eritmalardan oltinni ajratib olishning ekologik xavfsiz va kam chiqindili usuli taklif etilgan bo‘lib, ushbu usul oltin saqlovchi pirrit kontsentratlari, anod shlamlari va radioelektron chiqindilardan gidroxlorlash orqali pulpa hosil qilinib, uning redoks potensiali 900–1100 mV darajasiga yetkaziladi. Shundan so‘ng polistirol-disulfid asosidagi sorbent yordamida oltin ajratib olinadi. Mazkur sorbent oltinga yuqori selektivlikka ega bo‘lib, temir va boshqa rangli metallar bilan aralashgan eritmalardan ham oltinni samarali ajrata oladi. Sorbsiya jarayonidan keyin sorbent tiomochevina eritmasi bilan regeneratsiya qilinadi va yana qayta ishlatiladi [3].

Oltin (III) va palladiy (II) ni yuqori-kislotali eritmalardan ajratib olishning yuqori samarali usuli ishlab chiqilgan. Patent mualliflari tomonidan taklif etilgan usul PSDS-3 deb nomlangan kremniy-organik polimer asosidagi sorbentdan foydalanishga asoslanadi. Ushbu sorbent noyob tuzilishga ega bo‘lib, tarkibida xelat hosil qiluvchi (-NH-S-S-NH-) funksional guruhlarni o‘z ichiga oladi. PSDS-3 sorbentining statik sig‘imi oltin (III) uchun 650 mg/g, palladiy (II) uchun esa 380 mg/g ni tashkil etadi. Ajratib olish jarayoni 1–7 M HCl eritmalarda olib boriladi va 1 M eritmada eng yuqori samaradorlikka erishildi. Sorbent katta miqdordagi temir, mis, nikel, rux, qo‘rg‘oshin va kobalt bo‘lishiga qaramay, oltin va palladiyni yuqori selektivlik bilan ajratib oladi [4].

Adabiyotlarda uglerodli sorbent material “sibunit”ning modifikatsiyalangan shaklini olish usuli bayon etilgan. Ushbu sorbent azot saqlovchi geterotsiklik polimer — poli-1-vinil-1,2,4-triazol yordamida tayyorlanadi. “Sibunit” materialining yuqori kimyoviy barqarorlik, katta sirt maydoni va yaxshi adsorbsion xususiyatlari ushbu modifikatsiyani samarali qiladi. Modifikatsiya ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi: yoki polimerning suvli eritmasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlov berish, yoki uning monomeri asosida polimerlash orqali. Ushbu usul oltin va kumush ionlariga nisbatan sorbsiya sig‘imini sezilarli oshirishga imkon beradi: oltin uchun 20–35 mg/g, kumush uchun esa 30–41 mg/g. Modifikatsiyalangan sorbent oddiy uglerod sorbentlariga nisbatan yuqori selektivlik va samaradorlik ko‘rsatadi [5].

Murakkab tarkibli xlorid eritmalardan oltinni ajratib olishning ekologik xavfsiz va kam chiqindili usuli taklif etilgan. Ushbu texnologiyada oltin saqlovchi pirrit kontsentratlari, anod shlamlari yoki sanoat chiqindilari avval xlorid kislotada eritiladi, so‘ngra gidroxlorlash orqali eritma 900–1100 mV redoks potensialgacha etkaziladi [6].

O‘rganilgan RU 2 405 047 C2 raqamli patentda kislotali eritmalardan oltinni ajratib olish uchun yuqori sig‘imli va selektiv sorbent — tiokarbamoilxitozan (TKX) asosida yangi usul ishlab chiqilgan. Sorbent 0,4–0,9 darajadagi modifikatsiyaga ega bo‘lib, oldindan 0,01–0,1 M HCl eritmasi bilan 1–2 soat davomida ishlov beriladi. Sorbsiya jarayoni pH 1,0–1,5 da, davriy aralashtirish bilan amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oltinni ajratib olish darajasi 97–100% gacha yetgan, temir ionlari uchun esa bu ko‘rsatkich 2,2% dan oshmagan. TKX sorbentining oltin (III) ga nisbatan sig‘imi 3,7 mmol/g gacha bo‘lib, bu natija uni boshqa usullarga nisbatan samaraliroq va iqtisodiy jihatdan maqbul qiladi [7].

Tadqiqotdan ko‘zlangan maqsad — tiomochevina va glitserinning o‘zaro reaksiyasi mahsulotini IQ spektroskopiya usuli bilan o‘rganish hamda reaksiyadan oldingi va keyin hosil bo‘lgan moddalardagi funksional guruhlar o‘zgarishini aniqlashdan iborat.

Foydalanilgan reagentlar va ularning xossalari. Tiokarbabamidning sutrukturaviy tuzilishi karbamidga o’xshaydi, faqat kislorod atomi oltingugurt atomi bilan almashtiriladi. Tiokarbamid asosan organik sintezdada reaktiv sifatida ishlatiladi. Uning molekulyar massasi M=76.12 g/mol ga teng, zichligi 1,4g/sm³ga teng va suyuqlanish harorati T_{suyuq}=180-185°C ga teng. Qaynash harorati T_{qay}= 155°C. Tiokarbamid tarkibidagi C=S bog’lanish masofasi keng turdagi hosilalar uchu 1,6±0,1ga teng.

Glitsirin- Molekulasida uchta uglerod, sakkizta vodorod va uchta kislorod atomi mavjud bo‘lib, tuzilmasi uni ko‘p funksiyali reagent sifatida ajratib turadi. Uning zichligi taxminan 1,26 g/sm³ (25 °C da) bo‘lib, bu ko‘pgina organik suyuqliklarga nisbatan yuqori sanaladi. Glitserinning yuqori qutbliligi va vodorod bog‘lari hosil qilish qobiliyati uni turli kimyoviy jarayonlarda, shu jumladan sorbentlar tarkibida yoki ularning modifikatori sifatida qo‘llashga asos bo‘ladi.

Tadqiqot davomoda dastlabki reagentlar va hosil bo‘lgan maxsulot strukturasidagi funksional gurhlar o’zgarishlari IQ-spektroskopiya usuli orqali aniqlandi. IQ-spektroskopik tekshirish Yaponiyada ishlab chiqarilgan ShIMADZU infraqizil Furye spektrometrida (diapazoni 400-4000 sm-1, o‘lchamlari 4 sm-1) o‘tkazildi.

Avvalo dastlabki reagentlarning IQ-spektrlari tahlil qilindi. 1-rasmda tadqiqotda foydalanilgan glitserinning IQ spektri keltirilgan.



1-rasm. Glitserinning IQ-spektri

Glitserin (1,2,3-propantriol) – tarkibida uchta gidroksil (–OH) guruh mavjud bo‘lgan ko‘patomli spirt bo‘lib, uning infraqizil (IK) spektri spirtlarga xos bo‘lgan xarakterli tebranish polosalari bilan tavsiflanadi. Ushbu tahlilda glitserinning IQ-spektrida kuzatilgan asosiy polosalar adabiyotlarda berilgan ma’lumotlar bilan solishtirildi.

IK-spektrdagi 3300–3200 sm^{-1} oralig‘idagi keng va yuqori intensivlikdagi polosa glitserin molekulasining gidroksil guruhlaridagi O–H valent tebranishlariga to‘g‘ri keladi. Bu polosa kengligi glitserindagi vodorod bog‘lari tufayli yuzaga keladi va ularning bir-biri bilan kuchli assotsiatsiyalanganligini ko‘rsatadi. Bu holat odatda ko‘p gidroksilli organik birikmalar uchun xosdir.

2940–2880 sm^{-1} atrofidagi polosalar metilen ($–CH_2–$) va metil ($–CH_3$) guruhlaridagi C–H valent tebranishlariga mos keladi. Bu tebranishlar organik moddalardagi uglerod-vodorod bog‘larining mavjudligini tasdiqlaydi va alkil zanjirli strukturalar uchun xarakterli hisoblanadi. 1460–1420 sm^{-1} va 1375–1350 sm^{-1} diapazonlaridagi polosalar esa $–CH_2$ va $–CH_3$ guruhlarining deformatsion tebranishlari bilan bog‘liq. Ushbu polosa intensivligi o‘rtacha va kuchli bo‘lib, ular glitserinning umumiy strukturasini tashkil etuvchi alkil zanjiriga xosdir.

1150–1050 sm^{-1} diapazonidagi kuchli tebranishlar C–O bog‘larining valent tebranishlariga mos keladi. Glitserin molekulasining har bir gidroksil guruhi C–O bog‘i orqali uglerodga bog‘langanligi sababli, ushbu diapazondagi kuchli yutilish sohalari namoyon bo‘ladi. Shuningdek, 750–650 sm^{-1} sohasidagi keng va o‘rta intensivlikdagi tebranishlar OH guruhlarining deformatsion tebranishlariga mos keladi.

Quyida esa tadqiqotda foydalanilgan tiomochevinaning IQ-spektri keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. Tiomochevinaning IQ-spektri

Tiomochevina ($SC(NH_2)_2$) molekulasida ikkita aminoguruh (–NH_2) va bitta tiokarbonil guruhi (C=S) mavjud. 2-rasmdagi IQ-spektrda 3300–3100 sm^{-1} oralig‘idagi keng va intensiv polosalar –NH_2 guruhlarining valent tebranishlarini ifoda etadi. Bu ikki polosa odatda simmetrik va antisimmetrik tebranishlar sifatida ajratiladi va ular birlamchi aminlarga xos hisoblanadi. 1620–1580 sm^{-1} oralig‘idagi yutilish cho‘qqilari –NH_2 guruhlarining deformatsiya tebranishlariga mos keladi. Bu yutilish chizig‘i o‘rtacha intensivlikka ega bo‘lib, aminoguruhlar mavjudligini tasdiqlaydi.

700–600 sm^{-1} atrofida aniq va kuchli yutilish sohasi kuzatiladi, bu tiokarbonil guruhi (C=S) uchun xarakterli valent tebranishlar natijasida yuzaga keladi. C=S bog‘ining tebranish chastotasi C=O ga nisbatan pastroq bo‘ladi, bu esa atomlar o‘rtasidagi bog‘ kuchining farqidan kelib chiqadi. 1470–1420 sm^{-1} oralig‘idagi polosa esa C–H yoki molekulaning asosiy zanjiri tebranishlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, spektrda kuzatilgan asosiy polosalar tiomochevina molekulasidagi asosiy funksional guruhlar – aminoguruhlar va tiokarbonil guruhining mavjudligini aniq tasdiqlaydi.

Tiomochevina va glitserinning o‘zaro reaksiyasi natijasida olingan maxsulotning IQ spektri quyidagi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Tiomochevina va glitserin asosida olingan mahsulotning IQ-spektri

Tiomochevina va glitserin 1:1 mol nisbatda aralashtirilib, 120°C haroratda 4–5 soat davomida qizdirildi. Reaksiya davomida suv va ammiak ajralib chiqdi. Bu reaksiya kondensatsiya reaksiyasi ekanligini ko‘rsatadi va natijada yangi funksional bog‘larga ega modda hosil bo‘ldi.

Tiomochevinaning IQ-spektrida 3300–3200 sm^{-1} atrofidagi ikki polosa birlamchi amin guruhlarining ($–NH_2$) valent tebranishlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, 1620–1580 sm^{-1} oralig‘idagi deformatsiya tebranishlari va 700 sm^{-1} atrofidagi tebranishlari C=S ga xos bo‘ladi.

Glitserinda esa 3300–3200 sm^{-1} diapazonidagi keng polosa –OH guruhlarining tebranishlarini ko‘rsatadi. 2940–2850 sm^{-1} oralig‘ida C–H tebranishlari va 1150–1050 sm^{-1} diapazonida C–O bog‘larining tebranishlari aniqlanadi.

Reaksiyadan keyin hosil bo‘lgan moddadagi spektrda 3300–3200 sm^{-1} diapazonida keng va biroz o‘zgargan polosa saqlanib qolgan. Bu –OH va –NH guruhlari saqlanganini va ularning o‘zaro vodorod bog‘lari orqali bog‘langanini ko‘rsatadi. Eng muhim o‘zgarishlardan biri – 1600-1570 sm^{-1} atrofida yangi polosa paydo bo‘lishi. Bu C=N yoki C–N bog‘lari hosil bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu degani, reaksiya paytida ammiak ajralishi bilan $–NH_2$ guruhi glitserin bilan bog‘lanib, yangi imin yoki amidlarga hos strukturalar hosil qilgan. 1250-1050 sm^{-1} diapazonidagi intensiv tebranishlar C–N va C–O bog‘larining hosil bo‘lganini tasdiqlaydi. Bu holat glitserin va tiomochevina molekulalari o‘rtasida yangi bog‘lar shakllanganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, 700 sm^{-1} atrofida C=S bog‘ining yutilish chizig‘i saqlanib qolgan, bu esa tioguruhlar reaksiyada to‘liq saqlanib qolganligini va ushbu olingan moddani kelgusida selektiv sorbentlar olishda qo‘llash mumkinligini bildiradi.

Umumiy qilib aytganda, spektr natijalari reaksiya paytida moddaning tuzilishida jiddiy o‘zgarishlar bo‘lganini, yangi funksional guruhlar hosil bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xulosa

O‘tkazilgan infraqizil (IQ) spektroskopik tadqiqotlar asosida tiomochevina va glitserin o‘rtasida 120°C haroratda amalga oshirilgan kondensatsiya reaksiyasi natijasida yangi funksional guruhlarga ega birikma hosil bo‘lgani aniqlandi. Spektral tahlil natijalari reaksiyada O–H va NH_2 guruhlarining ishtirok etishi, C–N, C–O hamda ehtimol C=N bog‘larining shakllanishi bilan kechganligini ko‘rsatdi. Reaksiyadan keyingi mahsulotning IQ-spektrida C=S bog‘ining saqlanib qolganligi, tioguruhlarning to‘liq konversiyaga uchramaganligini bildiradi. Olingan moddaning tarkibida turli funksional guruhlarning mavjudligi uning yuqori darajadagi reaktivligini, vodorod bog‘lari orqali assotsiatsiyalanish xususiyatini va selektiv sorbsiya qobiliyatiga ega bo‘lish potensialini ko‘rsatadi. Natijalar, tiomochevina va glitserin asosida sintez qilingan ushbu yangi birikmaning kelajakda samarali sorbent yoki faol komponent sifatida qo‘llanishi mumkinligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Муллов В.М., Чернов В.К., Панченко А.Ф., Маринюк З.А. Способ извлечения золота из руд, содержащих природные сорбенты: пат. RU 2094503 C1 Российская Федерatsiя. Заявл. 11.04.1996; опубл. 27.10.1997.

2. Трофимов Б.А., Голентовская И.П., Манцивода Г.П., Иванова Н.И., Амосова С.В. Сетчатый сополимер малеинового ангидрида и N,N-бис-(винилоксиэтил)-дитиокарбамата калия в качестве сорбента золота и палладия: авторское свид. SU 1295724 A1 СССР. Заявл. 11.03.1985; опубл. 15.06.1994.

3. А.А., Довгий И.И., Бежин Н.А. Способ получения сорбентов на основе бензо-15-краун-5 для извлечения золота: пат. RU 2699631 C2 Российская Федерatsiя. Заявл. 07.02.2018; опубл. 06.09.2019.

4. Авраменко В.А., Братская С.Ю., Пестов А.В., Ятлук Ю.Г. Способ извлечения золота из кислых растворов: пат. RU 2405047 C2 Российская Федерatsiя. Заявл. 15.12.2008; опубл. 27.11.2010.

5. Ермакова Т.Г., Кузнецова Н.П., Прозорова Г.Ф., Дударев В.И., Пожидаев Ю.Н. Способ получения модифицированного гранулированного углеродного материала – активного сорбента благородных металлов: пат. RU 2447934 C1 Российская Федерatsiя. Заявл. 03.08.2010; опубл. 20.04.2012.

6. Антипов Н.И., Яковлев А.П., Югай А.В., Бубнов В.К., Баранов В.М., Капканщиков А.М., Андриевская Э.К., Шиврина В.Р., Шиврин Г.Н. Способ извлечения золота из хлоридных растворов сложного состава: пат. RU 2023732 C1 Российская Федерatsiя. Заявл. 09.03.1992; опубл. 30.11.1994.

7. Авраменко В.А., Братская С.Ю., Пестов А.В., Ятлук Ю.Г. Способ извлечения золота из кислых растворов: пат. RU 2405047 C2 Российская Федерatsiя. Заявл. 15.12.2008; опубл. 27.11.2010.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

УДК 678.742+ 66.017+577.174

ORCID 0009-0004-8255-023X

STEARIN KISLATA VA GLITSERIN KARBAMID ASOSIDA SENTIZ QILINGAN SIRTFAOLMADDANING IQ-SPEKTR TAHLILI FIZIK XOSSALARI

Yuldosheva Yulduz Rustam qizi
E-mail:bkim12823@gmail.com
Qiyomov Sharifjon Nazimovich
katta ilmiy xodim Texnika fanlari doktori (DSc)
Qiyomovsh@mail.ru
+998970051655

Annatatsiya: Ushbu maqolada stearin kislota va karbamid va glitserin xossalarini sintez qilindi, hosil bo’lgan moddaning tarkibi, tuzulishi analiz tahlili moddaning fizik-kimyoviy xossalari o’rganildi, IQ-spektri, analizi tahlillari o’rganib chiqildi hamda reaksiya tenglamalari keltirilgan. Reaksiya sharoitlari va sintez parametrlari ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilindi. Natijada yuqori mustahkamlik va kimyoviy barqarorlikka ega, demulgatorlarning xossalarini yaxshilash maqsadida sirtfaol moddalar saqlagan yangi tarkibli mahsulot sentiz qilindi. Demulgatorlar asosan emulsiyalangan neft va suv aralashmalarini ajratishda, neftni qayta ishlash va ekologik tozalash jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Ish davomida sirtfaol moddalar yordamida monoglistearid sentiz qilib olindi. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va ekologik xavfsiz moddalardan foydalanishga imkon yaratadi.

Kalit so’zlar, sirt foal modda, karbamid,GLITSERIN, sterin kislata, IQ-spektr sintez monoglistired

Аннотация:. В данной статье синтезированы свойства стеариновой кислоты и мочевины и глицерина, состав, строение образующегося вещества, проведен анализ физико-химических свойств вещества, изучены ИК-спектры, анализ и приведены уравнения реакций Проанализировано влияние условий реакции и параметров синтеза. В результате был получен продукт с новым составом, обладающий высокой прочностью и химической стабильностью, сохраняющий поверхностно-активные вещества с целью улучшения свойств демульгаторов. Демульгаторы в основном важны при разделении эмульгированных смесей нефти и воды, а также в процессах нефтепереработки и экологической очистки. В ходе работы был получен Моногистеарид с использованием поверхностно-активных веществ. Данное исследование позволит усовершенствовать технологию производства и использовать экологически безопасные вещества.

Ключевые слова: поверхностно-активное вещество, Мочевина, Глицерин, Стеариновая кислота, ИК-спектральный Исследование **моноглицерид**

Annotation: this article synthesized the properties of stearic acid and urea and glycerin, analyzed the composition, composition of the resulting substance, studied the physicochemical properties of the substance, studied the analysis of IQ-spectrum, analysis, and presented the reaction equations. Reaction conditions and synthesis parameters have been analyzed to have an effectnnotation: this article synthesized the properties of stearic acid and urea and glycerin, analyzed the composition, composition of the resulting substance, studied the physicochemical properties of the substance, studied the analysis of IQ-spectrum, analysis, and presented the reaction equations. Reaction conditions and synthesis parameters have been analyzed to have an effect. As a result, a new composite product with high strength and chemical stability, which stored surfactants in order to improve the properties of demulgators, was sent down. Demulgators are mainly important in the separation of emulsified oil and water mixtures, in the processes of oil refining and environmental purification. During the work, monoglistearide was subjected to centipede using surfactants. In this study, it is possible to improve production technology and use environmentally friendly substances

Keywords: surface-active agent, Urea, Glycerin, Stearic acid, IK-spectral Research monoglyceride

Kirish. Neft jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining ajralmas qismidir. 20-asrning o’rtalaridan boshlab yoqilg’iga talabning barqaror o’sishi kuzatildi, bu esa neft resurslarini qazib olish va ulardan foydalanishni faollashtirdi [1]. Biroq, xom neftni qazib olish jarayoni ko'pincha neft - suv emulsiyalarining katta miqdorini hosil qiladi. Ushbu emulsiyalar xom neftning yopishqoqligini sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu esa transport xarajatlarini oshiradi [2,3]. Shunday qilib, keyingi ishlov berishdan oldin ushbu emulsiyalarni davolash kerak. Bundan tashqari, emulsiya tarkibida noorganik tuzlarning mavjudligi neft qazib olish uskunalari va quvurlarida korroziya muammolarini kuchaytirishi mumkin [1,4,5]. Xom neftni qazib olish jarayonida emulsiyalarining hosil bo‘lishi emulsiyani samarali ajratish uchun katta qiyinchiliklar tug‘diradi va natijada xarajatlarning oshishiga olib keladi. [6, 7, 8] Glitserinli bu triatsil va glitserin va stearin molekulalarini aylantirish jarayoni.monosilglitserin va Substratlarning aralashmasligi natijasida yuzaga keladi glitseridsiz reaksiyasida cheklangan massa uzatish tezligi. Umuman olganda, katta miqdorda foydalanish glitserinning glitseridli reaksiyasi tezligini oshirishi mumkin. Buning sababi shundaki molekulalari glitserin bilan ko'proq ta'sir o'tkazadi va shu bilan ko'proq va hosil qiladi [9]. Biroq, aralashmada ortiqcha glitserindan foydalanganda bir nechta muammolar paydo bo'lishi mumkin, masalan, past substratning bir xilligi darajasi [10]. Ushbu muammoni hal qilish uchun tadqiqotchilar bir qator qo’llashdi. va glitserin o’rtasidagi o’zaro ta’sirni optimallashtirish uchun modifikatsiya jarayonlari. Bu yondashuv organik erituvchilar va sirt faol moddalarni qo’shish, shuningdek, yuqori aralashtirish tezligidan foydalanishni o’z ichiga oladi.

Tajriba natijallari va ularning tahlili

Hosil bo‘lgan moddaga ishlatilgan reaktivlar hamda qurilmalar **qaytaruvchi sovutgich** yoki **qayta kondensator, tiqin,** vakuum, nasos, silindrsimon kolba konussimon kolba magnitli aralashtirgich qurilmasi plastik quvur, magnitni aralashtirgich silindrsimon tomizg‘ich pipetkasi va nasos avvalo reaktorga konussimon kolbaga kerakli moddalar stearin kislota, glitserin, karbamid, sulfat kislota tajriba jarayonni magnit aralashtirgich qurilmasiga 100℃ haroratgacha qizdirildi. 56 gramm stearin kislata solib turildi.reaksiya 2-soat davomida 200- 150℃ da reaksiya olib borildi. 20 gramm glitserin qo‘shildi,Vakuum sharoitda olib borildi. Konussimon kolbaga kondensator ulandi va kondensator orqali suv ajraldi 100 ℃ **Monoglistearid** hosil bo‘ldi, va suv ajralishi hamda ammiak ajraldi. glitseringa stearin kislota ta’sir ettirildi,hamda natijada suv ajralib chiqdi.



1-rasm. GLITSERIN va stearin kislataning kimyoviy tenglamasi.

2-rasm. Monoglistearidga karbamid birikish reaksiya tenglamasi



3-rasm. Stearin kislotaning IQ-spektr tahlili

3356,14 sm^{-1} bu chiziqda OH guruhi (karbonil kislota) cho’zilishda (keng va yutuvchi cho‘qqi. Tebranish turi valent 2914.44, 2846.93 sm^{-1} cho’zillishda CH_2 guruhlari, alifatik zanjirdagi vodorodlar tebranish turi Assim valent 1697.36 sm^{-1} C=O guruhi cho`zilish chizig‘ida (karbonil guruhining karbonil bog‘ Valent juda intensive 3356.14 sm^{-1}-OH guruhi (karbonil kislota) cho’zilishda (keng va yutuvchi cho‘qqi)



4-rasm. Glitserinning IQ-spektr tahlili

Glitserinning IQ -spektr tahlil qaysi bog’larni mavjudligini aniqlangan. 3300,20 sm^{-1} bu chiziqda C-H guruhi mavjud, tebranish turi valent intensivligi past 2885,51 sm^{-1} chizig‘ida CH guruh mavjud tebranish turi valent intensivligi past 2937,59 sm^{-1} bu chiziqda glitserindagi 3 ta uglerod mavjudligi C-H yani CH_2 va CH guruhi mavjud.1029,99 sm^{-1} bu chiziq eng cho‘ziq kuchli pik shuni ifodalaydiki C-O spirtli guruhning mavjudligini ifodalaydi yani 3 ta spirtli guruhni ifodalaydi. Bunda glitserin moddasining asosiy pik nuqtalari keltirib o‘tilgan 1411,89 sm^{-1} bu chiziq ko‘rsatgichlarida -CH_2- tebranish turi asimm deform



5-rasm. Monoglistearidning IQ spektr tahlili

3381.27 sm-1 chiziq cho‘zilishda O-H (H bog‘ hosil qilmagan) 2954.95, 2914.44 sm-1 chiziq cho‘zilishda C-H cho‘zilish chizig‘ida alifatik zanjir o‘zgarish yo‘q 1693.50 sm-1 chiziq cho‘zilishda C=O **karbonil** guruhi mavjud (ozgina siljigan) 1311.59 – 1168.22 sm-1. C-O cho‘zilish chizig‘ida **efir** guruhi ehtimoli bor 1103.20 – 888.08 sm-1 CH_2- CH_3 deformatsiya tebranishlar 727.16 – 599.86 sm-1 Alifatik zanjirlar OH guruhi (3356 sm^{-1}) 1693.50 sm^{-1} bu chiziq (biroz pastga siljigan) NH_2 guruh mavjud tebranish turi qaychisimon intensivligi o‘rtacha **Stearin kislotasi** o‘zgarishga uchragan.sintez kislotalarni mavjud. Hosil bo‘lgan modda ehtimol **eterifikatsiya** yoki **glitserid hosilasi** natijasida yuzaga kelgan. Bu holatda stearin kislotasi **glitserin bilan reaksiya kirishish natijasida, monogibrid yoki triglitserid** hosil bo‘lgani kuzatildi, sintez qilingan modda suvda erimaydi**, Spirtlar** (masalan, etanol, izopropanol) va **issiq yog‘lar**da yaxshi eriyd

1 jadval

Monoglistearidning fizikaviy xossalari

Xossasi	Qiymati o’zgarishi mumkin
Erish xarorati	53,6℃
Qaynash xarorati	250
Ko‘rinishi	qattiq yoki mumga o‘xshash modda
Rangi	Oq va sarg’ish

Xulosa. Ushbu maqolada sintez qilingan sirt fol modda monogibrid— bu glitserin va bitta yog‘ kislota qoldig‘idan tashkil topgan organik birikma. Ular monoatsilglitseridlar (propantriol) molekulasining faqat bitta gidroksid guruhi yog‘ kislotasi bilan etirifikasiyalanishi natijasida hosil bo‘ladi.sintezi ustida ishlar olib borildi.hamda moddaning fizik kimyoviy xususiyatlari o‘rganildi. Laboratoriya ishlari hamda tajriba tahlillari asosida ishlar olib borildi shu ma’lumki, IQ -spektr tahlil glitserin,stearin kislota va karbamid moddalari alohida iq spektr olindi reaksiya stearin kislotada COOH karbon kislotani mavjudligini hamda reaksiya natijasida C=O guruhga vujudga kelgan.uglerod guruhi mavjud hamda OH guruhi mavjud ekanligi aniqlandi.hosil

bo‘lgan modda neft va gaz sanoatida yog‘ va suv aralashmalarini ajratish maqsadida qo‘llash mumki

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Yog’ ichida suv emulsiyasining barqarorligi va sirt faol birikmalar orqali demulgatsiyalash: sharh J. Benzin. Sci. Eng.(2022) 25-55.

2. RSAlves Xom moyli suv emulsiyalari uchun demulsifikator sifatida kastor yog'i maleatini molekulyar optimallashtirish Yoqilg'i (2022)35-40.

3. Y.Du*va boshqalar*. Ti_3C_2Tx yuklangan xitozan tomonidan boshqariladigan kislotali moyli suv emulsiyalarining demulsifikatsiyasi Ilova. Surf. Sci. (2019) 4, .Modi*va boshqalar.*

4.Biologik makromolekulyar oqsillarni Fe_3O_4 nanozarralari bilan bezatilgan karboksillangan grafen oksidi nano varaqlari bilan o'zgartirilgan polietersulfon ichi bo'sh tolali ultrafiltratsiya membranalari bilan samarali ajratish. Int. J. Biol. Makromol. (2019)45-65.

5. X.Chjan*va* Kislorod bilan boyitilgan ion bo‘lmagan demulgator yordamida og‘ir suvli neft emulsiyalarini demulsifikatsiya qilish: sintez, tavsif va mexanizmlar Yoqilg‘i (2023)25-47

6.Chjou*va boshqalar*.Funksional magnit nanozarrachalar yordamida xona haroratida yog‘-suv emulsiyalarini tez demulsifikatsiya qilishSentyabr Purif. Technol.(2021) 78-52.

7. S.Zhang*va boshqalar*. Yog‘ suv interfeysida asfaltenlarning adsorbsion kinetikasi: konsentratsiya va harorat ta’siri Yoqilg’ (2018)

8. Zhong N, Deng X, Huang J, Xu L, Hu K, Gao Y. Low-temperature chemical glycerolysis to produce diacylglycerols by heterogeneous base catalyst. European Journal of Lipid Science and Technology. 2014;116(4):470–6. 2.

9.Solaesa A G, Sanz MT, Beltra n S, Melgosa R. Kinetic study and kinetic parameters of lipasecatalyzed glycerolysis of sardine oil in a homogeneous medium. Cuihua Xuebao/Chinese Journal of Catalysis. 2016 Apr 1;37(4):596–606. 3

.10. Monte Blanco SFM, Santos JS, Feltes MMC, Dors G, Licodiedoff S, Lerin LA, et al. Optimization of diacylglycerol production by glycerolysis of fish oil catalyzed by Lipozyme TL IM with Tween 65. Bioprocess Biosyst Eng. 2015 Sep 21;38.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

ИССЛЕДОВАНИЯ ЭЛЕКТРЕТНЫХ СВОЙСТВ КОМПОЗИЦИОННЫХ ЭЛЕКТРЕТОВ НА ОСНОВЕ ПОЛИМЕРА И СЕГНЕТОЭЛЕКТРИКА

Ш.С.Ахмедов

докторант, Национального научно-исследовательского института возобновляемых источников энергии при Министерстве энергетики, Ташкент, Республика Узбекистан,

Н.Х.Бозорова

PhD, с.н.с. Национального научно-исследовательского института возобновляемых источников энергии при Министерстве энергетики, Ташкент, Республика Узбекистан,
nayimabazarova23@mail.ru

АННОТАЦИЯ: В нашей республике уделяется особое внимание повышению эффективности получения химических продуктов, выпускаемых в малых количествах, и при использовании ресурсосберегающих систем их переработки достигаются определенные научные и практические результаты.

Развитие современной техники невозможно без применения пластических масс, в особенности полимерных материалов с пониженной горючестью. Пожары, обусловленные воспламенением и горением полимерных материалов, ежегодно наносят большой вред.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: композиты, полимеры, олигомеры, полиолефинный эластомер ПОЭ, физико-химические свойства.

ВВЕДЕНИЕ:В настоящее время планируется увеличить объем производства полимеров за счет запуска крупных промышленных предприятий по всему миру, в том числе в Узбекистане. Многие предприятия Узбекистана в основном занимаются переработкой полимеров.

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР: В последнее время все больше наблюдается тенденция замены неорганических, трудно перерабатываемых материалов на органические полимеры для создания электретов – диэлектриков, длительно сохраняющих электрические заряды разного или одного знака. Этому процессу способствуют разрастающиеся области их применение, предъявляющие разнообразные требования к механическим, теплофизическим, деформационным и др. свойствам электретных материалов [1].

Преимуществом полимерных материалов являются возможность относительно легкого управления их свойствами путем модификации наполнителями различной природы, пластификаторами, другими добавками. Этом пользуются и для повышения их электретных характеристик [2], в том числе для изменения или придания сегнето - или пьезоэлектрических свойств.

РЕЗУЛЬТАТЫ: Следует отметить, что, если условия получения образцов заметно влияют на размеры структурных образований исходного полиэтилена, то в случае образцов модифицированного полиэтилена это различие не столь существенно. Размер сферолитов у образцов, содержащих модифицирующие добавки и полученных при разных режимах охлаждения отличается не столь значительно. Эте данные позволяют заключить, что при переработке модифицированного полиэтилена обеспечивается получение изделий с более однородной структурой и, следовательно, с более стабильными показателями свойств. Как видно, наблюдается аналогичная тенденция - происходит существенное утленьшение размеров сферолитов при содержании добавки 1% масс, после чего размеры сферолитов практически не изменяются. Происходящие структурные изменения сказываются на прочностных свойствах образцов полиэтилена. На рис 1-2 представлены зависимости прочностных показателей от содержания модифицирующих добавок. Из этих графиков следует, что зависимости напряжения текучести и разрушающего напряжения при растяжении носят экстремальный характер.



Рис 1. Зависимость радиуса сферолитов в образцах ПП от содержания добавки Ni-Ac. Режим охлаждения образцов: 1 - медленное охлаждение 2 - быстрое охлаждение.



Рис 2. Зависимость радиуса сферолитов в образцах ПП от содержания добавки Zn-Ac. Режим охлаждения образцов: 1 - медленное охлаждение 2 - быстрое охлаждение

Стоит отметить, что большинство сегнетоэлектриков являются пьезоэлектриками – веществами, у которых при приложении механических напряжений возникает поляризация диэлектрика. Этим эффектом пытаются пользоваться при создании композиций полимеров с сегнето – или пьезоэлектриками–ориентированные кристаллы наполнителя “замораживают” в полимерной матрице для получения материала, обладающего сегнето – или пьезоэлектрическими свойствами или для повышения указанных свойств у полимерных сегнето – и пьезоэлектриков[3].

СЭ вводили в композиции методом сухого смешения в количества от 1 до 10 масс%. Формировали в полимерное покрытие в оптимальных температурно – временных условиях (толщина покрытия 0,7 – 0,8 мм и температура формирования 180 ^{0}C) и охлаждали в поле коренного разряда. Такая методика позволяла повышать начальные электретные характеристики в 1,5 – 2 раз однаке ее недостатком является большое время электрета (до 60 минут). К тому же, нанесения порошковым по толщине споем связано с определенными технологическими трудностями [4].

Возникает вопрос, как будет вести себя смесевая композиция полимер – СЭ, полученная в расплаве полимера, с различным содержанием СЭ наполнителя? И обязательно ли нагревать композицию до 180 ^{0}C?



Рис.3 Зависимость электретной разности потенциялов полиэтиленовых композионных короноэлектретов от содержания сегнетоэлектрического наполнителя.

Срок хранения электротов – 50 суток.

Для исследования влияния порошкообразных сегнетоэлектриков на электретные свойства полиэтилена были приготовлены композиции ПЭ. С различным содержанием наполнителя. Полученые данным свидетельствуют о том, что добавление СЭ ведет к росту значений электретных характеристик полиэтилена, на только до определеной степени наполнения, после чего наблюдается некоторое их снижение (рис.1).

Полученные данные позволяют преположить, что при указанных параметрах электретирования ($U_{пол}$ = 35 кв, $\tau_{пол}$ = 60 с, $T_{пол}$ -90 ^{0}C).

Таблица-1

Электретные характерситики полимерных композиций

Композиция	$T_{пол}$, ^{0}C	Начальные значения			Значения на 30-е сутк		
		Е кв/м	/ $U_{ЭРП}$/ кв	/$\tau_{эф}$/ мк Кл/м^2	Е кв/м	/ $U_{ЭРП}$/ кв	/$\tau_{эф}$/ мк Кл/м^2
ПЭ + 2 % $NaNO_2$	90	7,25	1,9	31,7	4,32	1,2	20,8
	175	11,85	2,4	40,0	9,88	1,7	28,4
ПЭ + 4 % $NaNO_2$	90	4,91	1,8	31,4	4,12	1,4	24,4
	175	8,55	2,9	50,6	5,18	1,8	31,5
ПЭ + 2 % $BaTiO_3$	90	4,18	1,5	27,1	3,21	1,4	25,3
	145	12,15	3,3	59,6	8,08	2,0	36,1
ПЭ + 4 % $BaTiO_3$	90	3,95	1,4	26,8	3,32	1,3	24,9
	145	11,85	3,9	74,6	3,73	1,5	28,7

Видно, что значения электретных характеристик в значительной степени определяются температурой предварительного прогрева композиции перед коронированием.

Агротехнический опыты на сельхозкультуре хлопок акарицидом «Entovant **15%» к.э.**

№	Название района	Название фермерского хозяйства	Дата проведения опыта	Площадь опыта, гектар	Время учёта вредителей, после обработки, дни	Биологическая эффективность,%.
1	Туракурган	Курганча ок олтин	02.08.2024	8	7	92
2	Чуст	Мубошир Усмонали	15.08.2024	5	7	94

Для инсектицидного препарата “Entolucho 20%”:

1) цитокинин (CPPU) +салициловая кислота (или янтарная кислота);
2) ауксин (IAA)+ цитокинин (CPPU) +салициловая кислота;
3) ауксин (IAA)+гиббериллин+салициловая кислота (или янтарная кислота);

4) ауксин (IBA)+гиббериллин+салициловая кислота (или янтарная кислота);
5) ауксин (IBA)+ цитокинин (CPPU) +салициловая кислота.

Рисунок 5. Новые композиции препарата “Entolucho 20%”.

К началу испытаний агротехнические мероприятия были проведены вовремя. Испытания препарата проводились на крупных полях, размер опытных площадей по каждому варианту составил 5,8 га. Препараты наносили на растения путем полного опыления. Расход рабочей жидкости составил 300 л/га. Работы с препаратами проводились утром 5 и 20 майя 2022 года в Туракурганском и Чустском районах Наманганской области, при температуре 20-22°C, скорости ветра 1-2 м/с и влажность 45%. Главные вредители – тли и трипсы (табл.2).

Таблица 2.

Агротехнический опыты на сельхозкультуре хлопок «Entolucho 20**%»**

Название района	Площадь опыта, г	Вредитель	Время учёта вредителей после обработки, дни	Биологическая эффективность, %
Туракурган	5	Тли, трипсы	5	95
Чуст	8	Тли, трипсы	4	92

ВЫВОДЫ. Изучив научную литературу, а также огромную патентную информацию по пестицидам, разработали следующие четыре правила по разработке композиции химических средств защиты растений, которых надо придерживаться при разработке формул пестицидов:

Во-первых, совместимость активных ингредиентов. Они не должны уменьшит или нейтрализовать физиологическую активность друг друга, не должны быт антагонистом, а должны быть минимум нейтральными по отношению друг к другу, ещё лучше, если они проявляет синергизм, усиливая физиологическую активность при совместном применение;

Во-вторых, действие таких факторов, как растворимость, стабильность и способ применения активных ингредиентов. Эти факторы играют центральную роль в

определении наиболее подходящего типа композиции, обеспечивают эффективность и стабильность препаратов. Чтобы создать и поддерживать стабильную формулу препаратов, необходимо включить специальные добавки, которые обеспечивают такие ключевые функции, как солюбилизирование, диспергирование и эмульгирование состава. Использование специальных адъювантов в формуле, или добавляемых в бак — может значительно улучшить применимость и эффективность активных ингредиентов, одновременно помогая снизить непреднамеренное воздействие на экологию;

В-третьих, физико-механические воздействии или химические компоненты, действующие на дисперсность продуктов. Увеличение контакта организма с активными ингредиентами обусловливают эффективность препарата. Разработка эффективных средств защиты растений подразумевает сбалансированное смешивание различных материалов и компонентов, которое обеспечивает стабильность продуктов. Чтобы обеспечить долгосрочную стабильность, кроме различных физико-механических воздействий, в составе препарата предусматривает такие специальные добавки, как полимеры, поверхностно-активные вещества, загустители, разбавители, растворители и со растворители. Включение соединений для поддержания стабильной и достижения эффективной рецептуры препаратов являются важнейшими условиями. Например, для дисперсионных систем, типа суспензионные концентраты и эмульсии, нужно включить в состав ионные поверхностно-активные вещества для электростатической стабилизация, также высокомолекулярные соединения для стерической стабилизации препаратов;

В-четвёртых, переход от традиционных растворителей к новым «зеленым» растворителям. Это способствует улучшение экологичности продуктов без ущерба их эффективности. Новейшие разработки в области специальных добавок позволяют разрабатывать более эффективные и устойчивые рецептуры химических средств для защиты растений. Соблюдение нормативных требований, особенно экологических, обеспечивает успешности разработанной композиции и позволяет облегчить процесс передачи научной разработки к производству.

Предварительное исследование на стабильность и коллоидную устойчивость композиции, полученных соблюдением вышесказанных правил, показало их соответствие нормам НТД и Ту производителья. Испытания композиции «Entolucho 20%» и «Entovant 15%», содержащие 1-нафтилуксусную кислоту показали соответствующую эффективность и увеличение урожайности сельхозкультур. Таким образом, показано возможность придания допольнительных свойств и улучшения эффективности действующих препаратов, не изменив технологическую линию производств. А это в свою очередь приведёт к расширению ассортимента выпускаемых химических средств защиты растений для сельского хозяйства. Таким образом, разработка композиции фитогормонов с пестицидами является более экономичным и эффективным способом получение разнообразных препаратов для сельского хозяйства.

Внедрение в производство таких препаратов содействует повышению урожайности и снижению экологического следа сельскохозяйственного производства.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Козлов С.Н., Кажарский В.Р. Методы и средства защиты растений. Химические средства защиты овощных, плодовых и ягодных культур от вредителей: учебно-методическое пособие – Горки: БГСХА, 2019. – 309 с.

2. Попов С. Я., Дорожкина Л. А., Калинин В. А. Основы химической защиты растений / Под ред. профессора С. Я. Попова. — М.: Арт-Лион, 2003. — 208 с.

3. Ганиев М. М., Недорезков В. Д. Химические средства защиты растений: Учебное пособие. — 2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: Издательство «Лань», 2013. — 400 с.

4. Time and Cost of New Agrochemical Product Discovery, Development and Registration. A Study on Behalf of Crop Life International. Results February 2024. P.70.

5. Юнусов Дилмурод Нурдин угли, Хошимов Фарход Файзуллаевич. Инсектициды: классификация, применение, примеры. International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management Volume 2, Issue 1, 2023. P.315-336.

6. Носов А.М. Физиология растений. Часть 2. Конспект лекций. — М.: МГУ, 2019. 166 с.

7. A.O.Bektemirov, F.F.Hoshimov, M.M.Ikramova. Development of insecticide preparation "Entovant". International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research, Volume: 11 Issue: 04 April 2022. p. 46-48.

8. A.O.Bektemirov, F.F. Hoshimov, O.K.Ergashev. O’simliklarni ximoya qilish vositalari: dual ta’sirli pestitsid preparatlar olinishi va texnologiyasi – Monografiya, Namangan: NamMTI nashri. 2024 yil. — 142 bet.

9. M.X.Lutpillayeva, F.F.Hoshimov, O.K.Ergashev. Qishloq xo’jaligida qo’llash uchun nanokumush tutgan o’simlik o’sishini boshqaruvchi innovatsion preparatlar olish – Monografiya, GlobeEdit. 2024 yil. — 244 bet.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

УДК 665.664

ORCID: 0009-0008-2010-1905

ЦЕМЕНТ ГИДРАТАЦИЯСИ ЖАРАЁНИДА ПКАА-40 СУПЕРПЛАСТИФИКАТОРИНИНГ ТАЪСИРИНИ РЕНТГЕНОФАЗАВИЙ ВА ИҚ ТАҲЛИЛЛАР ОРҚАЛИ ЎРГАНИШ

Соттиқулов Элёр Сотимбоевич
Техника фанлари доктори, катта илмий ходим, Тошкент кимё технология илмий-тадқиқот институти етакчи илмий ходими
Джалилов Абдулаҳат Турапович
ЎзР фанлар академияси академиги, кимё фанлар доктор, профессор Тошкент кимё технология илмий тадқиқот институти директори.
Каримов Масъуд Убайдулла ўғли
Техника фанлари доктори, профессор, Тошкент кимё технология илмий-тадқиқот институти директор ўринбосари
e-mail:elyor-s88@mail.ru
тел:+998994307914

Аннотация: Ушбу мақолада янги синтез қилинган ПКАА-40 поликарбоксилат суперпластификаторининг цемент гидратацияси жараёнига таъсири чуқур ўрганилган. Тадқиқотларда пластификатор қўшилган цемент хамирининг оқувчанлиги сақланган ҳолда сув сарфи 30% гача камайтирилди ва цемент-гидратация махсулотларининг рентгенфазавий ва инфрақизил спектроскопия таҳлиллари орқали динамик ўзгаришлари баҳоланди. Рентгенограмма натижалари кальций гидроксиди (CH), кальций-силикат гидрат (C-S-H) ва эттрингит фазаларининг изчил шаклланишини кўрсатиб, суперпластификатор таъсирида C_3S ва C_2S фазаларининг гидратацияси жадаллашганини тасдиқлади. ИҚ-спектрларда 950–1000 $см^{-1}$ ва 1100 $см^{-1}$ да аниқланган ютилиш чизиқлари C-S-H ва эттрингит фазаларининг интенсив ҳосил бўлишини тасдиқлаб, молекуляр даражадаги тузилишни очиб берди. ПКАА-40 нинг қўлланилиши цемент тошининг зичлиги ва мустаҳкамлигини оширадиган барқарор гидратация муҳитини шакллантиришга ёрдам бериши исботланди.

Калит сўзлар: поликарбоксилат суперпластификатори, цемент гидратацияси, оқувчанлик, сув/цемент нисбати, рентгенфазавий таҳлил, ИҚ-спектроскопия, C-S-H фазаси, кальций гидроксиди, эттрингит, гидратация махсулотлари, минерал фазалар, аморф тузилиш.

Abstract: This article presents an in-depth investigation of the effect of newly synthesized PKAA-40 polycarboxylate superplasticizer on the cement hydration process. The study demonstrated that water consumption was reduced by up to 30% while maintaining the workability of cement paste with the addition of the superplasticizer. The dynamic transformations of cement hydration products were evaluated using X-ray phase analysis and infrared spectroscopy. X-ray diffraction results confirmed the consistent formation of calcium hydroxide (CH), calcium-silicate hydrate (C-S-H), and ettringite phases, and revealed the accelerated hydration of C_3S and C_2S phases under the influence of the superplasticizer. Infrared spectra showed distinct absorption bands at 950–1000 cm^{-1} and 1100 cm^{-1} corresponding to C-S-H and ettringite formation, indicating the molecular-level structure development. The application of PKAA-40 was proven to promote a stable hydration environment, enhancing the density and strength of the cement stone.

Keywords: polycarboxylate superplasticizer, cement hydration, workability, water/cement ratio, X-ray phase analysis, infrared spectroscopy, C-S-H phase, calcium hydroxide, ettringite, hydration products, mineral phases, amorphous structure.

Аннотация: В данной статье подробно исследовано влияние вновь синтезированного поликарбоксилатного суперпластификатора ПКАА-40 на процесс гидратации цемента. В ходе экспериментов было установлено, что при сохранении подвижности цементного теста за счёт добавления суперпластификатора расход воды снизился до 30%. Динамические изменения продуктов гидратации цемента оценивались с использованием рентгенофазового анализа и инфракрасной спектроскопии. Результаты рентгенограмм подтвердили последовательное формирование фаз гидроксида кальция (CH), кальций-силикатного гидрата (C-S-H) и эттрингита, а также ускоренную гидратацию фаз C_3S и C_2S под воздействием суперпластификатора. В ИК-спектрах были зафиксированы характерные полосы поглощения при 950–1000 $см^{-1}$ и 1100 $см^{-1}$, свидетельствующие об интенсивном образовании фаз C-S-H и эттрингита и отражающие развитие структуры на молекулярном уровне. Применение ПКАА-40 способствует формированию стабильной гидратационной среды, повышающей плотность и прочность цементного камня.

Ключевые слова: поликарбоксилатный суперпластификатор, гидратация цемента, подвижность, водоцементное отношение, рентгенофазовый анализ, ИК-спектроскопия, фаза C-S-H, гидроксид кальция, эттрингит, продукты гидратации, минеральные фазы, аморфная структура.

Кириш. Сўнгги йилларда қурилиш материалларининг сифатини ошириш, уларнинг хизмат муддатини узайтириш ҳамда экологик жиҳатдан самарадор ечимлар яратишга қаратилган инновацион ёндашувлар полимер-қўшимчалар асосидаги модификация қилинган цемент-бетон композициялари орқали амалга оширилмоқда. Шу нуқтаи назардан, поликарбоксилат асосидаги суперпластификаторлар юқори диспергирлаш қобилияти ва сув сарфини камайтириш орқали, зичлик ва мустаҳкамлик

каби физик-механик хоссаларни яхшилашда катта истиқболга эгадир. Мазкур қўшимчаларнинг цемент гидратацияси жараёнларига кўрсатаётган таъсирини молекуляр ва фазавий даражада чуқур ўрганиш эса янги авлод юқори самарали қурилиш материалларини яратишда илмий асос бўлиб хизмат қилади. Бунда цементнинг асосий минерал компонентлари — учкальций силикат (C_3S), иккикальций силикат (C_2S), учкальций алюминат (C_3A) ва тўрткальций алюминатферрит (C_4AF) ларнинг гидратация механизмларини, шунингдек, улардан ҳосил бўлувчи гидрат фазаларнинг шаклланиш динамикасини таҳлил қилиш муҳим аҳамиятга эгадир. Бу жараёнларни илмий жиҳатдан асослаш учун замонавий инструментал таҳлил усуллари, жумладан рентгенфазавий таҳлил ва инфрақизил спектроскопия қўлланилади.

Рентгенфазавий таҳлил усули цемент гидратацияси натижасида ҳосил бўлувчи кристаллик фазалар — кальций гидроксид (CH), кальций-силикат гидратлар (C-S-H), эттрингит (AFt), моносульфат (AFm) каби моддаларнинг шаклланиш, ўсиш ва трансформация босқичларини аниқлашда юксак аниқлик ва ишончлиликни таъминлайди. Бу усул орқали турли гидратация босқичларидаги кристаллик ва уларнинг интенсивлик ўзгаришлари орқали цемент фаоллигини ва суперпластификатор таъсирини баҳолаш мумкин бўлади. Шу билан бирга, инфрақизил спектроскопия усули орқали цемент-гидратация махсулотларидаги аморф гел фазаларининг, хусусан C-S-H тузилмалари ва OH-группаларга бой моддаларнинг шаклланиши ва уларнинг молекуляр тебраниш ҳолатлари кузатилади. Бу спектроскопик таҳлил цемент гидратациясининг кимёвий ўзгаришларни реал вақтда таҳлил қилиш имконини беради. Шу боис, мазкур тадқиқотда қўлланилган мазкур икки таҳлил усули — рентгенфазавий таҳлил ва ИҚ-спектроскопия — цемент гидратациясининг туб моҳиятини очиб беришда ва ПКАА-40 суперпластификаторининг таъсирини илмий асослашда ҳал қилувчи аҳамият касб этади.

Бир гурух олимлар жамоаси [1] портландцементнинг гидротация жараёнини сифат ва миқдор жиҳатдан баҳолаш мақсадида рентгенфазавий таҳлилнинг Rietveld усулини қўллаган. Тадқиқотда гидротацияланган цементдаги асосий фазалар – портландит, эттрингит ва аморф C-S-H миқдорлари аниқланган. Усулнинг ишончлилигини баҳолаш учун натижалар BSE/IA ва термогравиметрик таҳлил (TGA) каби мустақил усуллар билан солиштирилган. Бошланғич цемент таркибида 69,9% C_3S (алит), 8,3% C_2S (белит), 7,5% алюминат ва 6,3% феррит мавжудлиги аниқланган. 1 суткада портландит миқдори 17,8% га, аморф фазалар миқдори эса 35% га етди. Гидротация даражаси BSE/IA ва XRD усуллари бўйича ўзаро яқин натижалар берган бўлиб, 1-кунда BSE усули бўйича юқорироқ баҳолангани кузатилди, бу майда ангидрид зарраларнинг аниқланмаслиги билан изоҳланган. Эттрингит миқдори XRD орқали 7,0% деб баҳоланган ва бу кальций сульфатнинг тўлиқ реакциясидан ҳосил бўлиши мумкин бўлган миқдорга яқин эканлиги исботланган. Умуман олганда, ушбу тадқиқот Rietveld таҳлил усули орқали цемент гидротациясидаги фазавий ўзгаришларни юқори аниқликда кузатиш мумкинлигини ва

унинг ИҚ, BSE ҳамда TGA билан интеграллаштирилиши юқори илмий натижалар беришини кўрсатди.

Gastaldi ва ҳаммуаллифлари [2] цемент пастасининг гидратация даражасини баҳолашда янгича ёндашув сифатида яқин инфрақизил (NIR) спектроскопия усулидан фойдаланган бўлиб, ушбу тадқиқот усули цементдаги сувнинг ҳолатини сезувчанлик билан аниқлаш имконини берган. Таъқиқотда 2 соатдан 28 кунгача бўлган вақт оралиғида гидратация жараёни кузатилди ва спектрлардаги асосий ютилиш чизиқлари 7000 $см^{-1}$ ва 5000 $см^{-1}$ атрофида кузатилди. 7083 $см^{-1}$ даги тор юқори интенсивликка эга чизиқ портландит ($Ca(OH)_2$) ҳосил бўлишини кўрсатган, 7200 $см^{-1}$ атрофидаги ён чизиқ эса C-S-H фазасининг тузилмавий суви билан боғлиқлиги аниқланган. Гидратация давомида NIR спектрларидаги ютилишлар юзасининг ошиши сувнинг тузилмага интеграцияланаётганини тасдиқлаган. Термик таҳлил (900 °C) асосида ҳисобланган гидратация даражаси билан 7300–6500 $см^{-1}$ диапазонидаги “дифференциал ютилиш майдони” ўртасида юқори корреляция аниқланган. Масалан, 2 кундан сўнг спектрнинг шакли асосий кўринишини олган ва кейинги ўзгаришлар асосан интенсивликнинг ортиши билан намоён бўлган. Шунингдек, 90 °C даги иссиқлик билан ишлов бериш орқали эттрингит миқдори 13% дан 3% гача камайтирилиб, унинг NIR чизиқларига таъсири аниқланган.

Бошқа бир тадқиқотда эса [3] цемент гидратациясининг кинетик хусусиятлари металл зарраларини ўз ичига олган хом ашё аралашмалари учун ўрганилган ва натижалар анъанавий портландцемент билан таққосланган. Таҳлилда рентгенфазавий таҳлил, ИҚ-спектроскопия, термогравиметрик таҳлил (TG), ва электроўлчовчи усуллар қўлланилди. Электроўлчов натижаларида пасталарда 5–7 дақиқада хос ўтказувчанлик тушиши, сўнг 30–50 дақиқа мобайнида кескин ўсиши ва кейин пасайиши кузатилган. N2 намунасида максимал ўтказувчанлик камроқ бўлиб, индукция даври 3 соат 30 дақиқа, жами қотиш вақти 12–13 соат ни ташкил этди. IR-спектрларда 920 $см^{-1}$ чизиқ 970 $см^{-1}$ га сурилган бўлиб, $Ca(OH)_2$ ва C–S–H ҳосил бўлганини кўрсатди. 90 кунлик гидратациядан сўнг, XRD таҳлилларида d = 0.489 нм чизиқ орқали портландит ҳосил бўлиши, алит ва белит фазалари интенсивлигининг пасайиши кузатилди. TG таҳлилида Fe_2O_3 миқдори кам бўлган намуналарда кристаллашган сув миқдори юқори бўлиб, 22.0%, 20.0%, 19.6% миқдорда массани йўқотиш қайд этилган.

Kinoshita ва ҳаммуаллифлари томонидан [4] поликарбоксилат туридаги суперпластификаторларнинг цемент гидратацияси ва структура ҳосил бўлиши жараёнига таъсирини комплекс тарзда ўрганилган. Улар CEM I 42.5R цементидан фойдаланиб, суперпластификаторнинг таъсирини турли концентрацияларда таҳлил қилишган. Асосий тадқиқот усули сифатида рентгенфазавий таҳлил (XRD), термогравиметрик таҳлил (TG/DTG), ядровий магнит резонанси (NMR) ва инфрақизил спектроскопия (FTIR) усулларидан фойдаланилган. 3, 7 ва 28 кунлик гидратация давомида олинган маълумотлар цементдаги асосий гидратация маҳсулотлари – C-S-H, $Ca(OH)_2$ ва эттрингит

миқдорининг вақт ўтиши билан ошганлигини кўрсатган. Масалан, суперпластификаторсиз намуналарда 7-кунга келиб C-S-H миқдори 43% ни ташкил этган бўлса, 0.5% ПКА қўшилган намунада ушбу миқдор 51% га етган. Шунингдек, NMR натижаларида Q^1 ва Q^2 кремний структура элементларининг улуши ошганлиги аниқланиб, ПКА суперпластификаторнинг гидратацияни фаоллаштирувчи ва структурани зичлаштирувчи таъсири исботланган. FTIR спектрларда 3642 $см^{-1}$ ва 1110 $см^{-1}$ даги характерли чизиқларнинг интенсивлиги ПКА таъсирида ортиб борган.

Поликарбоксилат суперпластификаторининг учувчан кул ва домна шлаги қўшилган цемент пасталарининг гидратацияси ва микроструктурасига таъсирини ўрганилган [5]. Тадқиқотда рентгенфазавий таҳлил (XRD), термогравиметрик таҳлил (TG/DTG), сканерловчи электрон микроскопия (SEM), ва изотермал калориметрия усуллари қўлланилган бўлиб, 7 кунлик гидратациядан сўнг ПКА қўшилган намуналарда C–S–H гел миқдори 7,3% га, CH миқдори эса 3,6% га ошгани аниқланган. Изотермал калориметрия натижаларида ПКА суперпластификатори қўшилган цемент пасталарида гидратация реакциясининг юқори интенсивлиги кузатилган бўлиб, индукция фазаси қисқариб, экзотермик пикнинг максимал қиймати 1,5–2 баробар юқори бўлган. TG таҳлили асосида 28 кундан сўнгги умумий кристаллик сув миқдори ПКАсиз намуналарда 14,2%, ПКА билан эса 17,1% деб баҳоланган.

Мақолада [6] бетонда қўлланиладиган кислотали ва ишқорли тезлаштиргичларнинг цемент пасталарининг эрта босқичдаги гидротация жараёнларига таъсири комплекс усуллар ёрдамида тадқиқ этилган. Таҳлиллар учун калориметрия, рентгенфазавий таҳлил (XRD), инфратузилма таҳлили учун SEM, электрўтказувчанлик ва ион хроматография каби усуллар қўлланилган. Натижаларга кўра, кислотали тезлаштиргич (алюминий сульфатига асосланган) SO_4^{2-} ва Al^{3+} ионларининг юқори концентрацияси туфайли эттрингитнинг жадал шаклланишини ва алитнинг тез хосил бўлишини таъминлайди, бу эса 48 соат давомида 28.6% C_3S гидратациясига олиб келади.

Тадқиқотда [7] цемент гидратациясининг бошланғич босқичларини таҳлил қилиш учун ин ситу ва экс ситу ATR-FTIR (Attenuated Total Reflectance Fourier Transform Infrared) спектроскопия усуллари қиёсий ўрганилган. Экс ситу усулида намуналар суюқ азотда совитилиб, вакуумда қурутилган, бу эса гидратация жараёнини аниқ вақт нуқталарда тўхтатиш имконини берган. Ин ситу ATR-FTIR эса пасталарни реал вақтда кузатишга имкон бериб, 2 дақиқадан бошлаб ҳар 10 дақиқада спектрлар олинган. 980 $см^{-1}$ тўлқиндаги ютилиш чўққиси баландлиги орқали C–S–H (калций-силикат-гидрат) ҳосил бўлиш суръати баҳоланган ва бу натижалар калориметрия маълумотлари билан таққосланган. Натижаларга кўра, ATR-FTIR усули гидратациянинг бошланғич босқичларини, айниқса, алит зарраларининг юзасидаги реакцияларни аниқлашда юқори сезгирликка эга экани аниқланган. Масалан, 24 соат давомида чўққи баландлигидаги ўзгаришлар C–S–H ҳосил бўлишини аниқ ифода этган; айниқса, 5% $CaCl_2$ қўшилганда характерли ютилиш чўққисининг ўсиш суръати анча юқори бўлган.

Баъзи тадқиқотларда [8] оддий портландцементнинг эрта гидратация жараёни ин ситу рентген фазавий таҳлил (XRD) усули орқали 22 соат давомида аниқланган ҳароратларда ўрганилган. Таҳлилда техник оқ цемент ва Rietveld таҳлили қўлланилиб, C_3S, C_3A, ангидрит, эттрингит ва портландит фазалари миқдорий баҳоланди. Цемент пастаси таркибидаги C–S–H миқдори портландит ҳосил бўлишига асосан ҳисоблаб чиқилган ва умумий паста таркибига трансформация қилинган. Бошланғич 30 дақиқа ичида C_3A ва сульфат ташувчилар (бассантит ва ангидрит) тез эрий бошлаб, эттрингит миқдори 0% дан 4% гача ошиб борган. Ҳарорат ортгани сари гидратация тезлашган ва портландит ҳосил бўлиши C_3S парчаланишини бошлаб берган. Шунингдек, 23 °C да эттрингит миқдори 11-соатларда кучли ўсиш билан қайд этилган, бу эса иккинчи иссиқлик чиқаришнинг юқори нуқтасига мос келди.

Бошқа бир тадқиқотда портландцементнинг гидратация жараёнида Zn^{2+} ионларининг таъсири рентгенфазавий таҳлил (XRD), инфрақизил спектроскопия (IR) ва дифференциал калориметрия орқали ўрганилган [9]. Тажрибаларда w/c = 0.4 нисбатдаги намуналарда $Zn(NO_3)_2$ қўшилган ҳолда ҳар хил концентрацияларда цинк киритилган. XRD таҳлили натижасида цинкнинг цемент гидратациясини кучли секинлаштираётгани аниқланган; масалан, C3 ва C5 намуналарида 28 кундан сўнг ҳам асосий фаза сифатида гидратланмаган C_3S сақланиб қолган. IR спектрларда 3645 $см^{-1}$ даги $Ca(OH)_2$ га хос O–H ютилиш чўққиси Zn^{2+} ионлар таъсирида иккига бўлиниб, 3616 $см^{-1}$ да Ca–Zn(OH) фазасига мос чўққи аниқланган. Ушбу ҳолат $Ca(Zn(OH)_3)_2 \cdot 2H_2O$ фазанинг ҳосил бўлишини тасдиқлайди. Калориметрия маълумотлари Zn^{2+} ионлари гидратациянинг “сўнган” босқичини узайтириши ва янги экзотермал чўққи пайдо бўлиши орқали Zn таъсиридаги реакциялар кечаётганини кўрсатди.

Юқорида таҳлил қилинган илмий манбалардан маълумки, цемент гидратациясининг динамикасини чуқур англаш ва суперпластификаторлар, жумладан, поликарбоксилат асосидагиларнинг таъсирини илмий асослаш учун замонавий инструментал таҳлил усулларидан фойдаланиш жуда муҳимдир. Хусусан, рентгенфазавий таҳлил (айниқса Rietveld усулида), инфрақизил (FTIR ва NIR) спектроскопия, термогравиметрик таҳлил, сканерловчи электрон микроскопия ва ядровий магнит резонанси каби комплекс усуллар гидратациянинг фазавий ва молекуляр даражадаги ўзгаришларини аниқ ва ишончли тарзда баҳолаш имконини беради. Ушбу усуллар орқали C-S-H, $Ca(OH)_2$, эттрингит каби гидрат маҳсулотларнинг шаклланиш динамикаси, миқдори ва структурасидаги ўзгаришлар аниқланади, ҳамда суперпластификаторларнинг гидратацияга фаол таъсири исботланади.

Тадқиқотларда фойдаланилган материаллар ва тадқиқот усуллари.

ПКАА-40 суперпластификатори- тадқиқотларимиз давомида акрил кислотаси (АК) ва аллилметоксиполиэтиленгликоль макромономери (APEG-1800) асосида поликарбоксилат пластификатори синтез қилинган. Синтез жараёни радикал полимерланиш асосида амалга оширилиб, инициатор сифатида персульфат аммонийдан

фойдаланилган. ПКАА-40 пластификаторининг кимёвий структураси қуйидаги 1-расмда келтирилган.



1-расм. АК ва APEG асосида сополимер олинган ПКАА-40 пластификаторининг кимёвий структураси

Олинган ПКАА-40 пластификатори 30 % қуруқ қолдиққа эга бўлган сувли эритма бўлиб, оч сарғиш тусга эга. Синтез қилинган пластификатор макромолекуласининг оғирлиги 10 кДа қийматга эга.

Қизилқумцемент- Тадқиқот жараёнида қўлланиладиган цементнинг кимёвий минералогик таркиби аниқланди. Олинган натижалар қуйидаги 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал

Тадқиқот давомида фойдаланилган ЦЕМ I 42.5H маркали цементнинг кимёвий минерологик таркиби

№	Намуна номи	SiO_2	Al_2O_3 + TiO_2	Fe_2O_3	CaO	MgO	SO_3	Б.қ.	Жаъми
1	Қизилқум цемент	22,20	4,68	3,81	60,56	1,15	1,08	6,12	99,90

1-жадвалда берилган маълумотлар тадқиқотда фойдаланилган Қизилқум цементининг асосий оксидлар бўйича кимёвий ва минералогик таркибини ифодалайди. Жадвалдаги натижалардан кўриниб турибдики, цемент таркибидаги асосий компонент — кальций оксиди (CaO) 60,56% миқдорда учрайди, бу унинг портландцемент турига хослигини ва кальций-силикат фазалар — алит (C_3S) ва белит (C_2S)ларнинг ҳосил бўлиши учун етарли асос борлигини кўрсатади. Кремний диоксид (SiO_2) миқдори 22,20% бўлиб, бу модда цементдаги силикат фазаларнинг шаклланишида муҳим роль ўйнайди. Алюминий ва темир оксидлари мос равишда 4,68% ва 3,81% миқдорда бўлиб, улар цементдаги алюминат (C_3A) ва феррит (C_4AF) фазаларининг миқдорига таъсир кўрсатади.

Магний оксиди (MgO) 1,15% миқдорда бўлиб, бу қиймат цементда ўз-ўзидан ҳажм ўзгаришига олиб келмайдиган чегарада эканлигини кўрсатади. олтингугурт оксиди (SO_3) миқдори 1,08% бўлиб, бу кўпинча гипс қўшимчаси орқали киритилади ва C_3A билан реакцияга киришиб эттрингит ҳосил қилади, бу эса эрта босқичдаги мустаҳкамлик

шаклланишини таъминлайди. Жами оксидлар йиғиндиси 99,90% ни ташкил қилиб, таҳлилнинг аниқ ва ишончли эканлигини кўрсатади. Бундай таркибга эга цемент юқори реакцияга киришувчанлик ва гидратация тезлигига эга бўлиб, ишлатилган муҳит ва қўшимчаларга боғлиқ ҳолда юқори сифатли бетонлар олиш имконини яратади.

Тадқиқотнинг мақсади янги синтез қилинган ПКАА-40 суперпластификаторини цемент гидратациясига таъсирини тадқиқ қилиш ва илмий асослашдан иборат.

Тадқиқотларда қизилқум цемент асосида тайёрланган цемент хамири тайёрланиб унда оптимал сув сарфи (сув цемент нисбати аниқлаб олинди). Бунда ЦЕМ I 42.5Н маркали цементига пластификатор қўшилган холда оқувчанлик кўрсатгичи 25,5-26,5 см кенгликкача аниқланганда сув/цемент нисбати 0,51 эканлиги аниқланди. Шу тариқа цементга ПКАА-40 суперпластификаторини қўшиш орқали оқувчанлик кўрсатгичи ўзгармаган холда сув сарфи камайтирилди. Унда сув сарфи (сув цемент нисбати) 0,357 га тушди.

Таҳлил учун етарли миқдорда цемент-сув суспензияси тайёрланди, бунинг учун 400 грамм цемент ва 204 грамм дистилланган сув аниқ миқдорда аралаштириб қоришма хосил қилинди. Ушбу суспензия таҳлил жараёнида керакли кўрсатгичларни баҳолаш учун назорат наъмуна сифатида тайёрланган. Кейинги, яъни суперпластификаторли қоришмада суперпластификатор 30% ли сувли эритма бўлиб, тажриба учун ушбу концентрацияни ҳисоблашда тахлил учун олинган цемент массани 1% гача бўлган миқдоргача олинди (қуруқ қолдиқ хисобида). Шу холда цемент хамирининг оқувчанлиги қуйидаги 2-расмда келтирилган ўлчамлардаги стандарт конусда амалга оширилди.



2-расм. ГОСТ 310.3-76 бўйича стандарт конуснинг чизмаси ва ўлчамлари

ПКАА-40 суперпластификаторини қўшиш орқали олинган цемент хамирларидан 3х3х3 ўлчамларда наъмуналар қуйилди ва рентген фазавий тахлиллари ўтказилди. Унда гидратация жараёнлари вақт давомида, яъни 1, 3, 7, 28 суткалик вақтларда минераллар фазаларига таъсирлари ўрганилди. Наъмуналар одатдаги қотиш шароитида, 20 ^{o}C ва намлик 60% дан кам бўлмаган мухитларда амалга оширилди.

ПКАА-40 суперпластификаторини цемент гидратациясига таъсирини ўрганиш мақсадида ушбу қўшимча қўшилган цемент наъмуналари турли гидратация даврларида рентген тахлиллари ўтказилди. Рентгенограммалар турли гидратация босқичларидаги цемент фазаларининг ўзгаришлари келтирилган (3-расм).



3-расм. ПКАА-40 пластификатори қўшиб қорилган цементнинг гидратациясидаги минераллар ўзгаришини рентгенеграммалари. *1-бир кунлик гидратация махсулоти; 2-уч кунлик гидратация махсулоти; 3-етти кунлик гидратация махсулоти; 4-йигирма саккиз кунлик гидратация махсулоти*

Юқоридаги 3- расмда кўриниб турибдики, 1 кундан 28 кунгача бўлган даврда асосий фазалар, жумладан кальций гидроксиди (CH), кальций-силикат гидрат (C-S-H), эттрингит (AFt фазаси), учкальцийсиликат (C_3S) ва иккикальцийсиликат (C_2S) фазаларидаги ўзгаришлар кузатилди. Бу жараёнларда поликарбоксилат суперпластикаторнинг гидратация маҳсулотларига кўрсатган таъсири аниқ намоён бўлди.

1-кундаги рентгенограмма цементнинг гидратация жараёни бошланишини кўрсатади. Бу босқичда C_3S ва C_2S фазалари энг юқори интенсивликка эга бўлиб, уларнинг ҳали етилиши (гидратацияга киришиши) кузатилмайди. CH ва C-S-H фазалари интенсивлиги паст бўлиб, бу уларнинг ҳосил бўлиши эндигина бошланганини англатади. Шу билан бирга, эттрингит фазасининг дастлабки чўққилари ($2\theta = 9.1°$ ва $15.7°$) кўзга ташланади, бу гидратация бошланишига хос жараён ҳисобланади.

Гидратациянинг 3-кунига келиб, CH чўққиларининг интенсивлиги ошганлиги кузатилади (айниқса, 32°–34° ва 39° дифракцияларида). Шунингдек, C-S-H фазасининг аморф майдони кенгайиб, структурани мустаҳкамлаш жараёнига бошлайди. Эттрингит фазалари кучлироқ намоён бўлиб, 9.1° ва 15.7° чўққиларининг равшанлиги ортиб боради. Бу босқичда суперпластикатор CH кристаллари ҳаддан ташқари катта бўлиб кетишининг олдини олади, бу эса структуранинг зичлигини таъминлайди.

7-кундаги рентгенограмма гидратация жараёнида янада фаол ўзгаришларни кўрсатади. CH чўққиларининг интенсивлиги юқори бўлиб, C-S-H фазасининг диффузион майдони янада кенгайган. Бу C-S-H фазасининг тузилмани мустаҳкамлашдаги аҳамиятини тасдиқлайди. Эттрингит фазалари барқарорлигини сақлаб қолган, аммо моносульфатга айланиш жараёни ҳали паст даражада. Шу билан бирга, C_3S ва C_2S

фазаларида интенсивликнинг пасайиши, уларнинг гидратация жараёнида сарфланиб, C-S-H ва CH ҳосил бўлишига ўтиб кетаётганлигини кўрсатади.

28-кунга келиб гидратация маҳсулотлари тўлиқ шаклланган бўлади. CH чўққилари энг юқори интенсивликка эришиб, максимал кристаллизация кўрсатади, бу эса C_3S ва C_2S фазаларининг тўлиқ реакцияга киришганлигидан далолат беради. C-S-H фазасининг аморф майдониси кенгайиб, тузилишнинг асосий зичлигини таъминлайди. Суперпластикаторнинг таъсири жараён давомида барқарор тузилиш ҳосил қилишга ёрдам беради, бу эса цемент тошининг умумий зичлиги ва мустаҳкамлигини оширади. Шунингдек, эттрингитнинг моносульфатга айланишини секинлаштириб, унинг барқарорлигини сақлаб қолишга ҳисса қўшади.

Шундай қилиб, поликарбоксилат суперпластикаторнинг қўшилиши цемент қоришмасининг гидратация жараёнига ижобий таъсир кўрсатиб, маҳсулотнинг мустаҳкамлигини, зичлигини ва барқарорлигини оширишга ёрдам беради. Унинг таъсири рентгенограмма орқали намоён бўлган ҳар бир фаза ўзгаришида аниқ кўзга ташланади.

Гидратация жараёнида юзага келаётган ўзгаришларни чуқурроқ тушуниш мақсадида ушбу пластификатор қўшилган цементнинг гидратация махсулотлари турли вақтлар оралиғида ИҚ-спектроскопия усулида ўрганилди. ИҚ-спектрларнинг таҳлили поликарбоксилат пластификатори қўшилган цемент гидратацияси маҳсулотларининг шаклланиш динамикасини аниқ кузатиш имконини беради. Қуйида олинган ИҚ-спектрлар келтирилган (4-расм).



4-расм. ПКАА-40 пластификатори қўшиб қорилган цементнинг гидратациясидаги минераллар ўзгаришини ИК-спектрлари. *1-10 дақиқадан кейинги гидратация махсулоти; 2-180 дақиқадан кейинги гидратация махсулоти; 3- 360 дақиқадан кейинги гидратация махсулоти; 4-720 дақиқадан кейинги гидратация махсулоти.*

Юқорида келтирилган 4-расмдан шуни кўриш мумкинки, турли вақтлардаги спектрларда асосий ютилиш чўққилари интенсивлиги ва уларнинг позициялари цемент

тузилишидаги фазавий ўзгаришларни кузатиш мукин. Гидратациянинг дастлабки босқичида (10 дақиқа) спектрда 3500–3000 $см^{-1}$ оралиғидаги кенг ютилиш чизиқлари сувнинг -OH гурухлари тебранишларига тегишли бўлиб, C-S-H ва CH фазаларининг ҳали тўлиқ шаклланмаганлигини кўрсатади. Шу билан бирга, 900–1200 $см^{-1}$ оралиғидаги унча интенсив бўлмаган ютилиш чизиқлари C-S-H гелининг дастлабки ҳосил бўлиш босқичини акс эттиради. Гидратациянинг 180-дақиқасида кальций гидроксидининг ($Ca(OH)_2$) характерли ютилиш чўққиси 3644 $см^{-1}$ да аниқ намоён бўлади, бу фазанинг интенсив ҳосил бўлиш жараёнини тасдиқлайди. Шунингдек, 1100 $см^{-1}$ сохасидаги ютилиш чизиқлари эттрингит фазасининг ҳосил бўлаётганлигини ва сульфатли бирикмаларнинг реакцияга киришаётганини кўрсатади.

Гидратациянинг кейинги босқичларида (360 ва 720 дақиқа) C-S-H ва CH фазаларининг ютилиш чўққилари интенсивлиги кескин ошади. Айниқса, 950–1000 $см^{-1}$ диапазонидаги ютилиш чизиқлари C-S-H гелининг шаклланиши ва унинг цемент тошининг асосий мустаҳкамлик хоссаларини таъминловчи компонентлар сифатидаги аҳамиятини кўрсатади. Эттрингит фазасининг барқарорлиги 1100 $см^{-1}$ даги интенсивликнинг максимал даражасига етиши билан тасдиқланади. Шу билан бирга, 500–600 $см^{-1}$ оралиғидаги ютилиш чизиқлари сульфат фазаларининг тобора зич тузилишга ўтаётганлигини кўрсатади. Бу натижалар пластификаторнинг гидратация жараёнидаги фазаларни назоратли шакллантиришга ёрдам беришини ва цемент тошининг зичлиги ҳамда мустаҳкамлигини оширишга ҳисса қўшишини очиқ ва аниқ намоён қилади.

Хулоса

ПКАА-40 поликарбоксилат пластификатори қўшилган цементнинг гидратация жараёнига оид рентгенограмма ва ИҚ-спектр таҳлиллари гидратация маҳсулотларининг шаклланиш механизмини аниқлашда муваффақиятли қўлланилди. Рентгенограмма маълумотлари кальций гидроксиди (CH) ва кальций-силикат гидрат (C-S-H) фазаларининг изчил тўпланишини ва уларнинг динамикасини очиб берди, $2\theta = 29.4°$, 32°–34° ва 39° қийматларидаги характерли чўққиларнинг интенсивлиги гидратация жараёни давомида ортиб борди. Шу билан бирга, ИҚ-спектр таҳлиллари C-S-H фазасининг силикат гуруҳларига тегишли 950–1000 $см^{-1}$ минтақасидаги ютилиш чўққилари ва эттрингит фазасининг 1100 $см^{-1}$ даги ютилиш чизиқлариини аниқланиб, гидратация маҳсулотларининг тузилишини молекуляр даражада тасдиқлади. Ушбу таҳлиллардан аниқландики, ПКАА-40 суперпластикатори C-S-H ва CH фазаларининг бирхил тақсимланишини таъминлаб, цемент тошининг зичлиги ва мустаҳкамлигини оширади. Шу тариқа, мазкур тадқиқот цемент гидратациясининг назоратли шаклланишини таъминлашда ПКАА-40 пластификаторининг самарадорлигини кўрсатди ва цементнинг механик ва физик хоссаларини тушуниш ва яхшилаш учун илмий асос яратади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Scrivener K. L. et al. Quantitative study of Portland cement hydration by X-ray diffraction/Rietveld analysis and independent methods //Cement and Concrete Research. – 2004. – T. 34. – №. 9. – C. 1541-1547.

2. Gastaldi D. et al. Near-infrared spectroscopy investigation on the hydration degree of a cement paste //Journal of materials science. – 2010. – T. 45. – №. 12. – C. 3169-3174.

3. Odigure J. O. Hydration of cement paste and concrete from raw mix containing metallic particles //Cement and concrete research. – 1994. – T. 24. – №. 8. – C. 1549-1557.

4. Huang W. et al. Effect of cement substitution by limestone on the hydration and microstructural development of ultra-high performance concrete (UHPC) //Cement and Concrete Composites. – 2017. – T. 77. – C. 86-101.

5. Zeng Q. et al. Determination of cement hydration and pozzolanic reaction extents for fly-ash cement pastes //Construction and Building Materials. – 2012. – T. 27. – №. 1. – C. 560-569.

6. Salvador R. P. et al. Early age hydration of cement pastes with alkaline and alkali-free accelerators for sprayed concrete //Construction and Building Materials. – 2016. – T. 111. – C. 386-398.

7. Ylmén R., Jäglid U., Panas I. Monitoring Early Hydration of Cement by Ex Situ and In Situ ATR-FTIR–a Comparative Study //Journal of the American Ceramic society. – 2014. – T. 97. – №. 11. – C. 3669-3675.

8. Hesse C. et al. Quantitative in situ X-ray diffraction analysis of early hydration of Portland cement at defined temperatures //Powder Diffraction. – 2009. – T. 24. – №. 2. – C. 112-115.

9. Trezza M. A. Hydration study of ordinary portland cement in the presence of zinc ions //Materials research. – 2007. – T. 10. – C. 331-334.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

МИКРО- И МАКРОНУТРИЕНТЫ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В РОСТЕ И РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ.

Улухужаева Нозима Нарзуллохоновна
Наманганский государственный университет преподователь кафедры Физиологии и Анатомии
nozimauluxujayeva@gmail.com

Аннотация: Развитие организма в детском и подростковом возрасте выступает как критический период, в ходе которого питание является основой для обеспечения стабильного роста, нейропсихического зрения, иммунологического гомеостаза и профилактики хронических заболеваний. В условиях современной модели питания остро стоит вопрос соотношения микро- и макронутриентов в рационе детей и его влиянии на индивидуальную траекторию развития.

Ключевые слова: питание детей, микронутриенты, макронутриенты, физиологическое развитие, дефицит питательных веществ, риск заболеваний.

Введение.

Важнейшим условием обеспечения оптимальных темпов развития ребенка, адекватной адаптации к окружающей среде, устойчивости к действию неблагоприятных факторов является правильное питание. Дефицит питательных веществ в пище ребенка приводит к повышенной заболеваемости, отставанию его в физическоми нервно-психическом развитии.

Оброз литературы

Питание в детском возрасте имеет определяющее значение не только для физического роста, но и для комплексного развития, включая формирование когнитивных функций, психоэмоционального благополучия, а также становление устойчивой иммунной системы [16]. Этапы раннего и школьного детства характеризуются беспрецедентно высокой скоростью метаболических процессов, интенсивным формированием и миелинизацией нейронных сетей, активным органогенезом и созреванием всех регуляторных систем организма. Именно в этот критический период организм ребёнка наиболее чувствителен к дефициту жизненно важных питательных веществ[9]. Адекватное и сбалансированное поступление макро- и микронутриентов является краеугольным камнем для формирования прочного фундамента здоровья на всю жизнь, обеспечения высокой устойчивости к инфекциям и стрессовым факторам, а также снижения риска развития хронических неинфекционных заболеваний, таких как ожирение, сахарный диабет 2 типа и сердечно-сосудистые патологии, в последующие годы.

Макронутриенты – белки, жиры и углеводы – являются основными поставщиками энергии и строительными блоками для растущего организма. Белки незаменимы для синтеза тканей, ферментов и гормонов, обеспечивая рост мышц, костей и кожи, а также поддерживая иммунную функцию[13]. Углеводы служат главным источником энергии для всех клеток, включая мозг, а жиры критически важны для развития нервной системы, усвоения жирорастворимых витаминов и регуляции гормонального баланса. Особенно значимы полиненасыщенные жирные кислоты, такие как Омега-3, которые доказано улучшают когнитивные функции и память у детей.

Микронутриенты – витамины и минералы – требуются организму в значительно меньших количествах, но их роль в тысячах биохимических реакций является фундаментальной[18]. Дефицит этих элементов, часто называемый "скрытым голодом", может иметь катастрофические последствия. Например:

- **Железо** необходимо для образования гемоглобина, транспортировки кислорода и развития мозга. Его дефицит (железодефицитная анемия) приводит к усталости, снижению концентрации внимания и задержке когнитивного развития.
- **Йод** играет ключевую роль в синтезе гормонов щитовидной железы, которые регулируют метаболизм, рост и интеллектуальное развитие. Недостаток йода может вызвать необратимые нарушения нервной системы.
- **Витамин D** эссенциален для усвоения кальция и фосфора, обеспечивая здоровое формирование костей и зубов, а также поддерживая иммунную систему. Его дефицит связан с риском рахита и снижением сопротивляемости инфекциям.
- **Цинк** критически важен для иммунной функции, клеточного роста, заживления ран и правильного восприятия вкуса и запаха. Недостаток цинка может приводить к задержке роста и повышенной восприимчивости к заболеваниям.

Современные тенденции в питании детей вызывают серьёзную обеспокоенность специалистов во всём мире. Распространение ультра-переработанных продуктов, фастфуда, снижение потребления свежих овощей и фруктов, а также злоупотребление сладкими и газированными напитками формируют гиперкалорийную, но нутриентно бедную диету[1]. Эта ситуация приводит к парадоксальному явлению, когда при достаточном или даже избыточном поступлении энергии в организм ребёнка наблюдается выраженный дефицит критически важных микроэлементов. К этому также добавляются изменения в агротехнологиях, которые могут снижать содержание питательных веществ в сельскохозяйственных культурах.

На фоне этих вызовов возрастает необходимость системного и научно обоснованного подхода к оценке качества питания детей[12]. Важную роль играют как медицинские меры по раннему выявлению нутритивных дефицитов (например, скрининг на анемию и дефицит витамина D), так и образовательные и просветительские инициативы, направленные на родителей, педагогов и самих школьников. Повышение осведомленности о принципах здорового питания и формирование правильных пищевых

привычек с раннего возраста являются ключевыми[7]. Государственные программы, поддерживающие школьное питание, а также региональные инициативы по фортификации продуктов (например, йодирование соли, обогащение муки) приобретают всё большее значение в обеспечении пищевой безопасности детского населения и снижении бремени "скрытого голода".

Таким образом, исследование роли микро- и макронутриентов в детском возрасте становится приоритетной и многоаспектной задачей для профилактической медицины, нутрициологии, педиатрии, общественного здравоохранения и образовательной политики[19]. Целью данной работы является анализ актуальных данных о значении питательных веществ в физиологическом, когнитивном и иммунном развитии детей и возможностях эффективной коррекции их дефицита в контексте современных пищевых вызовов.

Материалы и методы

Настоящее исследование опирается на систематический и интегративный анализ релевантной научной литературы, фокусирующийся на фундаментальной роли микро- и макронутриентов в физиологическом становлении и развитии детского организма. Для обеспечения максимальной академической строгости и актуальности данных, в качестве источников были использованы публикации, индексируемые в ведущих международных биомедицинских и наукометрических базах данных, включая PubMed, Scopus и Web of Science. Эти платформы предоставляют доступ к рецензируемым научным статьям, результатам клинических исследований, систематическим обзорам и мета-анализам, что гарантирует высокий уровень доказательной базы.

Помимо академических публикаций, в анализ были включены официальные документы и рекомендации авторитетных международных организаций, таких как Всемирная организация здравоохранения (ВОЗ) и Детский фонд ООН (ЮНИСЕФ). Данные материалы содержат консолидированные результаты крупномасштабных исследований, глобальные стратегии в области детского питания и здравоохранения, а также практические руководства для разработки политики[14]. Дополнительно были рассмотрены актуальные клинические протоколы и консенсусные заявления ведущих педиатрических и нутрициологических профессиональных ассоциаций, что позволило инкорпорировать передовые подходы к диагностике, профилактике и терапевтической коррекции нутритивных дефицитов в современной педиатрической практике.

Критерии включения публикаций были разработаны для обеспечения релевантности и надёжности собираемой информации. Приоритет отдавался работам с высоким уровнем доказательности, а также исследованиям, непосредственно затрагивающим возрастные особенности метаболизма, роста и развития детей на различных этапах онтогенеза[20]. Хронологический охват анализа ограничивался периодом с 2000 по 2024 **годы**, что позволило акцентировать внимание на последних

научных достижениях и эволюции взглядов на детское питание, при этом не исключая ссылок на классические работы для формирования фундаментального контекста.

В процессе анализа особое внимание было уделено детальному рассмотрению биохимических и физиологических функций каждого макро- и микронутриента, их влиянию на клеточные и системные процессы[3]. Исследовались патогенетические механизмы и клинические проявления как дефицитных состояний, так и потенциального избыточного поступления питательных веществ, а также их долгосрочные последствия для физического, когнитивного, психоэмоционального и иммунологического развития. Отдельное внимание уделялось разработке и оценке эффективности стратегий коррекции нутритивных нарушений, включая диетические интервенции, применение обогащённых продуктов и нутрицевтических препаратов, с учётом влияния социально-экономических факторов на пищевой статус детского населения[11]. Этот комплексный методологический подход позволил сформировать всестороннее и научно обоснованное представление о роли питания в обеспечении оптимального развития детей.

Результаты

На основе изученных источников установлено, что достаточное поступление как макронутриентов, так и микронутриентов критически важно для гармоничного роста и развития детей[17]. Обеспечение белковым компонентом необходимо не только для соматического роста, но и для нормального функционирования нейроэндокринной системы, тканевого дыхания и иммунных реакций. Нарушения в липидном составе рациона отражаются на формировании клеточных мембран, миелинизации и когнитивной функции, особенно в младшем возрасте. Углеводное обеспечение организма определяет энергетический потенциал, устойчивость к психоэмоциональной нагрузке и формирование нейропластичности.

Среди микронутриентов выявляется особая роль железа, йода, витамина D, витаминов группы B, цинка, кальция и селена. Их недостаток ассоциирован с высоким риском анемий, задержек роста, нарушений когнитивного и психоэмоционального развития, дисрегуляцией метаболических и иммунных процессов[8]. При этом сочетание нескольких дефицитов наблюдается у детей значительно чаще, чем изолированная недостаточность, что свидетельствует о системной природе современных рисков питания.

По данным международных и региональных исследований, наибольшую распространённость среди детей имеют железодефицитная анемия и гиповитаминоз D[4]. В Узбекистане, согласно результатам национального мониторинга, более трети детей школьного возраста имеют дефицит по ключевым микронутриентам, при этом значимая часть этой группы не демонстрирует видимых симптомов, что усложняет раннюю диагностику.

Обсуждение

Результаты анализа подчеркивают необходимость системного подхода к формированию здорового питания в детском возрасте. Коррекция дефицита нутриентов не может быть эффективной без комплексной образовательной и социальной политики, включающей не только медицинское вмешательство, но и просвещение родителей, педагогов, улучшение школьного питания и реализацию программ фортификации продуктов. Особое значение приобретает разработка региональных программ питания, учитывающих климато-географические, экономические и культурные особенности.

В условиях увеличения доли рафинированных продуктов в детском рационе и снижения потребления натуральных источников витаминов и минералов возрастает роль превентивных стратегий, направленных на раннее выявление риска недостаточности и адаптацию индивидуального питания. Учитывая пластичность физиологических систем в детском возрасте, нутритивные вмешательства, проведённые своевременно, способны восстановить нарушенные параметры роста и развития, снизить вероятность формирования хронической патологии и повысить когнитивный потенциал в долгосрочной перспективе.

Список литературы

1. World Health Organization. Guideline: Daily iron supplementation in children. Geneva: WHO; 2021.
2. UNICEF. The State of the World's Children 2022: Nutrition, for Every Child. New York: UNICEF; 2022.
3. Allen LH. Causes of vitamin B12 and folate deficiency. Food Nutr Bull. 2006;27(3_suppl3):S3–S16.
4. Black RE, Victora CG, Walker SP, et al. Maternal and child undernutrition and overweight in low-income and middle-income countries. Lancet. 2013;382(9890):427–451.
5. Bailey RL, West KP Jr, Black RE. The epidemiology of global micronutrient deficiencies. Ann Nutr Metab. 2015;66(suppl 2):22–33.
6. Макарова Н.В., Мазо В.К. Основы нутрициологии детского возраста. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2020.
7. Джангиров У.Р. Распространённость дефицита витамина D у школьников Ташкента. Журнал педиатрии Узбекистана. 2021;(4):25–29.
8. Попов, А. В. (2020). Роль микронутриентов в развитии детского организма. *Педиатрия*, 99(2), 34–39.
9. Баранова, А. А., & Ильина, Н. И. (2021). Нарушения нутритивного статуса у детей: причины, последствия, подходы к коррекции. *Вопросы питания*, 90(3), 47–53.
10. Васильева, Е. И. (2018). Макро- и микронутриенты в детском питании: современные рекомендации. *Рациональная фармакотерапия в кардиологии*, 14(1), 80–84.

11. Semba, R. D., & Bloem, M. W. (2001). Nutrition and health in developing countries. *Totowa, NJ: Humana Press*.
12. Black, R. E., et al. (2013). Maternal and child undernutrition and overweight in low-income and middle-income countries. *The Lancet*, 382(9890), 427–451.
13. World Health Organization. (2020). *Guideline: Daily iron supplementation in infants and children*. Geneva: WHO.
14. Allen, L. H. (2008). To what extent can food-based approaches improve micronutrient status? *Asia Pacific Journal of Clinical Nutrition*, 17(S1), 103–105.
15. Dewey, K. G., & Begum, K. (2011). Long-term consequences of stunting in early life. *Maternal & Child Nutrition*, 7(Suppl.3), 5–18.
16. UNICEF. (2019). *State of the World's Children 2019: Children, food and nutrition*. New York: UNICEF.
17. Michaelsen, K. F., et al. (2017). Critical windows for nutritional interventions against stunting. *The American Journal of Clinical Nutrition*, 106(Suppl_1), 1065S–1070S.
3. Mirzayeva G.T. “Gepatoprotektor ta’sirga ega tabiiy moddalar” – *O‘zR Fanlar Akademiyasi axboroti*, 2021.
4. WHO Monographs on Selected Medicinal Plants – Vol. 2, World Health Organization, 2002.
5. Yoziyev L.X. Arabova N.Z. “Dorivor o‘simliklar” - Toshkent-2017

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDC: 547.789.18

AYRIM AROMATIK IZOSIYANATLAR VA ALMASHGAN 2-AMINOTIAZOILLAR BILAN MOCHEVINA HOSILALARINING SAMARALI SINTEZI

[1]Kudratov G.N., [1]Elmuradov B,J., [2]Oxunov I.I, [3]Saitkulov F.E. [4]Zaxidov Q.A., [4]Samiyev R.A.

[1]S.Yunusov nomidagi O‘simlik moddalari kimyosi instituti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

[2]Qoqon davlat universiteti

[3]Toshkent davlat agrar universiteti

[4]Samarqand davlat universiteti

E-mail: fsaitkulov@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda ayrim aromatik izosiyanatlar va almashgan 2-aminotiazoillar asosida yangi mochevina hosilalari sintez qilindi. Sintez jarayonlari oson va yuqori hosil bilan amalga oshirildi. Natijada olingan mochevina birikmalarining tuzilmalari fizik-kimyoviy usullar, xususan, IR, ^{1}H-YaMR va ^{13}C-YaMR spektroskopiya metodlari yordamida tasdiqlandi. Tadqiqot natijalari ushbu hosilalarning potentsial biologik faollikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu usul mochevina derivativlarini samarali va tejamkor sintez qilish imkoniyatini beradi, ularni kelajakda farmatsevtika va qishloq xo‘jaligi sohalarida qo‘llash mumkinligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Mochevina hosilalari, aromatik izosiyanatlar, 2-aminotiazoillar, sintez, spektroskopik tahlil, biologik faollik.

Annotation: In this scientific work, new urea derivatives were synthesized based on selected aromatic isocyanates and substituted 2-aminothiazoles. The synthesis processes were carried out easily and with high yields. The structures of the obtained urea compounds were confirmed by physicochemical methods, particularly IR, ^{1}H-NMR, and ^{13}C-NMR spectroscopy. The study results demonstrated the potential biological activity of these derivatives. This method offers an efficient and cost-effective way to synthesize urea derivatives, which can be applied in the fields of pharmaceuticals and agriculture in the future.

Keywords: Urea derivatives, aromatic isocyanates, 2-aminothiazoles, synthesis, spectroscopic analysis, biological activity.

Kirish

Hozirgi zamon organik sintez sohasida biologik faol moddalarning yangi sinflarini yaratish dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, mochevina va uning hosilalari farmatsevtika, agroximik preparatlar, pestitsidlar va fungitsidlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mochevina hosilalari o‘zlarining yuqori biologik faolligi, yaxshi fiziologik

moslashuvchanligi va murakkab tuzilishli molekulalar hosil qilish imkoniyati bilan ajralib turadi. Shu bois, ularni samarali sintez qilish va yangi hosilalarni olish istiqbolli ilmiy va amaliy vazifa sifatida qaraladi[1-10].

Aromatik izosiyanatlar esa o‘z navbatida reaktivlik darajasi yuqori bo‘lgan organik reagentlar qatoriga kiradi. Ular aminoguruhlarni o‘z ichiga olgan molekulalar bilan oson reaksiyaga kirishib, mochevina va karbamat tipidagi mahsulotlar hosil qiladi. Shu sababli aromatik izosiyanatlar va aminotizimli moddalarning o‘zaro reaksiyalari natijasida xilma-xil tuzilishga ega biologik faol birikmalarni olish imkoniyati mavjud.

2-aminotiazoillar esa, o‘zining keng biologik faolligi — antibakterial, antifungal, antivirus va antitumor xossalari bilan mashhurdir. 2-aminotiazoil strukturasi tufayli ular ko‘plab bioaktiv molekulalarning asosiy qurilmasi sifatida xizmat qiladi. 2-aminotiazoillar molekulasining amino guruhi esa izosiyanatlar bilan reaksiyaga kirishib, yangi gibrid tuzilishga ega mochevina hosilalarini hosil qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, biologik faol molekulalar sonini kengaytiradi va ularning farmakologik samaradorligini oshirish imkonini beradi[11-20].

Ushbu tadqiqotda ayrim aromatik izosiyanatlar va almashgan 2-aminotiazoillar asosida yangi mochevina hosilalari sintezi amalga oshirildi. Sintez jarayoni uchun eng mos sharoitlar tanlab olindi: erituvchi sifatida atseton qo‘llanildi, reaksiya muhitida yumshoq ishqor (K_2CO_3) ishtirokida sintez bajarildi. Jarayon o‘ziga xos ravishda oson amalga oshdi, va natijada yuqori hosildagi mahsulotlar olindi. Reaksiya borishi yupqa qatlam xromatografiyasi (TLC) yordamida nazorat qilindi, bu esa mahsulotlarning tozaligini ta'minlashga imkon berdi[21, 21].

Hosil bo‘lgan mochevina hosilalari IR, ^{1}H-YaMR va ^{13}C-YaMR spektroskopik metodlari yordamida tekshirildi. Spektroskopik ma'lumotlar asosida mahsulotlarning strukturaviy tasdiqlanishi amalga oshirildi. ^{1}H YaMR spektrlarida mochevina bog‘lariga va aromatik tizimlarga xos bo‘lgan signalalar aniqlangan bo‘lsa, ^{13}C NMR spektrlarida karbonil va aromatik karbon atomlariga xos signalalar qayd etildi. Shuningdek, IR spektrlarida karbonil guruhi uchun xos bo‘lgan assimilyatsiya tarmoqlari aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tanlangan usul yordamida mochevina hosilalarini samarali sintez qilish mumkin, va ularning tuzilmaviy xususiyatlari yuqori darajada tasdiqlangan. Olingan birikmalarning kelajakdagi biologik faolligi va amaliy qo‘llanilishi istiqbollari aniqlangan.

Umuman olganda, aromatik izosiyanatlar va almashgan 2-aminotiazoillar asosida mochevina hosilalarini olish zamonaviy organik kimyo va biologik faol moddalarning yangi avlodini yaratish uchun keng imkoniyatlar ochadi. Ushbu tadqiqot natijalari esa, keyingi bosqichlarda bu moddalarning biologik faolligini keng ko‘lamda o‘rganish va amaliy dasturlarda qo‘llash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Metod va materiallar.

Erituvchilar: DMFA, atseton, etanoladabiyotda keltirilgan usul orqali tozalandi. Birikmalarning IQ-spektrlari MIRacle10 (Dia/ZnSe) SHIMADZU spektrometrida KBr li tabletkalarda, 1N YaMR va 13S YaMR - spektrlari esa ishchi chastotasi 400 MGts bo’lgan

UNITY-400+ (ichki standart GMDS, □-shkalasi) spektrometrida DMSO-d6 eritmasida olindi. Yupqa qavatli xromatografiya (YuQX) «Whatman® UV-254» (Germaniya) plastinkalarida tekshirildi. Elyuent sifatida esa benzol:metanol – 5:1 nisbatda ishlatildi. Sintez qilingan birikmalarning suyuqlanish haroratlari «Mel-temp» (Germaniya) jixozida aniqlandi.

Nazariy qism

Mochevina va uning hosilalari kimyoviy sanoat va farmatsevtika sohasida muhim o'rin tutadi. Mochevina, shuningdek, urea, aminokislotalar va oqsillar bilan bog'liq turli biologik jarayonlarda ishtirok etadi. Urea birikmalari ko'plab biologik faol moddalarning asosiy komponentlaridan biri bo'lib, ularning antimikrobial, antifungal va antiparazitar xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek, urea birikmalari bugungi kunda qishloq xo'jaligida herbitsid, fungitsid, va boshqa o'simliklarga ta'sir ko'rsatuvchi preparatlar sifatida qo'llaniladi.

Ayrim aromatik izosiyanatlar va almashgan 2-aminotiazoillar asosida mochevina hosilalarining sintezi esa yangi biologik faol moddalarning yaratilishida katta ahamiyatga ega. Izosiyanatlar — bu o'z ichiga izotsiyanat guruhini olgan organik birikmalar bo'lib, ular ko'plab kimyoviy reaksiyalarni amalga oshirishda muhim vosita sifatida ishlatiladi. Ularning o'ziga xos kimyoviy xususiyatlari, ya'ni reaktivligi, oson gidrolizlanishi va bog'lanish imkoniyatlari ular bilan yangi birikmalarni sintetik tarzda olishga imkon beradi. O'z navbatida, 2-aminotiazol — heterotsiklik birikma bo'lib, uning strukturasida azotli doira mavjud, bu esa uni ko'plab biologik xususiyatlarga ega qilishga yordam beradi. 2-aminotiazoillarning farmakologik faolligi, ayniqsa, antibakterial, antifungal va antiparazitar ta'sirlar ko'rsatish imkoniyati bilan to'liq o'rganilgan.

Ushbu sintezning nazariy asoslari shu bilan bog'liq: izosiyanat guruhining reaktivligi, uning amin guruhlari bilan reaksiyaga kirishishi, va natijada mochevina yoki urea hosilalarining paydo bo'lishi. Mochevina guruhining molekulyar strukturasida ikkita amin guruhining karbonil guruhiga bog'lanishi natijasida mustahkam bog'lanish hosil bo'ladi. Bu reaksiyalarni amalga oshirish uchun ko'plab erkin radikallarning ishtiroki zarur bo'lib, bu esa sintetik jarayonni samarali amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, reaktiv sharoitlarning optimalligi, masalan, erituvchilar va harorat, sintezning natijalariga ta'sir ko'rsatadi.

Ayrim aromatik izosiyanatlar va almashgan 2-aminotiazoillar bilan mochevina hosilalarining sintezida, bu moddalarning kimyoviy faolligini o'rganish muhimdir. Aromatik izosiyanatlar, masalan, o-toluyl izosiyanat, o'zining strukturasidagi elektrofilik reaktivlik tufayli amin guruhlari bilan oson bog'lanadi. Bu jarayonlar ko'plab biokimyoviy va farmatsevtik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi, chunki ular biologik faollikka ega bo'lgan birikmalarni olish uchun mukammal platformani taqdim etadi.



Yuqorida aytib o'tilgan sintez jarayonlari uchun mos sharoitlarni tanlash muhimdir. Xususan, erituvchi tanlash va reaksiyaning harorat sharoitlari sintezning muvaffaqiyatli bo'lishida asosiy rol o'ynaydi. Erituvchilar, masalan, dimetilformamid (DMFA) yoki aceton, reaksiyalarning samaradorligini oshiradi, chunki ular reaktiv moddalarning to'liq erishini va reaksiya davomida optimal haroratda qolishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, reaksiyaning to'liq amalga oshishi uchun katalizator yoki boshqa reaktsiya sharoitlari ham muhim rol o'ynaydi.

Bu nazariy asoslar orqali mochevina hosilalarining sintetik jarayonini yanada chuqurroq tushunish, shuningdek, ularning biologik faolligini yaxshilash uchun yangi sintez usullarini ishlab chiqish mumkin. Sintez qilingan moddalar va ularning fizikaviy xususiyatlari quyidagi jadvalda keltirilgan. Sintez jarayonida olingan moddalarning umumiy unumdorligi, erish nuqtalari va elyuentda ajralish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Modda 6 ($C_{11}H_{11}N_3OS$) yuqori unumdorlikka ega bo'lib, 84% ni tashkil etadi. Uning elyuentda ajralish ko'rsatkichi 0,62 bo'lib, bu moddaning yaxshi ajralishini va yuqori sifatini bildiradi. Suyuq holatda esa 130-132°C orasida erish nuqtasi mavjud, bu esa moddaning o'rtacha darajada yuqori stabilitetini ko'rsatadi. Modda 7 ($C_{12}H_{11}N_3O_3S$) 62% unumdorlikka ega, bu boshqa moddalarga nisbatan pastroq ko'rsatkichdir. Uning elyuentda ajralish ko'rsatkichi 0,77 bo'lib, yaxshi ajralish hosil qiladi. Suyuq holatda esa uning erish nuqtasi 230-232°C bo'lib, u yuqori stabilitetga ega ekanligini ko'rsatadi.

Modda 8 ($C_{15}H_{13}N_3OS$) yuqori unumdorlikka ega bo'lib, 83% ni tashkil etadi. Uning elyuentda ajralish ko'rsatkichi 0,76 bo'lib, bu moddaning yaxshi ajralishini bildiradi. Suyuq holatda esa erish nuqtasi 340-342°C bo'lib, juda yuqori stabilitetga ega ekanligini ko'rsatadi. Modda 9 ($C_{15}H_{12}N_4O_3S$) esa 59% unumdorlikka ega bo'lib, sintezning samaradorligi pastroq ekanligini ko'rsatadi. Uning elyuentda ajralish ko'rsatkichi 0,65 va erish nuqtasi 240-242°C bo'lib, bu modda boshqa moddalar bilan solishtirganda nisbatan pastroq bo'ladi.

Umuman olganda, sintez qilingan moddalarning fizikaviy xususiyatlari va unumdorliklari ularning sintez jarayonining samaradorligini ko'rsatadi. Yuqori unumdorlik va erish nuqtalari

yuqori sifatli moddalarning sintezini anglatadi, past unumdorlik esa sintezning qiyinchiliklari yoki samaradorligining pastligini bildiradi.

1-Jadval. Sintez qilingan moddalarning unumi, ayrim fizik kattaliklar

№	Brutto formulasi	R_f (benzol:metanol 5:1)	Suyq Harorati., °C	Unumi , %
6	$C_{11}H_{11}N_3OS$	0,62	130-132	84
7	$C_{12}H_{11}N_3O_3S$	0,77	230-232	62
8	$C_{15}H_{13}N_3OS$	0,76	340-342	83
9	$C_{15}H_{12}N_4O_3S$	0,65	240-242	59

Tajribaviy qism

1-(tiazol-2-il)-3-(m-tolil) mochevina

100 ml li tubi yumaloq kolbaga 0.71 ml (5.48 mmol, 0.73 g, r=1,033g/ml) m-toluil izosianat (1), 0.55 g (5.49 mmol) 2-aminotiazol (2) olindi. Kolbaga 10 ml DMFA quyib magnitli aralashtirgichda aralashtirildi. Moddalar to‘liq erib ketgandan so‘ng ustiga 0.83 g (6 mmol) potash solib aralashtirildi. Kolba teskari sovutgichga ulangan holda magnitli aralashtirgichda 4-8 soat davomida aralashtirildi. Reaksiyani borishi yupqa qatlamli xromatografiya orqali tekshirib turildi. Reaksion aralashma hona haroratida bir kechaga qoldirildi. Tushgan cho‘kma fil'trlandi, K2SO3 dan ekstraksiya usulida tozalandi va quritildi 1.08 g. (84 %) mahsulot (6) olindi. Tsuyuq=130-132oS. Rf =0,62 (benzol:metanol – 5:1). 1H YaMR **CD_3OD):** 10.03 (1H, c, NH-), 7.70 (1H, c, Ar-H-2), 7.62 (1H, д, J=5,72, Ar-H-6), 7.48 (1H, д, J=3.64, Het H-4), 7.20 (1H, т, J=7.80, H_{Ar}-5), 6.98 (1H, д, J=3,64, H_{Het}-5), 6.83 (1H, д, J=7.54, H_{Ar}-4), 2.15 (3H, c, Alk-CH_3). **^{13}C ЯМР (CD_3OD):** 162.7 (C_{Het}-2), 153.9 (C=O C), 140.5 (Ar-C-3), 139.6 (C_{Ar}-1), 138.3 (C_{Het}-4), 129.8 (C_{Ar}-5), 124.7 (C_{Ar}-4), 121.0 (C_{Ar}-4), 117.0 (C_{Ar}-6), 112.7 (C_{Het}-5), 21.4 (C_{CH3}). **IQ: (ν, см $^{-1}$):** 748 (C–S-C), 1717 (>C=O), 687 (Ar (=C-H def.t.), 1455 (-C-CH_3), 1549 (-C-NO_2).

2-(3-(m-tolil)mochevina)tiazol-4-karbon kislota

Yuqorida keltirilgan usul orqali 0.45 ml (3.5 mmol, 0.46 g. r=1,033g/ml) m-toluil izosianat (1), 0.46 g (3.19 mmol) 2-aminotiazol-4-karbonkislota (3), 10 ml DMFA va 0.45 g (3.26 mmol) K2SO3 olindi. 62 % unum bilan 0.31 g mahsulot (7) olindi. Tsuyuq=230-232oS. Rf =0.77 (benzol:metanol – 5:1). 1N YaMR (□, м.у., CD_3OD): 10.74 (1H,-COOH-H), 8.49 (1H,-NH-H), 7.69 (1H, c, H_{Het}-4), 7.25 (1H, c, H_{Ar}-6), 7.19 (1H, д, J=9.22, H_{Ar}-2), 7.09 (1H, т, J=7.80, H_{Ar}-5), 6.76 (1H, д, J=7.80, H_{Ar}-4), 2.30 (3H, H_{CH3}). **^{13}C ЯМР (CD_3OD):** 162.03 (C_{-COOH}), 160.66 (C_{Het}-2), 152.56 ($C_{-C=O}$), 142.46 (C_{Het}-4), 139.57 (C_{Ar}-3), 139.08 (C_{Ar}-1), 129.56 (C_{Ar}-5), 124.50 (C_{Ar}-2), 122.13 (C_{Ar}-4), 120.33 (C_{Ar}-6), 116.91 (C_{Het}-5), 21.89 ($C_{Alk-CH3}$). **Iq: (ν,**

см $^{-1}$): 3114 (C–H арил), 2977 (CH_2 гуруҳ учун), 676, 694 (C–S-C), 1614 (-C=N-), 1681 (>C=O), 676 (Ar (=C-H деформ.т.), 1379 (-C-CH_3), 1121, 1107 (-C-OH).

1-(benzo[d]tiazol-2-il)-3-(m-tolil)mochevina

Yuqorida keltirilgan usul orqali 0.7 ml (5.4 mmol, 0,72 g., r=1,033g/ml) m-toluil izosianat (1), 0.81 g (5.4 mmol) 2- aminobenzotiazol (4), 10 ml DMFA va 0,77 g (5,6 mmol) K2SO3 olindi. (83 %) unum bilan 1.27 g mahsulot (8) olindi.. Tsuyuq=340-342oS. Rf =0,76 (benzol:metanol – 5:1). 1N YaMR **(□, м.у., CD_3OD):** 10.58 (1H, c, -NH), 8.82 (1H, c, -NH), 7.74 (1H, c, Het-H-4), 7.57 (1H, d, J=6.49, H_{Ar} -7), 7.28 (2H, m, H_{Het} -5.6), 7.23 (1H, d, H_{Ar}-3), 7.13 (2H, m, H_{Ar} -2,6), 6.77 (1H, d, J=7,53, H_{Ar} -4), 2.32 (3H, c, $H_{Alk\text{-}CH3}$). **^{13}C ЯМР (CD_3OD):** 160.73 (C_{Het}-1), 152.26 ($C_{\text{-}C=O}$), 139.66 (C_{Ar}-3), 139.13 (C_{Ar}-1), 132.78 (C_{Het}-7a), 129.60 (C_{Ar}-5), 126.54 (C_{Ar}-2), 124.53 (C-5), 120.70 (C_{Ar}-6), 120.32 (C_{Het}-4), 116.92 ($C_{гетерил}$-7), 21.91 . **IQ:** 3049 (C–H арил), 728 (C–S-C), 1725 (>C=O), 690 (Ar (=C-H def.t.), 1451 (-C-CH_3), 1194, 1194 (-C-OH).

1-(6-nitrobenzo[d]tiazol-2-il)-3-(m-tolil) mochevina

Yuqorida keltirilgan usul orqali 0.26 ml (2.03 mmol, 0,27 g., r=1,033g/ml) m-toluil izosianat (1), 0.4 g (2.05 mmol) 2-amino-6-nitrobenzotiazol (5), 10 ml DMFA va 0,304 g (2,2 mmol) K2SO3 olindi. (59 %) unum bilan 0.4g mahsulot (9) olindi. Tsuyuq=240-242oS. Rf =0,65 (benzol:metanol – 5:1). 1N YaMR **(□, м.у., CD_3OD):** 10.23 (1H, c, NH-), 8.86 (1H, д, J=2,47, $H_{гетерил}$-4), 8.22 (1H, дд, J=8.90, J=2.40, гетерил-6), 7.74 (1H, c, $H_{гетерил}$-7), 7.66 (2H, т, J=8.51, H_{Ar}-2,6), 7.24 (1H, т, J=7.80, H_{Ar}-5), 6.89 (1H, д, J=7.54, H_{Ar}-4), 2.18 (3H, c, $H_{Alk\text{-}CH3}$). **^{13}C ЯМР (CD_3OD):** 167.3 ($C_{гетерил}$-1)**,** 154.5 ($C_{C=O}$), 144.0 ($C_{гетерил}$-3a), 140.1 ($C_{гетерил}$-5), 139.7 (C_{Ar}-7a), 133.3 ($C_{гетерил}$-7), 129.9 (C_{Ar}-1), 125.3 (C_{Ar}-5), 122.7 (C_{Ar}-2), 121.5 (C_{Ar}-4), 119.7 ($C_{гетерил}$-6), 119.3 (C_{Ar}-6), 117.9 ($C_{гетерил}$-4), 21.3 (C_{CH3}-C). **ИҚ-спектр (ν, см $^{-1}$):** 3130 (C–H арил), 747 (C–S-C), 1685 (>C=O), 642 (Ar (=C-H деформ.т.), 1447 (-C-CH_3), 1549 (-C-NO_2).

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, almashgan 2-aminotiazoillar va ayrim aromatik izosiyanatlar asosida mochevina hosilalarini sintez qilishda olingan natijalar moddalarning fizikaviy xususiyatlari va unumdorliklarining yaxshi darajada ekanligini ko'rsatdi. Sintez qilingan birikmalarning umumiy unumdorligi 59% dan 84% gacha o'zgarib, ayrim moddalarda yuqori unumdorlik va stabilitet ko'rsatkichlari qayd etildi. Moddalarning elyuentda ajralish ko'rsatkichlari 0,62 dan 0,77 gacha bo'lib, bu sintezning samarali va yuqori sifatli bo'lgani haqida ma'lumot beradi. Erish nuqtalarining keng diapazoni (130-342°C) sintez qilingan birikmalar turli kimyoviy xususiyatlarga ega ekanligini, shuningdek, ularning stabilitetining yuqoriligini ko'rsatadi. Bu natijalar, ayniqsa, biologik faol birikmalarni ishlab chiqarishda, shuningdek, farmatsevtika va agrokimyo sanoatida foydalanish uchun muhim ahamiyatga ega. Olingan birikmalarni yanada chuqurroq tahlil qilish va optimallashtirish orqali ularning samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Adabiyotlar

1. Elmuradov, B., Saitkulov, F., Mirvaliev, Z., Ibragimov, A., Karimov, S., & Karimov, B. (2025, February). Synthesis of urea derivatives based on toluyl isocyanate. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3268, No. 1). AIP Publishing.
2. Saitkulov, F., Zakhidov, Q., Khaydarov, G., Sabirova, D., Ergasheva, H., Mirvaliev, Z., & Usnatdinova, S. (2025, February). Methods for the synthesis of 2-phenylquinazolin-4-one and studying methylation reactions in different solvents. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3268, No. 1). AIP Publishing.
3. Ashurova Z. B., Khaydarov G. Sh., Saitkulov F. E., Giyasov K. (2024). Determination of Certain Heavy Metals in Food Composition by Voltammetric Method. Austrian Journal of Technical and Natural Sciences 2024, No 3 – 4. https://doi.org/10.29013/AJT-24-11.12-47-51
4. Saitkulov F.E., Qayumova F. Synthesis of coordination compounds based on cobalt(ii) salts and quinazolin-4-ONE and the study of their biological activity // Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2025. 2(128). URL: https://7universum.com/ru/nature/archive/item/19240
5. Akhmedova, N., Elmuradov, B., & Saitkulov, F. (2024). Optimal synthesis methods and biological activity study of 2-(4-nitrophenil) quinazolin-4-one. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *4*(12), 1192-1200.
6. Shoyimovich, K. G., Orinbaevna, B. G., & Ergashevich, S. F. (2024). Synthesis and study of biological activity of coordination compounds based on copper (ii) nitrate and quinazolin-4-one. *Austrian Journal of Technical & Natural Sciences*.
7. Shoyimovich, K. G., Ergashevich, S. F., & Kuchkar, G. (2024). Determination of certain heavy metals in food composition by voltammetric method. *Austrian Journal of Technical & Natural Sciences*.
8. Abduxakimovich, Z. F., Ergashevich, S. F., Jurayevich, E. B., & Xurramovich, A. R. (2024). Study of benzylation reactions of quinazolin-4-one in the presence of various solvents. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*, 52.
9. Bekboyevich, O. O., Ergashevich, S. F., Zoxidovich, M. Z., & Orinaevna, B. G. (2024). Investigation of aromatic properties of xinazolin-4-one. *Austrian Journal of Technical & Natural Sciences*.
10. Juraevich, E. C., Ergashevich, S. F., Kuchkar, G., & Kilichovna, M. N. (2024). Convenient synthesis of 2-methylquinazolin-4-thione based on anthranyl acid. austrian journal of technical and natural sciences, 26.
11. Saitkulov, F., Sapaev, B., Nasimov, K., Kurbanova, D., & Tursunova, N. (2023). Structure, aromatic properties and preparation of the quinazolin-4-one molecule. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 389, p. 03075). EDP Sciences.
12. Саиткулов, Ф. Э., Элмурадов, Б. Ж., & Гиясов, К. (2023). Алкилирования хиназолин-4-она «мягким» и «жестким» алкилирующими агентами. *Universum: химия и биология*, (1-2 (103)), 53-56.

13. Baymuratova, G., Nasimov, K., & Saitkulov, F. (2023). Synthesis of 6-benzylaminopurine and the study of biological active properties of cotton C-6424 plants. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 389, p. 03032). EDP Sciences.
14. Saitkulov, F. E., & Elmuradov, B. (2024). Zh., Sapaev B. Syntheses and biological activity of quyinazolin-4-one hydrochloride. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*, (1-2), 28-35.
15. Sapayev, B., Saitkulov, F. E., Normurodov, O. U., Haydarov, G., & Ergashyev, B. (2023). Studying Complex Compounds of Cobalt (II)-Chlooride Gecsacrystolohydrate with Acetamide and Making Refractory Fabrics from Them.
16. Saitkulov, F., Qilichyeva, N., Abdullayev, B., Anvarov, A., & Ergasheva, M. (2022). Titrimetric analysis of calcium cation in" megaton" variety of cabbage. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, *2*(10), 134-135.
17. Саиткулов, Ф. Э., Гиясов, К., & Элмурадов, Б. Ж. (2022). Метилирование 2-метилхиназолин-4-она «мягкими» и «жесткими» метилирующими агентами. *Universum: химия и биология*, (11-2 (101)), 49-51.
18. Boymuratova, G. O., Saitkulov, F. E., Nasimov, K. M., & Tugalov, M. (2022). To Examine the Processes of Biochemical Action Of 6-Benzylaminopurine with Cobalt-II Nitrate Dihydrate on the “Morus Alba” Variety of Moraceae Plant. *Eurasian Journal of Physics, Chemistry and Mathematics*, *3*, 39-42.
19. Saitkulov, F., Begimqulov, I., O‘ralova, N., Gulimmatova, R., & Rahmonqulova, D. (2022). Biochemical effects of the coordination compound of cobalt-II nitrate quinazolin-4-one with 3-indolyl acetic acid in the “amber” plants grades phaseolus aureus. *Академические исследования в современной науке*, *1*(17), 263-267.
20. Saitkulov, F., Ibragimov, B. R., Allaqulova, M., Umarov, S., & Xolmatova, M. (2022). The role in the plant and the functions of nutrients. *Инновационные исследования в науке*, *1*(16), 29-31.
21. Saitkulov, F., Elmuradov, B., O’lmasova, K., & Alijonova, A. (2023). preparation of a mixed coordination compound cobalt-ii nitrate hexahydrate with quinazoline-4-one and 3-indolylacetic acid on “amber” plants of the phaseolus aureus variety. *Science and innovation in the education system*, *2*(1), 81-87.
22. Sapaev, B., Saitkulov, F. E., Abdinazarov, A. B., Nasimov, K. M., & Isoqjonova, M. (2023). Kobalt (II)-synthesis of the coordination compound formed by quinazolin-4-on and indole fatty acids of nitrate dihydrate and study of the processes of influence on the varieties of cotton “Buxara-102”,“Namangan-77”,“Sultan”,“Unkurgan-1”,“C-6524”. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 452, p. 01033). EDP Sciences.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDC: 547.789.18

TOLUYL IZOSIYANATNING MOCHVENA HOSILALARI OLISH USULINING REAKSION XOSSALARI

[1]Kudratov G.N., [1]Elmuradov B.J., [2]Oxunov I.I.,
[3]Saitkulov F.E., [4]Zaxidov Q.A., [4]Samiyev R.A.
[1]S.Yunusov nomidagi O‘simlik moddalari kimyosi instituti,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
[2]Qo‘qon davlat universiteti
[3]Toshkent davlat agrar universiteti
[4]Samarqand davlat universiteti
E-mail: fsaitkulov@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada birinchi marta *m*-toluil izosiyanat va turli funksional guruhlarga ega 2-aminotiazollar asosida 1,3-o‘rinbosar urea hosilalarining sintezi usullari ishlab chiqildi. Sintez jarayonlari natijasida olingan urea hosilalarining reaksiyalar mexanizmlari chuqur o‘rganildi hamda asosiy bosqichlar batafsil tahlil qilindi. Sintez qilingan birikmalarning molekulyar va fazoviy tuzilmalari zamonaviy fizik-tahlil usullari, jumladan, infraqizil (IQ) spektroskopiya, yadroviy magnit rezonansi (YaMR) va boshqa usullar orqali tasdiqlandi. Olingan natijalar asosida yangi 1,3-o‘rinbosar urea birikmalarining potensial kimyoviy xossalari va kelajakdagi qo‘llanilishi haqida xulosalar berildi. Tadqiqot natijalari organik sintez va farmatsevtika sohasida istiqbolli yo‘nalishlarga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: 1,3-o‘rinbosar urea sintezi, *m*-toluil izosiyanat, 2-aminotiazollar, o‘rinbosar urea hosilalari, reaksiyalar mexanizmi, tuzilma tahlili, fizik-tadqiqot usullari.

Annotation: In the article, for the first time, the methods of synthesis of 1,3-substituted urea derivatives based on m-toluyl isocyanate and 2-aminothiazoles with different functional groups were explained, methods of obtaining 1,3-substituted urea derivatives, reaction mechanisms were studied in depth. The structure of the obtained substances has been proven by analysis of modern physical research methods.

Key words: synthesis of 1,3-substituted urea, m-toluyl isocyanate, 2-aminothiazoles, substituted urea derivatives, reaction mechanisms, structure, analysis, physical research method.

Kirish

O‘rinbosar tutgan mochevina hosilalari sanoat, texnologiya, qishloq xo‘jaligi va tibbiyot sohalarida keng qo‘llanilishi tufayli katta qiziqish uyg‘otmoqda [1–3]. Ular pestitsidlar va o‘simlik o‘sishini tezlashtiruvchi moddalarda, turli maqsadlar uchun mo‘ljallangan uglevodorod yoqilg‘ilari, moylar va polimer materiallar uchun samarali qo‘shimchalar sifatida, shuningdek, dori vositalari va bo‘yoqlar sifatida keng foydalaniladi.

Bugungi kunga kelib, o‘rinbosar urealarning sintez usullari, xossalari va qo‘llanilishi bo‘yicha katta miqdorda faktik ma'lumotlar to‘plangan. 1982-yilda o‘rinbosar urealarning, ayniqsa, urea fragmentlari tutgan uglevodorod hosilalari sintez usullari, tuzilishi va xossalarini ko‘rib chiqqan sharh maqolasi nashr etilgan [4–10].

Aniqlanishicha, sulfonilmochevinalar juda past konsentratsiyalarda ham atsetolaktsat sintetaza fermentini — izoleysin va valin biosintezi zanjiridagi birinchi maxsus fermentni inhibitsiya qilish qobiliyatiga ega bo‘lib, bu hujayra bo‘linishini to‘xtatishga olib keladi.

Mochevina hosilalari o‘z tuzilishiga qarab har xil selektivlik xususiyatlariga ega. Masalan, xlorosulfuron kabi sulfonilmochevinalar asosan ikki urug‘pallali o‘simliklarga ta'sir qiladi, isoproturon esa ko‘kalam va bug‘doyga selektiv ta'sir ko‘rsatadi.

Mochevina hosilalari asosidagi keng turdagi gerbitsid preparatlari mavjudligi tufayli ular turli ekinlarda begona o‘tlarni nazorat qilish uchun ishlatilishi mumkin. Ko‘pgina mochevina hosilalari tuproq gerbitsidlari sifatida ishlatiladi.

1,2,3-tiyadiazolilurealar ham alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki ularning ayrimlari kuchli gerbitsid ta'sirga ega va defoliant sifatida foydalanilishi mumkin. Ushbu guruhdan thidiazuron moddasining amaliyotda nozik tolali paxta uchun samarali defoliant sifatida qo‘llanilishi aniqlangan, va hozircha unga o‘xshash samarali defoliant topilmagan[11-22].

Ta’sir mexanizmi jihatidan bu moddalar sitokininlar qatoriga kiradi. Bundan tashqari, mochevina hosilalaridan nafaqat insektitsid, fungitsid va gerbitsid sifatida, balki zoonozlarga qarshi vosita (zootsid) sifatida ham foydalanilgan. Eng kuchli zootsidlar sifatida arilpiridil mochevinalari aniqlangan, ulardan biri — N-nitrofenil-N'-(3-piridilmetil)-urea — parhez ozuqa qo‘shimchasi sifatida (0,5% faol modda) amaliyotda qo‘llanilgan. Boshqa zootsidlar qatoriga monoarilguanidinlar ham taklif etilgan.
XX asrning birinchi yarmida antibakterial sulfonamid dorilarining tasodifan qand miqdorini kamaytirish xususiyati aniqlangan. Shundan so‘ng, gipoglikemik ta'sirga ega sulfonamid hosilalarini maqsadli izlash boshlandi. Bugunga qadar sulfonilurealarning uch avlodi sintez qilingan.

So‘nggi 20 yil davomida diabetologiya sohasida sezilarli yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, diabet hali ham dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

2025-yilga kelib, dunyoda diabet bilan kasallanganlar soni 380 million kishiga yetishi prognoz qilingan. Ushbu raqamlar 2006-yilda Keyptaunda bo‘lib o‘tgan Butunjahon diabet kongressida e'lon qilingan.

Shuningdek, 2025-yilga borib dunyo aholisining 7 foizi diabetga chalinishi kutilmoqda, ularning 92–97 foizi 2-tip diabet bilan og‘rishi prognoz qilinmoqda. Diabet har yili taxminan 3,8 million odamning o‘limiga sabab bo‘ladi, ularning aksariyati diabetning asoratlaridan vafot etadi.

2-tip diabet bilan kasallangan bemorlarning 75 foizida yuqori o‘lim ko‘rsatkichiga yurak-qon tomir kasalliklari, jumladan, yurak ishemik kasalligi, insult, periferik arteriyalar aterosklerozidan kelib chiqqan arterial gipertenziya sabab bo‘ladi. Bugungi kunda organik

sintez sohasida izosiyanat birikmalaridan foydalanish orqali turli xil močevina hosilalarini olish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, *m*-toluil izosiyanat (3-metilfenil izosiyanat) asosida yangi 1,3-o‘rinbosar mochevina birikmalarini sintez qilish va ularning reaksion xossalarini o‘rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

USULLAR VA NATIJALAR

Sulfonilmochevinalarni sintez qilishda asosan izosiyanatlardan foydalaniladi, ular sulfonamidlar bilan o‘zaro ta’sirlashganda sulfonilmochevinalarni hosil qiladi. Izosiyanatlarni olish uchun odatda birlamchi alifatik yoki aromatik aminlarning fosgen bilan reaksiyasi qo‘llaniladi, fosgen esa harbiy kimyoviy vosita sifatida ham tanilgan. Olingan izosiyanatlar ham yuqori darajada toksik moddalar hisoblanadi.

Mochevinaning reaksion faolligi amidlarga xos xususiyatlarga ega: ikkala azot atomi ham nukleofil xususiyat ko‘rsatadi. Mohevina kuchli kislotalar bilan tuzlar hosil qiladi, nitratlar bilan reaksiyada N-nitrozomochevina, galogenatlar bilan esa N-galogen hosilalari yuzaga keladi. Mochevina alkillanishi natijasida tegishli N-alkilmoçevinalar $RNHCONH_2$ hosil qiladi. Aldegidlar bilan reaksiyada esa 1-aminoalkogol hosilalari $RC(OH)NHCONH_2$ olinadi. Qattiq sharoitlarda esa mochevina karbon kislotalarning xlorangidridlari bilan atsillanishi natijasida ureidlar (N-atsilmochevinalar) hosil bo‘ladi.

Sulfonilmochevinalar oshqozon osti bezining beta-hujayralarini stimulyatsiya qilib, insulin sekresiyasini oshiradi (biroq bu ta’sir faqat insulin ishlab chiqarish zaxiralari tugamaguncha davom etadi). Natijada beta-hujayralarning sezuvchanligi tiklanadi va insulin retseptorlari soni ortadi. 2-tip qandli diabetni davolashda sulfonilmoçevina preparatlari asosiy ahamiyatga ega bo‘lib, ular klinik amaliyotda 1960-yillar o‘rtalaridan beri qo‘llanila boshlandi. Sulfonilmoçevinalarning turli xil gipoglikemik hosilalari fenil halqasidagi radikal farqlari bilan bog‘liq. Ular 1- va 2-avlod preparatlariga bo‘linadi. Bugungi kunda 1-avlod sulfonilmoçevinalar (tolbutamid, xlorpropamid) deyarli ishlatilmaydi.

Hozirgi kunda mochevina hosilalarini olishning bir necha asosiy usullari mavjud:

1. Amin birikmalarini organik izosiyanatlar bilan reaksiyaga kiritish;
2. Aminlar va alkilgalogenidlarni ishqoriy metall sianatlar bilan reaksiyaga kiritish;
3. Birlamchi va ikkilamchi aminlarni fosgen bilan reaksiyaga kiritish;
4. Aminlarni mochevina va nitrozomochevina bilan reaksiyaga kiritish;
5. Mochevinani turli birikmalar bilan reaksiyaga kiritish;
6. Aminlarni karbonillash orqali mochevina hosilalari olish;
7. Kislota amidlardan Hoffmann qayta tuzilishi orqali mochevina hosilalarini sintez qilish.

Mochevina hosilalarini olishning eng oddiy usullaridan biri — aminlarni izosiyanatlar bilan reaksiyaga kiritishdir.

Izosiyanatlar — tarkibida -N=C=O funksional guruhi mavjud bo‘lgan organik birikmalardir. Ular geterokumulen bo‘lib, faol elektrofil reagentlar sifatida ta’sir qiladi. Birlamchi va ikkilamchi aminlar bilan reaksiyada o‘rinbosar mochevinalarni, spirtlar bilan esa

karbamatlar (uretanlar) hosil qiladi, suv bilan esa gidrolizlanib aminga va karbonat angidridga parchalanadi.

Izosiyanatlarni sintez qilishning eng keng tarqalgan usuli — aminlarni fosgen bilan reaksiyaga kiritishdir (aminlarni fosgenlash). Bu reaksiya inert erituvchilar ishtirokida va oraliq karbamoilxloridlarning hosil bo‘lishi orqali amalga oshiriladi. Reaksiya organik erituvchilarda yoki ular ishtirokisiz olib borilishi mumkin. Jarayon harorati boshlang‘ich izosiyanatlar va aminlarning tuzilishiga bog‘liq.

Katalizator sifatida uchlamchi aminlar yoki organik qalay birikmalari ishlatiladi. Jarayon to‘g‘ri olib borilganda, mahsulot deyarli kvant samaradorlikda olinadi.

Izosiyanatlar asosan amindan fosgen yordamida yuqori haroratda olinadi. Bu usul sanoat miqyosida izosiyanatlarni sintez qilishning asosiy usuli hisoblanadi.



Sulfonilizosiyanatlar ham xuddi shunday usulda olinadi. Boshqa atsillangan izosiyanatlar esa amidlar va oksalilxlorid (oksalat xloridi) yordamida yanada yuqori unum bilan hosil qilinadi.

Turli xil erituvchilar asosida biz o‘z ilmiy ishlarimizni davom ettirib, toluen izosiyanatlar asosida mochevina hosilalarini sintez qilindi. Amalga oshrilgan reaksiya sxemasi quyidagicha ifodalanadi:



1,3-substitutsiyalangan aril-geteril moçevina hosilalari yuqori chiqim bilan sintez qilindi.

Olingan moddalarning -IQ, ^{1}H-TaMR va ^{13}C-YaMR spektrlari tahlil qilindi. 8 ta modda molekulalarining tuzilishi ^{1}H NMR fizik-tadqiqot usullari yordamida aniqlab olindi (1-rasm).



1-rasm. 8 ta modda molekulasining tuzilishi ^{1}H YaMR usuli yordamida aniqlandi.

Kimyoviy jarayonlar oraliq mexanizm orqali amalga oshadi va quyidagicha kechadi.



TAJRIBAVIY QISM

N-(toluyl)piperidin-1-karboksamid sintezi.

100 ml hajmdagi dumaloq tubli kolbaga 0,385 ml (3 mmol, 0,413 g, ρ=1,073 g/ml) o-toluyl izosiyanat va 0,383 ml (3,88 mmol, 0,33 g, ρ=0,862 g/ml) piperidin qo‘shildi. Kolbaga 10 ml atseton quyilib, magnit aralashtirgichda aralashtirildi. Moddalar to‘liq erigach, ustiga 0,414 g (3 mmol) kaliy karbonat (K_2CO_3) qo‘shilib, aralashtirildi. Kolba refluks kondensatori ulangan holda magnit aralashtirgichda 4–8 soat davomida aralashtirildi. Reaksiya borishi yupqa qatlamli xromatografiya (TLC) usuli bilan nazorat qilindi. Reaksiya aralashmasi xonada bir kecha-kunduzga qoldirildi. Hosil bo‘lgan cho‘kma filtrlanib, K_2CO_3 bilan ekstraksiyalandi va quritildi. Natijada 0,487 g (73%) mahsulot olindi. 1.63(6H, м, Het-C-H-3',4',5'), 2.20(3H, с, Het-CH_3), 3.47(4H, м, Het-C-H-2', 6'), 7.06(1H, м, Ar-4), 7.11(2H, д, J=2.9, Ar-5,6), 7.17(1H, д, Ar-3).**^{13}C YaMR (CD_3OD):**157.27, 137.26, 134.31, 130.08, 126.63, 125.87, 47.03, 45.04, 25.67, 24.26, 16.83.

N-(toluyl)morfolin-4-karboksamid sintezi

0,247 ml (2,65 mmol, 0,353 g, ρ=1,073 g/ml) o-toluyl izosiyanat va 0,3 ml (3,32 mmol, 0,3 g, ρ=1,007 g/ml) morfolin 100 ml hajmdagi kolbaga solindi. Ustiga 10 ml atseton va 0,445 g (2,65 mmol) kaliy karbonat (K_2CO_3) qo‘shildi. Aralashma magnit aralashtirgichda reaksiyaga kiritildi. Natijada 0,36 g mahsulot (62% chiqish bilan) olindi.

^{1}H YaMR ($CDCl_3$): δ 2,21 (3H, d, J=0,9 Gts, Ar-CH_3), 3,48 (4H, m, Get-C-H-2',6'), 3,69 (4H, m, Get-C-H-3',5'), 7,08 (1H, dd, J_1=7,4 Gts, J_2=5,3 Gts, Ar-4), 7,13 (2H, m, Ar-5,6), 7,19 (1H, d, J=7,6 Gts, Ar-3). **^{13}C NMR (CD_3OD):** δ 157,46; 136,89; 134,33; 130,16; 126,60; 125,69; 66,38; 48,31; 44,30; 16,81 ppm.

4-metil-N-(toluyl)piperidin-1-karboksamid sintezi

0,37 ml (3 mmol, 0,398 g, ρ=1,073 g/ml) o-toluyl izosiyanat va 0,442 ml (3,7 mmol, 0,37 g, ρ=0,838 g/ml) 4-metilpiperidin 100 ml kolbaga solindi. Ustiga 10 ml atseton va 0,414 g (3 mmol) kaliy karbonat (K_2CO_3) qo‘shildi. Aralashma reaksiyaga kiritildi. Natijada 0,622 g mahsulot (89% chiqish bilan) olindi.

^{1}H YaMR ($CDCl_3$): δ 0,97 (3H, d, J=6,5 Gts, Get-CH_3), 1,15 (2H, m, Get-C-H-3',5'), 1,66 (3H, m, Get-C-H-3',4',5'), 2,20 (3H, s, Ar-CH_3), 2,86 (2H, m, Get-C-H-2',6'), 4,10 (2H, d, J=13,4 Gts, Get-C-H-2',6'), 7,07 (1H, m, Ar-3), 7,13 (3H, m, Ar-4,5,6).

^{13}C NMR (CD_3OD): δ 157,25; 137,24; 134,31; 130,08; 126,63; 125,88; 125,47; 47,03; 44,43; 33,99; 30,98; 20,94; 16,83 ppm.

3-metil-N-(toluyl)piperidin-1-karboksamid sintezi

0,343 ml (2,76 mmol, 0,343 g, ρ=1,073 g/ml) o-toluyl izosiyanat va 0,405 ml (3,45 mmol, 0,342 g, ρ=0,845 g/ml) 3-metilpiperidin 100 ml kolbaga solindi. Ustiga 10 ml atseton va 0,35 g (2,76 mmol) kaliy karbonat (K_2CO_3) qo‘shildi. Aralashma reaksiyaga kiritildi. Natijada 0,59 g mahsulot (96% chiqish bilan) olindi.

^{1}H NMR ($CDCl_3$): δ 0,93 (3H, d, J=6,7 Gts, Get-CH_3), 1,16 (1H, m, Get-C-H-4'), 1,62 (1H, m, Get-C-H-4',5',5'), 1,85 (1H, m, Get-C-H-3'), 2,53 (1H, m, Get-C-H-2'), 2,85 (1H, m, Get-C-H-2'), 3,99 (2H, t, J=13,0 Gts), 7,09 (3H, m, Ar-4,5,6), 7,15 (1H, d, J=7,7 Gts, Ar-3).

^{13}C NMR (CD_3OD): δ 157,07; 137,24; 134,17; 130,15; 126,59; 125,46; 51,63; 44,64; 32,98; 31,15; 25,14; 18,25; 17,17 ppm.

Xulosa

Ushbu ishda biologik faol moddalar (gerbitsidlar, fungitsidlar, ildiz o‘sishini rag‘batlantiruvchi preparatlar, gipoglikemik preparatlar va boshqalar) sintezida oraliq mahsulot sifatida ishlatiladigan substitutsiyalangan mochevina hosilalarini olishning asosiy usullari ko‘rib chiqildi. Eng oson olinadigan aril- va geteroaril-mochevina hosilalarini sintez qilish usullari aniqlab berildi. Mochevina hosilalarini sintez qilishda asosiy jarayon — izosiyanatlar va aminlarning maqsadli tanlovi orqali yuqori hosildorlikka erishishdir. Sintez qilingan birikmalar yuqori barqarorlik va yaxshi biologik faollik ko‘rsatishi mumkinligi bilan ahamiyatlidir. Ishlab chiqilgan usullar biologik faol moddalarning yangi turlarini yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va tibbiyot hamda qishloq xo‘jaligi kimyosi sohalarida tadqiqotlar olib borish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Adabiyotlar

23. Elmuradov, B., Saitkulov, F., Mirvaliev, Z., Ibragimov, A., Karimov, S., & Karimov, B. (2025, February). Synthesis of urea derivatives based on toluyl isocyanate. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3268, No. 1). AIP Publishing.

24. Saitkulov, F., Zakhidov, Q., Khaydarov, G., Sabirova, D., Ergasheva, H., Mirvaliev, Z., & Usnatdinova, S. (2025, February). Methods for the synthesis of 2-phenylquinazolin-4-one and studying methylation reactions in different solvents. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3268, No. 1). AIP Publishing.

25. Ashurova Z. B., Khaydarov G. Sh., Saitkulov F. E., Giyasov K. (2024). Determination of Certain Heavy Metals in Food Composition by Voltammetric Method. Austrian Journal of Technical and Natural Sciences 2024, No 3 – 4. https://doi.org/10.29013/AJT-24-11.12-47-51

26. Saitkulov F.E., Qayumova F. Synthesis of coordination compounds based on cobalt(ii) salts and quinazolin-4-ONE and the study of their biological activity // Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2025. 2(128). URL: https://7universum.com/ru/nature/archive/item/19240

27. Akhmedova, N., Elmuradov, B., & Saitkulov, F. (2024). Optimal synthesis methods and biological activity study of 2-(4-nitrophenil) quinazolin-4-one. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *4*(12), 1192-1200.

28. Shoyimovich, K. G., Orinbaevna, B. G., & Ergashevich, S. F. (2024). Synthesis and study of biological activity of coordination compounds based on copper (ii) nitrate and quinazolin-4-one. *Austrian Journal of Technical & Natural Sciences*.

29. Shoyimovich, K. G., Ergashevich, S. F., & Kuchkar, G. (2024). Determination of certain heavy metals in food composition by voltammetric method. *Austrian Journal of Technical & Natural Sciences*.

30. Abduxakimovich, Z. F., Ergashevich, S. F., Jurayevich, E. B., & Xurramovich, A. R. (2024). Study of benzylation reactions of quinazolin-4-one in the presence of various solvents. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*, 52.

31. Bekboyevich, O. O., Ergashevich, S. F., Zoxidovich, M. Z., & Orinaevna, B. G. (2024). Investigation of aromatic properties of xinazolin-4-one. *Austrian Journal of Technical & Natural Sciences*.

32. Juraevich, E. C., Ergashevich, S. F., Kuchkar, G., & Kilichovna, M. N. (2024). Convenient synthesis of 2-methylquinazolin-4-thione based on anthranyl acid. austrian journal of technical and natural sciences, 26.

33. Saitkulov, F., Sapaev, B., Nasimov, K., Kurbanova, D., & Tursunova, N. (2023). Structure, aromatic properties and preparation of the quinazolin-4-one molecule. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 389, p. 03075). EDP Sciences.

34. Саиткулов, Ф. Э., Элмурадов, Б. Ж., & Гиясов, К. (2023). Алкилирования хиназолин-4-она «мягким» и «жестким» алкилирующими агентами. *Universum: химия и биология*, (1-2 (103)), 53-56.

35. Baymuratova, G., Nasimov, K., & Saitkulov, F. (2023). Synthesis of 6-benzylaminopurine and the study of biological active properties of cotton C-6424 plants. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 389, p. 03032). EDP Sciences.
36. Saitkulov, F. E., & Elmuradov, B. (2024). Zh., Sapaev B. Syntheses and biological activity of quyinazolin-4-one hydrochloride. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*, (1-2), 28-35.
37. Sapayev, B., Saitkulov, F. E., Normurodov, O. U., Haydarov, G., & Ergashyev, B. (2023). Studying Complex Compounds of Cobalt (II)-Chlooride Gecsacrystolohydrate with Acetamide and Making Refractory Fabrics from Them.
38. Saitkulov, F., Qilichyeva, N., Abdullayev, B., Anvarov, A., & Ergasheva, M. (2022). Titrimetric analysis of calcium cation in" megaton" variety of cabbage. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, *2*(10), 134-135.
39. Саиткулов, Ф. Э., Гиясов, К., & Элмурадов, Б. Ж. (2022). Метилирование 2-метилхиназолин-4-она «мягкими» и «жесткими» метилирующими агентами. *Universum: химия и биология*, (11-2 (101)), 49-51.
40. Boymuratova, G. O., Saitkulov, F. E., Nasimov, K. M., & Tugalov, M. (2022). To Examine the Processes of Biochemical Action Of 6-Benzylaminopurine with Cobalt-II Nitrate Dihydrate on the “Morus Alba” Variety of Moraceae Plant. *Eurasian Journal of Physics, Chemistry and Mathematics*, *3*, 39-42.
41. Saitkulov, F., Begimqulov, I., O‘ralova, N., Gulimmatova, R., & Rahmonqulova, D. (2022). Biochemical effects of the coordination compound of cobalt-II nitrate quinazolin-4-one with 3-indolyl acetic acid in the “amber” plants grades phaseolus aureus. *Академические исследования в современной науке*, *1*(17), 263-267.
42. Saitkulov, F., Ibragimov, B. R., Allaqulova, M., Umarov, S., & Xolmatova, M. (2022). The role in the plant and the functions of nutrients. *Инновационные исследования в науке*, *1*(16), 29-31.
43. Saitkulov, F., Elmuradov, B., O’lmasova, K., & Alijonova, A. (2023). preparation of a mixed coordination compound cobalt-ii nitrate hexahydrate with quinazoline-4-one and 3-indolylacetic acid on “amber” plants of the phaseolus aureus variety. *Science and innovation in the education system*, *2*(1), 81-87.
44. Sapaev, B., Saitkulov, F. E., Abdinazarov, A. B., Nasimov, K. M., & Isoqjonova, M. (2023). Kobalt (II)-synthesis of the coordination compound formed by quinazolin-4-on and indole fatty acids of nitrate dihydrate and study of the processes of influence on the varieties of cotton “Buxara-102”,“Namangan-77”,“Sultan”,“Unkurgan-1”,“C-6524”. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 452, p. 01033). EDP Sciences.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

QUINAZOLIN4-ONNING BENZILLANISH REAKSIYALARINI O‘RGANISH

Zulpanov Fazliddin Abduxakimovich[1], Saitkulov Foziljon Ergashevich[2], Elmuradov Burxon Jurayevich[1], Oxunov Isroiljon Islomovich[3], Zaxidov Qosim Akilovich[4], Samiyev Rajab Akbarovich[4]

[1]S.Yunusov nomidagi O‘simlik moddalari kimyosi instituti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
[2]Toshkent davlat agrar universiteti
[2]Qoqon davlat universiteti
[4]Samarqand davlat universiteti
E-mail: fsaitkulov@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada xinazolin-4-on molekulasining benzillanish reaksiyalari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida turli sharoitlar (harorat, erituvchi, katalizatorlar) ta’sirida benzil guruhining birikishi va reaksiyaning samaradorligi tahlil qilindi. Sintez qilingan benzil hosilalarining tuzilishi zamonaviy fizik kimyoviy usullar (IQ, YaMR) yordamida aniqlangan. Olingan ma’lumotlar asosida optimal reaksion sharoitlar tavsiya qilindi. Benzillangan xinazolin-4-onlarning biologik faolligi ham dastlabki bosqichda baholandi va istiqbolli namunalar aniqlandi. Ushbu tadqiqot xinazolin-4-on derivativlarini yangi biologik faol moddalar sifatida yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi va farmatsevtika hamda agroximiyada qo‘llash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: xinazolin-4-on, benzillanish, sintez, reaktsiya sharoitlari, biologik faollik, IR spektroskopiya, NMR spektroskopiya.

Annotation: This article investigates the benzylation reactions of the quinazolin-4-one molecule. During the study, the influence of different conditions (temperature, solvent, catalysts) on the attachment of the benzyl group and the reaction efficiency was analyzed. The structures of the synthesized benzyl derivatives were characterized using modern analytical techniques (IR, NMR). Based on the results, optimal reaction conditions were proposed. The preliminary evaluation of the biological activity of benzylated quinazolin-4-ones was also performed, and promising compounds were identified. This research expands the potential for developing new biologically active quinazolin-4-one derivatives and provides a basis for applications in pharmaceuticals and agrochemicals.

Keywords: quinazolin-4-one, benzylation, synthesis, reaction conditions, biological activity, IR spectroscopy, NMR spectroscopy.

Kirish

Quinazolin-4-on va uning hosilalari farmatsevtika, agrokimyo va biologik faol moddalar kimyosida alohida o‘ringa ega bo‘lgan muhim geterosiklik birikmalardandir. Ularning

molekulyar tuzilmasi turli xil farmakologik xususiyatlarga – antimikologik, antivirus, antibakterial, antiinflamatuvar va antiparazitar faoliyatlarga asos bo‘ladi. Ayniqsa, xinazolin-4-on yadrosining turli o‘rinlarida funktsional guruhlarning kiritilishi molekulalarning biologik faolligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Shu jihatdan, xinazolin-4-onning benzillanish reaksiyalarini o‘rganish uning derivativlarining yangi, istiqbolli namunalarini yaratishga imkon beradi[1-10].

Benzil guruhining kiritilishi molekulalarning lipofillik xossalarini oshirishi, ularning biomembranalar orqali o‘tish qobiliyatini yaxshilashi va farmakokinetik profilini ijobiy tomonga o‘zgartirishi mumkin. Benzillangan hosilalar, shuningdek, katalitik reaksiyalarda va kompleks birikmalar sintezida oraliq mahsulot sifatida qo‘llanishi mumkin. Shu sababli, xinazolin-4-onning benzillanish reaksiyalari mexanizmini, optimal sharoitlarini va hosil bo‘ladigan mahsulotlarning tuzilishini chuqur o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega[11-21].

Avvalgi ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xinazolin-4-onning benzillanishi odatda kuchli asoslar yoki katalizatorlar ishtirokida olib boriladi. Reaksiyada erituvchi sifatida qutbli aproton suyuqliklar, masalan, dimetilformamid (DMFA), dimetilsulfoksid (DMSO) qo‘llaniladi. Ba’zan ultratovush yoki mikroto‘lqinli aktivatsiya yordamida ham benzillanish reaksiyasining samaradorligi oshiriladi. Biroq, bu metodikalar har doim ham yuqori selektivlik va hosil bo‘lgan mahsulotlarning tozaligi bilan ajralib turmaydi. Shuningdek, reaksiya sharoitlarining molekulyar tuzilma, substituentlar tabiatiga va ularning joylashuviga bog‘liqligi hali to‘liq o‘rganilmagan[22].

Mazkur ishda xinazolin-4-onning benzillanish reaksiyalari turli sharoitlarda (harorat, erituvchi, katalizator turi va miqdori) o‘rganildi. Sintez qilingan hosilalarning tuzilmalari infraqizil (IQ) spektroskopiya, yadroviy magnit rezonans (NMR) spektroskopiya yordamida tasdiqlandi. Olingan natijalar asosida reaksiyaning optimal sharoitlari aniqlanib, hosilalarning biologik faollik istiqbollari dastlabki bosqichda baholandi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, xinazolin-4-on derivativlarining yangi qatori sintez qilinib, ularning farmatsevtika va agrokimyo sanoatida qo‘llanish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Yangi benzillangan xinazolin-4-onlar o‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi, patogenlarga qarshi kurashuvchi yoki yangi antitumor agentlari sifatida foydalanish uchun istiqbolli ob’ektlar hisoblanadi. Bundan tashqari, hosilalarning kimyoviy xossalarini chuqur o‘rganish kelajakdagi molekulyar dizayn ishlariga asos yaratadi. Shu tariqa, ushbu maqolada xinazolin-4-on molekulasining benzillanish reaktsiyalarini chuqur o‘rganish, reaktsiya mexanizmlarini aniqlash, sintez qilingan mahsulotlarning tuzilmasini tahlil qilish va ularning amaliy imkoniyatlarini aniqlash maqsad qilingan. Olingan natijalar esa yangi bioaktiv moddalar ishlab chiqish va sanoat kimyosida qo‘llash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Materiallar va usullar

Tadqiqot ishida xinazolin-4-on va uning hosilalarini benzillash uchun zarur bo‘lgan barcha boshlang‘ich moddalar va reagentlar yuqori tozalikdagi, analitik darajadagi mahsulotlar

sifatida ishlatildi. Benzilxlorid, benzilbromid, natriy gidrid (NaH), kaliy karbonat (K_2CO_3), dimetilformamid (DMFA), dimetilsulfoksid (DMSO) va atseton erituvchilari tajribalarda asosiy reagentlar sifatida qo‘llanildi. Erituvchilar tajriba boshlanishidan oldin oldindan suvsizlantirildi va inert atmosfera sharoitida (azot yoki argon gaz ostida) saqlab turildi. Ish jarayonida infraqizil (IQ) spektroskop, yadro magnit rezonans (YaMR) spektrometri, laboratoriya mikrosintez o‘choqlari, suv hammomi va magnitli aralashtirgichlardan foydalanildi.

Xinazolin-4-onning benzillanish reaksiyasi umumiy metod asosida olib borildi. Dastlab xinazolin-4-on natriy gidrid yoki kaliy karbonat ishtirokida inert atmosfera ostida DMFA yoki DMSO erituvchisida aralashtirildi. Reaksion muhitning harorati 0–5°C oralig‘ida ushlab turildi. So‘ngra aralashmaga benzilxlorid yoki benzilbromid sekin-asta qo‘shildi. Hosil bo‘lgan reaksion aralashma magnit aralashtirgich yordamida 2–4 soat davomida erituvchlar qaynash haroratida qizdirildi. Reaksiya yakunlangach, aralashma sovitildi va muzli suvga quyildi. Cho‘kma shakllangan mahsulot vakuum filtr yordamida yig‘ib olindi va sovuq etanol bilan yuvildi. Olingan birikmalar qayta kristallash orqali tozalandi, kristallash uchun metanol yoki etanol erituvchilari ishlatildi. Sintez qilingan hosilalar infraqizil spektroskopiya (IR), yadroviy magnit rezonans (^{1}H-YaMR va ^{13}C-YaMR) va massa-spektrometriya (MS) metodlari yordamida identifikatsiya qilindi va ularning strukturasi tasdiqlandi.

Reaksiya sharoitlarini optimallashtirish maqsadida turli tajribalar o‘tkazildi. Bunda erituvchi turi (DMFA, DMSO, atseton), asos turi (NaH, NaOH, KOH), benzillovchi reagent turi (benzilxlorid, benzilbromid), harorat (25°C dan 70°C gacha) va reaksion vaqt (1 soatdan 6 soatgacha) kabi omillar o‘rganildi. Tajribalar natijasida aniqlanganki, DMFA erituvchisi va NaH asosi ishtirokida 50–60 °C haroratda, 3–4 soat davom etgan reaksiyalar eng yuqori rentabellik ko‘rsatdi. Hosil bo‘lgan mahsulotlarning chiqish darajasi 70–90% oralig‘ida bo‘ldi.

Benzillangan hosilalarning fizik-kimyoviy xossalari IQ spektroskopiyada karbonil guruhi (C=O) va benzil guruhi uchun xos so‘rilish chiziqlari yordamida, ^{1}H-YaMR va ^{13}C-YaMR spektrlari orqali proton va uglerod yadrolarining kimyoviy siljishlari asosida tasdiqlandi.. Bundan tashqari, har bir mahsulot uchun erish harorati o‘lchandi va adabiyot ma’lumotlari bilan taqqoslandi.

Tadqiqot davomida har bir reaksion tajriba kamida uch marta takrorlandi. Olingan natijalar o‘rtacha qiymatlar sifatida qayd etildi. Xatolik darajasi har bir tajriba uchun 2–3% oralig‘ida saqlandi. Sintez qilingan mahsulotlarning sof holatda ajralib olinishi va to‘g‘ri tuzilma aniqlanishi uchun yuqoridagi metodlarga alohida e’tibor qaratildi. Natijada, yuqori sifatli benzillangan xinazolin-4-on hosilalari sintez qilinib, ularning strukturalari to‘liq o‘rganildi.

Muhokamalar

Xinazolin-4-onning benzillanish reaksiyalari turli erituvchi sharoitlarida olib borildi va bu orqali erituvchining qutbliligi, protik yoki aprotik tabiatga egaligi hamda erituvchida moddaning eruvchanligi reaksiyaning samaradorligi va mahsulot hosil bo‘lishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganildi. Xinazolin-4-on (1 mmol) benzilbromid (1,2 mmol) bilan asos (kaliy

karbonat yoki natriy gidroksid) ishtirokida reaksiyaga kiritildi. Bu sharoitda benzil guruhining xinazolin-4-on molekulasi skeletiga nukleofil almashinish yo‘li bilan birikishi ta'minlandi.

Reaksiyalar turli xil erituvchilarda olib borildi: qutbli protik erituvchilar (masalan, etanol, suv), qutbli aprotik erituvchilar (masalan, atseton, dimetilsulfoksid) hamda qutbsiz erituvchilar (masalan, toluol, dixlorometan). Har bir reaksion aralashma erituvchining qaynash haroratiga qarab xona haroratida yoki qizdirilgan holda magnitli aralashtirgichda aralashtirildi. Reaksiya borishini nazorat qilish uchun muntazam ravishda yupqa qatlam xromatografiyasi (TLC) usulidan foydalanildi.

Reaksiya tugallangach, hosil bo‘lgan mahsulotlar filtrlash yoki ekstraksiyalash yo‘li bilan ajratib olindi. Tozalash ishlari ustun xromatografiyasi yordamida amalga oshirildi, bu esa yakuniy mahsulotlarning toza holda olinishini ta'minladi. Reaksiyalar natijalariga ko‘ra, erituvchining tabiati va reaksion sharoitlar mahsulot rentabelligiga va reaksiyaning davom etish tezligiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi.



Xinazolin-4-on ambident birikma hisoblanadi, ya'ni u o‘z tarkibida bir nechta reaktiv markazlarga ega bo‘lib, ular almashinish yoki qo‘shilish reaksiyalarida ishtirok etishi va natijada turli xil mahsulotlar hosil qilishi mumkin. Uning bunday ambident xossaga ega bo‘lishi xinazolin-4-on molekula tuzilmasida joylashgan funksional guruhlar mavjudligi bilan izohlanadi. Bu funksional guruhlar moddaning turli xil kimyoviy reaksiyalarda faol qatnashishiga imkon beradi.

Xinazolin-4-onning eng muhim ambident xatti-harakati xinazolin halqasining 1- va 3-pozitsiyalarida joylashgan azot atomlari orqali kuzatiladi. Halqaning 1-pozitsiyasidagi azot atomi nukleofil xususiyatga ega bo‘lib, elektrofil reagentlar bilan reaksiyaga kirishishi mumkin. 3-pozitsiyadagi azot atomi esa erkin elektron juftiga ega bo‘lib, u ham nukleofil reaksiyalarda ishtirok etishga qodir. Ushbu ikkita reaktiv markaz molekulaning turli sharoitlarda — xususan, reagentlar yoki erituvchilarning tanlanishiga qarab — turli yo‘llar bilan reaksiyaga kirishishiga olib keladi.



Eksperimental qism

100 ml hajmli dumaloq tubli kolbaga 1,37 g (0,01 mol) xinazolin-4-on, 30 ml etanol va 0,672 g (0,012 mol) kaliy gidroksid (KOH) solindi. Aralashma komponentlar to‘liq erimaguncha biroz qizdirilib, aralashtirildi. Reaksion aralashma sovutilgandan so‘ng, unga 2,16 ml (2,74 g, zichligi 1,27 g/ml) (0,02 mol) benzilbromid qo‘shildi. Keyin reaksiya dimetilformamid (DMFA) erituvchisida 102°C haroratda 4 soat davomida qizdirilib olib borildi.

Reaksiya tugagach va aralashma sovutilgach, unga 30 ml 5% li natriy gidroksid (NaOH) suvli eritmasi va 60 ml xlorofrom qo‘shildi. Mahsulotni ajratib olish uchun aralashma yaxshilab aralashtirildi. Xlorofrom qatlami ajratib olindi va xlorofrom erituvchisi bug‘latib chiqarildi. Hosil bo‘lgan xom mahsulot esa tozalash uchun qayta kristallash yo‘li bilan tozalandi. ^{1}H YaMR spectr (400 MHz, CD_3OD, δ, ppm, *J*/Hz): 8.35 (1H, s, H-2), 8.17 (1H, dd, *J*=8.0, 1.6, H-5), 7.76 (1H, ddd, *J*=8.3, 7.2, 1.6, H-7), 7.62 (1H, ddd, *J*=8.2, 1.1, H-8), 7.49 (1H, ddd, *J*=8.2, 7.1, 1.2, H-6), 7.32 (2H, m, H-2`,6`), 7.28 (2H, m, H-3`,5`), 7.22 (1H, m, H-4`), 5.19 (2H, br. s, H-7`). ^{13}C YaMR spectr (100 MHz, CD_3OD, δ, ppm): 148.99 (C-2), 162.58 (C-4), 123.02 (C-4a), 129.17 (C-5), 127.98 (C-6), 135.87 (C-7), 128.74 (C-8), 148.99 (C-8a), 137.63 (C-1`), 129.93 (C-2`), 128.94 (C-3`), 127.53 (C-4`), 128.94 (C-5`), 129.93 (C-6`), 50.68 (C-7`).

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, quinazolin-4-onning turli xil kimyoviy reaksiyalarda ishtirok etishi mumkin bo'lgan ikkita reaktiv markazni o'z ichiga olgan tabiati uni juda reaktiv va ko'p qirrali molekulaga aylantiradi. Ushbu ishda xinazolin-4-onning benzillanish reaksiyalari turli sharoitlarda o‘rganildi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, xinazolin-4-on molekulasidagi 1- va 3-pozitsiyalardagi azot atomlari reaksiyaga kirishishga layoqatli bo‘lib, ularning faolligi reaksion sharoitlarga, ayniqsa erituvchi tabiati va asos ishtirokiga bevosita bog‘liqdir.

Reaksiyalar natijasida benzil guruhining xinazolin-4-on skeletiga samarali birikishi kuzatildi. Ayniqsa, polar aprotik erituvchilar (masalan, dimetilformamid) va kuchli asoslarning (masalan, KOH) ishtirokida yuqori hosildorlikka erishildi. Optimal sharoit sifatida 102°C haroratda DMFA muhitida, KOH mavjudligida olib borilgan reaksiyalar eng yaxshi natija berdi. Hosil bo‘lgan mahsulotlar qayta kristallash va ustun xromatografiyasi yordamida tozalandi, ularning tuzilishi esa ^{1}H NMR spektral tahlili orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotlar natijasida xinazolin-4-onning benzillanish reaksiyalari uchun optimal sharoitlar aniqlandi va bu reaksiyaning mexanizmi, shuningdek, erituvchi va asos tanlashning muhimligi ilmiy asosda tasdiqlandi. Olingan natijalar xinazolin derivativlarining kelgusidagi sintezi va ularning farmakologik faoliyatini o‘rganishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

45. Elmuradov, B., Saitkulov, F., Mirvaliev, Z., Ibragimov, A., Karimov, S., & Karimov, B. (2025, February). Synthesis of urea derivatives based on toluyl isocyanate. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3268, No. 1). AIP Publishing.

46. Saitkulov, F., Zakhidov, Q., Khaydarov, G., Sabirova, D., Ergasheva, H., Mirvaliev, Z., & Usnatdinova, S. (2025, February). Methods for the synthesis of 2-phenylquinazolin-4-one

and studying methylation reactions in different solvents. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3268, No. 1). AIP Publishing.
47. Ashurova Z. B., Khaydarov G. Sh., Saitkulov F. E., Giyasov K. (2024). Determination of Certain Heavy Metals in Food Composition by Voltammetric Method. Austrian Journal of Technical and Natural Sciences 2024, No 3 – 4. https://doi.org/10.29013/AJT-24-11.12-47-51
48. Saitkulov F.E., Qayumova F. Synthesis of coordination compounds based on cobalt(ii) salts and quinazolin-4-ONE and the study of their biological activity // Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2025. 2(128). URL: https://7universum.com/ru/nature/archive/item/19240
49. Akhmedova, N., Elmuradov, B., & Saitkulov, F. (2024). Optimal synthesis methods and biological activity study of 2-(4-nitrophenil) quinazolin-4-one. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *4*(12), 1192-1200.
50. Shoyimovich, K. G., Orinbaevna, B. G., & Ergashevich, S. F. (2024). Synthesis and study of biological activity of coordination compounds based on copper (ii) nitrate and quinazolin-4-one. *Austrian Journal of Technical & Natural Sciences*.
51. Shoyimovich, K. G., Ergashevich, S. F., & Kuchkar, G. (2024). Determination of certain heavy metals in food composition by voltammetric method. *Austrian Journal of Technical & Natural Sciences*.
52. Abduxakimovich, Z. F., Ergashevich, S. F., Jurayevich, E. B., & Xurramovich, A. R. (2024). Study of benzylation reactions of quinazolin-4-one in the presence of various solvents. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*, 52.
53. Bekboyevich, O. O., Ergashevich, S. F., Zoxidovich, M. Z., & Orinaevna, B. G. (2024). Investigation of aromatic properties of xinazolin-4-one. *Austrian Journal of Technical & Natural Sciences*.
54. Juraevich, E. C., Ergashevich, S. F., Kuchkar, G., & Kilichovna, M. N. (2024). Convenient synthesis of 2-methylquinazolin-4-thione based on anthranyl acid. austrian journal of technical and natural sciences, 26.
55. Saitkulov, F., Sapaev, B., Nasimov, K., Kurbanova, D., & Tursunova, N. (2023). Structure, aromatic properties and preparation of the quinazolin-4-one molecule. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 389, p. 03075). EDP Sciences.
56. Саиткулов, Ф. Э., Элмурадов, Б. Ж., & Гиясов, К. (2023). Алкилирования хиназолин-4-она «мягким» и «жестким» алкилирующими агентами. *Universum: химия и биология*, (1-2 (103)), 53-56.
57. Baymuratova, G., Nasimov, K., & Saitkulov, F. (2023). Synthesis of 6-benzylaminopurine and the study of biological active properties of cotton C-6424 plants. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 389, p. 03032). EDP Sciences.
58. Saitkulov, F. E., & Elmuradov, B. (2024). Zh., Sapaev B. Syntheses and biological activity of quyinazolin-4-one hydrochloride. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*, (1-2), 28-35.

59. Sapayev, B., Saitkulov, F. E., Normurodov, O. U., Haydarov, G., & Ergashyev, B. (2023). Studying Complex Compounds of Cobalt (II)-Chlooride Gecsacrystolohydrate with Acetamide and Making Refractory Fabrics from Them.
60. Saitkulov, F., Qilichyeva, N., Abdullayev, B., Anvarov, A., & Ergasheva, M. (2022). Titrimetric analysis of calcium cation in" megaton" variety of cabbage. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, *2*(10), 134-135.
61. Саиткулов, Ф. Э., Гиясов, К., & Элмурадов, Б. Ж. (2022). Метилирование 2-метилхиназолин-4-она «мягкими» и «жесткими» метилирующими агентами. *Universum: химия и биология*, (11-2 (101)), 49-51.
62. Boymuratova, G. O., Saitkulov, F. E., Nasimov, K. M., & Tugalov, M. (2022). To Examine the Processes of Biochemical Action Of 6-Benzylaminopurine with Cobalt-II Nitrate Dihydrate on the “Morus Alba” Variety of Moraceae Plant. *Eurasian Journal of Physics, Chemistry and Mathematics*, *3*, 39-42.
63. Saitkulov, F., Begimqulov, I., O‘ralova, N., Gulimmatova, R., & Rahmonqulova, D. (2022). Biochemical effects of the coordination compound of cobalt-II nitrate quinazolin-4-one with 3-indolyl acetic acid in the “amber” plants grades phaseolus aureus. *Академические исследования в современной науке*, *1*(17), 263-267.
64. Saitkulov, F., Ibragimov, B. R., Allaqulova, M., Umarov, S., & Xolmatova, M. (2022). The role in the plant and the functions of nutrients. *Инновационные исследования в науке*, *1*(16), 29-31.
65. Saitkulov, F., Elmuradov, B., O’lmasova, K., & Alijonova, A. (2023). preparation of a mixed coordination compound cobalt-ii nitrate hexahydrate with quinazoline-4-one and 3-indolylacetic acid on “amber” plants of the phaseolus aureus variety. *Science and innovation in the education system*, *2*(1), 81-87.
66. Sapaev, B., Saitkulov, F. E., Abdinazarov, A. B., Nasimov, K. M., & Isoqjonova, M. (2023). Kobalt (II)-synthesis of the coordination compound formed by quinazolin-4-on and indole fatty acids of nitrate dihydrate and study of the processes of influence on the varieties of cotton “Buxara-102”,“Namangan-77”,“Sultan”,“Unkurgan-1”,“C-6524”. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 452, p. 01033). EDP Sciences.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

BENZOPIRIMIDIN-4-ON VA ULARNING 3-H O‘RINBOSARLANGAN HOSILALARINING SINTEZI

Zulpanov Fazliddin Abduxakimovich[1], Saitkulov Foziljon Ergashevich[2], Elmuradov Burxon Jurayevich[1], Oxunov Isroiljon Islomovich[3], Zaxidov Qosim Akilovich[4], Samiyev Rajab Akbarovich[4]

[1]S.Yunusov nomidagi O‘simlik moddalari kimyosi instituti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

[2]Toshkent davlat agrar universiteti

[2]Qoqon davlat universiteti

[4]Samarqand davlat universiteti

E-mail: fsaitkulov@bk.ru

Annotatsiya: Benzopirimidin-4-on va uning 3-H o‘rinbosarlangan hosilalarining sintezi farmatsevtik kimyoda muhim yo‘nalishlardan biridir. Ushbu ishda 2-aminobenzokislotalar va karbonil birikmalarning kondensatsiya reaktsiyalari orqali benzopirimidin-4-on asosiy tuzilmasi sintez qilindi. 3-holatda alkil, atsill va aromatik guruhlar bilan o‘rinbosarlash orqali yangi hosilalar olindi. Reaksiyalar turli erituvchilar va katalizatorlar ishtirokida olib borildi hamda optimal sharoitlar aniqlab berildi. Sintez qilingan birikmalar fizik-kimyoviy usullar yordamida tavsiflandi va ularning biologik faolligi uchun istiqbolli namuna sifatida ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalari benzopirimidin hosilalarining antibakterial va antitumor xossalarini yanada rivojlantirish imkoniyatini ko‘rsatdi. Kelgusida sintez usullarini yanada takomillashtirish va yangi derivativlarni olish uchun sharoitlar o‘rganilishi rejalashtirilmoqda.

Kalit so‘zlar: Benzopirimidin-4-on, xinazolin-4-on, 3-H o‘rinbosarlanish, sintez usullari, 2-aminobenzokislota, biologik faollik, kondensatsiya, alkillash, atsillash, aromatik hosilalar.

Annotation: The synthesis of benzopyrimidin-4-one and its 3-H substituted derivatives is an important direction in pharmaceutical chemistry. In this study, the benzopyrimidin-4-one core structure was synthesized through condensation reactions of 2-aminobenzoic acids with carbonyl compounds. New derivatives were obtained by introducing alkyl, acyl, and aromatic groups at the 3-position. The reactions were carried out under various solvents and catalysts, and the optimal conditions were determined. The synthesized compounds were characterized using physicochemical methods and considered as promising candidates for biological activity evaluation. The results demonstrated that benzopyrimidin derivatives have potential antibacterial and antitumor properties. Future studies are planned to further optimize the synthesis methods and to obtain new derivatives with enhanced biological effects. The

synthesized 3-H substituted benzopyrimidin-4-ones thus represent valuable structures for the development of novel bioactive agents.
Keywords: Benzopyrimidin-4-one, quinazolin-4-one, 3-H substitution, synthesis methods, 2-aminobenzoic acid, biological activity, condensation reaction, alkylation, acylation, aromatic derivatives.

Kirish

Hozirgi zamon farmatsevtika va biologik kimyo fanlarida azot saqlovchi geterotsiklik birikmalarning o‘rganilishi keng ko‘lamda olib borilmoqda. Ular orasida benzopirimidin-4-on va uning hosilalari alohida o‘ringa ega, chunki bu sinf birikmalar ko‘plab biologik faol xususiyatlarga ega: antibakterial, antivirus, antifungal, antiinflamator va boshqa farmakologik samaralar ko‘rsatishi aniqlangan. Shuning uchun ham, ularning yangi hosilalarini yaratish va biologik faolligini o‘rganish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi[1-10].

Benzopirimidin-4-on molekulasining strukturasi uning kimyoviy faolligini belgilovchi asosiy omil bo‘lib, ayniqsa 3-holatdagi vodorod atomi yuqori reaktivlikka ega. Shu tufayli, 3-H pozitsiyada turli xil o‘rinbosarlarning kiritilishi orqali keng spektrli yangi hosilalar olish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Bunday modifikatsiyalar olingan birikmalarning fizik-kimyoviy va biologik xossalarini tubdan o‘zgartirishi, ularning farmatsevtik qo‘llanilish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin[11-22].

Benzopirimidin-4-onlarni sintez qilish uchun odatda 2-aminobenzokislotalar yoki 2-aminobenzamidlarning karbonil birikmalar bilan kondensatsiyasi, shuningdek, boshqa geterotsiklik oraliq mahsulotlarning siklizatsiya reaksiyalari qo‘llaniladi. Ushbu reaksiya yo‘llari orqali asosiy benzopirimidin-4-on yadrosi shakllantiriladi. Hosil bo‘lgan asosiy strukturani esa keyingi bosqichlarda alkil, atsill yoki aromatik guruhlar bilan o‘rinbosarlash orqali turli xil derivativlar sintez qilish mumkin.

Sintez sharoitlari (reaksiya harorati, erituvchi turi, katalizatorlar va vaqt) natijaviy mahsulotning chiqimiga va tozaligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘rinbosarlash reaksiyalarida reaktivlarning turi va nisbatlari, sharoitlarning aniqligi mahsulotlarning hosil bo‘lish selektivligi va samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun sintez jarayonini optimallashtirish va maksimal natijaga erishish uchun tajribaviy sharoitlar diqqat bilan tanlanadi.

So‘nggi yillarda benzopirimidin-4-on va uning hosilalari asosida ko‘plab farmatsevtik preparatlar ishlab chiqilgan. Masalan, xinazolin-4-on asosida olingan birikmalar o‘simta hujayralariga qarshi kurashuvchi agentlar, antidiabetik vositalar va immunosupressiv dori vositalari sifatida amaliyotga joriy etilgan. Shu bilan birga, ularning molekulyar o‘zgarishlari orqali yangi avlod bioaktiv molekulalar yaratish istiqbollari ochilmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – 2-aminobenzokislotalar va karbonil birikmalardan foydalangan holda benzopirimidin-4-on yadrosini sintez qilish va 3-holatda alkil, atsill hamda aromatik o‘rinbosarlar bilan o‘zgartirish orqali yangi hosilalar olishdir. Bundan tashqari, sintez

qilingan birikmalarning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash, ularning strukturaviy o‘ziga xosliklarini tekshirish va kelgusida biologik faolliklarini baholash uchun dastlabki ilmiy asos yaratish ham ko‘zda tutilgan.

Mazkur ish natijalari, nafaqat fundamental kimyo bilimini boyitish, balki yangi biologik faol moddalar ishlab chiqishda ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Olingan hosilalar kelgusida antibakterial, antitumor va boshqa biofaol xossalarni aniqlash maqsadida eksperimental sinovlarga jalb qilinishi rejalashtirilgan.

Usullar va natijalar

Benzopirimidin-4-onlarning bikiklik tuzilishga ega hosilalari nazariy va amaliy nuqtayi nazardan katta qiziqish uyg‘otadi. Benzopirimidin-4-onlar hosilalari orasidan tibbiyot va qishloq xo‘jaligida turli zararli mikroorganizmlarga qarshi kurashishda qo‘llaniladigan biologik faol birikmalar aniqlangan. Shu sababli, ushbu sinfga mansub yangi potensial biologik faol birikmalarni samarali usulda sintez qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Shu maqsadda olib borilgan tadqiqotlarimizda biz o-aminobenzokislota va formamid ishtirokida geterosiklizatsiya reaksiyasining qulay va samarali usullarini aniqladik. Bundan tashqari, benzopirimidin-4-on (1) molekulasining 3-holatida elektrofil o‘rinbosarlarning almashinuvi reaksiyalari orqali yangi alkil hosilalarini sintez qilishni va hosil bo‘lgan alkil birikmalarining gomalogik qatoridagi muntazamliklarni o‘rganishni maqsad qilib oldik.

Birinchi bosqichda, o-aminobenzokislota va formamid aralashmasini qizdirish natijasida benzopirimidin-4-on (1) sintez qilindi. Reaksiya davomida ikki molekula suv ajralib chiqdi va natijada yuqori (98%) chiqimli asosiy mahsulot olindi. Ushbu sintez jarayoni oddiy va samarali bo‘lib, benzopirimidin yadrosining keyingi modifikatsiyasi uchun tayyor substrat vazifasini bajaradi.

Keyingi bosqichda, benzopirimidin-4-onning 3-holatida turli xil alkil guruhlar kiritildi. Buning uchun benzopirimidin-4-on (1) alkilgalogenidlar bilan reaksiyaga kiritildi. Reaksiyalar yog‘li hammomda 70–80°C haroratda olib borildi. Ushbu jarayonda turli xil alkilgalogenidlarning (2–9) gomolog qatorlari ishtirok etdi.

Reaksiya sharoitlari tanlashda alkilgalogenidlarning reaktivligi va hajmi hisobga olindi. Umuman olganda, kichik hajmli alkilgalogenidlar (masalan, metil yoki etil bromid) yuqori reaktivlik ko‘rsatdi va reaksiyalar qisqa vaqt ichida yakunlandi. Katta hajmli alkil zanjirga ega birikmalar (masalan, butil, pentil va hexil hosilalari) bilan reaksiyalar esa nisbatan ko‘proq vaqt va biroz yuqoriroq harorat talab qildi.

Olingan alkil hosilalar tozalanib, fizik-kimyoviy usullar orqali tavsiflandi. Xususan, ular erish harorati, infraqizil (IQ) spektroskopiya, yadro magnit rezonansi (YaMR) va elementar tahlil yordamida tekshirildi. Har bir hosilaning strukturasi eksperimental ma’lumotlar asosida tasdiqlandi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, benzopirimidin-4-onning 3-holatida alkil guruhlarning o‘rinbosarlanishi reaksiyasi yuqori selektivlik bilan kechadi. Alkil zanjir uzunligining ortishi

bilan reaksion faollik ozroq kamaydi, ammo hosilalarning umumiy chiqimi qoniqarli darajada saqlanib qoldi (85–92% oraliqda).

Shuningdek, gomalogik qatorda alkil zanjir uzunligining oshishi mahsulotlarning fizik-kimyoviy xossalariga ham ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, molekulyar massaning ortishi bilan hosilalarning erish harorati asta-sekin pasayishi kuzatildi. Bu esa ularning kristall strukturasidagi o‘zgarishlar va molekulyar o‘zaro ta’sir kuchlarining farqiga bog‘liq bo‘lishi mumkin.



a) Metil iodid, b) Etil bromid, c) Propil bromid, d) Butil bromid, e) Izobutil bromid, f) Amil xlorid, g) geptil xlorid, h) Dodesil bromid.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqotlar natijasida benzopirimidin-4-onning 3-holatida yangi alkil o‘rinbosarlangan hosilalar sintez qilindi va ularning strukturasi hamda xossalari batafsil o‘rganildi. Ushbu natijalar, kelgusida biologik faollik testlari o‘tkazish va farmatsevtik jihatdan istiqbolli yangi modellar yaratish uchun asos yaratadi.

Jadval 1. 3-alkilbenzopirimidin-4-onlar (1–9) ning IQ-spektrasi (ν, sm^{-1})

№	C-N	C-H	CH_2	C=O	C=N
1	3129	2980	–	2996	1603
2	3067	2989	2971	1649	1612
3	3067	2964	2990	1653	1598
4	3044	2968	2947	1699	1606
5	3067	2877	2936	1666	1607
6	3043	2971	2948	1698	1609
7	3054	2965	2950	1655	1608
8	3054	2966	2926	1655	1509
9	3052	2931	2921	1656	1508

Muhokamalar

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida benzopirimidin-4-onning 3-holatida turli xil alkil guruhlarning o‘rnini bosishi orqali yangi hosilalar sintez qilindi. Ushbu reaksiyalar yuqori

selektivlik va yaxshi hosildorlik bilan kechdi. IR-spektral tahlillar orqali har bir sintez qilingan birikmaning tuzilishi tasdiqlandi. Xususan, barcha birikmalar uchun 1690–1710 sm^{-1} oraliqda karbonil guruhining (C=O) stretching tebranishlari aniqlangan bo‘lib, bu benzopirimidin-4-on yadrosining saqlanganligini ko‘rsatadi.

N-H stretching tebranishlari esa 3165–3220 sm^{-1} oralig‘ida qayd etildi va bu molekulada aminoguruhning mavjudligini tasdiqlaydi. C–N stretching tebranishlar esa 1342–1365 sm^{-1} atrofida kuzatildi. Bundan tashqari, alkil guruhlarga xos C–H stretching tebranishlari 2835–2960 sm^{-1} oraliqda aniqlangan bo‘lib, 3-holatdagi alkil guruhlar kiritilganini ko‘rsatadi.

Muhokama davomida g‘amologik qatordagi alkil guruhlar uzunligining ortishi mahsulotlarning fizik-kimyoviy xossalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Masalan, molekulyar massaning ortishi bilan bir qatorda, erish harorati pasayish tendensiyasi kuzatildi. Bu esa molekulalar orasidagi kristall panjarani ushlab turuvchi kuchlarning kamayishi bilan izohlanadi.

Reaksiyalarni optimal haroratda olib borish alkilgalogenidlarning reaktivligiga bog‘liq bo‘ldi. Metil iodid va etil bromid bilan reaksiyalar tez va yuqori hosildorlikda kechgan bo‘lsa, dodesil bromid kabi katta alkil zanjirli birikmalar bilan reaksiyalar uzoqroq vaqt talab etdi. Shuningdek, hosilalarning tozalanishi uchun kerak bo‘ladigan kristallanish va ekstraksiya jarayonlari alkil zanjir uzunligiga qarab farq qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 3-holatdagi alkil hosilalari sintezi benzopirimidin-4-onlar uchun strukturaviy modifikatsiya qilish imkonini beradi. Bu modifikatsiyalar biologik faollikni o‘rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Keyingi bosqichda ushbu birikmalarning antimikrob, antifungal yoki o‘sish stimulyatori sifatidagi biologik faolligi baholanishi rejalashtirilmoqda.

Tajribaviy qism

O-aminobenzoy kislotadan 1,37 g (0,01 mol) va formamid 6,37 ml (0,04 mol, 7,2 g; zichligi 1,13 g/sm^3) 100 ml hajmli dumaloq tubli kolbaga solindi. Aralashma 150–155 °C haroratda moy hammomida 2–2,5 soat davomida teskari sovitkich ostida qizdirildi. Reaksiya yakunlangach, hosil bo‘lgan modda suvda (H_2O) kristallantirildi. Natijada 1,43 g (98%) miqdorda 1-moddadan olingan.

1H YaMR (400 MGz, DMSO-d6, ppm, δ, J/Hz) δ 12.10 (1H, s, NH), 8.12 (1H, dd, J = 8.0, 1.6, Gz, H-5), 7.95 (1H, s, H-2), 7.72 (1H, br t, J = 7.5 Hz, H-7), 7.61 (1H, br d, J = 7.5 Hz,H-8), 7.44 (1H, br t, J = 8.0 Hz, H-6).13C YaMR, (101 MHz, DMSO-D6) δ 161.19 (C-4), 149.37 (C-4a), 145.29 (C-2), 134.00 (C-7), 127.59 (C-5), 126.56 (C-6), 126.34(C-8), 123.43 (C-8a).

3-Metilbenzopirimidin-4-on (2) sintezi

1,46 g (0,01 mol) quinazolin-4-on, 30 ml etil spirt (C_2H_5OH) va 0,616 g (0,011 mol) KOH 100 ml hajmli dumaloq tubli kolbaga solindi va ozgina aralashtirib qaynatildi. Reaksiya aralashmasi sovitildi, keyin 3,74 ml (0,03 mol) metil iodid (CH_3I) (4,26 g, zichligi = 2,28 g/ml) qo‘shildi va 75–80 °C haroratda 8 soat davomida qizdirildi. Reaksiya yakunlangach, aralashma

sovitildi va unga 40 ml 5% NaOH suyuqligi qo‘shildi. So‘ngra, 80 ml xlorofrom qo‘shilib, 5–10 daqiqa davomida aralashtirildi. Xlorofrom qatlami separatsion kolba yordamida ajratildi. Xlorofrom bug‘latilib, hosil bo‘lgan modda etil spirtida (C_2H_5OH) faollashtirilgan uglerod bilan filtrlash orqali tozalandi va suyuqlik qoldig‘i bug‘latilib, kristallantirildi. 1H YaMR (400MHz, CD3OD, ppm. δ, J/Hz): 8.00 (1H, ddd, J=8.1, 1.6, 0.6, H-5), 7.67 (1H, ddd, J=8.5, 7.1, 1.5, H-7), 7.44 (1H, ddd, J=8.2, 1.2, 0.6, H-8), 7.37 (1H, ddd, J=8.2, 7.1, 1.2, H-6), 3.50 (3H, s, 1`), 2.52 (3H, s, H-9). 13C YaMR (100 MHz, CD3OD, δ, ppm.): 157.51 (C-2), 163.62 (C-4), 120.82 (C-4a), 127.61 (C-5), 126.85 (C-6), 135.56 (C-7), 127.41 (C-8), 148.01 (C-8a), 31.50 (C-1`).

3-Etilbenzopirimidin-4-on (3) sintezi

1,46 g (0,01 mol) benzopirimidin-4-on, 30 ml etil spirt (C_2H_5OH) va 0,616 g (0,011 mol) KOH 100 ml hajmli dumaloq tubli kolbaga solindi va ozgina aralashtirildi. Reaksiya aralashmasi sovitildi, keyin 1,94 ml (2,85 g, zichligi = 1,47 g/ml) etil bromid (C_2H_5Br) (0,015 mol) qo‘shildi va 75–80 °C haroratda 7 soat davomida qizdirildi. Reaksiya yakunlangach, aralashma sovitildi va unga 30 ml 5% NaOH suyuqligi qo‘shildi. So‘ngra, 60 ml xlorofrom qo‘shilib, ekstraksiya qilindi. Xlorofrom ekstraksiyasi yakunlangach, hosil bo‘lgan modda etil spirtida kristallantirildi. ^{1}H YaMR (400 MGz, CD3OD, ppm. δ, J/Hz): 8.08 (1H, ddd, J=8.1, 1.5, 0.6, H-5), 7.67 (1H, ddd, J=8.4, 7.1, 1.5, H-7), 7.51 (1H, ddd, J=8.4, 1.1, 0.6, H-8), 7.42 (1H, ddd, J=8.1, 7.1, 1.1, H-6), 4.13 (2H, k, J=7.1, H-1`), 1.30 (2H, t, J=7.2,
H-2`). 13C YaMR (100 MHz, CD3OD, δ, ppm.): 156.87 (C-2), 163.32 (C-4), 121.30 (C-4a), 127.76 (C-5), 126.98 (C-6), 135.67 (C-7), 127.42 (C-8), 148.17 (C-8a), 40.92 (C-1`), 13.78 (C-2`).

3-Propilbenzopirimidin-4-on (4) sintezi

1,46 g (0,01 mol) benzopirimidin-4-on, 30 ml etil spirt (C_2H_5OH) va 0,672 g (0,012 mol) KOH 100 ml hajmli dumaloq tubli kolbaga solindi va ozgina qizdirib aralashtirildi. Reaksiya aralashmasi sovitildi, keyin 1,94 ml (1,83 g, zichligi = 0,89 g/ml) propil xlorid (C_3H_7Cl) (0,02 mol) qo‘shildi va 75–80 °C haroratda 7 soat davomida qizdirildi. Reaksiya yakunlangach, aralashma sovitildi va unga 30 ml 5% NaOH suyuqligi qo‘shildi. So‘ngra, 60 ml xlorofrom qo‘shilib, ekstraksiya qilindi. 1H NMR (400 MHz, CD3OD+CCl 4, ppm. δ, J/Hz): 8.1 (1H, dd, J=8.13, 1.5, 0.6, H-5), 7.7 (1H, ddd, J=8.4, 7.1, 1.5, H-7), 7.5 (1H, dd, J=8.4, 1.1, 0.6, H-8), 7.4 (1H,ddd, J=8.1, 7.1, 1.1, H-6), 4.14 (2H, k, J=7.1, H-1`), 2.42 (2H, t, J=6.9, H-3`). 1.31 (3H, t, J=7.1, H-2`). 13C NMR (100 MHz, CD3OD, δ, ppm.): 156.87 (C-2), 164.33 (C-4), 120.31(C-4a), 126.75 (C-5), 126.98 (C-6), 134.66 (C-7), 127.42 (C-8), 147.17 (C-8a), 39.76 (C-1`), 38.83 (C-2`), 13.72 (C-3`).

3-Butilbenzopirimidin-4-on (5) sintezi

1,46 g (0,01 mol) benzopirimidin-4-on, 30 ml etil spirt (C_2H_5OH) va 0,672 g (0,012 mol) KOH 100 ml hajmli dumaloq tubli kolbaga solindi va ozgina aralashtirildi. Reaksiya aralashmasi sovitildi, keyin 2,16 ml (2,74 g, zichligi = 1,27 g/ml) butil bromid (C_4H_9Br) (0,02 mol) qo‘shildi va 75–80 °C haroratda 8 soat davomida qizdirildi. Reaksiya yakunlangach,

aralashma sovitildi va unga 30 ml 5% NaOH suyuqligi qo‘shildi. So‘ngra, 60 ml xloroform qo‘shilib, ekstraksiya qilindi va xloroform qatlamini ajratib olishdi.

Xloroformdan ajratilgan modda etil spirtida kristallantirildi. 1H YaMR spectr (400 MGs, CD3OD, δ, ppm, J/Hz): 8.32 (1H, s, H-2), 8.23 (1H, ddd, J=8.0, 1.6, 0.6, H-5), 7.82 (1H, ddd, J=8.5, 7.2, 1.6, H-7), 7.68 (1H, ddd, J=8.2, 1.2, 0.6, H-8), 7.55 (1H, ddd, J=8.2, 7.1, 1.2, H-6), 4.06 (2H, m, H-1`), 1.77 (2H, m, H-2`), 1.41 (2H, m, H-3`), 0.99 (3H, t, J=7.4, H-4`).13C YaMR spectr (100 MGs, CD 3OD, δ, ppm): 149.18 (C-2), 162.61 (C-4), 122.98 (C-4a), 127.39 (C-5), 127.87 (C-6), 135.65 (C-7), 128.53 (C-8), 149.10 (C-8a), 47.86 (C-1`), 32.37 (C-2`), 20.87 (C-3`), 14.00 (C-4`).

3-Izo-butilbenzopirimidin-4-on (6) sintezi

1,6 g (0,01 mol) benzopirimidin-4-on, 30 ml etil spirt (C_2H_5OH) va 0,672 g (0,012 mol) KOH 100 ml hajmli dumaloq tubli kolbaga solindi va ozgina aralashtirildi. Reaksiya aralashmasi sovitildi, keyin 2,16 ml (2,74 g, zichligi = 1,27 g/ml) (0,02 mol) butil bromid (C_4H_9Br) qo‘shildi va 75–80°C haroratda 8 soat davomida qizdirildi. Reaksiya yakunlangach, aralashma sovitildi va unga 30 ml 5% NaOH suyuqligi qo‘shildi. So‘ngra, 60 ml xloroform qo‘shilib, ekstraksiya qilindi va xloroform qatlamini ajratib olishdi.

Xloroformdan ajratilgan modda etil spirtida kristallantirildi. 1H YaMR spectr(400 MGs, CD3OD, δ, ppm, J/Hz): 8.22 (1H, s, H-2), 8.13 (1H, ddd, J=8.0, 1.7, 0.6, H-5), 7.83 (1H, ddd, J=8.6, 7.2, 1.6, H-7), 7.66 (1H, ddd, J=8.3, 1.2, 0.6, H-8), 7.57 (1H, ddd, J=8.3, 7.2, 1.2, H-6), 4.08 (2H, m, H-1`), 1.76 (2H, m, H-2`), 1.43
(2H, m, H-3`), 0.97 (3H, t, J=7.4, H-4`).13 C YaMR spectrum (100 MHz, CD 3OD, δ, ppm): 149.18 (C-2), 162.61 (C-4), 122.98 (C-4a), 127.39 (C-5), 127.87 (C-6), 135.65 (C-7), 128.53 (C-8), 149.10 (C-8a), 47.86 (C-1`), 32.37 (C-2`), 20.86 (C-3`), 14.03 (C-4`).

3-Amilbenzopirimidin-4-on (7) sintezi

1,46 g (0,01 mol) benzopirimidin-4-on, 25 ml etil spirt (C_2H_5OH) va 0,72 g (0,013 mol) KOH 100 ml hajmli dumaloq tubli kolbaga solindi va ozgina qizdirildi. Reaksiya aralashmasi sovitildi, keyin 1,45 ml (1,28 g, zichligi = 0,88 g/ml) (0,012 mol) amil xlorid ($C_5H_{11}Cl$) qo‘shildi va 75–80 °C haroratda 9 soat davomida qizdirildi. Reaksiya yakunlangach, aralashma sovitildi va unga 40 ml 5% NaOH suyuqligi qo‘shildi. So‘ngra, 50 ml xloroform qo‘shilib, ekstraksiya qilindi va xloroform qatlamini ajratib olishdi. 1H NMR spectrum (400 MHz, CD3OD, δ, ppm, J/Hz): 8.25 (1H, s, H-2), 8.16 (1H, dd, J=8.0, 1.6, H-5), 7.76 (1H, ddd, J=8.3, 7.2, 1.6, H-7), 7.62 (1H, dd, J=8.2, 1.1, H-8), 7.49 (1H, ddd, J=8.2, 7.1, 1.2, H-6), 3.98 (2H, m, H-1`), 1.72 (2H, m, H-2`), 1.31 (2H, m, H-3`), 1.31 (2H, m, H-4`), 0.86 (3H, t, J=7.0, H-5`). 13C NMR spectrum (100 MHz, CD 3OD, δ, ppm): 149.13 (C-2), 162.59 (C-4), 122.90 (C-4a), 128.55 (C-5), 127.37 (C-6),
135.67 (C-7), 127.83 (C-8), 149.01 (C-8a), 48.10 (C-1`), 29.81 (C-2`), 29.93 (C-3`), 23.30 (C-4`), 14.27 (C-5`).

3-Geptilbenzopirimidin-4-on (8) sintezi

1,46 g (0,01 mol) benzopirimidin-4-on, 30 ml etil spirt (C_2H_5OH) va 0,73 g (0,013 mol) KOH 100 ml hajmli dumaloq tubli kolbaga solindi va ozgina qizdirildi. Reaksiya aralashmasi sovitildi, keyin 1,857 ml (1,615 g, zichligi = 0,87 g/ml) (0,012 mol) geptil xlorid ($C_7H_{15}Cl$) qo‘shildi va 75–80 °C haroratda 9 soat davomida qizdirildi. Reaksiya yakunlangach, aralashma sovitildi va unga 30 ml 5% NaOH suyuqligi qo‘shildi. So‘ngra, 60 ml xlorofrom qo‘shilib, ekstraksiya qilindi.

Xlorofromdan ajratilgan modda etil spirtida kristallantirildi. 1H YaMR spectr (400 MHz, CD3OD, δ, ppm, J/Hz): 8.26 (1H, s, H-2), 8.17 (1H, dd, J=8.1, 1.7, H-5), 7.76 (1H, m, H-7), 7.63 (1H, m, H-8), 7.50 (1H, m, H-6), 3.99 (2H, m, H-1`), 1.72 (2H, m, H-2`), 1.30 (2H, m, H-3`), 1.30 (2H, m, H-4`), 1.23 (2H, m, H-5`), 1.23 (2H, m, H-6`), 0.82 (3H, t, J=6.7, H-7`).13C YaMR spectrum (100 MHz, CD3OD, δ, ppm): 149.16 (C-2), 162.63 (C-4), 122.92 (C-4a), 128.58 (C-5), 127.39 (C-6), 135.70 (C-7), 127.85 (C-8), 149.03 (C-8a), 48.14 (C-1`), 29.96 (C-2`), 27.62 (C-3`), 30.23 (C-4`), 32.82 (C-5`), 23.59 (C-6`), 14.39 (C-7`).

3-Dodecylbenzopirimidin-4-on (9) sintezi

1,46 g (0,01 mol) benzopirimidin-4-on, 30 ml etil spirt (C_2H_5OH) va 0,896 g (0,016 mol) KOH 100 ml hajmli dumaloq tubli kolbaga solindi va ozgina aralashtirildi. Reaksiya aralashmasi sovitildi, so‘ngra unga 2,64 ml (2,74 g, zichligi = 1,04 g/ml) (0,011 mol) dodecyl bromid ($C_{12}H_{25}Br$) qo‘shildi va 75–80 °C haroratda 9 soat davomida qizdirildi.

Reaksiya yakunlangach, aralashma sovitildi, unga 30 ml 5% NaOH suyuqligi qo‘shildi va 70 ml xlorofrom qo‘shilib, ekstraksiya qilindi. Xlorofromdan ajratilgan modda etil spirtida kristallantirildi. 1H YaMR spectrum (600 MHz, CDCl3, δ, ppm,J/Hz): 8.03 (1H, s, H-2), 8.32 (1H, dd, J=8.1,1.4, H-5), 7.76 (1H, ddd, J=8.3, 6.9, 1.5, H-7),7.71 (1H, dd, J=8.2, 1.4, H-8), 7.51 (1H, ddd, J=8.2, 6.8, 1.4, H-6), 4.00 (2H, m, H-1`), 1.78 (2H, m, H-2`), 1.37 (2H, m, H-3`), 1.34 (2H, m, H-5`), 1.28 (2H, m, H-6`), 1.28 (2H, m, H-11`), 1.27 (2H, m, H-9`), 1.26 (2H, m, H-7`), 1.26 (2H, m, H-8`), 1.25 (2H, m, H-4`), 1.25 (2H, m, H-10`), 0.87 (3H, t, J=7.0, H-12`).13C NMR spectrum (150 MHz, CDCl3, δ, ppm): 146.74 (C-2), 161.19 (C-4), 122.32 (C-4a), 126.83 (C-5), 127.33 (C-6), 134.25 (C-7), 127.53 (C-8), 148.26 (C-8a), 47.24 (C-1`), 29.52 (C-2`), 26.80 (C-3`), 29.66 (C-4`), 29.31 (C-5`), 29.45 (C-6`), 29.72 (C-7`), 29.72 (C-8`), 29.57 (C-9`), 32.02 (C-10`), 22.80 (C-11`), 14.25 (C-12`).

Xulosa

Benzopirimidin-4-onning miqdoriy sintezining takomillashtirilgan usuli ishlab chiqildi. Ushbu usulda formamid va o-aminobenzoiy kislota ishtirokida geterotsiklizatsiya reaksiyasi o‘tkazilib, benzopirimidin-4-on birikmasi sintez qilindi. Keyinchalik, olingan benzopirimidin-4-onning 3-alkilbenzopirimidin-4-onlarga aylanishi alkillanish reaksiyalari yordamida amalga oshirildi. Alkillash reaksiyalari turli strukturalarga ega alkilatlash agentlari bilan o‘tkazildi. Natijada, 3-alkilbenzopirimidin-4-onlar muhim sintonlar sifatida olingan va ularni keyingi modifikatsiyalarda qo‘llash imkoniyatlari yaratilgan. Olingan birikmalar struktura jihatidan zamonaviy fizik usullar, xususan YaMR spektroskopiyasi, yordamida tahlil qilindi va

tasdiqlandi. Bu ish o‘zining sifatli sintez jarayoni va yangi modifikatsiyalarni ishlab chiqishdagi imkoniyatlari bilan kimyo sanoatida ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar

67. Elmuradov, B., Saitkulov, F., Mirvaliev, Z., Ibragimov, A., Karimov, S., & Karimov, B. (2025, February). Synthesis of urea derivatives based on toluyl isocyanate. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3268, No. 1). AIP Publishing.

68. Saitkulov, F., Zakhidov, Q., Khaydarov, G., Sabirova, D., Ergasheva, H., Mirvaliev, Z., & Usnatdinova, S. (2025, February). Methods for the synthesis of 2-phenylquinazolin-4-one and studying methylation reactions in different solvents. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3268, No. 1). AIP Publishing.

69. Ashurova Z. B., Khaydarov G. Sh., Saitkulov F. E., Giyasov K. (2024). Determination of Certain Heavy Metals in Food Composition by Voltammetric Method. Austrian Journal of Technical and Natural Sciences 2024, No 3 – 4. https://doi.org/10.29013/AJT-24-11.12-47-51

70. Saitkulov F.E., Qayumova F. Synthesis of coordination compounds based on cobalt(ii) salts and quinazolin-4-ONE and the study of their biological activity // Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2025. 2(128). URL: https://7universum.com/ru/nature/archive/item/19240

71. Akhmedova, N., Elmuradov, B., & Saitkulov, F. (2024). Optimal synthesis methods and biological activity study of 2-(4-nitrophenil) quinazolin-4-one. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *4*(12), 1192-1200.

72. Shoyimovich, K. G., Orinbaevna, B. G., & Ergashevich, S. F. (2024). Synthesis and study of biological activity of coordination compounds based on copper (ii) nitrate and quinazolin-4-one. *Austrian Journal of Technical & Natural Sciences*.

73. Shoyimovich, K. G., Ergashevich, S. F., & Kuchkar, G. (2024). Determination of certain heavy metals in food composition by voltammetric method. *Austrian Journal of Technical & Natural Sciences*.

74. Abduxakimovich, Z. F., Ergashevich, S. F., Jurayevich, E. B., & Xurramovich, A. R. (2024). Study of benzylation reactions of quinazolin-4-one in the presence of various solvents. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*, 52.

75. Bekboyevich, O. O., Ergashevich, S. F., Zoxidovich, M. Z., & Orinaevna, B. G. (2024). Investigation of aromatic properties of xinazolin-4-one. *Austrian Journal of Technical & Natural Sciences*.

76. Juraevich, E. C., Ergashevich, S. F., Kuchkar, G., & Kilichovna, M. N. (2024). Convenient synthesis of 2-methylquinazolin-4-thione based on anthranyl acid. austrian journal of technical and natural sciences, 26.

77. Saitkulov, F., Sapaev, B., Nasimov, K., Kurbanova, D., & Tursunova, N. (2023). Structure, aromatic properties and preparation of the quinazolin-4-one molecule. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 389, p. 03075). EDP Sciences.

78. Саиткулов, Ф. Э., Элмурадов, Б. Ж., & Гиясов, К. (2023). Алкилирования хиназолин-4-она «мягким» и «жестким» алкилирующими агентами. *Universum: химия и биология*, (1-2 (103)), 53-56.
79. Baymuratova, G., Nasimov, K., & Saitkulov, F. (2023). Synthesis of 6-benzylaminopurine and the study of biological active properties of cotton C-6424 plants. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 389, p. 03032). EDP Sciences.
80. Saitkulov, F. E., & Elmuradov, B. (2024). Zh., Sapaev B. Syntheses and biological activity of quyinazolin-4-one hydrochloride. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*, (1-2), 28-35.
81. Sapayev, B., Saitkulov, F. E., Normurodov, O. U., Haydarov, G., & Ergashyev, B. (2023). Studying Complex Compounds of Cobalt (II)-Chlooride Gecsacrystolohydrate with Acetamide and Making Refractory Fabrics from Them.
82. Saitkulov, F., Qilichyeva, N., Abdullayev, B., Anvarov, A., & Ergasheva, M. (2022). Titrimetric analysis of calcium cation in" megaton" variety of cabbage. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, *2*(10), 134-135.
83. Саиткулов, Ф. Э., Гиясов, К., & Элмурадов, Б. Ж. (2022). Метилирование 2-метилхиназолин-4-она «мягкими» и «жесткими» метилирующими агентами. *Universum: химия и биология*, (11-2 (101)), 49-51.
84. Boymuratova, G. O., Saitkulov, F. E., Nasimov, K. M., & Tugalov, M. (2022). To Examine the Processes of Biochemical Action Of 6-Benzylaminopurine with Cobalt-II Nitrate Dihydrate on the “Morus Alba” Variety of Moraceae Plant. *Eurasian Journal of Physics, Chemistry and Mathematics*, *3*, 39-42.
85. Saitkulov, F., Begimqulov, I., O‘ralova, N., Gulimmatova, R., & Rahmonqulova, D. (2022). Biochemical effects of the coordination compound of cobalt-II nitrate quinazolin-4-one with 3-indolyl acetic acid in the “amber” plants grades phaseolus aureus. *Академические исследования в современной науке*, *1*(17), 263-267.
86. Saitkulov, F., Ibragimov, B. R., Allaqulova, M., Umarov, S., & Xolmatova, M. (2022). The role in the plant and the functions of nutrients. *Инновационные исследования в науке*, *1*(16), 29-31.
87. Saitkulov, F., Elmuradov, B., O’lmasova, K., & Alijonova, A. (2023). preparation of a mixed coordination compound cobalt-ii nitrate hexahydrate with quinazoline-4-one and 3-indolylacetic acid on “amber” plants of the phaseolus aureus variety. *Science and innovation in the education system*, *2*(1), 81-87.
88. Sapaev, B., Saitkulov, F. E., Abdinazarov, A. B., Nasimov, K. M., & Isoqjonova, M. (2023). Kobalt (II)-synthesis of the coordination compound formed by quinazolin-4-on and indole fatty acids of nitrate dihydrate and study of the processes of influence on the varieties of cotton “Buxara-102”,“Namangan-77”,“Sultan”,“Unkurgan-1”,“C-6524”. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 452, p. 01033). EDP Sciences.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

УДК: 7642:(666.9.045; 666)

ORCID: 0009-0002-0919-828X

КОЛЛОИДНО-ХИМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ МОДИФИЦИРУЮЩИХ ДОБАВОК С ПОЛУВОДНЫМИ ГИПСОВЫМИ ВЯЖУЩИМИ ЧАСТИЦАМИ

Абылова Амина Жанабаевна

д.ф.т.н. (PhD), Заведующая лабораторией «Химия», Каракалпакского научно-исследовательского института естественных наук Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан, Тел.: + 998977881900 (с),
E-mail: amina.abylova@mail.ru

Аннотация. Статья посвящена исследованию коллоидно-химических механизмов взаимодействия модифицирующих добавок с частицами полуводного гипса (β-$CaSO_4 \cdot 0{,}5H_2O$). Проведен анализ адсорбционно-десорбционных процессов, изменения ζ-потенциала и стабилизации дисперсной системы. Установлено, что поликарбоксилатные суперпластификаторы обеспечивают электростатическую и стерическую стабилизацию, способствуют снижению водопотребности и формированию плотной структуры гипсового камня. Меламиноформальдегидные добавки действуют преимущественно по коагуляционному механизму. Добавление лимонной кислоты эффективно ингибирует кристаллизацию дигидрата за счёт комплексообразования с ионами кальция, удлиняя индукционный период. Полученные результаты позволяют глубже понять процессы структурообразования в гипсовых вяжущих и способствуют разработке материалов с прогнозируемыми физико-механическими свойствами.

Ключевые слова: гипсовые вяжущие, модифицирующие добавки, коллоидно-химические механизмы, адсорбция, гидратация, кристаллизация, структурообразование, дисперсные системы, суперпластификаторы.

Аннотация. Мақола модификацияловчи қўшимчаларнинг ярим сувли гипс (β-$CaSO_4 \cdot 0{,}5H_2O$) заррачалари билан ўзаро таъсирининг коллоид-кимёвий механизмларини ўрганишга қаратилган. Адсорбцион-десорбцион жараёнлар, ζ-потенциалнинг ўзгариши ва дисперс системанинг барқарорлашуви таҳлил қилинган. Поликарбоксилат суперпластификаторлар электростатик ва стерик барқарорликни таъминлаши, сув сарфини камайтириши ва гипс тошининг зич тузилишини шакллантиришга ёрдам бериши аниқланди. Меламиноформалдегид қўшимчалар асосан коагулятсион механизмда таъсир кўрсатади. Лимон кислотасининг қўшилиши кальций ионлари билан комплекс ҳосил қилиш орқали дигидратнинг кристалланишини самарали ингибирлайди

ва индукцион даврни узайтиради. Олинган натижалар гипсли боғловчиларда структура ҳосил бўлиш жараёнларини чуқурроқ тушуниш имконини беради ва физик-механик хоссалари башорат қилинадиган материалларни ишлаб чиқишга ёрдам беради.

Калит сўзлар: гипсли боғловчилар, модификацияловчи қўшимчалар, коллоид-кимёвий механизмлар, адсорбция, гидратланиш, кристалланиш, структура ҳосил бўлиши, дисперс системалар, суперпластификаторлар.

Abstract. The article is devoted to the study of the colloidal-chemical mechanisms of interaction of modifying additives with the particles of hemihydrate gypsum (β-$CaSO_4 \cdot 0{,}5H_2O$). An analysis of adsorption-desorption processes, changes in ζ-potential, and stabilization of the dispersed system was conducted. It has been established that polycarboxylate superplasticizers provide electrostatic and steric stabilization, reduce water demand, and contribute to the formation of a dense structure of gypsum stone. Melamine-formaldehyde additives operate primarily through a coagulation mechanism. Adding citric acid effectively inhibits the crystallization of dihydrate due to complex formation with calcium ions, prolonging the induction period. The obtained results allow for a deeper understanding of the structure formation processes in gypsum binders and contribute to the development of materials with predictable physical and mechanical properties.

Keywords: gypsum binders, modifying additives, colloidal-chemical mechanisms, adsorption, hydration, crystallization, structure formation, dispersed systems, superplasticizers.

ВВЕДЕНИЕ. Коллоидно-химические процессы играют ключевую роль в формировании структуры и свойств гипсовых вяжущих материалов. При добавлении воды полуводный сульфат кальция (β-$CaSO_4 \cdot 0{,}5H_2O$) образует насыщенные суспензии, где важным фактором становится поведение частиц на межфазной границе. Именно в этот момент начинают действовать модифицирующие добавки, которые, адсорбируясь на поверхности гипсовых частиц, изменяют их поверхностную активность, потенциал и водоудерживающую способность. Это определяет начальные условия диспергирования и стабилизации системы [1-4].

Одним из главных коллоидно-химических механизмов является формирование и перестройка двойного электрического слоя, обусловленная взаимодействием добавок с кристаллической поверхностью гипса. Снижение ζ-потенциала и экранирование зарядов суперпластификаторами способствует диспергированию агломератов, повышая текучесть и равномерность распределения воды. Кроме того, добавки с комплексообразующими группами (например, карбоксилаты и сульфонаты) способны связывать ионы кальция в растворе, замедляя рост кристаллов $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ и влияя на морфологию затвердевшей структуры [2,6].

Коллоидно-химическое влияние модификаторов также выражается в контроле процессов флокуляции и коагуляции частиц, что определяет стабильность гипсового теста на ранних стадиях. За счёт пространственного и стерического стабилизирующего действия полимерных цепей повышается устойчивость системы к седиментации, а также

замедляется преждевременное схватывание. Всё это делает возможным более точное управление сроками твердения и конечными прочностными характеристиками гипсовых материалов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ. В качестве основного вяжущего вещества в исследовании использовались три образца природного гипсового минерала, отобранные с месторождений Каракалпакстана. По результатам геолого-минералогического анализа, исходное сырье характеризовалось высокой чистотой (содержание $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ в пределах 89–96 %), благоприятной кристалломорфологией, низким уровнем нерастворимых примесей и высокой реакционной способностью. Для получения β-полуводного гипса (β-$CaSO_4 \cdot 0{,}5H_2O$) образцы подвергались обжигу при температуре 160–180 °C в лабораторной муфельной печи.

Для модификации гипсовых систем применялись добавки различного химического строения: суперпластификаторы на основе меламинформальдегидных смол (Melment F15 - СПМ1, Melment F10 - СПМ2), поликарбоксилатные препараты (Melflux 5581F - СПК3, Sika ViscoCrete 225P - СПК4), а также комплексные органоминеральные композиции техногенного происхождения. Добавки вводились в состав гипсового теста в расчетной массовой доле от 0,05 % до 0,8 % от массы вяжущего.

Физико-химические и коллоидные свойства гипсовых композиций определялись с применением комплекса стандартных и инструментальных методов. Определение нормальной густоты, сроков начала и конца схватывания, прочности при сжатии и водопоглощения проводилось по действующим ГОСТ. Оценка пластической прочности и структурообразования осуществлялась с использованием стандартных конусных и пенетрационных методик. Электрокинетические характеристики исследовались методом определения ζ-потенциала на капельном анализаторе, что позволило судить о состоянии двойного электрического слоя на поверхности гипсовых частиц.

Адсорбционные свойства добавок изучались спектрофотометрически в ультрафиолетовом диапазоне, а фазовый состав исследуемых образцов - методом рентгенодифрактометрии. Для визуализации морфологических изменений кристаллов дигидрата $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ использовалась сканирующая электронная микроскопия (СЭМ). Все эксперименты проводились при стабильных температурно-влажностных условиях с обеспечением высокой воспроизводимости результатов. Комплексный подход позволил всесторонне оценить влияние модифицирующих добавок на свойства гипсовых вяжущих систем на коллоидно-химическом уровне.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ. На основании лабораторных испытаний по ГОСТ 4013–2019 [11] установлено, что химический состав природного гипсового минерала из различных месторождений Каракалпакстана заметно отличается.

Образец № 1 (Месторождение Урге) продемонстрировал наивысшее качество: содержание $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ составило 96 %, а содержание примесей (глины, карбонатов, нерастворимых остатков) - менее 2 %. Данный материал классифицирован как гипс I

сорта, что делает его особенно перспективным для получения гипсовых вяжущих высокой чистоты.

Образец № 2 (Месторождение Раушан) показал схожие характеристики, с содержанием дигидрата около 93 % и классификацией как гипс II сорта.

Образец № 3 (Месторождение Айбуйир) содержал до 11 % глинистых примесей, что снизило общее содержание $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ до 89 %. Несмотря на это, образец может применяться в строительных смесях с коррекцией состава добавками и целевыми модификаторами.

Рентгенофазовый анализ термически обработанного гипсового сырья показал, что в температурном диапазоне 160-180 °C формируется преимущественно β-модификации полуводный гипсовых вяжущих (ПГВ), обладающая высокой степенью кристалличности. Отсутствие значимых дифракционных линий дигидрата и ангидрита указывает на выборочную и полную дегидратацию, создающую благоприятные условия для устойчивого коллоидного диспергирования при затворении водой (рис. 1).



Рис.1. Дифрактограммы β-$CaSO_4 \cdot 0{,}5H_2O$, образцы при температурах 170 °C (1 час): 1 - №1, 2 - №2, и 3 - №3.

qilinadigan (g‘o‘za) ekinlarining muntazam yetishtirilishi oqibatida tuproqda gumus miqdori juda kamayib ketdi. Keyingi 30-40 yil ichida Buxoroning ko‘pgina paxtakor tumanlarida tuproqdagi chirindi miqdori 40-50 foiz kamaygan. Qadimdan sug‘orilib kelinadigan aksariyat tuproqlarning 1m qatlamida gumus miqdorda tuproqning og‘irligiga nisbatan 0,6-0,7 foizdan oshmaydi. Tuproqdagi organik moddalar tuproqda kechadigan turli jarayonlarda, unumdorligida va o‘simliklarning oziqlanishida xilma-xil rol o‘ynaydi[2, 70-b]. Gumus tarkibida o‘simliklar uchun zarur deyarli barcha elementlar uglerod, kislorod, azot, fosfor, kalsiy, magniy, oltingugurt, temir singarilar borligi ma‘lum. O‘simlik va jonivorlarning nobud bo‘lgan qoldiqlarining parchalanish jarayonlarida ulardagi oziq moddalar asta-sekin ajralib chiqadi va shuning uchun ham ular yuvilib ketmay, tuproq qatlamlarida mustahkam ushlanib turiladi. Gumus tuproqning issiqlik va suv-fizik xossalariga ijobiy ta‘sir etadi. Chirindi tuproqning mineral zarrachalarini bir-biriga mustahkam biriktirib, uni donador strukturali xolatga keltiradi. Strukturali tuproqlar suvni yaxshi o‘tkazib, kam bug‘lantiradi, unda havo yetarli va temperatura rejimi ham qulay bo‘ladi. Tuproq unumdorligining muhim tomonlaridan yana biri uning mineral o‘g‘itlar bilan yetarli darajada ta’minlangan bo‘lishiga bog‘liqdir. Tuproqdagi azot asosan quyidagi birikmalar: gumusdagi azot, ammoniyli (NH_4^+) va nitrat (NO_3^-) tuzlaridagi azot, oqsillardagi organik azot va ularning parchalanish mahsulotlaridagi aminokislotalar, peptidlar, amidlar va aminlar holida bo‘ladi. Atmosfera havosidagi azotni o‘zlashtiruvchi va tuproqni azot birikmalari bilan boyituvchi bakteriyalar, zamburug‘lar va suv o‘tlarining qator turlari mavjud. Bu organizmlarning bir qismi o‘simliklar bilan birga simbioz holida rivojlanadi. Masalan, dukkakli o‘simliklarning ildizlaridagi tuganak bakteriyalar shular jumlasiga kiradi. Boshqa gruppasiga tuproqda erkin yashovchi aerob bakteriyalar Azotobakter va anaerob bakteriyalar clostridium Pasterianum hamda RNoma hetol zamburug‘ini kiritish mumkin. Azot o‘zlashtiruvchi bakteriyalar uchun energiya manbai, ular oksidlaydigan uglevodlar hisoblanadi. Maqbul sharoitda aerob bakteriyalarning azotni o‘zlashtirishi anaerob bakteriyalariga nisbatan yuqori bo‘ladi. Azotni eng aktiv o‘zlashtiruvchi azotobakteriyalar yashash sharoitlariga juda talabchan. Neytral va kam ishqoriy muhitli sharoitda yaxshi rivojlanib, kislotali muhitda nobud bo‘ladi. Bu bakteriyalar tuproq aerasiyasi va organik moddalarning mavjudligiga ham talabchan. Tuproqda erkin yashaydigan azotfiksatorlar gektariga har yili 5-10 kg azot to‘playdi. Tuganak bakteriyalari dukkakli o‘simliklar ildizida simbioz holida yashab, ancha ko‘p azot to‘playdi. Masalan, sebarga ekilgan maydonlarda o‘simlik qoldiqlari hisobiga har gektariga 70-80 kg azot yig‘iladi. Viloyatimizning sug‘oriladigan sharoitida beda maydonlarining gektarida 300 kg gacha azot to‘planadi. Demak, dukkaklilar, ayniqsa beda bilan almashlab ekiladigan yerlardagi ekinlarni keyingi ikki yil davomida azot bilan to‘liq ta‘minlash mumkin. Yerga azotli mineral o‘g‘itlar qo‘llanish bilan birga g‘o‘za-beda almashlab ekishni yo‘lga qo‘yish qo‘shimcha ravishda 400-600 kg/ga biologik azot to‘plash imkonini beradi. Bu esa o‘simliklarning azot bilan samarali oziqlanishini va ulardan yuqori hosil olishni ta‘minlaydi [2, 71-b].

Fosfor. Tuproqda fosfor juda kam bo‘lib, P2 O5 ning yalpi miqdori 0,1-0,2 foizdan oshmaydi. Tuproqdagi fosfor organik va mineral birikmalar holidadir. Organik fosfor, fitin, nuklein kislotasi, nukleoproteidlar, fosfatidlar hamda fosfatlar shaklida bo‘ladi. Gumus tarkibida to‘plangan organik fosfor barcha tuproq fosforining 14-44 foizini tashkil etadi. Mineral fosfor ortofosfat kislotasining kalsiy, magniy, temir va alyuminiy tuzlaridan iborat. Tuproqdagi fosfor apatit, fosforit va vivianit minerallari tarkibiga kiradi. Yer po‘stidagi barcha fosforning 95 foizi magmatik jinslardagi apatitda saqlangan bo‘ladi. Tuproqdagi mineral fosfor birikmalari ko‘pincha kam harakatchan bo‘ladi. Kislotali tuproqlarda temir va alyuminiy fosfatlari, neytral va kam ishqorli (O‘zbekiston) tuproqlarda esa kalsiy fosfati ko‘p bo‘ladi. Karbonatli tuproqlarda eruvchan fosfatlar qiyin eriydigan gidroksilapatit yoki uch kalsiyli fosfatga o‘tadi va o‘simliklar uni qiyin o‘zlashtiradi. Fosfor muhim biologik element sifatida protoplazma, qator fermentlar va vitaminlar tarkibiga kiradi. Tuproqning reaksiya muhiti kam kislotali (pH -6,5) bo‘lganda o‘simliklarning fosfat ionlarini o‘zlashtirishi uchun yaxshi sharoit yuzaga keladi. Ekinlardan yuqori hosil olish uchun barcha tuproqlarda fosfor o‘g‘itlaridan keng foydalaniladi [2, 85-b].

Kaliy. Yalpi kaliy (K2O) miqdori og‘ir mexanik tarkibli tuproqlarda ancha ko‘p bo‘lib, 2-3 foizga yetadi. Kaliyning asosiy qismi biotit, muskovit, kaliyli dala shpatlari, gidroslyudalar kabi birlamchi va ikkilamchi minerallarning kristall panjaralarida saqlangan bo‘lib, o‘simliklarga o‘tmaydigan shakldadir. Ba‘zi minerallar (biotit, muskovit) dan kaliy oson ajralib, o‘simliklarning oziqlanishida muhim rol o‘ynaydi. Kaliy tuproqda singdirilgan (almashinuvchi va almashinmaydigan) holatda va oddiy tuzlar shaklida saqlangan bo‘ladi. Almashinuvchi kaliy o‘simliklarning oziqlanishi uchun asosiy manba hisoblanadi. Tuproqlar almashinuvchi kaliy bilan qanchalik ko‘p to‘yingan bo‘lsa, uning o‘simliklarga o‘tishi ham shunchalik yaxshi va oson bo‘ladi. O‘zbekistonning sug‘oriladigan tuproqlaridagi kaliy asosan o‘simliklarga o‘tadigan ya‘ni suvda eriydigan va almashinadigan holatda bo‘ladi. Kaliy, azot va fosfor kabi organizmdagi muhim fiziologik funksiyani bajaradi. O‘simliklarda fotosintez jarayonining normal kechishida, ba‘zi vitaminlar sintezida, fermentlarning aktivligini oshirishda ishtirok etadi. Ayniqsa kartoshka, ildizmevalilar, turli o‘tlar kaliyni ko‘p talab etadi. Kaliy yetishmaganda o‘simlikda turli kasallik va hasharotlarning ta‘siriga chidamsiz bo‘ladi. G‘o‘zaga kaliy yetishmaganda kasallanadi, chigitning unib chiqishi qiyinlashadi, hosil kamayadi va tolasining sifati pasayadi. Tuproqning kaliy bilan ta‘minlanishiga ko‘ra o‘g‘itlardan to‘g‘ri foydalanish ekinlardan yuqori hosil olishni ta‘minlaydi. Tuproq unumdorligini oshirishning innovatsion usullaridan foydalanishga ehtiyoj sezilmoqda [2, 96-b].

Natija. Tuproq unumdorligini oshirishni kelajakdagi innovatsion usulida qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish. Bu usulda tuproq unumdorligini tabiiy yo‘l bilan insonlar ishtirokida amalga oshiriladi. Kimyoviy mineral o‘g‘itlarning o‘rniga tabiiy o‘g‘itlardan, ya’ni biomassalar va biogumuslardan foydalaniladi. Avvalo biogumus (chirindi)ni o‘rganib chiqaylik, u tuproqning yuqori molekulyar, to‘q rangli organik moddasi bo‘lib, uning tarkibi murakkab, hozirga qadar to‘la o‘rganilmagan, tarkibida: Guminkislotalari va fulvon kislotalari

mavjuddir. Guminlar va fulvonlar bir qator moddalardan tuzilgan. Bulardan tashqari chirindining tarkibiga ko‘plab xushbo‘y birikmalar, aminokislotalar, lipidlar, organik kislotalar va ularning hosilalari kiradi. Tuproqning mineral komponentlari safida davriy sistemadagi barcha elementlar uchraydi. O‘simliklar uchun o‘zlashtiriladigan oziq elementlari mavjud bo‘lib, ularni parchalanishi hisobiga hosildorlikni oshishiga sabab bo‘ladi. Chirindi tarkibida suv o‘ti bilan minerallarning birgalikda chirishi natijasida hosil bo‘lgan o‘simliklar uchun juda kerakli aminokislotalarning majmuasidir. Biogumus – chirindi tabiiy holda qayerlarda uchraydi. Fermer xo‘jaliklarining ekin maydonlarining atrofida zax suvlarini qochirish maqsadida kovlangan meliorativ zovurlar mavjud bo‘lib, ularni har 5-6 yilda kovlab—tozalab turiladi. Ulardan chiqqan balchiqni 5-6 yilda tabiatni o‘zi biogumusga aylantirib beradi. Ma’lumki, atmosferadagi azot yog‘in – sochinlar bilan, ya’ni qor, do‘l va sellar bilan har yili gektariga 5-8 kilogramdan o‘simlik o‘zlashtiradigan azotni tuproq tarkibiga olib keladi, natijada tuproq tarkibida 5-6 yillar davomida 25-36 kilogram azot to‘planib qoladi. Undan tashqari 5-6 yil davomida yovvoyi o‘tlar o‘sib ularning ildizida ham erkin yashovchi miroorganizmlar ham atmosferadagi azotni o‘zlashtirib yiliga har gektar yerga 6 – 8 kilogramdan o‘g‘it holda tuproq tarkibida hosil bo‘ladi, ulardan har 5-6 yilda 36-48 kilogramm azotli, fosforli, kaliyli birikmali bioo‘g‘itlar hosil bo‘ladi. Hammasi bo‘lib tuproq tarkibida 51-84 kilogramm o‘simliklar o‘zlashtiradigan tabiiy azot, fosfor va kaliyli o‘g‘itlar hosil bo‘ladi. Biogumusning afzalliklaridan biri, u tuproqdagi mikroflorani ish faoliyatini kuchaytiradi, tuproqdagi gips holatiga o‘tgan murakkab tuzlarni eritib, o‘simlik uchun oson o‘zlashtiradigan holatga aylantirib beradi [3, 80-b].

Xulosa. Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Buxoro viloyatida eng katta yer maydoniga ega bo‘lgan Jondor tumani bo‘lib hisoblanadi. Fermer xo‘jaliklari rahbarlari tuproq unumdorligini oshirishga yuqoridagi tavsiyalarga amal qilib ilmiy munosabatda bo‘lib, agrotexnika talablarini to‘liq yo‘lga qo‘ysalar qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishga erishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tuproq melioratsiyasi va gidrologiyasi.Toshkent 2019
2. P.Uzoqov., Sh. Holiqulov., I. Boboxo‘jayev Tuproqshunoslik Toshkent 2010
3. Romozonov O., Yusupbekov O. “Tuproqshunoslik va dehqonchilik” Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Sharq nashriyoti Toshkent 2005
4. Ziyonet.uz
5. My.gov.uz
6. Kutubxona—Library.academiy.uz

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK: 546.02; 548.3;

ORCID: 0009-0005-0712-7455

MIS (II) OKSLAT VA NATRIY ATSETAT ASOSIDAGI KOMPLEKS BIRIKMANING SINTEZI VA KVANT-KIMYOVIY TAHLILI.

Abdullayeva Zubayda Shavkatovna
Urganch Ranch texnologiya universiteti,
Mashinasozlik va axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti., PhD
zubayda. abdullayeva. 91@mail. ruj (+99893)280-25-05
Usmanov Rasul Muratboyevich
Urganch Davlat universiteti,
Kimyo kafedrasi dotsenti.,PhD
rasul.u@mail.ru, (+99894)230-00-86
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna,
O‘zbekiston Milliy universiteti,
Kimyo fakulteti dekani.,professor
Zaripova Dinora Ibragimovna
Xorazm Ma’mun akademyasi tayanch doktoranti
dinora.zaripova.98@gmail.ru. (+99899)966-43-24

Annotatsiya. Mazkur ilmiy ishda mis (II) ioni asosidagi okslat va natriy atsetat bilan hosil bo‘luvchi kompleks birikmaning kvant-kimyoviy xossalari o‘rganildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — mazkur kompleks birikmaning elektron tuzilmasi, energetik barqarorligi va reaktivlik indekslarini zamonaviy kvant-kimyoviy usullar yordamida aniqlashdan iborat. DFT (Density Functional Theory) yondashuvi asosida amalga oshirilgan hisob-kitoblar orqali kompleksning HOMO-LUMO orbitalari, dipol momenti, elektron zichligi taqsimoti hamda ligandlar bilan koordinatsiya bog‘lanish energetikasi aniqlandi. Natijalar kompleks birikmaning barqarorligini va ehtimoliy qo‘llanilish sohalarini, xususan katalizator sifatida yoki biologik faol modda shaklida ishlatilishini baholash imkonini berdi.

Kalit so‘zlar: mis (II) kompleksi, okslat ligandi, natriy atsetat, kvant-kimyoviy tahlil, DFT (zichlik funksional nazariyasi), HOMO-LUMO energiyalari, elektron zichligi, molekulyar orbital, geometrik optimizatsiya.

Аннотация. В данной научной работе изучены квантово-химические свойства комплексного соединения, образующегося на основе иона меди (II) с оксалатом и ацетатом натрия. Основная цель исследования - определение электронной структуры, энергетической стабильности и индексов реакционной способности данного комплексного соединения с помощью современных квантово-химических методов. На

основе подхода DFT (теория функционала плотности) были проведены расчеты, позволившие определить орбитали HOMO-LUMO комплекса, дипольный момент, распределение электронной плотности и энергетику координационного связывания с лигандами. Полученные результаты позволили оценить стабильность комплексного соединения и возможные области его применения, в частности, в качестве катализатора или в виде биологически активного вещества.

Ключевые слова: комплекс меди (II), окслатный лиганд, ацетат натрия, квантово-химический анализ, DFT (функциональная теория плотности), энергии HOMO-LUMO, электронная плотность, молекулярная орбиталь, геометрическая оптимизация

Abstract. This scientific work investigates the quantum-chemical properties of a complex compound formed with oxalate and sodium acetate based on copper (II) ions. The main objective of the research is to determine the electronic structure, energy stability, and reactivity indices of this complex compound using modern quantum-chemical methods. Calculations based on the DFT (Density Functional Theory) approach were used to determine the HOMO-LUMO orbitals, dipole moment, electron density distribution, and coordination bond energetics between the complex and its ligands. The results allowed for an assessment of the stability and potential applications of the complex compound, particularly its use as a catalyst or as a biologically active substance.

Keywords: copper (II) complex, oxalate ligand, sodium acetate, quantum chemical analysis, DFT (density functional theory), HOMO-LUMO energies, electron density, molecular orbital, geometric optimization

KIRISH.

Aholi sonining ortishi bilan, tabiiyki ular o‘zi uchun qulay yashash sharoiti yaratishga intiladi. Barcha tirik jonzotlar kabi, inson yashash sharoitiga ham albatta, abiotik va biotik omillar ta’sir qiladi. Buning natijasida hozirgi kunda ekologiyada bo‘layotgan jiddiy o‘zgarishlar tufayli inson salomatligiga ta’sir qiluvchi bakteriyalar, viruslar va zamburug‘lar soni ham keskin ortib bormoqda. Bugungi kunda, zararli bakteriyalarning 3 mlndan ortig‘i, viruslarning 2 mingdan ortiq turlari o‘rganilgan [1]. Bu bakteriya va viruslar insonlar salomatligiga, yovvoyi va uy hayvonlari sog‘ligiga va o‘simliklarning o‘sishi hamda rivojlanishiga ta’sir qilib, ularni normal funksional holatini izdan chiqaradi. Shu kabi salbiy ta’sirlarni o‘rganish orqali, o‘simliklarning o‘sishiga va hosildorligiga ijobiy ta’sir qiluvchi kompleks birikmalar sintez qilish, ularni tarkibi va tuzilishini o‘rganish ishlari amalga oshirildi [2]. 3d metallardan hisoblangan misning oksalad va atsetat ligandlari bilan eritma muhitida koordinatsion birikmasini sintez qilindi va monokristallari o‘stirilib, uni kvant kimyoviy analizi amalga oshirildi hamda tegishli parametrlari aniqlandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Zamonaviy koordinatsion kimyo yo‘nalishida metallar bilan karboksilat va dikarboksilat ligandlarning kompleks birikmalarini olish va ularni kvant-kimyoviy usullar bilan tahlil qilish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, **mis(II) ionlari**, okslat anioni ($C_2O_4^{2-}$) va **natriy atsetat**

(CH_3COONa) ishtirokidagi kompleks tuzilmalar biologik faol moddalarning modeli sifatida, shuningdek kataliz va materialshunoslikda qo‘llanish imkoniyatlariga ega. Mis(II) ionlari bivalet ionlar qatoriga kirib, turli ligandlar bilan kuchli koordinatsion bog‘lar hosil qilish xususiyatiga ega. Okslat ionlari esa chet atomlar bilan ikki yoki undan ortiq koordinatsiya pozitsiyasida bog‘lana oladigan bidentat ligand hisoblanadi [3]. CH_3COO^- (atsetat) esa monodentat yoki bidentat tarzda koordinatsiyalanib, metall ionlari bilan ko‘p shaklli komplekslar hosil qiladi [4]. Mis(II)-oksalat-atsetat asosidagi komplekslarning sintezi turli yondashuvlarga asoslanadi. Ular asosan suvli eritmalarda yoki etanol, metanol kabi organik erituvchilarda pH nazorat qilinib olib boriladi.[5] Kvant-kimyoviy tahlil orqali ushbu komplekslarning elektron tuzilmasi, energiya darajalari, HOMO–LUMO oralig‘i, bog‘lanish uzunliklari va geometrik tuzilishi aniqlanadi. Odatda DFT (Density Functional Theory) yondashuvi, xususan B3LYP yoki PBE funksional va 6-31G(d) yoki LANL2DZ bazis to‘plami ishlatiladi [6][7]. Hisob-kitoblar orqali bog‘lanish energiyasi, dipol moment, Mulliken zaryadlar taqsimoti kabi parametrlar tahlil qilinadi. Ko‘plab tadqiqotlar mis(II) komplekslarida ligandlar o‘rtasidagi intramolekulyar vodorod bog‘lanishlari, bog‘lanish uzunligi (Cu–O), geometriya (oktaedrik yoki kvadrat-planar) va ligandning pozitsiyasi energetik afzalliklar asosida tahlil qilinayotganini ko‘rsatmoqda [8][9]. CH_3COO^- guruhining mavjudligi esa kompleksning eritmadagi barqarorligiga va reaktivligiga ta’sir qiladi. Yaqinda o‘tkazilgan hisob-kitoblarda (Guangguo Wang va boshqalar) natriy atsetatning solvatatsiya strukturasi, Na^+ va CH_3COO^- o‘rtasidagi bog‘lanishlar va suv molekulalari bilan o‘zaro ta’siri DFT orqali chuqur tahlil qilingan bo‘lib, bu holatlar Cu(II)-$OOCCH_3$–C_2O_4 tizimlarida ham dolzarbdir [10]. Shu sababli, mis(II)-okslat-atsetat komplekslarini sintez qilish va ularning tuzilmasini kvant-kimyoviy metodlar orqali tahlil qilish orqali nafaqat ularning fizik-kimyoviy xossalari, balki ular asosidagi faol markazlar va molekulyar elektron taqsimotga oid muhim ma’lumotlar olinadi.

Dastlabki moddalar sintezi quyidagi usullar yordamida amalga oshirildi: metal tuzining to‘yingan eritmasi tayyorlandi. Eritma konsentratsiyasiga mos ravishda ishqor eritmasi qo‘shilib, metal gidroksidining cho‘kmasi olindi. Cho‘kma dekantatsiya usulida 5 marta yuvildi va tarkibidagi ionlardan tozalanganligini bilish maqsadida sifat reaksiyasi o‘tkazildi. [11] Tozaligiga ishonch hosil qilinganidan keyin cho‘kma ustidan oksalat kislota eritmasi quyildi. Natijada shu metalning oksalatli tuzi hosil bo‘ldi.

$$CuSO_4 + 2NaOH = Cu(OH)_2\downarrow + Na_2SO_4$$

$$Cu(OH)_2 + (COOH)_2 = Cu(COO)_2 + 2H_2O$$

Cu(II) oksalatning natriy atsetati bilan kompleks birikmasi sintezi quyidahi usul bo‘yicha amalga oshirildi: 0,001 mol Cu(II) oksalat 15 ml suvda eritildi.Boshqa stakanda 0,04 mol natriy atsetat 20 ml suvda issiq suv hammomida (45-50 C^0 haroratda) qizdirib, eritildi. So‘ngra Cu(II) oksalat eritmasi ustidan tomchilatib natriy atsetatning issiq eritmasi qo‘shildi va aralashma magnitli aralashtirgichda 80 C^0 **,** minutiga 800 aylanma tezlikda aralashtirish davom ettirildi. Olingan eritma kristallash uchun 72 soatga xona haroratida qoldirildi. Natijada ko‘k rangli kompleks birikma kristallari hosil bo‘ldi. (1-rasm)



1-rasm. Mis oksalat va natriy atsetat bilan hosil qilgan kompleks birikmasi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Olingan birikmalarning tarkibini aniqlash uchun elementar tahlil o‘tkazildi (1-jadval). Sintezlangan birikmalardagi metall miqdori atom-absorbsion spektrometrda, azot Dyuma usulida, uglerod va vodorod kislorod oqimida yonish orqali aniqlandi. Sulfat miqdori argentometrik usulda sulfat ionlarini kumush ionlari bilan cho‘ktirish orqali aniqlandi.

1-jadval

Olingan kompleks birikmaning elementlar tahlili natijalari

№	Birikma	Mu		C		Na		O		H		Chiqish unumi %
		Hisoblandi	Topildi	Hisoblandi	Topildi	Hisoblandi	Topildi	Hisoblandi	Topildi	Hisoblani	Topildi	
1	$CuC_4Na_2O_{10}H_8$	19.52	18.6	14.75	13.4	14.12	13.5	49.12	40.9	2.48	1.8	81

Kvant kimyoviy hisoblashlar orqali mis(II) oksalat va natriy atsetat o‘rtasida turli mol nisbatlarida hosil bo‘ladigan kompleks birikmalarning optimizatsiyalangan umumiy energiyalari aniqlandi. 1:1, 1:2, 1:3 va 1:4 nisbatlar ko‘rib chiqildi. Hisoblashlar Semi-empirical/PM6 usulida olib borildi. Har bir kompleks uchun umumiy energiya (E) aniqlandi va eng past energiyaga ega kompleks eng barqaror konfiguratsiya deb qabul qilindi.Kvant kimyoviy hisoblash natijalari asosida mis(II) oksalat va ligandlari o‘rtasidagi optimal mol nisbati 1:4 deb aniqlandi. Bu nisbatda hosil bo‘lgan kompleks eng past energiyaga ega bo‘lib, termik va energiya jihatdan eng barqaror holatga ega. Ushbu nisbat asosida olingan kompleks birikma sintetik nuqtayi nazardan ham eng maqbul konfiguratsiya hisoblanadi.



2-rasm: Mulliken zaryad tahlili bilan optimallashtirilgan geometriya

2-rasmda atomlar ustida qisman zaryadlar ko‘rsatilgan – bu ehtimol Mulliken zaryad tahliliga asoslangan. Markaziy atom Cu(II) ioni atrofida joylashgan kislorod atomlari bilan koordinatsiyalangan. O atomlarining zaryadlari manfiy -0.548 atrofida), bu esa ular donor atomlar sifatida faol ishtirok etayotganini ko‘rsatadi. Cu atomi ustida musbat zaryad mavjud (+1.2 atrofida) – bu uning yuqori darajadagi elektrofil xususiyatini ko‘rsatadi va ligandlar bilan kuchli koordinatsiyani bildiradi. Kompleks birikmaning kvant kimyoviy tahlilida Mulliken zaryad taqsimoti asosida mis(II) ionining yuqori elektrofil xarakterga ega ekani vasalitsilat ligandlarining kislorod atomlari orqali bidentat koordinatsiyalanayotgani aniqlandi. Bu holat kompleksning yuqori darajadagi elektron donorlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.



3-rasm. Molekulyar orbitallar va elektron taqsimoti (HOMO-LUMO)

3-rasmda elektron zichlik buluti (yashil va jigarrang ranglarda) tasvirlangan. Markaziy Cu atomi atrofida zich electron taqsimot mavjud. Oksalat ligandlarining karboksilat qismlari orqali mis(II) ioniga kuchli orbital o‘zaro ta’siri yuzaga kelgan. Na ionlari esa asosiy kompleksga bevosita koordinatsiyalanmagan, lekin ion muvozanatni saqlovchi yordamchi kation sifatida turgani ko‘rinmoqda. Vizual elektron zichlik tahlili shuni ko‘rsatadiki, oksalat ligandlar mis(II) ion bilan kuchli o‘zaro ta’sirda bo‘lib, elektron bulut birikmaning markazida kuchli zichlik bilan ifodalanadi. Bu, ayniqsa, karboksilat guruhlarining kislorod atomi orqali metall ion bilan sinxron koordinatsiyalanishidan dalolat beradi. Molekulyar orbital nazariyasi (MO)ga ko‘ra, molekuladagi elektronlar individual atom orbitallarida emas, balki molekulyar orbitallarda (MO) joylashadi. Ushbu orbitallar energetik jihatdan pastdan yuqoriga qarab to‘ldiriladi. Ularning orasida eng muhimlari HOMO (Highest Occupied Molecular Orbital) – yuqori bog‘ molekulyar orbital va LUMO (Lowest Unoccupied Molecular Orbital) – quyi bo‘sh molekulyar orbitallardir. Ular orasidagi farq (ΔE) – molekulaning kimyoviy reaktivlik, barqarorlik va fotoaktivlik xossalarini belgilaydi.

2- jadval

Hisoblash natijalari

Parametr	Qiymat
HOMO energiyasi	-6.21
LUMO energiyasi	-2.35
HOMO–LUMO farqi (ΔE)	3.86

ΔE = 3.86 eV bu qiymat o‘rtacha energiya farqidir deb baholanadi, ya’ni kompleks barqaror, ya’ni termodinamik jihatdan mustahkam, fotoaktivlik ehtimoli mavjud, ammo juda yuqori emas, kompleks kimyoviy reaksiyalarda o‘rtacha reaktivlikka ega bo‘lishi mumkin.



4-rasm. Molekulyar elektron zichlik modeli

HOMO asosan ligandning π-elektron bulutida joylashgan. Bu ligandning donor rolini tasdiqlaydi. LUMO esa mis(II) ionining d-orbitallari va unga yaqin kislorod atomlarida joylashgan, bu esa metallning akseptor (elektron qabul qiluvchi) sifatida harakat qilishini ko‘rsatadi. Elektronlar HOMO dan LUMO ga o‘tishi ehtimoli, ya’ni ligand va metall elektron oqimi mavjudligini bildiradi. Bu holat liganddan metalga elektron o‘tish xususiyatlarini ko‘rsatadi. Molekulyar elektron zichlik modeli – bu molekulada elektronlar qanday taqsimlangani haqida uch o‘lchamli fazoviy ma’lumot beradigan kvant- kimyoviy tasvirdir. Bu model elektronlarning qayerda zichroq yoki siyrakroq joylashganini ko‘rsatadi. Molekulyar elektrostatik potentsial (MEP) tahlili kompleksning reaktivlik zonalarini aniqlashga yordam beradi. Potentsial taqsimot salitsilat ligandlarining mis(II) ion atrofida kuchli elektron donorlik xossalariga ega ekanini tasdiqlaydi. Mis(II) ion atrofida kuzatilgan elektrofil zonalar uning koordinatsion faolligini ko‘rsatadi. Elektron zichlik odatda quyidagicha ifodalanadi: Yuqori zichlik zonalari (elektronlarning to‘plangan, ya’ni donorlik kuchi yuqori joylar) va past zichlik zonalari (elektron tanqis, ya’ni akseptor sifatida faol joylar). Bu ma’lumotlar, ayniqsa, reaksion faollik, koordinatsion markazlar va zaryad taqsimotini tushunishda muhim ahamiyatga ega (4-rasm).

3-jadval

Molekulyar reaktivlik zonalari

Zona	Tavsifi	Reaktivlik roli
Cu(II) ion atrofidagi soha	Elektron zichligi past	Elektrofil markaz
Oksalat guruhidagi O atomlari	Elektron zichligi yuqori	Nukleofil markazlar

Molekulyar elektron zichlik modeli asosida kompleks birikmada elektronlar asosan oksalat ligandlarida to‘plangani, Cu(II) ion esa elektron tanqis markaz ekanligi aniqlandi. Bu taqsimot ligandlarning kuchli donor, mis ionining esa akseptor sifatida ishtirok etayotganini tasdiqlaydi. Bunday elektron konfiguratsiya kompleksning barqarorligini ta’minlaydi va uni reaksion markaz sifatida aniqlash imkonini beradi.



5-rasm. Kompleks birikmaning elektron zichlik kontur chiziqlari

5-rasmda kompleks birikmaning elektron zichlik kontur chiziqlari bilan tasvirlangan uch o‘lchamli modeli keltirilgan bo‘lib, bu tahlil molekuladagi elektronlar qanday taqsimlanganini fazoda ko‘rsatadi. Molekula ustidan o‘tkazilgan kontur chiziqlar – bu elektron zichlikning izochiziqlaridir. Ushbu chiziqlar elektron zichlik gradienti o‘zgarishini yoki qayerda elektronlar to‘plangan yoki kamroq joylashganini tasvirlaydi. Mis atomi (Cu) atrofida kontur chiziqlar kamroq zich. Bu sohalarda elektron zichligi pastroq, ya’ni elektrofil xarakter mavjud. Bu holat Cu ionining elektronlarni ligandlardan qabul qiluvchi markaz sifatida harakat qilishini tasdiqlaydi. Na ionlar atrofida zichlik kam, ular kompleksning asosiy elektron tizimida ishtirok etmaydi, lekin ion muvozanatni saqlovchi yordamchi kation sifatida turadi. Kontur chiziqlarning liganddan Cu markazga qarab cho‘zilishi elektron zichlikning Cu tomon oqimini anglatadi.

XULOSA.

Dastlabki moddalarning tuzilmasiga asoslangan holda ularning o‘zaro mol nisbatini aniqlash uchun tahlillar o‘tkazildi. Ushbu tahlillar natijasida reaktivlik HOMO va LUMO o‘rtasidagi farq (ΔE) orqali baholanib, qaysi modda faolroq yoki barqarorroq ekani aniqlandi. Termodinamik foydalilik esa ΔG qiymati asosida belgilandi. Moddaning dipol momenti esa uning suvda eruvchanligi va biologik faollik ehtimolini ko‘rsatdi. Molekula tarkibida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar bog‘ uzunliklari orqali taxmin qilindi. Yakuniy natijalar shuni ko‘rsatdiki, Cu(II) oksalatlari natriy atsetat bilan 1:4 nisbatda reaksiyaga kirishadi va markaziy atomning koordinatsion soni 4 ga teng bo‘lgan birikmalar eng barqaror bo‘lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. *Xudoyberganov O.I.,Yadgarova M.M., Abdullayeva Z.Sh., Ashirov M.A., Hasanov Sh.B. Kobalt (II) ionining indometatsin bilan kompleks birikmasi sintezi va strukturaviy tadqiqoti // O ‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim,fan va innovatsiyalar vazirligi Urganch*

Davlat Universiteti “Kimyoning dolzarb muommolari” mazvusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2024-y. 262-263 betlar.

2. *Abdullayeva Zubayda Shavkatovna, Kadirova Shakhnoza Abdukhalilovna, Khasanov Shodlik Bekpulatovich, Qahorova Sojida Isomiddinovna “Synthesis of coordinating compounds of nickel (II) formiate with zinc and calcium accetates,” Electronic journal o f actual problems o f modern science, education and training. Urgench, № 8, 2021, pp. 92-95.*
3. *Mohamed G.G., Zayed M.A., Hindy A.M.* Metal complexes of oxalic acid: synthesis, spectral and thermal characterization // *Spectrochimica Acta Part A.* — 2005. — Vol. 61. — P. 1059–1068.
4. *Frisch M.J. et al.* Gaussian 09, Revision A.1. — Gaussian Inc., Wallingford, CT, 2009.
5. *Becke A.D.* Density-functional thermochemistry. III. The role of exact exchange // *J. Chem. Phys.* — 1993. — Vol. 98. — P. 5648–5652.
6. *Koleżyński A., Hoffmann S.K.* Electron structure and bonding in alkali oxalates: A DFT approach // *J. Therm. Anal. Calorim.* — 2013. — Vol. 113. — P. 587–593.
7. *Al-Fakeh A.G. et al.* Synthesis, DFT, and docking analysis of Co(II), Cu(II), Zn(II) complexes // *Crystals*. — 2023. — Vol. 13(1). — P. 118.
8. Frisch M. J., Trucks G. W., Schlegel H. B., et al. Gaussian 16, Revision C.01. Gaussian, Inc., Wallingford CT, 2016.
9. Parr R. G., Yang W. Density-Functional Theory of Atoms and Molecules. – New York: Oxford University Press, 1989. – 333 p.
10. Abdullayeva Zubayda Shavkatovna, Kadirova Shakhnoza Abdukhalilovna, Khasanov Shodlik Bekpulatovich, Eshchanov Erkabay Uskinovich. Coordination compounds of copper (II) formate with sodium and barium acetates // Journal of Critical Reviews. –Vol 7, 2020. – P. 480-481.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UO‘T: 631.472.56

QARSHI SHAHRI TAJRIBA MAYDONI TUROQLARINING AGROKIMYOVIY XUSUSIYATLARI

Boyirov Zafar Ravshanovich
Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
Uzakov Zafar Zoirovich
Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi kafedrasi dotsenti
Raximov Tulkin Uktamovich
Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada Qarshi shahrida 2025-yilning bahor oyida o‘tkazilgan ayrim yashil xududlari tuproqlarining holati bo’yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Turli darajadagi antropogen ta’sirga uchragan hududlarda 6 ta kuzatuv maydonlari belgilanib, ulardan tuproqning kimyoviy tahlili uchun tuproq namunalari olindi. Olingan tuproqlarni tahlil qilish natijasida maydonlarda gumus miqdori past va o‘rta darajada ekanligi, tebranishlar 0,97% dan 1,38% gacha aniqlandi. O‘rganilayotgan hududdagi tuproqlar kuchsiz ishqoriy darajada ekanligi aniqlandi. O‘rganilayotgan hududning tuproqlari tarkibida fosfor bo‘yicha ko‘rsatgichlari juda past va past darajada, kaliy bilan ta’minlanishi esa past va o‘rta darajada ekanligi hamda III-IV-guruh tuproqlariga mansub ekanligi ko‘rib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: tuproq, organik moddalar, chirindi, morfologik tuzilishi, gumus, och tusli bo‘z tuproq, oziq moddalar.

Аннотация: В статье представлены результаты исследований состояния почв некоторых зеленых зон города Карши, проведенных весной 2025 года. На территориях, подвергшихся антропогенному воздействию различной степени, было выделено 6 наблюдательных участков, из которых были взяты пробы почвы для химического анализа почвы. В результате анализа полученных почв установлено, что количество гумуса на полях низкое и среднее, колебания составляют от 0,97% до 1,38%. Установлено, что почвы в исследуемом территории находятся на слабощелочном уровне. Установлено, что почвы исследуемой территории имеют очень низкое и низкое содержание фосфора, низкое и среднее содержание калия и относятся к III-IV группе почв.

Ключевые слова: почва, органические вещества, перегной, морфологическое строение, гумус, светло-серозёмная почва, питательные вещества.

Abstract: The article presents the results of studies of the soil condition of some green areas of the city of Karshi, conducted in the spring of 2025. In the territories subjected to anthropogenic impact of varying degrees, 6 observation sites were identified, from which soil

samples were taken for chemical analysis of the soil. As a result of the analysis of the obtained soils, it was found that the amount of humus in the fields is low and medium, fluctuations range from 0.97% to 1.38%. It was found that the soils in the study area are at a slightly alkaline level. It was found that the soils of the study area have very low and low phosphorus content, low and medium potassium content and belong to soil groups III-IV.

Keywords: soil, organic matter, humus, morphological structure, humus, light gray soil, nutrients.

Kirish. Tuproq iqlim sharoitlari, organik moddalar, havo va suv natijasida hosil bo‘lgan moddalardan iborat tabiiy resurs. Tuproqning o‘simliklar ildizini o‘sishi uchun vosita bo‘lganligi sababli, uning eng ko‘p e’tirof etilgan vazifasi oziqa moddalarni shakillanishi va to’planishida ishtirok etishidir. Tuproqdagi ozuqa elementlari o‘simliklarning ildizlari orqali so‘riladi, suv va gaz aylanishlarida ishtirok etadi, doimiy ozuqa moddalari va namlikni ta’minlaydi. Iqlim sharoitlarini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Bobonorov B.B. va boshqalar (ma’lumot yilini kiritishkerak) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Sirdaryo viloyatining sug‘oriladigan tuproqlarining 78,5%ida chirindi miqdori 1,0% gacha, 21,5% yer maydonida chirindi miqdori 1,1–2,0% oralig‘ida ekanligi, Mirzaobod tumanida 1,0 foizgacha chirindi bo‘lgan sug‘oriladigan tuproqlar 26628,5 ming gektarni, 1,1 foizdan 2,0 foizgacha bo‘lgan sug‘oriladigan tuproqlar 8961,9 ming gektarni tashkil etgan. Sardoba tumanida chirindi miqdori 1,0 foizgacha bo‘lgan tuproqlar 29114 ming gektarni, 1,0 foizdan 2,0 foizgacha bo‘lgan tuproqlar esa 6718 ming gektarni tashkil etganligini ko‘rish mumkin [1].

Shahar tuproqlari tabiiy tuproqlardan nafaqat morfologik tuzilishi, balki o‘ziga xos kimyoviy, fizik-kimyoviy, fizik-biologik xossalari bilan ham keskin farq qilar ekan, tuproqshunoslikning alohida tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tuproqlar shahar sharoitida atrof-muhitining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ularda yashovchi aholining sog‘lig‘i ularning ekologik holatiga bog‘liq. “Shahar tuprog‘i” atamasi birinchi marta 1963 yilda L.T.Zemlyaniskiy tomonidan ishlatilgan [2].

Buxoro vohasining o‘rganilgan tuproqlarda gumus miqdorining Vobkent, Jondor, Qorako‘l tumanlarida (0,94%-0,80%) Kogon tumaniga nisbatan haydov qatlamida bir muncha ko‘pligi aniqlangan (0,62%). Shu bilan birga pastki qatlamlarga qarab, gumus miqdorining tarqalishida tumanlar o‘rtasida keskin farq sezilmaydi, ya’ni kesmalar bo‘yicha gumusning miqdori (0,38-0,26%) bir-biriga yaqin. Ma’lumki, tuproqdagi yalpi azotning miqdori gumus miqdoriga uzviy bog‘liq bo‘lib, uning yalpi miqdori o‘rganilgan tuproqlarning haydov qatlamida qariyb bir xil, ya’ni 0,055%-0,062% ni tashkil qilgan[3].

Olingan natijalarni tahlil qilish natijasida ekin maydonlari chirindi miqdori bo‘yicha bir hil ekanligi (o‘zgaruvchanlik koeffitsienti 33% dan kam) ekanligi aniqlandi. Alohida ish hududlaridagi tebranishlar 1,99% dan 2,93% gacha. O‘rganilayotgan hududdagi tuproqlar o‘rtacha kislotali va neytral. Hudud tuproqlari tarkibidagi harakatchan fosfor bo‘yicha notekis, lekin o‘rtacha VI guruh tuproqlariga kiradi [4].

Hozirgi kunda Respublika jami sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik yer maydonlarining 76,6 % da tuproq haydalma qatlamida 0,5-1,0 % oralig‘ida gumus mavjud bo‘lib, 1,1-2,0 % gacha gumus bo‘lgan yer maydonlar 22,3 %ni, 2,1-3,0% gacha gumus bilan ta’minlangan maydonlar 1,0 %ni hamda 3,0% dan yuqori miqdorda gumus bo‘lgan yer maydonlari bor yo‘g‘i 0,02 %ni tashkil etadi. Z.Z.Uzakov va boshqalar (2020) tadqiqotida tuproqlarni ustki 0-30 sm bo‘lgan qatlamlarida gumus miqdori 0,565% ni, pastki gorizontlarda uning 0,208% ni, 120-150 sm chuqurlikda 0,172% ni tashkil etishi aniqlangan. Dengiz sathidan 425 metr balandlikda joylashgan 3-kesmaning haydov qatlamida 0,549%, haydov ostida 0,321%, 50 sm dan boshlab pastki 150 sm qatlamgacha gumus miqdori 0,231-0,235% oralig‘ida tebranib turishi aniqlangan bo‘lib, gumus bilan ta’minlanish darajasiga ko‘ra kam va juda kam ta’minlangan tuproqlar guruhiga kiradi [5].

Qarshi cho‘lining och tusli bo‘z tuproqlari Qashqadaryo viloyatining janubiy qismida tarqalgan bo‘lib, 802,7 ming gektarni tashkil etadi. Shundan 185,8 ming gektari qadimdan sug‘orilib dehqonchilik qilinadigan yerlar hisoblanadi. Och tusli bo‘z tuproqlar agrokimyoviy xususiyati bo‘yicha oziq moddalar bilan kam taminlangan bo‘lib, tarkibidagi chirindi miqdori 0,8-1,4% ni, yalpi azot 0,02-0,15% ni, fosfor 0,15-0,19% ni tashkil etadi. Professor A.M.Rasulov (1976) ning ma’lumotlariga ko‘ra, Qarshi cho‘lining och tusli bo‘z tuproqlari tarkibida 20-25% dan ortiq gips mavjud bo‘lib, ular tarkibida esa, 9-13% karbonatlar mavjud [6].

Och tusli bo‘z tuproqlar mintaqaning ancha quruq qismida tarqalgan tipcha bo‘lib, cho‘1 mintaqasi bilan tutashgan quyi qismda, odatda dengiz sathidan 300-400 dan 500-600 m gacha bo‘lgan balandlikda joylashgan. Och tusli bo‘z tuproqlar o‘rta qumoqli, lyosslarda rivojlangan. Qarshi shahridan 25 km sharqda, Hisor tog‘ tizmasining tog‘ oldi adirli tekisliklarida rivojlangan. O‘simliklari asosan efemerlardan iborat. Gumusning kamligi sababli och bo‘z tuproqlarda morfologik genetik gorizontlar uncha yorqin ifodalanmagan. Xlorid kislota ta’sirida barcha qatlamlar shiddatli qaynaydi. Hasharotlar va turli jonivorlar inlarining bo‘lishi va tarqalishi bu tuproqlar uchun xosdir [7].

Tadqiqotning usullari. Qarshi shahrining tuproq-ekologik tadqiqotlari 2025-yilning bahor oyida o‘tkazildi. Tuproq qoplamini o‘rganish uchun shaharning turli qismlarida joylashgan hududlar tanlab olindi. Tadqiqotlar dala va laboratoriya sharoitida olib borilgan bo‘lib, olingan natijalar «Методы агрохимических анализов почв и растений», «Методы агрофизических исследований», “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” kabi uslubiy qo‘llanmalar asosida amalga oshirilgan. Tadqiqot Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrining ekologik holatidan kelib chiqqan holda tanlab olingan oltita tajriba nuqtalaridagi och tusli bo‘z tuproqlarida olib borildi.

Tadqiqotning maqsadi. Qarshi shahrida tarqalgan och tusli bo‘z tuproqlarining ayrim agrokimyoviy holatini baholash.

Natijalar va muhokamalar. Tuproqdagi gumus muhim ahamiyatga ega, chunki u tuproq unumdorligiga ta’sir qiladi va turli funktsiyalarni bajaradi. Tuproqdagi pH-bu tuproqning kislota-ishqoriy muvozanatini aks ettiruvchi vodorod ko‘rsatkichi. pH o‘simlik hayoti uchun

juda muhimdir, chunki ba’zi ekinlar ozgina kislotali tuproqda, boshqalari neytral tuproqda, boshqalari ishqoriy tuproqda o‘sishni afzal ko‘rishadi. Kaliy va fosfor o‘simliklar o‘sishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan tuproqdagi muhim oziq moddalardir. Kaliy o‘simlik hujayrasida sodir bo‘ladigan barcha jarayonlarga ta’sir qiladi: suv transporti, fotosintez va nafas olish. Yetarli konsentratsiyada u ko‘kalamzorlashtirilaigan daraxtlarining stressli o‘sish sharoitlariga chidamliligini oshiradi. Fosfor energiya almashinuvida, nuklein kislotalarning (DNK va RNK) sintezida, ATP hosil bo‘lishida ishtirok etadi. Ildiz tizimining rivojlanishini, gullash va mevalarning tezlashishini ta’minlaydi. Shu bois tajriba olib borilgan hudud tuproqlari tarkibidagi gumus miqodiri, Ph ko‘rsatgichi, kaliy va harakatchan fosfor tarkibi o‘rganilgan.

Tajriba olib borilgan hududning yer maydoni 61 gektar maydonni tashkil etib, tuproqning dengiz sathiga nisbatan balandigi 375-385 metrni tashkil qiladi. O‘rganilgan hududning och tusli bo‘z tuproqlaridan 10 ta asosiy va 24 ta yordamchi kesmalardan (0-30) santimetrlik haydov qatlamlardan (tuproqlar aprel oyining birinchi o‘n kunligida) jami 34 ta tuproq namunalari olindi va kimyoviy tahlillar o‘tkazildi. Tuproqning dastlabki agrokimyoviy holatini aniqlash maqsadida gumus va oziqa elementlar bilan ta’minlanganlik darajasi o‘rganildi. O‘rganilgan hudud tuproqlarida unumdorlikning asosiy ko‘rsatkichi bo‘lgan gumus miqdori 1, 2, 7, 9, 10-kesmaning 0-30 sm, haydov qatlamlarida past miqdorda 0,90-1,15% atrofida ekanligi, qolgan kesmalarda esa 1,25-1,38% atrofida tebranishi, ta’minlangalik darajasi o‘rta ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Qarshi shahri kuzatuv nuqtalari tuproqlarning ayrim ko‘rsatgichlarining kimyoviy tahlil natijalari

Kesma	**Qatlam qalinligi sm**	**P_2O_5 mg/kg**	**Darajasi**	**K_2O mg/kg**	**Darajasi**	**Gumus %**	**Darajasi**	**pH muhiti**	**Darajasi**
O‘rmon xo‘jaligi 1-K	0-30	11 mg/kg	Juda past	120 mg/kg	Past	0,97 %	Past	8.3	Kuchsiz ishqoriy
O‘rmon xo‘jaligi 2-K	0-30	13 mg/kg	Juda past	180 mg/kg	Past	1,15 %	Past	8.6	Kuchsiz ishqoriy
Sanoat zona 3-K	0-30	21 mg/kg	Past	256 mg/kg	O‘rta	1,34 %	O‘rta	8.3	Kuchsiz ishqoriy
Sanoat zona	0-30	24 mg/kg	Past	221 mg/kg	O‘rta	1,27 %	O‘rta	7.8	Kuchsiz ishqoriy

4-K									
Aeraport hududi 5-K	0-30	27 mg/kg	Past	220 mg/kg	O‘rta	1,31 %	O‘rta	8.9	Kuchsiz ishqoriy
Aeraport 6-K	0-30	23 mg/kg	Past	260 mg/kg	O‘rta	1,38 %	O‘rta	8.3	Kuchsiz ishqoriy
Sanoat qurilish bank 7-K	0-30	25 mg/kg	Past	167 mg/kg	Past	0,90 %	Past	9.0	Kuchsiz ishqoriy
Sanoat qurilish bank 8-K	0-30	19 mg/kg	Past	186 mg/kg	Past	1,25 %	O‘rta	8.7	Kuchsiz ishqoriy
11-maktab 9-K	0-30	23 mg/kg	Past	280 mg/kg	O‘rta	0,98 %	Past	8.3	Kuchsiz ishqoriy
11-maktab 10-K	0-30	19 mg/kg	Past	265 mg/kg	O‘rta	0,90 %	Past	7.9	Kuchsiz ishqoriy
5-maktab 11-K	0-30	27 mg/kg	Past	288 mg/kg	O‘rta	1,30 %	O‘rta	9.0	Kuchsiz ishqoriy
5-maktab 12-K	0-30	25 mg/kg	Past	272 mg/kg	O‘rta	1,31 %	O‘rta	7.3	Kuchsiz ishqoriy

Harakatchan fosfor bilan ta’minlanishi 1-2 kesmalarda juda past darajada ekanligi, 1-2 kesmaning 0-30 sm qatlamlarida fosfor miqdori 11-13 mg/kg, qolgan kesmalarda 19-27 mg/kg oralig‘ida yekanligi kuzatildi. Tahlillarga ko‘ra hudud tuproqlari fosfor bilan juda past va past darajada ta’minlangan. Kaliy miqdori o‘rta va past darajada ya’ni 1, 2, 7, 8-kesmaning 0-30 sm qatlamlarida 120-186 mg/kg oralig‘ida ekanligi, qolgan kesmalarda 220-288 mg/kg ekanligi ko‘rib o‘tildi. Kaliyning harakatchan miqdori past va o‘rta darajada ekanligi aniqlandi.

Tuproqdagi vodorod ioni konsentratsiyasiga bog‘liq holda, tuproqlar reaksiyasi (muhiti) nordon (pH<7,0), neytral (7-8) yoki ishqoriy (>8,0) bo‘lishi mumkin. Biz tadqiqot olib borgan tuproqlar, suvli so‘rimidagi pH ko‘rsatkichi 7,3-9,0 oralig‘ida tebranib, tuproq muhiti kuchsiz ishqoriy ekanligi kuzatildi.

Xulosa. Hududning agrokimyoviy tekshiruvi asosida tuproqning organik moddalarni hosil bo’lishida muammolar mavjudligi aniqlandi. Hudud tuproqlari fosfor bilan juda past va past darajada ta’minlangan.

Kaliyning harakatchan miqdori past va o‘rta darajada ekanligi, tuproq muhiti kuchsiz ishqoriy ekanligi kuzatildi.

O‘rganilayotgan hudud tuproqlarning ekologik holatidan kelib chiqgan holda, butun massivida organik moddalar miqdorini tizimli ravishda oshirishni amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bobonorov B.B., Bobomurodov Sh.M., Tursunov Sh.T., Ismonov A.J. Агрохимические свойства орошаемых сероземно-луговых почв, потерпевших природную катастрофу // Научное обозрение. Биологические науки. 2021. № 4. S. 39-43;

2. A. V. Lednev, A. V. Lojkin Характеристика почв города ижевска и их экологическое состояние // Агрохимический вестник. 2021. №4.

3. Nazarova S.M., Hakimova O.Sh. Buxoro vohasi sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarning agrokimyoviy xossalari tahlili// Analysis of world scientific views International Scientific Journal 2023 Vol 1 Issue 4.

4. Chekin G. V., Smolskiy Ye. V. Агрохимические свойства почв опытного поля брянского гау // Vestnik FGOU VPO Bryanskaya GSXA. 2022. №5 (93).

5. Uzakov Z. Z, Ergashev O. Sh., Begmatov B. E. Sug‘oriladigan o‘tloqi – bo‘z tuproqlarning agrokimyoviy holati (G‘uzor tumani misolida)// NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil 8-son.

6. Boboyev Farrux Farxodovich. Qashqadaryo vohasi tuprog‘larining agrokimyoviy holati va o‘simlikni o‘sishi uhun kerakli oziqa moddalar miqdorini aniqlash usullari (Qarshi tumani misolida) // AJEI. 2024. №2-2.

7. X.Q.Nomozov, Sh.M.Turdimetov. O‘zbekiston tuproqlari va ularning evolyutsiyasi. Darslik. -T.: «Fan va texnologiya», 2016, 256 bet.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK 571

https://orcid.org/0000-0002-5642-844X

QARSHI SHAHRI OLIY O’QUV YURTI TALABALARINING AYRIM ANTROPOMETRIK KO’RSATKICHLARINI O’RGANISH VA ULARNING TAHLILI

Sharipova Sitora Shukrilla qizi

Qarshi davlat universiteti magistranti

Email:shsitora0898@gmail.com,

Tel: +998904281943

Annotatsiya. Antropometrik ko'rsatkichlarni o'lchash jismoniy salomatlik holatini baholashning muhim va ishonchli usullaridan biridir, chunki bu ko'rsatkichlar organizmning umumiy holatini, jismoniy rivojlanish darajasini va salomatlikni aniqlashda katta rol o'ynaydi. Talaba yoshlarning jismoniy rivojlanishini va sog'ligini monitoring qilish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega, chunki bu yosh guruhining salomatligi va rivojlanishi, kelajakdagi ish faoliyati va umumiy hayot sifatiga ta'sir qiladi. Shu boisdan tadqiqotning maqsadi talabalar orasida antropometrik ko‘rsatkichlar bo‘yicha taqqoslov tahlil o‘tkazish hamda ularni tana massasi indeksi (TMI) asosida guruhlarga ajratishdan iborat bo‘ldi. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida joylashgan oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 123 nafar 16-23 yoshli talabalar qatnashdi. Ularning antropometrik ko'rsatkichlari bo'y uzunligi, tana vazni, tana massasi indeksi (TMI) va boshqa jismoniy rivojlanish parametrlari o’lchandi. Tadqiqot natijalari ortiqcha tana vaznining mavjudligi, jinsiy farqlar, va sog‘liq uchun xavfli guruhlarni aniqlashda bel-son nisbati (WHR), bel-bo’y nisbati (WHtR) hamda TMI ko‘rsatkichlarining muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi.

Kalit so’zlar: antropometrik parametrlar, bo‘y uzunligi, tana massasi, tana massasi indeksi (TMI), ko’krak qafasi aylanasi, bel aylanasi, buksa aylanasi, bel-son nisbati (WHR), bel-bo’y nisbati (WHtR), jismoniy rivojlanish, sog‘lik, talabalar.

Abstract. Measuring anthropometric indicators is one of the important and reliable methods for assessing physical health status, as these indicators play a vital role in determining the overall condition, physical development level, and health of the human body. Monitoring the physical development and health of university students holds significant scientific and practical value, as the well-being and development of this age group directly influence their future professional performance and overall quality of life. Therefore, the aim of this study was to conduct a comparative analysis of anthropometric indicators among students and to classify them into groups based on their Body Mass Index (BMI). This study involved 123 students aged 16 to 23 years from higher education institutions located in Karshi city, Kashkadarya region, Uzbekistan. Their anthropometric characteristics—including height, weight, BMI, and other physical development parameters—were measured. The study results demonstrated that BMI, Waist-to-Hip Ratio (WHR), and Waist-to-Height Ratio (WHtR) are crucial indicators in identifying overweight conditions, gender differences, and groups at risk for health problems.

Keywords: anthropometric parameters, body height, body weight, Body Mass Index (BMI), chest circumference, waist circumference, hip circumference, Waist-to-Hip Ratio (WHR), Waist-to-Height Ratio (WHtR), physical development, health, students.

Аннотация. Измерение антропометрических показателей человека является одним из важных и достоверных методов оценки физического состояния здоровья, поскольку эти показатели играют значительную роль в определении общего состояния организма, уровня физического развития и состояния здоровья. Мониторинг физического развития и состояния здоровья молодежи студенческого возраста имеет большое научное и практическое значение, так как здоровье и развитие данной возрастной группы напрямую влияют на их будущую профессиональную деятельность и общее качество жизни.

Целью настоящего исследования явилось проведение сравнительного анализа антропометрических показателей среди студентов и распределение их по группам на основе индекса массы тела (ИМТ). В исследовании приняли участие 123 студента в возрасте от 16 до 23 лет, обучающихся в высших учебных заведениях города Карши, Республика Узбекистан. Были измерены антропометрические показатели: рост, масса тела, индекс массы тела (ИМТ) и другие параметры физического развития. Результаты исследования показали значимость показателей ИМТ, соотношения талии к бедрам

(WHR) и соотношения талии к росту (WHtR) для выявления избыточной массы тела, половых различий, а также групп с повышенным риском для здоровья.

Ключевые слова: антропометрические параметры, рост, масса тела, индекс массы тела (ИМТ), окружность грудной клетки, окружность талии, окружность бедер, соотношение талии к бедрам (WHR), соотношение талии к росту (WHtR), физическое развитие, здоровье, студенты.

KIRISH

Talabalar salomatligini baholashda antropometrik ma'lumotlar asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Antropometrik o'lchovlar, masalan, bo'y uzunligi, tana vazni, tana massasi indeksi (TMI), bel aylanasi, bel-son nisbati (WHR) hamda bel-bo’y nisbati (WHtR) organizmning normal rivojlanishida yuzaga keladigan o'zgarishlarni o'rganish imkonini beradi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, talaba yoshlar orasidagi jismoniy faollikning pasayishi, noto‘g‘ri ovqatlanish, stressga ko‘proq duch kelish holatlari antropometrik ko‘rsatkichlar, xususan TMI darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda [1,2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Talabalarning jismoniy rivojlanishini baholashda asosiy mezon sifatida bo‘y uzunligi va tana massasi qabul qilinadi. Shu nuqtai nazardan, XIX asrda belgiyalik matematik Adolf Ketle tomonidan ishlab chiqilgan tana massasi indeksi (TMI) katta ahamiyatga ega. Ushbu indeks tana vazni va bo‘y uzunligining o‘zaro nisbatiga asoslanib, inson organizmining umumiy holatini aniqlash imkonini beradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) mezonlariga ko‘ra, agar TMI 18,5 kg/m² dan past bo‘lsa, bu energiya yetishmovchiligining belgisi sanaladi, 16 kg/m² dan past bo‘lsa, bu og‘ir darajadagi vazn tanqisligi sifatida baholanadi. Me’yoriy chegaraning yuqori qiymati 25 kg/m² bo‘lib, undan yuqori bo‘lsa, semizlik darajalarga ajratiladi: 30–34,9 kg/m² birinchi darajali semizlik, 35,0–39,9 kg/m² ikkinchi darajali semizlik, 40 kg/m² va undan yuqori ko‘rsatkich esa uchinchi darajali semizlik hisoblanadi. [3,4]

Ushbu maqolada Qarshi shahri sharoitida tahsil olayotgan oliy o‘quv yurti talabalarining antropometrik ko‘rsatkichlari va ularning tahlili o’rganilgan.

Tadqiqot 2025-yilning qish oylarida Qarshi davlat universiteti hamda Iqtisodiyot va pedagogika universitetida tahsil olayotgan 123 nafar 16-23 yoshli talabalar (shundan, 23 nafar erkak va 100 nafar ayol) ishtirokida olib borildi. Tadqiqotda respondentlarning yoshi o'rtacha

18,5±1,03 yoshni tashkil etdi. Tadqiqot davomida quyidagi antropometrik ko‘rsatkichlar o‘lchandi: bo‘y uzunligi, tana vazni, ko’krak qafasi aylanasi, bel aylanasi, buksa aylanasi. O‘lchovlar uchun standart uskunalar va metodologiyalar qo‘llanildi. Talabalarning antropometrik ko'rsatkichlari (bo'y uzunligi, tana massasi, ko’krak qafasi aylanasi, bel aylanasi, buksa aylanasi) antropometrik usullar yordamida aniqlandi. Bo’y uzunligi yog’och rostomer yordamida, tana vazni elektron tarozi, ko’krak qafasi, bel va buksa aylanasi esa santimetrli lenta yordamida o’lchandi. Olingan natijalar mavjud standartlarga nisbatan taqqoslandi. Ma'lumotlar Ms Excel dasturi yordamida tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Keltirilgan tavsiflovchi statistik ma'lumotlar (1-jadval) yosh, bo'y, tana massasi, tana massasi indeksi (TMI), ko’krak qafasi aylanasi, bel aylanasi, buksa aylanasi, bel-son nisbati (WHR) hamda bel-bo’y nisbati (WHtR) haqida tushunchalar beradi. Namuna 16 yoshdan 23 yoshgacha bo’lgan talabalardan iborat bo’lib, o'rtacha yoshi 18,5 yosh va nisbatan tor yosh taqsimoti bilan. Talabalarning bo‘yi 145 sm dan 186 sm gacha, o‘rtacha bo‘yi 167 sm. Ularning vazni 42 kg dan 93 kg gacha, o'rtacha vazni 69 kg ni tashkil etdi. Namunadagi TMI qiymatlari 15,2 dan 30,8 gacha, o'rtacha TMI 24,93 ni tashkil etdi. Namunadagi talabalar bel aylanasining qiymatlari 60 sm dan 118 sm gacha bo‘lib, o‘rtacha bel aylanasi 77,5 sm, standart og‘ish esa 10,25 sm ni tashkil etdi.

1-jadval

Talabalarning ayrim antropometrik ko’rsatkichlari

Antropometrik parametrlar	Min	Max	O’rtacha qiymat	Standart og’ish
Yosh	16	23	18,5	1,030974
Bo’y uzunligi (sm)	145	186	166,5	8,24
Tana massasi (kg)	42	93	69	10,04514
TMI	15,2	30,8	24,93	3,21
Ko’krak qafasi aylanasi	63	110	91	10,69652
Bel aylanasi	60	118	77,5	10,25787
Buksa aylanasi	71	120	90	8,306888

Bel-son nisbati (WHR)	0,677	0,983	0,861	0,087698
Bel-bo’y nisbati (WHtR)	0,358	0,654	0,465	0,05724

Xuddi shuningdek, buksa aylana qiymatlari 71 sm dan 120 sm gacha bo‘lib, o‘rtacha qiymat 90 sm, standart og‘ish esa 8,30 sm bo‘ldi.

Bel-son nisbati (WHR) esa 0,677 dan 0,983 gacha bo‘lib, o‘rtacha 0,861, standart og‘ish 0,087 ni tashkil etdi.

Ilmiy tadqiqotlar WHR ko‘rsatkichi sog‘liq uchun xavf, ayniqsa yurak-qon tomir kasalliklari va metabolik buzilishlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan. Masalan, 22 ta kuzatuvchi tadqiqotni o‘z ichiga olgan meta-tahlilda umumiy 709 093 ishtirokchi o‘rganilib, yuqori WHR qiymatlari miokard infarkti (MI) xavfi bilan sezilarli bog‘liqlikni ko‘rsatgan [5].

Bel-bo‘y nisbati (WHtR) 0,358 dan 0,654 gacha bo‘lib, o‘rtacha 0,465, standart og‘ish esa 0,057 ga teng bo‘lgan.

WHtR ba’zi manbalarda BMI yoki WHR ga nisbatan sog‘liq uchun xavflarni aniqlashda ancha ishonchli ko‘rsatkich sifatida taklif etilgan. Tadqiqotlar WHtR ning kardiometabolik xavf omillari bilan kuchli bog‘liqligini va surunkali kasalliklar xavfi yuqori bo‘lgan shaxslarni aniqlashda qulay va samarali skrining vositasi sifatida xizmat qilishini ko‘rsatmoqda [6].

2-jadval

Talabalarni tana massasi indeksi (TMI) asosida toifalash

Kategoriya	**Tana massasi indeksi (TMI)**	**Respondentlar soni N (%)**
Kam tana massasi	18,5 dan kam	17 (13,7%)
Me’yor	18,5-24,9	84 (67,75%)
Ortiqcha tana massasi	25,0-29,9	21 (16,94%)
I darajali semizlik	30,0-34,9	2 (1,61%)

2-jadval natijalaridan shuni ko‘rish mumkinki, namunadagi 84 nafar (67,75 %) talabalar tana massasi indeksi (BMI) bo‘yicha normal vazn holatiga ega. 17 nafari (13,7%) esa tana vazni

yetishmovchiligi ya’ni 18,5 dan past ko’rsatkichga, 21 nafari (16,94%) ortiqcha tana vazni ya’ni 25,0 dan 29,9 oralig’ida va 2 nafari esa 1-darajali semizlikni qayd qildi.

3-jadval

Ayol respondentlarning WHR va WHtR ko‘rsatkichlari asosida tasnifi

Salomatlik xavfi	Bel-son nisbati		Bel-bo’y nisbati	
	WHR chegarasi	Respondentlar (%)	WHtR chegarasi	Respondentlar (%)
Me’yor	<0,85	69	<0,5	78
Xavf	≥0,85	31	≥0,5	22

Tadqiqotda ishtirok etgan ayol talabalarning bel-son (WHR) va bel-bo‘y (WHtR) nisbatlari asosida sog‘liq holati baholandi (3-jadval). WHR ko‘rsatkichlariga ko‘ra, 69 nafar talaba (69,0 %) normal toifadagi (ya’ni WHR < 0,85) guruhga kirgan bo‘lsa, 31 nafar talaba (31,0 %) ≥0,85 ko‘rsatkich bilan markaziy semizlik xavfi ostida ekanligi aniqlandi. Shuningdek, WHtR ko‘rsatkichlari asosida 78 nafar talaba (78,0 %) < 0,5 bo‘lgan past xavfli guruhga, 22 nafar talaba (22,0 %) esa ≥ 0,5 ko‘rsatkich bilan yurak-qon tomir kasalliklari va metabolik buzilishlar xavfi yuqori guruhga kiradi.

Ushbu natijalar ayol talabalarda abdominal semizlik bilan bog‘liq sog‘liq muammolari xavfi mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, WHtR ≥ 0,5 bo‘lganlar surunkali kasalliklar rivojlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan xavfli guruh sifatida alohida e’tiborni talab qiladi. Shuning uchun WHR va WHtR ko‘rsatkichlari talaba yoshlar salomatligini baholashda muhim skrining mezoni bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

4-jadval

Erkak respondentlarning WHR va WHtR ko‘rsatkichlari asosida tasnifi

Salomatlik xavfi	Bel-son nisbati		Bel-bo’y nisbati	
	WHR chegarasi	Respondentlar (%)	WHtR chegarasi	Respondentlar %)
Me’yor	<0,95	18 (78,26%)	<0,5	12 (52,17 %)
Xavf	≥0,95	5 (21,74%)	≥0,5	11 (47,83 %)

Tadqiqotda ishtirok etgan erkak talabalarning bel-son nisbati (WHR) va bel-bo‘y nisbati (WHtR) mezonlariga asoslangan sog‘liq xavfi darajalari 4-jadvalda keltirilgan. WHR ko‘rsatkichlariga ko‘ra, 18 nafar erkak talaba (78,26 %) normal toifadagi (ya’ni WHR < 0,95)

guruhga kirgan bo‘lsa, 5 nafar talaba (21,74 %) ≥0,95 ko‘rsatkich bilan markaziy semizlik xavfi ostida ekanligi aniqlandi.

WHtR mezoni asosida esa, 12 nafar erkak talaba (52,17 %) <0,5 bo‘lgan past xavfli guruhga, 11 nafar talaba (47,83 %) esa ≥0,5 ko‘rsatkich bilan yurak-qon tomir kasalliklari va boshqa metabolik kasalliklar xavfi yuqori bo‘lgan guruhga mansub deb topildi.

Ushbu natijalar erkak talabalarda ham abdominal semizlikning mavjudligini va surunkali kasalliklar rivojlanish ehtimoli mavjud guruhlar borligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, WHtR ≥0,5 bo‘lganlar alohida profilaktik e’tiborni talab qiladi. Bu ko‘rsatkichlar asosida sog‘liqni monitoring qilish va turmush tarzini sog‘lomlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA.

Olib borilgan tadqiqot natijalari Qarshi shahri sharoitida tahsil olayotgan talabalar orasida ayrim antropometrik ko‘rsatkichlarning tahlili orqali ularning salomatlik holatini baholash imkonini berdi. Tadqiqotda aniqlangan tana massasi indeksi (TMI), bel-son nisbati (WHR) va bel-bo‘y nisbati (WHtR) kabi ko‘rsatkichlar asosida, talabalarda ortiqcha vazn va abdominal semizlikka moyillik kuzatilgan.

TMI ko‘rsatkichlari asosida respondentlarning katta qismi (67,75%) normal vazn toifasiga kirgan bo‘lsa-da, 16,94% ortiqcha vaznli, 13,7% esa tana vazni yetishmovchiligi holatida ekanligi aniqlandi. Shuningdek, WHR va WHtR tahlillari ayol talabalar orasida markaziy semizlik (31%) va kardiometabolik kasalliklar xavfi (22%) mavjudligini ko‘rsatgan bo‘lsa, erkak talabalar orasida ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 21,74% va 47,83% ni tashkil etdi. Ushbu natijalar talabalar orasida sog’liq uchun xavf tug’diruvchi omillar, ayniqsa abdominal semizlikning dolzarbligini ko’rsatadi. Ayniqsa, WHtR ko’rsatkichi ≥ 0,5 bo’lgan talabalar alohida profilaktik nazorat va sog’lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan dasturlarga ehtiyoj sezmoqda. Xulosa tariqasida, WHR va WHtR kabi ko‘rsatkichlar talaba yoshlar salomatligini baholashda oddiy, samarali, ishonchli hamda zamonaviy usul sifatida foydalanilishi mumkin.

Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida talaba yoshlarning jismoniy rivojlanishini doimiy monitoring qilish, sog‘lom ovqatlanish madaniyatini targ‘ib qilish va

jismoniy faollikni oshirishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Choi J. Impact of stress levels on eating behaviors among college students. *Nutrients*. 2020; 12(5): 1241.

2. Bertrand L. et al. COVID-19 pandemic and its impact on students’ physical activity and sedentary behavior. *Appl Physiol Nutr Metab*. 2021; 46(3): 265–272.

3. World Health Organization. BMI classification. Geneva: WHO, 2020.

4. Bocharin I.V, Guryanov M.S Особенности антропометрических показателей студентов младших курсов // Карельский научный журнал. 2023. Т. 12. № 2(43)

5. Zhao, X., Liu, Y., Wang, H., & Zhang, X. Association between waist-hip ratio and risk of myocardial infarction: A meta-analysis of prospective studies. Frontiers in Cardiovascular Medicine, (2024) 11, 1438817.

6. V. Vijaya Lakshmi and E. Shirin Hima Bindu. Anthropometric Measures as Indicators of Health Risks among Female College Students // Agriculture Association of Textile Chemical and Critical Reviews Journal (2023) 261-264

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

TURLI-XIL KAUCHUKLAR ASOSIDA YUQORI DARAJADA BO‘KUVCHI OLEOGELLARNING IQ VA DIFFERENSIAL TERMIK TAHLIL XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH

Ernazarova Nasiba Temirovna,
[1]Toshkent kimyo texnologiya ilmiy-tadqiqot institut doktaranti
Qiyomov Sharifjon Nozimovich,
[2]Texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim,
Xusanova Mamlakat Furqatovna,
[3]Doktorant DSc, katta ilmiy xodim,
Djalilov Abdulahat Turapovich.
[3]O'zR fanlar akademiyasi akademigi, Kimyo fanlar doktor, professor toshkent kimyo texnologiya ilmiy tadqiqot instituti direktori

Annotasiya: Ushbu maqolada oleogellar sintez qilingan. Uch xil kauchuk aralashmasidan super bo’kuchi oleogellarni oleogellarni tarkibida uglerod, vodorod, kislorod, azot va metall saqlagan oleogel sintez qilib olindi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o‘rganib chiqilgan. Ushbu oleogelning IQ -Furye, SHIMADZU qurilmasi orqali qanday funksional guruhlar borligi aniqlandi hamda olingan yangi moddalarning yutilish sohasidagi cho‘qqilari muvofiq o’rganildi va differentsial termal tahlilini SHIMADZU DTG -60 analiz qurilmasida issiqlik yutishi hamda chiqarish tezligini aniqlash bilan bir qatorda oleogel qancha haroratgacha o’zining xususiyatini yo‘qotmasdan ishlash darajalari tekshirildi. Oleogelning termik xususiyatlari, endotermik va ekzotermik nuqtalari isbotlab berildi shu bilan birga himoya darajalari turli haroratlarda o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Kauchuk, toluol, organik birikmalar, pech, choklovchi modda, IQ -Furye SHIMADZU, SHIMADZU DTG -60 analiz qurilmasida.

Аннотация: В этой статье были синтезированы олеогели. Из смеси трех разных каучуков были синтезированы сверхтвердые олеогели, содержащие углерод, водород,кислород, азот и металл, и изучены физико-химические свойства олеогелей. Были определены функциональные группы этого олеогеля с помощью прибора IQ-furye, SHIMADZU и соответственно изучены пики в области поглощения полученных новых веществ, а также проведен дифференциальный термический анализ на анализирующем устройстве SHIMADZU DTG -60 с определением поглощения тепла и скорости высвобождения, а также проверены уровни, при которых олеогель работает без потери своих свойств до скольких температур.пределены функциональные группы этого олеогеля с помощью прибора IQ-furye, SHIMADZU и соответственно изучены пики в области поглощения полутурах.

Ключевые слова: Каучук, толуол, органические соединения, печь, дроссель, ИК-Фурье SHIMADZU, SHIMADZU в анализаторе DTG -60.

Abstract: In this article, oleogels were synthesized. Superhard oleogels containing carbon, hydrogen, oxygen, nitrogen, and metal were synthesized from a mixture of three different rubbers, and the physicochemical properties of the oleogels were studied. The functional groups of this oleogel were determined using the IQ-furye, SHIMADZU device and, accordingly, peaks in the absorption of the obtained new substances were studied, as well as differential thermal analysis was performed on the SHIMADZU DTG - 60 analyzing device to determine heat absorption and release rate, and the levels at which oleogel works without loss of its properties up to how many temperatures. The functional groups of this oleogel were determined using the IQ-furye, SHIMADZU device and, accordingly, peaks in the absorption region of the half-spheres were studied.

Keywords: Rubber, toluene, organic compounds, furnace, choke, IR Fourier SHIMADZU, SHIMADZU in the DTG -60 analyzer.

KIRISH

Bugungi kunda jahonda gidrofob birikmalar asosida oleogellar hamda gidrofil birikmalar asosida gidrogellar sintez qilishning yangi, ekologik xavfsiz va iqtisodiy samarador usullarini ishlab chiqish hamda ularni sanoat, qishloq xo’jaligi va maishiy turmushning turli sohalarida qo’llash bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu yo’nalishda olefinlar asosida oleogellar hamda akril monomerlari asosida gidrogellar olishning yangi samarali texnologiyalarini ishlab chiqish hamda mavjud texnologiyalarni takomillashtirish borasida olib borilayotgan tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda. Respublikamizda kimyo sanoatini modernizatsiya qilish bo'yicha ilmiy texnik ishlar rivojlantirilmoqda, jumladan, import qilinayotgan mahsulotlar o'rnini bosuvchi mahalliy xomashyolar asosida yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan me'yoriy tadbirlar asosida ma'lum natijalarga, ayniqsa polimer materiallar ishtirokida, oleogel va gidrogel mahsulotlarini, shuningdek, ko'p komponentli va funktsiyali oleogel va gidrogellarini yaratish bo'yicha ma'lum ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «mutlaqo yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqarishni o'zlashtirish, shu asosda tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardosh mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlash»[1] ga qaratilgan muhim vazifalari belgilangan. Bu borada mahalliy xomashyolar asosida tarkibida gidrofil va girofob guruhlar saqlovchi oleogel hamda gidrogellar ishlab chiqarish uchun iqtisodiy jihatdan samarali va ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tejamkor hisoblangan sintetik materiallar dastlab neftni yig’ib olish uchun keng qo'llanilgan. Biroq, suv resurslarini neftdan ko'ra ko’proq zaharlaydigan ayrim dispersantlardan foydalanishning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi to'kilgan neftni qayta yig’ib olishning yangi yo’llarini izlashga olib keldi. Suv resurslaridan to'kilgan neftni yig’ib olish hozirgi kunda ham juda dolzarb masalalardan biridir. Atrof-muhitni asrash va barqaror muhitni shakllantirish

natijasida turli xil arzon, toksik bo'lmagan va biologik parchalanadigan materiallar, shuningdek, mikrodan nanomateriallarga, membranalarga, oleogellar/aerojellarga va boshqa turlarini ishlab chiqish va qayta tiklash uchun turli xil biomateriallar paydo bo'ldi. Bundan tashqari, neft qoldiqlari olingandan so'ng, ushbu materiallarni qayta ishlatish uchun yana bir qadam tashlanadi. Ushbu sharh turli xil biomassalar va polimerlardan, ham sorbentlar, ham separatorlar sifatida to’kilgan neftni oldini olish va qayta ishlash sohasida turli tadqiqotchilar tomonidan bajarilgan ishlarni o'z ichiga oladi[1].

Darhaqiqat, neftni qayta ishlash uchun dispergantlar, changni yutish vositalari, qattiqlashtiruvchi moddalar, yig’uvchilar va skimmerlar kabi keng assortimentdagi materiallar qo'llaniladi [2]. Dispersantlar to’kilgan neftni yutilishini tezlashtirish uchun uni oddiygina tarqatib yuboradi va uni singdirish orqali suvdan ajratadi. Absorbentlar neftni to'playdi va uni singdirish orqali suvdan ajratadi. Qattiqlashtiruvchi moddalar quruq, donador, gidrofob polimerlar bo'lib, ular neft bilan reaksiyaga kirishib, suv yuzasida suzuvchi qotib qolgan massa hosil qiladi. Yig’uvchilar va skimmerlar neftni yig'ish uchun jismonan yig'adilar. Yig’uvchilar neftni ma'lum bir hududda saqlash (saqlash) yoki neftni ma'lum bir hududga kirishiga yo'l qo'ymaslik (diversiya) uchun, skimmerlar esa suv yuzasidan neftni yig'ish uchun ishlatiladi [3; 59 b].

Shu bilan birga, bunday organik o'simlik mahsulotlari zaif suzuvchanlik xususiyatlariga, nisbatan past neftni so'rib olish qobiliyatiga va past gidrofoblikka ega ekanligi haqida adabiyotlarda keltirib o’tilgan [4; 6428 b].

Suvni yutish va saqlash hajmi katta bo'lgan gidrofil polimerlar gidrogel yoki superabsorbentlar deb nomlanadi. Gidrogel suvda uch o'lchovli o'zaro bog'langan va shishgan polimer bo'lib, unda erimaydi. Gidrogellarning namlikni ushlab turish qobiliyati polimer zanjiri bo'ylab OH, -CONH, -$CONH_2$, -COOH kabi gidrofil guruhlarning mavjudligi bilan bog'liq. Gidrogellarning biologik xilma-xilligi juda muhimdir.uvni yutish va saqlash hajmi katta bo'lgan gidrofil polimerlar gidrogel yoki superabsorbentlar deb nomlanadi. Gidrogel suvda uch o'zaro bog'langan va shishgan polimer bo'lib, unda erimaydi. Gidrogellarning namlikni ushlab turish qobiliyati polimer zanjiri bo'ylab OH, -CONH, -$CONH_2$, -COOH kabi gidrofil guruhlarning mavjudligi bilan bog'liq[5].

Neftning to'kilishi va oqishi natijasida yuzaga keladigan dengiz ifloslanishi ushbu dengiz ekotizimlariga bog'liq bo'lgan ekotizim va iqtisodiyotga zararli ta'sir ko'rsatadi. Dunyo bo'ylab suv yo'llari orqali tashilgan har bir barrel neft atrof-muhitni to'kilish xavfiga olib keladi.eftning to'kilishi va oqishi natijasida yuzaga keladigan dengiz ifloslanishi ushbu dengiz ekotizimlariga bog'liq bo'lgan ekotizim va iqtisodiyotga zararli ta'sir ko'rsatadi. Dunyo bo'ylab suv yo'llari orqali tashilgan har bir barrel neft atrof-muhitni to'kilish xavfiga olib keladi. Har bir neft to'kilishi halokatli bo'lishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatli zarar to'kilgan neft hajmiga emas, balki tozalash tezligiga bog'liq. Yog ' sirtga yetganda, neftning tarkibi va xususiyatlari deyarli darhol o'zgaradi. Neftning dastlabki to'kilishidan so'ng bir qator jarayonlar sodir bo'ladi, shu

jumladan neftning bug'lanishi, oksidlanishi, emulsifikatsiyasi, cho'kishi, biologik parchalanishi va tarqalishi (rasm. 1)[6].



1-rasm. Neft to'kilishining tarqalish sxemasi.

Shu nuqtai nazardan, perftorfunktsional guruh mukammal xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan va organik moddalarni organik va suv aralashmalaridan ajratish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan kuchli gidrofob material ishlab chiqarish uchun oleogellar tarkibiga kiritilgan. Toluol va boshqalar turli xil organik erituvchilar uchun CF3 modifikatsiyalangan kremniyli oleollarining absorbsion qobiliyati sinovdan o'tgan barcha erituvchilar uchun gramm/gramm asosida taqqoslanadigan donador faollashtirilgan ko’mir (GAC) sig'imidan oshib ketganligini ko'rsatgan[7].

Infraqizil spektroskopiya (IQ) – IQ-spektroskopiyasi (Yaponiyada ishlab chiqarilgan Furye spektrometri. IQ spektroskopik tadqiqotlar SHIMADZU infraqizil Furye spektrometrida (diapazoni 400-4000 sm^{-1}, o‘lchamlari 4 sm^{-1}) kukun ususlida o‘tkazildi. Olib borilgan tajribalar natijasida hosil bo‘lgan yangi moddaning dastlabki moddalarga nisbatan fizik-kimyoviy xossalari bo‘yicha farq bo‘lsa, reaksiya ketgan ketmaganligini bilish uchun va shunga o‘xshash boshqa holatlarda, shuningdek, sentiz qilingan moddalarning tarkibi IQ-spektrlar yordamida tahlil qilingan.

Differensial termik tahlil (DTA) — bu materiallarning fizik yoki kimyoviy o‘zgarishlar (masalan, erish, kristallanish, fazaviy o‘tishlar, parchalanish) issiqlikni yutish (endotermik) yoki chiqarish (ekzotermik) bilan birga keladi. Bu ΔTda o‘zgarishlarga olib keladi. Bu usul materialni qizdirish yoki sovitish jarayonida uning ichki fazaviy o‘zgarishlari, reaksiyalari yoki issiqlik hodisalarini tahlil qilish uchun ishlatiladi. Bu esa o‘z navbatida korroziya ingibitorining ta’sir mexanizmini va samaradorligini tushunishga yordam beradi.

Sintez jarayoni

Biz sentiz qilgan super oleogel olish uchun bizga kerak, yuqori haroratga chidamli 250 ml hajmli kolba, haroratni kuzatib turish uchun 200°C termometr, temperaturani bir xilda saqlab turish uchun moy hamom va pech hamda qaytarma sovitgich orqali reaksiya olib boriladi, Butadiyen stirol (BSK), tabiiy kauchuk (TK), Izopren kauchuk (SKI) kauchuklarni 10% li eritmasi tayyorlandi. Dastlab kauchuklarni toluolda eritma holatiga o’tkazildi. Arlashma ikki

sutka xona haroratida shisha tayoqcha bilan aralashtirib eritildi. Hosil bo’lgan eritmani 250 ml kolbaga solinadi va eritma solingan kolbaga qaytarma sovitgich o’rnatilgandan so’ng pechda turgan moy hammomiga tushiriladi, so’ng haroratni 80℃ temperaturada 40 daqiqa ushlab turiladi so’ngra unga inisiatir sifatida ammoniy persulfat 0.3% da qo’shildi, reaksiya harorati sekin astalik bilan ko’tarib boriladi. Reaksiya harorati 90℃ ga chiqanidan so’ng, choklovchi modda sifatida glutaraldigid 3% qo’shildi. Reaksiya jarayoni 80-90℃ oralig’ida 6 soat davomida olib borildi, biz uni User Manual pechida 75℃ da 12 soat davomida quritib olindi.

Biz sentiz qilib olgan oleogelni 2-rasmda IQ spektir tahlili o‘rganib chiqamiz,



2-rasmda. Sintez qilingan super oleogelning IQ-spektri.

Chiqindi suvlarni tozalashda qo'llaniladigan super oleogellar (suvda erimaydigan yog'lar va neft mahsulotlarini yutish qobiliyatiga ega gel moddalar) infraqizil (IR) spektroskopiyasi orqali tahlil qilinganda, ularning tarkibidagi funksional guruhlar va strukturaviy xususiyatlari aniqlanadi.

Olingan Super oleogel mahsulotimizni IQ-spektri tahlil qilindi. 2962,66 sm^{-1} sohada CH_3 yuqori intensiv tebranish asimmetrik valent bog‘lari, 2916,37-2848,86 sm^{-1} sohada CH_2 yuqori intensiv tebranish asimmetrik valent bog‘lari, 1635 sm^{-1} sohada C=N intensiv valent tebranish bog‘lari, 1448 sm^{-1} sohada CH_2 sohalar asimmetrik deformatsiya tebranish bog‘lari, 1244.09 cm^{-1}, 1132.21 sm^{-1}, 1078.21 sm^{-1}, 1037.70 sm^{-1} sohalarda COC, yuqori intensiv, asimetrik valent tebranish bog‘lari, mavjudligi aniqlandi.

DTA va TGA tahlilini o‘rganish uchun SHIMADZU DTG -60. analiz qurilmasida PF-1 markali kompozit korroziya ingibitorining termik xususiyatlari o’rganish jarayonida 10-600°C haroratlar oralig‘ida bir vaqtning o‘zida TGA va DTA termogravimetrik analizlari bajarilgan (1-rasm). PF-1 markali kompozit korroziya ingibitorining termik tahlilining barcha namunalari dinamik rejimda inert argon(Ar) gazli muhitda 1minutda 80ml argon gazi doimiy ravishda berib turildi. Harorat o’zgarishi 1 daqiqa davomida 10°C tezlikda alyuminiydan tayyorlangan tigel

furforli alumina panda olib borildi. Bundan tashqari Oleogelning endotermik va ekzotermik nuqtalari isbotlab berildi.

Olingan oleogelni differensial termik analizi (DTA) va termogravimetrik analizi (TGA) quyidagi 3-rasmda o‘rganib chiqildi.



3-rasm. Sentiz qilingan oleogelning differentsial termogravimetrik analizi (DTA)

1-rasmda keltirilgan quruq massada sintez qilingan. oleogel uchun maksimal 600°C harorat tanlab olinib, tahlil natijalari keltirilgan differentsial termogravimetrik (DTA) termogravimetrik derivatogrammasi (TGA) va analizga qarab o‘rganib chiqildi. 429,97°C, haroratlarda bitta endotermik pik kuzatildi bu issiqlik so‘riladigan jarayonni ifodalovchi **termik analiz egri chizig‘idagi** cho‘qqi. Endotermik jarayonlarda material tashqi manbadan issiqlik so‘radi va bu uning ichki energetik holatini o‘zgartiradi. Energitik holat o’zgarishini 1-jadvalga ko’rishimiz mumkin.

1-jadval

Sintez qilingan oleogelning DTA tahlilining ko’rinishi

Harorat	Umumiy energiya yutilishi, uV	Birlik massaga nisbatan, uV/mg	Issiqlik, m/cal	Issiqlik bir massaga cal/g,
429.97 °C	-2.36	-0.30	-202.77	-25.69

Termik analizda ikkita massa yo’qotilishi kuzatilgan bo’lib ulardan birinchisi 35.75-299.72^0 kuzatilgan bunda 0.288 mg massa yo’qotilgan bu massa yo’qotilishi oleogel sintezi jarayonida reaksiyaga kirishmasdan ortib qolgan glutar aldegid va erituvchi toluol hisobiga

to’g’ri keladi. Ikkinchi massa yo’qotilishi esa 299.72-601.78°C oralig’ida kuzatildi. Bunda yo’qtilgan massa 7.886 mg ni tashkil qildi. Bunda oleogel to’liqligicha parchalanib gaz holatda chiqib ketgan. Termogravimetrik analiz egri chizig‘i (TGA) (ko‘k chiziq) tahlili shuni ko‘rsatadiki, TGA egri chizig‘ida massa yutilish asosan 2 ta temperatura oralig‘ida amalga oshishini 2-jadvalda kurishimiz mumkin.

1-jadval

Sintez qilingan oleogelning TGA tahlilining ko’rinishi

Harorat	Massa yo‘qotilishi, mg	Massa yo‘qotilishi, %
35.79-299.72°C	0,288	3.649
299.72-601.78°C	7.598	96.275
Jami	7.886	99.924

Olingan oleogel parchalanib gaz hosil qilib o’zi bilan birga ma’lum miqdordagi energiyani tashqariga olib chiqib ketiadi. Moddaning parchalanish intervali va harorat intervalining o’zaro mosligi ushbu fikirni tasdiqlaydi.

Xulosa

Sentiz qilingan Oleogelning IQ spektr tahilidan shuni ko‘rsatyaptiki tarkibida azot, kislorod, vodorod, uglerod va metall bog‘lari mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Differensial termik tahlil natijalaridan shuni aytishimiz mumkin bo‘ladiki. Biz olgan sanoat chiqindi suvlarini tozalashda qo’llaniladigan super oleogel o‘zining aktivligini hamda sezilarli ta’sirini ko‘rsatadi. Oleogellerni to‘g‘ri tanlanishi va qo‘llanilishi. Biz ushbu Oleogelni ishlash samaradorlilik harorati 429.97°C dan ham yuqori haroratlarda ham foydalanish mumkin ekanligini tahlil natijalari ko‘rsatib turibdi. Bu sentiz qilib olingan super oleogelni qo‘llanilish mumkin bo‘lgan ayrim sohalariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak suv bilan ishlaydigan sanoatning barcha sohalarida chiqindi suvlarni tozalashda keng foydalanish mumkin va ancha foydali deb ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Doshi B., Sillanpää M., Kalliola S. A review of bio-based materials for oil spill treatment //Water research. – 2018. – T. 135. – C. 262-277.

2. Kemnetz S., Cody C. A. Composition of matter useful as an oil spill flocculating agent : пат. 5725805 США. – 1998.

3. Lessard R. R., DeMarco G. The significance of oil spill dispersants //Spill Science & Technology Bulletin. – 2000. – T. 6. – №. 1. – C. 59-68.

4. Sun X. F., Sun, Sun J. X. Acetylation of rice straw with or without catalysts and its characterization as a natural sorbent in oil spill cleanup //Journal of agricultural and food chemistry. – 2002. – T. 50. – №. 22. – C. 6428-6433.

5. Джалилов А.Т., Тураев Х.Х., Холназаров Б.А., Ширинов Ш.Д. Исследование нового гидрогеля, синтезированного на основе крахмала, акриламида и бентонита // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2019. № 4 (61). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/7136

6. Хусанова М.Ф., Тиллаев А.Т., Бекназаров Х.С., Джалилов А.Т. Олеогеллар синтези ва уларни нефть чиқиндиларини тозалашда қўллаш // Наманган давлат Университети илмий ахборотномаси. 2021. № 2 69-73 б.

7. Хусанова М.Ф., Ширинов Ш.Д., Бекназаров Х.С., Джалилов А.Т. Табиий ва синтетик каучуклар асосидаги янги таркибли олеогелларнинг синтези ва физик кимёвий хоссларининг таҳлили // Комозитцион Материаллар илмий-техникавий ва амалий журнали. 2020. № 3. 98-101 б.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

ASALARI PROPOLISI TARKIBIDAGI MINERAL ELEMENTLARI MIQDORINI ANIQLASH VA XALQ TABOBATIDA QO`LLANILISHI

[1] Saidova X.A., [1]Asqarov I.R., [2]Islomov A.X.
[1]O‘zR FA akad. O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti
[2]Andijon davlat universiteti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Asalari propolisining kimyoviy tarkibi va xalq tabobatida qo`llanilishi hamda tarkibidagi mineral elementlari miqdori aniqlanganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: Asalari propolisi, mineral elementlar, kaliy, temir, kaltsiy, fosfor, magniy, sink, vitaminlar,

Kirish:

Asalarilar tomonidan ishlab chiqariladigan propolisning mineral tarkibi va uning xalq tabobatida qo‘llanilishi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, propolis murakkab kimyoviy va mineral moddalardan tashkil topgan bo‘lib, uning biologik faolligi aynan shu tarkib bilan bog‘liq. Tahlil qilingan adabiyotlardagi ma`lumotlarga asosan propolis tarkibida **kalsiy (Ca), magniy (Mg), temir (Fe), kaliy (K), natriy (Na), rux (Zn), mis (Cu), marganes (Mn)** kabi mikro va makroelementlar mavjudligi aniqlangan [1-3]. Olib borilgan tajribalarda **ICP-MS** usuli yordamida propolis tarkibida yuqori miqdorda K, Mg va Ca aniqlanib, bu elementlarning antioksidant xususiyatlarga hissa qo‘shishi ta’kidlangan [1]. Propolisning surunkali kasalliklar - jumladan diabet va yallig‘lanish jarayonlarida -foydaliligi ularning boy mineral va flavonoid tarkibi bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan [2]. **P**ropolisning geografik joylashuvga qarab mineral tarkibi farq qilishini, ammo umuman olganda, barcha propolis namunalarida organizm uchun zarur bo‘lgan asosiy elementlar mavjudligini qayd etgan [3]. Propolisdagi mikro va makroelementlar bilan bir qatorda ba’zi toksik metallarning mavjudligi sifat nazoratining muhimligini ko‘rsatadi [4].**Propolisning xalq tabobatida ishlatilishi** aynan uning boy mineral tarkibi va biologik faol komponentlariga asoslanadi. U **yara bitkazuvchi, og‘riq qoldiruvchi, antiseptik, immunomodulyator va antioksidant** xususiyatlarga ega bo‘lib, qadimdan og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklari, teri muammolari va umumiy immunitetni mustahkamlashda keng qo‘llaniladi [2-5]. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, asalarichilik mahsulotlari inson organizmining immun tizimini faollashtirish, surunkali yallig‘lanishli kasalliklarni kamaytirish, yaralarni tez bitirish va hatto ba’zi onkologik jarayonlarga qarshi kurashishda samarali hisoblanadi .Shu bois asalarichilik nafaqat iqtisodiy foyda, balki salomatlikni mustahkamlashda muhim bioresurs sifatida qaralmoqda [6].

Nazariy qism

Propolis - asalarilar tomonidan tayyorlanadigan, o‘ziga xos hidli, yopishqoq modda. Asosan, asalari organizmidan ajralgan fermentlar yordamida daraxt po‘stlog‘i, kurtaklari (ko‘proq qayin, terak, qarag‘ay) dan olingan smolali moddalarni qayta ishlash orqali hosil bo‘ladi. **Tashqi ko‘rinishi** qatronsimon, rangi jigarrangdan to qoramtir-yashilgacha, issiqlikda yumshaydi, sovuqda esa mo‘rtlashadi. **Ta’mi** achchiq, ozgina yoqimsizroq, o‘ziga xos xushbo‘y hidi bor. Propolis tarkibida 50-60% qatronlar, 30% mum, 10% efir moylari, flavonoidlar, organik kislotalar, vitaminlar (A, B1, B2, C, E), fermentlar va mikroelementlar (temir, rux, mis, marganes) mavjud. **Foydali xossalari** tufayli u qadimdan tabiiy antibiotic sifatida ishlatilgan. Propolisning antibakterial, viruslarga qarshi, yallig‘lanishga qarshi, og‘riq qoldiruvchi, immunitetni oshiruvchi va yaralarni bitiruvchi xususiyatlari bor. **Tibbiyotda** og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklari (stomatit, angina), teri kasalliklari, oshqozon yarasi, bronxit, immunitet pasayishi va boshqa holatlarda keng qo‘llanadi. **Propolis damlamasi,** malhami, spreyi, plansheti va kapsulalari mavjud. U xalq tabobatida ham ko‘p qo‘llaniladi - asosan asal yoki yog‘ bilan aralashtirib ishlatiladi.1-rasmda keltirilgan.

1-rasm.Asalari propolisi

Propolis damlamasi, malhami, spreyi, plansheti va kapsulalari mavjud. U xalq tabobatida ham ko‘p qo‘llaniladi – asosan asal yoki yog‘ bilan aralashtirib ishlatiladi.: Asalarilar propolisdan uyalarini mustahkamlash, yoriq va teshiklarni berkitish hamda turli zararli mikroorganizmlardan himoyalanish maqsadida foydalanadi. Bu moddani ular daraxt kurtaklaridan to‘plab, o‘z tanalarida qayta ishlaydilar. Propolis uyaning ichki qismini toza va xavfsiz saqlashga xizmat qiladi hamda tabiiy antiseptik sifatida ishlaydi. Odatda yoz oxiri – kuz boshlarida yig‘ib olinadi.**Propolisning rangi, qattiqligi va tarkibi** o‘simlik manbasiga qarab farq qiladi. U tropik va subtropik zonalarda, shuningdek, Yevropa, Osiyo va Amerika qit’asidagi ko‘plab hududlarda asalarilar orqali olinadi. Sovuq sharoitda uzoq saqlanadi. **Tabiiy antiseptik** va **biostimulyator** sifatida farmatsevtika, kosmetologiya, oziq-ovqat sanoatida ham foydalidir. **Propolis** o‘zining kuchli **antibakterial, viruslarga va yallig‘lanishga qarshi, antiseptik** va **og‘riq qoldiruvchi** xususiyatlari bilan ajralib turadi. Uning tarkibida flavonoidlar, efir moylari, vitaminlar (A, B_1, B_2, C, E), organik kislotalar, fermentlar va minerallar mavjud. Propolis xalq tabobatida quyidagi kasalliklar uchun qo‘llaniladi: Og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklari (stomatit, angina), Teri kasalliklari, yaralar va kuygan joylar, Bronxit, gripp, shamollash, Oshqozon-ichak yallig‘lanishi, Immunitet pasayishi, surunkali charchoq. **Tashqi va ichki shaklda** ishlatiladi: damlama, malham, kapsula, sprey, planshet shaklida mavjud. Propolis sovuqda mo‘rtlashadi,

issiqda esa yumshab, yopishqoq holga keladi. Uni asal bilan aralashtirib iste’mol qilish xalq orasida mashhur.

Natijalarni muhokama qilish

Propolis tarkibidagi mineral ementlarni miqdorini aniqlashda Avio200 ICP – OES «Induktiv bog‘langan argon plazmali» Optik emission spektrometriya usuli asosida (Perkin Elmer, AQSh) apparatida aniqlanib o‘rganildi. Buning uchun namunaviy eritmalar avtodozatorida quduqlariga yetkazib berildi va yakuniy ishlov berish Win-Lab (offline) apparati tomonidan amalga oshiriladi. Qurilma shovqinni, o‘rganilayotgan elementlarning belgilangan joylarida eritma shaklini avtomatik ravishda hisoblab chiqadi. Olingan natijalar va spektrlar tahlili «multispektral tahlil» usulida avtomatik tarzda amalga oshirilib aniqlandi.Natijalarni taxlil tugagach. Qurilmaga ulangan kompyuter orqali natijalar avtomatik tarzda ekranga beriladi.Ushbu tadqiqotlar natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Asalari propolisi tarkibidagi mineral elementlar miqdori

№	Elementlar	Propolis makro va mikro elementlar miqdori mg/g	№	Elementlar	Propolis makro va mikro elementlar miqdori mg/g
1	Al	5.876	13	Mo	0.032
2	Ba	0.077	14	As	0
3	Be	1.643	15	Na	20.269
4	B	0.227	16	Sb	0.031
5	Fe	4.528	17	Pb	0.018
6	K	22.402	18	Se	0.041
7	Ca	21.869	19	Sr	0.165
8	Si	0.219	20	Ti	0.073
9	Li	0.052	21	Cr	0.039
10	Mg	6.009	22	Zn	0.312
11	Mn	0.094	23	P	2.800
12	Cu	0.020	24	S	2.181

Yuqoridagi jadval tahlilidan ko‘rinib turibdiki, propolis tarkibida bir qator **muhim makro va mikroelementlar** mavjud bo‘lib, ular inson salomatligi uchun katta biologik ahamiyat kasb etadi. Eng ko`p miqdorda aniqlangan elementlar - **kaliy (K - 22.402 mg/g), kaltsiy (Ca - 21.869 mg/g), natriy (Na - 20.269 mg/g), magniy (Mg - 6.009 mg/g), alyuminiy (Al - 5.876 mg/g), temir (Fe - 4.528 mg/g)** bo‘lib, ular organizmda **elektrolit muvozanati, suyak va mushak to‘qimalari, qon aylanishi, nerv impulslarini uzatish hamda immunitetni** qo‘llab-quvvatlashda ishtirok etadi. Bundan tashqari, **fosfor (P - 2.800 mg/g)** va **oltingugurt (S - 2.181 mg/g)** kabi elementlar ham metabolik jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi. **Be (1.643 mg/g)** va **bor (B - 0.227 mg/g)** kabi iz elementlar o‘simlik hamda hayvon organizmlarining fermentativ faoliyatida foydali ta’sir ko‘rsatishi mumkin.Propolis tarkibida **rux (Zn - 0.312 mg/g), marganes (Mn - 0.094 mg/g), mis (Cu - 0.020 mg/g), selen (Se - 0.041 mg/g)** kabi

mikroelementlar ham mavjud bo‘lib, ular **antioksidant himoya, yara bitishini tezlashtirish va hujayra regeneratsiyasi** kabi jarayonlarda ishtirok etadi. Iz miqdorda aniqlangan **qo‘rg‘oshin (Pb - 0.018 mg/g), surma (Sb - 0.031 mg/g), xrom (Cr - 0.039 mg/g)** kabi elementlar esa **nazorat ostida bo‘lishi lozim bo‘lgan toksik moddalardir.** Ularning miqdori nisbatan past bo‘lsa-da, doimiy tekshiruvlar orqali sifat nazoratini olib borish zarur. Ushbu tahlil shuni ko‘rsatadiki, propolis o‘zining boy mineral tarkibi bilan inson salomatligi uchun foydali komponentlarga ega bo‘lib, aynan shu jihati uning **tabiiy dori vositasi sifatida xalq tabobatida keng qo‘llanishiga** ilmiy asos yaratadi. Shu bilan birga, **potensial toksik elementlar nazorat ostida bo‘lishi** kerakligi ham qayd etilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan natijalarda o‘simlik tarkibida foydali elementlardan tashqari organizm uchun zararlli hisoblangan bir qancha og‘ir metallarni ham ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun Butun dunyoda dorivor o‘simliklar substantsiyalaridan tayyorlangan BFQ lar tarkibidagi ba’zi bir zararlli og‘ir metall tuzlari miqdoriga qo‘yilgan talablar mavjud bo‘lib, ular turli davlatlarda turli xil qiymatlarga ega. Xalqaro oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi gigiyenik normalarida bu ko‘rsatkich 7 ta elementni o‘z ichiga olib, ularga Hg, Cd, Pb, As, Co, V va Mo kabi elementlar kiradi. Ammo ko‘pchilik xorij davlatlarida bu ko‘rsatkich 8-10 ta elementni o‘z ichiga oladi. Rossiya Federatsiyasi oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo‘yicha ular 4 ta - Hg, Pb, As, Cd kabi elementlardan iborat [8-10].

O‘zbekiston Respublikasi hududida ham 4 ta Pb, Cd, Hg va As kabi og‘ir metallar miqdorlarini tartibga solinib, o‘simliklar substantsiyalari asosida tayyorlangan BFQ tarkibida ularning miqdori tegishlicha (Pb-5,0; Cd-2,0; Hg-1,0 va As-3,0 mg/kg) dan oshmasligi belgilab qo‘yilgan [8-10].

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga tayangan holda, Propolis tarkibidagi Pb; Cd; Hg va As kabi zaharli og‘ir metall ionlarining miqdori tegishlicha Pb-0,018; Cd-0,0; Hg-0,0 va As-0,0 mg/kg dan oshmasligi, bu esa keltirilgan me’yorlarga mos kelishi aniqlandi.

Xulosa

1.O‘rganilgan propolis namunasi tarkibida 24 ta mineral element **K (22.4 mg/g), Ca (21.8 mg/g), Na (20.2 mg/g), Mg (6.0 mg/g), Al (5.8 mg/g), Fe (4.5 mg/g)** yuqori miqdorda bo`lishi aniqlandi.

2. Propolis tarkibidagi Pb; Cd; Hg va As kabi zaharli og‘ir metall ionlarining miqdori tegishlicha keltirilgan me’yorlarga mos kelishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Nordin, N., Sulaiman, S. F., Gan, S. H., & Othman, N. H. (2020). *Phytochemicals, mineral contents and antioxidant properties of stingless bee propolis*. PeerJ, 8, e9542. https://doi.org/10.7717/peerj.9542

2.Pasupuleti, V. R., Sammugam, L., Ramesh, N., & Gan, S. H. (2021). *Biomedical Properties of Propolis on Diverse Chronic Diseases*. International Journal of Environmental Research and Public Health, 18(1), 383. https://doi.org/10.3390/ijerph18010383

3.Bankova, V., Popova, M., & Trusheva, B. (2019). *Chemical Composition and Therapeutic Potential of Propolis: A Review*. Evidence-Based Complementary and Alternative Medicine, 2019, Article ID 3086735. https://doi.org/10.1155/2019/3086735

4.Righi, A. A., Alves, T. R., & Negri, G. (2024). *Organoleptic and Chemical Properties of Propolis: A Review*. European Food Research and Technology. https://doi.org/10.1007/s00217-025-04708-y

5.Kaya, E., & Şahin, H. (2024). *In-Depth Phytochemical Profile and Biological Activities of Bitlis Propolis*. Journal of Functional Foods, 112, 105506. https://doi.org/10.1016/j.jff.2024.105506

6.Ghosh S., Jung C. et al. Apitherapy: A review of bee products and their applications in human health. *Journal of Functional Foods,* 2022;95:105157.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK 595,44

ORCID iD: 0009-0004-3625-3701

O‘ZBEKISTON FAUNASI TARKIBIDAGI GNAPHOSIDAE BANKS, 1892 (ARANEAE) OILASI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT

Shodmonov Feruz Abdullajonovich [1,2]
Abdullayev Erkin Nurillayevich [1]
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti [1]
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi [2]
E-mail: feruzshodmonov902501@gmail.com

Annotatsiya: Gnaphosidae oilasiga mansub yirtqich o‘rgimchaklar (Araneae: Gnaphosidae) butun dunyo bo‘ylab, asosan tuproq, o‘simlik qoldiqlari va toshlar ostida keng tarqalgan. Ular yumaloq yoki noksimon karapaks, uzun va mustahkam oyoqlari bilan ajralib turadi. Jinsiy dimorfizm sust ifodalangan. O‘zbekiston faunasida ushbu oilaning 21 avlodga oid 43 turi aniqlangan bo‘lib, ular turli ekotizimlarda muhim ekologik rol bajaradi.

Kalit so’zlar: Araneae, Gnaphosidae, *Asiabadus, Berlandina, Drassodes, Drassyllus,*

Аннотация: Хищные пауки семейства Gnaphosidae (Araneae: Gnaphosidae) широко распространены по всему миру и обитают преимущественно в почве, среди растительных остатков и под камнями. Они характеризуются округлым или грушевидным карапаксом, а также длинными и крепкими ногами. Половой диморфизм выражен слабо. В фауне Узбекистана выявлено 43 вида, относящихся к 21 роду этого семейства, представители которого играют важную экологическую роль в различных экосистемах.

Ключевые слова: Araneae, Gnaphosidae, *Asiabadus, Berlandina, Drassodes, Drassyllus,*

Abstract: Predatory spiders of the family Gnaphosidae (Araneae: Gnaphosidae) are widely distributed across the world and are primarily found in soil, among plant debris, and under stones. They are characterized by a rounded or pear-shaped carapace and long, sturdy legs. Sexual dimorphism is weakly expressed. In the fauna of Uzbekistan, 43 species from 21 genera of this family have been recorded, and they play an important ecological role in various ecosystems

Keywords: Araneae, Gnaphosidae, *Asiabadus, Berlandina, Drassodes, Drassyllus,*

Kirish: Gnaphosidae oilasiga mansub o‘rgimchaklar (Araneae: Gnaphosidae) yer yuzasida keng tarqalgan, ekologik ahamiyatga ega yirtqich artropodalardir. Ular ko‘pincha o‘simlik ildizlari va tuproq sathida yashaydi hamda hasharotlar bilan o‘zaro ta’sirga kirishib, barqaror populyatsiyalar shakllantiradi. Ushbu oila vakillari o‘ziga xos morfologik belgilar, jumladan, o‘rgimchak so‘gallari, ko‘z tizimi va og‘iz apparati strukturasiga ega [3, 6, 9].

Boshqa o‘rgimchak oilalaridan farqli ravishda, Gnaphosidae vakillari morfologik elementlarining xilma-xilligi ularning ekologik moslashuvchanligini ko‘rsatadi [2, 6]. Jinsiy dimorfizm va yoshlar o‘rtasidagi morfologik farqlar esa hayot sikli va reproduktiv strategiyalarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi [3, 6, 9].

Bu oila vakillari oldingi silindrsimon shakldagi kuchli xitinlashgan o‘rgimchak so‘gallari, noto‘g‘ri shakldagi orqa medial ko‘zlar va maksilladagi chuqurchalar orqali ajralib turadi [8]. Biroq Micaria avlodi bu belgilar asosida ajralmaydi [6]. Tana uzunligi 3–20 mm bo‘lib, rangi odatda bir xil va naqshsiz, ba’zida tuklar yoki taroqchalar bilan qoplangan [2, 5, 9].

Sakkizta kichik ko‘z ikki qatorga joylashgan, oldingi ko‘zlar qorong‘u, qolganlari esa yorqin [2, 5]. Karapaks va sternumning shakli, og‘iz apparatining tuzilishi, xilitseralar va pedipalplarning morfologiyasi bu guruhni aniqlashda asosiy mezon hisoblanadi [3, 6, 7].

Erkaklarda pedipalplar jinsiy apparatga moslashgan bo‘lib, cymbium, tegulum, embolyus, konduktor va subtegulum qismlarini o‘z ichiga oladi [3, 4, 5]. Oyoqlar formulasi 4:1:2:3 bo‘lib, tikanlar bilan zich qoplangan. Ba’zi bo‘g‘imlarda skopula mavjud [6, 7].

Qorin qismi silindrsimon yoki yassilangan bo‘lib, urg‘ochilarda epigina mavjud. Juftlashish va sperma saqlash jarayoni epigina orqali amalga oshadi [1, 9]. Nafas olish organlari – o‘pkalar va traxeyalar – genital egatcha yonida joylashgan. O‘rgimchak so‘gallari odatda oltita bo‘lib, oldingi jufti keng ochilgan [2, 5, 10].

Shu kungacha chop etilgan ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar hamda faunistik ro‘yxatlar tahliliga asoslanib, O‘zbekiston hududida tarqalgan Gnaphosidae oilasiga mansub o‘rgimchaklarning tarkibi, taksonomik xilma-xilligi va geografik tarqalishi bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlar shakllantirildi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, hozirgi kungacha mamlakatda ushbu oilaga mansub 21 avlodga tegishli 43 tur aniqlangan. Bu turlar morfologiyasi, ekologik moslashuvchanligi, yashash joyiga bo‘lgan talablari va respublika hududlaridagi tarqalishi bilan bir-biridan farqlanadi [7, 8].

Adabiy manbalar orasida ayniqsa biologik xususiyatlar, diagnostik belgi va kalitlar, shuningdek, areal kengligi haqidagi ma’lumotlar alohida ahamiyatga ega. Ushbu ma’lumotlar asosida O‘zbekistondagi Gnaphosidae oilasining taksonomik holati chuqurroq yoritildi, ularning ekologik-geografik tarqalishi tahlil qilindi. Bu esa mamlakat araneofaunasining boyligini ko‘rsatish bilan birga, kelgusidagi sistematik va ekologik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy zamin yaratadi.

Quyidagi 1-jadvalda O‘zbekistonda aniqlangan Gnaphosidae Banks, 1892 (Araneae) oilasiga mansub turlar ro‘yxati umumlashtirilgan bo‘lib, u morfologik tahlillar, faunistik kuzatuvlar va so‘nggi yillardagi ilmiy nashrlar asosida tuzilgan. Jadval bu oilaning respublika hududidagi biologik xilma-xilligini, tarqalish xususiyatlarini va sistematik holatini yoritishga xizmat qiladi.

jadval 1

№	Avlod nomi	Tur nomi

1	*Asiabadus* Roewer, 1961	*Asiabadus asiaticus* (Charitonov, 1946)
2	*Berlandina* Dalmas, 1922	*Berlandina caspica* Ponomarjov, 1979
3		*Berlandina propinqua* Roewer, 1961
4	*Drassodes* Westring, 1851	*Drassodes hypocrita* (Simon, 1878)
5		*Drassodes jakkabagensis* Charitonov, 1946
6		*Drassodes lapidosus* (Walckenaer, 1802)
7		*Drassodes lutescens* (C.L.Koch, 1839)
8		*Drassodes monticola* (Kroneberg, 1875)
9		*Drassodes villosus* (Thorell, 1856)
10		*Drassodes fedtschenkoi* (Kroneberg, 1875)
11	*Drassyllus Chamberlin, 1922*	*Drassyllus praeficus* (L. Koch, 1866)
12	*Fedotovia* Charitonov, 1946	*Fedotovia uzbekistanica* Charitonov, 1946
13	*Gnaphosa* Latreille, 1804	*Gnaphosa haarlovi* Denis, 1958
14		*Gnaphosa lugubris* (C.L.Koch, 1839)
15		*Gnaphosa rufula* (L.Koch, 1866)
16	*Haplodrassus* Chamberlin, 1922	*Haplodrassus umbratilis* (L.Koch, 1866)
17	*Trichothyse Tucker, 1923*	*Leptodrassus hamipalpis* (Kroneberg, 1875)
18	*Micaria* Westring, 1851	*Micaria formicaria* (Sundevall, 1831)
19		*Micaria pulicaria* (Sundevall, 1831)
20		*Micaria pygmaea* (Kroneberg, 1875)
21		*Micaria rossica* Thorell, 1875
22		*Micaria pallipes* (Lucas, 1846)

23	*Minosiella* Dalmas, 1921	*Minosiella intermedia* Denis, 1958
24	*Nomisia* Dalmas, 1921	*Nomisia aussereri* (L.Koch, 1872)
25		*Nomisia conigera* (Spassky, 1941)
26	*Phaeocedus* Simon, 1893	*Phaeocedus fedotovi* Charitonov, 1946
27	*Poecilochroa* Westring, 1874	*Poecilochroa conspicua* (L.Koch, 1866)
28		*Poecilochroa variana* (C.L.Koch, 1839)
29	*Pterotricha* Kulczynski, 1903	*Pterotricha argentosa* Charitonov, 1946
30	*Scotophaeus* Simon, 1893	*Scotophaeus rufescens* (Kroneberg, 1875)
31	*Poecilochroa* Westring, 1874	*Poecilochroa hamipalpis* (Kroneberg,1875)
32	*Sosticus* Chamberlin, 1922	*Sosticus loricatus* (L.Koch, 1866)
33	*Synaphosus* Platnick et Shadab, 1980	*Synaphosus palearcticus* Ovtsharenko et al., 1994
34		*Synaphosus turanicus* Ovtsharenko et al., 1994
35	*Talanites* Simon, 1893	*Talanites aculeatus* Charitonov, 1946
36	*Zelotes* Gistel, 1848	*Zelotes aerosus* Charitonov, 1946
37		*Zelotes arnoldii* Charitonov, 1946
38		*Zelotes scrutatus* (O. Pickard-Cambridge, 1872)
39		*Zelotes caucasius* (L.Koch, 1866)
40		*Zelotes fuscimanus* (Kroneberg, 1875)
41		*Zelotes turanicus* Charitonov, 1946
42	*Marinarozelotes* Ponomarev, 2020	*Marinarozelotes fuscipes* (L. Koch, 1866)
43		*Marinarozelotes jaxartensis* (Kroneberg, 1875)

Ushbu ro‘yxatda O‘zbekiston hududida aniqlangan Gnaphosidae Banks, 1892 (Araneae) oilasiga mansub o‘rgimchaklarning turlar tarkibi umumlashtirilgan. Jadval 43 ta turning 21 ta avlodga taalluqliligini ko‘rsatadi. Turlar asosan nufuzli adabiyotlar, morfologik tahlillar va faunistik kuzatuvlar asosida tasdiqlangan.

Eng ko‘p tur qayd etilgan avlod *Drassodes* bo‘lib, u 9 tur bilan ro‘yxatda yetakchilik qiladi (20,93 %). Keyingi o‘rinlarda *Zelotes* (6 tur, 13,95 %) va *Micaria* (5 tur, 11,63 %) avlodlari turibdi. Shuningdek, *Synaphosus, Poecilochroa, Gnaphosa, Nomisia* va *Marinarozelotes* kabi avlodlar bir nechta tur bilan ifodalangan. *Fedotovia*, *Phaeocedus* va *Talanites* kabi kam sonli turlarga ega avlodlar esa faunadagi noyob yoki lokal ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Bu jadval O‘zbekistonda Gnaphosidae oilasi vakillarining turlar xilma-xilligini, sistematik tarkibini va ekologik holatini tahlil qilishda muhim ma’lumot manbasi hisoblanadi. Shuningdek, u respublika hududida ushbu guruh bo‘yicha olib boriladigan kelgusi taksonomik va ekologik tadqiqotlar uchun zarur ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. O‘zbekistonda *Gnaphosidae* oilasiga mansub 21 avlodga oid 43 tur aniqlanib, ularning turlar boyligi va ekologik xilma-xilligi tasdiqlandi. Ko‘p turga ega avlodlar (*Drassodes*, *Zelotes*, *Micaria*) ekologik moslashuvchan va barqaror populyatsiyalarga ega bo‘lsa, kam sonli avlodlar (*Fedotovia*, *Phaeocedus*, *Talanites*) esa lokal va sezgir guruhlar sifatida ajralib turadi.

Tahlil qilingan ma’lumotlar *Gnaphosidae* oilasining O‘zbekiston araneofaunasidagi o‘rnini aniqlashtirish, sistematik va ekologik tadqiqotlar uchun muhim asos yaratishini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fet, V. (1984). Fauna and zoogeography of spiders (Aranei) of Turkmenistan. In: Fauna i ekologiya paukov SSSR Fauna and Ecology of Spiders of the USSR. Nauka, Moscow, pp. 145–167. (In Russian).
2. Marusik Y.M. & Kovblyuk, M.M. (2011). Spiders (Arachnida, Aranei) of the Crimean Peninsula. KMK Scientific Press Ltd., Moscow, 305 pp.
3. Ovtsharenko V.I., Platnick, N.I. & Song, D.X. (1992). A review of the ground spiders of the genus *Drassodes* (Araneae, Gnaphosidae) from Central Asia. American Museum Novitates, 3046: 1–50.
4. Platnick N. I. Spinneret morphology and the phylogeny of ground spiders (Araneae, Gnaphosoidea) // American Museum Novitates. – 1990. – Vol. 2978. – P. 1–42.
5. Platnick N.I. & Dondale, C.D. (1992). The ground spiders of Canada and Alaska (Araneae: Gnaphosidae). The Insects and Arachnids of Canada, Part 19. Research Branch, Agriculture Canada Publication 1875, Ottawa, 166 pp.
6. Platnick N.I. (1990). A revision of the ground spider family Gnaphosidae (Araneae) of the United States. Bulletin of the American Museum of Natural History, 190: 1–230.
7. Ponomarev A.V. & Alieva, E.A. (2020). On the taxonomy and new data on ground spiders (Aranei: Gnaphosidae) of southern Russia. Caucasian Entomological Bulletin, 16(1): 47–53.

8. Tuneva T.K. (2004). A review of the genus *Berlandina* Dalmas, 1922 (Aranei: Gnaphosidae) in the fauna of Russia and adjacent countries. Arthropoda Selecta, 13(2): 113–126.
9. World Spider Catalog. (2025). Natural History Museum Bern, version 25.0. Available from: https://wsc.nmbe.ch
10. Zonstein S.L. & Marusik, Y.M. (2012). Spiders (Arachnida: Araneae) of Tajikistan. KMK Scientific Press Ltd., Moscow, 216 pp.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

ORGANIK DEHQONCHILIKDA SELEKSIYANING ROLI VA YANGI NAVLAR YARATISH IMKONIYATLARI

Egamberdiyev Madaminjon Abduvaxob o‘gli
Andijon qishloq xojaligi instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada organik dehqonchilikda seleksiya jarayonlarining roli, ularning tuproq unumdorligi, kasalliklarga chidamlilik, mahsuldorlik va agroekotizim barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Zamonaviy organik qishloq xo‘jaligida mahalliy sharoitga moslashtirilgan navlarni yaratish orqali ekologik xavfsiz va yuqori sifatli oziq-ovqat yetishtirish imkoniyatlari ochib beriladi. Seleksiya yutuqlari organik dehqonchilikning barqarorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: organik dehqonchilik, seleksiya, barqarorlik, agroekotizim, ekologik xavfsizlik.

Аннотация: В статье анализируется роль селекционных процессов в органическом сельском хозяйстве, их роль в обеспечении плодородия почв, устойчивости к болезням, продуктивности и стабильности агроэкосистемы. В современном органическом сельском хозяйстве возможности производства экологически безопасных и высококачественных продуктов питания раскрываются за счёт создания сортов, адаптированных к местным условиям. Селекционные достижения являются важным фактором повышения устойчивости органического земледелия.

Ключевые слова: органическое сельское хозяйство, селекция, устойчивость, агроэкосистема, экологическая безопасность.

Abstract: This article analyzes the role of selection processes in organic farming, their role in ensuring soil fertility, disease resistance, productivity, and agroecosystem stability. In modern organic agriculture, opportunities for environmentally safe and high-quality food production are revealed by creating varieties adapted to local conditions. Selection achievements are an important factor in increasing the sustainability of organic farming.

Keywords: organic farming, selection, sustainability, agroecosystem, environmental safety.

Kirish: So‘nggi yillarda organik dehqonchilik qishloq xo‘jaligi sohasining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu yo‘nalish asosan tuproq unumdorligini saqlab qolish, ekologik muvozanatni ta'minlash, sog‘lom va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ–4964-sonli qarori bilan “2020–2030 yillarda O‘zbekistonda organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi” tasdiqlandi. Bu esa sohaning davlat darajasida qo‘llab-quvvatlanayotganini anglatadi.

Biroq organik dehqonchilikning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ishlatilayotgan navlarning sifati, moslashuvchanligi va barqarorligiga bog‘liq. Ana shu yerda seleksiya – ya’ni tanlab olish, yangi navlarni yaratish va ularni ekologik sharoitlarga moslashtirish jarayonining ahamiyati o‘ta muhim bo‘ladi.

Seleksiya yutuqlari nafaqat hosildorlikni oshiradi, balki kasalliklarga qarshi kurashda, iqlim o‘zgarishlariga chidamlilikda, agroekotizim barqarorligini ta'minlashda ham asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Organik sharoitda kimyoviy o‘g‘it va pestitsidlardan foydalanilmaydi, shuning uchun seleksiya orqali yaratilgan navlarning genetik chidamliligi bu sohaning “tayanch ustuni” hisoblanadi.

Organik dehqonchilik zamonaviy qishloq xo‘jaligi tizimida tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu tizim kimyoviy vositalardan foydalanmasdan, tabiiy resurslar va agroekologik jarayonlardan unumli foydalanishga asoslanadi. Biroq organik dehqonchilik muvaffaqiyati ko‘p jihatdan moslashtirilgan va chidamli ekin navlarini tanlashga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan seleksiya – ya'ni maqsadli tanlash orqali sifatli navlar yaratish – organik dehqonchilikda o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Seleksiya orqali yaratilgan navlar tuproqning tabiiy unumdorligini saqlagan holda, kasallik va zararkunandalarga qarshi kimyoviy vositalarsiz kurashishda o‘zini oqlaydi. Organik dehqonchilikda seleksiyaning ilmiy asosda yuritilishi barqaror oziq-ovqat ta'minoti va agrobiologik xilma-xillikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Organik dehqonchilikda nav tanlashning o‘ziga xos jihatlari

Organik dehqonchilikda ishlatiladigan navlar quyidagi xossalarga ega bo‘lishi zarur:

- Tuproq sharoitlariga moslashgan bo‘lishi;
- Kasallik va zararkunandalarga chidamli bo‘lishi;
- Minimal agrotexnik xizmat bilan yaxshi hosil berishi;
- Mahsulot sifatining yuqoriligi (ta'm, ozuqaviy qiymat, tashqi ko‘rinish).

Organik dehqonchilikda seleksiya faqat mahsuldorlikni oshirish emas, balki agroekotizim muvozanatini saqlab qolish va uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltiriladi. Masalan, bir xil yer maydonida turli xil ekin navlarini ekish orqali kasalliklarning oldini olish va tuproq mikroflorasini saqlab qolish mumkin.

Ekologik seleksiya — bu maxsus organik muhitda tanlab olinadigan navlar bilan ishlashdir. Bu yondashuv, ayniqsa, agroekologik noqulay hududlarda yuqori natija beradi. Masalan, O‘zbekistonning cho‘l yoki tog‘oldi hududlarida qurg‘oqchilikka chidamli navlar ishlab chiqilishi bu boradagi muvaffaqiyatli misoldir.

Seleksiya jarayonida mahalliy genofond asosida ishlash, o‘sha mintaqadagi tabiiy sharoitlarga maksimal darajada mos navlar olishga yordam beradi. Bu esa import qilinadigan navlarga nisbatan ko‘proq barqarorlik va ekologik muvozanatni ta'minlaydi.

Seleksiya – bu odam tomonidan maqsadli tanlash orqali o‘simlik (yoki hayvon) navlarini yaxshilashga qaratilgan ilmiy jarayondir. U genetik potensialni ochish, muayyan xossalarga ega navlar yaratish, hosildorlik, kasallikka chidamlilik, ta’m sifatlari, iqlimga moslik kabi ko‘rsatkichlarni yaxshilashga xizmat qiladi.

Organik dehqonchilikda nav tanlashda quyidagi mezonlarga e’tibor beriladi:

- Tashqi aralashuvsiz tabiiy moslashuvchanlik – kimyoviy dorilarsiz yashay oladigan navlar.
- Biotik va abiotik stresslarga chidamlilik – qurg‘oqchilik, sovuq, sho‘rlanish, kasallik va zararkunandalarga qarshilik.
- Tuproq bilan biologik uyg‘unlik – mikorizal simbioz, ildiz tizimi kuchliligi.
- Mahalliy agroekologik sharoitga moslik – milliy genetik resurslarga tayanish.
- Bu mezonlar seleksiya jarayonida organik sharoitni hisobga olgan holda boshqariladi.

Organik dehqonchilikda kimyoviy pestitsidlardan foydalanish taqiqlanganligi sababli, kasallik va zararkunandalarga chidamli navlar yaratish seleksiya orqali amalga oshiriladi. Bu, ayniqsa, bug‘doyda zang, kartoshkada fitoftora, sabzavotlarda mozaika viruslariga chidamli navlarni tanlashda juda muhim.

Organik seleksiya quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

1. Ekologik moslashuvchanlik: Navlar tabiiy iqlim va tuproq sharoitlariga mos bo‘lishi kerak.
2. Genetik xilma-xillikni saqlash: Barqarorlik uchun genetik resurslar boy bo‘lishi zarur.
3. Biologik himoya mexanizmlariga ega bo‘lish: Navlar kimyoviy emas, tabiiy himoya tizimlari orqali kasallik va zararkunandalarga qarshi turishi kerak.
4. Iqtisodiy samaradorlik: Navlar kichik fermer xo‘jaliklari uchun iqtisodiy jihatdan foydali bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston sharoitida har bir mintaqa (Farg‘ona vodiysi, Qoraqalpog‘iston, Surxondaryo, Navoiy) o‘ziga xos iqlimga ega. Organik sharoitda bir hududda yaxshi natija bergan nav boshqa hududda past hosil berishi mumkin. Shu sabab seleksiya mahalliy hududlarga moslashtirilgan bo‘lishi kerak.

Ekologik toza, barqaror va sifatli mahsulot yetishtirish orqali mahalliy iste’molchilarni sog‘lom oziq-ovqat bilan ta’minlash va organik eksport imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Buning uchun seleksiyalangan navlar har yili doimiy va sifatli hosil berishi zarur.

Organik seleksiya jarayoni genetik xilma-xillikni asrashga yordam beradi. Bu esa kelajak avlodlar uchun iqlim o‘zgarishiga chidamli genlarni saqlab qolish imkonini beradi.

4. O‘zbekistonda seleksiya ishlari va istiqbollar O‘zbekiston seleksiya institutlari (O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi, Andijon paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti, Qoraqalpog‘iston seleksiya markazi) tomonidan iqlimga mos, kam parvarish talab qiluvchi, sho‘rlanishga chidamli navlar ishlab chiqilmoqda. Bular orasida:

- “G‘ozg‘on 1” – qurg‘oqchilikka chidamli bug‘doy navi.
- “Surxon-201” – zararkunandalarga chidamli g‘o‘za navi.
- “Zarafshon-3” – sabzavotlarning ekologik seleksiya orqali yaratilgan navi.
- Biroq seleksiya natijalarini organik dehqonchilikda keng joriy qilish uchun:
- fermerlarga treninglar o‘tkazish,
- organik seleksiya stansiyalarini tashkil qilish,

- biosertifikatlangan urug‘lik bazasini yaratish zarur.

Organik dehqonchilikni barqaror va samarali yuritish seleksiya yutuqlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Seleksiya orqali:

- kasalliklarga chidamli,
- iqlim sharoitlariga mos,
- tuproq bilan uyg‘un,
- barqaror hosildor navlar yaratiladi.

Organik dehqonchilik tizimida seleksiya fanining o‘rni tobora ortib bormoqda. Ekologik jihatdan toza, iqtisodiy barqaror va ijtimoiy foydali mahsulot yetishtirish faqatgina maxsus navlar bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu esa ilmiy yondashuv, seleksion tajriba, genetik tadqiqotlar va amaliyot uyg‘unligini talab qiladi. Shu jihatdan, O‘zbekistonda organik seleksiya tizimini rivojlantirish – faqat agrar siyosat emas, balki barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Organik dehqonchilik seleksiya yutuqlarisiz to‘liq rivojlanishi mumkin emas. Seleksiya orqali yaratilgan barqaror, chidamli va ekologik xavfsiz navlar organik dehqonchilikni yuqori bosqichga olib chiqadi. Ayniqsa, O‘zbekiston kabi iqlim sharoitlari xilma-xil bo‘lgan davlatlarda, mahalliy sharoitga mos seleksiya yondashuvlarini qo‘llash orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va ekologik muhitni muhofaza qilish mumkin.

So‘nggi yillarda butun dunyo bo‘ylab ekologik muammolarning keskinlashuvi, sog‘lom turmush tarziga intilish va organik oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortib borishi fonida organik dehqonchilik alohida e’tiborni tortmoqda. O‘zbekistonda ham ekologik toza, sog‘lom va sifatli qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish masalasi dolzarb masalalardan biridir. Biroq, organik dehqonchilik an’anaviy usullardan farq qiladi. U kimyoviy pestitsidlar, mineral o‘g‘itlar va sun’iy stimulyatorlardan voz kechgan bo‘lib, biologik va ekologik yondashuvga asoslangan qishloq xo‘jaligi tizimi hisoblanadi.

Bunday tizimda yuqori natijalarga erishish uchun seleksiya orqali maxsus, ekologik sharoitga moslashtirilgan navlarni yaratish zarurati yuzaga keladi. Demak, seleksiya – organik dehqonchilikning tayanch nuqtalaridan biridir. Ushbu maqola organik dehqonchilikda seleksiyaning o‘rni, usullari, imkoniyatlari va istiqbollari haqida hisobga olinadi.

Organik dehqonchilikda yangi navlar yaratish uchun maxsus ekologik seleksiya maydonlari tashkil etilishi zarur. Chunki an’anaviy agrotexnika asosidagi seleksiya natijalari har doim ham organik sharoitda o‘zini oqlamaydi. Bunday maydonlar tabiatning real sharoitlariga yaqin bo‘lib, pestitsidsiz, mineral o‘g‘itsiz parvarish qilinadi.

Organik dehqonchilikda dehqon tabiiy ekologik tizimga aralashmasdan, uning qonun-qoidalariga mos holda ekin yetishtiradi. Shu boisdan, kimyoviy vositalardan foydalanilmaydi va o‘simliklar tabiiy sharoitga moslashgan bo‘lishi kerak. Bu holat esa seleksiya jarayonining dolzarbligini yanada oshiradi.

Organik dehqonchilikda yuqori hosil va sifatli mahsulot olishda seleksiya fani hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yangi navlar yaratishda ekologik moslashuvchanlik, chidamlilik va genetik

xilma-xillik muhim omillardir. O‘zbekiston sharoitida ham organik seleksiya yo‘nalishini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish va mahalliy resurslarni asrash – barqaror qishloq xo‘jaligining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada davlat qo‘llab-quvvatlovi, xalqaro tajribaning o‘zlashtirilishi va ilmiy salohiyatni oshirish zarur.

Xulosa.

Bugungi kunda global ekologik muammolar, oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgani sababli, organik dehqonchilik dunyo miqyosida jadal rivojlanmoqda. Kimyoviy o‘g‘itlar va pestitsidlardan voz kechilgan sharoitda, qishloq xo‘jaligi ekinlarining sifat va hosildorligini ta’minlashda seleksiya fani yetakchi rol o‘ynaydi. Organik dehqonchilikning barqaror rivoji ko‘p jihatdan yangi, ekologik bardoshli navlarning yaratilishiga bog‘liq.

Organik dehqonchilikni muvaffaqiyatli yuritish uchun seleksiya va yangi navlar yaratish jarayoni hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Seleksiya orqali barqaror, iqlimga mos, sog‘lom va ekologik toza ekin navlarini yetishtirish nafaqat agrotexnik, balki milliy oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom avlod tarbiyasiga xizmat qiladi. Shu sababli, ilmiy-tadqiqotlar, investitsiya va xalqaro hamkorlik orqali organik seleksiyani yanada rivojlantirish muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida mahalliy agroekologik resurslarga tayanilgan seleksiya ishlari orqali ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, ichki bozorni sog‘lom oziq-ovqat bilan ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish imkoniyati mavjud. Organik dehqonchilikda seleksiyaning kuchli qo‘llab-quvvatlanishi – barqaror qishloq xo‘jaligining garovi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Altieri, M. A. (1995). *Agroecology: The science of sustainable agriculture*. CRC Press.
2. Lammerts van Bueren, E. T., et al. (2011). Organic plant breeding and seed production: concepts and strategies. *Organic Agriculture,* 1(1), 17-28.
3. Wolfe, M. S., et al. (2008). Developing cultivars for organic agriculture: a European perspective. *Euphytica,* 163(3), 323–346.
4. Maxted, N., et al. (2006). *Plant genetic resources and climate change*. Bioversity International.
5. Karimov, S., & Tursunov, A. (2020). Seleksiya asoslari va ekologik qishloq xo‘jaligida nav tanlash. *Qishloq xo‘jaligi fani*, 3(2), 45-53.
6. Xolmatov, D. (2022). O‘zbekistonda organik qishloq xo‘jaligi va seleksiya istiqbollari. *Qishloq xo‘jaligi ilmi jurnali*, (1), 35–40.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

NAVDOR TUT KO‘CHATLARINI IN VITRO SHAROITIDA KO‘PAYTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

Narzillayev Fazliddin Fahriddin o‘g‘li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiya universiteti tadqiqotchisi
e-mail: *narzullaevfazli424@gmail.com*
+99899 2860300

Annotatsiya: Ushbu maqolada navdor tut ko‘chatlarini in vitro sharoitida ko‘paytirish bo‘yicha ilmiy asoslar va tadqiqotlar yoritilgan. Qolaversa, mazkur maqolada o‘simliklarni mikroklonal ko‘paytirishning muammolari hamda uning negizida in vitro usulining afzalliklari haqida ma’lumotlar berilgan. Ushbu metodika navdor tutning tez va sifatli ko‘paytirilishi uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tut, in vitro, mikroklonal ko‘paytirish, jins, genotip, chatishish.

Аннотация: В данной статье изложены научные основы и исследования, посвящённые размножению саженцев плодоносной шелковицы в условиях *in vitro*. Кроме того, в статье представлены проблемы микроклонального размножения растений, а также преимущества метода *in vitro*. Данная методика служит научной основой для быстрого и качественного размножения плодоносной шелковицы.

Ключевые слова: шелковица, *in vitro*, микроклональное размножение, пол, генотип, скрещивание.

Abstract: This article presents the scientific foundations and research related to the *in vitro* propagation of fruit-bearing mulberry saplings. Moreover, it discusses the challenges of plant microclonal propagation and highlights the advantages of the *in vitro* method. This technique provides a scientific basis for the rapid and high-quality propagation of fruit-bearing mulberry.

Keywords: mulberry, *in vitro*, microclonal propagation, sex, genotype, hybridization.

KIRISH. Bugungi kunda dunyoning yuzdan ortiq davlatlarida tut daraxti mevasi, yog‘ochsozlikda, landshaft dizayn, tabobatda va asosan keng miqyosda tut ipak qurtining ozuqa bazasi uchun yetishtirilib kelinmoqda. Bizga ma’lumki, tut juda qadimiy ko‘p yillik daraxt bo‘lib, uning vatani Xitoy hisoblanadi, bundan 5000 yil ilgari tut bargi bilan ipak qurtlari parvarishlanib, pilla yetishtirilganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Tut daraxti tutgullilar-Moraceae oilasiga va tut -Morus avlodiga kiradi [5].

Tut daraxti Markaziy Osiyoda, jumladan O‘zbekistonda keng tarqalgan. Bu hududlarda ipakchilik yuqori darajada rivojlangan. Abu Ali Ibin Sinoning “Tib qonunlar “ asarida ham tut daraxti uning mevasi va tanasidan ison salomatligida foydalanish to‘g‘risida ma’lumotlar

keltirilgan. Samarqanda tut daraxtidan Samarqand qog‘ozini ishlab chiqarish o‘ziga xos tarixiy va madaniy ahamiyatga ega jarayon bo‘lib, bu an’ana asosan O‘rta Osiyoda, xususan, Samarqandda rivojlangan. Samarqand qog‘ozi o‘zining yuqori sifati, chidamliligi va nafisligi bilan mashhur bo‘lib, asrlar davomida kitoblar, hujjatlar va san’at asarlarini yaratishda ishlatilgan. Hozirgi vaqtda Xitoy xalq respublikasida 626 000 ga, Hindistonda 280 000 ga, Tailand va Braziliyada 35 000 gektardan ziyod maydonlarda aynan navdor tutlar yetishtirilmoqda. Dunyo bo‘yicha har yili 800-850 ming tonna tirik pilla xom ashyosi yetishtirilib, 192 ming tonnadan ortiq ipak tolasi tayyorlanmoqda [5]. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va pillachilik tarmog‘ini sifatli ozuqa bazasini mustahkamlash, qishloq xo‘jaligida tutchilikni tutgan o‘rni, tarixi, biotexnologik usullar orqali tut ko‘chatlarini jadal ko‘paytirish, tut ko‘chatlarini in vitro usulida ko‘paytirish yordamida sho‘r va lalmi joylarga moslashtirish imkoniyatlari haqida tavsiyalar berilgan. Ushbu usul qishloq xo‘jaligida tut ko‘chatlarini tez, samarali ravishda ko‘paytirish va yomon sharoitga chidamli bo‘lgan ko‘chat na‘munalarini yaratishga imkon beradi. Respublikamizning asosiy yer maydonlarini lalmi joylar tashkil etganligi sababli, qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan yerlarda sho‘rlanish darajasining ortishi natijasida tut ko‘chatlarini in vitro usulda ko‘paytirib va sho‘r, lalami joylarga moslashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy qishloq xo‘jaligida biotexnologiyaning innovatsiyon o‘rni muhum bo‘lib, biotexnologik usullar orqali qishloq xo‘jaligidagi muammolarga yechim olish mumkun. In vitron usuli orqali tut ko‘chatlarini ko‘paytirganimizda turli xil potogenlardan xoli bo‘lgan, yil davomida mavsum tanlamagan xolda tut ko‘chatlarini olish, adabtatsiyon muhitda sho‘r va lalmi joylarga moslashtirib borish tadqiqot ishining asosiy ilmiy ahamiyat hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

O‘simliklarni to‘qima, hujayra va ajratilgan protoplastlardan ko‘paytirish uslubi XX asr boshlariga kelib tez sur’atlar bilan rivojlanib bordi. Dunyo olimlari tomonidan zamonaviy ko‘paytirish usuli haqida turlicha fikr mulohazalarni ilgari surganlar. Kallus to‘qimalarini shakllantirishga qodir hisoblangan o‘simliklarni mikroklonal ko‘paytirishning asoschisi fransuz olimi C.Martinning tadqiqotlarida ozuqa muhiti vitaminlar, glutamin, sistein va kinetin bilan boyitilganda ayrim o‘simliklarning apikal meristemalari yaxshi rivojlanishi aniqlangan [6].

O‘simliklarni mikroklonal ko‘paytirish, o‘simliklar fiziologiyasi va qishloq xo‘jaligining dolzarb muammosiga aylandi va dunyo olimlari in vitro usulida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib bora boshladilar.

K.A.Timiryazev nomidagi o‘simliklar fiziologiyasi instituti Rossiyada o‘tgan asrning 60-yillarida asosan mikroklonal ko‘paytirishni kartoshka, qand lavlagi, malina, chinnigul va boshqa o‘simliklarda o‘rganilgan. R.G.Butenko rahbarligida o‘simliklarni mikroklonal ko‘paytirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlari to‘qimalar kulturasi va morfogenezi laboratoriyasida boshlangan [7].

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida nemis olimlari W.Bergman, P.Neubert o‘simlik hujayra to‘qimalaridan saxaroza eritmasida in vitro sharoitida hayotchan o‘simliklar olisholmagan bo‘lsalarda, kelgusi avlod uchun ushbu uslubni takomillashtirish va tadqiqotlarini ishlab chiqishga tadbiq etishlariga yo‘nalish beruvchi qator farazlarni aytib ko‘pgina g‘oyalarni ilgari surganlar [8].

Klonal mikroko‘paytirish usulining hozirgi vaqtda yagona kvalifikatsiyasi belgilanmagan. 1977-1981-yillarda danakli meva o‘simliklarini in vitro ko‘paytirish bo‘yicha tajribalar boshlangan. 77-18/A va Izoran Aa tog‘olchalarining terminal kurtaklari dastlabki material sifatida olingan.

Amerikalik White va Fransiyalik C.Martinlar ko‘paytirish murakkab bo‘lgan o‘simliklar to‘qima va hujayralari (o‘suvchi nuqtasi) kulturasidan ko‘paytirish uslubini muvaffaqiyat qozonishiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shishgan. C.Martin kulturaga hujayra to‘qimasi qattiq o‘simliklarning kambiy hujayralaridan zaxiralovchi parenxima kallus to‘qimalarini kiritishga erishgan [6]. V.I.Demenko subkultivatsiyalashda to‘qimalarining o‘sib rivojlanishida o‘simlik shishlaridan kutilmagan natijalar olish mumkinligini ko‘rsatdi [9]. Mikroklonal ko‘paytirish hozirgi kunda o‘simlik to‘qimalari (o‘suvchi nuqtasi) kulturasi texnologiyasini qo‘llash, iqtisodiy jihatdan samaradorligi yuqori bo‘lgan ko‘paytirish qiyin mevali va rezavor- mevali o‘simliklarda qo‘llash bilan cheklanilmoqda [10].

Mikroklonlashda olinadigan dastlabki onalik eksplant novdaning uchki apekal meristimasidan olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Novdaning o‘sish tezligi (400 mk/soat) [52;13-28-b.] ta’kidlashicha, apikal meristemada virus bo‘lmasligining asosiy sabablaridan biri virusning harakatlanish tezligi (6 mk/soat) o‘rtasidagi farqidadir.

Meristema hujayralarining fiziologik xususiyatlariga hujayralar bo‘linishining yuqori darajadagi tezligi bog‘liqdir. Sun’iy ozuqa muhitidagi auksinlar, sitokininlar va boshqa guruhga mansub alohida komponentlarning virus qismlari replikatsiyasiga ingibirlovchi ta’sirini ham doim nazortda saqlash zarur [11]. Faol bo‘linayotgan meristema hujayralarida virus konsentratsiyasining past bo‘lishi sababli, uchki meristemada yaxshi rivojlangan nay bog‘lamlarining mavjud emasligi to‘g‘risida farazlar mavjud.

Tutni to‘qimalardan ko‘paytirish bo‘yicha dunyo olimlari tomonidan amaliyotda qo‘llash uchun ko‘plab ma’lumotlar to‘plangan. Genetik o‘zgargan o‘simliklar - regenerantlarni maxsus mutagen omillardan foydalanmasdan olish mumkin. Mutagenlardan foydalanish hujayra seleksiyasida shuni ko‘rsatadiki, qoidaga muvofiq, mutatsiyalar sonini yanada oshirib yuboradi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR.

O‘simliklarni in vitro usulida mikroklonal ko‘paytirishni iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘libgina qolmay, kasalliklarda holi bo‘lishi, shuningdek ko‘chat holatidagi materiallarini 0^0C dan biroz yuqori haroratda uzoq vaqt saqlanishi ham muhim ahamiyatg egaligidir.

In vitro usuli – zamonaviy biotexnologiyaga asoslanib, laboratoriya sharoitida amalga oshiriladi. In vitro usul odatda noyob va qimmatbaho navlarni ko‘paytirish yoki kasalliklarga

chidamli ko‘chatlar yetishtirishda ishlatiladi. Bu jarayonda daraxtning sog‘lom to‘qimalari (barg, shox yoki novda) steril sharoitda ajratib olinadi.To‘qimalar ozuqaviy muhitga joylashtiriladi va maxsus sharoitda (namlik, yorug‘lik, harorat) o‘stiriladi.To‘qimalardan yangi o‘simliklar rivojlanadi, ular maxsus tuproqqa ko‘chirilib, ochiq maydonga o‘tkaziladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalaridan olingan ma’lumotlarda past haroratlarda kulturalar sekin o‘sishi, ularni qayta mikroqalamchalash yoki ko‘chirib o‘tqazish zarur bo‘lgan oraliqni 6 oydan bir necha 10 yillargacha saqlash mumkinligi haqida ma’lumotlar mavjud. In vitro usulida o‘stirilayotgan o‘simlikni uzoq muddat suyuq azotda muzlatish samarali usullardan biri krioge saqlashga asoslangan, unga ko‘ra o‘stirilayotgan in vitro o‘simligi cheklanmagan muddatda saqlab turish mumkinligini asoslaydi. To‘qima va hujayralar kulturasida mikroklonal ko‘paytirish ya’ni o‘simliklarni yalpi jinssiz ko‘paytirish, o‘simliklarni an’anaviy vegetativ ko‘paytirish usuliga nisbatan bir qancha afzalliklarga egaligidir. Ko‘paytirilayotgan o‘simliklarni qisqa muddatda yuqori koeffitsiyentda, turli xil patogen mikroorganizmlardan holi sog‘lom, onalik o‘simlik bilan bir xilligi, issiqxona maydonining tejalishi, seleksion jarayonning tezlashishi orqali tut, manzarali, rezavor mevali va sabzavotlarni yil davomida yetishtirish imkonini mavjudligidir.

O‘simliklarni mikroklonal ko‘paytirishda ajratib olingan sog‘lom a’zolar - in vitro kulturasi usulidan mikroklonal ko‘paytirish asosida, boshqa har qanday vegetativ ko‘paytirish usuli singari, totipotentlik - ya’ni to‘laqonli o‘simlik organizmini shakllantirishga xosligi yotadi. Zamonaviy usulda o‘simlik somatik hujayralarining o‘zini rivojlanish imkoniyatini to‘liq amalga oshira olish, ya’ni yadroning omnipotentligini amalga oshirish xususiyati bilan belgilanadi. Mikroklon genetik axborotni o‘zida saqlashi somatik hujayra yadrosida zigotani barcha potensiyasi yadroning omnipotentligidir.

Yaxshi aeratsiyali sharoitda, mos holdagi ozuqa muhitiga o‘simliklarni joylashtirish tabaqalashish ya’ni embrional faollikning yangidan paydo bo‘lishi, o‘simlikdan to‘qimani alohida ajratib olishda muhim rol uynaydi. Shuningdek juda ko‘p sonli to‘qima va hujayralarda o‘simlik organizmida kechuvchi regeneratsiyada vibrial faollikni nafaqat meristema, balki peritsikl, lub va po‘stloq qismida ham, har xil darajada tabaqalasha oluvchi to‘qimalardan ham, shuningdek meristemadan ham foydalaniladi deb ta’kidlaydilar.

O‘simliklarni ozuqa muhitiga kiritish xususiyatlari, ota- ona o‘simlik genotipi va holati, eksplantning holati, o‘stirish sharoitlarida o‘simliklardan ajratilgan to‘qima va a’zolarini maxsus ozuqa muhitida yangi o‘simlikni o‘sish muvaffaqiyatiga bog‘liqligini asoslangan. Ona o‘simliklardan olingan eksplantning regeneratsiya xususiyatiga yuqori darajada ta’sir ko‘rsatuvchi o‘simlik obyektining genetik tabiatidir, bunda navlararo farq, turlararo farqga nisbatan ko‘proq ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘simliklardan ajratilgan to‘qimaning holati o‘simlik organizmining individual xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, farqi 25-30% ni tashkil etishi mumkinligini ilgari so‘radilar.

Eksplantning rivoji va regeneratsiya xususiyati o‘simliklarni mikroklonal ko‘paytirish uchun olingan to‘qima va hujayralari in vitro usulida olingan a’zoning yoshi va olingan joyiga

bog‘liq, o‘sish jarayonida ijobiy natijalar olish mumkin va aksincha bo‘lishi mumkinligi ustida bir qator olimlar ham ilmiy izlanishlar olib borganlar. Morfogenezga qodirlik u yoki bu o‘simlikning ko‘paytirishga olingan a’zolarida sezilarli farqlanadi. Donor o‘simlikning rivojlanish fazasi regeneratsiya jarayonining jadalligiga bog‘liqligini aniqlangan.

Rivojlangan bir qancha mamlakatlarda qiyin ko‘payuvchi o‘simliklarni ko‘paytirish bo‘yicha sog‘lomlashtirilgan ekish materiali olishni in vitro usulidan foydalanilmoqda. Keyingi vaqtlarda to‘qimalar kulturasi (in vitro) uslubida ko‘pgina o‘simliklar ustida ko‘paytirish ishlari amalga oshirilmoqda. Fransiya davlatining Anje shahridagi o‘simliklar fiziologiyasini o‘rganish laboratoriyasida 500 dan ortiq o‘simlik navlari va turlarining ko‘paytirish uchun o‘simlikni turli qismlari alohida ajratilgan holda saqlanadi.

Olimlar o‘simliklarni mikroklonal ko‘paytirish uchun olingan to‘qima va hujayralari in vitro usulida ko‘paytirishda olib borilgan tajribalarga nisbatan, daraxt ya’ni yog‘ochli va buta o‘simliklarda ajratib olingan uchki meristemadan mikroklonal ko‘paytirish murakkab ekanligini ta’kidlaydi. Ikki hafta davomida 35^0C haroratda isitib, dastlabki krijovnik novdasini uchki hujayrasini yangi o‘simlik olish mumkinligini ta’kidlashgan. Tajribalardan olingan barcha o‘simliklarda uchki kurtak meristemasi bo‘lgan va tajribada eksplantlarning o‘lchami 0,5-1,0 mm. uzunlikkacha yetgan.

Har xil tamoyillarga asoslangan quyidagi uchta asosiy yondashuvni ajratish mumkin:

a) adventiv novdalar hosil bo‘lishi induksiyasi;

b) morfogenetik reaksiyalarda to‘qima kulturasida eksplantlar tomonidan yuza kurtaklarning faollashuvi hisobiga amalga oshadi;

v) somatik embriogenez usullaridan foydalanilayotganligi haqida ma’lumot berganlar.

Mikroklonal ko‘paytirish jarayoni ikki turga ajratiladi:

- o‘simliklarda (uchki apekal, poyaning qo‘ltiq va uyqudagi kurtaklari)gi mavjud meristemalar rivojini faollashtirish hisobiga ko‘paytirish;
- kurtak yoki embrioidlarning denovo hosil bo‘lish induksiyasi yo‘li bilan ko‘paytirish.

U quyidagi uslublarga ajratiladi:

Birinchi usulda uyushgan tuzilmaning hosil bo‘lishida eksplantning bevosita ixtisoslashgan to‘qimasidan (reproduktiv a’zolar to‘qimasi, epidermis, subepidermal to‘qimalar, barg tangachasi mezofillasi).

Ikkinchi usulda birlamchi kallusdan, eksplant hujayralari tomonidan hosil qilingan. Oxirgi usul ko‘chirib o‘tqaziladigan kallus to‘qima yoki hujayradan, suspenzion ozuqa muhitida o‘stirish usuli.

Qattiq hujayra to‘qimali o‘simliklarni viruslardan holi qilish zarurati infeksiyasiz uchki hujayra o‘lchami virus va o‘simlik turiga bog‘liq bo‘lib, u 200 mk. dan 1 sm. gacha bo‘lishi mumkin in vitro mikroklonal ko‘paytirishga ta’sir ko‘rsatuvchi regeneratsiya jarayonlarining ko‘rinishlari meristematik uchki hujayralardan regeneratsiyalashning qiyinligi va ularni ushbu muammoni hal qilishning boshqa uslublarini topishni taqazo etdi degan fikr bildirilgan.

XULOSA. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, in vitro usulida tutni nav va duragaylarini ko‘paytirish koeffitsiyentining yuqori bo‘lib, laboratoriya sharoitlarida yil davomida ko‘chat olish, tashqi muhitdan butunlay uzilgan xolda o‘simliklarni ko‘paytirish mumkinligi (bu o‘z navbatida ularning qayta zararlanib qolish extimollarini cheklaydi, bakteriya va zamburug‘ kasalliklaridan xoli bo‘ladi) imkoniyatlarini yaratadi. Sog‘lomlashtirilgan ko‘chatlar bilan ekilgan nihollar (oddiy ko‘paytirilgan nihollarga qaraganda) hosildorligi, nav sifati tutzor yoshiga qarab 17-20 foizdan 45-55 foizgacha ko‘tarilishiga erishiladi.

Tut daraxtini in vitro usulida ko‘paytirish o‘simliklar fiziologiyasi, biokimyosi va molekulyar biologiyasining tamoyillariga asoslangan murakkab jarayondir. Bu usul tez va samarali ko‘paytirish usuli bo‘lib, qimmatli navlarni saqlab qolish va katta miqdorda sog‘lom ko‘chatlar yetishtirish imkonini beradi. Tut daraxtini in vitro usulida ko‘paytirish (mikroko‘paytirish) — bu o‘simlikning bir qismidan (masalan, kurtak, barg, ildiz) steril muhitda va nazorat qilinadigan sharoitlarda yangi o‘simliklar olish jarayoni. Bu usul tut daraxtini ko‘paytirishning an’anaviy usullariga nisbatan bir qator afzalliklarga egadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi» PF-4947-son farmoni. - Toshkent, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 martdagi «O‘zbekipaksanoat uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2856-son qarori. - Toshkent, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 yanvardagi «Respublikada ipakchilik sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ-3472-son qarori. - Toshkent, 2018.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 martdagi «Pillachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida» gi PQ-3616-son qarori. - Toshkent, 2018.
5. Abdullaev O‘. Tutchilik. –Toshkent, 1991. –B. 3-18.
6. Martin C. et al. Vignes et techniques de cultures in vitro . Quelques resultat d’une collaboration entre recherché puplique et entrefrise privel. Bulletin de I.O.I.V. 1987.- No 675. - P. 447-558.
7. Бутенко Р.Г. Индуксия морфогенеза в культуре тканей растений. // В кн. Гормоналная регулятсия в онтогенезе растений. - М.: 1984. -С. 42-54
8. Bergman W., Neubert P. Ptlanzendiagnose und pflanzenanabyse. -Jena, 1976. - P.
9. Деменко В.И. Микроклоналное размножение плодовых и ягодных рстений. // Доклады ТСХА. - Москва: МСХА, 2000. -Вып. 271. - С. 77-79.
10. Литвак А.И., Кузменко А.П., Гузун Н.И., Минакова Р.И. Технология клоналноро микроразмножения винограда. // Питомниководство - решающий этап развития виноградарства. - Кишинев, 1985. -С. 66-67-б.

11. Jo‘raev T.X., Zufarov M. Tut navlarini un shudring kasali zamburug‘ining o‘lchamiga oid ma’lumotlar. //Ipakchilik sohasidagi dolzarb vazifalar yechimining ilmiy asoslari. “Fan”. - Toshkent, 2004. –B. 303-307.
12. Mirzaeva. Yo.Ya. “O‘zbekistonda tutning nav va duragaylarini “IN VITRO ” usulidan foydalanib ko‘paytirish” “ To‘qimachilik iplarini chuqur qayta ishlashning innovatsion yechimlari” (O‘z TTITI-2019). Respublika miqyosidagi ilmiy-texnikaviy anjuman materiallari to‘plami. 18-19 oktabr 2019 yil. Marg‘ilon. –B. 71-74.
13. Mirzaeva.Yo.Ya., Xujamshukurov N.A., Umarov Sh.R., Kuchkarova D.X “Tutni in vitro usulida ko‘paytirish va birlamchi ko‘chat yetishtirish agrotexnologiyasini amaliyotga joriy etish. (O‘z TTITI-2020). Respublika miqyosidagi ilmiy-texnikaviy anjuman materiallari to‘plami. 19-20 oktabr 2020 yil. Marg‘ilon. –B. 43-45.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

BAMIYA (HIBISCUS ESCULENTUS L.) SABZAVOT EKINI MEVASI, BARGI VA URUG‘I TARKIBIDAGI MINERAL ELEMENTLARI MIQDORINI ANIQLASH

[1]Bozorova D.O’., [2]Islomov A.X.,
[1]Toshkent davlat agrar universiteti., https://orcid.org/0009-0001-4817-6254
[2]O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi(O‘zRFA)akad.Obid Sodiqovich Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti., e-mail: islomov-72@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bamiya (*H*ibiscus esculentus l.)sabzavot o’simligi haqida ma’lumotlar va mevasi bargi hamda urug‘ini kimyoviy tarkibidagi makro, mikro va og‘ir elementlari miqdori aniqlash haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: Bamiya, *h*ibiscus esculentus l,makroelementlar, mikroelementlar,og‘ir elementlar, kaliy, temir, kalsiy, magniy,

Анотация: В статье приведены сведения об овоще бамия (Hibiscus esculentus l.) и определении количества макро-, микро- и тяжелых элементов в химическом составе его плодов, листьев и семян.

Ключевые слова:Бамия, гибискус съедобный, макроэлементы, микроэлементы, тяжёлые элементы, калий, железо, кальций, магний.

Annotation: This article provides information about the vegetable Okra (Hibiscus esculentus l.) and the determination of the amount of macro, micro, and heavy elements in the chemical composition of its fruit, leaves, and seeds.

Keywords: Okra, hibiscus esculentus l, macroelements, microelements, heavy elements, potassium, iron, calcium, magnesium,

Kirish: Sabzavotchilik insoniyat hayotida oziq-ovqat xavfsizligi, biologik xilma-xillikni saqlash hamda sog‘lom ovqatlanishni ta’minlashda alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda dunyo bo‘yicha sabzavotlar 78 ta oilaga mansub bo‘lgan 1200 dan ortiq o‘simlik turini o‘z ichiga oladi. Ulardan 600 dan ortiq turi madaniylashtirilgan holda keng tarqalgan sabzavot ekinlari sifatida yetishtirilmoqda. Qolgan turlari esa yovvoyi holatda uchrab, hali to‘liq madaniylashtirilmagan bo‘lsada, genetik resurs sifatida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Sabzavot turlarining bu xilma-xilligi turli geografik mintaqalarda agroekologik sharoitga moslashgan navlarni tanlab olish, iqlim o‘zgarishiga bardoshli hamda yuqori hosilli navlarni yaratish imkoniyatlarini beradi. Shu bilan birga, turli kasallik va zararkunandalarga chidamli navlarni ishlab chiqishda ham bu genetik fond muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz tuproq-iqlim sharoitilari uchun yangi bo‘lgan ushbu sabzavot turini hosildorligi yuqori, kasalliklarga chidamli, sifatli va tarkibi qimmatli moddalarga boy navlarini introduksiya qilish, yangi navlarini yaratish va yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish mamlakatda sog‘lom ovqatlanish asosi bo‘lgan sabzavot ekinlari assortimentini yanada kengaytirish imkonini beradi. Shu bois, bamiya o‘simligining kimyoviy tarkibini, ayniqsa,

mevasidan tayyorlangan kukun holidagi namunalar tarkibidagi elementlar miqdorini o‘rganish, uning oziqlanish va tibbiy salohiyatini aniqlash ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Bamiya, shuningdek, xalq orasida gambo nomi bilan ham tanilgan, gulxayridoshlar oilasiga *(Malvaceae)* mansub bo‘lib, bir yillik issiqsevar sabzavot o‘simligi hisoblanadi. Bamiya asosan, tropik va subtropik mintaqalarda yetishtiriladi va yuqori oziqlanish qiymati, biologik faol moddalarga boyligi bilan ajralib turadi.Shu boisdan Bamiya sabzavot ekini tarkibini o‘rganish dolzarb hisoblanadi[1-5].

Nazariy qism: Bamiya **(*H*ibiscus esculentus** l.)sabzavot o’simligi– gulxayridoshlar oilasiga mansub bir yillik o‘simlik O‘simlikning bo‘yi tabiiy sharoitda 1,5-2,5 metrgacha yetishi mumkin. Poyasi to‘g‘ri o‘suvchi, ba’zida shoxlangan, siyrak va o‘tkir tuklar bilan qoplangan bo‘lib, teriga tegganda qichishish yoki allergik ta’sir uyg‘otishi mumkin. Barglari yirik, sarg‘ish-yashil rangda bo‘lib, yuraksimon, yirik tishli, ba’zan qo‘lpanjali shaklga ega. Barglar ham tukli bo‘lib, o‘simlikka quruq sharoitga chidamlilikni ta’minlaydi.

Bamiya o‘simligining ildiz tizimi markaziy, o‘q ildizli, yaxshi rivojlangan va tuproq qatlamlariga chuqur kirib boradi. Tashqi tomoni och jigarrang, ko‘ndalang chiziqlar bilan ajralgan, ichki tomoni esa och rangda bo‘ladi. Ildizlarining yaxshi rivojlanganligi o‘simlikka qurg‘oqchilikka nisbatan bardoshlilik xususiyatini beradi.

Gullari germofrodit (ikkilamchi jinsli) bo‘lib, odatda barg qo‘ltig‘ida yakka-yakka holda joylashgan, yirik va chiroyli ko‘rinishga ega. Gullari qo‘ng‘iroqsimon, g‘o‘za guliga o‘xshash, sariq rangda bo‘lib, tag qismida to‘q qizil dog‘ bo‘ladi. To‘qimalari tukli va tolali, gul chetlari sezilarli darajada ochilgan. Tashqi sepals (gulkosa) gullashdan oldin to‘kilib ketadi, ichki gul qismlari esa bo‘linib ketadigan tuzilishga ega.

Mevasi - kapsula tipidagi ko‘p urug‘li, cho‘zinchoq konussimon shaklda bo‘lib, uzunligi 5-10 sm gacha yetadi. Meva besh qattiq, yirik qavariq qovurg‘adan tashkil topgan, uzunlamasına bo‘linishga moyil. Tashqi tomondan zich, qattiq kulrang-oq rangli tuklar bilan qoplangan bo‘lib, bu mevalarni mexanik zarar va nam yo‘qotishdan himoya qiladi.

Urug‘lari yumaloq, silliq yuzali, rangi zaytun-yashildan to qoramtir-yashilgacha bo‘ladi. Urug‘lar tarkibida oqsil, yog‘ va biologik faol moddalar yuqori miqdorda to‘plangan bo‘lib, ularni texnik va farmatsevtik maqsadlarda foydalanish imkonini beradi.

Bamiya odatda iyul-avgust oylarida gullaydi, avgust-sentyabr oylarida mevalari pishib yetiladi. Vegetatsiya davri 90-120 kunni tashkil qiladi. O‘zbekistonning janubiy hududlari va boshqa iliq iqlimli mintaqalari bamiyaning muvaffaqiyatli yetishtirilishi uchun qulay agroiqlim sharoitiga ega.Bamiya o‘simligi bargi, mevasi va urug‘i 1-rasmda keltirilgan.[3-7.].

1-rasm.Bamiya o‘simligi bargi,mevasi va urug’i

Bamiyaning mevalari tarkibidagi shilimshiq moddalar, ya’ni galakturon kislotasi, geksazalar, oqsillar va suvda eruvchan polisaxaridlar ichak va oshqozon devorlarini qoplaydi, yallig‘lanishni kamaytiradi va to‘qimalarni tiklanishini tezlashtiradi. Bu esa uni gastrit, enterit, kolit, oshqozon yarasi kabi kasalliklar profilaktikasi va davosida foydali qiladi.

Bamiya quyidagi farmakologik xususiyatlarga (yumshatuvchi (mukolitik), antispazmodik (spazmga qarshi), diaforetik (terlatuvchi), diuretik (siydik haydovchi) hamda yallig‘lanishga qarshi va antioksidant) ega hisoblanadi.

Shuningdek, bamiya yuqori nafas yo‘llari shamollash kasalliklarida, bronxit va faringitda, shuningdek oshqozon-ichak tizimi yallig‘lanishlarida (enterokolit, gastrit va boshqalar) simptomatik davolash vositasi sifatida iste’mol qilinadi. U oshqozon yarasi bilan og‘rigan bemorlar uchun parhez ratsioniga kiritiladi.

Qandli diabet bo‘lgan bemorlar uchun bamiya shakar almashinuvini tartibga soluvchi, glyukoza miqdorini pasaytiruvchi, insulin sezuvchanligini oshiruvchi xususiyatlarga ega bo‘lib, parhezda tavsiya etiladi. Shu bilan birga, metabolik sindrom, ortiqcha vazn, ateroskleroz, gipertoniya, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bo‘lgan holatlarda bamiyaning ozuqaviy va farmakologik ahamiyati yuqori baholanadi.[4-9.].

O‘simliklar tabiiy muhitdan oz yoki ko‘p miqdorda davriy jadvalda ko‘rsatilgan elementlarning hammasini yutish qobiliyatiga ega. Lekin shu elementlardan hozirgacha faqat 19 tasining o‘simliklar uchun ahamiyati kattaligi, ularni boshqa elementlar bilan almashtirib bo‘lmasligi aniqlangan. Bular uglerod, vodorod, kislorod, azot, fosfor, oltingugurt, kaliy, kalsiy, magniy, temir, marganets, mis, rux, molibden, bor, xlor, natriy, kremniy va kobalt. Shulardan 16 tasi mineral elementlar guruhiga kiradi. Chunki uglerod, vodorod va kislorod o‘simlikka $C0_2$, 0_2 va N_20 holida qabul qilinadi. O‘simliklar suv va barcha mineral elementlarni ildiz orqali tuproqdan qabul qiladilar. Mineral moddalar tuproq eritmasida, chirindida, organik va anorganik birikmalar tarkibida va tuproq kolloidlariga adsorbsiyalangan holatda uchraydi. Ionlarning o‘zlashtirilishi faqat o‘simliklarga bog‘liq bo‘lmay, balki shu ionning tuproqdagi konsentratsiyasiga, uning tuproqdagi siljishiga va tuproq reaksiyalariga bog‘liq. O‘simliklar tanasidagi elementlarning 95 foizini to‘rtta element: uglerod, vodorod, kislorod va azot tashkil etadi. Bu elementlar organogenlar ham deyiladi. Chunki ular o‘simlik tanasidagi organik moddalarning (oqsillar, yog‘lar, uglevodlar) asosini tashkil etadi. [3-9].

Mineral elementlar o‘simliklar tanasidagi miqdori asosida uch guruhga bo‘linadi: 1)makroelementlar; 2)mikroelementlar; 3)ultramikroelementlar. 1)Makroelementlarga o‘simliklar tarkibidagi miqdori 10^{-2} foizni undan ko‘p bo‘lgan barcha elementlar (N, P, K, Ca, Na, Mg) kiradi.

2)Mikroelementlarga o‘simliklar tarkibidagi miqdori 10^{-3} - 10^{-5} foiz bo‘lgan elementlar (Mn, B, Cu, Zn, Mo va boshqalar) kiradi.

3)Ultramikroelementlarga o‘simlik tarkibidagi juda oz (10^{-6} foiz va undan kam) va vazifasi aniqlanmagan (Ce, Se, Ca, Ng, Ag, Au va boshqalar) elementlar kiradi. [.8-10.].

Natijalarni muhokama qilish: Ma’lumki, makro va mikroelementlar organizmdagi turli biokimyoviy jarayonlarda, xususan fermentlar faoliyatida koferment sifatida muhim vazifalarni bajaradi. Ularning organizmda hatto juda kam miqdorda yetishmasligi turli patologik holatlar rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Buning sababi shundaki, ushbu elementlar fermentlar, vitaminlar, gormonlar kabi biologik faol birikmalar tarkibiga kiradi hamda ularning funksional faolligini ta’minlaydi.

Oziq-ovqat mahsulotlari, ayniqsa o‘simlik va hayvonot manbalaridan olingan mahsulotlar inson organizmi uchun makro va mikroelementlarning asosiy manbai hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, o‘simliklarning, xususan ularning meva qismlarining kimyoviy tarkibini chuqur tahlil qilish, makroelementlar, mikroelementlar va og‘ir metallarni sifat va miqdoriy jihatdan aniqlash dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

shbu tadqiqotlar natijalari o‘simlik tarkibidagi foydali elementlar bilan bir qatorda, potentsial xavf tug‘diruvchi og‘ir metallarning ham nazoratini olib borish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida, ushbu o‘simlik asosida dorivor preparatlar **va** biologik faol qo‘shimchalar (BFQ) ishlab chiqish uchun ishonchli ilmiy asos yaratadi.

Bamiya (Hibiscus esculentus L.) o‘simligining mevasi, bargi va urug‘i tarkibidagi mineral elementlar miqdorini aniqlash uchun induktiv bog‘langan plazma atom-emissiya spektrometriyasi (ICP-AES) usulidan foydalanildi. Tahlillar Shimadzu ICPE-9800 seriyali zamonaviy spektrometr qurilmasida olib borildi, bu qurilma bir vaqtning o‘zida bir nechta namunada mavjud bo‘lgan turli xil kimyoviy elementlarni yuqori aniqlikda aniqlash imkonini beradi.Tahlil qilinayotgan namunalar dastlab qattiq holatda bo‘lib, ular oldindan parchalash (mineralizatsiya) jarayoniga uchratildi. Bu jarayonda namunalar mos kislotalar (masalan, azot va xlorid kislotalar aralashmasi) yordamida eritilib**,** suyuq holatga keltirildi. Namuna eritmasidagi matritsa komponentlari maxsus ajratish va tozalash usullari orqali yo‘qotildi. Shundan so‘ng, har bir elementning namunadagi konsentratsiyasiga qarab, suyultirish strategiyasi ishlab chiqildi va namunalarga mos darajada ishlov berildi.Tahlil natijalarining aniqligini ta’minlash maqsadida, standart namunalar (sertifikatlangan referens materiallar) yordamida kalibrlash ishlari amalga oshirildi. Tahlil yakunida aniqlangan natijalar qurilmaga ulanadigan kompyuter dasturi orqali avtomatik tarzda qayd etildi va tahlil uchun ekranga chiqarildi. Mazkur usul yordamida namunalar tarkibida quyidagi elementlar aniqlandi: Li, Be, B, Na, Mg, Al, Si, K, Ca, Sc, Ti, Cr, Mn, Fe, Co, Ni, Cu, Zn, Rb, Sr, Y, Zr, Cd, Sn, Ba, Pb, La, Ce, Pr, Nd, Sm, Eu, Gd, Tb, Dy, Ho, Er, Tm, Yb, Lu. Ushbu tahlil natijalari asosida bamiya o‘simligining har xil qismlarida (meva, barg, urug‘) uchraydigan makroelementlar, mikroelementlar va og‘ir metallar miqdori baholandi. Aniqlangan natijalar 1-, 2- va 3-jadvallarda batafsil yoritilgan.

1-jadval

Bamiya (Hibiscus esculentus L.)o‘simligi bargi, mevasi va urug’i tarkibidagi **makro** elementlar miqdori (mg/kg)

№	Elementlar	Bamiya o‘simligi **bargi** Elementlar miqdori mg/kg	Bamiya o‘simligi **mevasi** Elementlar miqdori mg/kg	Bamiya o‘simligi **urug’i** Elementlar miqdori mg/kg
1	Na	1193	1085	550
2	Mg	10129	7927	7269
3	Al	607	114	32.3
4	K	35724	41461	29246
5	Ca	66637	16880	2476
6	P	8898	10849	13375

Bamiya o‘simligi bargi mevasi va urug’i ning tarkibidagi makro elementlar miqdori jihatidan o`simlik qismlari kesimida turlicha miqdorlarda bo‘lishi aniqlandi. Bamiya (Hibiscus esculentus L.) o‘simligi bargi mevasi va urug’i tarkibidagi mikro elementlar miqdori 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Bamiya (Hibiscus esculentus L.)o‘simligi **bargi mevasi va urug’i** tarkibidagi **mikro** elementlar miqdori (mg/kg)

№	Elementlar	Bamiya o‘simligi **bargi** Elementlar miqdori mg/kg	Bamiya o‘simligi **mevasi** Elementlar miqdori mg/kg	Bamiya o‘simligi **urug’i** Elementlar miqdori mg/kg
1	Li	9,21	4,05	3.21
2	Be	<0,05	<0.05	<0.05
3	B	10,5	5,49	2.84
4	Sc	0,574	0,178	0.152
5	Ti	103	29,3	19.3
6	V	2,07	0,231	0.105
7	Cr	6,17	5,39	4,25
8	Mn	187	57,2	33,4
9	Fe	713	162	147
10	Co	0,656	0,462	0,356
11	Ni	5,09	4,25	6,00
12	Cu	16,3	17,3	21,1
13	Zn	53,9	54,6	62,1
14	Ga	0,232	<0,10	<0,10
15	As	0,294	<0,10	0,105
16	Tl	<0,01	<0,01	<0,01
17	Se	<0,50	<0,50	<0,50
18	Rb	14,5	20,3	13,5

19	Sr	437	132	22,8
20	Y	0,238	0,408	0,017
21	Nb	0,079	0,286	0,021
22	Mo	2,15	1,70	1,45
23	Ag	0175	0,134	0,028
24	Sn	0,102	<0,10	<0,10
25	Te	<0,30	<0,30	<0,30
26	Cs	0,112	0,044	0,044
27	Ba	100	36,2	36,2
28	La	0,354	0,071	0,071
29	Ce	0,705	0,143	0,143
30	Pr	0,087	0,016	0,016
31	Nd	0,342	0,065	0,065
32	Sm	0,068	0,012	0,012
33	Eu	0,041	0,012	0,016
34	Gd	0,043	0,016	0,009
35	Tb	<0,01	0,009	<0,01
36	Dy	0,047	<0,01	<0,01
37	Ho	<0,01	<0,01	<0,01
38	Er	0,020	<0,01	<0,01
39	Tm	<0,01	<0,01	<0,01
40	Yb	0,021	<0,01	<0,01
41	Lu	<0,01	<0,01	<0,01
42	Hf	0,012	<0,01	<0,05
43	Ta	<0,01	<0,05	<0,01
44	W	<0,05	<0,01	<0,05
45	Re	<0,01	<0,05	<0,01
46	Pt	<0,05	<0,01	<0,05
47	Au	<0,05	<0,05	<0,05

Bamiya o‘simligi bargi mevasi va urug’i tarkibida asosan 59 xil mikro elementlar aniqlanib, ularning o‘simlik qismlarida turlicha miqdorda uchrashi aniqlandi. Shu bilan birga ular orasida Ba, Mn, Cr, Zn, Li, Cu, Si, Ti, B, Fe miqdorlari nisbatan ko‘proq. Mikroelementlar miqdori namunalarda bir-biridan farq qilishi aniqlandi.

Bamiya o‘simligi bargi mevasi va urug’i tarkibida asosan 6 xil og‘ir metallar mavjudligi, miqdoriy jihatdan natijalar farqlanishi hamda og‘ir metallar kam miqdorda ekanligi aniqlandi. Bamiya (Hibiscus esculentus L.)o‘simligi bargi mevasi va urug’i tarkibidagi og‘ir elementlar miqdori 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Bamiya (Hibiscus esculentus L.)o‘simligi bargi mevasi va urug’i tarkibidagi **og‘ir** elementlar miqdori (mg/kg)

№	Elementlar	Bamiya o‘simligi **bargi** Elementlar miqdori mg/kg	Bamiya o‘simligi **mevasi** Elementlar miqdori mg/kg	Bamiya o‘simligi **urug’i** Elementlar miqdori mg/kg
1	Cd	0,177	<0.10	0,351
2	Sb	0,143	0.074	0,074
3	Th	0,110	0.025	0,025
4	Pb	2,79	1.43	1,43
5	Bi	0,023	<0.01	<0,01
6	U	0,076	0.063	0,063

Yuqorida keltirilgan natijalarda o‘simlik tarkibida foydali elementlardan tashqari organizm uchun zaharli hisoblangan bir qancha og‘ir metallarni ham ko‘rishimiz mumkin. Butun dunyoda dorivor o‘simliklar substantsiyalaridan tayyorlangan BFQ lar tarkibidagi ba’zi bir zaharli og‘ir metall tuzlari miqdoriga qo‘yilgan talablar mavjud bo‘lib, ular turli davlatlarda turli xil qiymatlarga ega. Xalqaro oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi gigiyenik normalarida bu ko‘rsatkich 7 ta elementni o‘z ichiga olib, ularga Hg, Cd, Pb, As, Co, V va Mo kabi elementlar kiradi. Ammo ko‘pchilik xorij davlatlarida bu ko‘rsatkich 8-10 ta elementni o‘z ichiga oladi. Rossiya Federatsiyasi oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo‘yicha ular 4 ta - Hg, Pb, As, Cd kabi elementlardan iborat [8-10.].

O‘zbekiston Respublikasi hududida ham 4 ta Pb, Cd, Hg va As kabi og‘ir metallar miqdorlarini tartibga solinib, o‘simliklar substantsiyalari asosida tayyorlangan BFQ tarkibida ularning miqdori tegishlicha (Pb- Pb-5,0; Cd-2,0; Hg-1,0 va As-3,0mg/kg) dan oshmasligi belgilab qo‘yilgan [.8-10.].

Xulosa

Bamiya (Hibiscus esculentus L.) o‘simligi yuqori oziqlanish va davolash salohiyatiga ega sabzavot ekini sifatida biologik va kimyoviy jihatdan chuqur o‘rganilishi lozim bo‘lgan madaniy sabzavot turlaridan biridir. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari ushbu o‘simlikning bargi, mevasi va urug‘larida bir qator muhim makro va mikroelementlar**,** shuningdek og‘ir metall ionlari mavjudligini ko‘rsatdi.

Makroelementlar tarkibi bo‘yicha bamiya o‘simligi ayniqsa kaliy (K)**,** kalsiy (Ca)**,** magniy (Mg) va fosfor (P) moddalari bilan boyligi bilan ajralib turadi. Bu elementlar inson salomatligi uchun muhim bo‘lib, yurak-qon tomir, suyak tizimi va asab tizimi faoliyatida muhim rol o‘ynaydi.Mikroelementlar tarkibida esa temir (Fe)**,** rux (Zn)**,** mis (Cu)**,** marganets (Mn) va bor (B**)** elementlarining nisbatan yuqori miqdorda uchrashi bamiya mevasining biologik faol moddalarga boy ekanligini isbotlaydi. Ular organizmda fermentativ va gormonal tizimlarni qo‘llab-quvvatlaydi, immun tizimini kuchaytiradi va antioksidant faollik ko‘rsatadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, bamiya o‘simligining tarkibida Cd, Pb, Sb, Th, Bi va U kabi og‘ir metallar mavjud bo‘lsa-da, ularning miqdori O‘zbekiston Respublikasida va xalqaro gigiyenik normalarda belgilangan maksimal ruxsat etilgan qiymatlardan past ekanligi aniqlangan. Bu esa ushbu o‘simlikni biologik faol qo‘shimchalar (BFQ)**,** dori vositalari hamda parhez ovqatlar ishlab chiqarishda xavfsiz xom ashyo sifatida qo‘llash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Farmakognoziya (H.Xolmatov.O'.Ahmedov) Abu Ali ibn Sino.Toshkent 1997
2. X.X.Xolmatov, O‘.A.Ahmedov, Farmakognoziya darslik, Toshkent, Ibn Sino nomidagi NMB, 1995.
3. Вопросы агротехники возделывания лекарственных култур. Част 1, Москва, 1978.
4. Справочник по лекарственнымкультурам. Воронеж, 1963.
5. Мурдахаев Ю.М. Лекарсвенныекультуры в Узбекистане, Ташкент, 2001.
6. MurdaxaevYu.M. O‘zbekistondavatantopgandorivoro‘simliklar. Toshkent, 1990.
7. O‘.Ahmedov., A.Ergashev.,A.Abzalov. //Dorivor o‘simliklar va ularni o‘stirish texnologiyasi // Toshkent 2008 y.
8. Xujaev J.X. O‘simliklar fiziologiyasi. Toshkent mehnat 2004 y. B 118-156.
9. Bozorova D.O‘., Xolliyev A.T., JurayevJ.M. // Bamiya (*Hibiscus esculentus* L.) o‘simligi agrobiotsenozida uchraydigan zararkunandalarning tur tarkibi va uchrash darajasi// Toshkent davlat agrar universiteti “Qishloq xo‘jalik ekinlari seleksiyasi, urug‘chiligi va agrotexnologiyalarida dolzarb muammolar, istiqbolli rejalar va ularni innovatsion yechimlari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani mat. Toshkent: 2024 y., 258-260-b.
10. Salixov Sh.I., Turayev A.S., Islomov A.X., G‘aybullayeva O.O.//Qora andiz o‘simligi ildizi tarkibidagi mineral elementlarini miqdorini aniqlash//Международный научно образовательный электронный журнал“Образование и наука в XXI веке” ISSN: 2782-4365. 31.07.2022г. .Выпуск №28 (том 3) июль 2022 й Б.369-383.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK: 378.14
ORCID: 0009-0004-0110-8002

AUTOPLAY MEDIA STUDIO DASTURIDA KIMYO FANIDAN O‘QUV MODULLARINI LOYIHALASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI

Jiyankulova Muzifabonu Abbosxon qizi
Qo‘qon davlat universiteti, Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (Kimyo) mutaxassisligi magistranti. odiljonovamuzifabonu@gmail.com
Nu’monov Baxtiyorjon Omonjonovich
Qo‘qon davlat universiteti, Kimyo kafedrasi dotsenti,
PhD. kimyogar_1985@mail.ru *Tel.: (+99890) 024-37-57*

Annotatsiya. Ushbu maqolada kimyo fanining o‘ziga xos xususiyatlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali o‘qitish masalalari yoritiladi. Xususan, AutoPlay Media Studio dasturidan foydalangan holda IV guruh elementlari moduli uchun elektron o‘quv qo‘llanmani ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Dastur interfeysi, interaktiv bo‘limlar, foydalanuvchi uchun qulay dizayn yaratish tamoyillari va modullarning pedagogik qiymati atroflicha ko‘rib chiqiladi. AutoPlay asosida yaratilgan o‘quv moduli kimyo fanining nazariy asoslarini tushuntirish, laboratoriya mashg‘ulotlarini simulyatsiya qilish, talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish kabi vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kimyo, IV guruh elementlari, AutoPlay Media Studio, interaktiv modul, elektron qo‘llanma, ta’lim texnologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Аннотация. В статье рассматриваются вопроси преподавания химии с исползованием современних информационно-коммуникационних технологий. Особое внимание уделено методическим подходам к разработке электронного учебного пособия по теме элементов IV группи на базе программи AutoPlay Media Studio. Анализируются структура модулья, его функционалние возможности, особенности интерфейса и влияние на эффективност усвоения учебного материала студентами. Подчёркивается значение визуализатсии и интерактивности в процессе преподавания химии.

Ключевие слова: химия, элементи IV группи, AutoPlay Media Studio, интерактивний модуль, электронное пособие, образователние технологии, ИКТ.

Abstract. This article examines the application of modern information and communication technologies in teaching chemistry. It focuses on the methodological approaches to developing

an electronic learning module for Group IV elements using AutoPlay Media Studio. The structure of the module, interactive design, user-friendly interface, and educational value are discussed. The module aims to enhance students’ conceptual understanding, simulate laboratory activities, and promote analytical thinking through interactivity.

Keywords: chemistry, Group IV elements, AutoPlay Media Studio, interactive module, electronic manual, educational technology, ICT.

KIRISH.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) o‘quv jarayonlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida fanlarni o‘rgatishda AKT’ning samarali joriy qilinishi fanga oid bilimlarning ko‘rgazmali va interaktiv shaklda taqdim etilishini ta’minlaydi. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-oktabrdagi PQ-4851-sonli qarorida «Raqamli O‘zbekiston – 2030» konsepsiyasiga muvofiq ravishda barcha fanlarda raqamli resurslardan foydalanish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish zarurligi alohida ta’kidlangan [1].

Kimyo fani o‘zining nazariy asoslari, murakkab tushunchalari va amaliy tajriba bilan bog‘liqligi sababli, uni o‘qitishda interaktiv vositalardan foydalanish muhim o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, IV guruh elementlari (uglerod, kremniy, germaniy, qalay va qo‘rg‘oshin) ga bag‘ishlangan mavzularni o‘zlashtirishda ko‘rgazmalilik, grafik axborot, multimedia elementlari orqali talabaning e’tiborini jalb etish va mavzuni tushunishini yengillashtirish mumkin.

Bunday yondashuvda AutoPlay Media Studio dasturi muhim ahamiyatga ega. Bu dastur orqali elektron o‘quv qo‘llanmalarini multimedia asosida ishlab chiqish, modullar yaratish, harakatli interfeyslar tuzish va kerakli audio-vizual ma’lumotlarni joylash imkoni mavjud.

AutoPlay asosida tuzilgan elektron modullar zamonaviy o‘qitish texnologiyalari va axborot muhitida talabalar bilimini shakllantirish va mustahkamlashning samarali usuli sifatida namoyon bo‘lmoqda [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.

Ushbu tadqiqotda AutoPlay Media Studio dasturidan foydalanilgan holda oliy ta’lim muassasalari uchun kimyo fanidan elektron o‘quv modullarini yaratish bo‘yicha didaktik va texnik yondashuvlar ishlab chiqildi. Yondashuvlar multimedia pedagogikasi (multimedia learning theory) asoslariga, interaktiv o‘qitish texnologiyalariga tayangan [1].

Elektron o‘quv qo‘llanma tayyorlash uchun AutoPlay Media Studio dasturining 8.5 versiyasi tanlandi. Ushbu dasturning quyidagi imkoniyatlari sababli tanlanlab olindi [2]:

Interfeysning intuitivligi: foydalanuvchilar uchun maxsus dasturlash bilimlarisiz ham modullar yaratish imkonini beradi;

Obektlar tizimi: tugmalar, matn oynalari, media pleyerlar, veb havolalar, avtomatik yuklash funksiyalari mavjud;

Platformaviy mustaqillik: eksport qilingan modul boshqa kompyuterlarda ham .exe fayl sifatida ishlaydi.

Audacity – audio-fayllar yozish.

Snagit – interfeys elementlarini tasvirga olish.

YouTubedan laboratoriya video tajribalar integratsiyasi.

Modul ishlab chiqish bosqichlari:

Nazariy asoslarni belgilash – Oliy o‘quv yurtlari anorganik kimyo kursiga mo‘ljallangan xorijiy va o‘zbek tilida chop etilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalar asosida IV guruh asosiy guruh elementlariga doir nazariy materiallar jamlandi.

Modul konsepsiyasi – ta’limiy maqsadlar asosida modullarning ichki tuzilmasi loyihalashtirildi: kirish → nazariya → laboratoriya → test topshiriqlari→ baholash.

Dizayn – AutoPlay’ning vizual muhiti orqali interfeysda navigatsiya tizimi, sahifalararo o‘tishlar, multimedia bloklar tashkil etildi.

Media kontentni biriktirish – har bir laboratoriya tajribalariga mos grafik, rasm, audio yoki video va animatsion fayllar joylashtirildi (masalan, uglerod va kremniyga oid tajribalar animatsiyalari va video roliklari).

Test moduli yaratish – avtomatik javoblarni aniqlovchi 10 tadan iborat test va keys topshiriqlar ishlab chiqildi.

Modul yakunida talabalarga tahliliy savollar va statistik natijalarni chiqaruvchi panel kiritildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Yaratuvchan yondashuv asosida AutoPlay Media Studio dasturida IV guruh elementlariga oid o‘quv moduli yaratildi. Modul talabalarning bilim olish jarayonida vizual va amaliy komponentlarni o‘zlashtirishini sezilarli darajada kuchaytirdi. Elektron o‘quv qo‘llanma quyidagi 1-jadval hamda 1- va 2-rasmlarda keltirilgan bo‘limlarni o‘z ichiga olgan.

1-jadval.

Bo‘lim	**Mazmuni**
Kirish	IV guruh elementlari haqida umumiy nazariy ma’lumotlar
C, Si, Ge, Sn, Pb	Har bir element haqida: tabiatda uchrashi va eng muhim birikmalari, atom tuzilishi, fizik va kimyoviy xossalari, biologik ta’siri
Laboratoriya	C, Si, Ge, Sn, Pblarning kimyoviy va fizik xossalarini video va animatsiyalar orqali tushuntirish
Testlar	Har bir mavzu bo‘yicha 10 ta avtomatik baholanadigan savollar
Keyslar	Ma’ruza va laboratoriya mavzulariga oid keys topshiriqlari va ularning yechimlari

AutoPlay Media Studio asosida yaratilgan elektron modulning qo‘llanilishi bir qator metodik va amaliy afzalliklarni namoyon etdi. AutoPlay orqali yaratilgan interfeyslar statik matndan farqli ravishda ko‘rgazmalilikni oshiradi: 2D, 3D grafiklar, animatsiyalar va video roliklar orqali kimyoviy jarayonlarni vizuallashtirish imkonini beradi [3]. Toksik moddalar

ustida (masalan uglerod (II) oksid) laboratoriya tajribalarini real emas, simulyatsion yoki video tarzda o‘rgatish orqali xavfsizlikni ta’minlaydi [6].

1-rasm. Modul menyusi dizayni



2-rasm. Modul mundarijasi

Ushbu dasturning imkoniyatlari bilan bir qatorda cheklovlari ham mavjud, AutoPlayning asosiy formati .exe bo‘lib, MacOS va iOS platformalarida ishlamaydi [2]. Katta fayl hajmi (150-250 Mb) internet orqali tarqatishda muammo tug‘dirishi mumkin. Ba’zi foydalanuvchilar tomonidan xavfsizlik (antivirus bloklashi) muammosi kuzatilishi mumkin.

XULOSA.

AutoPlay Media Studio dasturi zamonaviy raqamli texnologiyalarga asoslangan holda kimyo fanidan ta’limni vizuallashtirish, tizimlashtirishda qulay platforma bo‘lib xizmat qilmoqda. IV guruhning asosiy guruh elementlari modulini o‘qitishda xavfli moddalar bilan ishlash tartibi, fizik va kimyoviy hodisalar mexanimzlarini anglash kabi jarayonlar aynan elektron qo‘llanma yordamida:

- grafik, animatsion va video vositalar bilan ko‘rgazmali taqdim qilinadi;
- real laboratoriya ishlarini xavfsiz va interaktiv muhitda simulyatsiya qilish imkoniyati yaratiladi;
- testlar va nazorat vositalari avtomatlashtirilib, talaba bilimini tez va aniq baholash imkoniyati taqdim etiladi;
- mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam berdi.

Bu esa kimyo kabi abstrakt va murakkab sohalarda talabaning mavzuni chuqur tushunishida va uni amaliy faoliyatga tatbiq etishda muhim rol o‘ynaydi [4].

Oliy ta’lim muassasalarida AutoPlay Media Studio kabi vizual-interaktiv muhitlarda ishlaydigan dasturlar orqali sohaviy modullar yaratishni tizimlashtirish lozim. Ayniqsa, noaniq, abstrakt yoki xavfli kontentga ega (organik kimyo, analitik kimyo, fizika, biologiya) fanlardan yaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mayer R.E. Multimedia Learning. Cambridge University Press, 2009.

2. Indigo Rose Corporation. AutoPlay Media Studio 8 – User Manual. www.indigorose.com

3. Jiyankulova M.A. IV guruhning asosiy guruhcha elementlari modulini o‘qitishda elektron qo‘llanmalardan foydalanish. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti. Jizzax. 2025 yil 16 may. 176-177 b.

samaradorligini oshirish

4. ACD/Labs. ChemSketch Freeware, https://www.acdlabs.com/resources

5. Petrucci R.H., Herring F.G. General Chemistry: Principles and Modern Applications, 10th Ed. Pearson, 2010.

6. Avazov Sh. “Zamonaviy elektron modullar asosida kimyo fanini o‘qitish samaradorligi”, Oliy ta’limda raqamli transformatsiya, 2022.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

УЎК: 633.511+631.527.5+631.524

G‘O‘ZANING TURLARARO YANGI NAV VA TIZMALARNING MORFO-XO‘JALIK BELGILARI BO‘YICHA GENOTIPIK REAKSIYALARINI TADQIQ ETISH

б.f.d., dots. N.E.Chorshanbiyev
b.f.d., prof. S.M.Nabiyev.
O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti
nurik_1980@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada g‘o‘zaning turlararo yangi nav va tizmalarning morfo-xo‘jalik belgilari bo‘yicha genotipik reaksiyalarini tadqiq etish keltirilgan. Tajriba natijalariga ko‘ra turlararo olingan duragay kombinatsiyalari yuqori natijalarni qayd etgan.

Kalit so‘zlar: *suv rejimi, belgi, duragay, tizma, nav, o‘simlik bo‘yi, hosildorlik.*

Аннотация: В данной статье представлено изучение генотипических реакций хлопчатника на межвидовые новые сорта и линии по морфо-хозяйственных признаки. По результатам эксперимента межвидовые гибридные комбинации показали высокие показатели.

Ключевые слова: *водный режим, признак, гибрид, линия, сорт, высота растения, урожайность.*

Annotation: This article presents a study of the genotypic reactions of cotton to interspecific new varieties and lines according to morphological and economic characteristics. According to the results of the experiment, interspecific hybrid combinations showed high results.

Keywords: *water regime, trait, hybrid, line, variety, plant height, yield.*

KIRISH

Suv tanqisligi o‘tkir ekologik muammoga aylangan respublikamizda qishloq xo‘jaligining asosiy ekin turi bo‘lgan g‘o‘zaning qurg‘oqchilikka chidamlilik xususiyatini o‘rganish paxtachilik sohasining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. O‘simlikda gullash davrigacha bo‘lgan vaqt davomida yuzaga keluvchi qurg‘oqchilik ta’sirida o‘simlik tupida gul xosil qiluvchi kurtaklar shakllanuvchi bo‘g‘inlar sonining keskin kamayishi, shuningdek, suv tanqisligi g‘o‘za o‘simligida kurtaklar va ko‘saklarda fitogormonlar muvozanatining buzilishi, bu esa o‘z navbatida xosildorlikning kamayib ketishiga olib kelishi ta’kidlangan (G. Guinn va boshq., 1990).

Amalga oshirilgan tadqiqotlarda qurg‘oqchilik sharoitida g‘o‘za o‘simligining suv tanqisligiga javob reaksiyasi o‘simlikda genetik o‘zgaruvchanlik xususiyatiga bog‘liq ekanligi qayd qilingan (M.J. Lacape va boshq., 1998).

X.S.Samiyev va boshqalar (1996) larning fikriga ko‘ra, g‘o‘zaning mahsuldorligini oshirish muammosini hal etish, bu ekinning biologik xususiyatlarini turli abiotik sharoitlarda, jumladan, turli suv rejimi sharoitlarida har tomonlama o‘rganish asosida mumkindir.

R.Y.Alikulov (1992) suv tanqisligiga g‘o‘za navlarining turlicha ta’sirchanlik ko‘rsatishlari ularning biologik xususiyatlariga bog‘liqligini, tuproqda nam yetishmasligi asosiy poyaning o‘sishini sekinlashtirishini aniqlagan.

Zamonaviy g‘o‘za seleksiyasida, boshqa belgilar bilan bir qatorda, muhitning noqulay sharoitlariga, jumladan qurg‘oqchilikka chidamli navlarni yaratish - asosiy yo‘nalishlardan hisoblanadi. (X. Saydaliyev va A.Tojiboyev, 2007; T. Usmanov,M. Ikromova 2008; R. Nazarov va boshqalar 2008). G‘o‘zaning genetikasi va seleksiyasida chatishtirishning turli usullari bilan olingan duragaylar hosilini qiyosiy o‘rganish muhim ahamiyatga ega (I.Y.Abduraxmonov va boshq., 2008).

O.E.Qo‘chqorov va boshqalar (2009) ning tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, suv bilan kam ta’minlangan va sho‘rlangan tuproq sharoitida g‘o‘za o‘simliklarining javob reaksiyasi quyidagicha bo‘lgan: asosiy poya uzunligi qisqarib, 60-80 sm bo‘lgan, hosil shoxlarining soni kamaygan va 6-12 tani tashkil qilgan, hosil elementlarining to‘kilishi va ularning 30% gacha saqlanishi kuzatilgan, ko‘sak og‘irligi 0,8 g. gacha, tola uzunligi 0,5-4,0 mm ga kamaygan, vegetatsiya davri ham qisqargan.

N.A.Saakova (2000) lar tomonidan o‘rta tolali g‘o‘za navlari va duragaylari suv rejimi turlicha bo‘lgan sharoitlarda o‘rganilgan. Ular olgan natijalarga ko‘ra, suv tanqisligi sharoitida barcha qimmatli – xo‘jalik belgilari turli darajada o‘zgargan, ya’ni genotiplar bu belgilar bo‘yicha qurg‘oqchilikka turlicha ta’sirchanlik ko‘rsatganlar. Jumladan, o‘simliklarda qurg‘oqchilik sharoitida mahsuldorlik, ko‘sak soni, o‘simlik bo‘yi va barglarning suv ushlash xususiyati belgilari kuchli darajada, ko‘sak og‘irligi, 1000 ta chigit og‘irligi, tola indeksi, bitta ko‘sakdagi chigit soni belgilari o‘rtacha darajada, tola chiqimi, vegetatsiya davri uzunligi, barglardagi suv miqdori belgilari kuchsiz darajada o‘zgarishi aniqlangan.

O.E.Qo‘chqorov va boshqalar (2009) ning fikricha, turichi va turlararo duragaylarni suv tanqisligi sharoitida xo‘jalik uchun qimmatli belgilari asosida tanlash yuqori samara beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida qurg‘oqchilikka chidamli g‘o‘za navlarini joriy qilish, ilg‘or agrotexnologiyalarni qo‘llash orqali paxta hosildorligini oshirish va yanada rivojlantirish nazarda tutilgan [1].

Tadqiqot materillari va ish uslublari.

Dala tadqiqotlari O‘zR FA Gva O‘EBIning Zangiota eksperimental bazasining tajriba dalasida olib borildi. 2024 yil terib olingan namunalardan eng yaxshi namunalar tanlab olindi. Jumladan, mahalliy va xitoy navlari, tizmalar, mutant liniyalar va duragaylar jami 30 ta namunalar ekildi. Aprel oyining ikkinchi dekadasida suv rejimining ikki fonida – suv bilan optimal ta’minlanganlik sharoitida (sug‘orish sxemasi 1-2-1) va suv tanqisligi sharoitida

(sug‘orish sxemasi 1-1-0) qo‘lda ekildi. Modellashtirilgan qurg‘oqchilik o‘simliklarning o‘suv davrida sug‘orish sonini kamaytirish yo‘li bilan barpo etilgan.

Tadqiqot natijalari. O‘simlikning hayoti davomida kechadigan barcha biologik jarayonlar uning mahsuldorligiga to‘g‘ridan - to‘g‘ri yoki bilvosita ta’sir etadi. Tadqiqotlarimizda eng muhim qimmatli-xo‘jalik belgilaridan bo‘lgan o‘simlik mahsuldorligi, ya’ni, bitta o‘simlikka to‘g‘ri keladigan paxta xom-ashyosi og‘irligi ham aniqlandi.

Suv tanqisligi sharoitida o‘simlik mahsuldorligining eng yuqori ko‘rsatkichlari Namangan-77, AN-516DV va Barxat (kleystogam) navlarida (mos ravishda 88,4g., 68,0 g. va 66,5 g.) qayd etildi. Nisbatan past o‘simlik mahsuldorligi 108 RF va Navbahor navlarida (mos ravishda 54,4 g. va 42,9 g.) ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

2024 yil natijalariga ko‘ra, umumiy hosildorlik, tola chiqimi va 1000 dona chigit og‘irligi bo‘yicha tanlab olingan namunalar

№	Navlar, tizmalar va duragaylar	Umumiy hosil; gr	Tola chiqimi; %	1000 dona chigit og‘; gr
Mahalliy navlar				
1	Nam-77	88,4	42,2	121,7
2	Navbahor	42,4	39,1	101,8
3	108 RF	54,4	37,7	127,9
4	AN-516 DV	68	43,6	104,5
5	Barxat (kleystogam)	66,5	40,6	113,7
Tizmalar				
6	L-1849	41,3	42,1	80,6
7	L-35 (Semenex)	89,9	44,3	111,4
8	L-CA	78,7	40,2	103,5
9	L-7 (MAS)	59,4	42,7	92,8
Turichi duragaylari				
10	(Ishonch x S-9082)	74,2	41,5	95,3
11	Navbahor x S-9082	59,9	43,6	88,3
12	S-3080 x AN-16	79,2	38,8	88,8
13	(Navbahor x AN-16) x (Ishonch x S-9082)	98,4	43,4	90,2
14	(Ishonch x S-9082) x (Navbahor x AN-16)	87,8	40,4	92,1
Turlararo duragaylar				
15	(L-CA x Diyor) x (hirs x toment)	94,6	39,2	111,2

16	(Navbahor x L-CA) x (hirs x toment)	71,9	39,6	103,9
17	(S-9082 x L-35) x (hirs x arbor)	79,5	41,2	92,2
18	(Navbahor x35) x (hirs x sturti)	97,7	40,2	96,2
19	(Orzu x Navbahor) x (hirs x toment)	51,2	39,4	97,6
	EKF_{05}	5,1	0,6	5,2

Tola chiqimi hozirgi kunda g‘o‘zaning eng muhim qimmatli-xo‘jalik belgilaridan bo‘lib, yer maydoni birligiga to‘g‘ri keladigan tola mahsulotining miqdorini belgilaydi.

Tadqiqotlarimizda suv tanqisligi sharoitida o‘rganilgan nav namunalari guruhida yuqori tola chiqimi AN-516DV va Namangan-77 navlarida (mos ravishda 43,6%; 42,2%), past tola chiqimi esa Navbahor (39,1%) va 108RF (37,7%) duragaylarida qayd etildi. Tadqiqotlarimizda turlararo olingan duragay kombinatsiyalarda yuqori tola chiqimiga (S-9082x35) x (hirs x arbor) va (Nav x35) x (hirs x sturti) kombinatsiyalari (mos ravishda 41,2% va 40,2%) ega bo‘ldilar. Qolgan kombinatsiyalarda tola chiqimi 39,2% dan to 39,6 % gachani tashkil etdi.

G‘o‘za o‘simligida 1000 dona chigit og‘irligi mahsuldorlikning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Tadqiqotlarimizda suv tanqisligi sharoitida 1000 dona chigit og‘irligining eng yuqori ko‘rsatkichlari 108 RF va Namangan-77 navlarida (mos ravishda 127,9 g va 121,7 g), eng past ko‘rsatkich esa Navbahor navida (101,8 g) qayd etildi.



G‘o‘zada o‘simlik bo‘yi muhim morfobiologik belgilardan biri hisoblanadi. Shu sababli, o‘simliklar shonalash va gullash fazasiga kirishdan oldin o‘simlik bo‘yi o‘lchandi (2-jadval).

2-jadval

Mahalliy va xorij namunalari, liniyalar va duragaylarda shonalash fazasidagi o‘simlik bo‘yi ko‘rsatkichlari, sm

№	Namunalar	O‘simlik bo‘yi (sm)x	б	V	Max-Min
Mahalliy navlar					

1	Nam-77 (naz)	27,5±1,4	4,5	10,3	23,0-37,0
2	Navbahor	23,1±0,9	2,8	9,1	19,0-26,0
3	108 RF	20,8±1,0	3,2	9,3	17,0-27,0
4	AN-516 DV	21,0±1,1	5,1	12,4	15,0-30,0
5	Shodlik-11	28,7±0,9	5,0	11,3	20,0-35,0
6	Barxat (kleystogam)	26,8±1,0	3,1	11,6	19,0-26,0
7	Marvarid	19,4±1,1	3,6	13,4	15,0-28,0
8	Durdona-2	22,8±1,1	3,5	11,2	15,0-26,0
Xitoy navlari					
9	Chuntay-2	21,8±0,7	2,4	10,9	20,0-25,0
10	XiLu Zhoug-52	24,4±2,3	7,2	29,4	15,0-33,0
11	Zhoug-78	23,5±1,1	3,4	12,4	23,0-33,0
Tizmalar					
12	L-1849	25,5±2,3	7,4	29,1	16,0-38,0
13	L-35 (Semenex)	26,8±1,2	3,7	13,9	22,0-34,0
14	L-CA	25,5±1,1	3,3	13,1	18,0-30,0
15	L-7 (MAS)	24,1±1,5	4,6	19,2	19,0-32,0
16	L-1050	26,0±1,8	5,6	21,4	21,0-32,0
17	L-1003	25,0±1,2	3,9	15,5	18,0-31,0
Mutant tizmalar					

18	L-217	25,8±1,1	3,3	12,9	20,0-30,0
19	L-218	24,8±0,9	2,8	11,4	21,0-30,0
20	L-421	25,2±1,4	4,6	18,4	20,0-35,0
Duragaylar					
21	Navbahor x S-9082	24,3±1,6	5,2	21,1	20,0-31,0
22	S-3080 x AN-16	23,0±1,2	3,9	17,0	17,0-30,0
23	Ishonch x S-9082	19,6±1,3	4,2	21,6	14,0-28,0
24	(Navbahor x AN-16) x(Ishonch x S-9082)	28,2±1,2	3,8	13,6	23,0-35,0
25	(Ishonch x S-9082) x (Navbahor x AN-16)	21,9±1,2	3,8	17,4	13,0-26,0
26	(Navbahor x L-35) x (hirs x sturti)	20,2±1,2	3,9	19,4	15,0-27,0
27	(Orzu x Navbahor) x (hirs x toment)	22,2±1,2	3,9	17,4	18,0-30,0
28	(L-CA x Diyor) x (hirs x toment)	33,4±0,9	2,8	8,5	28,0-37,0
29	(Navbahor x L-CA) x (hirs x toment)	26,6±1,3	4,2	15,8	20,0-35,0
30	(S-9082 x L-35) x (hirs x arbor)	21,5±0,2	0,7	3,3	21,0-22,0

Tadqiqot natijalari va ularning dispersion tahliliga ko‘ra, barcha o‘rganilgan navlar orasida Shodlik-11 va Namangan-77 navlari o‘simlik bo‘yi belgisi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga (28,7 sm va 27,5sm) ega bo‘ldi, nisbatan past bo‘yli o‘simliklar AN-516 (21,0sm) va 108-F (20,8sm) navlarida kuzatildi.

Bu belgi bo‘yicha Xitoy navlari orasida yuqori ko‘rsatkichlar Zhoug-52 (24,4sm) va Zhoug-78 (23,5sm) navlarida qayd etildi. Past bo‘yli o‘simliklar esa asosan Chuntay-2 navida kuzatilib mos ravishda 21,8 smni tashkil etdi.



Turlararo olingan duragay kombinatsiyalar orasidan belgining yuqori ko‘rsatkichlari (L-CA x Diyor) x (hirs x toment) va (Nav x L-CA) x (hirs x toment) kombinatsiyalarida kuzatilib, mos ravishda 33,4 sm va 26,6 smdan iborat bo‘ldi. Belgi bo‘yicha past ko‘rsatkichlar esa (S-9082 x 35) x (hirs x arbor) (21,5 sm) va (Nav x 35) x (hirs x sturti) (20,2 sm) kombinatsiyalarida namoyon bo‘ldi.

Hozirgi dala tajribalari davom ettirilmoqda. O‘simliklarga etiketkalar osib chiqildi. Xitoy va mahalliy navlarni chatishtirish uchun ota-ona ko‘chatzori tashkil etildi. Chatishtirish uchun kerakli paketchalar yasalmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5853-son 2019 yil 23 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni.

2.Абдурахмонов И.Ю. Структурная и функциональная геномика хлопчатника, создание маркеров, генетическое картирование, клонирование и исследование функций полезных генов рода *Gossyipium*. Автореф. дисс… докт. биол. наук. Ташкент, 2008. 51с.

3.Аликулов Р. Ю. Особенности водообмена и засухоустойчивости некоторых сортов хлопчатника при водном дефиците почвы. Автореф. дис... канд. биол. наук. Ташкент, 1992. 21с.

4.Nazarov R.S., Ibragimov P.SH., Egamberdiyev A.E. G‘o‘za navlari seleksiyasi, urug‘chiligi va seleksiya jarayonini jadallashtirish uslublari // Agrar fani xabarnomasi, 2001. №4, –B. 14-16.

5.Saydaliyev X., Tojiboyev T. G‘o‘zaning yangi xorijiy kolleksion namunalari. Sovremennoye sostoyaniye seleksii i semenovodstva xlopchatnika, problemi i puti ix resheniya: Materiali mejd. nauch. – prak. konf. –Tashkent, 2007. 148-149.

6.Самиев Х.С., Абдуллаев А.А., Бадалова М.С. Проявление физиологических признаков засухоустойчивости у межвидового гибрида *G.hirsutum L.* x *G. Harknessii x G. Raimondii*. Биологические основы оптимизации скороспелости и продуктивности растений: Материалы науч. конф. –Ташкент, 1996. 46.

7.Usmanov T., Ikromova M.L. Qurg‘oqchilikka, noqulay omillarga chidamli, yuqori sifatli, tezpishar g‘o‘za navlarini yaratish. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida suv va resurs tejovchi agrotexnologiyalar: Ilm. amal. konf. maql. to‘p. –Toshkent, 2008. –B. 406-408.

8.Қўчқоров О.Э., Алихожаева С.С., Усманов С.А., Абророва Ф.А., Мадартов Б.К. Характер реакции линий в проявлении хозяйственно – ценных признаков в зависимости от условий выращивания (засоления и водный дефицит). Селекция и семеноводство хлопчатника и люцерны: Сб.научн.тр Ташкент, Изд.»Фан», 2009. 282-287.

9.Саакова Н.А. Наследование репродуктивного и адаптивного гетерозиса и изменчивости у внутривидовых гибридов *G. hirsutum* L. Автореф. дис… канд. биол. наук. Ташкент, 2000. 21.

10.Lacape, M.J., J. Wery, and D.J.M. Annerosa. (1998). Relationship between plant and soil water status in five field-growing cotton (*Gossypium hirsutum* L.) cultivars. Field Crops Res. 57:29-48.

11.Guinn, G., J.R. Dunlap, and D.L. Brummett. (1990). Influence of water deficit on the abscisic acid and indole-3-acetic acid contents of cotton flower buds and flowers. *Plant Physiol.* 93:1117-1120.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

TOSHKENT VA NAMANGAN VILOYATINING TOG‘LI HUDUDLARIDAN YIG‘IB OLINGAN GENTIANA OLIVERI GRISEB O‘SIMLIGI NAMUNASINING AMINOKISLOTALAR TAHLILI

Ismoilov Mo‘minjon Yusupovich
Farg‘ona davlat universiteti, k.f.d, dotsent
mismoilov1971@gmail.com +99891 283 30 20
Qurbonaliyev Komronbek Azamat o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti, tayanch doktarant
komronqurbonaliyev@gmail.com +99890 530 08 90

Anotatsiya: Aminokislotalar — molekulasida amino – NH_2 va karboksil – COOH guruhi bo‘lgan organik birikmalar hisoblanadi. O‘simlik hamda hayvon oqsilining asosiy elementi hisoblanadi. Aminokislota rangsiz, suvda eruvchan kristall moddalar. Hozirgi kunda fanga 200 ga yaqin tabiiy aminokislotalar ma’lum. Oqsillar tarkibida uchraydigan aminokislotalar esa ularning fermentativ o‘zgarishi natijasida hosil bo‘ladi. Ayrim Aminokislotalar hayvon va odam organizmidan sintezlanmaydi. Ko‘p aminokislotalar molekulalarida asimmetrik uglerod atomi bo‘lganidan ular optik aktiv moddalar.

Kalit so‘zlar: Aminokislotalar, o‘simlik, fermentativ, asparagin kislota, glutamin kislota, glitsin, serin, aspargin, konsentratsiya.

Аннотация: Аминокислоты — органические соединения, содержащие в своей молекуле аминогруппу — NH_2 и карбоксильную группу — COOH. Он является основным компонентом растительного и животного белка. Аминокислоты — бесцветные, растворимые в воде кристаллические вещества. В настоящее время науке известно около 200 природных аминокислот. Аминокислоты, входящие в состав белков, образуются в результате их ферментативного превращения. Некоторые аминокислоты не могут синтезироваться организмом животных и человека. Многие аминокислоты являются оптически активными веществами, поскольку содержат в своих молекулах асимметричный атом углерода.

Ключевые слова: Аминокислоты, растение, ферменты, аспарагиновая кислота, глутаминовая кислота, глицин, серин, аспаргин, концентрация.

Abstract: Amino acids are organic compounds containing amino – NH_2 and carboxyl – COOH groups in their molecules. They are the main element of plant and animal proteins. Amino acids are colorless, water-soluble crystalline substances. Currently, about 200 natural amino acids are known to science. Amino acids found in proteins are formed as a result of their enzymatic transformation. Some amino acids are not synthesized by the animal and human

body. Since many amino acid molecules contain an asymmetric carbon atom, they are optically active substances.

Key words: Amino acids, plant, enzymatic, aspartic acid, glutamic acid, glycine, serine, aspargine, concentration.

KIRISH. Aminokislotalarning D-yoki L-qatorga tegishligini azot - N va amino - NH_2 guruhning uglerod atomida qanday joylashganligi ko‘rsatadi. Deyarli barcha tabiiy Aminokislotalar L-qatoriga kiradi. D-qatorga mansub Aminokislotalar tabiatda kamdan-kam bo‘lib, mikroorganizmlar tarkibida topilgan. Aminokislotalarning L-formasi o‘simliklar tomonidan yaxshi o‘zlashtirilishi aniqlangan va u moddalar almashinuvining barcha jarayonlarida qatnashadi, lekin D-formalarini o‘simliklar o‘zlashtira olmaydi, ba’zan ular moddalar almashinuvi jarayonlarini to‘xtatib qo‘yadi. Bu organizmning fermentativ sistemasi aminokislotalarning L-qatoriga moslashganligidan darak beradi. Aminokislotalar organizmda erkin holda va oqsillar yoki boshqa birikmalar tarkibida uchraydi. Ko‘pchilik aminokislotalar tibbiyotda, farmasevtikada, chorvachilikda, shuningdek oziq-ovqat va mikrobiologiya sohalarida keng qo‘llaniladi. Bugungi kunda aminokislotalardan o‘g‘it sifatida ham foydalanilmoqda.[1,2]

TAHLIL, MUHOKAMA VA NATIJALAR. Aminokislotalarning PTC hosilalarini HPLC tahlili. Aminokislotalarning PTC (feniltiokarbomayl) hosilalarini sintez qilish Stiven A., Koen Daviel usuli bo‘yicha amalga oshirildi.

FTC-aminokislotalarni identifikatsiyalash Agilent Technologies 1200 xromatografida 75x4,6 mm Discovery HS C18 ustunida amalga oshiriladi. A eritmasi: 0,14 M CH_3COONa + 0,05% TEA pH 6,4, B: CH_3CN. Oqim tezligi 1,2 ml/min, absorbans 269nm. Gradient %B/min: 1-6%/0-2,5min; 6-30%/2,51- 40min; 30-60%/40,1-45min; 60-60%/45,1-50min; 60-0%/50,1-55min. Ushbu usul orqali Gentiana olivieri Griseb o’simligini poya va gul qismining aminokislotalar miqdori o‘rganildi va quyidagi jadvalda uning tarkibi va miqdorlari keltirildi.

Erkin aminokislotalarni izolyatsiya qilish. Namunalarning suvli ekstraktidan oqsillar va peptidlarni cho'ktirish sentrifugali stakanlarda amalga oshirildi. Buning uchun 1 ml sinov namunasiga 1 ml (aniq hajm) 20% TCA qo'shildi. 10 daqiqadan so'ng, cho'kma 15 daqiqa davomida 8000 aylanish tezligida santrifugalash orqali ajratildi. 0,1 ml supernatant ajratilgan va muzlatilgan holda quritilgan. Gidrolizat bug'landi, quruq qoldiq trietilamin-asetonitril-suv (1:7:1) aralashmasida eritildi va quritildi. Kislota neytrallash uchun bu operatsiya ikki marta takrorlandi. Feniltioizosiyanat bilan reaksiyaga kirishib, Stiven A., Koen Daviel usuli bo'yicha aminokislotalarning feniltiokarbamil hosilalari (PTC) olingan. Aminokislota hosilalarini aniqlash HPLC tomonidan amalga oshirildi. HPLC shartlari: DAD detektorli Agilent Technologies 1200 xromatografi, 75x4,6 mm Discovery HS C18 ustuni. A eritmasi: 0,14 M CH3COONa + 0,05% TEA pH 6,4, B: CH3CN. Oqim tezligi 1,2 ml/min, yutilish 269 nm. Gradient %B/min: 1-6%/0-2,5min; 6-30%/2,51-40min; 30-60%/40,1-45min; 60-60%/45,1-50min; 60-0%/50,1-55min.[3,4]

Quyida 1-jadvalda Gentiana olivieri griseb o‘simligining namunasidan aminokislotalar tahlili olinganda aniqlangan miqdoriy tarkibi keltirilgan. [5]

1-jadval

Aminokislotalar talarning nomi	**Gentiana Oliveri Griseb**
	Konsentratsiya mg/g
Asparagin kislota	3.981812
Glutamin kislota	3.98203
Serin	0.297194
Glitsin	0.339171
Aspargin	0.666452
Glutamin	0.234396
Sistein	1.438251
Treonin	1.803519
Argenin	5.474177
Alanin	0.63225
Prolin	6.0203
Tirozin	6.909245
Valin	3.137124
Metionin	0.289536
Gistidin	1.82342
Izoleytsin	0.102287
Leytsin	0.164683
Tiptofan	6.209963
Fenilalanin	0.109426
Lizin	0.07976
Jami	**43.695**

Toshkent va Namangan viloyatlarining tog‘li hududlarida tarqalgan Gentiana olivieri griseb osimligi tarkibidagi tahlil qilingan aminokislotalarning sifat tahlili va konsentratsiyalari miqdoriy hisobini aminokislotalarning standart (Agilent Technologies) cho‘qqilari maydonini va ushlanish vaqtlariga ko‘ra tahlili (1-rasm).



1-rasm. Aminokislotalar xromatografiyasi.

Aminokislotalar xromatografiyasida aniqlangan natijalarni jadval asosidagi tahlili quyidagi 2-jadvalda keltirilgan. [6]

2-jadval

Peak	Ushlanish vaqti	Turi	Kenglik	Maydon	Balandlik	Maydon
	[min]		[min]	[mAU*s]	[mAU]	%
1	0.527	BV	0.3381	49.49135	2.23749	0.2540
2	1.527	VVR	0.2367	1269.82898	68.36944	6.5171
3	1.829	VV	0.2324	1263.14136	70.72964	6.4828
4	2.666	VB	0.2382	93.17138	5.17183	0.4782
5	3.939	BB	0.2115	8.47047	5.63049	0.0435
6	8.132	BV	0.4368	211.07690	6.75010	1.0833
7	8.467	VV	0.4256	207.40308	7.25302	1.0644
8	9.230	VV	0.4176	70.55344	2.40937	0.3621
9	9.861	VB	0.2849	18.30024	9.84149	0.0939
10	12.551	BV	0.6706	131.56068	2.51353	0.6752
11	13.421	VV	0.3010	553.50183	27.25142	2.8407
12	14.458	VV	0.5426	1812.46887	50.50920	9.3021
13	15.712	VV	0.4556	406.63907	13.96992	2.0870
14	16.699	VB	0.4560	1364.24817	42.33055	7.0017
15	17.993	BB	0.3165	17.13783	7.559561	0.0880
16	18.549	BB	0.1856	33.92291	2.79571	0.1741
17	19.210	BB	0.2082	27.39720	1.99522	0.1406
18	19.773	BV	0.2847	1629.15344	89.36205	8.3613
19	20.295	VV	0.4078	1031.75610	39.61697	5.2952
20	20.874	VB	0.1709	97.38712	8.18156	0.4998
21	21.560	VB	0.2186	294.29272	21.64250	1.5104
22	22.082	BV	0.1920	23.71117	1.97599	0.1217
23	22.376	VB	0.1911	32.73438	2.40005	0.1680
24	23.880	BB	0.9587	39.83307	5.08043	0.2044
25	26.114	BB	0.3026	13.15303	6.65463e	0.0675
26	27.061	BB	0.5137	2031.99854	62.76873	10.4288
27	31.618	BV	0.5377	54.02985	1.31967	0.2773
28	33.147	VV	0.7816	2913.97754	60.10564	14.9553
29	34.819	VB	0.4787	39.77769	1.14096	0.2041
30	36.047	BV	0.1262	1265.31860	138.97058	6.4940
31	36.382	VV	0.1420	286.65942	27.41075	1.4712
32	36.698	VB	0.0889	1244.43018	210.81270	6.3867

33	37.308	BB	0.1287	31.43090	3.37409	0.1613
34	39.223	BB	0.1940	916.60718	61.44805	4.7043

XULOSA. Yuqorida keltirilgan usullar yordamida aniqlangan aminokislotalar tahliliga ko‘ra Toshkent va Namangan viloyatlarining tog‘li hududlarida o‘suvchi Gentiana olivieri griseb o‘simligi tarkibida 20 ta aminokislotalar mavjud bo‘lib, ulardan aspargin kislota, glyutamin kislota, argenin, prolin, tirozin, valin, triptofanlarning konsentratsiyasi qolganlariga qaraganda biroz yuqoriroq ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. VIKIPEDIYA, Erkin enskilopediya

2. Qurbonaliyev K.A, Kurbanova M.T. (2023). “Gentıana olivieri o‘simligi tarkibidagi gentiopikrozid, swertiamarin, izovitexin, gentianol, gentiopikrozid, gentianone, mangiferin moddalarining tasnifi” Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali UIF-2023 №18 238-sahifa.

3. Tanaka R., Hasebe Y., Nagatsu A. Application of quantitative 1H- NMR method to determination of gentiopicroside in Gentianae radix and Gentianae scabrae radix. *J. Nat. Med.*2014;68:630–635. doi: 10.1007/s11418- 014-0833-0.

4. Citová I., Ganzera M., Stuppner H., Solich P. Determination of gentisin, isogentisin, and amarogentin in *Gentiana lutea* L. by capillary electrophoresis. *J. Sep. Sci.* 2008;31:195–200. doi: 10.1002/jssc.200700325.

5. Stiven A., Koen Daviel J. Fenilizotiyosiyanat lotinlaridan foydalangan holda aminokislotalar tahlili // Jour. Analitik biokimyo - 1988. - V.17.-№1.-P.1-16.

6. Toshtemirova Ch.T, Normakhamatov.N.S “Mahalliy Gentiana olivieri griseb o‘simligining yer ustki qismi tarkibidagi aminokislotalar tahlili” Eurasian Journal of medical and natural sciences page 93-95.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

F-4, F-43 VA F-45 IZOXINOLIN ALKALOIDLARINING "TAIL CUFF" USULI YORDAMIDA QON BOSIMI DOZAGA BOG‘LIQ DINAMIKASINI BAHOLASH

[1]Iqbolxon Abdurazokova*., [2]Anvar Zaynabiddinov.,
[3]Sherzod Jo’raqulov., [2]Madina Xolmirzayeva.,
[2]Azizbek Mutalipov., [2]Hayotbek Karimjonov.
[1]Fargona Jamoat Salomatligi tibbiyot instituti
[2]Andijon davlat universiteti
[3]O’zR FA O‘simlik moddalari kimyosi instituti
E-*mail:* abdurazakovaiqbolxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada F-4, F-43 va F-45 izoxinolin alkaloidlarining kalamushlarda qon bosimi dinamikasiga ta’siri "tail cuff" usuli yordamida o‘rganilgan. Tadqiqotda aniqlanishicha, F-4 moddasi qon bosimini sezilarli darajada pasaytirmagan, ba’zi hollarda esa uning oshishiga olib kelgan. F-43 moddasi 50 mg/kg dozada qon bosimini nazorat guruhiga nisbatan samarali pasaytirdi. Eng yaxshi natijalar F-45 moddasida kuzatilgan, ayniqsa 50 mg/kg dozada sistolik va diastolik qon bosimini sezilarli darajada pasaytirgani aniqlangan. Xulosa qilib aytganda, F-45 moddasi gipertoniyaga qarshi agent sifatida istiqbolli hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: vena qon tomiri, diastolik bosim, sistolik bosim, izoxinolin alkaloidi, aorta qon tomiri, dozaga bogliq ta’siri, dozaga bogliq, ion kanali, yurak-qon tomir tizimi.

Аннотация: В данной статье методом «tail cuff» изучается влияние изохинолиновых алкалоидов F-4, F-43 и F-45 на динамику артериального давления у крыс. Исследование показало, что вещество F-4 не оказывает значительного гипотензивного эффекта, а в некоторых случаях даже приводило к повышению артериального давления. Вещество F-43 в дозе 50 мг/кг эффективно снижало артериальное давление по сравнению с контрольной группой. Наиболее многообещающие результаты были получены с веществом F-45, особенно в дозе 50 мг/кг, где было отмечено значительное снижение систолического и диастолического артериального давления. В заключение, вещество F-45 является перспективным кандидатом в качестве антигипертензивного средства.

Ключевые слова: венозный кровеносный сосуд, диастолическое давление, систолическое давление, изохинолиновый алкалоид, аортальный кровеносный сосуд, дозозависимый эффект, дозозависимый, ионный канал, сердечно-сосудистая система.

Abstract: This article evaluates the dose-dependent dynamics of blood pressure of F-4, F-43, and F-45 isoquinoline alkaloids in rats using the "tail cuff" method. The study revealed that the F-4 compound did not show a significant blood pressure-lowering effect and in some

cases even caused an increase in blood pressure. The F-43 compound at a dose of 50 mg/kg effectively lowered blood pressure compared to the control group. The best results were observed with the F-45 compound, which was found to significantly reduce both systolic and diastolic blood pressure, especially at a dose of 50 mg/kg. In conclusion, the F-45 compound is a promising candidate for further investigation as a potential antihypertensive agent.

Keywords: venous blood vessel, diastolic pressure, systolic pressure, isoquinoline alkaloid, aortic blood vessel, dose-dependent effect, dose-dependent, ion channel, cardiovascular system.

Kirish. Gipertoniya dunyo bo‘ylab eng keng tarqalgan yurak-qon tomir kasalliklaridan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab taxminan 1,28 milliard kattalar ushbu kasallikka chalingan, ularning yarmidan ko‘pi (46%) esa kasalligi haqida bilmaydi. Gipertoniya yurak xuruji, insult va buyrak yetishmovchiligi kabi jiddiy asoratlar xavfini oshiradi. Har yili kamida 10 million kishi gipertoniya va uning oqibatlari sababli hayotdan ko‘z yumadi [1].

Aholining 30 yoshdan kattalar qismida gipertoniya tarqalganligi 30-40% ni tashkil etadi. Ko‘p hollarda kasallikning dastlabki bosqichlari hech qanday sezilarli alomatlarsiz o‘tadi, bu esa uni vaqtida aniqlashni qiyinlashtiradi. Kasallik rivojlanishi bilan bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, ko‘rish qobiliyatining yomonlashuvi va yurak sohasida noqulaylik sezilishi mumkin [2]. Gipertoniyaning rivojlanishiga turmush tarzi bilan bog‘liq omillar, jumladan, noto‘g‘ri ovqatlanish, ortiqcha tuz iste’moli, kam harakatlilik, stress va semizlik ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, genetik moyillik va yoshi ulg‘ayish bilan kasallik xavfi ortadi. Profilaktika va nazorat qilish choralariga tuz iste’molini kamaytirish, muntazam jismoniy faollik bilan shug‘ullanish, ortiqcha vazndan qochish va stressni kamaytirish kiradi. Vaqtida aniqlash va doimiy tibbiy nazorat qilish orqali gipertoniya asoratlarini kamaytirish va hayot sifatini yaxshilash mumkin [3].

Material va metodlar. Kalamushlarda sistolik qon bosimini o‘lchash uchun noinvaziv tail-cuff pletizmografiya usuli qo‘llanildi. O‘lchovlar kompyuterlashtirilgan tail-cuff tizimi (Model Acqknowledge Sistola Russia) yordamida 22–24°C haroratda nazorat ostida amalga oshirildi. Eksperiment boshlanishidan oldin, kalamushlar stress ta’sirini minimallashtirish maqsadida 3 kun davomida moslashuv (akklimatizatsiya) jarayonidan o‘tkazildi [4].

A **B**

1-rasm. (A) *Nurobotics* kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan Sistola AcqKnowledge

apparati. (B) Kalamushlarning dum venasiga moddalarning yuborilishi – intravenoz in'eksiya usuli orqali amalga oshirildi.

Kalamushlar to‘rtta eksperimental guruhga bo‘lindi:

1-guruh (Nazorat): Faol modda qabul qilmagan (faqat erituvchi).

2-guruh (A-41, A-42, A-53 – 10 mg/kg): 10 mg/kg miqdorda muayyan birikma bilan davolangan.

3-guruh (A-41, A-42, A-53 – 20 mg/kg): 20 mg/kg miqdorda muayyan birikma bilan davolangan.

4-guruh (A-41, A-42, A-53 – 30 mg/kg): 30 mg/kg miqdorda muayyan birikma bilan davolangan.

Har bir kalamush maxsus ushlagich (restrainer) ichiga joylashtirildi va dumi o‘lchov uchun ochiq qoldirildi. Dumga bosim sezgichli maxsus manjet o‘rnatildi va bosim asta-sekin oshirilib, qon oqimi to‘xtatilgunga qadar bosildi. Keyinchalik, bosim sekin tushirildi va qon oqimi tiklangan paytda sistolik qon bosimi avtomatik ravishda qayd etildi [5]. O‘lchovlar har bir soatda bajarildi, har bir kalamush uchun ketma-ket uchta o‘lchov amalga oshirildi va o‘rtacha qiymat statistik tahlil uchun qabul qilindi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tajribalarimizda dastlab F-4, F-43 va F-45 moddalari tayyorlandi. Har bir modda ikkita dozada: 25 mg/kg va 50 mg/kg dozalarida sinovdan o‘tkazildi (1-jadval). Tajriba guruhlari tashkil etilib, har bir modda uchun 25 va 50 mg/kg dozalariga mos ravishda ikki guruh shakllantirildi. Har bir guruhda 4 ta kalamushdan foydalanildi. Tajriba uchun 250–300 g og‘irlikdagi oq zotsiz Vistar kalamushlari tanlab olindi [6].

1-jadval

	mg /kg	**Boshlang'ich**		**1-soat**		**2-soat**		**3-soat**	
		SQB	DQB	SQB	DQB	SQB	DQB	SQB	DQB
F-4	25	94,3±9,3	63,5±6,5	101,5 ± 10,2	76,5 ± 7,5	133,0±12,8	96,3 ±9,2	123,8 ±12,7	100,5 ±9,8
	50	104,3±10,2	73,0±7,1	130,3±12,6	105,3±10,1	119,0±11,8	85,8 ±8,2	101,3 ±10,2	75,3±7,2
F-43	25	99,0±8,9	66,5±5,8	102,3±9,9	71,3±7,0	87,3±8,5	64,5 ±6,3	102,3 ±10,1	78,5±7,6
	50	126,3±12,4	90,5±8,5	140,8±11,8	115,3±10,5	116,8±11,5	84,0 ±7,8	108,8 ±10,2	67,5±6,2
F-45	25	105,0±10,0	78,3±7,6	98,5±8,9	63,3±6,2	89,8±8,7	65,5 ±6,2	132,5 ±12,8	95,8±9,3

	50	132,5±12,3	94,3±9,1	97,5±9,5	70,8±6,3	97,8±9,8	66,3±6,2	96,8±9,4	65,3±6,4

F-4 moddasining qon bosim dinamikasiga ta’siri

Tajriba boshlanishidan avval kalamushlarning dastlabki sistolik (SQB) va diastolik (DQB) qon bosimlari o‘lchandi. 25 mg/kg dozali guruhda SQB 94,3±9,3 mm Hg, DQB esa 63,5±6,5 mm Hg ni tashkil etdi. 50 mg/kg dozali guruhda esa SQB 104,3±10,2 mmHg va DQB 73,0±7,1 mm Hg bo‘ldi. Dastlabki ko‘rsatkichlar qayd etilgach, F-4 moddasi kalamushlarga intravenoz yo‘l bilan yuborildi va 3 soat davomida qon bosimi o‘zgarishlari kuzatildi.

25 mg/kg dozali guruhda birinchi soatda SQB 101,5±10,2 mmHg, DQB esa 76,5±7,5 mmHg ga ko‘tarildi. Ikkinchi soatda SQB 133,0±12,8 mmHg, DQB esa 96,3±9,2 mmHg ga yetdi. Uchinchi soatda esa SQB 123,8±12,7 mmHg va DQB 100,5±9,8 mmHg bo‘ldi (2-rasm A). 50 mg/kg dozali guruhda esa birinchi soatda SQB 130,3±12,6 mmHg, DQB 105,3±10,1 mmHg ni tashkil etdi. Ikkinchi soatda SQB 119,0±11,8 mmHg, DQB esa 85,8±8,2 mmHg ga pasaydi (2-rasm B). Uchinchi soatda esa SQB 101,3±10,2 mmHg, DQB esa 75,3±7,2 mmHg ga tushdi [7].



2-rasm. F-4 moddasining 25 mg/kg (A) va 50 mg/kg (B) dozalarida sistolik (SQB) va diastolik (DQB) qon bosimiga ta’sirini baholash. Ma’lumotlar o‘rtacha qiymat ± standart og‘ish shaklida ifodalangan (n = 4). Statistik ahamiyat: $p > 0.05$.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, F-4 moddasining ikkala dozada ham qon bosimni sezilarli darajada tushirish ta’siri kuzatilmadi, aksincha, vaqtinchalik qon bosimi oshishi ro‘y berdi. Ushbu o‘zgarishlar F-4 moddasining ehtimoliy antigipoksant (gipoksiyaga qarshi) faollikka ega bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

F-43 moddasining qon bosim dinamikasiga ta’siri

F-43 moddasi yuborilishidan oldin 25 mg/kg dozali guruhda dastlabki SQB 99,0±8,9 mmHg, DQB esa 66,5±5,8 mmHg ni tashkil etdi. 50 mg/kg dozali guruhda esa SQB 126,3±12,4

mmHg, DQB esa 90,5±8,5 mm Hg bo‘ldi (3-rasm A). Modda intravenoz tarzda yuborilgandan so‘ng, 3 soat davomida qon bosimining o‘zgarishlari o‘lchab borildi [8].

25 mg/kg dozada birinchi soatda SQB 102,3±9,9 mmHg, DQB esa 71,3±7,0 mm Hg ga ko‘tarildi. Ikkinchi soatda esa SQB 87,3±8,5 mmHg, DQB 64,5±6,3 mmHg ga pasaydi. Uchinchi soatda SQB 102,3±10,1 mmHg, DQB esa 78,5±7,6 mmHg ga yetdi (3-rasm B).

A **B**



3-rasm. F-43 moddasining 25 mg/kg (A) va 50 mg/kg (B) dozalarida sistolik (SQB) va diastolik (DQB) qon bosimiga ta’sirini baholash. Ma’lumotlar o‘rtacha qiymat ± standart og‘ish shaklida ifodalangan (n = 4). Statistik ahamiyat: $p > 0.05$.

50 mg/kg dozali guruhda birinchi soatda SQB 140,8±11,8 mmHg, DQB esa 115,3±10,5 mmHg ga oshdi. Ikkinchi soatda SQB 116,8±11,5 mmHg, DQB esa 84,0±7,8 mmHg ga tushdi. Uchinchi soatda esa SQB 108,8±10,2 mmHg, DQB esa 67,5±6,2 mmHg gacha pasaygani kuzatildi. F-43 moddasining ayniqsa 50 mg/kg dozada muhim ta’sir ko‘rsatgani, qon bosimini nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada pasaytirgani aniqlangani ushbu moddaning potentsial antihipertenziv xususiyatga ega bo‘lishini taxmin qilish imkonini beradi.

F-45 moddasining qon bosimni pasaytirishdagi doza bog‘liq dinamikasi

Tajriba boshlanishidan avval 25 mg/kg dozali guruhda dastlabki SQB 105,0±10,0 mmHg, DQB esa 78,3±7,6 mmHg edi. 50 mg/kg dozali guruhda esa SQB 132,5±12,3 mmHg va DQB 94,3±9,1 mmHg ni tashkil etdi. F-45 moddasi kalamushlarga yuborilgandan so‘ng, 3 soat davomida qon bosimi dinamikasi kuzatildi. 25 mg/kg dozali guruhda birinchi soatda SQB 98,5±8,9 mmHg, DQB esa 63,3±6,2 mm Hg ga keskin pasaydi. Ikkinchi soatda SQB 89,8±8,7 mmHg, DQB esa 65,5±6,2 mm Hg ni tashkil etdi. Uchinchi soatda esa SQB 132,5±12,8 mmHg va DQB 95,8±9,3 mmHg gacha ko‘tarilishi kuzatildi (4-rasm A).

50 mg/kg dozali guruhda esa birinchi soatda SQB 97,5±9,5 mm Hg, DQB 70,8±6,3 mm Hg ga, ikkinchi soatda esa SQB 97,8±9,8 mmHg, DQB esa 66,3±6,2 mmHg ga pasaydi. Uchinchi soatda esa SQB 96,8±9,4 mmHg, DQB esa 65,3±6,4 mmHg darajasida saqlanib qoldi (4-rasm B).

A **B**



4-rasm. F-45 moddasining 25 mg/kg (A) va 50 mg/kg (B) dozalarida sistolik (SQB) va diastolik (DQB) qon bosimiga ta’sirini baholash. Ma’lumotlar o‘rtacha qiymat ± standart og‘ish shaklida ifodalangan (n = 4). Statistik ahamiyat: $p > 0.05$.

Bu natijalar F-45 moddasining ayniqsa 50 mg/kg dozada qon bosimini sezilarli darajada pasaytiruvchi ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi. Ushbu ta’sir moddaning kelajakda hipertoniya modelida antihipertenziv agent sifatida o‘rganilishi uchun istiqbolli namuna ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosalar. Olingan natijalarga asoslanib, F-4 moddasi ikkala dozada ham qon bosimni sezilarli pasaytiruvchi ta’sir ko‘rsatmagan, aksincha, ayrim hollarda qon bosimining oshishiga olib kelgan. F-43 moddasi 50 mg/kg dozada qon bosimini nazorat guruhiga nisbatan samarali ravishda pasaytirgan. Eng yaxshi natijalar esa F-45 moddasidan kuzatilib, ayniqsa 50 mg/kg dozada sistolik va diastolik qon bosimini sezilarli darajada pasaytirgani aniqlandi. Ushbu moddalarning kelgusidagi tahlillarida adrenalin yordamida chaqirilgan gipertoniya modelida yanada chuqurroq o‘rganish rejalashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zoirovich OS, Ugli AI, Raxmatillayevich ID, et al. The effect of Ájuga Turkestánica on the rat aortic smooth muscle ion channels[J]. Biomed Pharmacol J, 2024, 17(2).
2. Inomjonov, D., Abdullaev,I., et al. (2025). In Vitro and In Vivo Studies of Crategus and Inula helenium extracts: Their Effects on Rat Blood Pressure. Trends in Sciences, 22(3), 9158.
3. Xiao Yan, Qi-Yu Zhang, Yun-Long Zhang, Xiao Han, Shu-Bin Guo, Hui-Hua Li. Gallic Acid Attenuates Angiotensin II-Induced Hypertension and Vascular Dysfunction by Inhibiting the Degradation of Endothelial Nitric Oxide Synthase // Front Pharmacol. 2020;V. 11: p.1121.
4. M Fritz and G Rinaldi. Blood pressure measurement with the tail-cuff method in Wistar and spontaneously hypertensive rats: Influence of adrenergic- and nitric oxide-mediated vasomotion. Journal of Pharmacological and Toxicological Methods 2008; 58(3), 215-221.

5. J Duarte, R Pérez-Palencia, F Vargas, MA Ocete, F Pérez-Vizcaino, A Zarzuelo and J Tamargo. Antihypertensive effects of the flavonoid quercetin in spontaneously hypertensive rats. British Journal of Pharmacology 2001; 133(1), 117-124.
6. Harrison DG, Bader M, Lerman LO, Fink G, Karumanchi SA, Reckelhoff JF, Sequeira-Lopez MLS, Touyz RM. Tail-Cuff Versus Radiotelemetry to Measure Blood Pressure in Mice and Rats. Hypertension. 2024 Jan;81(1):3-5.
7. Zhao X, Ho D, Gao S, Hong C, Vatner DE, Vatner SF. Arterial Pressure Monitoring in Mice. Curr Protoc Mouse Biol. 2011;1:105–122.
8. Chiba, Tsuyoshi & Kubota, Y. & Shinozuka, Kazumasa & Umegaki, Keizo. (2011). Comparison of blood pressure measurement by tail-cuff method and telemetry method using identical rat. Pharmacometrics. 80. 59-63.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UO‘K: 581.5

NUROTA OKRUGIDAGI *ZIZIPHORA TENUIOR* L. TABIIY RESURSLARINING ZAMONAVIY HOLATI

Mamatqosimov Odilbek To‘rayevich
O‘zR FA Botanika instituti 3 – bosqich tayanch doktoranti
odilbek.mamatqosimov.90@mail.ru.
ORCID: 0000-002-5646-8214
Hamrayev Diyorjon Xonnazar o‘g‘li
O‘zR FA Botanika instituti 1 – bosqich tayanch doktoranti
diyorbek.xamroyev@mail.uz.
ORCID: 0009-0002-4227-6155
Mavlanov Bekzod Jurabekovich
O‘zR FA Botanika instituti 1 – bosqich tayanch doktoranti
mavlanov.bekzod@mail.ru.
ORCID: 0000-0002-5137-4278

Annotatsiya: Maqolada *Ziziphora tenuior* L. ning Nurota tizmasi va unga yondosh hududlardagi tabiiy resurslarining zamonaviy holati bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. O‘rganilgan hududlarda *Z. tenuior* L. o‘rtacha 55,0 gektar maydonda tarqalgan, shundan zahira qiymatiga ega maydonlar 7,5 gektarni tashkil qiladi. O‘simlik resurs potensialining eng yuqori ko‘rsatkichlari Langar perevali (0,608 t) Sentob qishlog‘i (0,604 t) va Xayotsoy hududi (0,266 t), eng past ko‘rsatkichlari Sumbuloq qishlog‘i (0,180 t), Qo‘ytosh qishlog‘i (0,162 t) hududlarida qayd etildi.

Kalit so‘zlar: *Ziziphora tenuior*, resurs, yillik hajm, korrelyatsiya, Nurota

Аннотатция. В статье представлены сведения о современном состоянии природных ресурсов *Ziziphora tenuior* L. в Нуратинском хребте и сопредельных территориях. На исследованных территориях *Ziziphora tenuior* L. распространена в среднем на площади 55,0 га, из которых площади, имеющие заповедное значение, составляют 7,5 га. Наибольшие показатели ресурсного потенциала растений отмечены в перевала Лангар (0,608 т), в посёлка Сентаб (0,604 т) и посёлка Хаятсай (0,266 т). Наименьшие показатели отмечены посёлков Сумбулак (0,180 т) и Койташ (0,162 т).

Ключевые слова: *Ziziphora tenuior*, ресурс, годовой объем, корреляция, Нурата

Abstract. The article presents information on the current state of natural resources of *Ziziphora tenuior* L. in the Nurata Mountain Range and adjacent areas. In the studied areas, *Z. tenuior* L. is distributed over an average area of 55.0 hectares, of which areas with reserve value constitute 7.5 hectares. The highest indicators of plant resource potential were recorded in the Langar Pass area (0.608 tons), the Sentob village area (0.604 tons), and the Khayotsoy area (0.266 tons). The lowest indicators were recorded in the areas of Sumbuloq village (0.180 tons) and Qo'ytosh village (0.162 tons).

Keywords: *Ziziphora tenuior*, resource, annual volume, correlation, Nurota.

Kirish. O‘simliklar dunyosi biologik xilma – xillik va global barqarorlikning hayotiy jihatidan muhim qismi hisoblanadi. Bugungi kundagi global iqlim o‘zgarishlari va axoli sonining global o‘sib borishi fonida biologik xilma – xillikni muxofaza qilish, tabiiy ekotizimlarga antropogen tasirning kuchayishi natijasida insoniyatning tabiiy dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talabi yanada ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida dorivor o‘simliklarni tabiiy zaxiralarini o‘rganish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha tadqiqotlarni talab etadi.

Biologik xilma – xillikni saqlash, o‘simliklar olamini muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish global muammolardan biri hisoblanadi. Shu sababli, o‘simlik dunyosi ob’yektlarining tabiiy resurslarini o‘rganish, baholash orqali tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish bilan birga, muhofaza qilish choralarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi[1].

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida dorivor o‘simliklarni saqlab qolish, ko‘paytirish va ulardan samarali foydalanish borasida qator samarali chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada hukumatimiz tomonidan ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” dagi III – ustuvor yo‘nalish “Suv resurslarini tejash va atrof muhitni muxofaza qilish” ga yo‘naltirlgan maqsadlar [2]. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 10 – apreldagi “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ – 4670 – sonli qarori [3], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hayvonot va o‘simlik dunyosi ob’ektlarining davlat hisobini ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida” gi 2018 – yil 7 – noyabrdagi 914 – son qarorlari [4] juda muhim hisoblanadi.

Aynan shu nuqtai – nazardan Fanlar akademiyasi Botanika instituti tomonidan “Raqamli tabiat – 2030” davlat dasturi doirasida floramizdagi xo‘jalik ahamiyati yuqori bo‘lgan resursbop dorivor turlarning tabiiy xom – ashyo zahiralarini o‘raganishga qaratilgan ilmiy – tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Nurota okrugi O‘zbekistonning botanik – geografik rayonlashtirish sxemasiga [5] ga ko‘ra Tog‘li O‘rta Osiyo provinsiyasida joylashgan. Mazkur xududda Nurota tizmasidagi tog‘lar (Nurota, Qo‘ytosh, Oqtog‘, Pistalitog‘, Egarbelistog‘, Baliqlitog‘) lar kiradi [6, 7]. Mazkur xududning o‘simlik jamoalari va turlar xilma – xilligi yuqori bo‘lim jami 1289 turdagi yuksak o‘simliklar uchraydi [8]. Nurota okrugi tarkibida 3 ta (Nurota, Oqtog‘, Nurota oldi) botanik geografik rayonlari uchraydi [5]. Mazkur hududda Nurota qo‘riqxonasi, “Nurota – Qizilqum” biosfera rezervatlari joylashgan. Nurota qo‘riqxonasida 820 tur [9], Biosfera rezervatida 1033 tur yuksak o‘simliklar uchraydi [10].

Tadqiqot ob’yekti va metodlari. *Ziziphora tenuior* L. bo‘yi 5 – 25 sm gacha bo‘lgan bir yillik efirmoyli, dorivor, asalshiraga boy o‘simlik. Barglari lansentsimon, ingichka. Guloldi barglari novdaga o‘xshash yoki novdasimon ko‘rinishda bo‘ladi. Gullari liliyasimon, gulbandlari qisqa. Mevasi yong‘oqcha. May – iyun oylarida gullab mevasi iyul – avgustda yetiladi. Tog‘larning quyi va o‘rta qisimlaridagi Qumli shag‘alli, mayda toshli tuproqlarda o‘sadi [11].

Tabiiy xolda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Eron, Iroq, Suriya, Falastin, Ummon, Turkiya, Livan, Qirim, Ukraina, Rossiya va Yevropaning janubiy qisimlarida tarqalgan [12]. O‘zbekistonda Tyonshon va Pomir oloy tizmasida tog`larning o`rta va yuqori tog` mintaqalarida tarqalarida tarqalgan [11].

Mazkur turning yer usti qismida 1,3% gacha efir moyi, organik kislotalar, C, E vitaminlari, A provitaminlari, flavonoidlar, antotsianlar, mineral tuzlar, mikroelementlar va boshqalar mavjud, Yer ustki qismidan tayorlanadigon qaynatma va damlamalar ishtahani ochish, ovqat hazm qilishni yaxshilash, gipertoniya va siydik tosh kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi [13]. Nurota, Oqtog‘, Nurota oldi botanik geografik rayonlarida tog‘larning o‘rta va yuqori qisimlarida o‘sadi (1 – rasm).

1 – rasm. *Ziziphora tenuior* L.

Tadqiqotlarda turning tarqalish maydonlarini, xom – ashyobop turlarning biologik va ekspluatatsion zahiralarini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar resursshunoslikda qo‘llaniladigan so‘nggi zamonaviy metodik ko‘rsatmalar asosida amalga oshirildi [15, 16, 17]. Unga ko‘ra bir yillik o‘simliklarning xom – ashyosi ekspluatatsion hajm biologik zahiraning 25% ni tashkil qilish kerakligi inobatga olindi. Hisob maydonlari ko‘rsatkichlarini hisoblashda o‘rtacha xatolik 15% dan oshirmaslikka qat’iy rioya qilindi. Hisob maydonlari o‘lchamlari 10x10 m^2 kattalikda yuritilib, n=10 martagacha takroriy maydonlar ajratildi. Hisob maydonlarida unumiy tuplar soni (dona), Model tupdan yig‘ish normasi (ho‘l massa, kg) va Model tupdan yig‘ish normasi (quruq massa, kg) ko‘rsatkichlari qayd etildi. Olingan natijalarni statistik tahlillari *Past, Origin Pro*, turning zahira qiymatiga ega maydonlari xaritasini yaratishda *ArcGIS Map* dasturlari asosida amalga oshirildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqotlarda *Z. tenuior* ning tabiiy xom – ashyo zahiralarini o‘rganishda Nurota okrugi hududidan jami 7 ta monitoring hududlari ajratildi. Asosiy poligonlari sifatida Qo‘ytosh, Sentob, Sumbuloq, Kattaej qishloqlari, Langar perevali va Xayotsoy hududilari tanlab olindi (1-jadval).

1 – jadval. Tadqiqot hududi monitoring uchastkalri xaqida ma`lumot

Uchastka raqami	**Daraning nomi**	**Geografik koordinatlar**	**Turning maydoni (gektarlarda)**
№1	Qo‘ytosh qishlog‘i hududi	N: 40,266290 E: 67,309298	0,5 gektar

№2	Sentob qishlog‘i yuqor qismi	N: 40,599462 E: 66,668406	0,5 gektar
№3	Xayotsoy	N: 40,517891 E: 66,748972	1,0 gektar
№4	Sumbuloq qishlog‘i	N: 40,841973 E: 66,666844	0,5 gektar
№5	Kattaej qishlog‘i	N: 40,552365 E: 67,285259	0,5 gektar
№6	Katta rizak darasi	N: 40,866404 E: 66,056590	0,5 gektar
№7	Langar perevali	N: 40,398425 E: 65,996370	1,0 gektar

O‘simlikning 1,0 gektar maydonga o‘rtacha xosildorligi 20,0 kg ni tashkil qiladi, Xozirgi kunda kelib o‘simlikning foydalaniladigan zaxirasi Nurota okrugi uchun o‘rtacha 7,5 gektarni tashkil qiladi. O‘simlik xom ashyosining yillik tayyorlash mumkun bo‘lgan xajmi xozirgi kunda 2,227 tonnani tashkil qiladi (2 – jadval).

Mazkur hududida so‘nggi yillarda turli antropogen ta’sirlar (yerlarni o‘zlashtirish, chorva mollarini tinimsiz boqilishi, geologik qidruv ishlari va boshq.) natijasida, o‘simlikning tabiiy maydonlari keskin qisqarib ketgan. Okrug hududida o‘simlikning tabiiy tarqalgan hududlari asosan qoldiq tog‘larning pastki va o‘rta mintaqalarida toshli va shag‘alli soyliklar, qiyaliklarda o‘sadi (2 – rasm).



2 – rasm. Nurota okrugida *Ziziphora tenuior* ning tarqalish xaritasi.

Xulosa. O‘rganilgan hududlarda *Z. tenuior* ning o‘rtacha 55,0 ga maydonlarda tarqalganligi, zahira qiymatiga ega maydonlari 7,5 gektarni tashkil qiladi. Turning yillik yig‘ib olish mumkin bo‘lgan hajmi 2,227 tonnani tashkil qiladi.

Olingan natijalar asosida, Nurota okrugi hududida *Z. tenuior* ning resurs potensiali yuqori bo‘lgan hududlardan oqilona foydalanish va resurs potensiali kritik holatdagi hududlarni esa alohida muhofazaga olish hamda turning resurs ko‘rsatkichlarini tiklash tavsiya etiladi.

Mazkur tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti O‘simliklar tabiiy resurslari kadastri va populyatsion biologiyasi laboratoriyasining “Markaziy O‘zbekistonning resursbop turlarini zamonaviy holatini o‘rganish, istiqbolli turlarning intensiv texnologiyalariga asoslangan plantatsiyalarini yaratishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” mavzusidagi davlat adsturi doirasida amalga oshirilgan.

2 – jadval. Nurota okrugi hududida *Ziziphora tenuior* xom-ashyo zahirasi va tarqalish maydonlarini aniqlash bo‘yicha ma’lumot

Hudud nomi	Umumiy maydon (ga)	Tur tarqalgan maydon (ga)	Hisoblangan maydon (m2)	Hisoblangan maydonlar soni (dona)	Hisob maydoni ko‘rsatkichlari		1 tupdan yig‘ish normasi (gr)	1 ga. dagi hosildorlik miqdori (kg)	Yillik yig‘ib olish mumkin bo‘lgan hajm (t)
					Umumiy tuplar soni (biologik zaxira) dona	Voyaga yetgan tuplar soni (dona)			
Qo‘ytosh qishlog‘i hududi	5,0	0,5	10,0	10,0	9,1±0,64	3,9±0,24	10,7±0,80	2,44	0,162
Sentob qishlog‘i yuqor qismi	5,0	0,5	10,0	10,0	9,6±0,30	5,1±0,17	10,8±0,44	4,53	0,604
Xayotsoy	5,0	1,0	10,0	10,0	10,3±0,63	5,7±0,49	10±0,80	3,99	0,266
Sumbuloq qishlog‘i	5,0	0,5	10,0	10,0	8,2±0,38	4,6±0,43	7,9±0,52	2,71	0,180
Kattaej qishlog‘i	10,0	0,5	10,0	10,0	10,1±0,37	5,3±0,21	7,9±0,48	3,39	0,226
Katta rizak darasi	10,0	0,5	10,0	10,0	10,2±0,37	5,5±0,22	8,4±0,65	3,49	0,232
Langar perevali	15,0	1,0	10,0	10,0	11,3±0,35	5,8±0,23	10,2±0,44	4,63	0,608
JAMI:	**55**	**7,5**							**2,227**

Izoh: *Ziziphora tenuior* zaxira hajmlarining qayta tiklanish muddatlari kamida 3 yil hisoblanadi va yillik yig‘ib olish mumkin bo‘lgan hajm miqdori quruq massa miqdori hisobiga 25% ga teng (Пупукина 2019).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxmudov A. V., Abduraimov O. S., Mamatqosimov O. T. O‘zbekistonda *Rosa canina* L. tabiiy resurslarining zamonaviy holati. Qo‘qon DPI ilmiy xabarlari 2025 № 2 son. 410 – 419.
2. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni https://lex.uz/ru/docs/-6600413.

3. Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ – 4670 – son qarori. https://lex.uz/docs/-4785256.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 914 – sonli qarori. https://lex.uz/docs/-4043624?ONDATE=26.07.2022.
5. Тожибаев К. Ш., Бешко Н. Ю., Попов В. А. Ботанико – географическое районирование Узбекистана. Ботанический журнал №10 2016. С.1105 – 1132
6. Камелин Р. В. Флора Сырдариьинского Каратау. Л. 146 с.
7. Бешко Н. Ю., Тожибаев К. Ш., Батошов А. Р., Азимова Д.Э. Ботанико – географическое районирование Узбекистана. Нуратинский и Кухистанский округа. Узбекский биологический журнал №3. 2014. С. 30-34.
8. Beshko, N.Yu. Flora of Central Asia: The Nuratau Mountains. Korea National Arboretum, Pocheon. 2023. P. 431.
9. Бешко Н. Ю. Флора высших растений Руратинского заповедника. Труды заповедников Узбекистана. 2011. Вып. 7. Ташкент, с. 19 – 78.
10. Бешко Н. Ю. Флора планируемого биосферного заповедника «Нуратау – Кызылкум». Сохранение биоразнообразия на особо охраняемых территориях Узбекистана. Ташкент, 2000. С. 21- 43.
11. А. И. Введенский Флора Узбекистана том V. Ташкент – 1962.
12. https://powo.science.kew.org/taxon/urn:lsid:ipni.org:names:462033-1.
13. Хожиматов О.К. Лекарственные растения Узбекистана (свойства, применение и рациональное использование). Ташкент, “Маънавият”, 2021. 328 с.
14. Тожибаев К. Ш., Бешко Н. Ю., Эсанкулов А.С., Батошов А. Р., Азимова Д.Э. Кадастр флоры Узбекистана: Джизакская область. «Zamin nashr» 2021. С. 368.
15. Дмитрук Л.Б., В.В. Ивановский Рациональное использование и охрана растительных ресурсов. Учебно-методический комплекс. Белоруссия, Витебск. 2013. – 82 с.
16. Негребов В.В. Ресурсоведение лекарственных растений. Учебно-методический комплекс. Воронеж. 2015. – 57 с.
17. Пупыкина К.А. и др. Ресурсоведение и стандартизация лекарственного растительного сырья. Учебное пособие. Уфа, 2019. –117 с.
18. V. Maxmudov, A.V. Maxmudov Dorivor o‘simliklar flora va sistematikasi (Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik). Toshkent. 2022 “Fan” nashriyoti. 366 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDC: 546.732; 547-327; 546.05; 546.06; 548.315.2

ORCID ID 0009-0003-7678-0330

KOBALT(II) IONINING GETEROAUKSIN BILAN KOMPLEKS BIRIKMASI SINTEZI VA STRUKTURAVIY TADQIQOTI

Ismailova Shahla Atanazarovna
Xorazm Ma’mun akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi
shaxloismoilova48@gmail.com, (+99893) 751-97-36
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich
Xorazm Ma’mun akademyasi ilmiy ishlar bo‘yicha rais o‘rinbosari., k.f.n.
shadlik@mail.ru, (+99894) 230-65-75
Xudoyberganov Oybek Ikromovich
Xorazm Ma’mun akademyasi katta ilmiy xodimi., PhD
oybek_hudoyberganov@mail.ru,(+99899)965-80-85

Annotatsiya. Ushbu maqolada $[Co(Get)_2(form)_2]\cdot(H_2O)_2$, $[Co(Get)_2(Ace)_2]\cdot(H_2O)_2$, $[Co(Get)_2(Ur)_2]$ va $[Co(Get)_2(Br)_2]\cdot(Ur)_2$ tarkibli kompleks birikmalarining olinish sharoiti va uni sintez qilishda dastlab ishlatilgan moddalarning konsentratsiya nisbati, harorat, bosim qanday tasir qilishi tahlil qilingan hamda tegishli xulosalar olingan. Bu koordinatsion birikmalar aralash ligandli kompleks birikmalar bo‘lib, ularni sintez qilib olishda ishlatilgan birikmalar quyidagicha tarkibli bo‘lgan. Bunda geteroauksin (Get), formamid (form), atsetamid (Ace), karbamid (Ur), va kobaltning nitrat, xlorid, bromid, atsetat tuzlari ishlatilgan. Olingan ligand hamda sintez qilingan kompleks birikmalar tarkibi va tuzilishi hamda barqarorligi bir nechta metodlar, jumladan, element analizi, IQ-spektroskopiya usuli va TG-DSK analiz usullari yordamida aniqlandi. Ushbu birikmalarni sintez qilishda biofaol ligand geteroauksin va biogen element hisoblangan kobaltning suvda eruvchan bir necha tuzlari tanlab olingan. Sintezlangan barcha kompleks birikmalarda markaziy atom kobaltning koordinatsion soni 6 ga tengligini, IQ-spektroskopiya va TG-DSK usullari yordamida olingan natijalar asosida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Geteroauksin (IAA), kobalt(II) xlorid, ligand, kompleks birikma, sintez, analiz, element analizi, IQ-spektroskopiya, TG-DSK, koordinatsion bog‘, koordinatsion son, eruvchanlik, suyuqlanish harorati, reaksiya unumi.

СИНТЕЗ И СТРУКТУРНОЕ ИЗУЧЕНИЕ КОМПЛЕКСНОГО СОЕДИНЕНИЯ ИОНА КОБАЛЬТА(II) С ГЕТЕРОАУКСИНОМ

Аннотация. В статье проанализированы условия получения комплексных соединений, содержащих $[Co(Get)_2(form)_2]\cdot(H_2O)_2$, $[Co(Get)_2(Ace)_2]\cdot(H_2O)_2$, $[Co(Get)_2(Ur)_2]$ и $[Co(Get)_2(Br)_2]\cdot(Ur)_2$, а также влияние соотношения концентраций, температуры и давления исходных веществ на процесс их синтеза, сделаны соответствующие выводы. Эти координационные соединения представляют собой сложные соединения со смешанными лигандами, и соединения, использованные при их синтезе, имели следующий состав. Использовались гетероауксин (Get), формамид (Form), ацетамид (Ace), мочевина (Ur), а также соли нитрата, хлорида, бромида и ацетата кобальта. Состав, структура и стабильность полученного лиганда и синтезированных комплексных соединений определялись с использованием ряда методов, включая элементный анализ, ИК-спектроскопию и методы ТГ-ДСК-анализа. При синтезе этих соединений были выбраны биоактивный лиганд гетероауксин и несколько водорастворимых солей кобальта, который считается биогенным элементом. На основании результатов, полученных с использованием методов ИК-спектроскопии и ТГ-ДСК, показано, что во всех синтезированных комплексных соединениях координационное число центрального атома кобальта равно 6.

Ключевые слова: Гетероауксин(IAA), хлорид кобальта(II), лиганд, комплексное соединение, синтез, анализ, элементный анализ, ИК-спектроскопия, ТГ-ДСК, координационная связь, координационное число, растворимость, температура ликвидуса, выход реакции.

SYNTHESIS AND STRUCTURAL STUDY OF THE COMPLEX COMPOUND OF COBALT(II) ION WITH HETEROAUXIN

Annotation. In this article, the conditions for obtaining complex compounds containing $[Co(Get)_2(form)_2]\cdot(H_2O)_2$, $[Co(Get)_2(Ace)_2]\cdot(H_2O)_2$, $[Co(Get)_2(Ur)_2]$ and $[Co(Get)_2(Br)_2]\cdot(Ur)_2$ and the effect of the concentration ratio of the substances initially used in their synthesis, temperature, and pressure were analyzed and relevant conclusions were drawn. These coordination compounds are complex compounds with mixed ligands, and the compounds used in their synthesis had the following compositions. Here, heteroauxin (Get), formamide (form), acetamide (Ace), urea (Ur), and nitrate, chloride, bromide, and acetate salts of cobalt were used. The composition, structure, and stability of the obtained ligand and the synthesized complex compounds were determined using several methods, including elemental analysis, IR spectroscopy, and TG-DSK analysis methods. In the synthesis of these compounds, the bioactive ligand heteroauxin and several water-soluble salts of cobalt, which is a biogenic element, were selected. In all synthesized complex compounds, the coordination number of the central cobalt atom was shown to be 6, based on the results obtained using IR spectroscopy and TG-DSK methods.

Key words: Heteroauxin(IAA), cobalt(II) chloride, ligand, complex compound, synthesis, analysis, elemental analysis, IR spectroscopy, TG-DSK, coordination bond, coordination number, solubility, liquidus temperature, reaction yield.

KIRISH. Bugungi kunda dunyo aholisi sonining jadal suratlar bilan o‘sayotganligini e’tirof qilish mumkin. Aholi sonining ortib borishi bilan, ularning oziq ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji ham ortadi. Bu ehtiyojni qondirish uchun istemol qilinadigan o‘simliklardan yuqori hosil olish talab qilinadi. O‘simliklar hosilini oshirish uchun tuproq sharoitini yaxshilash, ekiladigan urug‘larni hosildorini tanlab ekish, qolaversa stimulyator moddalarini o‘simlikning turli davrlarida qo‘llash orqali ham hosildorlik ko‘rsatgichini oshirish mumkin. Bu o‘rinda o‘simliklarni o‘sish jarayonlariga ta’sir qiluvchi yuqori fiziologik faollikdagi kimyoviy modda geteroauksinni (o‘sish gormoni deb ham ataladi) qo‘llash yaxshi natijalar beradi. Geteroauksin odatda qiyin eruvchan moddalar jumlasiga kiradi. Masalan, suvda, benzolda, xloroformda yomon eriydi. Metanol, etanol, etil atsetatda yaxshi eriydi. Geteroauksinning eritmasi tayyorlab olinib, uni kobalt metali bilan turli tuzilishga ega aralash ligandli (amidli) koordinatsion birikmalari sintez qilindi va eruvchanligi oshirildi. Natijada, o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirilishi oson bo‘lgan kompleks birikmalar olindi va ularning qo‘llash metodikasi ishlab chiqildi. Sintezlangan $[Co(Get)_2(form)_2]\cdot(H_2O)_2$, $[Co(Get)_2(Ace)_2]\cdot(H_2O)_2$, $[Co(Get)_2(Ur)_2]$ va $[Co(Get)_2(Br)_2]\cdot(Ur)_2$ tarkibli kompleks birikmalarining tuzilishi va ayrim fizik-kimyoviy xossalari turli metodlar yordamida o‘rganilib,tegishli xulosalar olindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Kobalt (Co) — davriy jadvalning 9-guruhiga mansub o‘tish metall bo‘lib, 2+ va 3+ oksidlanish darajalarida barqaror kompleks birikmalar hosil qiladi. Kobalt(II) ionlari turli organik va noorganik ligandlar bilan koordinatsion bog‘lanish xususiyatiga ega bo‘lib, bu ularning fizik-kimyoviy va biologik xossalarini belgilab beradi [1,2,8]. Koordinatsion birikmalarda kobalt ionining geometriyasi sintez sharoitlari, ligandning tabiati va koordinatsion raqamiga bog‘liq holda tetraedrik, oktaedrik yoki boshqa murakkab shakllarda bo‘lishi mumkin [9,11].

Geteroauksin (indolil-3-uksus kislotasi, IAA) o‘simlik gormoni sifatida mashhur bo‘lib, o‘sish va rivojlanish jarayonlarida muhim biologik rol o‘ynaydi. Uning karboksil guruhidagi kislorod atomi va indol halqasidagi azot atomlari metall ionlari bilan koordinatsion bog‘lanish hosil qilish imkoniyatiga ega [3,7]. Metall komplekslarida geteroauksinning ishtiroki nafaqat ligandning o‘z biologik faolligini oshiradi, balki yangi farmakologik va agroximik xususiyatlarga ega birikmalar yaratish imkonini beradi [6,7].

Kobalt(II) ionining geteroauksin bilan komplekslarini sintez qilish turli metodlar orqali amalga oshiriladi. Oddiy sharoitda tuz va ligand eritmalarini aralashtirish, pH muhitini sozlash orqali barqaror komplekslar olinadi [4,5]. Gidrotermal va solvotermal usullar esa yirik monokristallar olish va ularning strukturasini aniq kristallografik tahlil qilish imkonini beradi [4]. Hosil bo‘lgan komplekslarning tuzilishini aniqlash uchun rentgen-fazoviy tahlil (XRD),

infraqizil (IR) spektroskopiya, ultrabinafsha-ko‘rinadigan (UV-Vis) spektroskopiya, magnit xususiyatlarni o‘lchash va element tahlili kabi metodlardan foydalaniladi [3,4].

Ilmiy adabiyotlarda kobalt(II)-geterosiklik ligand komplekslari, jumladan geteroauksin bilan hosil qilingan birikmalarning antibakterial, antifungal, antikanser, antidiabetik va antimalaria faollikka ega ekanligi ko‘plab tajribalar bilan tasdiqlangan [6,7,10]. Bundan tashqari, geteroauksinli kobalt komplekslari o‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi xususiyatlari tufayli qishloq xo‘jaligida biostimulyator sifatida qo‘llanilishi mumkin [7]. Shunday qilib, bunday komplekslarning sintezi va strukturasini o‘rganish nafaqat nazariy kimyo, balki amaliy biologiya va qishloq xo‘jaligi sohalarida ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Tajribalarda kobalt(II) xlorid geksagidrat ($CoCl_2 \cdot 6H_2O$, analitik tozalikda) va geteroauksin (indolil-3-uksus kislotasi, IAA, ≥99% tozalikda) ishlatildi. Eritmalar tayyorlash uchun distillangan suv va etanol (96%) erituvchi sifatida qo‘llanildi. Ish jarayonida analitik tarozi (±0.0001 g aniqlikda), magnit aralashtirgich, pH-metr, filtr qog‘ozi va laboratoriya shisha idishlar ishlatildi. Strukturaviy tahlillar uchun, IR-spektrofotometr (KBr tabletkalar usuli), UV-Vis spektrofotometr, rentgen-fazoviy difraktometr (XRD) va element tahlil qurilmasidan foydalanildi. Sintez reaksiyasi quyidagicha amalga oshirildi: Dastlab, 0,01 *mol* (2,38 *g*) $CoCl_2 \cdot 6H_2O$ 50 *ml* distillangan suvda eritildi. Keyin, 0,02 mol (4,34 *g*) geteroauksin 50*ml* issiq etanolga eritildi. Ligand eritmasi metall eritmasiga tomchi-tomchi holatda qo‘shildi, eritma magnit aralashtirgichda 1 soat davomida aralashtirildi. Eritmaning pH qiymati 5,5–6,0 oralig‘ida saqlandi (NaOH yoki HCl eritmalari yordamida sozlandi). Aralashma xona haroratida 24 soat damga qo‘yildi, so‘ngra cho‘kma filtrlandi va etanol bilan yuvildi. Hosil bo‘lgan kompleks vakuumda 40 °C da quritildi [12]. Kobalt(II) ionining geteroauksin bilan kompleks hosil bo‘lish reaksiyasi tenglamasi:

$$CoCl_2 \cdot 6H_2O + 2HIAA \xrightarrow[\text{Etanol/Suv, pH 5.5-6.0}]{\text{aralashtirish}} [Co(IAA)_2(H_2O)_2] + 2HCl + 4H_2O$$

Bu yerda:

- HIAA — indolil-3-uksus kislotasi (geteroauksin)
- $[Co(IAA)_2(H_2O)_2]$ - oktaedrik koordinatsion kompleks (2 ta HIAA ligand, 2 ta suv molekulasi bilan)
- 2HCl — erkin xlorid kislota eritmada qoladi
- Reaksiya etanol-suv aralashmasida, neytralga yaqin muhitda boradi

Aralash-ligandli (mixed-ligand) kompleks birikma olish maqsadida, uchinchi komponent-atsetamid (CH_3CONH_2) qo‘shish orqali kimyoviy reaksiyasi amalga oshirildi. Mahsulot sifatida oktaedrik $[Co(IAA)_2(AcNH_2)_2]$ (bu yerda IAA = indol-3-uksus kislotasi, “geteroauksin”) qabul qilindi; IAA karboksilati bidentat xelat sifatida ishtirok etgan.

$CoCl_2 \cdot 6H_2O + 2Na(IAA) + 2AcNH_2 \rightarrow [Co(IAA)_2(AcNH_2)_2]\downarrow + 2NaCl + 6H_2O$

Agar IAA monodentat koordinatsiyalansa, koordinatsiya sonini 6 ga to‘ldirish uchun eritmadan suv ham koordinatsion birikma tarkibiga kirishi mumkin: masalan,

$[Co(IAA)_2(AcNH_2)_2(H_2O)_2]$. Atsetamid bu yerda neytral O-donor (karbonil kislorodi orqali) sifatida ishtirok etadi. Kompleks birikma hosil bo‘lishini osonlashtirish uchun kimyoviy reaksiya muhitini pH 5.5–6.5 atrofida ushlab turildi.

$[Co(IAA)_2(AcNH_2)_2(H_2O)_2]$ kompleks birikmasining hosil bo‘lish reaksiyasi tenglamasi:

$CoCl_2 \cdot 6H_2O + 2HIAA + 2AcNH_2 \rightarrow [Co(IAA)_2(AcNH_2)_2(H_2O)_2]\downarrow + 2HCl + 4H_2O$

Bu yerda:

- HIAA — indolil-3-uksus kislotasi (geteroauksin)
- $AcNH_2$ — atsetamid
- Kompleks oktaedrik geometriyada, 2 ta IAA bidentat koordinatsiya (karboksilat O orqali), 2 ta atsetamid O-donor sifatida, 2 ta suv molekulasi bilan koordinatsiyalangan.
- Reaksiya etanol-suv aralashmasida va neytralga yaqin pH da olib boriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Sintez qilingan kordinatsion birikmalar tarkibi fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida tahlil qilingan. Dastlab, kompleks birikmalar tarkibi element analiz qilindi [13].

1- Jadval

Sintezlangan kompleks birikmalar element analizi natijalari

Birikmalar		$[Co(IAA)_2(H_2O)_2]$	$[Co(IAA)_2(AcNH_2)_2]$	$[Co(IAA)_2(AcNH_2)_2(H_2O)_2]$
Brutto formulasi		$C_{20}H_{20}N_2O_6Co$	$C_{24}H_{26}N_4O_6Co$	$C_{24}H_{30}N_4O_8Co$
M		443.32 g/mol	525.43 g/mol	561.46 g/mol
C	Hisoblangan	53,12	50,88	48,45
	Topilgan	52,8	50,5	48,28
H	Hisoblangan	4,63	5,02	5,21
	Topilgan	4,7	5,1	5,3
N	Hisoblangan	6,21	9,91	9,43
	Topilgan	6,1	9,7	9,2
O	Hisoblangan	21,65	18,27	22,8
	Topilgan	21,26	17,81	22,42
Co	Hisoblangan	13,05	11,68	11,12
	Topilgan	12,9	11,5	10,9

Koordinatsion birikmalar tarkibini qaysi funksional guruhlar orqali bog‘lanayotganligini analiz qilish uchun, ularni IQ-spektroskopiya tahlili amalga oshirildi[14]. Kompleks: 3450.65, 3311.78, 3215.34 cm^{-1} – keng zona; koordinatsiyalangan suv O–H va atsetamid N–H tebranishlari bilan mos keladi. IAA (ligand): karboksil guruhining kuchli C=O piki kutiladi (≈1700–1715 cm^{-1}; spektrda yirik yutilishlar va chiziqlar 1570–1520 cm^{-1} atrofida aniq ko‘rinadi: 1570.06, 1560.41, 1521.84 cm^{-1} – aromatik C=C va karboksil bilan bog‘liq tasmalar). **[**$Co(IAA)_2(AcNH_2)_2$] Kompleks birikmasida: $\nu_as(COO^-)$ = 1618.28 cm^{-1},$\nu_s(COO^-)$=1411.89cm^{-1}. $\Delta\nu$ = 1618.28 − 1411.89 = 206.39 cm^{-1} → monodentat karboksilat koordinatsiyasiga xos (xelatlangan bidentatda odatda $\Delta\nu \lesssim 110$ cm^{-1}).



1-rasm. $CoCl_2 \cdot 6H_2O$ kristallogidratining IQ-spektroskopiya tasviri



2-rasm. Geteroauksinning IQ-spektroskopiya tasviri



3-rasm. Sintez qilingan $[Co(IAA)_2(AcNH_2)_2]$ kompleks birikmasining IQ-spektrlari

IAA dagi C=O (COOH) signali transformatsiyalanib, kompleksda COO^- juftligi sifatida ν_as/ν_s paydo bo‘lishi deprotonatsiya + metallga koordinatsiyani isbotlaydi. $\Delta\nu \approx 206\ cm^{-1} \rightarrow$ karboksilatning monodentat bog‘lanishi ehtimoli yuqori. 3450–3200 cm^{-1} zonadagi keng yutilishlar koordinatsiyalangan suv O–H va $AcNH_2$ N–H bilan mos. ~519–595 cm^{-1} oralig‘idagi tasmalarning mavjudligi Co–O (va ehtimol Co–N) bog‘larini tasdiqlaydi.

XULOSA. Ushbu tadqiqotda kobalt(II) ionining geteroauksin (IAA) ligandi bilan kompleks birikmasi sintez qilinib, uning struktura va koordinatsion xususiyatlari o‘rganildi.

Sintez jarayoni optimal pH, temperatura va reaksiya vaqtida olib borildi. Olingan kompleksning tarkibi element tahlili orqali tasdiqlandi, IR spektroskopiya natijalari esa geteroauksinning karboksil guruhining deprotonatsiyalanib kobalt(II) markaziga koordinatsiyalangani hamda suv molekulalarining ham kompleks tarkibida mavjudligini ko‘rsatdi. Spektrdagi ν_as(COO^-) va ν_s(COO^-) cho‘qqilari orasidagi Δν qiymati monodentat koordinatsiya turini isbotladi. Struktura tahlili natijalari kobalt(II) ionining oktaedrik geometriyada joylashganini ko‘rsatdi. Olingan kompleksning bunday tuzilishi uning potentsial biologik faolligi va kelgusida farmatsevtik hamda qishloq xo‘jaligi sohalarida qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Wilkinson, G., Gillard, R. D., & McCleverty, J. A. (Eds.). (1987). “Comprehensive Coordination Chemistry”. Pergamon Press.3-jild. PP-145-300.

2. Cotton, F. A.; Wilkinson, G. (1999). *Advanced Inorganic Chemistry*. Wiley

3. Кукушкин Ю.Н. Химия координационных соединений.- М.: ВШ.- 1985.- 455 с.

4. Парпиев Н.А., Юсупов В.Г., Якимович С.И., Шарипов Х.Т. Ацилгидразоны и их комплексы с переходными металлами.- Ташкент.- Фан.- 1988.- 164 с.

5. Костромина Н.А., Кумок В.Н., Скорик Н.А. Химия координационных соединений.- М.: ВШ.- 1990.- 432 с.

6. Скопенко В.В., Цивадзе А.Ю., Савранский Л.И., Гарновский А.Д. Координационная химия.- М.: ИКЦ.- “Академкнига”, 2007.- 487 с.

7. Хьюи Дж. Неорганическая химия.- Строение вещества и реакционная способность.- М.: Высшая школа.- Химии.- 1990.- 696 с.

8. Chandra, S. et al. (2015). *Journal of Coordination Chemistry*, 68(5), 785-800.

9. Raju, K. V. S. et al. (2018). *Journal of Plant Growth Regulation*, 37(2), 345-360.

10. Nostro A., Germano M.P., D’angelo V., Marino A., Cannatelli M.A. Extraction methods and bioautography for evaluation of medicinal plant antimicrobial activity. *Letters in applied microbiology*. – 2000. – 30(5), R. 379-384.

11. Коттон Ф., Уилкинсон Дж. Современная неорганическая химия.- М.: Мир.- 1969.- Ч.1.- 224 с.- Ч.2.- 496 с.- Ч.3.- 592 с.

12. Savithri K., Kumar B.V., Vivek H.K., Revanasiddappa H.D. Synthesis and Characterization of Cobalt(III) and Copper(II) Complexes of 2-((E)-(6-Fluorobenzo[d]thiazol-2-ylimino) methyl)-4-chlorophenol: DNA Binding and Nuclease Studies—SOD and Antimicrobial Activities. Int. J. Spectrosc. – 2018. – Vol.18, R. 8759372.

13. Fadeeva V. P., Tikhova V. D., and Nikulicheva O. N. Elemental Analysis of Organic Compounds with the Use of Automated CHNS Analyzers // Journal of Analytical Chemistry, 2008, -V.63(11), -P.1094–1106.

14. Хонбобоев А., Халилов Н. Умумий электротехника ва электроника асослари.2000, “Ўзбекистон”, Тошкент, 448 б.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

O‘ZBEK MILLIY HUNARMANDCHILIGI AN’ANALARI TARIXSHUNOSLIGI

Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna
Ichki ishlar vazirligi Jizzax Akademik litseyi
Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi
tarix fani o‘qituvchisi
+998905154872

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbek milliy hunarmandchiligi an’analari tarixiy manbalar asosida o‘rganiladi hamda bu an’analar shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari yoritiladi. Asarda qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha hunarmandchilikning jamiyatdagi o‘rni, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’siri hamda milliy madaniyatni boyitishdagi roli tarixiy yondashuv orqali tahlil qilinadi. Turli davrlardagi arxeologik topilmalar, yozma manbalar va xalq og‘zaki ijodi asosida hunarmandchilikning turli yo‘nalishlari - ipakchilik, kulolchilik, kashtachilik, misgarlik,gilamdo’zlik va boshqalar rivojlanishining tarixiy ildizlari ochib beriladi. Shuningdek, hunarmandchilik maktablarining shakllanishi, usta-shogird an’analari va bu sohaning davlatchilik va xalq hayotidagi tutgan o‘rni ilmiy asosda ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqotda O‘zbek hunarmandchiligi an’analarini saqlash va rivojlantirish borasidagi dolzarb muammolar ham tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar. Hunarmandchilik, hunar, yilnomalar, solnomalar, to’qimachilik, ipakchilik, gilamdo’zlik, naqsh, yog’och o’ymakorlik.

ИСТОРИЯ УЗБЕКСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ РЕМЕСЛЕННЫХ ТРАДИЦИЙ

Аннотатция. В данной статье на основе исторических источников изучаются традиции узбекского народного ремесленного искусства, а также освещаются этапы формирования и развития этих традиций. В работе анализируется роль ремесленничества в обществе с древнейших времён до наших дней, его влияние на социально-экономическую жизнь и вклад в обогащение национальной культуры с исторической точки зрения. На основе археологических находок, письменных источников и устного народного творчества раскрываются исторические корни различных направлений ремёсел - ювелирного дела, гончарства, вышивки, чеканки и других. Также рассматриваются становление ремесленных школ, традиции ученичества, а также роль ремесленного дела в государственности и народной жизни. В исследовании

анализируются актуальные проблемы сохранения и развития традиций узбекского ремесленного искусства.
Ключевые слова. Ремесло, мастерство, летописи, хроники, ткачество, шелководство, ковроткачество, орнамент, резьба по дереву

HISTORY OF UZBEK NATIONAL CRAFT TRADITIONS

Annotation. This article explores the traditions of Uzbek national handicrafts based on historical sources and highlights the stages of their formation and development. The study analyzes the role of craftsmanship in society from ancient times to the present day, its impact on socio-economic life, and its contribution to enriching national culture through a historical approach. Based on archaeological findings, written sources, and oral folk art, the historical roots of various types of crafts - such as jewelry making, pottery, embroidery, metal engraving, and others - are revealed. The article also discusses the development of craft schools, the master-apprentice traditions, and the significance of handicrafts in statehood and daily life. The research examines current issues related to the preservation and development of Uzbek handicraft traditions.
Keywords. Handicrafts, craft, chronicles, annals, weaving, sericulture (silk production), carpet weaving, ornament, wood carving

KIRISH.

Hunarmandchilik tarixshunosligida manbalar bu soha tarixini o’rganishda asosiy tayanch bo’ladigan hujjatlar, buyumlar, yozma va og’zaki ma’lumotlar hisoblanadi. Hunarmandchilik tarixini o’rganishda bir qancha manbalardan foydalanamiz. Qadimdan insoniyat jamiyatining moddiy va madaniy hayotida muhim rol o’ynagan hunarmandchilik faoliyatining tarixiy taraqqiyotini o’rganadigan ilmiy yo’nalishdir. Mazkur yo’nalish orqali turli davrlarda hunarmandlarning jamiyatdagi o’rni, ularning ishlatgan asbob-uskunlari, mahsulotlari, ustaxonalari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati chuqur tadqiq qilinadi. Hunarmandchilik tarixshunosligi manbalari sifatida quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi.

1.Yozma manbalar.

- Tarixiy yilnomalar va solnomalar

Masalan; Sharafiddin al Yazdiyning “Zafarnoma’’, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma’’, asarlarida o’sha davrda mavjud bo’lgan hunar turlari haqida ma’lumot beradi.

- Sayyohlar va elchilarning esdaliklari

Masalan; Ibn Batuta va Ruy Gansales de Klavixo kabilarning yozuvlarida o’zbek hunarmandchiligi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

- Arxiv hujjatlari; Karvonsaroylar, bozorlar, hunarmandlar gildiyalari usta-shogird munosabatlari haqida yozuvlar.

2.Moddiy manbalar arxeologik topilmalar

- Keramik buyumlar, metaldan ishlanga qurollar, zargarlik buyumlari,gilam va to’qimachilik mahsulotlari-hunarmandchilik taraqqiyoti darajasini ko’rsatadi.
- Qazilma joylardan topilgan ustaxonalar topilgan topilmalar hunarmandlarni qanday shariotda ishlaganini o’rganishimizga yordam beradi.

3.Og’zaki manbalar

- Dostonlar, ertaklar, rivoyatlarda usta hunarmandlar ularning san’atga bo’lgan munosabatlari haqida xalq xotirasidagi ma’lumotlar.
- Mahalliy hunarmandlardan yozib olingan intervyular- an’anaviy hunar sirlarini saqlab kelayotgan ustalar so’zlari

4.Tasviriy manbalar

- Miniatyuralar va rasmlar- o’tmishdagi hunarmandlar hayoti va ish jarayoni ni tasvirlaydi.
- Qadimgi naqsh va bezaklar- hunarmandchlik mahsulotlari sopol, mato, yog’och o’ymakorligidagi bezaklar ularning san’at darajasini ko’taradi.

5.Etnografik manbalar

- Ustaxonalarda kuzatuvlar ish jarayoni hujjatlashtirilgan videolar, urug’lar, oila an’analari, turmush tarzi – bu manbalar zamonaviy hunarmandchilikda tarixiy an’analarning davomiyligini o’rganishda muhim hisoblanadi.

O’zbek mlliy hunarmandchilik tarixshunosligini o’rganish jarayonida uning nazariy - metodologik jihatlarini yoritish bilan birga o’rganilgan adabiyotlar uch guruhga bo’lib tahlil qilinadi. Jumladan, mustamlaka davri tadqiqotlari; mustaqillik yillarida O’zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar va xorijiy tadqiqotlarga bo’lib o’rganildi.

Birinchi guruhga kiruvchi Rossiya imperiyasi mustamlakasi va sovet davrida yaratilgan adabiyotlarga asoslanib; Rossiya imperiyasi tomonidan jo’natilgan elchilar va savdogarlar orasida mahalliy hunarmandchilik sohalarini alohida o’rganganlari ham ko’p bo’lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Rossiya imperiyasi ma’murlari O’rta Osiyo hunarmandchlik ishlab chiqarishi, mahsulot turlari va miqdoriga ham katta qiziqish bilan qaraydilar. Ular uchun o’lka boyliklari nafaqat xomashyo, va tayyor mahsulotni tashib ketish ular uchun katta manfaat keltirishiga ishonar edi. Shuni ta’kidlab o’tish joizki, Turkiston general-gubernatorligi vakillari o’lkaning hunarmandchilik sohalarini o’rganishga kirishar ekan’imperiya manfaatlaridan kelib chiqib hunarmandchilikning foyda keltiruvchi sohalari va tayyor mahsulotlarni o’z bozorlarida tutgan o’rniga asosi e’tiborini qaratganlar.[1]

Shu sababli imperiya tomonidan yuborilgan elchilar, savdogarlar va sayyohlar orasida mahalliy hunarmandchilik sohalarini alohida o’rganishga intilganlar. Ular hunarmandchilik sohasini ayrim muammolarini yoritish bilan cheklanib qolishiga qaramay, bu davrga xos hunarmandchilik holati haqida yetarlicha qimmatli ma’lumotlarni berib o’tganligi fkrimiz dalilidir.

Jumladan M.I.Brodovskiy Turkistonda paxta yetishtirish, paxta va ipak matolar to’qish, pilla yetishtirish va ipak tayyorlash bilan birga bo’yra-bardon to’qish hamda kigiz bosish hunarlari haqidagi bergan ma’lumotlari Jizzax vohasi uchun xosdir.[2]

L.Krauze asarida Turkiston o’lkasida bo’yoq tayyorlash,o’sadigan turli xil bo’yoqbop o’simliklardan ro’yan, anor, tuxmak, isparak, buzg’unch, gulxayri, mineral; toshlardan lojuvard, malg’ash, chetdan keltiriladigan indigo ildizi, turli metal parchalaridan qanday rangdagi bo’yoqlar olinishi, shuningdek bo’yoqning mahalliy bozorlaridagi narxlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.[3]

V.K.Razvadovskiy maqolasida ipakchilik, gilamchlik, namat tayyorlash, mahsulot turlari,miqdori va sifati yetarlicha yoritib berilgan. Bundan tashqari, O’rta Osiyo xalqlari tarixi, shunungdek, mintaqaning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, aholisining etnik tarkibi, urf-odati hamda an’analari,kiyinish madaniyati, turmush tarzi to’g’risidagi fikr-mulohazalar A.Berns, A.P.Fedchenko, P.I.Nebolsin, P.I.Pashino, A.Vamberi, N.F.Petrovsiy, M.Bekchurin, Ye.K.Meyendorf, A.Kun, L.F.Kostenko, K.K.Palen, V.I.Masalskiiy va boshqalar tomonidan chop ettirilgan asarlardan o’rin olgan.[4]

Sovet davriga oid adabiyotlar sirasiga alohida bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borgan qator olimlarning ishlarida O‘rta Osiyo xalqlarining muhim kasb-korlaridan to‘qimachilik va u bilan bog‘liq bo‘lgan hunar turlari, xomashyo mahsulotlari, ish qurollari, buyum-mahsulot turlari, shakllari, bezaklari, ishlab chiqarish jarayonlari, ijtimoiy munosabatlar, hunarmandchilik uyushmalari to‘grisidagi qimmatli fikr-mulohazalar jamlangan.[5]

O‘rganilayotgan tadqiqotda Turkiston general gubernatorligining rasmiy gazetalari hisoblangan “Turkestanskiye vedomosti” va “Turkiston viloyatining gazeti”da chop etilgan maqolalar va boshqa turli etnografik xarakterdagi ma’lumotlardan ham o‘rinli foydalanildi.[6]

Umuman olganda, yuqoridagi asarlar mutaxassislar tomonidan yaratilmagan bo‘lsa-da, tadqiqot doirasida sayyohlar tomonidan shaxsiy kuzatuvlar va xotiralar asosida yozilganligi bilan ajralib turadi. O‘z o‘rnida ma’lumotlarning o‘sha davr mafkurasi asosida hukmron tabaqa manfaatlaridan kelib chiqib yaratilganligini e’tibordan chetda qoldirmasdan tanqidiy yondashish zarur.

Sovet davrida ba’zi tadqiqotlarda an’anaviy hunarmandchilik bilan bog‘liq masalalar o‘rganildi, biroq sanoat, xalq hunarmandchiligi sohasida amalga oshirilgan siyosat, uning mohiyati, maqsadi va tarixiy ahamiyati adabiyotlarda xolis bahosini topmasdan, noto‘g‘ri talqin qilingan.

Yuqorida keltirilgan asarlarning deyarli barchasida yangi faktli materiallar jalb qilingan bo‘lishiga qaramay, ushbu davr mualliflari o‘z asarlarida tarixiy voqyelikni yoritishda, milliy merosimizga baho berishda hukmron siyosat nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda haqqoniylik va xolislik mezonlaridan chetlashish holatlari kuzatiladi. Qolaversa, voha gilamdo‘zlik hunarmandchiligi an’analarini rivojlanish jarayonlari va transformasiyasiga yetarlicha baho berilmagan. Shu bois, mazkur tadqiqotda ushbu asarlarga yangicha ilmiy yondashuv va xolis qarashlar asosida ilmiy xulosalar berildi.

Ikkinchi guruhga O’zbekiston mustaqilligi yillarida nashr etilgan tarix, etnografiya, arxeologiya, san’atshunoslik yo’nalishlarida bajarilgan ishlarni keltirib o’tish mumkin. Ayniqsa, tadqiqotning davriy chegarasini qamrab olgan O’zbekistonning janubiy hududlarida milliy hunarmadchiligi va hunarmandlarning ijtimoiy ahvoli haqida yoritilgan ishlar diqqatga sazovordir.Bu davrda yaratilgan davriy tadqiqotlar ilmiy nazariy jihatdan hunarmandchilik tarixiga holis yondashilganligi va keng ko’llamdagi manbalardan foydalanilganligi bilan ajralib turadi.Mustaqillik davri tadqiqotlari, jumladan, Q.Jumayev, S.To’rayeva, M.Hamidova, R.Qilichov, S.T.Davlatovnalarning ishlaridan Farg’ona vodiysi aholisi hunarmandchiligini o’rganishda qiyosiy material sifatida foydalanish mummkin.[7]

NATIJA VA MUHOKAMA.

Tarixiy etnografik va arxeologik yondashuvlar asosida yaratilgan qator dissertatsiya ishlaridan O’zbekistonning janubiy hududlari hunarmandchiligi masalalariga oid ma’lumotlar negizida taqqosiy material sifatida ham foydalanishi ham mumkin.[8]

Bundan tashqari, ‘‘O’zbekistonning badiiy hunarmandchiligi atlasi’’ O’zbekistonda an’anaviy hunarmanchilikning rivojlanish bosqichlari haqida qisqacha tarixiy ma’lumot beradi.[9] Boshqa turkumdagi adabiyotlarda O’zbekiston janubiy hududlari hunarmanchiligi tarixining turli masalalariga oid ayrim fakt va ma’lumotlar ham keltirilgan. Davriy nashrlarda ham O’zbekiston janubiy hududlari hunarmadchiligi tarixiga doir, qator san’atshunoslik va boshqa yo’nalishlarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida to’plangan ma’lumotlar uchraydi.[10] Bir qator tadqiqotlarda hunarmandchilik turlari, buyumlardagi ornament bezaklarning ma’no mazmuni va o’ziga xos hususiyatlari unga G’arb ma’daniyati ta’sirini san’atshunoslik nuqtai-nazaridan tahlil qilingan.[11]

Uchinchi guruhga kiruvchi xorijiy tadqiqotlar bular: Markaziy Osiyo xalqlari hunarmandchiligining umumiy xususiyatlari, jumladan o‘zbek milliy hunarmandchiligining to‘quvchilik, gilamdo‘zlik va boshqa hunar turlariga qisqacha to‘xtalib o‘tgan B.Mexyu, G.Blum, J.Nobl, D Starneslarning ham mualliflikda yozgan asarini keltirib o‘tish mumkin.[12] Ularda ham asosan mustaqillik yillaridagi o‘zbek hunarmandchiligining rivojlanish bosichlari yoritilishi bilan birga to‘quvchilik va gilamdo‘zik hunarining Markaziy Osiyo hunarmandchiligiga xos umummiyliklariga qisqacha to‘xtalib o‘tiladi.

J. Karterning “Turkistoning san’ati va hunarmandchiligi” asarida milliy bo‘yrado‘zlik va uning mahsulotlaridan turmushda foydalanish to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar keltiriladi.[13] Jizzax vohasi gilamdo‘zligi mavzusi tarixshunosligi tahliliga ko‘ra, hunarmandchilik tarixini o‘rganish o‘ziga xos bosqichma-bosqich tarzda rivojlanib borgan. Qolaversa, tadqiqotlar davriy nuqtai nazardan tahlilga tortilgan bo‘lsa-da, ularda tarix, san’atshunoslik, etnografik muammoviy yo‘nalishlarga ko‘ra izchil ilmiy asoslanganligi yoritib berildi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek milliy hunarmandchiligi tarixini o‘rganishda turli xil manbalar, jumladan, tasviriy va etnografik materiallar, tarixiy hujjatlar, mustamlaka va mustaqillik davri hamda xorijiy tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi. Miniatyuralar, naqsh va

bezaklar, ustaxonalardagi kuzatuvlar va videolar hunarmandchilikning o‘tmishdagi hamda zamonaviy holatini yoritishda katta ahamiyatga ega. Mustamlaka davridagi tadqiqotlar asosan imperiya manfaatlariga xizmat qilgan bo‘lsa-da, o‘sha davr hunarmandchiligi haqida muhim ma’lumotlar beradi. Sovet davridagi asarlarda esa ko‘pincha siyosiy mafkura ta’siri sezilib, hunarmandchilikning asl mohiyati noto‘g‘ri talqin etilgan. Mustaqillik davrida olib borilgan tadqiqotlar esa milliy merosga nisbatan yanada xolis va ilmiy yondashuv bilan ajralib turadi. Xorijiy olimlarning ishlarida ham O‘zbekiston hunarmandchiligining muhim turlari haqida qimmatli fikrlar keltirilgan. Bu tadqiqotlar hunarmandchilik tarixini chuqurroq anglash va uni zamonaviy bosqichlarda tahlil qilishga imkon yaratadi. Umuman olganda, mazkur tadqiqotlar asosida o‘zbek hunarmandchiligining tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari va bugungi kundagi ahamiyati tizimli tahlil qilingan bo‘lib, bu sohaning milliy madaniyatdagi beqiyos o‘rnini anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Соболев Л.Н. Географические и статические сведения о Зеравшанском округе. – Спб., 1874; Стремоухов Н. Поездка в Бухару // Русский вестник. 1875. – № 6; Радлов В.В. Средная Зеравшанская долина // Зап. Рус. Географ. О-ва. По отд. Этнографии. – Т. У1. – Спб., 1889; Вирский М.М. Выставка сельского хозяйства и промышленность в Самарканде в 1884. – Самарканд, 1895; Кирипичников Н.А. Краткий очерк некоторых туземных промыслов Самаркандской области // Справочная книжка Самаркандской области 1897 г. – Самарканд, 1897.

2. Бродовский М.И. Техническое производство в Туркестанском крае. – Спб., 1875.

3. Краузе Л. Заметка о красильном искусстве туземцев // Русский Туркестан. – М., 1872.– Вып.2. – С. 207-213.

4. Бернс А. Путешествие в Бухару. – Москва, 1848-1849; Небольсин П. Очерки торговли России со странами Средней Азии. – СПб., 1856. – 221 с; Вамбери А. Очерки по Средней Азии (Дополнение к путешествию по Средней Азии). – Спб., 1868. – 336 с; Ўша муаллиф. Очерки жизни и нравово Востока. – СПб., 1877. – 248 с; Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару в 1920 году. – М.: Наука, 1875. – 182 с; Пашино П.И. Туркестанский край в 1866 г. Путевые заметки. – СПб., 1868. – 272 с; Петровский Н.Ф. О шелководстве и шелкомотание в Средней Азии. Отчет министерству финансов агента в Туркестанском генерал- губернаторстве. – СПб., 1874. – С. 81-106; Пален К.К. Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестанском крае. – СПб., 1908. – Ч. 2. – 367 с; Ўша муаллиф. Отчет по ревизии Туркестанского края, проведенный по высочайшему поведению сенатором-гофмейстером графом К.К. Паленом 1909-1910 гг. – СПб., 1910. – Ч. 2. – 222 с; Костенко Л.Ф. Туркестанский край. В 3-х томах. – Спб., 1880. Т. I. – 453 с.; Т. II. – 261 с.; Т. III. – 303 с.

5. Григорьев Г.В. Кустарные производство бумаги в Узбекистане // СЭ. – 1940. – № 3. – С. 142-160; Сухарева О.А. К истории художественного ремесла в Узбекистане //

СМАЭ. – М – Л.: Изд-во АН СССР, 1953, – Т.14, - С. 71-158; Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла в Самарканда и Бухаре. – Ташкент: Фан, 1976. – С. 234.

6. Ковровые производства Туркестана // Туркестанские ведемости. 1894, 31 марта. – № 23. – С. 92; Yana qarang: Shodmonova S. Turkiston tarixi matbuot ko’zgusida. -Toshkent, 2011. - B. 20.

7. O‘roqov B. Zarafshon vohasi qishloq aholisining xonaki to‘qimachilik va chevarchilik hunarlari. Tarix fan. nomz.. diss. –Toshkent: 1993. – B.156.; Qilichev R. Buxoro shahrida hunarmandchilik (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari). tarix.fan. nomz. diss. – Buxoro. 1997, –B.185.; Jumayev Q.J. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoroning an’anaviy kashtado‘zlik san’ati: Tarix fan. nomz. diss...– Toshkent, 2003. – B.158.; Hamidova M. XIX – XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasi hunarmandchiligi tarixi.: Tarix fan. nom... diss – Toshkent, 2009. –B.142.; Davlatova S.T. O‘zbekistonning janubiy hududlari an’anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (XIX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari).: Tarix fan. doktori... diss – Toshkent, 2019. – B.270.

17. Navro‘z – xalqimizning bayrami bo‘lib, uning tarixi haqida qarang: Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. –Toshkent, 1968. T. I. –B. 143-145.

18. . Dala yozuvlari. 2023-yil.Mirzacho’l tumani Erjar mahallasi.

19. Dala yozuvlari. 2022-yil.Arnasoy tumani Bog`bon mahallasi.

20. Dala yozuvlari. 2020-yil. Forish tumani Katta Ej qishlog‘i.

21. Dala yozuvlari. 2020-yil. Forish tumani Mojurum qishlog‘i.

22. Dala yozuvlari. 2020-yil. Forish tumani Uxum qishlog‘i.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

XORAZMNING ANTIK DAVR DINIY INSHOOTLARINING TARIXIY REKONSTRUKSIYASI

Ruziboyev Rakhimbergan Ichthyorovich
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada Xorazm hududida keng tarqalgan diniy inshootlari: zardushtiylik ibodatxonalari, nekropollar va daxmalarni arxeologik materiallar asosida tarixiy rekonstruksiya qilish masalalari o`rganildi. Antik davrga oid ostadon (suyak saqlash) dafn marosimi turlari, ular bilan bog‘liq arxeologik yodgorliklar, ularning joylashuvi, struktura va diniy–mafkuraviy mazmuni tadqiq qilindi. Arxeologik materiallar asosida ibodatxonalar, nekropollar, uyda saqlanadigan ostadonlar va daxmalar tahlil qilindi. Maqolada Qo‘yqirilgan qal’a, Toshqirman tepa, Qalaliq‘ir 2, Chilpiq, Mizdaxkan kabi muhim yodgorliklar misolida qadimgi Xorazm diniy inshootlari va marosim amaliyoti tafsir qilindi.

Kalit so‘zlar: Xorazm, ibodatxonalar, ostadon, nekropol, daxma, Zardushtiylik, arxeologiya, Qo‘yqirilgan qal’a, Toshqirman tepa, Chilpiq, Mizdaxkan.

ИСТОРИЧЕСКАЯ РЕКОНСТРУКЦИЯ РЕЛИГИОЗНЫХ СООРУЖЕНИЙ ХОРЕЗМА АНТИЧНОГО ПЕРИОДА

Аннотация. В статье исследуются вопросы исторической реконструкции религиозных сооружений, широко распространённых на территории Хорезма, таких как зороастрийские храмы, некрополи и дахмы, на основе археологических материалов. Изучены типы погребальных обрядов с использованием оссуариев (хранения костей), относящихся к античной эпохе, а также связанные с ними археологические памятники, их локализация, структура и религиозно-идеологическое содержание. На основании археологических данных проведён анализ храмов, некрополей, домашних оссуариев и дахм. На примере таких важных памятников, как Койкрылган кала, Ташкирман-тепа, Калалыгыр 2, Чилпык, Миздахкан, в статье интерпретируются религиозные сооружения и ритуальная практика древнего Хорезма.

Ключевые слова: Хорезм, храмы, оссуарий, некрополь, дахма, зороастризм, археология, Койкрылган кала, Ташкирман-тепа, Чилпык, Миздахкан.

THE HISTORICAL RECONSTRUCTION OF RELIGIOUS MONUMENTS OF KHOREZM IN THE ANTIQUITY

Abstract. This article explores the historical reconstruction of religious structures widespread in the Khorezm region, including Zoroastrian temples, necropolises, and dakhmas, based on archaeological materials. It examines various types of ossuary (bone-storage) burial rites dating back to the antique period, along with associated archaeological monuments, their locations, structures, and religious–ideological significance. Based on archaeological data, the article analyzes temples, necropolises, domestic ossuaries, and dakhmas. The study interprets the religious architecture and ritual practices of ancient Khorezm using prominent archaeological sites such as Koykirilgan Qala, Toshqirman Tepe, Qalaliqir 2, Chilpyk, and Mizdakhkan as case studies.

Keywords: Khorezm, temples, ossuary, necropolis, dakhma, Zoroastrianism, archaeology, Koykirilgan Qala, Toshqirman Tepe, Chilpyk, Mizdakhkan.

Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasi diniy inshootlar, dafn marosimlari va urf–odatlari borasida o‘ziga xos an’analar yaratgan bo‘lib, bu antik davr yodgorliklarudagi madaniy qatlamlarda yaqqol kuzatiladi. Ayniqsa, diniy inshootlar asosidagi dafn tizimi tarixiy rekonstruktsiya qilish antic davdagi ijtimoiy–diniy hayotni va mahalliy aholining ma`naviy hayotinin o`rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Xorazmda zardushtiylik diniga bog`liq inshootlar – ibodatxonalar, nekropollar, daxma kabi inshootlar miloddan avvalgi IV–III asrlardan boshlab keng tarqalgan. Xususan, Xorazm hududida antik davrda bir qator diniy kultlar mavjud bo‘lgan: zardushtiylik, Anaxita (Anohita) kulti, Mitra kulti, shamanizm, Siyovush kulti va boshqalar.

Ma’lumki, ko`plab tadqiqotchilar asarlarida zardushtiylikning beshigi sifatida Xorazm, Baqtriya va So‘g‘d ko‘riladi.

Tadqiqotchilar S.P. Tolstov, Yu.A. Rapoport asarlarida, bu din bilan eng ko‘p bog‘lanadigan hudud aynan Xorazm deb hisoblashadi, ayniqsa bu o`lkada zardushtiylik ilohlari uchun atalgan muqaddas panteon topilgach, ularning fikrlari o`z isbotini topadi. Tadqiqotchilarning fikricha, aynan shu yerda “Avesto”da tasvirlangan zardushtiylarning muqaddas olovi — “Adar–Xurra” ilk bor yoqilgan.

“Avesto”ga ko‘ra, bu voqea Airyanam Vayjah (Eroniylar diyori) deb atalgan mamlakatda sodir bo‘lgan bo‘lib, u yerda Ahura Mazda payg‘ambar Zardushtga zohir bo‘lgan. Airyanam Vayjahning ta’rifi Xorazmning geografik va iqlimiy sharoitlariga mos keladi.

“Avesto” asarining falsafiy asosiga dunyo va inson hayoti haqida dualistik nazariya qo‘yilgan. Ikkita qarama–qarshi ilohiy kuch — Ahura Mazda (Ezgulik xudosi) va Axriman (yoki Angra Mainyu – insoniyat dushmani) doimiy kurashda bo‘lib, dunyo ustidan hukmronlik qiladi. Bu doimiy kurash — yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash g‘oyasiga asoslangan diniy ta`limotdir. Xususan, zardushtiylik dinining asosiy atrubitlari bo`lgan yer, suv, hosildorlik va muhabbat ma’budasi — Anaxit (Anohita) nomlari Xorazmda va boshqa Markaziy Osiyo xalqlarida keng tarqalgan. Hattoki, Xorazmning antik davr yodgorliklarida Anaxitni tasvirlovchi haykalchalar ko`plab topilgan.

Mitra alohida hurmatga sazovor ma`budlardan biri bo‘lgan. Uning kultida ot timsoli asosiy obraz sifatida talqin qilinadi. Xorazmning antik davr yodgorliklarida Mitrani tasvirlovchi ko‘plab surat va haykallar qayd qilingan.

Zardushtiylik ta`limotiga ko`ra quyosh kulti — bu erkaklik ibtidosi bo‘lsa, yer va suv — ayollik ibtidosidir. Xorazm aholisining moddiy va ma`naviy madaniyatida mitra va Anaxit kultlari milodiy VIII asrgacha mavjud bo‘lgan. Shuningdek, Gavomardga — ya’ni odam–buqa timsoliga ham sig‘inishgan. Uning obrazi dastlab butun tirikchilikka asos solgan kosmik kuchni ifodalagan bo‘lib, odamlarni qurilish, metallardan foydalanish va boshqa hunarlarga o‘rgatgan hisoblanadi. Vohada diniy e’tiqodlarning yanada qadimiy shakli sifatida shamanizm mavjud bo‘lgan.

Xorazmning antik davr diniy e’tiqodlarida olovga sig‘inish muhim o‘rin tutgan. Kangyuy davriga oid diniy inshootlardan olov ibodatxonasi Jonbos qal’a yodgorligida ochilgan. Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Jonbos qal'a yodgorligi tarhi va qal'aning ichki tuzilishi qayta ishlangan rekonstruktsiyasiga nazar solsak markaziy ko'cha oxirida joylashgan olovli ibodatxona qal'a mudofaa devoridan ancha balandda joylashgan. Inshoot o'rtasida mavjud bo'lgan supada olovxona qurilgan bo'lib, olov doimo yonib turgan. Ibodatxona ichki devori yaqinida uzun supa, ibodat qiluvchilarning diniy urf–odatlarini olib borishi uchun xona mavjud bo'lgan. Qal'aning kirish qismidan qarshi tomonga markaziy ko'cha boshlanib, bosh otashgohga olib borgan. Mazkur ko'cha qal'ani ikki mahallaga ajratgan. Shu bilan birga ibodatxonani qazish vaqtida Anaxita va Mitra ilohlarining haykalchalari topilgan [8,88-92]. Ibodatxonadagi muhtasham binoning kichik xonalaridan birining markazida muqaddas olov yonib turgan, 8×14 metr o‘lchamdagi katta xona esa marosimona sig‘inuv va qurbonlik ovqatlari iste’moli (ritual ziyofatlar) uchun xizmat qilgan [8,97]. Xuddi shunday diniy inshootlardan ibodatxona majmuasi o‘sha davrda Bazarqal’a yaqinida ham mavjud bo‘lgan. Bu yerda xonalardan biri muqaddas olovni saqlash xonasi bo‘lgan.

Xorazmning antik davr yodgorliklaridan bir qator yirik, aftidan, davlat darajasidagi diniy markazlar qazib o‘rganilgan: Qo‘yqirilg‘on qal’a, Toshqirman tepa, Qalaliq‘ir 2, G‘avurqal’a 3 va Elxaras. Ibodatxona majmuasi Katta Aybuyir qal’a, Bozorqal’a yaqinidagi yodgorliklarda aniqlangan [6,32]. Bu yerda maxsus xonalarda muqaddas olov saqlangan.

Zardushtiylik ibodatxonalarida odatdagidek marosimlarda — bayramlar, qurbonliklar yoki diniy ziyofatlar chog‘ida — qurbonlik sofrasida yondiriladigan muqaddas «pok» olov bo‘lgan. U maxsus xona — altarda yonib turgan. Bu olovga faqat ruhoniylar kirish huquqiga ega bo‘lgan, shuning uchun u yopiq xonada saqlangan.

Xorazmning antik davr yodgorliklari ichida eng qiziqarli inshootlardan biri Qo‘yqirilg‘on qal’adir. Yodgorlik silindrsimon minoradan iborat bo‘lib, diametri 42 metrni tashkil etadi. U atrofini o‘rab turgan, minoralar bilan mustahkamlangan aylana devor (tashqi halqa diametri 87,5 m) bilan o‘ralgan. Markaziy silindrsimon inshoot ikki qavatli bo‘lgan. Bu bino ikki marta qayta rejalashtirilgan, tashqi halqa ichidagi hovli asta–sekin binolar bilan to‘ldirilgan.

Dastlab markaziy bino bilan qal’a devori orasidagi bo‘shliq bo‘lgan, ammo keyinchalik bu joy xo‘jalik va yashash xonalari bilan zich ravishda qurib chiqilgan. Biroq bu jarayon markaziy inshoot faoliyati to‘xtatilgandan keyin, u tashlab ketilganidan so‘ng yuz bergan.

S.P. Tolstov va boshqa bir qator tadqiqotchilarning fikricha, Qo‘yqirilg‘on qal’a dastlab xorazmiy podshohlarining dafn marosimlari o‘tkaziladigan davlat ibodatxonasi sifatida baholangan, bu yerda astronomik kuzatuvlar olib borilgan [4,310]. Biroq so‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar va yangi yodgorliklarning topilishi bu bino podshohlarning dafnlari bilan bog‘liq emasligini ko‘rsatdi. Qo‘yqirilgan qal’a mamlakatdagi eng yirik hosildorlik ibodatxonasi sifatida talqin qilinmoqda [3,237].

Qo‘yqirilgan qal’adagi arxeologik qazishmalar natijasida turli topilmalar, shu jumladan ko‘plab xumlar — suv va oziq–ovqat saqlash idishlari topilgan. Sopol idishlarning (suv idishlari) sirtida yuksak san’at darajasida ishlangan relyeflar — griffonlar, chavandozlar, ayollar tasvirlari aks ettirilgan. Ko‘plab sopol va alebastardan yasalgan haykalchalar topilgan bo‘lib, ular xorazmiylar panteonidagi ma`budlarni ifodalaydi. Shuningdek, miloddan avvalgi III–II asrlarga oid oramey yozuvidagi bir nechta yozuvlar aniqlangan.

Qo‘yqirilgan qal’adan bir nechta ostadon (suyak saqlanadigan idish) va dafn niqoblari fragmentlari ham topilgan. Terrakotalardagi ma`budlar obrazi, haykal shaklidagi ostadonlar, hamda markaziy binoning reja tuzilmasi tahlili asosida tadqiqotchilar bu yerda Anaxta (Anaxita) va Siyovush — Xorazm aholisi orasida eng mashhur bo‘lgan ilohlar e’tirof etilgan deb xulosa qilishgan.

Xorazmda antik davrda keng tarqalgan diniy inshootlardan biri olov ibodatxonalari hisoblanadi. Aqshaxon qal’adagi olov ibodatxonasi, qal’a devorlari bilan o‘ralgan markaziy qismi bo‘lib, uning markazida xom g‘ishtdan qurilgan poydevor ustida qadimda muqaddas olov uzluksiz ravishda yoqib turilgan. Ibodatxonaning markaziy inshooti ichki koridor bilan ajratilgan qo‘sh devor bilan o‘ralgan.

Tadqiqotlar natijasida ma’lum bo‘lishicha, koridor devorlari butun uzunligi bo‘ylab rang–barang devoriy suratlar bilan bezatilgan. Taxminan 10 metr uzunlikdagi qazilgan koridor qismida bir nechta qatlamlarda joylashgan devoriy rasm parchalari topilgan. Quyi qatlamda hayvonlar va, ehtimol, ularning ustida o‘tirgan chavandozlar ishtirokidagi marosim jarayoni tasvirlangan. Yuqori qatlamda esa yelkasigacha saqlangan inson siymolari galereyasi ancha yaxshi holatda saqlanib qolgan. Ko‘plab obrazlarning bosh kiyimlarida qush tasviri mavjud. Bu ramzlar shuni ko‘rsatadiki, devoriy suratlarda shohona yoki ilohiy obrazlar ifodalangan.

Shubhasiz, kelajakda ushbu suratlarning ilmiy tadqiqi Xorazmning qadimgi aholisi san’ati va tarixining ilgari noma’lum sahifalarini ochib beradi. Ayni paytda bu yodgorlikda topilgan san’at namunalarining eng qadimgilari ochilgan bo‘lib, ularga miloddan avvalgi III–II asrlar deb taxminiy sana berilmoqda. Ular nafaqat yuksak badiiy ahamiyatga ega, balki tarix uchun birinchi darajali yangi manba sifatida ham qadrlanadi.

Aqshaxon qal’a yodgorligidan 8 km masofada Xorazm hududidagi qadimgi zardushtiy muqaddas joylardan biri — Toshqirmon tepa olov ibodatxonasi topilgan. Uning markazida,

xom g‘ishtdan qurilgan poydevor ustida, doimiy ravishda muqaddas olov yoqib turilgan qorong‘i, gumbazsimon tom bilan yopilgan xona joylashgan. Atrofida esa yuqoridan ochiq tarzda qurilgan yirik xonalar majmuasi mavjud. Har bir xonaning ichida qurbonlik uchun alohida altar (qurbongoh) mavjud.

Diniy bayram kunlarida bu altartlardagi asosiy muqaddas olovdan yoqilgan.

Toshxirmontepa miloddan avvalgi IV asr oxiri– III asr boshlarida qurilgan bo'lib, hayot milodiy I asrga qadar davom etgan. Toshxirmontepa ibodatxonasi to'g'riburchakli (20x16) bo'lgan. So`ngi tadqiqotlar xulosasiga ko'ra, Toshxirmontepa mazkur mikrovohaning diniy–mafkuraviy markazi bo'lib, zardushtiylikning aqidalari bajarilgan muqaddas joy bo'lgan [1,127].

So`nggi yillarda Aqshaxon qal’a yodgorligida olib borilayotgan qazishmalar natijasida olingan materiallar dunyodagi qadimgi dinlardan biri — zardushtiylik dini me`moriy inshootlari va marosimlarini tarixiy–rekonstruktiv tarzda tiklash uchun moddiy asos yaratadi [2, 124].

Elxaros ibodatxonasida uzun dahlizning ikki tomonida joylashgan sajdagohlarda ikkita tokcha bo'lib, birida otashgoh, ikkinchisida esa ma'bud haykali turgan. Devorlariga rangtasvirlar ishlatilganligiga qaraganda bu ibodatxonada turli ilohlar sha'niga olov yoqish va qurbonlik keltirish marosimlari o'tkazilgan degan taxminga kelish mumkin.Ma`lumki, antik davrda Xorazm hududida asosiy dafn marosimi astodonlar (suyak saqlash) usuli bo‘lgan: marhum jasadi avval maxsus daxmalarda yoki ochiq joyda go`shtidan tozalash (chirish) uchun qoldirilgan, so‘ng esa tozalangan suyaklar maxsus suyak idishlariga — ostodonlarga yoki idishlarga joylab ko‘milgan.

Odam suyagi solingan ostadonlar yerga ko‘milgan yoki maxsus yer osti joylariga – nauslarga qo‘yilgan. Ostadonlar ko‘milgan qadimgi nekropollar Xo‘jayli (Nazlimxonsuluv nekropoli), Nukus (Tok qal’a nekropoli), Amudaryo (Quba tog‘ nekropoli), Bo‘zatov (Kuyuk qal’a nekropoli) tumanlaridan aniaqlangan. Shuningdek, bunday qabristonlar Ustyurt tekisligida, Qora tog‘ tizmalarida, Porli tog‘ va boshqa joylardan ham ma’lum.

Diniy inshootlardan dafn yodgorliklari quyidagi turlarga ajratiladi:

- ostadon nekropollar (qabristonlar);
- ostadonlarning uy sharoitidagi saqlanma joylari;
- jasadlarni ko‘rsatish (tozalash) joylari — daxmalar;
- dafn ibodatxonalari va ziyoratgohlar;

Ostadon nekropollar, odatda, baland joylarga — tog‘ yonbag‘irlari, tepaliklar, yoki qadimiy yodgorliklar xarobalaridan hosil bo‘lgan qir–adirlar ustiga joylashtirilgan bo‘lgan [7,71]. Ba’zida nekropollar uchun qadimda tashlab ketilgan qal`alar — Qalaliq‘ir I, Tuproq qal’a kabi yodgorliklar joylashgan joylardan ham foydalanilgan. Nekropollardan tashqari, ostadonlarni ba`zida uyda saqlash holatlari ham uchraydi. Ba’zi hollarda statuyasimon ostadonlar maxsus saqlash joylarida emas, balki qadimiy hovlili uy xarobalarida topilgan. Bu esa Xorazmda muqaddas ajdod suyaklarini muayyan vaqt davomida uyda saqlash urf bo‘lganidan dalolat beradi.

Masalan, Katta Aybuyirqal’a yodgorligida topilgan ostadonlar, ehtimol, ajdodlar kultiga oid barcha diniy marosimlarni bajarish uchun vaqtincha saqlangan bo‘lgan.

Daxma — aylana shaklidagi minorasifat inshoot zardushtiylikdan qolgan, mayit saqlangan joy. Yer ustiga ishlangan va bir necha jasad qo‘yilgan inshoot. Bu dinga ko‘ra o‘likni tuproqqa ko‘mish mumkin bo‘lmagan, shu sababli minora shaklidagi maxsus daxmalar qurilgan. Odatda u toshlardan yasalgan yoki tabiiy tosh qoyalardan foydalanilgan. Unda o‘lik go‘shti tabiiy quritilgan, ba`zan hayvonlarga „yem bo‘lgach“, go‘shtdan tozalangan suyaklari ostodonlarga (ostadonlarga) solinib, naus degan boshqa inshootga o‘tkazilgan. Eronning Kermon viloyatida va Mumbayda yashovchi zardushtiylar hanuzgacha minora shaklidagi o‘z daxmalariga ega.

Xorazmda bugungi kunga qadar saqlangan jasadlarni tozalash marosim joyi — daxma namunasi sifatida Chilpiq yodgorligi ko‘rsatiladi.

«Chilpiq qo'rg'oni» arxeologik ob'ekti Nukus shahridan 43 km janubda, Amudaryo tumani Qipchaq OFY hududida joylashgan. Yodgorlikda ikkinchi jahon urush yillaridan oldin Ya.G'.G'ulamov va S.P.Tolstovlar, 20 asrning 60–70 yillarida Yu.P.Manilovlar arxeologik kuzatish ishlarini olib boradi. Natijada to'plangan arxeologik ma'lumotlar asosida Shilpiq I–IV–VII–VIII, IX–XI asrlarga tegishli esdalik ekanligi aniqlandi. Chilpiq eni 130–150 m, balandligi 35–40 m doirasimon inshoot. U soz balchiqdan tiklangan, qalin devorlar bilan o'ralgan. Garchi arxeologik tadqiqotlarda ostadonli dafn marosimi Xorazm hududida asosiy uslub bo‘lgan bo‘lsa–da, ba’zi hollarda boshqa turdagi dafn marosimlari ham kuzatilgan. Masalan, Qo‘yqirilg‘onqal’a va Bozorqal’a atrofida topilgan qadimgi qabristonlarda jasadni kuydirish (krematsiya) marosimina ham amal qilingan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Xorazmning antik davr diniy inshootlarida diniy e’tiqod, ijtimoiy mafkura va san’atning uyg‘unlashgan shakli namoyon bo‘lgan. Ibodatxonalar, nekropollar, daxmalar, uyda saqlanadigan ossuariylar Xorazm diniy madaniyatining o‘ziga xosligini, zardushtiylik dinining aholi ma`naviyatiga ta’siri va ajdodlar kultining chuqur ildiz otganini ko‘rsatadi. Antik davr yodgorliklaridagi diniy inshootlar zardushtiy diniy falsafa asosida shakllangan noyob tarixiy merosni ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Беттс А.В.Г., Ягодин В.Н. Раскопки Ташкырман–тепе // Археологические исследования в Узбекистане. – Самарканд. 2001.

2. Беттс А.В.Г., Ягодин В.Н., Ходжаниязов Г.Х. Археологические изыскания в древнем Ташкырманском оазисе. Археологические исследования в Узбекистане 2004–2005 годы. – Ташкент, «Фан».2006.

3. Калалыгыр 2. Культовый центр в Древнем Хорезме IV–II вв. до н.э. М.: 2004.

4. Койкырылган кала памятник культуры древнего Хорезма IV в. до н. э. – IV в. н. э. – ТХАЭЭ, т. V, – М., “Наука”, 1967. 347 с.

5. Мамбетуллаев М. М. Городище Большая Айбуйир кала. (Раскопки 1976–1977 гг.) –АП, вып. 4, – Ташкент, “Фан”, 1990. –С. 91–131.

6. Мамбетуллаев М. М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (города и поселения). IV в. до н. э. – IV в. н. э. – АДД, – Ташкент, 1994. 62 с.

7. Рапопорт Ю.А. Хорезмийские оссуарии. Из истории религии древнего Хорезма. – М.: 1971.

8. Толстов С. П. Древний Хорезм. Опыт историко–археологического исследования. – М., Изд–во МГУ, 1948. 352 с.

9. Ягодин В. Н., Ходжайов Т. К. Некрополь древнего Миздахкана. –Ташкент, “Фан”, 1970. 254 с.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

O‘RTA OSIYO KO‘CHMANCHI XALQLARINING NOMLARI VA JOYLASHUVI XUSUSIDA.

Amanturdiyev Shavkat Safaraliyevich,
Termiz Davlat Universiteti PhD mustaqil izlanuvchisi.
tel:+998996759483

Annotatsiya: Qadimgi O‘rta Osiyo ko‘chmanchi qabilalari nomlari, yashash hududlarini o‘rganish XIX asrda xorijiy davlatlarda mavjud yozma manbalarni turli tillarga tarjima qilish orqali boshlangan. Uning davomi XX asrda mintaqada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan uyg‘unlashib bordi. XX asr so‘nggi o‘n yilliklaridan boshlab endi masalaga “ko‘chmanchi dasht qabilalari madaniyati” deb qarash tendensiyasi kuchaydi. Maqola turli manbalar asosida qadimgi davr O‘rta Osiyo ko‘chmanchi qabilalari nomlari va yashash hududlari haqida.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo ko‘chmanchi qabilalari nomlari, zamonaviy laborator usullardagi ilmiy tadqiqotlar, Klavdiy Ptolemey, Arrian, Pliniy, Strabon, Gerodot, Avesto.

В НАЗВАНИЯХ И МЕСТОНАХОЖДЕНИИ КОЧЕВЫХ НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ.

Аннотация: Изучение названий древних среднеазиатских кочевых племен, территорий их расселения началось в XIX веке с перевода на разные языки письменных источников, имеющихся в зарубежных государствах. Его продолжение гармонично сочеталось с результатами археологических исследований, проведенных в регионе в XX веке. С последних десятилетий XX века сейчас нарастает тенденция рассматривать вопрос как “культуру кочевых степных племен”. Статья основана на различных источниках о названиях и территориях расселения древних среднеазиатских кочевых племен.

Ключевые слова: Названия древних кочевых племен Средней Азии, научные исследования современными лабораторными методами, Клавдий Птолемей, Арриан, Плиний, Страбон, Геродот, Авеста.

THE NAMES AND SETTLEMENTS OF THE NOMADIC PEOPLES OF CENTRAL ASIA ARE SPECIAL.

Abstract: The names of the nomadic tribes of ancient Central Asia, the study of living territories began in the XIX century by translating existing written sources in foreign countries

into different languages. Its continuation was harmonized with the results of archaeological research carried out in the region in the 20th century. Since the last decades of the 20th century, the trend has now intensified to view the issue as a “nomadic steppe tribal culture”. The article is about the names and habitation areas of the nomadic tribes of ancient Central Asia based on various sources.

Keywords: Names of ancient nomadic tribes of Central Asia, scientific research in modern laboratory methods, Claudius Ptolemy, Arrian, Pliny, Strabon, Herodotus, Avesto.

KIRISH. O‘rta Osiyo qadimgi davr ko‘chmanchi qabilalarining nomlari, yashash hududlarini o‘rganish XIX asrda xorijiy davlatlarda mavjud yozma manbalarni ingliz, fransuz, nemis va boshqa tillarga tarjima qilish orqali boshlangan. XX asrda mintaqaning o‘zida ularni asoslovchi keng suratlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan uyg‘unlashib bordi. Sobiq Ittifoqning parchalanishidan so‘ng tarixchi olimlar mafkuraviy erkinlikka erishishdi, bu boradagi o‘rnatilgan asosiy sun‘iy to‘siqni yo‘qolishi natijasida olib borayotgan tadqiqotlarining aniq xulosalarini ayta olish imkoniga ega bo‘lishdi. XX asr so‘nggi o‘n yilliklaridan boshlab endi masalaga “ko‘chmanchi dasht qabilalari madaniyati” deb qarash tendensiyasi kuchaydi. Xorijlik tadqiqotchilarning bevosita o‘zlari ham turli grand-loyihalar asosida ushbu sohada davom etayotgan arxeologik va boshqa tadqiqotlarda birgalikda ishtirok etishi ko‘chmanchi qabilalar tarixini ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lgan rivoyatlardan iborat emasligini yana bir bor ko‘rsatib berdi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab ko‘chmanchilarning asl tarixini o‘rganishda yangicha nazariyalar taklif qilindi. So‘nggi 20-30 yilliklarda mintaqa va unga qo‘shni hududlarda biologik, kimyoviy, makro va mikrobotanik, biomolekulyar, izotopik, zoarxeologik kabi shakldagi zamonaviy laborator usullardagi ilmiy tadqiqotlar[1] olib borilmoqda. Natijalar mavjud xulosalardagi ayrim bo‘shliqlarni to‘ldirilishidan tashqari an‘anaviy tadqiqotlar bilan birga katta imkoniyatlarga ega bunday uslubdagi o‘rganishlarga alohida e‘tibor berish kerakligini ko‘rsatib berdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

O‘rta Osiyoning qadimgi ko‘chmanchi qabilalariga oid mavjud yozma manbalar qadimgi yunon-rim, xitoy mualliflarining asarlari, “Avesto”, Bexustun va Naqshi Rustam yozuvlari, Persepol va boshqalar. Bir qarashda yetarlicha manbalar bordek tuyilsada, ularning qanchasi asosli va tadqiqotlarda qaysilaridan foydalanish muammolari mavjud. Aksariyat yunon-rim mualliflarining asosiy maqsadi skif, sak va boshqa sharq xalqlari hayotini batafsil yoritishga harakat qilish bilan birga o‘quvchida katta qiziqish uyg‘otadigan hikoyalar yordamida mashhurlikka erishishga qaratilgan edi. Qadimgi tarixchilarning O‘rta Osiyo geografiyasi haqida bergan ma‘lumotlarini bevosita o‘zlari kelib ko‘rmaganligi, Ahamoniylar, Aleksandr Makedonskiy va Salavkiylar davlati ma‘muriy tuzilmalari doirasida bo‘lganligi sababli, mazkur imperiyalardan tashqari hududlar haqida turli chalkashliklar, mos kelmaydigan birliklar yetarlicha topiladi.

Shunday bo‘lsada, yunon-rim muarrixlari orasida ba‘zilari nisbatan aniq ma‘lumotlar berishidan tashqari ko‘chirmalari kamroq va boshqa mualliflar ulardan ishonarliligi uchun iqtibos olishlari ko‘pligi bilan ajralib turadi. Ular safida Gekatey, Geradot, Ktesiy, Ptolomey, Strabon, Aristobul, Arrian, Kursiy Ruf, Eratosfen, Polibiy, Pliniy, Efor, Artemidalik Apollodor va boshqalar bor.

Olimlarning ma‘lum bir guruhi tomonidan ko‘chmanchilarga tegishli qabila yoki joy nomlarini klassik asarlarda uchraydigan nomlar bilan qanday mazmun va ma‘noda qo‘llanilganiga e‘tibor bermasdan xitoy manbalarida uchraydiganlari bilan birlashtirishga katta e‘tibor qaratishadi[2]. Bu aytilayotgan hududda xitoy manbalarida keltirilgan nomlar yuqoridagi asarlardagilar bilan ayni bir xil degan xatoliklarga yo‘l ochadi.

Yozma manbalardagi ma‘lumotlarni saralashda mualliflardagi xato xabarlar qanday kelib qolganligi qiziqarli jihat. Ko‘pincha asar mualliflari o‘z davrining boy kutubxonalaridan foydalangan, o‘zidan oldingi tarixchilar ma‘lumotlariga tayangan. Ulardagi xatoliklar bevosita takrorlanavergan. Har bir muallif ma‘lum bir qadimgi tarixnavislik maktabi vakili bo‘lib, ularning asarlarini qiyosiy va statistik tahlil qilish qaysi maktab vakili ekanligini aniqlab beradi. Mashxurlikka erishish har bir tarixchi, balki maktablar o‘rtasida o‘zaro kurashda ham namoyon bo‘ladi. Yuqorida nomlari keltirilgan va boshqa klassik yozma manbalarni umumiy mohiyatiga e‘tibor bersak quyidagi jihatlarga duch kelamiz: Aleksandr Makedonskiy davri voqealarini bayon qilishda asosan Sirdaryo bo‘yi va O‘rta Osiyoning boshqa cho‘l-dasht hududi ko‘chmanchi qabilalari tomon qilingan yurishlardagi mag‘lubiyat yoki maqsadga erishilmaslik mavzusi kam yoritiladi, balki yunon ulug‘vorligiga raxna solmasligi uchun atayin e‘tibor berilmaydi.

Kursiy Ruf va Arrian kabi Aleksandr yurishlarini yoritgan mualliflar o‘z asarlarini yaratishda ushbu kampaniya ishtirokchilarini bevosita qo‘lyozma va kundaliklaridan foydalangan. Manbalarning shu asosda yaratilishi mintaqa xalqlari joylashuvi va geografiyasining o‘zlarigacha bo‘lgan davrlarda mavjud bo‘lgan noaniqlik xamda xato ma‘lumotlarni to‘la bo‘lmasada aniqlashtirilishiga olib keldi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O‘rta Osiyo ko‘chmanchi qabilalari nomlari keltirilgan manbalar asosida jadval shaklida to‘plandi va bu yakuniy fikrlar emas. Ma‘lumotlarni shakllantirishda foydalanilgan manbalar turli davrlarga tegishliligi ko‘rsatilgan qabilalar nomi va yashash joylari masalasidagi etirozlarda inobatga olinishi kerak. Bular orasida ayrimlari o‘troq xalqlarga tegishli yoki umuman mavjud bo‘lmagan bo‘lishi xam mumkin. Ushbu nomlarning har biri tarixini o‘rganish va tahlil qilish keyingi tadqiqotlar mobaynidagi muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

Jadval № 1. Baqtriya ko‘chmanchi xalqlari ro‘yxati.

T/ r	Ko‘chmanchi qabilalar nomi	Yashash hududlari	Manbalar

1	Akinak[3]	Shimoliy Baqtriyadan janubga qarab.	Helmut Humbach, Klaus Faiss. Herodotus's Scythians and Ptolemy's Central Asia. Semasiological and Onomasiological Studies. Wiesbaden. 2012. – p. – 35. Клавдий Птоломей. VI, 11.6.
2	Amarisp[3.-p.36.]	Shimoliy Baqtriyadan janubga qarab	Клавдий Птоломей. География. VI, 11.6.
3	Amirgiya saklari [4]	Baqtriya va Hindiston oralig‘ida. (qabila Arrian davriga kelib ko‘chib o‘tishi bilan bog‘liq)	Арриан Ф. Поход Александра / перевод с древнегреческого М.Е.Сергеенко. Ответственный редактор д.и.н. О.О. Крюгер.-М.:-Л.:, 1962. Арриан. III.
4	Arsit(Orsit, Orisip) [3. -p.38.]	Tog’larda yashovchi qabila. (Baqtriya yerlarida yashashi ko’rsatilgan)	Клавдий Птоломей. География. VI, 11.6.
5	Aristey[3. -p.38.]	Shimoliy Baqtriyadan janubga qarab.	Клавдий Птоломей . География. VI. 11.6.
6	Baten [5]	Amudaryodan(Oks) janubda	Плиний Старший., VI. XVIII. 48. В.В. Латышев. Известия древних писателей о Скифии и Кавказе. Вестник древней истории, 1949, № 2. Извлечения и переводы из книги VI, сделаны И.П. Цветковым.
7	Gomodot-Homodot (Farmakotrof, Garmakotrop)[5]	Amyurgi saklari (Saka xaumovarga) deb talqin qilinadi.	Плиний Старший., XIX. 50.
8	Kirrodey [4. -p.41.]	Oks bo‘yida	Клавдий Птоломей. География. VI, 12.4.
9	Koman [5]	Baqtriya tog‘larida joylashgan bo‘lishi kerak	Плиний Старший., XVIII. 47.
10	Kitomar (kom, komar, xomar, xaoman)[5]	Ariana yoki Baqtriyada.	Плиний Старший., XVIII. 47.
11	Sabodiy[4. -p.39.]	Baqtriyaning janubida	Клавдий Птоломей. География. VI, 11.6.
12	Sagater[4. -p.39.]	Baqtriyaning shimolida Amudaryo (Oks) bo‘ylab	Клавдий Птоломей. География. VI, 11.6.
13	Skord[4. -p.39.]	Baqtriyaning janubida	Клавдий Птоломей. География. VI, 11.6.
14	Tambiz[4. -p.39.]	Baqtriyaning janubida	Клавдий Птоломей. География. VI, 11.6.

15	Varn (Uarn, Uaran)[4. -p.38.]	Baqtriyaning janubida	Клавдий Птоломей. География. VI, 11.6.

Jadval № 2. So‘g‘d ko‘chmanchi qabilalari.

T/r	Ko‘chmanchi qabilalar nomi	Yashash hududlari	Manbalar
1	Arismi (Arasma)[5]	So‘g‘d yaqinida	Плиний Старший., XVIII. 48.
2	Dribakt[4. -p.40.]	So‘g‘d to‘g‘lari ortida	Клавдий Птоломей. География. VI, 12.4.
3	Kandar (Gandar) [4. -p.41.], [5]	So‘g‘d to‘g‘lari ortida	Клавдий Птоломей. География. VI, 12. 4. Плиний Старший., XVIII. 48.
4	Mardiyon[4. -p.41.]	So‘g‘d to‘g‘lari etagida	Клавдий Птоломей. VI, 12.4.
5	Oksiadrank[4. -p.42.].	So‘g‘d to‘g‘lari ortida	Клавдий Птоломей. География. VI, 12.4.

Jadval № 3. Xorazm ko‘chmanchi qabilalari

T/r	Ko‘chmanchi qabilalar nomi	Yashash hududlari	Manbalar
1	Adrasp[6]	Massaget va saklar tarkibiga kiritiladi (Orolbo‘yi va Xorazm atrofida bo‘lishi mumkin)	Страбон. География. В 17 книгах / Пер. Г.А.Стратановского. - М. - Л.: Наука, 1964. XI, 8, 8.
2	Atasiy[6]	Massaget va saklar tarkibida	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8,8.
3	Massaget[6],[7].	Qoraqum va Sirdaryoning quyi qismi. Amudaryoning quyi oqimi, Orolbo‘yi va uning g‘arbiy qismi. Kaspiy dengizining shimoliy sharqigachada. Ba‘zilari tog‘larda, boshqalari tekislikda, uchinchisi daryo hosil qiluvchi botqoqliklarda, to‘rtinchisi esa daryo hosil qiluvchi orollarda.	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8,6. Геродот. История в девяти книгах / Пер. Г.А.Стратановского. Наука., Л., 1972. Геродот. История в девяти книгах. I.134.

Jadval №4. Toshkent va Janubiy Qozog‘iston, Farg‘ona, Pomir, Tyan-Shan, Yettisuv ko‘chmanchilari xalqlari ro‘yxati.

T/r	Ko‘chmanchi qabilalar nomi	Yashash hududlari	Manbalar
1	Abiy[4]	Sirdaryo(Tanais)dan shimolda	Арриан Ф. Поход Александра. IV,1.1.

2	As (Asiy) yoki Aziy[6].	Sirdaryo bo‘yi saklari va So‘g‘dlar yerlari oralig‘i (Keyinchalik Yunon-Baqtriya yerlarini egallagan).	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8,2.
3	Issedon (essedon)[5]	Sirdaryodan (Yaksart) shimolda	Плиний Старший., XIX. 50.
4	Komedi[4. -p.41-43.]	Yaksartning yuqori oqimi	Клавдий Птоломей. География. VI-12-3., VI.13.2-3.
5	Pasian[6].	Sirdaryo bo‘yi saklari va So‘g‘dlar yerlari oralig‘i (Keyinchalik Yunon-Baqtriya yerlarini egallagan)	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8,2.
6	Sakaravl [6].	Sirdaryo bo‘yi saklari va So‘g‘dlar yerlari oralig‘i (Keyinchalik Yunon-Baqtriya yerlarini egallagan)	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8,2.
7	Tigraxauda saklari[7] Ortokoribanti nomi xam ularga nisbatan ishlatiladi	Toshkent viloyati, Janubiy Qozog‘iston	Геродот. История в девяти книгах. I. 131., I. 153.,
8	Toxar[6].	Sirdaryo bo‘yi saklari va So‘g‘dlar yerlari oralig‘i (Keyinchalik Yunon-Baqtriya yerlarini egallagan). Sirdaryoning shimoliy qismida.	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8,2.
9	Xaumavarga saklari[7]	Pomirning tog‘li tumanlari, Farg‘ona va Tyan-Shanning janubi	Геродот. История в девяти книгах. I.133.

Jadval № 5. O‘rta Osiyo daryolari qirg‘oq bo‘yi, cho‘l, tog‘ va tog‘ yonbag‘ri ko‘chmanchi xalqlari ro‘yxati.

T/r	Ko‘chmanchi qabilalar nomi	Yashash hududlari	Manbalar
1	Antakat[5]	Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida	Плиний Старший., XIX. 50.
2	Apasiak [6]	Oks va Tanais orasida, Parfiyaning shimoliy qismi, Sirdaryo bo‘yida.	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8, 8.
3	Araxot [6]	Baqtriya yaqinida, ularning g‘arbrog‘ida Oks bo‘ylab	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8.8.
4	Avgal (Avtal)[4. -p. -40.]	Sirdaryoning shimoliy qismida, toxarlardan quyiroqda.	Клавдий Птоломей. География. VI, 12.4.
5	Berdrig [5]	Oks (Amudaryo) daryosining yuqori oqimidan janubdagi tog‘lar yaqinida joylashgan noma‘lum qabila.	Плиний Старший. Естественная история. Книга шестая. XVIII. 47.

6	Danaviy (Danay) [8]	O‘rta Osiyo (Turlarning afsonaviy urug‘laridan)	Авесто. Асқар Махкам таржимаси. Тўртинчи дафтар. Яштлар. (5-яшт) Ардвисура Анаҳита қасидаси, 18-бўлим (84). “Шарқ”, Тошкент. 2001. 178-бет.
7	Day, (Dax, Daan)[4], [6]	Kaspiy dengizining sharqidan Orolning shimoliy qirg‘oqlarigacha Tanaisning narigi tarafida (shimoliy qirg‘oq).	Арриан. III, 28.8-10. Страбон. География. В 17 книгах. XI, 7.1.; XI, 9,2-3.
8	Dengiz orti saklari (Saka tara darayya) [7]	Orol dengizi bo‘ylari, Sirdaryoning quyi oqimi va uning qirg‘oqlari.	Геродот. История в девяти книгах. I.150.
9	Derbik[6].	Kaspiy dengizi yaqinida, sharqiy sohilda joylashgan (Qoraqum sahrosida, Daylarning shimoldagi qo‘shnisi)	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8,8.
10	Ksanfi daylari (Daylarning bir qismi) [6]	Kaspiy dengizi qirg‘oqlaridan sharqqa qarab	Страбон. География. В 17 книгах. XI. 8.2.
11	Orkian yoki Ork[5]	Mardlardan pastroqda (sharqqa qarab), Baqtriya yaqinida	Плиний Старший., XVIII. 47.
12	Oksiyen [4. -p. -42.]	Oks bo‘yida	Клавдий Птоломей. География. VI, 12.4.
13	Pazik [4. -p. 38-40.]	Oks tog‘lariga yaqin joyda	Клавдий Птоломей. География. VI, 12.4.
14	Parn(sparn), Aparn (aparni daylari). (Ksandiy yoki Park nomlari ularga tegishli deb aytiladi)[6]	Sirdaryo va Orol dengizining shimoliy qismida yashagan, keyinchalik Marg‘iyonaning bo‘sh yotgan cho‘llariga (Girkaniyadan Kaspiy dengizi qirg‘oqlari oralig‘igacha) ko‘chgan. Daylarning Parfiya yerlariga hujum qilgan bir qismi.	Страбон. География. В 17 книгах. XI. 8.2., XI, 9,2-3.
15	Pestik[5]	Kaspiy dengizining sharqiy qirg‘oqlarida derbiklar bilan bir qatorda tilga olinadi	Плиний Старший., XIX. 50.
16	Pissur daylari (Daylarning bir qismi) [6]	Kaspiy dengizi qirg‘oqlaridan sharqqa qarab	Страбон. География. В 17 книгах. XI. 8.2.
17	Rumnik (Rummiki)[5]	Kaspiy dengizining Sharqiy qirg‘og‘ida, derbiklar yaqinida joylashtiradi	Плиний Старший., XIX. 50.
18	Tur (Tura) [8. – bet 177.]	O‘rta Osiyo	Авесто. Яшт. Ардвисура Анаҳита

			қасидаси. (5-яшт).15-бўлим, (66).
19	Xroas[5]	Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida, Antakatlar bilan birga tilga olinadi.	Плиний Старший., XIX. 50.
20	Yatiy(Iatiy)[4. -p. -41.]	Sirdaryoning shimoliy qismida	Клавдий Птоломей. География. VI, 12.4.
21	Zarangi[4], [5]	O‘rta Osiyo	Арриан. III.25,8. Плиний Старший., XVIII. 48.

Jadvallarda keltirilgan O‘rta Osiyo ko‘chmanchi chorvador qabilalari yashagan hududlar geografiyasi statistikasiga e‘tibor bersak mintaqaning barcha hududlari tilga olinadi va tegishliligiga ko‘ra eng ko‘p tilga olingan joylar quyidagicha:

1. Baqtriyada - Baqtriyaning shimoli, g‘arbi, janubi, Baqtriya va Hindiston oralig‘i, Baqtriya va So‘g‘d chegaralari, Amudaryo (Oks)ning yuqori oqimi.

2. So‘g‘d hududida - Sharqiy So‘g‘diyona, Xo‘jandning shimoli, Nurota tog‘lari shimoli, So‘g‘d to‘g‘lari orti, Baqtriya va So‘g‘d chegaralari.

3. Xorazm, Orol va Kaspiy dengizlari oralig‘i - Orolbo‘yi va Xorazm atrofi, Kaspiy dengizining shimoli, sharqiy qirg‘oqlari va uning ko‘rfazi, Kaspiy dengizining sharqidan Orolning shimoliy qirg‘oqlarigacha, Marg‘iyonaning bo‘sh yotgan cho‘llari, Parfiyaning shimoliy qismi xamda O‘zbo‘y va Bolxon oralig‘i, butun O‘zbo‘y bo‘ylab.

4. Toshkent vohasi va Janubiy Qozog‘iston - Toshkent vohasi, Janubiy Qozog‘iston, Sirdaryo bo‘ylari va So‘g‘d yerlarigacha bo’lgan joylar.

5. Sharqiy hudud - Farg‘ona, Pomirning tog‘li tumanlari, Farg‘ona va Tyan-Shanning janubi.

6. O‘rta Osiyo daryolari qirg‘oq bo‘yi, cho‘l, tog‘ va tog‘ yonbag‘ri ko‘chmanchilari - Orol dengizi bo‘ylari va g‘arbiy, shimoliy qismi, Sirdaryo va Amudaryoning quyi oqimlari hamda qirg‘oqlari, deltasi va kanallari, Qoraqum va Qizilqum sahrolari, Tanaisning shimol tarafidagi yerlar, Qozoq cho‘llari, Tojikiston va Qirg‘iziston tog‘, tog‘ yonbag‘irlari, daryo vodiylari, adirlari.

Yuqoridagilar eng ko‘p ko‘rsatilgan hududlar sifatida namoyon bo‘ladi va arxeologiya ham buni tasdiqlaydi. Keltirilgan hududlarning ayrimlari o‘troq mintaqalar bo‘lsada, manbalarga ko‘ra O‘rta Osiyoning qadimgi davr ko‘chmanchi qabilalari shu hududlar tarkibiga kiruvchi yerlarda istiqomat qilishlari aytib o‘tilgan. Ko‘chmanchi qabilalar umumiy aholining xo‘jalik turidan farq qiladigan bir qismini tashkil qilgan va chorvachilikka mos yerlarning barchasida yashash imkoni mavjud.

O‘rta Osiyo ko‘chmanchi qabilalarining nomlarini o‘rganishda o‘xshash nomlar tahlili e‘tibor talab qiladigan mavzu. Qadimgi yozma manbalarda ko‘p marta tilga olingan, afsonalar to‘qilgan yirik qabilalar ittifoqini tashkil qilgan sak, massaget va boshqa qabilalarning qirilib

ketishi yoki mintaqadan butkul nom nishonsiz ko‘chib ketishini bir tasavvur qilib ko‘rish kerak. Temir davri oxirlari va eramizning boshlariga kelib bu nomlarning yozma manbalarda uchramay qo‘yishi kuzatiladi. Bunda biz misol tariqasida sak so‘zining o‘zgargan qismi sifatida **sa**-sagater, sakaravl, **si**-urapsian, oksien, oksiadrank, apasiak, atasiy, yana boshqa **as** yoki **asp** shaklida ariasp, zariasp, arasmi, astak, adrasp, pasian, as, arimasp, **is**-aristey, orisp, va boshqa shunga o‘xshash nomlarni uchratamiz. Asos qismlarni qabilalar nomida shu shaklda uchrashi dastlabki uyushma nomini qisman saqlab qolgan holda yangilangan ittifoq yoki nom ostida yashashi deb tushunishimiz mumkin. Qayta birlashish hamda unda yetakchilikni qo‘lga olish jarayonida shu vaqtgacha ochiq yoki yopiq tarzdagi mavjud muxolif guruhlarni sahnaga chiqishiga imkon bergan. Axoli sonining ortishi va migratsiyalar natijasida oldingi asos nom o‘zagida ayrim o‘zgargan odatlar bilan yangi qabilalar vujudga kelgan.

XULOSA. ВЫВОДЫ. CONCLUSIONS. O‘rta Osiyoning qadimgi yozma manbalarda nomlari keltirilgan aholi vakillaridan qabila sifatida keltirilganlari ko‘chmanchi sifatida qaraladi. Gerodotdan boshlab, Strabon, Kursiy Ruf, Arrian kabi mualliflarning asarlarida O‘rta Osiyo ko‘chmanchi qabilalarining nomi va asosan yashash joylari bir biridan yoki o‘zlaridan boshqa mualliflarning keltirib o‘tgan ma‘lumotlaridan yetarlicha farqlarni ko‘rishimiz mumkin. Buni sabablarini quyidagicha izohlash mumkin: Yunon-rim muarrixlari bergan ma‘lumotlar turli davrlarda oid va qabilalar o‘troq emas ko‘chmanchi ekanligida.

Mintaqada yashagan ko‘chmanchi chorvador qabilalar istiqomat qilgan hududlar chegarasini aniq tasniflash masalasida tarixchilarning bir qator munozaralari mavjud. Etnografik ma‘lumotlarga ko‘ra, hozirgi o‘zbek, qozoq va mintaqaning boshqa xalqlari orasida kelib chiqishi bir xil bo‘lgan qabila yoki urug‘ nomlari mavjud. Mavjud tadqiqotlarga qaramay bu masalada mintaqa tarixchilari tomonidan ayrim urug‘ nomlarini siyosiylashtirish, tarixni milliylashtirish, buyuk millatchilik va ayirmachilik kayfiyatidagi asossiz chiqishlar to‘xtamayapti. Masalan, mintaqaning hozirdagi siyosiy-ma‘muriy chegaralarini asos qilib hali uni genetik jihatlari to‘liq va asosli tarzda tahlil qilinmasdan, o‘sha millatning etnogenez jarayonida qay darajada rol o‘ynaganligini aniqlamasdan o‘zlashtirish holatlari mavjud. Buni isbotlash uchun turli kinofilmlar, katta-katta ilmiy asarlar tayyorlash davom etib kelmoqda. Olib borilayotgan tadqiqot va ilmiy ishlarda aslida bugungi kundagi chegaralardan xoli, yaxlit mintaqa sifatida qarashni ko‘chmanchi chorvador qabilalar tarixini o‘rganishda eng maqbul tanlov. Qabilalarni turli sabablarga ko‘ra yashash joyini o‘zgarishi bugungi kunda uni bir millatdan ikkinchi millatning shakllanish asosiga o‘tkazib qo‘yish yoki bu tushunchani dastak qilib olishga imkon bermaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Robert N Spengler III, Michael D. Frachetti and Gayle J. Fritz. Ecotopes and herd foraging, practices in the steppe mountain ecotone of Central Asia during the bronze and iron ages. Journal of ethnobiology // 2013. Vol 33, N:1.

2. John R. Gardiner-Garden. Ancient literary conceptions of eastern scythian ethnography from the 7th to the 2nd century b.c. 1986. March. -pp. -280.

3. Helmut Humbach, Klaus Faiss. Herodotus's Scythians and Ptolemy's Central Asia. Semasiological and Onomasiological Studies. Wiesbaden. 2012. – p, 34-43.

4. Арриан. Поход Александра / перевод с древнегреческого М.Е.Сергеенко. Ответственный редактор д.и.н. О.О. Крюгер.-М.:-Л.:, 1962.

5. Плиний Старший. Естественная история. Книга шестая. В.В. Латышев. Известия древних писателей о Скифии и Кавказе. Вестник древней истории, 1949, № 2. Извлечения и переводы из книги VI, сделаны И.П. Цветковым.

6. Страбон. География. В 17 книгах / Пер. Г.А.Стратановского. - М. - Л.: Наука, 1964.

7. Геродот. История в девяти книгах / Пер. Г.А.Стратановского. Л., Н., 1972.

8. Авесто. Асқар Махкам таржимаси. Тўртинчи дафтар. Яштлар. (5-яшт) Ардвисура Анаҳита қасидаси. Тошкент. “Шарқ”, 2001. -бет 177-178.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

UDK 908

https://orcid.org/0000-0002-0302-8864

TILLABULOQ VA ORABULOQ YODGORLIKLARI: SOPOLLI MADANIYATIGA OID QADIMGI SUG‘ORISH TIZIMLARI VA DEHQONCHILIK FAOLIYATINING ARXEOLOGIK-EKOLOGIK TAHLILI

Shapulatov Ulug‘bek Xoltojiyevich
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi
shapulatov87@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining Sherobod vohasida joylashgan Tillabuloq va Arabuloq yodgorliklarida olib borilgan geoarxeologik tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar natijasida yodgorliklarning bronza davri jamoalari tomonidan sun’iy sug‘orish tizimi orqali dehqonchilik faoliyati olib borilgani aniqlandi. Sug‘orish tizimining strukturasini, suv oqimlari modelini va tarixiy irrigatsiya texnologiyasining rivojlanishini yoritish maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: arxeologiya, sug‘orish tizimi, geoarxeologiya, Sopolli madaniyati, stratigrafiya, xovuz irrigatsiya tizimi.

ПАМЯТНИКИ ТИЛЛАБУЛОК И ОРАБУЛОК: АРХЕОЛОГО-ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДРЕВНИХ ИРРИГАЦИОННЫХ СИСТЕМ И ЗЕМЛЕДЕЛЬЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С ЭПОХИ КУЛЬТУРЫ СОПОЛЛИ

Аннотация: В данной статье представлены результаты геоархеологических исследований, проведённых на памятниках Тиллабулок и Арабулок, расположенных в Шерободском оазисе Сурхандарьинской области. В ходе исследований было установлено, что сельскохозяйственная деятельность осуществлялась сообществами бронзового века посредством искусственной ирригационной системы. Целью исследования является освещение структуры ирригационной системы, моделей водотоков и развития исторических ирригационных технологий.

Ключевые слова: археология, ирригационная система, геоархеология, культура Сапаллы, стратиграфия, система бассейнового орошения.

THE TILLABULOK AND ORABULOK MONUMENTS: AN ARCHAEOLOGICAL AND ECOLOGICAL ANALYSIS OF ANCIENT IRRIGATION SYSTEMS AND AGRICULTURAL PRACTICES OF THE SAPALLI CULTURE

Abstract: This article presents the results of geoarchaeological research conducted at the Tillabulok and Arabulok sites located in the Sherobod oasis of the Surkhandarya region. The findings revealed that agricultural activities were carried out by Bronze Age communities through an artificial irrigation system. The study aims to highlight the structure of the irrigation system, water flow models, and the development of historical irrigation technologies.

Keywords: archaeology, irrigation system, geoarchaeology, Sapalli culture, stratigraphy, basin irrigation system.

KIRISH

1960 yillardan boshlab Surxondaryo viloyati Sherabod vohasi Poshhurt qishlog‘i atrofida arxeologlar tomonidan bir necha antik davr yodgorliklari o‘rganilib kelinmoqda[1]. Ana shunday yodgorliklardan biri Dobilsoy bo‘yida joylashgan Dobilqo‘rg‘on yodgorligidir. 2006 yilning yozida Toshkent San’atshunoslik institutining Tohariston ekspeditsiyasi tadqiqotchisi S. Bolelov hudud bilan yaqindan tanishish ishlarini olib boradi. Natijada Dobilqo‘rg‘on yodgorligidan uncha uzoq bo‘lgamagan yangi yodgorlikni uchratib stratigrafik tadqiqotlar o‘tkazgan. Topilmalar yodgorlikning bronza davriga tegishli ekanligini tasdiqladi[2]. Yodgorlik tarix fanida O‘rta Osiyo bronza davrining moddiy, ijtimoiy iqtisodiy muammolarini yechishda juda katta yordam berishini bilgan Sergey Bolelov bronza davri mutaxasisslariga murojaat qildi. Natijada shu yilning kuzida O‘zFAning San’atshunoslik institutining Toxariston ekspeditsiyasi va Termiz Davlat universiteti Tarix fakulteti bilan Germaniyaning Myunxen Lyudvig – Maksimilian universitetining Old Osiyo Arxeologiyasi instituti o‘rtasida shartnoma tuzildi. Shartnomaga asosan yodgorlikda 2007 yilning bahoridan juda katta qiziqish bilan kompleks qazishma ishlari boshlandi. Yodgorlikda o‘tkazilgan qazishma ishlarning ikkinchi fasli 2008 yil 18 martda boshlanib 30 aprelda o‘z nihoyasiga yetdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yodgorlik mahalliy joy nomiga asoslanib Tillabuloq yodgorligi deb ataladi. Yodgorlik Sherabod tumani markazidan 30-35 km shimoliy-sharqiy uzoqlikdagi Poshxurt qishlog‘i yaqinida, g‘arbiy qismi 3000 metr balandlikgacha yetadigan Ko‘hitang va janubiy-sharqiy qismi esa past tekisliklardan iborat tog‘li hududning shimoliy sharqiy E 66°48’/N 37°42’ gradus burchagi ostida, dengiz sathidan 587 m balandlikda joylashgan. Yodgorlik moddiyatlari Sopolli madaniyatiga xos bo‘lib, Turkmaniston va Afg‘onistonning turdosh yodgorliklardan Nomozgoh VI davriga, ya’ni miloddan avvalgi II ming yillikning birinchi yarmi bilan davrlashtirilmoqda[3].

Yodgorlik hududi 180x60-90metr bo‘lib 1,5 gektarni tashkil etadi. Yodgorlik tabiiy tepalik ustiga qurilgan bo‘lib, uning g‘arbiy qismi 12 metr, janubiy sharqiy qismi 23 metr balandlikni tashkil etib, shimoliy qismi esa uncha baland bo‘lmagan past tekisliklarga ulanib ketgan.

2008 yilda yodgorlik atrofida O‘zbekiton-Germaniya xalqaro ekpeditiyasi topmonidan geoarxeologik tadqiqotlar olib boriladi[4]. Bu hududning suv manbalari ham tahlil qilinadi. Mavjud suv oqimlari modeli yaratilganda oqim sharqiy, janubi- sharqiy yo‘nalishga,

Amudaryoga qarab yo‘nalganligi hamda Ko‘hitangtog‘ tomondan kelayotgan suv oqimlarida uzilish kuzatiladi va yangi suv yo‘nalishlari hosil bo‘ladi. Aynan bu yangi suv yo‘nalishlari yodgorlikka yaqinida joylashgan buloqlarning ko‘pligi bilan xarakterlanadi.



Suv oqimi modeli. Yer yuzasidagi suvning potensial oqim yo‘llarini visual tasvirlaydi. Ushbu oqim yo‘nalishlari hozzirda asosan quruq bo‘lsada, ular faqat hozir foydalanailayotgan suv yo‘llarini va kuchli yog‘ungarchilikdan keyin suvning oqim yo‘nalishlarini, balki o‘tmishda ishlatilgan suv yo‘llarini ham aks ettiradi[5].

Tillabuloq va Orabuloq yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida dehqonchilik, hunarmandchilik va qo‘shni xalqlar bilan keng madaniy aloqalar olib borganligi aniqlangan[6]. Ammo bu tadqiqotlarda yodgorlikning dehqonchilik maydonlari hamda sug‘orish texnologiyalari hususida izlanishlar olib borilmagan.

Tadqiqotdan maqab qadimgi insonlar yashashlari va dehqonchilik qilishlari uchun qulay geografik hududlarini belgilash hamda ular bo‘lgan. Bu hududlar buloqlarga yaqin joylar mos kelishi ta‘kidlangan.

Tllabuloq va Orabuloq yodgorliklari yonidagi buloqlar ham bu yerda yashagan jamoalar ichimlik suvi va dehqonchilik maydonlarini sug‘orishda foydalanilgan. Yodgorliklar yaqinida 10 ta buloq joylashgan. Bu buloqlarni shartli ravishda xovuzli va xovuzsiz buloqlarga ajratishimiz mumkin. Zindonbuloq 1,2, Orabuloq, Tillabuloq, Igilikbulog‘i, Jumabuloqlar xovuzli, Xojibuloq va Nomsizbuloq 1,2 lar xovuzsiz buloqlar xisoblanadi.

1-jadval.

	Buloq nomi	**Koordinatasi**	**Xovuzli-xovuzsiz**	**Xovuz o‘lchami (xozzirda)**	**Qancha maydonni sug‘oradi (ga)**
1.	Zindonbuloq 1	37°42'10.00 66°47'29.98	Xovuzli	19 m^2	0.14ga
2.	Zindonbuloq 2	37°42'3.42 66°47'20.27	Xovuzli	Xovuz 1: 307m^2 Xovuz 2: 568 m^2	1 ga
3.	Orabuloq	37°42'22.60 66°47'41.67	Xovuzli	427 m^2	0.69 ga
4.	Tillabuloq	37°42'47.20 66°48'8.22	Xovuzli	495 m^2	1.93 ga
5.	Igilikbulog‘i	37°42'51.68	Xovuzli	278 m^2	0.40 ga

		66°48'16.29			
6.	Jumabuloqlar	37°42'58.91 66°48'25.47	Xovuzli	58 m^2	0.33 ga
7.	Xojibuloq	37°43'13.94 66°48'42.58	Xovuzsiz	-	0.22 ga
8.	Nomsizbuloq 1	37°43'15.44 66°48'57.92	Xovuzsiz	-	-
9.	Nomsizbuloq 2	37°43'24.78 66°48'57.49	Xovuzsiz	-	-

Sopolli madaniyatiga tegishli bu yodgorliklarda yashagan qadimgi jamoalar sun’iy sug‘orish tizimida ilk bor xozuv irrigatsiya texnologiyasini yaratganlar. Bugungi kundagi to‘g‘on va suv omborlarining dastlabki rivojlanish shakli hisoblanadi. Irrigatsiyaning bu qadimgi tizimi dehqon jamoalari uchun suvni yig‘ish va kerakli vaqtda taqsimlash maqsadida buloqlar ko‘zlaridan chiqayotgan suvlar boshqarish va ish unumdorligini oshirishda juda qo‘l kelgan.



1-rasm: Yodgorlik joylashuvi va qazihmalar olib borilgan hudud.

a: Joylashuv, topografiyasi va yodgorlik joylashuvi.

b: Tadqiqot hududining sun’iy yo‘ldosh tasviri, yodgorlik joylashuvi va qazishma olib borilgan nuqta.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yodgorliklardan ko‘plab dehqonchilikka oid topilamar, ekin qoldiqlarining topilganligi hamda atrofida yetarli suv manbalarining mavjudligi, Tillabuloq va Orabuloq yodgorliklari qadimgi dehqonchilik faoliyati uchun qulay hudud bo‘lgan. Surxon-Sherabod vohasining qirg‘oqchil hududlarida datlabki sug‘orish tizimlari va suv boshqaruvi bo‘yicha tadqiqotlar hanuz yetarli emaligi sababli, 2024-yilda O‘zbekiton-Xitoy qo‘shma ekspeditsiyasiyasi bilan birgakilda bu yodgorliklarda atrof-muhit tadqiqotlarini olib bordik. Bu tadqiqotlar dehqonchilik uchun foydalanilgan dalalar, ekin maydonlari va suv bohqaruvi, xususan, sug‘orish tizimlarini qayta tiklashga yordam beradi. Biz olib organ tadqiqotlar doiraida stratigrafik, xronologik va ekologik tahlil natijalarini umumlashtirishga harakat qildik.

Tillabuloq sharqiy qimidagi dehqonchilik maydaoni uchta qismida stratigrafik qazishma ishlari olib borildi. Bu joylar Tillabuloq-1, Tillabuloq-2, Tillabuloq-3 deb nomlanib, ushbu joylarning barchasi vodiydagi qishloq xo‘jalik yerlarida joylashgan.

Tillabuloq-1 qazishma maydoni yodgorlikdan taxminan 150 metr shimoli-sharqd, 37°42'41.89"N, 66°48'7.70"E geografik nuqtada joylashgan yuzasi 495 m^2 deametr, chuqurligi 1.5 mert bo‘lgan buloq hovuzida burg‘ulash ishlari amalga oshirildi. Ushbu xovuz dehqonchilik vodiysidan 4 metr balandlikda joylashgan bo‘lib, uning quruq yuzasi kulrang-qora organik cho‘kindilar va qamish qoldiqlari bilan qoplangan. Ushbu xovuz yodgorlikning sug‘orish faoliyati bilan bog‘liq yoki bog‘liq emaligini aniqlash maqsadidda, markaziy qismida 5,2 metr umumiy chuqurlikda burg‘ulash ishlari olib borildi.

Burg‘ulash jarayonida bu qatlamlardan OSL va C14 uchun tahlil namunalari olindi. Olingan tahlil namunalarining dastlabki laboratoriya natijalariga ko‘ra bu xovuz Tullabuloq yodgorligi bilan bir davrda qurilgangigini ko‘rsatdi.

Tillabuloq-2 qazishma maydoni vodiyning shrqiy qismidagi dehqonchilik hududida, yodgorlikdan 200 metr sharqda, 37°42'40.46"N, 66°48'10.53"E geografik koordinata nuqtasida joylashgan. Ushbu joyda 4x4 metr, chuqurligi 4,6 mert bo‘lgan xandaq qazildi.

Qazishma maydoni stratigrafik jihatdan tadqiqi qilinganda inson faoliyati izlari 55 sm chuqurlikdan boshlanib, 380 sm chuqurlikda yo‘qoladi. Ushbu qatlamlar bir nechta madaniy qatlamlarni o‘z ichiga oladi, o‘rta asrlardan tortib bronza davrining turli bosqichlarigacha bo‘lgan davrlarni qamrab oladi. Ayniqa, 330-380 sm oralig‘idagi qatlamlarda organik materiallarning ko‘p miqdorda uchrashi va Sopolli madaniyatiga oid ko‘plab sopol parchalari topilishi bu hududning Tillabuloq yodgorligi bilan inson faoliyati jihatidan bog‘liqlikni ko‘rsatdi.

Tillabuloq-3 burg‘ulash maydoni sharqiy vodiydagi zamonaviy ekin maydonida, yodgorlikdan 370 metr uzoqlikda, 37°42'37.26"N, 66°48'17.15"E geoografik koordinatalar

nuqtasida joylashgan. Tillabuloq yodgorligi aholisi qadimgi dehqonchilik maydonini chegarasini aniqlash maqsadida bu nuqtada 3,4 metr chuqurlikgacha burg‘ulash ishlarini amalga oshirdik.

Tillabuloq-3 burg‘ulash natijasida aniqlangan stratigrafiyasi Tillabuloq-2ning 280 sm.dan past bo‘lgan qatlamlariga juda mos keladi, biroq bu yerdan inson faoliyatining sezilarli izlari topilmadi. Huningdek qatlamlardagi organik moddalar miqdori sezilarli darajada kamaygan. Ushbu qatlamlarda AM14C-radikarbon anasini aniqlash uchun mos bo‘lgan materiallar, madaniy qatlamlar topilmaganligi sababli, qatlamlarning aniq xronologik davrini aniqlahning imkoni topilmadi. Biroq, stratirgrafiyaga asoslanib shuni aytish mumkinki, Tillabuloq-3 burg‘ulangan hudud Tillabuloq-2 qazishma maydonining quyi madaniy qatlablariga o‘xshash bo‘lsa ham, bu yerda sezilarli darajada organik moddalar to‘planmagan. Shuning uchun, bu dehqonchilik maydoniga Tillabuloq yodgorligi qadimgi aholisi tomonidan o‘zlashtirilmagan degan xulosaga kelish mumkin.

Bu tadqiqot natijasida Tillabuloq yodgorligi atrofidagi hududlar sug‘orish va dehqonchilik faoliyati uchun muhim bo‘lgan ma‘lumotlarni tasdiqladi. Tillabuloq qadimdi dehqon jamoalari xovuz irrigatsiya tizimidan foydalanganligi o‘z tasdig‘ini topdi hamda, bu jamoaning sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik xo‘jaligi yer maydoni aniqlandi.

Keyingi tadqiqotlarimizni Tillabuloqning g‘arbiy qismida joylashgan yana bir Sopolli madaniyatiga tegishli Orabuloq yodgorligi xovuzli buloq atrofi hamda dehqonchilik maydonida olib bordik. Bu tadqiqotimiz burg‘ulash ishlaridan iborat bo‘lib, yodgorlikga yaqin joyda joylashganligi uchun Orabuloq-1 va Orabuloq-2 deb nomladik.

Orabuloq-1 qazishma va burg‘ulash maydoni Tillabuloqdan 710 metr janubi-g‘arbda va Orabuloq yodgorligidan 150 metr uzoqlikda, 37°42'21.93"N, 66°47'44.52"E geografik koordinatalar nuqtasida, buloq uchun qazilgan xuvuzning g‘arbiy tomonida, buloq suvlari xovizga yig‘ilishi uchun qazilgan ariq bo‘yida joylashgan.

Xovuzning janubiy qismida ko‘k-kulrang va sariq-yashil rangdagi ko‘l cho‘kindilariga o‘xshash torf cho‘kindi qatlamlari aniqlandi. Bronza davrida ushbu o‘ziga xos cho‘kindilar qadimgi inson jamoasi faoliyati bilan bog‘liq yoki yo‘qligini aniqlash maqsadida dastlab 2x1 metr, chuqurligi 180 sm o‘lchamda xandaq qazildi. Shuningdek, 4,7 metr chuqurlikda burg‘ulash ishlari olib borildi, jami chuqurlik 6,6 metrni tashkil etdi.

Orabuloq-1 qazishma maydonida kuzatilgan ko‘l cho‘kindilarining tarqalish doirasini hamda yodgorlikda yashagan jamoalar ekin maydonlari sifatida foydalanilgan dehqonchilik hududini topish maqsadida ikkinchi nuqtada burg‘ulash ishlarini olib bordik. Orabuloq-2 burg‘ulash ishlari olib borilgan hudud Tillabuloq yodgorligidan 1400 metr janubi-g‘arbda, Orabuloq yodgorligidan taxminan 80 metr uzoqlikda, 37°41'55.68"N, 66°47'49.89"E geografik koordinatalar nuqtasida, vodiydagi zamonaviy sug‘orish ariqlari yaqinida joylashgan. Umumiy burg‘ulash chuqurligi 4,35 metrni tashkil etadi.

Tadqiqot olib borilgan ikki nuqtaning stratigrafiyasi bir-biri bilan solishtirilganda, yetarlicha xronologik dalillar yetishmasligi sababli, bu joydagi cho‘kindilarning Orabuloq-1

hududidagilar bilan bilan bog‘liqligni aniq belgilarni topish imkoni bo‘lmadi. Biroq, bu yerda torf ko‘l cho‘kindilari aniqlanmadi va quyi qatlamlaridagi jigarrang gil Orabuloq-1 qazishma maydoni quyi qatlamidagi gilga o‘xshashligi aniqlandi. Orabuloq-2 hududida olib borilgan tadqiqot natijaida bu yerda qadimiy ko‘l bo‘lganligi va bronza davri jamoalari tomonidan bu hududdan dehqonchilik maydoni sifatida foydalanmaganligi isbotlandi.

Tadqiqot olib borilgan hududlardan olingan namunalari Xitoy Xalq Respublikasi Xitoy Fanlar Akademiyasining Umurtqalilar paleontologiyasi va paleoantropologiya institutida hamda AQHning Beta laboratoriyasida xronologiyani aniqlash maqadida radiokarbon (AMS14C) tahlil sinovlari o‘tkazildi. Quyidagi jadvalda olingan namunalarning radiokarbon (AMS14C) tahlil natijalari keltirilgan:

2-jadval. AMS14C natijalari

Laboratoriya raqami	**Namuna nomi**	**Material**	**Yoshi (BP)**	**±**	**Kalendar kalibrovkasi (cal. BP)**
703549	Tillabulak-2 60	Karbon (yongan) material	980	30	954 - 792
700523	Tillabulak-2 275	Organik sediment	3380	30	3696 - 3493
703552	Tillabulak-2 330	Karbon (yongan) material	3420	30	3822 - 3572
716579	Tillabulak-2 370-380	Karbon (yongan) material	Muvaffaqiyatsiz	-	-
698222	Tillabulak-2 405	Organik sediment	4430	30	5277 - 4873
698224	Arabulak-1 175	Karbon (yongan) material	Muvaffaqiyatsiz	-	-
700522	Arabulak-1 510	Organik sediment	22470	30	27079 - 26432

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqot natijalari Tillabuloq va Orabuloq yodgorliklari hamda ularning atrofida joylashgan buloqlar qadimgi dehqonchilik jamoalari hayotida muhim rol o‘ynaganini tasdiqlaydi. Bu hududdagi buloqlar ichimlik suvi bilan ta’minlash barobarida, dehqonchilik maydonlarini sug‘orishda ham asosiy suv manbai bo‘lgan. Buloqlarni shartli ravishda xovuzli va xovuzsiz turlarga ajratish, qadimgi irrigatsiya tizimlarining shakllanish bosqichlarini aniqlashda muhim bo‘lib, xususan, Sopolli madaniyatiga oid jamoalar tomonidan ilk bor hovuzli irrigatsiya texnologiyasi joriy etilgani aniqlanmoqda. Bu tizim bugungi zamonaviy to‘g‘on va suv omborlarining dastlabki ko‘rinishi sifatida baholanmoqda.

XULOSA

2024-yilda O‘zbekiston–Xitoy qo‘shma ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan dala tadqiqotlari natijasida Tillabuloq yodgorligi atrofidagi uchta maydonda (Tillabuloq-1, 2 va 3)

va Orabuloq yodgorligi yaqinidagi ikkita nuqtada (Orabuloq-1 va 2) stratigrafik qazishma va burg‘ulash ishlari amalga oshirildi. Ayniqsa, Tillabuloq-2 maydonida olib borilgan qazilmalar natijasida bronza davriga oid sopol buyumlar, organik materiallar va qatlamlar aniqlanib, bu hududda qadimgi dehqonchilik faoliyatining izlari mavjudligi isbotlandi. Qazishmalar natijasida olingan namunalarning radiokarbon (AMS 14C) tahlillari Sopolli madaniyati qatlamlarini miloddan avvalgi III mingyillikka, ya’ni taxminan 3822–3572-yillarga tegishli ekanini ko‘rsatdi.

Umuman olganda, olib borilgan arxeologik va ekologik tadqiqotlar Tillabuloq va Orabuloq yodgorliklari atrofida qadimgi jamoalar tomonidan sun’iy sug‘orish tizimlari joriy etilganini va ushbu tizimlar dehqonchilik faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaganini tasdiqlaydi. Bu natijalar bronza davridagi irrigatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish, suv boshqaruvi va yer resurslaridan foydalanishning dastlabki shakllarini ilmiy asosda yoritish uchun muhim zamin yaratadi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyoning qurg‘oqchil hududlarida qadimgi dehqonchilik tizimlarini o‘rganishda Tillabuloq–Orabuloq majmuasi muhim model ob’ekt sifatida ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Маршрутные исследования памятников Северной Бактрии // Из истории античной культуры Узбекистана. Ташкент, 1973, с. 10–34.

2. Болелов С.Б., Ильясов Дж.Я. Археологические исследования в Пашхуртской котловине // Археологические исследования в Узбекистане – 2004–2005 годы. Выпуск 5. Ташкент, 2006, с. 89–94; Мкртычев Т.К., Болелов С.Б., Ильясов Д.Я. Исследования на юге Узбекистана // Археологические открытия 2004 года. Москва, 2005, с. 524–528.; Мокробородов В.В., Керамика эпохи бронзы из кишлака Пашхурт// Археологические исследования в Узбекистане – 2004–2005 годы. Выпуск 5. Ташкент, 2006, с. 160-164.

3. Kai Kaniuth Tilla Bulak 2008 – Vorbericht zur zweiten Kampagne 2008/

4. Kaniuth K., Gruber M., Kurbangaliev A., Sachs F., Sajdullaev A., Makki M.,Biro P. “Tilla Bulak – 2009 Vorbericht zur dritten Kampagne” // AMIT. Band 42. - Berlin. 2010. – P. 149-155.

5. Kaniuth K., Gruber M., Kurbangaliev A., Sachs F., Sajdullaev A., Makki M.,Biro P. “Tilla Bulak – 2009 Vorbericht zur dritten Kampagne” // AMIT. Band 42. - Berlin. 2010. – P. 150.

6. Kaniuth K. Life in the countryside. The rural archaeology of the Sapalli culture // Lyonnet, B., Dubova, N. A. (Eds.). The World of the Oxus Civilization (1st ed.). Routledge, 2020. - P. 457 - 487; Kaniuth K. Long distance imports in the Bronze Age of Southern Central Asia. Recent finds and their implications for chronology and trade // AMIT. Bd. 42. 2010. P. 3-22; Kaniuth K. Tilla Bulak – 2007 Vorbericht zur dritten Kampagne” // AMIT. Band 39. Berlin, 2007.P. 31-47;Kaniuth K. “Tilla Bulak - 2008 Vorbericht zur dritten Kampagne” // AMIT. Band 41. - Berlin. 2009. – P. 75-96; Kaniuth K. The Late Bronze Age settlement of Tilla

Bulak(Uzbekistan) – summary of four years`work.South Asian Archaeology and Art 2012. Volume 1.Man and environment in Prehistoric and Protohistoric South Asia: New perspectives.– P. 117-128; Kaniuth K., Gruber M., Kurbangaliev A., Sachs F., Sajdullaev A., Makki M.,Biro P. “Tilla Bulak – 2009 Vorbericht zur dritten Kampagne” // AMIT. Band 42. - Berlin. 2010. – P. 129-164; Kaniuth K., Gruber M., Kurbangaliev A., Sollee A. “Tilla Bulak – 2010 Vorbericht uber die vierte Grabungskampagne” // AMIT. Band 43. - Berlin. 2011. – P. 261-282.

7. Chen, F.-H., Cheng, B., Zhao, Y., Zhu, Y., Madsen, D.B. Holocene environmental change inferred from a high-resolution pollen record, Lake Zhuyeze, arid China // *The Holocene*. – 2006. – T. 16. – №6. – S. 675–684.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

FARG‘ONA VODIYSIDA CHORIZM MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI KO‘TARILGAN XALQ QO‘ZG‘OLONI (ANDIJONDAGI DUKCHI ESHON QO‘ZG‘OLON MISOLIDA)

Ahmadjonov Aliakbar Alisher o‘g‘li
Andijon davlat universiteti 3-bosqich talabasi
aliakbarahmadjonov2004@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg‘ona vodiysida chorizm mustamlakachilik zulmining kuchayishi, Muhammad Ali Dukchi Eshon boshchiligidagi qo‘zg‘olonning boshlanishi, qo‘zg‘olonning bostirilishi va qo‘zg‘olonchilarning jazolanishi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: “Dukchi eshon qo‘zg‘oloni”, Chibil bo‘lisi, Tojik qishloq, Mingtepa, Afg‘on bog‘, Ketmontepa, Ko‘gart.

Tarixga “Dukchi eshon qo‘zg‘oloni” nomi bilan kirgan Andijon qo‘zg‘oloni XIX-asr oxiridagi xalq harakatlarining eng kattalaridan biridir. U Muhammad Ali eshon (1846-1898) nomi bilan mashhur[1].

Muhammadali Marg‘ilon shahriga qarashli Shahidon qishlog‘ida o‘rtahol dehqon va hunarmand Muhammad Sobir oilasida dunyoga kelgan. Otasi uni bolaligida Buxoroga olib borib Usmoncha Oxund domla maktabiga beradi. Muhammad Ali 16 yoshga to‘lganida Samarqand yaqinidagi Karrux qishlog‘ida mulla Usmon oxund sudur eshon xizmatiga beriladi. To‘rt yildan so‘ng butun vodiyga tanilgan ulamo Sultonxon to‘ra eshon xizmatiga kiradi. U o‘zining mehnatsevarligi, aqli, odobi va taqvodorligi bilan eshonning o‘g‘illari qatoridan joy oladi. 1882-yilda Sultonxon to‘ra vafot etadi. Vafoti oldidan u o‘z shogirdi Muhammadaliga “eshonlik” to‘g‘risida xati irshodni (yo‘llanma xat) yozib, muhrlab bergan edi.

Muhammadali 1887-1893-yillarda Makkai Mukarramaga borib haj qiladi, Rossiya va Hindiston shaharlarida bo‘lib qaytadi. Muhlislari Mingtepa qishlog‘idan unga mos xovli-joy olib berishadi. Eshonning yaxshi fe’l-atvori, kamtarona turmush tarzi, boy hayotiy tajribasi va keng dunyoqarashi uning muhlislari sonini tobora oshirib bordi. Mingtepa tezda ko‘plarning qutlug‘ ziyoratgohiga aylanadi. O‘sha yillari Mingtepa 450 xonadonlik qishloq bo‘lib, unda 1200 nafarga yaqin o‘zbek, tojik va qirg‘izlar istiqomat qilgan. Ular dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanganlar. Eshon ham ko‘plar qatori otasidan qolgan hunar – yigchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Zamongdoshlari tasvirlashlariga ko‘ra, Muhammadali eshon o‘rta bo‘yli, cho‘qqi soqolli, kamsuxan, kulib turuvchi, ovozi mayin kishi bo‘lgan. O‘zini eshon

deb e’lon qilgan Muhammadali har kuni katta qozonda ovqat pishirib och-yalang‘och, yetim-esirlarni boqa boshlaydi. U dastlab bu ishni qarz olib amalga oshiradi. So‘ng eshonning obro‘-e’tibori shu darajada ko‘tarilib ketadiki, u qarzlarini ham uzib, har kuni doshqozonda ovqat tayyorlatib 150-200, ba’zan esa 400-500 kishini ovqatlantira boshlaydi. Muhammadali eshon bo‘lish bilan birga tabiblikdan ham xabari bor edi. Eshonning xalq orasida obro‘-e’tibori juda tez o‘sib bordi. Uning muridlari faqat Farg‘ona vodiysidagina emas, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa olis-olis joylarda ham bo‘lgan. 1890-yillarga kelib eshonning ziyoratchilari ko‘payib, muridlari unga 500 ot sig‘adigan otxona qurib berishadi, xomg‘ishtli 12 gazli minorasini 34 gazga ko‘tarib, pishiq g‘ishtdan ishlab berishadi[2].

Chor Rossiyasining xalqqa qarshi mustamlakachilik, zo‘rlik va adolatsiz siyosati Muhammadali xalfaning xalq kurashiga rahbarlik qilishining bosh sababidir. Qo‘zg‘olon boshlanishidan bir yil oldin eshon turk sultoniga maktub yozadi. Maktubda eshon ruslar Qo‘qon xonligini bosib olganlaridan keyin musulmonlar o‘rtasida ahloqan buzilish kuchayganligini, shariat qoidalaridan chekinish ro‘y berib, buzuqlik, ichkilikbozlik, nashaho‘rlik avjiga chiqa boshlaganligini yozgan. Bundan tashqari eshon ruslar kambag‘allar uchun zakot yig‘ishni, xajga borishga ta’qiqlaganliklarini, eski vaqflarni man qilib, yangilarni joriy etmayotganliklarini ta’kidlar ekan, turk sultonidan xalqning shariat qonun-qoidalari bo‘yicha turmush kechirishi uchun sharoit yaratishni oq podshodan talab qilishni so‘raydi. “Rus hukumatining shariatni nazar-pisand qilmaganligini Ollohning qahrini keltirmasmikin, deb qo‘rqaman”, deydi eshon ushbu maktubi so‘nggida.

Mingtepalik eshonning tobora ortib borayotgan obro‘-e’tibori mustamlakachilarning xavotirini oshirdi. Bunga ularning asosi bor edi. 1895 yilda eshon xuzuriga qurbonjon dodho tashrif buyurgani va ub lian mustamlakachilarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarish masalasini muhokama qilgani mustamlakachilarni talvasaga soldi. Qolaversa norozilik qurbonjon dodho qo‘li ostidagi qirg‘izlarda ham kuchli ekani ma’lum edi. Ketmontepa, Ko‘gart taraflardagi qirg‘izlar 1896-yilda eshon xuzuriga rus mujiklaridan shikoyat qilib vakillar ham yuborishadi. 1896-1897 yillarda Rossiyaning ichki guberniyalaridan ko‘chirib keltirilgan va hosildor yerlarni egallab olgan rus mujiklari bilan qirg‘izlar o‘rtasida to‘qnashuvlar kuchayadi. Qirg‘izlar ko‘chib keltirilganlarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarishga qaror qilishib, Muhammadali eshondan maslahat so‘rashadi. Muhammadali zudlik bilan chorvador boy Chibil bo‘lis hamrohligida qirg‘izlar maskaniga yetib keladi va bu yerda bo‘lajak qo‘zg‘olonning rejasi muhokama qilinadi. Muhammadali qo‘zg‘olon rahnamosi bo‘lishiga kelishiladi.

Muhammadali eshon qo‘zg‘olonga puxta tayyorgarlik ko‘rish uchun murojaatnoma yozib, uni turli joylardagi o‘z vakillariga jo‘natadi. Murojaatnomada rus bosqinchilariga qarshi qo‘zg‘olonga tayyorgarlik ko‘rilayotgani, xabar yetib kelgani zamon joylardagi vakillar mahalliy kishilarni ergashtirib tegishli joyga yetib kelishlari lozimligi bayon qilingan edi. Mazkur qasamyodga mahalliy amaldorlar va obro‘-e’tiborli kishilardan o‘n ikki kishi muhrini bosgan.

1898-yil 14-may kuni kechqurun Muhammadali eshon uyida kengash bo‘lib, unda Farg‘ona viloyatining turli yerlaridan kelgan kishilar qatnashadi. Kengash eshon ma’lum qilgan rejaga binoan vodiydagi uch shahar-Andijon, Marg‘ilon va O‘shdagi harbiy lagerga bir kunda hujum qilinishi kerak edi. Bu hujum muvaffaqiyatli tugasa, Qo‘qonni ham olib, vodiyda xonlik tuzumi tiklanardi. So‘ngra mustamlakachilar Samarqand, Toshkent va Chimkentdan ham haydab chiqarilardi.

16-may kuni kechqurun yana eshon xonadonida kengash bo‘lib, unda mingga yaqin odam qatnashdi. Shu kengashda eshonning o‘n to‘rt yoshli jiyani Abdulaziz xon qilib ko‘tarilajagi, qo‘zg‘olon qachon boshlanishi aytildi[3].

17-may kuni shom namozida Tojik qishlog‘idagi masjidga juda ko‘p odam to‘plandi. Namoz paytida eshon xalqqa murojaat qildi. Bu murojaat Muso Turkistoniy asarida quyidagicha aks ettiriladi: “Ey muhtaram musulmonlar! Ey birodarlar! Hammangizga ma’lumdirki, yurtimiz musulmon yurti, el musulmon, xalq musulmon, xon musulmon, shariatning hukmi joriy, amri nofiz edi. Hukumatni Alloh taolo o‘zi biladur, kofirlarni musallat qildi, yurtimizga o‘ris keldi. Xudoyorxon o‘rniga Kaufman, Umarxon taxtiga Chernayev o‘ltirdi. Farg‘ona xonligi yerida Moskva xonligi - oq podsho hukmron bo‘ldi. O‘ris vatanimizga istilo etdi. So‘ngra tilimizga istilo qildi. Sekin-asta dinimizga istilo qilmoqqa boshladi, bilasizlarki, musulmonlarning ahloqi buzildi. O‘risning kelg‘oniga o‘ttiz yil to‘lmay, musulmonlar riboga odatlandi, halol-haromni farq qilmas bo‘ldi. Qozilarimiz bo‘yniga but taqadig‘on bo‘ldi. Xulosa (shulki), shariatimiz xor, musulmonchilik g‘arib bo‘ldi. Hurriyatimiz g‘oib bo‘ldi, istiqlolimiz mahv bo‘ldi, o‘zimiz o‘tmas, so‘zimiz kesmas bo‘ldik. Ey voh...[4].

Ey musulmonlar, bunga sabab o‘zimiz bo‘ldik. Bu asorat va mahkumiyatga kimsa rozi emas, ins ham, jins ham rozi emas. Ey birodarlar, tek turaversak, bu kofir yana battar qiladur. Voy bizning xolimizga. Tarixda o‘tgan muazzam bir saltanat qurg‘on qahramon pahlavonlar avlodimiz-bu zillatga hech qanday zireh chidamas. Qani bizdagi shijoat, qani ajdodlarimizdagi bisolat, sizlarga nima bo‘ldi?

-Ey musulmonlar, ey xudoning bandalari, ey payg‘ambar ummati! Chin mo‘min bo‘lsangizlar, sizlarga jihod lozimdur, jihod. E’tiqod, alloh yo‘lida jihod qilamiz, o‘lsak-shahid, o‘ldirsak-g‘ozi bo‘lamiz. Jihod qilmaguncha yelkamizga mingan bu ro‘dapo o‘rusdan qutilish yo‘q.

Ey mo‘minlar, ko‘zingizni oching! g‘aflatdan bedor bo‘ling! Kofirlardan huquqimizni olaylik. Ey birodarlar, hurriyatimizni olaylik, o‘z vatanimiz, o‘z yurtimizda o‘zimiz hukumat quraylik. Buning uchun bizdan g‘ayrat istaydur, himmat istaydur, jihod istaydur, fiysabilliloh jihod vaqti keldi!

Hayyu ‘alal jihod, Hayyu ‘alal falah.

Shu holda xonaqohni to‘ldirgan musulmonlar “Jihod! Jihod!... Jihod hozirmiz, molimiz, jonimiz jihodga fido bo‘lsin. Hazrat eshon, amringizga hozirmiz!” deb bir ovozdan baqirdilar[5].

Xazrat eshon nutqi ohirida: -Hammangiz hozirlaning, bu huftondan keyin hujum!-dedi.

Keyin yaqin qishloqlarga chopar yo‘lladi, hazrat eshon amrlari bilan jihod fiysabilliloh e’lon qilindi. Choparlar kimki musulmon bo‘lsa, bu oqshomdan qolmay jihodga hozir bo‘lsin, deb nido qilishdi”.

Hufton namoziga odamlar qurollanib kelishdi. Ammo ularning kamdan-kami qilich va miltiq bilan qurollangan, asosiy qismi so‘yil, cho‘qmor, ketmonsop, panshaxa ko‘tarib olishgan edi.

Namoz o‘qib bo‘lingach, hamma baravar “Jihod! Jihod! Jihod!”-deya hayqira boshladi. Qisqa vaqtda bu ovoz butun qishloqni tutib ketdi.

Bir mahal eshon hovlisining darvozasi ochilib, undan oq otni yetaklab chiqishdi. Muhammadali xalfa: “Bismillohir rahmonir rahim, baniyati jihod!” deb otga mindi. Shundan keyin qo‘zg‘olonchilar yo‘lga tushdilar.

To‘plangan odam olti yuz nafarcha edi. Lekin ularning hammasi ham otliq emasdi. Shu boisdan otliqlar piyodalarni mingashtirib olishdi. Qolganlar piyoda yoki aravada yo‘lga tushishdi. Yo‘lma-yo‘l qo‘zg‘olonchilar safi ortib bordi. Olomon ikki bayroq ostiga uyushgandi, birinchi bayroqqa Mulla Ziyovuddin Maxsum boshchilik qilayotgan edi. Ko‘k to‘n kiyib, oq salla o‘ragan otliq eshon eng oldinda borardi.

17-may kuni kechqurun Tojik qishlog‘ida Muhammadali bosh bo‘lgan qo‘zg‘olonchilar telegraf simlarini uzib tashlaydilar. Ular yo‘lda Asaka mirshabini uchratib, uni o‘ldirishadi. Mulla Ziyoviddin maxsum boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilar Qo‘nji qishlog‘iga yaqinlashganlarida ularga yana 200 kishi kelib qo‘shiladi. Qo‘zg‘olonchilar Andijonga yaqinlashganlarida ularga boy savdogar Aliboy qurollantirib yuborgan 150 yigit qo‘shiladi[6].

Qo‘zg‘olonchilar Andijondagi 20-Turkiston liniya bataloni kazarmasiga bostirib kirishadi. Kazarma piramidalarida turgan 30 ga yaqin miltiqni o‘lja olib, uxlab yotgan birinchi qatordagi soldatlar ustiga tashlanishadi. Ularni pichoq, hanjar bilan urib kaltaklab turishganda ikkinchi qator ichkaridagi soldatlar uyg‘onishib, darhol qurollanib qarshilik ko‘rsatadilar. Chorak soatcha davom etgan otishmadan so‘ng qo‘zg‘olonchilar to‘rt o‘lgan sherigini tashlab chekinadilar va soat oltilargacha Eski shaharda turib kengashadilar. Ular tayinli qarorga kelolmay Qorabura tarafi bilan orqaga chekinadilar. Shaharga kirmagan qo‘zg‘olonchilar esa “Afg‘on bog‘” degan joyda rus to‘rani o‘ldirib, tug‘larini uning qoniga bo‘yashgan edi[7].

Guvohlarning yozishicha, agar eshon eski shaharda soat 8-10 largacha turganida xalq to‘planib, milliy muhoraba boshlanar edi.

Qo‘zg‘olonning birinchi kunidayoq kuchlarning tarqoqligi ma’lum bo‘ldi. Hamma bir vaqtda ko‘tarilmadi. Ketmontepa va Ko‘gartdagi qirg‘izlar sardori Chibil bo‘lis zudlik bilan eshonga qo‘shilish o‘rniga “avval shu yerdagi mujiklarni saranjom qilib, keyin boramiz” deya rus dehqonlari posyolkalariga yurish qildi. Inoyatxon eshon Marg‘ilonga xujumni uyushtirolmay, asosiy kuchlarini Muhammadali qo‘shini bilan birlashtirishga qaror qildi. Umarbek dodhoh ham O‘shga yurishning uddasidan chiqa olmadi. Chunki mingboshi Qorabek Xasanov O‘sh tumani boshlig‘ini oldindan ogohlantirgan edi.

Dukchi eshon boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilar Andijon shahrida joylashgan harbiy garnizonga hujum qilib, 22 rus askarini o‘ldirdilar, 24 tasini yarador qildilar, 30 tacha miltiqni o‘lja oldilar.

Shunday qilib, Muhammadali eshonning qo‘zg‘oloni puxta tayyorlamay, rejasiz, yaxshi qurollanmagan muridlari bilan 1898-yil 17-mayda chor istibdodiga qarshi kurashga ko‘tarilgani rus mustamlakachilari uchun ayni muddao bo‘ldi. Endilikda mahalliy xalqni qatliom qilishga dastak topilgan edi.

Rossiya imperiyasi bosh shtabi Turkiston harbiy okrugiga jazo otryadlarini Farg‘onaning barcha tumanlariga yuborish, shaharlardagi barcha ruslarni qurollantirish hamda ishonchli yerli amaldorlarga maxsus yorliqlar bilan ov miltiqlarini tarqatish haqida ko‘rsatma beradi.

Bosh shtab generali Korolkov zudlik bilan ishga kirishib, 1898 yil 20 mayda qo‘zg‘olonning oldini ololmaganlikda ayblangan Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori Povalo-Shveykovskiyni, tuman hokimini, Asaka uchastka pristavini ishdan bo‘shatadi. Ularning o‘rniga general Chaykovskiy Farg‘ona gubernatori, general Ionov Farg‘ona qo‘shinlari qo‘mondoni qilib tayinlanadi, ularga mahalliy xalqqa qarshi shafqatsiz choralar ko‘rishda cheklanmagan vakolatlar beriladi.

Podsho Nikolay II qo‘zg‘olonchilarni “namuna” bo‘ladigan darajada qattiq jazolash uchun ko‘rsatma beradi. Ana shu ko‘rsatma asosida qo‘zg‘olonchilar ustidan olib borilgan sud jarayoni 3 oy davom etdi. Dastlab 447 kishi sud qilindi va 800 ga yaqin kishi guvohlikka chaqirildi. General-mayor Terentev raisligida o‘tgan harbiy sud materiallari “Andijanskoe delo” 20 jildni tashkil qilgan. Ushbu sud ishi bo‘yicha 380 kishining ustidan sud hukmi chaqirilgan. Sud hukmi bo‘yicha eng asosiy aybdorlar deb topilgan eshon Muhammadali xalfa Muhammad Sobir o‘g‘li, Kulla bo‘lisining sobiq boshlig‘i G‘oyibnazar Ortiqxo‘ja o‘g‘li, Subxonqul Arabboev, Bo‘taboy G‘aynoboev, savdogar Rustambek Sotiboldibek o‘g‘li va Mirzahamdam Usmonboevlar barcha mol-mulklaridan mahrum etilib, oltovi ham osib o‘ldirishga hukm qilindi. Sud harajatlarini barcha sudlanganlardan teng miqdorda undirilishi haqida ham qaror chiqarildi[8].

Turkiston Bosh harbiy gubernatori Duxovskiy qo‘zg‘olonning asosiy aybdorlari osib o‘ldirilgach, shahar qal’asi ichiga ko‘milsin va ustiga xojatxona qurilsin, deb buyruq bergan. Oxirgi paytda bu qaror o‘zgargan. Dorlar qurilgan maydon ancha notekis edi. Qo‘zg‘olonchilar shu yerga ko‘milib, ustidan so‘ndirilmagan ohak, keyin tuproq tortilgan. So‘ng qatl etilganlar qaerga ko‘milganligi bilinmasligi uchun butun maydon tekislab yuborilgan.

Sud hukmi bilan 362 kishi otib o‘ldirilgan, 341 kishi turli muddat bilan qamalgan. 16 kishi oilasi bilan uzoq va dahshatli Sibirga surgun qilingan. Qo‘zg‘olon markazi Mingtepa, Tojik, Qashqar qishloqlari uch kun davomida tinimsiz to‘pga tutilib kultepaga aylantirilgan. Sudsiz, so‘roqsiz o‘zboshimchalik bilan yondirilgan qishloqlar qirib yuborilgan, gunohsiz fuqarolar bu hisobga kirmaydi. Marhamatda yashayotgan keksalarning hikoya qilishlaricha, 1898-yil 20-may kuni Andijonga qo‘shimcha harbiy kuchlar kelgach, ular jazoga kirishib, O‘qchi qishlog‘igacha borib, yo‘lda uchragan erkakni otishgan. O‘qchida bir ayolning voyaga yetgan

to‘rt o‘g‘li bo‘lib, chor askarlari shu to‘rt aka-ukaning hammasini otib tashlashgan. Ona sho‘rlik bu fojeani ko‘tara olmay jinni bo‘lib qolgan.

Chor ma’murlari qo‘zg‘olonni bostirishda va isyonchilarni ushlashda hizmat qilgan harbiylar, millat va yurtni malaylarga sotgan mahalliy millat vakillarini taqdirlashni ham unutmadi. Qo‘zg‘olon bo‘lishi haqida O‘sh uezdi boshlig‘ini o‘z vaqtida ogohlantirgan Qorabek Hasanov Oltin medal va yiliga 300 so‘mdan bir umrlik nafaqa bilan taqdirlandi. Muhammadali eshonni ushlashda jonbozlik ko‘rsatgan Izboskan noibi, shtab-kapitan Og‘abekov 4-daraja Muqaddas Vladimir ordeni bilan, uning yigitlari Yoqub Ibrohim o‘g‘li, Musa Masodiq o‘g‘li “Jasurligi uchun” yozuvi bo‘lgan, ko‘krakda Georgiy lentasi qadab taqib yuriladigan kumush medal va yuz so‘mdan pul bilan, podporuchik Karcheladze 4-daraja Muqaddas Vladimir ordeni va qilich bilan mukofotlandilar. Andijon harbiy garnizoni boshlig‘i Mixaylov podpolkovnik edi, polkovnik bo‘ldi. Oddiy askarlaridan ham o‘n kishi taqdirlandi.

Ayniqsa, Dukchi Eshonni ushlab berganlarga katta muruvvat ko‘rsatildi. Muhammadali eshon Arslonbob yo‘lidagi Chorbog‘ qishlog‘ida Qodirqul mingboshi va Qo‘rboshi Matyoqub tomonidan hiyla nayrang bilan ushlab berildi. O‘shanda Dukchi Eshon bu millat hoinlariga qarata “Ikkoving o‘lar vaqtda jinni bo‘lib o‘lgin. Bizni rusga tutib bergan qo‘llaring bilan o‘zingni mushtlab o‘lgin” deb qarg‘agan edi. Milliy qahramonning qarg‘ishiga qolgan Matyoqub besh oy o‘tmasdanoq vafot etgan.

1889-yil 12-iyunda Harbiy gubernator, general mayor Siklovskiyning raportida shunday deyilgan: “Andijon uezdining Qo‘qon qishlog‘ida yashovchi, o‘tgan yili mingtepalik Eshonni qo‘lga tushirganligi uchun mazkur uezdning Maygir bo‘limi boshqaruvchisi lavozimiga tayinlangan Matyoqub Madrahimov besh oy hizmat qilgandan keyin, 1898-yil 14-noyabrda qazo qildi. Uning xotini va ikki bolasining yashash uchun hech narsasi qolmadi. Shuning uchun uning hizmatlarini, oilasining o‘ta qashshoqlanib qolganligini inobatga olib, siz janobi oliylariga iltimos qilamanki, o‘z tasarrufingizdagi mablag‘ hisobidan bu bevaga pul nafaqasi tayinlash mumkin, deb hisoblay olasizmi? Yana shuni qo‘shimcha qilib aytamanki, men Madrahimovaga favqulodda hollar uchun mablag‘idan 25 so‘m berdim”[9].

Andijon uezdi boshlig‘i ma’lumotiga qaraganda, Matyoqub Madrahimovning bevasi moddiy jihatdan to‘la ta’minlangan bo‘lib, unga eridan 10 desyatina yer, uy jihozlari, 500 pudga yaqin guruch meros qoldirgani, marhumning ikki bolasi bo‘lib, ulardan biri Qo‘qon qishloq bo‘limi boshqarmasida hizmat qilayotgani, Madrahimovaning moddiy muhtojligidan emas, balki marhum erining hizmatlari uchun unga 10 so‘m miqdorida nafaqa to‘lash zarurligi aytilgan. Andijon uezdi, Farg‘ona viloyati, Turkiston o‘lkasi mustamlakachi ma’murlari, amaldorlari, xatto Rossiya saltanati harbiy vaziri shaxsan imperatorning o‘zi Matyoqub Madrahimov oilasiga 5 yil muddat bilan har yilda 50 so‘mdan nafaqa tayinladi. Bu bilan mustamlakachilar “Farg‘ona aholisining ko‘z oldida rus ma’muriyati o‘ziga sodiq odamlarning hizmatini munosib taqdirlab borishlarini” isbotlamoqchi bo‘ldi.

Qo‘zg‘olon shafqatsizlarcha bostirilgach, o‘lkaga Rossiyadan ko‘plab rus oilalarini ko‘chirish siyosati yanada kuchaydi. Turkiston general-gubernatori Duxovskiy podsho Nikolay

II ga yo‘llagan xatida: “Qo‘zg‘olonchilar bizning uyquda yotgan 22 soldatimizni o‘ldirganliklari uchun buning xuniga isyonchilardan 22000 kishiga o‘lim jazosi berilib, 300 kishi katorgaga hukm etildi. Qo‘zg‘olonchilar rahbari yashagan joy tep-tekis qilinib, u yerga 200 oilali rus qishlog‘i qurildi”, degan edi. Ya’ni, Mingtepa qishlog‘ining mahalliy aholisi butunlay boshqa yerga, dashtlikka ko‘chirilib, ularning o‘rniga ruslar ko‘chirib keltirilgan va bu qishloq Marhamat deb nomlangan. Xuddi shuningdek Andijon shahri atrofidagi Xakan, Xartum qishloqlaridan ham yerli aholi ko‘chirilib, ularning yerlari rus oilalariga berildi. Bu yerlar faqat 1925-26-yillardagina o‘z egalariga qaytarib berildi.

Xullas, ota-bobo avlod-ajdodlarimiz Chor Russiyasi mustamlakachilik zulmi sharoitida ham erksevar halqimizning tarixiy an’analarini muqaddas saqlab davom ettirdilar va kelgindi bosqinchiga qarshi qonuniy va adolatli kurash olib borganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Fozilbek Ahmadbek o‘g‘li. Dukchi eshon voqeasi. – T.: Cho‘lpon, 1992. – B. 77

2. Murtazayev R. O‘zbekiston tarixi (Darslik). – Toshkent. 2005. – B.281

3. Ziyoyev H. O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi (miloddan oldingi asrlardan to 1991-yil 31-avgustgacha). – T.: Sharq, 2001. – B.218

4. Sodiqov X., Shamsutdinov R., Ravshanov P., Usmonov Q. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – T.: Sharq, 2000. – B.190

5. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi II (XVI-XIX asrlar). – T.: Sharq, 2010. – B. 215

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

THREATS IN THE INFORMATION SPACE AND THEIR LEGAL REGULATION

Shermatova Xilola Mirzayevna
Associate Professor, Department of Information Technologies, Fergana State University
shermatovahilola1978@gmail.com

Habibullayev Muhammadrajab Obidjon oglu,
1st year student of the Faculty of Law, Fergana State University
muhammadrajabh18@gmail.com
+998916537883

Annotation: This article highlights how cybersecurity issues have risen to the level of global security in the 21st century. As information technology continues to develop, conflicts between nations are no longer limited to armed confrontations, but are increasingly carried out through cyberattacks. Cybercrime has become one of the pressing problems threatening nations, states, and societies. This phenomenon is growing in parallel with the advancement of the digital electronic environment. The number of cybercrime victims increases year by year. The article discusses the role of cybersecurity in international law, the policies of states and major organizations in this area, and the necessity of protecting citizens' personal data. It also addresses the potential, threats, and legal accountability related to cyber warfare.

Keywords: cybersecurity, cyberattack, cyberwarfare, international law, information security, digital threats, technological security, internet law, national and global security.

Introduction

In today's modern world, new technologies and electronic services have become an integral part of our daily lives. Considering that society is becoming increasingly dependent on information and communication technologies day by day, protecting and properly utilizing these technologies is of crucial importance for national interests and has become a highly significant issue. Nowadays, a necessary condition for the development of the information society is cybersecurity, which can be ensured through an almost endless list of technical and legal security measures and ways to address them.

Cybersecurity is a knowledge-based field grounded in computation that integrates technology, people, information, and processes to ensure the correct execution of operations even in the presence of adversaries. It involves the design, implementation, analysis, and testing of secure computer systems.

Cybersecurity is an interdisciplinary academic field that encompasses legal aspects, policy, the human factor, ethics, and risk management [1; 7-8-b].

The term "cybersecurity" emerged in connection with the development of information technologies. This word is the Uzbek equivalent of the English term “cybersecurity,” where “cyber” refers to the digital or virtual environment, and “security” means protection.

In a broad sense, cybersecurity refers to a set of activities aimed at protecting computer systems, networks, software, and user data from unauthorized access, theft, damage, and other types of threats. The concept of cybersecurity began to take shape in the 1960s, during the early days of computer technology.

At that time, computers were available only in large organizations and operated withinclosed networks. As a result, security issues primarily focused on physical security — that is, protecting devices from unauthorized use.

Cybersecurity is the practice of using technologies, processes, and procedures to protect systems, networks, and software from digital attacks. Cyberattacks often target sensitive data and information, and by gaining access to this data, cybercriminals extort money from users and companies, disrupt routine operations, and even shut down entire websites [2].

In the late 1970s, the first computer viruses and security breaches were recorded. It was during this period that scientific research in the field of information security began to emerge. The 21st century is known as the era of technology, a time that has brought about the greatest transformations in human history. Software, artificial intelligence, the internet, and digital communication tools are having a profound impact on our daily lives, political decisions, and economic systems. Alongside these advancements, an entirely new threat has emerged — the issue of cybersecurity. This is not merely a technical issue related to computers, but one that is directly linked to national sovereignty, international peace, and individual privacy. With the widespread expansion of the internet, cybersecurity entered a new phase. Users began connecting via networks, exchanging information, and using online services. Simultaneously, new threats such as malicious software (viruses, trojans, spyware), phishing, spam, and others appeared. In 1998, the United States adopted a document titled *Presidential Decision Directive 63 (PDD-63),* which made the cybersecurity of national infrastructure a part of official state policy. Signed by President Bill Clinton, PDD-63 aimed to protect the country's critical infrastructure—including energy, finance, telecommunications, and transport systems—from cyberattacks. This directive was focused on ensuring cybersecurity and developing new strategies to combat cyber threats. The main goal of the document was to implement security measures to prevent cyberattacks, minimize damage, and establish a national cybersecurity infrastructure. This regulatory document marked a new stage in U.S. cybersecurity policy and later served as the foundation for other strategic initiatives, such as the National Infrastructure Protection Plan (NIPP). It played a crucial role in preparing the United States to face digital threats and served as a signal to other nations. Today, cybersecurity has become a global security issue. With the growth of the digital economy, artificial intelligence, the Internet of Things

(IoT), and blockchain technologies, the nature of threats has also become more complex. Ransomware, state-sponsored cyber espionage, election interference, disinformation, and even attacks on healthcare systems are becoming increasingly common.

Cybersecurity has now become an integral part of national security, a means of maintaining economic stability, a guarantor of individual privacy, and, undoubtedly, a key weapon in information warfare. As a result, the issue of ensuring cybersecurity is currently a top priority on the agendas of major international organizations such as the United Nations (UN), NATO, the European Union (EU), the Shanghai Cooperation Organization (SCO), and others. Any state, organization, or individual can become the target of a cyberattack, and such incidents are increasing the relevance and urgency of this field day by day [3; 18-b.]

Cybersecurity threats can appear in various forms, each with its own distinct methods and objectives. Below are the most common types of global cyber threats in the modern era:

1. Malware (Malicious Software)
   Malware is used to gain unauthorized access to computer systems, corrupt or steal data, or disrupt the functioning of systems. The most well-known types of malwares include viruses, trojans, worms, and spyware.
2. Ransomware
   Ransomware encrypts data on a computer and demands a payment from the owner to restore access. Notable examples include the WannaCry and Petya attacks in 2017, which caused billions of dollars in global damage.
3. DDoS (Distributed Denial of Service) Attacks These attacks flood a specific server or system with millions of simultaneous requests, causing it to become unresponsive or crash.
4. Phishing and Spear Phishing Through fake websites or fraudulent emails, attackers steal users’ confidential information (such as login credentials, passwords, credit card numbers) and use it against them.
5. Attacks on IoT (Internet of Things) Devices Smart home appliances, vehicles, and medical devices can be targeted, exposing them to cyber threats and potential exploitation [4].

Cyberattacks can lead to the following cyber risks:

1. Economic damage
2. Political instability
3. Social distrust
4. Threats to human life, and more

Results

As time progresses, cyberattacks are becoming increasingly complex. Notably, the DDoS attacks on Estonia in 2007 shocked the world — government websites, banks, and media systems were left helpless. This incident marked the first time the term “cyberwar” gained global attention. In 2010, the world witnessed a cyberattack on Iran’s nuclear facilities through

the malicious Stuxnet software. The pace of technological development is spiraling out of control; there is a lack of clarity and consensus in international law, digital literacy remains low among populations, and cyberattacks are cheap, hidden, and highly effective — all of which contribute to escalating cyberthreats.

Effectively countering global cyberthreats requires not only the efforts of individual nations but also international cooperation. In response to such events, key international conventions on cybersecurity have been adopted. One example is the Budapest Convention, the first international legal treaty aimed at combating cybercrime. It sets standards for collecting digital evidence, establishes cooperation in transnational crimes, and has been signed by over 60 countries.

Additionally, under NATO's sponsorship, the Tallinn Manual was developed, which outlines how international humanitarian law applies during cyber conflicts. This means that if one country launches a cyberattack against another, it may be considered a violation of international law.

Uzbekistan has also adopted several legal documents to ensure cybersecurity, providing a legal foundation for societal development and preventing cybercrime. The Law of the Republic of Uzbekistan “On Cybersecurity”, which came into force on July 7, 2017, and was revised and approved on March 17, 2022, is considered the principal document regulating the field of cybernetics. It consists of 8 chapters and 40 articles.

Article 3 of this law defines the key terms used in the legislation:

Object of informatization — information systems of various levels and purposes, telecommunications networks, technical means for information processing, and the premises where such means are installed and used.

Cybercrime — a set of crimes committed in cyberspace using software and technical means to seize, alter, destroy information, or disable information systems and resources.

Cyberspace — a virtual environment created through information technologies.

Cyberthreat — a set of conditions and factors in cyberspace that pose a threat to the interests of individuals, society, and the state.

Cybersecurity — the state of protection of individual, societal, and state interests from internal and external threats in cyberspace.

Cybersecurity incident — an event that leads to disruptions in the operation of information systems or violates the confidentiality, integrity, or accessibility of information.

Cybersecurity objects to a set of information systems used to ensure cybersecurity, including critical information infrastructure facilities.

Cybersecurity subject — legal entities and/or individual entrepreneurs with rights and responsibilities related to owning, using, and managing national information resources and providing electronic information service

Cyber defense — a set of legal, organizational, financial, engineering-technical, cryptographic, and other protective measures aimed at preventing and responding to cybersecurity incidents and restoring the reliability of systems.

Cyberattack — a deliberate act in cyberspace using hardware, software, or a combination thereof that threatens cybersecurity.

Critical information infrastructure — a collection of automated control systems, information systems, networks, and technological processes of strategic and socio-economic importance.

Critical information infrastructure facilities — systems used in government services, defense, national security, law enforcement, energy (including nuclear), chemical and petrochemical industries, metallurgy, water supply, agriculture, healthcare, utilities, banking and finance, transportation, ICT, environmental protection, and mining of strategic natural resources.

Subjects of critical information infrastructure — government bodies and organizations, as well as legal entities owning critical infrastructure facilities or ensuring their operation through ownership, lease, or other lawful means [5].

In Uzbekistan, not only have various legal documents been adopted, but also a Cybersecurity Center under the State Security Service has been established. As a country moving rapidly toward a digital economy, Uzbekistan is integrating cybersecurity into its economic strategy. The “Digital Uzbekistan – 2030” strategy includes not only goals for economic digitization but also concrete security measures. Efforts to promote cybersecurity culture — from preschool education to higher education — have been developed. The fact that Uzbekistan held its first-ever “Cybersecurity Week” in 2024 shows the increasing importance of this field in national development [6].

Conclusion

Cybersecurity has become an unprecedentedly important issue in the 21st century. For all countries and organizations, cybersecurity is not just a technological issue, but also a matter of national security and economic stability. Just as the threat of nuclear weapons is significant, cyber threats are becoming equally dangerous. As the importance of cybersecurity increases, its role in international politics is also growing. Today, cybersecurity issues play a crucial role not only at the national level but also in international relations. Organizations like NATO are developing policies to manage competition and ensure security in cyberspace. Additionally, the arms race in cyber weapons has intensified in many countries, and this situation is becoming increasingly dangerous.

Cybersecurity is becoming the most important security issue for countries and societies in the 21st century. Its importance is unparalleled in ensuring economic and political security, as well as protecting citizens' personal rights [7; 51-52-b.]. Ensuring cybersecurity requires broad cooperation among countries, international organizations, and companies. Cybersecurity is an

inevitable challenge for modern humanity. Countries and societies that take it seriously will move toward digital revival, not digital crisis.

LIST OF REFERENCES:

1. S.K. Ganiyev, A.A. Ganiyev, Z.T. Khudoyqulov *Fundamentals of Cybersecurity*, Study Guide. Tashkent – 2020

2. https://www.unite.ai/uz/kiberxavfsizlik-nima/

3. Nodirbek O‘rinov. *Fundamentals of Cybersecurity*. Textbook, Andijan - 2022

4. https://www.youtube.com/watch?v=MeBqe8WK9zc&list=PLFRnhpV9odGDXUoUp5p50A6NHH4m4v7qS&index=6

5. The Law of the Republic of Uzbekistan on Cybersecurity

6. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4851, dated October 5, 2020 – "Digital Uzbekistan — 2030" Strategy

7. Shermatova Khilola Mirzayevna. *Information Technologies in Education*. Textbook, Part 2, Fergana – 2023

8. Sh. Mirziyoyev *"The Strategy of New Uzbekistan"*, T.: "Uzbekistan", 2022.

9. Presidential Decision Directive 63 (PDD-63) of 1998

10. Wikipedia.org

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

UDK: 93085
ORCID: 0000-0002-1770-2602

O‘ZBEKISTON NOMODDIY MADANIY MEROSI: REPREZENTATIV RO‘YXAT

Axmedov Jasurbek Zokirjonovich
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
jasur184@list.ru, +998998121292
Bo‘riyev Sherzod Huldashevich
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro Konvensiya doirasida insoniyatning nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgan elementlar haqida so‘z ketadi. Shuningdek, mazkur ro‘yxatga kirgan birinchi element “Boysun madaniy muhiti” to‘g‘risida ayrim dalillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: nomoddiy madaniy meros, madaniyat, targ‘ibot, milliy ma’naviyat, an’ana, qadriyat.

НЕМАТЕРИАЛЬНОЕ КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ УЗБЕКИСТАНА: РЕПРЕЗЕНТАТИВНЫЙ СПИСОК

Аннотация: В данной статье рассматриваются элементы, включённые в Репрезентативный список нематериального культурного наследия человечества в соответствии с Международной конвенцией. Также приводятся некоторые сведения о первом элементе, включённом в этот список, – «Культурной среде Бойсунь».

Ключевые слова: нематериальное культурное наследие, культура, пропаганда, национальная духовность, традиция, ценности.

INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE OF UZBEKISTAN: A REPRESENTATIVE LIST

Annotation: This article reviews the elements inscribed on the Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity under the International Convention. It also provides some information about the first element inscribed on the list, the “Boisun Cultural Environment”.

Key words: intangible cultural heritage, culture, propaganda, national spirituality, tradition, values.

KIRISH. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilishning huquqiy asoslari ikki daraja – xalqaro va milliy darajada yaratilganligini kuzatish mumkin. Xalqaro darajadagi huquqiy asos sifatida 2003-yil qabul qilingan “Nomoddiy madaniy merosni saqlash to‘g‘risida”gi xalqaro Konvensiya xizmat qiladi.

Mazkur Konvensiyaning O‘zbekistonda ratifikatsiya qilinishi bo‘yicha dastlabki xarakatlar aslida 2005-yildan boshlangan edi. Konvensiya har tomonlama o‘rganib chiqilishi natijasida tegishli takliflar tayyorlanib, Vazirlar Maxkamasi orqali Oliy Majlisga kiritildi va buning natijasida 2007-yilning dekabr oyida “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish” Konvensiya ratifikatsiya qilindi. Ratifikatsiya xujjatlari taqdim etilgandan keyin, yani 2008-yil 29-apreldan boshlab O‘zbekistond Respublikasi ushbu Konvensiyaning ishtirokchi davlatiga aylandi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O‘zbekiston Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasi tashabbusi bilan ishchi guruhi tuzilib, 2001-yilda qabul qilingan “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tog‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar tayyorlandi. Ushbu takliflar Oliy Majlisning Senatida ham o‘rganilib chiqildi va 2009-yilning 9-oktabirida “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish haqida O‘RQ-228-sonli qonuni qabul qilindi [2].

NATIJA VA MUHOKAMA. Milliy qonunchilikni xalqaro normalar asosida qayta ko‘rib chiqish jarayoni bilan bir qatorda nomoddiy madaniy merosni o‘rganish, uning muhofazasini tashkil etish va kelgusi avlodga yetkazish borasida tegishli qaror qabul qilindi. Ushbu qarordagi eng asosiy vazifalardan biri sifatida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi zimmasiga manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha davlat dasturi loyihasini ishlab chiqish vazifasi yuklandi. 2010-yil fevral oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining nomoddiy madaniy merosni muhofazasiga bag‘ishlangan davlat dasturini ishlab chiqish bo‘yicha maxsus Farmoyishi e’lon qilindi va 2010-yilning 7-oktabrida Vazirlar Mahkamasining “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 222-sonli qaror qabul qilindi [3].

Mazkur dasturning birinchi bo‘limi “Nomoddiy madaniy merosni saqlash, muhofaza qilish va kelajak avlodga yetkazishga qaratilgan normativ – huquqiy bazani hamda ma’muriy boshqaruv tizimini takomillashtirish” deb nomlanib, unda “Nomoddiy madniy meros obyektlarining ro‘yxatini yuritish to‘g‘risidagi nizom” va “Nomoddiy madaniy meros obyektlarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom”ni ishalab chiqish, Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 269-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston

Respublikasi madaniy meros obyektlari davlat kadstirini yuritish tartibi to‘g‘risida nizom” va “Madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi to‘g‘risida nizom”ga o‘zgartirishlar kiritish orqali normativ-huquqiy bazani takomillashtirish vazifalari qo‘yilgan edi.

Ushbu bandlardagi vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida 2011-yil 23-fevralda Vazirlar Mahkamasining “Nomoddiy madniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror bilan “Nomoddiy madaniy meros obyektlarini tarixiy-madaniy ekspertizasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom”lar tasdiqlanib, Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 29-iyuldagi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 269-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi [4]. Ana shu hujjat bilan O‘zbekistonda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilishga oid huquqiy asos yaratildi.

O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosning 4 ta alohida ro‘yhati yuritiladi. Bular:

1. Zudlik bilan muhofaza ostiga olinishi lozim bo‘lgan nomoddiy madaniy meros ro‘yhati.
2. Nomoddiy madaniy merosning Reprezentativ ro‘yhatiga kiritish uchun tavsiya etiladigan nomzodlar ro‘yxati.
3. Nomoddiy madaniy merosning milliy ro‘yxati.
4. Nomoddiy madaniy merosning mahalliy ro‘yxatlari [5].

Nomoddiy madaniy merosni ro‘yxatga kiritish ishlari O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Ro‘yxatga kiritish uchun mahalliy davlat hokimyati organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning takliflari asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tarixiy-madaniy ekspertiza nomoddiy madaniy merosni tegishli ro‘yxatga kiritilishini asoslash maqsadida o‘tkaziladi. Ekspertizani tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi qoshidagi Ilmiy-uslubiy kengash zimmasidadir. Kengash tarkibi davlat organlari ilmiy institut va muassasalar, nodavlat, notijorat tashkilotlarning vakillari, nomoddiy madaniy merosni asrash va ulardan foydalanish yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan va tadqiqot ishlarini olib borayotgan alohida tadqiqotchilar va mutaxasislardan tashkil topgan.

Konvensiya doirasidagi insoniyatning nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga “Boysun tumanining madaniy makoni” (Milliy nomzodnoma, 2008-yil), “Shashmaqom” (ko‘pmillatli nomzodnoma, – O‘zbekiston va Tojikiston, 2008-yil), “Katta Ashula” (Milliy nomzodnoma, 2009-yil), “Askiya” (Milliy nomzodnoma, 2014-yil), “Palov madaniyati va an’analari” (Milliy nomzodnoma, 2016-yil), “Navro‘z” (ko’pmillatli nomzodnoma, – Eron, Ozarbayjon, Turkiya, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Pokiston, Hindiston, Afg‘oniston, Iroq, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, 2016, 2024-yil), “Xorazm raqsi – Lazgi” (Milliy nomzodnoma, 2019-yil), “Miniatyura san’ati” (ko’pmillatli nomzodnoma – Ozarbayjon, Eron, Turkiya va O‘zbekiston, 2020-yil), “Baxshi san’ati” (Milliy nomzodnoma, 2021-yil), “Ipakchilik va to‘quv uchun an’anaviy ipak ishlab chiqarish” (ko‘pmillatli nomzodnoma – O‘zbekiston, Ozarbayjon, Afg‘oniston, Eron, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya, 2022-yil),

“Xo‘ja Nasriddin haqidagi latifalarni takrorlash an’analari” (ko‘pmillatli nomzodnoma – O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya, 2022-yil), “O‘zbekiston kulolchilik maktablari” (Milliy nomzodnoma, 2023-yil), “Naqqoshlik – tazhib bezak san’ati” (ko’pmillatli nomzodnoma, – Ozarbayjon, Eron, Tojikiston, Turkiya, O‘zbekiston, 2023-yil), “Iftorlik va uning ijtimoiy-madaniy an’analari” (ko’pmillatli nomzodnoma, – Ozarbayjon, Eron, Turkiya, O‘zbekiston, 2023-yil), “Rubob cholg‘usi sozgarligi va ijrochiligi san’ati” (ko’pmillatli nomzodnoma, – Afg‘oniston, Eron, Tojikiston, O‘zbekiston, 2024-yil) kiritilgan [6].

Bundan tashqari 2018-yilda Marg‘ilon hunarmandchilik maktabi atlas va adras to‘qish texnologiyasi YUNESKOning Nomoddiy madaniy meros muhofazasi bo‘yicha eng yaxshi tajribalar reestriga kiritilgan [7].

“Boysun madaniy muhiti” YUNESKO tomonidan 2001-yilda e’lon qilingan “Insoniyatning og‘zaki va nomoddiy merosi durdonalari ro‘yxati” ga birinchi bo‘lib kiritilgan 19 nomzodning biridir. 2008-yilda “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish” xalqaro Konvensiyasiga O‘zbekiston qo‘shilgandan so‘ng “Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro‘yxati”ga o‘tkazildi.

Boysun tumani Surxondaryo viloyatining Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh shimoliy qismida joylashgan tog‘li hudud bo‘lib, u yerda tub aholining tarkibi o‘zbeklar va tojiklardan iborat. Tuman joylashgan hududning o‘ziga xosligi boshqa aholi yashash joylaridan ancha uzoqdaligi u yerdagi turmush tarzi, aholi mentaliteti, urf-odat va an’analarning yaxshi saqlanib qolishiga sabab bo‘lgan.

Boysun tumani 7 ta (Avlod, Boysun, Ravot, Sayrob, Darband, Machay, Qo‘rg‘oncha) qishloq va Boysun shahri hududlaridan iborat. Odatda “Insoniyat nomoddiy madaniy merosning Reprezentativ ro‘yxati” ga kiritish uchun tavsiya etiladigan obyektlar nomoddiy madaniy merosning 5 yo‘nalishidan biri yoki bir nechtasiga taaluqli bo‘lishi lozim. Boysun madaniy muhitida esa mazkur yo‘nalishlarning barchasiga taalluqli elementlar mavjud. Xususan, u yerda – o‘zlikni namoyon etishning og‘zaki an’analari va shakllari, ijro san’ati, bayramlari, tabiat, koinotga oid bilim va urf-odatlar, marosimlari, an’anaviy hunarmandchilik bilan bog‘liq bilim va ko’nikmalar saqlanib qolgan.

Boysun madaniy muhitining YUNESKO tomonidan e’tirof etilishi munosabati bilan tuman hududiga ekspeditsiyalar uyushtirilib, u yerdagi nomoddiy madaniy meros elementlari chuqur o‘rganilgan, hujjatlashtirilib, arxivlashtirilgan va izlanishlar natijalari qator nashrlarda e’lon qilingan. Boysundagi tarixiy yodgorliklar va arxeologik topilmalar E.Rtveladze, L.Sverchok, V.Mkrobordo, A.Sagdullayev singari olimlar tomonidan e’lon qilingan ilmiy maqolalar va to‘plamlarda o‘z aksini topgan.

Boysun aholisining ananaviy turmish tarzi (A.Ashirov, A.Qayumov), Boysun xalq taqvimi (M.Jurayev), Boysun tomoshaviy o‘yinlari va marosimlari, Boysunda Navro‘zning nishonlanishi (I.Abdurahimov), Boysun musiqa merosi, Boysun musiqa va musiqa cholg‘ulari, Boysun marosimlari va marosim musiqalari (R.Abdullayev), Boysun an’anaviy kashtachiligi

(A.Xakimov), Boysun gilamdo‘zligi, Boysunning kigiz gilamlari, to‘qimachilik (E.Gyul), Boysun kulolchiligi (A.Xakimov, S.Aliyeva), Xalq me’morchiligi (L.Rempel) taniqli arxeolog, etnograf, folklorshunos, san’atshunos va musiqashunoslar tomonidan o‘rganilgan [8].

Boysun madaniy muhitining dunyodagi eng noyob nomoddiy madaniy meros durdonalaridan biri sifatida tan olinishi natijasida u yerda 2001-yildan boshlab “Boysun bahori” festivali o‘tkazilmoqda. Festivalda xorijiy mutaxasislar, folklor jamoalari va ijrochilar, Respublikamizning barcha viloyatlaridan folklor-etnografik jamoalar, milliy kurashchilar, chavandozlar va ko‘pkari ustalari, pazandalar, dizaynerlar ishtirok etib kelmoqdalar. Boysun tumanida xalq amaliy san’ati markazi tashkil etildi, u yerda faoliyat ko‘rsatayotgan “Boysun” xalq folklor-etnografik ansambli va “Quralay” bolalar namunali ansambllarining faoliyati yanada jonlantirildi. Boysunda saqlanib qolingan raqs harakatlari asosida “Surxon raqs maktabi” qo‘llanmasi nashr etilib, O‘zbekiston hududidagi uchta (Farg‘ona-Toshtent, Xorazm, Buxoro) raqs maktabi qatoriga yana bir (Surxon raqs maktabi) maktab kiritilishi asoslandi.

Boysun tumanida saqlanib qolgan urf-odatlar, marosim va bayramlar mamlakatimizning boshqa hududlaridagi urf-odat, marosim va bayramlar keskin farq qilmasada, lekin ana shu urf-odatlarga rioya qilinishi, marosimlarning o‘tkazilishi, bayramlarning nishonlanishida azaliy ananalar nisbatan koproq saqlab qolingani ularni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni yanada orttiradi. Misol uchun olilaviy marosimlar sifatida e’tirof etiladigan, farzand tug‘ilishidan tortib, uning oila qurishigacha davrda o‘tkaziladigan marosimlarda qabul qilingan qoidalarga qat’iy amal qilinadi.

Hech bir joyda Boysun hududichalik qadimiy musiqa cholg‘ularining turlari saqlanib qolmagan. Ayniqsa ushbu cholg‘ularda oddiy kishilarning o‘zlari uchun (boshqalarga namoyish etish uchun emas) ijro etishlari, ijro an’analarini saqlab qolishlari ko‘pchilikni lol qoldirishi aniq. U yerda uchraydigan sibizg’a, chanqabuz, cho‘pon nay, sopol nay (shullovuq, shipillak), g‘ajir nay, qovoq soz, do‘mbira, dutor, doira, dap, sunray cholg‘ulari asosan shu yerlik ustalar tomonidan tayyorlanadi. Ularda ijro etiladigan o‘ziga xos ohanglarning ko‘pi esa boshqa joyda uchramaydi.

XULOSA. Muxtasar qilib aytganda xalqaro Konvensiya doirasida insoniyatning nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga 15 ta element kiritildi. Bu o‘z navbatida mazkur yodgorliklarni xalqaro darajada tan olinishi bilan bir qatorda mamlakatning madaniy imidjini oshiradi. Reprezentativ ro‘yxatga kiritilgan meroslar ko‘pincha madaniy turizm manbaiga aylanadi. Shu bilan birga YUNESKO yoki boshqa xalqaro tashkilotlardan grant loyihalar uchun mablag‘lar olish imkoniyati ochiladi. Bu esa xalqaro ekspertlar yordamida madaniy meros xavfsizligini kuchaytiradi hamda uni saqlab qolishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.https://lex.uz/docs/-1282807
2.https://lex.uz/acts/-25461
3.https://lex.uz/docs/-1688222

4.https://lex.uz/docs/-285207

5.Axmedov J. O‘zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi // FarDU Ilmiy xabarlari. Ijtimoiy gumanitar fanlar. 2024. №3. 332-335 bet.

6.Ахмедов Ж. Аждодлар омонати // Тафаккур. 2024. №4. 83-85 бет.

7.https://ich.unesco.org/en/state/uzbekistan-UZ

8.Ўзбекистон номоддий маданий мероси. Тошкент, 2017.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

UDK 908
https://orcid.org/0000-0001-9820-6645

TARIXIY MANBALARDA ARABLARNING XORAZMGA DASTLABKI YURISHLARI HAQIDAGI MA’LUMOTLAR HAMDA ULARNING TAHLILI

Boymirzayev Ismoiljon Xasanovich
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash instituti, Milliy tadqiqotlar universiteti tadqiqotchisi
i.boymirzaev@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada VIII asr boshlarida arablar tomonidan Xorazm hududiga uyushtirilgan ilk harbiy yurishlar tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Unda arab manbalari bilan bir qatorda mahalliy va forsiy manbalar ham tahlil qilinib, istilolarning sabab va oqibatlari, Xorazm hukmdorlarining qarshilik siyosati, diniy va madaniy o‘zgarishlar ko‘rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, tarixiy tafsilotlarning solishtirma tahlilini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Xorazm, arab istilosi, tarixiy manbalar, dastlabki yurishlar, VIII asr, siyosiy qarshilik, mahalliy manbalar, islom tarqalishi.

СВЕДЕНИЯ О ПЕРВЫХ ПОХОДАХ АРАБОВ НА ХОРЕЗМ В ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ И ИХ АНАЛИЗ

Аннотация: В статье рассматриваются первые военные походы арабов в Хорезм в начале VIII века на основе различных исторических источников. Анализируются арабские, персидские и местные хроники, описывающие причины, ход и последствия завоеваний. Особое внимание уделено сопротивлению хорезмийских правителей, а также религиозным и культурным изменениям, произошедшим в регионе.

Ключевые слова: Хорезм, арабское завоевание, исторические источники, первые походы, VIII век, политическое сопротивление, местные хроники, распространение ислама.

INFORMATION ABOUT THE FIRST ARAB CAMPAIGNS TO KHWAREZM IN HISTORICAL SOURCES AND THEIR ANALYSIS

Annotation: This article explores the initial Arab incursions into Khwarezm in the early 8th century, based on a range of historical sources. It analyzes Arabic, Persian, and local accounts to examine the causes, process, and consequences of the invasions. Special attention

is given to the resistance strategies of Khwarezmian rulers and the religious and cultural transformations that followed.

Keywords: Khwarezm, Arab conquest, historical sources, early campaigns, 8th century, political resistance, local chronicles, spread of Islam.

KIRISH

Tarixiy manbalarda arablarning Xorazmga yurishi haqida turlicha ma’lumotlar uchraydi. Ushbu ma’lumotlar asosida mustaqillik yillarida e’lon qilingan ilmiy adabiyotlarda Qutayba tomonidan 711-712-yillarda amalga oshirilgan yurish tafsilotlarigina uchraydi [1]. Ammo Beruniy asarida Qutayba ikkinchi marta ham bosqinchilik yurishini amalga oshirilganligi yoziladi [2]. Bu haqida Abu Rayhon Beruniy quyidagicha ma’lumot beradi: “Payg‘ambar alayhissalom kelgan vaqtda, Xorazm shohlaridan Arsamux ibn Buzgor ibn Xomgariy ibn Shovush Sixr ibn Azkojvor ibn Askajmuk ibn Saxxasak ibn Bag‘ra ibn Ofrig‘ podshoh edi. Xorazm aholisi [islom dinidan] qaytgandan keyin, Qutayba ibn Muslim Xorazmni ikkinchi marta fath qilgach, xorazmliklarga Askajmuk ibn Azkojvor ibn Sabriy ibn Sixr ibn Arsamuxni podshoh qildi va uni podshohlikka ko‘tardi. Xisravlar nasli qo‘lidan viloyat ketib, ularda faqat shohlik nomi qoldi, chunki shohlik ularga merosdek edi. Tarix, musulmonlar rasmiga muvofiq, hijriy [yilga] ko‘chirildi” [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Arablarga qarshi kurash masalasida Xorazm hukmdorlari hijriy 21-yilda (milodiy 642-yilda) tarixiy manbalarda tilga olinadilar. Ibn al-Asirga ko‘ra hijriy 21-yilda Xorazmga arablarga qarshi kurashishda yordam berish maqsadida Erondan maktub keladi. Unda: “Eron Kisrosi ham Bobu-l-Abvob, Xorazm va Hulvondagi podshohlarga xatlar yozib, holatni bayon qilgan va ular harakatga kelib, oralarida xabar almashishib, Nihovandda yig‘ilishga kelishib, u yerda jam bo‘lgan edilar” [4]. Manbadagi ma’lumotlar mazmunidan Xorazm podshohi askarlari bilan Nihovandga so‘nggi Eron shohi Yazdigardga yordamga yetib borgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ba’zi rivoyatlarga ko‘ra shu yil ichida Ahnaf ibn Qays Xorazm ustiga bir yurish qilgan. Boshqa bir rivoyatda esa bu yurish hijriy 18-yilda (milodiy 639/640-yilda) sodir bo‘lgani aytilgan. Xorazmning fath etilishiga sabab sifatida quyidagi voqealar qayd etilgan: Jalula ahli katta mag‘lubiyatga uchraganidan so‘ng, Yazdegird Rey shahriga borib joylashgan va u yerda turganida uni Abon Jozuya hujum qilgan. Shunda Yazdegird unga: «Ey Abon ! Yoki sen menga xiyonat qilmoqchimisan?» degan, u esa: «Yo‘q, biz senga xiyonat qilmayapmiz, lekin sen mulk va taxtingni boshqalar qo‘lida qoldirib, bu yerlarga kelding. Men esa haqim bo‘lgan bir narsani yozdirmoqchiman,» deb javob bergan va Yazdegirddan muhrini olib, xohlagan miqdorda hujjat yozdirib, uni muhri bilan muhrlagan. Lekin keyinchalik Sa’d bu yerga kelgach, u yozdirgan hujjatlarni mutlaqo qabul qilmagan va uni qaytarib bergan.

Yazdegird Reydan Isfahonga, u yerdan Kirmonga borgan va o‘z ila birga otashkadani olib yurgan. Kirmondan Xorazmga va u yerdan Marv shahriga kelib u yerda iqomat qilgan, u yerda

u hujumlardan omonda yashashga muvaffaq bo‘lib, katta bir otashkada qurdirgan va o‘z ila yaqin bo‘lgan ajamlar bilan u yerda joylashgan. Yazdegird u yerdan Hurmuzonga maktublar yozgan va shu orada Fors viloyatlari ahli ham isyon qilib, ahdlarini buzgan edilar. Shuningdek, tog‘li hududlar ahli va Firuzon ham bu isyonga qo‘shilib, ahdlarini buzganliklari sababli Hazrati Umar musulmonlarga bu viloyatlarga kirishga ruxsat bergan [5].

Shundan keyin Ahnaf Xorazmga yo‘l olgan, Xorazm viloyatlariga kirib, Hirotni qilich bilan fath qilgan va u yerda Suhar ibn Fulon al-Abdiyni vali sifatida qoldirgan. Ahnaf bu yerdan Marv ash-Shahjon tomon yo‘l olgan, Nisoborga Mutarrif ibn Abdulloh ibn ash-Shixirni, Hassanning o‘g‘li Harsni esa Saraxsga yuborgan edi. Ahnaf Marv ashShahjonga yaqinlashganda, Yazdegird u yerdan chiqib Marv ar-Ruzga ko‘chgan edi. Ahnaf esa Marv ash-Shahjonda iqomat qilgan edi. Shu orada Yazdegird Marv ar-Ruzda turganida Turk xoqoniga, Sug‘d va Xitoy podshohlariga maktublar yozib, ulardan yordam so‘ragan [6].

Xorazmda istiqomat qilgan musulmonlar ham u yerdan qochib, sulh tuzishni qabul qilmaganlarni ta’qib qilgan va Nisobor bilan Tohoriston orasida ularni quvlashgan. Shundan keyin Ahnaf Marv ar-Ruzga qaytib u yerda iqomat qilgan va Tohoristonda Robiy ibn Òmirni vali qilib qoldirgan. Ahnaf bu fathlarning barchasini Hazrati Umarga maktub orqali xabar qilgan va bundan boxabar bo‘lgan Hazrati Umar shunday degan edi: «Biz bilan bu hudud orasida olovli bir dengiz bo‘lishini xohlar edim.» Uni shunday deb eshitgan Hazrati Ali: «Nega, ey mo‘minlarning amiri?» deb so‘raganida, Hazrati Umar: «Bu hudud ahli uch marta o‘z joylaridan qo‘chiriladi, va uchinchisida butunlay yo‘q qilinadilar. Lekin ularning bu ahvollari o‘sha kungi musulmonlarning holidan menga ko‘proq yoqadi,» deb javob bergan. Shundan keyin Hazrati Umar Ahnafga maktub yozib, unga Jayhun daryosidan o‘tmaslikni tavsiya qilgan. Yazdegird u yerdan mag‘lubiyat bilan daryoni kesib o‘tganidan so‘ng Turk xoqonidan Farg‘ona va Sug‘d hududlaridan olgan yordamlar bilan qaytib kelgan va Xorazmga kirgan [7].

Ammo baribir al-Ahnaf Xorazmni egallay olmagan. Bunga hali arablarning resusrlari yetishmas hamda Eron sosoniylari to‘liq mag‘lubiyatga uchratilmagan edi. Shuningdek, manbalarda arablar tomonidan Xorazm egallanishiga mone’lik qiluvchi jihatlar ham aniq ma’lum qilingan.

Tabariy bergan ma’lumotga ko‘ra, Xorazm boshqa Markaziy Osiyo davlatlari bilan arablarga qarshi ittofoqqa qo‘shiladi. Hijriy 61-yilda / 680-681-yillarda Xazorasp qal’asida arablar bilan bitim tuzmaslik va ular bilan boshqa Markaziy Osiyo davlatlariga qarshi harbiy yurishlarda qatnashmaslik to‘g‘risida shartnoma imzolanadi [8]. Ammo bu shartnomani imzolagan mahalliy hukmdorlar amalda o‘zlarining hech bir maqsadlariga erisha olmadilar. Ayni shu, shartnoma imzolangan yilida arablarning Xorazmga dastlabki yurishi haqida Ibn Qutayba va Ibn al-Asir asarlarida ayrim ma’lumotlar uchraydi. Yuqoridagi ma’lumotlarga ishonilsa, Yazid ibn Muoviya (milodiy 681-683) davrida Xuroson hokimi bo‘lgan Ziyod [9]Xazoraspga hujum qilib, xorazmliklarni arablar bilan shartnoma majbur qildi, Balozuriyga ko‘ra, ular arablarga 400 000 dirham to‘ladilar [10]. Tabariy asarida esa o‘lpon miqdori 1 000

000 ekanligi keltirilgan [11]. Xorazmliklarga hech kim yordamga kelmadi. Bu aslida arablarning Xorazm yerlariga amalga oshirilgan birinchi bosqinchilik yurishi hisoblanadi.

Hijriy 85-yil milodiy 704-705-yilda, xalifalikning barcha sharqiy viloyatlari voliysi Hajjoj binni Yusuf Xuroson hokimi Yazid ibn Muxallabga Xorazmga harbiy yurish tashkil etishni buyuradi. Ammo bu yurish, Xorazmda boy harbiy o‘lja yo‘qligi, qishning sovuq va erta kelishi tashkillanadigan harbiy yurish harajatlarini qoplamasligi sababli amalga oshmaydi. Shundan keyin, Hajjoj Yazidni Bag‘dodga chaqiradi. Bundan havotirga tushgan Yazid Hojajga maktub yo‘llab, Xorazmga qarshi hujum boshlash niyatida ekanligini ma’lum qiladi. Hajjoj o‘z javobida agar Xorazm haqiqatan ham Yazid ta’riflaganidek bo‘lsa, balki harbiy yurishdan voz kechish kerak, deb yozadi [12]. Masalan, “Hajjoj Yazidga: “Xorazmga g‘azot qil”, deb maktub yozgan, Yazid esa unga: “U yerda g‘animat oz, bizga qarshi turadiganlar esa ko‘p”, deb javob bergan. Shunda Hajjoj: “O‘rningga bir vakil tayinla va mening huzurimga kel”, deb aytdi. Keyinroq Yazid: “Men Xorazmga g‘azot qilmoqchiman”, deb yozgach, Hajjoj: “Yo‘q, u yerga g‘azot qilma, u sen aytgandek joydir”, deb javob berdi. Ammo Yazid Hajjojga itoat qilmay, g‘azot qildi. U yerliklar bilan sulh tuzdi va bir necha kishini asirga oldi” [13]. Tabariyga ko‘ra, Yazid mazkur javobga qaramay, Xorazmga yurish qiladi va uning hukmdorini arablar bilan tinchlik shartnomasini imzolashga majburlaydi. Shundan keyin Yazid katta o'lja va bir necha yuz harbiy asirlar bilan Xazoraspga qaytib keldi [14].

XULOSA

Arablarning Xorazmga uyushtirgan ilk yurishlari tarixiy jihatdan muhim bosqich bo‘lgan. Bu istilolar Xorazm siyosiy mustaqilligiga tahdid solgan bo‘lsa-da, mahalliy hukmdorlar tomonidan kuchli qarshilik ko‘rsatilgan. Tarixiy manbalarning solishtirma tahlili shuni ko‘rsatadiki, arab manbalarida yurishlar ko‘proq diniy nuqtai nazardan, mahalliy manbalarda esa siyosiy-mudofaa nuqtai nazaridan yoritilgan. Bu holat Xorazmda arab istilosiga nisbatan turlicha munosabat bo‘lganligini tasdiqlaydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ataxodjayev A.M., Zamonov A.T., Xalmuminov U.R., Maxammadiyev A.T., Ismoilov A.I., Abdusodiqov S.Z. O‘zbekiston tarixi. I qism. Darslik. – Toshkent: Bayoz, 2024. – B. 515.
2. Беруний. Танланган асарлар. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 71.
3. Беруний. Танланган асарлар. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 71.
4. Ibn el-Athiri. Chronicon quod perfectissimum inscribitur, ed.C.J.Tornberg vol.I-XIV, Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876. IV. 82.
5. Ibn el-Athiri. Chronicon quod perfectissimum inscribitur, ed.C.J.Tornberg vol.I-XIV, Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876. IV. 90.
6. Ibn el-Athiri. Chronicon quod perfectissimum inscribitur, ed.C.J.Tornberg vol.I-XIV, Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876. IV. 91-92.
7. Ibn el-Athiri. Chronicon quod perfectissimum inscribitur, ed.C.J.Tornberg vol.I-XIV, Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876. IV. 92.

8. История ат-Табари. – Ташкент, 1987. – С.50.

9. Ibn el-Athiri. Chronicon quod perfectissimum inscribitur, ed.C.J.Tornberg vol.I-XIV, Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876. IV. 82; Abū Muḥammad 'Abd Allāh ibn Muslim Ibn Qutayba. Kitab al-ma’arif. 1996. IX. – P. 177.

10. Al-Balazuri. Liber expugnationis regionum, auctore Imamo Ahmed ibn Jahja ibn Djabir al-Belol, quem a codice Leidensi et codice Musei Britannici ed. M.J.de Goeje, Lungduni Batavorum, 1866. – P. 413; Sachau Ed. Zur geschichte und chronologie von khwarizm. – Wien, 1873. – P. 31-32.

11. История ат-Табари. – Ташкент, 1987. – С.50.

12. Хорезм в истории государственности Узбекистана // Отв. ред. Э.В. Ртвеладзе, Д.А. Алимова. – Ташкент, 2013. – С. 102.

13. Ibn el-Athiri. Chronicon quod perfectissimum inscribitur, ed.C.J.Tornberg vol.I-XIV, Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876. IV. 147.

14. История ат-Табари. – Ташкент, 1987. – С.98.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

SAMARQANDDA OLIY MA’LUMOTLI IQTISODCHI KADRLAR TAYYORLASH TARIXI (1925-1991-yy)

Xalikulova Umida Rustamovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1925-1991-yillar davomida Samarqand shahrida oliy iqtisodiy ta’lim tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Sovet davrida iqtisodchi kadrlar tayyorlash siyosati, O‘zbekiston SSRdagi iqtisodiy ehtiyojlar, Samarqandda faoliyat yuritgan oliy ta’lim muassasalari faoliyati asosida yoritiladi. Shuningdek, iqtisodiy ta’limda kadrlar sifati, o‘quv dasturlari va ilmiy-tadqiqot ishlari o‘z aksini topadi.

Kalit so‘zlar: Samarqand, iqtisodchi kadrlar, oliy ta’lim, Sovet davri, iqtisodiy ta’lim, O‘zbekiston SSR, ta’lim tarixi

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс формирования и развития системы высшего экономического образования в Самарканде в период с 1925 по 1991 годы. Особое внимание уделяется государственной политике подготовки экономических кадров в Узбекской ССР, а также роли высших учебных заведений Самарканда. Также анализируются учебные программы, уровень подготовки специалистов и научно-исследовательская деятельность того времени.

Ключевые слова: Самарканд, экономические кадры, высшее образование, советский период, экономическое образование, Узбекская ССР, история образования

Annotation: This article explores the development of higher economic education in Samarkand between 1925 and 1991. It focuses on the Soviet policies related to training economists in the Uzbek SSR and highlights the role of higher educational institutions in Samarkand. The study also examines the quality of economic education, curricula, and the scientific research activities conducted during the period.

Keywords: Samarkand, economist training, higher education, Soviet era, economic education, Uzbek SSR, history of education

Kirish

XX asrning 20-yillarida O‘zbekistonda boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, xususan, 1921-yildan joriy etilgan Yangi iqtisodiy siyosat nafaqat iqtisodiy hayotga, balki ta’lim tizimining shakllanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Respublikaning iqtisodiy taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash dolzarb vazifaga aylandi. Ayniqsa,

YEIS talablari asosida ishlab chiqarish va bozor munosabatlarini qayta tiklash, moliya-soliq tizimini yo‘lga qo‘yish, davlat-xususiy sektor o‘rtasidagi munosabatlarni muvozanatlash kabi masalalar yangi iqtisodiy tafakkur egalarini – iqtisodchi kadrlarni tayyorlashni taqozo etdi.

Mazkur jarayonda Samarqand shahri mintaqaviy va respublika miqyosida muhim iqtisodiy-ma’rifiy markazlardan biriga aylandi. Tarixan madaniyat va ilm-fanning muhim o‘chog‘i bo‘lgan Samarqand, yangi davrda ham o‘zining strategik geografik joylashuvi, ilmiy salohiyati va ma’naviy merosi bilan ajralib turdi. Ayniqsa, oliy ta’lim sohasida iqtisodiy yo‘nalishlar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashda bu hudud muhim o‘rin egalladi. 1925-yildan boshlab YEIS talablariga mos holda Samarqandda iqtisodiy yo‘nalishdagi ta’lim muassasalari tizimi shakllana boshladi. Oliy va o‘rta maxsus iqtisodiy bilim yurtlari tashkil etilib, ularda zamonaviy iqtisodiy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Bu ta’lim muassasalari nafaqat Samarqand viloyatida, balki butun O‘zbekiston bo‘ylab iqtisodiyotni boshqarishda faol qatnashgan malakali iqtisodchilar avlodini voyaga yetkazdi.

1920-yillarning o‘rtalarida O‘zbekistonda iqtisodiy sohalar uchun zarur bo‘lgan ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Ayniqsa, Yangi iqtisodiy siyosat (YEIS) doirasida bozor munosabatlarini tiklash, moliya va savdo tizimlarini rivojlantirish kabi vazifalar ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarga ega mutaxassislarni tayyorlashni talab qilardi. Ana shu ehtiyojni hisobga olgan holda, 1924-yilda Turkiston universiteti (keyinchalik O‘rta Osiyo Davlat Universiteti) qoshida savdo va tijorat sohalariga oid qisqa muddatli o‘quv kurslari tashkil etildi.

Bu kurslar qisqa fursat ichida o‘z samarasini bera boshlaganidan so‘ng, 1925-yilda ular asosida universitet tarkibida Sotsial-fanlar fakulteti tashkil etildi[23]. Ushbu fakultetning faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlarda mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan bo‘lib, u keyinchalik “Mahalliy iqtisodiyot va huquq” yo‘nalishlarining shakllanishiga mustahkam zamin yaratdi. Bu yo‘nalishlar orqali iqtisodiyot, mahalliy boshqaruv va huquqshunoslik sohalarida bilimga ega bo‘lgan yangi avlod kadrlari yetishib chiqdi.

Shu bilan birga, YEIS siyosatining ta’siri ostida mintaqaviy oliy ta’lim muassasalari ham bosqichma-bosqich iqtisodiy yo‘nalishlarni rivojlantira boshladi. Jumladan, 1927-yilda tashkil etilgan Samarqand Davlat Universiteti (SamDU) ana shunday muassasalardan biri bo‘lib[24], u qisqa vaqt ichida mintaqadagi yetakchi ilmiy-ma’rifiy markazlardan biriga aylandi. Dastlab, umumiy ijtimoiy-gumanitar fanlarga asoslangan holda faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan bu universitetda iqtisodiyotga oid fanlar, xususan, xalq xo‘jaligi, statistika, rejalashtirish va moliyaviy boshqaruv kabi yo‘nalishlar shakllana bordi.

Samarqandda iqtisodiy yo‘nalishda oliy ta’lim asoslarini shakllantirish yo‘lida qo‘yilgan bu dastlabki qadamlarga katta tarixiy ahamiyat berilishi lozim. Chunki aynan shu davrdagi

[23] Бодиров А.Ж. Самарқанд вилоятидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт (1925-1941 йй.). Фалсафа доктори (PhD) диссер автореф – Тошкент. 2019. – Б. 20.

[24] Mamarasulov D.T. Samarqand davlat universitetining tarixiy ildizlari va taraqqiyot bosqichlari. Tarix fan bo‘yicha falsafa doktori ilm daraja disser. – Samarqand. 2023. – 151 b.

islohotlar tufayli O‘zbekiston iqtisodiy sohasida xizmat qilgan ko‘plab yetuk mutaxassislar ilk tahsilini ushbu muassasalarda olgan edilar. Ushbu tarixiy tajriba nafaqat ta’lim tizimini, balki mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim o‘rin tutdi.

1930-yillarda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni markazlashgan tarzda boshqarish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va yuqori malakali iqtisodiy kadrlarni tayyorlash masalasi tobora dolzarb tus oldi. Bu ehtiyojni qondirish maqsadida, 1931-yilda Toshkent shahrida O‘zbekiston Milliy Iqtisodiy Instituti tashkil etildi. Mazkur institut respublika bo‘ylab, jumladan, Samarqand viloyatida ham iqtisodiy yo‘nalishdagi mutaxassislar tayyorlash uchun asosiy ilmiy-metodik markaz bo‘lib xizmat qildi. Uning ilmiy salohiyati va dasturiy asoslari Samarqanddagi ta’lim muassasalari faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi, xususan, kadrlar tayyorlash jarayoniga ilmiy-uslubiy poydevor yaratdi.

Uzoq yillar davomida mintaqada iqtisodiy yo‘nalish bo‘yicha oliy ta’limga bo‘lgan ehtiyoj kuchayib borar ekan, bu yo‘nalishda mustaqil muassasa tashkil etish zarurati vujudga keldi. Natijada, 1935-1936-yillarda Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti (SamISI) tashkil etildi. Institutning dastlabki faoliyati iqtisodiyot, moliya, buxgalteriya hisobi, statistika va rejalashtirish kabi sohalar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan edi. SamISI nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalarni ham o‘rgatganligi bilan ajralib turdi. U o‘z davrida mintaqadagi iqtisodiy boshqaruv tizimlari uchun zarur bo‘lgan kadrlarni yetkazib beruvchi tayanch o‘quv maskaniga aylandi[25].

XX asrning 20 yillar oxiri 30-yillar boshlarida respublikada sanoatda va qishloq xo‘jaligida keng miqyosda rivojlanishi sababli xalq xo‘jaligi tarmoqlarida yuqori malakali mutaxassislarga extiyoj paydo bo‘ldi, bular jumlasida Iqtisodiyot sohasining mutaxassislari xalq xo‘jaligi uchun yetarli darajada yuqori malakali kadrlarni O‘zbekiston hukumatining 1928, 1929, 1930-yillarda qator qarorlari ishlab chiqildi va amaldagi fakultetlar va bo‘limlarni, mustaqil tarmoq oliygohlarini tashkil etish masalalari ko‘rib chiqildi va bunday oliygohlar tegishli soha vazoratlari (narkomatlar) ixtiyoriga berilish ta’kidlandi.

Respublika hukumati qarorlari asosida 1930-yilda SAGUni qayta tashkil etish, jumladan universitetning iqtisodiyot fakulteti negizida O‘rta Osiyo reja instituti va O‘rta Osiyo matlubot kooperasiyasi institutlarini tashkil etish masalalari ko‘rib chiqildi. 15 yanvar 1931-yilda O‘rta Osiyo davlat plan komissiyasi prezidiumi reja institutini tashkil etishi to‘g’risida qaror qabul qiladi va 10 fevralda institutning 1931-yilgi smetasini tasdiqlandi. Shu qaror bilan SAGU iqtisodiyot o‘quv binosi va yotoqxonasi yangi tashkil etilgan reja institutiga berilishi belgilandi[26].

1947-yilga kelib, O‘zbekistonning iqtisodiy modernizatsiya yo‘lidagi strategik yo‘nalishlari doirasida Samarqandda iqtisodiy rejalashtirish, moliya boshqaruvi va sanoatni rivojlantirish bo‘yicha mutaxassis tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Bu jarayon

[25] Qosimov E. Samarqand oliy o‘quv yurtlarining shakllanishi va rivoji // Ijtimoiy fanlar, 1998, №4. – SamDU va boshqa muassasalarda iqtisodiy kafedralar va mutaxassisliklar.

[26] https://sies.uz/pagesView/instituttarixi.

Tojikiston va Qozog‘iston bilan bir qatordagi mintaqaviy hamkorlik doirasida ham amalga oshirildi. Aynan shu yillarda Samarqanddagi iqtisodiy ta’lim muassasalari o‘z salohiyatini kengaytirib, respublika miqyosida yetuk iqtisodchilarni tayyorlash markaziga aylana boshladi.

1981-yilda Samarqandda tashkil etilgan “Mehnat va ta’minot” fakulteti iqtisodiy ta’lim yo‘nalishining tarkibiy qismlaridan biri sifatida muhim o‘rin egalladi[27]. Ushbu fakultetning ochilishi o‘sha davrdagi Sovet iqtisodiyoti doirasida mehnat munosabatlari, rejalashtirish, resurslardan foydalanish va ta’minot tizimi bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan muhim bosqich edi. Ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonida mehnat samaradorligini oshirish, iqtisodiy resurslarni rejalashtirish va ulardan oqilona foydalanish kabi amaliy masalalar bo‘yicha iqtisodchi kadrlar yetishtirish bu fakultet faoliyatining asosiy vazifasiga aylangan edi.

Mazkur fakultet tarkibida “Mehnat iqtisodiyoti”, “Ishchi kuchi bozorini tahlil qilish”, “Ijtimoiy ta’minot iqtisodiyoti” singari fanlar bo‘yicha chuqurlashtirilgan ta’lim berildi[28]. Shu bilan birga, fakultet talabalari nazariy bilimlar bilan birga amaliyotga ham katta e’tibor qaratishdi — ular Samarqand viloyatidagi yirik sanoat korxonalari va tashkilotlarda malaka oshirish amaliyotini o‘tashar, iqtisodiy-ijtimoiy tizimlarda real hisob-kitob ishlarida ishtirok etardilar. Bu esa ularni nafaqat Sovet reja iqtisodiyoti sharoitida, balki keyinchalik shakllanadigan bozor iqtisodiyoti sharoitida ham faoliyat yuritishga tayyorlashga xizmat qildi.

1991-yilda O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi bilan mamlakatda siyosiy va iqtisodiy islohotlar jarayoni boshlandi. Iqtisodiyotni liberallashtirish, bozor mexanizmlarini joriy etish va xususiy sektorni rivojlantirish ehtiyoji yangi turdagi iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarga ega kadrlarni talab etardi. Shu munosabat bilan oliy iqtisodiy ta’lim tizimi tubdan qayta ko‘rib chiqildi.

Bu islohotlar Samarqanddagi iqtisodiy ta’lim muassasalariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Xususan, Samarqand davlat universiteti tarkibida iqtisodiy yo‘nalishlar va maxsus kafedralar faoliyatini kengaytirish, iqtisodiy tadqiqotlar olib borish, xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, bozor munosabatlariga mos o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish ishlari jadallashdi. 1990-yillarning o‘rtalariga kelib esa Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti (SamISI) alohida mustaqil iqtisodiy oliygoh sifatida shakllandi. Bu jarayon Samarqandda iqtisodiy ta’limni strategik manba sifatida rivojlantirishda, viloyat va mintaqaning iqtisodiy infratuzilmasini kadrlar bilan ta’minlashda muhim bosqich bo‘ldi.

Shunday qilib, 1980-yillarning oxirida tashkil etilgan “Mehnat va ta’minot” fakulteti va keyingi yillardagi ta’lim islohotlari Samarqandda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga tayyor, zamonaviy bilimlarga ega mutaxassislar zaminini yaratdi. Bu esa nafaqat Samarqand, balki butun O‘zbekiston iqtisodiy barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim sarmoya bo‘lib xizmat qildi.

[27] O‘z MA, 2454-fond, 1-ro‘yxat, 79-ish, 23-varaq.
[28] Sam VDA, 637-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 3-varaq.

Xulosa qilib aytganda, Samarqandda oliy ma’lumotli iqtisodchi kadrlar tayyorlash tarixining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganib, bu jarayonning rivojlanish bosqichlarini, amalga oshirilgan islohotlar va yutuqlarni batafsil tahlil qiladi. Samarqandda iqtisodiy ta'limning tarixiy rivojlanishi, mustaqillik davrida kadrlar tayyorlash sohasidagi o‘zgarishlar va hozirgi zamon talablari asosida ta'lim jarayonining takomillashuvi muhim o‘rin tutadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Samarqandda oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy fakultetlari rivojlanib, turli yo‘nalishlarda malakali iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan. Mustaqillik yillarida, iqtisodiy islohotlar jarayonida Samarqandda iqtisodiy ta'limga alohida e'tibor berilib, o‘quv dasturlari zamonaviy iqtisodiyotning talablariga javob beradigan tarzda yangilandi. Bu esa o‘z navbatida, kadrlar tayyorlashda sifatli yutuqlarni ta'minladi.

Shu bilan birga, maqolada kadrlar tayyorlash tizimida yuzaga kelgan ba'zi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham ko‘rib chiqilgan. Xususan, ta'lim sifatini oshirish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va iqtisodiy bozor sharoitlariga moslashgan mutaxassislarni tayyorlashning muhimligi ta'kidlangan. Umuman olganda, Samarqandda oliy ma'lumotli iqtisodchi kadrlar tayyorlash tarixi o‘zining yutuqlari va kamchiliklari bilan o‘ziga xos bir davrni aks ettiradi. Shu sababli, kadrlar tayyorlash tizimining takomillashuvi va iqtisodiyotning global o‘zgarishlariga moslashish uchun yanada samarali strategiyalarni ishlab chiqish zarurligi yoritilgan. Maqola, samarali iqtisodchi kadrlar tayyorlash jarayonida yanada yuqori sifatga erishish uchun ilmiy yondashuv va amaliy tajribalarni birlashtirishning ahamiyatini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бодиров А.Ж. Самарқанд вилоятидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт (1925-1941 йй.). Фалсафа доктори (PhD) диссер автореф – Тошкент. 2019. – Б. 20.

2. Mamarasulov D.T. Samarqand davlat universitetining tarixiy ildizlari va taraqqiyot bosqichlari. Tarix fan bo‘yicha falsafa doktori ilm daraja disser. – Samarqand. 2023. – 151 b.

3. Qosimov E. Samarqand oliy o‘quv yurtlarining shakllanishi va rivoji // Ijtimoiy fanlar, 1998, №4. – SamDU va boshqa muassasalarda iqtisodiy kafedralar va mutaxassisliklar.

4. https://sies.uz/pagesView/instituttarixi.

5. O‘z MA, 2454-fond, 1-ro‘yxat, 79-ish, 23-varaq.

6. Sam VDA, 637-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 3-varaq.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

ORCID ID: 0009-0003-9974-1369

MA’NAVIY QADRIYATLARNING YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARIDA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Ikromov Ravshan Aktamovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori,
yuridik fanlar nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, jamiyatdagi ma’naviyat va huquqiy madaniyatning o‘zaro aloqadorligi, ularning ijtimoiy hayotiga ta’sirini tahlil qilingan hamda bu jarayonda huquqiy madaniyat va ma’naviyatning muhim o‘rni ochib berilgan. Shuningdek maqolada, aholi huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish xususiyatlari, zamonaviy huquqiy mafkuraning nazariy va amaliy talqinini yaratish masalalari o‘zining etarli ifodasini topmagan.

Kalit so‘zlar: islohot, tafakkur, dunyoqarash, Yangi O‘zbekiston, ma’naviyat, huquqiy madaniyat, huquq, demokratiya, fuqarolik jamiyati, milliy hamjihatlik, qonunning ustuvorligi, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy qadriyatlar.

РОЛЬ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: В статье анализируется взаимосвязь духовности и правовой культуры в обществе, их влияние на общественную жизнь, раскрывается важная роль правовой культуры и духовности в этом процессе. Также в статье недостаточно освещены особенности формирования правового сознания и правовой культуры населения, вопросы создания теоретической и практической интерпретации современной правовой идеологии.

Ключевые слова: реформа, идеология, мировоззрение, Новый Узбекистан, духовность, правовая культура, право, демократия, гражданское общество, осознание национальной идентичности, национальное единство, верховенство закона, национальные ценности, общечеловеческие ценности, духовные ценности.

THE ROLE OF SPIRITUAL VALUES IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE LEGAL CULTURE OF THE YOUTH OF NEW UZBEKISTAN

Abstract: The article analyzes the relationship between spirituality and legal culture in society, their influence on public life, and reveals the important role of legal culture and

spirituality in this process. The article also does not sufficiently cover the features of the formation of legal consciousness and legal culture of the population, issues of creating a theoretical and practical interpretation of modern legal ideology.

Key words: reform, ideology, worldview, New Uzbekistan, spirituality, legal culture, law, democracy, civil society, awareness of national identity, national unity, rule of law, national values, universal human values, spiritual values.

KIRISH. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yangilanayotgan O‘zbekistondagi islohotlar tizimli ravishda amalga oshirilayotgani va xalqning manfaatlariga asoslangani sababli, yangilanayotgan O‘zbekiston g‘oyasi bevosita huquqiy madaniyatga, ma’naviyatga tayanadi va uning kuchiga suyanadi. Ma’naviyat va huquqiy madaniyatga katta kuch sifatida qaraladi. Mustaqillikka erishganimizning dastlabki kunlaridanoq oldimizga asosiy maqsad qilib huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishni maqsad qilib qo‘ydik. Huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyati bir qator o‘ziga xos ma’naviy xislat va fazilatlari bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyatida inson, uning hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy – ma’naviy va siyosiy manfaatlari, ya’ni, qadr-qimmati, qadriyatlari, huquqlari va erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan qonun orqali kafolatlanadi. Huquqiy davlatning, shuningdek erkin fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos xususiyatlardan biri huquqning oliy hukumronligidir. Huquqiy davlatda hamma narsa, har qanday masala qonunlar, huquqiy me’yorlar asosida adolatli yo‘l bilan hal etiladi. Bunday davlatda barcha fuqaro qonun oldida teng bo‘lib, ularning o‘zaro munosabatlarini qonunlar tartibga solib turadi. Qonun siyosatdagi ma’naviyat sifatida hamma uchun barobar huquq va mas’uliyat yuklaydi va insonlararo muomala me’yorini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, globallashuv sharoitida milliy ma’naviyatni saqlash va uni yangi avlodga to‘g‘ri etkazishning muhimligi ortib bormoqda. Global axborot oqimining keskin ta’siri ostida ma’naviyatning saqlanishi va uning jamiyatdagi ustuvor mavqeini qo‘llab-quvvatlash jamiyat oldidagi dolzarb vazifadir.

Ijtimoiy falsafa uchun hamma zamonlarda ham jamiyatning umumiy rivojiga, davrning aniq voqea-hodisalariga, aholi qatlamlari, ijtimoiy guruhlarning qanday munosabatda bo‘layotgani, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samarasi muhim ahamiyatga ega. Shu asosda jamiyat taraqqiyoti, uning ma’naviy makoni o‘rganiladi va tahlil etiladi. Bu jihatdan, jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti masalasi ham zamonaviy falsafiy fanlarning muhim tadqiqot yunalishi hisoblanadi.

Bu mavzuning O‘zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog‘liq masalalari Prezident Shavkat Mirziyoyevning asarlarida, nutq va ma’ruzalarida bugungi jamiyat rivojining ustuvor vazifalari sifatida asoslab berilmoqda. Oliy majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqida “Bizning eng katta boyligimiz - bu xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir”, deb ta’kidlagani aslo bejiz emas[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mazkur maqolamizning metodologik va nazariy asoslarini O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etish, fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish jarayonida ma’naviyat va huquqiy madaniyatning o‘rni hamda ahamiyatiga oid fikrlari, ko‘rsatmalari, asarlari hamda ushbu mavzuning turli jihatlari buyicha izlanishlar olib borayotgan mamlakatimiz va xorijlik huquqshunos, siyosatshunos va faylasuf olimlarning asarlari tashkil qildi.

Ma’naviyat va huquqiy madaniyat o‘rtasidagi aloqadorlikning nazariy va amaliy jihatlari, jamiyatning huquqiy madaniyati, ma’naviy-axloqiy asoslariga oid muammolar Yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti barcha ijtimoiy gumanitar yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida turibdi. So‘nggi yillarda fuqarolik jamiyatining mohiyati, tabiati hamda uni shakllantirish jarayonlariga bag‘ishlangan, shuningdek tegishli huquqiy madaniyat, huquqiy ong va huquqiy mafkura tahliliga doir bir qator siyosiy-nazariy, falsafiy, huquqiy, tarixiy yo‘nalishdagi asarlar chop etildi.

Jamiyatda huquqiy madaniyatning mohiyati, tushunchasi, funksiyalari, uslublariga oid izlanishlar, shuningdek quyidagi xorijlik mualliflar tomonidan ham amalga oshirilgan: E.V.Agranovskaya, L.A.Ershova, N.M.Keyzerov, A.L.Likas, M.N.Marchenko, N.Y.Matuzov, V.M.Mejuev, V.S.Nersesyans, A.R.Ratinov, YU.M.Reznik, V.P.Salnikov, V.A.Chetvernin va boshqalar. Mavjud tadqiqotlar fuqarolik jamiyati va uning ma’naviy poydevori hisoblangan huquqiy madaniyatning mohiyati hamda mazmunini o‘rganishga muhim hissa qo‘shganligini e’tirof etish lozim.

MUHOKAMA. Hozirgi davrda amalga oshirilayotgan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi[2] jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy jabhalarida tub tarixiy burilish bilan bog‘liq bir qator muammolarni va vazifalarni hal etish masalasini qo‘ymoqda. Ana shunday ulkan vazifa va mas’uliyat xalqimizdan bir tomondan, ma’naviy yuksalishni, ikkinchi tomondan esa, fuqarolik jamiyati qurishda unga tayanishni taqozo qilmoqda. Albatta bu taraqqiyot yo‘lini amalga oshirish, ya’ni, fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy omillaridan biri - xalqimiz ma’naviyatini rivojlantirish, yuksaltirishdir.

Jamiyatda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Insonlar o‘zligini chuqur anglashi, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishi, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvi, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg‘onishini ta’minlash ma’naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylandi.

Mamlakatimizda rivojlangan fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsad etib belgilangan bir paytda, demokratik tamoyillarni egallash, fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, shaxs

erkinligini amalda joriy etish, siyosiy jarayonlarni erkinlashtirish, demokratik me’yorlar asosida ko‘ppartiyaviylik tizimini takomillashtirish, davlat boshqaruvi organlarining ayrim vakolatlarini bosqichma-bosqich jamoat va o‘zini o‘zi boshqarish organlariga berish kabi vazifalar umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o‘zida ifoda etgan holda ma’naviyat bilan tutashadi. Jamiyatdagi demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun ma’naviyat siyosatning bosh tayanchi bo‘lmog‘i kerak.

O‘zbekiston mustaqilligining 35 yili mobaynida biz bu borada ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritdik. Mamlakatimiz eski totalitar tuzum illatlaridan qutulib, yangi munosabatlarga asoslangan tuzumga o‘tdi. Shunga muvofiq ravishda ijtimoiy munosabatlar o‘zgarmoqda, fuqarolik jamiyati vujudga kelmoqda. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bu murakkab jarayon. Chunki, islohotlar mustaqillikni mustahkamlash, xalqning ongini asta-sekin yangi zamonga qarab o‘zgartirish negizida davom etmoqda. Odamlar ongi, tafakkuri esa tez o‘zgaradigan hodisa emas. Milliy o‘zlikni anglash, milliy hamjihatlik, ma’naviy qadriyatlarni tiklash sohasida ko‘p ishlar amalga oshirildi. Aytish mumkinki, Vatanimiz qiyofasi ana shu muddat ichida tubdan o‘zgardi. Tariximiz tiklandi, ulug‘ ajdodlarimiz nomlari oqlanib, ular merosini o‘rganish keng miqyosda davom etmoqda. Islom dini iymon-e’tiqodimiz sifatida qayta tiklandi, o‘zbek tili davlat maqomini oldi. SHular zamirida yurtdoshlarimiz qalbida o‘z o‘tmishi, buyuk vatani bilan faxrlanish tuyg‘usi shakllanmoqda. O‘zbek farzandlari bugun boshini baland ko‘tarib, dunyo bo‘ylab o‘zini namoyon etmoqda. Milliy g‘urur, vatanparvarlik tuyg‘usi vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun kurash tuyg‘usi bilan uyg‘unlashib, ma’naviyatimiz asosini belgilamoqda.

Fuqarolik jamiyatini barpo etish ma’naviy etuk insonlarni tarbiyalash, ta’lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga ham bog‘liq. CHunki, ayni bilimlilik va yuqori ma’naviyatlilikdan hammaning baxt-saodati yo‘lida foydalanish mumkin. Aslini olganda etuk insonlarni aqliy faoliyatlari, tafakkuri jahon fani va ma’naviyatining eng yaxshi yutuqlarini o‘ziga singdirib olgan barkamol avlodni tarbiyalash, kamol toptirish davr talabidir. Jamiyatda ma’naviyatni rivojlantirish va yuksaltirishda bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi bir necha ijtimoiy institutlar va omillar mavjud.

Yuksak ma’naviyatga ega barkamol avlodni tarbiyalashda, har bir millatning o‘ziga xos milliy qadriyatlarini, ma’naviyatini shakllantirishda va yuksaltirishda oilaning o‘rni beqiyosdir. Mamlakatimiz Konstitutsiyasida oilaning ijtimoiy maqomi aniq belgilab qo‘yilganligi, shu asosda Oila, Fuqarolik, Uy-joy kodekslari va boshqa zarur qonun hujjatlari qabul qilinib, bu borada tegishli xuquqiy poydevor yaratilganligi oila institutini jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tizimlari, yurtimizdagi ma’naviy o‘zgarishlar bilan uyg‘un tarzda rivojlantirish, uning nufuzini oshirish masalasiga doimiy e’tibor berib”, kelinayotganligidan dalolat beradi.

Ma’naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, mahallaning roli va ta’siri xususida to‘xtalish albatta o‘rinlidir. Darhaqiqat, dunyoning birorta mamlakatida uchramaydigan mahalla institutiga istiqlolning dastlabki yillaridanoq davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan katta e’tibor qaratilib, obro‘si qayta tiklandi, vakolati kengayib, hayotimizda tutgan o‘rni

yuksaldi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahallaning huquqiy maqomi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi” sifatida belgilab qo‘yilganligi ham ana shundan dalolat beradi.

NATIJALAR. Bugungi kunda mahallalar mustaqil ijtimoiy institut sifatida qaytadan mustahkamlandi va mahalla jamiyatda ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlar, sog‘lom turmush-tarzi falsafasining qaror topishi, barkamol avlodni tarbiyalash, joylarda ta’lim, aholi bandligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish, jamoat xavfsizligi va xuquq-tartibotni ta’minlashga katta hissa qo‘shmoqdalar.

Ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta’lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ta’lim-tarbiya haqida gap ketganda, Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan fikrlarini eslash kifoya, deb o‘ylaymiz. Vatanimizning yorug‘ kelajagini belgilaydigan, uning kuch-qudratini ta’minlaydigan omillar orasida ta’lim-tarbiya sohasi alohida o‘ringa ega.

Shuning uchun ham barkamol avlodni tarbiyalashning bosh vositasi bo‘lgan ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida milliy ta’lim mazmuni va sifatini zamon talablariga ko‘tarish bilan bir qatorda, taraqqiy topgan davlatlardagi o‘quv markazlariga borib o‘qishlariga, professor-o‘qituvchilarning xorijda malakalarini oshirishlariga hamda ta’lim sohasi bilan bog‘liq xorijiy mablag‘ va grantlarni respublikaga jalb etishiga katta e’tibor qaratilib kelinmoqda.

Qadriyatlar ham ma’naviyatning tarkibiy qisimlaridan birini tashkil etadi. Ular ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanib boradi. Qadriyatlar kishilarning turli sohalardagi, avvalo, ishlab chiqarishi, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsa va hodisalar majmui bilan bog‘liq holda yuzaga keladi.Tabiat va jamiyat hodisalari insonning moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish, yaratuvchanlik faoliyati tufayli, uning ehtiyojlarini qondirish natijasida qadriyatlilik ahamiyatiga ega bo‘ladi. Odamlarning manfaatlari, ehtiyojlarini qondira olmagan, ularning orzu-istaklari, intilishlariga mos kelmaydigan, tabiat va jamiyat hodisalarini qadriyatlar sirasiga kiritish noo‘rindir.

Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlarini, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim[4]. Tabiat va jamiyat boyliklari, hodisalarini qadriyatlar sirasiga kiritilishning asosiy sababi-kishilar ularni qadrlaydilar, avaylab-asraydilar, chunki, bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini, ma’naviy-ruhiy dunyosini boyitadi, yaratuvchanlik faoliyatiga yo‘llaydi.

Ma’naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyatiga to‘xtashdan avval, qadriyatlarning turlari va ko‘rinishlarini bilib olish lozim. Qadriyatlar o‘z mohiyati, xususiyatlari va amal qilish doirasiga ko‘ra bir necha turlariga va shakliy ko‘rinishlarga bo‘linadi. Avvalo, barcha qadriyatlar orasida inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo‘q joyda biron narsaning qadr-qimmati, ahamiyati haqida so‘zlash

bema’nilikdir. Insonsiz borliqdagi mavjud barcha narsa va hodisalar o‘zining qadriyatlilik ahamiyatini yo‘qotadi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq inson qadr–qimmatini e’zozlash, uning manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog‘lig‘ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishini tashkil etib kelmoqda. Jahonda e’tirof etilgan taraqqiyotning «o‘zbek modeli»ning asosiy tamoyillaridan biri ham bozor iqtisodiyotiga o‘tishda aholining ijtimoiy himoyasiga qaratilganligida chuqur insonparvarlik mohiyati mavjuddir.

Insonning yashashi uchun zarur bo‘lgan barcha tabiiy boyliklar – yer, suv, havo, quyosh, turli madanlar, o‘simliklar, hayvonat dunyosi va boshqalar, shuningdek, inson mehnati, hatti-harakati, aql-zakovati bilan yaratilgan turli-tuman moddiy boyliklar, zavod va fabrikalar, ishlab chiqarish, transport vositalari, asbob-uskunalar, hozirgi zamon axborat texnologiyalari, turar joy, mol-mulk, noz-ne’matlar va boshqalar tabiiy va moddiy qadriyatlar hisoblanadi. Bularsiz insoniyat yashay olmaydi. Tabiat va uning boyliklari biz uchun moddiy ne’matlarning bosh manbai hisoblanadi. Ularni asrab-avaylash, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga har birimiz ma’naviy va amaliy jihatdan mas’ulmiz.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida: «Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonat dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir»[3, 41], - deb yozilganki, ularni asrab-avaylash, saqlash, kelgusi avlodlarga sof holda qoldirishimizda har birimizga javobgarlik ma’suliyatini yuklaydi.

Muayyan jamiyat, davlat tuzilmasi, uning huquqiy asoslari, shaxs erkinligi va huquqlari, adolat, ozodlik, tenglik, tinchlik, birodarlik kabilar ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar sirasiga kiradi. Insoning erkinligi, uning qadr-qimmati jamiyatimizning oliy qadriyatidir. Bu haqda asosiy qomusimizning 13-moddasida shunday so‘zlar yozilgan: “O‘zbekiston Respublikasi demokratiya, umuminsoniy pirinsiplprga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa dahlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi”[3, 9].

Istiqlol tufayli mamlakatimizda barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik kabi ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar qaror topdi. «Ko‘p millatli jamiyatimizda, - deydi I.Karimov, - ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, fuqarolar o‘rtasida tinchlik va millatlararo totuvlik saqlanayotganligi mustaqil O‘zbekistoning bunyod bo‘lishi va rivojlanishining birinchi boshlang‘ich bosqichida qo‘lga kiritilgan eng asosiy yutuq bo‘ldi»[5, 262-263]. Yuqorida qayd etgan qadriyatlar yangidan barpo etilayotgan davlatchiligimizning poydevoridir.

Xalqimiz va umuminsoniyat tomonidan yaratilgan ilmiy-falsafiy qarashlar, tarixiy, badiiy san’at asarlari va diniy amollar; urf-odatlar, an’analar, bayramlar, marosimlar; insonparvarlik, vatanparvalik, mehnatsevarlik, yaxshilik, burch, vijdon, to‘g‘rilik, halollik kabi axloqiy me’yorlar insonni ma’naviy kamolotga eltuvchi ma’naviy-axloqiy qadriyatlar sanaladi.

Fuqarosining tafakkuri yuksak rivojlangan mamlakatgina moddiy va ma’naviy to‘kis bo‘ladi. Shunday ekan, istiqlol va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim tamoyillaridan biri inson qadr-qimmatini har tomonlama yuksaltirish, xalq farovonligini oshirishdan iborat. Bunga erishish uchun xalqimiz, yurtimiz fuqarolarining hamjihatligi va birdamligi, tafakkurini mustahkamlash talab etiladi. Bu vazifa demokratik tafakkur mohiyatini tashkil etadi va u quyidagi umumbashariy qadriyatlarga suyanadi va ulardan oziqlanadi: qonun ustuvorligi; inson haq-huquqlari va hurfikrlik; turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash; diniy bag‘rikenglik; dunyoviy bilimlarga intilish, ma’rifatparvarlik; o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribasi va madaniyatini o‘rganish. Bugungi milliy mentalitet Yangi O‘zbekistonning barpo etilishi haqidagi siyosiy, ilmiy, nazariy, falsafiy, tarixiy, qarashlar majmui, xalqni kelajakka ishonch, e’tiqod ruhida tarbiyalovchi g‘oyaviy qurol, barcha toifa kishilarni shu maqsad yo‘lida birlashtiruvchi g‘oyat qudratli ma’naviy omil hisoblanadi.

Yurtimizda bugungi kunda shakllangan yuksak ma’naviy tamoyillarning asosiy mezonlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: mamlakatning mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy yaxlitligi va sarhadlar daxlsizligini ta’minlashga yordam berish; qonunning ustuvorligi, demokratiya va o‘z-o‘zini boshqarishning hayotda mustahkam o‘rin egallayotganligi; milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi; xalqaro huquq qoidalariga hamohanglik.

Biz ma’naviy qadriyatimizni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o‘sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.

Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi oldingi jamiyatning madaniy yutuqlarini zaruriy ravishda meros qilib oladi, uni qayta ishlaydi, undan ijodiy foydalanadi, uni yangi yuqori bosqichga ko‘taradi. Insoniyat tomonidan yaratilgan eng yaxshi va qimmatli narsalar, moddiy va ma’naviy boyliklar yangi tarixiy sharoitda o‘zlashtiriladi, qayta ishlanadi va rivojlantiriladi. Har bir avlod o‘zi uchun maxsus yangi moddiy madaniy baza tashkil etmaydi, ilm-fan va madaniyatni yangitdan yaratmaydi, balki o‘zidan oldingi avlodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyatdan meros sifatida foydalanib uni rivojlantiradi, yangi yuqori bosqichga ko‘taradi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, ayni paytda, butun jamiyatimiz uchun milliy ma’naviyat va ma’rifat sohasini yanada rivojlantirish borasida alohida e’tiborni tortadigan ba’zi dolzarb muammo va masalalar ham saqlanib qolmoqdaki, ularning samarali echimlarini topish joriy yildagi faoliyatda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etishi zarurligi shubhasiz.

Birinchidan, tobora shiddat bilan globallashib borayotgan bugungi dunyoga xos bo‘lgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarning salbiy ta’siri ortib, odamlarning ongi va qalbi uchun kurash kuchayib borayotgan bugungi kunda, jamiyat hayoti va ma’naviy qadriyatlarni ma’rifiy yo‘l bilan himoyalash ishlari zamon talablari, islohot va yangilanishlar sur’atidan ortda qolmasligi zarur, albatta.

Ushbu masalalarni echishning usullari va vositalari, mavjud imkoniyatlari samarasini oshirish zarurati siyosiy ta’lim tizimi faoliyatining bosh mezoni va ustivor yo‘nalishiga aylanishi lozimligi davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Ikkinchidan, xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviy qadriyatlari va ma’rifiy merosini asrab-avaylash hamda jahon sivilizatsiyasii bilan uyg‘un holda rivojlantirish, ilm-ma’rifatga asoslangan erkin va mustaqil tafakkur tarzini jamiyatning har bir a’zosida shakllantirish, xalqimizning O‘zbekistonning ma’naviy-ma’rifiy makonda tutgan o‘rni va mavqeini yanada mustahkamlash masalalari yanada dolzarblashmoqda.

Bu borada eng asosiy vazifa ota-bobolarimiz tomonidan ming yillar davomida yaratilgan odob-axloq qoidalari, shuningdek azaliy an’analar, milliy qadriyatlarimizning yo‘qolib ketish xavfi yuzaga kelayotgani uchun ushbu sohadagi xavf-xatarlarni bartarab etish zarurati davr talabiga aylanib qolayotganini anglash va ushbu jabhaga alohida e’tibor qaratish ehtiyoji bilan bog‘liqligi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 bet.

2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Тошкент: “O`zbekiston”, 2022. - 440 бет.

3. O‘zbekiston Respublikasi Konistitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – 128 bet.

4. J.Tulyanov, B.Qodirov, Z.G‘ofurov. Ma'naviy yuksalish sari. – Toshkent: “Mehnat”, 2000. – 103-bet.

5. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – Toshkent: «O‘zbekiston», 1995. – 262-263-betlar.

6. Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2022. – 816 bet.

7. Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2018. – 456 bet.

8. Qandov Bahodir Mirzayevich. Atoqli davlat va jamoat arbobi Turor Risqulovning Turkiston iqtisodiyotining integratsiyalashuvi sohasidagi tashabbuslari. // “Tamaddun nuri” jurnali. № 10. – Qoraqalpog'iston Respublikasi: 2024. – 103-106 betlar.

9. Qandov Bahodir Mirzayevich. Turkistonda kadrlarni mahalliylashtirish siyosatida Turor Risqulovning roli (XX asrning 20-30-yillari). // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti jurnali. № 12. – Buxoro: 2024. – 60-65 betlar.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI DAVRDA O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISH MASALASI

Iroda Rasulovna Tishabayeva
Farg‘ona davlat texnika universiteti
Ijtimoiy fanlar va sport kafedrasi dotsenti
Email: irodaxontishabayeva@gmail.com.
Tel: +99891 651 51 36
ORCID: 0009-0001-3081-8917

ANNOTATSIYA Maqolada 1946–1991-yillarda O‘zbekiston SSR maktabgacha ta’lim muassasalarida tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimining shakllanishi, rivojlanishi va muammolari tahlil qilinadi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda bolalar salomatligiga yetgan zararlarni bartaraf etish, sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilash va tibbiy-profilaktika choralarini kuchaytirishga qaratilgan hukumat qarorlari hamda me’yoriy hujjatlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda SSSR va O‘zbekiston SSR sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar, shahar va qishloq bog‘chalarida tibbiy xizmat sifati o‘rtasidagi tafovutlar, kadrlar yetishmovchiligi, moddiy-texnika bazasi zaifligi, hamda bolalar orasida keng tarqalgan yuqumli kasalliklar statistik ma’lumotlar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston SSR, maktabgacha ta’lim, tibbiy xizmat, sog‘liqni saqlash, sanitariya-gigiyena, kadrlar yetishmovchiligi, yuqumli kasalliklar.

ВОПРОС МЕДИЦИНСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА В ПОСЛЕВОЕННЫЙ ПЕРИОД ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

АННОТАЦИЯ В статье анализируется формирование, развитие и проблемы системы медицинского обслуживания в дошкольных учреждениях Узбекской ССР в 1946–1991 гг. Рассматриваются правительственные постановления и нормативные акты, направленные на устранение последствий Второй мировой войны для здоровья детей, улучшение санитарно-гигиенических условий и усиление лечебно-профилактических мероприятий. В исследовании освещены реформы системы здравоохранения СССР и Узбекской ССР, различия в качестве медицинского обслуживания между городскими и сельскими детскими садами, кадровый дефицит, слабая материально-техническая база, а также статистика распространённых инфекционных заболеваний среди детей.

Ключевые слова: Узбекская ССР, дошкольное образование, медицинское обслуживание, здравоохранение, санитария и гигиена, кадровый дефицит, инфекционные заболевания.

THE ISSUE OF MEDICAL SERVICES IN PRESCHOOL INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN IN THE POST–WORLD WAR II PERIOD

ABSTRACT This article examines the formation, development, and challenges of the medical service system in preschool institutions of the Uzbek SSR from 1946 to 1991. It reviews government decrees and regulatory acts aimed at mitigating the consequences of World War II on children's health, improving sanitary and hygienic conditions, and strengthening preventive healthcare measures. The study highlights reforms in the healthcare systems of the USSR and the Uzbek SSR, differences in the quality of medical services between urban and rural kindergartens, shortages of qualified personnel, weak material and technical infrastructure, and statistical data on the prevalence of infectious diseases among children.

Keywords: Uzbek SSR, preschool education, medical services, healthcare, sanitation and hygiene, staff shortages, infectious diseases.

Kirish

Maktabgacha ta’lim muassasalarida tibbiy xizmat ko‘rsatish masalasi O‘zbekistonning ijtimoiy rivojlanish strategiyasida yana-da ustuvor yo‘nalishga aylangan. So‘nggi yillarda mamlakatda sog‘lom avlodni tarbiyalash, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, yuqumli kasalliklarning oldini olish va erta diagnostika mexanizmlarini kuchaytirishga muttasil e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yondashuvning mohiyati Prezident Mirziyoyev ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni ta’kidlagan nutqlarida ham yorqin ifodalangan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 20-dekabrda bo‘lib ot‘gan maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va istiqboldagi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor majlisida maktabgacha ta’lim muassasalarida “bolalarning sog‘lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta’minlash” istiqbolli vazifa sifatida belgilangan [12.]

Mazkur tadqiqotning maqsadi — 1946–1975-yillarda O‘zbekiston SSR maktabgacha ta’lim muassasalarida tibbiy xizmat ko‘rsatishning tashkiliy-huquqiy asoslari, amaliyoti va muammolarini tarixiy manbalar, statistika va arxiv hujjatlari asosida tahlil qilishdir. Ushbu masalani o‘rganish maktabgacha ta’lim tizimida sog‘liqni saqlash xizmatlari rivojlanishining tarixiy tajribasini aniqlash hamda zamonaviy sharoitda ularning samaradorligini oshirish yo‘llarini belgilash uchun ilmiy asos yaratadi.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi

Maqola umum qabul qilingan tarixiy tadqiqot metodlari — tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik va xolislik tamoyillari asosida yoritildi. Tadqiqot jarayonida 1946–1975-yillar oralig‘ida O‘zbekiston SSR maktabgacha ta’lim muassasalarida tibbiy xizmat ko‘rsatish

tizimining shakllanishi, sog‘liqni saqlash sohasidagi siyosiy-huquqiy qarorlar, markaziy va mahalliy boshqaruv organlarining roli, kadrlar ta’minoti, sanitariya-gigiyenik holat, yuqumli kasalliklarning oldini olish choralari hamda mavjud tizimli muammolar tarixiy-hujjatli asosda tahlil qilindi.

O‘zbekiston SSRda maktabgacha ta’lim tizimida tibbiy xizmat masalalariga oid ayrim jihatlar sobiq ittifoq davrida nashr etilgan rasmiy hukumat qarorlari, SSSR Sog‘liqni saqlash vazirligi buyruqlari, statistik to‘plamlar va davriy matbuotda qisman yoritilgan. Biroq bu manbalar ko‘pincha rasmiy statistika va hisobotlar doirasida qolib, joylardagi real holatni to‘liq aks ettirmagan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimi tarixiga oid ayrim ilmiy maqolalar va nomzodlik dissertatsiyalarida bolalar salomatligini muhofaza qilish, tibbiy-profilaktika ishlarini tashkil etish, sanitariya-gigiyenik talablarni ta’minlash masalalari qisman ko‘rib chiqilgan. Xususan, N. Расулованing “O‘zbekistonda pediatriyaning rivojlanish tarixi” nomli tibbiyot fanlari nomzodlik dissertatsiyasida. maktabgacha ta’lim tizimiga tegishli ayrim masalalarga to‘xtalib o‘tilgan [1.].

Shuningdek, M. Maxsumov “O‘zbekistonda ikkinchi jahon urushidan keyin onalik va bolalikni muhofaza qilishning rivojlanish bosqichlari” nomli tibbiyot fanlari nomzodlik dissertatsiyasida maktabgacha ta’lim tizimida tibbiy xizmat ko‘rsatishning tashkiliy-huquqiy asoslari masalalariga qisman e’tibor qaratgan [2.]. Ammo aynan maktabgacha tarbiya muassasalarida kadrlar bilan ta’minlanganlik, sanitariya-gigiyenik muammolar hamda tibbiy infratuzilmaning rivojlanishi tarixi alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida yetarlicha o‘rganilmagan.

Shu bois, 1946–1975-yillarda O‘zbekiston SSR maktabgacha ta’lim muassasalarida tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimi, sog‘liqni saqlash siyosatining maktabgacha ta’lim sohasidagi amaliyoti va bu boradagi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tarixiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qilish ilmiy adabiyotlarda dolzarb, ammo yetarlicha yoritilmagan mavzular sirasiga kiradi.

Natijalar

Ikkinchi jahon urushidan keyin O‘zbekiston hukumati bolalar bog‘chalarida tibbiy xizmat ko‘rsatish holati urushning salbiy ta’sirlarini bartaraf etish va bolalar salomatligini yaxshilash maqsadida muayyan choralar ko‘rishni talab qildi. Urush yillarida bolalar sog‘lig‘iga yetgan zararlarni hisobga olib, O‘zbekiston SSR Xalq ta’limi vazirligi bolalar bog‘chalari tarmog‘ini kengaytirish va bolalarni ushbu muassasalarga jalb qilish bo‘yicha bir qator qarorlar qabul qilindi. Bu qarorlarda bolalar sog‘lig‘ini yaxshilash uchun zarur chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan edi. Biroq, urushdan keyingi dastlabki yillarda sog‘liqni saqlash tizimiga ajratilgan mablag‘lar cheklangan edi, bu esa tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatiga ta’sir ko‘rsatdi. Sohaning ishi miqdor ko‘rsatkichlarga qarab baholanib keldi va sifat ko‘rsatkichlari kutilgan natijalarni to‘liq bermadi. Bolalar o‘rtasida kasalliklar va o‘lim yuqoriligicha qoldi. Bu esa tub o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab qilardi [1.10.].

1946-yildan boshlab SSSRda maktabgacha ta’lim tizimini qayta tiklash va faoliyatini davom ettirishga qaratilgan ko'plab qarorlar va normativ hujjatlar qabul qilina boshlandi. Asosiy e’tibor bolalarning sog‘lig‘ini himoya qilish, ular uchun sharoit yaratishga qaratildi. Jumladan, 1946-yilda SSSR Sog‘liqni saqlash Ministrligi tomonidan “Shahar maktab va bolalar bog‘chalarida tibbiy xizmatni yaxshilash haqida” gi 449-sonli qarori, 1283-sonli qaror bilan «Sil kasalligi bilan kasallangan bolalar uchun sanatoriy bolalar bog'chalari to'g'risidagi Nizom» қабул қилинди [13.].

1950-yil 16-noyabrda O‘zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 2014-sonli “Bolalar bog’chalari faoliyatini yaxshilash to’g’risida”gi qarori e’lon qilindi. Ushbu qaror bolalar yasli va bog’chalarida parvarish, bolalarni ovqatlantirish, ularni salomatligini nazorat qilib boorish yuzasidan keng qamrovli tadbirlarni amalga oshirishga asos bo‘ldi. Shundan so‘ng sanitar talablariga javob bermaydigan yasli va bog‘chalar yopildi, mavsumiy yaslilar ustidan nazorat kuchaytirildi. Qaror chiqqandan so‘ng sanitar talablariga javob beradigan yasli v a bog‘chalar tashkil etish, ular uchun yangi binolar qurish ishlari kuchaytirildi va Respublika bo‘yicha ularning soni ortib bordi. Ushbu muassasalar faoliyati, bolalar salomatlik holati to‘liq tibbiy nazorat ostiga olindi, kasalliklarga qarshi emlash ishlari yaxshilandi [2.26.].

1950–1960-yillarda O‘zbekistonda bolalar bog‘chalarida tibbiy xizmat ko‘rsatish holati urushdan keyingi tiklanish va rivojlanish jarayonlari bilan bog‘liq holda yaxshilandi. Bu davrda sog‘liqni saqlash tizimiga ajratilgan mablag‘lar sezilarli darajada oshdi. O'zbekistonning urushdan keyingi yillarda sog'liqni saqlashni rivojlantirishga juda kam mablag' sarflandi. Statistik manbalarga ko'ra, faqat 1950-yillarda vaziyat yuzaga kelgan sezilarli darajada yaxshilangan.

Bu davrda O‘zbekiston qishloq joylarda joylashgan doimiy kolxoz bolalar bog‘chalarida tibbiy xizmat ko‘rsatish jiddiy muammolarga duch kelgan [5.67.]. Garchi ushbu bog‘chalarga rasmiy ravishda tibbiy xodimlar biriktirilgan bo‘lsa-da, ular amalda o‘z vazifalarini to‘liq bajarmagan yoki umuman faoliyat yuritmagan [6.6.]. Tuman sog‘liqni saqlash boshqarmalari va qishloq vrachlik punktlari kolxoz bog‘chalarini nazorat qilmagan.

Kadrlar yetishmovchiligi natijasida qishloq bog‘chalariga biriktirilgan vrachlar kam kelgan yoki umuman kelmagan. O‘rta maxsus tibbiy ma’lumotga ega hamshiralar ham yetarli emas edi. Bu sababli, bolalar orasida skarlatina, difteriya, koklyush, dizenteriya, dispensiya, ochagovaya pnevmoniya kabi infeksion kasalliklar keng tarqalgan [5.67.].

1956-yildan boshlab SSSRda sog‘liqni saqlash tizimida muhim o‘zgarish amalga oshirildi. Xususan, bolalar yaslilarida (ya'ni 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar tarbiyalanadigan muassasalarda) ishlovchi shifokorlar endilikda bevosita kasal bolalarni davolash ishlaridan ozod qilindi [7.64,]. Bu o‘zgarishning mohiyati shundaki, endilikda bolalarning sog‘lig‘i bilan bog‘liq davolovchi vazifalar ularning yashash joyidagi bolalar poliklinikalariga, ya'ni uchastka pediatrlari va boshqa mutaxassislar zimmasiga yuklatildi. Bu holat sog‘liqni saqlash tizimini ixtisoslashtirish va shifokorlar mehnatini samarali tashkil qilish yo‘lida tashlangan muhim qadam edi. Bolalar yaslilaridagi vrachlar endi ko‘proq profilaktika ishlariga, ya’ni sog‘lomlashtirish, gigiyena

nazorati, bolalarning rivojlanishini kuzatish kabi yo‘nalishlarga e’tibor qaratishlari kerak edi. Ammo, bu vazifalar o‘zgarganiga qaramay, shtat birliklari (ya'ni har bir muassasaga to‘g‘ri keladigan vrachlar soni) va ularning mehnat me’yorlari qayta ko‘rib chiqilmadi. Boshqacha aytganda, eski me'yorlar saqlanib qolgan, holbuki ish hajmi va xarakteri sezilarli darajada o‘zgargan edi. Bu qaror vrachlar faoliyatini ixtisoslashtirishni ko‘zlagan bo‘lsa-da, amalda ko‘plab bog‘chalarda vrachlar shtatining ishsiz qolishiga, tibbiy xizmat hajmining qisqarishiga olib keldi.

1958-yilning bahorida, respublika sovxozlarida sog‘liqni saqlash tizimi tomonidan 1600 kishiga mo‘ljallangan 72 ta yasli tashkil etilgan. Biroq, ushbu muassasalarda xamshiralar ko‘pincha bir-biridan uzoqda joylashgan bir nechta (2-3) yaslilarga xizmat ko‘rsatishga majbur bo‘lishgan. Bu holat, tibbiy yordamning samaradorligini pasaytirgan va bolalar uchun zarur bo‘lgan tez va sifatli tibbiy xizmatni ta’minlashda qiyinchiliklar keltirib chiqqan. Tibbiyot xodimlarining ish joylari orasidagi katta masofa tufayli, tibbiy yordamni tezkor va muntazam ko‘rsatishning imkoni cheklangan edi [8.6.].

1961-yil 21-oktabrda RSFSR Sog‘liqni saqlash Ministrligi tomonidan tasdiqlangan “Yasli-bog‘chada bolalarga meditsina xizmati ko‘rsatishni tashkil qilish” metodik xati, Sovet Ittifoqining barcha respublikalari, shu jumladan, O‘zbekistonda ham amalga oshirildi. Ushbu huquqiy hujjat, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni to‘g‘ri tashkil etishning muhim yo‘l-yo‘riqlarini belgilab berdi.

Metodik xatda bolalarning o‘sishi va rivojlanishiga xos yosh xususiyatlari e’tiborga olinishi kerakligi ta’kidlangan. Xususan, yasli-bog‘chaga bola qabul qilish, yosh guruhlari bo‘yicha ajratish (masalan, “yasli yoshidagi bolalar guruhlari” va “maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlari”) kabi masalalarga aniqlik kiritildi [3.68.].

1960–1980-yillar oralig‘ida O‘zbekiston SSRda maktabgacha ta’lim muassasalarini rivojlantirish bo‘yicha qator tashkiliy va pedagogik choralar ko‘rilgan bo‘lsa-da, amalda joylardagi ahvol ko‘p hollarda markaziy siyosatga mos kelmas edi. Xususan, Buxoro oblasti Romitan tumanidagi 1-bolalar yaslisida 200 nafar bolalar tarbiyalanayotganiga qaramay, ushbu muassasada tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan hamshira shtati mavjud emas edi [9.22.]. Bu holat, bolalar salomatligi va gigiyena talablarining jiddiy e’tiborsiz qoldirilganidan dalolat beradi.

Mazkur davrda qishloq maktabgacha tarbiya muassasalarida tibbiy holat talab darajasida emasdi. Xususan, oliy ma’lumotli tibbiy xodimlariga talab yuqori bo‘lib, umuman olganda, ko‘plab bog‘chalarda vrachlar va hamshiralar yetishmagan [10.72.]. Bundan tashqari, 1680 ta maktabgacha tarbiya muassasalarida tibbiy punktlar tashkil etilmagan. Ayrim maktabgacha tarbiya muassasalarida sanitar-gigiyena qoidalariga to‘la rioya qilmaslik oqibatida yuqumli kasalliklar ko‘paygan [4.6.]. Hususan, Buxoro oblasti Kogon tumanidagi sovxozga qarashli bolalar bog‘chasida o‘tkazilgan tekshiruvlar natijasida ma’lum bo‘lishicha, bu yerda muassasa vrachi yetti oy mobaynida ish joyida umuman bo‘lmagan [9.22.]. Bu esa, bolalar salomatligini

nazorat qilish, kasalliklarning oldini olish va tibbiy-profilaktik choralarni o‘z vaqtida amalga oshirish imkoniyatining mavjud emasligini ko‘rsatadi.

1973-yilda Samarqand oblastida faoliyat yuritgan maktabgacha tarbiya muassasalarida sog‘liqni saqlash sohasida jiddiy muammolar mavjud edi. Sog‘liqni saqlash bo‘yicha muhim tadbirlardan biri bo‘lgan muntazam tibbiy ko‘riklar esa maktabgacha tarbiya muassasalarida tizimli ravishda tashkil etilmagan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ana shu yilda ushbu muassasalarda tarbiyalangan har 1000 nafar boladan 695,2 nafari turli xil kasalliklarga chalingan [11.43.]. Bu ko‘rsatkich ushbu davrda maktabgacha yoshdagi bolalar orasida kasalliklar keng tarqalganini, mavjud sanitariya-gigiyena holatining talab darajasida emasligini tasdiqlaydi.

Alohida qayd etish kerakki, eng ko‘p uchraydigan kasalliklardan biri — grip kasalligi bo‘lib, u har 1000 nafar bola hisobiga 825 ta holat bilan arxiv hujjatlarida qayd etilgan [11.43.]. Bu esa nafaqat bolalar organizmining yuqumli kasalliklarga bo‘lgan yuqori sezuvchanligini, balki bog‘chalarda kasalliklarning oldini olish choralarining yetarlicha amalga oshirilmaganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, bu kabi misollar maktabgacha ta’lim muassasalarining nafaqat pedagogik, balki sanitariya-gigiyenik jihatdan ham jiddiy e’tiborga muhtoj bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bu kabi holatlar o‘rganilganda, sovet davrida ijtimoiy sohalarga oid qabul qilingan siyosat va rejalarning joylardagi real ijrosi o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud bo‘lganini isbotlaydi.

Xulosa

Urushdan keying yillarda O‘zbekiston qishloqlaridagi bolalar bog‘chalari tibbiy xizmat ko‘rsatish jihatidan juda og‘ir ahvolda bo‘lgan. Kadrlar yetishmovchiligi, sanitariya talablarining buzilishi va tibbiy nazoratning yo‘qligi bolalar orasida turli kasalliklarning tarqalishiga olib kelgan. Keyinchalik davlat tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar ushbu muammolarni bosqichma-bosqich hal etishga yordam bergan. Sog‘liqni saqlash tizimiga ajratilgan mablag‘larning oshishi, tibbiy muassasalar sonining ko‘payishi va davlat tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida bolalar bog‘chalarida tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati birmuncha yaxshilandi.

1970-yillarning o‘rtalarida, xususan 1975-yilda O‘zbekiston SSRning Xorazm va Buxoro viloyatlarida faoliyat yuritgan maktabgacha tarbiya muassasalarida sanitariya-gigiyena me’yorlariga rioya qilinmasligi, tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimining zaifligi aniq ko‘zga tashlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Расулова N. Ўзбекистонда педиатриянинг ривожланиш тарихи. Тиббиёт фанлари номзоди илмий даражаси учун диссертация. Тошкент, 2006. Б.10.

2. Махсумов М. Ўзбекистонда иккинчи жаҳон урушидан кейин оналик ва болаликни муҳофаза қилишнинг ривожланиш босқичлари. Тиббиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2006. Б.26.
3. Мактабгача тарбия справочниги: асосий қонуний ва инструктив ҳужжатлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б.68.
4. Сборник важнейших постановлений и приказов. – Ташкент, 1981. – С. 6.
5. O‘z MA, R.94-fond, 5-ro‘yxat, 5501-ish, 67-varaq.
6. FVDA, 2-fond, 9-ro‘yxat, 1-ish, 6-varaq.
7. 837-41-1753-64-bet
8. ФВДА 2-91-1 -6- бет
9. O‘z MA, 2582-fond, 1-ro‘yxat, 2313-ish, 22-varaq.
10. O‘z MA, R.94-fond, 8-ro‘yxat, 108-ish, 72-varaq.
11. O‘z MA, R.2582-fond, 1-ro‘yxat, 2116-ish, 43-varaq.
12. https://old.uzavtoyul.uz/uz/post/muhokamada-maktabgacha-talim-tizimi.html
13. https://docs.cntd.ru/document/561311217/titles/65C0IR

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYONDALARINING TURKISTON MUHTORIYATINI TASHKIL ETISHDAGI ISHTIROKI

Olimova Zulfiyaxon Ibrohimjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti Tarix yo’nalishi 3-bosqich talabasi
zulfiyaolimova98@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati namoyondalarining Turkiston muhtoriyatini tashkil etish jarayonidagi o‘rni va faoliyati yoritiladi. Jadidlar o‘zbek xalqining siyosiy, madaniy va ijtimoiy uyg‘onishida muhim rol o‘ynagan bo‘lib, ular Turkiston o‘lkasida milliy davlatchilik g‘oyasini ilgari surgan va amaliy choralar ko‘rganlar. Shuningdek, muhtoriyatning tarixiy ahamiyati, uning qisqa muddat faoliyat yuritishiga qaramay, o‘zbek va boshqa turkiy xalqlarning milliy ongini uyg‘otishdagi hissasi ham o‘z aksini topadi. Maqola yakunida jadidchilik harakatining milliy mustaqillik g‘oyalari rivojiga qo‘shgan hissasi xolisona baholanadi.

Kalit so’zlar: muhtoriyat, Rossiya imperiyasi, Romanovlar, “Sho’roi Islomiya”, Farg’ona, K.Ramonberdiyev, T.Norbo’tabekov, Qo’qon, Turkiston, Xavaskoroni maorif”, “Turon”, “Talabalar jamiyati”.

Аннотация: В данной статье освещается роль и деятельность деятелей джадидистского движения, возникшего в Туркестане в начале XX века, в процессе организации Туркестанской автономии. Джадиды сыграли важную роль в политическом, культурном и социальном пробуждении узбекского народа, они продвигали идею национальной государственности в Туркестанском крае и принимали практические меры.ннотация: В данной статье освещается роль и деятельность деятелей джадидистского движения, возникшего в Туркестане в начале XX века, в процессе организации Туркестанской автономии. Джадиды сыграли важную роль в политическом, культурном и социальном пробуждении узбекского народа, они продвигали идею национальной государственности в Туркестанском крае и принимали практические меры. Историческая значимость мухтариата, его вклад в пробуждение национального сознания узбекского и других тюркских народов, несмотря на его недолгую деятельность, также находит свое отражение. В заключении статьи объективно оценивается вклад джадидистского движения в развитие идей национальной независимости.

Ключевые слова: мухтарият, Российская империя, Романовы, “Шорой Исламия”, Фергана, к.Рамонбердиев, Т.Норботабеков, Коканд, Туркестан, Хаваскорони маориф”, “Турон”, “студенческое общество”.

Annotation: This article highlights the role and activities of the exponents of the jadidism movement that arose in Turkestan at the beginning of the 20th century in the process of organizing the Turkestan seal. The jadids played an important role in the political, cultural and social awakening of the Uzbek people, who promoted the idea of national statehood in the Turkestan territory and took practical measures.nnotation: this article highlights the role and activities of the exponents of the jadidism movement that arose in Turkestan at the beginning of the 20th century in the process of organizing the Turkestan seal. The jadids played an important role in the political, cultural and social awakening of the Uzbek people, who promoted the idea of national statehood in the Turkestan territory and took practical measures. Also reflected is the historical significance of the seal, its contribution to awakening the national consciousness of Uzbek and other Turkic peoples, despite its short existence. At the end of the article, the contribution of the jadidism movement to the development of ideas of national independence is objectively evaluated.

Keywords: muhtoriyat, Russian Empire, Romanovs,” Shoroi Islamiya", Fergana, K.Ramonberdiyev, T.Norbotabekov, Kokand, Turkestan, Khavaskoroni maorif”, “Turon”, “Student Society”.

KIRISH

XX asrda Rossiya imperiyasida sodir bo’lgan fevral inqilobi, uch yuz yildan ortiqroq vaqt davomida hukmronlik qilgan Romanovlar sulolasining taxtdan ag’darilishi Turkiston o’lkasidagi taraqqiyparvar kuchlar tomonidan ham behad xursandchilik kayfiyatida kutib olindi. 1917-yildagi Turkistonning ijtimoiy – siyosiy hayotida eng muhim masalalardan biri sifatida Turkiston o’lkasidagi yangi boshqaruv usulidagi davlatchilik asoslarini tashkil qilish edi. O’sha davrdagi tarixiy shart – sharoitlarda milliy davlatchilikka ega bo’lish g’oyasi turli xil tashkilot va partiyalarning o’zaro kurashida asosiy qurolga aylangan edi. Jadid namoyondalarining intilishlari Turkistonda federatsiya asosida milliy – demokratik ruhdagi davlatchilik asoslarini yaratishga qaratilgan edi. Jadidlarning muhtoriyat yana bir so’z bilan ifoda qilganda avtnomiya, davlatchilik to’g’risidagi g’oyalari o’sha davrdagi Rossiyada mavjud siyosiy – ijtimoiy va inqilobiy holat bilan chambarchas bog’liq holda shakllanib keldi. Ular mustamlaka xalqlarning Rossiya imperiyasidan butunlay mustaqil holda chiqib ketishlarini hali kun tartibidagi masalalarga qo’ymagan ham edilar. Chunki Rossiya imperiyasidek kuchli imperiya changalidan asta – sekinlik bilan, oqilona nozik siyosat yurgizish orqali butunlay mustaqillikka erishish mumkinligini jadidlar yaxshi anglagan edilar. Mahalliy ilg’or ziyolilar zudlik bilan malliy jamiyat va nashrlar uchun harakat boshladilar. 1917-yil marta oyining boshlarida o’lka musulmon ziyolilarining “Sho’roi Islomiya” jamiyati tashkil etildi. Bu tashkilotning tashkil etilishi tasodifiy bo’lmay, balki Turkiston xalqlari siyosiy fikr va qarashlari tadrijiy

rivojlanishining qonuniy mahsuli edi. Uning tarkibida turli xil fikrlovchi, ammo milliy ozodlik g’oyalarini o’zlarining asosiy maqsadi deb biluvchi ziyolilar qatlami tashkil etar edi. Mazkur tashkilotning yuzaga kelishida Turkiston jadidlari muhim va asosiy rol o’ynagan. Taniqli jadid namoyondasi Mirmulla Shermuhammad o’g’li dastlabki vaqtlardanoq barchani “Sho’roi Islomiya”ni qo’llab – quvvatlashga va birdamlikka davat etgan edi. Bunga misol tariqasida quyidagi so’zlarni keltirishimiz mumkin: “Aziz dindoshlar! Ushbu vaqt g’oyat muhim. Hamda har minutdan bekor o’tkazmasdan ishga tutunarlik vaqt, taassub, jaholat, nifoqlarni oramizdan ko’tarib, bir –birimiz ila qo’l ushlashib ittifoq uzra qusurlarimizni maydonga qo’ymoq va uni choralarini so’ylamoqqa tashabbus etmak kerak, tafarrukalik balosi, ittifoqsizlik kasallari, bizlarni har bir taraqqiylarimiz sad chekkanlarin hayolimizdan chiqarmayluk. “Sho’roi Islomiya”ga moddiy va ma’naviy jihatlardan yordam berub, olarni quvvat topmog’iga bor himmatimizni sarf etmog’imiz kerak!” [29].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O’sha davr manbalarining ma’lumot berishicha, Turkiston o’lkasida tez orada turli xil shaharlarda “Sho’roi Islomiya” ning sho’balari tashkil etildi. 1917-yil 25-mayda Qoqonda Farg’ona viloyati musulmonlari syezdi bo’lib o’tdi. Viloyat “Sho’roi Islomiya” tashkiloti mazkur syezdning tashkilotchilaridan bo’ldilar. Ushbu syezdda 42 ta musulmon tashkilotlaridan 98 nafar delegatsiya a’zolari ishtirok etdilar. Prezidiumga S.Akayev, K.Ramonberdiyev, T.Norbo’tabekov, O.Mahmudov, A.Ziyoyev, Ya.Yaxyoxonov, A.Umarboyevlar saylandilar. Syezd o’lka “Sho’roi Islomiya” siga viloyatdan ikki kishi: Mirodil Mirzaahmedov va Olimxonto’rani vakil sifatida tayinladi. T.Norbo’tabekov esa, Farg’ona viloyatidan Muvaqqat hukumat Turkiston komiteti huzuridagi majlisga a’zo sifatida saylandi.

Jadid namoyondalari xalqni “Sho’roi Islomiya” atrofida jipslashishga da’vat qildilar. “Sho’roi Islomiya” Qo’qon bo’limining aholiga murojaatnomasida shu munosabat bilan quyidagi fikrlarni bildirdi:

“…Muhtaram ozod musulmonlar! Ishonchingiz komil bo’lsinki. Qo’qo musulmonlari bir ovozdan tashkil etgan “Sho’roi Islomiya” yangi tashkiloti har doim musulmonlar manfaatiga xizmat qiladi. Bu tashkilot doimo tinchlik hotirjamlik uchun harakat qiladi. Agar barcha musulmonlar birgalikda tinchlik va tartibni saqlashsa, bu, biz hamma musulmonlarning foydasiga bo’ladi. Lekin tinchlik – hotirjamlikni namoyon etmay, har xil quruq gaplarga quloq solsak, bizga berilgan ozodlikdan foydalana omaymiz” [30].

Ma’lumot o’rnida shuni ham aytib o’tishimiz mumkinki, 1917-yilning mart oyida Qo’qonda 1-musulmonlar madaniy – ma’rifiy jamiyati tashkil etildi. 1917-yilning 20-mart sanasida Qo’qonda bo’lib o’tgan musulmon fuqarolarining umumiy yig’ilishida “Musulmon madaniy – ma’rifiy jamiyati” tuzilganligini e’lon qilindi. Hamda mazkur jamiyat aprel oyida Farg’ona viloyati harbiy gubernatorligi tomonidan rasmiy tarzda ro’yxatdan o’tkazildi. 20-mart sanasida bo’lib o’tgan yig’ilish qaydnomasida ko’rsatilganidek, jamiyatning asosiy maqsadi

[29] Mirmulla Shermuhammadiy. Ittifoq zamoni. //Najot, - 1917. 31-mart.
[30] O’z FA. O’zbekiston xalqlari tarixi muzeyi arxivi. № B-706.

musulmon xalqi orasida maorif hamda madaniyatni kengroq yoyish hamda ularni yanada birdamlikka chaqirishdan iborat bo’lgan. Ushbu yig’ilishda jamiyat raisi, bshqaruv hay’ati saylangan. Tashkilotning nizomida belgilanishicha, jamiyatning a’zolari va ularning oilalari o’rtasida madaniy sohadagi ishlarni olib borish, ularning ijtimoiy holatlarini yaxshilashga intilish asosiy maqsad va vazifaaridan hisoblangan. Jamiyat bir nechta huquqlarga ega bo’lgan. Quyida ularni yanada yaxshiroq bilib olishimiz mumkin:

- Bolalar va kattalar insonlar uchun turli xildagi o’quv muassasalari, ya’ni umumta’lim va hunar maktablari, kutubxona va klublar tashkil qilish, spektakllar va ma’ruzalari o’qishni tashkil qilish;
- O’z mulkiga ega bo’lish har xil kulfatli hodisalar oqibatida zarar ko’rgan a’zolarning oilalariga oddiy jihatdan yordam berish va boshqa holatlarni keltirishimiz mumkin.

Ushbu jamiyat haqiqiy va faxriy a’zolardan tashkil topgan. Haqiqiy a’zolikka jinsidan qat’iy nazar a’zolik badalini to’lagan fuqarolar qabul qilingan. Faxriy a’zolikka esa jamiyatning umumiy yig’ilishi qarori bilan qabul qilingan. Tashkilotning jamg’armasi a’zolik badallari va hayriya mablag’lari hisobidan to’langan.

Butun Turkiston o’lkasida bo’lgani kabi, Farg’ona vodiysida ham jadidlar tomonidan barcha mahalliy jamiyatlarni yagona tashkilot tizimi qilib birlashtirish harakatari davom etdi. 12-14-iyul sanalarida Skobelev shahrida musulmon tashkilotlari vakillarining navbatdagi syezdi bo’lib o’tdi. Mazkur syezdda 137 nafar delegatsiya a’zolari qatnashdilar. Anjuman barcha musulmon tashkilotlarini siyosiy jihatdan birlashishga chaqirdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bu davrda Turkistonning ko’plab shaharlarida yangi partiyaning tashkiliy yig’ilishlari o’tkazildi. Jumladan, 23-avgust kuni Anijonda “Xavaskoroni maorif”, “Turon”, “Talabalar jamiyati” tashkilotlari vakillari tomonidan “Turk adami markaziyati” tashkilotlarining vakillari tomonidan “Turk adami markaziyati” firqasining Muvaqqat qo’mitasi tuzildi. Uning tarkibiga Xusan Eshonxo’ja Sohib afandi, Isroil Yusufzoda va boshqalar saylandilar. 20-avgust sanasida Marg’ilon shahrida ikki ming kishilik miting bo’lib o’tdi. Unda mahalliy tashkilot hisoblangan “Sho’roi Islomiya” tashkiloti faollari yig’ilganlarni shaharda federalistlar firqasi sho’basini tuzishga chaqirdilar. Taraqqiyparvar ziyoli shaxslar tomonidan ishlab chiqilgan firqaning maromnomasini o’lkada demokratik ruhdagi davlat qurishning nazariy asosi edi deyish mumkin.

Turkiston o’lkasidagi demokratik jarayonlarning rivojlanishida vodiyda mavjud qirg’iz milliy jamiyatlari ham faol qatnashdi. 1917-yil 17-iyun sanasida Andijonda “Elatiya” deb nomlangan jamiyat tuzilib, uning rahbar hay’atiga Kenja Ali Do’stov, Sulaymon Kelganboyev, Botirjon Meirbekov va boshqa shaxslar a’zo sifatida qabul qilindilar. Jamiyat o’z oldiga quyidagi vazifalarni qo’ygan edi: “1) ko’chmanchi aholini Rossiyadagi yangi davlat tuzumi g’oyalari bilan tanishtirish; 2) Ta’sis Majlisiga tayyorgarlik; 3) yangi ijtimoiy – siyosiy jamiyat uchun tayanch bo’luvchi jamoatchi kuchlarni tashkil qilish; 4) qirg’izlar orasida huquqiy tartibotni joriy qilish; 5) qirg’iz, qipchoq va qozoqlarni o’z milliy va siyosiy – iqtisodiy

manfaatlari himoyasi uchun yagona ittifoqqa birlashtirish g’oyalarini tashviq qilish; 6) gazeta tashkil qilish v.h.” [31].

Vodiyning Andijon, Namangan, Skobelev kabi shaharlarida oktyabr voqealari arafasida ham o’lkadagi milliy ruhdagi harakatlar rivojlanish jarayonini o’zida ifoda etgan ko’plab yig’inlar bo’lib o’tdi. Ammo 1917-yilning oktyabr – noyabr oylriga kelganda o’lkadagi siyosiy vaziyat keskin o’zgardi. Petrogradda hokimiyatni zudlik bilan qo’lga olinishi Turkiston o’lkasidagi taraqqiyparvarlarning o’z rejalarini o’zgartirishiga majbur qildi. Oradan ko’p vaqt o’tmay Toshkentda 15-22-noyabr kunlari ishchi, soldat va krestyan deputatlari Sovetlarining III o’lka syezdi bo’lib o’tdi. Syezd so’l eser, bolshevik va maksimalistlardan tashkil topgan Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tuzilganligini e’lon qildi. Ushbu hukumatning tarkibiga mahalliy aholidan birorta ham vakil kiritilmadi. Turkiston Xalq Komissarlari Soveti dastlabki kunlaridanoq o’zining shovinistik yangicha ko’rinishdagi mustamlakachilik siyosatini olib bordi.

1918-yil 10-11-yanvar kunlari Andijonda “Muayyan ul-islom” jamiyati idorasida musulmon jamoat tashkilotlarining syezdi bo’lib o’tdi. “Delegatlar tomonidan uyezd ma’muriyatidagi barcha shaxslardan Turkiston Muhtoriyati Muvaqqat hukumatini tan olganligi haqidagi tilxatni olish uchun syezd orezidiumi a’zolaridan maxsus komissiya tuzish haqida taklif bildirildi. Bundan tashqari muhtoriyatni qo’llab- quvvatlash va mustahkamlash uchun har bir volostdan vakillarni jalb etgan holda xalq militsiyasini tashkil qilish haqida qaror qilindi” [32]. Bolsheviklar har qabday yo’l bilan bo’lsa ham, Turkiston Muhtoriyatiga xalqni qarshi qo’ymoqchi bo’ldilar. Bularga javoban, Farg’ona viloyati musulmon mehnatkashlarining syezdi musulmon mehmatkashlari barcha vositalar bilan Muhtoriyatni qo’llab – quvvatlashini bildirdi. Shunday qilib Turkiston Muhtoriyati millatlarning o’z taqdirini o’zi belgilash masalasini demokratik yo’l bilan hal etishga bel bog’lagan aholi irodasi va ilg’or ziyolilarning ko’tarinki xatti – harakatlari zaminida vujudga keldi. Tabiiyki zo’ravonlik shovinizm bilan qurollangan yangi mustabid bolsheviklar milliy mustaqillikka intilishning har qanday ko’rinishida tish – tirnog’I bilan qarshi edilar. Mazkur harakatning boshida turgan ilg’or, hur fikrli ziyolilar, fidoyi insonlar esa uzoq yillargacha ‘xalq dushmani” degan soxta nom yomonlab kelindi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, jadidchilik harakati namoyondalarining Turkiston Muxtoriyatini tashkil etishdagi ishtiroki – bu o‘z davrida milliy o‘zlikni anglash, siyosiy uyg‘onish va erkinlik sari dadil intilishning yorqin namunasi bo‘lib, O‘rta Osiyo tarixida chuqur iz qoldirgan voqealardan biridir. XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tarkibida yashayotgan musulmon xalqlarning mustamlaka zulmiga qarshi ongli ravishda kurash olib borgan jadid ziyolilari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mustafo Cho‘qayev, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev va boshqa fidoyi arboblar Turkiston xalqlarini siyosiy

[31] Знания свободи. 1917.-21 июн.
[32] Свободний Туркестан. 1918. - 15 фев.

sahnaga olib chiqishga harakat qildilar. Biroq, bu tarixiy tajriba mustamlakachilik kuchlari tomonidan zo‘ravonlik bilan to‘xtatildi. 1918-yil boshida Sovet qo‘shinlarining Qo‘qon shahriga bostirib kirishi va muxtoriyatni qurolli kuch bilan tugatishi, minglab begunoh insonlarning hayotiga zomin bo‘ldi. Shu bilan birga, bu fojiali yakun jadidlarning orzu-umidlarini so‘ndira olmadi. Ularning g‘oyalari, milliy uyg‘onish harakati, mustaqillik sari yo‘naltirilgan ezgu intilishlari keyingi avlodlarga meros bo‘lib qoldi. Shunday qilib, jadidchilik harakati va uning Turkiston Muxtoriyatini tashkil etishdagi faol ishtiroki – bu tarixiy bosqichda boshlangan milliy davlatchilik sari yo‘lning muhim qadamidir. Jadidlar o‘z hayotlarini, bilimlarini va kuch-g‘ayratlarini xalq manfaatiga baxsh etgan tarixiy shaxslardir. Ularning faoliyati bugungi kunda ham mustaqil O‘zbekistonning ma’naviy ildizlaridan biri, yoshlarga ibrat bo‘ladigan fidoyilik maktabi sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirmulla Shermuhammadiy. Ittifoq zamoni. //Najot, - 1917. 31-mart.
2. O’z FA. O’zbekiston xalqlari tarixi muzeyi arxivi. № B-706.
3. Знания свободи. 1917.-21 июн.
4. Свободний Туркестан. 1918. – 15 фев.
5. Абдурахимов Н.Х. Туркистон мухторияти: миллий озодлик ҳаракати тарихи. – Тошкент: Фан, 2009.
6. Раҳимов А. Жадидлар ва миллий мустақиллик ғояси. – Тошкент: Академнашр, 2017.
7. Ҳожиев А. Туркистон тарихида жадидлар ҳаракатининг ўрни. // “Ўзбекистон тарихи” журнали, 2002, №4. – Б. 35–42.
8. Cho‘qay M. Turkiston kayg‘usi. – Istanbul: Kaynak Yayınları, 1990.
9. Fitrat A. Milliylik asoslari. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1998.
10. Сиддиқов Ҳ. Туркистон мухторияти ва унинг тарихи ҳақида. // “Шарқ юлдузи” журнали, 1991, №5. – Б. 92–98.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

KORIZLARNING QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI TARIXIY AHAMIYATI (SHEROBOD TUMANI MISOLIDA)

Xoliddinov Nuriddin Oromiddinovich
Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti tyutori,
nkholiddinov@gmail.com, 998996779837

Annotatsiya: Insoniyatning qadimgi makonlaridan biri sifatida tan olingan Surxon vohasining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida muhim va esda qolarli voqea-hodisalar kechganiga tarixiy manbalar guvohlik beradi[1]. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda suvning o‘rni beqiyosdir. Vohamizning issiq iqlimi va tog‘li hududlarning mavjudligini hisobga olgan holda sug‘orish tizimiga alohida e’tibor berilgan. Tog‘li hududlar xo‘jaligida yer osti suvlarining ahamiyati yuqori bo‘lganligini inobatga olsak, korizlar bu borada asosiy sug‘orish inshootlaridan hisoblanadi.

Koriz — yer ostidan suv olib chiqish uchun qo‘l kuchi yordamida qazilgan quduqlar tizimi bo‘lib, asosan qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil hududlarda keng qo‘llaniladi. Bu usul ming yillar davomida turli xalqlar tomonidan suv ta’minoti muammosini hal qilish maqsadida ishlab chiqilgan va o‘zining samaradorligi bilan ajralib turadi.

Ushbu maqolada Surxon vohasining Sherobod tumani hududida joylashgan korizlarning tuzilishi, qurilishi, ekologik va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, ularning bugungi kundagi holati haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: koriz, quduq, Zindon koriz, kanal, sug‘orish tizimi, Zarabog‘, dehqonchilik, iqlim o‘zgarishi, qishloq xo’jaligi.

THE HISTORICAL IMPORTANCE OF IRRIGATION SYSTEMS IN AGRICULTURAL DEVELOPMENT: A CASE STUDY OF SHEROBOD DISTRICT

Annotation: Historical sources confirm that the Surkhan Oasis, recognized as one of the ancient human settlements, has witnessed significant political, socio-economic, and cultural events. Water has always played a crucial role in the development of agriculture. Given the region’s hot climate and mountainous terrain, special attention has been paid to irrigation systems. In the agricultural practices of mountainous areas, underground water sources have held great importance, and karez systems were among the main irrigation structures in this regard. A karez is a system of wells manually dug to extract underground water, commonly used in arid and semi-arid regions. This method has been developed by various civilizations over thousands of years as a solution to water supply challenges and stands out for its

effectiveness. This article provides a detailed analysis of the structure, construction, ecological and social significance, and the current state of karez systems located in Sherobod District of the Surkhan Oasis.

Keywords: karez, well, Zindon karez, canal, irrigation system, Zarabog, agriculture, climate change, rural economy.

ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИРРИГАЦИОННЫХ СИСТЕМ В РАЗВИТИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА: НА ПРИМЕРЕ ШЕРАБАДСКОГО РАЙОНА

Аннотация: Исторические источники свидетельствуют о том, что Сурхандарьинский оазис, признанный одним из древнейших мест обитания человечества, стал ареной значимых политических, социально-экономических и культурных событий. Водные ресурсы играют исключительную роль в развитии сельского хозяйства. Учитывая жаркий климат региона и наличие гористой местности, ирригационной системе уделялось особое внимание. В хозяйстве горных районов подземные воды имели большое значение, и в этом контексте каризы считались основными оросительными сооружениями.

Кариз — это система колодцев, вручную вырытых для подъема подземных вод, широко применяемая в засушливых и полузасушливых регионах. Этот метод был разработан различными народами на протяжении тысячелетий для решения проблем водоснабжения и отличается своей эффективностью.

В данной статье подробно рассматриваются конструкция, строительство, экологическое и социальное значение, а также современное состояние каризов, расположенных на территории Шерободского района Сурхандарьинского оазиса.

Ключевые слова: кариз, колодец, Зиндонский кариз, канал, ирригационная система, Зарабог, земледелие, изменение климата, сельское хозяйство.

KIRISH.

Koriz — bu yer ostidan suv olib chiqish uchun bir nechta quduqlarni o‘zaro bog‘lovchi maxsus kanal tizimidir. Asosiy tuzilishi quyidagi elementlardan iborat:

1. **Suv olish quduqlari** — ular yer yuzasida bir necha metr masofada joylashgan bo‘lib, suv qatlamiga yetib boradi. Quduqlarning chuqurligi suv qatlamining joylashishiga qarab o‘zgaradi.
2. **Yer osti kanallari (tunnel)** — suv olish quduqlari orasida qazilgan maxsus yer osti yo‘laklar bo‘lib, ular yordamida suv bir joydan boshqasiga oqib o'tadi.
3. **Chiqarish qudug‘i** — kanal tizimining oxirida joylashgan va suvni yer yuzasiga olib chiqadigan quduqdir.

Koriz tizimining asosiy ishlash prinsipi — yer ostidagi suv qatlamidan tabiiy ravishda oqib chiqayotgan suvni quduqlar va yer osti kanallari orqali birlashtirishdan iborat. Suv o‘z harakati

davomida tuproqdan filtrlanadi, bu esa suv sifatining yaxshilanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, korizlar suvning sekin oqishini ta’minlab, qurbon suvning yo‘qolishini kamaytiradi va suv resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Suv ko‘pincha yer yuzasiga chiqib, sug‘orish maqsadida ishlatiladi.

O‘zbekiston hududida korizlar asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo va Farg‘ona vodiysining qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil mintaqalarida aniqlangan. Bu hududlarda korizlar qadimdan sug‘orish va ichimlik suvi ta’minoti uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Masalan, Qoraqalpog‘istonda Amudaryo vodiysida ko‘plab koriz tizimlari mavjud bo‘lib, ular hozirgacha mahalliy aholining suv ta’minotida foydalanilmoqda. Bundan tashqari Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Ko‘hitang tog‘ etaklarida joylashgan qishloqlarda ham korizlar aniqlangan bo‘lib ularning ko‘pchiligi Zarabog‘, Qorabog‘, Oqtosh, G‘oz Chorbog‘, hamda Laylagon qishloqlariga to‘g‘ri keladi. Ularning ko‘pchiligi tabiiy sharoit tufayli foydalanishga yaroqsiz xolatga kelib qolgan. Bazilari esa iqlim o‘zgarishi sababli yer osti suvlari sathining pasayib ketishi natijasida qurigan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Ilk korizlar milodning boshlarida qazilgan. Korizlarni qurish asosan qo‘l mehnati asosida amalga oshirilgan. Ularning asosiy maqsadi — yer ostidan oqib chiqayotgan suv qatlamlarini aniqlab, bir nechta quduqlar va kanallar yordamida suvni to‘plash va yer yuzasiga chiqarishdir. Koriz qazishda ba’zan usturlob singari murakkab texnika asbobidan foydalanilgan. Avvalo, suv qatlamining joylashuvi maxsus tajriba va kuzatuvlar orqali aniqlangan. Keyin suv olish quduqlari ketma-ketlikda qazilgan va ularni birlashtiruvchi yer osti kanallari tayyorlangan. Bu jarayon ko‘p vaqt va kuch talab etadi. Shuningdek, qurilishda yerning geologik tuzilishi, suv oqimi yo‘nalishi va quduqlarning chuqurligi hisobga olingan. Ushbu usulda qazilgan korizlar ekologik toza bo‘lib, suvning tabiiy oqimini buzmaydi va suv resurslarini tejashda samarali hisoblanadi. Biroq, qo‘l kuchiga asoslanganligi sababli, qurilish jarayoni sekin va katta mehnat talab qilgan. Dehqonlar korizlarni hamma yerdan ham qazishavermagan. Yer sharoitini, suv sathini bilib, keyin ishga kirishishgan. Korizlar yerning tepa, baland qismidan qazilgan. Birinchi navbatda, korizning diametri olingan. Asta-sekin qazilib, chuqurlashgan sari uni qazish og‘irlashgan. Ana shundan keyin korizlarning diametriga gorizontal va vertikal holatda bir necha yog‘och qo‘yib, aylanib harakatga keladigan asbob yasashgan. Bu asbob-chig‘iriqdir. Koriz ichidagi tosh va qumni, loylarni tepaga chiqarish uchun chelak yasalgan.Chelak asosan tuyaning terisidan tikilgan. Arqonni tuya, ho‘kiz terisidan maxsus tayyorlaganlar.Koriz ichidagi qum, toshlarni tepaga chiqarishda otdan foydalanilgan.Koriz qazish asosan hashar usuli bilan amalga oshirilgan. Koriz suvlari yilning kuz oylarida ko‘paygan, yoz oylarida kamaygan, qish oylarida esa suvi yer yuzasiga ancha yaqin kelib qolgan. Koriz quduqlari yilning bahor oylarida tozalab turilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Yuqorida nomlari zikr etilgan qishloqlarda 7-8 tadan koriz bo‘lgan. Bular Zindon koriz, Qizilboy koriz, Tolkoriz, Kultepa koriz, Yomon koriz, Yetti ko‘z koriz va yana ikkita mayda

koriz. Albatta, qazilgan korizning chuqurligi va suv miqdori ham turlicha bo‘lgan. Korizlar ichida eng chuquri Zindon korizdir. Bu korizning chuqurligi 14 metrga yaqin. Suv miqdori ko‘pi Qizilboy koriz hamda Yetti ko‘z korizlardir. Bu korizlardan 1 soniyada 60 metr^3 atrofida suv chiqarilgan. O‘z navbatida korizlarning uzunligi ham har xil edi. Eng chuqur koriz Zindon korizi. Uning uzunligi 2.5 km. Qizilboy korizning uzunligi 8 km, Zindon koriz quduqlarining oraliq masofasi 20,22,25 metr, diametri 2,5 metr atrofida bo‘lgan.Qizilboy koriz quduqlarining orasi 8-10 m, diametri 3-4 metr. Zarabog‘dagi Yetti ko‘z korizlari 7 ta suv qudug‘idan tashkil topgan bo‘lib, har bir quduqning chuqurligi 4-5 metr, oralig‘i 3-4 metr. Quduqlarning diametri-1.5 metrdan-3 metrgacha boradi.Ushbu koriz suvi 3 km oraliqdagi aholi tomorqasini suv bilan ta’minlaydi. Hozirgi kunda ushbu koriz quduqlarining 3 tasi faoliyat ko‘rsatmoqda.[2] Xatak qishlog‘idan pastda 2-3 chaqirimdan keyin Laylagon qishlog‘i boshlanadi. Laylagonga koriz hayot bermoqda.[3] Koriz qudug‘i suvlari yuqorida nomlari keltirilgan qishloqlar dehqonchiligida qo‘l kelgan.

Koriz tizimlari suvning tabiiy oqimini saqlab qolishga yordam beradi. Yer osti suv qatlamlaridan foydalanishda ular suvning haddan tashqari ko‘p ishlatilishini oldini oladi, bu esa suv qatlamlarining kamayishini sekinlashtiradi va yer osti suvlarining tabiiy muvozanatini saqlaydi. Bundan tashqari, suvning yer yuzasiga sekin va nazoratli tarzda olib chiqilishi tuproqning sho‘rlanishi va eroziyadan saqlanishga yordam beradi[4].

Korizlar ayniqsa qurg‘oqchil hududlarda joylashgan qishloq jamoalari uchun hayotiy ahamiyatga ega. Ular sug‘orish uchun yetarli miqdorda suv ta’minlab, qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga zamin yaratadi. Natijada, mahalliy aholining daromadi oshadi, oziq-ovqat xavfsizligi ta’minlanadi va migratsiya kamayadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston hududida korizlar tarixan muhim suv ta’minoti manbai bo‘lib kelgan, ayniqsa qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil mintaqalarda. Bugungi kunda esa korizlar qisman eskirgan, ayrimlaridan esa foydalanishda davom etilmoqda. Ko‘plab korizlar uzoq yillar davomida tabiiy va insoniy omillar ta’sirida holsizlanib borgan. Ba’zi tizimlar to‘liq ishlashdan to‘xtagan, boshqalari esa qisman tiklangan yoki saqlanmoqda. Qishloq xo‘jaligi va ichimlik suvi ta’minotida boshqa texnologiyalar, xususan, trubali sug‘orish tizimlari va markazlashgan suv ta’minoti ko‘proq qo‘llanilmoqda[5].

Shu bilan birga, ayrim hududlarda korizlarni tiklash va saqlash bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Korizlarni rivojlantirish va saqlash ko‘p jihatdan ekologik barqarorlikni ta’minlash va suv resurslaridan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish uchun zarur. Shu bois korizlar madaniy meros sifatida ham katta qadr-qimmatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., “O‘zbekiston” NMIU, 2016

2. E. Qobilov.Surxon vohasi xo‘jaligi.-Toshkent: Akademnashr, 2012.- b.155.

3. Маев Н. Очерки Бухарского ханства // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып.V.-СПб., 1879.-С.306.

4. Dala yozuvlari. Sherobod tumani Zarabog‘ qishlog‘i, 2022 yil

5. www.lex.uz

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

1945-1991-YILLARDA O‘ZBEKISTON SSR QISHLOQLARIDA PENSIYA VA NAFAQA TA’MINOTIDAGI MUAMMO VA ZIDDIYATLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich
Ma’mun universiteti o‘qituvchisi
E-mail.allaberganov_ollabergan@mail.ru
UO‘K 902.2(575.171). *https://orcid.org/0009-0002-8596-0926*

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif tomonidan Sovet davrida O‘zbekiston SSR qishloqlarida pensiya va nafaqa ta’minoti tizimida yuzaga kelgan muammo va ziddiyatlar Xorazm viloyati misolida yoritilgan. Shuningdek, maqolada Xorazm viloyati qishloqlarida pensiya va nafaqalarni tayinlashda ko‘plab xato va kamchiliklar yuz berganligi arxiv hujjatlari asosida isbotlangan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston SSR, Xorazm, pensiya, ijtimoiy ta’minot, qishloq, kolxoz, nafaqa, arxiv hujjatlari, xotin-qizlar, shikoyat, ariza, ish staji, mehnat daftarchasi.

Аннотация. В данной статье, автором освещены проблемы и противоречия, возникшие в советский период в системе пенсионного и пенсионного обеспечения в селах Узбекской ССР на примере Хорезмской области. Также на основании архивных документов доказано, что при назначении пенсий и пособий в селах Хорезмской области было допущено множество ошибок и недостатков.

Ключевые слова: Узбекская ССР, Хорезм, пенсия, социальное обеспечение, село, колхоз, пенсия, архивные документы, женщины, жалоба, заявление, стаж работы, трудовая книжка.

Abstract. In this article, covers the problems and conflicts caused by the author in the system of pension and pension provision in the villages of the Uzbek SSR during the Soviet period on the example of the Khorezm region. It also proved on the basis of archival documents that the Khorezm region suffered many mistakes and shortcomings in the appointment of pensions and benefits in the villages.

Key words: Uzbek SSR, Khorezm, pension, Social Security, Village, Collective Farm, pension, archival documents, Women, complaint, application, length of service, work book.

Kirish. Ma’lumki, XX asrning ikkinchi yarimida SSSRda kechgan turli xil siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlardagi muammo va ziddiyatlar O‘zbekiston SSR hayotiga jumladan Xorazm viloyatiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

1945-1991- yillar oralig‘ida O‘zbekiston SSR, xususan, Xorazm viloyati qishloqlarida pensiya va nafaqa ta’minoti tizimida jiddiy muammo va ziddiyatlar mavjud edi. Ushbu davrda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining to‘liq ro‘yxati shakllantirilmaganligi, qishloq aholisining tug‘ilganlik to‘g‘risidagi, mehnat faoliyati to‘g‘risidagi, nikoh va ajrim holatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning mavjud emasligi, hujjatlarning soxtalashtirilishi va ma’lumotlarning noto‘g‘ri yuritilishi kabi holatlar esa bu muammo va ziddiyatlarni yanada kuchaytirdi. Ushbu ziddiyatlar nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillariga putur yetkazdi, qishloq aholisining eng zaif qatlamlarini himoya qilish jarayonini sezilarli darajada qiyinlashtirdi. Quyida ushbu muammolarning asosiy sabablari va ularning oqibatlari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1945-1991- yillar oralig‘ida O‘zbekiston SSR xususan, Xorazm viloyati qishloqlarida pensiya va nafaqa ta’minotidagi muammo va ziddiyatlar alohida mavzu sifatida nihoyatda kam o‘rganilgan. Sovet davriga oid “O‘zbekiston SSR tarixi”[1], mustaqillik yillarida yaratilgan asarlar va tadqiqotlarda, jumladan, M.Matniyozovning “Xorazm tarixi”[2], Q.Rajabov mas’ul muharrirligida chop etilgan “O‘zbekiston SSR rahbariyatining ijtimoiy va siyosiy faoliyati (1945-1983-yillar)” [3], A. Mannopov, S. Mirzaahmedova muallifligida “75 -mehru shafqat yillari” [4], D.Yusupov, A.Usmonov muallifligida “Farg‘ona viloyatida ijtimoiy ta’minot masalalari” (1946-1991 yillar) [5] nomli kitoblarda XX asrning 40-90-yillarida Xorazm viloyati qishloqlarida pensiya va nafaqa ta’minoti masalalari, ijtimoiy hayotidagi, muammo va ziddiyatlar qisman bayon qilingan. Shuningdek, ushbu mavzuni o‘rganishda Xorazm viloyat davlat arxivi 170 – fondi, “Xorazm haqiqati” gazetasi, “O‘zbekiston sotsial ta’minoti” jurnali materiallari tadqiqotning manbaviy asosi bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. 1945-1991-yillar oralig‘ida Xorazm viloyati qishloqlarida pensiya va nafaqa ta’minotidagi muammo va ziddiyatlariga oid mavjud manbalarni taxlil qilishda, jumladan ushbu maqolani asoslash jarayonida sinxron usul, qiyosiy tarixiy usul, tarkibiy tahlil kabi usullardan[6] foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston SSR jumladan, Xorazm viloyati qishloqlarida urushdan keyingi 1945-1956-yillarda pensiya va nafaqa ta’minotiga yetarlicha e’tibor berilmagan bo‘lib, bu davrda pensiya va nafaqa ta’minotining yagona tartibi, mexanizmi mavjud emas edi. Natijada aholi orasida ijtimoiy ta’minot organlarining ish faoliyatiga nisbatan ishonchsizlik holati yuzaga kelishiga, shikoyat va arizalarni ko‘payishiga olib kelgan. Aholi noroziligi sababli 1952- yilga kelib viloyatning Xiva, Urganch, Hazorasp va Xonqa tumanlaridagi ijtimoiy ta’minot bo‘limlarining ish faoliyati yuzasidan tekshiruvlar o‘tkazilib jiddiy kamchiliklar aniqlangan[7].

Markaz tamonidan 1956-yil 14-iyulda “SSSR fuqarolarining pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi[8]. Qonunga asosan qishloqlardagi urush va mehnat nogironlariga pensiya ta’minoti belgilandi. Ammo, achinarli tomoni shundaki ushbu qonunda qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan xodimlar (jamoa xo‘jaligi a’zolari)ning pensiya ta’minoti nazarda tutilmagan edi[9].

1956-yil 14-iyulda yangi qonun qabul qilinishiga qaramasdan bu davrda Xorazm viloyatining Qo‘shko‘pir, Shovot, Yangibozor va Urganch tumanlari ijtimoiy ta’minot bo‘limlari ish faoliyatida ko‘plab muammo va ziddiyatlar ko‘zga tashlandi. Natijada aholi tomonidan ariza va shikoyatlar ko‘payishiga olib keldi. Shuningdek, 1956-yilga kelib viloyat qishloqlarida pensiya va nafaqalarni yetkazib berish masalasida ham ko‘plab muammolar mavjud edi. Misol tariqasida viloyatdagi 6825 ta xonadon tekshirilganda pensiya, nafaqalarni yetkazib berish bo‘yicha xizmatni amalga oshiruvchi aloqa bo‘limlari va qishloqlarda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan noqonuniy ravishda pensiya va nafaqadan 2-3 rubl ushlab qolinganligi aniqlangan. Bu holat viloyatning Xonqa va Mang‘it tumanlaridagi qishloqlarda ko‘p kuzatilgan[10].

Yuqoridagi kabi muammolar keyingi yillarda ham davom etgan. Viloyat ijtimoiy ta’minot xodimlari tomonidan 1959-yilda o‘tkazilgan uyma-uy surishtiruv ishlari amalga oshirilishi natijasida viloyatning bir qancha tumanlarida davlat mablag‘ini talon-taroj qilish, pensiya va nafaqalarni kam miqdorda yoki ortiqcha belgilash holatlari uchrab turgan. Tekshiruvlardan aniqlanishicha, Xiva tuman ijtimoiy himoya vakillari 87580 rubl miqdoridagi davlat mablag‘ini talon-taroj qilgan. Javobgar shaxslar ustidan jinoiy ish qo‘zg‘atilib, javobgarlardan 37580 rubl miqdoridagi mablag‘ undirilib, ularning mol-mulki musodara qilingan[11]. Shuningdek, boshqa tumanlardagi ijtimoiy himoya bo‘limlariga to‘langan ortiqcha to‘lov miqdori 10825 rublni tashkil qilgan. Jumladan:

1. Yangiariq tuman ijtimoiy himoya bo‘limida 2 ta holat - 3200 rubl.
2. Qo‘shko‘pir tumanida 5 ta holat - 4515 rubl.
3. Shovot tumanida 2 ta holat - 2900 rubl.
4. Xiva tumanida 1 ta holat - 210 rubl ortiqcha to‘lov qilingan[12].

Yuqoridagi kabi kamchiliklar, talonchiliklar hech ham bartaraf etilmagan. Masalan, 1960-yilda Xorazm viloyati sudi Urganch shahar sudi bilan hamkorlikda viloyatdagi 2762 nafar ijtimoiy ta’minotdan foydalanuvchilarning hujjatlari tekshirib chiqilganda 104 nafar kishiga hech qanday hujjatlarsiz nafaqa tayinlangani aniqlangan. Birgina Xiva tuman ijtimoiy ta’minot bo‘limining 1970 ta pensiya to‘lash bilan bog‘liq vaziyat o‘rganib chiqilishi natijasida 39 ta qonunbuzarlik aniq bo‘lgan[13].

Viloyat qishloqlarida pensiya va nafaqa taminotining yaxshilanishi bevosita 1964-yili 15-iyulda SSSR Oliy Soveti tomonidan “Kolxoz a’zolariga beriladigan pensiya va nafaqalar to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilinishi bilan chambarchas bog‘liq jarayon edi. Ushbu qonun asosida mamlakatda pensiya va nafaqalar to‘lashning yangi tartibi joriy qilindi[14], qonun bilan kolxozchilarning pensiya va nafaqalar olishi yaxshilandi va kolxozchi ayollarga homiladorlik va tug‘ruq nafaqasi beriladigan bo‘ldi[15].

Ammo, yangi qonun qabul qilinishiga qaramasdan Xorazm viloyati qishloqlarida aholini ijtimoiy ta’minlashda, ularga pensiya va nafaqa tayinlash bilan bog‘liq jarayonda quyidagi muammo va ziddiyatlar saqlanib qolaverdi. Jumladan:

- kolxozchilarning ish faoliyatiga oid arxiv hujjatlari yaxshi saqlanmasligi natijada pensiya tayinlashda qator muammolar yuzaga kelgan;

- kolxozchilarga ish haqi to‘g‘risida chalkash va noto‘g‘ri ma’lumotlar berish holatlari davom etgan;

- xodimlarning ish haqi xo‘jalik boshlig‘ining nomiga yozilib kelinish holatlari kuzatilgan;

- kolxozchilarni ertaroq pensiyaga chiqarish maqsadida tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomani sohtalashtirish holatlari yuz bergan;

- 1965-yildan boshlab barcha kolxozlarda mehnat daftarchalari yuritilishi belgilab qo‘yilganiga qaramasdan bu tartib yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan;

- qishloqlarda mehnat daftarchasini yozish uchun arxiv va arxiv ma’lumotlari mavjud emas pensiya va nafaqalar tayinlashda ko‘plab muammo va ziddiyatlarni keltirib chiqargan[16].

- pensiya va nafaqa tayinlash komissiyalari tomonidan ijtimoiy ta’minotga muhtoj aholining ro‘yxati shakllantirilib hisobi yuritmaganligi va tushuntirish ishlari olib borilmaganligi sababli pensionerlarning mablag‘i kuyib ketishiga ba’zi homilador ayollar va yosh bolali onalar nafaqasiz qolishiga olib kelgan[17].

Bu kabi xolatlar asosan viloyatning Yangiariq tumanidagi bir qator kolxozlarda ko‘p kuzatilgan. Jumladan, tumandagi pensiya yoshiga yetgan aholi umumiy 318 nafarni tashkil qilgan bo‘lishiga qaramasdan bor yo‘g‘i 163 nafari ya’ni 51 foizi pensiya olish baxtiga muyassar bo‘lgan, xolos[18].

Natijada qishloqlarda pensiya va nafaqalarni tayinlashda ko‘plab xato va kamchiliklar sababli qishloq aholisi sarson sargardon bo‘lib, hujjatlar qayta tayyorlashga majbur qilingan. 1966-1970-yillar oralig‘ida viloyat bo‘yicha jami 8559 nafar pensiya va nafaqa oluvchi aholi qayta ro‘yxatga olinib tekshirish ishlari amalga oshirilgan. 1971-1975-yillar oralig‘ida viloyatda pensiya va nafaqa bilan ta’minlanganlarning soni 10784 nafarni tashkil qilib, ulardan 6549 nafari qishloq aholisi hisoblangan[19].

1980-yilga kelib viloyatning ko‘plab qishloqlarida aholi ijtimoiy muammolarga duch kelgan va bu muammolar tobora jiddiylashib borgan. Ayniqsa, kolxozchilarga pensiya tayinlashda jiddiy xatolar yuz berib ijtimoiy ta’minot organlari tomonidan hujjatlar soxtalashtirish va pensiyalarni noto‘g‘ri, kam hisoblash holatlari yuz bergan[20].

1984-yilda viloyatning ijtimoiy ta’minot va kasaba uyushmasi bo‘limlari qishloq aholisiga, ayniqsa ishlamaydigan keksa pensionerlarga nisbatan adolatsiz cheklovlar qo‘ygan. Xonqa, Gurlan va Hazorasp tumanlarida ishlamaydigan keksa pensionerlarning dam olish uchun kurortlarga yuborilishi qonunga xilof deb topilgan va ularning pensiyalaridan kurort xarajatlari qaytarib olingan[21]. Bu holat aholida noroziliklarga sabab bo‘lgan.

1985-yilning boshiga kelib, viloyatda jami 71 454 nafar pensiya va nafaqa oluvchi pensiyanerlar bo‘lib, ulardan 49 708 nafari qishloq tumanlarida istiqomat qiluvchilar hisoblanib, qishloqlarda pensiya ta’minotidagi muammolar va ziddiyatlar juda ko‘p uchrab turgan. Jumladan, pensiyaga qo‘shimcha haq olish masalasida ham shahar va qishloq aholisi o‘rtasida katta farqlar mavjud bo‘lib, masalan, mehnat daftarchasida “mashinada sut sog‘ish operatori”

deb yozilgan chorvachilik xodimi pensiyasiga 25 foiz qo‘shimcha haq olish huquqiga ega bo‘lgan bo‘lsa, “sut sog‘uvchi” deb yozilgan, qo‘lda sut sog‘gan xodim esa qo‘shimcha haq olish huquqiga ega bo’lmagan[22]. Faqatgina 1990-yil 1- yanvardan boshlab davlat pensiyasi va nafaqalar tayinlashda qisman bo‘lsa ham adolat tamoyillari qaror topa boshladi. Oddiy kolxoz a’zolari ham mehnat daftarchalari bilan taminlandi. Qishloq aholisini kolxozlarda ishlagan davri to‘laligicha pensiya olish uchun hisobga olinadigan bo‘ldi[23].

Xulosa va takliflar. 1945-1991-yillar davomida O‘zbekiston SSRda, xususan Xorazm viloyatida pensiya va nafaqa ta’minoti tizimi SSSRning ijtimoiy islohotlari doirasida shakllandi. Ko‘plab qonun va qarorlar pensiya, nafaqa to‘lash tartibini belgilab bergan bo‘lsa-da, aslida qishloqlarda pensiya va nafaqa ta’minoti 1965- yildan boshlab joriy qilindi. Ammo sohada ko‘plab muammo va ziddiyatlar saqlanib qolaverdi. 1965-1985 - yillar davomida hujjatlar soxtalashtirilishi, pensiya va nafaqalarni hisoblashdagi xatolar keng tarqaldi. Bunday xolatlardan aziyat chekuvchi oddiy qishloq aholisi bo‘ldi. 1985-1990-yillarda Xorazm viloyatida qishloqlarida pensiya va nafaqa ta’minoti, iqtisodiy inqiroz, tizimning eskirganligi, qishloq va shahar ijtimoiy ta’minotidagi tengsizlik tufayli jiddiy muammolarga duch keldi. Natijada qishloq aholisiga beriladigan pensiya va nafaqalarini ko‘pincha kechiktirish yoki to‘liq to‘lanmaslik holatlari ko‘p uchrab turgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Ўзбекистон ССР тарихи. 4-жилд.-Тошкент: “Фан”, 1971. 217-218-б.
2. Матниёзов М. Хоразм тарихи.2-жилд.-Урганч, 1997. 173-б.
3. Ражабов Қ. Ўзбекистон ССР раҳбариятининг ижтимоий ва сиёсий фаолияти (1945 - 1983 йиллар). - Тошкент: “Фан”, 2020.
4. Маннопов А, Мирзааҳмедова С. 75 меҳру шафқат йиллари. - Тошкент: “Адолат”, 1994. 5-6-б
5. Юсупов Д., Усмонов А. Фарғона вилоятида ижтимоий таъминот масалалари (1946-1991 йиллар). - Фарғона, 2022. 85 б.
6. Шадманова С. Тарих тадқиқотларининг методологияси ва замонавий усуллари. - Тошкент: “Баркамол файз медиа”, 2018. 70-б.
7. Xorazm viloyat davlat arxivi. 170 - fond, 1-ro‘yhat, 36-jild. 26-varaq.
8. Давлат пенцияси тўғрисидаги қонун // “Қизил Ўзбекистон”, 1956 йил 15 июль.
9. Давлат пенцияси тўғрисидаги қонун // “Хоразм ҳақиқати”, 1956 йил 17 июль.
10. Xorazm viloyat davlat arxivi. 170 - fond, 1-ro‘yxat, 82-yig‘ma jild. 4-varaq.
11. Xorazm viloyat davlat arxivi. 170 - fond, 1-ro‘yxat, 131-yig‘ma jild. 4-varaq.
12. Xorazm viloyat davlat arxivi. 170 - fond, 1-ro‘yxat, 131-yig‘ma jild. 5-varaq.
13. Xorazm viloyat davlat arxivi. 170 - fond, 1-ro‘yxat, 155-yig‘ma jild. 50-55-varaqlar.
14. Колхозчилар ҳақида оталарча ғамхўрлик // “Хоразм ҳақиқати”, 1966 йил 26 июнь.
15. Колхоз пенцияси ва нафақаси // “Хоразм ҳақиқиати”, 1968 йил 18 июнь.
16. Қолхозчилар ҳақида оталарча ғамхўрлик // “Хоразм ҳақиқати”, 1966 йил 26 июнь.

17. Пенция ва нафақалар тайинлашдаги масулиятсизлик // “Хоразм ҳақиқати”, 1966 йил 7 июль.

18. Кексаларга ғамхўрликни кучайтирайлик // “Хоразм ҳақиқати”, 1965 йил 10 август.

19. Xorazm viloyat davlat arxivi. 170- fond, 1-ro‘yxat, 351- yig‘ma jild. 134-varaq.

20. Xonqa tuman davlat arxivi. 38 -fond,1-ro‘yxat, 507-yig‘ma jild. 34-varaq.

21. Xorazm viloyat davlat arxivi. 170- fond, 1-ro‘yxat, 416- yig‘ma jild. 148-varaq.

22. Колхозчиларнинг пенсия таъминоти тўғрисида // “Хоразм ҳақиқати”, 1989 йил 21 январ.

23. Меҳнат ва пенция таъминоти // “Хоразм ҳақиқати”, 1989 йил 24 август.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

UDK:314.74

AYOLLAR MIGRATSIYASI VA UNING MILLIY OILAVIY MUNOSABATLARGA TA’SIRI.

Mamatqulov Abdurasul Abdugapporovich
Andijon davlat unversiteti o‘qituvchisi.
mamatqulovabdurasul162@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ayollar migratsiyasining o‘zbek oilasiga ta’siri tahlil qilinadi. Ayollar migratsiyasi jarayonida oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan ijtimoiy, psixologik va madaniy o‘zgarishlar o‘rganiladi. Migratsiya gender rollari, nikoh barqarorligi hamda oilaviy qadriyatlar tizimiga ta’sir ko‘rsatishi ko‘rsatiladi. Empirik ma’lumotlar asosida ayol migratsiyasining oila instituti bilan o‘zaro munosabati yoritiladi.

Kalit so’zlar:ayollar migratsiyasi, gender rollar, transformatsiya, oilaviy qadriyat, nikoh barqarorligi, oila instituti.

ЖЕНСКАЯ МИГРАЦИЯ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА НАЦИОНАЛЬНЫЕ СЕМЕЙНЫЕ ОТНОШЕНИЯ

Аннотация В данной статье анализируется влияние женской миграции на узбекскую семью. Рассматриваются социальные, психологические и культурные изменения, возникающие в семейных отношениях в процессе миграции женщин. Показано, что миграция оказывает воздействие на гендерные роли, стабильность брака и систему семейных ценностей. На основе эмпирических данных раскрывается взаимосвязь между женской миграцией и институтом семьи.

Ключевые слова: женская миграция, гендерные роли, трансформация, семейные ценности, стабильность брака, институт семьи.

WOMEN’S MIGRATION AND ITS IMPACT ON NATIONAL FAMILY RELATIONS

Abstract This article analyzes the impact of women’s migration on the Uzbek family. It examines the social, psychological, and cultural changes that occur in family relationships during the process of female migration. The study highlights how migration influences gender roles, marital stability, and the system of family values. Based on empirical data, the interrelation between women's migration and the institution of the family is explored.

Keywords: women's migration, gender roles, transformation, family values, marital stability, family institution.

XXI asr global dinamik o‘zgarishlar, transmilliy munosabatlar, jahon miqyosidagi inson resurslarining harakatchanligi bilan xarakterlanadigan davrdir. Bu jarayonda migratsiya nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, madaniy, siyosiy va ongiy o‘zgarishlarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, so‘nggi o‘n yilliklarda ayollar migratsiyasi yangi global fenomen sifatida shakllanib, uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, oila institutiga ta’siri va gender rollari transformatsiyasi masalalari dolzarb ilmiy muammoga aylandi.

Migratsiya masalasining falsafiy tahlili inson va uning hayotiy mavqeini o‘rganish, jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy institutlar bilan bog‘liq tarzda yuritiladi. Ayollar migratsiyasi esa ushbu jarayonning muhim va o‘ziga xos tarkibiy qismi bo‘lib, faqat demografik yoki mehnat masalasi emas, balki ijtimoiy ong, shaxs sub’yektligi, madaniy muvozanat va oilaviy tuzilmaning qayta shakllanishi kabi murakkab hodisalar majmuasini qamrab oladi. Jahon miqyosida kuzatilayotgan global migrasion jarayonlar ichida ayollar migratsiyasi alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillar ta’sirida vujudga kelayotgan ayollar migratsiyasi nafaqat mehnat bozorida, balki oila institutlarida ham sezilarli o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Bu jarayon o‘zbekistonlik ayollar hayotida ham aniq namoyon bo‘lib, ularning mehnat migranti sifatida chet elda ishlashlari milliy oila modelidagi munosabatlar muvozanatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ta’kidlash lozimki, an’anaviy o‘zbek oilasida ayolning o‘rni avvalo onalik, rafiqalik va tarbiyachi vazifalari bilan belgilangan. Ammo globallashuv, urbanizatsiya va mehnat migratsiyasi oqibatida ayollar endi nafaqat oilada, balki iqtisodiy faol sub’yekt sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Ular tomonidan chet elda ishlash uchun tashabbus ko‘rsatilishi, ma’lum ma’noda, gender rollari va oilaviy iyerarxiyadagi muvozanatning o‘zgarishiga olib kelmoqda.

Ayollarning migratsiyaga chiqishi natijasida ularning an’anaviy oilaviy vazifalari vaqtincha yoki umuman o‘zgarib ketishi mumkin. Bolalar tarbiyasi, qarindoshchilik munosabatlari, turmush o‘rtog‘i bilan bo‘lgan aloqalar – barchasi mazkur jarayon ta’sirida qayta shakllanmoqda.

XX asr oxiri va 2000-yillarning boshlarida ayollar migratsiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga intilish kuchaydi. Ayollar migratsiyasi bo‘yicha tadqiqotlarning rivojlanishi bir necha bosqichlarni bosib o‘tdi. Dastlab 1970-yillarning o‘rtalariga qadar ayollar migratsiyasi bo‘yicha tadqiqotlar yo‘q edi. Shundan so‘ng oilaviy migratsiyaga e’tibor qaratildi, ammo ayollarning mavjudligi cheklangan e’tiborga ega bo‘ldi. 1980-yillarda migratsiya jarayoni va joylashuvdagi gender farqlarini tan olgan holda, ayollarning migratsiyadagi faolligini ta’kidlovchi muhim ishlar paydo bo‘ldi. Nihoyat, 1990-yillarning oxiridan boshlab, “migratsiyaning feminizatsiyasi” atamasi ayollarning migratsiya

oqimlarida tobora ko‘proq ishtirok etishini tasvirlash uchun keng qo‘llanila boshlandi[33]. Ayollar migratsiyasi har doim xalqaro migratsiyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib kelgan. 2000-yil holatiga ko‘ra, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik bo‘limi barcha xalqaro muhojirlarning 49 foizi ayollar yoki qizlar ekanligini va xalqaro muhojirlar orasida ayollarning ulushi rivojlangan mintaqalarda 51 foizga yetganligini taxmin qilmoqda[34]. Ayollarning faol migrasion harakatlarda ishtirok etishi murakkab sabablar tizimi bilan bog‘liq. Bular orasida iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, oilaviy zo‘ravonlik, shaxsiy erkinlikka intilish, ijtimoiy adolatsizlik va tengsizlik kabi omillar turibdi. Biroq ushbu omillar yuzasidan fikr yuritar ekanmiz, ayollarning migratsiyaga chiqishi faqat iqtisodiy zarurat tufayli emas, balki ongiy o‘zgarish, o‘zligini anglash va shaxsiy mustaqillikka intilish kabi falsafiy inersiya natijasidir.

Falsafada inson erkinligi, tanlov huquqi va qiymatlar himoyasi asosiy kategoriyalardan hisoblanadi. Ayollar migratsiyasi ana shu universal qadriyatlar doirasida tahlil qilinganda, u an’anaviy ijtimoiy normalarga qarshi turish, patriarxal hokimiyat shakllarini so‘roqqa tutib, shaxsiy imkoniyatlarni kengaytirish harakati sifatida ham ko‘riladi. Bu holatda ayol nafaqat mehnatchi, balki inson sifatida, o‘z hayoti va taqdirini mustaqil hal qilish huquqiga ega sub’yekt sifatida namoyon bo‘ladi. Janubiy Koreya, Turkiya, Rossiya, Arab davlatlari kabi migratsiya manzillari bo‘yicha yuz minglab o‘zbek ayollari faol ishlab kelmoqda. Ularning bu harakati – global mehnat taqsimotida faol qatnashish, lekin shunchaki iqtisodiy omillar bilan emas, balki o‘zligini izlash, ichki o‘zgarishlarga javob topish kabi falsafiy muammolar bilan bog‘liq. Bu jarayonda ayol nafaqat jisman makon almashtiradi, balki o‘z fe’l-atvorini, qadriyatlar iyerarxiyasini, jinsga oid ong modelini ham qayta ko‘rib chiqadi.

Ayol migratsiyasiga doir jarayonlarning Janubiy Osiyoda feminizatsiyasi, ayniqsa, Shri-Lankadan kelib chiqayotgan ayol migrantlar misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu holat mazkur mamlakatda ayollar migratsiyasining keng ko‘lamda ommalashganini va uning ijtimoiy-iqtisodiy sabablar bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. 2009-yilgi statistikaga ko‘ra, Shri-Lankani tark etgan barcha emigrantlarning 51,73 foizini ayollar tashkil etgan, ulardan 89 foizi xizmatkorlik qilish maqsadida ko‘chib ketgan[35]. Xotin-qizlarning migratsiyadagi ishtiroki ularning ijtimoiy roli, mustaqilligi, qaror qabul qilish salohiyati, resurslardan foydalanish imkoniyatlari hamda kelib chiqish va manzil mamlakatlarda mavjud gender tengsizligi bilan bevosita bog‘liqdir. Agar ayol shaxs o‘z vatani hududida iqtisodiy, siyosiy yoki ijtimoiy jihatdan o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatidan mahrum bo‘lsa, gender tengsizlik migratsiyaga undovchi muhim omillardan biriga aylanishi mumkin. Xotin-qizlarning migratsiya tajribalari, boshqa migrantlarda bo‘lgani kabi, ularning ko‘chish qarori

[33] Casas, L., & Garson, J.-P. (2005). *The feminization of international migration.* Retrieved 2023-06-22, from https://ec.europa.eu/social/BlobServlet?docId= 3304&langId=en

[34] United Nations. *World Survey on the Role of Women in Development: Women and International Migration*. — New York: United Nations, 2004. — P. 27. — URL: https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/events/coordination/3/docs/P01_DAW.pdf

[35] Sri Lanka Bureau of Foreign Employment (SLBFE). *Annual Statistical Report of Foreign Employment 2009*. — Sri Lanka: SLBFE, 2009.

ixtiyoriy yoki majburiy bo‘lganligi, shuningdek, qabul qiluvchi mamlakatda yashash maqomi (qonuniy yoki noqonuniy) bilan bog‘liq ravishda farqlanadi. Xalqaro miqyosdagi kuzatuvlar ayollar uchun migratsiyaning sabab va oqibatlari yuzasidan umumiy tendensiyalarni aniqlash imkonini bermoqda. Ayollar va erkaklar uchun ham migratsiya qarorlariga ta’sir qiluvchi omillar kelib chiqish mamlakatining iqtisodiy va siyosiy kontekstiga chambarchas bog‘liqdir. Agar ayrim amaliyotlar yoki siyosiy qarorlar ayollarning resurslardan foydalanish, ta’lim olish yoki siyosiy ishtirok etish imkoniyatlarini cheklasa, bu holat ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etish va uni rivojlantirishga hissa qo‘shish imkoniyatlarini susaytiradi. Natijada, ayollarning mustaqil migratsiya qilish salohiyati ham cheklanadi.

Oilaviy munosabatlarda mavjud gender rollari ham migratsiya qarorlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ya’ni, kim ko‘chib ketadi — erkakmi yoki ayol — bu ko‘pincha gender me’yorlari asosida hal qilinadi. Xotin-qizlarning mustaqil ravishda migratsiya qilishiga salbiy qaraydigan ijtimoiy stereotiplar, ularning an’anaviy oilaviy vazifalar bilan cheklanishi, iqtisodiy mustaqillikning yetishmasligi kabi omillar ayollarning xalqaro migratsiyada to‘laqonli ishtirok etishiga to‘sqinlik qiladi.

Shuningdek, ayollar ko‘pincha borayotgan mamlakatlardagi ijtimoiy tarmoqlar bilan yetarli aloqaga ega bo‘lmagani sababli, muhojirlik jarayonida zaruriy ma’lumot va resurslarga erkin kirish imkoniyatidan mahrum bo‘lishadi. Bu esa ularning moslashuvchanligi va yangi muhitda ijtimoiy barqarorlikka erishish imkoniyatlarini pasaytiradi. Xotin-qizlarning migratsiyasi ko‘pincha boriladigan mamlakatlarda mavjud bo‘lgan ijtimoiy qadriyatlar, genderga asoslangan iyerarxiyalar, me’yorlar va stereotiplar bilan uyg‘unlashgan holda shakllanadi. Ayollar ko‘pincha genderga xos ishchi kuchiga bo‘lgan talab — ya’ni, uy xizmatkorlari, hamshiralar, parvarishchilar yoki madaniyat va xizmat ko‘rsatish sohasidagi ishchilar uchun mavjud bo‘lgan ehtiyojga javoban xorijga ishlash maqsadida ko‘chib ketadilar. Qabul qiluvchi davlatlarda mehnat migratsiyasiga oid qonunchilik rasmiy jihatdan gender neytral bo‘lishiga qaramay, mavjud iqtisodiy talab va ijtimoiy amaliyotlar bu tizimni gender asosida segmentatsiyalashga olib keladi.

Fleury xotin-qizlarning migratsiyadagi ishtiroki, ijtimoiy-ijtimoiy transformatsiya, gender rollari va iqtisodiy mustaqillik kabi masalalarni chuqur tahlil qiladi. U shuningdek, migratsiyaning ayollar uchun qanday qilib imkoniyatlar yaratishi, biroq bir vaqtning o‘zida ularni yangi to‘siqlarga duchor qilishi mumkinligini ham ko‘rsatadi[36].

Migratsiya jarayonida gender omili muhim rol o‘ynaydi, chunki migrantlarning jinsi ularning migrasion tajribasiga va bu jarayonning borishiga turli yo‘llar bilan ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, kelib chiqish va borilayotgan mamlakatlarning demografik tuzilmasiga migratsiyaning jinsiy tarkibi bevosita ta’sir qiladi. Ma’lum bir jins vakillarining ko‘proq yoki kamroq migratsiya qilishi aholining yoshi, jins nisbati, oilaviy tarkib va demografik dinamikasini o‘zgartiradi.

[36] Fleury A. *Understanding Women and Migration: A Literature Review*. — Geneva: Global Knowledge Partnership on Migration and Development (KNOMAD), 2016. — 55 p.

Demografik tadqiqotchilar migratsiyaning jinsiy o‘lchami va tarkibini chuqur tahlil qilish orqali uni demografik prognozlash jarayonlariga qo‘shadilar. Chunki migratsiya, ayniqsa gender nuqtayi nazaridan, nafaqat mehnat bozori va aholining joylashuvi, balki kelib chiqish va manzil mamlakatlarda tug‘ilish darajasi, o‘lim ko‘rsatkichlari va oila tuzilmasiga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Boyd va Griyeko migratsiya nazariyalari vaqt o‘tishi bilan jinsni qanday hisobga olganligi haqida umumiy ma’lumot berib, ular migratsiya jarayonlarining uch bosqichi, ya’ni “Migratsiyadan oldingi bosqich,” “Peri migratsiya bosqichi” va “Migratsiyadan keyingi bosqich” va ixtiyoriy qaytish bosqichi bo‘ylab jinsning potensial[37] kirish nuqtalarini tavsiflaydilar.

Migratsiyadan oldingi bosqichida (Pre-migration phase);

migratsiyaga tayyorgarlik: migratsiya qilish qarori kim tomonidan qabul qilinadi — oila, jamoa yoki shaxs?

Gender rollari va ijtimoiy me’yorlar: qaysi jins vakili (ayol/erkak) uchun ko‘chib ketish maqbulroq yoki imkonliroq?

Resurslarga kirish: ayollar migratsiya uchun zarur bo‘lgan ma’lumot, pul yoki hujjatlarga erkin kira oladimi?

Turtki omillar: gender tengsizligi, ta’lim imkoniyatlarining yetishmasligi, oilaviy bosim, zo‘ravonlik, ijtimoiy stigma – ayollarni migratsiyaga majbur qiluvchi omillar haqida.

Peri-migratsiya bosqichida (Migration phase);

Ko‘chish jarayonining o‘zi: yo‘l xavfsizligi, hujjatli/hujjasiz migratsiya, kontrabanda yoki inson savdosi xavfi.

Jinsiy ekspluatatsiya va xavfsizlik muammolari: ayol migrantlar ko‘pincha yo‘l davomida jinsiy zo‘ravonlikka uchrashi mumkin.

Mehnat bozori yo‘nalishi: ko‘p hollarda ayollar uy xizmati, parvarish yoki xizmat ko‘rsatish sohalarida ishlashga majbur bo‘ladi.

Ijtimoiy tarmoq va qo‘llab-quvvatlovchi guruhlar: ayollar ko‘pincha migratsiya yo‘lida tayanadigan tarmoqlarga ega emasliyligi.

Migratsiyadan keyingi bosqich (Post-migration phase);

Ijtimoiy integratsiya: ayollar mahalliy jamiyatga moslasha olishi, madaniyatlararo qarama-qarshiliklar qanday ta’sir qilishi.

Iqtisodiy mustaqillik: ayollar o‘z daromadini qanday ishlatishi va o‘z hayotini o‘zgartirishga qodirligi.

So‘nggi o‘n yilliklarda Markaziy Osiyo mamlakatlarida mehnat migratsiyasi, ayniqsa, ayollar ishtirokidagi migratsiya jarayonlari kuchayib bormoqda. Bu jarayon ijtimoiy-iqtisodiy,

[37] Boyd M., Grieco E. *Women and Migration: Incorporating Gender into International Migration Theory*. — Washington, DC: Migration Policy Institute, 2003. — 7 p.

gender va madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, nafaqat oilaviy, balki butun jamiyatdagi qadriyatlar tizimining transformatsiyasiga olib kelmoqda. An’anaviy jamiyatlarda oila – shaxsning shaxs sifatida shakllanishidagi bosh maskan sanaladi. Ayollarning oiladagi o‘rni esa asosan onalik, rafiqalik, tarbiyachi va ichki muhit muvozanatini saqlovchi vazifalari bilan belgilangan. Bu strukturada ayolning faol jamoatchilik hayotida qatnashishi cheklangan bo‘lib, uning ijtimoiy faolligi oilaviy majburiyatlar bilan o‘lchangan. Ammo ayollar migratsiyasi mazkur modelga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Migrant ayolning uzoq muddatli mehnat faoliyati natijasida oiladagi an’anaviy vazifalar qayta taqsimlanadi. Onalik funksiyasi vaqtincha boshqa a’zolarga o‘tadi, turmush o‘rtog‘i bilan bo‘lgan munosabatda psixologik va emotiv masofa vujudga keladi, bolalar tarbiyasidagi uzilishlar salmoqli darajada kuchayadi. Bu jarayon faqat sosiologik muammo emas, balki insonning ong tarkibi, shaxsiy identifikatsiyasi va oilaviy o‘zligining parchalanishi sifatida falsafiy tahlilga muhtoj.

Shu o‘rinda Erix Frommning “egalik qilish” va “borliq” holatlari to‘g‘risidagi falsafiy qarashlari nihoyatda ahamiyatlidir.Uning ta’kidlashicha, inson o‘ziga xoslik va ma’nolikni his qilmas ekan, u moddiy yoki jisman makon almashtirish bilan o‘zining shaxsiy muammolarini hal qilolmaydi. Ayollar migratsiyasida ham aynan shu muammo yaqqol ko‘rinadi: chet eldagi tajriba uning moddiy ehtiyojlarini qondirsa-da, madaniy o‘zlik, milliy an’ana va oilaviy risolardan uzilish tufayli ichki ziddiyat kuchayadi. Bu ziddiyat esa nafaqat ayolning shaxs sifatidagi muvozanatiga, balki uning farzandlari, turmush o‘rtog‘i va keng oila tizimiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ayol migratsiyasi natijasida oilaviy munosabatlarda yuzaga kelayotgan transformatsiyalar yangi ijtimoiy-ilmiy tushunchalarni vujudga keltirdi. Xususan, turmush qurgan ayollarning turmush o‘rtoqlari va farzandlarini o‘z yurtida qoldirib, boshqa mamlakatlarga ishlash uchun ketishi natijasida “transmilliy ajralgan oilalar”, “yo‘q ona”, “surrogat onalik”, “transmilliy onalik” kabi atamalar ilmiy muomalaga kirib keldi. Bu kabi holatlarda ayolning an’anaviy rolidan chetlashishi, ya’ni ona, turmush o‘rtoq va “uy ishlari bilan band” shaxs sifatidagi o‘rni zamonaviy migratsiya kontekstida o‘zgarmoqda. Natijada, ota shaxsiga nisbatan ham ijtimoiy rollar qayta taqsimlanmoqda: ko‘pgina hollarda erkaklar ayollarga xos deb qaralib kelingan uy vazifalarini (masalan, bola parvarishi, ovqat tayyorlash) o‘z zimmasiga olishdan bosh tortayotgani yoki bu vazifalarni o‘z onalari, opa-singillari yoki boshqa ayol qarindoshlariga yuklash holatlari kuzatiladi. Ushbu jarayon, bir tomondan, gender rollarining dinamikasini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, transmilliy migratsiya sharoitida an’anaviy oila modelining o‘ziga xos inqirozini ham ifoda etadi. Ayollar migratsiyasining eng muhim oqibatlaridan biri – oilaviy tarkib buzilishi va bolalarning “left-behind” holatga tushib qolishidir. Ko‘p xollarda ayollarning yillab uylariga kela olmasligi, farzandlarini ham ko‘ra olmasligi, nikoxdagi ayollarning erlari uyda qolib, onalarning migrantga aylanishi oilaning moddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy jarayonga aylandi. Taxlil etilayotgan migrasion jarayonlar oqibatida oilaning axvoli moddiy jihatdan yaxshilanib borsada, ko‘p xollarda oilaviy aloqalar, oilaviy munosabatlar hamda oilaviy qadriyatlarning ham transformatsiyasiga sabab bo‘lmoqda.

Ayniqsa, bolalar tarbiyasi va ularning ota-onadan uzoqda kechayotgan hayotiga migratsiya ziddiyatli ta’sir ko‘rsatmoqda. Aytish zarurki, migratsiya oqibatida oilaga ta’sir ko‘rsatayotgan sabablar oilaning ijtimoiy institut sifatidagi mavqeiga ham salbiy ta’sir etayotgani aniq.

Oilaning ijtimoiy ahamiyati, xususan, uning ota-ona va farzandlardan iborat to‘la o‘zbek oilasining ahamiyati ham hozirgi davrda kamayib borayotganligining sabablaridan biri ayollar migratsiyasi hisoblanadi. Mehnat migratsiyasining sub’yektlariga aylangan ayollar borgan xorijiy davlatlarda yangicha madaniyat, muomala, axloq muxitiga tushadilar. O‘z xoxishlaridan qat’iy nazar ularni o‘zlashtirib boradilar. Ularning madaniyati, yurish-turishi, boshqalar bilan muomalasi, kundalik axloqi o‘zgaradi, ko‘p xollarda transformatsiyaga uchraydi. Bunday xolatlar albatta, uning oila a’zolari bilan o‘zaro munosabatlarida aks etadi.

“Migratsiya daromadni oshiradi, lekin ijtimoiy kapitalni zaiflashtiradi: bu ayniqsa nikoh va oilaviy rishtalar uchun xavfli. Ayol va erkak orasidagi vaqtincha masofa doimiy hissiy uzoqlik va ajrimga olib kelishi mumkin”[38]. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan e’lon qilingan rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar–iyun oylari davomida mamlakatda jami 97,4 mingta nikoh ro‘yxatga olingan. Bu ko‘rsatkich 2023-yilning shu davriga nisbatan ozroq kamaygan (2023-yil – 98,6 mingta; 2022-yil – 108,9 mingta nikoh)[39]. Nikohlarning hududiy taqsimotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 50,1 mingta nikoh shaharlarda, 47,3 mingtasi qishloqlarda tuzilgan.

O‘zbekistonda – so‘nggi yillarda ayol migratsiyasi o‘sishda davom etmoqda. Migratsiya, ayniqsa, Qashqadaryo, Andijon, Samarqand viloyatlarida oilaning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Farzandlar tarbiyasi, gender rollar, ajrimlar va qadriyatlar buzilishi masalalari dolzarb muammoga aylangan. Chet el tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ayollar migratsiyasi butun jamiyatning qadriyatlar tizimi va ijtimoiy ongiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston sharoitida bu transformatsiyani nazorat qilish uchun milliy qadriyatlar, ma’naviyat va ijtimoiy muvozanatni saqlab qoluvchi mexanizmlar zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Casas, L., & Garson, J.-P. (2005). The feminization of international migration. Retrieved 2023-06-22, from https://ec.europa.eu/social/ BlobServlet? docId= 3304&langId=en

2. United Nations. World Survey on the Role of Women in Development: Women and International Migration. — New York: United Nations, 2004. — P. 27. — URL:https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/events/coordination/3/docs/P01_DAW.pdf

[38] Stark O., Bloom D.E. The New Economics of Labor Migration // *The American Economic Review*. — 1985. — Vol. 75, No. 2. — P. 173–178. — URL: https://www.jstor.org/stable/1805591

[39] Ўзбекистон Республикаси Статистика агентлиги. Никоҳ ва ажримлар бўйича 2024 йил 1-ярим йиллик статистик ахбороти. — Тошкент, 2024. — Режим доступа: https://stat.uz

3. Sri Lanka Bureau of Foreign Employment (SLBFE). Annual Statistical Report of Foreign Employment 2009. — Sri Lanka: SLBFE, 2009.

4. Fleury A. Understanding Women and Migration: A Literature Review. — Geneva: Global Knowledge Partnership on Migration and Development (KNOMAD), 2016. — 55 p.

5. Boyd M., Grieco E. Women and Migration: Incorporating Gender into International Migration Theory. — Washington, DC: Migration Policy Institute, 2003. — 7 p.

6. Stark O., Bloom D.E. The New Economics of Labor Migration // *The* American Economic Review. — 1985. — Vol. 75, No. 2. — P. 173–178. — URL: https://www.jstor.org/stable/1805591 7. Ўзбекистон Республикаси Статистика агентлиги. Никоҳ ва ажримлар бўйича 2024 йил 1-ярим йиллик статистик ахбороти. — Тошкент, 2024. — Режим доступа: https://stat.uz

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

QO‘QON XONLIGIDAGI TABAQAVIY IERARXIYA VA DINIY ELITA

Ruzmatova Shaxodat Abdukaxxarovna
Qo‘qon davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix kafedrasi o‘qituvchisi, PhD
e-mail: ruzmatovashaxodat@gmail.com
tel.: 951248881

Annotastiya Mazkur maqolada Qo‘qon xonligi davlati jamiyati turli ijtimoiy tabaqalardan tashkil topganligi, xususan xon avlodlari, din peshvolari, diniy sulola vakillari, savdogarlar, hunarmandlar, harbiylar va boshqa tabaqa vakillari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Xonlikda diniy tabaqa vakillari davlat siyosatiga katta ta’sir ko‘rsatganligi, din peshvolari aniq tabaqaviy tizimga ega bo‘lmasalar-da, lekin ular jamiyatda yuqori pog‘onalardan biriga ega ekanligi xususida aytib o‘tiladi. Bundan tashqari, maqomga ega kishilarning jamiyatda tutgan o‘rni, unga berilgan imtiyozlar va ularning ahamiyati borasida ham fikrlar bildirilgan. Xonlikdagi markaziy hokimiyat uchun kurash jamiyatni turli qatlamlarga bo‘linib ketishiga olib kelganligi, buning ustiga o‘troq va ko‘chmanchilar turmush tarzining o‘zaro raqobati va qarama – qarshiligi mamlakatni zaiflashib ketishiga sabab bo‘lganligi xususida ham ma’lumotlar keltirilgan.

Таянч сўзлар: аҳоли страталари, шажара, саййидлар, хўжалар, сўфийлар, зодагон, қора суяк, уста, шогирд, савдогар, уламо, ҳунарманд.

СОСЛОВНАЯ ИЕРАРХИЯ И РЕЛИГИОЗНЫЕ ЭЛИТЫ В КОКАНДСКОМ ХАНСТВЕ

Аннотация В данной статье говорится о том, что общество государства Кокандского ханства составляли разные социальные классы, в частности, потомки ханов, религиозные деятели, представители религиозных династий, купцы, ремесленники, воины и представители других сословий. Упоминается, что представители религиозного сословия в ханстве имели большое влияние на государственную политику, хотя религиозные лидеры не имеют четкой сословной системы, но занимают одно из самых высоких положений в обществе. Кроме того, были высказаны мнения о роли людей, имеющих статус в обществе, предоставляемых им привилегиях и их значимости. Сообщается также, что борьба за центральную власть в ханстве привела к расколу общества на различные слои, а соперничество и противостояние оседлого и кочевнического образа жизни привели к ослаблению страны.

Ключевые слова: слои населения, генеалогия, сейиды, ходжи, суфии, знатные, черная кость, мастер, ученик, купец, учёный, ремесленник.

CLASS HIERARCHY AND RELIGIOUS ELITES IN THE KOKAND KHANATE

Abstract This article states that the society of the state of the Kokan Khanate consists of different social classes, in particular, the descendants of the khans, religious figures, representatives of religious dynasties, merchants, artisans, warriors and representatives of other classes. It is mentioned that representatives of the religious class in the khanate had a great influence on state policy, although religious leaders do not have a clear class system, but occupy one of the highest positions in society. In addition, opinions were expressed about the role of people with status in society, the privileges granted to them and their significance. It is also reported that the struggle for central power in the khanate led to a split in society into different strata, and the rivalry and confrontation between the sedentary and nomadic lifestyles led to the weakening of the country.

Key words: strata of the population, genealogy, sayyids, khojas, sufis, nobles, black bone, master, student, merchant, scholar, artisan.

Kirish. O‘rganilayotgan davrda xonlik sinfiy va ijtimoiy tabaqalarga bo‘lingan jamiyatdan tashkil topgan edi. Har bir tabaqa davlat va jamiyatdagi siyosiy maqomi, mulkka egaligi, hukmron sulola yoki tarixan imtiyozli bo‘lgan, sayyid yo xo‘ja ekani, o‘tgan hukmdorlar shajarasidan ekani, o‘zining bilim va malakasi bilan qandaydir imtiyozlarga ega bo‘lgani, ilm va islom ulamolari orasidan bo‘lgani, zodagon yoki qora suyak ekani, o‘troq yoki ko‘chmanchilikni boshdan kechirayotgani, hunarmandlar ahliga aloqasi, savdogar ahlidan bo‘lishi bilan jamiyatdagi ierarxiyada yuqori yoki pastroq darajaga ega bo‘lgani aniq. Bularning ba’zilari alohida ijtimoiy guruh – stratalarni tashkil etgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillari, fanlararo yondashuv, tizimlashtirish, miqdoriy, qiyosiy, xronologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. XVIII – XIX asrlarda O‘rta Osiyo davlatlarida xon yoki sulton va ularning avlodi, sayidlar va xo‘jalar, islom ulamolari, pir va murshidlarning o‘rni va rolini chuqur o‘rganmay turib, bu hudud tarixini to‘g‘ri ochib bo‘lmaydi.

Ma’lumki, shu davr xonlik hududlarida chingiziylar, temuriylar sulolasiga mansub shaxslar jamiyatning siyosiy hamda iqtisodiy va ma’naviy hayotida yuqori tabaqani egallagan. Hukmdor tabaqa vakillari, jumladan xon o‘z hukumati va ijtimoiy maqomini qonuniylashtirish uchun turli “asos” va bahonalarni izlab topib, kerak bo‘lganda soxta nasabnoma va shajaralar tuzishgan [1: 514-b.]. Buning yaqqol namunasi Qo‘qon xonlarining kelib chiqishini Temur va Boburga bog‘lash uchun yasalgan Oltin beshik rivoyatidir [2: 192-200-b.]. Ushbu rivoyat Qo‘qon xonligi tarixi bilan bog‘liq bo ‘lgan ko‘plab adabiyotlarda o‘z ifodasini topgan.

Xonlikda xon qo‘lida barcha oliy hokimiyat birlashtirilgan edi. Xonlik maqomi taxt egasi, uning oilasi va qarindosh – urug‘lariga ham siyosiy, ham iqtisodiy imtiyozlar, yuqori o‘rinni

egallash uchun zamin yaratgan. Shu bilan birga, oliy hokimiyatga da’vogar va da’vo qilishga asosi bo‘lgan shaxs, uning oilasi turli siyosiy guruhlar yoki kuchli siyosiy shaxs qo‘lida “qo‘g‘irchoq” hukmdor bo‘lib qolishi ham mumkin edi. Xonlikdagi markaziy hokimiyat uchun kurash jamiyatni turli qatlamlarga bo‘linib ketishiga olib kelgan. Buning ustiga o‘troq va ko‘chmanchilar turmush tarzining o‘zaro raqobati va qarama – qarshiligi mamlakatni zaiflashib ketishiga ham sabab bo‘ldi [3: 109-120-b.]. Masalan, xonlikda Xudoyorxon hukmronligining birinchi davri (1845 – 1858-y.), Sulton Sayidxon (1863 – 1865-y.) hukmronligi davri. Aksincha, mustaqil hukmronlik qilish uchun harakat qilgan hukmdorlar turli tazyiqlarga duch kelganlar.

Qo‘qon xonligida diniy tabaqa vakillari davlat siyosatiga katta ta’sir ko‘rsatganlar. Musulmon din peshvolari aniq tabaqaviy tizimga ega bo‘lmasalar-da, lekin ular jamiyatda yuqori pog‘onalardan biriga ega edilar. Xo‘jalarning katta toifasi payg‘ambar (sayyid va shariflar) va to‘rt xalifa avlodlaridan kelib chiqqanligi (xo‘jalar) bilan bog‘liq edi. Ijtimoiy stratifikatsiya (tabaqalanish) doirasida dindorlarning yuqori tabaqasi hukmron doiraning bir qismi, quyi tabaqalari esa o‘troq qishloq xo‘jaligi aholisining mehnatkash ommasiga yaqin edi. Ulamolar, so‘fiylar (eng yirik maqom – naqshbandiya, qodiriya, qalandariya, mujadidai alfi soniya va b.), mahalliy va sulolaviy (kosoniy, marg‘iloniy, Toshkent xo‘jalari, Maxdumi A’zam, Xoja Ahror avlodlari) guruhlarga bo‘lingan [4: 331-357-b.]. Ushbu guruhlarning har biri jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lganlar.

Xonlik paydo bo‘lishining o‘zi Shimoliy Farg‘ona xo‘jalari (Chodak xo‘jalari) teokratiyasini o‘zbek qabila zodagonlari kuchiga almashtirish harakati edi. 1709-yilda ularning Buxoro xonligi hukmronligiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targanligi oqibatida Farg‘ona vodiysini ajratib olinganligi xususida fikrlar mavjud bo‘lsa-da, bu fikrlar ilmiy asosga ega emas [5]. Ming urug‘ining ko‘zga ko‘ringan vakillari xojalar va tasavvuf tariqati ahli bilan mustahkam aloqalar o‘rnatganligi yuzasidan mahalliy tarixchilar asarlarida ma’lumotlar mavjud. “Muntaxab at-tavorix”, “Tarixi Aziziy”, “Ansob as-salotin...” asarlarida ming urug‘i vakili Chamashbiy [6] XVI asrda Movarounnahrdagi naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi hisoblangan Mavlono Lutfulloh Chustiyga murid bo‘lganligi to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan [14: 219a - varaq.]. Jumladan, “Tarixi Aziziy” asarida Mavlono Lutfulloh ming urug‘i vakili Chamashbiyning beliga kamar bog‘lab, duo qilgani va bu urug‘ vakillari kelajakda taxtga o‘tirib, hukmdorlik qilishi xususida bashorat qilganligi bayon etiladi [8: 119b, 120a - varaq.]. Ushbu asarlarning qiymati yuqoriligi shundaki, ular bevosita davr bilan hamnafas yozilganligidir.

Maxdumi A’zam avlodlariga esa Qo‘qon xonlari qiz berib, qarindoshlik rishtalarini bog‘lashga intilganligini ko‘rish mumkin. Norbo‘tabiy qizi Oftoboyimni Hakim to‘raga nikohlab bergan va bu nikohdan Ma’sumxon to‘ra tavallud topgan [7: 5-6-b.]. Sayyid Ma’sumxon, Ahmad Xo‘ja Kosoniy (vafot etgan yili 949/1542 – 43-y.) nomi bilan ham mashhur bo‘lgan so‘fiy shayxlaridan Maxdumi A’zam avlodlaridan edi. Qo‘qon xoni Muhammad Umarxon davrida sayyid Ma’sumxon shayx ul-islom vazifasida bo‘lgan [10: 85-96-b.]. Ma’sumxon to‘raning o‘g‘li Muhammad Hakimxon to‘ra bo‘lib, ya’ni, ona tomonidan

u Qo‘qon xoni Norbutabiyga (hijriy 1184 – 1215/milodiy 1763 – 1798-y.) nevara, Olimxonga (hijriy 1215 – 1224/ milodiy 1798 – 1810-y.) esa jiyan bo‘lgan. Muhammad Hakimxon To‘ra Umarxon hukmronlik yillarida Qo‘qon shahar noibi vazifasini bajargan [11: 56-b.].

Maxdumi A’zam avlodlari xonlikning nafaqat ichki, balki tashqi siyosatida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Xususan, Jahongirxon to‘raning [12] siyosiy faoliyati Qo‘qon xonligi tarixiga doir manbalarda o‘z ifodasini topgan.

Jahongirxon to‘ra Umarxon (1810 – 1822-y.) hukmronlik qilgan yillari Qoshg‘arni qo‘lga kiritish maqsadida tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi. Bu rejadan voqif bo‘lgan Umarxon Jahongirxon to‘ra va uning ukasi Muhammad xojani hibsga oladi [13: 244-b.]. O‘sha payt xonlikda yuqori ta’sir darajasiga ega bo‘lgan diniy ulamolar Ma’sumxon to‘ra va Zokirxoja eshon aralashuvi bilan aka-ukalar hibsdan ozod etiladi, xon o‘rdasidan ularga yashash uchun maxsus joy ajratiladi [14: 244-b.]. Umarxon, Maxdumi a’zam avlodlari vakillarini hibsda ushlab turishidan, siyosiy maqsad ko‘zlangan edi.

1760-yilda Tsin imperiyasi Sharqiy Turkistonni bosib olganidan so‘ng Qoshg‘ar xojalari yashash uchun Farg‘ona vodiysi va Badaxshonga kelib o‘rnashadilar. Bu vaqtda Tsin imperiyasi Qo‘qon hukmdorlari bilan Sharqiy Turkistonda hukmdorlik qilgan xojalarning avlodlarini [15] ushlab turishlik yuzasidan diplomatik aloqalarni olib boradilar [16: 87-88-b.]. Evaziga esa Qo‘qon xonligi Qoshg‘ardagi savdo munosabatlarini nazorat qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Qo‘qon xonligida XIX asrning 60-70-yillaridan boshlab islom diniy ulamolarining ta’siri kuchaya boshladi. Qo‘shinlarda qozi askar, mufti askar, imomi jilov, so‘fiyi jilov vazifalari yana ham obro‘ qozondi. Shayx ul-islom davlatda eng martabali kishi bo‘ldi. Xudoyorxon davrida Imom Sohibzoda (Imom Hazratning) ta’siri saroyda katta edi. U xonlikda eng katta boyliklar, yer-u vaqflarga ega bo‘lgan. Xonlikda turli tariqat pirlari va murshidlaridan Xalifa Azizi Namangoniy, Shayx Eshon Mehmonxonto‘ra, Eshon Miyon Fazl Ahad, Eshon Abdurahim, Mulla Bobo Mahmud, Eshon Xalifa Safo, Xalifa Oltmish va boshqa ulamolarning ta’siri katta edi. Xudoyorxon ko‘p ulamolarga mol – mulk berib, ularning homiyliklarini olib, xonlik taxtini saqlardi [17: 84-85-b.]. Ushbu dalillarning o‘zi ham xonlikda diniy ulamolarining ta’siri kuchli ekanligidan dalolat beradi.

Qo‘qon xonligida diniy va qozixona vazifalariga asosan o‘troq xalqlardan o‘qigan, ma’lumoti bor kishilar tayinlanardi. Mansablarning bir martabasidan yuqorisiga o‘tish juda ham qiyin edi. Ba’zan vazifalar merosiy bo‘lardi. Yangi unvonga ega bo‘lgan amaldor kishi oldingi unvonini saqlardi. Masalan, Yoqubbek g‘ulom dodxoh – voliy, Alimqul biy dodxoh – noib, Berdi Ali dodxoh – yuzboshi, Domla Bobo a’lam-qozi, Musulmonquli qipchoq esa otaliqlik unvoni va qarindoshligidan (Xudoyorxonning qaynotasi edi) foydalanib, xonlikning mingboshisi va amirlashkari bo‘lib oladi. Shuni aytish kerakki, ba’zi unvon va mansablar xonlikda Buxoro amirining unvon va mansablaridan kam farq qilardi [18: 3-16-b.]. Bu unvon va amallarning egalari tabaqalarga bo‘lingan jamiyatda yuqori pog‘onani egallagan.

Farg‘onaning qadimdan yashab kelayotgan tub o‘troq aholisi orasida sayyidlar va xo‘jalar ham bo‘lib, ular jamiyatda o‘z alohida o‘rinlariga ega bo‘lganlar. Ular payg‘ambar, sahobalar,

arablar va mahalliy avliyolar avlodlari deb hisoblanib, o‘zlarini mahalliy aholidan ajratib, “oqsuyak” deb ataganlar. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida xo‘jalar Farg‘onaning deyarli barcha hududlarida yashagan. Marg‘ilon, Andijon, O‘sh, Qo‘qon, Namangan, Xo‘jand, Konibodom, Koson, Chust, Pop shaharlarida, Chodak, Xo‘jaobod, To‘raqo‘rg‘on, Quva, Chimyon, Fayziobod, Beshariq shaharchalarida xo‘jalar, ayniqsa, ko‘pchilikni tashkil etganlar. Asosiy aholidan alohida Xo‘ja qishloq, Xo‘ja mahallalarda guruh-guruh bo‘lib istiqomat qilganlar. “Qora” xalq bilan turmush qurish taqiqlangan [19: 34-35-b.]. Bugungi kunda ham xalq orasida xo‘ja, sayyid maqomlari mavjud, lekin urf-odatlari anchayin o‘zgargan.

Xulosa. Xulosa tariqasida shuni ta’kidlash lozimki, ijtimoiy stratalar (qatlamlar) ularning siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy – ma’naviy hayotdagi maqomlari va faoliyatlari bilan bog‘liq. Aksar hollarda siyosiy hayot va hukumatga yaqin bo‘lgan va kuchli ta’sirga ega guruhlarning vakillari iqtisodiy hayotda ham yetakchi bo‘lgan. Xonlikdagi mol – mulk va yerga egalik ham ijtimoiy ierarxiyada yuqori darajada bo‘lganlarning qo‘lida ekani ham buni tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Анке Фон Кюгельген. Легитимация Среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII – XIX веков). – Алматы: Дайк-Пресса, 2001. – 514 с.

2. Bu rivoyat haqidagi munozara va munosabatlar haqida qarang: Бейсембиев Т. К. Легенда о происхождении кокандских ханов как источник идеологии в Средней Азии: на материалах сочинений кокандской историографии // Казахстан, Средняя и Центральная Азия в XVI-XVIII вв. – Алма-Ата, 1989. – С. 192-200.

3. Элшибаев С. Кокандское ханство в 40-х- 70 годах XIX века: политический расклад сил (по материалам “Туркестанского сборника”) // Ученые записки - Номаи донишгоҳ, 2012, № 3. – С. 109-120.

4. Анке фон Кюгельген. Расцвет Муджаддадийа – Накшбандийа в Средней Трансоксиании с XVIII –до начала XIX вв.: Опыт детективного расследования // Суфизм в Центральной Азии (Зарубежные исследования): Сб. ст. памяти Фритца Майера (1912 – 1998)./ Сост. и отв. ред А.А. Хисматуллин. – СПб., 2001. – С. 331 – 357.; Пауль Ю. Доктрина и организация X ваджаган Накшбандийа в первом поколении после Баха’ аддина // Суфизм в Центральной Азии. Зарубежные исследования (под ред. А.А.Хисматулина). СПб., 2001, 114-199;

5. Bu olim Sh.Mahmudovning xulosasi. Bizningcha ashtarxoniylar davlatining zaiflashuvi jarayonida Farg‘ona vodiysida turli tariqat va diniy oilalarning maqomi kuchayib borgan. Chodakdan chiqqan xo‘jalar ta'siri ming qabilasiga sezilarli bo‘lgan.

6. Oltin Beshik rivoyatiga qaraganda Chamashbiy Shoxruxbiy shajarasining yuqori vakillaridan hisoblanadi.

7. Muhammad Hakimxon. Muntaxab ut-tavorix / Fors tojik tilidan tarjima, so‘zboshi va izohlar muallifi Sh.Vohidov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 5-6.; Mirzo Olim

Mushrif. Ansob as-salotin ... 12b - varaq.; Muhammad Aziz Marg‘iloniy. Tarixi Aziziy... 119b - varaq.

8. Muhammad Aziz Margiloniy. Tarixi Aziziy ... 119b, 120a - varaq.
9. Бейсембиев Т.К. Духовенство в политической жизни Кокандского ханства в XVIII-XIX в. – Москва: Наука, 1985. – С. 37.
10. Tojir Xujandiy. G‘aroyib sipoh / Tarjima va izohlar muallifi O‘.Sultonov. O‘zbekiston xrestomatiyasi. III jild. XVI-XIX asrlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – S. 85-96; Хуршут Э. “Мунтахаб ат-таварих» как источник по истории Средней Азии и сопредельных стран XVIII - XIX веков. Источниковедение//Общественные науки в Узбекистане. 7, 1984. – Ташкент: Фан, – Б. 42.
11. Тожир Хужандий. Ғароиби сипоҳ // /Мураттиб Саъдуллоҳи Асадуллоҳ. Хужанд, 1993. – 56 с.; Mufassal qarang: Vohidov Sh. Amir Nasrullohning Qo‘qon xonligiga 1842-yilgi yurishi haqida (sabab, bahona va oqibatlari) / Farg‘ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda (Respublika ilmiy-anjuman materiallari). – Farg‘ona, 2009. – B. 174–183.
12. Jahongirxon to‘ra Qo‘qon xonlari Umarxon va Muhammad Alixon saroyida oliy diniy vazifalarda faoliyat yuritgan bo‘lib, u kishining shajarasi Mahdumi A'zamning evarasi Xoja Hidoyatulloh (Ofoqxoja) avlodlaridan bo‘lganligi bois manbalarda ismiga Sayyid Ofoqiy nisbasi qo‘shilgan. Shuningdek, tadqiqotlarda “Qoshg‘ar xojalari”, deb ham yuritiladi. Qarang: Sultonova G., Allayeva N., Mahmudov Sh. O‘rta Osiyo xalqlarining etnik tarixi va mintaqada yuz bergan demografik jarayonlarning manbalarda aks etishi (XVI-XIX asr birinchi yarmi). – Toshkent: Yangi nashr, 2011. – B. 96-98.
13. Muhammad Hakim khan. Muntakhab al-lawarikh. Selected history. Vol, II, Edited by Yayoi Kawahara & Koichi Haneda. – Tokyo: ILCAA 2006. – P. 244
14. Muhammad Hakimxonto‘ra. Muntaxab ut-tavorix // O‘zR FA ShI, qo‘lyozma, inv. №594. – P. 244.
15. Sharqiy Turkiston xojalari Markaziy Osiyoda naqshbandiya tariqatining yetakchi murshidlaridan bo‘lgan Maxdumi A'zam (Ahmad ibn Jaloliddin Kosoniy) ning avlodaridan hisoblanadi.
16. Кузнецов В.С. Цинская империя на рубежах Центральной Азии. – Новосибирск: Наука, 1983. – С.87-88.
17. Набиев Р.Н. Из истории Кокандского ханства. – С. 103; Бейсембиев Т.К. Тарихи Шахрухи как исторический источник. – С. 84 – 85.
18. Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyo davlatlarida boshqaruv tarixidan. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.– B. 80; Vohidov Sh., Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida unvon va mansablar. – Toshkent: Fan, 1996. – B. 3-16.
19. Губаева С.С. Население Ферганской долины в конце XIX-начале XX вв. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 34-35.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

XIVA XONLIGIDA YERDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
ОСОБЕННОСТИ ЗЕМЛЕПОЛЬЗОВАНИЯ В ХИВА-ХАНЫ
SPECIFIC FEATURES OF LAND USE IN THE KHIV KHANATE

Jurayev Xusniddin Pazliddinovich
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d.
jurayevhusniddin980@gmail.com +998903637722

Annotatsiya: Mazkur maqola XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligining qishloq xo‘jaligi, xususan, yerdan foydalanish va uning o‘ziga xos xususiyatlari masalasiga bag‘ishlangan. Asosan arxiv manbalar va ilmiy adabiyotlarga tayanib, muallif hududdagi dehqonchilik an’analarining qadimiyligi, mehnat qurollarining eskirganligi, sug‘orish inshootlarining talabga javob bermasligi kabi omillarga qaramasdan qattiq mehnat orqali natijaga erishib kelingan, degan xulosaga keldi.

Kalit so‘zlar: yer, yer egaligi, unumdor tuproq, sun’iy sug‘orish, zamindor, dehqon, dehqonchilik, ekinlar, yaylov, chorvachilik.

Аннотация: Данная статья посвящена вопросу земледелия Хивинского ханства в конце XIX - начале XX веков, в частности землепользованию и его специфическим особенностям. Опираясь преимущественно на архивные источники и научную литературу, автор пришел к выводу, что результат был достигнут упорным трудом, несмотря на такие факторы, как древность земледельческих традиций региона, устаревание орудий труда, несоответствие ирригационных сооружений предъявляемым требованиям.

Ключевые слова: земля, землевладение, плодородная почва, искусственное орошение, заминдар, земледелец, земледелие, посевы, пастбища, скот.

Abstract: This article is devoted to the agriculture of the Khiva Khanate in the late 19th and early 20th centuries, in particular, the issue of land use and its specific features. Based mainly on archival sources and scientific literature, the author concludes that despite such factors as the antiquity of the farming traditions in the region, the obsolescence of labor tools, and the inadequacy of irrigation facilities, results were achieved through hard work.

Key words: land, land ownership, fertile soil, artificial irrigation, landowner, farmer, farming, crops, pasture, livestock.

KIRISH

Xiva xonligida yerdan foydalanish va uning o‘ziga xos xususiyatlari mavzusi hozirga qadar keng o‘rganilmagan bo‘lib, bugungi kunda bu to‘g‘risida alohida tadqiqot ishi olib borish maqsadga muvofiqdir. Ta’kidlash lozimki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligi to‘liq agrar mamlakat edi. Xonlikda unumdor tuproqli yer maydonlari kam, deyarli barcha hududlari sun’iy sug‘orish inshootlari ko‘magiga muhtoj edi.

Hozirga qadar tadqiqotchilar tomonidan qilingan ishlarda asosan xonlikdagi yer egaligi munosabatlari, soliq tizimi, majburiyatlar umumiy tarzda aks ettirilgan. Shuningdek, dehqonchilikda qo‘llaniladigan mehnat qurollari va texnologiyalarning asriy qoloqligi mavjud bo‘lsada, voha dehqonlarining mirishkorliklari tufayli xonlik hududida ekilgan hosildan mo‘l-ko‘l hosil olinishi kabi dolzarb muammolar hozirga qadar o‘z yechimini topgan emas. Uning dolzarbligi yana shundaki, o‘z manfaatlari yo‘lida yirik zamindorlarning yerga muhtoj aholi qatlamining yerlarini tortib olishi va yersiz dehqonlarning ayovsiz ishlatilishi natijasida ushbu dehqonlarning katta qismi ijtimoiy hayoti og‘ir bo‘lganligini tarixiy tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur maqolaning manbaviy asosi keng hajmga ega bo‘lib, asosiy tarixiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi fondlarida hamda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy adabiyotlarida to‘plangan. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi fondining I.125-Fond (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligi), N.Muravyovning Puteshestviye vi Turkmeniyu Chast I, M.Ivanin Xiva i reka Amu-Darya, O.Shkapskiy Amu-Darinskiye ocherki, Girshfeld, Galkinlarning Voyenno-statisticheskoye opisaniye Xivinskogo oazisa Chast II kitoblarida va boshqa manbalarida Xiva xonligining yer egaligi shakllari, dehqonchilik tarmog‘i to‘g‘risida birlamchi ma’lumotlar saqlanib qolgan. Xonlikdagi aholining ijtimoiy hayotini ifodalovchi davriy matbuot materiallari, shuningdek, xonlikda bo‘lgan elchilarning esdaliklari, xatlari maqolani yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini sivilizatsion yondashuv tashkil etadi. Unda tarixiy jarayonlar rivojlanish holida o‘zaro uzviylikda yoritilgan. Qo‘yilgan muammoni tahlil etishda bir nechta tarix fani metodlariga murojaat qilingan. Ular tanlangan mavzuni chuqur o‘rganishga va mantiqiy va oqilona xulosalarga kelishga yordam beradi.

Diaxronik metod odatda ma’lum bir mintaqadagi turli xil o‘zgarishlar va hodisalarni o‘rganib, aniq davriylashtirishdan foydalaniladi. Shu orqali Xiva xonligining Vatan tarixidagi tarixiy jarayonlarda tutgan o‘rni ochib berilgan.

Ideografik (narrativ) metodi orqali Xiva xonligida mavjud bo‘lgan yer egalarining o‘zboshimchalik bilan ish yuritishi, mavjud qonunlarning ular manfaatlarini aks ettirishi tanqidiy ochib berilgan.

Tarixiy va tizimli metod bilan mavzu yuzasidan xonlikdagi yer egaligi munosabatlari Turkiston general-gubernatorligi mustamlaka siyosati nuqtayi nazaridan olib borilganligi tadqiq qilingan.

Tarixiy-qiyosiy metod. Ushbu metod orqali Xiva xonligidagi yer egaligi munosabatlari Buxoro amirligi, xususan, Turkiston general-gubernaorligidagi qishloq xo‘jalik munosabatlari bilan farq qilgani va o‘xshash tomonlari tahlil etilgan.

Aktualizatsiya metodining qo‘llanilishi Xiva xonligining agrar sohadagi faoliyati oqibatlarini aniqlashga va bu holat aholining keyingi taraqqiyotiga ham ta’sir ko‘rsatganligini yoritishga imkon bergan.

Tipologik metodda Xiva xoni, saroy ahli, yirik yer egalari va zamindorlarning muammolarni hal qilishdagi yondashuvlari tahlil qilingan.

Kontent-analiz metodi orqali agrar soha haqidagi rasmiy hujjatlar memuarlar va davriy matbuotdagi ma’lumotlar qiyosiy solishtirilib, ularning ishonchlilik darajasi aniqlangan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Xiva xonligida rasman davlat topshirig‘i bilan bo‘lgan rus amaldori G.I.Danilevskiy vohada asosiy ekin turi g‘alla bo‘lgani xolda ko‘p miqdorda tamaki, bo‘yan, poliz ekinlari yetishtirilganligini qayd etadi. Tarvuz, qovun, qovoq, sabzi, piyoz kabi poliz ekinlari aholi ehtiyojlari uchun keng miqdorda ekilgan. Shuningdek, Ivanovning ma’lumotlariga ko‘ra, xonlikning ayrim hududlarida iste’mol maqsadlarida ko‘knori ham yetishtirilgan [1;25].

Chorva mollarini yem-xashak bilan ta’minlash maqsadida xonlik hududlarida beda o‘simligi ham yetishtirilgan. Bedani ekish, parvarishlashning ham alohida tartibotlari mavjud bo‘lgan. Dastlab beda ekiladigan maydon yaxshilab tekislanib, haydalgan. Urug‘lar asosan bir desyatina yerga yarim pud miqdorida sepib chiqilgan. Beda urug‘lari ko‘pincha bug‘doy va arpa bilan aralashtirib yerga sochilar edi. Urug‘lar ko‘karib chiqqandan keyin bir necha marotaba sug‘orilgan. Beda hosilini o‘simlikning bo‘yi yarim metr o‘sgach o‘roqlar yordamida o‘rib olingan. Beda o‘simligining poyalari umumiy hisobda 5-6 marta o‘rib olingan. Beda asosan turkman qabilalari tomonidan ekib, parvarishlangan. Xonlikka tashrif buyurgan rus tadqiqotchilari va sayohatchilari bedazorlarni Xiva xonligining Toshovuz, Zey, G‘azovot bekliklarida ko‘rganliklarini qayd etishgan [2;25].

Ma’lumki, xonlik hududida yaylovlar miqdori kam bo‘lgan. Aholi chorva mollarini boqish uchun mahalliy sharoitda o‘suvchi qamish va shirintomir o‘simliklarini o‘roq yordamida o‘rib olib, qishning qirovli kunlariga saqlab qo‘yishgan. Chorva mollari asosan mayda shohli chorvalardan iborat bo‘lib, qoramollar va tuyalar, otlar juda kam boqilgan. Mayda tuyoqli chorva aholi xo‘jaliklarida boqilib, iste’mol uchun ishlatilgan. Ularning teri va go‘sht savdosi yo‘lga qo‘yilmagan edi.

XIX asr oxirlaridan boshlab xonlikda kartoshka va karam yetishtirish boshlangan. Mazkur o‘simlik turlari asosan ruslar orqali kirib kelgan. Xonlikning mirishkor dehqonlari ham bu sabzavotlarni xonlikka ko‘chib kelgan rus aholisiga sotish uchun yetishtirilgan. Karam va kartoshka ekiladigan maydon ham go‘ng yordamida o‘g‘itlantirilib, o‘g‘it turpoqqa aralashib ketishi uchun omochlar yordamida ag‘darilib, ishlov berilgan. Keyin dalaga suv qo‘yilib, alohida jo‘yaklar qilib chiqilgan. Soz tuproq suv ariqlari bo‘ylab tarqatib ham chiqilgan. Ana shunday agrotexnik tadbirlar tufayli karam va kartoshkadan ham mo‘l-ko‘l hosil olingan.

Xonlikda yetishtiriluvchi marena o‘simligi matolarni bo‘yash uchun ishlatilgan. Bu o‘simlikdan qizil rang olingan. Marena takroriy ekin sifatida iyun oyining o‘rtalarida ekila boshlangan. Marena o‘simligining poyasi qishga yaqin yig‘ib olingan. Olingan hosil oftobga yoyib qo‘yilgan. Keyinchalik qozonda qaynatilib, qaynab chiqqan suyuqligidan rang olingan.

Xonlikda qovun, qovoq, tarvuz, sabzi yetishtirish ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan edi. Mazkur ekinlarning barchasi ariqchalar orqali pushta qilinib, alohida dehqonchilik dalalariga ekilgan.

Piyoz xonlikning qumloq ekin maydonlariga ekilgan bo‘lib, Shkapskiyning ma’lumotlariga ko‘ra Xiva va Xonqa atroflarida eng katta piyoz dalalari bo‘lgan. Piyoz ekiladigan yer maydonlari obdon tekislanib, dastlab qum sepib chiqilgan. Undan keyin sug‘orilib, o‘g‘it sepilgan. Aprel oyining boshlarida yerga piyoz urug‘lari qadab chiqilgan. O‘rtacha hisobda bir gektar yer maydonidan 5-6 tonna miqdorida piyoz hosili olingan [3;34].

Xiva xonligidagi bo‘z yerlarga asosan ko‘p miqdorda qovun ekilgan. Qovunning ertapishar navi zamcha, yozgi turi gurvak deb yuritilgan. Gurvak xonlikdan boshqa hududlarga olib borib ham sotilgan. Chunonchi, Buxoro bozorlarida bu qovunning nomini bo‘rikalla deb ham atashgan. Gurvakning ham oq, qora, ko‘k, ola, qizil kabi turlari mavjud bo‘lgan. Xonlikda kishqi qovunlarning ola qovun, gulobi kabi turlari ham yetishtirilgan. Bahorgacha saqlanadigan, tanasi to‘r-to‘r bo‘lgan gulobi qovunlari Xiva qovunlarining eng shirini hisoblangan [4;113].

Xonlikda yetishtirilgan poliz mahsulotlarining asosiy iste’molchilari mahalliy xalq hisoblansada, tashqi bozorlarga, xususan Chorjo‘yga har yili 200-300 ming dona qovun-tarvuz olib borib, sotilgan [5;162].

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, Xiva xonligida o‘rganilayotgan davrda dehqonchilik keng taraqqiy qilgan. Deyarli barcha ekin turlari dehqonlar tomonidan ekib, parvarishlanib, yaxshi hosil olishga harakat qilingan. Hududdagi dehqonchilik an’analarining qadimiyligi, mehnat qurollarining eskirganligi, sug‘orish inshoatlarining talabga javob bermasligi kabi omillarga qaramasdan qattiq mehnat orqali natijaga erishib kelingan.

Xonlik hududida yaylovlar va bog‘dorchilik yaxshi rivojlanmagan edi. Faqatgina Hazorasp bekligining olma bog‘lari, Bog‘ot qishlog‘ining uzumzorlarigina bir qancha manbalarda qayd etiladi. Xonlikda dastlab dehqonchilik mahsulotlari ichida g‘alla yetishtirish asosiy o‘rinda bo‘lgan bo‘lsa, XIX asr oxirlariga kelib paxta dalalari uning o‘rnini egallay boshlagan. Dehqonchilikda ekstensiv usullardan foydalanish dehqonchilik maydonlarini unumsiz qila boshlagan edi.

ADABIYOTLAR

1. Иванин М. Хива и река Аму-Дарья. − Санкт-петербургъ: Типография товарищества Общественная полъза, − № 5, 1873. – С.25.

2. Иванин М. Хива и река Аму-Дарья. − Санкт-петербургъ: Типография товарищества “Общественная полъза”, − № 5, 1873. – С.25.

3.Шкапский О. Аму-Дарьинские очерки. Кь аграрному вопросу на нижней Аму-Дарье. − Ташкент: Типо-Литография, 1900. – С.34.

4.Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1961. – С.113.

5.Гиршфельд, Галкин. Военно-статистическое описание хивинского оазиса. Часть II. − Ташкент: Типография штаба Туркестанского военного округа, 1903. – С.162.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

FARG‘ONA VODIYSI QISHLOQLARI IJTIMOIY QIYOFASIDAGI O‘ZGARISHLAR VA UNING XUSUSIYATLARI 1945-1965-YILLAR

Sobirov Jamshidbek Zokirjon o‘g‘li

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1945–1965-yillar davomida Farg‘ona vodiysi hududidagi qishloqlarda yuz bergan ijtimoiy o‘zgarishlar tizimli tarzda tahlil etiladi. Sovet davrining agrar siyosati, ayniqsa paxtachilikka ixtisoslashuv, qishloq infratuzilmasining rivojlanishi, pensiya ta’minoti va maishiy xizmatlarning kengayishi orqali aholining turmush darajasida qanday yangilanishlar sodir bo‘lganiga e’tibor qaratilgan. Uy-joy qurilishi, sog‘liqni saqlash tizimi, ayollar faolligining ortishi hamda mavjud kamchiliklar yoritilib, ijtimoiy qiyofadagi kompleks o‘zgarishlar tarixiy manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, qishloq hayoti, agrar siyosat, paxtachilik, pensiya ta’minoti, maishiy xizmat, uy-joy qurilishi, sovet modernizatsiyasi.

KIRISH

Ikkinchi jahon urushi yakunlanganidan so‘ng, Sovet Ittifoqida, xususan, O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligi va ijtimoiy infratuzilmani qayta tiklash hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar boshlangan edi. Ushbu jarayonlar markaziy hukumat tomonidan belgilangan rejalashtirish siyosati asosida olib borildi. Farg‘ona vodiysi esa o‘zining geoiqtisodiy ahamiyati va aholining zich joylashuvi bilan bu siyosatning sinov maydoniga aylangan edi.

Mamlakat agrar strategiyasining markaziy yo‘nalishi bo‘lgan paxtachilik Farg‘ona vodiysi qishloqlarini keskin ixtisoslashuv sari yetakladi. Bu o‘zgarishlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotda ham sezilarli burilishlar yasadi. Qishloq aholisi uchun yangi uylar qurildi, ayollar mehnatga faol jalb etildi, pensiya ta’minoti joriy qilindi, maishiy va tibbiy xizmatlar tashkil etildi. Shu bilan birga, bu davrda mavjud bo‘lgan infratuzilmaviy va boshqaruv muammolari ham aholining kundalik hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

1945–1965-yillar oralig‘ida Farg‘ona vodiysi qishloqlari ijtimoiy qiyofasida yuz bergan o‘zgarishlarning eng asosiy omillaridan biri agrar siyosatning jadallashganligi bilan bog‘liqdir. Urushdan keyingi yillarda O‘zbekistonda, xususan, Farg‘ona vodiysida paxtachilikka ixtisoslashtirish kuchaydi. Paxtachilik respublikaning asosiy iqtisodiy tayanchi sifatida qaralganligi sababli, kolxozlar va sovxozlar paxta yetishtirish rejalarini bajarish uchun majburiy mehnatga jalb etilgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1959-yilda Farg‘ona vodiysida 3 million

tonnadan ortiq paxta yetishtirilgan va bu ko‘rsatkich keyingi yillarda ham oshib borganligi qayd etilgan.

Shuningdek, qishloq aholisi uchun maishiy xizmat ko‘rsatish tizimining shakllanishi ijtimoiy hayotda muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Kasaba uyushmalari tomonidan tashkil etilgan maishiy xizmat korxonalari, ayollar uchun tikuvchilik ustaxonalari, bolalar bog‘chalari va hammomlar tarmog‘i kengaydi. Bu yutuqlar, ayniqsa, ayollarni jamoaviy mehnatga jalb etish va ularning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim rol o‘ynadi.

Qishloq ayollarining ijtimoiy mavqei sezilarli darajada oshdi. Ulardan ko‘pchiligi kolxozlarda brigadir, zooveterinar, savdo do‘koni mudiri kabi lavozimlarda faoliyat yurita boshladi. Shu bilan birga, ular Sovet ayoli idealiga mos bo‘lishga undaldi. Tabiiyki, bu ayollarning uyda farzand tarbiyasi va xo‘jalik yuritishdagi vazifalariga qo‘shimcha yuklama bo‘ldi, biroq ularning jamiyatdagi mavqei oshgani bilan tan olinishi lozim.

Uy-joy qurilishi sohasida ham salmoqli o‘zgarishlar yuz berdi. 1950-yillardan boshlab vodiyning ko‘plab qishloqlarida davlat tomonidan tipik uylar qurilishi boshlangan. Bu uylar beton plitalardan yasalgan bo‘lib, bir nechta xonali, shahar infratuzilmasiga yaqinlashtirilgan loyihalar asosida qurilgan. Masalan, Marg‘ilon, Qo‘qon va Andijon yaqinidagi yirik kolxozlarda 1960-yilga kelib yuzlab yangi uylar qurib bitkazilgan.

Sovet davlati tomonidan qishloq aholisi uchun pensiya ta’minoti tizimi joriy etilganligi ham aholi hayot tarziga katta ta’sir ko‘rsatdi. 1956-yildan boshlab ishchi va xizmatchilarga, 1964-yildan esa kolxozchilar uchun ham pensiya tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu tizim orqali mehnatga layoqatsiz kishilarga davlat tomonidan moddiy yordam berila boshlandi. Pensiya nafaqalari turmush darajasining nisbiy barqarorligiga zamin yaratdi va aholining davlatga bo‘lgan ishonchini kuchaytirdi.

Biroq mavjud yutuqlar bilan bir qatorda kamchiliklar ham mavjud edi. Qishloqlarda suv ta’minoti, elektrlashtirish, tibbiy xizmatlar va umumiy infratuzilma hali ham qoniqarsiz edi. Ko‘plab aholi punktlarida ichimlik suvi ariq va kanallardan olinib, sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan. Tibbiyot punktlarida malakali kadrlar yetishmasdi, dori-darmon ta’minoti zaif edi. Ayrim holatlarda, ma’muriy buyruqlar asosida bajarilgan qurilishlar sifatsiz bo‘lib, tezda ta’mirga muhtoj holatga kelib qolgan.

Yuqoridagi holatlar shuni ko‘rsatadiki, 1945–1965-yillar oralig‘ida Farg‘ona vodiysi qishloqlari ijtimoiy hayotida tub burilishlar bo‘lgan. Bu davrda agrar sohadagi o‘zgarishlar, paxtachilikka ixtisoslashuv, maishiy xizmatlar kengayishi, uy-joy qurilishi, ayollar faolligining ortishi va pensiya tizimining joriy etilishi kabi omillar qishloq hayotining ijtimoiy qiyofasini yangilagan. Biroq barcha yutuqlarga qaramay, bu davrni ideal deb bo‘lmaydi — mahalliy ehtiyojlarni chetlab o‘tgan markazlashgan siyosat, infratuzilmaviy muammolar va mavjud resurslarning nomutanosib taqsimlanishi bu yutuqlarning barqarorligini cheklab qo‘ydi [1].

NATIJALAR

Urushdan keyingi yillarda Farg‘ona vodiysi qishloqlarida sog‘liqni saqlash tizimining kengayishi ham aholi turmush darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, 1950–1960-yillar

oralig‘ida qishloq vrachlik punktlari, feldsher-akusherlik punktlari, ko‘p tarmoqli kasalxonalar soni ortdi. 1961-yilga kelib Farg‘ona viloyatida aholining 70 foizi birlamchi tibbiy xizmat bilan qamrab olingani haqidagi rasmiy statistikalar mavjud bo‘lib, bu ko‘rsatkich yildan-yilga yaxshilanib bordi.

Shuningdek, Farg‘ona vodiysi qishloqlarida o‘quv yurtlari va madaniy-ma’rifiy maskanlarning ochilishi yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojiga katta turtki berdi. 1950-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, qishloq yoshlari uchun texnikumlar, kasb-hunar maktablari va kechki o‘rta maktablar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu ta’lim muassasalari nafaqat ishchi kuchi sifatida yetuk mutaxassislar tayyorladi, balki ularning jamiyatda faol fuqaroga aylanishida muhim o‘rin tutdi [2].

Farg‘ona vodiysi qishloqlarida olib borilgan ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan yana biri bu madaniy xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirish edi. Kolxozlar huzurida madaniyat uylari, kutubxonalar, kinomexanik punktlar faoliyat ko‘rsata boshladi. Ayniqsa, ayollar va bolalar uchun mo‘ljallangan ijtimoiy xizmatlar, ya’ni bog‘chalar, tikuvchilik do‘konlari, maishiy xizmat ko‘rsatish markazlari ochilishi ayollarni mehnatga jalb qilishda muhim omil bo‘ldi.

Ammo bu yillarda ham barcha masalalar ijobiy hal etildi, deb bo‘lmasdi. Jumladan, qishloq infratuzilmasida — ayniqsa, ichimlik suvi ta’minoti, elektrlashtirish va yo‘l qurilishi sohalarida hali ko‘plab muammolar mavjud edi. 1960-yillar oxiriga qadar ba’zi chekka hududlarda elektr tarmog‘i va ichimlik suvi liniyalari yetkazilmagan bo‘lib, bu aholining turmush darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

1965-yilga kelib, qishloqlarda erishilgan yutuqlarga qaramay, mavjud kamchiliklar – ayniqsa, boshqaruvdagi markazlashtirish, past tashabbus va byurokratik to‘siqlar ijtimoiy rivojlanishning tabiiy sur’atini susaytirgan edi. Shu sababli, siyosiy boshqaruvda mahalliy mas’uliyatni oshirish, resurslardan foydalanishda joylardagi real ehtiyojlarni inobatga olish zarurati ko‘tarilmoqda edi [3].

1950–1960-yillar oralig‘ida Farg‘ona vodiysi qishloqlarida madaniy-maishiy muhit sezilarli darajada o‘zgarib bordi. Bu jarayon eng avvalo qishloq ayollarining ijtimoiy hayotga faol kirib kelishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Qishloq sovetlari qoshida tashkil etilgan tikuvchilik artellari, sog‘liqni saqlash punktlari va bolalar bog‘chalari ayollarni ish bilan band etish, ularga kasb o‘rgatish va ijtimoiylashtirishga xizmat qildi. Ayniqsa, paxtachilik brigadalaridagi ayollar soni yil sayin ortib bordi. “Qahramon ona” va “Mehnat faxriysi” kabi unvonlar berilishi ularda ijtimoiy faollikni rag‘batlantirdi. Masalan, Namangan viloyati Chortoq tumanidagi ayollar brigadasi bir necha yil davomida paxtachilikda respublika miqyosida ilg‘or deb topilgan.

Shuningdek, ushbu yillarda yoshlarning mehnatga jalb qilinishi, ayniqsa kasb-hunar maktablari orqali, davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Yoshlarni sanoat va qishloq xo‘jaligiga tayyorlash maqsadida ko‘plab texnikumlar, FZO (fabrika-zavod o‘quv) maktablari ochildi. Farg‘ona vodiysida bu kabi ta’lim muassasalari ijtimoiy lift sifatida faoliyat yuritdi.

Yoshlar orasida kasbga ega bo‘lish, shaharlar bilan aloqadorlik va madaniy saviyani oshirish kabi holatlar qishloq hayotida yangi dunyoqarashlarni shakllantirdi.

Madaniyat va ma’rifat sohasida ham muhim siljishlar kuzatildi. Har bir tuman markazida, ayrim yirik qishloqlarda ham madaniyat uylari, kutubxonalar, kinoteatrlar tashkil etildi. Ushbu maskanlar sovet mafkurasini yoyish bilan birga, aholining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga xizmat qilgan. Farg‘ona viloyatidagi Vodil, Qo‘qon va Beshariq hududlarida kutubxonalar soni 1961-yilga kelib 300 tadan oshgan bo‘lib, ularning aksariyati kolxoz va sovxozlarda faoliyat olib borgan [4].

Ayni davrda ta’lim tizimining rivojlanishi ham qishloq hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Qishloqlarda yangi maktablar qurilib, ularning moddiy-texnik bazasi kuchaytirildi. Maktablarda politexnika ta’limi yo‘lga qo‘yildi, ya’ni o‘quvchilar o‘quv mashg‘ulotlari bilan bir qatorda mehnat darslarida ham ishtirok etishdi. Farg‘ona viloyatida 1958-yilda qishloq maktablarida politexnika va mehnat tarbiyasini joriy etish masalasi bo‘yicha alohida yig‘ilishlar o‘tkazilgan.

Shunday qilib, ijtimoiy infratuzilmaning kengaytirilishi, ayollar va yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolligi, madaniyat va ta’lim sohasidagi taraqqiyot qishloq aholisi ongida yangicha dunyoqarash, barqarorlik va ijtimoiy adolatga ishonch singdirilishida muhim rol o‘ynadi [5]. Bu esa, o‘z navbatida, qishloq ijtimoiy qiyofasining shakllanishi va zamonaviylashuvi yo‘lida muhim tarixiy bosqichga aylandi.

1945–1965-yillar oralig‘ida Farg‘ona vodiysi qishloqlarida sovet davlatchiligining mafkuraviy yo‘nalishlariga mos tarzda madaniy-ma’rifiy faoliyatlar keng rivojlanib bordi. Qishloq aholisi ongini siyosiy tarbiyalash maqsadida madaniyat uylari, kutubxonalar, klublar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu muassasalar sovet mafkurasini singdirish, mehnatkashlarni “sotsializm g‘oyalari” atrofida birlashtirish vositasi sifatida qaraldi. Masalan, 1959–1961-yillarga doir statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Farg‘ona viloyatida kolxoz va sovxozlar tasarrufida faoliyat olib borgan madaniyat uylari soni 500 dan oshgan bo‘lib, ularning asosiy yo‘nalishlari teatr tomoshalari, kinoseanslar, siyosiy-ma’rifiy davralar o‘tkazish edi.

Bundan tashqari, kolxozlar va sovxozlarda tibbiy xizmatlarni tashkil etish orqali ijtimoiy ta’minot kengaytirildi. Aholining sanitariya-maishiy holatini yaxshilash uchun qishloq vrachlik punktlari, feldsher-akusherlik punktlari va harakatdagi tibbiyot brigadalari ishga tushirildi. Qishloq ayollari va bolalarining sog‘lig‘i alohida e’tibor markaziga aylantirildi. Ayniqsa, chaqaloqlar o‘limining kamayishi va emlash ishlarining kengaytirilishi bu boradagi yutuqlar sirasiga kiradi.

Qishloq yoshlarining jismoniy tarbiyasi va harbiy xizmatga tayyorlashga alohida e’tibor berildi. Har bir qishloq maktabida sport to‘garaklari tashkil etilib, yoshlar orasida spartakiadalar, harbiy mashg‘ulotlar va sport musobaqalari o‘tkazilishi an’anaga aylandi. Bu orqali yoshlar nafaqat sog‘lom turmush tarziga o‘rgatildi, balki vatanparvarlik ruhida tarbiyalandi. Ayniqsa, “Harbiy-vatanparvarlik kuni” kabi tadbirlar yosh avlodda sovetcha fuqarolik fazilatlarini shakllantirishda muhim omil bo‘ldi.

Sovet davrining yana bir o‘ziga xos jihati – jamoaviy mehnatning psixologik va ijtimoiy-madaniy asosga aylantirilganidir. Kolxoz va sovxozlarda ishlab chiqarish faolligi nafaqat iqtisodiy rag‘batlar, balki ijtimoiy maqom, e’tirof va faxriy yorliqlar orqali ham qo‘llab-quvvatlandi. Masalan, ilg‘or mehnatkashlar mahalliy gazetalarda tilga olinib, faxriy doskalarga suratlari ilinar edi. Bu orqali shaxsiy muvaffaqiyat jamiyat uchun foydali xatti-harakat sifatida targ‘ib qilinar, ijtimoiy faollik me’yor sifatida shakllantirilar edi.

XULOSA VA MUNOZARA

1945–1965-yillar oralig‘ida Farg‘ona vodiysi qishloqlarida yuz bergan ijtimoiy o‘zgarishlar Sovet davrining agrar siyosati, iqtisodiy rejalashtirish va ijtimoiy xizmatlarni kengaytirishga qaratilgan faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi. Paxta yetishtirishga ixtisoslashgan agrar model kolxoz va sovxozlar faoliyatini belgilab berdi. Ushbu model orqali iqtisodiy hayotga ishchi kuchi jalb qilinishi bilan birga, ayollarning jamiyatdagi faolligi, ijtimoiy xizmatlarning ko‘payishi, pensiya tizimi joriy qilinishi va uy-joy qurilishi orqali qishloq aholisi hayot tarzida tub burilishlar yuz berdi.

Qishloq infratuzilmasining kengayishi, xususan, sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat, savdo va maishiy xizmat sohalarining rivojlanishi orqali aholining kundalik turmush tarzi soddalashtirildi. Shu bilan birga, bolalar bog‘chalari, kutubxonalar, vrachlik punktlari va yangi uy-joylar orqali zamonaviy ijtimoiy muhit shakllantirildi. Ayni paytda, mavjud yutuqlar fonida qishloq infratuzilmasidagi muammolar – elektr energiyasi, ichimlik suvi ta’minoti va transport kommunikatsiyalari bo‘yicha yechilmagan masalalar hali ham dolzarbligicha qolayotgan edi.

Shuningdek, markaziy rejalashtirish va byurokratik boshqaruvning ortiqcha kuchaytirilishi qishloqlardagi mahalliy tashabbuslarni chekladi, bu esa joylardagi resurslardan foydalanishda samarasizlik va ehtiyojlarning to‘liq inobatga olinmasligiga olib keldi. Biroq shunga qaramay, ushbu davr Farg‘ona vodiysi qishloqlarining ijtimoiy qiyofasida yangi davrga yo‘l ochgan, sovet modernizatsiyasining muhim bosqichi bo‘lib xizmat qilgan davr bo‘ldi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Sovet O‘zbekiston kitobi (1945–1950). Toshkent: O‘zSSR Davlat nashriyoti, 1950. 72-b.

2. Sovet O‘zbekiston kitobi (1956–1958). Toshkent: O‘zbekiston SSR nashriyoti, 1958. 122-b.

3. Sovet O‘zbekiston kitobi (1959–1961). Toshkent: O‘zbekiston SSR nashriyoti, 1961. 201-b.

4. Ўзбекистон тарихи (1917–1991). Т. I. Тошкент: Фан, 2010. 99-b.

5. Ўзбекистон Республикаси тарихи. Т. IV. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. 59-b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

UDK: 9(575:1)
ORCID:0000-0001-68919767

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA AFG‘ONISTONDAGI SIYOSIY JARAYONLARVA UNING TURKISTONGA TA’SIRI

Mattiyev Utkir Begmatdulobovich
dotsent, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD).
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi mudiri.
Email: mattiyevutkir@gmail.com.; u.mattiyev@kiut.uz
Tel: (94) 483-33-32.

ANNOTATSIYA Afg‘oniston tarixi uning davlatchilik tarixi boshlanmasdan turib olimlar, siyosatchilar va boshqa soha vakillarining diqqat e’tiborini o‘ziga tortib kelgan. Tarixiy tadqiqotlar natijasi shuni kursatadiki, XIX asrdan boshlab Afg‘onistonning dunyo siyosatidagi ahamiyati ortib ketdi. Chunki bu davrda kapitalistik munosabatlarning shiddat bilan rivojlanishi xom-ashyo manbai, mahsulot sotiladigan bozor, arzon ishchi kuchi sifatida yangidan yangi hududlarni bosib olinishini talab qilmoqda edi. Yosh afg‘on davlatining davlatchilik borasida tajribalari oz bo‘lsada ular uz davlatlari mustaqilligini ikki buyuk mustamlakachi imperiya– Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi kelishmovchiliklardan foydalanib yarimmustamlaka holatida bo‘lsada saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi. Shuningdek mazkur maqolada XIX asr so‘ngi choragidagi Afg‘onistondagi siyosiy jarayonlar va unga Rossiya imperiyasining ta’siri haqida ham qisqa ma’lumotlar keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: General-Gubernatorlik, Arxiv, Kanselyariya, Imperiya, Afg‘on, Urug‘, Qabila, Amir, Gandamak, Gubernator, Noib, Jirg‘a, Diplomatiya.

ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ В АФГАНИСТАНЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ТУРКЕСТАН

АННОТАЦИЯ История Афганистана привлекала внимание ученых, политиков и других специалистов еще до зарождения его государственности.Результат исторических исследований показывает то, что начиная с XIX века значимость Афганистана в мировой политики взросла. Потому что Бурное развитие капиталистических отношений требовала захват новых территорий в качества источника сырья, рынка товаров, дешевого рабочего труда. Опыт в плане государственности молодого афганского государства показывает то,

что в меньшей мере они воспользававшись конфликтом между двумя колонизаторскими империями - Великобританией и Российской империей, добилис сохранения своей страны хотя бы как полуколонией. Также, в этой статье приведены краткие сведения о политечиских процессах в Афганистане и влияние Российской империи на нее в последней четверти XIX века.

Ключевые слова: Генерал – Губернаторства, Архив, Канцелярия, Империя, Афган, Род, Племя, Эмир, Гандамак, Губернатор, Наиб, Джирга, Дипломатия.

POLITICAL PROCESSES IN AFGHANISTAN IN THE SECOND HALF OF THE 19TH - EARLY 20TH CENTURY AND THEIR IMPACT ON TURKESTAN

ANNOTATION The history of Afghanistan has attracted the attention of scholars, politicians, and other professionals since before its statehood began. The results of historical studies show that from the 19th century, Afghanistan's role in world politics grew. Because of the rapid development of capitalist relations in that period required a new invasion as a source of raw materials, a market for products, a cheap labor force. Although the young Afghan state had little experience in statehood, they were able to maintain their independence using the disputes between Great Britain and the Russian Empire, which were the two great colonial empires. This article also provides a brief overview of the political processes in Afghanistan in the last quarter of the 19th century and the impact of the Russian Empire on it.
Keywords: Governor-general, Archives, Chancellery, Empire, Afghan, Tribe, Emir, Gandamak, Governor, Deputy, Diplomacy

KIRISH: O‘rta Osiyo davlatlariga Eron hukmdori Nodirshohning hujum qilishi bu yerdagi mavjud siyosiy vaziyatni o’zgartirib yubordi. Davlatchilik tuzilmalari va boshqaruv apparatlari deyarli o‘z funksiyalarini tuxtatgan bir paytda xonliklarning Eronga qarshi chiqishga qo‘drati yetmas edi. Mamlakatdagi ichki nizolar ham qarshi kurashga tusqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri bo’ldi. Biroq Nodirshohning o‘ldirilishi xonliklar qatorida Afg‘onistondagi vaziyatni ham o‘zgartirib yubordi. Buxoroda bu holat sulola almashinuviga olib kelgan bo’lsa, Afg‘onistonda yangi, qudratli davlatning tuzulishiga olib keldi. Ammo bu ikkala yosh davlat ham jamiyatdagi yangi o‘zgarishlar- kapitalistik munosabatlar ta’siridan chetda qolmadi. XIX asrning 30 yillaridan to - XIX asrning 70 yillari oxirigacha bo‘lgan davrda Af’goniston va O‘rta Osiyo davlatlari ikki buyuk davlat - Rossiya hamda Buyuk -Britaniya imperiyasi o‘rtasidagi asosiy nizoli masala bo‘lib keldi. Bu haqda tarixchi, Kasiyorti o‘lkasidagi ingliz-rus raqobatchiligi yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassis Lisitsina N.N qo‘yidagi fikrni bildiradi. “Afg‘oniston “Britaniya sheri va Rus ayig‘i o‘rtasidagi asosiy nizoli masala edi”. [3,29] XIX asr o‘rtalariga kelgach, Afg‘oniston va O‘rta Osiyo davlatlarining mustamlakachilik nuqtai nazaridan ahamiyati ortib ikki buyuk davlat Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyasining asosiy kurash maydoniga aylandi. Buyuk Britaniya Hidistonni o‘z qo‘lida saqlab qolish va o‘z hududlarini O‘rta Osiyo hisobiga kengaytirishga harakat qilsa, Rossiya imperiyasi esa

Hindistonni qo‘lga kiritishga harakat qilar, va buning uchun Afg‘oniston Hindistonga yo‘l topishda bevosita tranzit vazifasini o‘tar edi. Britaniya hukumati Ost- Indiya kompaniyasini O‘rta Osiyo bilan savdo aloqalarini kuchaytirish orqali xonliklarda o‘z ta’sirini kuchaytirishga intilar, xonliklarga arzon bahoda o‘z tovarlarini kiritar, shu yo‘l bilan xonliklarda, jumladan, Buxoro amirligida o‘zlariga tarafdor guruhlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘lgan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR: Tadqiqotning davriylik nuqtai - nazaridan ham ko’rinib turibdiki, tadqiqotni yoritishda imperiya davri, sovet davri va mustaqillik davri adabiyot va manbalari birlamchi asos hisoblanadi. Imperiya davri manbalarini asosan, buguni kun O’zbekiston Milliy Arxivida saqlanayotgan Turkiston general gubernatorligi davriga oid hujjatlar tashkil etib, o’zida o’sha davr muhitini, siyosiy jarayonlarini imperiyaviy manfaatlardan kelib chiqib aks ettirganligi bilan farqlanadi. Sovet davri adabiyotlari esa mafkuraviylik jihatidan farqlanib, mavzuga oid ma’lumotlarni davlat manfaatidan kelib chiqib tahlil etganligi bilan ajralib turadi. Mustaqillik davri adabiyotlari mavzuni yoritishda yangicha nazariy- metodologik yondashuvlarni o’zida aks ettirib, mavjud mummolarni sinfiylikka yondashmasdan, tanqidiy munosabatda bo’lganligi bilan tadqiqotni yoritishda hal qiluvchi rolni uynaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR: Rossiya imperiyasi esa O‘rta Osiyo xonliklari bilan XVI asrdan beri savdo iqtisodiy va siyosiy aloqalar o‘rnatgan hamda hududdagi haqiqiy ahvoldan xabardor bo‘lib, Britaniya imperiyasiga nisbatan katta mavqeyga ega bo‘lib olgan edi. Mazkur davrda Afg‘onistondagi siyosiy tarqoqlik va Xonliklardagi uzaro kelishmovchiliklar bir bo‘lib hududga bosqinchilarning kirib kelishiga shart - sharoit yaratib bermoqda edi. Buning natijasida esa 1839 - yilda Inglizlar Hirotda qarorgohini tashkil qilgan bo‘lsa, Ruslar 1839 - yilda Orenburg Gubernatori Perovskiy boshchiligida Xivaga hujum qildi. Ammo inglizlarning Afg‘onistonga yurishi xalqning qattiq qarshiligiga duch kelgan bo‘lsa, Perovskiy hujumi qattiq sovuq va oziq-ovqat etishmasligi natijasida barbod bo‘ldi. Shu tariqa Turkiston mintaqasiga turli sabablar bilan afg‘on fuqarolarining kirib kelishi kuchaydi. Shu o‘rinda afg‘on fuqarolarining Rossiya bosqiniga qadar ham Turkistonga kirib kelganligini yodga olish joizdir. Turkiston afg‘on muhojirlari to‘g‘risida ma’lumotlarni tahlil qilish jarayoni ko‘plab yozma manbalar bilan tanishishni taqozo etadi. Manbashunoslik fani talablaridan kelib chiqqan holda mavzuni yoritish uchun dastlab Afg‘oniston to‘g‘risida tarixiy-geografik ma’lumotlar berish kerak bo‘ladi.

Afg‘oniston ko‘p millatli davlat sifatida 1747 - yilda Durroniylar sulolasidan bo‘lgan Axmad-Shoh Durroniy (1747-1773 yy) boshchiligida tashkil topdi. Axmad-Shoh Durraniyning hokimiyatga kelishi to‘g‘risida tarixchilar bir qator qiziqarli faktlarni keltirib o‘tishgan. Masalan: Gankovskiy Yu.V. manbalarga tayangan holda quyidagi fikrlarni bildiradi. “1747 - yil Shir-Surxda afg‘on qabilalarining Jirg‘asi to‘planib, yosh bo‘lishiga qaramasdan Eron askarlarining afg‘onlardan tuzilgan otryadini boshqarayotgan Ahmadshoh podshoh qilib kutarildi. U Abdali qabilasining Sadozay urug‘idan edi”. **[**1, 127] Ahmadshohga dastlab Durri-Davron (Asr javohiri) unvoni taklif etilgan. U bunga rozi bo‘lmagach, diniy ustozi Sobirshoh

taklifi bilan Durri-Durron (Javohirlar javohiri) unvonini qabul qiladi. S.Shumov va Andreev A. qalamiga mansub “Istoriya Afganistan” deb nomlangan tadqiqot ishida ham shu haqda ma’lumot beriladi. “1738 - yilda Abdali qabilasidan Ahmadshoh (1721-1773) Nodirshoh Afshar armiyasiga xizmatga olinadi. Eron armiyasidagi 15 ming kishilik afg‘on otryadiga rahbar etib tayinlanadi. 1747 - yilda Nodirshoh Afshariy Muhammad Qulixon boshliq harbiylar tomonidan o‘z chodirida o‘ldirilgach, Eron singari Afg‘oniston hududida ham tartibsizliklar yuzaga keladi. Ichki ahvoldan xabardor bo‘lgan 25 yoshli Ahmadshoh 1747 - yilda Jirg‘ada – ya’ni oily diniy kengashda Ruhoniy Sobirshoh, Nurmuhammadxon, Muhabbatxon Popolzay, Musoxon Isxoqzay, Nasrullaxon Nurzay va Hoji Jamolxon Barakzay singari qabila xonlarining ko‘magida Durraniylar sulolasiga asos soldi”. [2,42] Tarixda Axmad-Shoh asos solgan davlat Sadozoiylar sulolasi davri deb ham ataladi. Axmad-Shoh davlat arbobi va mohir lashkarboshi sifatida qo‘shni bo‘lgan hududlarni ham o‘z davlati tarkibiga kiritadi. Xususan uning hukmronligining eng yuqori cho‘qqisi hisoblangan 1761 - yilda davlat hududlari Angliya, Frantsiya. Italiya va Ispaniya kabi davlatlarning birgalikdagi yerlaridan ham katta bo‘lgan. Afg‘oniston shimoliy Hindiston, sharqiy Eron va janubiy Turkiston hududlarini ishg‘ol etgan.[4,6]

Ahmad-Shoh asos solgan davlat feodal munosabatlarning boshlanishi arafasidagi davlat hisoblanib, unda qabilaviy munosabatlar, urug‘-jamoachilik odatlariga rioya etish jarayonlari ustun turgan. Jamiyatda qabila boshliqlari «xon»larning mavqei baland bo‘lgan. Ayniqsa, hukmdor qabilasi nufuzi baland hisoblangan. Shuning uchun afg‘on amirining jamiyatdagi o‘rni mu’tadil bo‘lmay, unga nisbatan qarshi kurashuvchilarning safi doimo barqaror o‘sib borgan. Bu borada bir afg‘on fuqarosining ingliz elchisi Elfinstonga 1809 - yilda bildirgan fikri ya’ni, «…biz o‘zaro janjal, tahlika va qon tukishni yaxshi ko‘ramiz, chunki biz o‘z ustimizdan biror bir hukmdorning bo‘lishini yoqtirmaymiz» – degan so‘zlari misol bo‘la oladi.(5,349) Shuning uchun ham ingliz elchisi Elfinston «Afg‘oniston hukmdori amir unvonida bo‘lar ekan u harbiy diktator, biroq unga nisbatan harbiy isyonlar doimo bo‘lib turish xavfi mavjud» – degan xulosaga keladi.[5,350] Elfinston aslida Fransiya,Eron va Afg‘oniston kelishuvini buzish maqsadida kelgan edi. Shu o‘rinda shuni yodga olish joizki, Elfinston missiyasi tarixiy ma’lumotlar bu fikrlarning isbotini bermoqda. Masalan: 1819 - yilda o‘zaro feodal kelishmovchiliklar girdobida qilgan Sadozaylar o‘rnini Barakzaylar qabila sardorlari egalladilar. Ularning orasida ayniqsa Qobul knyazligining hukmdori Do‘stmuhammadxonning ta’siri nihoyatda kuchli bo‘lgan. Uning davrida Afg‘oniston yanada markazlashgan davlatga aylandi, bozorlarda tovar-pul munosabatlari ancha oddiy bo‘lsada, biroq shakllandi. Aynan shu davrda Afg‘oniston masalasi Angliya va Rossiya o‘rtasida munozarali hududga aylana boshladi. Angliya Hindistondagi mavqeini mustahkamlash uchun Afg‘onistonga o‘z ta’sirini iloji boricha kengaytirishga harakat boshlagan paytda, Rossiya ham Hindistonga chiqish uchun dastlab O‘rta Osiyo masalasini hal qilishi va undan keyin bevosita Afg‘oniston orqali o‘tayotgan qadimdan shakllangan savdo yo‘llariga egalik qilish uchun harakatlarni boshlab yubordi. Angliyaning yana bir maqsadi O‘rta Osiyoga kirib borish bo‘lib, bu Rossiya imperiyasining strategik

maqsadlariga mutlaqo zid kelayotgandi. Angliya o‘zining arzon sanoat mahsulotlari bilan birga, Afg‘onistonni o‘rganish uchun Kristi, Murkroft, Trebek, Frezer, Stirling, Konolli, G.Messon, Berns va boshqa harbiy mutaxassislarni yuborib turdi.[4,11] Angliyaning Afg‘onistonni egallash uchun olib borgan harakatlari o‘zaro urushga aylanib ketdi. Natijada Buyuk Britaniya 1838-1842 - yillardagi dastlabki to‘qnashuvlarni sharmandalarcha boy berdi. Angliya hukmron doiralari bu holatdan xulosa chiqarib keyinchalik afg‘on qabilalariga qarshi yurishlarni amalga oshirdi.

Shu davrda Rossiya imperiyasining hukmron doiralari xususan tashqi ishlar vazirligi va harbiy vazirliklarning mutaxassislari Afg‘oniston to‘g‘risida ko‘plab ma’lumotlar to‘plab boshlaydilar. Agarda bu ma’lumotlarning to‘panish samarasiga e’tibor berilsa, unda ularning aksariyati O‘rta Osiyoning istilo etilganida keyin to‘plangani ma’lum bo‘ladi. Ularning orasida Qobulda 1913-yilda Afg‘oniston amiri Habibullohonning topshirig‘iga binoan «Sirodj at-tovarix» (Tarix shamchirog‘i) nomli asari Fayz Muhammad kotib muallifligida nashr etildi.

Afg‘on muallifi Said Qosim Rishtiy Rossiya imperiyasining uning mamlakati hududlariga qarata harakatlarini buyuk Pyotr I ning orzularini amalga oshirish bilan boglaydi. Uning fikriga ko‘ra Angliya 1815 - yil Vena kongressining qarorlaridan keyin Rossiyaning Afg‘oniston tomon siljishiga iloji boricha qarshilik ko‘rsatish rejalarini ishlab chiqara boshlaydi. Xususan Angliya afg‘on amiri Do‘stmuhammadxonni o‘z tarafiga og‘dirish uchun mumkin qadar nozik diplomatik munosabatlarni o‘ranatadi. Hattoki, Do‘stmuhammadxonning Angliyadan sikxlar masalasini hal etishda yon berishlari to‘g‘risidagi talab ham qondirildi.[4,126]

Do‘stmuhammadxon tarixi davri va undan keyingi davr bevosita Afg‘onistonning Turkiston bilan munosabatlariga oid ma’lumotlarni batafsilroq talqin etilishini talab etadi. Do‘stmuhammadxon yakka hukmdor bo‘lsa-da, davlat boshqaruvida amaldorlarga tayangan. Masalan: Mirza Muhammad Muxsin-xon dabir, ya’ni amir kotibi, olim, shoir, amir mahkamasi boshlig‘i, qozi Abduraxmonxon huquqshunos, bosh qozi va hokazolar.

Amir Do‘st-Muhammadxonning 14 ta qonuniy va 1 ta qonuniy bo‘lmagan xotini bo‘lgan. Ularda 52 farzandi bo‘lgan. Mavzuni yoritishda Do‘st-Muhammadxonning o‘g‘illari Muhammad Afzalxon va Muhammad A’zamxonlar to‘g‘risida ma’lumot berib o‘tish kerak. Chunki ular Do‘st-Muhammadxonning bangash qabilasining vakili Mulla Sodiq Alining qizidan tug‘ilgan farzandlari edilar. Ular katta xotin farzandlari hisoblanib taxt vorisi sifatida ko‘rsatilishi kerak edi. Biroq 1863- yilda Do‘stmuhammadxon vafot etganidan keyin xotini Hadicha onaning uchinchi farzandi Sheralixon o‘tqaziladi. Bunga Hadicha onaning otasi Afg‘oniston amiri Shudja ul-mulk vaziri Xoji Raxmatulla-xon Popolzayning qizi bo‘lgani va uning amir saroyida nufuzi juda balandligi sabab bo‘lgani bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham Muhammad Afzalxon va Muhammad A’zamxonlar Sheralixonni amir sifatida tan olmaydilar va uzoq vaqt davom etgan kurashlar taxt uchun olib boriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, Afg‘oniston tarixida Muhammad Afzalxon – 1866-1867 - yillar, Muhammad A’zamxon – 1867-1868 - yillarda amirlik qilishdi.[4,279] Biroq ichki nizolar, taxt uchun kurash Sheralixonning yana qaytadan amir bo‘lishi uchun imkon yaratgan bo‘lsa, Muhammad Afzalxon va Muhammad

A’zamxonlarning farzandlari o‘rtasidagi taxt uchun kurashni yana davom ettirishiga sabab bo‘ldi.

Bu voqealar bevosita Turkiston hududlari, xususan, Turkiston general-gubernatorligi, Toshkent, Samarqand kabi shaharlari bilan bog‘liq bo‘lgan davr bilan izohlanadi. Bu davrda Angliyaning Afg‘oniston ichki ishlariga aralashishi shu darajada keng tus oladiki. 1879 - yilning fevral oyida Sheralixon vafot etganidan keyin afg‘on taxti uchun kurash keskin tus oldi. Ayniqsa afg‘on xalqining inglizlarning ikkinchi yurishi davrida ommmaviy ravishda qarshilik ko‘rsatishi, avgust oyida Angliyaning vakili Kavenyarining Qobulda o‘ldirildi. (To‘g‘rirog‘i Kavenyari Qobulda qo‘zg‘olonchilarga qo‘liga tushmaslik uchun uz uyiga olov berib yuboradi va halok bo‘ladi).Afg‘oniston uchun tahlikali hisoblangan 1879 - yilning oxirlarida Rossiya imperiyasi hukmron doiralari Abduraxmonxon rejasini muvaffaqiyatli amalga oshiradilar. Abdurahmonxon Muhammad Afzalxoning o‘g‘li deyarli 10 yil Turkiston general-gubernatorligining markazi Toshkent shahrida yashaganligi to‘g‘risida ma’lumot beriladi.[6,360] Yana bir tarixiy asarda Turkistondagi imperiya ma’murlari 1880 - yilning boshida Sheralixonning jiyani Abduraxmonning Afg‘onistonga qaytishiga ruxsat berdilar deyiladi.[7,241]

Afg‘on muallifi Said Qosim Rishtiy bu masalaga quyidagicha izoh beradi. «Abduraxmonxon afg‘on xalqining haqiqiy dahosi va rahbari sifatida yuzaga keldi».[4,436] Muallif Abduraxmonxonni o‘sha davrda sardor unvonida ekanligini eslatadi, bu lavozim odatda viloyat hokimlariga nisbatan ishlatilgan. Abduraxmonxonning Turkiston hududidagi viloyatlar bilan tanishuvi 1859 - yil Muxammad Afzalxon o‘g‘liga Badaxshon erlarini bo‘ysundirishini buyurgan davrdan boshlanadi. Abdurahmonxon g‘alabaga erishganidan xabar topgan Buxoro amiri Muzaffarxon o‘zi Chorjuga keladi va vaziyatni kuzatadi. Buxoro qo‘shinlari afg‘on qo‘shinlari bilan to‘qnashadi va unda Muhammad Afzalxon qo‘shinlari ustun keladi. Erishilgan g‘alabalar evaziga Abduraxmonxon Toshqurg‘on sardori lavozimiga tayinlangan.[4,262] Abduraxmon otasi Muxammad Afzalxon bilan birga shimoliy Afg‘onistonda Taxta-Pul shahrini qurishni boshlaydilar. Abduraxmonxon afg‘on fuqaroligini olgan general Kempboldan (musulmonchilikka o‘tgach general Sher Axmad-xon nomini oladi) harbiy ishni yaxshi o‘rganadi. Abduraxmonxon afg‘on amiri Sheralixon va otasi Muhammad Afzalxon o‘rtasidagi kurash paytida mag‘lubiyatga uchrashi, shu sabab bilan otasi tarafida bo‘lib o‘z qo‘shnilarini Sheralixonga qarshi borishini bildirgan maktubi amir qo‘liga tushib qoladi. Amir Abduraxmonxonni kechirmaydi va u otasining taklifi bilan 1863 - yilda Amudaryodan kechib o‘tadi va Buxoro amiri huzuriga keladi.

Buxoro amiri Muzaffarxon Abduraxmonxonni poytaxtga taklif etadi. Abduraxmon 1870 - yilgacha o‘z yurtiga qaytib keladi va hokimiyat uchun bo‘lgan tortishuvlarda ishtirok etadi. 1870 - yilda Rossiya imperiyasining roziligi bilan Turkiston general-gubernatori ixtiyoridagi Buxoro amirligi, keyinchalik Samarqand va Toshkent shaharlarida 10 yildan ortiqroq vaqt davomida yashaydi. 1870 - yilda Kaufman Sheralixonga maktub yo‘llab Abduraxmonxonning Afg‘oniston ichki ishlariga aralashmasligini kafolatlaydi.[4,336] Afg‘on muhojirlarining

Turkiston general-gubernatorligida, xususan, Samarqand shahrida yashashi to‘g‘risida Samdu tarix fakulteti professori B.E.Ergashev o‘z tadqiqotlarida ma’lumot berib o‘tgan. [8,73-74]

Rossiya imperiya ma’murlari Abduraxmonxonning Toshkentda bo‘lishidan o‘zlarining elchilik munosabatlarida foydalandilar. Masalan: 1877 - yil 4 sentyabrda Hindistondagi «Payonir» gazetasi ingliz hukmron doiralari bilan kelishilgan holda Simla yonida 30 ming kishilik qo‘shin Afg‘oniston orqali Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo hududlariga hujum qilish uchun safarbarlik e’lon qilingan degan xabarni tarqatadi. O‘z navbatida Rossiya imperiyasi hukmron doiralari ham Angliyani cho‘chitib qo‘yish maqsadida Toshkentda 12 ming kishilik rus harbiy qo‘shinlari sardor Abduraxmonxon boshchiligida Hindistonga hujum qilishga tayyor turibdi degan xabarni tarqatishadi.[4,397-398]

Afg‘onistonda Seralixonning vafot etishi munosabati bilan vaziyatning tez sur’atlar bilan rivojlanishi sardor Abduraxmonxonning vataniga qaytish va mamlakatni boshqarishni o‘z qo‘liga olish to‘g‘risidagi rejalari Rossiya imperiya doiralari tomonidan ma’qullandi. Chunki bir paytlar ya’ni 1870 - yilda Rossiya hukumatining Sheralixonga qarshi afg‘on fuqarolari uning hududidan turib hech qanday qarshi harakatlarga yo‘l qo‘ymasligi to‘g‘risidagi ahdnomasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb, hisoblash mumkin edi. Sabab asosiy ishontirilgan shaxs Sheralixon siyosiy faoliyatini to‘xtatgan edi. Shuning uchun ham afg‘on muallifi Said Qosim Rishtiyning ta’kidlashicha, Rossiya imperiyasi qo‘shni Afg‘onistonda ularning taradfori bo‘lgan hukumatning kelishini juda xohlar edi. O‘z navbatida Angliya ham Afg‘onistonda kuchli hukmdorning kelishidan manfaatdor edi. Chunki 1879 - yildagi harbiy harakatlar natijasida ingliz qo‘shinlarining katta talofat kurishi, shuningdek afg‘on xalqining mamlakat mustaqilligi va ozodligi uchun yakdillik bilan inglizlarga qarshi turishi sabab bo‘lgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining “I-1” fondida afg‘on muhojirlari va ayniqsa Abduraxmonxon, shuningdek, uning bilan birga bo‘lgan yaqin qarindoshlari, xususan Muhammad Azamxonning o‘g‘li Ishoqxonlarning Turkistondagi hayotlari to‘g‘rsidagi ma’lumotlar uchraydi.

Tarixiy manbalar xususan ko‘pgina tarixchi olimlarning ta’kidlashlaricha Abduraxmonxon, uning atrofdagilarining Turkiston general-gubernatorligi hududidagi hayoti to‘g‘risida «Siroi at-tavorix» va «Tadj at-tavorix» asarlari ma’lumot beradi deb, hisoblashadi. To‘g‘ri bu asarlarda Abduraxmonxon va uning bilan birga yashagan afg‘on muhojirlarining hayoti turmush tarzi siyosiy faoliyati, xususan sardorning qanday rasmiy bahonalar bilan Afg‘onistonga qaytarish jarayonlari afg‘on mualliflari tomonidan yoritilgan.

XULOSA: XIX asr o‘rtalarida dunyo siyosati ham keskin faollashdi. Rossiya imperiyasi bu vaqtda Bolqon masalasi, Rus-Turk urushi bilan bandligi sababli ham Afg‘oniston muammosiga faol aralasha olmadi. Afg‘onistonning bo‘lajak amiri Samarqandda yashayotgan Abdurahmonni qo‘llab - quvvatlash vositasida o‘zlarining Afg‘onistondagi ta’sirlarini oshirishga harakat qildi. Abdurahmon Afg‘onistonga qaytib o‘tgach hokimiyatni 1880 - yilda to‘liq o‘z qo‘liga oldi va mamlakatda bir qator islohotlarni o‘tkazib, ichki siyosatda va tashqi siyosatda kengroq mustaqillikka erishib oldi. Amir Abdurahmonning hokimiyatni o‘z qo‘liga

olishi bilan 1873 - yilgi ingliz – rus kelishuvining bandi bo‘lgan ikkala imperiya chegarasi deb kelishilgan Amudaryo(inglizlar talabiga ko‘ra) bo‘lmasdan, balki Afg‘oniston neytral hududi bo‘lib qolaverdi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivining «I-1» (Turkiston general-gubernatori kantselyariyasi) fondi hujjatlarida Rossiya hukumatining afg‘on muhojirlarining hayoti va ijtimoiy holati to‘g‘risida juda qimmatli ma’lumotlarga ega. Mazkur arxiv ma’lumotlari asosida XIX - asrning ikkinchi yarmi - XX - asr boshida Turkistonda afg‘on muhojirlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yanada kengroq tahlil etishdek dolzarb masala keyingi tadqiqot ishlarimizda davom ettiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Ганковский Ю.В. История Афганистана с древнейших времен до наших дней М. Мысл, 1982 г.стр.127.

2.Шумов С, Андреев А. “История Афганистан”42-стр. М.Крафт-Традиция-Евролинц.2002 г.

3.Лисицина Н.Н. Восточний архив №-17. 2008 г. стр.29.

4.Риштий С.К.Афганистан в XIX веке. Изд-во Иностранной литературы. – М., 1958. С.6.

5.История XIX века. Под редакцией профессоров Лависсо и Рамбо. Том. 4. (перевод с французского). Государственное сотциально-экономическое издательство.– М., 1937. С.349.

6.Сирадж-ат-таворих (Светилник историй) «Известия Туркестанского отделения Русского Географического общества». – Т.XVII. – Ташкент. 1925

7.Независимый Афганистан (40 лет независимости). Сборник статей. Изд-во: Восточной литературы. – М., 1958. С.241.

8.Эргашев Б.Э.Исхакхан-Исторический судба.Россия-Узбекистан: История и Современность. част VII .Москва 2009. стр.73-74.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

SHOH-I ZINDA ANSAMBLI ARXEOLOGIK TOPILMALARI ASOSIDA XI–XII ASR SAMARQAND MONUMENTAL ARXITEKTURASINING TAHLILI

Xudoyberdiyeva Xulkar Zoxid qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
1-bosqich tayanch doktoranti
xudoyberdiyevaxulkar677@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samarqand shahrining qadimiy me’moriy yodgorliklaridan biri bo‘lgan Shoh-i Zinda ansamblining XI–XII asrga oid arxitektura elementlari arxeologik topilmalar asosida yoritilgan. Tadqiqot davomida noma’lum binolar qoldiqlari, sirlanmagan terrakota bezaklar, portallar, girih naqshlar va konstruktiv elementlar tahlil qilinib, ularning Qoraxoniylar davriga oid uslubiy xususiyatlari aniqlangan. Maqola Shoh-i Zinda majmuasining islomiy me’morchilikdagi o‘rni va XII asr Samarqandidagi monumental san’at yutuqlarini ilmiy asosda yoritadi.

Kalit so‘zlar: Shoh-i Zinda, Qoraxoniylar, arxeologik topilmalar, terrakota, girih, monumental san’at, XII asr me’morchiligi.

АНАЛИЗ МОНУМЕНТАЛЬНОЙ АРХИТЕКТУРЫ САМАРКАНДА XI–XII ВЕКОВ НА ОСНОВЕ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ НАХОДОК АНСАМБЛЯ ШОХИ-ЗИНДА

Аннотация. В статье рассматриваются архитектурные элементы ансамбля Шахи-Зинда в Самарканде, относящиеся к XI–XII векам, на основе археологических находок. Исследование включает анализ остатков неизвестных сооружений, несмоленных терракотовых орнаментов, порталов, гере (гирих) узоров и конструктивных элементов. Установлены стилистические особенности архитектуры эпохи Караханидов. Работа освещает роль ансамбля Шахи-Зинда в истории исламской архитектуры и достижения монументального искусства Самарканда XII века.

Ключевые слова: Шахи-Зинда, Караханиды, археологические находки, терракота, гирих, монументальное искусство, архитектура XII века.

ANALYSIS OF 11TH–12TH CENTURY SAMARKAND MONUMENTAL ARCHITECTURE BASED ON ARCHAEOLOGICAL FINDINGS OF THE SHOH-I ZINDA ENSEMBLE

Abstract. This article explores the architectural elements of the Shoh-i Zinda ensemble in Samarkand, dating back to the 11th–12th centuries, based on archaeological findings. The

research analyzes the remains of unidentified structures, unglazed terracotta decorations, portals, girih patterns, and construction techniques. The stylistic features of the Karakhanid era architecture are identified. The paper highlights the significance of the Shoh-i Zinda complex in the context of Islamic architecture and the monumental art achievements of 12th-century Samarkand.

Keywords: Shoh-i Zinda, Karakhanids, archaeological findings, terracotta, girih, monumental art, 12th-century architecture.

Kirish

Samarqand shahrining shimoliy qismida joylashgan Shoh-i Zinda majmuasi XI–XIX asrlarda shakllangan me’moriy ansambl bo‘lib, diniy, siyosiy va madaniy qatlamlarning uzviy uyg‘unligini aks ettiradi. Ansamblning eng qadimgi yodgorligi - Qusam ibn Abbos maqbarasi xalq orasida “Shohi Zinda” (tirik shoh) nomi bilan mashhur. Uning atrofida Eron, Hindiston, Shom va mahalliy me’morlar ishtirokida bunyod etilgan boshqa maqbaralar joylashgan. Shoh-i Zinda ansamblidagi XI–XII asrlarga oid arxitektura yodgorliklari Qoraxoniylar davri monumental san’atini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi [1], [2]. Shohi zinda ansambli (Samarqand, XI-XX asrlar) - Afrosiyob tepaligi janubida joylashgan qabristondagi maqbaralardan hamda masjid, minora va madrasadan iborat. Ularning eng qadimiysi Qusam ibn Abbos maqbarasi bo’lib, xalq orasida Shohi Zinda (Tirik shoh) nomi bilan mashhur.

Ansambl bir-biri bilan yo’lak orqali bog’langan uch guruh binolardan iborat. Quyi guruhdagi inshootlar Ulug’bek o’g’li nomidan qurdirgan Abdulaziz chortogi (1434-1435), unga shimoldan Davlat qushbegi madrasasi (1812-1813) tutash, uning qarshisida ayvonli masjid naqshlar bilan nafis bezatilgan. 40 bosqichli tik zinapoya o’rtalig’ining chap tomonida ziyoratxona va qabristondan iborat qo’shgumbazli maqbara (XV asr) joylashgan.

O’rta guruhdagi binolar: Amirzoda maqbarasi, Tug’li tekin maqbarasi, Shirinbeka oqo maqbarasi, uning qarshisida Temurning boshqa singlisi Turkon oqo maqbarasi, Sakkiz qirrali maqbara, Ali Nasafiy maqbarasi kabilar.

Yuqori guruhdagi binolar: ziyoratxona, uch qismdan iborat masjid, Xo’ja Ahmad maqbarasi, 1360-1361-yilda qurilgan maqbara, Tuman oqo komleksi (1405 -06), 2 nomsiz maqbara (XIV asrning oxiri) kabilardir. Ansambl tarkibidagi 20 dan ortiq inshootlar davlat muhofazasiga olingan. XIX-XX asr boshlarida ansamblning yana bir necha binolari barpo etlgan.XVIII asrda vayron bo’lgan zina o’rnida keyinchalik 40 pog’onali g’ishtin yangi zina qurilgan.[9].

Samarqanddagi Shohi Zinda maqbaralar majmuasidagi Shirin bek aka maqbarasi devorlarida qiziqarli manzaralar topilgan (1385-yil). Tadqiqotchilar bu maqbaralarning devorlarida naqsh ichiga joylashtirilgan 16 manzara tasvir tahlilini yozib qoldirishgan. Bu tasvirlar saqlangan tasvirlarni o’z qismi bo’lib, avval maqbara ichki devorlarining hammasiga manzaralar chizilgan bo’lsa kerak. Manzaralarning ba’zi qismlari tasviri saqlangan xolos. Ularda zangori rangda daraxtlar tasvirlangan bo’lib, tagida ariqda oqib turgan suv aks ettirilgan,

daraxt shoxlarida esa aniq qilib, zag’izg’on qushlari chizilgan. Rassom manzarani qo’li bilan, o’ziga ishongan holda yozgan. Tasvirdagi mo’yqalam izlarining yo’nalishlari erkin harakatlar bilan yozilganligi diqqatni tortadi. Chizilayotgan tasvir shartli ravishda, perspektiv qisqarishlarsiz bajarilgan. Tasvirlar qavatma-qavat tarzda aks ettirilgan. Rassom suvning harakatini, yerning g’adr-budrliklarini real voqelikda ko’rsatishga harakat qilgan.

Daraxtlar bir-birga o’xshamaydi. Oq zaminga zangori, och havo ranglarda ba’zi hollarda qizg’ish, jigar rangda tasvirlar bunyod etilgan. Shohi Zinda maqbaralar majmuasidagi boshqa Tuman aka (1406 y) maqbarasida saqlangan naqqoshlik ishlaridan tashqari manzaralarda zangori, sariq, qizil, jigar rang , tilla ranglar ishlatilgan. Bu yerda manzara shartli tasvirlanib, daraxtlar birbiriga o’xshash, davriy takrorlangan va real voqelik aks ettirilmaganligi esa asarning hayotiy qilib chizilganligini ko’rsatadi.

Tuman aka maqbarasidagi manzaralarda Markaziy Osiyo tabiatida uchramaydigan o’simliklar tasvirlangan. Tasvirlarda palma va kiparis daraxtlari aks ettirilgan. Hamma tasvirlar oq zaminga sariq va och qizil ranglar bilan bajarilgan. Namoyondagi manzaralarning vertikal holatdagi o’ymakorlik ishlari bilan uyg’unlashib ketganligini ko’rish mumkin. [10].

Metod

Ushbu tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslandi:

- Arxeologik tahlil: Shoh-i Zindadagi qazishmalar natijasida topilgan inshoot qoldiqlari, g‘isht o‘lchamlari va poydevor konstruksiyalari o‘rganildi [2].
- Me’moriy-stilistik tahlil: Shoh-i Zindadagi yodgorliklar boshqa mintaqaviy yodgorliklar (Raboti Malik, Afrosiyob masjidi) bilan qiyoslandi [4], [5].
- Manbashunoslik: Ibn Battuta, Abu Tohirxo‘ja va XX asr olimlarining yozma manbalaridagi tasvirlar asosida tarixiy kontekst tiklandi [1], [7].
- Dekorativ tahlil: Bezak elementlari - o‘yma terrakota, girih naqshlar, ustunlar, sirlangan va sirlanmagan koshinlar tuzilmasi texnik jihatdan tahlil qilindi [6].

Natijalar

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

- Noma’lum bino qoldiqlari: Shodi-Mulk-og’o maqbarasi yaqinidagi 11 metrlik portalli devor yuqori darajadagi inshootga mansubligini ko‘rsatadi [2].
- Sirlanmagan terrakota bezaklar: Marvaridli zanjirlar, sakkizburchakli girix naqshlar Qoraxoniylar uslubini aks ettiradi [6].
- Portal elementlari: Ustunchalar va timpanlarda g‘unchasimon o‘simlik naqshlari uchraydi [2], [7].
- Geometrik panellar: Ikki bosqichli girih naqshlar mavjud bo‘lib, murakkab kompozitsiyaga ega [6].
- Arxitektura texnikasi: G‘isht o‘lchami (18×33×4-4,5 sm), yog‘och bog‘lamalar va uch qavatli poydevorlar XII asr qurilish an’analarini yoritadi [1].



1-rasm. Bino portalining chizmasi. **2-rasm. Binoning panelidagi naqsh.**

Bino portal - (binoning kirish eshigi) ning paneli geometrik naqsh elementi to’rtburchaklardan tashkil topadi. Shu girih elementlari yordamida to’rtburchaklardan tashkil topgan naqshlarni ketma- ketlikda yasash mumkin. Girih taqsim deb ataladigan oddiy elementdan tashkil topadi. Shu taqsimlarning takrorlanishidan tugal naqsh kompozitsiyasi hosil qilinadi. Quyidagi rasmda bino portalidagi bezak girih elementlarini kombinatsiyalash asosida naqsh kompozitsiyasi hosil qilish usuli berilgan. (3-rasm).



3-rasm. To’rtburchaklar kombinatsiyasi asosida naqsh kompozitsiyasini hosil qilish.

Quyidagi rasmda Shohi Zinda me’moriy majmuasidagi geometrik naqsh elemetlarining tasviri va uning tahlili aks ettirilgan.



3-rasm. Girih to’rini yasash

A va C nuqtalardan beshtadan nur chiziqlar taratib a va b nuqtalarni topamiz. Aa ni A va C nuqtadan AB, AD,CD va CB ga o’lchab qo’yib, n,m,l va h nuqtalarni topamiz.a va b nuqtalardan aylanalar va n,m,l va h nuqtalardan yoylar chizib, 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12,13,14 va 15 nuqtalarni topamiz. Bu chiziqlarni uchlaridan 14 nuqta orqali, ikkinchi uchlari 15 nuqta orqali chiziqlar o’tkazamiz. 6 va 4 nuqtalar orqali beshinchi nur chiziqqa parallel, 1 va 7 nuqtalar orqali birinchi nur chiziqlarga parallel o’tqazamiz. Shu chiziqlarni uchlarini chizmaga qarab yoylar uchi bilan tutashtiramiz.3 va 9 nuqtalar orqali vertikal, 2 va 8 nuqtalar orqali gorizontal chiziqlar o’tqazamiz.11 va 12 nuqtalardan nur chiziqqa parallel, nurlarga parallel chiziqlar chizamiz.



4-rasm. Girih to’rini yasash



A nuqtadan beshta va C nuqtadan 3 ta nurchiziqlar chizamiz. A nuqtadan boshlangan ikkinchi va to’rtinchi nurchiziqlar C nuqtadan taralgan birinchi va uchunchi nurchiziqlar bilan

to’qnashib 1 va 2 nuqtani vujudga keltiradi. A bilan 1 nuqta oralig’iga teng radius bilan A nuqtadan AB va AD ga yoy kesishtirib 3 va 4 nuqtalarni topamiz. 1,2,3 va 4 nuqtalarni chizmada ko’rsatilgandek shtrix chiziqlar bilan tutashtiramiz. So’ngra 1 nuqtadan vertikal va 2 nuqtadan gorizontal shtrix chiziqlar chizib 5 va 6 nuqtalarni topamiz. 1 va 2 nuqtalardan aylana, 3 va 4 nuqtalardan yoylar chizamiz. Chizmadan ko’rinib turibdiki, aylanalar nurlar va girih to’rchiziqlari bilan beshga bo’lingan. Ya’ni beshta nuqta vujudga kelgan. Shu nuqtalar orqali chiziqlar o’tkazamiz. AC ni to’r chiziq bilan kesishgan nuqtasi orqali o’tgan chiziqlar A dan taralgan birinchi va beshinchi nurchiziqlarga n va a nuqtalarda taqaladi.Chizmada ko’rsatilgandek bu nuqtalarni yoy uchlari bilan tutashtiramiz.

Tahlil. Shoh-i Zindadagi XII asr arxitektura namunalarida Markaziy Osiyo islomiy me’morchiligiga xos uslubiy birlik va ilmiy yondashuv ko‘zga tashlanadi. Buxoro, Termiz va Uzgent yodgorliklari bilan mushtarak elementlar mavjud bo‘lsa-da, Shoh-i Zindaning stilistik murakkabligi ularni ortda qoldiradi [3], [5]. Geometrik naqshlar asosidagi bezaklar o‘zida ilmiy asoslangan matematik va simmetrik tuzilmani mujassam etgan bo‘lib, bu me’morlarning chuqur bilimga ega bo‘lganini ko‘rsatadi [6]. Ibn Battuta va boshqa tarixiy manbalardagi tasvirlar Shoh-i Zindaning diniy va siyosiy mavqeyini tasdiqlaydi [1].

Xulosa. Tadqiqot Shoh-i Zinda majmuasi XII asrda Samarqandda yuksak darajadagi monumental me’morchilik an’anasi shakllanganini isbotladi. Topilgan inshoot qoldiqlari, terrakota bezaklar va portal kompozitsiyalari islomiy me’morchilikning shakllanishida markaziy rol o‘ynagan. Bu ansamblning har bir elementi - tarixiy, texnik va estetik jihatdan alohida tahlilga loyiq [2], [8]. Mazkur o‘rganishlar me’moriy yodgorliklarni restavratsiya qilishda hamda yosh avlodda tarixiy merosga bo‘lgan e’tiborni oshirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi [3].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Булатов, Т.А. Архитектура Самарканда XI–XII веков. Ташкент: Фан, 1983.
2. Булатов, Т.А. «Некоторые архитектурные находки в ансамбле Шахи-Зинда.» Археологические изыскания в Самарканде, т. 2. Ташкент: Фан, 1987, с. 154–162.
3. Усмонов, Б. История архитектуры Маверанахра в раннем средневековье. Самарканд: СамГУ, 1995.
4. Hillenbrand, R. *Islamic Architecture: Form, Function and Meaning.* Edinburgh: Edinburgh University Press, 1994.
5. Golombek, L. & Wilber, D. *The Timurid Architecture of Iran and Turan.* Princeton: Princeton University Press, 1988.
6. Erkinov, T. XII asr Samarqand me’moriy naqshlarida geometrik struktura. *O‘zRFA Arxitektura va Qurilish jurnali*, 2019, № 2, 45-53-betlar.
7. Немцева, Н.Б. и Шваб, Ю.З. Ансамбль Шахи-Зинда. Ташкент, 1979.
8. Рempель, Л.И. Булатов, М.С. Самарканд меъморчилиги тарихи. Ташкент, 1984.
9. P.SH.Zoxidov “ Me’mor olami”.1994.
10. Nig’monov.B, Ermatova A.B. Naqshi nigoralar. Toshkent – 2010.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

MARKAZIY OSIYONING ARAB XALIFALIGI ISTILOSI DAVRI TARIXIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI (INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR ASOSIDA)

Xolmatov Shukurillo Ziyovidin o`g`li
Farg`ona Davlat Universteti
Tarix fakulteti tayanch doktoranti
Shukurillo92@inbox.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Arab xalifaligi tomonidan Markaziy Osiyo istilosi haqida bag‘ishlangan ingliz tilida yaratilgan ilmiy adabiyotlar haqidagi ayrim fikr mulohazalar va tahlillar ilgari surilgan. Jumladan, I.Kristofer Bekvit, A.R.Gibb, G.R.Havting, Khalid Yahya Blankinship va Bai Shouyi kabi tadqiqotchilar asarlarining mazmuni hamda ulardagi e’tiborga molik fikrlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: Yevropa, Markaziy Osiyo, Arab xalifaligi, I.Kristofer Bekvit, "Empires of the Silk Road", Tan imperiyasi, Buyuk Britaniya, Hamilton Alexander Rosskeen Gibb, Khalid Yahya Blankinship,Bai Shouyi,Farg‘ona, Xuroson va Transoksaniya, Arab tarixchilari (al-Tabariy, al-Balozuriy)

ANALYSIS OF RESEARCH ON THE HISTORY OF THE ARAB CALIPHATE OCCUPATION OF CENTRAL ASIA (BASED ON ENGLISH-LANGUAGE RESEARCH)

Abstract. In this article, some feedback and analysis on the scientific literature created in English by the Arab Caliphate dedicated to the occupation of Central Asia was put forward. Including I.Christopher Beckwith, A.R.Gibb, G.R.Havting, Khalid Yahya Blankinship and Bai Shouyi this In this article, some feedback and analysis on the scientific literature created in English by the Arab Caliphate dedicated to the occupation of Centrad.

Key words:Europe, Central Asia, Arab Caliphate, I.Christopher Beckwith," Empires of the Silk Road", Tan Empire, UK, Hamilton Alexander Rosskeen Gibb,Khalid Yahya Blankinship,Bai Shouyi, Ferghana, Khuroson and Transoxania, Arab historians (al-Tabariy, al-Balozuri).

АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ ПЕРИОДА ЗАВОЕВАНИЯ АРАБСКОГО ХАЛИФАТА (НА ОСНОВЕ АНГЛОЯЗЫЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ)

Аннотация. В этой статье были представлены некоторые отзывы и анализ научной литературы, созданной Арабским халифатом на английском языке и посвященной

оккупации Центральной Азии. Включая И.Кристофера Беквита, А.Р.Гибба, Г.Р.Хавтинга, Халида Яхью Бланкиншипа и Бая Шуйи, в этой статье представлены некоторые отзывы и анализ научной литературы, созданной Арабским халифатом на английском языке и посвященной оккупации Сентрада.

Ключевые слова:Европа, Центральная Азия, Арабский халифат, И.Кристофер Беквит, "Империи Шелкового пути", Империя времени, Великобритания, Гамильтон Александр Росскин Гибб, Халид Яхья Бланкиншип, Бай Шуйи, Фергана, Хуросон и Трансоксания, арабские историки (аль-Табари, аль-Балозури).

KIRISH.

Qadimdan Markaziy Osiyoda turli xalqlar yashagan. Ularning turmush tarzi birinchi navbatda hududning iqlimi va geografiyasi bilan belgilanadi. Mintaqaning quruqligi qishloq xo'jaligini qiyinlashtiradi va dengizdan masofa uzoqligi uni ko'plab savdo-sotiqdan uzib qo'yadi. Shunga qaramay, mintaqada bir nechta yirik shaharlar rivojlandi. Ko'chmanchi xalqlar bu huqudda ming yillar davomida hukmronlik qilgan.

Markaziy Osiyo va uning atrofidagi dasht ko'chmanchilari va o'troq odamlar o'rtasidagi munosabatlar ziddiyatlar bilan ajralib turardi. Ko'chmanchi turmush tarzi urushga juda mos edi va dasht chavandozlari otda kamonchilarining halokatli texnikasi va qobiliyati tufayli dunyodagi eng harbiy jihatdan kuchli odamlarga aylanishdi.[1]

Arab manbalarida Movarounnahrni arablar istilo qilishi 650-yillarda boshlagan, degan taassurot uyg‘otsa-da, aslida dastlabki harbiy harakatlar faqat o‘lja olish va o‘lpon undirishga qaratilgan edi. Dastlab arablar Marvdagi kichik harbiy bo‘linma bilan cheklanishgan, Iroqdagi voliylar har yili Movarounnahrdagi mahalliy hokimliklarni talon-toroj qilish uchun qo‘shin jo‘natib turishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Ilk o‘rta asrlardan boshlab esa Yevropa jamiyatida Sharq mamlakatlariga qiziqish tobora ortib borgan. Markaziy Osiyo tarixi va tarixshunosligi ingliz tilida keng o‘rganilmoqda. Bu mintaqaning boy va rang-barang o‘tmishi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘lgan. Markaziy Osiyo qadimdan Sharq va G‘arbni, Shimol va Janubni bog‘laydigan yo‘llarning kesishuvida joylashgan bo‘lib, strategik ahamiyatga ega hudud hisoblanib kelgan. Shuning uchun jahonning qudratli va buyuk davlatlari, shu jumladan, Yevropa mamlakatlari bu mintaqaning tarixi va madaniyatiga har doim qiziqish bildirib kelgan va haligacha qiziqishda davom etmoqda.

Hozirgi kunga qadar jahon tarixshunosligida va mamlakatimizda Markaziy Osiyo tarixi to‘g‘risida salmoqli ilmiy asarlar yaratilgan. Ushbu tadqiqotlarda Markaziy Osiyo tarixining ayrim jihatlari xususida jiddiy mulohazalar uchraydi.

Markaziy Osiyo haqidagi dastlabki ma’lumotlar qadimgi yunon tarixchilari va geograflarining asarlarida keltirilgan. Ingliz tilli tadqiqotlar olib borgan olimlar tomonidan ko`plab izlanishlar olib borilgan. Masalan,Hamilton Alexander Rosskeen Gibb (H.A.R. Gibb) (1895–1971) – shotlandiyalik sharqshunos, islomshunoslik va arab tarixi bo‘yicha taniqli

mutaxassis.Uning“The Arab conquests in Central Asia”asarini,shuningdek o`sha davr haqida ma`lumot beruvchi,Khalid Yahya Blankinship, Bai Shouyi asarlarida Abbosiylar inqilobining ijtimoiy va harbiy jihatlari, jumladan, arablarning Markaziy Osiyoga bosqini haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Arab xalifaligi davrida yevropaliklar Markaziy Osiyoning musulmon olimlari – Farg‘oniy, Forobiy, Xorazmiy, Ibn Sino (Avicenna), Beruniy va boshqalar haqida ma’lumotga ega bo‘lganlar. XIV – XV asrlarda Yevropaning ba’zi hukmdorlari Amir Temur va Temuriylar sulolasiga mansub hukmdorlar bilan diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘yganlar. XVI – XVIII asrlarda yevropalik kartograflar va sayohatchilar Markaziy Osiyoning tasviri va ta’rifi tushirilgan ko‘plab xaritalar tuzdilar. [2]

Markaziy Osiyoning ilk o‘rta asrlar davri tarixini o‘rganishda amerikalik tarixchi va sharqshunos olim I.Kristofer Bekvitning asarlari alohida o‘rin tutadi. K.Bekvit Markaziy Osiyo va Yevroosiyo tarixi, madaniyati va tillari bo‘yicha mutaxassis hisoblanadi. Uning ilmiy ishlari, ayniqsa, ilk o‘rta asrlar davridagi Markaziy Osiyo tarixi, ko‘chmanchi xalqlar, ipak yo‘li madaniyati va ularning Yevroosiyo tarixidagi ahamiyatiga bag‘ishlangan.Uning ijodi “The Tibetan Empire in Central Asia”, “Medieval Tibeto-Burman Languages”, “Koguryo, the Language of Japan’s Continental Relatives”, “Phoronyms: Classifiers, Class Nouns, and the Pseudopartitive Construction”, “Warriors of the Cloisters: The Central Asian Origins of Science in the Medieval World”, “Empires of the Silk Road: A History of Central Eurasia from the Bronze Age to the Present”, “Greek Buddha: Pyrrho‘s Encounter with Early Buddhism in Central Asia” asarlaridan iborat. "The Tibetan Empire in Central Asia" (1987) –asarida Bekvit Tibet imperiyasining VII–IX asrlarda Markaziy Osiyodagi hukmronligi va uning Xitoy, Eron va turkiy xoqonliklar bilan munosabatlarini o‘rganadi. Ushbu tadqiqot Markaziy Osiyoning siyosiy va madaniy tarixini yangicha talqin qilishga yordam berdi.[3]

"Empires of the Silk Road" (2009) – Bekvitning eng mashhur asari bo‘lib, u yerda u Markaziy Osiyoning ilk o‘rta asrlardagi global ahamiyatini, ipak yo‘li savdo-sotiq tarmoqlari va ko‘chmanchi imperiyalarning rolini tahlil qiladi. Uning fikricha, Markaziy Osiyo faqat "periferiya" emas, balki qadimgi dunyo tarixining asosiy bo‘lgan deb takidlaydi.I.Kristofer Bekvit lingvist bo‘lganligi uchun arab-fors, xitoy, yapon va hind tillarini yaxshi o‘zlashtirgan. Aynan shu holat uning asarlari ilmiy qiymati yuqorigiligini ta’minlaydi. “The Tibetan empire in Central Asia: a history of the struggle for great power among tibetians, Turks, Arabs and Chinese during tre early middle ages” ва “Empires of the Silk Road (a history of Central Eurasia from the Bronze age to the present)” asarlarini yozishda arab-fors va xitoy tillaridagi manbalardan hamda tibet hujjatlaridan foydalanadi.[4]

Kristofer Bekvit lingvist bo‘lganligi uchun arab-fors, xitoy, yapon va hind tillarini yaxshi o‘zlashtirgan. Aynan shu holat uning asarlari ilmiy qiymati yuqorigiligini ta’minlaydi. Olim o‘z asarlarini yozishda “The Tibetan empire in Central Asia: a history of the struggle for great power among tibetians, Turks, Arabs and Chinese during tre early middle ages” ва “Empires of the

Silk Road (a history of Central Eurasia from the Bronze age to the present)” asarlarini yozishda arab-fors va xitoy tillaridagi manbalardan hamda tibet hujjatlaridan foydalanadi.[5]

Kristofer Bekvitning 1993 yilda nashrdan chiqqan “The Tibetan empire in Central Asia: a history of the struggle for great power among tibetans, turks, arabs and Chinese during tre Early middle ages” (“Markaziy Osiyodagi Tibet imperiyasi: O‘rta asrlardagi tibetliklar, turklar, arablar va xitoyliklar o‘rtasida buyuk kuch uchun kurash tarixi”) nomli asarida ham Farg‘onaning turklar va arablar davridagi Xitoy bilan aloqalari to‘g‘risida hikoya qilinadi. Unda 717 yilning avgust oyida Farg‘ona mojarosi sabab Oqsuv (Aksu) hududida sodir bo‘lgan Tan imperiyasi va Arab xalifaligi o‘rtasidagi “Oqsuv jangi” to‘g‘risida ma’lumot beriladi.[6] Muallif keltirgan ma’lumotlarning ishonchliligi ancha yuqori, chunki u o‘z ishida arab, xitoy manbalaridan hamda turli davrlardagi tarixshunoslik va manbashunoslik tadqiqotlaridan unumli foydalangan.

Uning “Empires of the Silk Road (a history of Central Eurasia from the Bronze age to the present)” (“Ipak yo‘li imperiyalari (Yevroosiyo markazi bronza davridan bugungacha)”) nomli monografiyasida ham O‘rta Osiyo, jumladan, Farg‘ona arablar, turklar, xitoyliklar va tibetliklar manfaati to‘qnashgan hudud sifatida tasvirlanadi.[7]

Kristofer Bekvit – Markaziy Osiyoning ilk o‘rta asrlar tarixini yangicha talqin qilgan, uning global ahamiyatini ko‘rsatib bergan taniqli olim. Uning asarlari bu mintaqaning Yevroosiyo tarixidagi markaziy o‘rni haqida yangi nuqtai nazarni shakllantirishga yordam berdi.

Movarounnahrning xalifalik tomonidan egallanishi masalasiga yevropalik tadqiqotchilar birinchilardan bo‘lib o‘z e’tiborlarini qaratishgan. Markaziy Osiyoni Arablar tomonidan bosib olinish tarixini o‘rganishda Buyuk Britaniya orientalistika maktabi, jahonda yetakchi o`rinlarni egallaydi. Jumladan, 1923-yilda Londonda chop etilgan Hamilton Alexander Rosskeen Gibb (H.A.R. Gibb) (1895–1971) – shotlandiyalik sharqshunos, islomshunoslik va arab tarixi bo‘yicha taniqli mutaxassis. Uning asarlari islom dunyosi tarixi, madaniyati va siyosati haqida chuqur tadqiqotlardir. “The Arab conquests in Central Asia”asarida Movarounnahrda Arab xalifaligining harbiy yurishlari va antiarab koalitsiyasining faoliyatlariga alohida to‘xtalgan. [8] Bu asarda u VII–VIII asrlarda arab qo‘shinlarining Movarounnahr (hozirgi O‘zbekiston, Tojikiston, Janubiy Qozog‘iston) va boshqa Markaziy Osiyo hududlariga yurishlarini batafsil yoritgan.

Ushbu asarning birinchi loyihasi 1921-yil dekabr oyida London universitetiga “Arablarning Transoksaniyani bosib olishi” nomi ostida san’at magistri ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya sifatida taqdim etilgan va 1922 yil yanvarda Senat tomonidan tasdiqlangan. U Markaziy Osiyodagi arablar bosqini haqida to‘liq tarixiy ma’lumotlarni taqdim etishga da’vo qilmaydi, balki faqat shu paytgacha qilinganidan ko‘ra batafsilroq tanqidiy o‘rganish uchun mo‘ljallangan. Nashr qilish narxini pasaytirish uchun dastlab matnga qo‘shilgan keng ko‘lamli havolalar har bir bobning oxirida bir nechta eslatmalarga qisqartirilgan. Aksariyat hollarda,

Tabariy yoki Balazuriyning tegishli joyidan osongina topish mumkin bo‘lsa, boshqa o‘rinlarda hech qanday havola berilmaydi. [9]

Asarni yozishda Arab tarixchilari (al-Tabariy, al-Balozuriy) asarlari va Xitoy va sosoniylar manbalaridagi ma’lumotlardan foydalangan.

H.A.R.Gibbning tadqiqotida arab bosqinlarining siyosiy, harbiy va madaniy jihatlarini tizimli tahlil qilgan birinchi g‘arbiy manbalardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, arablar nafaqat harbiy kuch, balki mahalliy elitalar bilan hamkorlik orqali hududni barqaror boshqargan.Asarda arab qo'shinlarining Xuroson va Transoksaniya hududlariga kirib kelishi, mahalliy aholining qarshiligi va madaniy o'zgarishlar kabi mavzularni qamrab oladi.Yevropalik ko`p tadqiqotchilar Movarounnahr(daryoning narigi tomoni)ni Transoksiana deb atashadi.Bu so`z yunoncha Oksus(yunonlar Amudaryoni shunday atashgan).[10] Bu nom birinchi marta Aleksandr Makedonskiy tomonidan miloddan avvalgi 4-asrda Aleksandr qo'shinlari mintaqani zabt etganida paydo bo'lgan. O'sha kunlarda mintaqa xuddi shunday yunoncha nomga ega bo'lishi mumkin edi.[11] Bu atama qadimgi yunon tarixchilari tomonidan birinchi marta qo`llangan bo`lshi mumkin.Keyinchalik esa Makedoniyalik Aleksandr bu nomdan foydalangan.Bu orqali Yevropalik tadqiqotchilar o`z asarlarida arabcha Movaraunnahr so`zi o`rniga Transoksianani o`z asarlarida ishlatishgan.

XX asr oxirlarida yaratilgan ingliz tilli tadqiqotlar orasida mashhur amerikalik tarixchi Khalid Yahya Blankinship — 1949-yilda Seattle, Vashingtonda tug‘ilgan amerikalik tarixchi va islomshunos olim. U islom va O‘rta Sharq tarixiga ixtisoslashgan. 1973-yilda Vashington universitetida tarix bakalavriatini tugatgan va o‘sha yili islom dinini qabul qilgan.[12]

Uning "The End of the Jihâd State: The Reign of Hishām Ibn ʿAbd al-Malik and the Collapse of the Umayyads" (1994) asarida Markaziy Osiyo, xususan, Movarounnahr va Xuroson hududlari arablarning kengayishida muhim o'rin tutganligi ta'kidlanadi. Hishom ibn Abd al-Malikning hukmronligi davrida (724–743 yillar) bu mintaqalarda arablarning harbiy harakatlari davom etgan. Xuroson va Movarounnahrning qo'lga kiritilishi, shuningdek, ularning iqtisodiy va strategik ahamiyati arablarning bu hududlarga qiziqishini oshirgan.

Bu davrga oid xitoy tarixchilari tomonidan ham ma`lumotlar berib o`tilgan.Masalan, Bai Shouyi (1909–2009) — Xitoyda taniqli tarixchi, musulmon olimi va akademik. U asosan Xitoy musulmonlarining tarixi, madaniyati va jamiyatining o'rganilishi bilan shug'ullangan. Bai Shouyi Xitoyning eng mashhur musulmon tarixchilaridan biri bo'lib, uning ishlari, ayniqsa, Xitoy musulmonlarining tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Bai Shouyi arab tilini onasi va xolasidan o'rgangan. Keyinchalik Kaifengdagi Islom maktabida tahsil olgan.[13]

Bai Shouyi tomonidan yozilgan "A History of Chinese Muslims" (Xitoy musulmonlarining tarixi) asarining ikkinchi jildida arablarning Markaziy Osiyoga bosqini va uning oqibatlari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Asarda yozilishicha 715-yilda xalifalik Xitoy bilan chegaradosh Farg‘ona vodiysi ixshidini taxtdan ag‘darib, taxtga Alutarni o‘tqazadilar. Taxtdan ag‘darilgan ixshid Kuchar (Sharqiy Turkiston)ga qochib, Xitoydan yordam so‘radi. Xitoyliklar Farg‘onaga Chjan Syaosun boshchiligida 10 minglik qo‘shin yubordilar. Xitoy sarkardasi

Namanganda Alutar va arablarning birlashgan qo‘shini yengib, ixshidni qayta taxtga o‘tqazadi. [14]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoni Arab xalifaligi tomonidan istilo qilinishi tarixi ingliz tilli tadqiqotlarda muhim komponenti sifatida baholanadi. Tadqiqotlarda ayniqsa, Arab xalifaligi tomonidan Movarounnahrga qarab olib borilgan ekspansion harakatlar va ularga nisbatan mahalliy qarshilik kuchlarining shakllanishid alohida ta’kidlanadi. Ingliz tilidagi tadqiqotlar va manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki: Arab xalifaligi istilosi Markaziy Osiyoda nafaqat harbiy yurishlar, balki hududiy siyosiy transformatsiya, dini hamda madaniy asimilatsiya jarayonini boshlab berdi. Bu jarayon bir nechta bosqichdan iborat bo‘lib, dastlabgi kuchli harbiy yurishlar, keyin esa mahalliy elitalarning integratsiyasi, iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar orqali islomiy davlat shakllanishiga olib bordi. Talas jangi orqali esa G‘arb bilan Sharq hukmronlik uchun birinchi marta to‘qnashgan va Markaziy Osiyo tarixining muhim burilishini bildirgan.

Shunday qilib, Arab xalifaligi istilosi regionda yangi siyosiy, dini va madaniy tuzumning shakllanishiga zamin yaratdi, bu esa Samanidlar davrida o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga yetdi.

Ayniqsa I.Kristofer Bekvit,Khalid Yahya Blankinship va Bai Shouyi kabi tadqiqotchilar ning asarlarida ushbu masala arab, fors va xitoy tilli manbalar asosida jiddiy tahlil qilinadi hamda ilmiy xulosalar beriladi.

Yevropa, Rossiya va arab olimlarining izlanishlarida Markaziy Osiyo,arablar uchun nafaqat geosiyosiy, balki mafkuraviy qulay hudud sifatida ham talqin etiladi. Bu munosabatlar musulmon olamining shimoliy chegaralarida Islomning yoyilish jarayoni va unga bo‘lgan mahalliy qarshilik kontekstida o‘rganiladi.

Xorijiy adabiyotlarda bu davr hodisalari ko‘plab manba va uslublar asosida yoritilgan bo‘lib, ular asosida Markaziy Osiyoni arablar tomonidan bosib olinishi emas, balki murakkab diplomatik, madaniy va iqtisodiy aloqalar tizimi sifatida ham ko‘rilmoqda. Shunday qilib, bu munosabatlar tarixini chuqur va ko‘p qirrali tahlil qilish, Markaziy Osiyo tarixini global kontekstda to‘g‘ri anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'Connell, Robert L.: "Soul of the Sword.", page 51. The Free Press, New York, 2002

2.Archaeology.uz jurnali MARKAZIY OSIYO TARIXINING DOLZARB MUAMMOLARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2022 yil 25 noyabr

3.Kennedy, Hugh. The Great Arab Conquests: How the Spread of Islam Changed the World We Live In (ingliz tilida). Philadelphia, PA: Da Capo Press, 2007.

4.https://en.wikipedia.org/wiki/Christopher_I._Beckwith

5.Christopher I. Beckwith. The Tibetan empire in Central Asia: a history of the struggle for great power among tibetians, Turks, Arabs and Chinese during tre early middle ages. – New Jersey: Prinseton university press, 1993. – 281 p.

6·Christopher I. Beckwith. Empires of the Silk Road (a history of Central Eurasia from the Bronze age to the present). – New Jersey: Prinseton university press, 2009. – 499 p.

7.Christopher I. Beckwith. The Tibetan empire in Central Asia: a history of the struggle for great power among tibetians, Turks, Arabs and Chinese during tre early middle ages. – New Jersey: Prinseton university press, 1993. – 89-90 p.

8· Christopher I. Beckwith. Empires of the Silk Road (a history of Central Eurasia from the Bronze age to the present). – New Jersey: Prinseton university press, 2009. – 133 p.

9.Gibb H.A.R. The Arab conquests in Central Asia. – London, 1923

10."Strabo, Geography, Book 11, chapter 7, section 4

11. Rtveladze, E. V. *Civilizations, states, and cultures of Central Asia*. (University of World Economy and Diplomacy, 2008)

12.https://lamppostedu.org/product/a-history-of-the-crusades-dr-khalid-yahya-blankinship 13.https://deargone.com/11694/bai-shouyi

14.Bai, Shouyi et al. (2003). *A History of Chinese Muslim (Vol.2)*.pages 235—236

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

YANGI IQTISODIY SIYOSATNING TURKISTON O‘LKASI AGRAR MUNOSABATLARGA TA’SIRI

Akbayeva Zebiniso Djalolitdinovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada yangi iqtisodiy siyosatning Turkiston hududidagi agrar munosabatlarga ta’siri o‘rganilgan. Maqola, yangi siyosatning agrar sektorning rivojlanishi, yer munosabatlari, mehnat resurslari va qishloq xo‘jaligi faoliyatiga qanday ta'sir ko‘rsatganini tahlil qiladi. Ayniqsa, yer islohotlari, kooperatsiya tizimlari va agrar islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari batafsil yoritilgan. Ushbu maqola o‘sha davrda qo‘llanilgan iqtisodiy siyosatning o‘ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, agrar sohadagi o‘zgarishlarni tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi iqtisodiy siyosat, agrar munosabatlar, Turkiston, yer islohoti, qishloq xo‘jaligi, kooperatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, agrar sektori, qishloq xo‘jaligi rivoji, mehnat resurslari.

Аннотатsiя: В статье рассматривается влияние новой экономической политики на аграрные отношения в регионе Туркестан. Осуществлен анализ воздействия новой политики на развитие аграрного сектора, земельные отношения, трудовые ресурсы и деятельность сельского хозяйства. Особое внимание уделено земельным реформам, кооперативным системам и социально-экономическим последствиям аграрных реформ. Статья направлена на изучение специфики экономической политики того времени, а также на анализ изменений в аграрной сфере.

Ключевые слова: Новая экономическая политика, аграрные отношения, Туркестан, земельные реформы, сельское хозяйство, кооператsiя, социально-экономические изменения, аграрный сектор, развитие сельского хозяйства, трудовые ресурсы.

Abstract: The article examines the impact of the new economic policy on the agrarian relations in the Turkestan region. It analyzes how the new policy affected the development of the agrarian sector, land relations, labor resources, and agricultural activities. Special attention is given to land reforms, cooperative systems, and the socio-economic consequences of agrarian reforms. The article is aimed at studying the peculiarities of the economic policy of the time, as well as analyzing changes in the agrarian sector.

Keywords: New economic policy, agrarian relations, Turkestan, land reforms, agriculture, cooperation, socio-economic changes, agrarian sector, agricultural development, labor resources.

Kirish

Yangi iqtisodiy siyosat 1921-yilda Sovet Ittifoqida iqtisodiy inqiroz va harbiy kommunizm siyosatining muvaffaqiyatsizligi natijasida joriy etilgan yangi siyosiy-iqtisodiy strategiya sifatida shakllandi. Ushbu siyosat mahalliy dehqonchilikni qo‘llab-quvvatlash hamda xususiy tadbirkorlik faoliyatiga cheklangan darajada ruxsat berishni o‘zining asosiy maqsadlari sifatida belgiladi. Yangi iqtisodiy siyosat davrida iqtisodiy munosabatlarning agrar sektorda bozor mexanizmlarining qisman tiklanishi hamda ishlab chiqarish va savdo faoliyatlarida yangi shakllarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Turkiston o‘lkasi, agrar sektorga yuqori darajada bog‘liq bo‘lgan hudud sifatida, ushbu siyosat ta’sirida jiddiy o‘zgarishlarga duch keldi. Ayniqsa, yer egaligi, dehqonchilik munosabatlari va agrar ishlab chiqarish tizimida yangicha tartiblarning joriy etilishi ijtimoiy-iqtisodiy muhitda sezilarli o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ushbu maqolada NEP davrida Turkiston o‘lkasida agrar munosabatlarning shakllanishi, ularning hududiy xususiyatlari, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari keng qamrovli tahlil qilinadi. Maqolada mahalliy dehqonchilikning siyosiy-iqtisodiy ahamiyati, yangi iqtisodiy sharoitdagi xususiy tadbirkorlik faoliyati, shuningdek, Yangi iqtisodiy siyosatning agrar sektor va umumiy ijtimoiy barqarorlikka ta’siri o‘rganiladi.

Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) davrida agrar sohada davlat va dehqonlar o‘rtasidagi munosabatlarni yumshatish va dehqonlarning yer maydonlari hamda mulkka egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan fundamental o‘zgarishlar amalga oshirildi. Harbiy kommunizm davrida amalda bo‘lgan majburiy davlatga yetkazib berish tartibining o‘rnini bozor iqtisodiyotining shartlariga mos keladigan erkin iqtisodiy munosabatlar egalladi. Bu esa dehqonlarga o‘z mahsulotlarini mustaqil ravishda sotish va iqtisodiy faoliyatda faol ishtirok etish imkonini berdi. Turkiston o‘lkasi agrar soha iqtisodiyotining asosiy tarmog‘i bo‘lib, aholining katta qismi dehqonchilik bilan shug‘ullanganligi sababli, bu o‘zgarishlar mintaqaning ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmasida tub burilishlarga sabab bo‘ldi[40].

1921-1929-yillar mobaynida NEP siyosati doirasida Turkiston o‘lkasida yer taqsimoti va yer egaligi tizimida sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Mintaqadagi ko‘plab dehqonlar yer egasi sifatida rasmiy tan olinib, mustaqil xo‘jalik yurita boshladilar. Bu esa agrar ishlab chiqarishda shaxsiy tashabbus va mustaqillik darajasining oshishiga olib keldi. Soliq siyosatida ham o‘zgarishlar kuzatilib, davlat tomonidan belgilangan majburiy yetkazib berish kvotalari sezilarli darajada kamaytirildi, natijada erkin bozor munosabatlari shakllandi. Ushbu jarayonlar dehqonchilik sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilib, agrar sektorning barqaror rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Shuningdek, NEP siyosati agrar munosabatlarda yangi sinfiy qatlamlarning paydo bo‘lishiga ham sababchi bo‘ldi. Mustaqil yer egalari sifatida faoliyat yurita boshlagan dehqonlar va kichik tadbirkorlar ijtimoiy-iqtisodiy tizimda o‘z o‘rnini topdi, biroq bu jarayonda sinfiy

[40] Adib Xolid. O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 160-161.

tafovutlar va ziddiyatlar yuzaga keldi. Natijada, agrar sektorning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy jihatdan ham mintaqaning barqarorligiga ta’sir ko‘rsatdi[41].

Turkiston ASSRda xalq xo‘jaligini tiklashda yangi iqtisodiy siyosat davrida ham bir qator jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yildi. Avvalo yangi iqtisodiy siyosat Turkiston ASSRda notekis amalga oshirildi. 1921 yili Turkistonda ekin maydonlari oldingi yildagiga qaraganda ancha kengaytirildi. Biroq keyingi uch yilda (1922-1924 yillar) ekin maydonlari yana qisqardi. 1924 yili Turkiston ASSR ning asosan o‘zbeklar yashaydigan uchta oblasti (Fargona, Samarkand, Sirdaryo)da ekin maydonlari ham, sugoriladigan ekin maydonlari ham urushdan oldingi davr (1913 yil)ning 60 foizi atrofida edi. Xullas, yangi iqtisodiy siyosat dastlabki yillarda o‘lka xalq xo‘jaligining asosiy sohasi qishloq xo‘jaligiga sust ta’sir ko‘rsatdi. Turkiston ASSRda sanoat asosan ikki yo‘l bilan rivojlandi: eski zavodlarni tiklash hamda yangi korxonalar va soha tarmoqlarini tashkil etish. Bunda birinchi galda paxtani qayta ishlaydigan korxonalar va xomashyo tayyorlashga alohida e’tibor qaratildi[42].

Yangi iqtisodiy siyosat doirasida amalga oshirilgan **kolxozlashuv jarayoni** Turkiston o‘lkasida agrar munosabatlarning tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Bu jarayon o‘zining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlari bilan nafaqat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tizimini, balki dehqonlarning turmush tarzini, yerga bo‘lgan munosabatini ham keskin o‘zgartirdi. Ayniqsa, **1929–1933-yillarda SSSR bo‘ylab amalga oshirilgan majburiy kollektivlashtirish siyosati** Turkiston hududida ham keskin o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi[43].

1920-yillarning oxiri va 1930-yillarning boshlarida Sovet Ittifoqida kollektivlashtirish siyosati jadal sur’atlar bilan amalga oshirildi. Bu siyosat Markaziy Osiyo respublikalari, jumladan O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikistonda og‘ir va murakkab sharoitda kechdi. Kollektiv xo‘jaliklar (kolxozlar) va davlat xo‘jaliklari (sovxozlar)ning tashkil etilishi natijasida yerga egalik qilish huquqi to‘liq ravishda davlat qo‘liga o‘tdi. Yakka tartibdagi dehqonchilik bekor qilinib, ishlab chiqarish vositalari jamiyat mulkiga aylantirildi. Mazkur siyosat natijasida mahalliy aholining iqtisodiy hayoti tubdan o‘zgardi. An’anaviy qishloq xo‘jaligi tuzilmalari, xususan oilaviy mehnatga asoslangan dehqonchilik shakllari tugatildi va ularning o‘rnini markazlashgan, davlat tomonidan nazorat qilinadigan yirik xo‘jalik tizimlari egalladi. Bu holat o‘z navbatida mehnat erkinligining cheklanishi, majburiy mehnat tartiblarining joriy etilishi, aholi harakatining cheklanishi va iqtisodiy faoliyat ustidan qat’iy davlat nazoratining o‘rnatilishi bilan kechdi[44].

Biroq, kolxozlashuvning dastlabki yillarida Turkiston o‘lkasidagi dehqonlar ushbu siyosatga faol qarshilik ko‘rsatdilar. Bu qarshiliklar, ko‘pincha passiv norozilik, hosilni yashirish, hayvonlarni so‘yib yuborish yoki ommaviy ko‘chish shaklida namoyon bo‘lgan. Ayniqsa, an’anaviy erkin yer egaligi va qabilaviy tuzilmaga asoslangan dehqon xo‘jaliklari

[41] Adib Xolid. O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 164.
[42] Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). К. 1. Ўзбекистон 1917-1939 йилларда. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – Б. 266.
[43] Fitzpatrick, S. *Stalin’s Peasants: Resistance and Survival in the Russian Village after Collectivization*. Oxford University Press. 1994. – P. 228.
[44] O‘z MA. 17-fond, 3-ro‘yxat, 717-ish, 76-varaq.

kollektivlashtirish jarayoniga moslashishda qiyinchiliklarga duch keldi. Dehqonlarning psixologik va madaniy qarshiligi – ularning erkin yerga bo‘lgan qadimiy e’tiqodlari va shaxsiy mulkka nisbatan an’anaviy munosabati bilan bog‘liq edi[45].

Bunday qarshiliklar agrar islohotlarni amalga oshirishda sezilarli to‘siqlarni yuzaga keltirdi. Natijada, davlat tomonidan kuch ishlatish, targ‘ibot va jazolash choralari keng miqyosda qo‘llanildi. Shu bilan birga, kolxozlashuv jarayoni mahalliy ijtimoiy tuzilmani izdan chiqardi, mavjud ishlab chiqarish vositalarini yo‘qotishga olib keldi va Turkiston qishloq xo‘jaligida uzoq muddatli inqirozli davrni boshlab berdi.

Xulosa

Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) davrida Turkiston o‘lkasidagi agrar munosabatlar sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. NEP siyosati agrar sektorda erkin bozor munosabatlarini rivojlantirish, dehqonchilik faoliyatini rag‘batlantirish hamda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishga qaratilgan edi. Ushbu siyosat doirasida yerga egalik, hosilni sotish va ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlari yaratilgani natijasida, mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy hayotda jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bu jarayon mahalliy aholi uchun iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi oshishi va qishloq infratuzilmasining rivojlanishi kabi ijobiy natijalar bilan birga, yangi sinfiy tafovutlar va ijtimoiy qatlamlar orasida keskinliklarning kuchayishiga ham olib keldi. Shuningdek, agrar munosabatlardagi o‘zgarishlar mintaqadagi siyosiy vaziyatga ham ta’sir ko‘rsatib, mahalliy siyosiy nizolar va ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. NEP davrining agrar munosabatlarini chuqur o‘rganish Turkiston va umumiy O‘zbekiston tarixini, shuningdek, sovet davrining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini yanada yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi. Mazkur tahlil agrar sektorning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, yangi iqtisodiy siyosat sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy sinfiy o‘zgarishlar va siyosiy jarayonlar o‘rtasidagi murakkab bog‘liqliklarni yoritishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Adib Xolid. O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 160-161.

2. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). К. 1. Ўзбекистон 1917-1939 йилларда. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – Б. 266.

3. Fitzpatrick S. *Stalin’s Peasants: Resistance and Survival in the Russian Village after Collectivization*. Oxford University Press. 1994. – P. 228.

4. O‘z MA. 17-fond, 3-ro‘yxat, 717-ish, 76-varaq.

5. Keller S. *To Moscow, Not Mecca: The Soviet Campaign Against Islam in Central Asia, 1917–1941*. Praeger. 2001. – P. 167.

[45] Keller, S. *To Moscow, Not Mecca: The Soviet Campaign Against Islam in Central Asia, 1917–1941*. Praeger. 2001. – P. 167.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

“KATTA TERROR” DAVRIDA QORAQALPOG‘ISTONDAGI QATAG‘ONLIK SIYOSATI (1937 - 1938 YILLAR)

Ermanov Alisher Bekmuratovich,
Nukus davlat pedagogika instituti
Tarix o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sovet totalitar tuzumi davrida yurtimizda olib borilgan ommaviy siyosiy qatag‘on siyosatining sabablari, ko‘lami va uning oqibatlari haqida so‘z yuritiladi. 1937-1938-yillardagi «katta terror» kampaniyasida o‘sha davrda o‘z milliy o‘zligini, millat qadr-qimmatini chuqur anglagan va ijtimoiy-siyosiy ongi yuksak ziyolilarning qatag‘onga uchrab, jismonan yo‘q qilinganligi milliy tariximizni yanada chuqurroq o‘rganishga undaydi.

Kalit so‘zlar: Katta terror, qatag‘onlik, siyosat, uchlik, millatshil, diniy ulamolar, ziyoli, kontrinqilobchilar, lager.

Аннотация: В данной статье рассматриваются причины, масштабы и последствия политики массовых политических репрессий, проводившейся в нашей стране в период советского тоталитарного режима. Тот факт, что в 1937-1938 годах в ходе кампании «Большого террора» были репрессированы и физически уничтожены представители интеллигенции, глубоко осознававшие свою национальную идентичность и достоинство нации, обладавшие высоким социально-политическим сознанием, побуждает нас к более глубокому изучению нашей национальной истории.

Ключевые слова: Большой террор, репрессии, политика, тройка, националисты, религиозные деятели, интеллигенция, контрреволюционеры, лагерь.

Abstract: This article examines the reasons, scope, and consequences of the policy of mass political repression carried out in our country during the Soviet totalitarian regime. The fact that during the "Great Terror" campaign of 1937-1938, representatives of the intelligentsia who had a deep awareness of their national identity and the dignity of the nation, as well as a high level of socio-political consciousness, were repressed and physically exterminated urges us to delve deeper into our national history.

Keywords: Great Terror, repressions, policy, troika, nationalists, religious figures, intelligentsia, counter-revolutionaries, camp.

KIRISH

XX asrning 30-yillariga kelib sobiq ittifoq (SSSR) da totalitar rejim to‘liq o‘rnatildi. Uning belgilari, birinchidan, rahbarlikning zo‘ravonlik usullari, yo‘lboshchining cheklanmagan

hokimiyatga ega bo‘lishi, hokimiyatni bir kishi yoki guruhlar boshqaruviga tayanishi bo‘ldi. Demokratik institutlar (saylov, parlament) keraksiz deb topildi. Ikkinchidan, ishlab chiqarishda qat’iy tartib o‘rnatish. Uchinchidan, muxolifat, o‘zgacha fikrlovchilarni jismonan yo‘q qilish, siyosiy-mafkuraviy ziddiyatlarni chetlatish, yakka shaxslarni bo‘ysundirish totalitar rejimning alohida jihati bo‘ldi. [1, 49]

70 yildan ortiq davom etgan sovetlar davrida xalqdan sir tutilgan yashirin haqiqatlar, noo‘rin ta’qiblar bugungi kunda fosh etilmoqda. Sovet davrida amalga oshirilgan qatag‘onning eng yuqori bosqichiga ko‘tarilgan 1937-1938-yillardagi “katta terror” kampaniyasida O‘zbekistonda minglab kishilar qatag‘onga uchradi, mehnat-tuzatuv lagerlariga surgun qilindi.

ASOSIY QISM.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov mustaqillikka erishishdan avvalroq O‘zbekistondagi siyosiy qatag‘onlar, ularning qanday bo‘lgani, fojiali voqealar oqibatlarini ochib berish, begunoh qatag‘on qilinganlarni oqlash chora-tadbirlarini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Shu o‘rinda uning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: “1937-1939-yillari Ichki ishlar xalq komissarligi tashkilotlari inqilobiy qonunchilikni juda qo‘pollik bilan buzdi va oyoq osti qildi. Bunday bema’nilik keyingi yillarda ham, 1950-yillargacha davom etdi. Hech qanday aybi bo‘lmagan, halol odamlar ko‘plab qamoqqa olindi va qirib tashlandi. Stalin shaxsiga sig‘inish yillari O‘zbekiston xalqlari boshiga og‘ir kulfatlar soldi. 1937-1939-yillarning o‘zida O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligining “uchligi” tomonidan 41 mingdan ko‘prog‘ kishi qamoqqa olindi. Shundan 37 mingdan ortig‘i sudlandi, 6920 kishi otib tashlandi. Asossiz qamalib jinoiy javobgarlikka tortilgan odamlar orasida partiya, sovet xo‘jalik xodimlari, harbiylar, ziyolilar va kolxozchilar juda ko‘p edi”[2].

1937-yilning may-iyun oylarida “harbiy fashistik isyonchilar” ustidan sud jarayonlari yakunlangandan so‘ng bo‘lajak yalpi qatag‘on kampaniyasini jadallashtirish rejasi ishlab chiqildi. Iyul oyi boshida bo‘lajak terrorning yuz minglab qurbonlari taqdirini hal qiluvchi qarorlar qabul qilindi. Ularning eng muhimi VKP (b) Siyosiy byurosining 1937-yil 2-iyuldagi “Sovetlarga qarshi unsurlar to‘g‘risida”gi [3, 234-235] qarori bo‘lib, u “katta terror” davrining eng keng qamrovli repressiya operatsiyasini o‘tkazish uchun tashabbus bo‘ldi.

Ushbu qaror asosida SSSR Ichki ishlar xalq komissari, “temir narko” unvonini olgan Nikolay Ejovning 1937-yil 30-iyul kuni “Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa sovetlarga qarshi unsurlarni repressiya qilish operatsiyasi haqida”gi 00447-sonli alohida maxfiy buyrug‘i chiqdi [4, 32-40]. Buyruqda antisovet tashkilotlarni tergov qilish jarayonida ilgari repressiya qilingan, yashirinib qolgan, lagerlardan, surgunlardan qochib qolgan odamlar borligi aytilib, o‘tmishda repressiyaga uchraganlarning aksariyat ko‘pchiligi qishloqlarda joylashib olgan. Bir qismi qishloqdan shaharga o‘tib, sanoat, transport va qurilish muassasalariga suqilib kirgan deb belgilangan edi.

Buyruqda operatsiyani o‘tkazish tartiblari belgilandi. Operatsiya 1937-yilning 5-avgust kunidan boshlanishi va to‘rt oy muddatda tugashi kerak edi. Turkmaniston, Tojikiston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston respublikalarida operatsiyani 1937-yil 10-avgust kunidan, Sharqiy

Sibir viloyatlarida, Krasnoyarsk, Uzoq Sharq o‘lkalarida 15-avgust kunidan boshlash ko‘rsatildi [4, 33-36].

Yana “Uchliklar” tashkil etish va uning vazifalari belgilab berilib, shu asosda respublikalar, o‘lkalar va viloyatlardagi “uchliklar” tarkibi tasdiqlangan. O‘zbekiston bo‘yicha “uchlik” tarkibiga respublika ichki ishlar xalq komissari N.A.Zagvozdin, O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi birinchi kotibi A.Ikromov, Xalq Komissarlar Soveti raisining o‘rinbosari Turabekovlar tasdiqlangan [4, 30,40]. “Uchlik” majlisiga O‘zbekiston prokurori B.V.Sheyndlin, kotibi sifatida Ichki ishlar xalq komissarligi davlat xavfsizlik boshqarmasi 8-bo‘lim boshlig‘i leytenant Ya.M.Yakovlev qatnashgan.

Operatsiyani olib borish, natijalari haqida besh kunlik ma’lumotlar bilan har oyning 1,5,10,20,25 kunlari telegraf orqali, kengroq pochta orqali axborot berib borilgan.

“Katta terror” davrida, ya’ni 1937-yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvargacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston bo‘yicha sobiq quloqlardan 5924 kishi, jinoyatchilardan 1679 kishi, “sovetlarga qarshi unsurlar”dan 3097 kishi, jami 10700 kishi qamoqqa olingan. Ulardan 3613 kishi 1-toifa bo‘yicha o‘lim jazosiga, 2-toifa bo‘yicha 7087 kishi 8-10 yil muddatga lagerlarga hukm qilingan. 1-toifa bo‘yicha otishga hukm qilinganlarning 1376 nafari sobiq quloqlar, 952 nafari jinoyatchilar, 1285 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo‘lgan. 2-kategoriya bo‘yicha hukm qilinganlarning 4548 nafari sobiq quloqlar, 727 nafari jinoyatchilar, 1812 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo‘lgan. [5, 387-388]

Ayblanuvchilarning ijtimoiy kelib chiqishi bo‘yicha tarkibi quyidagicha bo‘lgan: quloqlar - 1543 kishi, kolxozchilar - 781 kishi, ruhoniylar - 437 kishi, savdogarlar - 149 kishi, jinoyatchilar - 87 kishi, boylar - 54 kishi, xizmatchilar - 132 kishi, ijtimoiy kelib chiqishi aniqlanmaganlar - 645 kishi. [6, 21]

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan 1937-yili 30-iyulda chiqarilgan 00447-sonli alohida maxfiy buyrug‘i asosida Qoraqalpog‘iston hududida ham ommaviy qatag‘onlar amalga oshirilib, 30-yillarning boshida quvg‘in qilingan ulamolar, quloqlashtirilgan o‘rta hol dehqonlar, mamlakatdagi olib borilayotgan qonunsizliklarga qarshi fikr bildirgan rahbar xodimlar qaytadan qatag‘onga duchor bo‘ldi. 1937-yil 16-avgustda QQASSR IIXK tomonidan sovet hukumatiga qarshi kontrrevolyutsion targ‘ibot olib borganlikda gumonlanib Qipchoq rayonidan 25 ulamo qamoqqa olinadi. 1938-yil 7-fevralda O‘zSSR IIXK huzuridagi “Uchlik”ning qarori bilan ularning mol-mulki musodara qilinib, 20 ulamo o‘lim jazosiga hukm qilinib, hukm 18-mart kuni To‘rtko‘l shahrida ijro etiladi, 5 ulamo esa 10 yil qamoq jazosiga hukm qilinib, Voljsk mehnat tuzatuv lageriga jo‘natiladi. [7, 21].

1937-yilning iyul-avgust oylari oralig‘ida sovet hukumatini ag‘darish maqsadida targ‘ibot-tashviqot yuritgan degan gumon bilan Qorao‘zak, Chimboy tumanlarida ham ommaviy tarzda ulamolar qamoqqa olindi. 1937-yili 15-avgustda QQASSR IIXK Chimboy bo‘limining boshlig‘i F.I.Kolesnikovning qarori bilan 18 ulamo, Qorao‘zak tumani bo‘limining boshlig‘i A.V.Chechkinning qarori bilan 11 ulamo qamoqqa olinib, ularning ustidan jinoyat ishi (delo) ochilib, noqonuniy usulda tergov ishlari olib borilgan. Chimboy tumanidan qamoqqa olingan

18 ulamoning ishi 1937-yili 1-dekabrda QQASSR IIXK DXB tomonidan ko‘rib chiqilib, 8 ayblanuvchining jinoyati tergov jarayonida isbotlanmaganligi va katta yoshda bo‘lishiga bog‘liq jinoyat ishi qisqartirilib, o‘zlari ozod etilgan. Qolgan 10 ayblanuvchining jinoyat ishi O‘zbekiston SSR IIXK huzuridagi “Uchlik”ning majlisiga ko‘rib chiqish uchun yuboriladi va 7 dekabr kuni ushbu “Uchlik”ning majlisida ko‘rib chiqilib, 8 ayblanuvchi 10 yil muddatga, 2 ayblanuvchi 8 yil muddatga jazoga hukm qilinib, Toshkentdagi O‘rta Osiyo va Arxangelskiy viloyatidagi Kargapol mehnat-tuzatuv lagerlariga yuboriladi. Qorao‘zak tumanidan qamoqqa olingan 11 ulamoning ishi 1938-yili 17-yanvarda QQASSR IIXK DXB tomonidan ko‘rib chiqilib, ularning jinoyat ishi O‘zbekiston SSR IIXK huzuridagi “Uchlik” majlisiga ko‘rib chiqish uchun yuboriladi va 7-fevralda shu “Uchlik”ning majlisi qarori bilan mol-mulki musodara qilinib 7 ulamo o‘lim jazosiga hukm etilib, hukm 1938-yili 2-martda To‘rtko‘l shahrida ijro etiladi. Qolgan 3 nafar ulamo 10 yil, 1 nafar ulamo 8 yil muddatga hukm qilinib, jazoni o‘tash uchun Toshkentdagi O‘rta Osiyo mehnat tuzatuv lagerlariga jo‘natiladi. [8, 153-182]

1937-yil avgust-sentyabr oylarida Qo‘ng‘irot tumanidan har xil tuhmatlar bilan qamoqqa olingan 12 ayblanuvchi ustidan sud majlisi o‘tkazilib, 1938-yil 7-fevral kuni O‘zbekiston SSR IIXK huzuridagi “Uchlik”ning qarori bilan mol-mulki musodara qilinib, 5 kishi o‘lim jazosiga, 7 kishi har biri 10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm etilgan. [7, 107-110].

Ushbu “Katta terror” yillarida O‘zbekiston SSR IIXK huzuridagi “Uchlik”ning majlislarida soatiga 100 ga yaqin ish (delo) ko‘rilib, aybdorlardan savol-javob olinmay, “jinoyat ishi” tekshirib ko‘rilmay ayblov, xulosa qabul qilinib, aybdorlar ustidan o‘lim jazosiga yoki 8-10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm chiqarilgan vaqtlarda bo‘lgan. Masalan, 1937-yil 28-oktyabrda O‘zbekiston SSR IIXK huzuridagi “Uchlik”ning qarori bilan QQASSR bo‘yicha 151 aybdorning ishi ko‘rilib, 38 nafar ayblanuvchi o‘lim jazosiga, qolganlari 8-10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilingan. [9]

XX asrning 30-yillarida Markaziy hukumatning respublikamizdagi noqonuniy ma’muriy, zo‘ravonlik siyosatiga norozilik bildirib, bunday mamlakatdagi adolatsizliklarga barham berishni talab etib, Oliy Partiya tashkilotlariga shikoyat xatlari yo‘llagan ziyoli insonlar, rahbar xodimlar keyinchalik “to‘rtlik”, “o‘nlik” millatchi guruhi rahbarlari va a’zolari degan soxta ayblovlar qo‘yilib, ta’qibga uchradi. Xalqimizning pok vijdonli farzandlariga “millatchi” tamg‘asi bosilib quvg‘in qilindi.

1937-1938-yillarda Qoraqalpog‘iston ASSR Ichki ishlar Xalq Komissari V.D.Shteynning soxta ma’lumotlariga asoslanib Qoraqalpog‘iston ASSRdan ko‘plab davlat arboblari: A.Dosnazarov, I.Aliyev, D.Rizaev, K.Baltaev, G.F.Kvachev, K.Alimov, Q.Allambergenov, Q.Avezov, K.Nurmuhammedov va boshqa ko‘plab rahbar xodimlar, ziyolilar qamoqqa olindi.

Qoraqalpog‘iston tarixida og‘ir iz qoldirgan, “qonli jarayon” deb atalgan sud jarayoni 1938 yil 13 oktyabr kuni Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadi. Markazning topshirig‘i bilan QQASSR IIXK tomonidan tuhmat va bo‘htonlar asosida tashkil etilgan 196-ish (delo) bo‘yicha “to‘rtlik”, “o‘nlik” millatchi guruhi rahbarlari va a’zolari deb gumon qilinib 1937-yil sentyabr-noyabr

oylarida rahbar xodimlar, milliy ziyolilardan jami 50 kishi qamoqqa olinadi. Ular ustidan 1938-yil 13-oktyabr kuni Toshkent shahrida SSSR Oliy Sudi Harbiy Hay’atining sayyor sud majlisi o‘tkazilib, xalqimizning fidoyi farzanddllaridan 40 nafari o‘lim jazosiga, 7 nafari 10-yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilinib, mehnat-tuzatuv lagerlariga surgun qilindi. [10, 87-97]

Umuman olganda 1937-yilning may oyidan 1938-yilning sentyabr oyi oralig‘ida 500 ga yaqin rahbar xodimlar qamoqqa olingan. 1938-yilning birinchi yarmigacha respublikamizda “aksilinqilobiy” faoliyati uchun qamalgan 2536 kishidan o‘sha yilning o‘zida qamoqxonalarda qo‘llanilgan “o‘rta asrlik” tergov usuliga chiday olmay 45 kishi vafot etgan. [11, 244]

XULOSA

1937-1938-yillar “katta terror” davrining avj nuqtasi, yuksak cho‘qqisi sifatida tarix sahifalarida qoldi. Siyosiy qatag‘onlar, uning ma’lum bir qismi “katta terror”ning vujudga kelishiga bir qancha obyektiv sabablar bo‘lgan. Shu yillarda Oliy sud tomonidan ko‘rib chiqilgan jinoyat ishlari bo‘yicha birorta hukm chiqarilmagan. Ularning ko‘pchiligi IIXK huzuridagi “uchlik”lar tomonidan o‘lim jazosiga yoki qamoqqa, lagerlarga surgunga hukm qilingan.

Shunday qilib, ta’kidlash joizki, 1930-yillar oxirida tarixshunoslikda “Katta terror” nomini olgan, bir necha minglagan mamlakatimizning o‘ziga to‘q xo‘jaliklari, xalq ishonchini qozonib, izidan ergashtira olgan diniy savodga ega bo‘lgan ulamolar, eli, xalqi uchun kuyib-yongan milliy ziyolilar, rahbar xodimlar qamoqqa olish va surgun qilish, yoki o‘limga hukm qilishni o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli qatag‘onlar tariximizda og‘ir iz qoldirgan voqea bo‘lgan. SSSR Xalq Komissarlari Soveti va Butunittifoq Kommunistik partiyasi (VKP (b)) Markaziy Qo‘mitasining 1938-yil 17-noyabrdagi 81-sonli “Qamoqqa olish, prokuror nazorati va tergov yuritish to‘g‘risida”gi qarorini bajarish maqsadida SSSR IIXKning 1938-yil 26-noyabrdagi buyrug‘i bilan IIXK huzuridagi “uchliklar” tugatildi. [12, 81-82] “Katta terror”ni amalga oshirishda faol ishtirok etgan IIXK rahbarlari, “uchliklar” a’zolarining ko‘pchiligining o‘zlari qatag‘onga uchrab, jazolandi. Ammo sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan qatag‘on siyosati 80-yillarning oxirigacha davom etib, xalqimiz boshiga og‘ir musibatlarni solgani tariximizdan ma’lum.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Драма российской истории: Большевики и революция / Авт. коллектив: Яковлев А.Н., Волобуев О. В. Степанов А. И. Уткин А. И. Старцев В. И. Устинкин С. В. Косаковский А. А.; Междунар. фонд. "Демократия". - М.: Новый хронограф, 2002.

2. Ўзбекистон овози, 1991 жыл, 15 сентябрь

3. Россия XX век. Документы. Лубянка. Сталин и Главное управление госбезопасности НКВД: 1937–1938. / сост.: В.Н.Хаустов [и др.]. – Москва.: Международный фонд «Демократия», 2004.

4. Репрессия 1937-1938 годы. Документы и материалы. Выпуск 1. Ответ. Редактор Н.Каримов. Составители: Р.Т.Шамсутдинов, Н.Ф.Каримов, Э.Ю.Юсупов. Ташкент: «Шарқ», 2005.

5. Трагедия советской деревни: коллективизация и раскулачивание. Документы и материалы в 5-томах. Т.5. Книга 1. 1937-1939. Москва: РОССПЭН, 2004.

6. Р.Т.Шамсутдинов. Қатағон қурбонлари. (1937 йил 10 август — 5 ноябр) Иккинчи китоб./Масъул муҳаррир Н. Каримов — Т.: «Шарқ», 2007.

7. Бабашев Ш. Жазықсыз жазаланған репрессия қурбанлары. Нөкис. «Қарақалпақстан», 2007.

8. Бабашев Ш. Дөҳмет дегиши. Нөкис. «Қарақалпақстан», 2009.

9. Бабашев Ш. Дөҳмет дегиши. Нөкис. «Қарақалпақстан», 2009. 152-бет; Р.Т.Шамсутдинов. Қатағон қурбонлари. (1937 йил 10 август — 5 ноябр). Иккинчи китоб./Масъул муҳаррир Н. Каримов - Т.: «Шарқ», 2007. 298-433-бетлер.

10. Бабашев Ш. Қарақалпақстан Республикасы тарийхындағы сиясий қурбанлар. Нөкис. «Қарақалпақстан», 2003.

11. Қарақалпақстанның жаңа тарийхы. Қарақалпақстан XIX әсирдиң екинши ярымынан XXI әсирге шекем. – Нөкис. «Қарақалпақстан», 2003.

12. Известия ЦК КПСС. 1989. №10.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

TUROR RISQULOVNING MILLIY MUSTAQILLIK YO‘LIDAGI SIYOSIY-IJTIMOIY QARASHLARI: TARIXIY TAHLIL

Qandov Bahodir Mirzayevich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi dotsenti
ORCID ID: 0009-0002-1923-2138

Annotatsiya: Ushbu maqola Turkiston tarixida o‘chmas iz qoldirgan siyosiy arbob — Turor Risqulovning milliy mustaqillik, ijtimoiy adolat va siyosiy ongni uyg‘otish yo‘lidagi faoliyatini siyosiy-falsafiy nuqtai nazardan yoritishga bag‘ishlangan. Muallif Risqulovning dunyoqarashi, ijtimoiy adolat va milliy ozodlik uchun olib borgan kurashi, uning zamonaviy tarixiy jarayonlardagi o‘rni va ta’sirini tahlil qilishga alohida urg‘u beradi. Maqolada Risqulovning siyosiy qarashlari o‘sha davrdagi murakkab ijtimoiy-siyosiy muhit bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqilgan. Ayniqsa, milliy o‘zlikni anglash, o‘zini anglash falsafasi, ijtimoiy taraqqiyot g‘oyalari Turor Risqulov merosining asosiy tarkibiy qismlari sifatida tahlil etilgan. Shuningdek, maqola davlat arbobi Turor Risqulovning tarixiy merosi bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmaganini ko‘rsatadi. U ilgari surgan adolat, tenglik, xalqni o‘z boshqaruviga jalb etish kabi g‘oyalar bugungi mustaqil O‘zbekiston siyosiy-falsafiy taraqqiyotida ham o‘z aksini topmoqda. Muallif bu orqali Risqulov merosining zamonaviy ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini o‘ziga xos ilmiy yondashuv bilan asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: Turor Risqulov, Turkiston, Turkiston ASSR, “milliy ziyolilar”, “milliy kommunistlar”, bolsheviklar hokimiyati, xalq xo‘jaligi, irrigatsiya, iqtisodiy konferensiya, savodxonlik, mahalliylashuv, kooperatsiya, xalq maorifi, tarixiy tahlil, Yangi iqtisodiy siyosat.

ПОЛИТИКО-ОБЩЕСТВЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ ТУРОРА РЫСКУЛОВА НА ПУТИ К НАЦИОНАЛЬНОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация: Статья посвящена политико-философскому анализу деятельности Турора Рыскулова, государственного деятеля, оставившего неизгладимый след в истории Туркестана, в деле борьбы за национальную независимость, социальную справедливость и пробуждение политического сознания. Особое внимание автор уделяет анализу мировоззрения Рыскулова, его борьбы за социальную справедливость и национальную свободу, а также его роли и влиянию в современных исторических процессах. В статье рассматриваются политические взгляды Рыскулова в связи со сложной общественно-политической обстановкой того времени. В частности, анализируются концепция

национальной идентичности, философия самореализации и идеи общественного развития как основные составляющие наследия Турора Рискулова. В статье также показано, что историческое наследие государственного деятеля Турора Рискулова не утратило своей актуальности и сегодня. Выдвинутые им идеи справедливости, равенства и вовлечения народа в управление государством находят отражение и в политико-философском развитии современного независимого Узбекистана. Тем самым автор обосновывает современную социально-философскую значимость наследия Рискулова с помощью уникального научного подхода.

Ключевые слова: Турор Рискулов, Туркестан, Туркестанская АССР, «национальная интеллигенция», «национал-коммунисты», большевистская власть, народное хозяйство, ирригация, экономическое совещание, грамотность, локализация, кооперация, народное образование, исторический анализ, новая экономическая политика.

POLITICAL AND SOCIAL VIEWS OF TUROR RYSKULOV ON THE WAY TO NATIONAL INDEPENDENCE: HISTORICAL ANALYSIS

Abstract: The article is devoted to the political and philosophical analysis of the activities of Turor Ryskulov, a statesman who left an indelible mark on the history of Turkestan in the struggle for national independence, social justice and the awakening of political consciousness. The author pays special attention to the analysis of Ryskulov's worldview, his struggle for social justice and national freedom, as well as his role and influence in modern historical processes. The article examines Ryskulov's political views in connection with the complex socio-political situation of that time. In particular, the concept of national identity, the philosophy of self-realization and the ideas of social development as the main components of Turor Ryskulov's legacy are analyzed. The article also shows that the historical legacy of the statesman Turor Riskulov has not lost its relevance today. The ideas of justice, equality and involvement of the people in governing the state that he put forward are reflected in the political and philosophical development of modern independent Uzbekistan. Thus, the author substantiates the modern socio-philosophical significance of Riskulov's legacy with the help of a unique scientific approach.

Key words: Turor Riskulov, Turkestan, Turkestan ASSR, “national intelligentsia”, “national communists”, Bolshevik power, national economy, irrigation, economic conference, literacy, localization, cooperation, public education, historical analysis, new economic policy.

KIRISH. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, respublika hayotining barcha jabhalarida tub islohotlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. O‘zbek xalqining o‘z taqdirini o‘zi belgilashi milliy tiklanish bilan bog‘liq jarayonlarni chuqur idrok etishda milliy davlat qurilishi tajribasini ilmiy o‘rganilishi, O‘zbekistonni yangilanish va taraqqiyot yo‘lidagi tajribalarni umumlashtirishni taqozo etadi. Bugungi kunda 100 yil avval yurtimizda milliy-demokratik

davlatchilikni barpo etishda ilk tajriba bo‘lgan Turkiston uchun kurash tarixi alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy jamoatchilik e’tiborini o‘ziga jalb etgan bu tarix hozirda nafaqat ilmiy, balki amaliy va hatto siyosiy qiziqish uyg‘otdi. Chunki uni yoritishda o‘sha yillar voqealariga qayta baho berilmoqda, Turkistonning siyosat, jamoat arboblari va mutafakkirlarining ozodlik va istiqlol uchun kurashdagi faoliyati aniqlanmoqda.

Turkiston tarixiga murojaat etish yana bir jihati bilan muhimdir. Xalqimiz tarixiy xotirasida chuqur iz qoldirgan bu kurash tajribasining tahlili bugungi milliy tiklanish jarayonlari, xalqimizning tanlagan yo‘liga e’tiqodi manbalarining qonuniy va ilgarilab boruvchi xususiyatini tushunish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLAR. Maqolada umumiy qabul qilingan usullar-tarixiy tahlil, qiyosiy taqqoslash, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida XX asrning 20-yillarida sovet davlatining Turkistonda olib borgan milliy siyosati va uning kadrlar faoliyatiga ta’siri bayon etiladi. Turkiston milliy kommunistlar faoliyati mavzusi o‘rganuvchi tarixiy adabiyotlar sirasiga sovet hokimiyati yillarida yaratilgan tadqiqotlar, chop etilgan maqola, risola va monografiyalar kiradi. Biroq ularning aksariyatida mazkur davr voqealariga asosan sinfiylik va partiyaviylikdan kelib chiqib, kommunistik mafkura talablariga asosan bir tomonlama yondashilgan. Bularga: G. Safarov, N. Borisov, T. Risqulov, F. Xo‘jayev, P. Alekseyenkov, S.Xo‘janov, N. To‘raqulov, R. Inog‘omov, P. Galuzo singari davlat va siyosat arboblarining turli kitoblarida hamda sovet hokimiyatining keyingi o‘n yilliklarida chop etilgan tadqiqotlarda mazkur muammoning ba’zi jihatlari yoritilgan.

Mustaqillik yillarida yaratilgan R.Rajapova, R.Murtazayeva, R.Abdullayev, S.A’zamxo‘jayev, D.Bobojonova, Q.Rajabov, A.Golovanov, R.Shamsutdinov, D.Ziyayeva, B.Hasanov, M.Haydarov, X.Yunusova, SH.Davlatova, K.Saipova, A.Mingnorov va boshqa tarixchilarning tadqiqotlari kiradi. Shuningdek, O‘zbekistondagi yirik tarixchi olimlar tomonidan tayyorlangan turli kollektiv monografiyalar va fundamental tadqiqotlarda hamda turli darsliklar va ma’lumotnomalarda Turkistonda milliy kommunistlar faoliyatining ba’zi jihatlari ko‘rsatilgan.

MDH tarixchilari hamda xorij tadqiqotchilari asarlarida va xorijdagi ilmiy markazlarda bajarilgan ayrim dissertatsiyalarda Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va faoliyati to‘g‘risida ayrim ma’lumotlar mavjud. SSSR parchalangach, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston singari mustaqil davlatlarda so‘nggi yillarda yaratilgan tarixiy tadqiqotlarda sovet davlati milliy siyosatining ba’zi jihatlari, milliy sovet respublikalarida bolsheviklar partiyasi amalga oshirgan ishlar, mahalliy aholining sovet hokimiyatiga munosabati, milliy yetakchilar faoliyati, shuningdek, Turkiston ASSR tarixining ayrim tomonlari yoritilgan. Shuningdek, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi G‘arbiy Yevropa davlatlarida hamda Turkiyada yaratilgan ayrim tarixiy tadqiqotlarda sovet davlatining Turkiston ASSR va O‘rta Osiyo sovet respublikalarida yuritgan mustamlakachilik siyosatining mohiyati ko‘rsatib berilgan.

MUHOKAMA. Sovet Ittifoqi fuqarolar urushidan qutulib, vayronaga aylangan iqtisodiyotni Yangi Iqtisodiy Siyosat orqali tiklashga urinayotgan bir paytda paxta sanoati jamlangan Markaziy Osiyodek muhim strategik mintaqa iqtisodiyotini jonlantirish uchun Kremlga T.Risqulovdek iste’dodli tashkilotchi kerak bo‘lib, uning Turkistonga qaytishi masalasini ko‘tardi. RK(b)P MK O‘rta Osiyo byurosi raisi Y.Rudzutak RK(b)P MK Orgbyurosining 1922 yil 25 sentabrda bo‘lib o‘tgan majlisida Turkistondagi siyosiy-iqtisodiy vaziyat to‘g‘risida maxsus ma’ruza qiladi. O‘rta Osiyoning vayron bo‘lgan xo‘jaligini tiklash maqsadida RSFSR Xalq qurilishi xalq komissarining o‘rinbosari T.Risqulovni qaytarish va uni O‘rta Osiyo Turkistonga a’zo qilish taklifini kiritadi. Uni Turkiston Xalq Komissarlari Soveti raisi etib tayinlashni taklif qiladi. Orgbyuro Y.Rudzutakning taklifi bilan T.Risqulovni Turkistonga qaytarish to‘g‘risida qaror qabul qiladi[1].

1922 yil boshida RKP(b)P MK Turkiston byurosini (Turkbyuro) O‘rta Osiyo byurosi qilib qayta tuzdi. Moskvada RKP(b) Markaziy Komitetining Turkiston byurosi o‘rnida RKP(b) Markaziy Komitetining O‘rta Osiyo byurosi (O‘rta Osiyo byurosi; Sredazbyuro) 1922 yil 19 may oyida tashkil topdi. Unga Turkbyuro va Turkkomissiyaning barcha vazifalari yuklatilgan. Uning qarorgohi Toshkentda bo‘lib, u mintaqadagi barcha sovet respublikalari va kompartiyalari (O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Qoraqalpog‘iston) ustidan partiyaviy, siyosiy va g‘oyaviy jihatdan nazorat qildi va ular faoliyatini boshqarib turdi[2]. O‘rta Osiyo byurosining vakolatlari Turkiston byurosiga nisbatan ancha kengaytirildi. Endi O‘rta Osiyo byurosi Turkistondan tashqari, Xorazm va Buxoro respublikalarini ham nazorat qiluvchi elchi organga aylandi. O‘rta Osiyo byurosi o‘z faoliyatini 1922-yil fevralda boshlagan. Biroq Turkiston byurosini O‘rta Osiyo byurosiga qayta tashkil etish jarayoni 1922-yilning may oyidagina to‘liq yakunlandi. Uning tarkibiga RKP(b)P Markaziy Qo‘mitasidan 4 nafar, Turkiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasidan 3 nafar, Buxoro va Xorazm partiyasidan jami bir nafardan a’zo kirdi. Bular: Y.Rudzutak (rais), Legran, I.Lyubimov, S.Sokolov, P.Baranov, M.Epshteyn, A.Raximbayev, F.Xo‘jayev va Xorazm Kompartiyasi 1 nafar vakili. Shunday qilib, Markaziy Osiyo byurosining tarkibi avvalgi Turkkomissiyasi va Turkbyurosi kabi, asosan, Markazning yevropalik kommunistlaridan tuzildi. 1922 yilning kuzida bu tarkibga T.Risqulov kiritildi[3].

Turkistonga qaytishi munosabati bilan T.Risqulov Y.Rudzutak 1922-yil 22-sentabrda: “Davlatning kuch va mablag‘lari, birinchi navbatda, pasttekislik xalqlarining iqtisodiy rivojlanishiga, madaniy-ma’rifiy ishlariga yo‘naltirilishi kerak. Bu hududda mavjud bo‘lgan barcha narsalarni mexanik ravishda o‘zlashtirishni to‘xtatish va nihoyat, dasht xo‘jaligi va ishlab chiqarishining gullab-yashnashi xalqlar manfaati, moddiy-texnikaviy ta’minoti, federatsiya manfaatlariga foydali ekanligini tushunish kerak. Madaniy va iqtisodiy turg‘unlik chorizm davrida sodir bo‘lgan va Sovet hokimiyati davrida bunday holat bo‘lmasligi kerak”[4].

1922-yil 8-oktabrda Turkiston Komissarligi Prezidiumi majlisida T.Risqulov Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Soveti raisi etib tayinlandi. Turkiston Komissarligining 1922-yil 11-oktabrdagi 479-sonli qarorida T.Risqulov: “Turkiston Komissariyati Prezidiumining 8-

oktabrdagi 142-sonli qarorini amalga oshirish maqsadida bugundan boshlab Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Kengashi raislik vazifalarini bajarishga kirishaman”[5], deb qayd etgan.

1922 yil 14 oktabrda “Turkiston kommunistik partiyasi a’zolari va kengashlarning barcha mas’ul xodimlariga” murojaat e’lon qilindi, unga Y.E.Rudzutak[46], T.Risqulov va Inomjon Xidiraliyev[47]. Murojaatda respublika xalq xo‘jaligini tiklash va rivojlantirish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligi ta’kidlangan: *birinchidan*, krepostnoylikni butunlay yo‘q qilish; *ikkinchidan*, asosiy kuch va resurslarni harbiy sohaga emas, balki iqtisodiyotni tiklash, mahalliy aholi va yevropalik ko‘chmanchilarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini tenglashtirish chora-tadbirlariga yo‘naltirish; *uchinchidan*, madaniy-ma’rifiy ishlarni kengaytirish, savodsizlikka barham berish[6].

1922 yil 7 noyabrda mahalliy gazetada T.Risqulovning “Qozon inqilobi va Turkistonning mahalliy aholisi”[7] maqolasi chop etildi. Maqolada Turkistonning inqilobdan oldingi va inqilob davridagi siyosiy tarixi, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli har tomonlama tahlil qilingan.

1922 yil 2 – 6 dekabrda Toshkentda Turkiston ASSR Sovetlarining XI sezdi bo‘lib o‘tdi, sezdda T.Risqulov Xalq Komissarlari Soveti faoliyati to‘g‘risida ma’ruza qildi[8]. Xalq Komissarlari Soveti va Turkiston Xo‘jalik Sovetining faol faoliyati natijasida so‘nggi paytlarda xalq komissarlari ishida ma’lum bir uyushqoqlik va rejalashtirishga erishdik, – deydi T.Risqulov. 1922-yil 6-dekabrda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va Xalq Komissarlari Sovetining yangi tarkibi saylandi. Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi etib Inomjon Xidiraliyev (1922 – 1924), a’zoligiga T.Risqulov, N.A.Paskuskiy, Moisey Solomonovich Epshteyn[48], Said Alixo‘jayev [Jamolxo‘ja Said Aliyev],

---

[46] Yan Ernestovich Rudzutak (1887-1938) – Turkistonda bolьshevikcha rejimni mustahkamlashda qatnashgan sovet siyosatchilaridan biri. Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti raisi (1920-1921), RKP(b) MK Turkiston byurosi raisi (1921 yil mart-oktyabrь), RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi raisi (1922-1923), RKP(b) MK kotibi (1923-1924). G.Orjonikidze bilan birgalikda Turkbyuro o‘rniga O‘rta Osiyo byurosi (Sredazbyuro) tuzilishining tashabbuskori (1922 yil may). 1923 yil iyunda Fitrat, Otaulla Xo‘jayev, Muinjon Aminov, Naim Yoqubzoda, Sattor Xo‘jayev, muxtorjon Saidjonov, Muzahhar Maxsum Burhonov kabi milliy rahbarlarni BXSR hukumati tarkibidan chiqarib, ularni Buxorodan badarg‘a qildirdi. BXSR va XXSRni sovetlashtirish va ruslashtirish jarayoniga rahbarlik qildi. O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish siyosati amalga oshirilishini nazorat qildi. Sovet rejmiga sodoqat bilan xizmat qilsa ham 1937 yili qamoqqa olinib, Moskvada 1938 yili otib tashlangan.

[47] Inomjon [Inog‘omjon] Xidiraliyev (1891-1928) – O‘zbekiston SSRdagi milliy rahbar xodimlardan biri. Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi (1922-1924). O‘zbekiston SSR Yer ishlari xalq komissari (1925). O‘n sakkizlar guruhi a'zosi.

Namangan uyezdi Pop volostidagi Iskovot qishlog‘ida tug‘ilgan. Bir nechta tillarni bilgan. 1919 yilda turli sovet idoralarida mas'ul lavozimlarda ishlagan: Farg‘ona viloyati partiya qo‘mitasi kotibi (1920-1921), Turkiston ASSR Yer ishlari xalq komissari (1922), Turkiston ASSRning RSFSRdagi muxtor vakili (1924). Londondagi sovet-angliya muzokaralarida qatnashgan. U Turkistondagi istiqlolchilik harakatiga xayrixohlik bilan qaragan. Uning yozishicha, “Har bir bosmachi o‘zini milliy mustaqilligi uchun kurashayotgan jangchi, islom dinining himoyachisi deb hisoblagan”. O‘zbekiston SSR tuzilgach, u yer-suv islohotini o‘tkazishga rahbarlik qilgan. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti a'zosi. Biroq o‘n sakkizlar guruhining faol qatnashchisi sifatida 1925 yil oxirida O‘zbekiston SSR Yer ishlari xalq komissari lavozimidan olib tashlangan. O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jalik banki boshqaruvi raisi (1926-1928). Bu paytda unga bolьsheviklar tomonidan siyosiy tazyiq kuchaygan, ta'qib ostiga olingan. 1928 yil 31 dekabrda – Yangi yil oqshomida Moskvadagi “Natsional” mehmonxonasida 37 yoshida shubhali tarzda vafot etgan va Vagankino qabristonida dafn etilgan. Taxminlarga ko‘ra, uni chekistlar otib o‘ldirgan. I.Xidiraliyev vafotidan keyin, 1937 yildagi ommaviy qatag‘on davrida “xalq dushmani” sifatida qoralangan.

I.Xidiraliyev faoliyati to‘g‘risida tarixchi olim R.Shamsutdinov “Jasoratlarga to‘la hayot sohibi” (Andijon, 1991) risolasini yozgan. Ushbu satrlar muallifi I.Xidiraliyevning 1923 yili rus tilida tayyorlagan “Farg‘onadagi bosmachilikning tarixiy sharhi (Xidiraliyevning shaxsiy kuzatishlari)” hamda “Bosmachilik va Farg‘ona xalq xo‘jaligi” nomli ikkita hujjatini tegishli so‘zboshi, izoh va sharhlar bilan 15 yillik urunishlaridan so‘ng 2010 yili nashr qildirdi. Bu haqda qarang: Q.Rajabov. Bosmachilik harakatiga oid ikkita hujjat // Tarixning noma'lum sahifalari. Ilmiy maqolalar. Hujjat va materiallar. Xotiralar. Ikkinchi kitob. Mas'ul muharrirlar: B.Hasanov, N.Karimov. – Toshkent: O’qituvchi, 2010. B. 195-245.

[48] Moisey Solomonovich Epshteyn (1890 - 03.09.1938). Grodno viloyati (hozirgi Brest viloyati) Rujaniy posyolkasida tug‘ilgan, yahudiy. 1905 yildan SDKPiL a'zosi, keyin bund a'zosi, 1917 yildan — RSDLP (mensheviklar?), 1919 yildan — Butunittifoq Kommunistik partiyasi (bolsheviklar) a'zosi. Turkiston Kompartiyasi Farg‘ona viloyat qo‘mitasi raisi (1918-1919). Samarqand viloyati inqilobiy qo‘mitasi a'zosi (1920), Turkiston Kompartiyasi MK a'zosi (1921), 1922 yilda RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi a'zosi. 3.10.1920-9.05.1921 yillarda - Kavkaz frontining 9-Kuban armiyasi inqilobiy harbiy kengashi a'zosi vazifasini bajaruvchi. Taxminan 1921 yil - "Narodnoye prosveshcheniye" (RSFSR Xalq Maorif Komissarligining markaziy organi) jurnalining muharriri. 1922 - Kuban-Chenomorsk viloyat partiya qo‘mitasining mas'ul kotibi. 1923 yil boshida - Butunittifoq Kommunistik partiyasi (bolsheviklar) Markaziy Komiteti O‘rta Osiyo byurosi

I.Ye.Lyubimov, Rusanov, Rozenblum va Aralbayevlar saylandi. Xalq Komissarlari Sovetining raisligiga T.Risqulov, rais o‘rinbosari etib Nikolay Paskuskiy saylandi. N.A.Paskuskiy Turkiston Iqtisodiy Kengashining raisi etib ham tasdiqlandi. Bekaydar Janturinovich Aralboyev[49] – Ichki ishlar xalq komissari, D.M.Ustaboyev[50] – Adliya xalq komissari, I.Xidiraliyev – Yer ishlari xalq komissari, Sultonbek Xo‘janovich Xo‘janov[51] – Maorif xalq komissari, Boris Ilich Trotskiy[52] – Oziq-ovqat xalq komissari, M.M.Brett – Mehnat xalq komissari, Gelfgot Lev Osip – Sog‘liqni saqlash xalq komissari, Mamayev Andrey Stepanovich – Xalq xo‘jaligi markaziy kengashi raisi[9].

NATIJALAR: Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston o‘lkasida iqtisodiy siyosatni amalga oshirish hamda iqtisodiy markazlashtirish siyosatida O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tashkiloti muhim o‘rin tutadi. Bu tashkilot Markazning iqtisodiy siyosatini O‘rta Osiyo respublikalarida amalga oshirdi. O‘rta Osiyo respublikalari (Turkiston, Buxoro va Xorazm) iqtisodiy integratsiyasisiz mintaqa iqtisodiyotini tiklash va rivojlantirish mumkin emas edi. Sug‘orish tizimlarini tiklash faqat say-harakatlarni birlashtirish orqali hal qilinadigan muammoga aylandi. Yagona sanoat, savdo, moliya va transport siyosatini amalga oshirish zarurati dolzarb bo‘lib qoldi. Bu ehtiyoj Markaziy Osiyoning uchta respublikasini yagona iqtisodiy tashkilot tuzishga undadi.

raisining o‘rinbosari. =04.1923= - Turkiston RKP(b) MK mas'ul kotibi. RSFSR Maorif xalq komissarligi boshqarmasi (1925); RSFSR Maorif xalq komissarining o‘rinbosari /maktab ta'limiga mas’ul/ (?-1931). 1930 - 2-Moskva Davlat universiteti qoshidagi Ilmiy pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti hay'at a'zosi. 1934 yildan yana RSFSR Maorif xalq komissarining o‘rinbosari. 10-chaqiriq (1922-yil dekabrdan) va 16-chaqiriq (1935-yil yanvardan) Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining a'zosi. "Stalinning qatl ro‘yxatlariga ko‘ra. Moisei Solomonovich Epshteyn ikki marta SSSR Oliy Soveti Oliy sudiga 1-toifali, ya'ni ijro etish uchun tavsiya etilgan - 19.04.38 "Moskva-Markaz" ro‘yxatiga ko‘ra va 20.08.38 da "Moskva-Markaz" ro‘yxatiga ko‘ra. 03.09.1938 yil Moskvada dafn etilgan joy: Kommunarka. A.I.Rikovning o‘zi keyinroq o‘z xotiralarida shunday yozgan edi: Mashhur o‘qituvchi va metodist Boris Evgeniyevich Raykov (1880-1966) o‘z xotiralarida shunday yozgan edi: "Men va mening hamkasblarim asosan Moskvada Vsesvyatskiy va Leningradda Benkenni qoralagani uchun hibsga olingan edik. Ular ikkinchi darajali rol o‘ynadi, chunki ular birinchi bo‘lib hibsga olish uchun Xalq komissarining o‘rinbosari Moisei Epshteyn tomonidan olingan rozilik talab qilindi, chunki bu ishda A.V. Lunacharskiyning ishtiroki izlari topilmadi. (1939 yilda A.V. Lunacharskiy Maorif xalq komissari emas edi.).

[49] Bekaidar Janturinovich Aralboyev (1893, Qizilo‘rda viloyati, Yangiqo‘rg‘on tumani — 1952, Krasnoyarsk viloyati, Rossiya) — jamoat arbobi.
Rus-qozoq maktabini (Janaqo‘rg‘on), shahar maktabini (Perovsk, hozirgi Qizilo‘rda shahri) tugatgan. 1920-1922 yillarda Sirdaryo oblasti ijroiya qo‘mitasi xodimi, 1922—1924 yillarda Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissari, 1924 yilda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi, 1924 yilda Turkiston Respublikasi Oliy sudi raisi2, Ijroiya qo‘mitasi. 1928-1933 yillarda respublika, keyin viloyat bankida (Aqto‘be) ishlagan. 1933 yilda u Karlagga, keyinroq Mordoviyadagi Tamlagga surgun qilingan. 1945 yilda Qozog‘istonda yashash huquqisiz chiqarilgan. 1949 yildan Sibir surgunida. 1952 yilda vafot etgan.

[50] Ustaboyev Do‘st Muxamedovich (1887 - 1964). Kattaqo‘rg‘on shahrida tug‘ilgan. Otasi - etikdo‘z-hunarmand, poyabzal kabinasi bo‘lgan, o‘zbek. Kattaqo‘rg‘on rus tili maktabini tamomlagan. O‘rtoq Stalin nomidagi Butunittifoq suv va avtomobil transporti akademiyasini tugatgan, Moskva (1930-1.10.33), yo‘l va ko‘priklar qurilishi va ekspluatatsiyasi muhandisi. 1918 yildan Butunittifoq kommunistik (bolsheviklar) a'zosi. Otasi vafotidan keyin maktabda qorovul bo‘lib ishlagan. 1905 yilda u inqilobiy voqealarning faol ishtirokchisi edi. Pochtachi bo‘lib ishlab, mahalliy aholiga varaqalar, deklaratsiyalar tarqatgan. 1913-1914 yillarda - Samarqanddagi choy va konserva zavodida ishchi. Ammo u jamoa tomonidan ish tashlashlar uyushtirgani uchun ishdan bo‘shatildi. Buxorodagi "Kolesov yurishi" qatnashchisi (1918); Samarqand shahar ijroiya qo‘mitasi raisi (1920—21); Turkiston Kompartiyasi Muvaqqat MK a’zosi (19.07.1920. Turkiston ASSR Adliya xalq komissari (22.02.1921. TASSR prokurori (06.1921—1922). Turkiston viloyati Cheka raisi (08-192-yil). Ijroiya qo‘mitasi (1923-1924) SSSR Qishloq xo‘jaligi bankining Turkiston boshqarmasi boshqaruvi raisi (1924 yil RSFSR Oliy sudining a'zosi (11.07.1924 yil RSFSR Oliy Kengashi Prezidiumi tomonidan tasdiqlangan). RSFSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi (Umumrossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi Prezidiumining 24.11.1924 yildagi qarori bilan vaqtincha tayinlangan. 1921 yil dekabrda Umumturkiston Sovetlar qurultoyi uni rezolyutsiya bilan saylangan VIII Butunrossiya Sovetlar qurultoyiga deputat etib yubordi. Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi.

[51] Sultonbek Xo‘janov (1894-1938) - Turkistondagi milliy rahbarlardan biri, davlat va siyosat arbobi.
Turkiston shahri yaqinidagi Aksumbe ovulida chorvador oilasida tug‘ilgan. Rus-tuzem maktabini tugatgan. “Birlik tug‘i” (qozoq tilida) gazetasi muharriri (Toshkent, 1917-1918). Turkiston uyezdi ijroiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari (1919-1920), Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissari (1920-1921), maorif komissari (1921-1922), yer ishlari komissari (1922-1924), VKP(b) Qozog‘iston o‘lka komiteti mas'ul kotibi (1924-1925; Orenburg va Qizilo‘rda). O‘rta Osiyoda 1924 yil oxirida o‘tkazilgan milliy-hududiy chegaralanishda u xato fikrlar bayon qildi (O‘rta Osiyo federatsiyasi tuzish, qozoqlarning ustunligi va b.). Markaz tomonidan milliy masalada og‘machilikka yo‘l qo‘ygan deb ayblandi va unga xo‘janovchilik tamg‘asi bosildi. S.Xo‘janov keyinchalik faoliyatini Toshkentda davom ettirdi. VKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi tashkiliy-targ‘ibot bo‘limi mudiri o‘rinbosari (1928-1929), O‘rta Osiyo paxtachilik-irrigatsiya politexnika instituti birinchi rektori (1929-1931), O‘rta Osiyo paxtachilik markazi (Sredazxloptsentr) boshqarmasi raisi (1931-1932), Moskvadagi “Soyuzzagotxlopok” boshqarmasi raisi o‘rinbosari (1932-1933), SSSR Ishchi-Dehqon nazorati xalq komissarligining O‘rta Osiyodagi vakili (Toshkent, 1934), O‘zbekiston paxtachilik tresti direktori o‘rinbosari (1934 yildan). U “aksilinqilobiy qozoq millatchilik tashkiloti”ning rahbarlaridan biri sifatida ayblanib, 1937 yil 15 iyunda qamoqqa olingan va 1938 yil 8 fevralda otishga hukm qilingan. U ham xuddi T.Risqulov singari 44 yoshida Moskvada 1938 yil 10 fevralda otib o‘ldirilgan.
Sultonbek Xo‘janov o‘limidan so‘ng 1957 yilda oqlangan. S.Xo‘janovning bir jildlik asarlari va arxiv hujjatlari Almatida bosilgan (2013 va 2019).

[52] Trotskiy Boris Ilьich (1879 - 1943). (partiya taxalluslari "Semyon", "Semennych"). 1903 yildan 1908 yilgacha RSDLPda bolsheviklar. 1905 yilda - RSDLP Shimoliy-G‘arbiy qo‘mitasining a'zosi. 1918-yilda yana RCP(b)ga qo‘shildi; Sibir oziq-ovqat qo‘mitasi raisi (07.1920); o‘rinbosari. RSFSR oziq-ovqat xalq komissarligining Kavkazdagi komissari (07.1921). Turkiston oziq-ovqat xalq komissari (05-09, 12.1922); RSFSR Xalq Komissarligining Turkistondagi vakolatli vakili (11,1923); TES raisining o‘rinbosari (1923). o‘rinbosari. rais. SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi (MSK) Millatlar Kengashi Prezidiumi huzuridagi Mehnatkash yahudiylarni yerga joylashtirish bo‘yicha qo‘mita (1935-1936). Turkiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining 11-chaqiriq a'zosi (1922).

With the formation of the Karakalpak Autonomous Region, great changes have occurred in the sphere of agitation and propaganda. Serious attention is paid to issues of publishing and newspaper production [12, 17]. Thus, in the resolutions of the 1st regional party conference of the Karakalpak regional committee, the need for organizing mobile libraries and a local history museum was noted [13]. Considerable attention is paid to the organization of public libraries; for example, in 1925-1926, 7 clubs, 11 red teahouses and 15 libraries were organized in the region [14]. Particular attention was paid to providing the agitation and propaganda departments with brochures and books: in 1925-1926 alone, 17,326 copies of printed materials were distributed. This matter was controlled by the Soviet-party bodies, the reports of the Extracurricular Department of the Regional Public Education Department were constantly heard at meetings of the bureau of the Karakalpak Regional Party Committee. Thus, in 1925-1926, funds were allocated for the organization of cultural and educational institutions in the region, in particular, it was proposed to organize 13 red teahouses (in Turtkul - 3, Chimbay - 4, Khodjeyli Kungrad - 3 each), for which cadets of the pedagogical technical school were involved [15]. In November 1926, the "House of the Peasant" was opened in Turtkul under the Council of Trade Unions, where there was also a small library [16].

Fundamental changes in the field of library work in Chuvashia are connected with general trends of development of library work in the country, as they took place on the basis of a single policy and on principles common for the whole USSR. The formation of the Soviet library as a library of a fundamentally new type in its character, tasks and content of work, corresponding to the interests of building a socialist society, was led by the Communist Party. It, first of all, pursued the goal of ideologizing library work, turning libraries into effective centers of

communist propaganda among the population. The efforts of the Soviet government to organize cultural and educational institutions also pursued other goals: firstly, libraries, various clubs, “red yurts”, “red teahouses”, etc. were important as links in the system of introducing Soviet ideology into the mass consciousness, and secondly, it was necessary to raise the cultural level of the population for the further exploitation of the subsoil with their active participation.

Without denying the role of libraries, which served as a kind of center for the elimination of illiteracy and general cultural backwardness, at the same time their organization caused contradictions with the old, established traditional system of community life in Karakalpak society. The new government resolutely fought against all the attributes and the entire old system, introducing a new Latinized alphabet, closing old schools, liquidating kazi courts and mercilessly destroying the rich cultural heritage - libraries at mosques and madrassas. They stored not only religious books, but also literature in Arabic and Persian, as well as Arabic-script literature in the common Turkic language.

However, by destroying the old book collections, the Soviet government could not provide anything new. The printing industry was going through a serious crisis due to the low capacity of the material and technical base [17, 14], the transition to Latinization led to serious problems in the field of education and literacy

Thus, in 1925, 10 centers for the elimination of illiteracy among the population were created in Karakalpakstan. And already in 1926 there were already 44 of them, and the following year - 51. By 1927, 13 red teahouses were already operating in the region, which often served as libraries [18]: there were often large concentrations of people there, where they learned the news, newspapers were often read aloud.

Increased attention to cultural and educational institutions on the part of interested bodies had tangible practical consequences. In archival materials, special attention was paid to the question of what sources were to be used to solve current problems in this area, including library work. Initiated by decisions of central bodies, similar documents of the Soviet-Party bodies of Karakalpakstan provided for positive measures for libraries, as well as issues of financing library work. This made it possible to fundamentally solve the main problems of library work. For example, in 1927, 40 thousand rubles were allocated for the activities of cultural and educational institutions. The amount of allocated funds increased from year to year, as a result of which, if in 1925/1926 49 cultural and educational institutions were organized in Karakalpakstan, then on the eve of the beginning of the Second World War there were 309 of them in the republic [19, 365-366].

Conclusion. In the 1920s, the process of development of library science in Karakalpakstan in its essence and ideological and political content had features caused by objective and subjective factors. First of all, in the conditions of Karakalpakstan, the restraining factors in the formation of a new culture, including library science, were the weak development of industry, the small number of intellectuals, the preservation of patriarchal and pagan remnants in everyday life.

In the 1930s, the greatest development was seen in clubs, red corners and political education institutions, which were opened in cities and regional centers. For example, in 1930 there were 10 clubs and 30 red teahouses in the region, but cultural and educational work was mainly concentrated in Turtkul: 7 interest groups worked in the city club, and 7 performances were staged by members of the theater group [20], the House of Education and the city library operated here. By 1936, their number had increased significantly: there were 42 educational centers, 12 clubs, and 18 large libraries in the region [21]. A sound cinema, a radio studio, clubs, red corners were opened, mobile film installations were even opened in Muynak [22]. By 1940, the number of all libraries in the republic reached 195. Accordingly, the library book collection increased: if in 1935 the library book collections contained 73.2 thousand copies, then in 1940 its volume reached 205 thousand [23, 271]. As of January 1, 1940, Uzbekistan had a well-developed network of mass libraries of various types and readership purposes. There were 1,774 mass libraries in the republic with a total book stock of 2.5 million copies [24, 15].

In total, in 1940, 106 cultural and educational institutions functioned in the territory of Karakalpakstan, including 8 clubs in city and regional centers, and the number of libraries increased [25]. Libraries gradually turned into strongholds for cultural and educational work among the population; the expansion of the network of libraries and mobile libraries, the provision of libraries with appropriate library personnel, improvements in book publishing and library staffing on the ground, etc., became decisive factors in the development of this sphere in 1917-1941.

REFERENCES AND SOURCES

1. Вертегов В.И. Культурная революция в ККАССР // Труды первой конференции по производительным силам Каракалпакской АССР. - Ленинград, 1934. Т.2. - С. 161.

2. Карлыбаев М. Медресе в Каракалпакии X1X - начала XX веков. – Нукус, 2002. - 83 с.

3. Урумбаев Ж. Очерки истории школ каракалпакстана. – Нукус, 1974. С.114. 7.79. Карлыбаев М. А. О книжном наследии Каракалпакстана XIX – начала XX вв. // O’zbekiston tarixi. – Ташкент, 2020. №3. 102–113 б.

4. Центральный государственный архив Республики Каракалпакстан (ЦГА РК), ф. Р-10, оп.1, д.8, л.12.

5. Қарақалпақстан АССРы тарийхы. II-том. – Нөкис, 1977. – С.263.

6. Непесов Ғ. 1920-1924-жыллардағы Хорезм халық совет революциясында Қарақлпақстан мийнеткешлериниң роли. – Нөкис, 1964. СС.147-148.

7. ЦГА РУз, ф.296, оп.1, д.56, л.7.

8. ЦГА РУз, ф.296, оп.1, д.61, л.19.

9. Қарақалпақстан АССРы тарийхы. II-том. – Нөкис, 1977. С.264.

10. Советская Каракалпакия, 1960, 11 декабря.

11. Непесов Ғ. 1920-1924-жыллардағы Хорезм халық совет революциясында Қарақалпақстан мийнеткешлериниң роли. – Нөкис, 1964. С.152.

12. Нуржанов С.У. История периодической печати Каракалпакстана (1924-1953 гг.). Автореф. дисс. д.и.н. (DSc). – Нукус, 2022. С.17.

13. ЦГА РК, ф.Р-551, оп.154, д.88, л.10.

14. ЦГА РК, ф.Р-551, оп.154, д.88, л.91.

15. ЦГА РК, ф.12, оп.3, д.63, л.135.

16. ЦГА РК, ф.Р-551, оп.160, д.166, л.99.

17. Идрисов Р. История книгопечатания в Каракалпакстане (1924-1941 гг.). Автореф. дисс. доктора философии (PhD) по ист. наукам. – Нукус., 2021. С.14.

18. ЦГА РУз, ф.1235, оп.104, д.982, л.132.

19. Қарақалпақстанның жаңа тарийхы / Қарақалпақстан XIX әсирдиң екинши ярымы XXI әсирге шекем. – Нөкис, 2003. 365-366 бетлер.

20. ЦГА РК, ф.62, оп.2, д.2594, лл.190-191.

21. ЦГА РУз, ф.7857, оп.1, д.258, л.11.

22. ЦГА РК, ф.Р-551, оп.29, д.36, л.38-39.

23. Панабергенов А. А. Партийная организация Каракалпакии в борьбе за осуществления культурной революции. – Нукус-Самарканд, 1969. С.271.

24. Касымова А.Г. Развитие сети массовых библиотек Узбекистана, 1917-1941 гг. Автореф. дисс. … к.и.н. – Ташкент, 1965. С.15.

25. ЦГА РУ, ф.58, оп.16, д.253, л.31.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

USTRUSHONADA MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI

Lapasova Maftuna Sanaqul qizi
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
lapasovamaftuna248@gmail.com

Annotatsiya: *Ustrushonaning tabiiy-geografik sharoitini ilmiy jihatdan o’rganilish hamda ushbu hududning tarixiy taraqqiyotini tahlil qilishga qaratilgan. Shuningdek, antik va islomiy davr yozma manbalarida Ustrushona haqida berilgan ma’lumotlar tarixiy-geografik kontekstda ochib berilishi hamda asoslanishi, shuningdek manbashunoslik yondashuvi asosida mintaqaning siyosiy va iqtisodiy ahamiyati yoritilib, Ustrushona shaharlarining tahlili asosida Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari rivojidagi o‘rni ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Qovunchi madaniyati, Ustrushona, Bunjikat, Avesto, Yaksart saklar, Chilxujra, Sobot, Zomin.*

Аннотация: *Направлена на научное изучение природно-географических условий Уструшаны и анализ исторического развития этого региона. Кроме того, информация об Уструшане, представленная в письменных источниках античного и исламского периодов, раскрывается и обосновывается в историко-географическом контексте, а также на основе источниковедческого подхода освещается политическое и экономическое значение региона, на основе анализа городов Уструшаны раскрывается ее роль в развитии цивилизаций Центральной Азии.*

Ключевые слова: *Каунчинская культура, Уструшана, Бунджикат, Авеста, Яксартские саки, Чилхуджра, Собот, Зомин.*

Abstract: *Aimed at the scientific study of the natural and geographical conditions of Ustrushana and the analysis of the historical development of this region. Also, information about Ustrushana given in ancient and Islamic written sources is revealed and substantiated in a historical-geographical context, as well as the political and economic significance of the region is highlighted based on a source-based approach, and the role of Ustrushana in the development of Central Asian civilizations is revealed based on the analysis of the cities of Ustrushana.*

Keywords: *Kaunchi culture, Ustrushana, Bunjikat, Avesta, Yaksart Saks, Chilkhujra, Sabot, Zaamin.*

Qovunchi madaniyatiga oid yodgorliklar tarqalgan hududlarning barchasi O‘rta Sirdaryo bo‘yiga tutash bo‘lib, ular Tyan-Shanning g‘arbiy yon bag‘irlaridan, Sirdaryo etaklarigacha, janubda Sug‘dning markaziy mintaqalaridan Janubiy Qozog‘istonning keng tog‘oldi tekisliklarini qamraydi. Uning asosini esa, Toshkent vohasi tashkil etadi. Toshkent vohasini Ugom, Piskom va Chatqol tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan bo‘lib, bu tizmalarni shu nomlar bilan ataluvchi daryolar oqib o‘tuvchi daralar ajratib turadi. Janubiy qismida esa vodiyga kirib boruvchi Ohangaron daryosi joylashgan. Chirchiq va Ohangaron daryolari hisoblanadi. Jumladan, Chirchiq daryosining to‘yinishida Ugom, Piskom, Ko‘ksuv va Chotqol, Ohangaron daryosining to‘yinishida Chotqol va Qurama tog‘laridagi qor va yomg‘ir suvlarining salmog‘i katta bo‘lib, ularning suvi aprel - iyun oylarida ko‘payadi. Ushbu tekislik shimolida joylashgan Aris daryosining vodiysi bilan birga tabiiy suv tarmoqlari O‘rta Osiyo dehqonchilik vohalarining chekka mintaqasini tashkil qiladi. Uning shimol tomonga qarab, yaylovlarga boy bo‘lgan poyonsiz cho‘l yastanib yotadi.

O‘rta Sirdaryo bo‘yi mintaqasining janubiy qismi esa Ustrushona hududiga tutashib ketadi. Ustrushona O‘rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, bu yerda tog‘, tog‘ oldi, dasht va tekislik (cho‘l) zonalarining tutashib ketishi uning o‘ziga xosligini tashkil etadi. O‘lkaning katta qismini yer tuzilishi tekisliklardan iborat bo‘lgan Mirzacho‘l egallagan. Janubiy qismi relefini Turkiston tizmalari va uning g‘arbiy Morguzar va Chumqartov tog‘lari (balandligi 2500-3000 m gacha, Jizzax qismida 800 m) tashkil etadi. Ustrushona hududi relefi shakllanishiga ko‘ra uchta geografik zonaga: tog‘-tog‘oldi, adirlik va dasht-cho‘l tekislik mintaqalariga bo‘lish mumkin. Ularning xususiyatlari landshaft tabiati – hayvonot va o‘simlik dunyosi hamda tabiiy-iqlim sharoitlari bir-biridan ko‘p jihatdan farq qiladi. Har bir geografik zona uchun harakterli bo‘lgan xususiyatlarni kuzatish mumkin.

Tog‘li Ustrushona tarxiy madaniy o‘lkasining Molguzar tog‘lari Pomir tog‘ tizimiga qarashli Turkiston tizmasining shimolig‘arbiy bo‘lagi hisoblanadi. Molguzar tog‘lari janubisharqdan shimolig‘arb tomon chamasi 70 km ga cho‘zilib, eng baland cho‘qqisi (Qizilchag‘at) dengiz sathidan 2620 metr yuqorida. Kunchiqarda Turkiston tizmasiga qo‘shilib ketgan bu hududni kunbotar tomonda Nurota tog‘laridan Ilono‘tti darasi ajratib turadi. Morguzar tizmasi tog‘li Ustrushonaning yirik qismini egallaydi, bu yerda yerusti suvlariga boy soy daralari va yuqorisida suvsiz plato – yaylovlari bor.

Adir mintaqasi Morguzar tog‘larning baland cho‘qqilaridan oqib keluvchi sel cho‘kindilaridan hosil bo‘lgan har xil qalinlikdagi sariq-kulrang lyossdan iborat. Ushbu yotqiziqlar lyoss g‘ovaksimon jinslardan iborat tuproq qatlami lalmi dehqonchilik uchun qulay. Bu yernig yer osti suvlari - 10 metrdan to 50 metrgacha chuqurlikda joylashgan bo‘lib, suv ta’minoti asosan, tabiiy yog‘inlar va soylarning suvlaridan iborat. Soylarda yilning eng faol oqim davri may-iyun oylarida kuzatilib, shu davrda umumiy yillik suv sarfi odatda 50% gacha to‘g‘ri keladi. Ulardan Zominsoy, Sangzor, Ko‘lsoy, Achchisoy, Ravotsoy, Peshag‘arsoy, Uvolsoy, Turkmansoy, Jaloirsoy, Xo‘jamushkentsoy kabi soylarning quyi oqimlarini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Biroq juda kam (Zominsoy va Sangzor) soylar butun dehqonchilik

mavsumi (bahor-kuz) davomida nisbatan bir tekis oqib turadi. Qolganlari esa yoz mavsumida quyi o‘zanlariga yetib bormaydi.

Dasht-cho‘l tekisliklar mintaqasi geografik joylashuviga ko‘ra Sirdaryo va Nurota tizmasi o‘rtasidagi, janubdan shimoliy-g‘arbga tomon pasayib boruvchi qiyalik to‘lqinli tekisliklardan iborat. Ularning asosiy qismi tog‘larning cho‘lga tutash shimoliy qismlari va Mirzacho‘l huududlariga to‘g‘ri keladi. Mirzacho‘lning markaziy qismida bir qancha havzalar - Sardoba, Jetisoy, Karoy va Arnasoylar tilga olinib, ularda yer osti suvlari to‘planadi va tabiiy drenajga ega emas. Tuprog‘i mezo-kaynozoy cho‘kindilaridan tashkil topgan bo‘lib, yuzasi lyosssimon jinslar bilan qoplangan. Sirdaryoning nisbatan yosh terrasalari, janubiy, tog‘li zonasi Turkiston tizmasidan keladigan konglomerat va less tizma-adirlar shaklidagi hududlar va uning shoxlaridan iborat. Mirzacho‘l tuproqlari cho‘l bo‘z tuproqlari qatoriga kiradi. Ular tuproqli va qumli bo‘lib, ko‘p miqdorda ozuqa moddalarini o‘z ichiga oladi va sug‘orma dehqonchilikda juda unumdor tuproq hisoblanadi.

Xullas, cho‘l, dasht va tog‘li hududlarda to‘yimli oziq-ovqatning mo‘lligi, o‘simliklari va hayvonot dunyosi ilk davrlardan ibtidoiy odamlarining kelib o‘rnashishiga sabab bo‘lgan. Mintaqada o‘rganilayotgan paleolit, mezolit, neolit va bronza davri jamoalariga mansub yodgorliklarda o‘zlashtirma xo‘jalikning turli xil shakllaridan, to ishlab chiqarish xo‘jaligigacha bo‘lgan sohalar tarkib topib borganligi kuzatishimiz mumkin. Keyinchalik, tabiiy geografik joylashishi jihatidan yaylovlarning qulayligi, chorva uchun turli-tuman o‘tloqlar va o‘t-o‘lanlarning ko‘pligi, iqlimning mo‘tadilligi va suv manbalarining mavjudligi mintaqada dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirishga imkon bergan.

Yozma manbalardagi Qadimgi Ustrushona haqidagi ma’lumotlarni O‘rta Osiyo xalqlarining ilk yozma manbasi “Avesto”dan olish mumkin. Garchi, ushbu manbada tilga olingan o‘lkalar Ustrushona tarzida berilmagan bo‘lsada, sanab o‘tilgan joylar va qabilalar yashagan hudullar (Qangha, xaumovarkalar, turlar, Chaychasta ko‘li, “tura”, “danyu”, “xuaona” va boshqalar) Ustrushona hudularida yashagan xalqlar tarixiga ham bog‘lanadi. Avesto matnlarida mintaqada yashagan saklar asosan, Yaksart saklari deb atalib, ular “tur” qabilalaridan biri sifatida tilga olinadi. “Avesto” ning “Yasht” nask (kitob)ida “danay turlari” eslatib o‘tiladi. Olimlarning ta’kidlashicha, “Danay” atamasi Sirdaryoning qadimgi nomlaridan biri hisoblanib, Yaksart bilan bir xilda qo‘llanilgan. Umuman olganda, “Avesto” matnlari ma’lumotlarini bu hududlarda yashagan sak qabilalariga oid desak bo‘ladi.

Eron Ahamoniylari tomonidan qoyatoshlariga yozdirilgan Behistun, Persopol, Naqshi Rustam bitiklarida ko‘chmanchilar – saklar yashash hududlariga ko‘ra, uch guruhga bo‘linib, saka- tigraxauda, saka-tiay-daraya va saka-xaumavargalar deb atalgan. Ular haqida yozma manbalarda ayrim ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, mil. avv. VI asrlarga oid “Behistun” va “Naqshi Rustam” tosh bitiklarida qayd etilishicha, Sug‘ddan Sirdaryogacha bo‘lgan hudularda yashagan ko‘chmanchi sak qabilalari ahamoniylarga jiddiy qarshilik ko‘rsatgan.

Mil. avv. VI asrlarga oid qadimgi hind eposi “Maxabxarata”ning “Ashvamedxa” qismida saklar o‘tganlar ruhiga qurbonlik qiluvchi qabilalar sifatida eslatigan. Unda podsho

Yudxishxira o‘tkazgan qurbonlik marosimida turli mamlakatlardan kelgan mehmonlar, ya’ni, toharlar va qanqalar (qang‘arlar) qatorida Sirdaryo bo‘yidan kelgan saklar ham ishtirok etganligi haqidagi ma’lumotlar ham tasdiqlaydi.

Antik davr tarixchilari asarlarida Eron shohi Kir II (Kurush) davrida qurilgan yetti shahar va bu shaharlarning bir-biri bilan bog‘liq holda yunonlarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targanligi haqida malumotlar berilgan. Ularda yoritilishicha, Maroqand va uning atrofidagi qishloqlarni o‘ziga tobe qilgan Aleksandr ko‘p sonli armiyasi bilan Sirdaryo tomon yurish qiladi. Oldingi pozitsiyadagi oziq-ovqat va otlarga yem-xashak yig‘uvchi makedon otryadini mahalliy axoli (ustrushonlar) butunlay qirib tashlaydi va ko‘tarilish juda qiyin bo‘lgan tik qoyali tog‘ ustiga chiqib ketishadi. Aleksandr bu qoyani katta qiyinchilik va talofat bilan egallaydi. Jang paytida uning o‘zi ham qattiq yaralanadi. Ustrushonaning tog‘li qoyalarida ilk bor mag‘lubiyat alamini tortgan Aleksandr, o‘zining jahonda tengsiz hisoblagan armiyasini tog‘lik qoyalarda jang olib borish taktikasi kuchli emasligini anglab qolgan. Ustrushonaliklar esa bunday qoyalarda jang olib borishni nihoyatda yaxshi o‘zlashtirgan edilar. Biroq, Aleksandr qo‘shinlarining bir necha baravar ko‘pligi va ularning zamonaviy qurollanganligi urush taqdirini hal qiladi.

Aleksandr katta qiyinchilik bilan bu yerlarni bosib olgach, erksevar mahalliy xalqlarning hujumidan cho‘chib, 17 kunda hozirgi Ho‘jand va Bekobod shaharlari oralig‘ida taxminan Farhod GESi o‘rnida qal’a qurdiradi. Uni Aleksandriya Esxata (Chekka Aleksandriya) deb ataydi. Yunon tarixchisi Arrianning yozishicha, daryoga qo‘shni yashayotgan yovvoyilar shaharlarda turgan yunon bo‘linmalariga xujum qilib, ularni qirib tashlaydilar va bu shaharlarni yanada mustahkamlay boshladilar.

Aleksandrning yurishiga bag‘ishlangan asarlarda Sirdaryoning chap qirg‘og‘ida yettita shahar mavjud bo‘lganligi ta’kidlanadi. Bu shaharlar Aleksandrga bo‘ysunmasligini e’lon qilib, isyon ko‘targanda, Mamakena qabila (ba’zi manbalarda shahri) sining qarshiliklari alohida eslatiladi. Kursiy Rufning ma’lumot berishicha,- “... Hech qachon, hech qaysi shahar qamalga bunchalik qahramonlarcha bardosh bermagan edi”. Ayni paytda Ustrushonaliklarni qo‘llagan daryo orti saklarining yunonlarga hujumlari uyushtirladi. Bu voqealardan sak qabilalari muayyan siyosiy davlat uyushmalari tuzganligi ma’lum bo‘ladi. Bu haqda S.Qudratovning yozishicha, yunon mualliflari ko‘chmanchi saklardan farqli ravishda Sirdaryoning chap qirg‘og‘ida o‘troq hayot kechirgan aholini umumlashma nom bilan «varvarlar» deb atashgan. Faqatgina Kvint Kursiy Rufdagina o‘zlarining bosh shaharlari – Kiropolni makedoniyaliklardan himoya qilgan «memakenlarning kuchli qabilasi» haqida so‘z ketadi. Boshqa olimlarning fikricha markazi Kiropol bo‘lgan butun voha aholisi «memakenlar» deb atalgan. Bundan memakenlar viloyatning qadimgi aholisi tarkibiga kirgan qabilalardan birining nomi bo‘lib, keyinchalik bu bir-biriga yaqin bo‘lgan qabilalar viloyatning eng qadimgi elatini tashkil etganligi ma’lum bo‘ladi.

Xo‘jand shahri eron ahamoniylari davridayoq siyosiy sulolaviy harakter kasb etgan va u muhim harbiy- trategik ahamiyatga ega bo‘lgan. Xo‘jand Sirdaryoning yuqori oqimidagi yirik savdo porti sifatida ham mashhur bo‘lgan. Sirdaryo daryosi chiqishda Mo‘g‘ol tog‘ning tugash

hududida uni merdional tarzda kesib o‘tadi. Shuning uchun Xo‘jand yaqinida daryoning tubi qoyalardani iborat bo‘lib, sayoz oqadi. Ko‘p ostonalik bu yerda kemalarning suzib o‘tish imkoniyati yo‘q. A.A.Gritsinaning fikricha, Xo‘jand (Chekka Aleksandriya), Nov atrofidagi yodgorlik Gaza bo‘lishi mumkin. Kurkat hozirgi Shirin shahar yodgorligiga, Kiropol o‘rniga to‘g‘ri keladi. Savat (Sobot) esa Xontepa shahar yodgorligi o‘rniga mos kelishi mumkin va “Aleksandrga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan shaharlardan biri Xantepa (Sobot) bo‘lgan”. A.A. Gritsina Kiropolni Kurkat qishlog‘i atrofiga joylashtiradi hamda Shirin va Chig‘moytepa shahristoni bu masalada yangi ma’lumotlar berishini taxmin qiladi.

Shunday qilib, Kiropol, hozirgi O‘ratepa, Gaza, hozirgi Xo‘jand yaqinidagi Gazan-Darak, Baga, O‘ratepa yaqinidagi Vagat, Kurkat, Shirin shahri yaqinidagi Kurkat qishlog‘i o‘rnida bo‘lgan. Sabat, Shavkat va Xovost shaharlari esa Ustrushonaning Sirdaryo janubidagi tekislik qismida joylashgan.

Mil. avv. II asrdan boshlab qadimgi xitoy manbalarida O‘rta Osiyo, jumladan, Kangjyuy (Kangkiya, Kang‘uy, Qang‘) davlati tarkibida tilga olinadi. Xitoy sayyohi Sima Chyan (mil. avv. 160/161-42/43 yy.) qang‘uylarning joylashish o‘rni, urf- odatlari, harbiy qudrati, ularga qo‘shni yashovchi xalqlar haqida qisqacha ma’lumot beradi. Qadimgi Xitoy tarixchisi Ban Gu o‘zining “Birinchi Xan sulolasi tarixi” asarida qang‘uylarning joylashuvi va harbiy kuchlariga e’tibor qaratgan. Bundan tashqari, bu elatning qancha oiladan iboratligi, bosh shahri, ularga tobe bo‘lgan 5 ta hokimlikning nomlari (Suse, Fumu, Yuni, Gi, Yuegan)ni keltirgan. Ustrushonaning ilk o‘rta asrlar davriga oid ma’lumotlar Xitoyning “Bey-shi (Shimoliy hukmdorlar tarixi), “Suy-shu (Suy sulolasi tarixi)” va “Tan-shu (Tan sulolasi tarixi)” yilnomalarida uchraydi.

Ustrushonaning qadimgi davri haqida Xitoy yilnomalariri beradi. Taniqli tarixchi Ban-Gu qalamiga mansub “Ulug‘ Xan xonadoni tarixi” – Syan-xanshu (mil.er.avv. 206-mil. 23-yillar) ning 95-bobida Davan (Farg‘ona) dan Parfiyagacha bo‘lgan o‘lkalar aholisining, tili, dini, turmush tarzi va xo‘jaligi, urf-odat, marosimlari haqida muhim ma’lumotlar berilgan.

Bu ma’lumotlarda, avvalo, Ustrushona, mamlakatining bir necha variantlarda o‘qiladigan nomlari (Shuaydushana, Sudulishena, Sharqiy Sao....) keltirilgan, qolaversa, Ustrushonadan qo‘shni viloyatlargacha bo‘lgan masofalar, ilohiylashtirilgan g‘or va unga sig‘inuvchi odamlar, atroflicha bo‘lsada, arab istilosiga qarshi kurashning qisqa voqealariga doir siyosiy hayot – mamlakat hukmdori She Axu haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Ustrushona tarixi haqida arab geograflarining asarlarida ko‘plab ma’lumotlar berilgan. Ulardan X asrda yashagan arab geografi, Abul-Qosim Muhammad ibn Havqalning yozishicha, “Ustrushonada kema yursa bo‘ladigan daryo ham ko‘l ham yo‘q, lekin uning ekinzorlari, yaylovlari va qishloqlari obod hosildor va (turli-tuman) mahsulotlarga boy. Uning yirik shahri ustrushonaliklar tilida Bunjikat deb ataladi. Unga quyidagi shaharlar qarashli: Arsubonikat, Kurkat, G‘azak, Fag‘kat, Sobot, Zomin, Dizak, Nujkat, Xarqona. Bular Ustrushonaning shaharlaridir. Hukmdorlari yashaydigan bosh shahar Bunjikat bo‘lib, unda erkak aholining soni taxminan o‘n ming kishini tashkil etadi. Binolari esa paxsa va g‘ishtdan qurilgan”. Shuningdek,

manbalarda Ustrushona xududlarida tog’ jinslari va ma’danlarni qazib olish alohida ahamiyatga ega bo‘lganligi haqida ham ma’lumotlar o’rta asrlar geograflari va tarixshunoslari asarlarida yoritilgan. Ular At-Tabariy (X asr), Ibn Xavkal hamda muallifi noma’lum «Hudud al-Alam» nomli kitoblarda keltirilgan. Ushbu asarlarda mazkur xududda mis, kumush va oltin ishlab chiqarish konlari mavjud bo‘lganligi haqida ma’lumotlar berilgan.

Ustrushonashunos olimlar o‘lkani Yoqut, As-Sam’oniy, Ibn al-Faqih, Ibn Xurdodbeh, Tabariy, Balazuriy, Al-Muqaddasiy kabi tarixchi va sayyoh-larning asarlari “Ushrusana”, “Ustrushona”, “Surushana”, “Sutrushana”, “Shurusana” kabi shakllarida qayd etilganligini keltirib o‘tishadi. Uyg‘ur yozuvidagi buddaviy mazmundagi bir qo‘lyozmada Sutrasan nomli shahar qayd etilgan bo‘lib, uning nomi sanksritcha “Sudarsana” so‘zidan yasalgan. Shu manbalarga asoslanib, ilm-fanda mintaqaning nomi Ustrushona shaklida qabul qilingan.

Arab manbalarida, Ustrushonada bosh shahar Bunjikatdan keyin ikkinchi bo‘lib Zomin tilga olinadi. Zomin shu rustoqning bosh shahri bo‘lib, u Farg‘ona bilan So‘g‘gdni bog‘lovchi katta karvon yo‘li yoqasida, tog‘ oldi o‘lkasida joylashgan. Bu Haqda ibn Havqal “U Farg‘onadan as-So‘g‘dga olib boruvchi yo‘lda joylashgan uning boshqa nomi Savsanda. U yerda eski shahar ham bor, lekin u xaroba holatida. Bozorlar, jome masjidi va aholisining hammasi Savsandaga ko‘chirilgan. Bu yangi shaxar atrofida devor yo‘q. U Butun as-So‘g‘ddan Farg‘onaga ketayotgan yo‘lovchilarning to‘xtov yeridir. Unda oqar suvlar, bog‘lar, tokzorlar va ekinzorlar bor” deb ma’lumot beradi.

Ustrushonaning arablar davridagi ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida Mug‘ tog‘i va Chilxujradan topilgan arxiv xujjatlari him ma’lumot beradi. Panjikent hukmdori Devashtich (708-722 yy.) tomonidan Chochga yuborilgan elchi Fatufarn Panjikentga qaytayotib, Ustrushona orqali o‘tishi lozim bo‘lgan. Biroq, Ustrushona arablar qo‘liga o‘tib, yo‘li berkilib qolgan va shu sababli Chochda turib o‘z xojasi Devashtichga maktub yozgan. Ushbu xat Mug‘ tog‘i Sug‘d hujjatlari arxivi tarkibida bizgacha yetib kelgan va A-14 raqami berilgan. Ushbu xatning 16-17-satrlarida Fatufarn, Ustrushanikutakt pg‘anshtak – Ustrushona yerlari bosib olingan, deb yozadi. Bu vaziyat, aftidan ustrushonaliklar uchungina emas, Panch uchun ham, Choch uchun ham xavfning kuchayishiga olib kelishi mumkin edi.

M. Ishoqovning yozishicha, A-9 hujjatining mazmuni murakkab. Voqealar beqaror va rivojlanib o‘zgarib borayotgani yaqqol seziladi. Bir tomondan arab istilosi kunlarida Xo‘janddagi voqealar haqida gap borsa, boshqa tomondan harbiy-siyosiy vaziyat Buttam, Pargar, Ustrushana, xatto, Xuttal kabi hududlarni qamrab oladi. Orada Panch viloyati bilan qo‘shni Ustrushonaga olib o‘tuvchi Shahriston perevali manzillari qayd etilgan.

Shunday qilib, yunonlar bosqini paytidagi siyosiy hayotga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Ustrushona So‘g‘diyona mulklari tasarrufida bo‘lgan va keyinchalik Qang‘ konfederatsiyasi (Choch) tarkibiga kirgan. Keyingi davrga oid arab muarrixlarining asarlarida ancha aniq ma’lumotlar keltirilgan. Bu paytda Bunjikat, Arsubonikat, Kurkat, G‘azak, Fag‘kat, Sobot, Zomin, Dizak, Nujkat, Xarqona va tog‘li hududlardagi Mink, Asbanikat, Biskar, Bangam, Vakr, Shagar, Mascha, Burgar, Buttam shaharlari gullab yashnagan. Hukmdorlari yashaydigan bosh

shahar Bunjikat bo‘lib, unda erkak aholining soni taxminan o‘n ming kishini tashkil etadi. Biroq, manbalarda ta’kidlangan shaharlar, karvonsaroy va rustoqlarning joylashgan o‘rnini arxeologik tadqiqotlar orqali o‘rganish va tarix fani muomalasiga faol kiritish zaruriyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алибеков Л.А., Нишанов С.А. Природные условия и ресурсы Джизакской области. –Ташкент: Узбекистан, 1978. – Б. 6-8.
2. Агроклиматические ресурсы Джизакской и Самаркандской областей Узбекской ССР. – Ташкент: 1977. –С. 14.
3. Абаев В.И. Скифский быт и реформа Зороастра // АО. – 1956. – № 24. – С. 44-45
4. Bernard P. Les monnais hors tresors. Questions d’histoir Greco-bactrienne // Fouilles d’Ai Khanoum. IV. – Paris, 1985. –P. 38-39.
5. Буряков Ю.Ф., Грицина А.А. Античные памятники Северной Уструшаны // ОНУ. Вып. 7. – Ташкент, 1989. – С. 44; Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. – Ташкент, 1990.– С. 9.
6. Грицина А. А., Сверчков Л. М. Археологические исследования в Сырдарыинской области // ИМКУ. Вып. 23. – Ташкент, 1990. – С. 117.
7. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард (Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С. Камолиддин). Тошент: ”Узбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011. –Б: 68.
8. Исҳоқов М.И. Илк ўрта асрларда Уструшонанинг сиёсий мақомига доир //“Қадимий Жиззах воҳаси – Марказий Осиё цивилизацияси тизимида (сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаёт)”. – Жиззах, 2019. – Б. 29-31.
9. Тошбоев Ф.Э. Qadimgi Ustrushona chorvadorlari tarixi va madaniyati. Tarix fan. dokt. (DSc) diss... – Тошкент, O‘z Mu., 2024. – Б. 17.
10. Тўйчибоев Б.Б. Қадимий Уструшона ҳудуди тарихий топографияси муаммолари хусусида (мил.авв. VII – милодий IV асрлари) // ЎММТ. 32- сони. – Тошкент, 2001. – Б.75.
11. Ўзбекистон ССР тарихи. – Тошкент, 1970. –Б. 96-99.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

O‘ZBEKISTONDA XALQ TA’LIMI TIZIMI TARIXI

Nabijonov Umidjon Abdug‘ani o‘g‘li
University of business and Science
Tarix yo‘nalishi talabasi
umidjonkak@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekistonda Xalq ta’limi tizimi tarixiga oid XIX asr oxiri va XX asr boshlarida amalaga oshirilgan o‘zgarishlar yoritilgan bo‘lib, unda XIX asr oxirlarida yurtimiz hududlarida tashkil etilgan eski va yangi usul maktablari va ulardagi ta’limning o‘zaro farqi hamda bog‘liqligi, dars berishga oid metodik jihatlari shu bilan birga Rossiya imperiyasi tomonidan O‘lkamiz hududlarida 1884 yilda tashkil etilgan Rus-tuzem maktablarining faoliyati va dars berish usullari, Rus-tuzem maktablari rivojlatirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, maktab, madrasa, eski usul, Yangi usul, boshlang‘ich ta’lim, Sovet davri, taraqqiyparvarlar.

СТЕМЫ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В данной статье освещаются изменения, произошедшие в истории системы народного образования в Узбекистане в конце XIX и начале XX веков, в том числе о школах старого и нового метода, созданных на территории нашей страны в конце XIX века, их различиях и взаимосвязи в образовании, методических аспектах преподавания, а также о деятельности и методах преподавания русско-туземных школ, созданных Российской империей в 1884 году на территории нашей страны, и о работе, проведенной по развитию русско-туземных школ.

Ключевые слова: образование, школа, медресе, старый метод, Новый метод, начальное образование, советский период, прогрессисты.

HISTORY OF THE PUBLIC EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN

Abstract: This article highlights the changes made to the practice of the public education system of Uzbekistan in the late XIX and early XX centuries, which reflect the differences and the relationship between the old and new schools founded at the end of the XIX century in the territories of our country, and their education, as well as methodological aspects of teaching related to the introduction Russian Russian Empire in 1884, also highlights the activities and

teaching methods of organized Russian-native schools and the ongoing work on the development of Russian-native schools.

Keywords: education, school, madrasah, old method, New method, primary education, Soviet period, progressives.

KIRISH

Milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy va madaniy hayotni ta’lim sohasi orqali rivojlantirish O‘zbek davlatchilik tarixining eng muhim omillardan sanalgan. Yurtimiz tarixida ta’lim sohasiga e’tibor doimo yuqori darajada bo‘lgan. Aynan Sharq renessansi davrining buyuk allomalari va ularning jahon madaniyatiga ta’siri ilm-fan va ma’rifat sohasida xizmatlari bilan bog‘liq. Bu davrda tarix, til va adabiyot, astranomiya, tibbyot, matematika, fizika va pedogogika fanlarning o‘qitilishi al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar etishib chiqishiga sabab bo‘lgan.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tabiri bilan aytganda bu qutlug‘ diyorda o‘tmishda 400 ga yaqin madrasa, jumladan, 33 ta oliy madrasa, ya’ni, oliy o‘quv yurti faoliyat yuritgani bugun ham odamni hayratga soladi deya ma’lumot keltirib, O‘zbekiston qadimdan ilmu-ziyo maskanlaridan biri ekanligini takidlaydilar.

ADABIYOTLAR TAHLILLI VA METODLAR

Tarixan nazar solsak XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib yurtimiz hududida eski usuldagi maktablar, Yangi usul maktablari va Rus tuzem maktablari tashkil etilib, maktablarning faoliyati bugungisidan farqli ravishda maxsus davlat dasturi va yagona tizimga ega bo‘lmagan. Ular hukumat vakillari, jadid va diniy ulamolarning bu boradagi qarama-qarshi fikrlari doirasida tuzilgan.

Yuqoridagi 3 guruh maktablar faoliyatiga e’tibor qaratsak, “Yeski usul” maktablari o‘zida o‘rta asrlar qarashlarini aks etgan hamda, boshqa maktablardan farqli o‘laroq asosan diniy mazmundagi bilimlarni bergan.

Yangi usul maktablari esa ta’lim jarayonlarida diniy va dunyoviy fanlar o‘rgatilishi bilan farqlangan.

Rus-tuzem maktablari esa Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyoni egallagandan so‘ng bu hududlarga ko‘chib kelgan rus oilalari farzandlariga ta’lim berish va mahalliy millat orasida rus madaniyatni yoyish va mustamlaka ma’muriyatiga kerakli kadrlarni yetishtirib berish maqsadida ochilgan. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasini ruslashtirish siyosatining avj olishi o‘lkadagi xalq ta’limi tizimiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. O‘rta asr musulmon maktablarini isloh qilishdan bosh tortgan imperiya rusiyzabon kishilar o‘rnashgan hududlarda rus maktablarini ochish va ularda mahalliy aholi farzandlarini o‘qitish orqali Turkistonda maorif sohasini o‘z siyosatining quroli qilib olishga harakat qilgan. Chunki, 1866 yilda Toshkentga ko‘chib kelgan yevropalik bolalarini o‘qitish uchun dastlabki rus maktabi ochildi. Mustamlakachilar yevropalik bolalar bilan birga o‘qish uchun mahalliy aholi farzadlarini ham qabul qilar edi. Turkistonda bunday maktablar haqida hali musulmon

tabaqalari orasida yetarli tushuncha bo‘lmagan, bu siyosat darajasida maxsus topshiriq edi [2, 61]. Bu orqali keyingi yillarda o‘lkamiz hududidagi aholini ruslashtirish ishlarini jadallashtirish asta-sekinlik bilan milliy o‘zlikni kamaytirishga urinishgan.

O‘lkamiz hududida ruslashtirish siyosatiga qarshi dastlabki choralar milliy taraqqiyparvar ziyolilar tomonidan olib borildi. Ular Ismoil Gasparalining ma’rifatchilik g‘oyalari asosida yaratilgan “Yangi usul” maktablarini ochish va xalqning qadimiy qadriyatlari va an’analarini saqlab qolish, milliy o‘zlikni asrash borasida ulkan ishlarni amalga oshirdilar. Turkistondagi barcha maktab va madrasalarning mudarris va talabalari ta’lim va tarbiya jarayonlarida mashhur olimlar, islom va musulmon huquqlari bilimdonlari tomonidan yozilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalardan foydalanishgan.

Rossiy imperiyasi bosqinchilik siyosatini yuritar ekan, faqat so‘zda musulmon o‘quv yurtlarining ishiga aralashmaslik haqida gapirilardi, aslida esa diniy maktablar bolalar sonini kamayatirishga bel bog‘ladi. O‘lkada rus-tuzem maktablari ochilib va yana qator tadbirlar yordamida musulmon maktablarining ta’sir doirasini kamaytirishga urinishdi. Rossiya imperiyasi hukumatning diniy maktab va madrasalardagi o‘quvchilar sonini qisqartirishga qaratilgan ruslashtirish siyosati qanchalik kuchli bo‘lmasin, o‘lka ma’naviy hayotida madrasalarning obro‘si pasaymadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

1899 yili Turkistonning Sirdaryo, Samarqand, va Farg‘ona viloyatlaridagi 4632 maktabda 44773 o‘quvchi o‘qigan bo‘lsa, 1913 yilga kelib eski usuldagi maktablar soni 7290, o‘quvchilar soni esa 70864 nafarga yetdi. Bu davrda maktab va madrasalar soni 7664 taga yetdi [3, 34-35].

Bu uch toifadagi maktablar Namanga viloyati hududlarida ham mavjud bo‘lgan. Aynan, Namangan uyezdida birinchi rus-tuzem maktabi 1886 yilda, yangi usul maktabi esa 1897 yilda ochiladi. Ammo, ruhoniylar ularni “kofirlar maktabi” deb e’lon qiladilar. Shunday bo‘lsada, ushbu maktabga qiziqish ortib bordi. Hatto, ilg‘or ma’rifatparvar olim va shoir Isoqxon Ibrat o‘z o‘g‘li Abbosxonni birinchilar qatorida rus-tuzem maktabiga o‘qishga beradi. Bu davrda shaharda Saidqulbek va Mulla Qirg‘iz madrasalari mavjud bo‘lib, Namangandagi savodlilar barcha aholining 2,9 foizdan oshmagan [4, 8]. Shuningdek, Namangan uyezdi 1882 yil bo‘yicha bergan xabarnomada esa 17 madrasa va 62 ta maktab mavjudligi haqida ma’lumot berilgan. 1887 va 1888 yillar bo‘yicha xabarnomada 42 ta madrasa va 296 ta maktab haqida ma’lumot berilgan. Madrasa va maktablar sonidagi farqning sababi, bizning fikrimizcha, 1882 yilda ular to‘la ro‘yxatga olinmagan, 1887 va 1888 yillarda to‘la ro‘yxatga olingan bo‘lishi kerak. Chunki qisqa vaqt ichida, 5-6 yilda 25 ta madrasa va 134 ta yangi maktab bunyod etilishi mumkin emas. Bu fikrni 1887 va 1888 yillarda maktablar sonida o‘zgarish bo‘lmaganligi ham tasdiqlaydi [5, 14].

1875 yilda Namanganda 371 ta maktablarda 7121 nafar, 1898 yilda 400 ta maktabda 5501 nafar bola o‘qiganligi haqidagi ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, 1875 yildan 1898 yilgacha maktablar soni 29 taga ko‘paygan, o‘quvchilar soni esa 1620 nafarga kamagan. Ammo, shunga qaramasdan madrasalar soni 16 taga ko‘paygan [4, 7]. Shu davrlarda Turkiston general-

gubernatorligi bosh inspektorining ko‘rsatmasiga binoan, Farg‘ona oblasti harbiy gubernatori buyrug‘i bilan 1878-yil 1-iyundan boshlab viloyat territoriyasida 8 ta o‘quv yurti ochildi. Shundan 1879 yilda Namanganda bitta o‘g‘il bolalar uchun ikki sinfli va bitta qizlar uchun ikki sinfli o‘quv yurti ochildi [4, 8].

1900 yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, Namangan uyezd aholisi 314300 nafari tashkil etgan. Namangan uyezdining eng yirik shahri va ma’muriy markazi Namangan shahri bo‘lib, unda 61388 nafar aholi yashar edi (1900). Shaharning mahalliy aholi yashaydigan qismida 11425 xonadon, 347 masjid, 16 qabriston, 6 qalandarxona, 74 erlar va 13 qizlar maktablari, 20 madrasa, 35 qorixona mavjud bo‘lgan [6, 36-37].

1893 yilda dastlabki jadid maktabi Samarqand shahrida savdogar Husaynovning uyida ochildi. 1897 yili Andijonlik Sultonmurodboyning paxta tozalash zavodida ikkinchi yangi usul maktabi ochildi [7, 36-37].

Namangan hududida 1907 yilda yangi usul maktabi tashkil etilib, bevosita mashhur o‘zbek ma’rifatparvari Ishoqxon Junaydullaxo‘ja o‘g‘li Ibrat nomi bilan bog‘liqdir.

To‘raqo‘rg‘onga taklif etilgan Husayin Makayev Ibrat tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktabida mahalliy aholi bolalarini o‘qita boshlaydi. Yangi usulda tashkil etilgan maktabda uning faoliyati tezda o‘z samarasini berib, mahalliy aholi bolalarining savodi chiqadi. Bu hol uning obro‘sini yanada oshishiga sabab bo‘ladi. Isoqxon Ibrat Husayin Makayevning faoliyatiga quyidagicha baho beradi: “Qozon tarafindan bir muallim jalb etub, maktab qilib berdim. Maktabning qushodig‘a (tashkil bo‘lganiga) uch oy bo‘lg‘ani yo‘q, yigirmadan ziyoda kichik bolalar, o‘n beshta odamlar “alif nima?” degan savolina “kaltak” deb javob beruvchilar tamom savodi chiqib, har narsani yozadurg‘an bo‘ldilar” [8, 54] deya fikr bildiradi.

Husayn Makayev va Abdulrauf Shagidullin birgalikda Namanganda maktab uyushtirib, o‘zbek va tatar bolalarini o‘qitib, ta’lim sohasiga katta hissa qo‘shadilar [9, 179]. E. Mirzaaliyevning “Namangan shahar xalq maorifi taraqqiyoti tarixidan” deb nomlangan risolasida rus-tuzem maktablarining tashkil qilinishiga oid bir qancha ma’lumotlarni keltiradi. Ya’ni, 1904 yilda Namanganda rus-tuzem maktabi ochilib, unga ayrim o‘zbek bolalari kirib o‘qiydi. Namanganda bunday maktablar ochilishi, idora ishlarini yaxshi yo‘lga qo‘yish, rus kishilarining mahalliy boylar va amaldorlar bilan bo‘lgan savdo muomalalari ishini osonlashtirish maqsadida ochilgan deb ma’lumot beriladi [10, 9].

Namangan hududidagi maktablarning ko‘pi yaroqsiz holatda bo‘lib, ayrim maktablar moslashtirilgan binolarda olib borilar edi. Masalan 1902 yil 27 fevralda chop etilgan “Russkiy Turkestan” gazetasidagi quyidagi fikrlarni ko‘rishimiz mumkin. “Maktab ko‘pincha omborxonaga o‘xshagan jihozsiz, quruq joyda joylashgan. O‘quvchilar devor bo‘ylab tizilib, qup-quruq yerga o‘tirishgan [11, 30].

Rus-tuzem maktablari o‘sha zamon talablariga javob bergan maktablar bo‘lib tanilgan. Mahalliy xalq bolalari o‘qitiladigan sinflar uchun yangi darsliklar tutila boshladi: mahalliy aholi bolalari uchun nashr qilingan o‘qish kitoblariga M. A. Krilov, A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov,

N. A. Nekrasov, L. N. Tolstoy, K. D. Ushinskiy asarlaridan namunalar (yertaklar, masallar va hokazolar) kiritilgan [10, 6].

Yangi usul maktablariga nisbatan xalqning ishonchi ortib borishi sababi shuki, jadid mutafakkirlarining arab, fors, ozarbayjon, tatar va rus tillaridagi “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Osiyo”, “Shuhrat”, “Sadoi Turkiston”, “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Hurriyat” kabi gazeta hamda jurnallarda ozodlik, tinchlik va hurfikrlilik kabi mavzulardagi maqolalari xalq orasida tez tarqala boshladi. Shuningdek, jadidlar maktablarida ta’lim berishda yangicha metod va usullarini qo‘llay bilishi xalq orasida jadid maktablarining mavqeyi oshishiga olib keldi.

Namanganlik marifatparvarlar ta’lim berish sohasida yuqori natijalarga erishgan. Bu haqida o‘sha yillarda o‘qituvchilik qilib nafaqaga chiqqan Yo‘ldosh Najmiddinov o‘z esdaliklarida quyidagilarni yozib qoldirgan: “1910 yillarda Namanganda yangi maktab tashkil bo‘ldi. Dastavval Husayn Makayev degan tatar kishi kelib, yangi usuldagi maktab ochganda, shaharda duv-duv gap tarqaydi: Makayev degan tatar kelib, yangi usulda maktab ochib, to‘rt yilda o‘qish va yozishni, hisobni o‘rgatib, mulla qilayotganmish. O‘qigan bolalardan bir so‘m pul olar emish. Bolalarni urmasdan, odobli qilib o‘qitarmish” deya ma’lumotlar keng yoyildi [4, 8].

1918 yilda sovet hokimiyati o‘rnatilgandan keyin yana yangi maktablar ochila boshladi. Namangan shahridagi 1-univermagning ikkinchi qavatida “Vatan” nomli maktab ochildi. Bunda Akmal Ikromov, Mo‘ydin Shohimardonov va boshqalar o‘qitar edilar. Qo‘qon ko‘chadagi Nuriddin afandi deganning yerida Turon maktabi tashkil etilgan. Bunda turk domla Nuriy afandi, Lutfulla Olimiy va boshqalar o‘qitar edilar. Sardoba madrasasida Toji Rahmoniy degan kishi boshliq bo‘lib, unda olti sinfli maktab ochilgan, Chuqur ko‘cha, Ko‘zagarlik va Uychi ko‘cha og‘zidagi bolaxonada to‘rt sinfli maktab bo‘lib, unda Azimxon afandi mudirlik qilgan [12, 34].

XX asrning boshlarida O‘zbekistonda savodsizlikni tugatish maktablarining dastlabki muallimalari rus hamda mahalliy millat tilini yaxshi bilgan tatar-boshqird ayollaridan iborat bo‘lgan. Mazkur maktablarga muallimalarning yetishmasligi o‘sha davrning dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Mazkur muammoni hal etish maqsadida pedagogik bilim yurtlari tashkil etilgan.

Bunday bilim yurti Namangan shahrida ham ochilib, Turkiston xalq maorifi komissarligining 1919 yil 6 oktabrdagi buyrug‘iga ko‘ra, tatar muallimasi Izza-Nur Muhammedova bilim yurtiga o‘qituvchi etib tayinlanadi [13, 72]. Mazkur bilim yurtlari va maktablarda muallimalarning faoliyat ko‘rsatishi osonlik bilan ko‘chmagan. Dastlab mahalliy millat vakillari bunday maktablarning faoliyat ko‘rsatishiga to‘sqinlik qildilar. Ammo Sovet hokimiyatining ta’lim sohasidagi islohotlarning ayrim jihatlari e’tiborli edi. Ularning bepul va majburiy ta’lim olish haqidagi, o‘qish bilan ijtimoiy-ishlab chiqarish mehnati o‘zaro aloqasini ta’minlash zarurligi, ijtimoiy mansublikni tan olmaslik va boshqalar haqidagi talablari ana shu ijobiy jihatlaridan edi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘rta Osiyo hududlari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng bu hududlarda imperiya tomonidan ko‘z yumib bo‘lmas xatolar va inkor etib bo‘lmas yangiliklarni amalga oshirildi.

Masalan, Sovet hukumati tomonidan O‘zbekiston hududida boshlang‘ich ta’lim jarayonlarini yo‘lga qo‘yilishi, maktablar sifat jihatdan yaxshilanishi, kadrlar tayyorlash bo‘yicha ishlarni tashkil etilishi va boshqa ko‘plab yangiliklar e’tibordan chetda qoldirish mumkin bo‘lmasada, ammo ta’lim barcha bosqichlari barcha sohalar qatori mafkuraviy taziqqa duchor bo‘ldi. Lekin O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritishi bilan ta’lim sohasini milliy ko‘rinishda tashkil etish ishlariga katta e’tibor berildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Abdullayeva M, Asqarova O’ va boshqalar.Ta’lim tarixi.–T., 2013. –B. 61.
2. Choriyev A. X. Mustabid sho‘rolar tuzumi sharoitida O‘zbekiston xalq ta’limi va o‘qituvchi kadrlar tayyorlash: milliy an’anaviy va sho‘ro ta’lim tizimlari o‘rtasidagi ziddiyatlar (20-30-yillar). Tarix fan. dok...dis.–T., 1998. –B. 34-35.
3. Rajapov V. T. Namangan shahar xalq ta’limi tizimining rivojlanishi tarixi. –Namangan., “Noshirlik yog‘dusi”. –2011.–B. 8.
4. Alimov I. A. XVI-XVIII asrlarda Namangan bekligidagi madrasa, qorixona va maktablar tarixidan. Namangan tarixidan lavhalar.1-kitob.–Namangan, 2010. –B. 14.
5. Isoqboyev A. A. Namangan maorifi va matbuoti taraqqiyoti yo‘lida. Namangan tarixidan lavhalar.1-kitob.–Namangan, 2010. –B. 36-37.
6. Choriyev A. X. Mustabid sho‘rolar tuzumi sharoitida O‘zbekiston xalq ta’limi va o‘qituvchi kadrlar tayyoolash: milliy an’anaviy va sho‘ro ta’lim tizimlari o‘rtasidagi ziddiyatlari (20-30-yillar). Tarix fan. dok...dis.–T., 1998. –B. 36-37.
7. Dolimov U. Ishoqxon Ibrat. – T.: Sharq, 1994. – B. 54.
8. Rasulov A. Turkiston va Volgabo‘yi, Uraloldi xalqlari o‘rtasidagi munosabatlar.–T.: 2005. –B. 179.
9. Mirzaaliyev E. Namangan shahar xalq ma’orifi taraqqiyoti tarixidan.–Namangan, 1989. –B. 125.
10. Mirzaaliyev E. Yu. Bazarov M.T. Namanganning XIX asr oxiri va XX asr boshidagi sosial-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi. –Namangan, 1998. –B. 30.
11. Dadaboyev R. Namangan shahar maorifi tarixidan. Tarix tilga kirganda…(maqolalar to‘plami) Davriy to‘plam № 2.–Namangan, 2008. –B. 34.
12. Nasriddinova D. Namanganda xotin-qizlar maorifi. Namangan tarixidan lavhalar.1-kitob.–Namangan, 2010. –B. 72.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

МУСТАҚИЛЛИКНИНГ ДАСТЛАБКИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИДА ЛИДЕР АЁЛЛАР ФАОЛИЯТИ ВА УЛАРНИНГ СОҲА РИВОЖЛАНИШИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ

Холикулова Ҳулкар Юлдашевна
Ўзбекистон Республикаси ҳуқуқни муҳофаза қилиш Академияси доценти
Тошкент, Ўзбекистон

Аннотация Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасида соғлиқни сақлаш тизимининг мустақилликдан кейинги ривожланиш жараёни ва мазкур жараёнда аёллар, айниқса лидер аёлларнинг ўрни чуқур таҳлил қилинган. Тадқиқотда давлат дастурлари ва ҳуқуқий асослар билан таъминланган ислоҳотлар натижасида тиббиёт соҳасида аёллар иштироки қандай ўсгани, уларнинг раҳбарлик лавозимларидаги фаоллиги ва касбий салоҳиятининг юксалиши статистик ва тарихий маълумотлар асосида ёритилган. Шу билан бирга, гендер тенглигини таъминлаш, халқаро ҳамкорлик лойиҳалари ва соҳа модернизациясида аёл мутахассисларнинг ҳиссаси ҳам таҳлил этилган. Мақолада тиббиётда аёллар ролини ошириш учун институционал ва маданий тўсиқларни енгиш зарурати илмий жиҳатдан асосланган.

Калит сўзлар: Соғлиқни сақлаш тизими, лидер аёллар, гендер тенглик, тиббиёт ислоҳотлари, соҳа модернизацияси, раҳбарлик, халқаро ҳамкорлик.

Аннотация В статье проведён комплексный анализ развития системы здравоохранения Республики Узбекистан в постсоветский период и роли женщин, особенно женщин-лидеров, в данном процессе. На основе статистических и исторических данных показано, как реформы, обеспеченные государственными программами и нормативно-правовой базой, способствовали росту участия женщин в медицине, повышению их профессионального потенциала и активности на руководящих должностях. Также рассмотрено значение гендерного равенства, вклад женщин-специалистов в проекты международного сотрудничества и модернизацию отрасли. В работе обоснована необходимость преодоления институциональных и культурных барьеров для дальнейшего укрепления роли женщин в системе здравоохранения.

Ключевые слова: Система здравоохранения, женщины-лидеры, гендерное равенство, медицинские реформы, модернизация отрасли, руководство, международное сотрудничество.

Abstract This article provides a comprehensive analysis of the development of the healthcare system in the Republic of Uzbekistan during the post-independence period and examines the role of women, particularly female leaders, in this process. Based on statistical and historical data, the study highlights how reforms supported by state programs and legal frameworks have increased women’s participation in healthcare, enhanced their professional capacity, and expanded their representation in leadership positions. The article also explores the significance of gender equality, the contribution of female professionals to international cooperation projects, and the modernization of the sector. The study underscores the necessity of overcoming institutional and cultural barriers to further strengthen women’s roles in the healthcare system.

Keywords: Healthcare system, female leaders, gender equality, medical reforms, sector modernization, leadership, international cooperation.

Ўзбекистон Республикасида мустақилликка эришилган илк йиллардан бошлаб соғлиқни сақлаш тизими миллий тараққиётнинг устувор йўналишларидан бири сифатида давлат сиёсатининг доимий эътибор марказида бўлиб келмоқда. Буни ҳар бир йилга белгиланган номлар ва шу асосда қабул қилинган давлат дастурларининг мазмун-моҳияти ҳамда амалий натижалари яққол тасдиқлайди. Жумладан, 1992-йил “Ҳамширалар йили”, 2000-йил “Соғлом авлод йили”, 2001-йил “Она ва бола йили”, 2005-йил “Сиҳат-саломатлик йили”, 2006-йил “Ҳомийлар ва шифокорлар йили”, 2014-йил “Соғлом бола йили”, 2016-йил “Соғлом она ва бола йили”, 2021-йил эса “Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили” деб белгиланиши бунинг яққол далилидир. Мазкур давлат дастурлари доирасида тиббиёт соҳасини ривожлантириш, аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш, тиббий хизматлар сифатини ошириш, соҳа инфратузилмасини модернизация қилиш ва кадрлар салоҳиятини юксалтиришга қаратилган кенг қамровли чора-тадбирлар амалга оширилди. Айниқса, ушбу жараёнларда аёллар фаол иштирок этиб, тиббиёт тизимининг амалиёт қисмида ҳам ўз ўрнини мустаҳкамлаб бормоқда.Бугунги кунда Ўзбекистонда тиббиёт соҳасида фаолият юритаётган шифокорларнинг 50 фоизга яқинини аёллар ташкил этади. Жамиятда кечаётган сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ўзгаришлар натижасида аёллар турли соҳаларга, жумладан тиббиётнинг турли йўналишларига ҳам фаол кириб бормоқда. Масалан, косметология, акушер-гинекология, педиатрия каби тиббий йўналишлар анъанавий тарзда аёллар томонидан банд этилди, чунки бу соҳалар нозиклик, эҳтиёткорлик ва юқори эстетик дидни талаб этади. Шикастланишлар, жарроҳлик ва ортопедия каби жисмоний куч талаб қилувчи соҳаларда аёллар сони нисбатан камлигини кўришимиз мумкин.

Статистика маълумотларга кўра, 2024 йил 1 январь ҳолатига Ўзбекистонда 105,7 минг нафар шифокорнинг 49,6 минг нафарини аёллар ташкил этган бўлса, ҳозирги кунда соғлиқни сақлаш ва таълим соҳасида аёллар улуши 77 фоизни, иқтисодиёт ва саноатда

эса 46 фоизни ташкил этади. Давлат ва жамоат ташкилотларида раҳбарлик лавозимларида тахминан 2000 аёл фаолият юритмоқда. Бу ўз навбатида мамлакатда аёллар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқлар ва имкониятлар яратилганлиги, аёлларнинг давлат ва жамоат бошқарувидаги роли кучаяётганлигидан далолат беради.

Бундан ташқари, соғлиқни сақлаш соҳасида халқаро ташкилотлар ва хорижий давлатлар билан йўлга қўйилган ҳамкорлик лойиҳаларида ҳам аёл мутахассисларнинг ортиб бораётгани, уларнинг касбий салоҳияти ва ташаббускорлиги соҳа ривожига муҳим ҳисса қўшаётганини кўрсатади. Аёлларнинг бу каби лойиҳалардаги фаол иштироки нафақат миллий соғлиқни сақлаш тизимидаги ислоҳотларни чуқурлаштириш, балки Ўзбекистоннинг халқаро майдондаги нуфузини юксалтиришга ҳам хизмат қилмоқда.

Соғлиқни сақлаш ва тиббиёт тизимини ислоҳ қилишга ва бу соҳада замонавий билимларга эга кадрларни тайёрлашга Ўзбекистон мустақиллигининг дастлабки йилларидан эътибор қаратиб келинмоқда. Шунинг учун биринчи Президентнинг 1996 йил 22 февралда Ўз Р ВМ тиббий патронаж тизимини ташкил қилиш тўғрисида”ги қарори, 1998 йил 10 ноябрда “Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш давлат дастури тўғрисида”ги фармони қабул қилинди. Мазкур фармонда тиббиёт соҳасини тубдан такомиллаштириш, хусусан, соҳага малакали кадрларни тайёрлаш ва уларни самарали фаолиятга жалб этиш масаласига эътибор қаратилди ва 1998–2005 йилларга мўлжалланган соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилишнинг Давлат дастури қабул қилинди. Мазкур дастурга биноан шифокор кадрлар ва ўрта тиббиёт ходимларини тайёрлашга бўлган қўшимча эҳтиёжлардан келиб чиққан ҳолда 1999—2005 йилларда тиббиёт билим юртларини касб-ҳунар коллежларига айлантириш дастурлари ишлаб чиқилди. 1999—2000 ўқув йилидан бошлаб, тиббиёт олий ўқув юртларининг даволаш факультетлари ҳузурида ўрта тиббий маълумот негизида ўқитиш муддати 3 йил бўлган олий малакали тиббиёт ҳамширалари (реаниматологлар, анестезистлар, жарроҳлик ҳамширалари, туғуруқхона акушеркалари ва бошқалар)ни тайёрлаш бўлимлари очилди. Аммо мустақилликнинг дастлабки йилларида аёл шифокорларнинг асосий қосми ҳамширалар ҳисобига ортганини кўришимиз мумкин. Шифокорлар орасида салоҳиятли лидер аёллар сонида ўсиш эмас, камайиш кузатилди. Масалан, 1991 йилда соғлиқни сақлаш тизимида (30 минг нафар аёл шифокорлар) раҳбарлик лавозимларида фаолият юритувчи аёллар улуши атиги 6 фоизни ташкил этган бўлса, 1995 йилга келиб (28 минг нафар аёл шифокорлар) бу кўрсаткич 7 фоизга етган. Ушбу рақамлардан кўриниб турибдики, соҳада фаолият юритувчи аёллар умумий сонига нисбатан раҳбар аёллар сонининг нисбатан озчиликни ташкил қилади.

Ўзбекистонда тиббиёт соҳаси давлат сиёсати даражасига кўтарилган бўлса-да, тиббиёт тизимидаги гендер масалаларига етарлича эътибор берилмагани туфайли, раҳбарлик лавозимларида аёллар иштироки чекланган. Тиббиётдаги аёлларнинг 3/2 қисмини ҳамширалар ташкил қилишини инобатга оладиган бўлсак, қолган йўналишлардаги аёллар сони кам бўлган. Чунки бу даврда республика бўйича

шифокорларнинг 65% и аёллар ҳиссасига тўғри келади. Яъни, аёллар тиббиёт тизимида сон жиҳатдан кўпчиликни ташкил этган бўлса-да, юқори лавозимларда, хусусан бошқарув даражасида уларнинг иштирок даражаси паст бўлган.

Айниқса, 1990-йилларда гендер тенглигини таъминлашга қаратилган қонунчилик базаси етарли даражада шаклланмаган эди. Масалан, "Оила ва аёллар" масалалари билан шуғулланувчи давлат органлари тиббиёт тизимидаги аёлларнинг касбий ўсишига тизимли ёндашмаган, улар учун институционал ёрдам ва мотивация тизими етарли даражада ривожлантирилмаган.

Бундан ташқари, тиббий ихтисосликларда “аёллар ихтисослиги” ва “эркаклар ихтисослиги” каби ижтимоий-ҳуқуқий асосга эга бўлмаган стереотиплар тарқалган бўлиб, бу ҳолат гендер нотенгликлигини кучайтирган. Бошқарув тизимида эркаклар доминантлиги, шунингдек, коррупция элементларининг мавжудлиги аёлларнинг раҳбарлик лавозимларига илгари сурилишида тўсиқлар яратган.Ушбу омилларни таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, тиббиёт соҳасида аёллар иштирокини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш учун фақатгина статистик кўрсаткичлар билан чекланиш етарли эмас балки, аёлларнинг касбий ўсиши, раҳбарлик лавозимларидаги иштироки, тенг имкониятларга эга бўлиши учун институционал, ҳуқуқий ва маданий ўзгаришлар талаб этилади. Аёллар ҳолатини яхшилашга қаратилган миллий механизмни ҳуқуқий ва институционал ривожлантириш жараёни 1995 йилдан бошланган. Бу жараён Ўзбекистоннинг БМТнинг Аёлларга нисбатан камситишнинг барча шаклларини тугатиш тўғрисидаги Конвенциясига қўшилиши билан бошланган эди.

БМТнинг мазкур “аёллар” Конвенцияси, шунингдек, Аёлларнинг сиёсий ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция, Оналикни муҳофаза қилиш тўғрисидаги Конвенция, ҳамда Аёллар ҳолати бўйича Тўртинчи Жаҳон конференциясида қабул қилинган Пекин амалий платформаси Ўзбекистон учун халқаро-ҳуқуқий асос сифатида хизмат қилиб, халқаро стандартларни миллий қонунчиликка татбиқ этиш ва давлат органлари фаолияти амалиётига жорий этишга қаратилган аниқ чора-тадбирларни ишлаб чиқишга туртки бўлди.Аёлларга нисбатан камситишнинг барча шаклларини тугатиш тўғрисидаги Конвенция қоидалари Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, сайлов, оила, меҳнат, жиноят, маъмурий ва бошқа соҳаларга оид қонун ҳужжатларига имплементация қилинди. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти томонидан “Аёлларнинг давлат ва жамият қурилишидаги ролини ошириш тўғрисида” (1995 йил 2 март) ҳамда “Ўзбекистон аёллари қўмитаси фаолиятини қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” (2004 йил 24 май) махсус фармонлар қабул қилинди. Ушбу фармонларни амалга ошириш юзасидан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тегишли қарорлар қабул қилинди. 1999 йил 14 январда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимидаги бошқарувни такомиллаштириши ҳақида”ги қарорининг қабул қилиниши натижасида амалга оширилган ислоҳотлар соғлиқни сақлаш тизимидаги бошқарув

жараёнига ижобий таъсир кўрсатди. Мазкур чора-тадбирлар натижасида даволаш муассасаларида тиббий хизмат кўрсатишнинг замонавий усуллари жорий этилди ва улар амалиётда кенг қўлланила бошлади ва тиббиётни тизимидаги бошқарувда аёллар сонининг ортишига ҳам таъсир кўрсатди. Япония Ҳукумати томонидан Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматига Тошкент ва Жиззах вилоятлари соғлиқни сақлаш бирламчи бўғинини яхшилаш ва ҳамширалик таълимини такомиллаштириш бўйича лойиҳаларни амалга ошириш учун 595 млн. йена (5,2 млн. АҚШ доллари) миқдорида грант бериш тўғрисида қарор қабул қилинди. Япония Ҳукумати грантининг маблағлари Тошкент ва Жиззах вилоятларидаги 114 та қишлоқ врачлик пунктларини, Республика тиббиёт коллежи, Ҳамшираларни қайта тайёрлаш маркази ва Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирлиги Шошилинч тиббий ёрдам марказининг ўқув синфларини жиҳозлашга йўналтирилди. Бу ўз навбатида тиббиёт соҳасида малакали мутахассиларнинг ошишига ҳам таҳсир кўрсатди. 2010 йилга келиб соғлиқни сақлаш тизимида лидер аёллар сони 14% га етганини кўришимиз мумкин. Буни қуйидаги диаграммадан кўришимиз мумкин:



Юқоридаги диаграммадан кўриниб турибдики, 1991–2015 йиллар давомида Ўзбекистонда аёл шифокорлар ва улар орасида раҳбарлик лавозимларида фаолият юритувчи мутахассислар сонидаги ўзгаришлар маълум даврлар кесимида турлича йўналишда кечгани кузатилади.

1991 йилда аёл шифокорлар сони 30 минг нафарни ташкил этган бўлиб, улардан 6 минг нафари раҳбарлик позицияларида фаолият кўрсатган. Бу, шубҳасиз, соҳага аёлларнинг кенг жалб этилганини англатади. Аммо 1995 йилга келиб, шифокор аёллар сони 28 минг нафарга тушган. Бу пасайишнинг сабаби мустақилликнинг дастлабки йилларида шифокорлар сони ортиқча деб ҳисобланган туфайли тиббиёт олийгоҳларига қабул миқдори қисқартирилган. 1990 йилдан буён ҳар 100 000 нафар аҳолига тўғри

келадиган шифокорлар сони пасайиб борди ва Марказий Осиё мамлакатлари ўртача кўрсаткичидан бироз паст даражага ҳам тушиб қолди. Кадрлар сонидаги камайиш улар орасидан етишиб чиқадиган раҳбар кадрлар сонига ҳам таъсир қилган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистонда ишлаётган аёл шифокорлар сони маълум қилинди. https://kun.uz/kr/news/2024/09/08/ozbekistonda-ishlayotgan-ayol-shifokorlar-soni-malum-qilindi?ysclid=mbizc4h6lj757978865

2. 77% работников здравоохранения и образования в Узбекистане составляют женщины. 2024 г. https://doridarmon.uz/ru/news/77-rabotnikov-zdravoohranenija-i-obrazovanija-v-uzbekistane-sostavljajut-zhenschiny?ysclid=mbghy8layi194975795

3. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг1996 йил 22 февралда Ўз Р ВМ тиббий патронаж тизимини ташкил қилиш тўғрисида”ги қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентнинг 1998 йил 10 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш давлат дастури тўғрисида”ги фармони.

5. Mohir Ahmedov • Ravshan Azimov Zulkhumor Mutalova • Shahin Huseynov Elena Tsoyi • Bernd RechelUzbekistan: Health System Review 2014. file:///C:/Users/xalik/Downloads/Uzbekistan-HiT-web.pdf

6. Ўзбекистон Миллий архиви. М.170, оп.1, йиғма жилд.24. Ўзбекистон хотин-қизлар қўмитасининг 1-9 раёсат йиғилишининг қарори. 35-варақ.

7. Э.Баситханова. Соғлиқни сақлаш тизмида лидер аёлларнинг тутган ўрни. Илм-фан соҳасида хотин-қизларнинг, ёш олима аёлларнинг ролини ошириш мақсадида “Давлат бошқарувида хотин-қизларнинг ролини ошириш йўллари” мавзусидаги давра суҳбати.

8. Письмо Постоянного представителя Узбекистана при Организации Объединенных Наций от 20 февраля 2008 года на имя Генерального секретаря.

9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 14 январдаги “Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимидаги бошқарувни такомиллаштириши ҳақида”ги қарори.www.lex.uz.

10. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг 2007 йил 18 январдаги “Япония ҳукуматининг грантидан Тошкент ва Жиззах вилоятлари соғлиқни сақлаш бирламчи бўғинини яхшилаш ва ҳамширалик таълимини такомиллаштиришда самарали фойдаланишни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.www.lex.uz.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UO‘K: 398:001.8(575.171)

XORAZM FOLKLORI MATERIALLARINING TO‘PLANISHI VA QIYOSIY TADQIQI

Maxsuda Yusupboyevna Karimova
Urganch RANCH texnologiya universiteti
“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
karimovamaqsuda831@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek folklorshunosligi, xususan, Xorazm folklorshunoslik maktabining yaratilishi va taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shgan professor Safarboy Ro‘zimboyevning ilmiy tadqiqotlari, soha rivojiga qo‘shgan hissasi haqida fikr yuritiladi. Folklor namunalarini noyob nomoddiy madaniy meros sifatida asrash lozimligini bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. O‘zbek folklorshunosligi, Xorazm folklorshunoslik maktabining yaratilishi, professor Safarboy Ro‘zimboyevning ilmiy tadqiqotlari, olimning badiiy asarlari, tarjimonlik mahorati, tarixiy romanlarida folkloristik talqin, nomoddiy madaniy meros

СБОР И СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ МАТЕРИАЛОВ ХОРЕЗМСКОГО ФОЛЬКЛОРА

Аннотация. В статье речь идёт о вкладе узбекской фольклористики в развитии письменной литературы. О вкладе проф. С.Рузимбаева в развитие узбекской фольклористики.Автор рассматривает взаимосвязь узбекского устного народного творчества с письменной литературой. Труды проф.С.Рузимбаева уникальное явление в узбекской фольклористике.

Ключевые слова. Узбекское фольклороведение (фольклористика), создание хорезмской школы фольклористики, научные исследования проф.С.Рузимбаева, узбекский фольклор и письменная литература, нематериальное культурное наследие.

COMPILATION AND COMPARATIVE STUDY OF KHWAREZM FOLKLORE MATERIALS

Annotation. The article will discuss the scholarship of Uzbek folklore, especially the establishment of Uzbek folklore studies, Professor Safarboy Ruzimbaev's contribution to the

development of the industry. Anti-Uzbek folklore and written literature, the author of the article explained to be observed and should be protected as a unique intangible cultural heritage of folklore.

Keywords. Creation of Uzbek folklore studies, Professor Safarboy Ruzimbaev, and written in writings, intangible cultural heritage, people of literature, intangible cultural heritage, people of literature.

KIRISH

Davr nuqtayi nazaridan, xalqlar o‘rtasida vujudga kelgan keskinlikni yumshatishgina taraqqiyparvar siyosat hisoblanadi. Dunyoda hozir bundan mas’ulroq vazifa yo‘q. Insoniyat dorilomon hayotni taomil qilmas ekan, halokatga uchraydi. O‘zaro ishonchsizlik, tahlikali vaziyat, siyosiy taranglik iqlimi insoniyatning osoyishta va baxtli hayot kechirishiga mutloq mone’ holdir.

Xorazmda mashhur bo‘lgan “Go‘ro‘g‘li”, “Oshiq G‘arib”, “Edigo”, “Sayyod va Hamro” kabi o‘nlab dostonlar, ertaklar, xalq qo‘shiqlari turmushning dono falsafasi va insonparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan ajoyib asarlar ekanligi bilan yuqoridagi fikrlarni to‘la tasdiqlaydi.

Jahon xalqlari sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan o‘zbek xalqi og‘zaki badiiy ijodiyotining barcha janrlariga oid materiallarni bugungi kun nuqtayi nazaridan hamda yosh avlodning ma’naviy yuksalishiga qo‘shadigan ahamiyatini inobatga olgan holda tahlil qilish folklor tadqiqotchilari oldida turgan muhim masalalardan hisoblanadi. Inson qalbi nihoyatda murakkab, uning ko‘zgusi bo‘lmish badiiy ijod undan ham murakkab. Bu sohada ko‘zga ko‘rinadigan biror ish qilish uchun tadqiqotchi olim butun umrini shu ishga bag‘ishlaydi. Tinimsiz ilmiy izlanishlari bilan jamiyatning ma'naviy yuksalishi uchun jonbozlik qiladi. Bunday izlanuvchini xalq ham e'zozlaydi. Xalqni ma'naviy yuksaltirishga xizmat qiladigan olimning mashaqqatli tajribasi kelgusi avlod uchun beqiyos saboqdir.

Safarboy Ro‘zimboyev tarjimon sifatida 9 ta ilmiy va badiiy asarni rus va qoraqalpoq tillaridan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Safarboy Ro‘zimboyev izlanishlari natijasida, nafaqat o‘zbek folklorshunosligi, balki etnografiyasi, toponimikasi, o‘rin-joy nomlari etimologiyasiga oid g‘oyat qimmatli ma’lumotlarni o‘zining “Shalola” memuari va “Saylanma”sida bayon qilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Folklorshunos S.Ro‘zimboyevning asosiy tadqiqotlari Xorazm eposi bilan aloqador bo‘lganligi bois “Xorazm dostonchiligi epik an’analari” risolasini ayrim o‘zgarishlar bilan to‘ldirib, kitobxonlarga yetkazishni ma’qul ko‘radi [13, 55]. Tadqiqotchining bu harakatlari ilmiy-tadqiqot ishi borasida tinmay izlangani hamda mavzuga oid oldin bildirgan fikrlarini to‘ldiruvchi ma’lumotlar va yangi g‘oyalar tug‘ilganligidan dalolat beradi.

XIX asr o‘rtalarida yevropalik tadqiqotchi Herman Vamberi bilan Yevropaga ketib, o‘sha tomonda bandalikni bajo keltirgan Mulla Is’hoq hayoti haqida folklorshunos o‘zining tadqiqot ishlari davomida ko‘pgina tarixiy manbalardan Mulla Is’hoq haqida ma’lumotlarni o‘rganadi va

yetarli manba’larni to‘playdi. Natijada, Mulla Is’hoqning Xorazm folklorini dunyoga, jumladan, Yevropaga targ‘ib qilishi borasidagi mehnatlari hamda uning hayoti haqda ba’zi haqiqatlarni e’lon qilishni ma’qul topadi. “Eldoshimiz Mulla Is’hoq hayoti meni ko‘p qiziqtirgan, shuning uchun uzoq izlanishlarimdan keyin u haqda risola yozish xohishi paydo bo‘ldi va uni “Saylanma”ga kiritishni ma’qul topdim”, – deb yozadi muallif [13, 124].

Olim rahbarligida to‘plangan ko‘plab maqollar, topishmoqlar, afsona, rivoyat, ertaklar, latifalar, turli irim-sirimlar, olqish va qarg‘ishlar, bolalar folkloriga oid materiallarni nashr qilish olimning ilmiy rejalaridan joy olgan degan xulosaga kelish mumkin. Chunki olimning “Saylanma”siga kiritilgan “Topishmoqlarda umumturkiy xususiyatlarning aks etishi”, “Topishmoqlarda milliylik va mintaqaviylik xususiyatlari”, “Maqol va matal, ularning o‘zaro farqlari haqida” kabi maqolalarida jiyda, anor, qovun haqidagi an’anaviy topishmoqlar va ularning boshqa qardosh xalqlardagi variantlarinini tahlilga tortib, topishmoqlarning o‘zbek tilidagi variantini Xorazm shevasi misolida, qoraqalpoq, turkman, uyg‘ur tillaridagi variantlarida mazkur janr namunasini yaratilishidagi mushtaraklikni asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, lingvistik tahlil, shuningdek, biografik, etnofolkloristik, qiyosiy-tipologik va matniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Bugungi kunda ba‘zi xalqlar, elatlar o‘z tarixi, tili, urf-odatlarini yo‘qotish darajasiga borib, ma‘naviy meroslaridan ajralib, “ommaviy madaniyat” iskanjasiga tushib qolayotgan bir davrda mazkur kitob o‘zbek xalqining naqadar ulkan tarixga, boy etnografiyaga ega ekanligini isbotlaydi. G.P.Snesarev va uning “Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf-odatlari” monografiyasi o‘zining ko‘lamdorligi, noyob dalillarga boyligi, chuqur ilmiy tahlilga asoslanganligi bilan g‘oyat qimmatli asar sifatida jahon ilm-fani olamida yuksak ahamiyatga molikdir. Mazkur asarda Xorazm folklorining kelib chiqishi va genezisiga oid ko‘plab ma’lumotlar keltirilganligi hamda o‘zbek folklorshunosligi tadqiqotida g‘oyat foydali ma’lumotlarning ko‘pligini inobatga olib, Safarboy Ro‘zimboyev G.P.Snesarevning ilmiy asarlari va maqolalaridan, S.P.Tolstov va V.M.Jirmunskiy asarlaridan foydalangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm mintaqasida yaratilgan ayrim topishmoqlarda mintaqada tayyorlanishi urf bo‘lgan ba’zi taomlarning etimologiyasi yashiringan topishmoqlar izohini ham keltirganligidadir. Ya’ni Xorazm go‘mmasi haqidagi topishmoq:

qo‘sha qatli, o‘rtasi totli (Xorazm xazinasi, 83-bet)

Bu topishmoqda doira shaklida yassilangan xamirga go‘sht qiymasi solinib, ikki buklanishi “qo‘sha qat” birikmasida, qiyma esa “o‘rtasi totli” birikmasida jumboqlangan. Bu taom haqida tasavvuri bo‘lmagan boshqa millat vakili bu topishmoq jismiga yashiringan jumboqni yecha olmaydi. Bu kabi topishmoqlar o‘zbek palovi haqida ham yaratilgan.

Folklorshunos olim Safarboy Ro‘zimboyevning tarjimonlik mahoratida va tarixiy romanlarida folkloristik talqin yaqqol ko‘rinadi. Tarixga oid bilimlari va filologik ma’lumotlarini uyg‘unlashtirib, tarjimada ijodini boshlagan olim badiiy ijodda qalam tebratib,

Xiva xonligining tarixini badiiy tasvirlagan holda, “Langar”, “Mezon”, “Bo‘hron”, “Arosat” kabi tarixiy romanlarni – roman-tetralogiyani[17, 7]. kitobxonlar e’tiboriga havola qildi. Bu asarlar tarixiy romanlarni sevib mutolaa qiladigan muxlislar qalbidan munosib joy olgan. Buni kitobxonlarning muallifga yo‘llagan maktublaridan bilish mumkin [13, 212]. “Langar”, “Mezon”, “Bo‘hron”, “Arosat” kabi tarixiy romanlari biri ikkinchisini to‘ldirib turadigan tarixning badiiy taqdimotidir. Tarixiy asarlardagi ma’lumotlar tarixiy aniqlik hamda davr va vaqt nuqtayi nazaridan hujjatlilik kasb etadi. Olimning badiiy ijod qilishi undagi ma’lumotlar ko‘lamining kengligidan bo‘lib, asarlarida tarixni aks ettirish barobarida xonlik zamonidagi ma’naviy va madaniy hayot, ma’rifatga e’tibor, hamda badiiy ijod, Xorazm adabiy muhitidagi yaratilayotgan asarlar, tarjima asarlarining yaratilishi kabi milliy ma’naviyatimizning tarixiy ildizlarini o‘rganib, uni xolisona tahlil qilishga undaydi. “Mezon” romanidagi tarixiy voqelik “Bo‘hron” romanida davom qildirilib, asarda Abdullaxon, Qutlug‘murodxon, Sayid Muhammadxonlar hukmronlik qilgan yillarda Xiva xonligi hududida ro‘y bergan bo‘hron va uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy hayotga ta’siri aks ettirilgan. Ijodkor olimning tarixiy romanlarida vohaning o‘ziga xos tabiati, iqlimi, etnografiyasi, o‘rin-joy nomlari etimologiyasiga oid ma’lumotlar keltirilganligi jihatidan qimmatlidir. Asarlarning yozilish uslubi kitobxonni o‘ziga jalb etuvchi yo‘sinda bo‘lib, katta ma’no va xulosalar qilish mumkin bo‘lgan kichik hikoyalardan iborat.

Roman muallifi Safarboy Ro‘zimboyev tarixiy asarga mashhur sharqshunos Herman Vamberi haqida “Rashid afandi” va uning xorazmlik xolis yordamchisi Mulla Is’hoq haqida “Mulla Is’hoq” hikoyalarini kiritadi. Herman Vamberi O‘rta Osiyoga turk millatiga mansub Rashid afandi qiyofasida kelgan. Sharqshunos olim Herman Vamberi 20 tilni bilgan. U tuzgan “Chig‘atoy tili darsligi” 12 bo‘limdan iborat bo‘lib, oxirgi qismiga o‘zbekcha-nemischa-fransuzcha lug‘at kiritgan. Lug‘atdagi so‘zlarga berilgan sharhlarga qaraganda, lug‘at ishiga o‘zbek tilini mukammal bilgan, shu millatga mansub bilimdon kishi aralashgani yaqqol sezilib turadi. Lug‘atning kirish qismida mojor olimi ushbu lug‘atni tuzishda “Abushqa”, “Lug‘ati turkiy”, “Badoye ul-lug‘at”, “Xulosayi Abbosiy” kabi manbalardan foydalangani, (vijdoni qiynalganidanmi) “Mulla Is’hoq men uchun tirik qomus vazifasini o‘tadi”, deya tan oladi. Bu holatga professor Safarboy Ro‘zimboyev o‘zining munosabatini bildirib, aslida, Mulla Is’hoq ushbu asarga hammuallif bo‘lishi kerak edi, deya vaziyatga xolisona baho beradi [13, 121].

“Rashid afandi”, “Mulla Is’hoq“ hikoyalarida Xorazmning milliy qadriyatlari, folklori va urf-odatlarini o‘rganish bo‘yicha dastlabki qadamlar haqida badiiy tarzda ma’lumotlar beriladi. Romanda xalqimizning boy ma’naviy qadriyatlarini namoyish qiluvchi ko‘plab hikoyalar o‘rin olgan. “Kitobxonlik“ hikoyasida Xiva xonligidagi ijodiy yangiliklar va kitob mutolaasiga oid qimmatli ma’lumotlar sodda va ayni ta’sirchan uslubda bayon qilingan. “Fohishaxonadan maktub” hikoyasida vohagi mard yigitlar obrazi ochib berilganki, fohishaxonaga topshirib yuborilgan bir mushtipar juvonning baxtli yashashga haqqi bor ekanligi va unga yangi va baxtli hayot nasib etganligi kitobxonni hayotga yorqin qarashga undaydi.

“Langar” tarixiy romanida tahlikali va dahshatli hodisalar silsilasi tarixiy haqiqatlar fonida badiiy lavhalarda aks ettirilgan. Tarixiy shaxslardan Muhammad Rahimxon, Yusuf Mehtar, Shohniyoz Otaliq, Qutlug‘murod Inoq , Amir Haydar va boshqalar faoliyati asnosida Murod, Pano buva, Omad, Gulummat, Muslima, Gulgun kabi obrazlar orqali o‘sha davrdagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va maishiy hayot turfa xil tafsilotlar orqali kitobxonlarga havola qilinadi. Kitobdagi etnografik ma’lumotlar, xalq ijodiyotiga oid materiallar o‘quvchini o‘ziga rom qila oladi.

Romandan joy olgan to‘ylar tasviri, ya’ni Xazoraspdagi to‘y (58-61-bet). To‘y bilan bog‘liq xalq udumlari, doston ijrochilari, masxarabozlar chiqishlari, po‘rxonlar aytishuvi, “Qumpishik”, “Chog‘olloq”, “Bangi”, Sulgun tutish” o‘yinlari. “Qayroq lazgi”, xalfalar ijrosi, polvonlar kurashi, ot choptirish, qo‘chqor, xo‘roz urishtirish kabilar sujet chizig‘iga qoyilmaqom tarzda joylashtirilgan. Xorazm taomlari haqida so‘z boradiki, qovurmoch pishirilishi, zog‘ora, patrak yopilishi, jo‘xori bulomq, go‘ja tayyorlash milliy koloritni berishda tabiiylikni ta’minlagan. Harbiy qurol – teri qalqon tarixi va uni tayyorlash tartibi haqidagi ma’lumotlar va xonlikning sir-asrorlari tarixiylik silsilsasida tasvirlanadi. Muallif Xiva bozorini tasvirlar ekan, qul bozori kitobxon qalbini junbushga keltiradi. O‘ksik qalblar, toptalgan dillar, ayrim asosiy qahramonlar taqdiri mana shu bozor bilan bog‘liq holda tasvirlanadi.

Asarda qo‘llangan folklorizmlar: “Langar” romanida “Ming ishchidan bir boshchi” (9-bet), “Pesni pes qorong‘ida ham topadi” (73-bet). “Odamning boshi Ollohning toshi” (101-bet), “Tul xotinni erga berganday” 130-bet, “Yog‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi” 114-bet “It egasini tanimaydi” 220-bet; “Mezon” romanida “Gadoning dushmani gado bo‘ladi” 8-bet, “Odamning boshi –Ollohning toshi” 31-bet, “Joni zinda umid dorad – Chiqmagan jondan umid” 36-bet, “Devor mush dorad, mush go‘sh – devorning ham qulog‘i bor” 37-bet, “Yo‘l azobi – go‘r azobi” 41-bet, “Noumid– shayton” 50-bet, “odam taftini odam oladi”, “Qirq yil qirg‘in bo‘lsa ham ajali yetgan o‘ladi” 76-bet, “Sabrat ganjat dihad – sabr ganj keltiradi”, “Besabrat ranjad dihad – besabrlik ranj” 79-bet, “Yakka qolib dono bo‘lgandan qo‘shilib ahmoq bo‘lgan yaxshi” 111-bet, “Teng tengi bilan, tezak qopi bilan” 113-bet, “Muz o‘rnidan qo‘zg‘oldi” 114-bet, “Xon baribir –Xon, uning bir og‘zi suv, bir og‘zi – o‘t” 156-bet, “Inson bir kunda shoh bo‘lsa, bir kunda gado” 154, “Nishonga olingan o‘q otilmasa, kuningga it yig‘laydi” 159. “Men nima deyman-u qo‘bizim nima deydi” 161-bet, “Haydaganing ikki echki hushtaging olamni buzadi” (qoraqalpoq maqoli) 166-bet, “Galinni oyoq-yuzi yarashdi” 202-bet, “Yomon xotin zaharli ilondan ham yomon” 205-bet, “Boshi oshoq, tili yumshoq” 233-bet, “Bo‘lajak ishni bo‘lgani yaxshi; o‘ljak kishini o‘lgani yaxshi” 246-bet, “Tanbaye ofati jon ast – erinchoqlik – jon ofati” 279-bet, “Oyda – baliq, yilga –kalla” 309-bet, “Oqqan daryo oqmay qolmas” 329-bet. “Bo‘hron” romanida “Ozingdan chiqqan baloga…” 24-bet, “El egasiga vatan yo‘q” 83-bet, “Otning o‘limi – itning bayrami” 100-bet, “O‘zi yiqilgan bola yig‘lamaydi” 115-bet, “Xastaligim –manglayqaroligim” 121-bet, “Uyimda yo‘qtur go‘jalik, ko‘nglim istaydur xo‘jalik” 122-bet, “Odam olasi ichinda, hayvon olasi tishinda” 141-bet . “Arosat” romanida “Baxtsizlik, g‘am kelsa, qo‘sha-qo‘shadan” 39-bet, “It yotish – mirza turish” 197-bet, “Bo‘ri

bo‘rini yormaydi” 210-bet. Shuningdek, tetralogiyada yor-yorlar, kelinsalomlar, xalq qo‘shiqlaridan ko‘plab namunalar keltirilganki, bu alq qo‘shiqlaridan to‘ylar tasvirida foydalanilgan. Xorazmlik baxshilar, ularning ijrolari, hatto biografik ma’lumotlar ham o‘rni bilan asarga kiritilgan.

Asarda to‘ylar bilan bog‘liq udumlar, dasturxon bezash, taomlarning tayyorlansh texnologiyasiga bo‘lgan jarayonlar mayda detallarigacha tahlil qilib berilganki, bugungi kitobxon bemalol tayyorlanish tartiblari ko‘rsatilgan taomlarni pishirishni o‘rganishi mumkin. Aksar, taomlar bugungi kunda ham to‘ylarda taomil sifatida tayyorlanadi: sutburunch (shirguruch), qatiqqa sariyog‘ solib chiqarish, kelin barak (kelinsalomda kelin tugib tayyorlaydigan chuchvara)

“Langar”, “Mezon”, “Bo‘hron”, “Arosat” romanlari tetralogiya bo‘lib,

4-roman “Arosat”da Xorazm hududi ikkiga bo‘linib, daryoning o‘ng qirg‘og‘i Rossiya tasarrufiga o‘tgan [17, 216]. Muhammad Rahimxon II urush-savashlardan bo‘shab, adabiyot, san’at ishlarining ravnaqiga e’tibor qaratgani va bu sohada yaxshigina ijobiylik ro‘yobga chiqib, ma’naviyat, madaniyat o‘sib rivojlanganini aks ettiradi muallif. Muhammad Rahimxon II vafotidan keyin esa taxtga Isfandiyor to‘ra egalik qiladi. Uning uquvsizligi va qat’iyatsizligi natijasida mamlakatda bo‘hron yanada avj oladi, mamlakat arosatda qoladi.

“Arosat” romaniga yozilgan so‘zboshida Safarboy Ro‘zimboyev bu tarixiy romanning bugungi kun kitobxoni uchun nechog‘li muhimligi, ahamiyatliligiga urg‘u beradi: “… kitobxonlar xalqning badiiy tarixini bilishlari shart. Kechagi kun tarixi va mashaqqatlari bilan tanishgan kishi bugunning qadriga yetadi. Mustaqil va farovon turmushni to‘laqonli idrok etadi”[18, 203].

Professor S.Ro‘zimboyev ilmiy tadqiqotlariga nazar tashlar ekanmiz, ular Xorazm etnografiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, olimning Xorazm dostonlari, qo‘shiqlari borasidagi tadqiqotlarini dalil sifatida keltirish o‘rinli. Olimning Xorazm folklori, etnografiyasi bo‘yicha yetuk mutaxassis bo‘lgani tarjima jarayonida juda qo‘l kelgan va monografiyaning mahorat bilan o‘girilishida asosiy vositalardan bo‘lgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Yetuk folklorshunos olim Safarboy Ro‘zimboyevning o‘zbek folklori tadqiqiga oid izlanishlari Xorazm folklor maktabining yaratilishi va rivoji uchun salmoqli hissa bo‘lib qo‘shildi. Olim izlanishlarining ahamiyatliligi shundan iboratki, o‘zbek folklorining lokal xususiyatlarini muayyan hududlar materiallari asosida keng ko‘lamda fundamental tadqiq etganligi folkloristikamiz xazinasini boyitishga xizmat qilganligi yuksak e’tirofga loyiqdir. Butun umrini Xorazm vohasi aholisining og‘zaki poetik ijodiyotini to‘plash, nashr etish va o‘rganishga baxsh etgan fidoyi olim, ayniqsa, Xorazm dostonchiligi epik an’analarini tadqiqi masalalari bo‘yicha to‘plovchilik faoliyati bilan folklorshunoslikka qimmatli manbalarni taqdim qilgan hamda Xorazm xalq qo‘shiqlari va dostonchilik an’analarining yirik tadqiqotchisi sifatida tanilgan.

2. Folklorshunos olim Safarboy Ro‘zimboyevning o‘zbek xalq og‘zaki ijodining lokal xususiyatlari, xususan, Xorazm dostonchiligi an’analarining shakllanish tarixi, voha baxshilari va xalfachilik ijodining o‘ziga xos tabiati, dostonlar sujetining tarixiy asoslari va poetikasi masalalariga doir jiddiy tadqiqotlari o‘zbek folklorshunosligi taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

3. Folklorshunos Safarboy Ro‘zimboyevning epik ijrochilik tadqiqotlariga asoslangan “Xorazm baxshichilik an’analari” uslubiy qo‘llanmasi, “Xorazm dostonlarining spetsifikasi, tipologiyasi va poetikasi”, “Xorazm dostonchilik epik an’analari” kabi o‘nlagan ilmiy risolalari bilan nafaqat Xorazm folklorining badiiy takomilini tahlil qilib berdi, balki Xorazm folklori namunalarining jahon badiiy tafakkuri durdonalarining ajralmas qismi ekanligini ilmiy asoslab bera oldi.

4.“Langar”, “Mezon”, “Bo‘hron”, “Arosat” kabi tarixiy romanlari biri

ikkinchisini to‘ldirib turadigan tarixning badiiy taqdimotidir. Bu tarixiy romanlardagi ma’lumotlar tarixiy aniqlik hamda davr va vaqt nuqtayi nazaridan

hujjatlilik kasb etadi. Olimning badiiy ijodi, tarixiy romanlarida milliy etnofolkloristik ma’lumotlarni keltirganligi bilan g‘oyatda ahamiyatlidir. Romanlarda tarixni aks ettirish barobarida xonlik zamonidagi ma’naviy va madaniy hayot, ma’rifatga e’tibor, hamda badiiy ijod, Xorazm adabiy muhitidagi yaratilayotgan asarlar, tarjima asarlarining yaratilishi kabi milliy ma’naviyatimizning tarixiy ildizlarini o‘rganib, uni xolisona tahlil qilishga undaydi. Zero, barcha madaniy va ma’rifiy ehtiyojlarning tug‘ilishida folklor ustqurma vazifasini o‘taydi. Shu nuqtayi nazardan olimning tarixiy romanlari folklorizmlarning yashovchanligini ta’minlagan.

5.Safarboy Ro‘zimboyev tarixiy romanlarida vohaning o‘ziga xos tabiati, iqlimi, etnografiyasi, o‘rin-joy nomlari etimologiyasiga oid ma’lumotlar keltirilganligi jihatidan ilmiy qimmat kasb etadi. Tetralogiyada folklorizmlardan o‘rinli foydalanilgan. Mazkur roman – tetralogiya yoshlarda voha tarixi, etnografiyasi xususidagi bilimlarini oshirishga muhim hissa qo‘sha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Рўзимбоев С. Хоразм достонлари (Туркий халқлар достонлари билан қиёсий ўрганиш тажрибасидан) – Тошкент: Фан , 1985.– Б.96

2. Рўзимбоев С. Хоразм достончилиги эпик анъаналари – Урганч, Университет 2008. – Б.188.

3. Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари – Монография. Таржимон С. Рўзимбоев. – Урганч: – УрДУ ноширлик бўлими – 2018. – Б.397.

4. Čagataische Sprachstudien enthaltend grammatikalischen Umriss, Chrestomathie und Wörterbuch der çagatischen Sprache von Hermann Vambery, Leipzig: F.A.Brockhaus, 1867. – P.368.

5. Вамбери Г. Чиғатой тили дарслиги – Лейпциг, 1867. – Б.368

6. Вамбери Г. Очерки Средней Азии. – М. 1968. – С.423..

7. Снесарев Г. П. Реликты домусулманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С.397.

II. Safarboy Ro‘zimboyevning shaxsiy arxivi materiallari:

8. Инв. № СР –д /3.

9. Инв. № СР – х /1.

10. Инв. № СР – х /2.

11. Инв. № СР – 5.

12. Рўзимбоев С. Шалола – Урганч, 2022. – Б.136.

13. Рўзимбоев С. Сайланма / Хотиралар, рисолалар, мақолалар, бадиий асарлар / Урганч – 2012. – Б.220.

14. Рўзимбоев С. “Лангар” роман Урганч – Қувончбек-Машҳура МЧЖ нашриёти– 2018. – Б.231.

15. Рўзимбоев С. “Мезон” роман Урганч – “Қувончбек-Машҳура МЧЖ нашриёти– 2019 – Б.386.

16. Рўзимбоев С. “Бўҳрон” роман Урганч – “Қувончбек-Машҳура МЧЖ нашриёти– 2019. – Б.203.

17. Рўзимбоев С. “Аросат” роман Урганч – “Қувончбек-Машҳура МЧЖ

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK 004.912:81 367.625

TINISH BELGILARINI MODELLASHTIRISHDA KOMPYUTER LINGVISTIKASI IMKONIYATLARI VA USULLARI

Jumayeva Dilnoza Baxshulloyevna
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi katta o‘qituvchisi f.f.f.d(PhD)
Nasirov Shuhrat Fayzulloyevuch
TDIU Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fakulteti 3-bosqich talabasi
E-mail: dilnoza.jumayevash@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tinish belgilarini tiklash masalasi, raqamli tilshunoslik davrida matnlarni kompyuter orqali tahlil qilish, avtomat tarjima, ovozni matnga aylantirish, ma’lumot izlash va savol-javob tizimlarini yaratish kabi vazifalarda tinish belgilarining to‘g‘ri qo‘llanilishi kabi holatlar yoritilgan bo‘lib, tinish belgilari umumiy izohlangan. Nutqni avtomatik aniqlash, ya’ni kompyuterlarga inson nutqini tanib olish va transkripsiya qilish imkonini beruvchi dasturlash texnologiyasi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Tinish belgilari, og‘zaki matn, nutq, suhbat, audio ma’lumotlar, LSTM, BiLSTM-CRF, BERT-based, RoBERTa, yozma muloqot,imlo, norasmiy chat, onlayn suhbat, grammatik tekshiruv, tabiiy tilni qayta ishlash.

ВОЗМОЖНОСТИ И МЕТОДЫ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ В МОДЕЛИРОВАНИИ ЗНАКОВ ПРЕПИНАНИЯ

Аннотация: В статье рассматривается проблема восстановления пунктуации, её правильное использование в эпоху цифровой лингвистики, такой как компьютерный анализ текстов, автоматический перевод, преобразование голоса в текст, поиск информации и создание вопросно-ответных систем, а также дается общее описание пунктуации. Представлена информация об автоматическом распознавании речи, то есть технологии программирования, позволяющей компьютерам распознавать и транскрибировать человеческую речь**.**

Ключевые слова: пунктуация, устный текст, речь, разговор, аудиоданные, LSTM, BiLSTM-CRF, на основе BERT, RoBERTa, письменное общение, орфография, неформальный чат, онлайн-общение, проверка грамматики, обработка естественного языка.

CAPABILITIES AND METHODS OF COMPUTER LINGUISTICS IN MODELLING PUNCTUATION MARKS

Abstract: This article discusses the issue of punctuation restoration, the correct use of punctuation in the era of digital linguistics, such as computer analysis of texts, automatic translation, voice-to-text conversion, information search, and the creation of question-and-answer systems, and provides a general explanation of punctuation. Information is provided about automatic speech recognition, that is, programming technology that allows computers to recognize and transcribe human speech.

Keywords: Punctuation, spoken text, speech, conversation, audio data, LSTM, BiLSTM-CRF, BERT-based, ROBERTa, written communication, spelling, informal chat, online conversation, grammar check, natural language processing.

KIRISH. Hozirgi raqamli tilshunoslik davrida matnlarni kompyuter orqali tahlil qilish, avtomat tarjima, ovozni matnga aylantirish, ma’lumot izlash va savol-javob tizimlarini yaratish kabi vazifalarda tinish belgilarining to‘g‘ri qo‘llanilishi muhim ahamiyatga egadir. Tilimizdagi tinish belgilarining kompyuter tomonidan avtomatik tarzda aniqlanishi bu jarayonlarning samaradorligini oshirishda muhim qadam hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu masalaning ilmiy jihatdan o‘rganilishi va amaliy yechimlar ishlab chiqilishi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sanaladi.

Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan davrda matnlarni avtomatik qayta ishlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, o‘zbek tili kabi milliy tillardagi matnlarni qayta ishlash, tahlil qilish va tuzatish tizimlarini yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Matnlarni qayta ishlashning muhim bosqichlaridan biri tinish belgilarini avtomatik tiklash jarayonidir.

Tinish belgilari matn ma’nosini to‘g‘ri ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Ular jumlalar o‘rtasidagi chegaralarni belgilaydi, matn qismlarini mantiqan ajratadi va fikrning aniq ifoda etilishini ta’minlaydi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va boshqa raqamli platformalarda yozilgan ko‘plab matnlar tinish belgilarisiz yoki noto‘g‘ri tinish belgilari bilan yaratilmoqda. Bundan tashqari, og‘zaki nutqni yozma ko‘rinishga o‘tkazishda, tarixiy hujjatlarni raqamlashtirishda va katta hajmdagi matnlarni qayta ishlashda tinish belgilarini avtomatik tiklash muhim masalalardan hisoblanadi.

Tinish belgilari tabiiy tilni qayta ishlashda (NLP) muhim rol o‘ynaydi, chunki ular matnning sintaktik va semantik tuzilishini belgilashga yordam beradi. Ko‘pchilik NLP ilovalari, masalan, nutqni matnga aylantirish tizimlari, asl nutq tarkibida tinish belgilarini saqlamaydi. Shu sababli, matnni keyinchalik tushunish va qayta ishlash uchun tinish belgilari avtomatik tarzda tiklanishi kerak.

Tinish belgilarining vazifasi nafaqat grammatik tuzilishni ifodalash, balki nutqning ma’noni ajratish, intonatsion tanaffuslarni belgilash, gaplar va gap bo‘laklari o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rsatishdan iboratdir. Ular matndagi fikrni to‘g‘ri anglash, so‘zlar tartibini

idrok qilish va sintaktik strukturalarni aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Shu bois, tinish belgilarining avtomatik aniqlanishi mashinalarning tilni to‘g‘ri tushunish qobiliyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbek tilining agglyutinativ tabiati, erkin so‘z tartibi, omonimiya holatlari va mulohazaga asoslangan tinish belgilarining qo‘llanishi ularni avtomatik aniqlashda qiyinchiliklar tug‘diradi. Ayniqsa, “vergul” va “nuqta”ning kontekstga ko‘ra turlicha ma’nolarni anglatishi, ularning funktsional yuklamasi va pozitsion vazifalari barcha holatlarda formal qoidalarga bo‘ysunavermasligi ushbu muammoni yanada murakkablashtiradi.

Tilimizda tinish belgilarini avtomatik aniqlash va belgilash tizimlarini yaratish matnni qayta ishlash, taglash, korpus yaratish, axborot izlash, avtomat tarjima va ta’limiy resurslar ishlab chiqishda zarur hisoblanadi. Bu jarayonni avtomatlashtirish inson mehnatini tejab, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan tezkor va aniq ishlash imkonini beradi. Shu bilan birga, uzluksiz yangilanib boruvchi lingvistik resurslarni yaratishda ham tinish belgilarining avtomatik aniqlanishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. O‘zbek tilida tinish belgilarini avtomatik aniqlash tizimini yaratishda bir qator vazifalarni aniq belgilab olish zarur. Ushbu vazifalarning har biri lingvistik va texnologiyaviy jihatdan yuqori aniqlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Tinish belgisini aniqlash va turini belgilash. Avtomatik tizim, avvalambor, matnda tinish belgisining mavjudligini aniqlashi va uning qaysi turga mansubligini (nuqta, vergul, nuqtali vergul, qo‘shnoqta va boshqalar) to‘g‘ri belgilay olishi lozim. Bu jarayon so‘zlar tartibi, sintaktik struktura va kontekstual axborotga asoslanishi bilan murakkab hisoblanadi.

2. Belgilarning nutqiy maqsadga mosligini baholash. Tinish belgisi faqat grammatik mezonlar asosida emas, balki nutqning maqsadidan kelib chiqqan holda ham qo‘llaniladi. Shuning uchun avtomatik aniqlash tizimi belgilangan tinish belgisining kontekstdagi maqsadga muvofiqligini tahlil qila olishi zarur. Bu, ayniqsa, turli uslubdagi matnlarda tinish belgilarining turlicha qo‘llanilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Ixtiyoriy, normal va standart belgilarni farqlash. Tinish belgilarining ba’zi turlari normal yoki standart qoidalarga asoslangan holda qo‘llanilsa, ayrim hollarda ular ixtiyoriy ravishda, yozuvchining uslubiy tanlovi sifatida ishlatiladi. Shuningdek, amaliy tilda ko‘p uchraydigan, lekin grammatik me’yorlarga to‘liq javob bermaydigan holatlar ham mavjud. Avtomatik tizim ushbu uch xil holatni farqlay olishi va tegishli darajada teglashni amalga oshirishi lozim.

MUHOKAMA. Tinish belgilarini avtomatik tarzda aniqlash masalasi tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) sohasida muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda bir necha turdagi yondashuvlardan foydalaniladi:

1. Qoidalarga asoslangan (rule-based) yondashuvlar. Bu usul til qoidalari va sintaktik me’yorlarga asoslangan holda ishlaydi. Qoidalar matndagi belgilovchi signallarga — masalan, alohida sintaktik konstruksiyalar, muayyan signal so‘zlar

yoki grammatik tuzilishlarga asoslanadi. Mazkur yondashuv kichik miqdordagi ma’lumot bilan ham ishlay olishi bilan afzal, biroq u faqat belgilangan holatlarga mos keladi. O‘zbek tilidagi erkin so‘z tartibi va uslubiy farqlar bunday modellarda qiyinchilik tug‘diradi.

2. Statistik modellar (Naive Bayes, Hidden Markov Model). Matndagi belgilangan tinish belgilarining takrorlanish ehtimoli asosida ishlaydigan ushbu modellar so‘zlar o‘rtasidagi ehtimoliy bog‘lanishlarni hisoblab chiqadi. *Hidden Markov Model* (HMM) — bu holatlarning yashirin ketma-ketligini taxmin qilish uchun qo‘llaniladi. Masalan, ma’lum bir so‘zlar ketma-ketligidan keyin vergul yoki nuqta kelishi ehtimoli hisoblanadi.

3. Mashina ta’limi va neyron tarmoqlar (LSTM, BERT modeli asosida). So‘nggi yillarda transformer arxitekturasi asosidagi modellar, xususan BERT (Bidirectional Encoder Representations from Transformers) va uning multitilli variantlari (masalan, bert-base-multilingual-cased), punctuation restoration vazifalarida yuqori samarani namoyon etmoqda. Shuningdek, BiLSTM (Bidirectional Long Short-Term Memory) tarmoqlari kontekstdagi so‘zlar o‘rtasidagi bog‘lanishni hisobga olgan holda tinish belgisini aniqlashda foydalaniladi. HuggingFace platformasida ushbu modellarga asoslangan tayyor punctuation tagger’lar mavjud bo‘lib, ularni o‘zbek tili korpusida qayta moslashtirish (fine-tuning) mumkin.

O‘zbek tilida tinish belgilarini avtomatik tarzda aniqlashda qator lingvistik va texnik muammolar mavjud bo‘lib, ular quyidagicha guruhlanadi:

1. Jumla tuzilishida erkinlik va parchalanish. O‘zbek tilida so‘z tartibining nisbatan erkinligi, jumladagi gap bo‘laklarining joylashishidagi variantlilik avtomatik sintaktik tahlilni qiyinlashtiradi. Shuningdek, ko‘p hollarda mualliflar tomonidan jumla tuzilishida parchalangan konstruksiyalar (ya’ni, tinish belgisi bilan ajratilmagan qo‘shimcha izohlar, qaytariqlar) ishlatiladi, bu esa tinish belgisining avtomatik tanlanishini noaniqlashtiradi.

2. So‘zlar tarkibidagi nuqtalar va qisqartmalar. Masalan, “t.” (tomondan), “sh.” (shahar), “d.” (daqiqa) kabi qisqartmalarda nuqta alohida tinish belgisi emas, balki so‘z shaklining bir qismi hisoblanadi. Bunday holatlarni punctuation tagger nuqta sifatida qabul qilib, noaniqlikka olib kelishi mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun tokenlash jarayonida maxsus qoidalar yoki regex qo‘llash tavsiya etiladi.

3. Korpusdagi adabiy, publitsistik va internet matnlar orasidagi farq. Stil va janrlar orasidagi farq ham tinish belgilarining avtomatik tahlilida jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, internet matnlarida (forum, ijtimoiy tarmoqlar) tinish belgilarini o‘rinsiz yoki ortiqcha qo‘llash holatlari ko‘p uchraydi. Adabiy matnlarda esa uslubiy maqsad bilan tinish belgilardan cheklangan holda foydalanish mumkin. Bu holatlarni hisobga olmagan avtomatik tizimda turli janrlarga xos xususiyatlar to‘g‘ri aks etmasligi mumkin.

Tinish belgilarini avtomatik aniqlashda zamonaviy transformer modellarining imkoniyatlari katta. O‘zbek tilidagi korpus ma’lumotlari asosida qayta moslashtirilgan BERT modeli yuqori F1 ko‘rsatkichiga ega bo‘lib, uni NLP amaliyotida qo‘llash imkonini yaratmoqda. Biroq, ba’zi tinish belgilarining uslubiy yoki kontekstual xususiyatlari algoritm tomonidan chuqur tahlil qilinmas ekan, 100% aniqlikka erishish qiyin bo‘ladi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar:

1. **Korpusni kengaytirish**: turli uslub, janr va dialektlardagi matnlarni qamrab olgan, taglangan va versionilangan korpuslar yaratilishi zarur.
2. **Jumla strukturasini aniqlash**: dependency-parsing yordamida punktuatsiya va sintaksis bog‘liqligini chuqurroq tahlil qilish.
3. **Multimodal yondashuvlar**: ovozli nutqdagi tinish belgilarni tanish uchun intonatsiya va tanaffusni hisobga olgan modellar yaratish.
4. **O‘qituvchi ishtirokisiz (unsupervised) yondoshuvlar**: katta hajmdagi taglanmagan ma’lumotlar asosida punctuation recovery usullarini sinab ko‘rish.

NATIJA. Tabiiy tilni qayta ishlashda teglash (tagging, annotation) — matndagi so‘z, so‘z birikmalari, va tinish belgilarini belgilash, ularga ma’lum toifa yoki kategoriyalarga oid teglarni (yarliqlarni) berib chiqish jarayonidir. Bu jarayon kompyuter lingvistikasi va korpus tilshunosligida muhim ahamiyatga ega. Teglash orqali kompyuter matnni tuzilmaviy va leksik-mantiqiy jihatdan anglash imkoniga ega bo‘ladi [Jurafsky & Martin, 2020].

Tinish belgilarining teglanishi matndagi grammatik tuzilishni to‘g‘ri anglash, so‘zlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni belgilash va so‘zlarning funksional yukini tushunishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu jarayon, xususan, sintaktik parsing, so‘z turlarini aniqlash, avtomatik tarjima va matn bo‘yicha savol-javob tizimlarini yaratishda qo‘l keladi [Bird et al., 2009].

Korpuslarda teglashning asosiy vazifalari — matn birliklarini strukturalash, sintaktik va semantik aloqalarni belgilovchi yarliqlar orqali ko‘rsatish, turli til resurslarini (POS, morph, syntax, semantics) avtomatik yoki qo‘lda yaratishdan iborat. Bu jarayon leksikonlar va NLP vositalari uchun mustahkam asos bo‘ladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Python dasturlash tilida yozilgan kod faqat modal so‘zlar va so‘roq yuklamalari asosida ishlaydi. Bu yondashuv tinish belgilarini tiklashda ayrim istisno holatlar uchun yuqori samaradorlik ko‘rsatkichni bermasligi mumkin. Biz bilamizki, modal so‘zning tinish belgisiz shakli ham to‘g‘ri deb qabul qilinishi mumkin. Masalan: “To‘g‘ri, yo‘llarda mashinalar yuradi.”, “To‘g‘ri yo‘llarda mashinalar yuradi.” va “To‘g‘ri yo‘llar haydovchilar uchun muhim.”, “To‘g‘ri, yo‘llarda ham qiyinchiliklar bo‘ladi.” kabi gaplarda faqat bitta vergul qo‘yilishi natijasida gapning ma’nosi tubdan o‘zgaradi. Bunday nozik holatlarni avtomatik tarzda to‘g‘ri aniqlash esa hali ham dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Bu esa mazkur sohada yanada chuqurroq lingvistik tahlil va zamonaviy algoritmlarni joriy qilish zaruratini ko‘rsatadi.

XULOSA. Yuqoridagi tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida tinish belgilarini avtomatik tiklash masalasi sun’iy intellekt modellari, katta hajmdagi ma’lumotlar bazasi va domenlar o‘rtasidagi farqlarni hisobga olgan holda yondashishni talab qiladi. Tinish belgilarining grammatik-sintaktik strukturadagi o‘rni beqiyos bo‘lib, ularning avtomatik aniqlanishi NLPning ko‘plab sohalari uchun dolzarb masaladir. Chuqur o‘qitish modellari va lingvistik qoidalarni uyg‘unlashtirish bu boradagi samarali usullardan biri bo‘lsa-da, matn konteksti noaniqligi, domenga xoslik va o‘zbek tiliga xos grammatik xususiyatlar kelajakda

maxsus korpuslar asosida hal etilishi mumkin. Ayniqsa, modal so‘zlar va so‘roq yuklamalarining kontekstga ko‘ra o‘zgaruvchanligi ularni alohida o‘rganishni talab etadi va istiqbolli tadqiqot yo‘nalishi sifatida qaralmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nagy A., Bial1 B., Ács J. Automatic punctuation restoration with BERT models. 2021. arXiv:2101.07343v1 [cs.CL] 18 Jan 2021.
2. Bahriddinova B. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent: «Akademnashr», 2015.
3. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. –Toshkent: “Fan” , 1990.
4. Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1984.
5. Valgina N.S. Neobichnoye. v obichnom. Zametki o punktuatsii A. Axmatovoy// Russkaya rech, 1979, № 6. S. 22–29.
6. O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari. Tuzuvchilar: N.M.Mahmudov, A.P.Madvaliyev, N.Mahkamov. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2015.
7. O‘zbek xalq maqollari. Ikki tomlik, ikkinchi tom. – Toshkent: “Fan”, 1988.
8. Makhija, K., Ho, T. N., & Chng, E. S. (2019, November). Transfer learning for punctuation prediction. In 2019 Asia-Pacific Signal and Information Processing Association Annual Summit and Conference (APSIPA ASC) (pp. 268-273). IEEE.
9. Xu, K., Xie, L., & Yao, K. (2016, October). Investigating LSTM for punctuation prediction. In 2016 10th International Symposium on Chinese Spoken Language Processing (ISCSLP) (pp. 1-5). IEEE.
10. Jumayeva D.B. Tinish belgilarining takror va qator ishlatilishi va ularning korpusda berilishi. Qo‘qon DPI 2024. 4-son (1912-1918-bet)
11. Jumayeva D.B. Matndagi tinish belgilarini milliy korpusdagi ahamiyati va o‘rni. "Uzluksiz ta’lim tizimida XXI asr shaxsiyatining kasbiy shakllanishi: muammolar va ularni bartaraf qilish yo‘llari" VI An’anaviy Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya 2024. 3-4.12 68-69-b
12. Jumayeva D.B. Punktuatsion xatolarning kompyuter dasturini yaratish texnologiyasi va uning o‘ziga xosliklari. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. 2024.12-son.197-200-b

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK 372.6(021)

IJTIMOIY TARMOQ YOZISHMALARINING LINGVISTIK EKSPERTIZASI

Rahimqulova Lobar Hamro qizi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
lobarlobar102@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-6238-322

Annotatsiya. Ijtimoiy tarmoqlar,elektron pochtalar,messenjerlar orqali jinoyatlar, kiberjinoyatlar, ta`qib qilish, tovlamachilik, ekstremizm va terrorizm, korporativ josuslik, obro`ga putur yetkazish, anonim tahdidlar, haqorat kabi jinoyatlarning hajmi va turi jadal o`sishda davom etmoqda. Kimningdir nomini o`zlashtirish yoki anonim tarzda sodir etilayotgan kiberjinoyatlardan aziyat chekayotganlar esa talaygina. Jinoyat sodir etuvchi shaxs shaxsini ochiqlamagan holatda o‘zining g‘araz maqsadlarini amalga oshirishda qonuniy vositalar ya`ni internet tarmoqlaridan unumli foydalanmoqda.

Kalit so‘zlar: Lingvistik ekspertiza,ekstremizm, anonim yozishmalar, tahdidlar, metodologiya, kiberjinoyat, sud-fonografiya ekspertizasi.

LINGUISTIC EXPERTISE OF SOCIAL NETWORK CORRESPONDENCE

Abstract. The volume and type of crimes such as crimes committed through social networks, e-mails, messengers, cybercrimes, harassment, extortion, extremism and terrorism, corporate espionage, damage to reputation, anonymous threats, insults continue to grow rapidly. There are many who suffer from cybercrimes committed anonymously or by impersonating someone. While the perpetrator of the crime does not reveal his identity, he effectively uses legal means, that is, the Internet, to achieve his own selfish goals.

Keywords: Linguistic examination, extremism, anonymous correspondence, threats, methodology, cybercrime, forensic phonographic examination.

Kirish. “Lingvistik ekspertiza – yurisprudensiyada sud-ekspertizalari tarkibida shakllangan, tilshunoslikda yangi ilmiy yo‘nalish sirasiga kiradi. Ilmiy yo‘nalish sifatida baholashimizning o‘ziga xos sabablari ham mavjud. Chunki lingvistik ekspetizalarni ishlab chiqish va o‘tkazish jarayonida lingvistik bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish talab etiladi. Bunda tor ixtisoslikdagi bilimlar emas, keng qamrovdagi bilimlar majmuasi zarur bo‘ladi. Albatta, lingvist-ekspert ekspertiza jarayonida mavjud tadqiqotlar, lug‘at va qo‘llanmalardan

foydalanishga ehtiyoj tug‘iladi. Bugungi kunda sud jarayonida yuzaga keluvchi matn bilan bog‘liq ziddiyatli vaziyatlarga adolatli yechim topish, amaliyotga lingvistik bilimlarni joriy qilish va yuridik jihatdan mutanosiblashtirishga ehtiyoj mavjud va bu yildan yilga ortib bormoqda”[1]. O`zbekiston Respublikasi adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi respublika sud ekspertiza markazidagi ekspertiza tarmog‘ining qismlari sifatida o‘rganilib kelinmoqda. Lingvistik ekspertizaning turlari:

1-rasm. Lingvistik ekspertizaning an`anaviy kriminalistik ekspertizasi tarkibi



2-rasm. Lingvistik ekspertizaning maxsus sud ekspertizasi tarkibi[2]

Lingvistik ekspertiza matnlar, audio va videolarning lingvistik, psixologik, sotsiologik belgilariga ko`ra tahlil qilish jarayoni bo`lib bu jarayonda,avvalo, lingvistik ekspertizaning obyekti belgilab olinadi va turli metodlar orqali xulosalar beriladi. Lingvist-ekspert yakunlovchi xulosani bermaydi. Yakunlovchi xulosa sud tomonidan lingvist-ekspertning xulosasiga e`tibor

[1] K.Musulmonova O‘zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari. DISS. Qo‘qon– 2022. B-61
[2] https://sudex.uz/

qaratgan holda belgilanadi. Ijtimoiy tarmoq yozishmalari ustida lingvistik ekspertizasining ,asosan, sud -filologiya (mualliflik) ekspertizasi, sud fonografiya ekspertizasi, sud-siyosatshunoslik lingvistik ekspertizasi, sud lingvistik ekspertizasi, psixolingvistik ekspertizasi kabi turlaridan foydalaniladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Matn avtorizatsiyasi bilan bog`liq ijtimoiy tarmoq yozishmalarida sud -filologiya (mualliflik) ekspertizasi o‘tkaziladi. Sud-filolgiya (muallifshunoslik) ekspertizasi matn muallifi taxminiy shaxslardan kim ekanligini aniqlash, muallif bir yoki bir necha kishi ekanligini aniqlashda yordam beradi. Aynan jinoyat bilan bog`liq holatlarda asl jinoyatchining yozishmalarda chalg‘itishga urinish holatlari kuzatiladi. Jinoyatda ayblanayotgan gumondor shaxslar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishdagi idenfikatsion belgilari orqali asl jinoyatchi aniqlanadi. Anonim yozishmalarning muallifini aniqlashda lingvistik ekspertizada quyidagi dalillarga e`tibor qaratiladi:

- Ijtimoiy tarmoq yozishmalarining shakliy tomoni asosida muallif haqida ma`lumot to`plash;
- Ijtmoiy tarmoq yozishmalarining leksik xususiyati asosida muallif haqida ma`lumot to`lash;
- Ijtimoiy tarmoq yozishmalarining sintaktik xususiyatlari asosida ma`lumot to`plash;
- Ijtimoiy tarmoq yozishmalaridagi ruhiy holatni ifodalovchi til birliklari asosida ma`lumot to`plash;
- Ijtimoiy tarmoqlardagi emojilar asosida ma`lumot to`plash;
- Ijtimoiy tarmoq yozishmalarining dialektologik xususiyatlari asosida ma`lumot to`plash;
- Ijtimoiy tarmoq yozishmalarining morfemik xususiyatlari asosida ma`lumot to`plash;
- Ijtimoiy tarmoq yozishmalaridagi til birliklarining uslubiyati asosida ma`lumot to‘plash.

Ijtimoiy tarmoq yozishmalari ustida sud-siyosatshunoslik lingvistik-ekspertizasi quyidagi holatlarda o‘tkaziladi:

- Oshkora chaqiriq mavjud bo‘lsa;
- Davlat va hokimiyat vakillariga nisbatan buzg`unchilik harakatlarini amalga oshirishga da`vat aks etgan bo`lsa;
- Ijtimoiy tarmoq matnida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga nisbatan oshkora haqorat mavjud bo‘lsa;
- Saylov yoki referundum tashkil qilish, o`tkazish to`g`risidagi qonunlar buzilganligidan guvohlik beruvchi faktlar mavjud bo`lsa

Sud-siyosatshunoslik lingvistik ekspertizasi oldiga quyidagi savollar qo`yiladi:

4-jadval. “Sud-siyosatshunoslik lingvistik-ekspertizasi oldiga qo`yiladigan savollar”.[3]

1	Ekspertizaga taqdim etilgan materiallar oshkora chaqiriq xarakteriga egaligini aniqlash

[3] https://sudexpert.uz/?page_id=306#page-content

2	Matnda davlatga, hokimiyat vakillariga nisbatan buzg`unchilik harakatlarini amalga oshirishga da`vat aks etganligini aniqlash
3	Taqdim etilgan materialda saylov yoki referendum tashkil qilish, o‘tkazish to‘g‘risidagi qonunlar buzilganidan guvohlik beruvchi faktlarni aniqlash
4	Ushbu materialda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga nisbatan oshkora haqorat bor yoki yo‘qligini aniqlash

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ijtimoiy tarmoq yozishmalarining lingvistik ekspertizasida asosiy e`tibor til birliklariga ya`ni lingvistik vositalarga qaratiladi. Tilni,matnni tahlil qilish,albatta,tilshunoslik sohasidagi chuqur maxsus bilimlarni o‘z ichiga olgan ixtisoslashtirilgan ekspertiza sifatida lingvistik ekspertiza vakolatiga kiradi[4] Ammo ijtimoiy tarmoqlardagi matn, video va audiolarga lingvistik yondashuvdan tashqari psixologik yondashuv, imo-ishora, grafik belgilar, xatti-harakatlar ham ekspertiza jarayonida qo‘l keladi. Lingvistik ekspertiza obyektini tahlil qilishda shaxsning temperamenti, xarakteri va eng muhimi ruhiy holatini aniqlash ham muhimdir. Tarmoq yozishmalari ma`lum shaxs faoliyati, ruhiy holati, hayot tarzi, qiziqishlarining mahsuli hisoblanishini ham hisobga olish kerak. Ijtimoiy tarmoq matnlari lingvistik yoki psixologik tomondan alohida-alohida ekspertizadan o`tkaziladi. Shaxs tomonidan yaratilgan har bir matn ma`lum bir axborot tashishi bilan bir qatorda emotsional-ekspresivlik xususiyatiga ham ega bo‘ladi. Emotsionallik bu shaxsning psixik holatlarining ifodasi, ekspresivlik esa shu emotsiyani qanday bo`yoqlarda ochib berishidir. Matndagi emotsionallik til birliklari, emojilar orqali ochib beriladi. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarini alohida emas balki, lingvistik va psixologik tomonini birgalikda psixolingvistik ekspertiza orqali tahlil qilinsa ishning samaradorligiga va vaqtning qisqarishiga erishilgan bo`lar edi. Bu ekspertiza jarayonini o`tkazish uchun birgina mutaxassis tomonidan olib borilmaydi. Ikkala mutaxassis ya`ni lingvist va psixologning hamkorlikdagi faoliyati yoki har ikkala sohani o`zlashtirgan psixolingvist-ekspert orqali olib boriladi.

Psixolingvistik-ekspertiza qanday yozishmalar ustida amalaga oshiriladi:

1) Ma`naviy zarar yetqazish (haqorat qilish, ijtimoiy,irqiy,milliy,diniy adovat qo`zg‘atish, milliy va hokazo ustunlikni targ‘ib qilish bilan bog‘liq matnlarda[5];

2) Matn avtorizatsiyasi bilan bog‘liq yozishmalarda;

3) O`z joniga qasd qilish bilan bog‘liq jinoyatlarda;

4) Ijtimoiy tarmoqlardagi reklama mazmunidagi yozishma shakllarining lingvistik ekspertizasida;

5) Ekstrimestik mazmundagi ijtimoiy tarmoq yozishmalarining lingvistik ekspertizasida;

[4] Baranov,2007

[5] N.M.Qambarov Matnlarni tahlil qilishda psixolingvistik yondashuv//INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHIERS.2024.B-265. https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/5690/9002

6) Aldash va tovlamachilikka qaratilgan manipulyatsion ijtimoiy tarmoq yozishmalarida va boshqalar.

5-jadval. Psixolingvistik ekspertiza oldiga qo‘yiladigan savollar:

1	Ayblanuvchi ruhiy stress holatida bo‘lganmi
2	Ayblanuvchi ruhiy buzilish jarayonida yozganmi
3	Jabrlanuvchining emotsionallik darajasi qanday
4	Ayblanuvchining emotsionallik darajasi qanday
5	Yozishmalarda ayblanuvchining temperamentini aks ettiruvchi til birliklari mavjudmi
6	Yozishmalarda jabrlanuvchining temperamentini aks ettiruvchi til birliklari mavjudmi
7	Solishtirilayotgan yozishmalardagi xarakterni ifodalovchi til birliklari A ga tegishlimi
8	Jabrlanuvchi o‘ joniga qasd qilgan bo‘lishi mumkinmi
9	Zo‘rlanuvchi shaxs ruhiyatida buzilish holatlarini ifodalovchi til birliklari mavjudmi
10	Ijtimoiy tarmoq yozishmalarida kodlangan jumlalar mavjudmi

Yuqoridagi savollar oxirgi xulosa emas.Sud-lingvistik ekspertizasida ijtimoiy tarmoq yozishmlarini o‘rganishni alohida bir soha deyish mumkin. Ijtimoiy tarmoq yozishmalari qog‘ozdagi yozishmalardan farq qilib odatdagi og‘zaki va yozma nutq kabi to‘liq ifodalanmasligi yoki qo‘shimcha belgilarga ega holda ifodalanishi mumkin. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarini mutaxassis emas ekspert sifatida tahlil qilish orqali ekspertizaga taqdim etilgan obyektga to‘g‘ri xulosa berish mumkin bo‘ladi. Haqorat, obro‘sizlantirish mazmunidagi o‘zbek tilidagi ijtimoiy tarmoq yozishmalarining psixolingvistik ekspertizasida ekspert foydalanishi mumkin bo‘lgan maxsus izohli lug‘at mavjud emas. Aynan shu kabi lingvistik va psixolingvistik lug‘atlarni yaratish mutaxassislar oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib, lug`atlardan foydalanish ekspertiza jarayonini osonlashtiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Ijtimoiy tarmoq yozishmalarini kuzatish va ulardagi til birliklarini lingvistik bilimlar asosida tadqiq qilish natijasida anonim yozishmalarning mualliflarini aniqlash bo‘yicha bir qancha tavsiyalar ishlab chiqildi:

1) Foydalanuvchining idenfikatsion belgilariga e`tibor qilish orqali uning taxminiy portretini yaratish va gumon qilinayotgan shaxsning yozishmalari bilan solishtirgan holat shu foydalanuvchi A mi yoki B ekanligini aniqlash.

2) Foydalanuvchining so‘z va qo‘shimchalarni qo‘llashiga ko‘ra hususiy mansubligini aniqlash.

3) Foydalanuvchining emotsional so‘zlardan va emojilardan foydalanishiga ko‘ra uning jinsini aniqlash.

4) Foydalanuvchining til birliklaridan foydalanish imkoniyatiga va imloviy savodxonligiga ko‘ra yoshini aniqlash

5) Foydalanuvchining til birliklarida foydalanishi, imloviy va punktuatsion savodxonligi va boshqa belgilari asosida uning kasbini aniqlash.

Shuningdek konfliktli matnlarning tahlilida lingvistik, psixologik, huquqiy va siyosiy bilimlarning hamkorlida lingvistik-ekspertiza xulosasi tayyorlanishi lozim.

- Konfliktli matnlarda metodologik yondashuv natijasida uning tiplarini to‘g‘ri ajratishga yordam beradi.
- Ijtimoiy tarmoq yozishmalarini pragmatik belgilar asosida tahlil qilish.
- Kognitiv tilshunoslik psixolingvistik-ekspertiza jarayonini to‘g‘ri olib borishda tayanilishi kerak bo‘lgan muhim sohalardan biri hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Normativ-huquqiy va strategik takliflar:

- Lingvistik-ekspertiza faoliyatini viloyatlar kesimida yo‘lga qo‘yish va ekspertlar malakasini oshirishiga imkoniyatlar yaratib berish.

- Lingvistik-ekspertizaning psixolingvistik-ekspertiza tarmog`ining shakllanishi va rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratib berish.

- Lingvistik va psixolingvistik-ekspertizasi ustida tadqiqot ishlarini olib borayotgan tadqiqotchilarga jarayonni to‘g‘ri va aniq tahlil qila olishni o‘rganishi uchun amaliyotlar olib borishiga imkoniyatlar yaratib berish.

- Lingvistik-ekspertiza jarayonida foydalanish uchun lug`atni shakllantirish.

XULOSA

Asosiy xulosalar:

1) Har qanday matnda shakl va mazmun mavjud bo‘ladi va bu ikki birlik aynan mos bo`lmasligi ham mumkin. Masalan: “Eshigingizni supurgani keldik” birikmasining shakli mazmun bilan mutanosib emas. Til birliklarining ko‘chma ma`noda qo‘llanilganligining guvohi bo‘lamiz.

2) Lingvist-ekspertning xulosasi hukm bo‘la olmaydi. Sud hukmining odilona bo‘lishiga xizmat qiladi.

3) Lingvistik-ekspertiza jarayonini birgina mutaxassis olib bora olmaydi bir nechta mutaxassislarning hamkorligida amalga oshiriladi.

4) Mutaxassis va ekspert bir ma`noni ifodalamaydi. Mutaxassis ma`lum bir soha doirasida, ekspert bir nechta sohalarni o‘zlashtirgan shaxs.

5) Lingvistik-ekspertizaning turi, bosqichlarining aniqlanishi muammoning yechim va xulosalarining berilishi metodologiya orqali amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 416 b.

2. А. А. Воробьева МЕТОДИКА ИДЕНТИФИКАЦИИ ИНТЕРНЕТ-ПОЛЬЗОВАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ СТИЛИСТИЧЕСКИХ И ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК КОРОТКИХ ЭЛЕКТРОННЫХ СООБЩЕНИЙ.АВТОРЕФЕРАТ. Санкт-Петербург-2017. Б-4

3. K.Musulmonova O‘zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari. DISS. Qo‘qon– 2022. B-61

4. https://sudex.uz/

5.N.M.Qambarov Matnlarni tahlil qilishda psixolingvistik yondashuv//INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHIERS.2024.B-265. https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/5690/9002

6. Арутюнов А. С. Методология производства судебной лингвистической экспертизы с целью установления

проявлений экстремизма// ОБЩЕСТВО И ПРАВО -2019. № 2 (68) с-80

7. Qarang: Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: учеб. пособие. Флинта: Наука, 2007. 592 с. Будаев Э.В, Ворошилова М.Б., Руженцева Н.Б. Эволюция лингвистической экспертизы. Методы и приемы Моногр.М.: ФЛИНТА, 2019. 264 с. Изотова Т.М., Кузнецов В.О., Плотникова А.М Методика проведения судебной лингвистической экспертизы по делам об оскорблении М.:ФБУ РФЦСЭ при Минюсте. России 2016. 90 с.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

BADIIY PSIXOLOGIZM ADABIY KATEGORIYA SIFATIDA

Sabirova Zebo Zokirovna,
O‘zMU, Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti v.b., (PhD),
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy psixologizmning rivojlanish bosqichlari, adabiy jarayondagi estetik hodisa sifatida shakllanishi va uning adabiy kategoriya sifatida namoyon bo‘lish xususiyatlari haqida qisqacha fikr yuritiladi. Bu hodisa adabiy asarda inson ruhiy kechinmalarini, ichki dunyosi va ichki ziddiyatlarni chuqur badiiy ifoda etishga xizmat qiluvchi adabiy kategoriya va shu bilan birga, asarga ma’naviy-estetik teranlik, falsafiylik, hayotiylik bag‘ishlovchi estetik hodisadir**.** Badiiy psixologizm obrazning ruhiy olamini san’at darajasida yoritib, o‘quvchining fikrini, tuyg‘usini, estetik didini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Psixologizm orqali badiiy adabiyot inson qalbini anglash vositasiga, badiiy tafakkurning yuksak ko‘rinishiga aylanadi.

Kalit so‘zlar: badiiy psixologizm, adabiy jarayon, adabiy kategoriya, adabiy-estetik hodisa, ruhiy olam, falsafiylik, estetik did, ong oqimi, qahramon ruhiyati.

ARTISTIC PSYCHOLOGISM AS A LITERARY CATEGORY

Abstract: This article briefly discusses the stages of development of artistic psychologism, its formation as an aesthetic phenomenon in the literary process and the features of its manifestation as a literary category. This phenomenon is a literary category that serves to deeply artistically express human spiritual experiences, inner world and internal conflicts in a literary work, and at the same time is an aesthetic phenomenon that gives the work spiritual and aesthetic depth, philosophy, and vitality. Artistic psychologism plays an important role in illuminating the spiritual world of images at the level of art and forming the reader's thoughts, feelings, and aesthetic taste. Through psychologism, literature becomes a means of understanding the human soul, a high form of artistic thinking.

Keywords: artistic psychologism, literary process, literary category, literary and aesthetic phenomenon, spiritual world, philosophy, aesthetic taste, stream of consciousness, hero's psyche.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПСИХОЛОГИЗМ КАК ЛИТЕРАТУРНАЯ КАТЕГОРИЯ

Аннотация: В статье кратко рассматриваются этапы развития художественного психологизма, его становление как эстетического явления в литературном процессе и особенности его проявления как литературной категории. Это явление — литературная категория, служащая для глубокого художественного выражения в литературном произведении духовных переживаний человека, его внутреннего мира, внутренних конфликтов, и одновременно — эстетическое явление, придающее произведению духовную и эстетическую глубину, философичность и жизненность. Художественная психология играет важную роль в формировании мыслей, чувств и эстетического вкуса читателя, раскрывая духовный мир образов на уровне искусства. Благодаря психологизму литература становится средством познания человеческой души и высоким выражением художественной мысли.

Ключевые слова: художественный психологизм, литературный процесс, литературная категория, литературно-эстетическое явление, духовный мир, философия, эстетический вкус, поток сознания, психика героя.

Kirish

Badiiy adabiyot har doim gumanizm va ma’naviyatning asosiy tayanchlaridan biri hisoblangan. Adabiyotni ezgulik manbai, millatni asrash vositasi deya e’tirof etish mumkin. Adabiyot rivojlanishining asosiy xususiyati sifatida inson ruhiyatining falsafiy-ruhiy tahlili orqali shaxsni kamolga yetkazish, komillikni ulug‘lash nazarda tutiladi va barcha davrlarda ham o‘zlik, milliylik, inson va uning qalbi, ruhiy olamini tarannum etish ustuvor tamoyilga aylanganligini guvohi bo‘lamiz.

Tafakkur tarzining yangi qiyofasi, o‘zlikni anglash, milliy faxr tuyg‘usining kuchayishi kabi omillar badiiy ijod, jumladan, she’riyatda ham sifat o‘zgarishlarini vujudga keltiradi. She’riyat mavzu, janr jihatdan ancha kengayib, boyidi va boyishda davom etmoqda. Fikriy va hissiy teranlik oshib, inson va uning qalb olamini taftish etish, umuman, yangicha badiiylik kashf qilish kuchaydi. “Bugungi o‘zbek she’riyatining o‘ziga xos an’anaviy tasvir uslubidan farq qiluvchi metaforik obrazlar, ramziy ifodalar, kuchli kinoyaga yo‘g‘rilganlik, eng muhimi, ong osti xotirasining falsafiy ifodalar bilan berilishi kitobxonni o‘ylantiradi”. [1.57]

Har qanday madaniy hodisa singari adabiyotda badiiy psixologizm ham asrlar mobaynida shakllandi va rivojlanib bordi. Adabiy jarayonda bu hodisaning paydo bo‘lishi va shakllanish sabablarini tushunish uchun adabiyotning ilk bosqichlarida, ya’ni adabiyot va madaniyat hali badiiy psixologizmga ehtiyoj sezmagan davrlaga diqqat qilish va inson ichki dunyosini tasvirlashning sodda elementlari qanday harakterga ega bo‘lganligini tushunib olmoq zarur. Zero, adabiyotshunos D. Quronov ham badiiy psixologizm: “badiiy asarda to‘laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so‘zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami”, [2.48] ekanligini ta’kidlaydi.

Badiiy psixologizmning kelib chiqishini adabiyot inson obrazini tasvirlay boshlagan davrlarga bog‘lash mumkin. Aynan o‘sha davrlardan boshlab adabiy qahramon xatti-harakatlarining asosini tashqi holatlarigina emas, balki uning ichki holatlari, intilish va ehtiyojlari tashkil eta boshlagan.

Adabiyotlar tahlili

Psixologizmning ilk aniq ta’riflari XX asrning 40-yillaridan boshlab izohli lug‘atlarda paydo bo‘ldi. Jumladan, psixologizm D. N. Ushakov tahriri ostidagi “Rus tilining izohli lug‘ati”da san’atda “ruhiy kechinmalarni aks ettirishga, chuqur tasvirlashga, murakkab va o‘tkir psixologik tahlilga moyillik”, [3.675] S. I. Ojegovning “Rus tili lug‘ati”da – adabiyotda “psixik, ruhiy holatlarni teran tasvirlash”, [4.620] V. I. Chernishevskiy tahriri ostidagi “Zamonaviy rus adabiy tili lug‘ati”da – “ruhiy hodisalarning teran tasviri, chuqur psixologik tahlil” [5.627] sifatida ta’riflanadi. Keltirilgan ta’riflardan oxirgisining ko‘lamdorligini tan olish lozim, chunki u psixologizm sohasiga nafaqat ruhiy kechinmalarni, balki ruhiyat bilan bog‘liq boshqa hodisalarni ham kiritadi. Keyingi yillarda nashrdan chiqqan izohli lug‘atlarda psixologizmga berilgan ta’riflarda ham aynan shu uchinchi ta’rif hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Chunonchi, xuddi shunday mulohaza A. Madvaliyev tahriri ostidagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi “adabiyot va san’atda insonning psixik, ruhiy kechinmalarini teran tasvirlash”, [6.318]

A. V. Bezrukova tahriri ostidagi “Adabiy lug‘at” [7.319] hamda T. F. Yefremova tahriri ostidagi “Rus tilining zamonaviy izohli lug‘ati”dagi [8.1168] “ruhiy hodisalarni teran tasvirlashga, chuqur psixologik tahlilga moyillik” singari psixologizmga berilgan ta’riflarning asosini tashkil qiladi. [9.14]

Demak, badiiy psixologizm adabiy kategoriyalardan biri bo‘lib, obrazlar ichki dunyosining chuqur tahlili orqali inson ruhiyati va kechinmalarini tasvirlashga xizmat qiladi. U adabiy asarda qahramonlarning ichki olamini, psixologik holatlarini, ruhiy ziddiyatlarini, ichki dunyosini ochib berishda muhim vosita hisoblanadi. Quyidagi jadvalda badiiy psixologizmning adabiy kategoriya sifatidagi xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz:

1-jadval:

Qahramon ruhiyatini yoritish	Badiiy psixologizm orqali muallif qahramonning ruhiy holatini chuqur va aniq tasvirlaydi: uning ichki kurashlari, qarama-qarshi tuyg‘ular orasidagi tangligi, hayotga, odamlar va o‘ziga bo‘lgan munosabatini ochib beradi. Bu obrazga individual va hayotiylik xususiyatini bag‘ishlaydi.
Ichki monolog va ong oqimini ifodalash	Adabiyotda psixologik yondashuv qahramon ichki monologini, ong oqimini ochish orqali uning kechinmalari, fikrlar oqimi (tartib yoki tartibsizligi) va sezgilarini aniq ko‘rsatadi. Bu usul jamiyat va shaxs munosabatini chuqurroq ochishga yordam beradi.

Murakkab ijtimoiy-ruhiy muammolarni ko‘rsatish	Psixologizm orqali yozuvchi jamiyatdagi muammolar, inson axloqiy tanlovlari, iymon va vijdon o‘rtasidagi kurash, hayotiy yo‘lining tanlovi kabi masalalarni individual inson ruhiyati orqali ko‘rsatadi.
Obrazlarning murakkabligini ta'minlash	Oddiy xarakterlar emas, balki ziddiyatli, konfliktga boy, ichki dunyosi turfa, murakkab obrazlar yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘quvchini o‘z fikr yuritishiga undaydi – har bir harakat ortida qanday psixologik sabab yotganini izlashga majbur qiladi.
San’atli ifoda kuchini oshirish	Badiiy psixologizm tasviriy vositalar (tashbeh, istiora, ramz, ichki monolog va dialoglar) yordamida obrazlar ruhiyatini san’at darajasida yoritadi, bu esa adabiy asarning badiiy qiymatini oshiradi

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada badiiy psixologizmning adabiy kategoriya va estetik hodisa sifatida shakllanishi, taraqqiyoti va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy-tipologik, taqqoslama, tizimli yondashuv hamda psixologik tahlil usullari asos qilib olindi. Badiiy psixologizmning nazariy asoslarini aniqlashda lingvopoetik va struktural yondashuvlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Badiiy psixologizm adabiyotda inson ruhiyatini tahlil qilish, obrazlarni chuqur va ishonarli yaratish, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab aloqalarni tasvirlashda muhim adabiy kategoriyalardan biridir. Bu uslub asarga hayotiylik, chuqurlik va badiiy-estetik ta’sir kuchi bag‘ishlaydi.

Badiiy psixologizm adabiy-estetik hodisa sifatida – bu adabiy jarayonda inson ruhiyatining badiiy talqini orqali asarga estetik qiymat, ichki teranlik, hayotiylik va falsafiy mazmun bag‘ishlaydigan hodisadir. Ya’ni, badiiy psixologim faqat obraz ruhiyatini ochish emas, balki uni san’at darajasida estetik jihatdan mukammal tarzda tasvirlash vositasidir. Quyida badiiy psixologizmning adabiy-estetik hodisa sifatidagi asosiy xususiyatlari bayon etiladi:

2-jadval:

Estetik idrokni shakllantiradi	Psixologik tasvirlar o‘quvchida estetik hissiyot uyg‘otadi. Obrazlarning ichki kechinmalari mahorat bilan poetik, ramziy ifodalar bilan berilgani sababli o‘quvchi nafaqat anglaydi, balki chuqur his qiladi. Masalan: Jahon va o‘zbek adabiyotidagi bir qator asarlardagi (F. Dostoyevskiy yoki A. Qodiriy, Cho‘lpon nasriy va lirik asarlari) obrazlar nafaqat voqealar orqali, balki ichki kechinmalari bilan o‘quvchini o‘ziga tortadi, ruhiy ta’sir ko‘rsatadi.
Hayotning estetik modelini yaratadi	Badiiy psixologizm inson ruhiyatini tahlil qilish orqali hayotni ichki mohiyatidan anglashga yordam beradi. Ruhiy kechinmalarni estetika darajasiga ko‘tarish orqali

	yozuvchi hayotning ruhiy ko‘zgusini yaratadi. Ya’ni, bu hodisa hayotni faqat tashqi emas, ichki mohiyatda – go‘zallik, ziddiyat, quvonch, iztirob orqali yoritadi.
Ijodkorlik va individuallik mezoni	Badiiy psixologizm ijodkorning dunyoqarashi, estetik ideal va ichki sezgilarining ifodasidir. Har bir yozuvchining psixologizmga yondashuvi o‘ziga xos bo‘lib, bu uning ijodiy individualligini namoyon qiladi.
San’atning ichki dramatizmini kuchaytiradi	Ichki psixologik tahlil orqali dramatizm kuchayadi – bu ziddiyat, qarama-qarshilik, kurash endi tashqi emas, ichki maydonda kechadi. Bu esa asarning estetik kuchini oshiradi. Psixologik dramatizm – tashqi voqealardan ko‘ra ichki kurashning kuchliroq ta’sir qilishi bilan bog‘liq.
Adabiy tafakkur taraqqiyotining belgisi	Badiiy psixologizm estetik hodisa sifatida adabiy tafakkurning yuqori bosqichini ifodalaydi. Chunki u obrazni tashqi tomondan emas, ichki, ya’ni ruhiy-falsafiy qatlamda yaratishni talab qiladi. Bu esa adabiyotning falsafiy, estetik va insonparvarlik salohiyatini boyitadi.

Xulosa

Xulosa qilganda, badiiy psixologizm – bu shunchaki ruhiy tahlil emas, balki adabiy estetik hodisa sifatida inson ichki dunyosini san’at orqali anglash, his qilish va talqin qilish vositasidir. U badiiy asar estetikasining go‘zallik, ruhiy qatlamning teranligi va ma’naviy dunyoning boy va turfaligining badiiy ko‘rinishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Хурсанов Д. Ҳозирги ўзбек шеъриятида хронотоп поэтикаси.// Филол.фан.фалс.д-ри. дисс. – Самарқанд, 2020. – Б. 57.

2. Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Акдемнашр, 2013. – Б. 48.

3. Толковый словарь русского языка: в 3 томах.; ред. Д. Н. Ушаков. – М.: Вече, 2001. – С. 675.

4. Ожегов С. И. Словарь русского языка. – М.: Оникс, 2006. – С. 620.

5. Словарь современного русского литературного языка: в 17 т.; гл. ред. В. И. Чернышева. – М.: Издательство АН СССР, 1960. Т 11. – С. 1627.

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 2-жилд. – Б. 318.

7. Литературный словарь; ред-сост. А. В. Безрукова. – М.: Литературная учеба, 2007. – С. 319.

8. Современный толковый словарь русского языка: в 3 томах.; ред. Т. Ф. Ефремова. – М.: АСТ, 2006. – С. 1168.

9. Boboxonov M. hozirgi o‘zbek romanlari strukturasida psixologizm muammosi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand – 2023. 14 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SUDLOV TERMINLARINING QO‘LLANILISH AHAMIYATI

Minavarov Xusan Anorboy o‘g‘li
Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
Email: mxusan15@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy tilshunoslikda sudlov sohasining ahamiyati ortmoqda. Shuningdek, sudlov terminlarini o‘rganish, ilm-fan taraqqiyoti uchun xizmat qiladi hamda sudlov sohasida qo‘llanilayotgan terminlarning leksik-semantik ma’nolarini anglagan foydalanishga yordam beradi. O‘zbek va ingliz tillaridagi sudlov terminlarining qiyosiy tahlilga tortish, ikki til kesimida sudlovga oid lug‘atlarning yaratilishi, sudlov jarayonlarida qo‘llanilayotgan terminlarning sud ishtirokchilari uchun foydali va tushunarli bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sud, qonun, huquq, yuridik, kodeks, fuqarolik, sudlov.

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СУДЕБНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: В современной лингвистике значение судебной сферы возрастает. Изучение судебной терминологии способствует развитию науки и помогает правильно использовать термины, применяемые в судебной практике, осознавая их лексико-семантическое значение. Сравнительный анализ судебной терминологии узбекского и английского языков, создание двуязычных юридических словарей, а также изучение терминов, используемых в судебных процессах, имеет практическую ценность и способствует лучшему пониманию терминов участниками судебного разбирательства.

Ключевые слова: суд, закон, право, юридический, кодекс, гражданский, судопроизводство.

THE IMPORTANCE OF USING LEGAL TERMINOLOGY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Abstract: In modern linguistics, the significance of the legal field is increasing. The study of legal terminology contributes to the advancement of science and helps ensure the correct use of terms employed in legal practice by understanding their lexical and semantic meanings. A comparative analysis of legal terminology in Uzbek and English, the creation of bilingual legal

dictionaries, and the study of terms used in judicial processes are of practical value and facilitate better understanding of legal terms by participants in court proceedings.

Keywords: court, law, legal, juridical, code, civil, judiciary.

Kirish

Jahon tilshunosligida yuridik sohaning muhim bo‘g‘inlaridan hisoblangan sudlov tilshunosligi va uning negizida sudlov terminologiyasini o‘rganishga ehtiyoj ortmoqda. Ilm-fan taraqqiyotida tilshunoslikning har bir sohada shakllanib borayotganligi, uzviy bog‘lam hosil qilayotganligi zamon talabiga aylanmoqda. Dunyo tilshunosligida sudlov sohasining xalqaro miqyosda o‘zaro hamkorlik asosida tizimli yo‘lga qo‘yib, sudlovga oid terminlarning qo‘llanilishi, xalqaro sudlov terminlarining kirib kelishi va qiyosiy o‘rganish dolzarblashmoqda. Shuningdek, sudlov terminalogiyasi huquqiy sohaning asosiy tarmoqlaridan biri sifatida yurtimizda e’tibor qaratilmoqda. O‘zbek va ingliz tillaridagi sudlov terminlarining qiyosiy o‘rganish, ularning leksik-semantik, morfologik va stilistik xususiyatlarini taqqoslash hozirgi davr talabi hisoblanadi. Sudlov terminologiyasini o‘rganishda o‘zbek va ingliz tilida mavjud terminlarni tarixiy-etimologik shakllanishi tahlil qilinib, sudlov terminlarnining paydo bo‘lishi, shakllanishida o‘zga tillarning o‘rni hamda tasiri yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili

Dunyo olimlari tomonidan, xususan, yurtimiz olimlari ham huquq sohasida, sud sohasida va sud ekspertiza mavzulari bo‘yicha qator izlanishlar olib borilgan. Shuningdek yurtimiz olimlari tomonidan yuridik atamalar bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borgan va sud nutqi yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini qayd etish mumkin. Mahalliy va xorijiy jurnallarda bu huquqiy soha yuzasidan ko‘plab ilmiy ahamiyatga molik maqolalar chop etilganligini ta’kidlash mumkin. Biroq, aynan sudlov terminlarini tadqiq etish, tahlil qilish va qiyosiy jihatdan o‘rganishga muvaffaq bo‘linmagan. Sudlov terminlarining o‘rganilishi qator muommolarni ochadi, ya’ni sudlov jarayonlarida qo‘llanilayotgan so‘zlarning asl mohiyatini ochib, tilda to‘g‘ri qo‘llash, ma’no-mazmunini anglash hamda qonununchilik tilini tushuna olish imkoniyatlarini ochib berish bilan birgalikda o‘z huquqini yaxshi bilishga yordam beradi.

O‘zbekistonda yuridik til, yuridik terminologiya masalalari bo‘yicha huquqshunos olimlar F. Bakirov, A. Saidov va G. Sarkisyanslarning xizmatlarini alohida qayd etib o‘tish maqsadga muvofiq. F.Bakirov o‘zbek yuridik terminlari, ularning shakli va mazmuni, tarixi va kelajagi to‘g‘risida maqolalar yozib, “Yuridik terminlar lug‘ati” ni tuzgan bo‘lsa, A.Saidov va G.Sarkisyanslarning “Yuridik til va huquqshunos nutqi” nomli risolasi va boshqa ilmiy ishlari juda qimmmatlidir. Ularda milliy yuridik o‘zbek tilining ilmiy-nazariy modelini yaratish g‘oyasi ilgari suriladi. Bu sohada L.M.Boyko, M.Qosimova, L.A.Karimova. Sh.N.Ko‘chimov, G.Y.G‘ulomova, O.F.Tursunova, X.Xayitov, [1] Sh.N.Berdiyarov, R.I.Mirzayev kabi olimlar tomonidan ham tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mamlakatimizda olib borilayotgan bunday ilmiy izlanishlarni jahon tilshunosligiga olib chiqish maqsadida Sh.Ko‘chimov tomonidan maxsus veb saytning yo‘lga qo‘yilganligi ham diqqatga sazovordir. Bu kabi tilshunos olimlarimiz

tomonidan yuridik sohasida qilingan izlanishlar o‘zbek tilshunosligida salmoqli o‘rin egallaydi. Tilshunos olimlarimizning ilmiy izlanishlari o‘laroq o‘zbek-ingliz tillaridagi sudlov terminlarining funksional-semantik yo‘nalishi bo‘yicha tadqiqot olib borish ikki millat tilshunosligi terminallogiyasini qiyosiy o‘rganishga zamin yaratadi. Qoraxoniylar davrida fiqh ilmi rivojlanib, mazkur davrda Movarounnahrda 300 ga yaqin faqih faoliyat ko‘rsatgan. Ular tomonidan 150 dan ko‘proq fiqhiy (huquqiy) asarlar, shuningdek, 20 ta fatvo to‘plami yaratilgan[2]. Muhammad ibn Urtushoniyning “Jomi’ ahkom as-sig‘or” ya’ni “Bola huquqlari kodeksi” asari siyosiy fanlar doktori, professor Zohidullo Munavvarov boshchiligidagi o‘zbek tilida qayta tahrir qilingan kitobida Qoraxoniylar davri va fiqhi xususida bayon qilib o‘tgan. Keyingi davrlarda Amir Temur va Temuriylar davri hukmronligi yillarida Islom fiqhi va shariat qonunlari mustahkamlangan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi sudlov terminlari o‘rganilib, o‘zbek va ingliz sudlov terminlarining lug‘atlarda va qonunchilik hujjatlarida kelishi tahlil qilinadi. O‘rganilayotgan sudlov terminlari qiyosiy o‘rganilayotgan ingliz davlatchiligida sudning shakllanish tarixi hamda sudlov tilining hamnafas paydo bo‘lib, uning tilga bevosita ta’sir qilganligini ifoda etamiz. O‘zbek tilida sudlov terminlarining “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da, shuningdek, yuridik lug‘atlar, qonunchilik Kodekslarida qo‘llanilishi tahlilga tortilgan bo‘lsa, ingliz tilidagi sudlov terminlarini tadqiq va tahlil etishda Webster’s New World ning “Law Dictionary”, “Oxford dictionary of law”, “Collins Dictionary of Law”, “Black’s Law Dictionary” huquqiy lug‘at kitoblariga tayangan holda izlanish olib borildi.

Tahlillar va natijalar

O‘zbek tili sudlov sohasida qo‘llaniluvchi **fuqarolik sudiga** oid terminlarga murojat qilamiz hamda ularning qo‘llanilish o‘rniga tasnif beramiz.

Fuqarolik sudi – fuqarolar o‘rtasigi ziddiyat hamda nizolarni huquqiy hal etuvchi sud organi.

Fuqarolik kodeksi – fuqarolar masalalarini qonun bilan hal qiluvchi qonun-qoidalar majmui hisoblanadi. Fuqarolik sudida fuqaroning arizasi fuqarolik kodeksida belgilangan bandlar asosida sud ishi olib boriladi.

Fuqarolik huquqi – bu shaxslarning bir-biri bilan va davlat bilan bo‘lgan munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy tizimning muhim qismlaridan biri hisoblanib, shaxslar va yuridik shaxslarning huquqiy holatini tartibga soluvchi soha.

Jismoniy shaxs – fuqarolik va shaxsiy holatini tashkil qiluvchi shaxs. Fuqarolik kodeksining 3-bobida fuqarolar bo‘limining o‘n oltinchi bobida fuqarolik (jismoniy shaxs) tushunchasiga ta’rif beriladi ya’ni Fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi [3]. Fuqarolik Kodeksning fuqarolar bo‘limida qayd etilgan.

Yuridik shaxs – O‘z mulkida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan

mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi [4]. Shuningdek, yangilangan huquqiy manbalarda tashkilot hamda muassasalar yuridik shaxs termini bilan qo‘llanilishi keltirilgan.

O‘zbek tilidagi sudlov terminlarining O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida keltirilgan sudlovga oid terminlar tahlilga tortilib, semantik ma’nosi o‘rganildi. O‘zbek tilidagi sudlov terminlarining sud sohasida to‘g‘ri qo‘llanilishi, ma’nosini anglagan holda foydalanishga hissa qo‘shishni maqsad qilingan. Qonunchilik hujjatlarda mavjud sudlov terminlarining xalqaro terminlarining o‘rni salmoqli ekanligini ham takidlash lozim. Xalqaro huquq, xalqaro sud juda katta tushunchani ifodalasa, mana shu tushuncha esa davlatlarning ichki huquqiy holatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib, bir davlatning sud-huquq terminosistemasini xalqaro terminlar bilan boyitib, kengaytmoqda.

Ingliz tili sudlov sohasiga tegishli bo‘lgan terminlarni qiyosiy o‘rganib chiqamiz. O‘zbek sudlov jarayonlari konstitutsiya va sohaviy kodekslarga asoslanib, tashkil etilishini yuqorida dalilladik. Ingliz sudlov jarayonlari esa, ***Common Law*** (ommaviy huquq) ya’ni sud qarorlari, Statue Law (yozma qonunlar) ya’ni ***“Act of Parliament”*** (parlament qonunlari) hamda ***“Magna Carta”*** nomli fuqarolik huquq va erkinlarini himoya qiluvchi qonuniy hujjat hisoblanib, asos qilib olinadi.

Ingliz fuqarolik sudlov sohasida qo‘llaniladigan terminlarni keltirib, ularga izoh va tushunchalar keltiramiz.

Claimant – da’vogar; me’ros va mulk masalalari yuzasidan sudga da’vo qilish.

Defendant - javobgar; unga nisbatan ochilgan da’vodan himoyalanayotgan yoki unga ochilgan da’voni inkor etayotgan shaxs.

Claim – da’vo; sudda mol-mulk va pulga egalik qilish bo‘yicha huquqiy talab,

Civil court – fuqarolik sudi; fuqarolar masalalarini ya’ni shartnoma nizolarini, mol-mulk da’volari va shu kabi huquqiy holatlarni qonuniy hal etuvchi va chora ko‘ruvchi mahkama.

County court – tuman va mahalliy sud bo‘lib, fuqarolarning kichik masalalari ko‘riladi.

Family court - Oilaviy huquq masalalarini, masalan, ajralish, bola vasiyligi va uchrashuv huquqi, bola va turmush o‘rtog‘ini moddiy ta'minlash, otalikni aniqlash hamda oilaviy zo‘ravonlik holatlarini ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan shtat sudi[5]. Ushbu termin ham fuqarolik sud sohasi hisoblanadi.

Court of Appeal – Apellyatsiya sudi; paski sud idoralari qaroridan norozi da’volar yuqori turuvchi sud idoralariga qilingan shikoyatlar ko‘riladi.

Supreme court – Oliy sud; eng yuqori darajadagi sud bo‘lib, muhim sudlov instansiyasi hisoblanadi.

Judgement – Sud qarori; hakamlar hay’ati tomonidan chiqarilgan yakuniy qaror.

Ingliz tilidagi sudlov terminlarini o‘rganishda, tahlilga tortilgan sudlov terminlarining xalqaro terminga aylanib, nafaqat ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar sudlov sohasida, balki, boshqa davlatlarning sudlov sohadiga ham qo‘llanilishiga ahamiyat berish mumkin.

Chunki, ingliz tilida ham mavjud sudlov terminlarining lotin, fransuz tillaridan o‘zlashib, xalqaro terminga aylanganligini e’tirof etamiz.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘zbek va ingliz tillaridagi sudlov terminlarini tarixiy-etimologik kelib chiqishi, zamonaviy tilshunoslikning ajralmas bir bo‘g‘in sifatida shakllanib kelganligini anglash mumkin. Xalqaro terminlarining o‘zlashib sudlov sohasida qo‘llanilayotganligi va ularga ehtiyoj sezilayotganligi, ushbu terminlarning muqobil variantlarini yaratib bo‘lmasligi tadqiq va tahlil jarayonida yoritib o‘tildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hayitov X. Qonun ijodkorligida yuridik lingvistikaning o‘rni va ahamiyati. Yuridik fan. nom... diss. –T.: 2011.

2. Muhammad ibn Ustrushoniy – “Jomi’ ahkom as-sig‘or” Toshkent-2021

3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, 3-qism, 2-kichik bo‘lim, Fuqarolar (jismoniy shaxslar).

5. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, 4-qism, 1- bo‘lim, Yuridik shaxslar, 39-modda.

6. Susan Ellis Wild - Webster's New World Law Dictionary

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ZARGARLIK BUYUMLARINING NOMLARI
(burun va quloqqa taqiladigan)

Erejepova Aysuliw Asenbayevna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti doktaranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zargarlik sohasidagi burun va quloqqa taqiladigan taqinchoqlarni tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish, ularning nomlanishi, etimologiyasi, leksik-semantik xususiyatlari hamda lingvomadaniy ma’nosi tadqiq etilgan. Tarixiy yozma yodgorliklarda keltirilgan nomlar qiyoslab o‘rganilgan va misollar orqali ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: taqinchoqlar, burun halqalari, sirg’a, arabak, oyboldoq

НАЗВАНИЯ ЮВЕЛИРНЫХ ИЗДЕЛИЙ
(носовые и ушные)

Аннотация: В статье рассматривается лингвистика носовых и ушных украшений в области ювелирного дела, их наименование, этимология, лексико-семантические свойства и лингвокультурное значение. Названия, приведенные в исторических письменных памятниках, изучаются в сравнении и иллюстрируются примерами.

Ключевые слова: украшения, кольца для носа, серьги, браслеты, лунные камни

NAMES OF JEWELRY
(wearing on the nose and ear)

Annotatsion: This article studies the linguistics of nose and ear jewelry in the field of jewelry, their naming, etymology, lexical-semantic properties, and linguocultural meaning. The names given in historical written monuments are studied in comparison and illustrated with examples.

Keywords: jewelry, nose rings, earrings, bangles, moonstones

Kirish. Turkiy xalqlar madaniyatida inson badaniga, ayniqsa, burun va quloq qismlariga ziynat buyumlari taqish an’anaviy urf-odatlar qatorida muhim o‘rin tutadi. Bu ziynatlar nafaqat estetik bezak sifatida, balki ma’naviy, ramziy va hatto ritual ahamiyatga ham ega bo‘lgan. Ayniqsa, burunga taqiladigan taqinchoqlar – halqasimon shaklda bo‘lib, turli madaniy kontekstlarda ayol kishining yoshi, oilaviy holati, ijtimoiy maqomi yoki milliy mansubligini ifodalovchi belgi sifatida xizmat qilgan. Turkiy xalqlar bilan bir qatorda, hind va arab xalqlarida ham burunga ziynat buyumi taqish urfi keng tarqalgan bo‘lib, bu an’ana qadimgi etnik va diniy

e’tiqodlar, shuningdek, jamiyatdagi ayolning rolini belgilashga oid an’analar bilan chambarchas bog‘langan. Masalan, Hindistondagi «natx» deb ataladigan burun halqalari nikoh ramzi sifatida, Markaziy Osiyo xalqlarida esa ayol ziynati sifatida qadrlangan.

Burun va quloqqa taqiladigan taqinchoqlarni tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish, ularning nomlanishi, etimologiyasi, leksik-semantik xususiyatlari hamda lingvomadaniy ma’nosini ochib berish imkonini beradi. Bu masala, ayniqsa, etnolingvistika, onomasiologiya, leksikologiya va lingvomadaniyatshunoslik sohalarida muhim tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. Turkiy tillarda burun va quloqqa taqiladigan zargarlik buyumlari uchun bir qator maxsus leksemalar ishlatilgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi so‘z yasalish va semantik o‘zgarish jarayonlarini aks ettiradi. Masalan, sirg‘a – qadimdan beri asosan ayol va qizlar taqib yuradigan, ko‘pincha oltin, kumush, marjon, dur, la’l kabi qimmatbaho materiallardan tayyorlanadigan quloq va burun zeb-ziynatidir. Turkiy xalqlarda quloq (quloq sirg‘asi) va burunga (burun sirg‘asi) taqiladigan mazkur zargarlik buyumi sirg‘a (o‘zbek), sırǵa (qoraqalpoq), сырға (qozoq) va ysyrga (turkman) shaklida ifodalanadi. Bu holat shundan dalolat beradiki, bir necha turkiy tillarda sirg‘a/sırǵa/ysyrga kabi leksemalar umumiy semantik asosdan tarqalgan va ayni ziynat buyumi – ayollar tanasiga (asosan quloq va ba’zan burunga) taqiladigan taqinchoqlar ma’nosini anglatadi.

Altın sırǵa jılt-jılt eter qulaǵımda
Seniń sòzin saqlaǵanday qulaǵımda
Kòkshegimde tilla esik- sen bergen ediń
Jùregimnen orın tapqan mangilik adıń [1] .

"Sirg‘a" atamasi turkiy tillarda qadimiy davrlardan buyon ishlatilib kelinayotgan leksik birliklardan biri hisoblanadi. Bu so‘zning ilk ma’nolari va qo‘llanish doirasi til tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida qaraladi. Shuningdek, turkiy tillar tarixi va leksikografik manbalarga tayanganda, bu so‘zning ma’no doirasi juda keng bo‘lgani ayon bo‘ladi. Xususan, ayrim manbalarda "sirg‘a" faqat quloq va burunga emas, balki bo‘yinga taqiladigan buyum ma’nosida ham ishlatilgani qayd etiladi [2]. Bu holat so‘zning semantik rivojlanishi va faol leksema sifatida xalq madaniyatidagi turli zargarlik buyumlari bilan bog‘liqligiga dalolat beradi. Shu jihatdan "sirg‘a" so‘zining ma’no kengayishi va maxsuslashuv jarayoni tilning tarixi va madaniy muhit bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda ilmiy-nazariy tahlil, taqqoslash, kontent-tahlil va lingvistik-deskriptiv usullar qo‘llanildi. Asosiy manba sifatida adabiy matnlar, ilmiy maqolalar, tarixiy yozma manbalar va zamonaviy ilmiy izlanishlar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Tarixiy yozma yodgorliklarda ham "sirg‘a" so‘zining ilgarigi shakllari uchragani, uning eskiligi va asosiy leksik qatlamga mansubligi, turkiy xalqlarning qadimgi til qatlamlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, "sirg‘a" so‘zining tarixi, ma’no o‘zgarishi va shevalardagi qo‘llanishi, uning turkiy tillar leksik boyligidagi muhim o‘rinlardan birini egallashini tasdiqlaydi.

O‘rganilayotgan hudud turkiy tillarida burunga taqiladigan ziynat buyumlari nomlarining xilma-xilligi kuzatiladi. Masalan:

- o‘zbek tilida: aravak // arabak, buloqi, xolbini;
- qoraqalpoq tilida:árebek;
- qozoq tilida: әребек, зере, зерен;
- turkman tilida: arabek.

Burunni teshib taqiladigan bu turdagi ziynat buyumlari qadimiy davrlardanoq ayollarning milliy kiyinish madaniyatida muhim o‘rin egallab kelgan.

Qoraqalpoq tilshunoslari I.Seytnazarova va Q.Zayrova o‘z tadqiqotlarida xalq amaliy san’ati namunalaridan biri bo‘lgan árebek taqinchog‘i xususida atroflicha ma’lumot berganlar. Mualliflar ta’kidlashicha, árebek – kumush simdan yasalgan, tashqi va markaziy qismida turli xil rangdagi, xususan, qizil va ko‘k (firuza) toshlar bilan bezatilgan, shaklan doirasimon va o‘ramali ko‘rinishga ega bo‘lgan milliy taqinchoq turidir. Bu taqinchoq turi qizlar va kelinchaklar tomonidan burunning o‘ng tomoniga maxsus teshik orqali taqib yurilgan. Àrebek ning shıyratpalı árebek, bùrshikli árebek, ǵozalı árebek, marjanlı árebek, piriwzalı árebek kabi turlarini aniqlashadi va har bir nomni izohlab berishadi . Shuningdek, árebek atamasi qozoq tilida ham uchraydi. Qozoq tilining izohli lug‘atida ayollarning burniga taqiladigan sirg‘a әребек deb nomlanadi va bu zargarlik buyumi nomi eskirgan so‘z ekanligi ko‘rsatiladi [3]. Turkman tilida ham arabek eskirgan so‘z hisoblanadi va ayollarning burun qismini teshib taqiladigan halqa ko‘rinishidagi qizil, kumush buyumdir[4] . O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa arabak va aravak shevaga xos so‘z ekanligi qayd etiladi hamda burunga taqiladigan sirg‘a deb beriladi[5] .

Qozoq tilining izohli lug‘atida “зере” va “зерен” so‘zlari burunga taqiladigan ziynat buyumini anglatuvchi leksik birliklar sifatida uchraydi. Mazkur so‘zlar “ilgari qiz-kelinlar burunlariga taqib yuradigan sirg‘a” deb izohlangan va eskirgan (arxaik) leksema deb berilgan[6] . Bu holat mazkur nomlar madaniy dunyoqarashlar bilan bog‘liq bo‘lganini va vaqt o‘tishi bilan faol leksik qo‘llanishdan chiqib ketganini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida ham burunga taqish uchun mo‘ljallangan ziynat buyumi sifatida buloqi so‘zi uchraydi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “buloqi – burunni teshib taqiladigan zirak, ziynat buyumi ”[7] deb ta’riflangan. Ushbu leksema hozirgi kunda ham ba’zi hududiy shevalarda va an’anaviy xalq amaliy san’ati bilan bog‘liq matnlarda, badiiy asarlarda faol qo‘llanadi.

Turkiy xalqlar tilida quloqqa taqiladigan zargarlik buyumlari nomlari juda ko‘pchilikni tashkil etadi. Jumladan, o‘zbek tilida sirg‘a, zirak, zira, boldoq, xalqa, qoraqalpoq tilida sırǵa, qozoq tilida сырға, turkman tilida ysyrga, teneçir, gulakhalka kabi nomlar bilan ifodalanadi.

O‘rganilayotgan tillarda quloqqa taqiladigan zargarlik buyumlari juda ko‘p va ularning nomlari turli xildir. O‘zbek tilshunosligida Farg‘ona shevalari kasb-hunar leksikasini o‘rgangan

S.Ibrohimov o‘z asarida sirg‘aning xilma-xil turlarini keltiradi. Jumladan, toshkentzirak, samarqandzirak, no‘g‘oyzirak, kanazira (yumaloqzira hamda tatarchazira deb ham yuritiladi), turkistonzira/turkistonboldoq, zulukzira, qo‘ng‘iroqli zira, sepoya zira (uchkokilli yoki uchoyoqli zira) qashqarboldoq, ko‘zlik zira, oyboldoq, farg‘onachaboldoq, toshkanboldoq, shaldiroqboldoq, siganchaboldoq, aravaboldoq (yumaloq shaklda), anjirboldoq kabi [8]. O‘zbek tilida zargarlik buyumlarini monografik planda o‘rgangan I.Pardaeva ham tadqiqotida shibirma, uch kokilli sirg‘a, etti kokilli sirg‘a, uy zirak, qoziq sirg‘a, yulduzli sirg‘a, qo‘ng‘iroqli sirg‘a, kumush, sirg‘a, tilla sirg‘a, zulukzirak, kokilli zulukzirak, g‘alvirak zirak, oyboldoq, anjir boldoq, jiydali boldoq, jiydasiz boldoq, kokilsiz boldoq, quruq boldoq, aravaboldoq, toshkanboldoq, qashqarboldoq, turkistonboldoq kabi quloqqa taqiladigan zargarlik buyumlari nomlarini keltiradi . Qoraqalpoq tilidagi taqinchoq atamalarini tadqiq etgan I.Seytnazarova va Q.Zayrova o‘z ishida quyma sırǵa, halqaplı sırǵa, ay sırǵa, aybaldaq sırǵa, juldız sırǵa, paxtagùl sırǵa, japıraq sırǵa, bùrshikli sırǵa, sobıqlı sırǵa, soyaw sırǵa, atanaq sırǵa, marjanlı sırǵa, baldaqlı sırǵa, jalpaq sırǵa, shıyırıtpaq sırǵa, silsineli sırǵa, qońırawlı sırǵa, shashaqlı sıǵa kabi sirg‘alarning turlarini o‘rgangan[9] .

Turkiy tillarda quloqqa taqiladigan sirg‘alar shakli, bezaklaridagi ko‘z (tosh yoki qosh)larning rang va tarkibiy xilma-xilligi, hamda yasalgan material turlarining farqliligi asosida turlicha nomlangan. Bu omillar sirg‘a atamalarining shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy leksik-semantik mezonlardan biri sifatida xizmat qiladi. Masalan, shakli va tasvirining xilma-xilligiga ko‘ra o‘zbek tilida: qoziq sirg‘a, yulduzli sirg‘a, qo‘ng‘iroqli sirg‘a, oyboldoq, zulukzirak, g‘alvirak zirak; qoraqalpoq tilida: ishida quyma sırǵa, halqaplı sırǵa, ay sırǵa, aybaldaq sırǵa, juldız sırǵa, paxtagùl sırǵa, japıraq sırǵa, bùrshikli sırǵa, sobıqlı sırǵa, soyaw sırǵa, atanaq sırǵa, marjanlı sırǵa, baldaqlı sırǵa, jalpaq sırǵa, shıyırıtpaq sırǵa, silsineli sırǵa, qońırawlı sırǵa, shashaqlı sıǵa; qozoq tilida: ай сырға, жулдыз сырға, қоңырау сырға, қоза сырға, үзбели сырға, шужық сырға, шығыршық сырға, сабақты сырға, салпыншақты сырға kabi quloqqa taqiladigan zargarlik buyumlari nomlari mavjud.

Qozoq tilshunosi R.Shoybekovning ta’kidlashicha, qozoq, o‘zbek, qoraqalpoq va boshqa xalqlarda yulduz tasviri tushirilgan sirg‘alar ham keng tarqalgan. Qozoqlar bunday sirg‘ani жулдыз сырға deydi, o‘zbeklar esa uni yulduzli isirg‘a deb ataydi[10] . Mazkur sirg‘a qoraqalpoq tilida ham juldız sırǵa deb nomlanadi.

O‘rganilayotgan turkiy tillarda quloqqa taqiladigan zargarlik buyumlari nomlarini hosil qilishda boldoq so‘zi faol qo‘llangan. Xususan, o‘zbek tilida: oyboldoq, kokilsiz boldoq, quruq boldoq, anjir boldoq, jiydali boldoq, jiydasiz boldoq, qashqarboldoq, qoraqalpoq tilida: aybaldaq sьrg‘a, baldaqlы sьrg‘a kabi.

O‘zbek tilida isirg‘aning oltin, kumush, misdan uch-to‘rt kunlik oyga o‘xshatib ishlangan, naqshsiz, shokilasiz bir turi – *oyboldoq*[11] , qoraqalpoq tilida chalqancha yotqizilgan yarim oy shaklidagi, o‘rtasida kichik boldog‘i bor taqinchoq aybaldaq sьrg‘a deb nomlanadi.

Quloqqa taqiladigan zargarlik buyumlari nomlarida ko‘z (tosh yoki qosh)larining rang-barangligiga ko‘ra farqlanadigan taqinchoqlarning turlarini uchratish mumkin. Mazkur guruhga

kiruvchi zeb-ziynat buyumlarining ko‘z (tosh yoki qosh)lari har xil qimmatbaho toshlardan iborat bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida: marjonli/durli sirg‘a, feruza ko‘zli isirg‘a, marvarid sirg‘a/zirak, olmos zirak, zabarjad zirak, kanazirak; qoraqalpoq tilida: marjanlı sırǵa; qozoq tilida: меруерт сырға, гаухар сырға, дүрри гаухар сырға, лағыл сырға (la’l toshi bilan bezatilgan sirg‘a) kabi. Bu erda “marjon”, “dur”, “feruza”, “olmos”, “zabarjad”, “marvarid”, “gavhar”, “la’l” so‘zlari zargarlik san’atida qo‘llaniladigan qadimiy va qimmatbaho toshlarni anglatadi.

Quloqqa taqiladigan zargarlik buyumlarining nomlanishi nafaqat material, shakl va vazifasiga qarab, balki xalqning etnik tarixi, tarixiy xotirasi, turmush tarzi, geografik muhiti, toponimikasi, tashqi madaniy ta’sirlari va tabiatga bo‘lgan munosabati bilan ham belgilanadi. Bu holat, ayniqsa, o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi taqinchoq buyumlari nomlarida yorqin namoyon bo‘ladi. Har bir xalqning an’anaviy hayoti va ijtimoiy-madaniy muhitiga xos bo‘lgan nomlar tizimi mavjud bo‘lib, u leksik-semantik jihatdan o‘ta boy va rang-barangdir.

O‘zbek tilida sirg‘alarning ba’zi nomlari joy nomlariga asoslangan holda yuzaga kelgan. Masalan, qashqarboldoq, farg‘onachaboldoq, toshkanboldoq, turkistonboldoq, samarqandzirak kabi atamalar nafaqat taqinchoqning tashqi ko‘rinishi yoki shaklini, balki uning tarixi va geografik manbaini ham ifoda etadi. Bu erda “qashqarboldoq” nomiga alohida e’tibor qaratish lozim: “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ta’kidlanishicha, qashqarboldoq – isirg‘aning XVIII asrda Farg‘ona vodiysiga qashqarliklar keltirgan, halqa shaklidagi turidir[12].

Ba’zi taqinchoq buyumlarining nomlarida boshqa etnoslar yoki etnik guruhlar nomi aks etgan. Masalan, no‘g‘oyzirak, tatarchazira, siganchaboldoq, aravaboldoq kabi. Bunday nomlar xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar, hunarmandchilik an’analari va tarixiy munosabatlarning leksik ifodasi sifatida qaralishi mumkin.

Qoraqalpoq tilida esa taqinchoq buyumlarining nomlanishida o‘simliklar bilan bog‘liq leksemalar keng qo‘llanadi. Misol uchun, gùl, bùr, bùrshik, japíraq, paxta, g‘awasha, sobíq, soyaw, qālempir kabi so‘zlar asosida yuzaga kelgan nomlar tabiatga yaqinlik va badiiy tassavurning xalq leksikasidagi ifodasidir. Masalan, paxtagùl sırǵa, japıraq sırǵa, bùrshikli sırǵa, sobıqlı sırǵa, soyaw sırǵa kabi. Bu nomlarda o‘simliklarning shakli, o‘xshash xususiyatlari asos bo‘lib xizmat qilgan. Masalan, “japıraq” kabi nomlar sirg‘aning yaproqqa o‘xshash bezakli shaklga egaligini bildiradi. O‘zbek tilida ham fitonimlar bilan bog‘liq zeb-ziynat nomlari uchraydi. Jumladan, anjir boldoq, jiydali boldoq, jiydasiz boldoq kabi. Bunday nomlar xalqning estetik qarashlari, tabiatga munosabatini aks ettiradi.

Sulíw sùy sen meni – deydi sol hawaz,

Sırǵalı qız, kel qushaǵıma.

Xulosa. Har bir xalqning taqinchoq buyumlarini nomlashdagi o‘ziga xos yondashuvi – uning madaniy merosi, tilning leksik salohiyati va nomlash an’analarining boyligini namoyon qiladi. Bu leksemalar tilshunoslik, etnografiya va xalq amaliy san’ati tadqiqotlari uchun muhim material vazifasini o‘taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusupov I. Tan’lamali shig’armalari. I tom. – Nukus: Qaraqalpaqstan,1978.

2. Сейтназарова И., Зайрова Қ. Қарақалпақ тилиндеги тағыншақ атамалары. Оқыў қолланба. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2020

3. Қазақ әдеби тілінің сөздігі. Он бес томдық. II том. А-Б. – Алматы, 2006

4. Türkmen diliniň düşündirişli sözlügi. I tom. A-Ž. – Aşgabat: Ylym, 2016.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Birinchi jild, A-D. – Toshkent: «O‘zbek milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2006

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

KONSEPT VA KONSEPTOSFERA TUSHUNCHALARINING LINGVOKOGNITIVLIK NAZARIYA ASOSLARIDAGI AHAMIYATI

Karimxojaeva Dilafruz
Qoraqalpoq davlat universiteti Chet tillari fakulteti ingliz tili va adabiyoti kafedrasi stajyor o‘qituvchisi

Annotatiya. Ushbu maqolada konsept va konseptosfera tushunchalarining lingvokognitiv munosabat asosidagi nazariy asoslari tahlil qilinadi. Konseptlar til va tafakkur kesishgan nuqtada joylashgan kognitiv birliklar sifatida qaralib, ularning semantik, madaniy va psixologik xususiyatlari o‘rganiladi. Tadqiqotda deskriptiv-analitik, kognitiv-lingvistik, semantik, komparativ va korpus lingvistikasi metodlaridan foydalanilgan bo‘lib, bu metodlar orqali konseptlarning til tizimidagi aks etishi, madaniyatlararo farqlar va real matnlardagi kontekstual qo‘llanilishi chuqur tahlil qilingan. Natijada konsept va konseptosfera tildagi semantik strukturalarning chuqur kognitiv qatlamlarini ifodalovchi muhim birliklar sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: *Konsept, konseptosfera, lingvokognitiv tahlil, kognitiv lingvistika, semantik tahlil, konseptual metafora, madaniyatlararo farqlar, til va tafakkur.*

ОСОБЕННОСИ ПОНЯТИЙ КОНЦЕПТ И КОНЦЕПТОСФЕРА В ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ ОСНОВЕ ЛИНГВОКОГНИТИВИСТИКИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы понятий «концепт» и «концептосфера» в рамках лингвокогнитивного подхода. Концепты анализируются как когнитивные единицы, находящиеся на пересечении языка и мышления, с акцентом на их семантические, культурные и психологические особенности. Исследование основано на использовании дескриптивно-аналитического, когнитивно-лингвистического, семантического, компаративного и корпусного методов, что позволило глубоко изучить реализацию концептов в языковой системе, их интеркультурные различия и контекстуальное использование в реальных текстах. В результате концепт и концептосфера рассматриваются как важнейшие элементы, отражающие глубинные когнитивные слои семантических структур языка.

Ключевые слова: Концепт, концептосфера, лингвокогнитивный анализ, когнитивная лингвистика, семантический анализ, концептуальная метафора, межкультурные различия, язык и мышление.

SIGNIFICANCE OF THE CONCEPT AND CONCEPTOSPHERE IN THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF LINGUOCOGNITIVE ASPECT

Abstract. This article explores the theoretical foundations of the concepts «concept» and «conceptosphere» within a linguocognitive framework. Concepts are examined as cognitive units located at the intersection of language and thought, with attention to their semantic, cultural, and psychological characteristics. The study employs descriptive-analytical, cognitive-linguistic, semantic, comparative, and corpus-based methods, enabling an in-depth analysis of how concepts are represented in the language system, their intercultural variations, and their contextual use in real texts. As a result, concepts and the conceptosphere are interpreted as key units reflecting deep cognitive layers of semantic structures in language.

Keywords: Concept, conceptosphere, linguocognitive analysis, cognitive linguistics, semantic analysis, conceptual metaphor, intercultural differences, language and thought.

Kirish. Til - bu inson tafakkurining ifodasi, madaniyatining aks-sadosi, ma’naviyatining ramzi sifatida insoniyat tarixida eng muhim ijtimoiy hodisalardan biri bo‘lib kelgan. Til orqali inson atrof-muhitni anglaydi, voqea-hodisalarni baholaydi, ichki kechinmalarini ifodalaydi va madaniyatini avloddan-avlodga yetkazadi. Shuning uchun tilshunoslikning yangi davrda shakllanayotgan sohalaridan biri bo‘lgan lingvokognitiv yondashuv tilda aks etgan tafakkur strukturasi va madaniy semantikani o‘rganishga qaratilganligi bilan alohida e’tiborni tortmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda «konsept» va «konseptosfera» tushunchalari zamonaviy lingvistik tahlilning markaziy obyektiga aylangan. Bu tushunchalar til bilan tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib berish, til birliklari orqali shakllangan kognitiv tuzilmalarni tadqiq etish imkonini yaratadi. Konsept - bu inson ongidagi umumlashgan bilimlar, madaniy qadriyatlar va axloqiy mezonlar majmuidir. Konseptosfera esa bir xalq yoki til doirasida shakllangan konseptlarning umumiy tizimi hisoblanadi [5, 53-64]. Bu tushunchalar orqali biz tilni nafaqat muloqot vositasi, balki bilimlarni saqlovchi va yetkazuvchi kognitiv tizim sifatida tushunamiz. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi globallashuv va madaniy almashinuv davrida tillararo va madaniyatlararo farqlarni chuqurroq tushunish uchun konseptual tahlil muhim vositaga aylanmoqda. Har bir til o‘ziga xos konseptual dunyoqarashni shakllantiradi va o‘zining konseptosferasiga ega bo‘ladi. Demak, tilshunoslikda mazkur birliklarni lingvokognitiv jihatdan o‘rganish orqali inson tafakkurining madaniy ildizlarini, ularning shakllanish mexanizmlarini chuqurroq tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Ushbu maqolada konsept va konseptosfera tushunchalarining nazariy asoslari, ularning lingvokognitiv xususiyatlari, tilda qanday ifodalanishi va madaniyatlararo xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot deskriptiv-analitik, kognitiv-lingvistik, semantik, komparativ va korpus lingvistikasi metodlari asosida olib borilgan bo‘lib, bu metodlarning uyg‘unligi asosida konseptual birliklarning til va tafakkur o‘rtasidagi o‘rni aniqlanadi.

Metodologiya. Konsept va konseptosfera - bu zamonaviy tilshunoslikda ko‘p darajali, murakkab, shu bilan birga g‘oyat muhim tushunchalar bo‘lib, ularni o‘rganish oddiy bir usul

yoki bir metod bilan cheklanib qolishi mumkin emas. Shu sababli ushbu tadqiqot turli yondashuvlarni o‘zida birlashtirgan holda olib borildi. Har bir metod - bu tushunchaga yaqinlashishning o‘ziga xos yo‘li, har biri o‘ziga xos yorituvchi nurlar kabi, tadqiqotga boylik bag‘ishladi. Eng avvalo, biz deskriptiv-analitik metodga murojaat qildik. Bu yondashuv orqali konsept tushunchasining o‘zi, uning tarixiy ildizlari, tilshunoslikdagi rivojlanish yo‘li haqida ilmiy manbalar tahlil qilindi. Masalan, S.A. Askoldov-Alekseev konsepsiyasini «tafakkur vositasi» deb ataydi va uni madaniyatga oid bilimlarning umumiy qatlami sifatida ko‘radi [1]. Shu bilan birga, Z.D. Popova va I.A. Sternin konsepsiyasi bilim kvanti - ya’ni ongdagi strukturaviy birlik deb tushuntiradi [6]. Ularning bu fikrlari konseptning oddiy tushuncha emas, balki tafakkurdagi o‘ziga xos kognitiv birlik ekanligini isbotlaydi. Deskriptiv metod bizga ushbu terminlarning chuqur ma’naviy va madaniy yukini tushunishga imkon berdi. Biroq tushunchani faqat ta’riflar orqali anglab bo‘lmaydi - uning fikrlashda qanday ishlashini ham tushunish zarur. Shu maqsadda kognitiv-lingvistik tahlil metodidan foydalanildi. Bu yondashuv til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab aloqalarni ochib beradi. G. Lakoff va M. Jonson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi asosida til birliklari ortida yashirinib yotgan kognitiv modellar aniqlab borildi [3]. Masalan, «ko‘ngil», «yurak», «ona» kabi so‘zlar biz uchun shunchaki oddiy atamalar emas, balki xalqning emotsional dunyosi, dunyoni qanday ko‘rishini bildiradigan konseptual birliklardir. Bu metod yordamida til birliklari orqali milliy tafakkurning qanday tuzilganligini o‘rganish mumkin bo‘ldi. Konseptning tildagi ko‘rinishi esa, albatta, semantik tahlilsiz to‘liq ochilmaydi. Shuning uchun biz semantik metodga ham murojaat etdik. Bu usul har bir konseptning qanday leksik birliklar orqali ifodalanishini, ularning asosiy va qo‘shimcha ma’nolarini, obrazli tasvirlarda qanday shakllanishini ko‘rsatdi. Masalan, «erkinlik» konsepti uchun «ozodlik,» «hur» kabi so‘zlar bilan birga «zanjirsiz hayot,» «bo‘shliq» kabi metaforalar ham mavjud. Ular orqali insoniyat erkinlikni qanday tasavvur etishi, qanday his etishi ko‘rsatiladi. Semantik yondashuv konseptni tildagi semantik maydonlar orqali ko‘rib chiqish imkonini berdi. Konsepsiyalar o‘z-o‘zidan mavjud emas - ular madaniyat bilan chambarchas bog‘liq. Har bir til o‘z xalqining dunyoqarashi qandayligini, qanday qadriyatlarga ega ekanini ifodalaydi. Shu sababli bizlar komparativ metoddan foydalanib, konseptlarni madaniyatlararo qiyosiy tahlilga tortdik. Masalan, «oila» tushunchasi qoraqalpoq madaniyatida keng doiradagi qarindoshlarni qamrab oluvchi jamoaviy birlik bo‘lsa, ingliz tilida u tor doiradagi - ota-ona va farzandlar bilan cheklangan yadroviy tushunchani bildiradi. Yoki «mehmon» konsepsiyasi - bizda izzat-hurmat belgisi bo‘lsa, g‘arbda u ko‘proq formallashtirilgan ijtimoiy maqomga ega. Bu metod konseptlarning universal va milliy xususiyatlarini taqqoslash imkonini berdi. Zamonaviy tilshunoslikda amaliyotga asoslangan tahlillar muhim ahamiyatga ega. Shu sababli biz korpus lingvistikasi elementlaridan ham foydalandik. Internet matnlari, adabiy asarlar, zamonaviy lug‘atlar orqali tushunchalarning real hayotdagi qo‘llanilishi, ularning kontekstdagi ma’nolari, emotsional yoki metaforik yuklari tahlil qilindi. «Vatan» konsepti qanday obrazlarda uchraydi? «Ona» degan so‘z bilan qofiyalanadimi yoki «tuproq» bilanmi? Ushbu savollarga javob topish uchun korpuslar asosida

empirik misollar to‘plandi. Shunday qilib, konsept va konseptosferani o‘rganishda har bir metod o‘zining alohida hissasini qo‘shdi. Nazariy yondashuvlar bizga tushunchaning mohiyatini tushunishga, kognitiv tahlil konseptual xaritalarni aniqlashga, semantik metod ularning tildagi aksini tahlil qilishga, komparativ metod esa madaniyatlararo tafovutni yoritishga yordam berdi. Korpus lingvistikasi esa nazariy qarashlarni real til faktlari bilan bog‘lab berdi. Bu kompleks, ko‘p qirrali metodologik yondashuv, shubhasiz, tadqiqotning chuqurligi va ilmiy asoslanganligini ta’minladi. Konseptlarni tahlil qilish - bu nafaqat tilni, balki inson tafakkuri, madaniyati, tarixini ham tushunish demakdir.

Natijalar. Konsept va konseptosfera masalalarini chuqur tahlil qilish orqali biz nafaqat tilning semantik va tuzilmaviy xususiyatlarini, balki inson tafakkurining madaniy qatlamlari, hissiy tajribalari va ijtimoiy ongdagi umumlashgan obrazlarni ham anglash imkoniyatiga ega bo‘ldik. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan metodlar asosida quyidagi asosiy ilmiy natijalarga erishildi.

Avvalo, deskriptiv-analitik metod orqali konsept tushunchasining zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni aniqlashtirildi. Turli olimlar - Askoldov-Alekseev, Stepanov, Popova va Sternin, Kubryakova, Shvedova tomonidan tushunchaga berilgan ta’riflar tahlil qilinib, bu tushuncha tafakkurning muhim birliklaridan biri sifatida umumlashtirilib tasniflandi. Har bir muallif tushunchaga o‘zining ilmiy maktabi, yondashuvi asosida qaraydi, bu esa bizga tushunchalar tabiatining ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatdi. Kognitiv-lingvistik yondashuv asosida esa til birliklarining ortida turgan konseptual xarita modellari ochib berildi. «Ko‘ngil,» «ona,» «yuz» kabi so‘zlar nafaqat leksik birlik, balki xalqning butun madaniy-estetik qarashlarini jamlaydigan semantik o‘choq sifatida namoyon bo‘ldi. Tadqiqot natijasida bunday so‘zlar orqali madaniyatga xos bo‘lgan emotsional, psixologik va axloqiy qadriyatlar til tizimi orqali ifodalanishi aniqlandi. Semantik tahlil davomida esa, tushunchalarning ichki qatlamlari - denotativ, konnotativ va assotsiativ ma’nolari tizimlashtirildi. Masalan, «erkinlik» tushunchasi lug‘aviy jihatdan erkinlik ma’nosini bildirsa-da, madaniy konnotatsiyada u shaxsiy mustaqillik, qadr-qimmat, o‘zligiga sadoqat bilan boyitilgan. Konseptual maydonlarni tuzish orqali turli birliklar o‘zaro qanday semantik aloqada ekanligi ko‘rsatildi. Bunda, metaforik ifodalar, frazeologik birliklar va sinonimik tizimlarni tahlil qilish alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Qiyosiy tahlil esa milliy tafakkurga xos konseptual tuzilmalarning xalqdan-xalqqa qanday farqlanishini ko‘rsatdi. «Oila» va «mehmon» konsepsiyalari asosida olib borilgan qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, til birliklari orqali har bir xalq o‘zining tarixiy-madaniy modelini namoyon etadi. Qoraqalpoq madaniyatidagi «mehmon» tushunchasi - izzat va hurmat belgisi bo‘lsa, ingliz madaniyatida bu tushuncha ko‘proq soddalashtirilgan, rasmiylashtirilgan mehmondo‘stlik munosabati sifatida namoyon bo‘ladi. Bu orqali konseptlar universal bo‘lishi mumkin, biroq ularning ifoda usuli va mazmun chegaralari madaniyatga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Korpus lingvistikasi asosida olib borilgan kuzatishlar esa, tushunchalarning zamonaviy matnlardagi haqiqiy ifodasini ko‘rsatdi. «Vatan,» «ona,» «tuproq» kabi tushunchalarga oid so‘zlar, badiiy asarlar va ommaviy axborot vositalarida qanday ifodalanishi aniqlanib, tushunchalar real

kommunikativ kontekstda qanday semantik va emotsional yuk bilan qo‘llanishi aniqlandi. Shu bilan birga, ayrim tushunchalar vaqt o‘tishi bilan ma’no kengayishiga yoki torayishiga uchragani kuzatildi. Yuqoridagi natijalar, albatta, konsept va konseptosfera tushunchalarining tildagi mavjudligi va ifodalanish usullarini aniq va tizimli tarzda o‘rganishga xizmat qildi. Bu esa lingvistik tahlilni tafakkur va madaniyat bilan bog‘laydigan kompleks yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Muhokama. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, konsept va konseptosfera nafaqat tilshunoslik, balki tafakkur, madaniyat va psixologiya bilan bog‘liq murakkab hodisalardir. Ularni birgina yondashuv orqali o‘rganish cheklangan samara beradi. Shu sababli qo‘llanilgan metodlarning har biri konsepsiyani turli nuqtai nazardan aks ettirishga xizmat qildi. Deskriptiv-analitik metod orqali konseptning nazariy asoslari ochib berildi. S.A. Askoldov, Yu.S. Stepanov, Z.D. Popova va I.A. Sterninlarning qarashlari konseptning tafakkurdagi o‘rnini ko‘rsatadi. Konsepsiyalar tilda emas, ongda shakllanadi, til esa ularning tashqi ko‘rinishidir. Kognitiv-lingvistik tahlil til birliklari ortida yashiringan konseptual modellarni ochib berdi. Masalan, «ko‘ngil,» «yurak,» «ona» kabi so‘zlar xalq tafakkuridagi emotsional va madaniy yuklamalarni bildiradi. Semantik tahlil esa, tushunchalarning mazmuniy qatlamlarini - asosiy va qo‘shimcha ma’nolarini aniqlashga xizmat qildi. Til nafaqat nom beradi, balki dunyoni qanday qabul qilishimizni ham bildiradi. Komparativ metod orqali milliy va madaniy o‘ziga xosliklar ochib berildi. Masalan, «mehmon» tushunchasi o‘zbek va g‘arb madaniyatlarida turlicha talqin qilinadi. Bu tushunchalarning universalligini, biroq ularning mazmuni madaniy kontekstga bog‘liq ekanligini isbotlaydi. Korpus lingvistikasi orqali esa tushunchalarning zamonaviy matnlarda qanday qo‘llanilishi, ularning real hayotdagi semantik va emotsional yuklari kuzatildi. Umuman olganda, konsept va konseptosfera tahlili tilshunoslikni tafakkur va madaniyat bilan bog‘laydigan muhim sohadir. Tadqiqotdagi metodlarning uyg‘unligi mazmunli va chuqur tahlilga erishishga imkon berdi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot konsept va konseptosfera tushunchalarining murakkab va ko‘p qatlamli tabiatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tushunchalar til birliklaridan chuqurroq, inson tafakkurining semantik va madaniy asosida shakllanadigan kognitiv birliklardir. Ular insoniyat tajribasi, qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiradi. Deskriptiv, kognitiv, semantik, komparativ hamda korpus usullarining uyg‘un qo‘llanilishi orqali konseptlarning nazariy mohiyati, til tizimidagi aks etishi va madaniy kontekstdagi o‘zgaruvchanligi ochib berildi. Xususan, til birliklari orqali shakllangan tushunchalar xalq tafakkurining ifodasi sifatida tilda o‘z aksini topadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, tushunchalar universal bo‘lishi mumkin, lekin ularning mazmuni har bir xalq madaniyatiga xos tarzda ifodalanadi. Bu esa konsept va konseptosferaning lingvistik, psixologik va madaniy jihatlarini uyg‘un holda o‘rganishni taqozo etadi. Xulosa qilib aytganda, tushunchalarni lingvokognitiv yondashuv asosida tahlil qilish orqali til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqurroq anglash imkonini berdi. Bu esa tilshunoslikda konseptual tadqiqotlarning dolzarbligi va istiqbolini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аскольдов С. А. Концепт и слово // Русская речь. Под ред. JL В. Щербы. Д., Academia, 1928. Новая серия, II. С. 28—44; То же. // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. М., 1997. С. 267-279.

2. Кубрякова Е. С. Языковое сознание и языковая картина мира // Филология и культура. Материалы Международной конференции. Тамбов, 1999. Ч. 1. С. 6-13.

3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors we live by. Chicago: University of Chicago Press.

4. Маслова, В.А. Лингвокультурология Текст. / В.А. Маслова. — М.: Академия, 2001. — 208 с.

5. Никитин М.В. Развернутые тезисы о концептах // Вопросы когнитивной лингвистики. 2004. №1. - С. 53-64.

6. Попова 3. Д., Стернин И. А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж,. 1999. – 30 с.

7. Степанов Ю. С. Концепты. Тонкая пленка цивилизации. — М.: Языки славянских куль- тур, 2007. — 248 с.

8. Шведова Н. Ю. К определению концепта как предмета языкознания // Языковая личность: Текст — Словарь — Образ мира. Сб. в честь 70-летия члена-корреспондента РАН Ю. Н. Караулова. М.: 2006. С. 506-510.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

QORAQALPOQ MAKTABLARIDA BILINGVIZM SHAKLLARI TIPOLOGIYASI MUAMMOSI VA ALOQA TILLARINING UMUMIY LEKSIK FONDI

Bekbosinova Dilfuza Kuralbayevna
Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qoraqalpoq maktablarida bilingvizm holati, uning shakllari va tillararo interferensiya muammolari tahlil qilinadi. Unda, ayniqsa, qoraqalpoq-o'zbek va qoraqalpoq-ingliz tillari o'rtasidagi fonetik, leksik-semantik, grammatik va frazeologik aralashuv masalalariga e'tibor qaratilgan. Maktab o'quvchilari nutqida yuzaga keladigan interferensiya holatlari, ularning sabablari va bilingv muhitdagi ta'siri zamonaviy lingvistik va psixolingvistik nuqtai nazardan yoritiladi. Shuningdek, bilingvizmning kognitiv jihatlari, ta'limga ta'siri va sotsiolingvistik omillari haqida ilmiy xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: Bilingvizm, interferensiya, fonetik aralashuv, leksik-semantik farq, frazeologik tizim, qoraqalpoq tili, ingliz tili, postpozitsiya, predlog, kognitiv faoliyat, sotsiolingvistika.

ПРОБЛЕМА ТИПОЛОГИИ ФОРМ БИЛИНГВИЗМА В КАРАКАЛПАКСКИХ ШКОЛАХ И ОБЩИЙ ЛЕКСИЧЕСКИЙ ФОНД ЯЗЫКОВ КОММУНИКАЦИИ

Аннотация. В данной статье анализируется состояние билингвизма в каракалпакских школах, его формы и проблемы межъязыковой интерференции. Особое внимание уделяется фонетическому, лексико-семантическому, грамматическому и фразеологическому взаимодействию между каракалпакским, узбекским и английским языками. Интерференционные явления в речи школьников, их причины и влияние билингвальной среды освещаются с позиций современной лингвистики и психолингвистики. Также представлены научные выводы о когнитивных аспектах билингвизма, его влиянии на обучение и социолингвистических факторах.

Ключевые слова: билингвизм, интерференция, фонетическое смешение, лексико-семантические различия, фразеологическая система, каракалпакский язык, английский язык, постпозиция, предлог, когнитивная деятельность, социолингвистика.

THE PROBLEM OF THE TYPOLOGY OF FORMS OF BILINGUISM IN KARAKALPAK SCHOOLS AND THE COMMON LEXICAL FOUNDATION OF COMMUNICATION LANGUAGES

Abstract. This article analyzes the state of bilingualism in Karakalpak schools, its forms, and the issues of interlingual interference. Special attention is given to phonetic, lexical-semantic, grammatical, and phraseological interference between Karakalpak, Uzbek, and English languages. Interference phenomena in students' speech, their causes, and the effects of a bilingual environment are examined from the perspectives of modern linguistics and psycholinguistics. The article also presents scientific conclusions on the cognitive aspects of bilingualism, its impact on education, and sociolinguistic factors.

Keywords: bilingualism, interference, phonetic blending, lexical-semantic differences, phraseological system, Karakalpak language, English language, postposition, preposition, cognitive activity, sociolinguistics.

Kirish.

Qoraqalpoq maktablarida ko‘p tillilik holati ko‘p yillardan buyon kuzatiladi. O‘quvchilar ko‘pincha ona tili (qoraqalpoq), davlat tili (o‘zbek), aloqa tili (rus) va chet tili (ingliz)ni o‘rganishga majbur bo‘ladilar. Bu holat esa tabiiy bilingvizm va sun’iy bilingvizm turlarining o‘zaro aralashuvi, kod-almashinuvi, interferensiya, shuningdek umumiy leksik fond hosil bo‘lishiga olib keladi. [1] Qoraqalpoq maktablarida bilingvizm tobora keng tarqalmoqda. Ikki va ko'p tilli muhitda ta'lim olayotgan o'quvchilar nutqida turli xil tillararo ta'sirlar (interferensiyalar) kuzatiladi. Bu holat ayniqsa fonetik, leksik, grammatik va sintaktik darajalarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Qoraqalpoq va ingliz tillarining tovush tizimi bir-biridan tubdan farqlanadi. Unli va undoshlar tizimidagi tafovutlar natijasida qoraqalpoq o‘quvchilari inglizcha nutqda tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qiladi. Xususan, yumshoq undoshlar va undoshlar to‘planmasi mavjud bo‘lgan ingliz so‘zlari talaffuzida qiyinchiliklar kuzatiladi[2]. Qoraqalpoq adabiy tili o'zi uchun yangi soha - ommaviy aloqa sohasi (xususan, televideniye, radio, gazeta, jurnal, kino, adabiyot, san'at)ga xizmat qiladi, bu ikki tomonlama ikki tillilikning shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo'shadigan aloqa (o'zbek, ingliz, rus) tillarining ijtimoiy funksiyalari respublikada kengayib borayotganidan dalolat beradi. Agar paradigmaning biron bir a'zosining ishlashi aloqa qiluvchi tillarda o'xshash bo'lmagan boshqa fonetik omillar bilan belgilanmagan bo'lsa, fonetik aralashuv sodir bo'lmaydi[3].

Qoraqalpoq maktablari o'quvchilarida har xil turdagi fonetik interferensiya kombinatsion farqlar, xususan, unli tovushlarning yumshoq undoshlar bilan birikishi va ingliz so'zlarining boshida undosh tovushlarning to'planishi natijasida ham yuzaga keladi[4].

Ingliz tilidagi nutq tovushlari urg'uli bo'g'indan qanchalik uzoq bo'lsa, yuqoridagi qaramlik shunchalik kuchli namoyon bo'ladi. Qoraqalpoq tilining beqaror unlilariga bog'liqligi esa, ularning ingliz tilidagi nutqida ma'lum tovushlarning ishlashiga ma'lum ta'sir ko'rsatadi, ya'ni, aralashuv fonetik nutqning o'zini darajali tashkil etishiga bog'liq bo'ladi. Bu ma'lum bir aralashuvning dolzarbligiga neytrallashtiruvchi ta'sir ko'rsatadigan ikkinchi til nutqining darajali tashkil etilishi ta'sir qiladi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili.

Ingliz tilidagi so'zlarning polisemantik va stilistik xususiyatlari, shuningdek, nomativ va metaforik ma'nolarni ajrata olmaslik qoraqalpoq o'quvchilarida aralashuvga sabab bo'ladi. Bu holat semantik parallellikni buzadi va nutqda noaniqlik keltirib chiqaradi[5].

Leksik-semantik interferensiya qo'llanilgan inglizcha so'zlarning murakkab semantik tuzilishi va stilistik xususiyatlari bilan bog'liq. Ko'pincha interferensiya ingliz tilidagi polisemantik va bir ildizli so'zlarni, shuningdek, mavhum semantikaga ega bo'lgan birliklarni qo'llashda kuzatiladi.

Ingliz so'zlarini asosiy nomativ ma'nolarda ishlatilishi va lotin nomativ yoki majoziy ma'nolardan foydalanish ko'pincha leksik-semantik aralashuvga olib keladi. O'zaro bog'langan so'zlarning semantikasini ajrata olmaslik, o'ziga xos ma'no o'rniga umumiy ma'noli so'zlarni qo'llash va aksincha, uslubiy parametrlarni chalkashtirib yuborish leksik-semantik tillararo va til ichidagi ikki tilli paronimiyani keltirib chiqaradi. Bunday aralashuv nafaqat ona va ingliz tillarining semantik tuzilishidagi farq, balki ingliz tilidagi so'zlarning ichki tizimi bilan ham bog'liq.

Leksik birliklarning ishlashi tizimli xarakterga ega, ya'ni, tilning lug'atini o'zlashtirish so'zlarning makro va mikro maydonida sodir bo'ladi. So'zlarning semantik mikromaydonining bir qismi sifatida faol, dominant va passiv, periferik foydalanishning leksik birliklari ajralib turadi.

Taxlil va natijalar. Ingliz tilida ishlatiladigan va nutqda qo'llaniladigan leksemalarning statistik tahlili shuni ko'rsatadiki, gapirish, tinglash, fikrlash, his qilish, tafakkur faoliyati fe'llari chastotali va dominant fe'llarga bo'linadi, chunki 60% interferensiya hodisalari fe'llarning qo'llanilishi va ularning hosilaviy leksik ma'lumotlari - so'zlarning semantik va tematik guruhlariga bog'liq hisoblanadi.

Qoraqalpoq tilida mavjud bo‘lmagan grammatik kategoriyalar (masalan, jins, zamon, hol) ingliz tilini o‘rganishda ko‘plab xatoliklarga olib keladi. Masalan, jins kategoriyasining yo‘qligi tufayli inglizcha “he” va “she” olmoshlarining noto‘g‘ri ishlatilishi, yoki fe’l zamonlari tizimining chalkashligi tez-tez uchraydi[6]. Inglizcha predloglar va qoraqalpoqcha postpozitsiyalar o‘rtasidagi strukturaviy tafovutlar ham grammatik interferensiyani kuchaytiradi[7].

Bilingvizmda grammatik darajadagi interferensiyaning haqiqiy maydoni ikki tilli (va nafaqat u) hech qanday grammatik kategoriya va tushunchalarga murojaat qilmasdan ikkinchi tilda nutq bilan bog'liq.

Qoraqalpoq maktablarida ingliz tilini o'rganayotgan 4-5 va 6-9-sinf o'quvchilarida uchraydigan interferensiya hodisalarining eng ko'p soni (5 mingdan 3,5 mingga yaqin) hol, jins va aspekt kategoriyasiga ega bo'lgan so'zlarni qo'llashda sodir bo'ladi[8]. Agar qoraqalpoq xalqining ona tilidagi inglizcha jihat va holat kategoriyasini sintaktik va boshqa yo'llar bilan ifodalash mumkin bo'lsa, unda qoraqalpoq tilining lingvistikasida jins toifasi tushunchasi grammatik hodisa sifatida mutlaqo yo'q. Shu munosabat bilan so'zlarning erkaklik, ayollik

ma'nolari bilan qo'llanilishiga ta'sir qiluvchi dominant va qaram omillarini ajratib ko'rsatish kerak.

Ingliz tilidagi predloglarning ma'nolari turli yo'llar bilan: fe'ldagi affikslar va ergash gaplar orqali belgilanadi. Ingliz tilidagi predloglarni qoraqalpoq tiliga postpozitsiyalar yordamida ham, ularsiz ham tarjima qilish mumkin. Postpozitsiyalar, ingliz predloglaridan farqli o'laroq, muhim so'zlardan keyin keladi. Ammo ularning predloglardan farqi faqat bunda emas.

Qoraqalpoq tilining postpozitsiyalari ular shakllangan nutq qismlaridan hali to'liq farqlanmagan. Ko'pgina postpozitsiyalar o'ziga xos ma'nosini yo'qotmagan, ya'ni, ulardan kelib chiqqan so'zlarning ma'nolari o'zining semantik yasalish holatiga ega. Ingliz tilidagi predloglarning ko'p funksionalligi, ularning va ayrim hollarda mavhumligi va qoraqalpoq tilidagi postpozitsiyalariga mos kelmasligi ularni qoraqalpoq o'quvchilari tomonidan assimilyatsiya qilish jarayonida qo'shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Qoraqalpoq tilidagi predlog-holat munosabatlari inglizcha predloglar bilan ma'noga mos keladigan postpozitsiyalar yordamida ifodalanishi mumkin. Qoraqalpoq tilidagi inglizcha predloglarning ma'nolarini ifodalash uchun ma'nosi qaram ot bilan belgilanadigan ma'lumotlardan foydalanilishi mumkin. Aloqa vositasi sifatida ishlatiladigan tillarda bu farqlar interferensiya hodisalarining paydo bo'lishiga yordam beradi.

Frazeologik birliklarning ma'nosi va qo'llanilishidagi farqlar ham tillararo aralashuvga sabab bo'ladi. Bu holat o'quvchilarning nutq madaniyati va stilistik ko'nikmalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Leksik-semantik va frazeologik interferensiya so'zlar va frazeologik birliklarning semantik tarkibidagi, ma'no hajmidagi farqlar, so'z, frazeologik birliklarning boshqa leksik birliklar va bosh gap shakllari bilan birikmasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, qoraqalpoq maktablari o'quvchilarida ingliz tilini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklardan kelib chiqadi.

Psixolog olima Ellen Bialystok ikki tillilikning kognitiv afzalliklari, uning Altsgeymer kasalligi oqibatlariga ta'siri, kattalar va bolalarning ta'lim darajasi bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar haqida fikr bildirib, shunday deydi: "Bilingvizm insonlar hayotida muhim o'rin egallaydi. Katta yoshli odamlarda altsgeymer kasalligini oldini olishda bilingvizm ikki barobar ijobiy natija ko'rsatadi[9]."

Pedagogika, psixologiya sohasida o'rganiladigan barcha fanlardan farqli o'laroq, ikki tillilik dihotomiya emas: hech kim bir tilli yoki ikki tilligina bo'lib butun umr hayot kechirmaydi. Har bir inson ma'lum bir til tajribasiga ega. Binobarin, tilni o'rganishning asosiy muammosi uning aholi o'rtasidagi qadr-qimmatini aniqlashdan iborat. Bunga ikkita yondashuv mavjud. Ikki tillilik ba'zi tadqiqotlarda "hayoti davomida ikki tilda ravon gapiradigan odamlar" deb ta'riflanadi.

Ikkinchi yondashuvga ko'ra, ikki tillilik davomiylikdir. Tadqiqotimizda biz qoraqalpoq maktablari o'quvchilarining ikki tilda - ham qoraqalpoq va o'zbek, ham qoraqalpoq va ingliz tillarida so'zlasha olishi, yoza olishi, tinglab tushunishi ko'nikmalari o'rganildi. Buning uchun tajribada ishtirokchilariga tarqatilgan so'rovnomalarda biz bilingvizmning ingliz tilini

o'zlashtirishdagi ta'sirini o'rganishga harakat qildik[10]. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari oilada va ko'chada kim bilan eng ko'p boshqa tillarda, yoki, bilingv darajada fikrlarini baham qilishlari tadqiq qilindi. Buning uchun biz qoraqalpoq maktablarida qoraqalpoq tilida o'qiydigan o'quvchilariga tajribaning ilk bosqichlarida (2023–2024 o'quv yili) anketa savollari bilan murojaat etdik.

Xulosa. Qoraqalpoq maktablari o‘quvchilarida bilingvizm jarayonida yuzaga keladigan interferensiya holatlari tillarning fonetik, leksik va grammatik tizimlaridagi farqlar bilan bog‘liq. Ushbu holatni inobatga olgan holda, o‘quv jarayonida lingvistik tahlillar asosida metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur. Bu esa bilingv muhitda tillarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.[11]

Yuqorida ko‘rib chiqilgan interferensiya holatlari ta’lim jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu holatlarni kamaytirish uchun o‘quv jarayonida lingvistik tahlil asosida metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Misol uchun, fonetik mashqlar, kontekstual tarjima uslubi, grammatik transformatsiyalar asosidagi darslar yordamida o‘quvchilarning ikkinchi tildagi nutqini aniqroq shakllantirish mumkin[12].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хомидов, А. Билингвизм ва кўп тиллилик. — Тошкент: Фан, 2021
2. Xudayberganova D. Fonetik tizimlararo farqlar va ularning o‘rganilishi. // Til va madaniyat, 2022.
3. Хожаева Г. Лингвистик интерференция ва унинг типлари. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2019
4. Тўраев Қ. Фонетик интерференция масалалари. – Самарқанд: Илм, 2016.
5. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge University Press.
6. Bialystok E. Bilingualism and cognitive development. Psychology Review, 2021.
7. Orinboyeva L. Ingliz va qoraqalpoq tilidagi predlog-postpozitsiya tizimi. – Nukus: Karakalpak Uni., 2022.
8. Ҳамидов А. Икки тиллилик ва унинг когнитив таъсири. – Нукус: Қарақалпоғистон, 2020.
9. Bialystok, E. (2001). Bilingualism in Development: Language, Literacy, and Cognition. Cambridge University Press.
10. Grosjean, F. (1982). Life with Two Languages: An Introduction to Bilingualism. Harvard University Press.
11. Skutnabb-Kangas, T. (1981). Bilingualism or Not: The Education of Minorities. Multilingual Matters.
12. Rasulova Z. Ikki tillilikda grammatika o‘rgatish metodlari. // Til o‘rgatish metodikasi, 2021.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

QORAQALPOQ PUBLITSISTIKASIDA INDIVIDUAL USLUB MASALASI

Tureshova Sarbinaz Muratovna
Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyotining rivojlanish jarayoni, mashhur ijodkorlarning hayoti va ijodiy merosi tahlil qilinadi. Tadqiqotda qoraqalpoq madaniyati, milliy tafakkur va ijtimoiy ongning shakllanishida jurnalistika va adabiyotning o‘rni yoritildi. Metodologik jihatdan tarixiy-tipologik, biografik, matnshunoslik va taqqoslama-tahlil usullari qo‘llanilib, ijodkorlarning asarlari va faoliyati keng qamrovda o‘rganildi. Maqola qoraqalpoq madaniyati va ma’naviyatini chuqur anglash hamda zamonaviy jamiyatda uning ahamiyatini ko‘rsatishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpoq jurnalistikasi, qoraqalpoq adabiyoti, ijodkorlar, milliy madaniyat, ijtimoiy ong, tarixiy-tipologik yondashuv, biografik tahlil, matnshunoslik, taqqoslama-tahlil.

ВОПРОС ИНДИВИДУАЛЬНОГО СТИЛЯ В КАРАКАЛПАКСКОЙ ПУБЛИЦИСТИКЕ

Аннотация. В данной статье анализируется процесс развития каракалпакской журналистики и литературы, а также жизнь и творческое наследие известных деятелей. В исследовании освещается роль журналистики и литературы в формировании каракалпакской культуры, национального мышления и социального сознания. Методологически применялись историко-типологический, биографический, текстологический и сравнительно-аналитический методы для всестороннего изучения произведений и деятельности авторов. Статья направлена на глубокое понимание каракалпакской культуры и духовности, а также на демонстрацию их значения в современном обществе.

Ключевые слова: Каракалпакская журналистика, каракалпакская литература, деятели культуры, национальная культура, социальное сознание, историко-типологический подход, биографический анализ, текстология, сравнительно-аналитический метод.

THE ISSUE OF INDIVIDUAL STYLE IN KARAKALPAK JOURNALISM

Abstract. This article analyzes the development process of Karakalpak journalism and literature, as well as the life and creative legacy of prominent figures. The study highlights the

role of journalism and literature in shaping Karakalpak culture, national mentality, and social consciousness. Methodologically, historical-typological, biographical, textual, and comparative-analytical approaches were applied for a comprehensive study of authors’ works and activities. The article aims to provide a deep understanding of Karakalpak culture and spirituality and demonstrate their significance in modern society.

Keywords: Karakalpak journalism, Karakalpak literature, cultural figures, national culture, social consciousness, historical-typological approach, biographical analysis, textual analysis, comparative-analytical method.

Kirish. Qoraqalpoq adabiyoti va jurnalistikasi o‘zining boy tarixiy ildizlari, milliy an’analarga tayanib rivojlangan uslubi hamda ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuchi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasining madaniy hayotida adabiyot va ommaviy axborot vositalari doimo xalqning fikrini ifodalovchi, zamon voqeligini aks ettiruvchi va yosh avlodni tarbiyalovchi asosiy vosita bo‘lib kelgan. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida qoraqalpoq jurnalistikasi hamda adabiyotida yangi davr boshlandi. Bu davrda ko‘plab ilg‘or fikrli, xalqparvar, adolatli va ma’rifatparvar ijodkorlar yetishib chiqdi. Qoraqalpoq ijodiy muhitida shakllangan jurnalistlar va adiblar nafaqat o‘zining qalam mahsuli bilan, balki jamiyatda ijtimoiy faollik, madaniy uyg‘onish va milliy o‘zlikni anglash yo‘lidagi xizmatlari bilan ham muhim o‘rin tutadi. Ular orasida nasr va she’riyat, publitsistika, adabiy tanqid, tarjimonlik, hamda zamonaviy internet jurnalistikasi yo‘nalishlarida faoliyat olib borgan va qoraqalpoq so‘z san’atining taraqqiyotiga hissa qo‘shgan yirik shaxslar bor. Bugungi maqola qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyoti tarixida o‘z izini qoldirgan taniqli ijodkorlar – Abat Aliyev, Beknazar Ernazarov, Buxarbay Tilewmuratov, Dali Nazberganov, Gulnara Nurlepesova kabi shaxslarning hayoti, ijodi va ularning ijtimoiy-madaniy hayotga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bu ijodkorlarning har biri o‘z davrining ovozi, o‘z xalqining ko‘zgusi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyotining shakllanishida alohida o‘rin tutgan ijodkorlarning hayoti va ijodiy faoliyatini tahlil qilish, ularning jamiyatga ta’sirini ochib berish, shuningdek, hozirgi va kelajak avlod uchun ularning merosidan saboq olish zarurligini asoslab berishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. Qoraqalpog‘iston Respublikasi zamonaviy axborot maydoni va adabiy muhitining shakllanishida jurnalist va yozuvchilarning o‘rni beqiyosdir. O‘zining milliy o‘ziga xosligi, til va madaniyatini saqlab qolishga intilgan qoraqalpoq xalqi hayotida jurnalistikaning ijtimoiy va madaniy ta’siri katta bo‘lgan. Ayniqsa, XX asr o‘rtalaridan boshlab jahon va sovet adabiyoti, shuningdek, mintaqaviy ommaviy axborot vositalari bilan uzviy bog‘liq holda yetuk adib va jurnalistlar yetishib chiqdi. Quyida qoraqalpoq adabiyoti va jurnalistikasining taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ayrim ijodkorlarning hayoti, faoliyati va merosini tahlil qilamiz. A. Aliyevning "Yoshlik g‘ayrat" (1956), "Baxt uchun kurash" (1959), "Bizning qishloqning yigiti" (1961), "Kutgan kun" (1963), "Haqiqat shajarasi" (1973), "Mening

Guljamol" (1974), "Hayot tashvishlari" (1987), "Farz" (1988), "Ko‘rmaganimiz ko‘p ekan" (1991), "Dunyoning qizig‘i" (1993), "Mardlik" xotira kitobi (P. Xolmuratov haqida, 2005) degan hikoya, qissa va romanlari chiqdi. U bir necha qardosh xalqlar yozuvchilarining asarlarini qoraqalpoq tiliga tarjima qilgan. Abat Aliyev qoraqalpoq adabiy tanqidchilik va nasrining rivojida beqiyos o‘ringa ega ijodkordir. 1930-yilda tug‘ilgan ijodkor “Qoraqalpoq dostoni ‘Maspatsha’” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab, milliy epik merosni ilmiy tahlil qilishga yo‘l ochdi. Uning asarlari “Yoshlik g‘ayrati”, “Kutgan kun”, “Ko‘rmaganimiz ko‘p ekan” kabi turli janrlarda bo‘lib, ularning barchasida zamonaviy insonning orzu-umidlari, ijtimoiy o‘zgarishlarga munosabati tasvirlanadi. Shuningdek, u tarjimon sifatida ham faoliyat yuritib, qardosh xalqlar adiblarining asarlarini qoraqalpoq tiliga tarjima qilgan [13, 76-92]. 1992-yilda “Qoraqalpog‘iston xalq yozuvchisi” unvoni bilan taqdirlangan ijodkor qoraqalpoq madaniyatining ustunlaridan biri hisoblanadi. Beknazar Ernazarov (Beknazar Ernazarov; 1954-yil 11-avgust, Taxtako‘pir tumani) - yozuvchi va jurnalist. Mehnat faoliyatini "Qoraqalpog‘iston yoshlari" gazetasining muxbiri bo‘lib ishlashdan boshlaydi. Keyinchalik Qoraqalpog‘iston Respublikasi teleradiokompaniyasi muharriri, "Yetkinshek" gazetasi bo‘lim boshlig‘i, "G‘umsha" jurnali bosh muharriri, "Qoraqalpog‘iston" nashriyoti bosh muharriri o‘rinbosari, "Qoraqalpog‘iston madaniyati" gazetasi bosh muharriri, Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari, "Yozuvchi" jamg‘armasi direktori bo‘lib ishladi. "Kasbiy ta’lim" gazetasi bosh muharriri va qator gazeta-jurnallar ta’sischisi. U 1989 yildan Jurnalistlar uyushmasining, 2001 yildan Yozuvchilar uyushmasining a’zosi. Birinchi asari 1972-yili "Yosh leninchi" gazetasida e’lon qilindi. B. Ernazarovning "Oq qush" (1992), "Ministrning haydovchisi" (1994), "Ming qizning oshig‘i" (1995), "Chek" (1997), "Puls izlagan bola" nasriy kitoblari "Qoraqalpog‘iston" nashriyotida chop etildi. Buxarbay Tileumuratov - qoraqalpoq internet jurnalistikasi tarixida muhim shaxs sanaladi. 2000-yillar boshlarida qoraqalpoq tilida yuritilgan birinchi mustaqil bloglarning asoschilaridan biri sifatida tanilgan. U o‘z bloglarida jamiyatdagi dolzarb muammolar, korrupsiya, atrof-muhit, inson huquqlari kabi masalalarni ko‘tarib chiqqan. 2011-yilda “Oltin qalam” milliy mukofotining internet-jurnalistika yo‘nalishida 1-o‘rinni egallab, mustaqil fikrli jurnalistikaning qanchalik zarur ekanini isbotlagan. Uning faoliyati qoraqalpoq jurnalistikasini yangi bosqichga olib chiqdi. Dali Nazberganov (1913-1942) - mashhur shoir va jurnalist. D.Nazbergenov 1913 yilda Qo‘ng‘irot tumanida tug‘ilgan. 1919-yili hozirgi Nukus rayonining Qo‘tanko‘l qishlog‘iga ko‘chib keladi.1933-yili To‘rtko‘ldagi qishloq xo‘jalik texnikumini tugatib, Qorao‘zak tumanida agronom bo‘lib ishladi. 1934-38-yillari "Qizil Qoraqalpog‘iston" gazetasida bo‘lim boshlig‘i, mas’ul kotib bo‘ldi. U 1942-yili Yozuvchilar uyushmasining raisi bo‘lib saylandi va o‘sha yili samolyot halokatidan vafot etdi [10, 130-148]. D. Nazberganov 1939-yildan Yozuvchilar uyushmasining a’zosi. Shoirning she’rlari 30-yillarning o‘rtalaridan e’lon qilina boshladi. Uning "Baxt nuri" (1936), "She’rlar" (1939), "Biz yengamiz" (1942), "Tanlangan asarlar" (1950-1955), "Asarlar" (1958-1966) to‘plamlari nashr etilgan. Dali Nazberganov qoraqalpoq she’riyatida yangi lirik yo‘nalishni boshlab bergan shoirlardan biridir. Uning “Baxt nuri”,

“She’rlar” va “Biz yengamiz” kabi to‘plamlari 1930–40-yillardagi sotsialistik realizm ruhidagi she’riyat namunalarini ifoda etadi. U she’rlarida Vatan, ozodlik, xalq g‘ururi kabi mavzularni o‘ziga xos ohangda bayon etgan. Shuningdek, “Qizil Qoraqalpog‘iston” gazetasida faoliyat olib borgan Dali Nazberganov o‘z ijodi orqali jurnalistikani she’riyat bilan uyg‘unlashtira oldi. G. Nurlepesova 1961-yil 5-iyunda Qorao‘zak tumanida tug‘ilgan. Shu tumandagi I.Arziyev nomidagi o‘rta maktabni muvaffaqiyatli tamomlagach, Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahsil oladi. G. Nurlepesova qoraqalpoq jurnalistikasida ayollar ovozini ifoda etgan kam sonli vakillardan biri. Toshkent davlat universiteti jurnalistika fakultetini tamomlab, “Yosh Leninchi” gazetasi orqali jurnalistik faoliyatini boshlagan. U ko‘plab tahliliy maqolalar, ijtimoiy lavhalar, intervyular yozgan, ayniqsa, ayollar huquqlari, ta’lim, tibbiyot, oilaviy muammolarni yoritishda faol bo‘lgan. Uning ijodi ijtimoiy ongni uyg‘otish, o‘zgarishlar sari intilish ruhida shakllangan. 1994-98-yillari "Qoraqalpog‘iston ovozi" gazetasida mas’ul kotib, bosh muharrir o‘rinbosari, 1998-yildan boshlab respublika bolalar va o‘smirlar "Jetkenshek" gazetasida bosh muharrir, 2010-yildan Nukus shahri hokimining o‘rinbosari, xotin-qizlar qo‘mitasi raisi bo‘lib ishlab kelmoqda. 1999-2004 yillarda va 2005-2009 yillarda Nukus shahar Kengashi deputati etib saylangan. 2021-yilda "Do‘stlik" ordeni bilan taqdirlandi. G. Nurlepesova 2005-yildan Yozuvchilar uyushmasining a’zosi. Uning "Qaylardasiz, kumush buloqlar?!," "Aslo nochor demang bizni, og‘alar" nomli ikki she’rlar to‘plami nashrdan chiqdi. G‘oyib Yoqubov (G‘oyib Yoqubov; 1937-yil 9-oktyabr, Xo‘jayli) - shoir, tarjimon va jurnalist. 1968-yili Respublika o‘qituvchilar malakasini oshirish institutida kabinet mudiri, 1969-85-yillari "O‘qituvchilar gazetasi"ning Xorazm va Qoraqalpog‘iston bo‘yicha maxsus muxbiri. 1985-1992-yillari Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi, adabiyot jamg‘armasining raisi bo‘lib ishlaydi. "Mayrifat" gazetasining muxbiri, so‘ngra "Amu tongi" gazetasida ishlaydi. Hozir O‘zbekiston Respublikasi "Hurriyat" gazetasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha muxbiri hamda "Qoraqalpog‘iston tongi" gazetasida ishlab turibdi. G‘. Yoqubov 1990-yildan Yozuvchilar uyushmasi a’zosi. G‘. Yoqubovning "Sirli tayoq" (1965), "Sohildagi shamollar" (1988), "To‘rtliklar" (1991), "Muhabbat-hikmat" (2007) kitoblari nashr etildi. U tarjima sohasida T.Qayipberganovning "Sovuq tomchi" (A.Qahhor bilan birga), "Uyqusiz tunlar" (1972) qissalarini o‘zbek tiliga tarjima qildi. G‘.Yoqubov Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining Faxriy yorlig‘i bilan taqdirlangan. Qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyotining taraqqiyotida yuqorida nomlari zikr etilgan ijodkorlarning har biri o‘ziga xos uslub, mavzu va estetik qarashlarga ega bo‘lgan. Ularning ijodi zamonaviy qoraqalpoq madaniyatining shakllanishi, ijtimoiy fikrning rivojlanishi va axborot makonining kengayishida muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, xalq hayotiga yaqinlik, voqealarning real tasviri, milliy qadriyatlarga sadoqat, tanqidiy yondashuv kabi xususiyatlar ularning asarlarini zamonaviy yosh avlod uchun ham dolzarb qiladi. Bu ijodkorlar nafaqat o‘z zamonasi muammolarini yoritgan, balki kelajak uchun milliy o‘zlikni anglash, jurnalistikada mustaqil fikrlilik, adabiyotda estetik go‘zallikni qaror toptirishda barqaror zamin yaratgan. Shunday qilib, qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyotida ularning nomi abadiy saqlanib qoladi.

Metodologiya. Ushbu ilmiy maqolani tayyorlashda qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyoti sohasida faoliyat olib borgan mashhur ijodkorlarning hayoti, ijodi va ularning jamiyatdagi o‘rni chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — qoraqalpoq milliy madaniyati, milliy tafakkur va ma’naviy qadriyatlarning ijodkorlar asarlari orqali qanday ifodalanganligini, shuningdek, ularning ijtimoiy ongni shakllantirishdagi o‘rni va ta’sirini o‘rganishdir. Shu bois, ilmiy izlanishda turli metodologik yondashuvlar birgalikda qo‘llanilib, ilmiy tahlilning aniq, tizimli va keng qamrovli bo‘lishi ta’minlandi. Birinchidan, tarixiy-tipologik yondashuv asosida qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyotining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularni shakllantirgan ijtimoiy-madaniy va siyosiy muhit o‘rganildi. Ushbu yondashuv yordamida ijodkorlarning faoliyatini o‘z davrining tarixiy kontekstida, siyosiy va madaniy sharoitlar bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Bu esa har bir ijodkor asarining milliy, madaniy va tarixiy o‘lchamlarini ochib berishga xizmat qildi. Shu bilan birga, qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyoti rivojida muhim bosqichlar, o‘ziga xosliklar va o‘zgarishlar aniqlanib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zgarish jarayonlari tahlil qilindi. Ikkinchidan, biografik tahlil usuli yordamida tanlab olingan ijodkorlarning hayot yo‘li va ijodiy faoliyati batafsil o‘rganildi. Bu metod orqali ijodkorlarning shaxsiy hayoti, ta’lim olgan muassasalari, faoliyat olib borgan tahririyat va tashkilotlari, shuningdek, dunyoqarashi va ijodiy faoliyatiga ta’sir qilgan ijtimoiy va madaniy omillar tahlil qilindi. Biografik yondashuv asarlarga individual nuqtai nazardan yondashish va ijodkorlarning hayotiy tajribasi bilan ularning ijodi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berishga imkon berdi. Uchinchidan, matnshunoslik va adabiy-tahliliy yondashuv yordamida qoraqalpoq jurnalistlari va yozuvchilarining asarlari chuqur o‘rganildi. Bu usul orqali asarlardagi janr, uslub, til xususiyatlari, badiiy vositalar, mavzu doirasi, g‘oyaviy mazmun va milliy madaniyatni aks ettirish darajasi aniqlanib, adabiy-estetik jihatlarida tahlil qilindi. Shu bilan birga, nasriy, she’riy va publitsistik janrlarda ijodkorlarning o‘ziga xosligi va uslubiy yondashuvlari tadqiq qilindi. Asarlaridagi milliylik, ijtimoiy haqiqatlar va axloqiy qadriyatlarning ifodalanishi nazariy jihatdan muhokama qilindi. To‘rtinchidan, taqqoslama-tahlil metodi orqali qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyotida faoliyat yuritgan ijodkorlarning asarlari va uslublari o‘zaro solishtirildi. Bu metod ijodkorlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni, shuningdek, ularning ijodida aks etgan asosiy mavzu va g‘oyalarni aniqlashga imkon berdi. Taqqoslama-tahlil yordamida qoraqalpoq adabiyotidagi avlodlar, yo‘nalishlar va maktablarning shakllanishi hamda rivojlanishi jarayoni yoritildi. Bu esa tadqiqotda milliy adabiyot tarixining uzviyligini, o‘zgarish va rivojlanishlarini chuqurroq anglash imkonini berdi. Beshinchidan, empirik ma’lumotlar yig‘ish usuli sifatida suhbatlar va intervyular o‘tkazildi. Zamonaviy qoraqalpoq jurnalistlari, adabiyotshunoslar va ijodkorlar bilan olib borilgan suhbatlar, ularning fikrlari va mulohazalari tadqiqotga yangi dalillar va yangicha qarashlar kiritdi. Ushbu metodologiya maqolada yangi ilmiy nuqtai nazarlarni paydo qilish va o‘z vaqtida to‘plangan ma’lumotlarni yanada boyitish uchun xizmat qildi. Shuningdek, tadqiqotda ikkinchi darajali manbalardan keng foydalanildi. Jumladan, kutubxona fondlari, arxiv hujjatlari, qadimgi va zamonaviy davriy matbuot, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar, tarjimai hol kitoblari, esdaliklar

va adabiy-tahliliy asarlar tadqiqot bazasini tashkil qildi. Ushbu manbalar asosida tarixiy ma’lumotlar va faktlar taqdim etildi, hamda zamonaviy ilmiy yondashuvlar yordamida ular qayta tahlil qilindi. Metodologik yondashuvlarning uyg‘unligi va ko‘p qirrali qo‘llanilishi tadqiqotga ilmiy chuqurlik, tizimlilik va obyektivlik berdi. Har bir ijodkorning hayoti va ijodi milliy madaniyat va ma’naviyatni shakllantirishdagi o‘rni yoritildi, qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyotining tarixiy rivojlanish jarayoni, uning bugungi kun talablari bilan bog‘liqligi chuqur tahlil qilindi. Shu bilan birga, maqola milliy tafakkur va madaniyatni anglashda zamonaviy yondashuvlar va an’anaviy qarashlarni birlashtirib, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi.

Natijalar. Ushbu tadqiqot natijalari qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyotida faoliyat yuritgan ijodkorlarning milliy madaniyat, ijtimoiy ong va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi muhim o‘rni va ta’sirini aniq ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida olingan asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyoti o‘zining tarixiy rivojlanishida ijtimoiy-siyosiy voqealar, milliy ozodlik harakatlari va madaniy yangilanishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ijodkorlarning asarlari shu jarayonlarning muhim aks sado bo‘ldi. Ularning ijodi milliy o‘zlikni mustahkamlash, milliy til va madaniyatni rivojlantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qildi. Ikkinchidan, ijodkorlarning asarlarida milliy qadriyatlar, xalqning urf-odatlari, tarixi va ma’naviy dunyosi chuqur aks etdi. Ularning jurnalistik va badiiy ijodida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik kabi ijtimoiy va axloqiy tamoyillar keng yoritildi. Bu esa qoraqalpoq jamiyatining ijtimoiy ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Uchinchidan, turli ijodkorlarning asarlaridagi uslubiy xilma-xillik va mavzuiy boylik qoraqalpoq adabiyoti va jurnalistikasining o‘ziga xos rivojlanish yo‘nalishlarini belgiladi. Nasriy, she’riy va publitsistik janrlarda yaratilgan asarlar o‘zaro uyg‘unlikda bo‘lib, jamiyat hayotining turli qatlamlariga ta’sir ko‘rsatdi. To‘rtinchidan, taqqoslama tahlil natijalari qoraqalpoq adabiyoti va jurnalistikasida avlodlar o‘rtasida uzviylik va yangilanish jarayonlari mavjudligini tasdiqladi. Har bir yangi avlod o‘z oldiga yangi maqsadlar qo‘yib, avvalgi ijodkorlarning an’analarini davom ettirdi va takomillashtirdi. Beshinchidan, zamonaviy qoraqalpoq jurnalistlari va adabiyotshunoslarning fikr-mulohazalari asosida yaratilgan empirik ma’lumotlar tadqiqotning dolzarbligini va amaliy ahamiyatini oshirdi. Bu esa qoraqalpoq madaniyati va milliy o‘zlikni yanada kengroq targ‘ib qilish uchun yangi istiqbollarni ochib berdi. Asarni auditoriyaga yetkazishda uning ta’sirchanligini oshirish publitsistning individual uslubiga bog‘liq. Individning asari mavzusi, problematikasi, kompozitsion yangilikni ko‘rsata olishi, eng asosiysi so‘z funksiyasi leksikasi, frazeologik so‘z birikmalarining qo‘llanilishi muallif tomonidan aytib berilishi (tasvirlanishi) va muallif intonatsiyasida ko‘rinadi. Jamiyatda sodir bo‘layotgan hodisalar, voqealar o‘xshash, mushtaraklikda uchrab turadi. Shuning uchun ham "publitsist uchun mavzu takrorlanishi mumkin, jurnalistning oldida esa materialini boshqalardan farqli qilib nashrga berish emas, balki mavzuni qanday yetkazish masalasi turadi", deb yozadi G.V.Kolosov. Asarning mazmunini tushuntirish, so‘z bilan yetkazish. u oddiy yoki murakkab bo‘lsin, unda hissiy-emotsional, ijtimoiy-estetik, konkret voqelik asosida yaxshi yoki tanqidiy

fikr bera olishi kerak.Shu orqali publitsist davrning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy qiyofasini ko‘rsata olish yo‘llarini o‘ziga xos bera olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Publitsistikada individual publitsist tili, uslubi haqida kam gapiriladi. Biz o‘rganmoqchi bo‘layotgan mavzu mana shu publitsistikada individual yondashuv mavjudligi, uning publitsistik xarakterini o‘rganishni asosiy masala qilib olganmiz. "Boshqaga (o‘zgaga) o‘xshashdan achinarli narsa bo‘lmasa kerak", deb yozadi yana o‘sha muallif G.V.Kolosov. Aslida o‘zlik bu boshqalardan ajralib, alohidalanishni bildiradi. Qandaydir jihatlari bilan ajralib turish bu ijobiy, ammo uslub, tilda yaqinlikning bo‘lishi, o‘xshashlik mualliflik individual yondashuvning bo‘lmasligi, o‘z pozitsiyasini bildira olmaslik deb tushunamiz.Uslub - bu birdan paydo bo‘lmaydi, u tajriba natijasida shakllanadi, rivojlanadi. Demak, muallifning shaxsiy munosabati orqali individ qanday, qanday ko‘ra olishi, tushunish qobiliyatiga ko‘ra publitsist uslubi namoyon bo‘ladi. Masalan Sh.Usnatdinovning "Xirurgning unutilgan kundaligidan" nomli maqolasi muallifning individual uslubi yaqqol namoyon bo‘ldi. T.Masharipovaning "Kampir o‘quvchim" ocherki, O.Abdurahmonovning "Orolim dardim mening" kabi asarlarining bundan boshqa bir qancha mualliflar A.Habipov, O‘.O‘tevliyev, P.Xo‘jamuratova, A.Turekeva, G.Turdishovalarning shaxsiy uslub tahlilida turarlik deb hisoblaymiz. Shuningdek, tadqiqotda foydalanilgan turli manbalar va metodologik yondashuvlar yordamida qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyotining ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘rni, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari va ijodkorlarning jamiyatga ta’siri aniq va batafsil tahlil qilindi. Bu natijalar qoraqalpoq madaniy merosining ilmiy asoslangan yondashuv bilan o‘rganilishiga yangi imkoniyatlar yaratdi. Umuman olganda, maqola natijalari qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyotining o‘ziga xos tarixiy yo‘nalishini ochib berdi, ijodkorlarning milliy madaniyatni shakllantirishdagi beqiyos hissasini tasdiqladi hamda kelajakda ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun ilmiy asos yaratdi.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyotining milliy madaniyatni shakllantirishda, jamiyat hayotini yoritishda va ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylashda muhim rol o‘ynaganligini yana bir bor tasdiqladi. Bu ko‘rsatkichlar avvalgi tadqiqotlar bilan muvofiq keladi, xususan, milliy o‘zlikni mustahkamlash va ijtimoiy ongni rivojlantirishda adabiyot va jurnalistikaning o‘rni haqida yozgan olimlarning fikrlariga to‘liq mos tushadi. Tadqiqot davomida aniqlangan ijodkorlarning asarlaridagi mavzuiy va badiiy xususiyatlar, shuningdek, ularning jamiyatga ta’siri haqida olingan natijalar qoraqalpoq madaniyatining boy va rang-barangligini yoritib berdi. Biroq, ayrim cheklovlar ham mavjud. Masalan, mavjud manbalar va arxiv hujjatlari to‘liq emasligi, ayrim ijodkorlarning ijodiy merosiga oid materiallarning kamligi tadqiqotning chuqurligiga ta’sir ko‘rsatdi. Taqqoslama-tahlil metodining qo‘llanilishi orqali olingan natijalar qoraqalpoq adabiyotining avlodlararo uzviyligini, lekin shu bilan birga har bir avlodning o‘ziga xos ijodiy uslubi va yondashuvini namoyon etishini ko‘rsatdi. Bu holat zamonaviy adabiyotshunoslik nazariyalariga ham mos keladi va milliy adabiyotlarni o‘rganishda chuqur tushunchalar hosil qilish imkonini beradi. Empirik ma’lumotlar, xususan, suhbat va intervyular orqali to‘plangan fikrlar esa qoraqalpoq

jurnalistikasi va adabiyotining zamonaviy rivojlanishi haqida yangi jihatlarni ochib berdi. Bu esa kelajakda yanada kengroq ko‘lamda ilmiy tadqiqotlar olib borishga asos yaratadi. Shuningdek, tadqiqotda foydalanilgan metodologik yondashuvlarning uyg‘unligi qoraqalpoq madaniyatining o‘rganilishida kompleks yondashuvlarning zarurligini yana bir bor ko‘rsatdi. Bu nafaqat tarixiy va adabiy, balki ijtimoiy va madaniy omillarni ham hisobga olish orqali aniq va mukammal tahlil qilish imkonini berdi. Kelajakda qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyotini o‘rganishda raqamli arxivlarni kengaytirish, yangi manbalarni kashf etish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tadqiqotlarning yanada chuqurlashishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, xalqaro taqqoslama tadqiqotlari olib borish ham qoraqalpoq madaniyatining dunyo miqyosida tan olinishiga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyotining milliy madaniyatni rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib berishga xizmat qildi hamda ushbu sohada kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos yaratdi.

Xulosa. Ushbu ilmiy maqolada qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyotining rivojlanish jarayoni, mashhur ijodkorlarning hayoti va ijodiy merosi, shuningdek, ularning milliy madaniyat va ijtimoiy ongga ta’siri batafsil tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari qoraqalpoq adabiyoti va jurnalistikasining milliy o‘zlikni shakllantirishda, ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylashda va jamiyat hayotini yoritishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Metodologik yondashuvlar, jumladan tarixiy-tipologik, biografik, matnshunoslik va taqqoslama-tahlil usullari yordamida ijodkorlarning asarlari va faoliyati keng qamrovda o‘rganildi. Bu esa qoraqalpoq madaniyatining boy va rang-barang ijtimoiy-madaniy muhitda shakllanganligini, har bir avlodning o‘ziga xos ijodiy yo‘nalishi va uslubiga ega ekanligini aniqroq anglashga imkon berdi. Tadqiqot davomida to‘plangan empirik ma’lumotlar zamonaviy qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyotining dolzarb muammolari va istiqbollarini ham yoritdi. Shu bois, kelajakda ushbu sohada yanada chuqur va keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilishi zarurati yuzaga kelmoqda. Natijada, ushbu maqola qoraqalpoq jurnalistikasi va adabiyotining milliy madaniyat, jamiyat va ma’naviyatga qo‘shgan hissasini yanada chuqurroq anglashda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi hamda sohadagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmetov S., Usunov J, Ja’rimbetov Q. A’debiyattanıw atamalarının’ orıssha-qaraqalpaqsha tu’sindirme so’zligi. No’kis, «Bilim», 1994.

2. Bekbergenov A. Qaraqalpaq tilinin’ stilistikası. N., 1990.

3. Berdimuratov E. A’debiy tildin’ funktsionallıqstillerinin’ rawajlanıwı menen qaraqalpaqleksikasının’ rawajlanıwı. Monografiya. – No’kis. 1973. 19-b.

4. Kayda L.G.. Effektivnost publitsisticheskogoteksta. MGU. 1989.

5.Karasev P.S. Problemı teorii publitsistikiLeningradskogo universiteta. 1973.

6. Orazymbetov, Kuanyshbay. "УЧЕНЫЙ ПО ПРИЗВАНИЮ: К 75-летию видного каракалпакского ученого-литературоведа, доктора филологических наук, профессора Курбанбая Кудайназарулы Жаримбетова." *Turkic Studies Journal* 5.2 (2023): 185-194.

7. Pirniyazova, Alima. "Стилистические функции и способы употребления фразеологизмов в каракалпакской литературе." *Turkic Studies Journal* 3.4 (2021): 61-69.

8. Solganik G.Ya. Sintaksicheskaya stilistika. Moskva 1973.

9. Xojanazarova, Nargiza. "THE PURPOSE OF ART IN THE PRINTED WORD IS ALSO DUTIES." *Modern Science and Research* 2.10 (2023): 612-617.

10. Машарипова, Т. Ж. "Публицистика и литература: общее и отличительные особенности." *Вестник Московского университета. Серия 10. Журналистика* 2 (2014): 130-148.

11. Турымбетов, Байрамбай Конысбаевич. "ПРОБЛЕМА НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В КАРАКАЛПАКСКОЙ ЛИТЕРАТУ-РЕ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ КАРАКАЛПАКСКОГО НАРОДНОГО ПИСАТЕЛЯ Г. ЕСЕМУРАТОВОЙ)." *Universum: филология и искусствоведение* 1.11 (125) (2024): 44-49.

12. Юсупов, Конысбай Абылович. "Изучение творчества Конысбай Камалова в академических лицеях." *EDITORIAL BOARD* (2021): 255.

13. Юсупов, Рахметжан. "РОЛЬ ОБРАЗЦОВ УСТНОЙ И ПИСЬМЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ В СБЛИЖЕНИИ КУЛЬТУР ВОСТОКА И ЗАПАДА." *КАЗАХСТАНСКОЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЕ* 9.1 (2024): 76-92.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

HOFIZ SHEROZIY IJODIDA SHAM’ VA PARVONA

Turdiyeva Shodiya Xusniddin qizi
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti,
Toshkent, 100149, O‘zbekiston Respublikasi
e-mail: shturdiyeva1306@gmail.com

Annotatsiya. Sharq mumtoz adabiyoti o‘zining obrazlar xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Mumtoz adabiyot, ayniqsa, tasavvuf adabiyoti uchun obraz she’r mazmunini ochib beradigan asoslardan biri. Xususan, fors adabiyoti bu davr uchun muhim ahamiyatga ega. Fors adabiyoti vakillari asarlarida ko‘plab obrazlar singari mug‘bacha, darvesh, orif, zohid, obid, soqiy, sufiy, gul, bulbul, oshiq, ma’shuq, raqib, ag‘yor, yor, may, murid, murshid, jom, sham’ va parvona obrazlaridan keng foydalangan. Bu obrazlardan sham’ va parvona shoirlarning ijod namunalarida turli mazmunlarni ifodalagan holda ko‘p uchratish mumkin. Fors adabiyotining mahoratli shoirlaridan bo‘lgan Hofiz Sheroziy ijodida istifoda etilgan sham’ va parvona obrazlari ushbu maqolada tahlil etildi. Bunda obrazlarning ma’noviy qatlam jihatidan boyligi, turli tashbehlar orqali bayt mazmunining yoritilishi, ijodkorning so‘zlardan foydalanish mahoratiga alohida ahamiyat berildi. Shoir asarlarida foydalanilgan sham’ va parvona obrazi tahlil qilindi hamda baytlarning ma’nosi sharhlandi. Bu obrazlarning asardagi o‘rni belgilandi.

Kalit so‘zlar va iboralar: tasavvuf, ramziylik, sham’, parvona, obraz, Fors adabiyoti, tashbeh, salaf, timsol, bayt, misra, oshiq, yor.

СВЕЧЕЙ И ПРОПЕЛЛЕРОВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХАФЕЗА ШИРАЗИ

Аннотация: Классическая восточная литература отличается многообразием образов. Для классической литературы, особенно суфийской, образ является одной из основ, раскрывающих содержание поэзии. В частности, персидская литература имеет большое значение для этого периода. Представители персидской литературы, как и многие другие образы, широко использовали в своих произведениях образы мугбача, дервиша, арифа, отшельник, обида, саки, суфийский, цветок, соловей, влюбленный, любовница, противник, враг, друг, вино, студент, учитель, джама, свечей и пропеллер. Эти образы можно встретить во многих примерах творчества поэтов свечи и пропеллер, выражая различные значения. В данной статье проанализированы образы свечой и пропеллер, использованные в творчестве Хафиза Ширази, одного из мастерских поэтов пенсидской литературы. При этом особое значение придавалось богатству образов в духовном плане, раскрытию содержания стиха посредством различных аллегорий и

мастерству автора в словесном творчестве. Проанализированы образы свечой и пропеллера, использованные в произведениях поэта, истолкован смысл стихов. Определено место этих образов в произведении.
Ключевые слова: суфизм, символизм, свеча, пропеллер, образ, персия литература, метафора, предшественник, символ, двустишие, стих, влюбленный, друг.

CANDLE AND PROPELLER IN THE WORK OF HAFEZ SHIRAZI

Abstract. Classical Eastern literature is distinguished by its variety of images. Classical literature, especially for mystical literature, the image is one of the foundations that reveal the meaning of poetry. In particular, Persian literature is of great importance for this period. Representstives of Persian literature, like many other images in their works, widely used the images of mughbacha, dervish, orif, a hermit, obid, cup-bearer, sufi, flower, nightingale, sweetheart, lover, rival, enemy, sweetheart, wine, novice, murshid, goblet, widely used candle or propeller images. These images can be found in many examples of the works of candles or propellers poets, expressing various meaning. The images of candles and propellers used in the work of Hafez Shirazi, one of the masterful poets of Persian literature, were analyzed in this article. In this case, special importance was attached to the richness of the images in terms of the spiritual layer, the illumination of the content of the verse through various allusions, and the skill of the artists in using words. The images of the candle and the propeller used in the poet’s works were analyzed and the meaning of the verses was interpreted. The meaning of these images in the work was defined.
Key words or phrases: Sufism, symbolism, candle, propeller, image, Persian literature, allusion, predecessor, symbol, byte, verse, lover, place.

Kirish

Forsiy adabiyot o‘zining go‘zal tashbehlari, rang-barang obraz va timsollar bilan ajralib turadi. Fors adabiyotining buyuk ijodkorlaridan biri Hofiz Sheroziy ham o‘zining betakror asarlari bilan bu adabiyotga ulkan hissa qo‘shgan. Hofiz ijodi obrazlar xilma xilligi bilan alohida ahamiyatga ega. May, boda, mayxona, gul, bulbul, oshiq, ma’shuq kabi sham’ va parvona obrazlari shoir ijodida muhim o‘rin tutadi. Bu borada Z.Qobilova ham o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Xususan, soqiy, zohid, obi hayvon, junun, balo, may, mayxona, ishq istilohlari, sham’ va parvona obrazlari ko‘p qo‘llaniladi.”[2.71]. Fors she’riyatida sham’ va parvona obrazlarini mohirlik bilan qo‘llagan ijodkorlar nihoyatda ko‘p bo‘lib, shoir bu obrazlarini turli rakurslardan ko‘rsatganligi bilan ulardan ajralib turadi.

Adabiyotlar tahlili

Jahon adabiyotshunosligida sham’ va parvona obrazlari alohida tadqiqot obyekti sifatida Turkiyada o‘rganilgan. Xususan, Fatma Kopuz Chetinkaya 2016-yili “Fors adabiyotida sham’ va parvona” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Gunay Alpay ham sham’ va parvona masnaviylari yuzasidan o‘zining tadqiqotlarini olib borgan. Dr. Sadik Armutlu ham

sham’ va parvona masnaviylari bo‘yicha qator tadqiqotlarni amalga oshirgan. Tadqiqotlarda asosiy e’tibor masnaviylarga qaratilgan bo‘lib, poetik obrazlarning ma’noviy qatlamlari ma’lum darajada o‘rganilgan.

O‘zbek mumtoz adabiyotida ramzillik va obrazlar muhim ahamiyatga ega. Har bir ijodkor obrazlarni o‘zining tasavvuri, e’tiqodidan kelib chiqgan holda ma’noviy boyitib boradi. Sham’ va parvona obrazlari ham shu tarzda boy ma’noviy qatlamlarga ega bo‘l borgan. Ularning badiiy asarda alohida ahamiyatga egaligiga qaramasdan, bu obrazlarning o‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘rnini belgilash yuzasidan yetarli tadqiqotlar olib borilmagan. Garchi sham’ va parvona obrazlari monografik jihatdan o‘rganilmagan bo‘lsa ham Haqqulov I., Rafiddinov S., Salimov I., Eshonqulov H., Mamatqulova T., Bozorova N., Hamroyeva D., Mullaxo‘jayeva K., Qobilova Z., Mamadaliyeva Z., Jumanov R.,Qobilov U. kabi olimlar o‘zlarining nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida biroz to‘xtalib o‘tgan.[6] Olimov Sultonmurod, Sharipov Sharofiddin kabi olimlarning kitoblarida ham bu obrazlar haqida bahs yuritilgan [3.282]. Bu tadqiqotlarda sham’ va parvona obrazlari cheklangan doirada tadqiq etilgan. Hofiz Sheroziy ijodi doirasida sham’ va parvona obrazlari o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ishda qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, struktur tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar

Hofiz Sheroziy g‘azallari tashbehlar, obrazlar xilma-xilligi va obrazlarning ma’noviy qatlamlarga boyligi bilan ahamiyatli. U o‘zining baytlarida sham’ va parvona obrazlarni bir qator ma’nolarda istifoda etadi. Sheroziy ijodida sham’ yorning go‘zalligi, yuzining nurafshonligini tasvirlashda keng istifoda etilgan:

Ayt: “sham’ ketirmangizu, bazm ichra shu oqshom,

Oy yuzli go‘zalning yuzi majlisda ayondur” [1.11].

Shoir yuqoridagi baytda bazmni yoritish uchun bu oqshom sham’ keltirmang, oy yuzli go‘zalning yuzi majlisni yoritadi deya yorning go‘zalligi, chehrasining porloqligini tasvirlaydi.

Shoir boshqa bir o‘rinda sham’ning tik turishi va otash ichra jonidan kechishini oshiqning holiga o‘xshatadi:

Men sham’dek turub tiladim, jon fido qilay,

Men sori tong shamoli kabi esmas u magar [2.17].

Sheroziy sham’ obrazi orqali oshiqni holatini tasvirlaydi. Shoir sham’ni jonini fido qilishga tayyor oshiq tasvirini berishda foydalanadi. Men sham’ kabi turib, jon fido qilishni tiladim der ekan, sham’ning ishq o‘tida jismu joni yonib, sassiz ado bo‘lishini tasvirlaydi. Oshiq sham’ misoli o‘zni fido qilardi, ammo yori tong shamoli kabi u tomon bormaydi.

---

[6] Ҳаққулов И.Ч. Ўзбек тасаввуф шеъриятининг шаклланиши ва тврвққиёти (ғоявийлик, издошлик, образлар олами) ф.ф.д.дис. Т: – 1995, 282 б., Рафиддинов С.С. Атойининг поэтик маҳорати. Ф.ф.н.дис. Т: – 1993, 156 б., Матёқубова Т.Р. Огаҳий шеъриятида анъанавий образлар талқини. Ф.ф.н.дис. Т: – 2001, 134 б., Бозорова Н.П. Алишер Навоий ғазалларида кўнгил образи (“Бадое ул-бидоя” девони асосида). Ф.ф.н.дис. Т: – 2002, 135 б ., Қобилова З.Б. Амирий ва унинг адабий фарлияти. ф.ф.н.дис. Т: – 2007, 134 б ., Мамадалиева З.У. Алишер Навоийнинг “Лисон ут-тайр” достонидаги рамзий образлар тизими. Ф.ф.н.дис. Т: – 2011, 177 б ., Nodir Ramazonov “Alisher Navoiy ijodida faqr talqini va faqir obrazi” Fan. 2015.

Hofiz Sheroziy qator baytlarida oshiqning holini, kechinmalarini, jafolarini tasvirlaydi va ularda sham’ obrazidan unumli foydalanadi:

Misoli tongsanu, man sham’dek bo‘lubman ado
Kulib qarar nechuk etgum bu jonni senga fido [2.30].

Yorni tongga o‘xshatgan holda o‘zini tun bo‘yi yonib tong chog‘i ado bo‘lgan sham’ga o‘xshatadi. Sham’ tunni yoritish uchun yonib ado bo‘ladi, tongga o‘xshagan yor esa olamni yoritadi, ammo ado bo‘laydi. Sham’ yorug‘lik taratar ekan o‘xini fido qiladi. Shoir bu baytda sham’ orqali o‘zni fido qilishlikka ishora qiladi.

Hofiz Sheroziy sham’ va parvona obrazlari juftligidan foydalanar ekan, gul hamda bulbul obrazlarini ham ular bilan birga qo‘llaydi:

Parvona-yu, sham’u, gulu, bulbul yig‘ilibdur,
Yolg‘uzlama, jono, kelib ayshimni raso qil.

Dil berguchiga tokay o‘lur jabru jafolar,
Bir ayla vafo, tangri haqi, tarki jafo qil [2.36].

Shoir yorni oshiqga vafoli bo‘shga, jafoni tark qilishga chorlar ekan sham’, parvona, gul va bulbul ham yig‘ilganligini aytadi. Bu o‘rinda oshiq va ma’shuqning birga bo‘lishiga sham’ va parvona, gul hamda bulbulning birga ekanligi orqali ishora qiladi.

Boshqa bir baytida esa parvonani yolg‘iz istifoda etadi. Baytlarda yosh va yig‘iga alohida ahamiyat beriladi. Parvonani esa tili yo‘qligi, o‘zi nihoyatda zabun ekanligini so‘zlanadi:

Balki bu sir haqida sarv tili so‘zlagusi,
Yo‘qsa parvonada til yo‘q, o‘zi g‘oyatda zabun [2.42].

Baytda sir haqida so‘z yuritiladi va bu sirning sarv tilidan so‘zlanishi, chunki parvonaning tili yo‘qligi va nihoyatda zabun ekanligi aytiladi.

Shoir boshqa bir g‘azalida sham’ va parvona obrazlarini yorning tasviri, o‘ziga xosliklarini ko‘rsatish uchun qo‘llaydi:

Qaysi uyning sham’idir u, qaysi joyda xonasi?
O‘rtadi jonni, so‘rang, kimning erur jononasi?

…Ul saodat sham’ining bazmi erur kimga nasib,
Siz, xudo haqqi, so‘rang, kimdur uning parvonasi? [2.46].

U yorning jonni o‘rtagani, kimning jononasi ekanligi haqida bahs yuritib, uning kimligiga qiziqadi. Shoir uyning sham’i birikmasi orqali kimligi, kimlardanligiga ishora qiladi. Keyingi baytda esa saodat sham’i birikmasidan foydalanib, yorning kimga nasibligi va uning parvonasi kimligi so‘raladi. Bu baytda shoir yorning oshig‘ini, unga erishadigan insonni parvona deydi.

Hofiz quyidagi baytida oy sham’i birikmasi orqali sham’ obrazini nur ma’nosida istifoda etadi:

Nihoyat xiradir hijron tunining yulduzi, ey yor,
Chiqib koshona tomi uzra oy sham’ini muztar qil [2.54].

Hijron tunining yulduzi nihoyatda xiradir. Ey yor, koshona tomining ustiga chiqib uni hijolat qil. Shoir bu tasvir orqali hijrondan ko‘kdagi oy ham xira bo‘lib ko‘rinadi, atrofni esa faqat yorning jamoli yorita oladi deydi.

Fursatni g‘animat bilish, borini qadrlash haqida mulohaza yuritish asnosida shoir sham’ga parvona vaslini g‘animat ekanligini anglashini so‘raydi:

Sen g‘animat anglagil parvonaning vaslini, sham’

Bil, quyosh chiqqach, bu nozik, dilrabo dam qolmagay [2.57].

Quyosh chiqqanidan keyin parvona uning yonida bir fursatga ham qola olmasligini sham’ga aytadi. U sham’ har fursatni g‘animat bilib, parvona yonida bo‘lgan damni qadrlashini, unga jafo qilmasligi kerakligini aytadi.

Hofizning boshqa bir g‘azalida esa sham’ va mum birgalikda keltirish orqali nasihat qiladi:

Sarkashlik etma sham’dek, kuydirmasin dilingni,

Taftida xoratoshni mum aylaguvchi dildor [2.61].

Shoir do‘stiga nasihat qilib, sham’ kabi sarkash qilmaslini, ishq dillarni kuydirishini so‘zlar ekan, dildorning taftidan (ishq..?) xoratosh ham mumga aylanganligini misol qiladi. Ya’ni qattiq toshni ham tafti bilan mumga aylantirguvchi dildor sening ham dilingni kuydirmasin deydi.

Hofizning badiiy mahorati fors adabiyotida ajralib turadi. So‘zlardagi baddiy bo‘yoqdorlik, mohirona qo‘llangan tashbehlar g‘azalllarni yanada mukammallashtiradi. Shoir sham’ning yoritish xususiyatidan foydalangan xolda unda yangi ma’no yuklaydi:

Agar raqibi sham’dir, undan siringni berkit,

Bilgilki sho‘x dilafruz, bandi zaboni yo‘qdir [2.63].

Shoir agar sening raqibing sham’ bo‘lsa, undan siringni berkit deb, sham’ning yorug‘lik taratib atrofni yoritish xususiyatiga e’tibor qaratadi. Agar sirni berkitmasa sham’ o‘z yorug‘ligi bilan bu sirni oshkor qiladi.

Hofiz Sheroziyning nafaqat g‘azallarida, balki, ruboiylarida ham sham’ va parvona obrazlaridan unumli foydalangan:

Na ul sham’ning folin aytib bo‘ladi,

Na kuygan dil holing aytib bo‘ladi.

G‘amim boisi shul, yo‘qdir biror do‘st,

Ki dil so‘z-halolin aytib bo‘ladi[2.85].

Shoir kimsasizligi, biror do‘sti yo‘q ekanligini tasvirlar ekan, tun bo‘yi atroni yoritgan sham’ haqida tashqaridan boqib biror xulosa chiqarib bo‘lmasligini aytadi. Sham’ yonar ekan, atrofni yoritadi. Lekin, qanchalik yorqin yonsa, shuncha tez yonib ado bo‘ladi. Sham’ jismi to tugaguncha olovda kuyadi. Bir qarashda sham’ning nur taratishini ko‘rish mumkin, biroq nur taratish uchun fido bo‘lgan jims, oqayorgan yoshlar ko‘rinmaydi. Shoir birgina shu tasvir orqali har narsa ko‘ringani kabi emasligini, uning mohiyati boshqacha bo‘lishi mumkinligi va ko‘ringan holatga qarab xulosa chiqarmaslik haqidagi fikrlarini izohlaydi.

Hofiz ijodida sham’li birikmalar ham qo‘llanilgan. Ular tasvirni yanada go‘zalroq qilish, ma’noni kuchaytirish, baytga qo‘shimcha ma’nolar yuklashga xizmat qilgan:

Meni yod etmading, chigil sham’i bil,
Bu alam men uchun juda ham mushkul.
Ne chog‘liq o‘ramish dilimni darding,
Dil bildi, men bildim, bildik menu dil[2.90-91].

Yordan arz qilish, ranjish kabi ma’nolarni tasvirlagan yuqoridagi ruboiyda ham chigil sham’i birikmasi istifoda etilgan. Baytda chigil sham’i ma’lum bir urug‘ go‘zaliga nisbatan qo‘llanilgan. Yor o‘sha joyning eng chiroylisi, yuzi nurday porlab turuvchi bo‘lganligini bu birikmadan anglash mumkin. Yor oshiqni eslamaganligi uchun qattiq alam chekadi. Oshiq dardini o‘zi va dilidan boshqa hech kim bilmaydi.

Shoir yig‘ini tasvirlar ekan, sham’ning erish holatidan mahorat bilan foydalanadi:

Hajringda yig‘layman sham’dan ham afzun,
Ko‘zadek ko‘zimdan oqar yosh gulgun.
Dilim siqilgandir misoli qadah,
Chang unin eshitsam, ko‘zdan oqar xun [2.90].

Sening hajringda sham’dan ham ortiq yig‘layman. Ko‘zlarida misoli ko‘za singari gulrang, qizil yoshlar oqgani haqida aytadi. Ko‘nglini qadahga o‘xshatar ekan, uning siqilganlini aytadi. Changing ovozini eshitsa, ko‘zlaridan qon oqadi. Shoir baytlarida keltirilgan sham’ ishq olovida yonib yosh to‘kadi, qahramon esa hajr sabab sham’dan ham ortiq yig‘laydi.

Xulosa

Hofiz Sheroziy fors adabiyotining yorqin figuralaridan biri. Shoir asarlarida sham’ va parvona obrazlari alohida ahamiyatga ega bo‘lgan tilsollardi. Shoir sham’ni yosh, ma’shuq, yor, oshiq, oila a’zosi (kimlardan ekanligi), oy nuri, chiroq; parvonani oshiq, tungi kapalak, mehribonlik ma’nolarida foydalanadi. Hofiz Sheroziy ijodida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan bu obrazlar juftlik, alohida va birikmali holatlarda istifoda etiladi. Shoir oshiq va ma’shuqning tasvirida, ularga nasihat qilishda bu obrazlardan foydalanadi. Darhaqiqat, tasavvufiy adabiyot buyuk bir ummon, Hofiz Sheroziy esa bu ummonning mohir g‘avvoslaridan biri. Uning asarlari, obraz va timsollar tizimi serqirra hamda takrorlanmas. Ijodkor baytlarida o‘zining badiiy mahoratini go‘zal tarzda namoyon etgan. Shoir har bir obrazni o‘ziga xos tarzda istifoda etadi. Har bir obrazi o‘zining ma’nolariga, vazifalariga ega. Shu o‘rinda sham’ va parvona obrazlari ham o‘ziga xosdir. Garchi sharq adabiyoti obrazlar va timsollar keng qo‘llanilsada, ulardan go‘zal baytlarni yozish barcha shoirlarning ham qo‘lidan kelmaydi. Hofiz Sheroziy satrlarida sham’ va parvona obrazlari ma’noviy jihatdan boyidi. Sham’ va parvona oshiq, ma’shuq, yig‘i, ko‘z yoshi, yor jamoli kabi ma’nolarda ko‘plab ijodkorlarning asarlarida foydalanilgan. Bu obrazlar ma’noviy qatlamlarga boyligi, tasvirlashda qulayligi bilan ajralib turadi. Hofiz ijodining ham go‘zal durdonalari shu obrazlar orqali yaratilgan. Tasavvufshunos olim Ibrohim Haqqulov aytganidek, “Tasavvuf – jangchining yo‘li emas, oshiqning yo‘li” [3.177]. Olimning bu fikrlari Hofiz Sheroziyning har misrasida sezilib turadi. Sham’ va parvona obrazlari mohiyatiga ham bu singib ketgan. Shuning uchun ham bu obrazlar nafaqat turkiy adabiyotda, balki forsiy adabiyot, xususan Hofiz ijodida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sheroziy, Hofiz. Hofiz Sheroziy she’riyatidan (Tuzuvchi va kirish so‘zi muallifi Sh. Shomuhamedov. Redkol.: E. T. Ahmadxo‘jayev va boshq.). – T.: O‘zbekiston Kompartiyasi MK nashriyoti, 1985. – 104 b., il. – (Sharq klassiklari merosidan.)

2. Қобилова З.Б. Амирий ва унинг адабий фарлияти. ф.ф.н.дис. Т: – 2007, 134 б.

3. Ҳаққулов И.Ч. Ўзбек тасаввуф шеъриятининг шаклланиши ва тврвққиёти (ғоявийлик, издошлик, образлар олами) ф.ф.д.дис. Т: – 1995, 282 б.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

XORAZM ERTAKLARINING XORIJIY MAMLAKATLARDA O‘RGANILISHI: TARJIMA, TALQIN VA ILMIY TADQIQOTLAR

Zuxra Yuldashova Xasan qizi
Urganch davlat Pedagogika instituti 1-kurs tayanch doktaranti
zyuldashova3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm xalq ertaklarining xorijiy mamlakatlarda qanday o‘rganilishi, tarjima qilinishi va talqin etilishi masalalari tahlil qilinadi. Mavzu doirasida Fattoh Abdullayev, Jumaboy Yusupov va Jabbor Eshonqul kabi olimlarning ilmiy qarashlari asosida Xorazm ertaklarining janriy xususiyatlari, xalqaro maydondagi ilmiy o‘rni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tarjima jarayonidagi muammolar va ularning hal qilinish yo‘llari haqida fikr yuritiladi. Maqola Xorazm ertaklarining xalqaro miqyosda tanilishi va o‘rganilishiga oid yangi ma’lumotlarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: Xorazm ertaklari, folklor, tarjima, talqin, xalqaro tadqiqotlar, janr xususiyatlari

ИЗУЧЕНИЕ ХОРЕЗМСКИХ СКАЗОК ЗА РУБЕЖОМ: ПЕРЕВОД, ИНТЕРПРЕТАЦИЯ И НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы изучения, перевода и интерпретации народных сказок Хорезма в зарубежных странах. В рамках темы рассматриваются жанровые особенности хорезмских сказок и их научное значение на международной арене на основе научных взглядов таких учёных, как Фаттох Абдуллаев, Джумабой Юсупов и Джаббор Эшонкул. Также обсуждаются проблемы, возникающие в процессе перевода, и пути их решения. Статья предоставляет новые сведения, касающиеся признания и изучения хорезмских сказок на международном уровне.

Ключевые слова: хорезмские сказки, фольклор, перевод, интерпретация, международные исследования, жанровые особенности.

STUDY OF KHOREZM FAIRY TALES IN FOREIGN COUNTRIES: TRANSLATION, INTERPRETATION AND SCIENTIFIC RESEARCH

Annotation: This article analyzes how Khorezm folk tales are studied, translated, and interpreted in foreign countries. Within the scope of the topic, the genre-specific features of Khorezm tales and their scientific significance on the international stage are examined based on the scholarly views of researchers such as Fattoh Abdullayev, Jumaboy Yusupov, and Jabbor

Eshonqul. The article also discusses the challenges encountered in the translation process and explores potential solutions. Furthermore, it presents new insights into the recognition and study of Khorezm folk tales on a global scale.

Keywords: Khorezm folk tales, folklore, translation, interpretation, international studies, genre characteristics

Kirish.

Bugungi kunda milliy madaniyat va og‘zaki ijod namunalarini asrab-avaylash, ularni xalqaro ilmiy maydonda o‘rganish va targ‘ib etish muhim vazifalardan biriga aylandi. Xorazm mintaqasining boy folklor merosi, xususan, xalq ertaklari, o‘zining o‘ziga xos janr va uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular nafaqat xalqning tarixiy va madaniy xotirasini aks ettiradi, balki uning axloqiy qadriyatlari va dunyoqarashining teranligini ham namoyon etadi.

Xorazm ertaklarining xorijiy mamlakatlarda o‘rganilishi, ularning tarjima qilinishi va ilmiy tahlili xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirish, xalqaro maydonda O‘zbekiston madaniyatini tanitish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu jarayon xorijiy tillarga tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar, talqinlarda yuzaga keluvchi farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili.

Folklorshunos olimlar Fattoh Abdullayev, Jumaboy Yusupov va Jabbor Eshonqulning ilmiy izlanishlari Xorazm ertaklarining janr va mazmun xususiyatlarini chuqur o‘rganishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularning fikr-mulohazalari, xorijiy mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar bilan birlashib, mavzuning dolzarbligini va ilmiy yangiligini ta’kidlaydi.

Xorazm ertaklari o‘zining boy janriy xilma-xilligi, xalqona uslubi va teran mazmuni bilan ajralib turadi. Fattoh Abdullayevning fikricha, Xorazm folklorining, xususan, ertaklarning o‘ziga xosligi ularning xalq hayotiga chuqur bog‘liqligida, tilning rang-barangligi va ifoda vositalarining boyligida namoyon bo‘ladi [1]. Ular axloqiy-ma’naviy ta’sir ko‘rsatish bilan birga, xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, odatlari haqida ham ma’lumot beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda sifatli (kvalitativ) tahlil usuli asos qilib olindi. Xorazm xalq ertaklarining janriy xususiyatlarini aniqlash, ularning xorijiy mamlakatlarda tarjima qilinishi va talqin etilishidagi yondashuvlarni o‘rganish maqsadida adabiyotlar tahlili, qiyosiy-tipologik usul, tarjimashunoslik va madaniyatlararo muloqot nazariyalariga asoslangan kontekstual tahlil usullari qo‘llandi.

Tahlillar va natijalar.

Ertaklar ko‘pincha oddiy xalq hayotining sintezidir. Jumaboy Yusupovning ta’kidlashicha, Xorazm ertaklari odorqali xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi, qadriyatlari, tarixiy hodisalari jonli ifalanadi (Yusupov, 2010). Shuningdek, ular til va uslub nuqtai nazaridan o‘ziga xos an’anaviy shakllarni saqlab qolgan.

Xorazm ertaklari xalqaro maydonda o‘z o‘rnini asta-sekin egallab bormoqda. Jumaboy Yusupovning tadqiqotlariga ko‘ra, XX asrning oxirlaridan boshlab xorijiy olimlar O‘zbekistondagi xalq og‘zaki ijodi, jumladan, Xorazm ertaklariga qiziqishni oshira boshladilar [2]. Xususan, rus, ingliz, nemis, fransuz tillarida chop etilgan ilmiy maqolalar va tarjimalar Xorazm folklorini xalqaro tadqiqot maydoniga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Jabbor Eshonqulning fikricha, Xorazm ertaklari xorijiy tillarga tarjima qilinish jarayonida ba’zi madaniy va lingvistik o‘ziga xosliklar yo‘qolib qolishi xavfi mavjud. Shu sababli tarjima va talqin jarayonlari yanada puxta va ilmiy asosda olib borilishi kerak [3].

Xorijiy manbalarda Xorazm ertaklariga oid materiallar ko‘pincha xalqaro folklorshunoslik kontekstida tahlil qilinadi. Masalan, rus olimlari tomonidan tayyorlangan tadqiqotlar Xorazm ertaklarining janriy o‘ziga xosligini, ularning boshqa turkiy xalqlarning ertaklari bilan qiyosiy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan Bundan tashqari Xorazm xalq ertaklari o‘zbek xalq ertaklaridan sinkretikligi va uslubiyati bilan ajralib turadi.[4].

Xorazm ertaklarining xorijiy tillarga tarjima qilinishi ko‘plab muammolarni yuzaga keltiradi. Tarjimada nafaqat tilning, balki madaniyatning ham o‘ziga xosliklari hisobga olinishi zarur. Fattoh Abdullayevning fikricha, tarjima jarayonida xalq og‘zaki ijodining ruhiyati, uslubi va obrazlarning mazmuni to‘liq saqlanishi kerak [1]. Aynan shu ruhiyat va holatni yoritish uchun berilgan shevaga oid so‘zning leksikologik jihatiga, etnageneziga ham e’tibor bergan holda o‘girish maqsadga muvofiq ,nazarimda.

Jabbor Eshonqul tarjima qilinayotgan ertaklarda o‘zbek madaniyatiga xos obraz va motivlarning xorijiy o‘quvchiga yetkazilishi muhimligini ta’kidlaydi. Bu esa, ayniqsa, xalqaro tadqiqotlarda Xorazm ertaklarining to‘g‘ri talqin etilishi uchun katta ahamiyatga ega [4].

Misol uchun, ingliz tiliga tarjima qilingan “Shayton va Donishmand” ertagi tarjimasida ayrim madaniy kodlar yo‘qolib ketishi, ularni tushuntirish uchun izohlar zarurligi kuzatilgan [5]. Bu esa tarjimaning sifatini oshirish uchun yangi usullarni joriy etishni talab qiladi.

Xuolsa. Xorazm ertaklarinida turli xil sehrli narsalar va magik xususiyat vositasida qahramonning o‘z ko‘rinishini o‘zgartirish holatlari ko‘p uchraydi. Qahramonning boshqa narsalarga aylanishi yoki o‘zining qiyofasini o‘zgartirishi folklorshunoslikda “evrilish motivi”deb ataladi va bu xorij adabiyotida ham keng quloch yoygan.[6]

Xorazm xalq ertaklari nafaqat o‘zbek madaniy merosining muhim qismi, balki xalqaro folklorshunoslik sohasida ham alohida o‘rin egallaydi. Fattoh Abdullayev, Jumaboy Yusupov va Jabbor Eshonqul kabi olimlarning fikr va tadqiqotlari asosida, ertaklarning janriy xususiyatlari va xalqaro maydondagi o‘rni ortmoqda.

Shuningdek, tarjima jarayonida madaniy va lingvistik o‘ziga xosliklarni saqlash muhimligi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Tarjima va talqin jarayonlarida yuzaga keladigan qiyinchiliklar ilmiy yondashuv va yangi metodlarni qo‘llash orqali hal etilishi mumkin. Xorazm ertaklarining xalqaro miqyosda tanilishi va o‘rganilishi esa O‘zbekiston madaniyatini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev F. Xorazm folklori va uning janriy xususiyatlari. — Urganch: Xorazm davlat pedagogika instituti nashriyoti, 2005. — 200 b.

2.Yusupov J. O‘zbek xalq ertaklari va ularning xalqaro maydondagi o‘rni. — Toshkent: Fan, 2010. — 180 b.

3.Eshonqul J. Xorazm ertaklarining tarjima va talqin muammolari. — Urganch: Xorazm davlat universiteti, 2015. — 150 b.

4.Ivanov I.V. Turkic Folklore in Comparative Studies. — Moscow: Nauka, 2003. — 220 p.

5.Smith J. Cultural Challenges in Translating Uzbek Folklore. — London: Folklore Press, 2012. — 90 p.

6.Yusupov J. Xorazm ertaklarining badiiy strukturasi. —Urganch, 2008.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

THE CONCEPT OF PARAMETRIC LEARNING AND ITS ROLE IN LINGUISTICS

Isroilova Mokhigul Akramovna
Doctoral student (PhD) at Sharof Rashidov Samarkand State University
isroilova.mokhigul@mail.ru

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the place and role of parametric learning theory in linguistics. The concepts of universal grammar and parameters as biological and theoretical foundations of the language learning process are examined in detail. The article highlights the importance of parametric theory in syntax, morphology, and second language learning, as well as its application in the field of modern artificial intelligence. Criticism of the theory, its integration with social-cognitive approaches, and future directions of scientific research are also discussed. This study emphasizes the importance of parametric learning theory as a fundamental theory in linguistics and focuses on expanding its practical and theoretical capabilities.

Keywords: *parametric learning, universal grammar, linguistics, syntax, second language learning, language models, artificial intelligence, social-cognitive approach, language interference, language theory.*

КОНЦЕПЦИЯ ПАРАМЕТРИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ И ЕЕ РОЛЬ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. В статье представлен комплексный анализ места и роли параметрической теории обучения в лингвистике. Подробно рассматриваются концепции универсальной грамматики и параметров как биологических и теоретических основ процесса изучения языка. В статье подчеркивается важность параметрической теории в синтаксисе, морфологии и изучении второго языка, а также ее применение в области современного искусственного интеллекта. Также обсуждаются критика теории, ее интеграция с социально-когнитивными подходами и будущие направления научных исследований. В этом исследовании подчеркивается важность параметрической теории обучения как фундаментальной теории в лингвистике и делается акцент на расширении ее практических и теоретических возможностей.

Ключевые слова: *параметрическое обучение, универсальная грамматика, лингвистика, синтаксис, изучение второго языка, языковые модели, искусственный интеллект, социально-когнитивный подход, языковая интерференция, теория языка.*

PARAMETRIK O’RGANISH TUSHUNCHASI VA UNING TILSHUNOSLIKDAGI ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqolada parametrik o‘rganish nazariyasining tilshunoslikdagi o‘rni va roli keng qamrovli tahlil qilinadi. Til o‘rganish jarayonining biologik va nazariy asoslari sifatida universal grammatika va parametrlar tushunchalari batafsil ko‘rib chiqiladi. Maqolada parametrik nazariyaning sintaksis, morfologiya, va ikkinchi til o‘rganishdagi ahamiyati, shuningdek zamonaviy sun’iy intellekt sohasidagi qo‘llanilishi yoritiladi. Shuningdek, nazariyaning tanqidi, ijtimoiy-kognitiv yondashuvlar bilan integratsiyasi va kelajakdagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishlari ham muhokama qilinadi. Mazkur tadqiqot parametrik o‘rganish nazariyasining tilshunoslikda fundamental nazariya sifatida ahamiyatini ta’kidlab, uning amaliy va nazariy imkoniyatlarini kengaytirishga e’tibor berilgan.

Kalit so’zlar: *parametrik o‘rganish, universal grammatika, tilshunoslik, sintaksis, ikkinchi til o‘rganish, til modellar, sun’iy intellekt, ijtimoiy-kognitiv yondashuv, til interferensiyasi, til nazariyasi.*

Introduction. Language is the most complex and integral part of the human brain. People communicate ideas through language, transmitting knowledge and culture from generation to generation. Therefore, learning a language is important for a deep understanding of human thought, culture and society. Linguistics is the scientific study of language, which studies the structure, functions and development of language. In modern linguistics, there are various theories regarding the process of language learning, one of the most important of which is the parametric learning theory (Chomsky, 1981)[1]. The parametric learning theory assumes that the human brain, in the process of language learning, takes as its basis the universal rules of grammar that are pre-established by the human brain. The uniqueness of each language arises from the different adjustments of the parameters in these rules. This theory explains language learning not only as a privileged ability, but also as a process with a biological basis (Radford, 2004)[2]. In linguistics, the concept of parametric learning is widely used, especially in the syntactic part of language learning. It helps to understand how children and adults acquire language quickly and effectively, as well as the difficulties they encounter in learning a second language. Therefore, parametric theory occupies an important place in linguistic theories (White, 2003)[3]. This article focuses on an in-depth analysis of the theoretical foundations of parametric learning theory, its role in linguistics, its role in syntax and language learning, as well as its application in modern language models.

The emergence and development of parametric learning theory

In the second half of the 20th century, the theory of universal grammar, developed by Noam Chomsky, revolutionized linguistics. Universal grammar refers to the biological basis of human language ability, that is, the system of grammatical rules that are innately present in our brains (Chomsky, 1981)[1]. This was followed by the theory of parametric learning. This theory argues that the specific differences of language arise from different settings of parameters in

universal grammar (Radford, 2004)[2]. Parametric theory helps to understand language learning not only as a set of rules, but also as a biological mechanism in our brains. From this perspective, children quickly master the grammatical system of their native language by adjusting the parameters themselves, rather than relying solely on the information they are taught (White, 2003)[3]. Today, parametric theory is used in linguistics not only to explain the process of language learning, but also to explain the historical development of language. At the same time, the role of parametric theory is also increasing in the fields of artificial intelligence and natural language processing (Yu et al., 2024)[4].

The role of parametric learning theory in linguistics

Parametric learning theory plays an important role in linguistics in explaining the processes of language learning and comprehension. This theory serves as a key tool in explaining the universal properties of language and language-specific grammatical differences (Chomsky, 1981)[1]. Parametric theory is used in research in various fields of linguistics, in particular syntax, morphology, and phonology. For example, in syntax, parameters determine the sentence structure and word order of a language, while in morphology, parameters play a role in the formation of grammatical categories (Radford, 2004)[2]. In linguistics, the parametric approach helps to understand the effectiveness of language learning. How quickly children master the complex rules of their native language is related to the correct adjustment of parameters (White, 2003)[3]. In addition, parametric theory is used to analyze errors that occur in language learning. For example, second language learners experience difficulty adapting the parameters of their native language to the new language, which is called language interference (Gass & Selinker, 2008)[5].

Parametric learning in syntax

Syntax is the branch of linguistics that studies the structure of words and word combinations. According to parametric theory, the syntactic structure of each language is determined by grammatical parameters (Bailly et al., 2023)[6]. For example, English has a strict SVO (subject-verb-object) order, which is explained as a parameter. In other languages, such as Latin or Russian, word order can be more flexible, which is the result of the adjustment of another parameter (Radford, 2004)[2]. Parametric theory explains syntactic differences and their language-specificity, which is important in language learning and translation (White, 2003)[3].

Second language learning and parametric theory

The parametric approach to second language acquisition (L2 acquisition) explains the process by which language learners adapt their native language parameters to the new language. In this process, language interference often occurs because the old parameters do not match the new language parameters (Gass & Selinker, 2008)[5]. Parametric theory serves as a key tool in analyzing the difficulties encountered in L2 learning and in developing new pedagogical methods to overcome them (Ellis, 2002)[7].

Parametric learning in modern language models

In recent years, the development of language models in the fields of artificial intelligence and natural language processing (NLP) has expanded the practical applications of parametric theory. Large-scale language models effectively handle complex interactions by learning the rules and parameters of a language (Yu et al., 2024)[8]. For example, models such as GPT-4 learn the syntactic and semantic parameters of a language to generate, translate, and communicate new texts. Parametric knowledge is central to these language models (Bender & Koller, 2020)[9].

Criticism of parametric learning theory

Although parametric learning theory has made significant advances in linguistics, it has also been criticized. Critics often view the process of language learning from an overly biologically deterministic perspective, which does not sufficiently take into account the cultural and social factors involved in language learning (Tomasello, 2003)[10]. The number of parameters and their precise definition are also still a scientific problem. A complete list of parameters for each language has not been developed, and their universal nature is also controversial (Newport, 2016)[11].

Integration of social-cognitive approaches and parametric theory

Recent research has sought to integrate parametric theory with sociocognitive approaches, which emphasize the importance of social context and cognitive activity in language learning. Parametrics may provide a biological basis, but language learning is enhanced by social interactions (Vygotsky, 1978; Tomasello, 2003)[10,12].

Future research directions

Parametric learning theory continues to develop in linguistics with the help of new technologies and methods. Artificial intelligence and neural networks are creating new possibilities for automatic parameter detection and adaptation (Yu et al., 2024)[8]. In the future, the integration of parametric theory with other cross-linguistic studies, multilingual models, and linguistic cognitive sciences will be a major scientific direction.

Conclusion

Parametric learning theory is of great importance in linguistics in explaining the biological and theoretical process of language learning. It distinguishes between universal and language-specific features of language and allows us to explain the complexities of language learning. Parametric theory is also effectively used in many areas of linguistics, in particular syntax, morphology, and second language learning. Modern technologies, especially in the fields of artificial intelligence and natural language processing, are expanding the role of parametric theory in practice. However, much work remains to be done in the field of integrating the theory with socio-cognitive approaches and forming a precise list of parameters.

Literature

1. Chomsky, N. (1981). Lectures on Government and Binding. Dordrecht: Foris Publications.

2. Radford, A. (2004). Minimalist Syntax: Exploring the Structure of English. Cambridge University Press.

3. White, L. (2003). Second Language Acquisition and Universal Grammar. Cambridge University Press.

4. Yu, H., Smith, J., & Lee, K. (2024). Parametric Learning in Natural Language Processing. *Journal of Computational Linguistics*, 50(2), 123-145.

5. Gass, S., & Selinker, L. (2008). Second Language Acquisition: An Introductory Course. Routledge.

6. Bailly, R., et al. (2023). Syntax and Parametric Variability Across Languages. *Linguistic Inquiry*, 54(1), 67-89.

7. Ellis, R. (2002). Learning a Second Language. Oxford University Press.

8. Yu, H., Smith, J., & Lee, K. (2024). *ibidem*.

9. Bender, E. M., & Koller, A. (2020). Climbing towards NLU: On Meaning, Form, and Understanding in the Age of Data. *ACL 2020*.

10. Tomasello, M. (2003). Constructing a Language: A Usage-Based Theory of Language Acquisition. Harvard University Press.

11. Newport, E. L. (2016). Statistical Language Learning and Language Development. *Current Directions in Psychological Science*, 25(3), 146-150.

12. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK 81-13
https://orcid.org/0000-0002-1530-8919

INGLIZ TILI DARSLARIDA O‘QITUVCHILAR DUCH KELADIGAN MUAMMOLAR VA AMALIY YECHIMLAR

Karimova Feruza Zokirjon qizi
Namangan davlat universiteti 3-bosqich talabasi
karimova_f93@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur ishda ingliz tili o‘qituvchilari duch keladigan asosiy muammolar va ularni samarali yechimlari tahlil qilingan. O‘qituvchilar, o‘quvchilarning motivatsiyasining pasayishi, individual ehtiyojlarga moslashish, nutqni rivojlantirishdagi qiyinchiliklar, texnologiyalardan samarali foydalanish va kasbiy rivojlanish masalalari kabi turli muammolarga duch keladilar. Ushbu muammolarni hal qilish uchun interaktiv va qiziqarli darslar, differensial ta’lim, shaxsiylashtirilgan o‘quv rejalarini ishlab chiqish, o‘quvchilarga xatolarga ijobiy munosabatni rivojlantirish, texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish va o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish bo‘yicha yechimlar taklif etilgan. Ushbu yondoshuvlar ingliz tilini o‘qitish jarayonini samarali va qulay qilishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Ingliz tili, o‘qituvchilar, motivatsiya, individual ehtiyojlar, nutqni rivojlantirish, texnologiyalar, kasbiy rivojlanish, differensial ta’lim, shaxsiylashtirilgan o‘quv rejasi, interaktiv darslar, o‘qitish metodlari.

ПРОБЛЕМЫ, С КОТОРЫМИ СТАЛКИВАЮТСЯ ПРЕПОДАВАТЕЛИ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА, И ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ

Аннотация: В данной работе проанализированы основные проблемы, с которыми сталкиваются преподаватели английского языка, а также эффективные решения этих проблем. Преподаватели сталкиваются с такими трудностями, как снижение мотивации у учащихся, адаптация к индивидуальным потребностям, развитие речевых навыков, эффективное использование технологий и вопросы профессионального развития. В качестве решений предложены проведение интерактивных и увлекательных занятий, дифференцированное обучение, разработка персонализированных учебных планов, формирование у учащихся позитивного отношения к ошибкам, интеграция технологий в учебный процесс и повышение квалификации преподавателей. Эти подходы способствуют эффективному и комфортному процессу преподавания английского языка.

Ключевые слова: английский язык, преподаватели, мотивация, индивидуальные потребности, развитие речи, технологии, профессиональное развитие, дифференцированное обучение, персонализированный учебный план, интерактивные занятия, методы преподавания.

CHALLENGES FACED BY TEACHERS IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS AND PRACTICAL SOLUTIONS

Abstract: This paper analyzes the main challenges faced by English language teachers and offers effective solutions. Teachers encounter issues such as a decline in student motivation, adapting to individual needs, difficulties in developing speaking skills, effective use of technology, and professional development. Proposed solutions include conducting interactive and engaging lessons, differentiated instruction, developing personalized learning plans, encouraging students to view mistakes positively, integrating technology into the teaching process, and enhancing teachers’ professional qualifications. These approaches contribute to making the English teaching process more effective and learner-friendly.

Keywords: English language, teachers, motivation, individual needs, speech development, technologies, professional development, differentiated instruction, personalized learning plan, interactive lessons, teaching methods.

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko‘nikmasi proffessionl ta‘limning ajralmas qismlaridan biri bo‘lib bormoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lganligi sababli, ularda til o‘rganishga bo‘lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta‘limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.Ta’lim sohasida chet tilini o‘rganayotgan o’quvchilar duch keladigan bir qancha to‘siqlar mavjud. Til o‘rganish har doim til ko‘nikmalariga bog‘liq bo‘lib, bunda har bir o‘quvchi har bir ko‘nikmada turli qiyinchiliklarga ega bo‘lgan to‘rtta til ko‘nikmasini o‘tkazishi kerak. Bunday holda, tilda so‘zlashuvchi bo‘lmagan o‘quvchilarga mavjud til muammolarini yengishga yordam beradigan muammolar va samarali strategiyalarni o‘rganish juda qiziq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Til ko‘nikmalari kompetensiyasini oshirishni ta’lim aspektlaridan ajratib bo‘lmaydi. Masalan, boshlang‘ich maktab bosqichida o‘quvchilar o‘z qobiliyatlarini qanday o‘zgartirishlarini, ham yaxshiroq, ham yomonroq natijalarga erishishlarini boshdan kechiradilar. Demak, o‘quvchilarga o‘z muammolari bilan to‘qnash kelishga yordam berish uchun ta’lim muassasasi har doim o‘quvchilarning sharoitlari va davr rivojlanishiga qarab xabardor bo‘lishi va takomillashtirishi kerak. Bundan tashqari, til o‘rganishda o‘quvchilarda uchraydigan muammolar "til egalari bo‘lmaganlar" sifatida qaraladi. Izzanning fikriga ko‘ra, ikkinchi tilning vazifasi shundaki, til odamlar tomonidan o‘z his-tuyg‘ulari, hissiyotlari, orzu-umidlari, istaklari, g‘oyalari va fikrlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Aksincha, til boshqalarning

his-tuyg‘ulari, umidlari, istaklari va fikrlari oldida turish va yashash vositasini ham namoyon etadi. Shuning uchun aytish mumkinki, tilning mavjudligi har doim mavjud bo‘lgan insonning o‘zaro ta’sirini amalga oshirish uchun zarur narsa bo‘lishi mumkin.

Vaholanki, ikkinchi tilni o‘rganish kaftni burashdek oson emas. Al-khreshe tadqiqotlari chet tili va ikkinchi tilni o‘rganuvchilar duch keladigan turli muammolarni ko‘rsatdi. Bu muammolar turli lingvistik kategoriyalarga tegishli bo‘lib, barcha til ko‘nikmalariga ta’sir qiladi.Umuman olganda, til o‘rganish bo‘yicha barcha mutaxassislar til ko‘nikmalari to‘rtta, ya’ni tinglash ko‘nikmasi, gapirish ko‘nikmasi, o‘qish ko‘nikmasi va yozish ko‘nikmasiga bo‘linishini ta’kidlaydilar. Ushbu to‘rtta ko‘nikma tilni qo‘llashda mos va samarali bo‘lgan o‘quv strategiyasi turini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.[1]

Ushbu tadqiqot mavzusi bo‘yicha tegishli adabiyotlar ko‘rib chiqildi, masalan, chet tilini o‘rganishda muammoni bartaraf etish uchun qo‘llaniladigan strategiya haqida muhokama qilingan. Kerakli ma’lumotlar to‘plangandan so‘ng, ma’lumotlar induktiv va deduktiv kabi ikki xil fikrlash usuli orqali tahlil qilindi. Induktiv tahlil aniq faktlardan umumiy xulosalarga asoslanib xulosa chiqarish uchun fikrlash usuli edi, deduktiv tahlil esa mulohazalar yordamida umumiy fikrlardan aniq masalalargacha xulosa chiqarish uchun fikrlashdan yiroq edi.

Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘zlashtirishda o’quvchilar duch keladigan turli muammolarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, mavjud muammolarni bilish orqali tadqiqotchi muammolarni kamida kamaytirish uchun yechim topadi.

Maktablarda til o‘rganish muammolarini o‘quvchilarning ikkinchi tilni o‘rganish qobiliyatiga va xohishiga ta’sir qiluvchi bir nechta omillar ta’sir qilishi mumkin Dimyati va Mudjiono fikriga ko‘ra, bu omillar quyidagicha tasniflanadi:

(1) o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishining pastligi, o‘rganish motivatsiyasi o‘quv jarayonini mustahkamlaydigan qiziqish;

(2) o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchining yetishmasligi, ayniqsa ular ikkinchi til sharoitida gapirish qobiliyatini o‘rganayotganda, bu ishonch o‘qituvchi va o’quvchi tomonidan tan olinadigan "o‘zini namoyon qilish" bosqichidir;

(3) muammo o‘qituvchi tomonidan kelib chiqadi, bu o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirmasligiga ishora qiladi, bu esa o‘quvchilarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.[2].

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib, umumta’lim maktabalarida xorijiy tillarni o’qitishda quyida bir qancha muommolar borligini aniqladik va ularga yechimlar keltirib o’tildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘qituvchilar malakasi va tayyorgarligi

Muammo: Maktablarda xorijiy tillarni o‘qitadigan o‘qituvchilarning malakasi va tayyorgarligi ko‘pincha kamchiliklarga ega bo‘ladi. Ba’zi o‘qituvchilar o‘zlarining til bilimlari va metodik yondashuvlari bilan zamonaviy talablarga javob bera olmaydi. Bu esa o‘quvchilarning tilni o‘rganish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yechimlar: Xorijiy til o‘qituvchilarining doimiy malaka oshirish kurslarida ishtirok etishlarini ta’minlash zarur. Shuningdek, yangi metodik yondashuvlar, texnologiyalar va

interaktiv o‘qitish usullarini o‘rgatish orqali o‘qituvchilarning malakasini oshirish mumkin. Xorijiy tilni o‘qitishda talab etiladigan yuqori malakali o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish lozim.

O‘quvchilarni motivatsiyalashning qiyinligi

Muammo: Ko‘p hollarda o‘quvchilar xorijiy tilni o‘rganishga qiziqish yoki motivatsiyaga ega bo‘lmaydilar. Bu o‘quvchilarning tilni o‘rganish jarayonida sust ishlashiga va o‘rganilgan materialni tez unutishlariga olib keladi. Ayniqsa, ilgari o‘qitish jarayonida tilni amaliy qo‘llash imkoniyati kam bo‘lgan o‘quvchilarda bu muammo yanada aniqroq ko‘rinadi.

Yechimlar: O‘quvchilarni xorijiy tilni o‘rganishga rag‘batlantirish uchun interaktiv, qiziqarli va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish zarur. O‘quvchilarga tilni o‘rganish jarayonida muvaffaqiyatlarini ko‘rsatish va ularga motivatsiya berish uchun o‘rganilgan materialni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini yaratish kerak. Shuningdek, o‘quvchilarning real hayotda xorijiy tilda muloqot qilishlariga imkon beradigan loyiha asosidagi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish foydalidir.

Resurslar va materiallar yetishmasligi

Muammo: Maktablarda xorijiy tilni o‘qitish uchun kerakli o‘quv materiallari, interaktiv resurslar, audio-video materiallar va texnologiyalar etishmaydi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning tilni samarali o‘rganishiga to‘sqinlik qiladi. Ko‘p hollarda an’anaviy o‘qitish usullari (kitoblar, daftarlarda ishlash) ishlatiladi, bu esa o‘quvchilarning tilni amaliy qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydi.

Yechimlar: Maktablarda xorijiy tilni o‘qitish uchun zarur bo‘lgan resurslar va materiallar bilan ta’minlash zarur. Interaktiv texnologiyalar, onlayn platformalar, mobil ilovalar va multimediali resurslar yordamida o‘quvchilarga turli xil o‘quv materiallari taqdim etilishi kerak. Bundan tashqari, xorijiy tilni o‘rgatish uchun o‘zgaruvchan va xilma-xil materiallar ishlab chiqish ham muhimdir.

Darsliklar va metodik materiallarning eskirganligi

Muammo: Maktablarda ishlatiladigan darsliklar va metodik materiallar ko‘pincha eskirgan va zamonaviy talablar va metodologiyalarga javob bermaydi. Bu o‘qitishning samaradorligini pasaytiradi, chunki darsliklar ko‘pincha bir xil yondashuvlarga asoslanadi va o‘quvchilarni qiziqtira olmaydi.

Yechimlar: Yangi va zamonaviy darsliklar, o‘quv resurslari va metodik materiallarni ishlab chiqish zarur. Ushbu materiallar o‘quvchilarning tilni o‘rganish jarayonida o‘z qiziqishlari va ehtiyojlariga mos bo‘lishi kerak. Darsliklar va resurslar multimedia va texnologiyalarni o‘z ichiga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.

O‘quvchilarning tilga bo‘lgan yondashuvining passivligi

Muammo: O‘quvchilarning tilga bo‘lgan yondashuvi passiv bo‘lishi mumkin, ya’ni ular tilni o‘rganishga o‘zlari tashabbus ko‘rsatmaydilar. Bu, ayniqsa, katta yoshdagi o‘quvchilar orasida ko‘proq kuzatiladi. Bunda, o‘quvchilar tilni o‘rganishga majburlanishadi, ammo ular uchun bu jarayon qiziqarli va amaliy bo‘lmaydi.

Yechimlar: O‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun til o‘rganishni amaliy vazifalar orqali, o‘yinlar va interaktiv mashg‘ulotlar bilan boyitish kerak. O‘quvchilarga tilni o‘rgatishda ularga real hayotdagi vaziyatlarni yaratib berish, masalan, xorijiy tilda suhbatlashish yoki internetdagi kontentni tahlil qilish orqali ularni faol ishtirok etishga undash lozim.

Sinflardagi o‘quvchilar sonining ko‘pligi

Muammo: Sinflarda o‘quvchilar sonining ko‘pligi o‘qituvchilarning individual yondashuvni amalga oshirishi va o‘quvchilarni samarali nazorat qilish imkoniyatini kamaytiradi. Bu holat, ayniqsa, xorijiy tilni o‘rganishda muammo bo‘lishi mumkin, chunki o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlari va o‘rganish tezliklari farq qiladi.

Yechimlar: Sinflardagi o‘quvchilar sonini kamaytirish, yoki kichik guruhlarda o‘qitishni tashkil etish mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarga individual yordam berish uchun raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, masalan, onlayn mashqlar va testlarni amalga oshirish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, chet tillarni o‘rganishdagi muammolar talabalardan ko‘proq e’tibor talab qiladi. Har bir ko‘nikma (tinglash, o‘qish, gapirish va yozish) o‘zining xilmaxilligi va qiyinchilik darajasiga ega. Bu esa o‘quvchilarga sinfda chet tili darslarini olishda qiyinchilik tug‘diradi. Texnik muammolardan boshlab, talabalar va o‘qituvchilarning motivatsiyalarigacha. Shu sababli, til ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘quvchilar duch keladigan o‘quv to‘siqlarini yengish yoki hech bo‘lmaganda kamaytirish strategiyasi har doim taqdim etilishi kerak.

Ushbu tadqiqotdagi mavjud muammolarni tushunib, arab yoki ingliz tilini o‘qitadigan o‘qituvchi o‘quvchilarga ta’lim berish usulini tanlashni bilishi kerak. Ayniqsa, til ko‘nikmasi, har bir ko‘nikma o‘quvchilar uchun o‘ziga xos qiyinchiliklar va qiyinchiliklarga ega, shuning uchun chet tili darsida mavjud muammolarni bartaraf etish uchun mos o‘qitish strategiyasini taqdim etish o‘qituvchidan talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Launder, A., "Indoneziyada ingliz tilining holati va funktsiyasi: asosiy omillarni ko'rib chiqish", Makara, Sosial Humaniora, 2008, jild. 12, yo'q. 1, 9-20-betlar. Indoneziya Respublikasi, 20-sonli qonun, 2003 yil Milliy ta'lim tizimi to'g'risida, 2003 yil.

2. Sudrajat, D., Studi tentang pelaksanaan pengajaran bahasa Inggris di SD kota Tanggarong, Cendekia, 2015, jild. 9, yo'q. 1, 13-24-betlar. Suyanto, K., yosh o'quvchilar uchun ingliz tili. Jakarta: Bumi Aksara, 2010 yil.

3. Saidov, S. (2021). Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo 'shgan hissasi. Sharq uyg'onishi: Innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar, 7(1).

4. Chuang, M., Kaohsiungdagi bolalar bog'chalarida ingliz tilini o'rgatish va o'rganish, Doktorlik dissertatsiyasi. Bielefeld universiteti: Germaniya, 2001. Kemeron, L., Yosh o'quvchilarga til o'rgatish. Nyu-York: Kembrij universiteti nashriyoti, 2001.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK 808.5
ORCID: 0000-0002-3072-4362

VALTER SKOT ROMANLARIDA TARIXIY OBRAZLAR YARATISH KONSEPSIYASI

Dadaboyev Olimjon Ortiqovich
Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti, PhD
o.dadaboev@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Valter Skot tarixiy roman janrining asoschisi sifatida baholanib, uning asarlarida tarixiy shaxslar va badiiy to‘qima obrazlar o‘zaro qanday uyg‘unlashtirilgani tahlil qilinadi. Skot romanlarida tarixiy konflikt va axloqiy-ma’naviy ziddiyatlar ajratib ko‘rsatiladi, bosh qahramonlar esa odatda tarixiy voqealarning bevosita ishtirokchisi emas, balki ularning ma’naviy-axloqiy talqinida faol ishtirok etadi. Muallif tarixiy haqiqat va badiiy talqin o‘rtasida muvozanat saqlab, obrazlarga obyektiv yondashishga harakat qiladi. Valter Skot ijodida tarixiy haqiqat ayrim hollarda muallifning siyosiy va diniy qarashlari ta’sirida o‘zgartirilgan. Shuningdek, u tarixiy roman orqali davr axloqini, jamiyatdagi o‘zgarishlar zaruratini va madaniyatlararo yarashuv g‘oyasini ilgari suradi. Maqola Skot romanlarining tarixiy va badiiy xususiyatlarini qiyosiy tahlil orqali yoritadi.

Kalit so‘zlar: Valter Skot, tarixiy roman, axloqiy ziddiyat, tarixiy konflikt, badiiy to‘qima, tarixiy haqiqat, romantizm, Shotlandiya, Uilyam Shekspir, tarixiy obraz.

КОНЦЕПЦИЯ СОЗДАНИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В РОМАНАХ ВАЛЬТЕРА СКОТТА

Аннотация: В статье рассматривается Вальтер Скотт как основатель жанра исторического романа и анализируется, как он сочетает в своих произведениях исторические личности и вымышленные образы. В его романах чётко разграничиваются исторический конфликт и морально-нравственные противоречия, при этом главные герои чаще всего играют ключевую роль именно в моральных конфликтах, а не в самих исторических событиях. Скотт старается сохранять баланс между исторической достоверностью и художественной интерпретацией, стремясь объективно изображать персонажей. Однако в некоторых случаях исторические факты искажаются под влиянием политических и религиозных взглядов автора. Через свои романы Скотт передаёт дух эпохи, необходимость общественных изменений и идею примирения между культурами.

В статье проводится сравнительный анализ исторических и художественных особенностей его произведений.

Ключевые слова: Вальтер Скотт, исторический роман, моральный конфликт, исторический конфликт, художественный вымысел, историческая правда, романтизм, Шотландия, Уильям Шекспир, исторический персонаж.

THE CONCEPT OF CREATING HISTORICAL CHARACTERS IN THE NOVELS OF WALTER SCOTT

Annotation: This article explores Walter Scott as the founder of the historical novel genre and analyzes how he blends historical figures with fictional characters in his works. His novels clearly distinguish between historical conflict and moral-ethical dilemmas, with main characters often playing a key role in the latter rather than in the actual historical events. Scott strives to maintain a balance between historical truth and artistic interpretation, attempting to present characters with objectivity. In some cases, however, historical facts are altered under the influence of the author’s political and religious views. Through his historical novels, Scott reflects the moral values of the era, the necessity of societal change, and promotes the idea of reconciliation between different cultures. The article provides a comparative analysis of the historical and artistic features of Scott's novels.

Keywords: Walter Scott, historical novel, moral conflict, historical conflict, fiction, historical truth, Romanticism, Scotland, William Shakespeare, historical character.

KIRISH

Tarixiy roman janrining asoschisi sifatida Valter Skot jahon adabiyotida eng mashhur janrlardan birining kanonik xususiyatlarini belgilab berdi. Tarixiy qahramonning badiiy obrazini yoritishda, avvalo, Skotning asarlariga murojaat qilish lozim.

Valter Skot romanlarida asosiy qahramonlar odatda muallif tomonidan to‘qib chiqarilgan obrazlar bo‘lib, ular ko‘pincha asarning sarlavhasida ham tilga olinadi. Bu personajlar odatda yosh, tarixiy qarama-qarshiliklarda dastlab neytral yoki chetda turgan qahramonlar bo‘lib, voqealar rivojida muhim rol o‘ynay boshlaydilar. Masalan, merosdan mahrum qilingan va Salib yurishlarida jang qilganlar tomonidan tuhmatga uchragan Uilfred Ayvenho, shuningdek, shon-shuhrat izlab vatanni tark etgan va natijada Fransiya qiroli Lyudovik hamda Burgundiya gertsogi Karl e’tiborini qozongan Kventin Dorvard bunga misoldir. Valter Skot romanlarida tarixiy voqealar va axloqiy-ma’naviy qarama-qarshiliklar aniq ajratilgan: tarixiy mojaroda bosh qahramon ko‘pincha murosaga yo‘l ochuvchi pozitsiyada tasvirlansa, axloqiy ziddiyatda esa u doimo markaziy shaxs bo‘lib namoyon bo‘ladi.

Tarixiy shaxslar esa, odatda, bu ichki ziddiyatlarni hal etishda yordam beruvchi yoki qarshilik ko‘rsatuvchi ikkinchi darajali obrazlar sifatida ishtirok etadi. Albatta, bu andozadan chetga chiqqan holatlar ham mavjud. Jumladan, “Talisman” romanida tasvirlangan Monferratlik

Konrad obrazida u shotlandiyalik ritsar sir Kennetning asosiy raqibi sifatida axloqiy ziddiyat markaziga chiqadi. Bu holat muallif tomonidan asar muqaddimasida alohida e’tirof etilgan[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Valter Skott romanlarida bosh qahramon sifatida namoyon bo‘ladigan to‘qima obrazlarning tarixiy voqealarga bo‘lgan munosabati, shuningdek, tarixiy shaxslarning syujetdagi o‘rni tahlil qilinganda, muallif uchun eng muhim masala aynan axloqiy-ma’naviy ziddiyatlar ekanini ko‘rish mumkin. Garchi tarixiy mojarolar syujetning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lsa-da, Skott qahramonlarni baholashda ularning ijtimoiy yoki siyosiy tarafini emas, balki axloqiy pozitsiyasini mezon sifatida oladi. Shu sababli u yaratgan obrazlar, xoh tarixiy bo‘lsin, xoh badiiy to‘qima, odatda nisbatan obyektiv yondashuvda ifodalanadi. Misol uchun, “Kventin Dorvard” romanidagi Fransiya qiroli Lyudovik XI salbiy qahramon sifatida gavdalanadi, biroq uning xarakteri va harakatlari faqatgina manfiy jihatlar bilan chegaralanmaydi. U atrofida ijobiy obrazlar — Kventin Dorvardning vatandosh kamonchilari, uning amakisi Lyudovik Lesli va lord Krouford kabi shaxslar mavjud. Hatto Lyudovik XI qaroqchi ritsar Giyom de Lamarkni siyosiy maqsadlar yo‘lida vosita sifatida ishlatgan bo‘lsa-da, u Burgundiyaga qarshi mustaqillik uchun kurashayotgan Lyej shahri aholisi tarafini oladi. Muallif bu holatni romanda bir yoqlama salbiy hodisa sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayon sifatida talqin qiladi.

Shu bilan birga, Valter Skot o‘z asarlarida ayrim tarixiy shaxslarni tanqid qilishdan ham chekinmaydi. Biroq bu tanqid odatda alohida shaxslarga emas, balki ularning vakili bo‘lgan guruh yoki tashkilotlarga qaratilgan. Jumladan, “Ayvengo” romanida muallif Uchinchi salib yurishi davridagi tampliyerlar va gospitalyerlar (ioannitlar)ni salbiy nurda tasvirlaydi. Skot ularning qirol Richardga bo‘lgan sadoqatsizligini tilga olib, ularni fransuz qiroli Filipping tarafini olganlikda ayblaydi. Bu ziddiyatlar oqibatida Richardning musulmonlar ustidan qo‘lga kiritgan yutuqlari samarasiz bo‘lib, Quddusni egallash bo‘yicha qilgan harakatlari muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Netijada u sulton Salohiddin bilan barqaror bo‘lmagan sulhga erishgan, xolos. Aynan shu siyosiy sabablarga ko‘ra, Muqaddas Zamin bilan aloqadorlik tuyg‘usi kuchli bo‘lgan Angliya va Normandiyadagi tampliyerlar va gospitalyerlar ham shaxzoda Jonning tarafini egallaganlar. Ularning qirol Richardning Angliyaga qaytishini yoki uning qonuniy vorisi — shaxzoda Artur taxtga chiqishini qo‘llab-quvvatlashga asoslari bo‘lmagan[2].

Ta’kidlash joizki, Valter Skot tomonidan berilgan ba’zi tarixiy izohlar har doim ham tarixiy haqiqatlarga mos kelmaydi. Yuqoridagi misolda keltirilgan holat ochiq-oydin tarzda tarixiy faktlarga zid bo‘lib, aslida ikkala ruhoniy-ritsar ordeni va ularning boshliqlari Arsuf jangida qirol Richard I bilan bir safda jang olib borgan va umumiy g‘alabaga erishgan edi. Ayniqsa, jangning dastlabki bosqichlarida aynan gospitalyerlar sarasinlar hujumini matonat bilan to‘xtatgan, so‘ngra ingliz qo‘shinlari jangga kirgan. Bu kabi tafsilotlar, shuningdek boshqa tarixiy nomuvofiqliklar, ko‘pincha muallifning ayrim tarixiy jarayonlar yoki tashkilotlarga bo‘lgan shaxsiy qarashlari natijasidir. Valter Skotning ruhoniy-ritsar ordenlariga nisbatan salbiy

pozitsiyasini uning konservativ siyosiy qarashlari, xususan anglikanizmga sodiqligi bilan bog‘lash mumkin. Biroq, Valter Skot asarlarida tarixiy haqiqatdan chetga chiqishning bunday holatlari ham uchraydiki, ularni na muallifning tarixiy qarashlari, na tarixiy roman janrining badiiy talablari bilan oqlab bo‘ladi. Masalan, “Talisman” romanida voqealar Uchinchi salib yurishi davrida sodir bo‘ladi, ammo unda Tampliyerlar ordenining yetakchisi sifatida tarixda mavjud bo‘lmagan Jil Amori nomi keltiriladi. Aslida bu lavozimda Robert de Sable bo‘lgan. Agar muallif ushbu ordenlarga nisbatan aniq tanqidiy munosabatda bo‘lgan bo‘lsa, unda aynan boshliqning nomini o‘zgartirishining sababini tushuntirish mushkul.

Bundan tashqari, “Talisman” romanida Monferratlik Konradga oid tasvirlangan voqealar ham tarixiy manbalarda mavjud bo‘lgan faktlarga zid keladi. Valter Skot bu tafovutni o‘zi ham asarning kirish qismida tan olgan. Umuman olganda, romanlarda tasvirlangan ayrim tarixiy shaxslar va ularning faoliyati haqidagi ma’lumotlar asosiy tarixiy manbalarda rasmiy hujjatlar bilan tasdiqlanmagan. Bu esa asarlarda tarixiy aniqlik va ishonchlilik masalasini ochiq muhokamaga olib chiqadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Valter Skot o‘z romanlarida nafaqat tarixiy shaxslar bilan bog‘liq voqealarni aks ettiradi, balki ular bilan qarindoshlik aloqasida bo‘lgan xayoliy obrazlarni ham yaratadi. Masalan, u qirol Eduardning avlodi sifatida Etelstanni yoki qirol Richard Sheryurakning uzoq qarindoshi sifatida Edit Plantagenet obrazini ilgari suradi. “Talisman” romanining muqaddimasida yozuvchi bu kabi xayoliy personajlar syujetni romantik tarzda ifodalash uchun zarur bo‘lganini ta’kidlaydi. Bu badiiy yondashuv, ayniqsa, Richard I va Salohiddin kabi tarixiy shaxslarning ijobiy fazilatlarini yoritish, ular o‘rtasidagi haqiqiy hurmat va o‘zaro tushunishni namoyon qilish uchun xizmat qiladi. Shu bois, Valter Skotning tarixiy romanlardagi asosiy maqsadi — tarixiy shaxslarning xarakterini tarixiy manbalarga asoslangan holda ochib berish, ya’ni ularni o‘z tarixiy tasavvuriga muvofiq talqin qilishdan iborat bo‘lgan.

E’tiborga molik jihatlardan biri shuki, Valter Skot ijodiga Uilyam Shekspir sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatgan. Yoshligida eng kuchli estetik taassurotni aynan Shekspirning “Xohlaganingizdek” komediyasining sahnalashtirilgan talqini orqali olgan. Qizig‘i shundaki, Shekspirning o‘zi ham Skotning “Kenilvort” romanida epizodik personaj sifatida gavdalanadi. Shekspir singari, Skot ham tarixiy va badiiy obrazlarni chuqur individual portretlar orqali tasvirlashga alohida e’tibor qaratadi. Tarixiy shaxslarni talqin etishda u ko‘pincha ularning hayotiga real voqealarda bo‘lmagan, ammo badiiy mazmunni kuchaytiruvchi tafsilotlarni ham kiritadi. Biroq bu yerda farq shundaki, agar Shekspir tarixiy shaxslarni voqealar rivojini izohlovchi vosita sifatida ishlatgan bo‘lsa, Skot uchun ular axloqiy g‘oyalarni ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu fikrni rus adabiyotshunosi B. Reizov quyidagicha izohlaydi: “Skot uchun axloq tarixi — bu madaniyat va ijtimoiy tafakkur tarixidir”[3]. Shotlandiyalik yozuvchining o‘zi ham axloq masalasini o‘z romanlaridagi eng muhim va eng murakkab vazifa sifatida ta’kidlaydi. U “Ayvengo” romaniga yozgan muqaddimasida shunday deydi: “Asarga bizning ajdodlarimiz bilan umumiy bo‘lgan so‘zlar va tuyg‘ularni kiritish bir ish, ajdodlarni

faqat ularning avlodlariga xos nutq va tuyg‘ular bilan ta’minlash – butunlay boshqa, ancha murakkab ishdir”[4].

O‘sha davr kishilarining ichki kechinmalari va fikrlari eng aniq ifodasini badiiy adabiyot hamda og‘zaki ijod namunalarida topgani sababli, Valter Skot tarixiy romanlarining obrazlarini yodda qolarliroq va jonliroq yaratish maqsadida ayrim syujetlarni ana shu folklor va adabiy manbalardan olib, ularni tarixiy shaxslar haqida to‘qilgan biografik tafsilotlar sifatida kiritishni ma’qul deb bilgan. Bunday uslubiy yondashuvga Richard I Sher Yurakning Turk birodar bilan uchrashuvi kabi epizodlar misol bo‘la oladi. Skot romanlarida tarixiy shaxslar ko‘pincha markaziy emas, balki ikkinchi plandagi rollarni bajaradi, ular ko‘proq axloqiy-ma’naviy qarama-qarshiliklar kontekstida ishtirok etadi va yozuvchi ularning shaxsiyatiga keskin baho berishdan o‘zini tiya oladi. Bu esa, ehtimol, muallifning siyosiy pozitsiyasi bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Garchi Valter Skot konservativ qarashlarga ega bo‘lib, ayniqsa Fransuz inqilobiga tanqidiy munosabatda bo‘lgan bo‘lsa-da, u jamiyat taraqqiyotida ayrim o‘zgarishlarning nafaqat muqarrarligini, balki zarurligini ham anglab yetgan. Bu fikr yozuvchining tarixiy romanlaridagi syujet qurilishi va obrazlar tizimida o‘z aksini topgan. Skot feodal tuzumni ideallashtirmaydi, aksincha, uning asarlarida oddiy xalq vakillari faol ishtirok etadi va ular ko‘pincha ijobiy qahramonlar sifatida talqin qilinadi. Tarixiy ziddiyatlarga nisbatan u har ikki tomon pozitsiyasini tushunishga intiladi va bu to‘qnashuvlarga eng maqbul yechim sifatida tomonlar o‘rtasidagi murosani ilgari suradi. Masalan, "Ayvengo" romanida anglosaksonlar va normanlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik Etelstanning Sher Yurak Richardga sadoqat bildirish orqali tugaydi, bu esa tarixiy yarashuv timsoliga aylanadi. Skotning bu ikkiyoqlama yondashuvi uning quyidagi fikrida yaqqol ko‘zga tashlanadi:

“Biroq bu ulug‘vor to‘y marosimida faqat xizmatkorlar emas, balki ko‘plab zodagon normanlar hamda saksoniyalik saroy vakillari ham ishtirok etishdi. Keng xalq ommasining quvonchi ostida bu nikoh ikki xalq – normanlar va saksonlar o‘rtasidagi kelajakdagi totuvlik va barqarorlikning timsoli sifatida qarshi olindi. Aynan shu davrdan e’tiboran, ilgari qarama-qarshi bo‘lgan bu ikki xalq o‘rtasidagi tafovutlar asta-sekin yo‘qola boshladi va ular bir butun jamiyatga birlashib bordi. Sedrik esa ushbu birlashuv jarayonining ilk bosqichlariga guvoh bo‘lib ulgurgan edi. Vaqt o‘tishi bilan normanlar o‘z faxrini tiyishni, saksonlar esa qo‘pollikdan voz kechishni o‘rgandilar, chunki ular jamiyatda tobora ko‘proq aralasha boshlashgan va o‘zaro nikohlar orqali yaqinlashgan edilar. Biroq, hozir biz “ingliz tili” deb ataydigan til Edvard III hukmronligi davrigacha saroyda to‘laqonli aloqa vositasiga aylangan emas edi. Faqatgina ana shu tarixiy bosqichda normanlar bilan saksonlar o‘rtasidagi uzoq davom etgan dushmanlik alomatlari butunlay yo‘qoldi”. Valter Skotning optimizmi uning romanlaridagi axloqiy-ruhiy ziddiyatlarning albatta ijobiy yechim topishi orqali ham namoyon bo‘ladi: deyarli har bir bosh qahramonning yo‘li qarshisida turgan barcha to‘siqlarni yengib o‘tishi va “uzoq va baxtli” hayotga erishishi bilan yakunlanadi.

XULOSA

Valter Skotning romanlarida tarixiy shaxslar odatda asosiy emas, balki ikkinchi darajali rollarni bajaradi. Muallif tarixiy roman janrida ishlar ekan, ba’zan bu shaxslarning tarjimai holiga qo‘shilmagan tafsilotlarni qo‘shishga yoki tarixiy manbalarga to‘g‘ri kelmaydigan o‘zgarishlar kiritishga ham yo‘l qo‘yadi. Bunga sabab, Skot uchun eng muhim vazifa — tanlangan tarixiy davrning axloqiy qadriyatlarini va ijtimoiy muhitini ishonchli aks ettirishdan iborat bo‘lgan. Tarixiy qahramonlar esa bunday davr ruhini ifodalovchi vosita sifatida qaraladi. Skot bu obrazlarni yaratishda o‘zi o‘rgangan tarixiy hujjatlar va manbalarni asos qilib olgan bo‘lib, ularni o‘z shaxsiy tasavvur va talqinlari asosida badiiy shakllantirgan.

Valter Skot romanlarida tarixiy shaxslar, odatda, axloqiy va ma’naviy ziddiyatlarning markazida emas, balki ikkinchi planda tasvirlanadi. Bu holat esa muallifga ularning shaxsiy fazilat va xatti-harakatlariga nisbatan nisbatan xolis va betaraf yondashish imkonini bergan. Bunday baholash asosan roman syujeti doirasidagi harakatlar hamda muallifning muqaddimadagi mulohazalarida o‘z ifodasini topadi. Bu yondashuv esa Skotning dunyoqarashida mavjud bo‘lgan ikki tomonlama — ya’ni qarama-qarshi jihatlarni uyg‘unlashtiruvchi — nuqtai nazar bilan bevosita bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Scott W.The Talisman. London and Glasgow. Collins Clear Type Press, 1832. – P.5.
2. Скотт В., Айвенго: Перевод с английского 1956 Краснодарское кн. изд-во / Рис. А. Глуховцева. — Краснодар: Краснодарское книжное издательство, 1956. — С.5.
3. Реизов, Б. Г. История и вымысел в романах Вальтера Скотта / Б. Г. Реизов // Реизов, Б. Г. История и теория литературы. Сб. статей. – Л.: Наука, 1986. – С. 119–126.
4. Скотт В., Айвенго: Перевод с английского 1956 Краснодарское кн. изд-во / Рис. А. Глуховцева. — Краснодар: Краснодарское книжное издательство, 1956. — С.4

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK 808.3
https://orcid.org/0009-0007-6629-2068

ADABIY ASARLARDA INSONPARVARLIK KONSEPSIYASINING TALQINI

Mohira Tursunova
Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti, PhD
m.tursunova@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr realizmi va XX asr modernizmi adabiy oqimlarida insonparvarlik (gumanizm) konsepsiyasining badiiy-falsafiy talqini tahlil qilinadi. Muallif adabiy qahramonlarning axloqiy tanlovi, shaxsiy erkinligi, ma’naviy izlanishlari va jamiyat bilan ziddiyatli munosabatlari orqali gumanistik tamoyillarning qanday ifoda topganini qiyosiy nuqtai nazardan yoritadi. Realizmda gumanizm ijtimoiy adolat va ma’naviy mas’uliyat asosida qurilgan bo‘lsa, modernizmda bu kontseptsiya individning ichki olami, ekzistensial iztiroblari va o‘zlikni anglash yo‘lidagi kurashi orqali badiiylashtiriladi. Maqola doirasida realizm va modernizm adabiyotidagi insonparvarlikning shakl va mazmun jihatidan o‘ziga xos talqinlari falsafiy-estetik tahlil asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Adabiy oqimlar, realizm, modernizm, insonparvarlik, gumanizm, axloqiy tanlov, ma’naviy izlanish, ichki kurash, ekzistensializm, adabiy qahramon.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПЦИИ ГУМАНИЗМА В ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ гуманистической концепции в рамках двух ключевых литературных направлений — реализма XIX века и модернизма XX века. Автор рассматривает, как гуманистические идеи выражаются через моральный выбор героев, их личную свободу, духовные поиски и противоречивые отношения с обществом. В реалистической литературе гуманизм строится на основе социальной справедливости и нравственной ответственности, тогда как в модернизме он реализуется через внутренний мир индивида, экзистенциальные переживания и стремление к самопознанию. В статье освещены особенности художественной интерпретации гуманистических принципов в контексте социально-философской и эстетической парадигмы.

Ключевые слова: литературные направления, реализм, модернизм, гуманизм, моральный выбор, духовные поиски, внутренняя борьба, экзистенциализм, литературный герой.

INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF HUMANISM IN LITERARY WORKS

Abstract: This article explores the interpretation of the concept of humanism in literature and how it is reflected in literary works depending on genre and literary movements. The analysis focuses on moral choice, personal freedom, inner struggle, and the individual's relationship with society as represented in both realist and modernist literature. While realism emphasizes social injustice, class inequality, and moral inquiry, modernism focuses on inner monologue, existential anxiety, and the process of self-discovery. The article reveals the aesthetic and philosophical foundations of humanistic ideas within the context of literary thought and its evolution.

Keywords: Humanism, moral choice, personal freedom, realism, modernism, spiritual values, literary consciousness, inner monologue, social justice, existential struggle, character, literary movement.

KIRISH

Adabiyot insoniyat tafakkuri, ruhiy olami va ma’naviy kamolotining tarixiy-madaniy in’ikosi sifatida inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab ontologik, ijtimoiy hamda aksiyologik munosabatlarni ifodalovchi kompleks ijtimoiy-estetik fenomen hisoblanadi. Badiiy ijod jamiyatning intellektual-ma’naviy holatini, tarixiy taraqqiyot bosqichlarini va ideologik siljishlarini o‘zida aks ettirgan holda, estetik obrazlar orqali inson borlig‘ining ichki mohiyatini yoritadi. Har bir adabiy asar, mohiyatan, insonning axloqiy tanlovi, erkinlik ehtiyoji va ma’naviy izlanishlarini ifodalovchi ramziy makon bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiy jarayonning markaziy tushunchalaridan biri — insonparvarlik (gumanizm) — insonning qadr-qimmati, erki, aql-zakovati, axloqiy mas’uliyati va ijodiy salohiyatini oliy qadriyat sifatida tan oluvchi falsafiy-estetik konsepsiyadir. Gumanistik tamoyillar adabiyotda ko‘p hollarda qahramonlarning axloqiy tanlovi, jamiyat bilan ziddiyatli munosabatlari, ichki ruhiy kechinmalari va ekzistensial izlanishlari orqali namoyon bo‘ladi. Ular muallifning antropotsentrik qarashlari, davr ideologiyasi va ijtimoiy-ma’naviy kontekst bilan uzviy aloqada shakllanadi.

Mazkur maqolada XIX asr realizmi va XX asr modernizmi doirasida shakllangan insonparvarlik konsepsiyasining badiiy-falsafiy talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy vazifasi — har ikki adabiy oqimda inson axloqiy pozitsiyasining shakllanish mexanizmlari, erkinlik, ma’naviy muvozanat, shaxsiy izlanishlar va jamiyat bilan interaktiv munosabatlar orqali ifodalangan gumanistik prinsiplarning mazmun-mohiyatini ochib berishdir.

Gumanizm adabiy matnda, odatda, ikki asosiy sathda namoyon bo‘ladi:

1. Sistematik (ijtimoiy) daraja — bu bosqichda inson va jamiyat o‘rtasidagi dialektik munosabatlar, sinfiy tengsizlik, adolat, ijtimoiy struktura va kollektiv mas’uliyat kabi masalalar badiiy ifodalanadi. Bu jihat ayniqsa realizm adabiyotida yaqqol ko‘zga tashlanadi, chunki realizm ko‘proq tashqi ijtimoiy muhit va undagi ziddiyatlarni ob’ektiv tasvirlashga intiladi.

2. Ontologik (individ) daraja — bu sathda shaxsning ichki olami, axloqiy erkinlik, ekzistensial tanlov, mavjudlik sabablari, o‘zligini anglash jarayoni va ichki metafizik izlanishlar ko‘rib chiqiladi. Bu jihat modernist adabiyotda ustuvorlik kasb etadi, chunki modernizm insonning ichki kechinmalari va ong oqimini markaziy estetik tamoyilga aylantiradi.

Realist adabiyotda (Fyodor Dostoевskiy, Lev Tolstoy, Charlz Dikkens kabi mualliflar ijodida) insonparvarlik tushunchasi ijtimoiy adolat, axloqiy mas’uliyat va tashqi ijtimoiy voqelik kontekstida ifodalanadi. Qahramonlar odatda murakkab ijtimoiy muhitda yashab, axloqiy tanlov orqali o‘z shaxsiyligini saqlab qolishga intiladilar. Ushbu tanlovlar orqali yozuvchi ijtimoiy tengsizlik, zulm, ekspluatatsiya va inson huquqlarining poymol qilinishi kabi muammolarga e’tibor qaratadi. Modernist adabiyotda esa insonparvarlik tushunchasi shaxsning ichki izlanishlari, erkinlik ehtiyoji, anglash jarayoni va ekzistensial dilemma bilan uzviy bog‘liq. James Joyce, Virginia Woolf, Franz Kafka singari modernist mualliflar qahramonlarining ruhiy kechinmalarini tilning poetik imkoniyatlari va ong oqimi texnikasi orqali chuqur tahlil qiladilar. Bu yondashuvda insonparvarlik — bu ongiy voqelik bilan kurashish, o‘zligini tan olish va mavjudlik sabablarini anglashga bo‘lgan intilish sifatida talqin qilinadi. Shunday qilib, realizm va modernizm adabiyotlarida insonparvarlik konsepsiyasining shakllanishi va talqini turlicha bo‘lib, bu tafovutlar har bir adabiy oqimning estetik printsiplari, falsafiy yo‘nalishi va ijtimoiy-falsafiy kontekstiga bevosita bog‘liq. Har ikkala adabiy an’ana ham o‘z davrining inson haqidagi tushunchalarini aks ettirgan holda, badiiy tafakkurning evolyutsiyasi jarayonida gumanizmni o‘ziga xos badiiy shakllarda ifoda etgan.

XIX asr realizmi insonparvarlik konsepsiyasini ijtimoiy voqelik kontekstida talqin etadi. Realist yozuvchilar uchun inson hayoti ijtimoiy determinantlarga bevosita bog‘liq bo‘lib, uning axloqiy tanlovi, erki va kurashi jamiyatdagi adolatsizlik, sinfiy ziddiyatlar va ma’naviy tangliklar bilan belgilanadi.

Masalan, Onore de Balzakning *"Inson komediyasi"* turkumida shaxsiy manfaat va axloqiy qarashlar to‘qnashuvi orqali inson tabiatining murakkabligi yoritiladi. Balzak ijtimoiy tabaqalanish sharoitida insoniylikni saqlab qolish uchun kurashayotgan qahramonlar obrazida gumanistik ideallarni ifodalaydi.

Lev Tolstoyning “Anna Karenina” romanida insonparvarlik konsepsiyasi shaxsiy baxt va jamiyat tomonidan belgilangan axloqiy me’yorlar o‘rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklar zaminida badiiy tahlil qilinadi. Asarda asosiy e’tibor jamiyatning rigid axloqiy tizimi bilan to‘qnash kelgan individuallikning ichki fojiasi va axloqiy tanlovlar dinamikasiga qaratiladi. Tolstoy uchun axloqiy tanlov — bu faqatgina shaxsiy erkinlik akti emas, balki ijtimoiy mas’uliyat va insoniy vijdonning jamiyat oldidagi pozitsiyasidir. Uning estetik-falsafiy

qarashlarida axloqiy muvozanat insoniy qadriyatlar va ijtimoiy normalar o‘rtasidagi ziddiyatlar orqali sinovdan o‘tkaziladi.

Realistik adabiy paradigma doirasida insonparvarlik konsepsiyasi quyidagi mezonlar asosida shakllanadi:

1. Adolatga intilish va ijtimoiy ongning uyg‘onishi – Realist yozuvchilar uchun jamiyatdagi strukturaviy adolatsizliklarga qarshi kurash adabiy obrazlar faoliyatining muhim harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Bu jihat orqali shaxs va tizim o‘rtasidagi ijtimoiy ziddiyatlar yoritiladi.
2. Shaxsning ma’naviy kamoloti va axloqiy qarorlari – Realizmda qahramonlar ichki tarakkiyot orqali axloqiy o‘zgarishga yuz tutadi. Axloqiy tanlov — bu tashqi majburlovdan emas, balki vijdon va iymon orqali shakllangan ongli ijtimoiy pozitsiyadir.
3. Jamiyatdagi tengsizlikka qarshi gumanistik pozitsiyaning ilgari surilishi – Realist adiblar insonning ijtimoiy huquqlari, erkinligi va qadriyatlari asosida gumanistik tamoyillarni tasvirlashga intiladilar. Bu pozitsiya ko‘p hollarda ijtimoiy tanqid sifatida namoyon bo‘ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

XX asr boshlarida yuzaga kelgan modernizm adabiy paradigmasi esa insonparvarlikni tashqi ijtimoiy strukturalardan ichki ontologik va ekzistensial qatlamlarga ko‘chiradi. Endilikda axloqiy tanlov, erkinlik va ruhiy izlanishlar jamiyatning tashqi bosimidan emas, balki individning ongiy dunyosi, o‘zini anglash va mavjudlik haqidagi falsafiy tafakkur bilan belgilanadi.

Jeyms Joysning “Uliss” romanida ong oqimi (stream of consciousness) texnikasi orqali inson tafakkurining ichki qatlamlari, psixologik kechinmalari va fikrlar assotsiatsiyasi asosida shakllangan ma’naviy-intellektual kurash tahlil qilinadi. Joys poetikasida insonparvarlik – bu o‘zlikni anglash, shaxsiy haqiqatni topish va mavjudlikning ma’nosini falsafiy izlash jarayonidir.

Frans Kafka ijodida esa insonparvarlik g‘oyasi tragik va absurdist kontekstda aks ettiriladi. “Jarayon” (“Der Prozess”) romanida qahramonning izohsiz ayblovga duchor bo‘lishi va byurokratik tuzumda o‘zligini yo‘qotishi, inson erki va huquqlarining yo‘q qilinishi orqali ekzistensial umidsizlik holati tasvirlanadi. Kafka uchun insonparvarlik — bu ijtimoiy-ijtimoiylashtirilgan ongning emas, balki mavjudlikning izohsizligiga yuz tutgan individning ichki halovat izlashidagi musibatli harakati sifatida talqin qilinadi.

Modernizmda insonparvarlik quyidagi paradigmatik o‘ziga xosliklarga ega:

1. Ontologik yondashuv – insonparvarlik insonning mavjudlik sabablarini anglash, o‘zligini topish va anglashga doir individual izlanishlar bilan bog‘liq.
2. Ichki kechinmalar va ongiy konfliktlar – gumanizm shaxsning vijdoni, ongiy ajralishlari, xotira va vaqtning psixologik qabul qilinishi orqali ifodalanadi.

3. Tashqi strukturaviy kuchlarga nisbatan begonalik – Kafka ijodida ko‘rinadiganidek, inson tashqi tuzilmalar tomonidan siquvga olinadi, biroq unga nisbatan tanqidiy ong emas, balki ontologik yolg‘izlik orqali qaraydi.

Modernizmda insonparvarlik quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1. Individning ichki olamiga chuqur kirish;
2. Ong oqimi, sub’yektiv tasvir va semantik noaniqlik orqali shaxsiy identifikatsiyani qamrab olish;
3. Axloqiy tanlovlarning falsafiy va ekzistensial asoslarda talqin qilinishi.

Realizm va modernizmda insonparvarlik konsepsiyasining qiyosiy tahlili

Kriteriy	**Realizm**	**Modernizm**
Insonparvarlik asoslari	Ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlikka qarshi pozitsiya	Individning ontologik va ekzistensial izlanishlari
Yondashuv	Tashqi voqelik orqali axloqiy muammolarni yoritish	Ichki olam, tafakkur va ruhiy kechinmalar markazda
Qahramon tiplari	Jamiyat bilan ziddiyatda yashovchi realist qahramonlar	Ong oqimi, identitet inqirozida bo‘lgan zamonaviy individlar
Axloqiy tanlov	Ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘liq axloqiy qarorlar	Sub’yektiv, falsafiy va ichki monolog asosidagi tanlovlar

Realizm va modernizm adabiy oqimlarida insonparvarlik (gumanizm) kontseptsiyasi har biri uchun xos bo‘lgan estetik-falsafiy asoslar doirasida turlicha talqin qilinadi. Realistik adabiy yondashuvda insonparvarlik — bu ijtimoiy adolatga intilish, sinfiy tengsizlikka qarshi kurash, shaxsning jamiyat oldidagi axloqiy mas’uliyati va ichki e’tiqodi orqali namoyon bo‘ladi. Bu yondashuvda shaxs ijtimoiy munosabatlar kontekstida yoritilib, uning hayotiy tanlovlari tashqi bosimlar, ijtimoiy tizim va ma’naviy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, realizmda insonparvarlik konsepsiyasi ijtimoiy ongning uyg‘onishi, jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik va shaxsiy fojialarning badiiy tahlili orqali shakllanadi. Qahramonning axloqiy qaror qabul qilishdagi ijtimoiy determinantlari va tashqi muhitga bo‘lgan ijtimoiy-hissiy munosabati bu yo‘nalishda gumanistik tamoyillarning asosi hisoblanadi.

Modernistik adabiy paradigmalarda esa insonparvarlik an’anaviy ijtimoiy model va tashqi axloqiy me’yorlardan rad etilib, inson ongining ontologik darajadagi izlanishlari, individual erkinlik va ichki psixologik muvozanatning markaziy masalasi sifatida talqin qilinadi. Modernist yozuvchilarning estetik yondashuvi inson mavjudotining ekzistensial iztiroblari, ichki individualizm va til orqali o‘zlikni anglash dinamikasiga asoslanadi. Modernizmda axloqiy tanlov tashqi ijtimoiy me’yorlarga emas, balki insonning ichki falsafiy izlanishlariga, sub’ektiv ong oqimi va ma’naviy ziddiyatlarga tayanadi. Shu sababli, bu oqim doirasida insonparvarlik tushunchasi ruhiy-intellektual kurash, ongiy parchalanganlik va ontologik izolyatsiya orqali ifodalanadi. Kafka, Joys, Vulf singari yozuvchilar obrazlarining gumanistik

qiyofasi ko‘pincha jamiyat tomonidan tan olinmagan, tushunilmagan va mavjudlik muammolari ichra yo‘qolgan shaxslar orqali namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, har ikki adabiy oqimda insonparvarlik umumiy gumanistik qadriyat sifatida mavjud bo‘lsa-da, uning estetik talqini va badiiy ifoda usullari tubdan farq qiladi. Realizm ijtimoiy adolat va ijtimoiy axloq mezonlariga asoslangan gumanistik tasvirni ilgari sursa, modernizm inson ichki olami, erkinligi, mavjudlik sabablari va ruhiy holatlarini markazga olgan holda insonparvarlikni falsafiy-ontologik darajaga ko‘taradi.

Adabiyotdagi bu ikki yondashuv orqali gumanizm nafaqat davrning ijtimoiy-falsafiy muammolarini yoritish vositasi, balki inson tafakkurining tarixiy rivojlanishidagi murakkab ichki dialektikani aks ettiruvchi estetik-falsafiy ko‘zguga aylanadi. Shu bois, adabiyotdagi insonparvarlik kontseptsiyasi har bir estetik oqimda yangicha shakllanadi, mazmunan chuqurlashadi va davr tafakkurining o‘ziga xos falsafiy mezonlariga moslashadi.

Adabiyotda insonparvarlik (gumanizm) kontseptsiyasi turli tarixiy-estetik oqimlar doirasida o‘ziga xos falsafiy va badiiy ifodaga ega bo‘lib, u har bir davrda inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni talqin etishning markaziy tamoyiliga aylangan. XIX asr realizmi gumanistik qadriyatlarni ijtimoiy adolat, sinfiy tengsizlikka qarshi kurash va axloqiy mas’uliyat doirasida yoritgan bo‘lsa, XX asr modernizmi bu tushunchani insonning ichki olami, ekzistensial iztiroblari, erkinlik va o‘zlikni anglash muammolari bilan bog‘liq holda talqin etgan. Realistik adabiy paradigmada insonparvarlik konsepsiyasi tashqi ijtimoiy muhitdagi ziddiyatlar, axloqiy tanlov va jamiyat oldidagi pozitsiyalar orqali badiiy ifodasini topgan. Bunday yondashuvda gumanizm ko‘proq kollektiv ong va ijtimoiy adolat bilan uyg‘unlashgan holda tasvirlanadi. Aksincha, modernizmda insonparvarlik individuallik, ichki erkinlik, ruhiy va ontologik muvozanatni izlash, o‘zligini anglashga qaratilgan subyektiv-estetik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Tahlillardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, realizm va modernizm gumanistik tamoyillarni ifodalashda har xil badiiy vositalar va estetik mezonlarga asoslanadi. Biroq har ikkala oqimda ham inson shaxsi, uning axloqiy tanlovi va ma’naviy qiyofasi asosiy e’tibor markazida turadi. Shu sababli, insonparvarlik konsepsiyasi adabiy tafakkur evolyutsiyasida antropotsentrik yondashuvlarning uzviy tarkibiy qismi sifatida doimo dolzarbligicha qoladi.

Maqolada amalga oshirilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, adabiy oqimlar o‘zining estetik-falsafiy talqin uslublariga ko‘ra farqlansa-da, gumanistik mazmun nuqtayi nazaridan ular bir-birini boyituvchi, izchil badiiy-falsafiy izlanishlar tizimini tashkil etadi. Demak, adabiyot insoniyat ruhiy tafakkurining tarixiy-ko‘zgusi sifatida gumanizmni har doim yangi badiiy shakl va mazmunda talqin etib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Бахтин, М.М. *Проблемы поэтики Достоевского*. — Москва: Наука, 2018.
2.Eagleton, Terry. *The Idea of Culture*. — Oxford: Blackwell, 2017.

3.Гачев, Г. Духовные миры Европы и Востока. — М.: Академический проект, 2019.

4.Joyce, James. *Ulysses*. Annotated Critical Edition. — Penguin Classics, 2018.

5.Толстой, Л.Н. *Анна Каренина*. — Москва: Эксмо, 2020.

6.Balzac, Honoré de. *La Comédie Humaine*. Trans. and ed. by Marion Ayton Crawford. — Oxford University Press, 2016.

7.Kafka, Franz. *The Complete Stories*. — New York: Schocken Books, 2015.

8.Levine, Caroline. *Forms: Whole, Rhythm, Hierarchy, Network*. — Princeton University Press, 2017.

9.Rayment, Andrew. *Literary Realism, Modernism and Postmodernism: A Comparative Introduction*. — Chiba University Press, 2021.

10.Said, Edward. *Humanism and Democratic Criticism*. — Columbia University Press, 2016.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK 830.1
https://orcid.org/0000-0002-3026-3528

1 VA 2-SHAXS BIRLIK VA KO‘PLIK OLMOSHLARINING KOGNITIV-DISKURSIV FUNKSIYASI: TIL VA TAFAKKUR KESISHMASIDA

Pazilova Nasibaxon
Andijon davlat chet tillari instituti
Filologiya fanlari nomzodi, professor
E-mail: npazilova304@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek, rus va ingliz tillari misolida 1- va 2-shaxs birlik va ko‘plik olmoshlarining kognitiv-diskursiv funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot kognitiv lingvistika, psixolingvistika va sotsiopragmatika yondashuvlariga asoslanadi. "Men", "sen", "siz", "biz", "senlar", "sizlar", "bizlar" kabi olmoshlarning nutqda shaxsiy va guruhiy identifikatsiya, sotsial masofa, kommunikativ strategiya va psixologik yuklamani aks ettirishdagi roli ochib beriladi. Inklyuziv va eksklyuziv "biz", shuningdek 2-shaxs ko‘plik shaklining hurmat va ko‘plik funksiyasi bo‘yicha tafovutlari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot natijalari tilshunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va til o‘qitish amaliyotida muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: kognitiv lingvistika, shaxs olmoshlari, kognitiv-diskursiv yondashuv, inklyuziv biz, eksklyuziv biz, sotsiopragmatika, nutq psixologiyasi

КОГНИТИВНО-ДИСКУРСИВНЫЕ ФУНКЦИИ ЛИЧНЫХ МЕСТОИМЕНИЙ 1-ГО И 2-ГО ЛИЦА В ЕДИНСТВЕННОМ И МНОЖЕСТВЕННОМ ЧИСЛЕ: НА ПЕРЕСЕЧЕНИИ ЯЗЫКА И МЫШЛЕНИЯ

Аннотация: В данной статье анализируются когнитивно-дискурсивные функции личных местоимений первого и второго лица в единственном и множественном числе на примерах узбекского, русского и английского языков. Исследование основано на подходах когнитивной лингвистики, психолингвистики и социопрагматики. Особое внимание уделяется функционированию местоимений «я», «мы», «ты», «вы», «сен», «сиз», их роли в выражении личной и групповой идентичности, социальной дистанции, коммуникативных стратегий и психологических установок. Проведён сравнительный анализ включительного и исключительного "мы", а также двойственной функции местоимения второго лица во множественном числе как формы уважения и

количественного множества. Полученные результаты важны для лингвистики, межкультурной коммуникации и методики преподавания языков.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, личные местоимения, когнитивно-дискурсивный подход, включительное мы, исключительное мы, социопрагматика, психология речи

THE COGNITIVE-DISCURSIVE FUNCTION OF FIRST- AND SECOND-PERSON SINGULAR AND PLURAL PRONOUNS: AT THE INTERSECTION OF LANGUAGE AND THOUGHT

Abstract: This article examines the cognitive-discursive functions of first- and second-person singular and plural pronouns in Uzbek, Russian, and English. The research is grounded in cognitive linguistics, psycholinguistics, and sociopragmatic approaches. The study explores how pronouns such as "I", "we", "you", "sen", "siz", and "bizlar" serve as markers of personal and group identity, social distance, communicative strategies, and psychological attitudes. Special attention is given to the inclusive and exclusive uses of "we" and the dual function of second-person plural forms as markers of both politeness and plurality. The findings have significant implications for linguistics, intercultural communication, and language teaching practices.

Keywords: cognitive linguistics, personal pronouns, cognitive-discursive approach, inclusive we, exclusive we, sociopragmatics, speech psychology.

KIRISH

Shaxs olmoshlari inson tafakkuri, nutq va muloqot jarayonlarining ajralmas komponentidir. Ayniqsa, 1- va 2-shaxs birlik va ko‘plik olmoshlari — **"men", "biz", "sen", "senlar", "siz", "sizlar"** — nafaqat grammatik birlik, balki **shaxsiy va guruhiy identifikatsiya**, **ijtimoiy munosabatlarni belgilash**, **sotsial masofa va psixologik pozitsiyani ifodalash** vositasidir. Ular orqali insonlar o‘zining va suhbatdoshining kommunikativ va sotsial pozitsiyasini aniqlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy tilshunoslik, xususan **kognitiv lingvistika**, **diskurs tahlili**, **psixolingvistika** va **sotsiopragmatika** yondashuvlari bu birliklarning semantik, funksional va madaniy yuklamasini chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda. **Langacker (1987, 1991)**, **Evans & Green (2006)**, **Wodak & Meyer (2021)** ishlarida shaxs olmoshlari orqali dunyo manzarasini qurish va identifikatsiya mexanizmlari konseptual asosda izohlangan. Shuningdek, **Maslova (2001)**, **Dobrova (1998)** va **Gee (2011)** kognitiv va psixolingvistik modellar doirasida bu olmoshlarning nutqdagi funksiyalarini ochib beradi.

So‘nggi yillarda olib borilgan qator tadqiqotlar, jumladan **Xitoy (Li, 2021; Zhang, 2022)**, **Koreya (Kim, 2023)**, **Yaponiya (Tanaka, 2023)**, **Arab (Al-Khatib, 2022)** va **Fors (Rahimi, 2021)** tillarida ham shaxs olmoshlarining kognitiv va sotsiopragmatik funksiyalari madaniy va

til tizimlari kesimida faol o‘rganilmoqda. Bu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxs olmoshlari nafaqat til strukturasi, balki madaniyat, an’ana, ijtimoiy norma va kommunikatsion etiketning ham aksidir.

Masalan, **arab tilida** “anta/anti” (sen) va “antum/antunna” (sizlar) olmoshlari sotsial masofa va hurmat ko‘rsatkichlarini aniq aks ettiradi. **Yapon tilida** esa “anata” (siz) juda cheklangan, rasmiy va norasmiy nutqda muqobil ifodalar bilan almashadi (“kimi”, “omae”, “anata-sama”). **Koreys tilida** esa 2-shaxs olmoshlaridan foydalanish odatda cheklangan bo‘lib, uning o‘rnini ism yoki lavozim bildiruvchi birliklar egallaydi, bu yuqori darajadagi ijtimoiy ierarxiya va hurmat madaniyatini aks ettiradi.

O‘zbek tilida esa **"sen/senlar" va "siz/sizlar"** o‘rtasidagi tafovut nafaqat sotsial masofa, balki muloqot jarayonida psixologik ta’sir, ijtimoiy maqom va muomala uslubini belgilashda muhim vositadir. Ingliz tilida esa “you” birlik va ko‘plik, shuningdek rasmiy va norasmiy shaklda farqlanmaydi, bu esa boshqa tillar bilan solishtirganda o‘ziga xos pragmatik farqlarni keltirib chiqaradi.

Mazkur maqola o‘zbek, rus, ingliz tillari va qo‘shimcha ravishda arab, fors, xitoy, koreys va yapon tillari misolida 1- va 2-shaxs birlik va ko‘plik olmoshlarining **kognitiv-diskursiv, sotsiopragmatik va psixokognitiv funksiyalarini** kompleks tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada ushbu olmoshlarning **ontologik (mavjudlik), epistemik (bilish) va pragmatik (muloqotdagi strategik)** funksiyalari o‘rganiladi.

Tadqiqotning yangiligi — 2020 yildan keyingi zamonaviy kognitiv va psixolingvistik tadqiqotlarga tayanilgan holda, shaxs olmoshlarining til va madaniyatlararo diskursdagi o‘rni tahlil qilinmoqda. Bu yondashuv, shubhasiz, nafaqat nazariy, balki amaliy til o‘qitish, madaniyatlararo kommunikatsiya va sotsiopragmatik strategiyalarni rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazariy asos: Ushbu tadqiqotda kognitiv lingvistika (Langacker, 1987; Maslova, 2001), diskurs tahlili (Gee, 2011; Wodak, 2009), shuningdek, sotsiopragmatika va psixolingvistika (Dobrova, 1998; Pazilova, 2024) nazariyalari asosiy konseptual poydevor sifatida qabul qilindi. Kognitiv lingvistika shaxs olmoshlarining konseptualizatsiyasini va muloqotdagi funksiyalarini aniqlashga imkon berdi, diskurs tahlili esa olmoshlarning kontekstual ishlatilishini va kommunikativ vazifasini o‘rganishga xizmat qildi. Sotsiopragmatik yondashuv olmoshlarning ijtimoiy munosabatlardagi rolini, psixolingvistika esa ularning psixokognitiv mexanizmlarini ochib berdi. Metodlar:

Korpus tahlili: Milliy va xalqaro miqyosdagi yozma va og‘zaki matnlar (badiiy, rasmiy, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar yozuvlari) o‘rganildi. Bu metod olmoshlarning turli kommunikativ kontekstlarda qanday ishlatilishini ko‘rsatdi.

Kognitiv xaritalash va diskurs markerlari tahlili: Olmoshlarning muloqotdagi xotira va e’tibor mexanizmlarida tutgan o‘rni, ularning kontekstual va pragmatik ma’nolari xaritalashtirildi.

Eksperimental psixolingvistika: Assotsiativ tajribalar, bola nutqini kuzatish va interaktiv suhbatlar yordamida olmoshlarning psixokognitiv rivojlanish jarayonlari o‘rganildi. Bolalarning "biz" olmoshidan "men" o‘rnida foydalanish fenomeni yaqqol ko‘rsatildi (Dobrova, 1998).

Solishtirma va tipologik yondashuv: O‘zbek, rus va ingliz tillari misollarida birlik va ko‘plikdagi 1- va 2-shaxs olmoshlarining lingvistik va kognitiv farqlari tahlil qilindi. Shuningdek, boshqa tillardagi (arab, fors, xitoy, koreys, yapon) tadqiqot natijalari ham nazarda tutildi, bu tillardagi shaxs olmoshlarining semantik va pragmatik jihatlariga alohida e'tibor berildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1-shaxs birlik olmoshi ("men")

Kognitiv funksiyasi: “Men” olmoshi sub’ektiv mavjudlikni ifodalaydi, shaxsning ontologik markazi hisoblanadi. U nutq egasining o‘zini anglash, o‘z pozitsiyasini va tajribasini aniqlashda markaziy o‘rin tutadi. Bu olmosh orqali gapiruvchi o‘zini boshqa shaxslardan ajratadi va muloqotning boshlang‘ich nuqtasini yaratadi (Maslova, 2001).

Diskursdagi roli: “Men” orqali gapiruvchi o‘z fikrini, his-tuyg‘ularini va ijtimoiy javobgarligini ifodalaydi. Bu olmosh ko‘pincha emotsional fon yaratadi va nutq egasining shaxsiy pozitsiyasini ta’kidlaydi (“Men qarshiman”, “Men bilaman”).

Tipologik xususiyatlar: O‘zbek tilida “men” birlikdagi mavjudlik markazi, rus tilida “я”, ingliz tilida “I” shaklida ko‘rinadi. Barcha tillarda bu olmoshlarning ontologik va kognitiv funksiyasi o‘xshash bo‘lib, shaxsning kommunikativ markazini belgilaydi.

1-shaxs ko‘plik olmoshi ("biz", "bizlar")

Kognitiv tafovutlar: “Biz” olmoshi inklyuziv va eksklyuziv shakllarga bo‘linadi:

- Inklyuziv “biz” – gapiruvchi va tinglovchi (yoki tinglovchilar) jamlangan guruhni anglatadi.
- Eksklyuziv “biz” – gapiruvchi va uchinchi shaxslar, tinglovchi bu guruhga kirmaydi.

Psixolingvistik fenomen: Bolalar nutqida “biz” olmoshi ko‘pincha “men” o‘rnida ishlatiladi. Bu “psevdoplyural” yoki “singulyar biz” fenomeni deb ataladi, bola o‘zini va unga yaqin kishilarni bir guruh sifatida qabul qilish jarayonini aks ettiradi (Dobrova, 1998).

Diskursdagi roli: “Biz” olmoshi muloqotda birdamlik, hamkorlik va mas’uliyatni ta’kidlash uchun ishlatiladi. Shuningdek, u manipulyativ strategiyalar uchun ham vosita bo‘lishi mumkin (“Biz qaror qildik”).

Tipologik jihatlar: Rus tilida “мы” kuchli ijtimoiy va institutsional yuklamaga ega bo‘lsa, ingliz tilida “we” inklyuziv va eksklyuziv farqlari grammatik tarzda aniq ko‘rsatilmaydi.

2-shaxs birlik olmoshi ("sen", "siz")

“Sen” olmoshi: Bu norasmiy, yaqinlikni, samimiylikni ifodalovchi shakldir. Ba’zida ijtimoiy past maqomni ham aks ettiradi. Psixolinguistik tahlillarda “sen” olmoshi orqali muloqotda yaqinlik va o‘zaro ishonch alomatlari yaratiladi.

“Siz” olmoshi: Rasmiy, hurmatli shakl bo‘lib, ijtimoiy masofani, odatda yuqori maqomni yoki rasmiylikni bildiradi. “Siz” birlik shaklda ishlatiladi, biroq ko‘plik ma’nosini ham qamrab oladi.

Kognitiv-funksional yuklama: “Sen” va “siz” olmoshlari muloqotdagi ishtirokchi pozitsiyasini belgilaydi, tinglovchini faollashtiradi va muloqotning intersub’ektiv xarakterini ta’kidlaydi.

Tipologik ko‘rinishlar: Rus tilida “ты” (sen) va “вы” (siz/ko‘plik) shakllari aniq farqlanadi, ingliz tilida esa “you” shakli ko‘plik va birlikda ishlatiladi, rasmiylik darajasi kontekst orqali aniqlanadi.

2-shaxs ko‘plik olmoshi ("senlar", "sizlar")

“Senlar”: Norasmiy, yaqin auditoriyaga murojaat qilish uchun ishlatiladi. Bu shakl ko‘pincha yoshlar o‘rtasida qo‘llanadi va guruhiy yaqinlikni bildiradi.

“Sizlar”: Ko‘plik va rasmiylik ma’nosida qo‘llaniladi, odatda hurmat ko‘rsatish va ijtimoiy masofani saqlash uchun.

Kognitiv va diskursiv roli: Guruhiy identifikatsiya, umumlashtirish, yaqinlik yoki ijtimoiy maqomni belgilash uchun ishlatiladi.

Tipologik nuqtai nazar: Rus tilida “вы” ko‘plik va hurmat shakli sifatida, ingliz tilida esa “you all”, “you guys” kabi ifodalari mavjud.

Tilaro taqqoslovchi jadval (Cross-linguistic comparison):

Til	**1-shaxs birlik ("men")**	**1-shaxs ko‘plik ("biz/bizlar")**	**2-shaxs birlik ("sen/siz")**	**2-shaxs ko‘plik ("senlar/sizlar")**
O‘zbek	Ontologik markaz	Inklyuziv/Eksklyuziv; manipulyativ	Hurmat/soddalik	Guruhiy murojaat
Rus	"я"	"мы"; kuchli institutsional yuklama	"ты"/"вы"	"вы"/"вы все"
Ingliz	"I"	"we" (inklyuziv/eksklyuziv yo‘q)	"you"	"you all", "you guys"
Arab	"أنا" (ana)	"نحن" (nahnu)	"أنتَ/أنتِ" (anta/anti)	"أنتم" (antum)
Fors	"من" (man)	"ما" (ma)	"تو" (to)	"شما " (shoma)
Xitoy	"我" (wǒ)	"我们" (wǒmen)	"你" (nǐ)	"你们" (nǐmen)
Koreys	"나" (na)	"우리" (uri)	"너" (neo)	"너희" (neohui)
Yapon	"私" (watashi)	"私たち" (watashitachi)	"あなた" (anata)	"あなたたち" (anatatachi)

Shaxs olmoshlari nafaqat grammatika kategoriyasi sifatida, balki inson muloqoti va psixologiyasining markaziy elementlaridan biri sifatida ko‘riladi. Ular orqali shaxs o‘zining nutqdagi mavqeini belgilabgina qolmay, balki muloqot psixologiyasi, ijtimoiy munosabatlar va madaniy tafakkurning chuqur qirralari namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, rus va o‘zbek tillarida 2-shaxs ko‘plik shakli sifatida “siz” olmoshi hurmat va rasmiylik funksiyasini faol bajaradi. Bu olmosh ijtimoiy masofani, ierarxiyani, va nutqdagi rasmiylik darajasini ta’kidlaydi. Ingliz tilida esa 2-shaxs ko‘plik uchun alohida “siz” shakli mavjud emas, ya’ni “you” har doim ko‘plik va birlik shaklida ishlatiladi. Shu sababli ingliz tilida ijtimoiy hurmat va rasmiylik ko‘proq kontekst va intonatsiya orqali ifodalanadi, bu esa madaniyatlararo kommunikatsiyada ayrim noaniqlik va qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

1-shaxs ko‘plik olmoshi “biz” va uning ko‘plik shakli “bizlar” orqali nutqda nafaqat guruhiy identifikatsiya, balki ijtimoiy birdamlik, hamkorlik, mas’uliyatni ta’kidlash yoki manipulyativ strategiyalar amalga oshiriladi. Masalan, “biz qaror qildik” iborasi gapiruvchi guruhga vakillik qilish va o‘z pozitsiyasini mustahkamlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Psixolingvistik tadqiqotlar, jumladan Dobrova (1998) ishlarida ko‘rsatilishicha, bolaning tafakkurida “men” va “biz” olmoshlari chegarasi kech shakllanadi. Bolalar dastlab “biz” olmoshini o‘z-o‘zini bildiruvchi shakl sifatida qabul qilib, keyinchalik uni guruh konseptiga aylantiradi. Bu jarayon shaxsning sotsial va psixologik rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq.

Shaxs olmoshlari orqali amalga oshiriladigan bunday ijtimoiy va psixologik funksiyalarni hisobga olib, til o‘rgatishda va madaniyatlararo kommunikatsiyada olmoshlarning funktsional jihatlarini chuqur o‘rganish juda muhimdir. Bu, ayniqsa, tarjima va til o‘rgatishda madaniy tafovutlar va kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi.

XULOSA

1- va 2-shaxs birlik va ko‘plik olmoshlari inson tafakkuri va muloqotining asosiy kognitiv va diskursiv konstruksiyalaridan biri hisoblanadi. Ular orqali shaxs o‘zining mavjudligini va nutqdagi o‘rnini tasdiqlaydi, shuningdek, ijtimoiy va psixologik rollarini belgilaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, shaxs olmoshlari nafaqat lingvistik birlik, balki insonning sub’ektiv va intersub’ektiv dunyoqarashi, muloqotdagi pozitsiyasi va sotsial munosabatlarning ifodachisidir. Shu boisdan, ularning o‘rganilishi til o‘rgatishda, tarjimada va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida yuqori amaliy ahamiyatga ega.

Kelgusida boshqa tillarda, xususan arab, fors, xitoy, koreys va yapon tillaridagi shaxs olmoshlarining kognitiv-diskursiv va sotsiopragmatik xususiyatlarini ham kengroq tahlil qilish lozim. Bu turli madaniyatlar va tillar orasidagi o‘xshashliklar va farqlarni aniqlashga yordam beradi va global tilshunoslikda yangi ilmiy yo‘nalishlarni rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (References)

1. Dobrova, G. N. (1998). *Ontogenez rechevoy deyatel'nosti detey: Psixolingvisticheskiy podxod* (pp. 45–62). Moskva: Institut Psixolingvistiki.
2. Gvozdev, A. N. (1961). *Formirovanie grammaticheskogo stroya russkoy rechi u detey* (pp. 113–128). Moskva: APN RSFSR.
3. Gee, J. P. (2011). *How to do discourse analysis: A toolkit* (pp. 25–38). New York: Routledge. https://doi.org/10.4324/9780203856330

4. Langacker, R. W. (1987). *Foundations of Cognitive Grammar: Theoretical Prerequisites* (Vol. 1, pp. 132–148). Stanford: Stanford University Press.

5. Maslova, V. A. (2001). *Kognitivnaya lingvistika* (pp. 55–73). Minsk: TetraSistems.

6. Pazilova, N. M. (2024). *Pronominal Strategies in Uzbek–Russian–English Intercultural Communication* (pp. 78–92). Tashkent: Andijan State Institute of Foreign Languages Publishing.

7. Wodak, R., & Meyer, M. (2009). *Methods of Critical Discourse Analysis* (2nd ed., pp. 41–59). London: SAGE Publications.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

AHMAD A’ZAMNING DIALEKTIZMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Tursunov Mirzohid Ikromjon o‘g‘li
O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti mustaqil tadqiqotchisi
Email: tursunov.mirzohid1995@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yozuvchi Ahmad A’zamning o‘zbek xalq sheva so‘zlaridan nechog‘lik ustalik foydalanganligi, asarlarida ayni so‘zlarning poetik yuki, asar qahramonlarining qaysi hududga oidligi, milliy koloritni yaratish va ifodalashda sheva so‘zlarning muhim ahamiyatga egaligi qayd qilingan.

Kalit so‘zlar: Ahmad A’zam, til, sheva, lingvopoetik yuk, lingvopoetika, mahalliy-milliy kolorit.

УМЕНИЕ АХМАДА АЪЗАМА ИСПОЛЬЗОВАТЬ ДИАЛЕКТИЗМЫ

Аннотация. В этой статье отмечается, насколько мастерски писатель Ахмад Аъзам использовал узбекские народные диалекты, поэтическая нагрузка этих слов в своих произведениях, регион, к которому принадлежат герои произведения, и важность диалектных слов в создании и выражении национального колорита.

Ключевые слова: Ахмад Аъзам, язык, диалект, лингвопоэтическая нагрузка, лингвопоэтика, местно-национальный колорит.

AHMAD A'ZAM'S SKILL IN USING DIALECTISMS

Abstract. This article notes how skillfully the writer Ahmad A'zam used Uzbek folk dialect words, the poetic weight of these words in his works, which region the characters of the work belong to, and the importance of dialect words in creating and expressing national color.

Keywords: Ahmad A'zam, language, dialect, linguopoetic load, linguopoetics, local-national color.

Kirish

O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan o‘zining shevalarga boyligi bilan ajralib turadi [5]. Dialektal so‘zlar milliy tilning asosini tashkil etadi va milliy-ma’naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Dialektal so‘zlarning ko‘pi tilimizning uzoq o‘tmishini, xalqimizning turmushi, madaniyati, urf-odatlari va shu kabilarni o‘zida yorqin aks ettiradi [1]. Dialektlar qator tilshunos olimlar ta’kidlaganlaridek (N.Mahmudov, S.Ashirboyev, M.Yo‘ldoshev) badiiy nutqda muhim

stilistik vazifalarni bajaradi. Odatda, dialektlar muayyan badiiy asarda alohida qahramonning nutqini individuallashtirish, hududiy mansublikni anglatish hamda mahalliy koloritni berishga xizmat qiladi. Dialektal so‘zlarning badiiy asarda qo‘llanishi qahramonlar nutqining rang-barangligini ta’minlab, nutqning jonli va ta’sirchanligini oshirish hamda badiiy asar tilining poetik xususiyatlarini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi [4].

Adabiyotlar tahlili

Dialektizmlar badiiy nutqda turli formalarda ishtirok etadi. Bu dialektal formalar esa, u xoh leksik, xoh grammatik, xoh semantik, xoh fonetik jihatdan bo‘lsin, albatta, u yoki bu darajada estetik qimmatga egadir. Ammo bu estetik qimmatni belgilashda dialektizmlarning boshqa so‘zlar bilan kontekstda organik ravishda birikib ketganligi yoki ketmaganligi, ularning ichki uyg‘unlashuvidan kelib chiqishi kerak[1].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada Ahmad A’zamning o‘zbek xalq sheva so‘zlaridan mahorat bilan foydalanganligi, sheva so‘zlarning qaysi hududlarga xosligi, ularning lingvopoetik tahlili qayd qilingan. Tadqiqotda qiyoslash, statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar

So‘z leksik jihatdan dialektizm sifatida badiiy nutqda ishtirok etishi mumkin, ya’ni dialektizmning adabiy tilda, albatta, sinonimi mavjud bo‘ladi. Bunda dialektizm adabiy tilga oid so‘zlar bilan semantik va stilistik jihatdan qarshilantirilishi natijasida mahalliy koloritning muhim shtrixlarini o‘zida aks ettiradi. Masalan: *Ma, bacham, choyni o‘zing qaytar* (O. Muxtorov, “Yillar shamoli” romani). *Birovi “aba” deb maki chaqirmish* (H. Sa’dulla, “Onaizor” she’ri). *Muhammad Rahimxon qattiq kasalmish, ulli-ulli tabiblar ham kasalining davosini topolmayotganmish* (J. Sharipov, “Xorazm” romani). Bu misollardagi *bacham* Buxoro shevasiga, *aba* Namangan shevasiga va *ulli (ulug, katta)* so‘zi Xorazm shevasiga xos bo‘lib, mazkur gaplar kitobxon diqqatini tez o‘ziga jalb qiladi. Ayni paytda bu dialektizmlar mahalliy koloritning muayyan shtrixlarini gavdalantiradi [1].

Yozuvchi Ahmad A’zam asarlarida ham dialektal so‘zlardan muayyan badiiy maqsadni ko‘zlab foydalangan. Aslida, Ahmad A’zam asarlarida talaygina o‘rinlarda shevaga xos so‘zlarga murojaat qiladi. Biz ushbu dialektal birliklarning semantik-stilistik, lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganishni ahamiyatli deb bildik. Taniqli tilshunos olim M.Yo‘ldoshev dialektizmlarni uch guruhga bo‘lib o‘rganadi: sof leksik dialektizmlar, etnografik dialektizmlar, semantik dialektizmlar[6].

Taniqli tilshunos N.Mahmudov “Ma’lumki, tilimiz rango-rang shevalarga boy, shevalar xalq tili sifatida tilimiz takomili va tarovatini tirik saqlab kelayotgan, adabiy til quyushqonlarini ko‘pda pisand qilmaydigan, ammo uning boqiyligining zimni zaminini ushlab turadigan, adabiy til deyiladigan muazzam va muhtasham birlikning boyishiga tirgak tutadigan tuganmas manbalardir” [2]deya ta’kidlaydi. Ahmad A’zam ham asarlarida xalq tilining sheva qatlamlaridagi so‘zlardan o‘zining badiiy niyatiga muvofiq tarzda o‘rni bilan foydalanganligini misollar yordamida ko‘ramiz.

Ahmad A’zam asarlarida asosan leksik dialektizmlarni, ba’zi o‘rinlardan esa fonetik dialektizmlarni uchratdik va tahlilga tortdik. Dialektizmlar yozuvchi asarlarida o‘ziga xos jarangga egaligi hamda poetik jozibadorligi bilan ajralib turadi. Masalan: *Hamkasb hamxonalar bir oz* ***manjashib,*** *janjaldan beriroqda murosaga to‘xtadilar. Bu orada A’lam uch qatnab, olti chelak kirgizib oldi, Turdiali olayib ko‘rdi, boshini sarak-sarak qildi, tilini cho‘qillatdi, lekin ancha o‘ziga kelib, boyagi yonishi bosildi, oxiri yalinishga ham o‘tdi.* (Hali hayot bor, 2). Yozuvchi ushbu parchada Jizzax viloyati sheva vakillari nutqiga xos bo‘lgan, *bahslashmoq, urushmoq*[3] ma’nolarini ifodalovchi *manjashmoq* leksemasini qo‘llagan. Bu orqali hududiy mansublik, mahalliy koloritni alohida ta’kidlashni maqsad qilgan.

Ma’lum bir territoriyada mavjud bo‘lgan tushunchaning adabiy tilda bir so‘zga teng atamasi bo‘lmaydi. Shevada esa uni atovchi alohida dialektal so‘z bor. Badiiy putqda bu tushunchani ifodalash uchun esa bir necha so‘zdan, ya’ni oborotdan foydalanish lozim. Ana shunday hollarda yozuvchi mazkur dialektizmni qo‘llaydi. Bunda muayyan mahalliy kolorit yorqin namoyon bo‘ladi va, demak, dialektizm o‘zining estetik funksiyasini bajaradi. Masalan, Jizzax shevasida na’matak o‘simligini *ajinabuta, ajinapitta,* Samarqand viloyatining ba’zi qishloqlarida esa *bog‘gul* deyishadi. Ahmad A’zam ham xalq tiliga xos bo‘lgan yuqorida sheva birliklarini qo‘llab, mahalliy koloritni yorqin namoyon qila olgan: *Bizning G‘azirada itburun – na’matakni hech kim “itburun” yo “na’matak” demaydi, uning oti* ***“bog‘gul”****, odamlar bog‘gul deydi, na’matak desangiz, nima u, deb hayron ham bo‘ladilar. Lekin undan ham keng tarqalgan oti* ***“ajinapitta”****, ya’ni* ***“ajinabuta”****.* (Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar, 172).

Ahmad A’zam xalq tilida keng tarqalgan sheva so‘zlaridan ham mahorat bilan foydalangan va shevaga xos so‘zdan yangi ma’noli so‘z ham yasay olgan. Bu esa ifodalanayotgan fikrda sheva so‘zlarning poetik aktualligini oshirgan: *– Ha, kep qolar, – deyman, –* ***chakkifurush*** *ko‘payib ketadi deyishadi-da. Shusiz ham Samarqand bozorida “****chakki*** *qayerniki?” desang, hammasi “G‘aziraniki!”, deydi.* (Qatag‘on yili, 2)

Musallam men tengi, hamsoyamiz, oramizda bitta uvat, ularning ***oshkadisi*** *palagi biznikiga o‘tib tugadi,* ***olmurudimizning*** *yarim shoxi ularnikiga solingan, dasturxon ustida ikki uy bir-birimizni ko‘rib o‘tiramiz, o‘rtada ol tovog‘im-ber tovog‘im. (Oyimning garashalari, 2).*

Yuqoridagi matnlar tarkibidagi *chakki, chakkifurush, oshkadi, olmurud* so‘zlari hududiy chegaralangan so‘zlar hisoblanib, adabiy tilda *suzma, suzma savdosi bilan shug‘ullanuvchi shaxs, oshqovoq, nok* leksemalari bilan ifodalanadi.

Badiiy matn tarkibida bu kabi so‘zlar milliy mansublikni, hududiy muhit koloritini ham ifodalaydi. Ijodkor o‘z qahramonlarini o‘zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so‘zlardan, grammatik birliklardan o‘z o‘rnida, mohirona foydalana olgan. Sheva so‘zlari mahalliy kelib chiqish, hududiy mansublikni o‘zida aniq aks ettirish bilan bir qatorda badiiy asarda qahramon nutqining muayyan estetik, ta’sirchanlikni kuchaytirish vazifalarini ham bajargan. Masalan, *Temir qozig‘ini, tesha olib yuraman, qattiq yerga qoqqan edim, molning o‘zi tortganga sug‘urilmaydi. Qanday ketadi! O‘g‘ri kunduzi* ***dorimaydi****, uning ishi kechasilik,*

shunda ham ondasonda bittalab oladi. Besh mol aqllashib gapni bir joyga qo‘yib yo‘qolgani aqlimga sig‘maydi. (Quroq, 14). Mazkur parchada *biror tomon qadam bosmoq, yaqinlab kelmoq, oralamoq* [7] ma’nolarini ifodalovchi shevaga xos bo‘lgan *dorimoq* leksemasi qo‘llangan. Yozuvchi mahalliy xalq leksikasida uchraydigan dialektizmdan foydalanib, tinglovchiga tasvirning yanada aniq va yorqin bo‘lishida, voqea joyi aniqroq sezilishi maqsadida foydalangan. Zero, *dorimoq* dialektizmida *biror tomon qadam bosmoq, yaqinlab kelmoq, oralamoq* leksemalariga nisbatan poetik joziba ancha yuqori.

Dialektizmlarning avtor tilida qo‘llanishi bilan personaj nutqida qo‘llanishi mutlaqo alohida-alohida hodisalardir. To‘g‘ri, o‘rni bilan avtor tilida qo‘llangan dialektizmlar u yoki bu mahalliy koloritni ifodalashga xizmat qiladi. Lekin dialektizmlarning haqiqiy estetik mohiyati, asosan, personaj nutqida yaqqol ko‘rinadi, dialektizmlar xarakterologik va ekspressiv imkoniyatlarini ana shu personaj nutqida haqli ravishda namoyon qila oladi. Masalan, *Melisaning battar jahli chiqdi: – O‘v boboy! Jonga tegdingiz lekin! Boya nevaramga **jilob** olaman dedingiz! Endi bu gap chiqdimi?! Qarib, miyangizni yeb qo‘yganmisiz?* (Ahmad A’zam, Qatag‘on yili). Ushbu matn tarkibidagi *jilob* so‘zi hududiy chegaralangan so‘z hisoblanib, adabiy tilda *paypoq* leksemasi bilan ifodalanadi.

Ahmad A’zam *“uyatga yoki ta’naga qoldiradigan, nomiga dog‘ tushiradigan ish; shunday ishdan bo‘ladigan (keladigan) uyatli holat”* [3] ma’nolarini ifodalaydigan *isnod* so‘ziga sinonim bo‘lgan, xalq tilida faol qo‘llanmaydigan ***nasoq*** leksemasini qo‘llaydi, bu orqali asar qahramoning ichki dunyosini, kechinmalarini ifodalaydi, so‘zga poetik yuk yuklaydi: *Gapni nimaga olib kelyapsiz? Qizingiz yuradi deb betimga soldingiz, mayli, o‘zimning bolam, **nasog‘i** ham o‘zimniki, deb yutib yubordim.* (Ahmad A’zam, O‘zi uylanmagan sovchi, 23).

Quyida esa adabiy tilda *“bemalol, erkin, mas’uliyatsizlik bilan”* mazmunini ifodalovchi *shirdinglamoq* dialektizmining poetik aktuallashganini ko‘rish mumkin: *Sizda vijdon bo‘lsa, bunaqa **shirdinglab** yurarmidingiz? Xalq erta-yu kech mehnatning tagida yotgan paytda oyoqni ho‘lga tegizmay bunaqa olifta yurish uchun vijdonni yutgan bo‘lishi kerak odam…*(Qatag‘on yili, 8).

Yozuvchi asarlarida *ajinabuta, ajinaputta* (na’matak), *aqba* (tog‘ yo‘li, so‘qmoq), *birchigit* (ko‘saklarda qolgan ozgina paxta) kabi ot turkumiga; *bitishli* (tumsa); *birushta* (doimo), *jichcha* (oz, kam), *bag‘i* (bu yog‘i) kabi ravish va *asti* (aslo), *satta* (nuqul) yordamchi so‘z turkumlariga oid sheva so‘zlar uchraydiki, ular ham yozuvchi asarlari tilining ranginligi va ifoda nozikligi uchun xizmat qiladi. Bu kabi dialektizmlar izohini berishda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” hamda “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”dagi tahlilga asoslanildi. Yozuvchi Ahmad A’zam qo‘llagan shevaga xos so‘zlar xalqona usulda oddiy xalq tiliga yaqin bo‘lganligi uchun asarning badiiy estetik qimmatini va badiiy tasvir jozibasini yanada oshirishga xizmat qilgan.

Xulosa

Dialektal so‘zlar milliy tilning asosini tashkil etadi va milliy-ma’naviy qadriyat hisoblanadi. Shuning uchun bu birliklardan foydalanmaydigan ijodkorni topish qiyin. Yozuvchi Ahmad A’zam ham dialektizmdan badiiy ta’sirchanlik va poetik aktuallashuvga erishish

vositasi sifatida hamda o‘quvchiga aytilmoqchi bo‘lgan fikrni yanada anglashilarli qilib berish maqsadida foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1980. – Б.23.

2. Маҳмудов. Н. Юракка созланган сўзлар синоатлари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2022 йил 19 август.

3. Musayeva F. O‘zbek xalq so‘zlari. – Toshkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2023. – B. 200.

4. Тошхўжаева Ш.Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филология фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)....дисс. – Фарғона, 2017. – Б 85.

5. Умаров Э. Миртемир шеъриятида шевага оид сўзлар // Тил ва адабиёт таълими, 2006. – №3. – Б. 33-36.

6. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 2000. – Б.60.

7.https://uz.wiktionary.org/wiki/dorimoq

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA ISTE’MOLDAN CHIQQAN "AHL" KOMPONENTLI LUG‘AVIY BIRLIKLAR (ALISHER NAVOIY ASARLARI MISOLIDA)

Akbarova Zulfizargul Iqboljon qizi
Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti(PhD)
zulfizargulakbarova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan “ahl” komponentli lug‘aviy birliklarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan. Ushbu birliklar o‘z davrida diniy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy va estetik mazmunni ifodalashda muhim rol o‘ynagan. Tadqiqotda “ahl” komponentli birliklarning hozirgi o‘zbek adabiy tilida iste’moldan chiqqani, ularning zamonaviy ekvivalentlari bilan almashgani va stilistik faolligining pasaygani ko‘rsatib o‘tilgan. Tahlil davomida bu birliklarning tarixiy til taraqqiyoti, lingvistik meros va uslubshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilishi muhimligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ahl, Alisher Navoiy, izofiy birikma, semantika, uslub, tarixiy leksika, iste’moldan chiqqan birliklar, tasavvufiy til, stilistik qatlam

Abstract: This article analyzes the lexical-semantic and stylistic features of lexical units with the “ahl” component used in the works of Alisher Navoi. These units played an important role in expressing religious-moral, socio-political and aesthetic content in their time. The study shows that units with the “ahl” component have fallen out of use in the current Uzbek literary language, have been replaced by their modern equivalents, and their stylistic activity has decreased. The analysis substantiates the importance of studying these units from the perspective of historical language development, linguistic heritage and stylistics.

Keywords: ahl, Alisher Navoi, isomorphic compound, semantics, style, historical lexicon, units that have fallen out of use, mystical language, stylistic layer

Аннотация: В данной статье анализируются лексико-семантические и стилистические особенности лексических единиц с компонентом «ахл», используемых в произведениях Алишера Навои. Эти единицы играли важную роль в выражении религиозно-нравственного, общественно-политического и эстетического содержания в свое время. Исследование показывает, что единицы с компонентом «ахл» вышли из употребления в современном узбекском литературном языке, были заменены своими современными эквивалентами, а их стилистическая активность снизилась. Анализ обосновывает важность изучения этих единиц с точки зрения исторического развития языка, языкового наследия и стилистики.

Ключевые слова: ахл, Алишер Навои, изоморфное соединение, семантика, стиль, историческая лексика, единицы, вышедшие из употребления, мистический язык, стилистический пласт

KIRISH

Tilning boyligi, eng avvalo, uning lug‘aviy birliklarida, ayniqsa, ma’naviy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-estetik mazmun yuklangan so‘z birikmalarida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlarida muhim tarkibiy unsur sifatida “ahl” komponentli lug‘aviy birliklar o‘ziga xos semantik qatlamni tashkil etgan bo‘lib, ular asosan diniy, ijtimoiy, siyosiy, axloqiy hayot tarzini ifodalovchi birliklar sirasiga kiradi. Jumladan, Alisher Navoiy asarlarida “ahl” komponenti bilan bog‘liq bo‘lgan “ahli ilm”, “ahli fazl”, “ahli saltanat”, “ahli fitna”, “ahli jamoat” kabi izofiy birikmalar nafaqat davr ruhiyatini, balki uslubiy boylikni ham ifodalaydi. Ammo bugungi kunda mazkur birliklarning katta qismi zamonaviy o‘zbek adabiy tilida faol qo‘llanilmay qolgan. Bunga sabab sifatida ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘zgarishlar, diniy terminlarning chekinishi, shuningdek, uslubiy ifoda vositalarining zamonaviy shakllar bilan almashtirilishini ko‘rsatish mumkin. Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan “ahl” komponentli lug‘aviy birliklarning semantik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi hamda hozirgi o‘zbek tilida iste’moldan chiqqan shakllari aniqlanadi. Shu bilan birga, bu birliklarning o‘z davridagi stilistik yuklamasi ham yoritiladi. Maqola natijalari tarixiy-lingvistik izlanishlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda tarixiy-lingvistik tahlil metodi asos qilib olindi. “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklarning semantik va uslubiy xususiyatlarini aniqlash uchun Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Lison ut-tayr” kabi asarlari tanlab olindi. Mazkur asarlar asosan izlanish obyektining tarixiy matnlardagi ishlatilishini aniqlashda asosiy manba vazifasini bajardi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda olib borildi:

Matn tanlash: Alisher Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlariga tayangan holda asosiy matnlar shakllantirildi.

“Ahl” komponentli birikmalarni ajratib olish: Asarlar tarkibida “ahl” komponentli izofiy birliklar (masalan, ahli ilm, ahli saltanat, ahli fitna) aniqlanib, alohida ro‘yxat tuzildi.

Semantik tahlil: Har bir birlikning leksik-semantik ma’nosi, qo‘llanilish doirasi va konnotativ ma’nosi aniqlandi.

Uslubiy tahlil: Birikmalarning qanday uslubiy matnlarda qo‘llanilganiga e’tibor qaratildi – diniy, siyosiy, axloqiy yoki badiiy maqsadga xizmat qilishi aniqlashtirildi.

Zamonaviy o‘zbek tilidagi holati: “Ahl” komponentli birliklarning bugungi o‘zbek tilidagi qo‘llanish darajasi aniqlanib, faollik yoki passivlik darajasi baholandi. Buning uchun “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (6 jildli), “O‘zbek tilining sinonimlar lug‘ati”, shuningdek, ommaviy matnlar (gazeta, jurnal) kuzatildi.

Tadqiqot davomida ilmiy-lug‘aviy tahlil vositalari, leksik-semantik guruhlashtirish, uslubiy qatlamlashtirish usullari qo‘llanildi. Natijalar tavsifiy-lingvistik tarzda izohlangan.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida Alisher Navoiy asarlarida “ahl” komponenti ishtirokidagi 150 dan ortiq lug‘aviy birliklar aniqlandi. Ularning asosiy qismini quyidagi semantik guruhlarga ajratish mumkin:

Ilm-ma’rifat doirasidagi birliklar: ahli ilm – ilm ahli, ulamolar, ilm egalari, ilmlilar, olimlar [ANATIL,175]; ahli fazl – fazilat egalari, ilmlilar [ANATIL, 180]; ahli irfon – bilim, ma’rifat ahli, oriflar, ma’rifat va ruhiy kamolot egasi bo‘lganlar [ANATIL,175] kabi birliklarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ushbu birliklar diniy-falsafiy matnlarda faol qo‘llanilgan, ayniqsa, “Nasoyim ul-muhabbat” va “Mahbub ul-qulub”da juda ko‘p o‘rinlarda qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Siyosiy va ijtimoiy qatlam ifodalovchi birliklarga ahli saltanat – hukmron tabaqa, davlat rahbarlari; ahli davlat – siyosiy-iqtisodiy qudrat egasi bo‘lganlar, davlatmandlar, boylar [ANATIL,173]; ahli mulk – yurt egalari, davlat boshliqlari kabilar misol bo‘la oladi. Ushbu birliklar ko‘proq “Xamsa” tarkibidagi dostonlarda uchraydi.

Salbiy ijtimoiy guruhlar yoki ruhiy holat ifodalovchilar turkumiga ahli nuqson – johillar, nodonlar, nuqsonlilar [ANATIL,177]; ahli riyo – munofiqlar, makkorlar[ANATIL,177]; ahli fitna – fitna va ig‘vo qo‘zg‘atuvchilar; ahli buhtan – tuhmat qiluvchi shaxslar; ahli nifoq – ikkiyuzlamachilar, munofiq kishilar; ahli tajohul – jaholat ahllari, johillar[ANATIL, 178] izofiy birikmalarini kiritishimiz mumkin. Bu birliklar, asosan, salbiy semantik yuklamaga ega bo‘lib, axloqiy baho berish maqsadida ishlatilgan.

Diniy-ruhiy holatni bildiruvchi birliklar qatorini ahli taqvo – porsolar, taqvodorlar [ANATIL, 179]; ahli ibodat – ibodatda mustahkam bo‘lgan kishilar; ahli haqiqat – so‘fiylik maslagida xudoga yetishgan kishilar [ANATIL, 182], ahli zuhd – zohidlar, zohidlikka berilganlar[ANATIL, 174] kabi izofiy birliklar egallaydi. Ushbu birliklar Navoiy ijodida tasavvufiy-estetik tafakkur bilan bog‘liq bo‘lib, ruhiy yuksaklik mezonlarini belgilaydi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yuqoridagi birliklarning aksariyati hozirgi o‘zbek adabiy tilida iste’moldan chiqqan yoki juda kam ishlatiladi. Masalan: *ahli saltanat, ahli buhtan, ahli fitna, ahli mulk* birliklari bugungi ommaviy matnlarda uchramaydi. Ahli ilm, ahli taqvo kabi birliklar esa ayrim diniy maqola va notiqlik uslubida uchrab turadi, biroq umumxalq tili darajasida faol emas. Bu esa “ahl” komponentining leksik tizimdagi passivlashuv jarayonini ko‘rsatadi. Shuningdek, ayrim birliklar zamonaviy tilga sinonimik shakllarda ko‘chgan bo‘lib, masalan, ahli ilm o‘rniga “olimlar”, ahli davlat o‘rniga “rahbarlar” ishlatilmoqda. Bu esa funksional o‘zgarish va zamonaviy kommunikatsiya ehtiyojlari bilan bog‘liq.

MUHOKAMA

“Ahl” komponentli lug‘aviy birliklarning semantik va uslubiy jihatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu birliklar Alisher Navoiy asarlarida ko‘p funksiyali va uslubiy yuklamasi kuchli bo‘lgan ifoda vositalari sifatida xizmat qilgan. Ular orqali shoir ma’naviy-ruhiy, diniy-axloqiy,

siyosiy-ijtimoiy qatlamlarga oid fikr va qarashlarini yuksak badiiylik bilan ifodalagan. Xususan, “ahli ilm”, “ahli fazl”, “ahli taqvo” kabi birliklar orqali ma’rifatparvarlik g‘oyasi targ‘ib etilgan bo‘lsa, “ahli fitna”, “ahli buhtan”, “ahli nifoq” kabi birliklar orqali salbiy ijtimoiy hodisalar fosh etilgan va bunday guruhlar tanqid ostiga olingan. Bu esa “ahl” komponentli birliklarning stilistik ziddiyat asosida semantik tafovut hosil qilishga xizmat qilganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, bunday birliklarning izofiy birlik shaklida bo‘lishi (ahl + izofa + substansiv komponent) ularning mustahkam leksik birlikka aylanganini bildiradi. Ular tilning frazeologik qatlamiga yaqinlashgan bo‘lib, ko‘pincha bir butun termin yoki obraz sifatida qo‘llanilgan. Masalan, ahl-i saltanat – oddiygina “shoh” yoki “rahbarlar” emas, balki butun saltanat tuzumini bildiruvchi ijtimoiy qatlamni anglatadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa bu birliklarning deyarli barchasi iste’moldan chiqqan, ularning o‘rnini zamonaviy, oddiy shakllar – olimlar, rahbarlar, nohaq odamlar, dindorlar kabi so‘zlar egallagan. Bu hodisa o‘z navbatida tilning soddalashuvi va zamonaviy kommunikativ qulayliklarga moslashuvi bilan izohlanadi.

Shuningdek, “ahl” komponenti bilan tuzilgan birliklarning stilistik ekspressivligi, ya’ni hissiy va baholovchi ohangi kuchli bo‘lgani uchun ular badiiy asarlarda keng qo‘llanilgan. Ularning hozirgi tildagi kam ishlatilishi esa tilning uslubiy differensiallashuv jarayonida ba’zi qatlamlarning chekinishini bildiradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, “ahl” komponentli birliklar ayniqsa tasavvufiy-estetik kontekstda faol bo‘lgan. Bu jihat hozirgi zamonaviy rasmiy yoki kundalik tilda o‘z ifodasini topgani yo‘q. Bu esa tarixiy til qatlamlarini qayta tahlil qilish va ma’naviy merosni saqlab qolish nuqtayi nazaridan ham muhimdir.

XULOSA

O‘rganilgan materiallar asosida quyidagi xulosalarga kelindi: “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotida, ayniqsa, diniy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy nutq uslublarining boyishiga xizmat qilgan. Alisher Navoiy asarlarida bu birliklar ko‘p hollarda tasavvufiy, axloqiy va ma’rifiy mazmunni ifodalovchi semantik vositalar sifatida qo‘llanilgan. Bunday birliklarning katta qismi hozirgi o‘zbek adabiy tilida passiv leksika qatlamiga o‘tgan bo‘lib, ular zamonaviy og‘zaki va yozma nutqda deyarli ishlatilmaydi. Ularning o‘rnini leksik jihatdan soddaroq, ijtimoiy faol birliklar egallagan. Masalan, ahli ilm o‘rniga “olimlar”, ahli saltanat o‘rniga “rahbarlar” kabilar qo‘llanmoqda. “Ahl” komponentli birliklarning semantik qiymati yuqori bo‘lib, ular shaxsiy, ijtimoiy, diniy mansublikni aniq ko‘rsatuvchi, baholovchi va ekspressivlikka ega birliklar sifatida o‘z davrida faol xizmat qilgan. Ularning zamonaviy til tizimida yo‘qolib borishi esa tarixiy-lingvistik o‘zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy sharoitlar va uslubiy talablarga moslashuv bilan bog‘liqdir. “Ahl” komponentli birliklar hali ham adabiy til taraqqiyoti, uslubshunoslik, semasiologiya, tarixiy leksikologiya kabi sohalarda qimmatli tahlil obyekti bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. – 5 jild.
2. Navoiy A. “Xazoyin ul-maoniy”. 4 jildli – Toshkent: O‘zSSRFA nashriyoti, 1959
3. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Fan, 1993. – B. 232.
4. Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 290.
5. Navoiy A. Lison ut-tayr. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 180.
6. Kenjaboyev M. Alisher Navoiy asarlarining til xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1974. – B. 220.
7. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek adabiy tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1979. – B.240.
8. Yo‘ldoshev M. Til va tafakkur. – Toshkent: Fan, 1999. – B.270.
9. Madvaliyev A. Navoiy asarlarining lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2005. – 190 b.
10. O‘rinboyev M. Tarixiy tilshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zMU, 2018. – B.248.
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (5 jildlik). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
12. O‘zbek tilining sinonimlar lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1981. – B.504.
13. Tursunov, O. Leksikologiya va frazeologiya asoslari. – Toshkent: TDPU, 2017. – B.176.
14. Qodirov A. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: Fan, 1985. – B. 320.
15. To‘xtaboyev M. Leksik-semantik o‘zgarishlar va tarixiy qatlamlar. –Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – B.210.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

AMIR UMARXON IJODIDA O‘XSHATISHLARNING O‘RNI

Jo‘rayeva Ramziya Abduraximovna
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Nematova Malikaxon Zafarjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti
+998911476913

Annotatsiya Ushbu maqolada Amir Umarxon ijodining funktsional-stilistik xususiyatlari, xususan, shoir g‘azallarida o‘xshatishlarning qay yo‘sinda qo‘llanilgani, ularni yuzaga chiqaruvchi birliklar yuzasidan fikr-mulohazalar bayon qilingan, tahlillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar Badiiy matn, tasviriylik, o‘xshatish, lison, tashbeh, laff va nashr, obrazli ifoda.

РОЛЬ СРАВНЕНИЙ В ТВОРЧЕСТВЕ АМИРА УМАРХАНА

Аннотация В статье представлены мнения и анализ функционально-стилистических особенностей творчества Амира Умархана,в частности, способа использования сравнений в газелях поэта и единиц, которые их порождают.

Ключевые слова Литературный текст, образност, сравнение, язык, метафора, аллегория, образное выражение

THE ROLE OF SMILES IN THE WORK AMIR UMARKHAN

Annotation This article presents opinions and analyses on the functional-stylistic features of Amir Umarkhan’s work, in particular, the way in which similesare used in the poet’s ghazals, and the units that give rise to them.

Key words Literary text, imagery, simile, language, metaphor, allegory, figurative expression

KIRISH

O‘zbek mumtoz adabiyotida Amir Umarxon asarlari, xususan, g‘azaliyotining o‘ziga xos xususiyatini unda badiiy-uslubiy vositalardan unumli foydalanganganligida ko‘rishimiz mumkin. Chunki fikr va tasvirning obrazli ifodalanishi uning ma’no ko‘lamini yanada kengayishiga xizmat qiladi, badiiy matn qimmatini oshiradi. Shu ma’noda mumtoz she’riy asarlarda eng ko‘p ishlatilishi nuqtayi nazaridan o‘xshatish san’ati alohida yetakchilik qiladi.

Badiiy nutqda voqea-hodisalarni obrazli tasvirlash, nutq ifodaliligini oshirish, biror narsaning xarakteri, xususiyati va ko‘rinishini qisqa hamda obrazli ifodalash uchun foydalaniladi[4]. O‘xshatishlarning ikki narsa yoki voqea-xodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkretroq, bo‘rttiribroq ifodalash[8] vazifasi badiiy adabiyot tilini bezashda alohida ahamiyatga egadir. Bu, ayniqsa, mumtoz badiiy matnlarda tasvirning aniqligi va obrazliligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. O‘xshatish subyekti, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichlari deb nomlanuvchi to‘rt unsur tilda o‘xshatish munosabati ifodalanishini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘xshatishlar va ularning tahliliga doir tadqiqotlar ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Soha taraqqiyotida O.S.Ahmanova, M.I.Cheremitsina, L.A.Lebedova va boshqalarning o‘rni katta. O‘zbek tilshunosligida ham o‘xshatishlar tadqiqi bo‘yicha ma’lum ishlar amalga oshirilgan. R.Qo‘ng‘urov, M.Mukarramov, D.Xudoyberganova, N.Mahmudov, M.Yoqubbekovalarning ilmiy tadqiqotlari, yaratgan asarlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Xususan, R.Qo‘ng‘urov o‘zbek tilining tasviriy vositalariga bag‘ishlangan tadqiqotida[9] o‘xshatishlarning sintaktik tuzilishi, uslubiy xususiyatlari haqida to‘xtalgan. M.Mukarramov o‘z ishlarida esa o‘xshatishning morfologik xususiyatlari, uning yondosh hodisalarga munosabati kabi masalalar o‘rgangan[7] Mukarramov o‘xshatishlarni sezgilar yoki tasavvurlar orqali ro‘yobga chiqishiga qarab konkret va abstrakt, badiiy adabiyot tilida qo‘llanilishiga ko‘ra an’anaviy va individual, komponentlarining soni jihatidan to‘liq, to‘liqsiz, vositasiz, sodda, murakkab tarkibli, uzilgan kabi turlarga ajratgan[7].

M.Mukarramov o‘xshatishning uch komponentdan tashkil topishini ko‘rsatsa, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, M.Yoqubbekovalar to‘rt unsurdan tashkil topishini ta’kidlaydilar. M.Yoqubbekova M.Mukarramovning o‘z monografiyasida tadqiqotning qariyb to‘rtdan uch qismini o‘xshatish ifodalovchi vositalarga bag‘ishlaganligi, o‘xshatish ifodalovchi vositalar to‘rtinchi komponent sifatida uning tarkibida alohida o‘rin tutishini ta’kidlaydi[12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi: Amir Umarxon g‘azallaridagi o‘xshatishlarni tahlil qilish orqali she’rlaridagi g‘oyaviy-estetik funksiyalarni, ijodkorning obraz yaratishdagi mahoratini ochib berish hamda Amiriy va boshqa mumtoz shoirlar ijodida qo‘llanilgan tashbeh vositalarini muqoyasa qilishdan iborat.

Adabiy matnni o‘rganishda metod tanlovi manba turi va tahlil yo‘nalishiga bog‘liq bo‘ladi. Amiriy ijodini o‘rganishda ham bir qator metodlar dolzarb hisoblanadi.

Deskriptiv (tasviriy) metod. O‘xshatishlarning qanday turlari mavjudligini aniqlash. Bunda g‘azallardagi o‘xshatishlar ajratib olinadi, ularning grammatik va leksik shakllari tasvirlanadi.

Stilistik metod. O‘xshatishlar orqali yaratilgan obrazlilik va estetik ta’sirni aniqlash. Qaysi o‘xshatishlar g‘azalning ohangini kuchaytiradi, qaysilari esa ifoda vositalari bo‘lib xizmat qilishi aniqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbek tilida o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi sifatida -day qo‘shimchasi juda keng qo‘llanadi, uning -dek fonetik varianti esa nisbatan kam ishlatiladi[5]. Ilmiy manbalarda o‘xshatishni ifodalovchi vositalar: affikslar(-day, -dek, -simon, -ona, -noma, -omuz, -larcha kabi), leksik vositalar (kabi, singari, yanglig‘, xuddi, go‘yo, bamisoli, misli, shakl, holat, barobar kabi), o‘xshatish qo‘shimchalari (sifat, qomat, nusxa, rang, bashara, taxlit kabi) [2] shaklida bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, o‘xshatishlar badiiy matnga tasviriylik, aniqlik, ta’sirchanlik va obrazlilik baxsh etish xususiyati bilan qimmatlidir. Badiiy matnda an’anaviy (ko‘p takrorlangan) va xususiy-mualliflik o‘xshatishlar o‘zaro farqlanib, ularning har ikkisidan unumli foydalanish yozuvchi-shoirning badiiy mahoratiga bog‘liq.

Amiriy g‘azallari tadqiq etilganda, o‘xshatish badiiy-uslubiy vosita sifatida alohida o‘rin tutishini ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, badiiy matnlarda yor go‘zalligini tasvirlashda fitonimlardan foydalaniladi. Ayniqsa, mumtoz she’riyatda yorning yuzini gulga, qomatini sarv daraxtiga, labini g‘unchaga, pistaga, sochini sunbulga, yanoqlarini lolaga, ko‘zlarini bodomga kipriklarini maysaga, tishlarini dur-u marjonga qiyoslash asosida go‘zallik mezonlari shakllangan. Bu o‘xshatishlar, albatta, ma’lum bir motivatsiyaga, leksemalarning leksik-semantik maydoniga kiruvchi semalarning assotsiativ tutashuviga asoslanadi[6]. Shoir g‘azallarida ham mumtoz adabiy asarlarda keng qo‘llanilgan lab-g‘uncha, yuz-gul, qad-sarv, soch-sunbul kabi an’anaviy o‘xshatishlar ko‘p uchraydi.

Xususan,

Guli ruxsoru sarvi qadding‘a savsan zabonidin,
Balafzi “ashhadu” berdi shahodat lola-yu ra’no.

Yoki

Vafo ahli sani bu rang ila dildor dermishlar,
Qadingni naxli sarv-u, orazing gulzor dermishlar.
Sunbuli zulfimdurur guldek uzori tarfida,
Yoki bitgon “dol” kim, xurshidning yonidadur.

Yana bir misol:

Dur tishing birla aqiqi la’li nobing sadqasi
Bahr aro gavharlar-u kon ichra la’li noblar.

Odatda, bir predmet-holat boshqasiga muayyan bir belgiga ko‘ra emas, balki butunicha, to‘lasicha, aynan o‘xshatilmoqchi bo‘lsa, o‘xshatish asosi bevosita ifodalanmaydi. Bunday hollarda o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi sifatida ham ko‘pincha **o‘xshamoq** fe’lidan foydalaniladi[13]. Ushbu fe’lning qo‘llanilishi badiiy nutqda o‘xshatish vositasini mavjudligini ko‘rsatadi. Amiriyning “O‘xshaydur” radifli g‘azali bunga yaqqol dalildir:

Ko‘ngul la’li tamannosi bila qon o‘ldi o‘xshaydur,
Ko‘zum oyinadek husniga hayron o‘ldi o‘xshaydur.

O‘qing zaxmini pinhon ayladim jism birla jon ichra
Ko‘ngul ganjinasida dog‘i somon o‘ldi o‘xshaydur.

Amir Umarxon g‘azallarida

1) **yanglig‘** shakliy ko‘rsatkichi bilan ifodalangan o‘xshatishlar:

a) Shuhrat ermish xublik bobida Gurjiston eli,
Ko‘rmadi lekin bu yanglig‘ husni davron eli.

b) Jahon sarmanilig‘a soya soldi zilli mamduding,
Chamanda sarv yanglig‘ moyayi umrung hazor o‘lg‘ay.

c) Bo‘lmag‘on bo‘lsa ayog‘ing hajridin qolab tihi,
Nega hayrondur ko‘zum yanglig‘ uzongu halqasi.

d) Amir ul sho‘xi shahroshub yanglig‘ ko‘rmadim hargiz,
Ki, yuz jon bo‘ynig‘a bir pora zulfidin kamand etti

2) **dek** shakliy ko‘rsatkichi bilan ifodalangan o‘xshatishlar:

a) Xami zulfung xayoli birla ahvolim zabun bo‘ldi,
Qaroydi ro‘zg‘orim soyadek, baxtim nigun bo‘ldi

b) Amiriy, tushti xattu ko‘nglumg‘a savdosi,
Tuganlar ko‘ksuma tovusdek andin fuzun bo‘ldi.

c) Qomating sarvig‘a taqlid aylagach, nuqson topib,

d) Bu gulshan uzra bulbuldek bizi sohibnavo etgoch,
Chamansiymolar ila lolagun ruxsorlardurlar.

3) **kabi** shakliy ko‘rsatkichi bilan ifodalangan o‘xshatishlar:

a) Muhabbat vodiysida men kabi Farhod ila Majnun,
Balo tog‘ida, g‘am dashtida qolg‘on zorlardurlar

b) Xamush o‘l, ey ko‘ngul, oh etmagil, sirrimni oldurma,
Aning ko‘yida yotgon man kabi ag‘yorlardurlar

c) Man kabi yo‘qtur bu olam ichra yakson soyadek,
San kabi xurshiddin bir zarracha yo‘qtur vafo

4) **misli** shakliy ko‘rsatkichi bilan ifodalangan o‘xshatishlar:

Xoli shohinig‘a bo‘ldi iki qoshing iki bol,
Ko‘zung ostida uchar misli kabutar qiyg‘och.

Badiiy matnda qo‘llanilgan o‘xshatishlar tadqiqi bo‘yicha F.Usmonov[12], D.Ashurov[1] lar tadqiqotlari alohida ahamiyatlidir. O‘xshatishlarni turli semantik guruhlarga ajratish, xususan ularni ornitomik, zoonimik, biomorfik kabi kodli o‘xshatishlarga bo‘lib tasniflash usulini G.Roziqova[10], R.Jo‘rayeva[3], Z.Ma’rufova[6] kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida qo‘llaganlar. Mazkur tahlil uslubidan Amiriy g‘azallarida qo‘llanilgan o‘xshatishlarni tasniflashda ham istifoda etish mumkin. Xususan,

Antroponimlar bilan bog‘liq o‘xshatishlar:

a) Bir quyoshsiymo, malakvash suhbatin qildim havas,
Balki ul Yusufliqo-u ham erur Isonafas.

b) Maloik o‘rtasinda Homid-u Mahmud-u Ahmadsen,
Bani odam aro derlar “Muhammad xojayi” “Toxo”

c) Bir boqib, devonayi Majnunmisol etting mani,
Bilmadim, ey nozanin, yo odamiysan, yo pari?

d) Baski bir Laylishamoil, nozanin Majnuniman,
Boq emas, atfol agar yog‘dursalar boshimg‘a tosh.

e) Bo‘lsa gar to‘rtinchi torumda Masih-u oftob,
Yerda ham laling Masihoyu, jamolingdur-quyosh

Kitobat san’ati (arab imlosidagi harflarga) asoslangan o‘xshatishlar: Ma’lumki, mumtoz adabiy asarlarda eski o‘zbek yozuvi harflari ma’lum ma’noda ma’shuqani tasvirlashga xizmat qilgan.Ya’ni, **“alif”** uning tik qomatini, **“yoy”** qoshlarini, **“lom”** esa sochini ta’riflashga xizmat qilgan:

a) Sarv qadding sho‘xlikdin bir nafas sokin dugul,
Ul “alif” yanglig‘ki doim iztirob ustindadir
Qomatim “nun”dek egilib qoldi hijron ostina,
Ul sitamparvar yana qahr-u itob ustindadur.

Mazkur baytda alif va nun harflari yor va oshiqning holatiga o‘xshatilib, badiiy matn ta’sirchanligini yanada oshirishga xizmat qilgan. Yana bir misol:

“Alif”dek qomating jonlar aro sokin erur, lekin
Xiroming elni majnun etmagi yaktolig‘ingdindur

Ornitonimlar (qush nomlari) bilan bog‘liq o‘xshatishlar:

a) Andalib-u qumri ermasmen, chaman ichra mango
Orazi gul,nozparvar, sarvi xushraftor xush.

b) Qilur mag‘lublarni ishq g‘olib,
Kabutardir bu vodiy ichra shahboz.

d) Man boli siniq bulbuli mahrumi guliston,
Afg‘on chekarimni guli xandonima ayting.

Fitonimlar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar: Gul va o‘simlik nomlari bilan bog‘liq o‘xshatishlar yaratish mumtoz adabiyotda an’anaviy tus olgan. Bu borada Amiriy ijodining o‘ziga xosligi shundaki, tabiat va inson qiyofasidagi muvofiqlikning nozik qirralarini badiiy tasvirlab berish orqali yorning sochi, labi, qabog‘i, hatto ko‘ylagigacha turfa gul nomlari bilan ifoda etib, uning o‘ziga xos semalarini yorning chiroyini tasvirlash uchun mahorat bilan qo‘llagan:

a) Bu chaman ichra muhabbat ahlining ko‘ngli uchun,
G‘uncha yanglig‘, ey sumanbarlar, tabassum ko‘rguzung.

b) Base zolumdur ul sho‘xi sitamgar,

Yuzi gul, nargisi fattoni bebok.

c) Ra’no qad ila solmadi boshim uza soya,

Bu qul so‘zini sarvi xiromonima ayting.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan shuni xulosa qilish mumkinki, Amir Umarxon ijodida o‘xshatishlar badiiy ifoda vositasida muhim o‘rin egallaydi. U o‘z g‘azallarida o‘xshatishlar orqali tasvirlangan obrazlarni yanada jonli, ta’sirchan va estetik jihatdan boy holatda ifodalagan. Shoirning o‘xshatishlari nafaqat tashqi go‘zallik, balki chuqur falsafiy mazmunni ochib berish jihatidan ham e’tiborlidir. Ayniqsa, u sharq mumtoz adabiyoti an’analariga sodiq qolgan holda tilimiz boyliklaridan mohirona foydalana olgan. Tashbehlar orqali Amir Umarxon ijtimoiy-tarixiy holatlarni, inson tuyg‘ulari va ruhiy kechinmalarini poetik tilda ifodalaydi. Bu esa uning asarlarini nafaqat badiiy, balki estetik va ma’naviy qadriyatlar manbayi sifatida ha qadrlashga asos bo‘ladi. Muxtasar qilib aytganda, Amir Umarxon ijodidagi o‘xshatishlar adibning poetik dunyoqarashini ochib beruvchi asosiy badiiy vositalardan biri sifatida maydonga chiqqan va ularning chuqur tahlili shoir ijodini kengroq anglash imkonini yaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ашуров Д. “Алпомиш” достонининг лингвокултурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Наманган, 2021.

2. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –Б.200.

3. Жўраева Р. Муқимий асарларининг лексик-семантик хусусиятлари. филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Қўқон, 2022. –Б.170.

4. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. –Б.190.

5. Mahmudov N, Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. –B.40.

6. Маъруфова З. Мумтоз бадиий матнларда “гўзаллик” консептининг вербаллашуви. фил. fanl.воъйича фалс докт.(PhD) дисс. – Фарғона, 2022.

7. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. –Тошкент: Фан, 1976. –Б.88.

8. Қурбонова М. Йўлдошев М. Матн тилшунослиги. –Тошкент: Университет, 2014. –Б.79

9. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1976. –Б.88.

10. Розиқова Г. “Девону луғотит турк” асаридаги от лексемаларининг семантик, фунционал ва услубий хусусиятлари. фил. ф. доктори (DSc) дисс. –Фарғона, 2021.

11. Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. –Тошкент, 2020.

12. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларида ўхшатиш: Монография. – Тошкент, 2003. –Б.14

13. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. –Б. 61.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

INGLIZ-SAKSON, O‘ZBEK VA QARDOSH (SLAVYAN) XALQLAR MIFOLOGIYASIDA AYOZ BOBO TIMSOLLARINING QIYOSIY TAHLILI

Xolikov Baxodir
PhD, Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasi dotsenti,
Samarqand davlat chet tillar instituti rektori,
xoliqov-b@samdchti.uz

Annotatsiya. O‘zbek (turkiy) va ingliz-sakson xalqlari mifologiyasida shunday obrazlar borki, ular ma’lum bir fasl mohiyatini, mazkur xalqlar o‘tmish madaniyati va ruhiyatidagi uyg‘un jihatlarini yorqin aks ettiradi. Bunday obrazlarga o‘zbek folklori vakili Ayoz Bobo (Qor Bobo) va ingliz mifologiyasi personaji Jack Frost, shuningdek, Santa Claus kabi mavsumiy mifologik personajlar misol bo‘la oladi. Biroq bu timsollar o‘rtasidagi o‘xshash va o‘ziga xos jihatlar, ularning tadrijiy taraqqiyoti qay yo‘sinda bo‘lgan kabi savollar hali hanuz ochiq qolmoqda. Qish faslining timsollari bo‘lgan bu kabi obrazlarni qiyosiy o‘rganish mavsumiy mifologik personajlarning evolyutsion jarayonini va migratsion tarmoqlanishini aniqlashga yordam beradi. Maqolamizda shu kabi masalalar xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ingliz folklori, o‘zbek mifologiyasi, Jack Frost, Santa Claus, Ayoz Bobo, qish, yangi yil bayrami.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОБРАЗОВ ДЕДА МОРОЗА В АНГЛОСАКСОНСКОЙ, УЗБЕКСКОЙ И РОДСТВЕННЫХ НАРОДОВ МИФОЛОГИИ

Аннотация. В мифологии узбекского (тюркского) и англосаксонского народов есть такие образы, которые ярко отражают суть определенного времени года, гармоничные аспекты культуры и литературы прошлого этих народов. Примерами таких персонажей являются сезонные мифологические персонажи, такие как представитель узбекского фольклора Аёз Бобо (Кор Бобо – Дед Мороз) и персонаж английской мифологии Джек Фрост, а также Санта Клаус. Однако сходные и специфические аспекты этих персонажей все еще остаются открытыми для обсуждения. В нашей статье приводится сравнительное изучение этих образов, которые являются символами зимнего времени года, благодаря которой можно определить процесс эволюции и миграционное разветвление сезонных мифологических персонажей фольклора и литературы узбекского и англосаксонского народов.

Ключевые слова: английский фольклор, узбекская мифология, Jack Frost, Santa Claus, Аёз Бобо, Дед Мороз, Зима, новогодний праздник.

COMPARATIVE ANALYSIS OF FATHER FROST FIGURES IN ANGLO-SAXON, UZBEK, AND RELATED FOLKS' MYTHOLOGIES

Abstract. In the mythology of the Uzbek (Turkic) and Anglo-Saxon peoples, there are images that vividly reflect the essence of a certain time of the year, the harmonious aspects of culture and literature of the past of these peoples. Examples of such characters are seasonal mythological characters, such as the representative of Uzbek folklore Aez Bobo (Kor Bobo – Santa Claus) and the character of English mythology Jack Frost, as well as Santa Claus. However, the similar and specific aspects of these characters are still open to discussion. Our article provides a comparative study of these images, which are symbols of the winter season, thanks to which it is possible to determine the process of evolution and migration branching of seasonal mythological characters in folklore and literature of the Uzbek and Anglo-Saxon peoples.

Keywords: English folklore, Uzbek mythology, Jack Frost, Santa Claus, Aez Bobo, Дед Мороз, Winter, New Year's holiday.

Kirish. Mifologiya insoniyat tafakkuri, dunyoqarashi, qadriyatlari va umidlarini o‘zida aks ettiruvchi lingvomadaniy hodisa sifatida muhim o‘ringa ega. Mavsumiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq mifologik obrazlar orasida ayniqsa qishga oid timsollar o‘ziga xos ramziy va madaniy ahamiyat kasb etadi. Ko‘plab xalqlarda qish fasli nafaqat tabiat hodisasi, balki chuqur ma’naviy va falsafiy mazmunga ega bo‘lib, u ko‘pincha o‘lim va qayta tug‘ilish, sinov va sabr, zulmat va nur kabi qarama-qarshi tushunchalar bilan uyg‘unlashgan. Bu esa turli madaniy kontekstlarda kuchli mifologik timsollarning shakllanishiga sabab bo‘lgan.

Ushbu tadqiqot ingliz va turkiy xalqlarning qish fasliga oid mifologik obrazlarini o‘zaro taqqoslab o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, Jack Frost, Santa Klaus, Ded Moroz, Karachun va Ayaz Bobo kabi mashhur timsollar tahlil qilinadi. Ushbu obrazlar xalq og‘zaki ijodi, diniy e’tiqodlar va madaniy qadriyatlar uyg‘unligida shakllangan bo‘lib, har bir xalqda sovuq, qarilik, saxiylik va yangilanish tushunchalari qanday til vositalari orqali ifodalanishini ochib beradi. Ayrim tadqiqotlarda alohida mifologik qahramonlar yoki urf-odatlar o‘rganilgan bo‘lsa-da, ushbu ish bir nechta til va madaniyat doirasida lingvomadaniy hamda ramziy tahlilni birgalikda olib boradigan izlanishlar orasida o‘ziga xos yangilik sifatida ajralib turadi. Til va madaniyatning bir-biriga ta’siri, ayniqsa mifologik obrazlar shakllanishida qanday namoyon bo‘lishi, insoniyat tafakkuridagi umumiylik va o‘ziga xosliklarni aniqlash imkonini beradi.

Mazkur maqola ingliz va turkiy madaniyatlardagi qish obrazlarini qanday til vositalari orqali yaratilib, qanday madaniy-ma’nodagi yuklamalarga ega ekanligini aniqlashni maqsad qilgan. Bu jarayonda ularning nomlari etimologiyasi, tashqi ko‘rinishi, mifologik funksiyasi, ramziy tavsifi hamda diniy va xalqona bayramlardagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, bu

obrazlarning xristianlashuv, zamonaviylashuv va globallashuv jarayonidagi evolyutsiyasi ham ko‘rib chiqiladi. Shu tariqa, ingliz va turkiy madaniyatlardagi qish bilan bog‘liq mifologik timsollarni lingvomadaniy va ramziy jihatdan taqqoslab o‘rganish orqali ushbu tadqiqot xalq og‘zaki ijodi, madaniyatlararo tadqiqotlar va tilshunoslik sohalariga o‘z hissasini qo‘shadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. ingliz adabiyotida qish bilan bog‘liq tushunchalarni aks ettiruvchi asosiy personajlardan biri – Jack Frost. Jack Frost odatda qari chol ko‘rinishida tasvirlanadi, oddiy odamlarga ko‘rinish va tutqich bermaydigan, quvnoq otaxonni kimdir hafa qilsa yoki jahlini chiqarsa, qor uyumi ostida qoldirib, halok qiladigan[7] qahhor, ayozli qish tongida derazalarga muzli suratlar tushiradigan[8], kuzakdagi hazonrezgi davrida o‘t-o‘langa, yaproqlarga qizil, sariq, jigarrang va pushti rangli tasvirlarni chizadigan[9] naqqosh sifatida namoyon bo‘ladi. Katta ehtimol bilan bu obraz ingliz asotirlariga skandinav mifologiyasidan o‘tgan. Vikinglar inonchlarida u shamol ma’budi Kerining ulkan elf-dev ko‘rinishidagi Jokul Frosti (Yokul Frosti - muz sumalagi) nomli o‘g‘li sifatida tanilgan. Ayrim tushunchalarga ko‘ra u qor uchquni Suzy Snowflake (Syuzi Snoufleyk)ning eridir.

Badiiy adabiyotda Jack Frost haqidagi dastlabki ma’lumot anonim muallifning 1734 yilda nashr bo‘lgan "Ko‘mir cho‘g‘li gulxanimiz atrofida yohud Rojdestvo o‘yin-kulgilari" asarida uchraydi[10]. Laymen Fryonk Baumanning 1902 yilda e’lon qilingan “Santa-Klaus hayoti va sarguzashtlari” asarida esa Ayoz qirolining shaddod o‘g‘li bo‘lib, kishilarning burunlarini, quloq va oyoq barmoqlarini tishlab huzur topadigan obraz sifatida talqin qilinadi[11]. Bundan anglashiladiki, Jack Frost ayrim holatlarda nafaqat xushchaqchaq chol balki elf qiyofasidagi beqiliq yigitcha obrazlarida ham talqin qilingan.

1-rasm. Jack Frost obrazining ingliz folkloridagi tasviri

[7] Christopher Davis. Left Your Window Silver White: Jack Frost & Winter Wonder. http://www.vaultofthoughts.com/2019/12/04/jack-frost-winter-wonder/ (murojaat sanasi 12.03.2025)

[8] Paul Simons Weather eye: who is Jack Frost? Thursday December 04 2014, 12.01am GMT, The Times. https://www.thetimes.com/travel/advice/weather-eye-who-is-jack-frost-nck2mf3vzcs? region=global yana: Jack Frost https://www.indobase.com/holidays/christmas/characters/jack-frost.html (murojaat sanasi 25.03.2025)

[9] Bartholomew F. Bland, Laura L. Vookles, William H. Gerdts, Laura L. Vookles. (2010) *Paintbox Leaves: Autumnal Inspiration from Cole to Wyeth*. Hudson River Museum. p. 41.

[10] Round About Our Coal Fire, or Christmas Entertainments. — 4th. — London, 1734. — P. 6

[11] Paul Simons Weather eye: who is Jack Frost? Thursday December 04 2014, 12.01am GMT, The Times. https://www.thetimes.com/travel/advice/weather-eye-who-is-jack-frost-nck2mf3 vzcs? region=global yana: Jack Frost https://www.indobase.com/holidays/christmas/ characters/jack-frost.html (murojaat sanasi 25.03.2025)

Mazkur obraz nasroniylik bilan bog‘liq bo‘lmasa-da, u rojdestvo bayrami personajlaridan biri sifatida ham talqin qilingan va Santa Claus (Santa-Klaus) ning eng yaqin a’yonlaridan biri ekanligiga urg‘u berilgan.

Slavyan xalqlarida bu obrazning prototipi ham bor bo‘lib, uni Karachun deb atashgan. Uning boshqa bir nomi - Chernobog[12] (qora ma’bud). “Karachun” so‘zining etimologiyasi, katta ehtimolga ko‘ra, turkiy atama bo‘lib, Qoratun so‘zining yoki Qora Churin (G‘arbiy Turk hoqonligining 2-hukmdori (576 — 599y.y.) ning badiiy talqini bo‘lishi mumkin. Chunki qadimgi davrlardan beri turkiy xalqlar slavyan xalqlari, ayniqsa, ruslar bilan yaqin munosabatda va aloqada bo‘lib kelishgan, buning oqibatida ko‘plab turkiy so‘z va tushunchalar slavyan xalqlari madaniyatiga va tillariga o‘zlashgan.

Slavyanlar inonchlaridagi Karachun personaji nasroniylik dini kirib kelguniga qadar mavjud bo‘lgan va qahraton sovuqning ma’budi[13] sifatida qish tunlari odamlarni sovuqqa yo‘liqtirgan va muzlab o‘lishiga sababchi bo‘lgan. Shu sababli Karachunni avrash, insonlar izmiga bo‘ysundirish uchun unga atab marosimlar o‘tkazilgan. Karachun bayrami odatda qishning chillasida, tunlar uzaygan kechalari nishonlangan. Asta-sekin, kishilar ongida Karachun Ded Moroz sifatlarini o‘zlashtirdi, tabiatni, zaminni o‘lik uyquga eltish uchun uni muzlatib qo‘yuvchi obrazga aylandi[14].

Adabiyotshunos R. Nazirovning ta’kidicha, «Кащеу“ nomi rus ertaklarida faqatgina XVIII asrdan paydo bo‘lib, ungacha bu personaj Karachun deb atalgan[15]. Tadqiqotchi Yu.V. Popovichning taxminiga ko‘ra, qadim zamonlarda moldovanlar orasida Karachun unumdorlik va hosildorlik xudosi deb bilingan: "Karachun ayrim mifologik maktab tarafdorlari tomonidan tasavvur qilinganidek, qish va o‘lim ma’budi emas, balki yaqinlashib kelayotgan quyoshli yilda yerning unumdorligi va hosildorligini ta’minlaydigan ma’bud deb bilingan[16].

Muhokama va natijalar. Shimoliy Amerika va G‘arbiy Yevropa xalqlari orasida qish hukmdori sifatida vatani Shimoliy qutbning Laplandiya[17] mamlakati bo‘lgan deb bilinadigan Santa Klaus juda mashhurdir. Rojdestvo kuni bolalarga sovg‘alar ulashadigan mu’jizakor oqsoqolni nasroniylar avliyo Nikolayning (Santa — «valiy», Klaus — «Nikolay») badiiy timsoli deb tushunishgan. Santa Klausning qiyofasi (2-rasm) hamma joyda deyarli bir xil ko‘rinishga ega: u odatda oq mo‘ynali yoqa va manjetli qizil chopon, qizil shim, boshiga oq

---

[12] Карачун (Корочун). https://www.calend.ru/holidays/0/0/1703/ (murojaat sanasi 05.11.2024)

[13] *Токарев С. А.* Религиозные верования восточнославянских народов XIX — начала XX в. — М.: Издательство Академии наук СССР, 1957. — С. 109; яна: Иванов В. В. Русский мифологион: учебное пособие. — Петрозаводск: Изд-во КГПУ, 1998. — С. 120

[14] Karachun (Korochun). https://www.calend.ru/holidays/0/0/1703/ (murojaat sanasi 05.11.2024)

[15] Назиров Р. Г. Истоки сюжета «Кащеева смерть в яйце» // Фольклор народов РСФСР. Современное состояние фольклорных традиций и их взаимодействие. Уфа: Издание Башкирского государственного университета, 1989. Вып. 16. С. 36

[16] Попович Ю. В. Молдавские новогодние праздники: XIX-начало XX в. Кишинев: Штиинца, 1974. С. 144.

[17] Kit B. Kevin Hart in Talks to Play Santa Claus in Disney's 'Dashing Through the Snow' (Exclusive) (angl.) // The Hollywood Reporter / J. Min — Los Angeles: Penske Media Corporation, 2016. — ISSN 0018-3660

mo‘yna bilan hoshiyalangan qizil qalpoq kiygan kulrang soqolli, to‘lachadan kelgan quvnoq otaxon qiyofasida tasvirlangan.

2-rasm. Santa Klaus. Amerikalik rassom Tomas Nast illyustratsiyasi, 1863 y.

Turkiy folklor va adabiyotida ham Jack Frost yoki Santa Klausga o‘xshash obraz bor bo‘lib uni odatda Ayoz bobo (Qor bobo) deb atashgan (3-rasm). Umumturkiy - Ayoz bobo nomidan tashqari bu obraz har bir qardosh el orasida yana o‘z nomiga ega. Ozarboyjonlar uni Shaxta baba, oltoyliklar Sooq-Taadaq, tatar va boshqirdlar Qish boboy, qozoqlar Ayaz-ata va Қыдыр-Atu, turkmanlar Ayaz Baba kabi nomlar bilan atashgan.

Bunday obraz qo‘shni tojik folklorida ham bor bo‘lib, uni Boboi Barfi (Qorli Bobo) deb nomlashgan. Bu bobo ruslarning Ded Moroziga o‘xshash bo‘lsa-da, uning o‘ziga xos jihatlari bor. Bo‘g‘doy rang, tim qora qoshli Boboi Barfning qo‘lida hassa bo‘lmagan, ustiga qizil po‘stin o‘rniga oltin rang belbog‘li issiq ko‘k chopon, boshida esa salla uralgan do‘ppi kiygan. Sovg‘alarni bolalarga nevarasi Barfak (Qor uchquni) bilan birga tarqatgan[18]. Boboi Barf choponining ko‘k rangda bo‘lishi turkiy Ayoz Bobo qiyofasi ta’sirida ro‘y bergan bo‘lishi mumkin.

Turkmanlar orasida qish hukmdori Ayaz Baba deb atalishini keltirib o‘tdik. Uning magik faoliyati ko‘p jihati bilan o‘zbek Ayoz bobosini eslatadi. Kiyim boshi esa o‘ziga xos: boshida qo‘y mo‘ynasidan bo‘lgan oq cho‘girma, kashta naqshli, uzun oq chopon, kumush rangdagi kamar, yelkasida esa doimo sovg‘alar bilan to‘la qop, qo‘lida sehrli aso. Turkman Ayaz Babasining yonida an’anaviy tarzda nabirasi – naqshlangan oq, uzun to‘n, boshida qor uchqunlari tasvirlari bilan bezatilgan qizlarning oq tak’ya, uzun sochlari bug‘doy boshog‘i shaklida o‘rilgan Garpamiq (Qorpomiq) bo‘ladi.

[18] Как выглядит Дед Мороз в Таджикистане. https://vk.com/wall-213221748_28212 (murojaat sanasi: 12.01.2025)



3-rasm. Turkiy folklorda tasavvur qilinadigan archa atrofidagi Ayoz bobo timsoli.

Qozoq baurlarmiz Ayaz-atasi ko‘pincha ko‘k chopon, charm etik kiygan kayvoniy, uning yonida ko‘kka burkangan, boshida tovlanuvchi bo‘rki bo‘lgan Akshakar (Oqcha qor) qiz nabirasi turadi. Ayoz boboning tatarcha va boshqirdcha varianti – Qish boboy. Bayramga tashrif buyurgan oqsoqol milliy ornament aks etgan ko‘k yoki yashil choponda va mo‘ynali qalpoqda ko‘rinish bergan.

O‘zbeklar orasida hozirda Qor bobo deb atalayotgan qishning bosh mifologik obrazi, o‘tmishda Ayoz bobo nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. Ayoz bobo katta ehtimol bilan turkiylarning qadimgi dini tangrilikning mifologik personaji bo‘lishi kerak. O‘tmishda terskay turklari qishning eng uzun kechasi Nordug‘an (Kunning tug‘ilishi) – yangi yil bayramini nishonlashgan. Sibir, Oltoy o‘lkalarida yashagan ellar o‘rmonlarda o‘suvchi doimo yashil, cho‘ziq uchburchak ko‘rinishdagi archa daraxtini muqaddas sanashgan. Uning shaklini va tusini ko‘kka – tangriga yo‘l ko‘rsatuvchi, ishora beruvchi deb bilishgan, shu sababli uni turli rangli narsalar, matolar bilan bezashgan, qishning eng uzun kechasi uning atrofida doira qurib bayram qilishgan, qo‘shiqlar aytishgan. Rus folkloridagi “Karavay” qo‘shig‘i nomida shu tushunchalar aks-sadosi bordek. Bu marosimning boshida esa yaxshi insonlarni sovuqdan asrovchi nojotkor va homiy Ayoz bobo turgan deb tasavvur qilingan. Folklorning bu personajini xalqimiz orasida keng yoyilgan mifologik timsollar - Xizr yoki Shohimardon pir kabi homiy obrazlari bilan qiyoslash mumkin. Ma’lumki Xizr obrazi o‘zbek xalq mifologiyasida mangulik suviga erishgan va yo‘lovchilarga, muhtojlarga ko‘rinish beruvchi, ularning mushkulini oson qiluvchi nojotkor obraz sifatida talqin qilingan. Shohimardon pirda ham shunday karomatlar bor, qo‘shimchasiga, “Alpomish” dostoni misolida aytish mumkinki, u bolasi yo‘qlarga farzand ato qilish xususiyatiga ham ega bo‘lgan. Shu ma’noda oy nuridan yaralgan Ayoz bobo qish va qorning homiysi bo‘lishi bilan birga ayozli, izg‘irin kunlarda odamlarni sovuqdan asrab qoluvchi va tabiatni o‘yg‘otuvchi haloskor sifatida ham talqin qilingan[19].

[19] Weihnachtsmann- Дед Мороз или АЯЗ АТА? Тюркская мифология. https://prezi. com/ccamhwqqr

Xalqimiz orasida keng nishonlanadigan – Navro‘z (Yilboshi) bayramining ham badiiy adabiyotlardagi homiysi, oqsoqoli bor bo‘lib uning nomi To‘raxon bobo. Yozuvchi Leonid Solovyovning dono va quvnoq Xo‘ja Nasriddin haqidagi hikoyalar turkumidagi "Sehrlangan Shahzoda"[20] (1950 yil) qissasida avliyo To‘raxon va uning qasoskor ruhi haqida hikoya qilinadi. Qiziq tomoni, jurnalist Aleksandr Asov o‘zining “O‘rta Osiyoda yangi yil. Mahalliy Qor bobo – Ayoz Ota va Qorqiz – Ayoz qiz, siz asli qanaqasiz?”[21] nomli maqolasida To‘raxon boboning Bashqirdistondagi qabri suratini ham keltiradi (4-rasm).

Гробница Турахана в Башкирии, один из прообразов усыпальницы Турахона (и созвездие Семи Алмазов, то есть Большой Медведицы, матери Велеса)...

4-rasm. *To‘raxon boboning Boshqirdistondagi qabri.*

Yangi yil (Rojdestvo) bayramini gohida nasroniylik marosimi va Isus Xristosning tirilgan kuni munosabati bilan qilinadigan bayram deb talqin qilinadi. Biroq Iso Masih yashagan hududda archa o‘smagan, o‘tmishda janubliklar pingvin yoki oq ayiqni ko‘rmagandek, Yaqin Sharqda yashovchilar archa haqida ma’lumotga deyarli ega bo‘lishmagan. Demak, mazkur tushuncha va personaj boshqa madaniyatlardan o‘zlashtirilib, assimilyatsiyaga uchragan degan tasavvurni o‘yg‘otadi: balki Ayoz Bobo va u bilan bog‘liq marosimlarning asl vatani boshqa joy, aniqrog‘i, sovuq va o‘rmonli o‘lkalardir.

Fikrimizcha, Ayoz bobo (Karachun, Santa Klaus, Ded Moroz) timsolining ilk prototipi dastlab Oltoy taraflarda yashagan turkiy xalqlar orasida paydo bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Yangi yil kirishidan oldingi archa bezash odati ham sovuq va qalin o‘rmonli o‘lkalarda yashagan ellar orasida urf bo‘lgan, uning elementlari hanuzga qadar xalqimiz orasida hosiyatli deb bilingan joylardagi daraxtlarga rangli ip-lattalarni bog‘lash udumi ko‘rinishida ham saqlanib qolingan.

8oj/weihnachtsmann-santa-claus-oder-ayaz-ata/ (murojaat sanasi: 05.01.2025)

[20] Qarang: Соловьёв Л. В. Очарованный принц. — М.: Теревинф, 2015. — 304 с. — (Руслит. Литературные памятники XX века). — ISBN 978-5-4212-0181-6.

[21] Асов А. Новый год в Средней Азии. Каков ты местный Дед Мороз — Аяз Ата со Снегуркой — Аяз Гыз... https://dzen.ru/a/Y5HuOMbFCzsTgIRI (murojaat sanasi: 21.02.2025).

Turkiy ellar ajdodlarining Yevropa xalqlari bilan turli munosabatlarda aloqada bo‘lganligi, qadimgi xunnlarning G‘arb mamlakatlariga qilgan yurishlari ta’sirida Ayoz Bobo, archa haqidagi tushunchalar u yerdagi, ayniqsa, rus xalqi folklori personajlari tipologiyasiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan va keyinchalik nasroniylikka ko‘chgan bo‘lsa, ne ajab. Biroq bunday mulohazalarni yanada asoslash uchun qadimgi turkiylarning, Sibir va ayniqsa Oltoy o‘lkasida yashovchi xalqlar mavsumiy folklorini kengroq va qiyosiy o‘rganish maqsadga muvofiq.

Ingliz-sakson va o‘zbek mifologiyasidagi ayoz bobo timsollari boshqa qo‘shni va qardosh xalqlar folklorida ham o‘z variant va versiyalariga egaligi ma’lum bo‘ldi. Ular haqida fikr yuritganda hozirgi zamon mintaqaviy chegaralanishni hisobga olish, masalani yoritishda ma’lum ma’noda milliy mahdudlikni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli biz mazkur mavsumiy mifologik personajlarni o‘rganishda nafaqat hozirgi zamon hududiy chegaralanishlarni, balki o‘rganilayotgan obyektning o‘tmishdagi tarixi, madaniyati o‘xshash yoki bir bo‘lgan xalqlarning ham folkloriga murojaat qildik. Masalaga bunday yondashuv qiyosiy, chog‘ishtirma tadqiqotni bir muncha tarixan asosli, argumentli va holis bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa. Qish mavsumi bilan bog‘liq mifologik obrazlarning ingliz, slavyan va turkiy madaniyatlardagi qiyosiy tahlili insoniyatning tabiatning sovuq fasli bilan bog‘liq ramziy munosabatini ifodalovchi umumiy arxetipik tuzilmani ochib beradi. Jack Frost, Santa Klaus, Ded Moroz, Karachun va Ayaz Bobo kabi timsollar qishning nafaqat qahraton va xavfli jihatlarini, balki sehrli, quvonchli va odob-axloqiy tomonlarini ham ifodalaydi. Jack Frost va Karachun singari obrazlar tabiiy ofatlar va sovuqning tahdidli tomonlarini ifodalasa, Santa Klaus va Ayaz Bobo ko‘proq bayramona, saxiylik, mehr va yangilanish ramzlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu obrazlarning tilshunoslik, folklor va semiotik jihatdan turlicha bo‘lishi madaniy xususiyatlarni aks ettiradi, biroq ular orasida chuqur ildiz otgan universal motivlar — yaratish va yo‘q qilish, iliqlik va sovuqlik, hayot va o‘lim dualizmi — mavjudligini ko‘rsatadi. Bu timsollarning ibtidoiy davrlardagi tabiat ruhlaridan yoki butparast xudolardan boshlab, keyinchalik xristianlik va zamonaviy folklor ta’siri ostida shakllanishi, diniy va ijtimoiy omillarning mif yaratish jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishini yaqqol ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, qish bilan bog‘liq mifologiya madaniyatlararo muloqot va ramziy davomiylik uchun boy bir manba bo‘lib xizmat qiladi. Fasllar bilan bog‘liq mifologik obrazlarni yanada chuqurroq o‘rganish jamiyatlarning tabiat, vaqt va insoniy qadriyatlar bilan bo‘lgan munosabatlarini anglashda muhim ilmiy manba bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bartholomew F. Bland, Laura L. Vookles, William H. Gerdts, Laura L. Vookles. (2010) *Paintbox Leaves: Autumnal Inspiration from Cole to Wyeth*. Hudson River Museum. p. 41.

2. Christopher Davis. Left Your Window Silver White: Jack Frost & Winter Wonder. http://www.vaultofthoughts.com/2019/12/04/jack-frost-winter-wonder/ (мурожаат санаси 12.03.2025).

3. Kit B. Kevin Hart in Talks to Play Santa Claus in Disney's 'Dashing Through the Snow' (Exclusive) (англ.) // The Hollywood Reporter / J. Min — Los Angeles: Penske Media Corporation, 2016. — ISSN 0018-3660.

4. Paul Simons Weather eye: who is Jack Frost? Thursday December 04 2014, 12.01am GMT, The Times. https://www.thetimes.com/travel/advice/weather-eye-who-is-jack-frost-nck2mf3vzcs? region=global яна: Jack Frost https://www.indobase.com/holidays/christmas/characters/jack-frost.html (мурожаат санаси 25.03.2025).

5. Round About Our Coal Fire, or Christmas Entertainments. — 4th. — London, 1734. — P. 6

6. Weihnachtsmann-Santa Claus oder AYAZ ATA? https://prezi. com/ccamhwqqr8oj/weihnachtsmann-santa-claus-oder-ayaz-ata/ .

7. Асов А. Новый год в Средней Азии. Каков ты местный Дед Мороз — Аяз Ата со Снегуркой — Аяз Гыз... https://dzen.ru/a/Y5HuOMbFCzsTgIRI (дата подачи заявления: 21.02.2025).

8. Карачун (Корочун). https://www.calend.ru/holidays/0/0/1703/ (дата подачи заявления 05.11.2024).

9. Как выглядит Дед Мороз в Таджикистане. https://vk.com/wall-213221748_28212 (дата подачи заявления: 12.01.2025).

10. Назиров Р. Г. Истоки сюжета «Кащеева смерть в яйце» // Фольклор народов РСФСР. Современное состояние фольклорных традиций и их взаимодействие. Уфа: Издание Башкирского государственного университета, 1989. Вып. 16. С. 36

11. Попович Ю. В. Молдавские новогодние праздники: XIX-начало XX в. Кишинев: Штиинца, 1974. С. 144.

12. Соловьёв Л. В. Очарованный принц. — М.: Теревинф, 2015. — 304 с. — (Руслит. Литературные памятники XX века). — ISBN 978-5-4212-0181-6.

13. *Токарев С. А.* Религиозные верования восточнославянских народов XIX — начала XX в. — М.: Издательство Академии наук СССР, 1957. — С. 109; яна: Иванов В. В. Русский мифологион: учебное пособие. — Петрозаводск: Изд-во КГПУ, 1998. — С. 120

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA “DO‘STLIK” KONSEPTINING VERBALLASHUVI

Toshtemirova Nozima Anvarjon qizi, Qo’qon DU
1-bosqich tayanch doktoranti
Tel:+998933844274
Email:toshtemirovanozima921@gmail.com

ANNOTATSIYA Maqolada ingliz va o’zbek tillarida “do‘stlik” konsepti verballashuvi jarayonlari haqida so’z boradi. “Do‘stlik” konsepti o‘zbek madaniyatida ham, ingliz madaniyatida ham semantik jihatdan konseptni verballashtiruvchi konseptual belgilarni mujassam etadi. Konsept nominativ jihatdan keng tarqalgan bo‘lib, konseptda ikkalamchi ma’noni beruvchi ko‘plab birliklar mavjud. Tadqiqotimiz doirasida ingliz va o’zbek tillari makonida “do‘stlik” konseptining tahlili lingvomadaniy yo‘nalish doirasida olib borilgan bo‘lib, tahlil qilish tartibi quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. U konseptning 3 ta “qatlami”ni ajratib ko‘rsatadi: asosiy, dolzarb, belgili; qo‘shimcha yoki bir nechta qo‘shimcha “passiv” belgilar.

Kalit so‘zlar: konsept, verbalizatsiya, do‘stlik tushunchasi, semantik ma’no, koneptual struktura, prototipik prinsip, tezaurus lug‘atlar, sinonimlar lug‘ati.

ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА “ДРУЖБА” В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

АННОТАЦИЯ В статье рассматриваются процессы вербализации концепта "дружба" в английском и узбекском языках. Концепт "дружба" воплощает концептуальные признаки, которые семантически вербализируют концепт как в узбекской, так и в английской культуре. Концепт имеет широкое номинативное распространение, и в нем присутствует множество единиц, передающих вторичное значение. В рамках нашего исследования анализ концепта "дружба" в пространстве английского и узбекского языков был проведен в рамках лингвокультурологического направления, и порядок анализа выглядит следующим образом. Выделяются 3 "слоя" концепта: основной, актуальный, признаковый; дополнительный или несколько дополнительных "пассивных" признаков.

Ключевые слова: концепт, вербализация, понятие дружбы, семантическое значение, концептуальная структура, прототипический принцип, тезаурусные словари, словарь синонимов.

VERBALIZATION OF THE CONCEPT OF “FRIENDSHIP” IN ENGLISH AND UZBEK

ANNOTATION The article discusses the processes of verbalization of the concept of "friendship" in English and Uzbek. The concept of "friendship" embodies conceptual signs that semantically verbalize the concept in both Uzbek and English cultures. The concept is nominally widespread, and there are many units that give the concept a secondary meaning. In this study, the semantic features of the concept of “friendship” in English and Uzbek were examined through a linguocultural approach. The analysis identified several conceptual layers: a core (central) layer, a contextually relevant or current layer, and a symbolic-feature layer. Additionally, one or more supplementary “passive” features with weaker expression were also recognized.

Key words: concept, verbalization, concept of friendship, semantic meaning, conceptual structure, prototypical principle, thesaurus dictionaries, dictionary of synonyms.

KIRISH. “Do‘stlik” lingvomadaniy konseptining semantik tavsifini to‘liq berish uchun uning tarkibida to‘rtta komponentni ajratish maqbul bo‘ladi:konseptni ta’rifiy va belgi xususiyatlarini ifoda qiluvchi tushunchaviy xususiyat; konseptni til sathida ifoda qiluvchi, kognitiv metaforalarda mujassam bo‘lgan obrazlilik xususiyati; ma’lum bir bir konkret tilning leksik-grammatik tizimida konsept nomini ifodalovchi ma’no anglatuvchanlik xususiyati, nihoyat to‘rtinchi komponent baholovchi xususiyatdir va u har doim konsept tarkibida mujassam bo‘ladi, chunki konsept madaniyatni tadqiq qiluvchi vositadir.Shuni ta’kidlash lozimki, madaniyat asosida baholovchi tamoyil yotadi[2]. Zero, bu yerda baholovchi unsur deganda nafaqat konseptning aksiologik yadrosi, balki uning aksiologik sohadagi o‘rnini ham anglatadi.Konsept tarkibidagi baholovchi unsurning borligini e’tirof etgan holda, shubhasiz, “do‘stlik” konsepti aksiologik konsept hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. “Do‘stlik” konsepti o‘zbek madaniyatida ham, ingliz madaniyatida ham semantik jihatdan konseptni verballashtiruvchi konseptual belgilarni mujassam etadi. Konsept nominativ jihatdan keng tarqalgan bo‘lib, konseptda ikkalamchi ma’noni beruvchi ko‘plab birliklar mavjud [3,62-68].

Bir nechta mavzuga oid dissertatsiyalarda “do‘stlik” tushunchasi bilan bog‘liq ishlar ko‘rib chiqilgan, jumladan, M. Xizovaning “Rus va ingliz til madaniyatida “do‘stlik” tushunchasi”[5], bunda “do‘stlik” tushunchasi faqat lingvomadaniy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. YE.V. Zatsepina ishida “do‘st” konsepti nemis va rus paremialarida romantizm davridagi nemis pesalari tarjimalari materiallari asosida ko‘rib chiqilgan[1]. N. Y.Tolchina rus va ingliz tillarida so‘zlashuvchilarning zamonaviy milliy ongida mavjud bo‘lgan do‘stlik qiyofasini o‘rganish uchun so‘rovnoma o‘tkazdi. Tadqiqot natijalari, ona tilida so‘zlashuvchilar bilan o‘tkazilgan assotsiativ eksperiment ma’lumotlariga asoslanib, “do‘st” va “do‘stlik” tushunchalarining individual komponentlarini idrok etishdagi farqlarga qaramay, bir-birini

tushunish degan xulosaga kelishimizga imkon berdi. Bu jamiyatlarda do‘stlik o‘xshash va do‘stlarning umumiy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati farq qiladi [6,176].

Tadqiqotimiz doirasida ingliz til makonida “do‘stlik” konseptining tahlili lingvomadaniy yo‘nalish doirasida olib borilgan bo‘lib, tahlil qilish tartibi quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. U konseptning 3 ta “qatlami”ni ajratib ko‘rsatadi: asosiy, dolzarb, belgili; qo‘shimcha yoki bir nechta qo‘shimcha “passiv” belgilar,; ichki shakl, odatda og‘zaki shaklda bosilgan [4].

Konseptning markaziy, faol qatlamida u o‘zaro muloqot va tushunish vositasi sifatida til egalarining barchasi tomonidan faol qo‘llaniladi. Biroq, konsept tarkibidagi “passiv” semantik unsurlar faqat ayrim ijtimoiy guruhlar doirasida ahamiyat kasb etadi. Bu tarixiy yoki passiv belgilar odatda ushbu guruhlar ichidagi muloqot jarayonida shakllanib, ular boshqa ijtimoiy guruhlar bilan emas, balki o‘zaro ichki aloqalarda foydalaniladi.

Ichki shakl yoki etimologik xususiyat yoki etimologiya faqat tadqiqotchilar uchun ochiladi. Ushbu til foydalanuvchilari uchun konsept mazmunining ushbu qatlami bilvosita mavjud bo‘lib, boshqa ma’no qatlamlari paydo bo‘lgan va saqlanadigan asos sifatida ko‘rinadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Konseptning ichki shaklini aniqlash uchun uning etimologiyasiga murojaat qilaylik. Skitning etimologik lug‘ati «friendship» ingliz tilining ona tili bo‘lib, «friend» o‘zagi va “ship” qo‘shimchasidan iborat ekanligini ko‘rsatadi[7].

Friend, an intimate acquaintance. O‘rta asrlar ingliz tilida frend, freond. Hozirgi zamon sifatdoshning freon, freogan dan tashkil topgan bo‘lib, “yaxshi ko‘ruvchi, sevuvchi” sifatdoshi ma’nosini beradi. Island tilida froendi qarindosh (yaqin qarindosh) frja – to love (sevmoq) fe’lidan keladi. Shved tilida froinde (a kinsman) (qarindosh). Got tilida frijonds, a friend fe’lining hozirgi zamon sifatdoshi frijon – to love - sevmoq. Qadimgi venger tilida friunt – to love - sevish. Shotland tilida pri – to love – sevish ma’nolarini beradi.

Shunday qilib, etimologiyasiga ko‘ra “do‘stlik” konseptining ichki shakli “do‘st” komponentini o‘z ichiga oladi - bu yaqin odam, qarindosh ma’nolarini beradi.

Har qanday xalqning madaniy taraqqiyoti tarixida sevgi va do‘stlik kabi insonlararo munosabatlar har doim ustuvor qadriyatlar sifatida muhim o‘rin egallagan va bu holat bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan.Odamlar do‘stlik nimani anglatishini, do‘st kimligini va nima uchun do‘stlik juda zarurligini bilishga harakat qilmoqdalar, ammo bir ma’noli talqinga ega bo‘lmagan bu abadiy savollar ko‘p bahs-munozaralarga sabab bo‘ladi. Shunga qaramay, insoniyat do‘stlik fenomenini tushunishga bo‘lgan doimiy urinishlarni qoldirmaydi; Insoniyatning o‘z-o‘zini anglashi, hayot tuyg‘usi va dunyoqarashi ko‘p jihatdan do‘stlikka bo‘lgan munosabat bilan belgilanadi.

“Do‘stlik” kabi konseptlarni o‘rganish ushbu voqelik tushunchasini aniqlash uchun matnning ushbu bo‘laklarini va ushbu hodisa bilan qandaydir bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklarni tahlil qilishni ham o‘z ichiga oladi. Bu tushunchalarning elementlarini o‘rnatish uchun avvalo shu umumiy tushuncha bilan bog‘langan otlarning semantik tuzilishiga murojaat qilish zarur. Roje tezaurusi “do‘stlik” konsepti bilan bog‘liq holda faol qo‘llanilgan leksemalar qatorini aniqlash imkonini beradi. Ushbu konseptual sohada birinchi navbatda rozilik,

hamjihatlik, o‘zaro tushunuv, ijtimoiy guruhlar shakllanishi, umumiy manfaatlar, shaxsiy va oilaviy yaqinlik, homiylik, sevgi, do‘stlikning paydo bo‘lishi va qayta tiklanishi kabi tushunchalar namoyon bo‘ladi. Ushbu semantik birliklardan xulosa qilish mumkinki, do‘stlikning asosiy mohiyati — insonlar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan, bir-birining fazilatlarini anglash va o‘zaro ishonch, osoyishtalik hamda muhabbatga tayangan muloqot shaklidir. Bu munosabatlar boshlanish, uzilish va keyinchalik qayta tiklanish jarayonlariga ega bo‘lishi mumkin. Do‘st esa, o‘z mohiyati bilan dushmanga zid tushunchadir.

Roje tezaurusiga asoslangan tahlil natijalariga ko‘ra, “do‘stlik” konsepti faol ishlatiladigan leksik birliklar orqali talqin qilinishi mumkin. Bu yondashuv konseptni tashkil etuvchi asosiy semantik komponentlarni aniqlash imkonini beradi. Quyida ushbu konsept bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan asosiy semantik juftliklar keltiriladi:

- Friendship – Amity
- Friendship – Sociality
- Friendship – Brotherhood
- Friendship – Likeness
- Friendship – Knowledge
- Friendship – Love
- Friendship – Intimacy
- Friendship – Support
- Friendship – Introduction
- Friendship – Reconciliation
- Friendship – Not enmity

Tadqiqot ishlari jarayonida “do‘stlik” konseptini tashkil etuvchi boshqa elementlar ham alohida tadqiq etiladi.

Do‘stlik - bu tinch munosabatlardir («Amity»)

Do‘stlar hayotimizga tinchlik olib keladi, biz o‘zimizni yolg‘iz emaslikda va himoyalangan his qilamiz. Boshqa inson bilan ochiq muloqot qilish imkoniyati, shuningdek, biror faoliyatda birgalikda ishtirok etishdan olinadigan zavq ruhiy osoyishtalikni ta’minlaydi. Shuning uchun do‘st ko‘pincha inson qalbi uchun shifo manbai sifatida tasvirlanadi: «A faithful friend is the medicine of life» (The Bible).

Do‘stlikni eng yuksak insoniy munosabatlar sirasiga olib chiqadigan jihatlardan biri bu — muloqotdagi samimiylik va o‘zaro ijobiy munosabatdir. Do‘stlik faqat ijtimoiy majburiyat emas, balki ruhiy qoniqish va zavq manbai sifatida ham ahamiyatlidir: «Friendship is not always the sequel of obligation» (Samuel Johnson).

Hayotda do‘stning borligi insonni har qanday g‘am va tashvishlar o‘tkinchi ekanligiga ishontiradi. G‘azablangan paytingizda siz uchun qadrli bo‘lgan inson bilan suhbatlashish imkoniyati ichki iztirobni yengillashtirib, ruhiy barqarorlikni tiklaydi:

«I was angry with my friend;

I told my wrath, my wrath did end.

I was angry with my foe:

It told it not, my wrath did grow» (William Blake).

Do‘stlarning o‘zaro baham ko‘radigan hech narsasi yo‘q, shuning uchun ziddiyatli vaziyat yuzaga kelishi mumkin emas: «Between friends all is common» (maqol)

Do‘stlar bilan turli xil mayda-chuyda narsalarni qilish yoqimli va do‘stingiz yaqin bo‘lganligi sababli, bu harakatlar yanada yoqimli bo‘ladi: «And the whole summer, when you drive around in the car with your friends, you see the corn grow» [8].

Do‘stingiz bilan suhbatlashish ba’zi hollarda yaxshi kitob o‘qish bilan tengdir va kitoblar qalbimizga foydali ta’sir ko‘rsatadi va tinchlikni to‘ldiradi:

«Choose an author as you choose a friend» (Wentworth Dillon).

Ko‘p narsaga erishilganda va hech qayerga intilishning hojati bo‘lmasa, haqiqiy do‘st bizning mavjudligimizning ajralmas qismiga aylanadi, biz u bilan tinchlikda vaqt o‘tkazishni xohlaymiz:

Do‘stlik — bu, eng avvalo, muloqot va ijtimoiy aloqadir. Har qanday yoshdagi insonlar uchun do‘stona muloqot ma’naviy boylik va psixologik barqarorlik manbai hisoblanadi. Do‘stlarning mavjudligi esa shaxsiy farovonlik va hayotdan mamnunlikni ta’minlovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Do‘stona muloqot qilish imkoniyati bizning hayotimizni “umidsiz qilib qo‘ymaydi”:

«Hopeless hope hopes on and meets no end, Wastes without springs and homes without a friend» (John Clare).

Do‘stona muloqot nafaqat ba’zi muammolarni muhokama qilishni, balki fikrlar va munosabatlarning samimiyligini ham o‘z ichiga oladi:

«There is no man so friendless but what he can find a friend sincere enough to tell him disagreeable truths» (Edward George Bulwer Lytton).

Do‘stlar bizning hayotimizda yaqin va zarur hamkorlardir. Va ular yangilik haqida xabar berishlari unchalik muhim emas, lekin ular bizga yolg‘iz emasligimizga ishonch beradi:

«If he was lucky, there would also be owls carrying letters from his best friends Ron and Hermione, though any expectation he'd had that their letters would bring him news had long since been dashed».

Do‘stona muloqotda muammolarimiz va tajribalarimizni baham ko‘rish, biz do‘stlarimiz bilan ko‘p vaqt o‘tkazamiz va bu har doim ham ijobiy narsa emas: «Friends are thieves of time» "Do‘stlar - vaqt o‘g‘rilari", deydi ingliz maqolida.

Yuqori ijtimoiy harakatchanlik, yashash joyini, ish joyini tez-tez o‘zgartirish va boshqalar shaxsiy munosabatlar va qo‘shimchalarning barqarorligini buzadi, ularni qisqa muddatli, ishonchsiz va vaqtinchalik qiladi. Odamlarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlari tobora ko‘proq vaqtinchalik, nomuvofiq bo‘lib bormoqda. Odamlar, narsalar va joylar bizning hayotimizdan to‘xtovsiz, tez sur’atlar bilan o‘tadi. Ko‘pincha biz atrofimizdagi odamlar bilan yuzaki, ishbilarmonlik munosabatlariga kirishamiz. Ongli ravishda yoki yo‘q, biz ko‘pchilik bilan munosabatlarimizni funksional asosda quramiz. Natijada, do‘stona muloqot o‘zining

samimiylik ohangini yo‘qota boshlaydi. Do‘st esa shunchaki suhbatdosh darajasiga tushib qoladi — u bilan faqat vaqtinchalik, tasodifiy tanishlar misolida, hayotimizning bir necha soatini suhbatga sarflab qo‘yish mumkin xolos.

« On fortunate days, he might receive letters delivered by owls from his closest companions, Ron and Hermione — although he had long abandoned the hope that those messages would contain any meaningful updates?»[8].

Do‘stingizning shaxsiy ishtiroki endi talab qilinmaydi, siz telyefon yoki internet orqali suhbatlashishingiz mumkin:

«'Anyway, we're not lonely. We have extended families in the form of networks of friends connected by telephone,' said Tom» [9].

Ehtimol, do‘stlikning samimiyligi va do‘stlikka bo‘lgan ehtiyoj «good friends» va «great friends» iboralarida saqlanib qolgan: “great” ta’rifi “friend” tushunchasiga yangi soya beradi, do‘stni xarakterlaydi, ajoyib, buyuk inson sifatida ko‘rsatadi:

“Please, darling,” Bunny said. “Men like Jingles, and there’s a whole group of them in New York, are not the type of guys you marry. They make great friends – attentive, always there, when you are in a tight spot – and late at night when you’re lonely and desperate as hell, you whisper to yourself” [8].

« If you are writing to Mother at any point, you might tell her that a certain Sturgis Podmore, who is a great friend of Dumbledore's, has recently been sent to Azkaban for trespass at the Ministry» [10].

Odatda, “friend” otiga “good” sifatdoshining qo‘shilishi orqali do‘stlik darajasiga urg‘u beriladi. Bu birikma do‘stning ijobiy fazilatlarini alohida ta’kidlab, uni boshqa do‘stlardan ajratib turuvchi semantik yuklamaga ega bo‘ladi. Pretsedent matnlar tahlilida ushbu turkumdagi ifodalarga ko‘p marotaba duch kelamiz, masalan:

1. “good friend”.

«'I am very much looking forward to getting to know you all and I'm sure we'll be very good friends!’»[10].

«Start to wonder whether am really good friend. We are all so selfish and busy in London. Would it be possible for one of my friends to be so unhappy that they …. ooh, that's where I put this month's Marie Claire: on top of fridge!» [9].

“Of course, we are still really good friends,” he added. “We see each other all the time. We just don’t have sex.” [8];

2) «better friends»:

«How come we are not better friends?” Ray asked»[8];

3) «best friends»:

“Good” sifatdoshining ustunlik darajasidan foydalanib, muallif o‘z do‘stini boshqalardan, hatto yaxshi do‘stlardan ajratib, bu do‘stning eng zo‘r ekanligini ko‘rsatadi:

«Getting a married man. I would never be able to pull it off. I’d probably end up becoming best friends with his wife» [8].

«Other people say you are a bitch, but I say, “No, she is one of my best friends and she is not like that.” I defend you»[8].

Ba’zida “eng yaqin do‘st” (“best friend”) iborasi muallif tomonidan ataylab kuchaytiriladi, bu orqali do‘stlikning o‘ziga xosligi va chuqur emotsional qiymati alohida ajratib ko‘rsatiladi. Masalan, Karolin va Sisi o‘rtasidagi do‘stlik Nyu-Yorkdagi ayollar o‘rtasidagi emotsional yaqinlikka xos holatda tasvirlanadi — bu aloqa ba’zan oddiy bir nomunosib yigit bilan bog‘liq holatlar orqali mustahkamlanadi.

Yana bir holatda, Garri o‘zini Ronning “dunyodagi eng yaqin do‘sti” deb bilgan holda, do‘stining yutug‘ini buzib qo‘yish yoki undan rashk qilish mas’uliyatini his qiladi.

Shuningdek, boshqa bir kontekstda “best friend” iborasi chuqur nostaljik mazmun kasb etadi: “Otang men uchun eng yaxshi do‘st edi, va u chinakam yaxshi inson bo‘lgan. O‘n besh yoshda odam ko‘p xatoga yo‘l qo‘yadi, ammo u bularni yengdi va ulg‘ayib yetildi.” [10]».

XULOSA. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, do‘stona muloqot biz uchun zarur, lekin u samimiylik soyasini yo‘qotdi, shu bilan birga ko‘plik va masofa ma’nosini egallaydi. Tuyg‘ularning samimiyligini, hayotda do‘stga bo‘lgan ehtiyojni ta’kidlash uchun “good friends” va “great friends” iboralari qo‘llaniladi.

Do‘stlik – birodarlik munosabatlarini ifodalashda («Brotherhood»)

Do‘stlikning eng qadimiy, o‘ziga xos shakllari do‘stlikning erkinligi va individualligiga zamonaviy urg‘u berishdan juda uzoq edi. Aksincha, ular qat’iy tartibga solingan. Sivilizatsiya boshlanishida, qarindoshlik insoniyat jamiyatining yetakchi shakli bo‘lganida, yaqinlashuvning boshqa shakllari, xoh u jamiyatga chet ellikni qabul qilish yoki shaxslar o‘rtasida yaqinroq munosabatlar o‘rnatish, ham qarindoshlik sifatida ramziy ma’noga ega edi.Bu jamoa, egizaklik, birodarlik, qon do‘stlik va boshqa hissiyotlar orqali namoyon bo‘ladi).

Vaqt o‘tishi bilan qarindoshlik va do‘stlik kabi ijtimoiy munosabatlar zaiflashib, o‘z o‘rnini yangi shakllarga bo‘shatadi. Biroq ibtidoiy jamiyatlarda “shaxsiy” va “ommaviy” aloqalar o‘rtasidagi chegara aniq ajratilmagan bo‘lgan. Qarindoshlikdan farqli ravishda, do‘stlik odatda shaxsiy tanlov asosida shakllanadi, ammo shu bilan birga u qat’iy ijtimoiy vazifalarga ega bo‘lib, ko‘pincha an’anaviy qoidalar bilan tartibga solingan va maxsus marosimlar orqali mustahkamlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Зацепина Е.В. Вербализация концепта «друг» в немецких и русских паремиях: на материале переводов немецких пьес эпохи романтизма. ... канд. филол. наук.2010.

2. Карасик В.И., Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как единица ис-следования// Методологические проблемы когнитивной лингвистики. - Воронеж: Изд-во Воронеж, ун-та, 2001. С.75-80.

3. Слышкин Г. Г. Прецедентный текст: структура концепта и способы апелляции к нему // Проблемы речевой коммуникации: Межвуз. сб. науч, тр. — Саратов: Изд-во Сарат. ун-та, 2000. С. 62-68.

4. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования - М, 1997. - 824 с.

5. Хизова М.А. Концепт «дружба» в русской и английской лингвокультурах. Дис. ... канд. филол. наук. -М.: РГБ,, 2005

6. Толчина, Н.Ю. Репрезентация концепта «дружба» в разговорной речи (на материале русского и английского языков). Вестник Адыгейского государственного ун-та. - Серия: Филология и искусствоведение. - Майкоп: АГУ, 2010. - Вып. 1. - С. 176-181.

7. Skeat. Consise Etymological Dictionary of English Language – Oxford, Clarendon Press, 1961.

8. Bushnell C. Sex and the City – Abacus, 2002.p.115

9. Fielding H. Bridget Jones’s Diary – Penguin Books, 1999.

10. Rowling J.K. Harry Potter and the Order of the Phoenix – Scholastic Press, 2003.p.114

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ERTAKLARDA OBRAZLARNING ICHKI DUNYOSINI OCHISHDA POETIK USULLARNING ROLI

Madolimov Xusanboy Shuxratovich
Namangan davlat chet tillari instituti katta o`qituvchisi
Husanboy8282@gmail.com Tel.: +998972504805

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq ertaklarida obrazlarning ichki ruhiy olamini ochishda metafora, epitet, takror, simvol va boshqa poetik ifoda vositalarining roli tadqiq etiladi. Metodologiya sifatida diskurs tahlili va nazariy manbalarni solishtirma o‘rganish qo‘llanildi. Tadqiqotdan ko‘rinib turibdiki, poetik usullar qahramonlarning ichki kechinmalarini jonli tasvirlashda markaziy ahamiyat kasb etadi, bu esa ertaklarning psixologik, tarbiyaviy va estetik funksiyalarini mustahkamlaydi. Natijalar xalq tafakkurining badiiy va axloqiy qatlamlarini ochishga xizmat qiladi.

Kalit sozlar: Ertak, poetik usul, ichki dunyo, janr, metafora, epitet, takror, simvol, allegoriya, frazeologiya, psixologik funksiyalar, obraz.

Kirish. Ertak janrining o‘ziga xosligi shundaki, undagi qahramonlar oddiy tashqi harakatlar orqali emas, balki ichki ruhiy kechinmalari orqali ham timsol etiladi. Ichki dunyoni ochishga yo‘naltirilgan poetik vositalar xalq tafakkurining estetik, psixologik va axloqiy qatlamlarini jonlantiradi. Ushbu maqolaning maqsadi – ertak matnlarida qo‘llaniladigan asosiy poetik usullarni aniqlab, ularning obrazlarning ichki dunyosini ochish mexanizmlarini yoritish.

Metodologiya

- Tadqiqot materiali sifatida folklor to‘plamlaridan tanlangan o‘zbek va nemis xalq ertaklarining namunalaridan foydalanildi.
- Asosiy usullar: diskurs va matn tahlili, komparativ yondashuv hamda nazariy manbalar (Propp, Lüthi, Pisanti) kontseptsiyalarini solishtirish.

Natijalar va muhokama

- Metafora**:** Qahramon ruhiy holatini bilvosita ifodalashda ishlatiladi (masalan, "qalbi muzdek bo‘ldi", "ko‘ngli tog‘day ko‘tarildi").
- Simvol va allegoriya**:** Har bir predmet yoki voqea qahramonning ruhiy o‘sishini ramziy ifodalaydi ("oltin olma", "tirik suv").

- Tasviriy til va frazeologiya**:** Milliy ifodalar yordamida ichki dard va umidni jonli tasvirlaydi ("ko‘zidan yosh dumaladi", "ko`ngli tog`dek ko`tarildi").

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, poetik vositalar faqat badiiy bezak bo‘lib qolmasdan, ertaklardagi psixologik jarayonlarni ham ochib beradi. Ular o‘quvchi va tinglovchi empatiyasini uyg‘otadi, tarbiyaviy ta’sirni kuchaytiradi hamda ertaklarni milliy xotira hamda madaniy identitet ramzi sifatida saqlashga xizmat qiladi.

Ertaklarda obrazlarning ichki dunyosini ochish masalasi xalq estetik tafakkurining o‘ziga xos mahsuli sifatida bugungi adabiyotshunoslikda nihoyatda dolzarb mavzu hisoblanadi. Ertak janrining o‘ziga xosligi shundaki, undagi qahramonlar, bir qarashda, soddadil, an’anaviy va stereotip ko‘rinishi mumkin, ammo ular orqali xalqning asriy orzu-umidlari, ruhiy kechinmalari, ma’naviy iztiroblari va hayotga bo‘lgan munosabati ifodalanadi. Valentina Pisanti ta’kidlashicha, uning tuzilishi aniq belgilangan bo‘lsa-da, bu janr foydalanish uchun yaratilgan bo‘lib, uning qadriyatlari uni bayon etilgan vaziyatga odatda ertak aytuvchiga, sotsiopolitik kontekstga va mo‘ljallangan auditoriyaga qarab uzluksiz ravishda o‘zgarib turadi[22]. Ertak matnlarida, ayniqsa, har bir qahramonning ichki ruhiy olami, o‘ziga xos orzu-intilishlari, xavotir va umidlari poetik tasvir, ramzlar va badiiy ifoda vositalari orqali teran ochib beriladi.

Ertaklar asrlar davomida xalq tafakkurining badiiy va axloqiy idealini, insoniy qadriyatlar, orzu va armonlarning ramziy ifodasini mujassamlashtirib kelgan. Har bir ertakda qahramonlar ko‘pincha sinovlarga duch keladi, to‘sqinliklarni yengadi, o‘z orzusi sari intiladi va ko‘pincha o‘zini, ichki kuchini, sadoqati va ezgulik sari bo‘lgan ishonchini sinovdan o‘tkazadi. Bu jarayonlarda qahramonlarning tashqi harakatlaridan ko‘ra, ularning ichki ruhiy kechinmalari, ruhiyatidagi o‘zgarishlar, hissiy to‘qnashuv va psixologik kurashlar markaziy o‘rin tutadi.

Ertaklarda obrazlarning ichki dunyosini tahlil qilish - nafaqat adabiy asarning estetik va badiiy qiymatini aniqlash, balki xalq ongining, ruhiy dunyosining, axloqiy-psixologik tamoyillarining ham qaysi shaklda ifodalanishini tushunishga xizmat qiladi. Shu boisdan, ertak poetikasida badiiy ifoda vositalari, ramz va timsollar, takror va metaforalar yordamida qahramonlarning ruhiy olami o‘quvchi yoki tinglovchiga bevosita yetkaziladi. Bu esa ertaklarni nafaqat tarbiyaviy, balki psixologik va estetik mazmunga ega yodgorlik sifatida qadrlashga zamin yaratadi. “Nihoyat, badiiy obrazning emotsional va ratsional birlik ekanligi, badiiy asarda tasvir bilan birga hissiy munosabatning mavjudligi mazmunning ta'sirdorligini ta'minlaydi”.[23] Shunday qilib, ertaklarda obrazlarning ichki dunyosini ochib beruvchi poetik vositalarni chuqur o‘rganish, ularning xalq ruhiyatidagi o‘rni va ahamiyatini belgilash, bugungi adabiy-tarixiy va estetik tadqiqotlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Ertaklar poetikasida obraz tushunchasi keng va ko‘p qirrali mazmunga ega. Ertaklardagi asosiy obrazlar - qahramon (asosiy protagonist), yordamchi (yaxshi niyatli yordamchi kuchlar), yovuz kuchlar (antagonistlar), sehrli buyumlar yoki ramziy hayvonlarning barchasi o‘ziga xos badiiy funksiyaga ega bo‘lib, xalq ongidagi axloqiy, ruhiy va psixologik qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Ertak obrazlari, bir tomondan, tashqi harakatlari - mashaqqatli sayohati,

[22] Zola E., “A historical and critical overview of the fairy tale as a literary and cinematic genre. Challenging canonical fairy tales withTwenty-first century fairy-tale films”, Bergamo, Italy-2016, 7-b.

[23] Quronov D., “Adabiyotshunoslikka kirish”, Abdulla Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, Toshkent, 2004y., 104-b.

kurashi, jasoratli yoki aql bilan muammolarni hal qilishi orqali ajralib tursa, ikkinchi tomondan, ularning ichki dunyosi, ya’ni ichki kechinmalari, orzu-umidlari, qo‘rquv va umidlari, donoligi, sadoqati va ruhiy kuchi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, xalq ertaklarida ko‘p uchraydigan kambag‘al yigit qahramoni nafaqat kuch va jasorat bilan, balki sadoqati, soddaligi, adolatga ishonchi, ezgulikka bo‘lgan intilishi orqali ham alohida badiiy qiymatga ega bo‘ladi.

Ko‘plab ertaklarda qahramonning ichki ruhiy dunyosi sinovlar va to‘siqlar orqali ochiladi. Masalan, sehrli yordamchi yordamidan voz kechish, qiyin tanlovlar oldida qolish, dushmanlar bilan kurashda irodasini sinash, hamdardlik, kechirim yoki fidokorlik ko‘rsatish - bularning barchasi obraz ruhiyatining chuqur qatlamlarini ochib beradi. Aynan shu sinov va tanlovlar jarayonida qahramonning ruhiy o‘sishi, shaxs sifatida kamol topishi, ma’naviy barkamollikka erishishi tasvirlanadi. Ertak obrazlari har doim ham bir yoqlama emas, balki ziddiyatli, ko‘p qirrali bo‘lib, ular orqali inson tabiatining turli tomonlari ya`ni qo‘rquv, ishonch, sabr, mehr, g‘azab, sadoqat yoki xudbinlik, ba’zida shubha va noaniqliklar badiiy vositalar bilan yoritiladi. Bundan tashqari, xalq ertaklarida yordamchi obrazlar (masalan, sehrli qush, dono chol yoki mehribon ona) ham qahramon ichki dunyosining muayyan fazilatlarini - ezgulik, donolik, halollik va poklikni ifoda etadi. Yovuz kuchlar esa ko‘pincha inson ruhiyatidagi salbiy his-tuyg‘ular - hasad, yovuzlik, ochko‘zlik, nafrat yoki qo‘rquvning ramziy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu tariqa, ertak obrazlarining tashqi va ichki dunyosi bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib, xalq tafakkuridagi ruhiy va axloqiy qadriyatlarni har tomonlama yoritadi. Bundan ko`rinib turibdiki, ertak obrazlari har doim ham faqat tashqi harakatlar orqali emas, balki o‘ziga xos ichki ruhiy dunyo, individual kechinmalar, his-tuyg‘ular va psixologik holatlar orqali ham chuqur ochiladi va o‘quvchiga bevosita ta’sir qiladi.

“Ertak bizning oldimizda metafora va o’ziga xos badiiy ifoda vositalari bilan to’yingan parallel voqelik, giperbolizatsiyalangan reallik shakli sifatida namoyon bo’ladi”[24]. Ertaklarda metafora eng ko‘p uchraydigan va obraz ichki dunyosini chuqur ochib beradigan vositalardan biridir. Metafora yordamida qahramonning ruhiy kechinmalari, dardlari yoki umidlari timsollar orqali ramziy ifodalanadi. Masalan, “Temir odam” obrazida temir so‘zi faqat tashqi kuch emas, balki qahramonning sinovlarga bardoshliligi, sobit irodasi va ruhiy qat’iyligi ramzi sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, “qalbi muzdek bo‘ldi”, “ko‘ngli tog’day ko`tarildi” kabi ifodalar qahramonning ichki holatini ko‘z o‘ngimizda jonlantiradi. Yana bir misol, “tarix davomida “Qizil shapkacha” ertagi turli maqsadlarda ishlatilgan: ular siyosiy va diniy mazmun bilan boyitilgan, turli tarixiy sharoitlarni ochib beruvchi metafora vazifasini bajargan, va fuqarolik huquqlari harakati hamda feminizm ko‘tarilganda, ayol yozuvchilar tomonidan ayol obrazidan olingan mustaqillik va zukkolikni qaytarish maqsadida yana bir bor radikal tarzda qayta ishlangan”.[25] Metafora ertak obrazining ichki holatini oshkora emas, bilvosita ochadi. Ayniqsa,

[24] *Usarova L., Amonova D.,* Badiiy tafakkurning rivojlanishida aka-uka Grimmlar orni va afsonaviy obrazlar talqini, *Образование и инновационные исследования, 2022, 97-b.*

[25] Varga-Dobai K., “From folk tales to popular culture: poaching and relevance in the process of history”, www.folklore.ee/folklore/vol40/varga, 31-b.

“uch boshli ajdarho” qahramon yo‘lidagi nafaqat tashqi, balki ichki to‘siq, ruhiy qo‘rquv va tashvish ramzi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv bolalarda ham, kattalarda ham o‘z obraziga nisbatan empatiya va chuqur tushuncha uyg‘otadi.

Simvol va allegoriya ertaklarda ko‘plab tafakkur va axloqiy qatlamlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, qahramonning yo‘lidagi har bir sinov - yangi bosqich, yangi ruhiy o‘sish ramzi bo‘lishi mumkin. “Sehrli halqa”, “oltin olma”, “tirik suv” bularning barchasi qahramon maqsad sari harakat qilgan sari o‘zini anglash, orzu va ezgulikka intilish ramzlaridir.

Allegoriyaga boy ertaklarda har bir harakat yoki predmet, asosan, insonning ichki o‘zgarishi, ruhiy kamolot sari intilishi va o‘zini topishi bilan bog‘liq tarzda talqin qilinadi. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagida Zumradning sinovlari, sabri va pok niyati orqali obrazning ruhiy dunyosi ochiladi; Qimmat obrazi esa nafs, hasad va ochko‘zlik ramzi sifatida harakat qiladi. Badiiy adabiyotda mohiyatan allegoriyaga yaqin bo`lgan ko`chimning bir turi sifatida simvol (ramz) ham qo`llanadi. Simvolning allegoriyadan farqi shundaki, u muayyan kontekst doirasida ham o`z ma'nosida, ham ko`chma ma'noda qo`llanadi.[26]

Takror ertak poetikasining eng qadimiy va samarali vositalaridan biri bo‘lib, uch martalik harakat (masalan, “uch marta eshik taqillatildi”, “uch kecha uxlamadi”, “uch sinovdan o‘tdi”) asarda ritmik tuzilmani yaratadi va qahramon ruhiyatidagi kechinma, sabr va ishonchni kuchaytiradi. Takror orqali qahramonning orzuga intilishi, harakatdagi uzluksizligi va o‘zgarish jarayoni bosqichma-bosqich ochiladi. “Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so’z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta’sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarliligidir.”[27]

Xalq ertaklari tasviriy va xalqona ifodalarga, milliy frazeologizmlarga nihoyatda boy. Masalan, “ko‘ngli g‘ash bo`ldi”, “qalbi yerga cho‘kdi”, “ko‘zidan yosh dumaladi”, “yig‘lab, yolvorib, so‘raydi” kabi ifodalar orqali obrazning chuqur dardi, sog‘inchi yoki orzusi hissiyotli va jonli ifodalanadi. Bu vositalar xalq ruhiyati va milliy tafakkurining ertak obrazlarida ifoda topishini ta’minlaydi.

Tasviriy til yordamida ertak muhitida nafaqat tashqi manzara, balki obraz ichki olamining holati ham yorqin va ta’sirchan qilib ko‘rsatiladi. Qahramon ko‘pincha faqat gapiradi yoki harakat qiladi deb o‘ylansa ham, uning ichki holati til orqali betakror ifodalanadi.

XULOSA. Ertak poetikasi orqali obrazlarning ichki dunyosini ochish masalasi xalq ijodining estetik va psixologik qatlamlarini tadqiq etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ertaklarda poetik usullarning mohirona ishlatilishi – metafora, ramz, takror, epitet, tasviriy til va kulgili dialoglar – qahramonlarning tashqi harakatlari ortidagi ichki kechinmalar, his-tuyg‘ular, orzu-umid va ruhiy kurashlarni jonli va ta’sirchan tarzda ifodalaydi. Ertak qahramonlari ko‘pincha ramziy va universal obrazlar sifatida harakat qiladi: ular orqali xalqning asriy orzu-umidlari, hayotiy falsafasi, adolatga intilishi, yaxshilik va yovuzlik o‘rtasidagi

[26] Quronov D., “Adabiyotshunoslikka kirish”, Abdulla Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, Toshkent, 2004y., 142-b.
[27] Hotamova M., “Problems and prospects for the implementation of interdisciplinary research” Vol. 14 No, 2023, 2-b.

kurash, sabr va matonat, sevgiga va ezgulikka sadoqat kabi yuksak qadriyatlar badiiy vositalar bilan mujassamlashtiriladi. Qahramonning tashqi sarguzashtlari zamirida doimo ichki dunyosi – ruhiy iztiroblari, shubha va qo‘rquvlari, orzulari va orzu sari intilishlari markazda turadi.

Poetik usullar orqali ertak obrazlari biryoqlama emas, balki ko‘p qirrali, chuqur va hayotiy bo‘lib, o‘quvchi yoki tinglovchining hamdardligi va empatiyasini uyg‘otadi. Aynan shu jihat ertaklarning nafaqat tarbiyaviy, balki estetik, psixologik va ma’naviy ta’sir kuchini oshiradi. Buning natijasida ertaklar xalq ruhiyatining ifodasi, milliy xotira va badiiy tafakkur xazinasi sifatida doimiy qadrlanadi. Shu bois ertak poetikasining zamonaviy tahlili – obraz ichki dunyosining ochilishi, xalq ongida saqlanib kelayotgan axloqiy va ruhiy qadriyatlar, hayotga munosabat va umid ramzlarining badiiy ifodasini ochib beradi va yangi ilmiy izlanishlar uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Luethi M., Das europaeisch Volksmaerchen, Wilhelm Fink Verlag, Muenchen-1997;
2. Grimm J., Grimm W. Kinder- und Hausmärchen. - Goettingen: 1843;
3. Zola E., “A historical and critical overview of the fairy tale as a literary and cinematic genre. Challenging canonical fairy tales withTwenty-first century fairy-tale films”, Bergamo, Italy-2016;
4. Quronov D., “Adabiyotshunoslikka kirish”, Abdulla Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, Toshkent, 2004;
5. Usarova L., Amonova D., Badiiy tafakkurning rivojlanishida aka-uka Grimmlar orni va afsonaviy obrazlar talqini, Образование и инновационные исследования, 2022;
6. Varga-Dobai K., “From folk tales to popular culture: poaching and relevance in the process of history”, www.folklore.ee/folklore/vol40/varga.pdf;
7. Hotamova M., “Problems and prospects for the implementation of interdisciplinary research” Vol. 14 No, 2023.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

GRAMMAR IN CONTEXT: AUTHENTIC MATERIALS AND MEANINGFUL LANGUAGE LEARNING

Maxammadjonova Nazokat Rafiqjon qizi
NSIFL master student
e-mail: nazokatmahammadjonov@internet.ru

ABSTRACT This article explores the role of authentic materials in teaching grammar within meaningful contexts. It highlights how real-world texts, videos, and audio resources enhance language acquisition by providing learners with natural examples of grammatical structures. The study discusses theoretical foundations, practical applications, and the benefits of using authentic materials in ESL/EFL classrooms.

Keywords: Grammar in context, authentic materials, meaningful learning, language acquisition, ESL/EFL, communicative competence, real-world language, pedagogical strategies, second language learning, implicit grammar instruction.

Introduction

The traditional approach to teaching grammar often relies on decontextualized rules and repetitive drills, which may not lead to effective language use in real-life situations. In contrast, the concept of “grammar in context” emphasizes learning grammatical structures through meaningful and authentic communication. Authentic material such as newspaper articles, podcasts, films, and social media posts—provide learners with exposure to how grammar functions naturally in discourse.

Research in second language acquisition (SLA) suggests that learners acquire grammar more effectively when it is embedded in meaningful input (Krashen, 1985). This article examines the theoretical basis for using authentic materials, analyzes their impact on grammar learning, and discusses practical strategies for integrating them into language instruction.

It is clear-cut that the integration of authentic materials into grammar instruction represents a shift from traditional rule-based teaching to a more dynamic, context-driven approach. Unlike contrived textbook examples, authentic materials—such as news articles, films, advertisements, and social media content—present language as it is genuinely used in real-life communication. This section explores the theoretical foundations, pedagogical benefits, practical implementation strategies, and potential challenges of using authentic materials in grammar teaching.

Theoretical Underpinnings of Grammar in Context.

The idea of teaching grammar through authentic materials is deeply rooted in several key theories of second language acquisition (SLA). One of the most influential is Stephen Krashen’s Input Hypothesis, which posits that learners acquire language most effectively when they are exposed to "comprehensible input" slightly beyond their current proficiency level. Authentic materials naturally provide this kind of input, as they contain real-world language that challenges learners without overwhelming them.

Another critical theory is Michael Halliday’s Systemic Functional Linguistics (SFL), which emphasizes that grammar, should be taught as a tool for meaning-making rather than a set of rigid rules. According to Halliday, language structures vary depending on social context, purpose, and audience. Authentic texts illustrate this variation, showing how grammar adapts in different communicative situations—formal writing, casual conversation, persuasive advertising, etc.

Additionally, Lev Vygotsky’s Sociocultural Theory highlights the importance of social interaction and meaningful context in learning. Authentic materials facilitate this by embedding grammar in culturally relevant situations, allowing learners to see how native speakers use language in real interactions. This aligns with the concept of situated learning, where knowledge is best acquired when tied to authentic activities and environments.

Pedagogical Benefits of Authentic Materials in Grammar Instruction. Using authentic materials in grammar teaching offers numerous advantages over traditional methods. First, they increase learner motivation and engagement. Students often find textbook exercises monotonous and disconnected from real-life language use. In contrast, working with real articles, movie clips, or song lyrics makes learning more relatable and enjoyable. For example, analyzing verb tenses in a news report about a recent event feels more purposeful than filling in blanks in a decontextualized worksheet.

Second, authentic materials promote implicit grammar acquisition. Research in SLA suggests that much of language learning happens subconsciously through repeated exposure to meaningful input. When learners encounter grammatical structures naturally in authentic texts, they begin to internalize patterns without explicit memorization. For instance, seeing multiple instances of the present perfect in travel blogs helps learners grasp its use for life experiences more intuitively than a textbook rule could. Third, these materials enhance communicative competence. Grammar is not just about accuracy but also about appropriateness—knowing which structures fit specific contexts. Authentic materials expose learners to register variations (formal vs. informal), pragmatic nuances (politeness strategies), and cultural references that shape grammatical choices. A business email, a casual tweet, and a political speech all use grammar differently, and authentic examples help learners navigate these differences.

Fourth, authentic materials support multimodal learning. Language exists in written, spoken, and visual forms, and authentic resources reflect this diversity. A podcast allows learners to hear intonation and connected speech, while a film scene combines dialogue with

body language and situational context. This multisensory input reinforces grammar retention and helps learners develop both receptive and productive skills.

Practical Strategies for Using Authentic Materials in the Classroom

While the benefits are clear, effectively incorporating authentic materials requires thoughtful planning. Below are some practical approaches for different language skills:

For reading and grammar analysis, teachers can select short, level-appropriate texts (e.g., news headlines, blog posts, or product reviews) and design tasks that draw attention to specific structures. For example, learners might underline all passive voice constructions in a science article or compare the use of modals in advice columns versus legal documents.

Listening activities can leverage podcasts, interviews, or YouTube videos. After listening, students might transcribe sentences containing target grammar points (e.g., conditional phrases in a debate) or discuss how intonation changes the meaning of grammatical structures (e.g., rising tones in tag questions).

Writing tasks can mimic real-world genres. Instead of writing isolated sentences, learners can compose social media posts using hashtags (practicing conciseness and ellipsis) or draft formal letters (focusing on complex sentence structures and formal register). Peer review can then highlight grammatical accuracy in context.

Speaking practice benefits from role-plays based on authentic scenarios. For instance, students can reenact a job interview (practicing present perfect for experiences) or a restaurant complaint (using past tense narratives). Video clips can serve as models for natural pronunciation and grammar flow.

Addressing Challenges in Using Authentic Materials

Despite their advantages, authentic materials present some challenges that instructors must navigate.

One common issue is linguistic complexity. Authentic texts often contain unfamiliar vocabulary, idiomatic expressions, or cultural references that can overwhelm learners. To mitigate this, teachers can:

Pre-teach key vocabulary before the lesson:

Use excerpts rather than full texts for lower-level students:

Provide glossaries or annotations for difficult terms:

Another challenge is time constraints. Finding and adapting authentic materials can be more time-consuming than relying on textbooks. To streamline the process, educators can:

Curate a shared repository of vetted resources (e.g., a class folder of news clips, ads, or podcasts).

- Use platforms like Newsela or BBC Learning English, which offer graded authentic content.
- Encourage learners to bring their own materials (e.g., favorite songs or memes) for analysis.

Finally, assessment can be tricky. Traditional grammar tests may not capture the nuanced learning that occurs with authentic materials. Alternative assessment methods include:

- Portfolios where students collect and analyze real-world grammar examples.
- Performance-based tasks like creating a vlog (assessing spoken grammar) or writing a review (evaluating written accuracy in context).

The Role of Technology in Enhancing Authentic Grammar Learning

Digital tools have expanded access to authentic materials and created new opportunities for interactive grammar practice.

Corpus linguistics tools (e.g., COCA or Sketch Engine) allow learners to explore how grammar is used in large databases of real texts. For example, searching for "I wish + past perfect" reveals authentic examples of regret expressions.

Social media platforms like Twitter or Instagram provide bite-sized, contemporary examples of grammar in action. Hashtag trends, comment threads, and viral posts can be analyzed for grammatical patterns (e.g., the rise of "because + noun" in informal English: "I’m late because traffic").

Language learning apps (e.g., FluentU or LingQ) integrate authentic videos and articles with interactive subtitles and grammar notes, bridging the gap between immersion and structured learning.

Conclusion

Teaching grammar through authentic materials fosters meaningful language learning by connecting grammatical rules to real-world communication. This approach aligns with modern SLA theories and promotes both accuracy and fluency. Educators should carefully select and adapt authentic resources to suit learners’ proficiency levels while maintaining engagement and relevance.

References

1. Krashen, S. (1985). *The Input Hypothesis: Issues and Implications*. Longman.
2. Vygotsky, L. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
3. Ellis, R. (2003). *Task-Based Language Learning and Teaching*. Oxford University Press.
4. Nunan, D. (1999). *Second Language Teaching & Learning*. Heinle & Heinle.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
6. Gilmore, A. (2007). *Authentic Materials and Authenticity in Foreign Language Learning*. Language Teaching.
7. Widdowson, H. G. (1990). *Aspects of Language Teaching*. Oxford University Press.
8. McCarthy, M., & Carter, R. (1994). *Language as Discourse: Perspectives for Language Teaching*. Longman.

9. Tomlinson, B. (2012). *Materials Development for Language Learning and Teaching*. Cambridge University Press.

10. Lightbown, P., & Spada, N. (2013). *How Languages are Learned*. Oxford University Press.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

МАДАНИЯТ ҲАМДА ТИЛНИНГ УЙҒУНЛАШУВИ, ЯХШИЛИК ВА ЁМОНЛИК: ДЕНОТАТИВ ВА КОННОТАТИВ МАЪНО

Эргашева Дилафруз Абдусаломовна
Самарқанд давлат чет тиллар институти
E-mail: ergasheva.dilafruz.te@gmail.com

АННОТАЦИЯ Ушбу мақолада маданиятнинг тилга сингиши ва тил орқали маданиятнинг ифодаланиши таҳлил қилинади. Айниқса, фразеологик бирликлар таркибидаги *“good/bad”* ва *“‘яхши/ёмон””* сўзлари орқали маданий, денотатив ва коннотатив маънолар қандай намоён бўлиши мисоллар орқали ёритилади.

Калит сўзлар: *фразеология, маданият, семантик қатлам, коннотатив маъно, денотатив маъно, маданий концепт, коллокация, модификатор.*

КИРИШ

Фразеологик бирликларнинг ўрганилиши халқнинг ижтимоий-маданий ҳаётини англашда муҳим восита ҳисобланади. Идиомалар муайян халқнинг тарихий, ижтимоий ва маданий тажрибалари билан боғлиқ бўлиб, уларни тўлиқ англаш учун шу халқнинг маданиятини билиш зарур. Бунда тил фақат мулоқот воситаси эмас, балки маданий код сифатида ҳам хизмат қилади. Шу нуқтаи назардан, *“good/bad”* ва *“яхши/ёмон”* сўзлари ифода этувчи фразеологизмлар орқали маданий коннотацияларни таҳлил этиш муҳимдир.

МЕТОДОЛОГИЯ

Ушбу тадқиқотда семантик таҳлил, компонентли таҳлил ва маданий-прагматик ёндошув асосий методлар сифатида қўлланилди. Мазмун таҳлили асосида инглиз ва ўзбек тилларидаги фразеологик бирликлар таркибидаги денотатив ва коннотатив маънолар ўрганилди. Эътибор асосан *“good”* ва *“bad”*, *“яхши”* ва *“ёмон”* сўзлари иштирокидаги иборалар ҳамда уларнинг маданий коннотацияларига қаратилди. Телия, Cowie, Насруллаева, Potter ва бошқа олимлар асарлари таҳлилий асос сифатида фойдаланилди[1][4][5][8].

НАТИЖАЛАР

Мазкур тадқиқот натижаларига кўра, *“good/bad”* ва *“яхши/ёмон”* лексемалари ифодасидаги фразеологизмлар нафақат тилдаги маъноларни, балки маданий-коннотатив юклама ва қадриятлар тизимини ҳам акс эттиради. Масалан, *“good egg”* (тарбияли, итоаткор шахс)[5], *“good grief”* (ҳайрат, хафалик)[3], *“bad apple”* (бузғунчи шахс)[8]

каби иборалар маънолари фақат лўғатий асосда эмас, маданий контекстда шаклланади. Ўзбек тилидаги *“оқ йўл”, “юракдан севмоқ”, “яхши қаршиламоқ”* каби иборалар ҳам маданий анъана, урф-одат ва миллий қадриятларни акс эттиради.

Жадвал 1.

***“Good/bad”* ва *“яхши/ёмон”* сўзлари ифода этган фразеологик бирликларнинг семантик-қиёсий тавсифи**

№	Тил	Иборалар	Денотатив маъно	Коннотатив маъно	Маданий контекст / Изоҳ
1	Инглиз	good egg	яхши одам	ишончли, итоаткор	Ижобий баҳо; АҚШ маданиятида "одобли" одам
2	Инглиз	bad apple	ёмон одам		Маданиятда бузғунчи одамлар тимсоли
3	Инглиз	goody two-shoes	яхши қиз	ҳаддан ортиқ ижобийлик	Сунъий ёки сохта яхшиликни танқид қилади
4	Инглиз	good grief!	ҳайрат	ҳафсаласи пир, афсус	Ироқли ҳайрат ёки тушкунлик, “Good” сардонлик билан ишлатилади
5	Инглиз	a bad egg	ёмон одам	ишончсиз, фирибгар	Ижтимоий салбий фикр, ёмон одат билан боғлиқ
6	Ўзбек	яхши одам	яхши инсон	ҳалол, обрўли	Жамиятда обрўга эга, оила ва маҳаллада ҳурматли шахс
7	Ўзбек	ёмон гапдан йироқ бўлмоқ	ёмон сўз айтмаслик	одобли, тарбияли	Жамиятда салбий муҳокамадан узоқлик қадрланади
8	Ўзбек	яхши қарши олмоқ	илиқ кутиб олиш	меҳмондўстлик	Ўзбек менталитетида меҳмончилик муҳим қадрият
9	Ўзбек	ёмон кунлар	оғир давр	синовли, сабрли бўлиш зарурати	Ҳаётда вақтинчалик муаммолар рамзи
10	Ўзбек	ёмоннинг тўпписи қозондай	қадрсиз инсон	паст қадрланувчи	Ёмон одамнинг қиймати йўқ деган киномия ва ижтимоий баҳо

МУҲОКАМА

Фразеологизмлар маданиятнинг тил орқали намоён бўлишининг муҳим тарздаги кўринишидир. Телия таъкидлаганидек, маданият тилда бир неча канал орқали ўз аксини топади: маданий семантик қатлам, маданий концепт ва маданий коннотатив маънолар[8]. Энг фаол канал — маданий коннотатсия бўлиб, у нафақат сўзнинг маъно қатламини, балки у билан боғлиқ қадриятлар, норма ва анъаналарни ҳам ифодалайди. *“Good”* ва *“bad”* сўзлари иштирокидаги идиомалар баъзан маданий танқид, ҳазил ёки ирония шаклида ҳам намоён бўлади. Масалан, *“Goody two-shoes”* ибораси шахснинг сунъий яхшилигини танқид қилиб, маданий мулоҳазага асосланган ҳолда ишлатилади. Худди

шундай, *“bad apple”* идиомаси орқали якка шахснинг жамиятга таъсири маданий жиҳатдан баҳоланади. Бу ҳолатлар тилдаги идиомаларнинг коннотатив ва прагматик хусусиятларини намоён этади.

ХУЛОСА

Тил ва маданият ўртасидаги боғлиқликни англашда фразеологизмларни ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Идиомалар орқали тил нафақат лексик маъно, балки жамиятнинг маданий кодлари, қадриятлари, ахлоқий мезонларини ҳам ифода этади. *“Good/bad”* ва *“яхши/ёмон”* лексемалари ифода этувчи фразеологик бирликлар нафақат семантик жиҳатдан, балки маданий-прагматик жиҳатдан ҳам ўта бой ва муҳим манба ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Cowie, A. P. (Ed.). (1998). Phraseology: Theory, analysis, and applications. Oxford: Clarendon Press.

2. Mirzayev, T., Musoqulov, A., & Sarimsoqov, B. (Eds.). (2005). O‘zbek xalq maqollari (Sh. Turdimov, Ed.). Toshkent: Sharq.

3. Merriam-Webster. (n.d.). Good grief. In Merriam-Webster.com Dictionary. Retrieved June 10, 2025, from https://www.merriam-webster.com/dictionary/good%20grief

4. Nasrullaeva, N. Z. (2018). Formation of gender concepts in the English and Uzbek phraseological pictures of the world (Doctoral dissertation).

5. Potter, R. R. (1974). Making sense: Exploring semantics and critical thinking (p. 36). New York: Globe Book Company.

6. Spears, R. A. (2005). McGraw-Hill's dictionary of American idioms and phrasal verbs (p. 266). New York: McGraw-Hill Education.

7. Warf, B. (2000). New York: The Big Apple in the 1990s. Geoforum, 31(4), 487–499. https://doi.org/10.1016/S0016-7185(00)00017-8

8. Телия, В. Н. (2004). Культурно-языковая компетенция: её высокая вероятность и глубокая сокровенность в единицах фразеологического состава языка. В Культурные слои во фразеологизмах и дискурсивных практиках (сс. 19–30). Москва.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

INGLIZ VA O‘ZBEK PAREMIYALARIDA IJOBIY BAHONING KOGNITIV MODELLARI

Kurbonova Zarina
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi paremiyalarda ifodalangan ijobiy baho kontseptsiyasining kognitiv modellarini tahlil qilishga qaratilgan. Paremiyalar – xalq og‘zaki ijodining qisqa, lekin mazmunan chuqur birliklari bo‘lib, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqani namoyon etadi. Tadqiqotda ingliz paremiyalarida metaforik model, o‘zbek paremiyalarida esa didaktik model ustun ekani aniqlangan. Metodologik jihatdan maqola aralash yondashuvga tayangan: anketalar, kontent tahlil, kuzatuv va intervyu usullari orqali ma’lumotlar to‘plangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi paremiyalar talabalarga madaniy yaqinligi sababli tushunarliroq bo‘lgan, ingliz paremiyalari esa ko‘pincha metaforik xarakteri sababli tushunishda qiyinchilik tug‘dirgan. Tadqiqot til o‘qitishda kognitiv yondashuvlarning ahamiyatini asoslab beradi va o‘quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: paremiyalar, ijobiy baho, kognitiv modellar, ingliz tili, o‘zbek tili, metafora, kollektivizm, individualizm, didaktik mazmun.

КОГНИТИВНЫЕ МОДЕЛИ ПОЛОЖИТЕЛЬНОЙ ОЦЕНКИ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПАРЕМИЯХ

Аннотация. Целью данной статьи является анализ когнитивных моделей концепта положительной оценки, выраженных в паремиях английского и узбекского языков. Паремии – это короткие, но содержательные единицы народного устного творчества, демонстрирующие неразрывную связь языка и культуры. В ходе исследования выявлено, что в английских паремиях преобладает метафорическая модель, а в узбекских – дидактическая. Методологически статья опирается на смешанный подход: данные собирались с помощью анкетирования, контент-анализа, наблюдения и интервью. Результаты показывают, что паремии на узбекском языке были более понятны учащимся в силу своей культурной близости, в то время как английские паремии чаще вызывали трудности в понимании из-за своей метафоричности. В исследовании обосновывается важность когнитивных подходов в обучении языкам и даются практические рекомендации по развитию межкультурной компетентности учащихся.

Ключевые слова: паремии, положительное оценивание, когнитивные модели, английский язык, узбекский язык, метафора, коллективизм, индивидуализм, дидактическое содержание.

COGNITIVE MODELS OF POSITIVE EVALUATION IN ENGLISH AND UZBEK PAREMIAS

Abstract. This article aims to analyze the cognitive models of the concept of positive assessment expressed in paremias in English and Uzbek. Paremias are short but meaningful units of folk oral creativity, demonstrating the inextricable link between language and culture. The study revealed that the metaphorical model prevails in English paremias, and the didactic model in Uzbek paremias. Methodologically, the article relies on a mixed approach: data were collected through questionnaires, content analysis, observation, and interviews. The results show that paremias in the Uzbek language were more understandable to students due to their cultural proximity, while English paremias often caused difficulties in understanding due to their metaphorical nature. The study substantiates the importance of cognitive approaches in language teaching and provides practical recommendations for developing students' intercultural competence.

Keywords: paremias, positive assessment, cognitive models, English, Uzbek, metaphor, collectivism, individualism, didactic content.

Kirish. Paremiyalar xalq og‘zaki ijodining muhim qismi sifatida til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradi (Lakoff & Johnson, 1980). Ular nafaqat lingvistik birliklar, balki kognitiv tuzilmalar sifatida insonning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy normalarni ifodalaydi (Gibbs, 1994). Ijobiy baho, ya’ni biror narsa yoki shaxsni ijobiy sifatlar bilan ta’riflash, paremiyalarda muhim o‘rin tutadi, chunki u jamiyatning axloqiy va estetik mezonlarini ochib beradi (Moon, 1998). Ingliz va o‘zbek paremiyalari bu borada farqli kognitiv modellar orqali o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Ingliz paremiyalari ko‘pincha individualizm, pragmatizm va metaforik ifodalarga asoslanadi. Masalan, “Every cloud has a silver lining” optimizm va muammolarni yengishga undashni aks ettirsa, “A stitch in time saves nine” pragmatik yondashuvni ta’kidlaydi. O‘zbek paremiyalari esa kollektivizm, axloqiy qadriyatlar va didaktik mazmunga ega bo‘lib, “Yaxshilik qil, yaxshilik top” yoki “Odamgarchilik o‘limdan qoladi” kabi iboralar jamiyatdagi axloqiy normalarni mustahkamlashga xizmat qiladi (Abdurahmonov, 2010). Ushbu farqlar kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishni talab qiladi, chunki ular xalqlarning dunyoqarashi va ijtimoiy-madani Institutions.

Mazkur maqola ingliz va o‘zbek paremiyalarida ijobiy bahoning kognitiv modellarini solishtirish va ularning lingvistik-madaniy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot quyidagi savollarga javob berishga urinadi:

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Lakoff & Johnson (1980) — bu asar kontseptual metafora nazariyasining asosiy manbasi bo‘lib, til orqali inson tafakkurining qanday shakllanishini tushuntiradi. Maqolada ingliz paremiyalaridagi metaforik modellarni tahlil qilish aynan ushbu nazariyaga asoslangan.

Gibbs (1994) — figurativ tafakkur va til o‘zaro qanday aloqada bo‘lishi haqidagi nazariy qarashlarni taqdim etadi. Bu manba yordamida paremiyalarning nafaqat til birliklari, balki kognitiv tuzilma sifatida tahlili asoslanadi.

Moon (1998) — ingliz tilidagi barqaror iboralar va idiomalarni korpus asosida o‘rgangan. Paremiyalarning strukturasi va ularning ma’nodagi ijobiy bahoni qanday ifoda etishini ko‘rsatishda ushbu manba muhim rol o‘ynagan.

Abdurahmonov (2010) — o‘zbek tilidagi paremiologik birliklarning o‘qitilish metodikasi va ularning didaktik mazmunini yoritadi. O‘zbek paremiyalarining axloqiy, tarbiyaviy mazmuni hamda kollektivistik madaniyatga xos xususiyatlarini tushuntirishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kövecses (2005) — metaforalarning madaniy o‘zgaruvchanligini tahlil qilib, ingliz va boshqa tillarda metaforik tafakkurning madaniyatga qanday bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu asar orqali ingliz paremiyalarida metaforik modelning madaniy asoslari yoritilgan.

Mieder (2004) — paremiyalar bo‘yicha fundamental qo‘llanma hisoblanadi. U orqali paremiyalarning umumiy strukturasi, semantik turlari va ijtimoiy funksiyalarini aniq tasniflash imkoniyati yaratilgan.

Bu adabiyotlar orqali maqola til, madaniyat va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni keng qamrovli tarzda ochib beradi va ilmiy tahlil uchun ishonchli nazariy asos yaratadi.

Tadqiqot sifatli va miqdoriy yondashuvlarni birlashtirgan aralash usulga asoslanadi. Quyidagi usullar qo‘llanildi:

Tadqiqot ishtirokchilari

Tadqiqot O‘zbekistondagi ikkita oliy ta’lim muassasasida o‘tkazildi. Ishtirokchilar 50 nafar respondentdan iborat bo‘lib, ulardan 30 nafari talabalar (ingliz va o‘zbek tili o‘quvchilari, B1-B2 darajasi, CEFR mezonlariga ko‘ra) va 20 nafari o‘qituvchilar (o‘rtacha tajriba 10 yil) edi. Talabalar guruhining 60% ayollar, 40% erkaklar bo‘lib, o‘rtacha yoshi 21 yosh.

Ma’lumot yig‘ish usullari. Anketa: Respondentlar orasida ijobiy baho ifodalovchi paremiyalarni tushunish va qo‘llash haqida 25 savoldan iborat so‘rovnoma o‘tkazildi. Savollar paremiyalarning semantik tushunchasi, kontekstda qo‘llanilishi va madaniy ahamiyatiga qaratildi. So‘rovnoma Likert shkalasi (1–5 ball) asosida tuzildi.

Kontent tahlil: Ingliz tilidagi 100 ta va o‘zbek tilidagi 100 ta paremiya tanlab olindi. Tanlovda ijobiy baho (optimistik, axloqiy yoki estetik) ifodalovchi paremiyalar asos qilib olindi. Tahlil kognitiv modellar (metafora, metonimiya, didaktik mazmun) asosida amalga oshirildi.

Kuzatuv: Ingliz va o‘zbek tili darslarida paremiyalarni o‘qitish jarayoni 12 dars davomida kuzatildi. Kuzatuvlar strukturaviy protokol asosida olib borildi, unda paremiyalarni o‘qitish usullari va talabalarning tushunchasi qayd etildi.

Intervyu: 10 nafar o‘qituvchi bilan yarim tuzilgan intervyular o‘tkazildi. Intervyularda paremiyalarni o‘qitishda kognitiv yondashuvlarning afzalliklari va qiyinchiliklari muhokama qilindi.

Tahlil usullari. Paremiyalar kognitiv tilshunoslik asosida tahlil qilindi (Lakoff & Johnson, 1980). Ingliz va o‘zbek paremiyalari metaforik, metonimik va didaktik modellar bo‘yicha tasniflandi. Statistik tahlil uchun SPSS dasturidan foydalanilib, paremiyalarning qo‘llanilish chastotasi va respondentlarning tushunchalari o‘rtasidagi korrelyatsiya aniqlandi. Korrelyatsiya koeffitsienti (Pearson’s r) va x2-testi qo‘llanildi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

Ingliz va O‘zbek Paremiyalarida Ijobiy Bahoning Kognitiv Modellari.

Kognitiv model | Ingliz paremiyalari (%) | O‘zbek paremiyalari (%)

Metaforik | 60 | 25

Metonimik | 20 | 15

Didaktik | 15 | 55

Boshqa (umumiy) | 5 | 5

Ingliz paremiyalari: Tahlil qilingan 100 ta paremiyaning 60% metaforik modelga asoslangan bo‘lib, optimizm va individual yutuqlarni ta’kidlaydi. Masalan, “Every cloud has a silver lining” muammoning ijobiy yechimini metaforik tarzda ifodalaydi. Metonimik modellar (20%) ko‘pincha qisqa va pragmatik bo‘lib, “Actions speak louder than words” kabi iboralar harakatning muhimligini ta’kidlaydi. Didaktik modellar (15%) kamroq uchraydi, lekin axloqiy maslahatlarni beradi (masalan, “Honesty is the best policy”).

Otlarda kelishik kategoriyasi. Otlarning grammatik kategoriyasidan biri –oldingi so‘zni keying so‘zga bog‘lash uchun vazifasini bajaradigan shakl- kelishik kategoriyasidir. O‘zbek tilshunosligida kelishik o‘rganilishi tarixi tilshunos olim A.G‘ulomov tadqiqotidan boshlandi. Shundan so‘ng kelishik kategoriyasining alohida shakli formal tadqiq usuli asosida I. Ziyoyeva, T. Inoyatov, A. Yo‘ldoshev, G. Ro‘ziyev, A. Marufov, R. Rasulov, Sh. Rahmatullayev tomonidan tadqiq qilingan.

O‘zbek tilshunosligida 6 ta kelishik mavjud bo‘lib, ular o‘ziga xos ma’noviy va semantik xususiyat yaxlitligidan iboratdir. Kelishiklar to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zakka qo‘shiladi. O‘zbek tilida kelishik qo‘shimchalarini olib o‘zgarishiga turlanish deyiladi. Kelishiklar so‘zga birdan ortiq qo‘shilmaydi. Tilshunosligimizda kelishiklar quyidagi jadvalda aks etgan:

T/R	Kelishik shakli	Qo‘shimchasi	Misol
1	Bosh kelishik	*0*	*yurt, talaba, kitob, dala*
2	Qaratqich kelishigi	*-ning*	*yurtning, talabaning kitobning, dalaning*
3	Tushum kelishigi	*-ni*	*yurtni, talabani, kitobni, dalani*
4	Jo‘nalish kelishigi	*-ga*	*yurtga, talabaga, kitobga, dalaga*
5	O‘rin-payt kelishigi	*-da*	*yurtda, talabada, kitobda, dalada*
6	Chiqish kelishigi	*-dan*	*yurtdan, talabadan, kitobdan, daladan*

Kelishik shakllari. Bosh kelishik. Otlarning kelishik shakllarining birinchisi - bosh kelishik deb nomlangan bo‘lib, maxsus qo‘shimchasi yo‘q, ya’ni nol shaklga ega. Darslik va o‘quv qo‘llanmalarda bosh kelishik shaklida so‘z barcha gap bo‘lagi vazifasida kelishi aytilgan bo‘lib, uni quyidagi misollar orqali ko‘rsatish mumkin :

Ega: *Baland cho‘qqilarga qor tushdi*.

Aniqlovchi: *U qo‘liga tilla uzuk taqdi.*

To‘ldiruvchi: *Hovliga qarab bosh qo‘ydi.*

Qaratqich kelishigi shakli. Otlarning ikkinchi kelishik shakli bo‘lib, maxsus qo‘shimchasi *–ning.* Bu affiksni olgan so‘z qaratqich, u bog‘langan so‘z esa qaralmish deb nomlanadi. Ushbu shaklda asosan ot+ot qolipida bo‘ladi. Qaratqich va qaralmish birgalikda so‘z birikmasining moslashuvli turini hosil qiladi. Bu ba’zi o‘rinlarda belgili va ba’zi belgisiz kelishi kuzatiladi. Til va adabiyot bir –biri bilan uzviy tarzda shakllanar ekan, tildagi o‘zgarishlar badiiy adabiyotda o‘z aksini topadi. Qaratqich kelishikli so‘z 3 xil ko‘rinishda uchraydi: *kitobning varag‘i, mening uyim, qoshin qarosi.*

Qaratqich kelishigi so‘zga qo‘shilib, bir qancha ma’nolarni bildiradi. Biz quyidagi misollar orqali ko‘rib chiqamiz:

1) Qaratqich bog‘langan so‘z qaralmishdan anglashilgan predmetga qarashlilikni bildiradi: *kitobning varag‘i, Oybekning mashinasi;*

2) Butunning bo‘lagini anglatadi: *Nonning uvog‘i, kitobning sahifasi;*

3) Guruh yoki to‘daning birini bildirib, chiqish kelishigi –dan bilan sinomi bo‘la oladi: *O‘quvchilarning biri gapirdi- O‘quvchilardan bir gapirdi;*

4) Qaratqich kelishigi o‘rin yoki paytni bildiruvchi so‘zlarga qo‘shilib, qaralmishning shu o‘rin yoki paytga mansubligini bildiradi*: tongning shabasi, kitobning uzumi;*

5) Qaralmishdan anglashilgan biror bajaruvchiga xos ekanligini bildiradi: *Yurtning bahodiri;*

Otning bu kelishikli shakli nutqimizning har ikki turida og‘zaki va yozma turida muhim ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi.

Tushum kelishigi shakli. Otlarning uchinchi shakli tushum kelishigidir. Maxsus qo‘shimchasi *–ni* affiksi bilan ifodalanib, asosan fe’l bilan bog‘lanadi. Fe’l bilan munosabatiga ko‘ra 2 ga bo‘linadi: 1) o*‘timli fe’l – bevosita tushum kelishigida so‘z bog‘lana oladigan fe’l;* 2) o*‘timsiz fe’l – bevosita tushum kelishigida so‘z bog‘lana olmaydigan fe’l.*

Tushum kelishigini olgan so‘z belgili va belgisiz tarzda qo‘llaniladi. *Men bog‘da kitob o‘qidim*-belgisiz; *Men tongda gazetani o‘qidim*- belgili.

Jo‘nalish kelishigi shakli. Otlarning ushbu kelishik shaklining maxsus ko‘rsatkichi *–ga* affiksi bo‘lib, asosan yo‘nalish ma’nosida ishlatiladi. Ba’zan o‘zi birikkan so‘z semantikasidan kelib chiqib, “atalganlik” ma’nosi beradi. Bunday paytda ko‘makchi bilan erkin almasha oladi. Misollar: *Otamga sovg‘a oldim- Otam uchun sovg‘a oldim. Tog‘ga bormoq*- ushbu birikmada bir joydan ikkinchi joyga bormoq ya’ni atalganlik ma’nosi beradi.

O‘rin-payt kelishigi shakli. Bu kelishik shakli maxsus qo‘shimchasi – *da* affiksi bo‘lib, sintaktik aloqada to‘ldiruvchi va holni shakllantiradi. *Bu narsani kitobda ko‘rdim.* Bu misolda vositali to‘ldiruvchini shakllantirgan. *Men tog‘da yashayman*. Yuqorida keltirilgan gapda o‘rin-holini shakllantirgan.

Chiqish kelishigi shakli. Ushbu kelishik shaklining maxsus qo‘shimchasi – *dan* **.** Maxsus qo‘shimchasi belgisiz qo‘llanganda bosh shakliga o‘xshab ketadi. Xususan: *Osh yeng-Oshdan yeng.*

Chiqish kelishigi ko‘rsatish olmoshiga qo‘shilsa, tovush ortishi kuzatiladi. *Bu+ dan =bundan, Shu+dan =shundan.* Ayrim qo‘llanma va maktab darsliklarida qayd etilgan etilgan chiqish kelishigi tushum va qaratqich kelishiklari bilan ma’nodosh sifatida ko‘rsatishgan. *Uzumdan oling- uzumni oling, do‘stlardan biri –do‘stlarning biri*. Ushbu juftlikdan ma’nodosh ko‘rsatilsa-da, lisoniy jihatdan qisman ma’no qoplanadi. Matn semasologiyasida ma’noni to‘liq anglatmaydi. *Masalan, uzumdan oling-uzumni oling juftligida uzumdan leksemasida qismni ifoda etsa, uzumni leksemasida esa butunlik ma’nosi anglatadi.*

Ot so‘z turkumining morfologik darajasini ko‘rsatuvchi kelishik shaklida so‘zlar tilimiz sturukturasida muhim ahamiyat kasb etib, matn paradigmasi va sintaktik aloqada tobelikni ta’minlashda o‘rni beqiyosdir.

Otlarning grammatik kategoriyalaridan yana biri bu - erkalash, kichraytirish, hurmatlash, kamsitish yoki kuchaytirish ma’nosini beruvchi affikslar bo‘lib, ular “subyektiv baho” formasi yoki “shaxsiy munosabat kategoriyasi” deb yuritiladi. Bu affikslar so‘zga qo‘shilganda yangi ma’no kasb etmay, balki qo‘shimcha ma’no beradi. Nutqda yoki badiiy asarda ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shaxsiy munosabat shakllari qo‘shimchalari quyidagicha:

Kichraytirish shakli:

-cha: *uycha, kitobcha, qizcha,bolg‘acha;*

-cha – qo ‘shimchasi hamisha lug‘aviy shakl yasovchi bo‘lmaydi. Uning yangi so‘z yasashi mumkin.*Misol tariqasida Ayol erkakcha kiyingan gapida otning lug‘aviy shakli emas, balki ravish yasovchi qo‘shimcha vazifasini bajargan*. Tilshunos olimlar Baxtiyor Mengliyev, O‘ral Xoliyorov hamda Nilufar Abdurahmonov hamkorligida nashr etilgan “O‘zbek tilidan universal qo‘llanma” kitobida *-cha* qo‘shimchasining ayrim so‘zlar tarkibida bo‘linmas ya’ni ajralmas holga kelganini quyidagi misollar orqali ko‘rsatib berishgan.*Misol sifatida bog‘cha,sholcha va ko‘rpacha so‘zlarini keltirishgan.*

-choq *: toychoq, qo‘zichoq*

-chak**:** *kelinchak, tugunchak*

Tilimizda – *choq* va – *chak* qo‘shimchalari ayrim so‘zlarga qo‘shilib, ot yoki sifat yasaydi.*Masalan:bekinmachoq, tortishmachoq, yo‘rtmachoq, yalinmachoq, quturmachoq.*

- kay**:** *bolakay*
- jon: *xolajon, bolajon*
- xon: *Azizaxon, Feruzaxon*
- oy: *Salimoy,kelinoy*
- loq: *bo‘taloq*
- aloq: *qizaloq*
- gina/kina/qina: *ukaginam, akaginam*
- bek: *Nodirbek, Salimbek.*

-jon,-xon,-boy,-bek kabi qo‘shimchalar kishining ismi tarkibida ajralmas holda kelib qolgan bo‘lsa, lug‘aviylik shaklidan chiqadi: *Nurboy Jabborov, Muhammadxon Abdullayev, Nurxon, O‘g‘iloy.*

Shaxsiy munosabat kategoriyasi tadqiqi tarixiga qaraydigan miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi.Xususan, qadimgi turkiy til lug‘at asoschisi Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devoni lug‘atit-turk” asarida bu haqida malumotlar keltirilgan. Undan so‘ng turkiy yoxud eski turkil tilning rivojlanishida qayd etilgan. O‘tgan asrda izlanishlar olib borgan olimlar G‘. Abdurahmonov va A. Rustamov ham “Qadimgi turkiy til” kitobida ham bu qo‘shimchalar haqida to‘xtalib o‘tgan.

O‘zbek tilida *-niki* qo‘shimchasi egalikni, ya’ni narsa yoki shaxsning kimga tegishli ekanligini bildiradi. Bu qo‘shimcha asosan mustaqil ot yasash uchun xizmat qiladi va ko‘pincha egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanadi.

Ot yasalish tizimiga ega bo‘lgan so‘z turkumi ekanligi bilan ahamiyatlidir. Bugungi tilshunosligimizda ot yasalishning ikki xil –affiksatsiya va kompozitsiya usuli orqali yasaladi. Bu qolip asosida yasalishda unumli, unumsiz, mahsuldor va kammahsul turlari mavjud bo‘lsa-da, affiksatsiya usuli ko‘proq yasalmoqda.

-chi, -shunos, -kor, -kash kabi ot yasovchi qo‘shimchalar bugungi faol tarzda qo‘llanmoqda.

- chi: *dasturchi, ishchi, kashtachi, sportchi;*
- shunos: *tilshunos, adabiyotshunos, tarixshunos;*
- kor: *paxtakor, sholikor, gunohkor, ijodkor;*
- kash*: aravakash, paxsakash, kirakash, hazilkash;*

O‘zbek tilshunosligida ot so‘z turkumi eng qadimiy va markaziy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Otlar nafaqat predmet, shaxs, hodisa va tushunchalarni ifodalaydi, balki ular tilning nomlash (denotativ), aniqlov (referensial) va ma’naviy (semantik) xususiyatlarini yoritishda muhim vosita hisoblanadi. Tilshunoslikda otlar semantik (ma’noviy) jihatdan aniq va mavhum turlarga bo‘linadi. Bu tasnif otning anglatgan narsa yoki tushunchasining obyektiv mavjudligiga asoslanadi.

Aniq otlar – odam sezgilari (ko‘rish, eshitish, hidlash, tegish, tatib ko‘rish) orqali bevosita idrok etiladigan, real hayotda mavjud bo‘lgan predmet, jonli mavjudot yoki joy nomlarini bildiradi. *Misollar: odam, daraxt, kitob, Toshkent, suv, non, qush, maktab, qo‘l, uy.*

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan: Aniq otlar nomlovchi birliklar sifatida tilning nominativ funksiyasini bajaradi. Ular dunyo predmetlarini ifodalashda asosiy birliklardir. Shuningdek, bu otlar tilni leksik boyitishda bevosita ishtirok etadi.

Mavhum otlar **–** odam sezgilari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri idrok qilib bo‘lmaydigan, asosan tafakkur, tuyg‘u, sifat, holat, harakat, ijtimoiy hodisa kabi tushunchalarni bildiruvchi otlardir. Misollar: muhabbat, ezgulik, adolat, ilm, vatanparvarlik, dard, orzu, g‘am, tafakkur, sadoqat.

Tilshunoslikda bu farq konseptual tahlil, semantik tarmoqlanish, leksikologik tahlil hamda tarjima nazariyalarida muhim ahamiyatga ega. Tilshunoslikda otlarning semantik funksiyasi va nomlash usuli asosida ularni atoqli va turdosh (yoki tur umumlashtiruvchi) otlarga ajratish mumkin. Bu tasnif otlarning predmetni qanday nomlashi va qanday darajadagi umumlashtirish bilan bog‘liq.

Atoqli otlar – individual (yagona, alohida) mavjudot, joy yoki narsaning shaxsiy nomini bildiruvchi otlardir. Ular boshqa shunga o‘xshash birliklardan ajralib turadi. Atab qo‘yilgan qo‘yilgan nomlarning bir qancha tur bo‘lib qular quyidagicha tasniflash mumkin:

Shaxs nomlari*: Anvar, Zilola, Alisher Navoiy*

Geografik nomlar: *Samarqand, Amudaryo, O‘zbekiston*

Muassasa, tashkilot nomlari: *Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti*

Asar va unga qo‘yilgan nomlari: *"Ulug‘bek xazinasi", “Sohibqiron”*

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan: Atoqli otlar antroponimiya, toponimiya, onimika sohalarining o‘rganish obyekti hisoblanadi. Ular pragmatik va kulturologik yondashuvda xalqning tarixiy-madaniy dunyoqarashini aks ettiradi.

Turdosh otlar – bir jinsdagi, bir turdagi mavjudot yoki narsalarni umumlashtirib bildiruvchi otlardir. Bu otlar aynan qaysi birlik haqida emas, balki tur/xil/jins haqida ma’lumot beradi. Misollar: odam, shahar, kitob, hayvon, muallim, o‘simlik, mashina.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan: Turdosh otlar tilning nominativ tizimida asosiy rol o‘ynaydi. Ular klassifikatsiya, tahlil, taqqoslash va kategoriya yasashda ishlatiladi. Kognitiv tilshunoslikda bunday otlar generik kontseptlar doirasiga kiradi.

Xulosa. Ot so‘z turkumi – til tizimining markaziy va eng serqirra qatlamlaridan biri sifatida morfologik va sintaktik jihatdan keng o‘rganilgan birlikdir. Ularning morfologik xususiyatlari — son, egalik, kelishik kabi grammatik kategoriyalar orqali ifodalanadi va bu belgilar otlarning boshqa so‘z turkumlaridan farqlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, otlarning yasalishi, o‘zak va qo‘shimchalar orqali yangi so‘zlar hosil qilishi morfemik tuzilish jihatdan til tizimining boyligidan dalolat beradi. Sintaktik jihatdan esa, otlar turli gap bo‘laklari (ega, to‘ldiruvchi, hol) sifatida faol ishtirok etib, gap qurilishida asosiy sintaktik funksiyalarni bajaradi. Ayniqsa, otlarning egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zaro bog‘lanishi sintaktik strukturalarning

shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Bundan tashqari, otlar matnda nomlash, tushunchani aniqlash va predmetga xoslikni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Umuman olganda, otlar so‘z turkumining morfologik va semantik tahlili tilshunoslikning asosiy masalalaridan biri bo‘lib, u til tizimining tuzilishi va ishlash mexanizmlarini anglashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Otlarning grammatik va semantik jihatlarini chuqur o‘rganish tahliliy lingvistik tadqiqotlar, tilni o‘qitish metodikasi hamda kompyuter lingvistikasi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ne’matov H.G‘ va Sayfullayeva R.R. *Zamonaviy o‘zbek tili.Morfologiya 1-jild* – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2008. – 402 b.

2. G‘ulomov A. *O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi.* – T., 1994 .

3. G‘ulomov A.*O‘zbek tilida kelishiklar*/Труды Узбекского филиала АН СССР. Сер.2.Кн .2. – Т., 1941.

4. Hadyatullayev R. *O‘zbek tilida subyektiv baho formalarining ma’nosi haqida* // O‘zbek tili va adabiyoti, 1969 . – N2 .

5. Rasulov R. O*‘zbek tilida bosh kelishik va uning grammatik funksiyalari* / Ученызаписки Андижанского госпединститута, выпуск Ш. – Andijon,1956.

6. Rasulov R. *Chiqish kelishigi* / Ученызаписки Андижанского госпединститута, IV, Филологическая серия.– Andijon,1957.

7. Mafurov F. *O‘zbek adabiy tilida ikki kelishik formasi haqida* // O‘zbek tili va adabiyoti,1958 .– №1.

8. Ziyoyeva I. *Kelishik affikslarining grammatik almashinuvlariga doir*.

9. Rahmatullayev Sh. *Hozirgi o‘zbek tili kelishigining tasniflari haqida* / Научные записки Ташкентского государственного университета,вып. 359/Вопросы русского и узбекского языкознания**.** – Toshkent, 1969.

10. Inoyatov T. *Hozirgi o‘zbek adabiy tilida kelishikning ishlatilish miqyosi* / Научные труды ТашГУ. Вип . 359 / Вопросы русского и узбекского язикознания. – Т., 1969.

11. Yo‘ldoshev A., Ro‘ziyev Z. *O‘zbek tilidagi jumla va o‘rin-paytlar kelishiga doir*/ Toshkent universtetining ilmiy asarlari, 327 – kitob. O‘zbek filologiya masalalari. – T.,1970.

12. Inoyatov T. *Bosh kelishikning vazifalari*/ Toshkent universitetining ilmiy asarlari , 412 – chiqishi. – T., 1971;

13. Inoyatov T. *Chiqish kelishigining belgili va belgisiz ishlatilishida muayyan omillar (turdosh ot bo‘yicha)*/ Toshkent universitetining ilmiy asarlari,427 – chiqishi,– 1971 .

6. Hojiyev A . *Hozirgi o‘zbek tilida forma yasalishi*;

7. Usmonov S. *O‘zbek tilida so‘zlarning grammatik formalari*/ Tilshunoslik masalalari.– T., 1964.42-kitob. – B.126-127.

8. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X . *Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 2-kitob.* – Toshkent ,1992. – B .68

9. Shaxobiddinova Sh. *Grammatik ma’no talqini xususida*: filologiya fanlari nomz. … diss. avtoref.

10. Faxri Kamol *Hozirgi zamon o‘zbek tili.* Toshkent: “O‘zbekiston CCR Fanlar Akademiyasi nashriyoti”.1967. – 318 b.

11. Mengliyev B. Xoliyorov O‘. Abdurahmonova N. *O‘zbek tilidan universal qo‘llanma*. 4 - nashr. Toshkent: “Akademnashr”.2015. – 208 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

METAFORANING TURLARI VA UNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Muminov Sidikjon Mirsobirovich,
professor, filologiya fanlari doktori,
Farg‘ona davlat universiteti,
Farg‘ona, O‘zbekiston
Mahfuza Nishonboyeva,
Farg‘ona davlat universiteti,
Farg‘ona, O‘zbekiston
nishonboyevamahfuza@gmail.com

ANNOTATSIYA Maqolada metafora ko’chim turining tilshunoslikdagi ahamiyati hamda uni keltirib chiqaradigan omillar muhokama qilingan. Metaforaning turlari va uning semantic xususiyatlari o’rganilib ikki tilda uning o’xshash va farqlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *metafora, standart metafora, visual metafora, ekspressiv va noexpressiv metaforalar, sodda va murakkab metaforalar, tenor, unsur, o’zak.*

ANNOTATIONThe article discusses the importance of metaphorical transfer in linguistics and the factors that cause it. The types of metaphor and their semantic properties are studied, and their similarities and differences in the two languages are analyzed.

Keywords: *metaphor, standard metaphor, visual metaphor, expressive and non-expressive metaphors, simple and complex metaphors, tenor, element, stem.*

АННОТАЦИЯ В статье рассматривается значение метафорического переноса в лингвистике и факторы, его обусловливающие. Изучаются виды метафоры и их семантические свойства, анализируются их сходства и различия в двух языках.

Ключевые слова: *метафора, стандартная метафора, визуальная метафора, экспрессивные и неэкспрессивные метафоры, простые и сложные метафоры, содержание, элемент, основа.*

KIRISH

Metaforalarning uchta asosiy turi mavjud. (Turlarni solishtirishda, misollar keltirishda ingliz tili misollaridan foydalanildi).

A) *Personifikatsiya* - tirik odam belgisini jonsiz narsaga o‘tkazish orqali namoyon bo‘ladi. Masalan,

1. "oq libos kuyladi nurda ... "(" Qiz cherkov xorida qo‘shiq aytdi ... "A. A. Blok tomonidan);

2. My computer is working hard today. (Bugun mening komputerim juda qattiq ishlayapti)
3. I like onions, but I don’t think they like me. (Men piyozni juda yaxshi kuraman ammo u meni uncha xushlamaydi shekilli)
4. My alarm yelled at me this morning. (Budilnigim tongda menga baqirdi)

Yuqoridagi keltirilgan misollarda computer, piyoz, libos kabi metafora yasash uchun xizmat qilgan birliklar jonsiz predmet nomi bo‘lishiga qaramay, insonlar jonli insonlar vazifasini bajarmoqda.

B) *Reifikatsiya* - jonsiz narsaning belgisini tirik odamga o‘tkazish orqali yasaladi.

1. You are the light of my life. Siz hayotimning chirog‘isiz
2. My dear, you my sunshine. Sen mening quyoshimsan, azizam.

Ushbu misollarda keltirilgan metaforlar tirik mavjudotlarga jonsiz predmet vazifasi bajararish yuklatilgan va bu badiiylik va ekspressivlik vazifasida qo‘llanilmoqda. Hayotimning chirog‘isiz jumalasi, zerikarli hayotimni yoritdingiz, siz tufayli yana hayotimda nur paydo boldi, yashash uchun ishtiyoqim yondi. Quyoshimsiz deganda esa, qalbi qaynoq mehrga to‘la insonning unga mehr ulashayotgani nazarda tutiladi. Va bu orqali bo‘yoqdor va ta’sirliroq nutq shakli kelib chiqmoqda.

C) *Chalg‘itish* - ma’lum bir hodisa (shaxs yoki ob’ekt) belgisini mavhum, mavhum hodisaga o‘tkazish orqali hosil bo‘ladi.

1. "Keyin o‘zini kamtar qiladi qalbimda tashvish... "(" Sarg‘ish maydon qo‘zg‘alganda ... "M. Yu. Lermontov tomonidan).
2. Ikki qalb o‘rtasida muhabbat kurtak yoya boshladi.
3. Uning yuragining tub-tubidan hasad olovlanar, unga tinchlik bermas, xattoki uning ko‘zlarga parda tortga edi.
4. G‘azab otiga mingan holda kirib kelgan Anvar, qalbini tirnayotgan chalkash hislarga bo‘ysungisi kelmas edi.

Metafora o‘zaro mutanosibligi hamda konkretlik xusussiyatiga ko‘ra:

Standart metaphor- (standart metafora) Ikkita bir-biriga umuman nomutanosib tushunchalar to‘g‘ridan–to‘g‘ri solishtirish orqali yasaladi. Masalan, Malika is my sunshine (Malika mening quyosh nurim). Ushbu jumlada Malikani to‘g‘ridan to‘g‘ri quyosh nuri deb atamoqda. Albatta, u hech qachon quyosh nuri bo‘lolmaydi ammo yozuvchi Malikaning uning hayotida qanday muhim ahamiyat kasb etishini ifodalash uchun shunday atadi.

Implied metaphor- (Ko‘zda tutilgan metafora) Bunday turdagi metaforlarda hech qachon to‘g‘ridan to‘g‘ri qiyoslashni ko‘rmaymiz balki shama qilish, imlash orqali ikki tushuncha bir-biriga o‘xshatiladi.

Masalan: The boss of that company **barked** to the staff to be on time at next meeting as they were late today. Bugungi majlisga kech qolganliklari uchun korxona boshlig‘i o‘z

ishchilariga keying safar vaqtida kelishlari uchun **qichqirdi**. Ingliz tilida ***bark*** so‘zi asosan “It” uy hayvoni akkilaganda ishlatiladi ammo bu jumlada esa boshliqning qanday holatda g‘azablangani hamda uning so‘zlashuv ohangi qanday qattiq va qo‘pol ekanligi ko‘rsatilmoqda.

Visual metaphor- (Ko‘rgazmali metafora, visual metafora) Ushbu turdagi metaforalarda so‘zlar umuman qo‘llanmasligi mumkin. Bu yerda o‘xshatish rasmlar, ko‘rgazmalar, video tasvirlar orqali amalga oshiriladi. Kundalik hayotda eng ko‘p uchratiladigan metaforlar bu visual metaforlardir. Sababi ommaviy axborot orqali biz duch keladigan turli narsalar reklamalari visual metaforalarda foydalanilgan.

Masalan, 1.1-rasmda keltirilgan Hindiston Fittnes klubi ommaviy axborot vositalari yoki ko‘cha reklamalariga xuddi shu tasvirni qo‘yish orqali qomati to‘lacha bo‘lgan insonlar ushbu klub orqali qomati raso bo‘lishiga ishora qilmoqda va buning uchun hayvonlar tasvrida foydalanmoqda.

1.1-rasm

1.2-rasm

Yuqoridagi (qarang: rasm 1.2) rasmni ko‘rgan inson ongida agar o‘qisa, yaxshi bilim olsa, kelajakda yaxshi yashash imkoniyati paydo bo‘lishi, ma’naviy ham moddiy tomonlama gullab yashnashi visual tarzda keltirilgan.

1.3-rasm

So‘nggi (qarang: rasm 1.3) rasmda esa insoniyat o‘z qo‘llari bilan sekin asta yer yuzini, tabiatni, o‘simlik, hayvonot-u nobodotni yo‘q qilayotgani ifodalanmoqda.

Ushbu metaforadan foydalanishning uchta asosiy foydali tomonlari mavjud. Birinchisi, *diqqat*. Ushbu turdagi rasmli yoki video tasvirli metaforalar kreativligi, o‘zgachaligi hamda takrorlanmasligi bilan odamlarning diqqatini o‘ziga jalb qiladi. Va bu insonlarga *zavq beradi.* Undan tashqari, aksariyat insonlar visual o‘rganuvchilardir, ya’ni ko‘rish orqali ma’lumotni yaxshi *anglay*dilar. Visual metaforlar orqali insonlar mahsulot haqida kengroq tushunchaga ega bo‘lib, kognitiv faoliyati qo‘zg‘aladi va xulosaga ega bo‘lishadi, So‘nggisi, visual metaforalar ta’sir qilish xususiyatiga ham ega. Bunga yuqoridagi (b) va (c) misollarni keltirishimiz mumkin.

Extended metaphor- (Kengaytirilgan metafora)- Qo‘shma metafora: Bundan metaforlar bir nechta gaplar, paragraflar, matnlar, she’riy jumlalar, qo‘shiq xatto butun bir hikoya ortida yashiringan bo‘lishi mumkin.

My handwriting is a spider’s crawl- mening yozuvim o‘rgimchakning o‘rmalashi (o‘zbek tilida tovuq titgandek yozish metaforasiga teng keladi)- *Sodda metafora*

My handwriting is a spider’s crawl. It moves with many legs over the pages- mening yozuvim o‘rgimchakning o‘rmalashidir. U qo‘g‘oz beti bo‘ylab hamma oyoqlarida turli tarafga yurib ketadi- *Kengaytirilgan metafora.*

Kengaytirilgan metaforalar badiiy adabiyotda butun bur hikoya ustiga qurilgan bo‘lishi hm mumkin. Masalan, Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasida keltirilgan **Bemor** sarlavhasi nafaqat bir kasal onaga, balki butun bir xalq bemor ekanligiga nisbatan berilganligi hikoya xulosasidan kelib chiqiladi.

Badiiy asarlarda qahramonning ushbu gapidan ham kengaytirilgan metaforani ko‘ramiz. “You’re a snake! Everything you hiss out of your mouth is a lie. You frighten children”- “Sen ilonsan! Og‘zingizdan chiqqan har bir narsa yolg‘ondir. Sen bolalarni qo‘rqitasan.

Kengaygan metaforalarning ishlatilishining asosiy sababi, murakkab bo‘lgan yoki tushunarsiz fikrlarni o‘quvchi uchun tushunarli hamda jozibali qilib yetkazib berishdir.

Metaforani asosan poetik figura deb qarovchi tadqiqotchilar ham unda ekspressivlik belgisining muntazam emasligini tan olib kelganlar va uni ikki turga bo‘lganlar

1. Ekspressiya mavjud bo‘lmagan (o‘lik tilga xos, nopoetik) metafora.
2. Ekspressiya mavjud (tirik, nutqiy, badiiy, poetik) bo‘lgan metafora. [38]

Ekspressiv metaforalar keng holda, (tinchlik yo‘li, oq yo‘l, Turkiston – umumiy uyimiz), noekspressiv metafora shaxsiy bo‘lib qolishi ham mumkin. (Bola choynak jo‘mragini —choynakning burni yoki choynak og‘zi deb atashi). Bu misollar bir martalik va ko‘p martalilik belgisining ham muntazam emasligini ko‘rsatadi.

Ekspressiv metafora- Men qishloqqa ilm-ma’rifat urug‘ini sochgani kelganman. (A. Qahhor).

Noekspressiv metafora - ...tandir og‘zida ho‘l o‘tinlarni joylayotganda ..., ayam o‘choq boshida nimanidur qidirar edi. *tandir og‘zi yoki o‘choq boshi* noekspressiv metaforalarni, *ilm ma’rifat urug‘i* esa ekspressiv metaforalarni anglatadi.

Metaforalar tuzilishiga ko‘ra odatda ikki qismdan tashkil topadi.

1. Vehicle (Vosita): Metaforik birlik yasash uchun qaysi so‘zdan foydalanilayotgan bo‘lsa, ana shu so‘z vosita deb ataladi. Masalan, you are on a thin ice- sen ingichka muz ustidasan- sening hayoting qil ustida (o‘zbek tilidagi variant). Ushbu jumlada, on a thin ice (ingichka muz ustidasan)- vehicle-vosita bo‘lib xizmat qiladi.
2. Tenor (tema, unsur, ma’no): Ushbu metafora orqali so‘zlovchi nima demoqchi ekanligi tushuniladi. you are on a thin ice- sen ingichka muz ustidasan. Ya’ni qaltis vaziyatga duch kelding.

Ammo ba’zan metaforalarning to‘rt qismdan iboratligini ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan: She is such an Eeyore: (Bolalarning sevimli multfilmi bo‘lgan Vinni Pooh da doim hafa yuradigan ho‘tikchani Eeyore deb atashadi.) Bu yerda ham sen Eeyoresanki deb tarjima qilinmoqda va uning doim tushkin kayfiyatda yurganligini ta’kidlamoqda.

1. Vehicle- (ifoda vosita)- Eeyore
2. Tenor (Unsur, tema, ba’zan ma’no)- hafalik
3. Ground (O‘xshashlik/umumiylik/ umumiy asos) Ya’ni solishtirilayotgan obyektlar o‘xshashligi. **U qiz** ham **Eeyore** ham hafa
4. Tension (zidlik) Solishitirilayotgan narsalarning bir- birida farqi. U qiz- inson. Eeyore esa badiiy to‘qima hayvon.

XULOSA

Demak, har bir metaforik birlik ikki yoki undan ortiq qismdan tashkil topgan bo‘lib, ma’lum bir vazifani bajarar ekan. Xulosa qilib aytganda, metaforalarning turlari esa turli vaziyatlarda turlicha namoyon bo‘lishi va nutqni yanada bo‘yoqdor va ta’sirchan qilish uchun qo‘llaniladi. Metaforik birliklar tahlil qilish jarayonida uning nafaqat turlari, balki uning tarkibi va lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish zamon talabiga aylanmoqda.

[38] Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. –Тошкент: Фан, 1983.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. –Тошкент: Фан, 1983.
2. Axmedyanov K.A. Teoriya adabiyoti. – Ufa, 1985 yil. 126-bet
3. https://optolov.ru/uz/the-ceiling-in-the-bathroom/metafora-ee-raznovidnosti-i-izobrazitelno-vyrazitelnye-sredstva.html
4. [Вежбицкая. А. Сравнение-градатция-метафора // Теория метафоры.-Москва,1990.-С. 145.]
5. Турсунов У., Муҳторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: Ўзбекистон, 1992. – 399 б.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

INGLIZ TILI ONOMASTIK TARKIBLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR SHAKLLANISHIDA LINGVOSTILISTIK ASOSLAR TAHLILI

Ibotova Munavvar Oybek qizi
Toshkent shahri Olmazor tumani
maxsus fanlarga ixtisoslashtirilgan 133-sonli
maktabning ingliz tili fani o‘qituvchisi
munavvaribotova2710@gmail.com

ANNOTATSIYA Ushbu maqola paremiologik masalalardan birining tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, onomastik tarkibli frazeologik birliklarning shakllanishida stilistik vositalarning o‘rni haqida mulohaza yuritadi. Ma’lumki, frazeologik birliklar metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, mubolag‘a hamda boshqa uslubiy vositalarga asoslangan holda shakllanadi. Ularning aksariyati o‘xshatish asosida yaratiladi. Mazkur maqola ingliz tilidagi onomastik frazeologik birliklarning etnografik, morfologik, leksik, stilistik xususiyatlarini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: antroposentrik yondashuv, milliy-madaniy unsurlar, funksional xususiyatlar, obrazli ifodalar, onomastik elementli frazeologik birliklar, pragmatik kontekstlar, nutq jozibadorligi, milliy-madaniy tamoyillar, metaforik frazeologizmlar, murakkab shaklli troplar, frazeologik konnotatsiya.

LINGUOSTYLISTIC ANALYSIS OF THE FORMATION OF ONOMASTIC PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE ENGLISH LANGUAGE

ANNOTATION This article is devoted to the analysis of one of the paremiological problems and reflects on the role of stylistic means in the formation of phraseological units with onomastic components. It is known that phraseological units are formed based on metaphor, metonymy, synecdoche, irony, hyporbole and other stylistic devices. Most of them are based on comparison. This article analyzes ethnographic, morphological, lexical, and stylistic features of onomastic phraseological units in the English language.

Key words: anthropocentric approach, national-cultural elements, functional features, figurative expressions, phraseological units with onomastic elements, pragmatic contexts, speech appeal, national-cultural principles, metaphorical phraseological units, complex tropes, phraseological connotation.

ЛИНГВОСТИЛИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ Данная статья посвящена анализу одного из паремиологических вопросов и размышляет о роли стилистических средств в образовании фразеологизмов ономастического содержания. Известно, что фразеологизмы формируются на основе метафоры, метонимии, синекдохи, иронии, преувеличения и других стилистических средств. Большинство из них основано на схожесть. В статье анализируются этнографические, морфологические, лексические и стилистические особенности ономастических фразеологизмов английского языка.

Ключевые слова: антропоцентрический подход, национально-культурные элементы, функциональные особенности, образные выражения, фразеологизмы с ономастическими элементами, прагматический контекст, речевое обращение, национально-культурные принципы, метафорические фразеологизмы, сложные тропы, фразеологическая коннотация.

Ma’lumki, har qanday paremiologik birlikning shakllanishida insonlar yashaydigan jamiyat, uning madaniyati, tarixi, dunyoqarashi, kundalik hayotda kechadigan turli voqea-hodisalar, odat, marosim, an’ana, din, ya’ni jamiki inson atrofida mavjud bo‘lgan lisoniy hamda nolisoniy unsurlar katta o‘rin egallaydi. Ingliz, o‘zbek hamda tojik tillari frazeologiyasida o‘ziga xos muhim o‘rin egallaydigan onomastik paremiologik birliklar shakllanishida lingvostilistik vositalarning tahlili til fondida katta ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab leksik birliklar haqida to‘liqroq ma’lumotlarga ega bo‘lishimizga ko‘maklashadi.

Zamonaviy tilshunoslikdagi bahsli masalalarni tahlil qilishda qo‘llaniladigan antroposentrik yondashuv hozirgi paytda har qanday leksik birlikni, jumladan paremiologik birliklarni har tomonlama tadqiq etishga undaydi, nafaqat lisoniy balki milliy-madaniy unsurlar ushbu murakkab birliklarga oid turli yashirin ma’lumotlarni ochishga xizmat qiladi. Frazeologik birliklar hamda maqollar hozirgi kunda ham rasmiy ham norasmiy nutqda keng pragmatik, funksional xususiyatlarga ega birliklar sifatida talqin qilinadi [8;45]. Mazkur paremiologik birliklar xalq madaniyati hamda tarixiga oid ma’lum qimmatli ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan lisoniy vositalar hisoblanadi. Ular turli badiiy obrazlar, strukturalar yordamida shakllanadi va turli kontekstlarda jozibadorlik, qat’iyatlik bilan fikrni ifoda etishda ishlatiladi. Mazkur maqola paremiologik birliklar shakllanishida obrazli ifodalar, ya’ni morfologik, sintaktik, leksik, sodda va murakkab stilistik vositalarning o‘rni tahlil qilinadi. Ingliz tilidagi onomastik elementli frazeologik birliklarning grammatik xususiyatlarini tahlil etar ekanmiz, ularning turli so‘z turkumlariga tegishli ekanligini ta’kidlashimiz mumkin. Onomastik elementli frazeologik birliklardan ot so‘z turkumiga tegishlilariga “doubting Thomas”, ya’ni “har narsadan shubhalanaveradigan, o‘z ko‘zi bilan ko‘rmasa ishonmaydigan” degan semantik ma’noga ega. “Every Tom, Dick and Harry” iborasi “har kim, har qanday kishi” degan ma’noga

ega bo‘lib, grammatik jihatdan olmosh so‘z turkumiga tegishli, shuningdek, ba’zi bir ingliz tilidagi iboralar ravish so‘z turkumi sifatida qayd qilinishini ham tahlillar orqali aniqladik: “before you could say Jack Robinson”, uning ma’nosi “juda ham tez orada, zudlik bilan” hisoblanadi. Aksariyat ingliz tilidagi tarkibida kishi ismlari mavjud bo‘lgan frazeologik birliklar ot so‘z turkumi sifatida gapda ega yoki to‘ldiruvchi kabi qo‘llaniladi. Ma’lumki, har qanday tildagi sodda va murakkab leksik birliklarning funksional jihatdan turli pragmatik kontekstlarda qo‘llanilishi ularning keng semantik hamda kontekstual ishlatishlariga bog‘liq hisoblanadi. Shakllanishi jihatidan ma’lum bir stilistik vositalarga asoslangan bo‘lish esa frazeologik birliklarning qo‘llanilish doirasini kengayishiga, nutq jozibadorligining oshirilishiga, bo‘yoqdorlikning yuqori darajaga chiqishiga zamin yaratadi. Onomastik tarkibli frazeologik birliklar shakllanishini stilistik jihatdan tahlil etar ekanmiz bir qator qiziqarli milliy-madaniy tamoyillarga duch keldik. Frazeologik birliklarning aksariyati turli stilistik vositalarga asoslangan holda paydo bo‘ladi. Ular, asosan, metafora, metonimiya, o‘xshatish, kinoya, jonlantirish va boshqa troplarga asoslangan bo‘ladi. Aynan shu sababli ham onomastik tarkibli frazeologik birliklarning ma’no anglatishi, ta’kid qilish darajasi, ishontirishga moyilligi yuqori bo‘ladi[39].

Ma’lumki, zamonaviy tilshunoslikda metafora stilistik vositasi ayniqsa katta ahamiyatga ega hisoblanadi, uning qo‘llanilish doirasi bugungi kunda juda keng hisoblanadi, hozirda metafora shunchaki stilistika fani doirasida o‘rganaladigan termin emas, balki juda keng qamrovli uslubiy vosita bo‘lib, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika hamda boshqa sohalarning o‘rganish obyektiga ham aylangan. Metaforalar boy tasvirlarni va tasvirlangan narsaning his-tuyg‘ularini uyg‘otadi. Ular bitta fikrni yoki butun umr tajribasini yorqin ifodalashlari mumkin. Garchi ko‘pchilik tilshunoslar ularni “shunchaki obrazli” deb rad qilgan bo‘lsalar ham, bugungi kunda ular so‘zlovchi idrokining o‘ta to‘g‘ri tavsifi sifatida qabul qilinadi. Muammolarimiz, his-tuyg‘ularimiz, istaklarimiz, munosabatlarimiz - biz uchun eng muhim narsalar haqida gapirganda, tajribamizning chuqurligi va murakkabligini tasvirlash uchun metaforadan foydalanish ehtimoli ko‘proq. Inson nutqida uni o‘rab turgan olamda sodir bo‘ladigan turli voqea-hodisalarni tahlil qilgan holda u yoki bu obyektni boshqasiga o‘xshatadi. Metafora kishilarni o‘ylashga, tahlil qilishga undaydigan kuch hisoblanadi. Ingliz tilidagi ko‘plab frazeologik birliklar ham metaforalarning yangi ma’no hosil qilish qobiliyati mahsulidir. Ya’ni, metaforik frazeologizmlar bir predmet, vaziyat, holatdagi o‘xshashlikka asoslangan metaforizatsiya natijasida hosil bo‘ladi. Metaforik frazeologik birliklar murakkab shaklli troplar hisoblanib, undagi bir komponent yoki butun ma’noning o‘xshashlik jihati boshqa referantga ko‘chgan bo‘ladi. Frazeologik birlik tarkibidagi metafora butun iboraning ma’nosini hosil qiluvchi harakatlantiradigan kuch sanaladi. Frazeologik birlikning ma’nosini ilg‘ab, biz ibora asosida metaforik o‘zak borligini anglay olamiz.[5;67].

[39] Robert Hendrickson, “The facts on file encyclopedia of word and phrase origins”, An imprint of Infobase Publishing, New York, 2008

Metaforik frazeologik birlik tarkibidagi komponent ma’nosidagi o‘xshashlik xususiyati boshqa predmet yoki shaxsga o‘tishi real yoki xayoliy frazeologik konnotatsiya hosil bo‘lishiga zamin yaratadi. Onomastik elementli frazeologik birliklarni uch tilda tahlil etar ekanmiz ularning aksariyati aynan metaforaga asoslangan holda shakllanganligiga amin bo‘ldik [2;20]. Misol uchun, ingliz tilidagi “Jack of all trades” frazeologik iborasidagi “trades” so‘zi metafora sifatida qo‘llanilgan, turli xildagi ishlarni bajaradigan kishiga nisbatan qo‘llaniladigan ibora “trades” asosida “jobs, actions, deeds (kasblar, ishlar, hunarlar)” ma’nosida ishlatilmoqda, “har qanday savdoni, ishni qilaveradigan inson” ma’nosi mazkur iborada ifodalanmoqda. Ingliz tilidagi “before you could say Jack Robinson” onomastik elementli ibora tarkibidagi “Jack Robinson” so‘zi ham ko‘chma ma’noda qo‘llanilmoqda, ya’ni ushbu kishi ism sharifi “tezkorlik, chaqqonlik, uddaburonlik” kabi kontekstual ma’nolarni bermoqda, tarixiy shaxsning insonlar uyiga mehmondorchilikga kutilmaganda, darrov paydo bo‘lishi shunday assosiativ ma’noni hosil qiladi. Navbatdagi onomastik frazeologik birlikda ham biz qiziqarli metaforsizatsiya jarayoniga guvoh bo‘lmoqdamiz: “keep up with the Joneses” murakkab leksik birligi “ijtimoiy daraja yoki boylik nuqtai-nazaridan qo‘shnilar yoki qandaydir boshqa tanishlar darajasiga yetishish, erishish” ma’nosida qo‘llaniladi, “the Joneses” familiyasi XX asr boshida Angliya gazetalarga e’lon qilingan karikaturadan keyin mashhur bo‘lib ketadi, u ingliz jamiyatida yuqori tabaqaga mansub kishilar ma’nosida qo‘llanila boshlandi, ingliz onomastikasidagi qiziqarli lisoniy jarayonlardan biri bu kishi ismi, familiyasi, laqabi va hokazolarning metaforizatsiya ta’siri doirasiga tushib, mutlaqo boshqa tushunchalar, obyektlar, shaxslar bilan qiyoslanib, ularni e’tirof etishi hisoblanadi. Shunday lingvostilistik jarayon ostida shakllangan yana bir onomastik frazeologik birlik “rob Peter to pay Paul” hisoblanadi, uning etimologiyasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, uzoq davrlarda diniy holatlarni tasvirlovchi voqea-hodisaga borib taqaladi, ya’ni bir ibodatxonadan ma’lum mablag‘larni olib uni boshqa cherkovga berish jarayoni tufayli mazkur ibora ingliz lug‘atiga kiritila boshlangan, bunda avliyo Piterga taqdim etilgan pullar avliyo Paulga nasib etgani, berilganligi nazarda tutiladi. Aynan mazkur onomastik frazeologik birlikning tarkibida shu ikki avliyolarning ismlari saqlanib qolingan, albatta bugungi kunda mazkur ismlar metaforizatsiya jarayoni sababli turli boshqa kishilarning hatti-harakatlariga nisbatan qo‘llanilib kelinadi [3] Zamonaviy ingliz tili lug‘atida uning ma’nosi, “to borrow from one to give to another”, ya’ni “bir kishidan qarz olib uni boshqa kishiga taqdim etish” sanaladi. Mazkur iboraning shakllanishida avliyolarning ismlari qo‘llanilgan, bugungi zamonaviy talqinda esa turli vaziyatlarda bir kishidan qaysidir harakat yoki obyekt, buyumning boshqa kishiga ma’lum sabablar tufayli o‘tib qolganligi nazarda tutiladi.

Toponimik elementli frazeologik birliklarni lingvostilistik jihatdan tahlilga tortar ekanmiz “as American as apple pie” idiomasining shakllanishiga e’tibor qaratdik, zero uning tarkibidagi “apple pie” leksik birliklari metaforizatsiya jarayoni ta’siri ostida mutlaqo boshqa, ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan, iboraning ma’nosi esa “truly American; typically American”, ya’ni, “haqiqiy amerikancha, asl amerikalik”dir. “Apple pie”, ya’ni “olmali pirog” bir necha asrlardan beri ingliz xalqining milliy taomlaridan biri sanaladi, deyarli har bir uyda mazkur taom

tayyorlanadi va iste’mol qilinadi, bu o‘zbek yoki tojiklardagi tandirda yopilgan non singari o‘ta muhim milliy taom ramzlaridan biridir. Uning iboradagi ma’nosi ham “olmali pirog kabi amerikalik”, ya’ni u yoki bu kimsaning “amerikalik” ekanligiga zarracha ham shubha yo‘qligiga sha’ma qilinmoqda, ya’ni bu holatda “apple pie”, olmali pirog (uzoq tarixga ega, har bir inglizga ma’lum va mashhur, uning shu taom ekanligiga umumna shubha yo‘q) amerikalik insonga qiyoslanmoqda. Salbiy konnotatsiyaga ega toponimik frazeologik birliklardan biri “carry coals to Newcastle” sanaladi, ibora tarkibidagi “coals”, ya’ni “ko‘mir” so‘zi metaforizatsiya ta’siri ostida turli buyumlar bilan qiyoslanadi hamda “bir kishining biror joyga ma’lum bir mahsulotdan ko‘p bo‘lishiga qaramay u yoki bu narsani etishi” ga nisbatan ishlatiladi, “to bring something to a place which has plenty of such things already”. [1;5]. Misol uchun, atirgullari juda ham ko‘p bo‘lgan, katta hajmda o‘stiriladigan hududga yana atirgul etish bu “Nyukaslga yana ko‘mir etishga” qiyoslanadi. Chunki, o‘rta asrlarning so‘nggi davrida Angliyaning Nyukasl shahri ko‘p ko‘mir qaziladigan, boshqa hududlarga ko‘mirni katta hajmda yetkazib beradigan joy hisoblangan. Ma’lumki, ingliz adabiyotida mashhur yozuvchilar o‘z asarlarida ishlatgan ba’zi bir frazeologik birliklar vaqt o‘tib ingliz tili lug‘at tarkibiga kiritilgan, ya’ni yozuvchilar til lug‘at boyligini to‘ldirishga o‘zlarining ma’lum bir hissalarini qo‘shishgan, lingvostilistik tahlillarimiz davomida butun dunyoga, bolalar, o‘smirlar, kattalar o‘rtasida mashhur bo‘lgan Luis Karollning “Alice’s adventures in Wonderland” romanida ishlatgan “grin like a Cheshire cat” geografik nomni o‘z tarkibiga olgan toponimik frazeologik birlikga e’tibor qaratdik. Uning kelib chiqishi shu asar bosh qahramoni Alisaning sarguzashtlari davomida “o‘zi yo‘qolib ketsa ham kulgisi qoladigan Cheshirlik mushuk tabassumi”ga aloqador hisoblanadi. Iboraning hozirgi ingliz tilidagi ma’nosi “to smile or grin inscrutably”, ya’ni “qandaydir bir sirli, ma’nosini ilg‘ab olish qiyin bo‘lgan holda tabassum qilish yoki kulish” sanaladi. Angliyadagi tabiati go‘zal hududlardan hisoblangan Cheshir shahri mazkur iboraning toponimik tarzda shakllanishi ta’minlamoqda, bu misolda ham biz metaforizatsiya jarayoniga guvoh bo‘lmoqdamiz, har qanday “sirli tabassum” Cheshirlik mushukga qiyoslanishi idiomaning o‘xshatishga asoslangan holda yaratilganligiga ishora qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi onomastik frazeologik birliklarning shakllanishida asosan metaforalar ishtirok etgan, shuningdek, metonimiya, sinekdoxa, o‘xshatish, mubolag‘a va boshqa stilistik troplar ham murakkab birliklar hosil bo‘lishida asosiy o‘rin egallagan. Onomastik elementlardan iborat idiomalar esa o‘zlarida ingliz xalqi turmush tarzi, madaniyati, tarixi, urf-odatlariga oid qimmatli ma’lumotlarni o‘zida saqlaydigan muhim lisoniy belgilar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alenka Vrbinc, Marjeta Vrbinc, “Phraseological units with onomastic components: The case of English and Slovene”, University of Ljubljana, Ljubljana, Slovenia November 2016.
2. Haas H. Proverb Familiarity in the United States: Cross-Regional Comparisons of the Paremiological Minimum. The Journal of American Folklore, 121(481). 2008. P. 319-347.
3. Judith Siefringi, “Oxford dictionary of idioms”, Oxford University Press, 2004

4. Krikman A. Proverb semantics: Studies in structure, logic, and metaphor. University of Vermont, 2009.

5. Robert Hendrickson, “The facts on file encyclopedia of word and phrase origins”, An imprint of Infobase Publishing, New York, 2008

6. Rashidova U.M. Semantic-pragmatic analysis of somatic expressions in English (in the case of eye, hand and heart-shaped expressions). Abstarct for the PhD. science. – Samarkand, 2018. P. 22.

7. Reimov B. Phraseological units of the English language, characterizing the emotional state of a person. Diss. for Cand. of Philol. sciences. – Tashkent., 2005. P. 150.

8. Stepanova I.S. English phraseological units with a floristic component (in comparison with the Russian language). Abstract of the work for Cand. of Philol. sciences – Kiev, 1987. P. 24

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

PHRASEOLOGICAL UNITS AS A REFLECTION OF NATIONAL MENTALITY IN ENGLISH

Muyinjonova Sabinabonu
Student of the English faculty
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract. Phraseological units (PUs) — including idioms, proverbs, and fixed expressions — are more than linguistic embellishments; they function as cultural signifiers deeply embedded in the English language. This study explores the extent to which English PUs reflect national mentality, particularly values such as individualism, pragmatism, and humor. Employing a mixed-methods approach, the research involved surveys, content analysis, classroom observations, and teacher interviews across two higher education institutions. Findings reveal that 70% of PUs analyzed embodied cultural values aligned with Anglo-Saxon traditions, with individualism being the most prominent. Students demonstrated increased engagement and cultural awareness when PUs were taught with historical and contextual explanations. Teachers, however, reported challenges in conveying metaphorical and cultural nuances. The study emphasizes the need for contextual teaching strategies in English Language Teaching (ELT) to bridge the linguistic-cultural gap and enhance learners’ intercultural competence. It concludes with pedagogical recommendations and suggests further research into comparative phraseological studies across cultures.

Keywords: phraseological units, national mentality, English language, cultural values, individualism, pragmatism, cognitive linguistics, English language teaching.

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ КАК ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МЕНТАЛИТЕТА В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. Фразеологические единицы (ФЕ), включая идиомы, пословицы и устойчивые выражения, — это больше, чем просто языковые украшения; они выполняют функцию культурных означающих, глубоко укорененных в английском языке. В данном исследовании изучается, в какой степени английские ФЕ отражают национальный менталитет, в частности, такие ценности, как индивидуализм, прагматизм и юмор. Используя смешанный подход, исследование включало опросы, контент-анализ, наблюдения за аудиториями и интервью с преподавателями в двух высших учебных заведениях. Результаты показывают, что 70% проанализированных ФЕ воплощали культурные ценности, соответствующие англосаксонским традициям, причем наиболее

выраженным был индивидуализм. Студенты демонстрировали повышенную вовлеченность и культурную осведомленность, когда ФЕ преподавались с историческими и контекстными пояснениями. Однако преподаватели сообщали о трудностях в передаче метафорических и культурных нюансов. В исследовании подчеркивается необходимость применения стратегий контекстного обучения в преподавании английского языка (ELT) для преодоления лингвистического и культурного разрыва и повышения межкультурной компетентности учащихся. В заключение приводятся педагогические рекомендации и предлагается дальнейшее исследование сопоставительной фразеологии в разных культурах.

Ключевые слова: фразеологизмы, национальный менталитет, английский язык, культурные ценности, индивидуализм, прагматизм, когнитивная лингвистика, преподавание английского языка.

INGLIZ TILIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR MILLIY TAFAKKURNING AKS ETTIRISHI SIFATIDA

Annotatsiya. Frazeologik birliklar (FB) - jumladan idiomalar, maqollar va turg'un iboralar - lingvistik bezaklardan ko‘proq; ular ingliz tiliga chuqur singib ketgan madaniy belgilar sifatida ishlaydi. Ushbu tadqiqot ingliz FBlarining milliy mentalitetni, xususan, individualizm, pragmatizm va hazil kabi qadriyatlarni qay darajada aks ettirishini o'rganadi. Aralash usullardan foydalangan holda tadqiqot ikkita oliy ta'lim muassasasida so'rovlar, kontent tahlili, sinfda kuzatuvlar va o'qituvchilar bilan suhbatlarni o'z ichiga oldi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, FBlarning 70% anglo-sakson an'analari bilan uyg'unlashgan madaniy qadriyatlarni tahlil qilgan, bunda individualizm eng muhimi hisoblanadi. FBlar tarixiy va kontekstli tushuntirishlar bilan o'rgatilganda talabalar faollik va madaniy xabardorlikni oshirishni namoyish etdilar. Biroq, o'qituvchilar metaforik va madaniy nuanslarni etkazishda qiyinchiliklar haqida xabar berishdi. Tadqiqot lingvistik-madaniy bo'shliqni bartaraf etish va o'quvchilarning madaniyatlararo kompetentsiyasini oshirish uchun ingliz tilini o‘qitishda (ELT) kontekstli o'qitish strategiyalari zarurligini ta'kidlaydi. U pedagogik tavsiyalar bilan yakunlanadi va madaniyatlar o‘rtasidagi qiyosiy frazeologik tadqiqotlar bo‘yicha keyingi tadqiqotlarni taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: frazeologik birliklar, milliy mentalitet, ingliz tili, madaniy qadriyatlar, individualizm, pragmatizm, kognitiv lingvistika, ingliz tilini o‘qitish.

Introduction. Phraseological units (PUs), such as idioms, proverbs, and fixed expressions, are integral to the English language, encapsulating cultural values and national mentality (Gibbs, 1994). Defined as multi-word expressions with fixed meanings, PUs go beyond literal interpretation, reflecting the cognitive and cultural frameworks of a language community (Lakoff & Johnson, 1980). In English, PUs like “to pull oneself up by one’s bootstraps” or “a penny saved is a penny earned” embody values of individualism, self-reliance, and pragmatism, which are central to Anglo-Saxon cultural identity (Moon, 1998).

The national mentality, understood as the collective cognitive and cultural mindset of a community, shapes and is shaped by language (Wierzbicka, 1997). English PUs, rooted in historical, social, and cultural contexts, serve as linguistic artifacts that reveal attitudes toward work, success, humor, and social interactions. For example, the idiom “raining cats and dogs” reflects the English penchant for vivid imagery and humor, while proverbs like “actions speak louder than words” underscore a pragmatic approach to behavior. In English language teaching (ELT), understanding PUs enhances learners’ cultural competence, enabling them to navigate linguistic nuances and cultural contexts effectively (Cowie, 1998).

Literature Review. Phraseological units (PUs) are vital components of language that encapsulate fixed meanings beyond their literal interpretations. As Cowie (1998) notes, they form a core part of idiomatic competence, necessary for linguistic fluency and cultural awareness. Lakoff and Johnson’s (1980) Conceptual Metaphor Theory provides a cognitive framework for understanding how abstract cultural values are encoded in PUs. Their work emphasizes that idiomatic language reflects underlying mental structures and conceptual metaphors — for example, life as a journey, time as money, and success as upward movement.

Gibbs (1994) builds on this by exploring how figurative language, including idioms and proverbs, represents complex mental and emotional constructs. His research shows that PUs are not merely decorative but central to thought processes and communication, often revealing cultural perspectives.

Moon (1998), through corpus-based studies, investigates the fixed nature of idioms and emphasizes their role in reflecting pragmatic values such as self-reliance, efficiency, and problem-solving — traits commonly associated with Anglo-American culture. She also addresses the pedagogical difficulty learners face in interpreting idioms without cultural context.

Wierzbicka (1997), using her Cultural Semantics framework, illustrates how PUs express national mentality through culturally loaded “key words” and expressions. She argues that idioms like “pull oneself up by one’s bootstraps” reflect English-speaking societies' emphasis on personal autonomy and individual achievement, concepts less prominent in collectivist cultures.

Kövecses (2005) contributes a cross-cultural dimension by examining the universality and variation of metaphors in different languages. His findings suggest that while some metaphorical concepts are widespread, their linguistic realizations differ significantly due to cultural framing. This insight supports the importance of teaching PUs in context to avoid misinterpretation by non-native learners.

Together, these works establish that phraseological units are both cognitive and cultural artifacts. In the context of ELT, they serve not only as vocabulary items but also as tools for developing intercultural competence. Despite their richness, however, the metaphorical opacity and cultural embeddedness of PUs present challenges for learners and educators alike. Therefore, integrating cultural and historical explanations into PU instruction, as emphasized

by Cowie (1998) and reinforced by empirical classroom data, becomes a crucial strategy in modern language education.

Methodology. This study employs a mixed-methods approach, combining qualitative and quantitative data to analyze English PUs and their cultural significance.

Participants. The research was conducted at two higher education institutions, involving 60 participants: 40 students (20 at B1 level and 20 at B2 level, based on CEFR standards) and 20 English teachers with an average of 10 years of teaching experience. The student group comprised 60% female and 40% male participants, with an average age of 21 years.

Data Collection Methods. Survey: A 20-question survey was administered to students and teachers to assess perceptions of PUs' cultural significance and their role in ELT. The survey used a 5-point Likert scale (1 = strongly disagree, 5 = strongly agree).

Content Analysis: A corpus of 100 English PUs (50 idioms and 50 proverbs) was analyzed to identify themes of national mentality (e.g., individualism, pragmatism, humor). Sources included dictionaries (e.g., Oxford Dictionary of Idioms) and literary texts.

Classroom Observations: Ten English lessons were observed to examine how PUs are taught and their impact on student engagement. Observations followed a structured protocol.

Interviews: Semi-structured interviews were conducted with 10 teachers to explore their approaches to teaching PUs and challenges in conveying cultural meanings.

Data Analysis. Quantitative data from surveys were analyzed using SPSS software, calculating means, standard deviations, and Pearson's correlation coefficients to identify relationships between PUs and cultural understanding. Qualitative data from content analysis, observations, and interviews were coded thematically, focusing on cognitive, cultural, and pedagogical themes. The analysis drew on Lakoff and Johnson's (1980) conceptual metaphor theory and Wierzbicka's (1997) cultural semantics framework.

Results. The study provided significant insights into the role of PUs in reflecting English national mentality, as summarized below:

Table 1: Themes in English Phraseological Units and Their Cultural Significance

Theme	Frequency in PUs (%)	Example PU
Individualism	40	Pull oneself up by one's bootstraps
Pragmatism	30	A penny saved is a penny earned
Humor/Imagery	20	Raining cats and dogs
Social Norms	10	Actions speak louder than words

Cultural Themes in PUs: Content analysis revealed that 40% of PUs reflected individualism, emphasizing self-reliance and personal achievement (e.g., "every man for himself"). Pragmatism was evident in 30% of PUs, highlighting practical solutions (e.g., "a stitch in time saves nine"). Humor and vivid imagery appeared in 20% of PUs, reflecting the English penchant for creative expression (e.g., "kick the bucket"). Social norms, such as honesty and responsibility, were less frequent (10%) but significant (e.g., "honesty is the best policy").

Learner Perceptions: Survey results showed that students found PUs challenging but motivating (mean = 4.2/5), as they provided insights into English culture. A strong correlation ($r = 0.75$, $p < 0.01$) was found between understanding PUs and cultural competence, with students reporting improved comprehension when cultural contexts were explained.

Pedagogical Outcomes: Observations indicated that teaching PUs with cultural explanations increased student engagement (mean = 4.5/5) compared to rote memorization (mean = 3.8/5). Teachers used storytelling and contextual examples in 70% of lessons to teach PUs, enhancing motivation.

Challenges: Interviews revealed that 60% of teachers faced difficulties in explaining PUs' cultural nuances, particularly for non-native learners unfamiliar with English history or humor. Students (25%) reported confusion with metaphorical PUs, such as "spill the beans."

Discussion. The findings confirm that English PUs are rich repositories of national mentality, reflecting core cultural values. The prevalence of individualism in PUs aligns with Anglo-Saxon cultural emphasis on personal responsibility and autonomy (Wierzbicka, 1997). For instance, "to pull oneself up by one's bootstraps" encapsulates the ideal of self-made success, rooted in the historical context of the American Dream and British individualism. Pragmatism, evident in PUs like "a stitch in time saves nine," reflects a cultural preference for efficiency and problem-solving, consistent with Moon's (1998) analysis of English idiomaticity.

Humor and vivid imagery in PUs, such as "raining cats and dogs," highlight the English tradition of creative and playful language use, which enhances learners' engagement but poses challenges for non-native speakers (Gibbs, 1994). The lower frequency of social norm-related PUs suggests that English mentality prioritizes individual agency over collective norms, contrasting with collectivist cultures where proverbs often emphasize community (Kövecses, 2005).

In ELT, teaching PUs with cultural context significantly improves learner motivation and cultural competence. For example, explaining the historical origin of "bite the bullet" (from battlefield medical practices) helped students understand its meaning and usage, as observed in lessons. However, challenges like cultural unfamiliarity and metaphorical complexity require pedagogical strategies that balance explanation and practice (Cowie, 1998).

The study offers the following recommendations:

Contextual Teaching: Integrate cultural and historical explanations when teaching PUs to enhance comprehension and engagement.

Curriculum Design: Include PUs in ELT curricula, focusing on themes like individualism and pragmatism to foster cultural awareness.

Teacher Training: Provide professional development on teaching PUs, emphasizing strategies to explain metaphorical and cultural nuances.

Learner-Centered Activities: Use storytelling, role-plays, and discussions to teach PUs, encouraging active use in context.

Conclusion. English phraseological units serve as a mirror of national mentality, encapsulating values of individualism, pragmatism, and humor. This study demonstrates that PUs not only enrich linguistic competence but also foster cultural understanding in ELT. By integrating PUs with contextual teaching, educators can enhance learner motivation and cultural competence. Future research could explore PUs in other English-speaking contexts (e.g., British vs. American English) or compare them with PUs in other languages to deepen cross-cultural insights.

REFERENCES:

1. Cowie, A. P. (1998). Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. Oxford: Oxford University Press.

2. Gibbs, R. W. (1994). The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding. Cambridge: Cambridge University Press.

3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.

4. Moon, R. (1998). Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. Oxford: Oxford University Press.

5. Wierzbicka, A. (1997). Understanding Cultures through Their Key Words. Oxford: Oxford University Press.

6. Kövecses, Z. (2005). Metaphor in Culture: Universality and Variation. Cambridge: Cambridge University Press.

7. Mieder, W. (2004). Proverbs: A Handbook. Westport: Greenwood Press.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

УДК 82.09

SADRIDDIN AYNIY ADABIY-TANQIDIY MEROSIDA JANR XILMA-XILLIGI VA USLUBIY O‘ZIGA XOSLIK

Axmedova Shoira Nematovna
Filologiya fanlari doktori, professor
Osiyo xalqaro universiteti
Qodirova Nasima Saidburxonovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Buxoro davlat universiteti
e-mail: n.s.qodirova@buxdu.uz

Annotatsiya. Maqolada Sadriddin Ayniyning adabiy tanqidiy faoliyati yozuvchi-munaqqid sifatida tahlil qilinadi. Ayniy tanqidiy merosida maktub, portret maqola va tanqidiy-biografik ocherk kabi janrlarning uslubiy xususiyatlari ochib beriladi. Muallifning tanqidiy asarlarida samimiylik, dalillilik va estetik yondashuv ustuvor bo‘lib, bu jihatlar uning tanqiddagi uslubini shakllantirgan.

Kalit so‘zlar: Sadriddin Ayniy, yozuvchi-munaqqid, adabiy tanqid, uslub, maktub, adabiy portret, tanqidiy-biografik ocherk.

Annotation. The article analyzes Sadriddin Ayni's literary-critical activity as a writer-critic. It explores the stylistic features of genres such as letters, portrait articles, and critical-biographical essays in his work. Sincerity, evidence-based analysis, and an aesthetic approach form the foundation of Ayni’s distinctive critical style.

Keywords: Sadriddin Ayni, writer-critic, literary criticism, style, letter, literary portrait, critical-biographical essay.

Аннотация. В статье рассматривается литературно-критическая деятельность Садриддина Айни как писателя-критика. Анализируются жанрово-стилистические особенности его писем, портретных статей и критико-биографических очерков. Искренность, аргументированность и эстетический подход составляют основу его оригинального критического стиля.

Ключевые слова: Садриддин Айни, писатель-критик, литературная критика, стиль, письмо, литературный портрет, критико-биографический очерк.

Kirish. S.Ayniy o‘z davrining zabardast yozuvchisi bo`lish barobarida yirik munaqqidi sifatida ham faoliyat yuritgan. Uning adabiy-tanqidiy maqolalalari boshqa munaqqidlar ijodidan

qator jihatlariga ko`ra farqlanadi. Yozuvchi-munaqqid Ayniyning tanqidiy ishlari uchun janr tanlashi, badiiy asar va uning muallifiga munosabati kabilarda badiiy ijod bilan shug`ullanganligining ta`siri seziladi. Ayniyning tanqidiy ishlari orasida bir qancha maktublarni ko`ramiz, uning maktub janriga ko`p murojaat etgani ham uning badiiy ijod bilan faol shug`ullanganligi bilan bog`liq. Chunki maktub janri munaqqidga fikr-mulohazalarini badiiy ifodalashda, ichki kechinmalarini batafsil bayon etishda keng imkoniyat yaratadi. Ayniyning bir qator maktublari adabiyotshunos Majid Hasanov tomonidan o`rganilgan va qator maktublari olim say-harakatlari bilan nashr etilgan[3].

Asosiy qism. Adabiyotshunos Ayniy maktublari haqida gapirganda ularning tarbiyaviy ahamiyati yuqoriligi, yosh ijodkorlarga ruhiy madad bo`lganligini ta’kidlaydi. Ayniy maktublari mazmun, maqsadiga ko`ra turlicha, ular orasida keng kitobxonlar uchun yozilgan ochiq xatlar, suhbat tariqasida yozilgan maktublar, bundan tashqari boshqa shaxsiy yozishmalar mavjud. Yozuvchi-munaqqid maktublari asosan ijodkor zamondoshlari(Hamza, A.Qodiriy, So`fizoda, Ajziy, Fitrat, Abdulvohid Munzim), shogirdlari(Sobir Abdulla, Davron Qodiriy), ayrim rahbariyat vakillari(Sharof Rashidov Hamid Olimjon)ga yozilgan.

Ayniyning shoir Sobir Abdullaga yozgan qisqagina maktubi mavjud. Mazkur maqola bir g`azal tahlili va undagi kamchilikni tuzatishga qaratilgan. Odatda, yozuvchi-munaqqidlarning tanqidida baholash barobarida yo`l ko`rsatish kuchliroq bo`ladi. Chunki ijod zahmatini teran anglagan yozuvchi munaqqid sifatida muallif mehnatini ko`proq qadrlaydi, uning mukammallashuviga ko`maklashishga intiladi. Tanqidchi Ayniy maktubda g`azalning yaxshi chiqqanini e`tirof etib, maqtada dalil bilan muddao orasida mantiqiy yopishmaslik borligini ta’kidlaydi: “Modomiki, “Ko`kdagi quyosh Sobirga Mahbub erur” yana nima uchun “ko`kni oshiyona qilish”da “Vatanning buyrug`ini kutib” turadi? Ko`kni oshiyona qilish uchun ko`kdagi quyoshga muhabbati yetarli emasmi? Agar shunday bo`lganda ham bu yerda Vatanning nima daxli bor?”[3,74.] Bundan munaqqid uslubidagi sinchkovlikni yaqqol anglash mumkin. Dalil va maqsad o`zoro mantiq asosida bog`lanishi, bunda zo`rakilik bo`lmasligiga Ayniy alohida ahamiyat qaratgan. E`tiborlisi shundaki, maktubda kamchilik aytilibgina qolmay, uni tuzatish uchun yozuvchi-munaqqid o`z taklifini ham beradi, bundan tanqidning samimiy ekanligini sezamiz. Bu samimiylik Ayniy qalbidagi insoniy tuyg`ular ifodasi sifatida yuzaga kelgan.

Ayniy maktublarining aksariyatida maslahat ohangi ustuvor, u ijodkorni tinimsiz o`z ustida ishlashga chaqiradi: “Adabiyot sohasida ishlayman, degan kishining birinchi galdagi vazifasi yozma til bilan oddiy so`zlashuv tili orasida farq borligini bilib, til o`rganishdir. Adabiy tilni o`rganish yo`li maktab bo`lganidek, mutolaa ham o`rgata oladi… mening maslahatim, ko`proq tushunib o`qishingiz, oz yozib, ko`p ishlashingiz lozim”[3,90.], - deydi yosh ijodkor Davron Qodiriyga yozgan maktubida. Mazkur maktubda yozuvchi-tanqidchi uslubida so`zning o`rinli qo`llanilishiga talabning yuqoriligi ustunlik qiladi. Ayniy maktubda shoirni so`zlarni o`rinli qo`llash barobarida ixcham yozishga undaydi. Son emas sifat muhimligini oz bo`lsinu soz bo`lsin iborasi orqali uqtiradi.

Sadriddin Ayniy maktublarida aniq raqamlarga murojaat etish orqali maktubda keltirilgan ma’lumotlarning ishonchlilik darajasini oshiradi. Masalan, tahlilga tortilgan she’r qaysi jurnalning qaysi sonida nashr etilganligi aniq ko`rsatiladi, Raqamlar bilan ishlash munaqqidning Hamid Olimjonga yozgan maktubida yaqqol ko`zga tashlanadi. Unda: “Abdurahmon Sa’diy shu maqolada 120 ta lug`atga izoh bergan. Shu jumladan, 25 lug`atga xato izoh berganki, agar o`quvchi u izohlarga qarab Navoiyning u she’rlariga ma’ni bersa, u she’rlarda bir pullik ma’no qolmaydi”, “66-bet, 2-ustun, 4-raqam”, “15 joyda Navoiy tekstlarini xató o`qib…”, “73-bet, 1-abzats”, “Menga 1.300 so`m zarar yetkazdi” kabi ko`plab raqamlar aniq ko`rsatilganki bu jihatni boshqa munaqqidlar ijodida deyarli uchratmaymiz. Yozuvchi-munaqqid uslubiga xos bu xususiyat uning boshqa maqolalarida ham ko`rinadi.

Munaqqid maktublari do`stona ruhda, samimiy va sodda tilda yozilgan. Unda ortiqcha dabdaba, balandparvoz so`zlar, o`qilishi va tushunilishi qiyin jumlalarni uchratmaymiz. Maktublar odatda “O`rtoq …. Salom” deb boshlanib, “O`rtoqlik salomi bilan Sadriddin Ayniy” jumlasi bilan yakunlanadi. Bu, albatta, munaqqidning adabiy-tanqidiy maktublariga xos. Biroq uning shaxsiy maktublarida maktub yo`llangan kishiga munosabat murojaat so`zlarda ifodalanadi. Xususan, Sharof Rashidov va Abulqosim Lohutiyga maktublarida “azizim” deya murojaat qiladi.

Natijalar. Sadriddin Ayniyning yozuvchi-munaqqid sifatida adabiy tanqid janrlarini tanlab ijod etishi diqqatni tortadi. Uning ijodida maktubdan tashqari portret maqola va adabiy portretning go`zal namunalari borligi bejiz emas. Maktub ijodkorga to`g`ridan to`g`ri muloqot qilish imkonini bersa, portret maqola, adabiy portret va tanqidiy-biografik ocherk munaqqidga o`z idealiga movofiq qahramon yaratish imkonini beradi.

S.Ayniyni Buxoro adabiy muhiti vakillari ijodi doimo o‘ziga tortib kelgan. J.Ikromiyning xotirlashicha: «Uning beqaror yuragi Buxoro uchun achinardi. U butun borlig‘ini ana shu Ahmad Donish, Hayrat va boshqa ulug‘lar Buxorosini ta’rif-tavsiflashga, ularni ko‘klarga ko‘tarishga bag‘ishlagan edi, ularga nisbatan chin ko‘ngildan muhabbat izhor qilgan edi»[4,40]. Haqiqatan ham S.Ayniy o‘zbek va tojik adabiyotining uzoq tarixiy negizlarini, buyuk siymolari ijodini adabiyotshunoslik fanida birinchilardan bo‘lib tadqiq etgan ulkan allomadir.

S.Ayniyning Ahmad Donishga bag‘ishlangan tadqiqoti adabiy portret xarakterida bo‘lib, unda olimning ilmiy–ijodiy qiyofasi yaratilgan. Shuni ham ta’kidlash lozimki, S.Ayniy Ahmad Donish shaxsiga bo‘lgan qiziqishlarini tarjimayi holi va «Esdaliklar»ida ko‘rsatgan edi. “Qisqacha tarjimai holim”da A.Donishning nasrdagi uslubi, “Navodirul vaqoe”ning sodda tilda yozilganligini ko‘rsatib o‘tadi[5,61].

«Esdaliklar»ning ikkinchi qismida A.Donishning odamlar bilan muomalasi, munosabatini ochib beradi. «Ajoyib odam», «Ahmad Maxdumning hovlisida» degan boblarda A.Donishning shaxsi, ijodi haqida fikr yuritib, adabiy portretga xos chiziqlarni ko‘paytiradi. Masalan, “U ajoyib odamning nomi Ahmad Maxdum, uning adabiy taxallusi Donish, ilmiy taxallusi muhandis (handasadon)lik va munajjimlik (yulduzshunoslik) ekan. U odamning boshi haddan ortiq katta bo‘lganidan, unga «Kalla» degan laqab berganlar»[5,205]. Tanqidchi bu o‘rinda

A.Donishning madrasada oy tutilishi bilan bog’liq mulohazalarining talaba va mullalar orasida turli xilda gap-so‘zlarga sabab bo‘lishi voqealarini qiziqarli, sodda tilda hikoya qilib beradi. Biroq bu qisqa chiziqlar yozuvchi-munaqqidni qanoatlantirmaydi, Donish shaxsiga, ijodiga qiziqishi, hurmati tufayli keyinchalik S.Ayniy «Ahmad Maxdum –Donish (“Ahmad Kalla” degan adabiy portretini yaratadi va bu asar A.Donish haqidagi «Qisqacha tarjimai holim» va «Esdaliklar»dagi mulohazalarning mantiqiy davomi sifatida yuzaga kelgan va S.Ayniy «Tanlangan ilmiy asarlar»iga kiritilgan[6].

Tadqiqotda A.Donishning ma’naviy, ruhiy va ijodiy jihatdan bir butun qiyofasini yaratish asosiy o‘rinda turadi, shu bois uni adabiy portret janriga mansub deb hisoblash mumkin. Eng muhimi shundaki, avvalo, munaqqidning zamondoshiga bo‘lgan katta hurmati asarning bosh fazilatini tashkil etgan. Shuning uchun ham unda A.Donishning inson va shaxs, ijodkor sifatidagi xususiyatlarini ko‘rsatish ustuvorlik qiladi.

Adabiy portret muallifining asosiy maqsadi san’atkorning o‘ziga xos his etilgan, qalbidan o‘tkazilgan alohida shaxsning dunyosi, uning hayoti, tarjimai holi asosida badiiy obraz yaratishdir”[7,38] .

S.Ayniy ham janrning talablarini to‘g‘ri tushungan zukko munaqqid sifatida A.Donishning muxtasar portretini yaratishga kirishadi va bunga erishadi. Unda ta’kidlaganimiz aynan shu fazilat–olimning dunyosiga chuqur kirib borish ruhi sezilib turadi. «Esdaliklar»da ham alohida qismni Ahmad Maxdumning hovlisi tasviriga bag‘ishlaydi, shu orqali ham uning insoniylik fazilatlarini ochib beradi: muhandisligi, munofiqlikni yomon ko‘rishi, bosiq, og‘ir tabiatli inson ekanligiga urg‘u beradi. Adabiy portretda esa o‘z davrining donishmand olimi A.Donishning bir butun qiyofasini o‘quvchi ko‘z oldida yaqqol gavdalantiradi. Mazkur adabiy portretda yozuvchi-munaqqid uslubida qahramoniga simpatik yondashuvi ustuvor bo`lib, o`z qahramonini ham ichki ham tashqi olamini badiiy qahramon yaratgan kabi muhabbat bilan yoritganligini ko`ramiz va bu Ayniy adabiy portreti uslubining badiiy jilosini ta’minlagan.

Adabiy portretning dastlabki qismlari obzor xarakteridadir, unda Buxoro adabiy muhitning vakillari: Sahbo, Shohin haqida ma’lumot berilib, keyin A.Donishga o‘tiladi. Uning yoshligi, ilm-fanga qiziqishini zamondoshlarining xotiralari asosida, o‘zining asarlaridan misollar keltirib ilmiy asosda tahlil qilib beradi. Albatta, bu ham uslub o`ziga xosligi bo`lib, yozuvchi-munaqqid qahramoniga o`zi mansub jamiyat nuqtai nazaridan baho beradi, uni shaxs sifatida shakllantirgan muhit bilan birgalikda kitobxonga taqdim etadi.

Adabiy portret o‘ziga xos kompozitsion tuzilishga ega: 1.Ahmad Maxdumning kundalik hayoti. 2. Ahmad maxdumning har yili qiladigan sayohatlari.3. Ahmad Donish vafotining xabari.4. Ahmad Donishning yirik asari «Navodirul–vaqoe» bilan birinchi tanishuvim» deb nomlangan qismlardan iborat. Bu qismlar birlashib, A.Donishning adabiy portretini hosil qiladi. Unda S.Ayniyning diqqatini «eng ko‘p jalb etgan ulug‘ zot»ning ulug‘ligi: o‘z davrining zukko bilimdoni, halol, birovning haqiga xiyonat qilmaydigan, munofiqlikni yomon ko‘radigan, usta rassom, binokor, muhandis, ijodkorlik qiyofasini o‘zi ko‘rganlari, eshitganlari va xotiralar asosida yaqqol tasvirlaydi.

Adabiy-tanqidiy asarning xalqqa manzur, o‘qimishli bo‘lishini ta’minlaydigan uslubiy o`ziga xosliklaridan biri uning sodda va shirali tilda yozilishidir. Bu yozuvchi-munaqqiddan katta mahoratni talab qiladi. S.Ayniyning adabiy- tanqidiy asarlarida mana shu xususiyat – tilga e’tibor bo‘rtib turadi. Hatto uning o‘zi tanqidchilar oldiga shunday talab qo‘yadi:«Ko‘p tanqidchilar yozuvchilarda bo‘lgani singari yomon yozadilar, chunki tilga no‘noqlar. Til esa ularning asosiy qurolidir… Tilchining yozuvchi bo`lishi shart emas. Yozuvchiga kelsak, boshqa gap, uning tilchi bo`lishi majburiydir.”[5, 380]

Ahmad Donishning «Navodirul-vaqoe» asari tahlili S.Ayniyning o‘z fikrlariga qat’iy amal etishini ko‘rsatadi. U asarning qomusiylik jihatlariga ega ekanligini ta’kidlasa-da, ko‘proq A.Donishning ijtimoiy, insonparvarlik qarashlariga to‘xtaladi. Hatto o‘zining «sodda tilda yozish fikri» «Navodirul-vaqoe» bilan tanishganida paydo bo‘lganligini ochiq e’tirof etadi. Yozuvchi-munaqqid S.Ayniy adabiy-tanqidiy ishlarining eng muhim uslubiy jihati aynan yozuvchi – tilshunos – adabiyotshunos tilining birikuvidan yuzaga kelganligida ko`rinadi.

O‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida adabiy portret yaratishning turli usullari mavjud: hikoyachi (tanqidchi) tilidan bayon etish, suhbatdan foydalanish v.h. Voqelikni «men» tilidan bayon etish juda kam uchraydi. Tanqidchilar ijodkorni o‘zlari tanib, u bilan suhbatda bo‘lgan bo‘lsalar ham, bu usulni kam qo‘llashadi. S.Ayniy mohir munaqqid sifatida shu usuldan foydalanib, o‘zi ko‘rgan, guvohi bo‘lgan voqealarni, ba’zan turli xotiralarni keltirish yo‘li bilan ilmiy tadqiqotning o‘ziga xos uslubini ta’min eta olgan. To‘g‘ri, S.Ayniy A.Donishning ichki dunyosi, ruhiyati tasviriga ko‘p o‘rin ajratmaydi. Bizningcha, bunga uning A.Donish bilan suhbatdosh bo‘lolmaganligi sabab bo‘lsa kerak, chunki tanqidchi aniqlikni xush ko‘rganligi boshqa tadqiqotlarida ham aniq ko‘rinadi. Men tilidan bayon etilishi esa yozuvchi-munaqqidning o`ziga xos uslubi bo`lib, ilmiy tabdiqotni badiiy asarga yaqin uslubda bo`lishini ta’minlagan usullardan biridir.

Yozuvchi-munaqqid uslubining yana bir o`ziga xosligi uning qomusiyligida ko`rinadi. Maqolalarida uni munaqqid, ijodkor, tarixchi, tilshunos, pegagog sifatida ham ko`rishimiz mumkin. bundan tashqari uning adabiy-tanqidiy maqolalari orasida mumtoz siymolar qatorida o`z zamondoshlarining faoliyati ham sinchkovlik bilan tadqiq etilgan. Bu jihatdan Ayniyning “Tahsin va hurmatga sazovor shoir”, “O`rtoq Said Nazar va uning ijodiyoti to`g`risida mulohazalarim” portret-maqolalari xarakterli.

“Tahsin va hurmatga sazovor shoir” portret-maqolasi G`fur G`ulom shaxsiyatiga bag`ishlangan. Munaqqid portret-maqolada shoir ijodini tahlilga tortmaydi, maqoladan maqsad – shoir shaxsiyati va uning muvaffaqiyati kalitini kitobxonga anglatish. Ko`rinadiki, mazkur ishda yozuvchi-munaqqid uslubiga xos bo`lgan so`z vositasida jamiyatda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan harakat mavjud. Munaqqid o`rnak sifatida qahramon – G`afur G`ulomni tanlaydi.

“Shoirning yuksak ijodiyotiga va so`nmas shuhratiga sabab, uning “baxti - iqboli” ham emas. Chunki uning o`zi aytgani kabi: …G`oyibdan kelajak baxt bu afsona”.[5,10] Bunda munaqqid shoirning mashaqqatli mehnati va shijoatini barchaga o`rnak qilib ko`rsatadi. Mazkur

portret-maqola orqali munaqqid bir yo`la uch vazifani uddalay olgan: G`afur G`ulom she`riyatini baholash; kitobxonni o`z ustida ishlashga da’vat etish, harakatga undash; deputatlikka G`.G`ulom nomzodini qo`llab-quvvatlash va targ`ib etish.

Munaqqid maqolada shoirning jonli va xalqqa yaqin bir qiyofasini yoritishga harakat qilgan. Shu sabab dastlab u bilan tanishgan kunlarini xotirlaydi: “Bu yigitning sabza nihol kabi o`sa borayotgan bo`yi, mutanosib yetilgan gavdasi, sabr va chidam uyasi bo`lgan keng ko`kragi, chuqur tafakkur va matonatga dalolat qiladigan kelishgan manglayi, ayniqsa ziyraklik va jiddiyat olovi chaqnab turgan shahlo ko`zlari – mening diqqatimni o`ziga tortdi”[5,9]. Munaqqid xotira asosida shoir portretini so`zlar vositasida chizadi. Badiiy qahramonni tasvirlagan kabi mehr bilan chizadi. Bu esa yozuvchi-munaqqid uslubining ifoda bilan bog`liq muhim qirrasini ko`rsatadi.

Sadriddin Ayniy adabiy-tanqidiy ishlarining yana bir muhim uslubiy jihati – munaqqidning tadrijiylikni diqqat bilan kuzatishi va buni ochiqlay olishidir. U qaysi ijodkor haqida yozmasin uning ijodiy o`sib borganligi, mahoratining takomillashgani yoki ayni holatda qolgani yoki, aksincha, ijodiy susayish bo`lganligini asosli yoritib beradi.

Portret-maqola hajman ixcham bo`lsa-da, unda yozuvchi-munaqqid uslubiga xos ko`plab individualliklarni ko`ramiz. Masalan, maqolada parallel qo`yish orqali mavzuni yoritish ustuvor. “Bu yigitning gavdasi o`sgan sayin fikr va ijodiyoti ham o`sa va kengaya bordi.”[5,9] Bunda jismoniy va tafakkur rivoji parallel qo`yilib, uning mutanosiblikda rivojlanayotganligi ta’kidlansa, “O`zbekiston respublikasi, tarixiy besh yilliklar soyasida sanoat va iqtisodiy jihatdan qancha o`sib mustahkamlangan bo`lsa, G`afur G`ulom ijodiyoti ham o`shancha o`sib mustahkamlandi” jumlasida shoir ijodi vatan taraqqiyoti bilan parallel qo`yiladi va G`.G`ulom yurtga munosib mehnat olib borayotganligi, ulkan yutuqlarga erishilayotganligi e’tirof etiladi.

Sadriddin Ayniyning adabiy-tanqidiy ishlarida qo`pol jumlalar, keskin rad etuvchi fikrlar uchramaydi. Bu uning uslubiy individualligi, munaqqid yumshoqlik bilan kamchiliklarni bayon etib, isloh etishga harakat qiladi. bu haqda o`zing maqolalarida ham uchratamiz: “Munaqqid alloma sifatida aql va tafakkur bilan tanqid qilishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yishi kerak. Asarni chuqur o‘rganish va yozuvchi voqelikni qanday aks ettirganligini to‘g‘ri va xolisanillo baholay bilish zarur. Men tomdan tarasha tushganday qo`pol tanqidga mutlaqo qarshiman. Tanqid do`stonaligi, sofdilligi, isbot va dalillari bilan ishontirishi, og`ir botadigan gaplardan xoli bo`lishi shart”[3,90] - deydi, munaqqid. O`zi ham doim ushbu mulohazalariga amal qildi. Kimning ijodini tanqid etmasin, uni bir do`st sifatida qabul qiladi va ko`mak berishga intiladi.

Xulosa. Sadriddin Ayniy o`ziga xos uslubga ega bo`lgan yozuvchi-munaqqiddir. Ayniy maktub janridan tanqidiy fikr ifodasi sifatida keng foydalanib, yosh ijodkorlarga maslahat va yo‘l-yo‘riq bergan. U adabiy portretda obraz yaratish, tarixiylik va hayotiylikni birlashtirishga alohida e’tibor qaratgan. Ayniyning tanqidiy uslubi samimiy, do‘stona va aniq dalilarga tayangan bo‘lib, bu jihatlar uni boshqa munaqqidlardan ajratib turadi. U tanqidga jamiyatni tarbiyalovchi vosita sifatida ham qaraydi. Ayniy uslubida yozuvchi, munaqqid, tilshunos va tarixshunos qiyofasi uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Umuman, Sadriddin Ayniyning adabiy-

tanqidiy merosi o‘zbek tanqidchiligida yozuvchi-munaqqid uslubining yorqin namunasi bo‘lib, bugungi kunda ham ilmiy va amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Ахмедов.Н.А. Баён қилиш ва индивидуал услуб масаласи. – Мюнхен: Globe, 2020.
2. Носиров Ў. Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор образи. – Тошкент: Фан, 1981.
3. Hasanov M. Ayniy chamani. – Toshkent, 1981.
4. «Айний замондошлари хотирасида». – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978.
5. Айний С. 8 томлик. – Тошкент: Ўзбекистон Давлат адабиёт нашр, 1967. Т.8.
6. Айний С. Танланган илмий асарлар. – Тошкент: Фан, 1978.
7. Ахмедова Ш. Адабий танқидчилик жанрлари. Тошкент. “Фан”, 2008.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

NO CAP, IT’S ENGLISH TOO: LINGUISTIC NORMS IN THE AGE OF VIRALITY

Maftuna Kadirova Ikhtiyorjon qizi
English Language Teacher at
Namangan Academic Lyceum under Tashkent State University of Law

Abstract, In today’s digital landscape, platforms like TikTok, Twitter, and Instagram are not only shaping online culture but also transforming the English language itself. This article explores how these spaces give rise to a new, fast-moving form of expression often referred to as “viral English.” Characterized by rapidly evolving slang, flexible syntax, and playful pragmatics, this register is driven largely by Gen Z users and their digital interactions. Rather than dismissing these changes as linguistic decay, the paper views them as signs of creativity, adaptability, and social bonding. Through a close analysis of current trends, it highlights how these innovations push the boundaries of what is considered "correct" English and reflect broader cultural shifts. The study argues that viral English deserves serious attention in linguistic research and education. In a world where language evolves in real time, educators and scholars must rethink traditional models and embrace the dynamic nature of English in the digital era.

Keywords: *Gen Z English, TikTok slang, linguistic norms, digital discourse, sociolinguistics, pragmatics, language evolution*

Аннотация В условиях стремительно развивающегося цифрового пространства такие платформы, как TikTok, Twitter и Instagram, не только формируют новую онлайн-культуру, но и радикально трансформируют сам английский язык. В данной статье рассматривается феномен так называемого «вирусного английского» — быстро распространяющегося стиля общения, характерного для поколения Z. Его отличают быстро меняющийся сленг, гибкий синтаксис и игривое использование языка в прагматическом контексте. Автор предлагает рассматривать эти языковые новшества не как упадок норм, а как проявление креативности, адаптивности и стремления к социальной связи. На основе анализа современных лингвистических трендов подчеркивается, как новые формы выражения раздвигают границы «правильного» английского и отражают более глубокие культурные изменения. Исследование утверждает, что феномен вирусного английского заслуживает серьезного внимания со стороны лингвистов и преподавателей. В эпоху, когда язык развивается в режиме реального времени, необходимо пересматривать традиционные подходы и учитывать динамическую природу английского в цифровую эпоху.

Ключевые слова: *английский поколения Z, сленг TikTok, языковые нормы, цифровой дискурс, социолингвистика, прагматика, языковая эволюция*

Annotatsiya Bugungi raqamli makonda TikTok, Twitter va Instagram kabi platformalar nafaqat onlayn madaniyatni shakllantirmoqda, balki ingliz tilining o‘zini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Ushbu maqolada “virusli ingliz tili” deb ataluvchi yangi, tez sur’atda rivojlanayotgan ifoda shakllari tahlil qilinadi. Bu uslub asosan Z avlodi foydalanuvchilari va ularning raqamli muloqoti orqali shakllanib, o‘zgaruvchan slang, moslashuvchan sintaksis va hazil aralash pragmatik uslub bilan ajralib turadi. Tadqiqotda bu til o‘zgarishlari tildagi inqiroz sifatida emas, balki ijodkorlik, moslashuvchanlik va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash ifodasi sifatida talqin etiladi. Muallif zamonaviy til tendensiyalarini tahlil qilish orqali “to‘g‘ri” ingliz tilining chegaralari qanday kengayayotganini va bu jarayon kengroq madaniy o‘zgarishlarni aks ettirishini ko‘rsatadi. Maqolada raqamli davrda ingliz tilining dinamik tabiatini hisobga olgan holda, tilshunoslar va o‘qituvchilar tomonidan an’anaviy modellarga qayta yondashish zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *Z avlodi ingliz tili, TikTok slengi, til normalari, raqamli diskurs, sotsiolingvistika, pragmatika, til evolyutsiyasi*

Introduction

In recent years, the English language has undergone a remarkable transformation — not one driven by academia, literature, or policy, but by the dynamic world of social media, memes, influencers, and viral content. This linguistic shift is especially apparent in what many scholars now call “Gen Z English,” a fast-evolving, informal register shaped in online spaces such as TikTok, Twitter, Discord, and Reddit (Anderson, 2022). Expressions like **“no cap,” “it’s giving,” “rizz,” “based,”** and **“slay**” have moved from digital subcultures into everyday speech, particularly among younger generations. These terms are no longer fringe or ephemeral; they are now central to how millions construct identity, humor, and social belonging in digital discourse. Interestingly, traditional grammar books and academic curricula often fail to acknowledge these changes, even though such language dominates online communication (Crystal, 2003). This raises a critical question for contemporary linguistics: In a world of decentralized, participatory media, who truly defines linguistic norms — scholars, institutions, or the communities that use the language every day?

Research Aim and Objectives

Aim: This study aims to investigate the linguistic features of viral English as shaped by digital youth culture, with a particular focus on its vocabulary, syntax, and pragmatic use. It further seeks to analyze how these features challenge traditional notions of linguistic normativity and explore their potential implications for English language teaching in a rapidly evolving digital landscape.

Objectives:

To achieve this aim, the research sets out to:

- Identify and document emerging lexical items, syntactic patterns, and stylistic tendencies commonly found in Gen Z English across platforms like TikTok, Twitter, and Reddit.
- Compare and contrast these linguistic elements with the conventions of Standard English in terms of form, function, and acceptability.
- Examine the communicative purposes these forms serve, including their roles in identity formation, group belonging, and humor.
- Propose pedagogical strategies and curricular adjustments that respond to the dynamic nature of contemporary English usage, particularly in educational contexts where linguistic relevance and inclusivity are increasingly important.

Methods

This research adopts a mixed-method approach combining **descriptive linguistic analysis, comparative grammar,** and **pragmatic interpretation** to explore the features of viral English within digital communication contexts. The primary data set consists of approximately **250 authentic language samples** drawn from a range of online platforms — specifically TikTok captions, Reddit threads, and public comment sections — collected over a period **spanning 2023 to 2024**. These samples were selected to reflect organic, user-generated content across diverse sociolinguistic backgrounds and discourse communities.

To ensure a well-rounded linguistic perspective, supplementary resources were consulted, including **Urban Dictionary entries** for real-time lexical definitions, as well as data from the **Corpus of Contemporary American English (COCA, 2023)** to observe usage frequency and patterns. In addition, the study integrates insights from prominent linguistic scholars such as **David Crystal (2003), Sali Tagliamonte (2016), Connie Eble (1996), Jennifer Jenkins (2015), and Geoffrey Leech (2006)**, whose works provide foundational theories and frameworks relevant to informal language, sociolinguistics, and language change in digital environments.

Viral Vocabulary: A Linguistic Snapshot

The lexical creativity of Gen Z is arguably one of the most fascinating aspects of modern English. These expressions carry rich connotative meaning, often relying on cultural references and shared social context.

Expression	Meaning (Gen Z)	Standard Equivalent
no cap	*truthfully, seriously*	*honestly, for real*
rizz	*charisma, flirting ability*	*charm, attraction*
slay	*to perform extremely well*	*succeed, impress*
it’s giving	*evokes a feeling/vibe*	*resembles, feels like*
sus	*suspicious, sketchy*	*questionable, odd*

(Source: Urban Dictionary, 2023–2024; Tagliamonte, 2016)

These terms are often loaded with pragmatic nuance, functioning not only as semantic carriers but as social tools — marking group identity, humor, sarcasm, or critique (Eble, 1996).

Syntactic Innovation and Play

Viral English is not just about vocabulary; it challenges grammatical conventions as well.

The ***“do be”*** construction:

“He do be lying”

This form emphasizes habitual behavior, often used humorously. While grammatically incorrect in standard English, it carries pragmatic meaning in Gen Z contexts (Leech, 2006).

Nonstandard pronoun use:

“Me and him was talking…”

Such structures, while traditionally marked as errors, reflect casual spoken discourse (Tagliamonte, 2016).

Phrase templates from meme culture:

“She understood the assignment”

This phrase is a form of praise, common on TikTok and Twitter (Anderson, 2022).

In many of these cases, the deviation from norms is intentional and stylistic — part of identity performance rather than linguistic incompetence.

Discussion

Pragmatics and Social Meaning

Much of Gen Z English functions on the level of shared humor, irony, or aesthetic performance. As Crystal (2003) notes, the rise of the internet created a new space for English to evolve rapidly and organically.

For example:

“*This outfit? It’s giving* ***CEO.”***

The noun “***CEO”*** becomes metaphorical, and the construction omits articles while delivering maximum impact.

This style is context-sensitive, often relying on tone, platform, and cultural cues. As such, it presents challenges to traditional linguistic analysis but offers rich data for sociolinguistic exploration (Jenkins, 2015).

Redefining Normativity

What is considered **“correct**” English today is increasingly relative. The influence of digital communication means that language is no longer shaped top-down by dictionaries or academies but bottom-up by users — especially younger generations (Crystal, 2003).

This shift is unsettling for traditional pedagogy but essential to acknowledge. Viral English, far from being random or illogical, is highly rule-governed within its own system — one based on shared digital fluency and community membership (Eble, 1996; Jenkins, 2015).

Implications for Education and Linguistics

The educational system often teaches an outdated model of English — textbook dialogues, rigid grammar drills, and formal writing styles. Meanwhile, real-world English is dynamic, context-driven, and multimodal (Tagliamonte, 2016).

If we ignore these evolving norms:

- Students risk sounding unnatural or overly formal.
- Teachers miss opportunities to build cultural and communicative relevance.
- Linguistics fails to reflect actual language use.

Incorporating viral English into ESL/EFL curricula doesn’t mean abandoning grammar — it means teaching standard forms alongside contemporary usage, with attention to audience, tone, and context.

Conclusion

Gen Z English and viral English should not be viewed as corruptions of the language, but rather as powerful reflections of how English continues to live, evolve, and respond to the needs of a digital society. These forms embody a shift toward more flexible, playful, and socially embedded norms of communication. Far from being random slang or linguistic mistakes, they serve as tools for identity expression, community belonging, and rapid meaning-making in online spaces. As such, they deserve careful consideration from linguists, educators, and policymakers alike. The concept of “correct” English must be re-evaluated in light of these developments. If language is fundamentally a social tool, then the varieties actively used by real speakers — especially in influential online platforms — hold legitimate linguistic value. Embracing this perspective opens the door to more inclusive, realistic approaches to language teaching and research, ultimately recognizing that English is not static but ever-evolving and shaped by its speakers.

REFERENCES

1. Anderson, J. (2022). Language and identity on TikTok. Journal of New Media Language, 14(3), 22–37.

2. COCA Corpus. (2023). The Corpus of Contemporary American English. Brigham Young University. Available at: https://www.english-corpora.org/coca/

3. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language (2nd ed., pp. 402–419). Cambridge University Press.

4. Eble, C. (1996). Slang and Sociability: In-group Language among College Students (pp. 13–35). University of North Carolina Press.

5. Jenkins, J. (2015). Global Englishes: A Resource Book for Students (3rd ed., pp. 78–101). Routledge.

6. Leech, G. (2006). A Glossary of English Grammar (pp. 56–64). Edinburgh University Press.

7. Tagliamonte, S. A. (2016). Teen Talk: The Language of Adolescents (pp. 92–118). Cambridge University Press.

8. Urban Dictionary. (2023–2024). Urban Dictionary: Define your world. Retrieved from https://www.urbandictionary.com

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

XOLIS TIL SIYOSATI

Yorqinjon Odilov,
O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti,
filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Maqola til siyosati mavzusiga bag‘ishlangan. Unda xolis til siyosatining tabiati, asosiy xususiyatlari turli davlatlarning til hayotiga ta’siri misolida asoslangan. O‘rni bilan xolis til siyosatini mahkam tutgan davlatlarning tajribalari tahlil qilingan, ta’lim, OAV kabi sohalarda xolis til siyosati yuritishning zarurati tushuntirilgan.

Annotation. The article is dedicated to the topic of language policy. It is based on the nature and main characteristics of impartial language policy, illustrated by the influence on the language life of various countries. The experiences of countries that have firmly upheld impartial language policy are analyzed, and the necessity of implementing impartial language policy in fields such as education and mass media is explained.

Аннотация. Статья посвящена теме языковой политики. В ней рассматриваются природа и основные характеристики объективной языковой политики на примере влияния на языковую жизнь различных государств. Анализируется опыт стран, которые последовательно придерживаются объективной языковой политики, и объясняется необходимость ведения объективной языковой политики в таких сферах, как образование и средства массовой информации.

Kalit so‘zlar: til, davlat, til hayotini boshqarish, til siyosati, xolis til siyosati, til qonunchiligi.

Keywords: language, state, language management, language policy, impartial language policy, language legislation.

Ключевые слова: язык, государство, управление языком, языковая политика, объективная языковая политика, языковое законодательство.

KIRISH

Davlatning til hayotiga maqsadli ta’sir qilishi, tartibga solishi har doim bir xil bo‘lmagan: ba’zan oqillik bilan til hayoti boshqarilgan bo‘lsa, ba’zan baxillik darajasida ish ko‘rilgan. Shu bois zamonaviy sotsiolingvistika til siyosati tajribalarini xolis va noxolisligi jihatidan farqlashi lozim. Adabiyotlarda mamlakat aholisining asosiy yoki ozchilik qismi ehtiyojlarini qondirishi, qaysi qatlamning manfaatlarini ifodalashi, mavjud til vaziyatining hisobga olinganligi yoxud

olinmaganligiga ko‘ra, demokratik[40] va nodemokratik til siyosati haqida fikr yuritiladi. Agar til siyosati keng aholi ommasining til huquqlari tengligini kafolatlash, tilni qo‘llash bilan bog‘liq muammolarini hal etish, ularning lisoniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilsa, demokratik; jamiyatning elita qatlami yoki faqat shahar aholisining manfaatlarini ifodalash, ularninggina lisoniy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilsa, nodemokratik xususiyat kasb etadi. Masalan, o‘tgan asrning 90-yillarida Markaziy Osiyo davlatlarida aholining ko‘pchilik qismi so‘zlashadigan tilning davlat tili sifatida belgilangani, o‘z navbatida, davlat tili maqomining xalq istagi bilan olingani mazkum mamlakatlardagi til siyosatining demokratik xususiyat kasb etganini ko‘rsatadi. Ammo ayrim Afrika davlatlarida rasmiy til sifatida aholining asosiy qismi so‘zlashadigan til emas, jamiyat elitasi biladigan tilning tanlangani bu mamlakatlardagi til siyosatining nodemokratik yo‘nalish olganligini bildiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

AQSh, Avstraliya, Yevropadagi aksar tilshunosliklarda “demokratik til siyosati”, “nodemokratik til siyosati” tushunchalarini o‘zbek tilida “xolis til siyosati”, “noxolis til siyosati” tarzida atasa bo‘ladi, ular atama sifatida mazkur tushunchalarni ifodalashga qodir. Biz “demokratik til siyosati” va “nodemokratik til siyosati” demaganimizning boshqa sababi bor. Ayni atamalar faqat demokratik va nodemokratik jihatinigina ifodalaydi. *Xolis til siyosati* va *noxolis til siyosati* atamalari til siyosatining demokratik va nodemokratikligi bilan birga, obyektiv va subyektiv, beg‘araz va g‘arazli ekanligini ham bildiradi, umuman, davlatning til hayotiga oqil va baxil munosabatini ifodalaydi.

MUHOKAMA

Xolis til siyosati o‘z mohiyatiga ko‘ra quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Davlat o‘z ixtiyoridagi tillarning tenghuquqliligini ta’minlashga harakat qiladi. Bunday til siyosatida mamlakatda mavjud bir tilning maqomi boshqasinikidan yuqori yoki past bo‘lmaydi. Ammo “tillarning tenghuquqligi” tushunchasi tillarga huquqiy maqom berish hamda “tillarni muloqotda qo‘llash huquqi” jihatidan bir-biridan farq qiladi. Tillarga huquqiy maqom berish ularning rasmiy muloqot sohalarida qo‘llanishini tartibga solishga asoslanadi. Albatta, lisoniy mo‘ljallashdan boshlangan til siyosati aholining ko‘pchilik qismi so‘zlashadigan tilga huquqiy maqom berish bilan davom etadi[41]. Turli davlatlarda rasmiy tillarni belgilash siyosatida turlicha modellar amal qiladi. Bu jarayonda lisoniy omillar bilan birga siyosiy, iqtisodiy sabablar ham rol o‘ynaydi. Ya’ni “Bu davlatda bitta til davlat tili bo‘lishi kerak”, “Bu davlatda ikki yoki uch til rasmiy til bo‘lishi lozim” tarzida hukm chiqarish ko‘pincha imkonsiz. Har bir davlat mamlakatdagi lisoniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy vaziyatlarni hisobga olib, rasmiy tilini belgilaydi. Bu jihatdan davlat tili yoki rasmiy til siyosatining bir, ikki, uch, to‘rt va ko‘p komponentli ko‘rinishlari uchraydi. Ya’ni til qonunchiligi bir, ikki, uch va undan ortiq tilni davlat tili yoki rasmiy til etib belgilagan davlatlar bor. Masalan, Fransiya hamda Latviyada bir

[40] Bu o‘rinda olim *demokratik* so‘zini “keng aholi ommasi ixtiyorining ro‘yobga chiqishi” ma’nosida qo‘llagan.

[41] Irlandiyada aholining asosiy qismi irland tilida so‘zlashmasa ham irland davlatchiligini tom ma’noda mustaqil qilish, milliy tilni yuksaltirish maqsadida irland tili davlat tili sifatida belgilangan.

til, Afg‘oniston va Qirg‘izistonda ikki til, Buni Belgiya, Shveytsariya, Finlyandiya singari Yevropa davlatlari yoki AQSh, Kanada, O‘zbekiston misolida ko‘rish mumkin. Belgiyada uch til – flamand, fransuz va nemis tillari, Finlyandiyada fin, shved va saam tillari shu davlatlarning rasmiy tillari qilib belgilangan. Rasmiy maqom bu tillarni faqat rasmiy muloqot sohalarida qo‘llashni tartibga soladi.

Xolis til siyosati amal qilganda rasmiy muloqot sohalarida qo‘llanadigan til(lar)ga bir xil huquqiy maqom beriladi, shundan kelib chiqib, ikki, uch til rasmiy til etib belgilanadi. Ammo AQShda ingliz tili, O‘zbekistonda o‘zbek tili davlatning rasmiy tili hisoblanadi. Ammo bu mamlakatlarda faqat bir tilning rasmiy til ekanligi til siyosatining noxolisligi sifatida izohlanmasligi lozim. Negaki bu davlatlar shunday til siyosati yuritish bilan lisoniy hayotni normal boshqaradi, tartibga soladi. Bunda mavjud sharoit hisobga olinishi kerak. Masalan, AQShda boshqa tilning rasmiy til bo‘lishi uchun ehtiyojning o‘zi yo‘q, ingliz tili majburiy joriy etilmaydi. Real ijtimoiy vaziyat ingliz tilini shunday maqomga sohib qilgan. O‘zbekistonda faqat o‘zbek tilining mamlakatning asosiy tili bo‘lishi sababi quyidagilar bilan izohlanadi: 1) O‘zbekiston sobiq ittifoqdan ajralib chiqqan, shu bois sobiq ittioq tilini rasmiy til etib belgilashi mumkin emas edi. Milliy davlatchiligini shakllantirayotgan davlatning bunday yo‘l tutishi tabiiy; 2) O‘zbekistonda aholining asosiy qismi o‘zbek tilida so‘zlashadi, boshqa tilni rasmiy til deb belgilash uchun tilning demografik quvvati rasmiy tilga yarasha bo‘lishi lozim; 3) O‘zbekistonda davlat tili instituti joriy etilgan, rasmiy til bir necha bo‘lishi mumkin, ammo davlat tili bitta bo‘ladi.

Tillarni muloqotda qo‘llash huquqi norasmiy muloqot sohalarida majoritar va minoritar tillardan erkin va teng foydalanishni bildiradi. Til siyosatida bunday talabning hisobga olinisi mamlakatdagi katta-kichik tillarni ona tili yoki muloqot vositasi sifatida qo‘llashga imkon beradi. Masalan, Shveytsariyada fransuz, nemis, italyan va retoroman tillari rasmiy tillardir. Bu federativ davlatdagi 26 ta kantonning har biri o‘zining rasmiy tilini belgilashi mumkin. Davlat hujjatlari va rasmiy ishlar bu to‘rtta tilning har birida yuritilishi mumkin. Shu bilan birga, har bir kantonda boshqa tillar muloqotda qo‘llanishi mumkinligi qonunan belgilangan. Ya’ni to‘rt rasmiy tildan boshqa tillar ona tili yoki millatlararo muloqot tili sifatida qo‘llanishiga to‘siq yo‘q. Yoki Amerika Qo‘shma Shtatlarida ingliz tili rasman davlat boshqaruvi tili hisoblanadi, shuningdek, turli diasporalar o‘z tilidam kundalik muloqotda foydalanishi mumkin. Ya’ni maishiy munosabatlarda etnik tilidan foydalanilgani uchun shaxs ta’qib qilinmaydi.

Modern paremiological research often utilizes digital linguistic corpora to analyze the frequency, variation, and contextual usage of proverbs over time and across communicative platforms, including traditional media and social networks. Corpus analysis helps trace changes in proverb forms and functions and the occurrence of ellipsis or abbreviation in contemporary usage.

Semantic and Pragmatic Analysis:

The semantic content of proverbs is analyzed to uncover the underlying moral, ethical, or practical meanings. Pragmatic analysis investigates the social functions of proverbs in communication, such as persuasion, instruction, social norm reinforcement, and cultural expression.

Structural and Stylistic Examination:

The study examines linguistic features such as fixed structure, rhythm, brevity, and mnemonic devices that contribute to the memorability and transmission of proverbs [4,12].

These combined methods allow for a holistic understanding of proverbs as paremiological units, integrating linguistic form, meaning, and sociocultural context. The approach also accommodates the study of proverbs' dynamic adaptation in modern communicative environments, especially digital media.

RESULTS. The analysis reveals several core characteristics of proverbs as paremiological units:

Fixedness and Stability: Proverbs exhibit relatively stable lexical and structural forms, transmitted orally across generations and resistant to significant alteration [2,43].

Brevity and Semantic Density: Proverbs are typically concise expressions that pack moral, ethical, or practical truths with semantic depth, often employing metaphorical or figurative language to enhance memorability and impact [5,98] .

Rhythm and Mnemonic Features: Many proverbs have rhythmic or rhyming qualities that facilitate oral transmission and retention [2,45].

Cultural and Communicative Function: Proverbs serve as sociocultural markers reflecting collective values, and are used pragmatically to persuade, instruct, or reinforce social norms [6,82].

Universality and Specificity: While proverbs often reflect specific cultural contexts, many convey universal themes understandable across cultures [7,567] .

In addition, proverbs are a subset within the broader category of paremiological units, which includes sayings, aphorisms, and other fixed expressions, differing mainly in formal properties and social functions.

DISCUSSION. Viewing proverbs as paremiological units allows for a multidisciplinary understanding that integrates linguistic structure, semantic content, and cultural context. This approach validates the proverb not merely as a folkloric curiosity but as a dynamic communicative resource that encodes collective human experience. The stability and fixedness of proverbs contribute to their role as vehicles of tradition and wisdom. Meanwhile, their adaptability - evident in emerging use on social media and digital communication - demonstrates the balance between linguistic preservation and innovation [8,92].

Future research directions include corpus-based frequency analyses across languages and diachronic studies tracing proverb evolution in digital contexts. Such work promises to deepen understanding of how paremiological units sustain cultural continuity while adapting to contemporary communication demands.

CONCLUSION.

The present study reinforces the significance of the proverb as a core paremiological unit characterized by its fixed linguistic form, semantic density, and rich cultural embedding. Proverbs stand out as stable yet adaptable elements of language and folklore that effectively transmit collective wisdom and societal values across generations. By examining proverbs through a multidisciplinary lens involving linguistic, folkloristic, semantic, and pragmatic

analyses, this research elucidates their complex nature as both traditional artifacts and living communicative tools.

Furthermore, the integration of corpus-based data and comparative studies underlines how proverbs maintain their relevance in contemporary communicative contexts, especially within digital media and social networks. This dynamic adaptability highlights the proverb’s enduring function in shaping social interaction and cultural identity in evolving linguistic landscapes.

To sum up, viewing proverbs as paremiological units provides a comprehensive framework for understanding their formal properties, communicative functions, and cultural roles. Future research, particularly involving larger multilingual corpora and computational methods, promises to deepen insights into the diachronic development and cross-cultural transmission of proverbs. Such interdisciplinary endeavors will enrich paremiology and contribute to broader fields such as sociolinguistics, discourse studies, and digital humanities.

REFERENCES:

1. Hrisztalina Hrisztova-Gotthardt & Melita Aleksa Varga (eds.) (2014). Introduction to Paremiology: A Comprehensive Guide to Proverb Studies. De Gruyter Open. 25-28p

2. Permyakov, G.L. (1988). Various aspects of paremiological units. People: International Journal of Social Sciences. 39-46p

3. Whiting, B.J. (1932). Definitions of paremiological units and proverbs. 66p

4. Alidjanova, N.M., & Obrueva, G.K. (2021). Proverbs and sayings as paremiological units. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(06), 12-15p.

5. Mieder, W. (1996). Proverbs: A Handbook. Greenwood Press. 98p

6. Crystal, D. (2011). Internet Linguistics: A Student Guide. Routledge; Whiting, B.J. (1932). Definitions and classifications of paremiological units. 82-88p

7.Davis, E., & Smith, J. (2018). Proverbs in the age of social media: A corpus-based study. International Journal of Corpus Linguistics, 23(4), 567-590p

8.Whiting, B.J. (1932). Definitions and classifications of paremiological units. 92p

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

NEOLOGISMS AND BORROWINGS IN E-COMMERCE TERMINOLOGY: EVIDENCE FROM ENGLISH AND UZBEK

Tukhtasinova Zarina
Doctoral student of Karshi State University
ORCID:0009-0004-8641-1704
E-mail: zarinatuhtasinova7@gmail.com

Annotation: This paper explores the formation and usage of neologisms and lexical borrowings in e-Commerce terminology, focusing on English and Uzbek languages. As e-Commerce continues to grow rapidly, so does the need for new vocabulary to describe novel concepts, services, and technologies. In English, neologisms such as drop-shipping, freemium, and cart abandonment emerge through processes like blending and compounding. In Uzbek, many English terms are directly borrowed or adapted (e.g., chek-aut, seller, delivery), while some efforts have been made to localize equivalents (e.g., to‘lov tizimi, elektron tijorat, xarid savatchasi). This study examines how these terms are formed, their acceptance in society, and their reflection of linguistic and cultural trends. The analysis reveals that while English serves as the primary source of innovation in e-Commerce vocabulary, the Uzbek language is gradually developing localized terminology that reflects its national identity and linguistic evolution. The findings highlight the dynamic interplay between globalization, language policy, and digital communication.

Keywords: Neologisms, Borrowings, e-Commerce terminology, English language, Uzbek language, Language contact, Localization, Digital communication, Terminology development, Linguistic innovation

ELEKTRON TIJORAT TERMINOLOGIYASIDAGI NEOLOGIZMLAR VA QARZ OLISHLAR: INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAN DALILLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektron tijorat sohasida paydo bo‘layotgan neologizmlar va boshqa tillardan, xususan ingliz tilidan o‘zlashtirilayotgan terminlar tahlil qilinadi. Global e-Commerce’ning kengayishi bilan birga yangi atamalarni yaratish zarurati ortib bormoqda. Ingliz tilida drop-shipping, freemium, cart abandonment kabi neologizmlar paydo bo‘lib, ular ko‘pincha qo‘shma yoki yasama so‘zlar orqali shakllanadi. O‘zbek tilida esa bu atamalarning ayrimlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirilmoqda (chek-aut, seller, delivery), ayrimlari esa mahalliylashtirilgan shakllarda qo‘llanmoqda (to‘lov tizimi, elektron tijorat, xarid savatchasi). Maqolada ularning shakllanishi, ijtimoiy qabul qilinishi hamda madaniy va til siyosatiga ta’siri

o‘rganiladi. Tahlil natijalari ingliz tili global innovatsiya manbai bo‘lsa-da, o‘zbek tilida milliy ruh va lingvistik mustaqillikka mos yangi terminlar shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Neologizmlar, Qarzlar, elektron tijorat terminologiyasi, ingliz tili, o‘zbek tili, til aloqasi, mahalliylashtirish, raqamli aloqa, terminologiyani ishlab chiqish, lingvistik innovatsiyalar.

НЕОЛОГИЗМЫ И ЗАИМСТВОВАНИЯ В ТЕРМИНОЛОГИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ: СВИДЕТЕЛЬСТВА АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование и использование неологизмов и лексических заимствований в терминологии электронной коммерции с упором на английский и узбекский языки. Поскольку электронная коммерция продолжает быстро расти, растет и потребность в новом словаре для описания новых концепций, услуг и технологий. В английском языке такие неологизмы, как drop-shipping, freemium и cart abandonment, появляются в результате таких процессов, как смешивание и составление. В узбекском языке многие английские термины напрямую заимствованы или адаптированы (например, chek-aut, seller, delivery), в то время как были предприняты некоторые усилия по локализации эквивалентов (например, to‘lov tizimi, elektron tijorat, xarid savatchasi). В данном исследовании рассматривается, как формируются эти термины, их принятие в обществе и отражение ими языковых и культурных тенденций. Анализ показывает, что в то время как английский язык служит основным источником инноваций в словаре электронной коммерции, узбекский язык постепенно развивает локализованную терминологию, которая отражает его национальную идентичность и языковую эволюцию. Результаты подчеркивают динамическое взаимодействие между глобализацией, языковой политикой и цифровой коммуникацией.

Ключевые слова: Неологизмы, Заимствования, Терминология электронной коммерции, Английский язык, Узбекский язык, Языковой контакт, Локализация, Цифровая коммуникация, Развитие терминологии, Лингвистические инновации.

INTRODUCTION. Nowadays, along with the rapid development of information and communication technologies, major changes are also taking place in the field of e-commerce. As a result of the widespread use of the Internet and digital platforms, the forms of trade have changed radically, as a result of which e-commerce has become an important and integral part of the economy. This process is creating the basis for the enrichment of the economic and technical vocabulary of the Uzbek language, the emergence of new terms - neologisms.

New concepts and terms are constantly emerging in the terminology of e-commerce. At the same time, since English is the main tool in the global economy, many terms and terms are entering the Uzbek language as loans from English. This process is called “language debt” in linguistics. Despite the fact that loanwords play an important role in introducing innovations

into the language and filling terminological gaps, their normative and cultural adaptation should be carefully studied in order to enrich and strengthen the language.

The adaptation and development of the Uzbek language to the modern economic and cultural environment is reflected in the terminology of e-commerce. This is an important part of the process of creating new words in the Uzbek language and their adoption. Therefore, the analysis of neologisms and loanwords from English in e-commerce terminology is relevant not only for linguistics, but also for economic and cultural research.

MATERIALS AND METHODS. Terminological units widely used in the field of e-commerce are studied, and attention is paid to the formation and use of neologisms and loanwords using examples from the English and Uzbek languages. Also, their lexical, phonetic and morphological characteristics, as well as how they adapt in a cultural context, are analyzed. The results of the study serve as a basis for further development of e-commerce terminology and the formation of normative, national approaches in the Uzbek language. Electronic commerce (e-commerce) plays an important role in the modern economy, as it provides the processes of selling and purchasing products and services directly through online platforms. In connection with the development of this area, terminology is also changing significantly, new words and expressions are emerging. This process, in turn, affects the development of linguistics and terminology. The development of terminology and the emergence of new words are very important, especially in areas related to technological innovations. They serve as an important source of information not only for industry specialists, but also for the general public. Also, loanwords and neologisms from English play an important role in the terminology of e-commerce. These loans, as a rule, enter the language as a result of the global influence of English as an international language, and the study of the processes of their adaptation or translation into the Uzbek language is an important indicator of the richness and development of the language.

RESULTS AND DISCUSSION. The term "neologism" originated in the 19th century from French (néologisme) and was originally borrowed from Greek: "neologisme" - "neos" means new, and "logos" means words. Based on the etymological meaning, we can conclude that a neologism is understood as any new word that has appeared in the language. At the same time, neologism refers to various new linguistic units, so this term has significantly expanded its meaning and lost one meaning. All this ultimately led to differences in the interpretation of the concept under consideration. A neologism is a word or expression that has just entered the language. It can arise through the use of existing words in a new sense, through borrowing (borrowing) from different languages, through abbreviations, or through the creation of a completely new word. In the Oxford English Dictionary, we find the following definition of a neologism: "a new word or expression." Note that This definition is the most general. There is also another definition in the dictionary of linguistic terms, in which the author considers a neologism to be a word created to indicate a new subject or express a new concept.

There is an opinion that there are specific lexical neologisms, which should be considered as "any new vocabulary and phraseological units formed at a certain stage of development in the language and denoting new concepts that have arisen as a result of scientific and technical progress, new living conditions, socio-political changes." Most of these neologisms can be considered terms, since they correspond to terms in the following respects: accuracy, absolute and relative uniqueness, simplicity and clarity, independence from context, lack of multiple meanings, expressiveness, and therefore the establishment of synonymous relations with simple non-terminological words based on expressive differences, emotionally and stylistically colored.

Speaking about the English language, it can be noted that this language, like other developed languages, seems to be very dynamic, in a state of constant change. The English language is replenished in various ways, including the creation of new lexical units. Neologisms are new words or meanings that have become entrenched in the language, naming new objects and thoughts. In addition, over the past twenty years, the so-called “neological boom” has occurred in English, which leads to the appearance of many new words every year. In order to acquire a certain status in the language, neologisms must go through the stages of socialization (consolidation in society) and lexicalization (consolidation in the language). At the same time, the process of lexicalization involves both the presence of skills in the use of neologism by native speakers, and the determination of the conditions for its use in various contexts. After passing all the stages of analysis and verification, a lexical unit of one or another structural type is registered in the dictionary of neologisms of the English language.

Neologisms of modern English affect all spheres of life of the English-speaking society, but it can be noted that especially many new words appear in connection with new technologies and the development of the Internet. For example, the word dotcoms appeared to denote companies operating online, which can be written separately - dot coms and hyphenated dot-coms. This neologism is used as a noun and an adjective.

Global globalization has also led to the emergence of various neologisms, including the following: glocalization (creation of goods and services for a globalized market, taking into account the specifics of national culture), globophobia (opponents of globophobia), globophobic (globophobic (related to opponents of globalization), globalization (attitude to a globalized economy) and globalization (globalized economy) globalization).

E-commerce is a rapidly developing field, rich in innovations in technology and business models. Each innovation (technological, logistical, marketing, financial) implies new concepts, and neologisms are needed to express them. These new terms:

* Allow for the accurate naming of new phenomena and processes.

* Ensure effective communication between specialists and participants.

* Reflect rapid changes in the field.

* Serve as a common language in the global e-commerce community (often derived from English).

New terms (neologisms) common in e-commerce:

Microfinancing / Microloans: Kichik miqdordagi kreditlar yoki moliyaviy xizmatlar, odatda an'anaviy bank tizimidan tashqarida joylashgan kichik tadbirkorlar yoki aholining kambag'al qatlamlariga taqdim etiladi.

Online Payment / E-payment: Internet orqali to'lov amalga oshirish. Bunga kredit kartalari, elektron hamyonlar, mobil to'lovlar, P2P pul o'tkazmalari kiradi.

Cryptocurrency: Shifrlash (kriptografiya) texnologiyasi asosida ishlaydigan, markazlashtirilmagan raqamli pul. Bitcoin, Ethereum, Litecoin mashhur misollar.

Fintech: "Financial Technology" Moliyaviy Texnologiyalar so'zining qisqartmasi. Banklar, sug'urta kompaniyalari kabi an'anaviy moliyaviy xizmatlarni texnologiya (dasturiy ta'minot, ilovalar, AI, blokcheyn) orqali takomillashtirish yoki ularga raqobat qilish bilan shug'ullanadigan kompaniyalar va texnologiyalar.

Blockchain: Ma'lumotlarni zanjirsimon bog'langan bloklar shaklida shifrlangan holda saqlaydigan, markazlashtirilmagan va o'zgartirib bo'lmaydigan raqamli daftar (registr) texnologiyasi. Kriptovalyutalarning asosi, lekin elektron tijoratda (masalan, zanjir kafolati, aqlli shartnomalar) keng qo'llanilishi mumkin.

Smart Contract: Oldindan belgilangan shartlar bajarilganda avtomatik ravishda amalga oshiriladigan, blokcheynga o'rnatilgan dasturiy kod (shartnoma). Odam ishtirokisiz ishlaydi.

Omnichannel Commerce: Mijozga oflayn (do'kon) va onlayn (veb-sayt, ilova, ijtimoiy tarmoq) kanallar orasida uzluksiz va yagona tajriba taqdim etish. Fizik va raqamli dunyolarning chambarchas bog'liqligi.

Dropshipping: Savdogar mijozdan buyurtma va to'lovni qabul qiladi, ammo tovarni bevosita ishlab chiqaruvchi yoki ulgurji sotuvchiga jo'natish uchun topshiradi. Savdogar tovarni saqlamaydi yoki jo'natmaydi.

FOMO Commerce - Fear Of Missing Out: Mijozlarni "orqada qolish qo'rquvi" (masalan, cheklangan taklif, vaqtinchalik chegirma, mashhur mahsulot) hissiyotiga asoslangan marketing va savdo strategiyalari.

Click Fraud: Reklama beruvchiga zarar etkazish maqsadida onlayn reklamalarga sun'iy ravishda bosish (klik qilish). Botlar yoki odamlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

E-wallet / Digital Wallet: Onlayn to'lovlarni amalga oshirish va raqamli pullarni saqlash uchun mo'ljallangan ilova yoki xizmat (masalan, PayPal, Click, Payme).

Permission Marketing: Mijozning ochiq roziligi asosida (masalan, yangiliklar obunasiga yozilish, xabardor qilishlarni yoqish) amalga oshiriladigan marketing. Spamga qarshi.

Dropshipping Marketplace: Turli sotuvchilarning mahsulotlarini bitta onlayn platformada (Amazon, eBay, Uzum, Yandex Market) jamlovchi elektron tijorat modeli.

Sources of neologisms:

1. Technological Development: The most powerful source. New technologies (AI, blockchain, big data, IoT) give rise to new concepts and processes that need to be named.

Example: Blockchain, Smart Contract, Cryptocurrency, Chatbot Commerce (Chat Commerce).

2. International Relations and the Influence of the English Language (Shields): In global e-commerce, English is the main means of communication. New concepts often first appear in English and then are absorbed (as a shield) or translated into other languages. Example: Fintech (direct appropriation), online payment (online payment translation), dropshipping (direct appropriation), FOMO Commerce (based on an English phrase).

3. Innovative Business Models and Marketing Methods: New sales, logistics, and customer service methods require new terminology. Example: Dropshipping, Omnichannel Sales, Consent Marketing, FOMO Sales, Marketplace.

4. Reinterpreting Existing Words: The meaning of some words expands or changes in the context of e-commerce. Example: "Cart" is now a virtual shopping cart in an online store. "Cloud" is now associated with the concept of cloud computing.

5. Abbreviations and Acronyms: Abbreviations are widely used to quickly pronounce and write long phrases. Example: Fintech (Financial Technology), B2B (Business-to-Business), B2C (Business-to-Consumer), C2C (Consumer-to-Consumer), AI (Artificial Intelligence).

6. Creative Word Creation: Sometimes completely new, creative words are created, although this is less common. Example: "Blog" (web + log), "Netizen" (internet + citizen) - not directly in the context of e-commerce, but from general internet terminology.

CONCLUSION. The vibrant and dynamic nature of e-commerce makes its terminology constantly updated. Neologisms are a natural result of the language development process, reflecting new ideas, technologies and business trends in this area. They are one of the main tools of effective communication and understanding in the world of e-commerce. Neologisms created in the Uzbek language, while expanding the linguistic wealth in the field of modern technology, commerce and digital services, demonstrate the practical power of the national language. However, for their acceptance by the general public, it is necessary to offer them in understandable, convenient and usable forms, to introduce them to the general public, and to adapt them to existing English terms.

REFERENCES:

1. Crystal, D. (2003). English as a Global Language (2nd ed.). Cambridge University Press.
2. Haugen, E. (1950). The Analysis of Linguistic Borrowing. Language, 26(2), 210–231.
3. Haspelmath, M. (2009). Lexical Borrowing: Concepts and Issues. In M. Haspelmath & U. Tadmor (Eds.), Loanwords in the World’s Languages: A Comparative Handbook (pp. 35–54). De Gruyter Mouton.
4. Yule, G. (2016). The Study of Language (6th ed.). Cambridge University Press.
5. Thomason, S. G., & Kaufman, T. (1988). Language Contact, Creolization, and Genetic Linguistics. University of California Press.

6. Lehrer, A. (2003). Neologisms. In D. Geeraerts (Ed.), Cognitive Linguistics (Vol. 2, pp. 367–382). John Benjamins.

7. Cabré, M. T. (1999). Terminology: Theory, Methods and Applications. John Benjamins Publishing.

8. Menapace, D., & Plank, B. (2018). Neural Machine Translation of Neologisms and Terminological Expressions. Proceedings of the 11th International Conference on Language Resources and Evaluation (LREC).

9. Laudon, K. C., & Traver, C. G. (2020). E-Commerce 2020: Business, Technology and Society (16th ed.). Pearson.

10. Shopify. (2023). eCommerce Glossary. https://www.shopify.com/encyclopedia

11. Amazon Advertising. (2023). Retail Terms and Metrics Glossary. https://advertising.amazon.com/library/glossary

12. Nielsen Norman Group. (2021). UX Terminology: Glossary of Key Terms. https://www.nngroup.com/articles/glossary/

13. Turaev, T. (2020). O‘zbek tilining zamonaviy neologizmlari va ularning morfologik xususiyatlari. Filologiya Masalalari, 4, 71–76.

14. Axmedova, N. (2022). Kompyuter va internet tilshunosligi: o‘zbek tilidagi yangi atamalar. O‘zbek Tili va Adabiyoti, 2, 102–110.

15. Ziyadullaeva, S. (2021). Internet va axborot texnologiyalari leksikasining o‘zbek tiliga ta’siri. Til va Adabiyot Ta’limi, 3(93), 88–94.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

SHART–TO‘SIQSIZ MUNOSABATLI ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLARDA MAZMUNIY SINKRETIZM

Tojiyev Alimjon Muydinovich
Andijon davlat universiteti
Filologiya fanlari nomzodi,dosent
tojiyevolimjon@gmail.com

Annotatsiya: Ergash gapli qo‘shma gaplarning sintaktik-semantik tizimida har bir qo‘shma gapning ichki va tashqi yadro periferiyasidagi shakl va mazmun nomutanosibligi sinkretizmni yuzaga chiqishiga sabab vazifasini o‘taydi. Chunki ergash gapli qo‘shma gaplarda omonimiya, polisemiya, polifunksionallik, transformatsiya, derivatsiya, sinonimiya hodisalari mavjud bo‘lib, bu hodisalar ko‘chish va sinkretizmning turli ko‘rinishlarida voqelanadi.Maqolada shart- to‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gaplarda mazmuniy sinkretizm yoritiladi.

Kalit so‘zlar: bosh gap,shart,to‘siqsiz gap, omonimiya, polisemiya, polifunksionallik, transformatsiya, derivatsiya, sinonimiya, sinkretizm, transformatsiya.

СОДЕРЖАТЕЛЬНЫЙ СИНКРЕТИЗМ В СЛОЖНОПОДЧИНЕННЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЯХ С БЕЗУСЛОВНЫМ ОТНОСИТЕЛЬНЫМ ПОДЛЕЖАЩИМ

Аннотатция: В синтаксико-семантической системе сложноподчинённых предложений несоответствие формы и содержания во внутренней и внешней ядерной периферии каждого сложноподчинённого предложения служит фактором, вызывающим синкретизм. Поскольку в сложноподчинённых предложениях наблюдаются явления омонимии, полисемии, полифункциональности, трансформации, деривации, синонимии, эти явления реализуются в различных формах переноса и синкретизма. В статье освещается смысловой синкретизм в бессоюзных условных сложноподчинённых предложениях.

Ключевые слова: главное предложение, условие, бессоюзное предложение, омонимия, полисемия, полифункциональность, трансформация, деривация, синонимия, синкретизм, трансформация.

CONTENT SYNCRETISM IN COMPOUND SENTENCES WITH AN UNCONDITIONAL RELATIVE SUBJECT

Abstract: In the syntactic-semantic system of complex sentences with subordinate clauses, the mismatch between form and meaning in the internal and external nuclear periphery of each complex sentence serves as a factor leading to syncretism. Since such complex sentences include phenomena like homonymy, polysemy, polyfunctionality, transformation, derivation, and synonymy, these phenomena manifest through various forms of transference and syncretism. The article explores semantic syncretism in non-conjunctive conditional complex sentences.

Keywords: main clause, condition, non-conjunctive sentence, homonymy, polysemy, polyfunctionality, transformation, derivation, synonymy, syncretism, transformation.

KIRISH

Shartlanish munosabati tilshunoslar tomonidan turlicha talqin etiladi. Tilga sistema sifatida qaralar ekan, sistema haqidagi nazariyalarda ham shartlanishga ham alohida o‘ziga xos ta’rif beriladi. To‘siqsizlik ergash gaplar strukturasi ham semantik sintaktik-sistemani tashkil etib, mantiqiy mazmuniy bog‘lanishida namoyon bo‘ladi. Gap shundaki, to‘siqsizlik munosabati ergash gapli qo‘shma gaplarning semantik-sintaktik strukturasida ko‘pma’nolilik xususiyatiga egaligi bilan ham o‘ziga xos sistema ekanligini belgilaydi. Bu sistema esa ergash va bosh tarkibida bir nechta gapning ma’no munosabatlarini shartlanish asosida birlashtira oladi. Shu boisdan ham sintaksis bilan tilshunoslik adabiyotlarida to‘siqsizlik munosabati va uning yuzaga keltiruvchi omillar haqidagi ilmiy fikr, mulohazalar to‘siqsizlik munosabatini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILLI VA METODLAR

V.P.Kuzminning fikricha: “O‘zaro munosabatda bo‘lgan, shartlangan elementlardan tashkil topib, integral xususiyat kasb etgan bir butunlik sistemadir”[1]. E.Benvenist gapning sistema ekanligini quyidagicha ifodalaydi: “Gap so‘zlar vositasida reallashadi. Ammo so‘z gapning oddiy bo‘lagi emas. Gap – bu o‘zining qismlari summasidan kelib chiqmaydigan bir butun bo‘lakdir”[2]. Aytilgan fikrlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, to‘siqsiz ergash gapli struktura ham bir-biri bilan o‘zaro zich bog‘langan bir sistema bo‘lib shartlanish evaziga qurilgan, zidlanuvchi biroq biri-birini taqozo etuvchi semantik-sintaktik munosabatdan tashkil topgan butunlik hisoblanadi. Tilshunos R.Kverek va boshqa tilshunoslar to‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gaplarga quyidagi ta’rifni keltiradilar: “To‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gaplar ikki vaziyat (sharoit) o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ifoda etadi, ya’ni bosh gap mazmunini ergash gap nuqtai nazaridan kutilmagan hisoblanadi”[3]. Shu boisdan aytish mumkinki, to‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gap tarkibi bir-biriga qarama-qarshi turli ma’no munosabatlar majmuidan tashkil topadi. Gap shundaki, to‘siqsizlik sodda gap tuzilishida ham qo‘shma gap tuzilishida ham zidlik asosiga quriladi. Zidlik asosida voqea-hodisa, harakat-holatning yuz berishi gapning semantik-sintaktik voqelanishiga ta’sir etmaydi. Gap predikat va uning argumentlarining o‘zaro munosabati orqali reallashadi. Tilshunos Y.N.Shvedova tahriri ostida nashr etilgan: “Russkaya grammatika”ning ikkinchi jildi (sintaksis)da shunday ta’rif beriladi: “Zidlik ma’nosi

(противительное значение) har qanday to‘siqsizlik munosabatining zaruriy komponenti hisoblanadi. Shu bois to‘siqsizlik gapning sof (собственно уступительное); to‘siqsizlik bo‘lmagan (несобственно уступительная) turlarida to‘siqsiz ergashtiruvchi bog‘lovchili zidlov bog‘lovchilari bilan almashtirish mumkin”[4]. Shunga ko‘ra, sintaksisga bag‘ishlangan manbalarda shart-to‘siqsizlik bilan bog‘lanuvchi konstruksiyali ergash gaplarning murakkab tuzima ekanligi ta’kidlanadi. Yuqorida ko‘rsatilgan manbaning o‘zida-yoq, buning tasdig‘ini ko‘rish mumkin. Unda berilishicha: “To‘siqsizlik sof holda yoki boshqa semantik komponentlar bilan birgalikda namoyon bo‘lishi nuqtai nazardan to‘siqsizlik konstruksiyalari uch toifaga ajratilgan: a) sof to‘siqsizlik munosabatiga ega konstruksiyalar; b) umumlashgan to‘siqsizlik konstruksiyalari (obobshenno-ustupitelniye); d) alternativ-to‘siqsizlik konstruksiyalari (альтернативно-уступительное)[5]. Bu borada ayniqsa N.A.Korbina[6] hamda Y.A.Korneyeva[7] qarashlarida kuzatishimiz mumkin. Har ikki olima ingliz tili materiallarini kuzatish jarayonida shunday fikrga keladilar: “To‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gapning bosh va ergash gaplari orasida kontrast mavjud bo‘lib, bosh gapda ifodalangan voqea-hodisa yoki harakat-holat ergash gapda ifodalangan shartga qaramasdan amalga oshadi va sodir bo‘ladi”[8].

Shuningdek, tilshunos M.Abduvaliyev ingliz va o‘zbek tillaridagi to‘siqsizlik ma’no ifodalovchi ergashgan qo‘shma gaplarni bir maydon sifatida qiyosan o‘rganadi. U shunday xulosa beradi: “To‘siqsizlik konsepti – bu tashqi va ichki dunyodagi narsa yoki hodisalar o‘rtasidagi bir-birlarini taqozo etuvchi va bir-birlari bilan kontrast munosabatda bo‘lgan “holat-konsessiv natija” borasidagi sotsium(lar) ongidagi bilimlar majmui, undagi berilgan ijobiy, salbiy va neytral subyektiv baholardir”[9]. To‘siqsizlik munosabat o‘zida voqea-hodisa, harakat-holat bilan bog‘liq yuz beruvchi sababiy aloqani ifodalab, qarama-qarshi bo‘lgan komponentlarning o‘zaro shartli birlashuvidan tashkil topadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

To‘siqsizlik miqdoriy jihatdan keng “fikrlash, mulohaza” qilishni bildiruvchi, keng diapazonli ko‘p komponentli semantik bog‘lanish haqidagi ma’lumotni beradi. To‘siqsizlik nafaqat shart, shuningdek, sabab, payt, o‘rin, maqsad munosabatlari bilan birga zidlov, qiyoslash, alternativ (muqobil), istak, tasdiq va inkor munosabatlarining kognitiv, pragmatik ma’nolarini implitsit (yashirin) tarzda mujassam etadi. Bu munosabatlar semantik-sintaktik strukturada bir nuqtada kesishadi va sinkretik xususiyatlarini namoyon etadi. “O‘zbek tili grammatikasi” (Sintaksis)da to‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gaplardagi shartlashish haqida shunday yoziladi: “To‘siqsiz ergash gap mazmuni va tuzilishiga ko‘ra shart ergash gapga yaqin bo‘lishi bilan birga, ularning orasida ayrim farqlar mavjud...”[10] Tilshunos H.R.Zokirovaning fikricha: “To‘siqsizlik munosabati birinchi voqea ikkinchi voqeaning bajarilishi uchun shart bo‘lsa-da, bu shart to‘siq bo‘la olmasligini bildiradi. To‘siqsizlik munosabatida voqealar real bo‘ladi, shart ma’nosi esa implitsit tarzda bo‘ladi. Bu paradigma a’zolari o‘zaro ma’nodoshlik munosabatida bo‘ladi, ularni to‘siqsizlik semasi bir uyaga birlashtiradi”[11]. To‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gapning semantik-sintaktik strukturasida bosh gapni ergash gapga birikishida

bog‘lovchilar, ko‘makchi, yuklama va fe’lning funksional shakllari, buyruq istak, bo‘lishli, bo‘lishsizlik shakllari sinkretik ma’no ifodalovchi vazifani bajaradi.

Taniqli tilshunos A.Berdialiyev “O‘zbek tilida omonim modelli ergash gapli qo‘shma gaplar” kitobida ergash gaplarda omonimiyani yuzaga keltiruvchi konstituyentlarni aniqlaydi. Konstituyentlarning analitik va sintetik ergash gapli konstruksiyalarda omonimik xususiyatlarini tahlil etadi. *-mi,, -sa, -sa ham, -sa da, -ganda, -ib, -may, -ar kan, -ki, -sa hamki, -ganda hamki, -sa ham, -gan* bilan konstituyentlar hamda *taqdirda, holda, qancha, har qancha, harchand* hamda *garchi, mabodo, agar, agarchi* bog‘lovchilarining omonimik xususiyatlariga to‘xtaladi”[12]. Omonimik qo‘shimchalarning to‘siqsiz ergash gaplar tarkibida qo‘llanishi turli funksional-semantik konstruksiyalarga ega bo‘lgan sinkretik ma’nolar to‘plamidan iborat bo‘ladi. Aytish mumkinki, to‘plam ergash tarkibida bir-biriga zid, qorishiq ma’nolarni umumlashtiradi. Ana shu jihatdan, to‘siqsiz ergash gap ichki xususiyatiga ko‘ra murakkab semantik-sinkretik konstruksiyaga ega. G‘.Abdurahmonov to‘siqsizlik munosabati turli mazmun ifodalashi haqida qimmatli fikr aytadi: “1) Sof-to‘siqsizlik; 2) to‘siqsiz-payt; 3) to‘siqsiz-shart; 4) umumlashtiruvchi ma’no; 5) qarama-qarshilik barobariga qiyos ottenkasi”[13]. Olimning fikrlarini semantik sinkretizmga qiyoslash mumkin bo‘ladi. Chunki semantik sinkretizmda obyektiv borliqdagi narsa, hodisalar, voqealar, belgi-xususiyatlarni o‘zaro shartli implitsitlikni ko‘rsatuvchi ma’no semasi to‘siqsizlik munosabatini ifodalashda turlicha namoyon bo‘ladi. Bunga qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, to‘siqsizlik munosabatini ifodalovchi semantik-sintaktik strukturada vaziyatni ifodalovchi to‘rt komponentni tashkil etadi. Quyidagicha tasnif etish mumkin: 1) voqealarning yuzaga chiqaruvchi shart komponentlarining ishtiroki va to‘siqsiz natijani ifodalashi, harakatning yuzaga chiqishida yashirin(shart) sabab ma’nosida ishtirok etishi; 2) to‘siqsizlik munosabatida taxminiy sabab-natija ifodasini berish; 3) shart-to‘siqsizlik munosabatini amaliy jihatdan ustunlik sabablarini yuzaga chiqarish; 4) real voqealarda to‘siqlik ifodasi mavjud bo‘lishiga qaramay amaliy jihatdan qarama-qarshilikda to‘siqsiz natijani anglatish. To‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gaplar mazmunan zidlov munosabatlari ifodalangan bog‘langan qo‘shma gapga o‘xshaganligi uchun komponentlarni biriktiruvchi -sa ham yordamchisidan tashqari, bog‘langan qo‘shma gap komponentlarini biriktiruvchi **ammo, lekin, biroq** bog‘lovchilari ishlatiladi[14].

Masalan, *Garchi menga yangi ko‘ylak olib bermasa ham, (ammo) to‘yga borish men uchun baxt, quvonch edi.* (N.Ismoilov) *Hayot jim o‘tirgan bo‘lsa ham,* (biroq) *ko‘ngli jim emasdi, u tilga kirgan, rozini boshlagan edi.* (M.Ismoiliy) *Janob amirul umaro, jiyanimiz asli dehqon bo‘lsa ham, lekin tabiatida jangovarlik bor.* (P.Qodirov) *Ba’zan Hamroqul dasturxonchining nog‘orasiga o‘ynab tursa ham, ammo ko‘nglida kiri yo‘q.* (N.Boqiy) Birinchi gapda to‘siqsizlik belgisini quyidagi vaziyatda ko‘rish mumkin. Voqea-hodisaning borish jarayonida to‘siqlik kutilmagan sabab orqali subyektning ijobiy tomoniga o‘zgaradi. Gapda *nega ko‘ylak olib bermadi* presuppozitsiyasi (tagbilimi) mavjud. Chunki to‘siqsizlik bir qator sabab yashirin munosabatni ifodalaydi. Sabab olib bermasa, natija bormasligi kerak. Biroq birinchi voqeaning yuz berishi ikkinchi voqeani yuz berishiga monelik qilmaydi. Ya’ni, ko‘ylaksiz ham to‘yga

boradi. To‘siqsizlik esa ikki munosabatning shartli voqelanishida aks etadi. Ikkinchi gapda subyektdagi xotirjamligiga sababning mavjudligi uning natijasi roziligi fonida reallashadi. Bu presuppozitsiya yashirin muhabbat semasida umumlashadi. Demak, subyektning jimligi ikkinchi voqeadagi rozilik semasida namoyon bo‘ladi. Chunki subyektning xohish, istak, orzusi har ikki voqea bilan bog‘liq shartli to‘siqsizlikni yuzaga keltiradi. To‘siqsizlik keng ma’noda kognitiv, pragmatik shartli munosabatlarning birlashuvini tashkil etadi. Uchinchi gapda obyektiv olamda mavjud subyektning harakat, holatini to‘siqsiz bir vaqtda yuz berish mumkin bo‘lgan shart, payt, sabab, zidlash, to‘siqsizlik ma’nolari bir nuqtada kesishuvini bildiradi. Subyekt dehqon, bu dehqonlik esa bir paytda uning jangovarlik qobiliyatiga monelik qilmaydi. Shu bilan birga dehqonlik kasb-kori lashkar bo‘lmasligiga sabab bo‘la olmaydi. Unda jangovarlik ruhi bor. Demak, gapning denotativ ma’nosi semantik-sintaktik strukturada signifikativ ma’no bilan kesishuvi natijasida kognitiv, pragmatik ma’nolarga o‘zgaradi. Bu esa gapning mantiqiy-semantik strukturasida murakkab tizimni tashkil etgan semantik sinkretizmda aks etadi. Keltirilgan uchinchi gapda to‘siqsizlik bosh va ergash gapdagi voqea-hodisaning bir-biriga zidlanishi bir makon va zamon yuz beradi hamda sabab va oqibatning voqelanishiga ta’sir etmaydi, mantiqiy shartlanish gapning semantik strukturasida aks etadi. Demak, to‘siqsizlik munosabati shartlanishning kognitiv, pragmatik ma’nolarining birligidan iborat hisoblanadi. To‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gapning semantik-sintaktik strukturasi mantiqiy sinkretizmni o‘ziga birlashtiradi. N.Mahmudov to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Bunday shart munosabati bilvosita emas, balki bavosita ishtirok etadi, boshqacha qilib aytganda, shart munosabati ayni gapda tagbilim (presuppozitsiya) sifatida mavjud bo‘ladi. Agar tagbilim sifatida shart munosabati ishtirok etmas ekan, to‘siqlik munosabatining yuzaga kelishi mumkin emas”[15]. Albatta, til materiallarining semantik-sintaktik strukturasida tasdiq va inkorsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu tizim esa, albatta, to‘siqsiz ergash gapda polifunksionallikni o‘zida birlashtiradi va mantiqiy sinkretik ifodani ro‘yobga chiqaradi.

Professor A.Nurmonovning fikricha: “...Mol qanchalik ko‘p bo‘lmasin, davr qanchalik notinch bo‘lmasin konstruksiyalari simmetrik munosabat taqozo etganidek, mol ko‘p bo‘lsin, davr notinch bo‘lsin konstruksiyalariga qarama-qarshi qo‘yilayotgani yo‘q, ularning korrelyativ a’zosi emas. Demak, u o‘zining birlamchi ma’nosidan boshqa ma’noda qo‘llanilyapti. Mazmunan to‘siqsiz konstruksiyalar oppozitsiyasidagi tasdiq forma bilan bir paradigmani hosil qiladi va u bilan o‘zaro erkin almashinish distributsiyasi munosabatida bo‘ladi”[16]. Bu tipdagi konstruksiyalar murakkab semantik munosabatini yuzaga keltirib to‘liqsizlik ikki yoki undan ortiq payt, maqsad, sabab, oqibat munosabatlarini birlashtiruvchi shartli vaziyat haqidagi ifodani beradi. Masalan, *Hamidabonuni ko‘rish uchun qo‘shin tortib dag‘dag‘a qilib borsa (ham), Hindol mirzo bilan urush qiladimi? Buni o‘ylashni o‘zi kulgili.* (P.Qodirov) *Bayramxon va La’l Chand markazdan o‘tib kelgan yovning yo‘lini to‘sgan bo‘lsa ham, ikki qanotdan yorib kirgan boshqa yuzlab otliqlar Humoyunga qarab yopirilib kelmoqda edi.* (P.Qodirov) *Xazar bo‘yida tayyorlanayotgan bu harbiy yurish qancha sir tutilsa ham, xufiyalar uning daragini allaqachon Komron bilan Askariyning qulog‘iga yetkazgan edilar.* (P.Qodirov). *Nizom o‘zining*

Hamidabonuga yetishishiga ishonmasa ham, lekin undan umidini uzolmaydi, ayniqsa, uni podsho haramiga ravo ko‘rmaydi. (P.Qodirov) *Hayronman, burungidaqa sho‘x, o‘ynoqi ashulalarni aytmaydi, dutoriga quloq solsangiz o‘zi yig‘layaptimi deysiz.* (M.Ismoiliy) *Mabodo o‘zim bora olmaganimda ham, buvimga aytib, otamni yubortiraman.* (M.Ismoiliy) Shunday qilib, tasdiq-inkor munosabati ham to‘siqsizlik belgisini yuzaga chiqaruvchi sabab va natija munosabatlari bilan bog‘liq murakkab semantik-sintaktik strukturani tashkil etadi. Albatta, to‘siqsizlik munosabatida tasdiq va inkor ma’nosi imlitsit tarzda voqelanadi. Bosh va ergash gaplarni bog‘lovchi elementlarning omonimik va polifunksionallik tabiati tasdiq-inkorning sabab va natijali munosabatining sinkretik ko‘rinishida aks ettiradi. Tasdiq va inkor, albatta, sabab-natija munosabati asosiga quriladi va mantiqiy tafakkur natijasida shartlanadi, to‘siqsizlikni namoyon qiladi. 1 va 2 gapda -sa (ham) komponentining bosh va ergash gapning o‘zaro sabab-natija asosiga birlashtiradi. Chunki biror voqea sabab va natijasiz yuzaga kelmaydi. Demak, inkor ham biror sababning natijasidir.1-gapdagi birinchi vaziyat mantiqan yuzaga chiqmaydigan voqea haqidagi tasavvurni uyg‘otishga sabab hisoblanadi. Chunki birinchi vaziyat bilan ikkinchi vaziyatda zidlanish mavjud. Biroq har ikki vaziyatning ziddiyatli voqelanishida ularning chegarasini belgilaydigan to‘siq mavjud emas. To‘siqsizlik esa shartlanish munosabati asosiga quriladi va kognitiv, pragmatik ma’nolarda aks etadi. Ikkinchi vaziyat birinchi vaziyatni tasdiqlaydi. Ya’ni, subyekt harakatlanishga qodir emas.

XULOSA

To‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gaplarda komponentlaridagi mazmun bir-biriga zid, bir-biriga to‘siq bo‘lgani uchun, u gaplar ko‘pincha inkor formada keladi[17].

A sinkretik maydon B

Pragmatik nuqtai nazardan ergash gapda so‘zlovchining potensial imkoniyati yashirin ifodaga ega bo‘ladi. Chunki so‘zlovchi suhbatdoshining tinglash qobiliyati, mantiqiy tafakkuri, mental xususiyati, maqsadi va boshqa tomonlariga e’tibor qaratishi lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кобрина Н.А., Корнеева Е.А. и др. Грамматика английского языка: Морфология. Синтаксис. – СПб.: Союз, 1999. – С. 198.

2. Kobrina N.A., Korneeva E.A. An outline of modern English syntax. – M.: Higher School Publishing House, 1965. – P. 168.

3. Абдувалиев М.А. Тўсиқсизлик концепти номинатив майдонини ташкиловчи бирликларнинг когнитив, лингвокультурологик ва линвограмматик

хусусиятлари(инглиз, ўзбек ва бошқа тиллар мисолида): Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. – Андижон, 2023. – Б. 250. (289 б.)

4. Абдураҳмонов Ғ. (таҳ.остида) Ўзбек тили грамматикаси (Синтаксис). 2 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 447.

5. Зокирова Ҳ.Р. Ўзбек тилида гипотактик қурилмалар. Монография. – Андижон: Ҳаёт нашри, 2020. – Б. 129-130.

6. Бердиалиев А. Ўзбек тилида омоним моделли эргаш гапли қўшма гаплар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 77-96.

7. Абдураҳмонов Ғ. (таҳ.остида). Ҳозирги ўзбек адабий тили (Синтаксис). 2 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 450-451.

8. Абдураҳмонов А. (таҳ.остида). Ўзбек тили грамматикаси (Синтаксис). 2 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1976. – 560 б.

9. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (Синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 447.

10. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 160-161.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

KINOMATNLARDA PRAGMATIK ADAPTATSIYANING O‘ZIGA XOS DOLZARBLIGI

Qodirjonov Xasanboy Qodirjon o‘g‘li
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat
Chet tillari instituti tayanch-doktoranti
Email: hasanboy100193@gmail.com
Tel: +998 99 394 97 96

Annotatsiya: *Ushbu maqolada globalizatsiya sharoitida kinofilm tarjimalarida pragmatic adaptatsiyaning ahamiyati tahlil qilinadi. Mualliflar tarjimani nafaqat tilshunoslik jarayoni, balki madaniyatlararo vositachilik sifatida ko‘rib chiqib, Newmark, Nida va Venuti nazariyalari asosida kinomatn tarjimasida lingvistik, madaniy va emotsional omillarni qanday moslashtirish kerakligini yoritadi. Maqolada o‘zbek kinolaridan namunalar keltirilib, turli adaptatsiya strategiyalari taqqoslab tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *tarjima, pragmatic adaptatsiya, kinomatn, madaniy adaptatsiya, lingvistik moslashuv, emotsional konnotatsiya, madaniyatlararo vositachilik*

THE UNIQUE RELEVANCE OF PRAGMATIC ADAPTATION IN FILM TEXTS

Annotation: *This article examines the importance of pragmatic adaptation in film translation within the context of globalization. The authors regard translation not only as a linguistic process but also as a form of intercultural mediation. Drawing on the theories of Newmark, Nida, and Venuti, the article highlights how linguistic, cultural, and emotional elements should be adapted in the translation of film texts. Examples from Uzbek films are presented, with various adaptation strategies analyzed and compared.*

Keywords: *translation, pragmatic adaptation, film text, cultural adaptation, linguistic adjustment, emotional connotation, intercultural mediation*

ОСОБАЯ АКТУАЛЬНОСТЬ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ В КИНЕМАТОГРАФИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ

Аннотация: *В данной статье рассматривается значимость прагматической адаптации при переводе кинофильмов в условиях глобализации. Авторы рассматривают перевод не только как лингвистический процесс, но и как межкультурное посредничество. На основе теорий Ньюмарка, Ниды и Венути раскрываются способы адаптации лингвистических, культурных и эмоциональных компонентов в переводе*

кинематографических текстов. В статье приводятся примеры из узбекских фильмов, проводится сравнительный анализ различных стратегий адаптации.

Ключевые слова: *перевод, прагматическая адаптация, кинематографический текст, культурная адаптация, лингвистическая настройка, эмоциональная коннотация, межкультурное посредничество*

KIRISH

Globalizatsiya jarayonida turli madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi, tarjima faoliyatini faqat til o‘zgarishi emas, balki madaniyatlararo vositachilik sifatida qayta ko‘rib chiqishni taqozo qilmoqda[1]. Ayniqsa, kinofilm tarjimalarida nafaqat semantik ma’no, balki emotsional, madaniy va kommunikativ konnotatsiyalarni to‘g‘ri yetkazish dolzarb masalalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, **pragmatik adaptatsiya** tushunchasi kinofilmlar tarjimasining metodologik asosi sifatida e’tirof etilmoqda.

METODOLOGIYA

Maqolada deskriptiv va taqqosloviy-tahliliy usullardan foydalanilgan. O‘zbek va xorijiy kinofilmlarning tarjima namunalariga pragmatik yondashuv asosida baho berildi. Newmark (1981), Nida (1964) va Venuti (1995) tomonidan ilgari surilgan tarjima nazariyalariga tayangan holda, tarjima strategiyalarining amaliy ko‘rinishlari o‘rganildi.

NATIJALAR

Pragmatik adaptatsiya nazariy asoslari

P. Newmark tarjima jarayonini ikki asosiy yondashuvga ajratadi: kommunikativ tarjima va semantik tarjima[2]. Kinofilm tarjimalarida aynan kommunikativ tarjima — ya’ni, maqsadli auditoriya madaniyati va tushunchalariga moslashtirish — afzal sanaladi. Nida esa tarjimada “dynamic equivalence” konsepsiyasini ilgari surib, tarjimaning samaradorligi matnni emas, balki effektni yetkazishda deb biladi[3]. Venuti esa tarjimada “domestication” va “foreignization” strategiyalarini ajratib[4], madaniyatlararo balansni ta’minlashga urg‘u beradi.

Lingvistik adaptatsiya

Bu adaptatsiya turi grammatik, leksik va fonetik moslikni ta’minlaydi[5]. Masalan, “Shum bola” filmidagi “Opajon, men pushaymonman” iborasi ingliz tiliga “Dear sister, I regret it” emas, balki “Dear sister, I do regret it… but I still wanna play!” tarzida tarjima qilinib, bolaning soddaligi saqlanadi.

Madaniy adaptatsiya

Madaniy realiyalar, urf-odatlar, milliy taomlar kabi tushunchalarni tarjima qilishda ko‘pincha izohli[6] yoki o‘xshash madaniy ekvivalentga tayaniladi. Masalan, “sumalak” atamasining “sweet wheat pudding” tarzida tarjima qilinishi yetarli bo‘lmasligi mumkin, shuning uchun izoh bilan:

“The traditional process of preparing Sumalak, a ceremonial dish made from sprouted wheat, usually during Navruz.”

Emotsional va kontekstual adaptatsiya

Hazil, kinoya, hissiy bo‘yoqli iboralar ayniqsa kinomatnda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “Yuragimni yondirib yubordi, aka!” jumlasi “That girl left my heart burning in flames, brother!” tarzida, ya’ni dramatik kuchi va ijtimoiy murojaatni saqlagan holda adaptatsiya qilinadi. Emotsional hamda kontekstual adaptatsiya orqali tomoshabinning hissiy aloqasi mustahkamlanadi[7].

Lahjalar va shevalarni adaptatsiya qilish

O‘zbek kinolaridagi Buxoro, Farg‘ona, Qashqadaryo lahjalari ko‘pincha qahramonlarning madaniy portretini ifodalaydi. “Kelvordi-ye” singari iboralarni ingliz tilida janubiy aksent bilan: “Didja see ‘im, bro?” tarzida berish mumkin.

MUHOKAMA

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, faqat literal tarjima usuli orqali filmning asl dramatik, madaniy va emotsional konteksti yo‘qoladi. “I’ll be back” tarzida tarjima qilingan jumlalar, aslida “Men borib kelaman” shaklida ma’naviy mas’uliyatni bildirishi mumkin. Shu bois tarjimada kontekstual adaptatsiya zarur. Bunday yondashuv tomoshabinning filmga bo‘lgan hissiy aloqasini kuchaytiradi.

Shuningdek, pragmatik adaptatsiya tarjimonning madaniy tafakkuri, ijtimoiy kontekstni anglash darajasi bilan bevosita bog‘liq. Shuning uchun tarjimon oddiy tilshunos emas, balki **madaniyatlararo vositachi** bo‘lishi kerak. Tarjimon madaniyatlararo vositachi sifatida faqat til bilimiga emas, balki madaniy ongga ham ega bo‘lishi kerak[8].

XULOSA

Kinofilm tarjimasida pragmatik adaptatsiya — bu matnni lingvistik, madaniy va emotsional jihatdan qayta kodlash orqali filmning estetik va semantik mazmunini saqlab qolish usulidir. U quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- Lingvistik adaptatsiya – til birliklarini tabiiy muqobillarga moslashtirish;
- Madaniy adaptatsiya – milliy realiyalarni izoh yoki kontekst orqali tushuntirish;
- Emotsional adaptatsiya – hissiy ohang, kinoya va hazillarni tenglashtirish.

Ushbu metodologiya asosida tarjima qilingan kinofilmlar tomoshabinga faqat syujet emas, balki xalqning ruhiyati, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini ham yetkazadi. Shunday ekan, har bir kino tarjimasi - bu mustaqil ijodiy yondashuv va madaniy almashinuvning ko‘zgusidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bassnett, S. (2002). *Translation Studies* (3rd ed.). London: Routledge.
2. Newmark, P. (1981). *Approaches to Translation*. Oxford: Pergamon Press.
3. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating*. Leiden: E.J. Brill.
4. Venuti, L. (1995). *The Translator’s Invisibility: A History of Translation*. London: Routledge.
5. Baker, M. (1992). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge.
6. Hatim, B., & Mason, I. (1997). *The Translator as Communicator*. London: Routledge.

7. Jakobson, R. (1959). On Linguistic Aspects of Translation. In: Brower, R. A. (Ed.), *On Translation*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

8. Kussmaul, P. (1995). *Training the Translator*. Amsterdam: John Benjamins.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ROMAN- MA’NAVIYAT, TAFAKKUR VA JAMIYAT TARAQQIYOTI VOSITASI

Xajiyeva Dilfuza Adambayevna
Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya Ushbu maqolada roman janri va uning o‘ziga xos ayrim jihatlari to‘g‘risida fikr yuritiladi. Roman janrining tarixiy taraqqiyoti va mustaqillik davri romanchiligining alohidalik jihatlariga e’tibor qaratiladi. Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan romanlarga murojaat etildi. Roman janri to‘g‘risida adabiyotshunos olimlarning nazariy xulosalari maqolada keltirildi.

Kalit so‘zlar: romah, janr, davr, taraqqiyot, adabiyot, jamiyat, tafakkur, axloq.

РОМАН — ЭТО ИНСТРУМЕНТ ДУХОВНОСТИ, МЫСЛИ И СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ.

Аннотация В данной статье рассматривается жанр романа и некоторые его специфические аспекты. Уделяется внимание историческому развитию жанра романа и отличительным чертам романа периода независимости. Упоминаются романы, имевшие особое значение в узбекском романе периода независимости. В статье представлены теоретические выводы литературоведов о жанре романа.

Ключевые слова: роман, жанр, эпоха, развитие, литература, общество, мысль, мораль.

THE NOVEL IS A TOOL FOR SPIRITUALITY, THOUGHT, AND SOCIAL DEVELOPMENT

Abstract This article discusses the novel genre and some of its specific aspects. Attention is paid to the historical development of the novel genre and the distinctive features of the novel of the period of independence. Reference is made to novels that were of particular importance in the Uzbek novel of the period of independence. The article presents theoretical conclusions of literary scholars about the novel genre.

Keywords: novel, genre, era, development, literature, society, thought, morality.

KIRISH

Hayot, davr va zamondagi evrilishlar roman taraqqiyotini belgilaydi. Chunki evrilishlar keng ko‘lamda romanda o‘z ifodasini topadi. O‘z navbatida roman ham davr va zamonning

o‘zgarimiga katta ta’sir qiladi. Sababi u odamlar tafakkuri, ma’naviyati, axloqining o‘zgarimiga ko‘mak beradi. Ma’lumki, odamning tafakkurida o‘zgarish bo‘lmas ekan, biror jabhada siljish bo‘lishi dushvor. Negaki inson har bir narsani tafakkur orqali amalga oshiradi. Bu borada A.Navoiy shunday deydi: «Har ishniki qilmish odamzod, Tafakkur birla bilmish odamzod».[4] Bundan ko‘rinadiki, roman, ya’ni ijod jarayoni hayot, davr bilan chambarchas bog‘liq. Aslida, roman nafaqat hayotni aks ettiradi, balki uni tushunish, anglash va baholash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. A.Navoiyning tafakkur haqidagi fikrlari ayni muddao — tafakkur orqali inson o‘z dunyoqarashini, qadriyatlarini o‘zgartiradi, bu esa jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

M.Baxtin, J.Bo’ronova, N.V. Vladimirova, G.T.Garipova, A.N.Davshan, Sh.G’.Davronova, Sh.X.Doniyarova, N.Dulova, U.Normatov, M.Omanova, Z.J.Pardaeva, M.M.Pirnazarova, G.Yu.Sattorova, M.O.Sharafutdinova, U.Qosimov, I.A.Yakubov kabi bir qator olimlar tomonidan roman janri va uning xusuiyatlari, takomillashuviga doir ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligida A.Rahimovning «O‘zbek romani poetikasi» (1993), D.To‘rayevning «Hozirgi o‘zbek romanlarda tafakkur va mahorat muammosi (1960-80 yillar)» (1994), H.Karimovning «Hozirgi o‘zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi: 1970-80 yillar» (1994), U. Qosimovning “Adabiy-estetik tafakkur tadriji: ananaviylik, vorisiylik, o‘ziga xoslik (Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va Tog‘ay Murod ijodi misolida)” kabi doktorlik dissertatsiyalari hamda A.Xolmurodovning «Odil Yoqubov romanlarida psixologizm» (1991), I.Samandarovning «O‘zbek tarixiy romanlarida insoniy munosabatlarning badiiy tasviri» (M.Do‘st, G‘.Xotamov, O.Otaxon asarlari asosida, 1994), X.Lutfiddinovaning «Yozuvchining estetik ideali va ayollar obrazi» (1994), O.Iskandarovaning “Diyonat” va “Qiyomat” romanlarida insoniy munosabatlarning badiiy tasviri» (1995), M.Olimovning «Hozirgi o‘zbek adabiyotida pafos muammosi» (1995), A.Boboniyozovning “Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanida tasviriy vositalar va til badiiyati” (1995), Z.Mahmudovaning «Abdulla Qodiriy «O‘tkan kunlar» romanining milliy o‘ziga xosligi» (1996), T. Qurbonovning «Odil Yoqubovning portret yaratish mahorati» (1997), U.Musaevaning «Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarining syujet va konflikt xususiyatlari» (1997), Z.Jalmatovaning “Urbanistik asarlardagi mushtaraklik va o‘ziga xoslik (P.Qodirovning «Olmos kamar” asarining qiyosiy tahlili misolida)” (1999), A.Qahramonovning «Mehrobdan chayon» romani poetikasi” (2000), Z.Rahimovning «Odil Yoqubovning «Ko‘hna dunyo” romani poetikasi” (2000), N.Soatovaning «Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanida epik tasvir ananalari» (2001), Sh.Isayevaning «O‘zbek tarixiy romanlarida xarakter ruhiyatini tasvirlash usullari» (2001), X.Hamroqulovaning «Abdulla Qahhorning «Sarob» romanida shaxs fojiasi talqini» (2004) kabi nomzodlik dissertatsiyalarida istiqlolgacha bo‘lgan davrda yaratilgan asarlar bilan bog‘liq muayyan masalalar o‘rganilganilgan.[3]

Ushbu maqolada nazariy, qiyosiy va estetik tahlildan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Zamonaviy romanning janr xususiyatlarida 21-asrning ba'zi rejalari tasvirlangan. Uni o‘tgan davrlarning ushbu janr xilma-xilligidan ajratib turuvchi asosiy qarama-qarshiliklar, lekin ayni paytda roman janr sifatida o‘ziga xos tipologik tasniflash xususiyatlariga ega ekanligini ishonchli isbotlash imkonini beradi. Tadqiqotchi G.K. Kosikov "Roman nazariyasi sari" maqolasida to'g'ri ta'kidlaydi: "Zamonaviy tadqiqotchilarning sa'y-harakatlari nafaqat uning mavjudligining barcha bosqichlarida romanning ichki birligini aniqlashga qaratilgan.[2]

Roman nafaqat muallifning, balki butun jamiyatning fikriy va ma’naviy darajasining ko‘zgusidir. Har bir davrda yozilgan roman o‘sha davr ruhini, muammolarini, orzu va ideallarini o‘zida aks ettiradi. Shu bois roman hayotdan oziqlanadi, lekin o‘z navbatida hayotni o‘zgartirishga qodir kuch hamdir.

Ular bir-birini boyitadi, rivojlantiradi va to‘g‘ri yo‘naltirish olimga, hayotni hamda odamlar axloqini o‘z o‘zanidan chiqib ketmaslikka undaydi. Yusuf Xos Hojib o‘z dostonini «Qutadg‘u bilig», ya’ni «Saodatga yetaklovchi bilim» deb ataganida bu uyg‘unlikni nazarda tutgan bo‘lsa ajab emas. Mazkur fikrning xaqiqat ekanligini bilish uchun romanlar evolyusiyasiga nazar tashlash lozim.

Yigirmanchi yillarda hayotda tuzum o‘zgarishi bilan o‘tmishning har jabhasini – qadriyatlarini, urf-odatlarini, ma’rifatini, dinini, davlat tuzumini qoralash tendensiyasi boshlandi. Deyarli yoppasiga unga moyillik bildirildi. Shunday qilish to‘g‘ri bo‘lmay, hayotiy mantiqqa zid edi. Ma’lumki, jahon sivilizatsiyasi g‘arbdan emas, bizdan, o‘rni sharqdan boshlangan. Qadimdan ma’naviyatimiz, ma’rifatimiz, davlat tuzumimiz jahonda tan olingan bo‘lib, ko‘p Yevropa davlatlari bilan savdo va madaniy aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. Tafakkuri yuksak, qalbi xalqi, vataniga mehr bilan yo‘g‘rilgan shaxslar buni yaxshi anglardi. Abdulla Qodiriyning ikki – «O‘tgan kunlar», «Mehrobdan chayon» romanlarida bu holni yorqin yoritgan. Insoniyatning ma’naviyati faqat ko‘p narsa bilishi bilan o‘lchanmaydi, balki uning qalb-qo‘riga, shuuriga singib ketib, u nur taratishi bilan belgilanadi. Uning a’moli shuki madaniyati, har bir narsada adolatli va halol bo‘lishda, har bir odamni inson o‘rnida ko‘rishda, ularga bo‘lgan romanlarda shu narsa o‘z aksini topgan. Eng muhimi uning ildizi ilmda, ma’naviyatda ekanligi ochib berilgan. Shuningdek, ma’naviyatsizlik yulida qilingan sa’y-harakati qay jabhada bo‘lmasin oqibati tanazzul, fojia ekanligi nihoyatda hayotiy mantiq asosida ishonarli ko‘rsatilganligi, shundan bu romanlar ko‘plab asarlarga andoza rolini o‘tadi, mahorat yutuqlarini egallashga ko‘mak berdi. Demak, romanlar adabiyot taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi.

O‘ttizinchi yillarda hayotda birinchi jamoa xujaligiga jalb qilish harakati boshlandi go‘yo insonning hayotini faqat jamoa xo‘jaligi belgilaydi, baxt-saodatga erishtiradi. Yakka xo‘jalikda qolgan shaxsning hayoti tanazzulga yuz tutadi degan qarash avj oldi. Adabiyot bu asossiz fikrning to‘g‘riligi va asosliligini ko‘rsatishga kirishdi. Bu harakat va qarashlar ham hayotiy mantiqqa mutlaqo zid edi. Shunday ekanligini va sotsializmning illatlarini, ya’ni barchaning tenglashtirilishi, odamlarning erkidan mahrum bo‘lishi, mutelik, qaramlik ruhini yuzaga

keltirishni insonlar faoliyatida, voqealar olamida Abdulla Qodiriy o‘zining «Obid ketmon» asarida asosli ko‘rsatadi, o‘z davriga labbay deb javob bergan asarlar o‘z umrini yashab tugatdi, roman tafakkuriga ega bo‘lgan bu asar yashab kelyapti. Chunki uning zamiriga singdirilgan fikrlar bugunda va undan keyin ham insoniyatga asqotadi.

Urush davrida yaratilgan asarlarda ham hayot haqiqati o‘zining haqqoniy tasvirini topmadi. Urush manzarasi jonlashtirildi. Dushman – nemis obrazini yaratishda ham sotsialistik jamiyat mafkurasi nuqtai nazaridan qaralib, ular sodda va go‘l qilib tasvirlandiki, bu mutlaqo hayotiy haqiqatga zid edi. Shundan bu kabi asarlar ham o‘z umrini o‘tab buldi. Lekin bir-ikkita bo‘lsa ham roman taraqqiyotini belgilaydigan asarlar vujudga keldi. Bular Oybekning «Qutlug‘ qon» va «Navoiy» romanlaridir. Bular tarixiy mavzuda bulishiga qaramay, zamiriga singdirilgan, gumanizm, o‘z davrining haqiqiy manzarasi, ruhi o‘z ifodasini topganligi, shuningdek, betakror obrazlarga egaligi bilan har davrda zamonaviydir.

Ikkinchi jahon urushidan keyin yuzaga kelgan romanlarda hayotiy mantiqqa zid bo‘lgan konfliktsizlik nazariyasi tufayli hayotni bezab-bejab tasvirlash tamoyili yuzaga keldi. Badiiy ijod talabiga zid bo‘lgan bunday tasvirni adabiyotdagi romantik tafakkur deb oqlashga urinish bo‘ldi.

XULOSA

Roman janr sifatida taraqqiy etib borar ekan, demakki undagi barcha unsurlar, yani komponentlar o‘zgarib turadi. Fikr tug‘ilishi tabiiy: yangi yaratilgan roman o‘zidan oldingi yaratilgan romanlardan tadrijan farqlanadimi? Har bir romannavis badiiy tafakkurida tug‘ilgan g‘oya yetilib konseptuallik maqomiga erishgan muammoni yozuvchining badiiy mahorat imkoniyatlari ochib beradi. Asar badiiy takomilga erishmaguncha yozuvchi konseptual g‘oyasi ochilmaydi[45]. Jamiyat taraqqiyotining har bir davrida roman janri mavzu jihatidan yangilanadi. «Janr o‘z davriga va o‘z yozuvchisiga monand bo‘ladi: o‘zi mansub davrni nafaqat tasvirlaydi, balki unga aniqlik ham kiritadi», - deb yozadi adabiyotshunos N.Dulova.[1] Zero, bu janr orqali jamiyatning muammolari, orzu-istaklarini keng hajmda tasvirlash imkoniyati mavjud. Shu bois roman jamiyat taraqqiyotining o‘ziga xos vositalaridan biridir desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dulova N. Sudьba janra v literaturnom protsesse. Izd-vo Irkutskogo universiteta, 1996. – 96 s. (Dulova N. The fate of January in the literary process. Publishing House of Irkutsk University, 1996. - 96 p.)
2. Kosikov G.K. Roman nazariyasi tomon (O'rta asr romani va zamonaviy roman) // Muammolar o'rta asr adabiyotida janr / O'rta asrlar, Uyg'onish va barokko adabiyoti, masala.Men, M.: meros,1994. – bet. 45-87.
3. Pardaeva Z.J. Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligi: badiiy va ilmiy tafakkur masalalari//FarDU. Ilmiy xabarlar.2023. 3-son. B.60-69.
4. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi, 2008. B.172.

[45] Z.J.Pardaeva. Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligi: badiiy va ilmiy tafakkur masalalari//FarDU. Ilmiy xabarlar.2023. 3-son. B.60-69

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

O‘ZBEK VA INGLIZ TILI BADIIY VA PUBLITSISTIK USLUBINING UMUMIY TAVSIFI

Xasanova Aqida Raximjon qizi
Assistant, University of Economics and Pedagogy, NOTM, Andijon
+99897 978 11 12
Aqidaxasanova093@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi badiiy hamda publitsistik uslublarning umumiy xususiyatlari statistik (stilometrik) tahlil asosida yoritib berdik. Shuningdek, stilometriya — matn uslubini statistik usulda o‘rganish yo‘nalishi bo‘lib, muallif, janr yoki davrga xos uslubiy xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Tahlilimiz jarayonida so‘z va gap uzunligi, leksik xilma-xillik, grammatik konstruksiyalar kabi ko‘rsatkichlar aniqlanadi. O‘zbek va ingliz matnlariga stilometrik yondashuv orqali uslubiy farqlarni obyektiv baholash va qiyoslash mumkin. Maqola stilometriyaning amaliy imkoniyatlari mualliflikni aniqlash, janr tasnifi, til evolyutsiyasi va lingvistik tadqiqotlar kabi yo‘nalishlarda qo‘llanishiga e’tibor qaratadi.

Kalit so‘zlar: stilometriya, uslub, badiiy matn, statistik tahlil, leksik xilma-xillik, sintaktik xususiyatlar, ingliz va o‘zbek tili

Abstract. In the article, we highlighted the general characteristics of literary and journalistic styles in Uzbek and English based on statistical (stylometric) analysis. Also, stylometry is a direction of statistical study of text style, which allows one to determine the stylistic features characteristic of the author, genre, or period. In the process of our analysis, such indicators as word and sentence length, lexical diversity, and grammatical constructions are determined. With the help of a stylometric approach to Uzbek and English texts, it is possible to objectively assess and compare stylistic differences. The article focuses on the practical applications of stylometry in areas such as authorship identification, genre classification, language evolution, and linguistic research.

Keywords: stylometry, style, literary text, statistical analysis, lexical diversity, syntactic features, English and Uzbek

Аннотация. В статье мы осветили общие характеристики художественных и публицистических стилей в узбекском и английском языках на основе статистического (стилометрического) анализа. Кроме того, стилометрия - это направление статистического изучения стиля текста, позволяющее определить стилистические особенности, характерные для автора, жанра или периода. В процессе анализа

определяются такие показатели, как длина слова и предложения, лексическое разнообразие, грамматические конструкции. С помощью стилометрического подхода к узбекским и английским текстам можно объективно оценить и сравнить стилистические различия. В статье рассматриваются практические возможности стилометрии в таких областях, как авторство, жанровая классификация, эволюция языка и лингвистические исследования.

Ключевые слова: стилометрия, стиль, художественный текст, статистический анализ, лексическое разнообразие, синтаксические особенности, английский и узбекский языки

Kirish. Matnlarni uslubiy xususiyatlari bo‘yicha statistik usulda tahlil qilish tajribasi ko‘p kuzatiladi. Bu lingvistikada stilometriya yoki tekstometriya nomi bilan mashhur bo‘lgan yo‘nalishdir. Statistik yondashuvning mohiyati shundaki, matnlardan muallif, janr yoki davrning uslubiy xususiyatlarini aks ettirishi mumkin bo‘lgan miqdoriy ko‘rsatkichlar olinadi. Keyin bu ko‘rsatkichlar qonuniyat va farqlarni aniqlash uchun statistik tahlil qilinadi [1].

Stilometriya uslubiyatni o‘rganish bo‘lib, odatda, yozma matnning statistik tahlilni o‘z ichiga oladi. Odatda, stilometriya matnning muallifini aniqlash yoki sanasini belgilashda, filologiya hamda yuridik ekspertizada qo‘llaniladi. Stilometriyaning asosida muallif uslubining ham anglanadigan, ham anglanilmaydigan qismlari mavjudligi haqidagi gipoteza yotadi [2]. Amalda uni ko‘plab sohalarda: sud lingvistikasi va mualliflik huquqi masalalarida, muallifning jinsi va yoshi hamda matnning individual xususiyatlari o‘rtasidagi korrelyasiyani o‘rganishda qo‘llash mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. F.Can, J.M.Patton, J.Hope, A.Kenni, S.Romane, M.Oaks, J.M.Zemb, A.Zenkov, G.Martinenko kabi olimlarning ishlarida stilometriya masalalarining fundamental asoslari yoritilgan [2-6]. B.G.Chuksin, A.I.Trufanov “Сетевая стилометрия русскоязычных интернет-текстов” nomli maqolasida rus tilidagi internet-matnlarining belgilarini aniqlash uchun yagona tarmoq metodologiyasi ishlab chiqilgan. Matnli axborotning mavzusini avtomatlashtirilgan tarzda aniqlashga alohida e’tibor qaratilgan. Modellar tahlil qilingan, algoritm(lar) va ularni amalga oshiruvchi dasturiy vositalar tayyorlangan. Forum, blog, yangiliklar saytlari va ijtimoiy tarmoqlardan olingan misollarni o‘z ichiga olgan matnlar korpusi yig‘ilgan. Matnlarni tasniflovchi belgilarini aniqlashda tarmoq yondashuvining imkoniyatlari namoyish etilgan [8].

Matnning hamma xususiyatlari ham statistik tahlil qilinmaydi. Quyida statistik tahlil qilinishi mumkin bo‘lgan uslubiy xususiyatlarga to‘xtalamiz.

So‘zlarni qo‘llash chastotasi tahlili ma’lum bir so‘zlarning (masalan, yordamchi so‘zlar, olmoshlar, xarakterli leksemalar), shuningdek, ularning matnda qo‘llanishini tahlil qilishdir.

So‘z va gapning uzunligi tahlili so‘zning harflar yoki bo‘g‘inlardagi o‘rtacha uzunligi, gapning so‘zlardagi o‘rtacha uzunligini aniqlashga qaratilgan tahlil turidir. Bu ko‘rsatkichlardagi farqlar murakkab yoki, aksincha, lo‘nda uslubni ko‘rsatishi mumkin.

Leksik xilma-xillik tahlili ma’lum bir matn lug‘at boyligining xilma-xilligini tahlil qilishda (masalan, leksik xilma-xillik koeffisiyenti) qo‘llanadi. Bunday tahlil natijalarida yuqori koeffisiyent boy va xilma-xil uslubdan dalolat berishi mumkin.

Aniq grammatik konstruksiyalarni qo‘llash chastotasi majhul nisbat, sifatdosh va ravishdoshlar, ergash gapning turlari va boshqa grammatik xususiyatlarning chastotasini tahlil qilishni bildiradi.

Turli so‘z turkumlari nisbatini tahlil qilish ot, fe’l, sifat, ravish va boshqa so‘z turkumlarining foiz nisbatini aniqlashda qo‘llanadi.

Tinish belgilari (vergul, nuqta-vergul, undov va so‘roq) *tahlili* ularning chastotasini aniqlash orqaldi ma’lum bir uslubda so‘roq, undov gaplarning miqdori va mazmunini ko‘rsatadi.

N-grammalarni tahlil qilish n ta so‘zdan iborat ketma-ketliklarning (bigramma, trigramma va hokazo) chastotasini ko‘rib chiqish demakdir. Bu usulda tahlil qilinayotgan matnga xarakterli bo‘lgan so‘z birikmalari va iboralarni aniqlashi mumkin.

Bu kabi usullar bilan tahlil qilish amalda quyidagi bosqichlarda bajariladi:

Birinchidan, tahlil uchun yetarlicha katta matnlar to‘plami – matnlar korpusi yig‘iladi.

Ikkinchidan, dastlabki ishlov berish bosqichida matnlar ortiqcha unsurlardan (masalan, tahlil obyekti bo‘lmagan tinish belgilaridan) tozalanadi, kichik harflarga keltiriladi, lemmalash yoki stemlash (so‘zlarni boshlang‘ich shakliga keltirish) amali bajariladi.

Uchinchidan, xususiyatlarni ajratib olish bosqichida har bir matn uchun tanlangan uslubiy xususiyatlar (masalan, ma’lum bir so‘zlarning chastotasi, gapning o‘rtacha uzunligi) hisoblab chiqiladi.

To‘rtinchidan, statistik tahlil bosqichida olingan sonli ma’lumotlar statistik tahlil qilinadi. Statistik tahlilda o‘rtacha qiymatlarni qiyosiy tahlil qilish, jumladan, uslubiy xususiyatlarning o‘rtacha qiymat(lar)ini matnlarning turli guruhlari o‘rtasida solishtirish; klaster tahlilida matnlarni ularning uslubiy xususiyatlarining o‘xshashligi asosida guruhlash, diskriminant tahlilda matnlarning turli guruhlarini ajratib turadigan xususiyatlarni aniqlash, mashinali o‘qitishda matnlarni muallif, janr va boshqa uslubiy belgilar bo‘yicha tasniflash uchun mashinali o‘qitish algoritmlarini qo‘llash mumkin.

Beshinchidan, stilometriyani qo‘llash bosqichida uslubiy xususiyatlarning statistik tahlili turli sohalarda keng qo‘llaniladi.

Oltinchidan, tahlil xulosalarini (1) mualliflikni aniqlash (anonim yoki bahsli matnlarning muallifini aniqlash); (2) janr bo‘yicha tasniflash (matn janrini avtomatik ravishda aniqlash); (3) uslub evolyutsiyasini tahlil qilish (bir muallifning ijodi davomida yoki muayyan davr tilidagi o‘zgarishlarni o‘rganish); (4) lingvistik tadqiqotlar (tildan turli kontekstlarda foydalanish qonuniyatlarini o‘rganish) kabi joylarda amaliy qo‘llash mumkin.

Demak, statistik usul matnlarning uslubiy xususiyatlarini tahlil qilishda ahamiyatli usul bo‘lib, yashirin qonuniyatlarni aniqlash va obyektiv qiyoslash imkonini beradi.

Natija va muhokama. *Ingliz tilida badiiy matnlarning umumiy uslubiy xususiyatlari.* Ingliz tilida badiiy matnlar qator uslubiy xususiyatlarga ega bo‘lib, ular matnlarni ifodali, hissiy va o‘quvchi xayolida yorqin obrazlarni yaratishga yordam beradi. Bu xususiyatlar muallif, janr, davr va asarning maqsadiga qarab o‘zgaradi.

Kuzatishlarimizga ko‘ra, leksik xususiyatiga ko‘ra ingliz tili badiiy uslubdagi matnlariga xos bo ‘lgan quyidagi xususiyatlarni ajratish mumkin:

Lug‘at tarkibining xilma-xilligi. Badiiy matnlar ko‘pincha sinonim, antonim, omonim, shuningdek, turli xil hissiy konnotatsiyaga ega so‘zlarni qamrab olgan keng leksika spektridan foydalanadi. Bunda muallifning fikrlari, tuyg‘ularini aniq va nozik tarzda yetkazish ko‘zda tutiladi.

Tasviriy vositalarni qo‘llash. Metafora, qiyoslash, jonlantirish, metonimiya, sinekdoxa va boshqa troplar tilni yanada yorqin va ta’sirli qiladi. Ular o‘quvchiga dunyoni muallif nigohi bilan ko‘rishga va asarning ma’nosini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Uslubiy bo‘yoqdor leksika. Arxaizm, neologizm, dialektizm, sleng, kasbga oid leksika muayyan muhitni yaratish, personajni tavsiflash yoki tarixiy koloritni yetkazish uchun ishlatiladi. *Hissiy bo‘yoqdor leksika.* Xursandchilik, qayg‘u, g‘azab, qo‘rquv, hayrat va boshqa hissiyotlarni ifodalovchi so‘z, iboralar o‘quvchiga qahramonlarga hamdard bo‘lish va syujetga chuqurroq kirishishga yordam beradi.

I.Galperinga ko‘ra, sintaksik xususiyatiga ko‘ra ingliz tili badiiy uslubdagi matnlar quyidagi xususiyatlarga ega:

Sintaktik konstruksiyalarning xilma-xilligi. Badiiy matnda dinamikaga erishish uchun qisqa, sodda gaplar ham, murakkab fikr, tuyg‘u va manzaralarni tasvirlash uchun qo‘shma va murakkab gaplar ham ishlatiladi.

Inversiya. Gapdagi so‘zlarning odatdagi tartibini o‘zgartirish emfaza, muhim ma’lumotni ajratib ko‘rsatish yoki poetik effekt yaratishda ishlatiladi.

Ellipsis. Badiiy uslubga xos matnlarda gapning ba’zi bo‘laklarini tushirib qoldirish tugallanmaganlik hissini yaratishi yoki hissiy ta’sirni kuchaytirishi mumkin.

Parallel konstruksiyalar. Bir nechta gap yoki gap qismlarida bir xil grammatik strukturalarni qo‘llash g‘oyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’kidlaydi, ritm yaratadi va ta’sirni kuchaytiradi.

Ritorik so‘roq va undovlar. Bunday qurilmalar o‘quvchining e’tiborini jalb qilish, kuchli hissiyotlarni ifodalash yoki mulohaza qilishga undash uchun ishlatiladi.

Ingliz tilida badiiy uslubga xos matnlarning sintaktik xususiyatlariga matndagi sintaksik konstruksiyalarning xilma-xilligi, inversiya, ellipsis, parallel konstruksiyalar hamda ritorik so‘roq va undovlar ta’sir qiladi.

Xulosa. O‘zbek va ingliz tillarida badiiy va publitsistik uslub xususiyatlarini statistik usul stilometriya asosida tahlil qilishning nazariy va amaliy jihatlari yoritildi. Stilometriya matnlarning mualliflik, janr, davr yoki til uslubiga xos bo‘lgan yashirin va aniqlanadigan xususiyatlarini aniqlashda samarali usul hisoblanadi. So‘zlar va gaplarning uzunligi, leksik

xilma-xillik, grammatik konstruktsiyalar va tinish belgilari chastotasi kabi mezonlar yordamida matnlar chuqur tahlil qilinadi. Ingliz tilidagi badiiy uslub matnlari keng leksik spektr, tasviriy vositalar (metafora, qiyoslash, jonlantirish), hissiy leksika va sintaktik murakkablik bilan ajralib turadi. Shuningdek, inversiya, ellipsis, parallel konstruksiyalar kabi stilistik qurilmalar ingliz matnlariga badiiy obrazlilik baxsh etadi. O‘zbek tili matnlarida ham shunga o‘xshash, biroq milliy til va madaniyatga xos bo‘lgan uslubiy xususiyatlar mavjud. Stilometrik tahlil orqali ikki tilga oid matnlarni qiyosiy baholash, ularning stilistik jihatdan umumiy va farqli tomonlarini aniqlash mumkin. Bu yondashuv nafaqat lingvistik tadqiqotlar, balki mualliflikni aniqlash, matnlarni avtomatik tasniflash, sud ekspertizasi, til evolyutsiyasini o‘rganish kabi sohalarda ham keng qo‘llaniladi. Shunday qilib, stilometriya tilshunoslikda zamonaviy, obyektiv va tizimli yondashuv bo‘lib, o‘zbek va ingliz tili matnlarining chuqur uslubiy tahlilini amalga oshirishda muhim vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Как провести стилометрический эксперимент с помощью stylo? // https://sysblok.ru/courses/kak-provesti-stilometricheskij-jeksperiment-s-pomoshhju-stylo/

2. Can F., Patton J. M. Change of writing style with time. // Computers and the Humanities. Vol. 38, No. 1 (2004), pp. 61-82.

3. Hope J. The Authorship of Shakespeare’s Plays. Cambridge, Cambridge University Press, 1994.

4. Kenny A. A Stylometric Study of the New Testament, 1986; Kenny, Anthony. The Computation of Style: An Introduction to Statistics for Students of Literature and Humanities. Oxford, Pergamon Press, 1982.

5. Romaine, Suzanne. Socio-Historical Linguistics. Cambridge, Cambridge University Press, 1982.

6. Oakes, Michael P. Statistics for Corpus Linguistics. Edinburgh University Press, Edinburgh 1988 ISBN 0-7486-1032-4

7. Чуксин Б.Г., Труфанов А.И. Сетевая стилометрия русскоязычных интернет-текстов // Научные высказывания. 2024. №12 (59). С. 24-28. URL: https://nvjournal.ru/article/Setevaja_stilometrija_russkojazychnyh_internet-tekstov

8. Гальперин И. Р. Очерки по стилистике английского языка. – М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1958. – С. 343.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

“HAYRAT UL-ABROR” VA “MAXZAN UL-ASROR” DOSTONIDAGI HIKOYATLARDA TIL VA USLUB MASALASI.

Muhammadiyeva Muhayyo Toshpo’latovna
Ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy o‘z davri adabiy muhitida o‘chmas iz qoldirishining sababi adiblar asarlari tilining g‘oyatda betakrorligi, badiiy jihatdan mukammalligi va ularning xalq og‘zaki ijodiga yaqin turishidadir. “Maxzan ul-asror” hamda “Hayrat ul-abror”ning til va uslubiga nazar soladigan bo‘lsak, dostonlarda munojotlar, na’tlar, hayrat va xilvatlar, madhiyalar, hikoyatlar, ta’riflar, Qur’oni karim oyatlari va hadislardan iqtiboslar, xalq og‘zaki ijodiga xos maqol, matal, iboralar hamda muallif nutqi, monologlar, dialoglar uchraydi. Ushbu maqolada ikki doston hikoyatlarining til va uslubini qiyosiy yoritishni maqsad qilib oldik.

Kalit so’zlar: Hikoyatlar, oyat va hadislar, xalq og’zaki ijodi, maqol, matal, ibora, muallif nutqi, monolog, dialog, turkiy, arabiy, fors-tojikcha so’z va iboralar.

ВОПРОС ЯЗЫКА И СТИЛЯ В РАССКАЗАХ ДАСТАНОВ "ХАЙРАТ УЛ-АБРОР" И "МАХЗАН УЛ-АСРОР."

Аннотация: Причина, по которой Низами Гянджеви и Алишер Навои оставили неизгладимый след в литературной среде своего времени, заключается в исключительной уникальности языка произведений писателей, их художественном совершенстве и близости к народному устному творчеству. Если посмотреть на язык и стиль "Махзан ул-асрор" и "Хайрат ул-аброр," то в дастанах встречаются молитвы, наты, изумление и уединение, гимны, рассказы, описания, цитаты из аятов Корана и хадисов, пословицы, поговорки, выражения, характерные для устного народного творчества, а также авторская речь, монологи, диалоги. В данной статье мы поставили перед собой цель сравнительно осветить язык и стиль притч двух дастанов.

Ключевые слова: Рассказы, аяты и хадисы, народное устное творчество, пословица, поговорка, фраза, авторская речь, монолог, диалог, тюркские, арабские, персидско-таджикские слова и фразы.

THE ISSUE OF LANGUAGE AND STYLE IN THE STORIES OF THE DASTANS "HAYRAT UL-ABROR" AND "MAXZAN UL-ASROR."

Annotation: The reason why Nizami Ganjavi and Alisher Navoi left an indelible mark in the literary environment of their time is the exceptional uniqueness of the language of the

writers' works, their artistic perfection, and their closeness to folk oral creativity. If we look at the language and style of "Maxzan ul-asror" and "Hayrat ul-abror," then in the dastans there are prayers, naats, amazement and seclusion, hymns, stories, descriptions, quotes from the verses of the Holy Quran and hadiths, proverbs, sayings, expressions characteristic of folklore, as well as the author's speech, monologues, dialogues. In this article, we aim to compare the language and style of the stories of the two epics.

Keywords: Stories, verses and hadiths, folklore, proverbs, sayings, phrases, author's speech, monologue, dialogue, Turkic, Arabic, Persian-Tajik words and phrases.

Dostonlar tili nihoyatda rang-barang. “Maxzan ul-asror” fors-tojik tilining ma’no boyliklaridan, serjilo satrlaridan yaratilgan bo‘lsa, “Hayrat ul-abror” esa turkiy tilning tuganmas so‘z xazinasidan yaratilgan. Dostonlarda fors-tojik va turkiy tildan tashqari arabiy va turli dialektdagi so‘zlardan ijodiy foydalanilgan. Shuningdek, turli leksik birliklar, ko‘p ma’noli, ko‘chma ma’noli, tag ma’noli so‘z va iboralardan unumli foydalanilganligi shoirlar mahoratining isbotidir. Navoiy asarlari tilining betakrorligi, ma’nodorligi haqida zamondoshlari – Abdurahmon Jomiy, Davlatshoh Samarqandiy va Husayn Boyqaro asarlarida ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, Husayn Boyqaro “Risola” asarida Navoiy o‘zining “Xamsa”sini yaratib, turkiy til mavqeyini tuproqdan ko‘klarga ko‘targanini ta’kidlaydi. [3.13] “Hayrat ul-abror” va “Maxzan ul-asror” dostonlarining lisoniy xususiyatlari va uslubi haqida so‘z yuritganda quyidagi jihatlarni aytib o‘tish o‘rinlidir:

- Hikoyatlarda xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalanilgan;
- Maqolat va hikoyatlar tarkibida Qur’oni karim va hadisi shariflardan olingan so‘zlar uchraydi;
- Dostonlarda ilmiy va badiiy uslub namunalari qorishiq holda keltirilgan;
- Dostonlarda majoziy yo‘nalishda yozilgan hikoyatlar mavjud;
- “Hayrat ul-abror”da tasavvufiy-ma’rifiy ruhda yozilgan hikoyatlar ko‘p uchraydi, “Maxzan ul-asror”da esa aynan tasavvuf g‘oyalari yoritilgan hikoyatlar mavjud emas.

Shoirlar maqol, matal, quyma iboralardan o‘z fikrlarini asosli dalillash maqsadida foydalanganlar. “Hayrat ul-abror”dagi yettinchi maqolatda keltirilgan “qanoatli va qanoatsiz do‘st” haqidagi hikoyatda “Kim xomtama bo‘lsa, u dunyoda doim azobda” hikmati keltiriladi:

Xatqa boqib ko‘rdi bu mastur erur:

Xomtama’ dahrda ranjur erur”. [H.A. – B.126]

Shuningdek, o‘n uchinchi maqolatda esa yaxshi odamlarga qarata aytilgan “Yer yuzida yashab yursin” so‘zlari keltiriladi:

Naf’din el virdi duo joninga,

“Yamkusu fil-arzi” sening shoningda. [H.A. – B.167]

Quyidagi baytda esa “Sichqon sig‘mas iniga, g‘alvir bog‘lar dumiga” maqoli qo‘llanilgan. Ayyub payg‘ambarning uyiga kirgan o‘g‘ri yuki og‘ir-u, qazigan lahimi tor bo‘lgani uchun ushbu maqol keltiriladi:

Tor ini sichqong‘a solib erdi g‘am,

Quyrug‘ig‘a bog‘ladi g‘arbol ham. [H.A. – B.173]

T.Xo‘jayevning “Alisher Navoiy “Xamsa”sini o‘rganish” kitobida “Har qo‘yni o‘z ayog‘i birla os” deyish – insonni qilgan ishiga qarab baholash degani bo‘lib, Navoiyning Sulton Badiuzzamonga qilgan pandi bugungi kunda ham g‘oyatda ahamiyatli ekanligi ta’kidlanadi. [4.103]

Roi esang tut bu nafas yaxshi pos,

Har qo‘yni o‘z ayog‘i birla os.

“Hayrat ul-abror” dostonida nafaqat turkiy, balki arab va fors-tojik tili leksikasiga oid so‘zlar ham uchraydi. Dostonda diniy-tasavvufiy mavzular yoritilgan o‘rinlarda arabcha iboralarga ham duch kelamiz:

“Tubu ilalloh” ila topsa futuh,

Bo‘lsa bu tavbaki, topibdur Nasuh. [H.A. – B.187]

“Hayrat ul-abror” falsafiy, axloqiy, diniy, ma’naviy fikrlarga boyligi sababli dostonning tili va uslubi jihatlari “Xamsa”ning boshqa dostonlaridan farqlanadi. Atoqli navoiyshunos Abduqodir Hayitmetov “Hayrat ul-abror” uslubi haqida to‘xtalib, doston uslubiga ustoz-salaflari Nizomiy Ganjaviy bilan Amir Xusrav Dehlaviyning “Maxzan ul-asror” va “Matla ul-anvor” asarlari kuchli ta’sir qilgani haqida yozadi. Olimning fikricha, “Hayrat ul-abror” uslubida Navoiy she’riy tafakkur bilan ilmiy tafakkurni mahorat bilan bir-biriga qo‘sha olgan va bu bilan she’riy uslubning noyob ko‘rinishlarini namoyon qila olgan. [5.30] Navoiy dostoni navoiyona uslub (“navoiyona uslub”, “oliy uslub”–Y.Is’hoqov talqini)da yozilgan. Navoiy tili “butun bir davrning tili, butun bir xalqning adabiy tilidir”. [6.280]

“Maxzan ul-asror”da ham “Hayrat ul-abror” dostonidagi kabi ijtimoiy-axloqiy, didaktik mavzular yoritilgani uchun xalqona iboralarni ko‘p o‘rinda uchratamiz. Jumladan, o‘n to‘rtinchi maqolatda keltirilgan hikoyatda “Haqiqat achchiq, ammo unga barcha muhtojdir” hikmati keltiriladi:

Rost esa so‘zu suhaning jumladur,

Achchig‘u achchiq u al-haqqu mur. [M.A. – B.131] Shuningdek, quyidagi satrlardagi maqol va hikmatlar ham ifodalangan fikrning dalili sifatida kelgan:

Angladim ahvoli jahonni, ajab,

Ari chaqar bo‘lsa, asaldir sabab. [M.A. – B126]

Maslahatim senga, tiling tiy mudom,

Tig‘ u g‘ilof ichra topar ehtirom. [M.A. – B.149]

Ko‘rinib turibdiki, har ikkala shoir xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalangan. Bunda shoirlar irsoli masal, tamsil, kalomi jomi’ badiiy san’at turlariga murojaat qilishganlar.

“Hayrat ul-abror”da so‘z, fikr, g‘oyalarning kim tomonidan aytilayotganiga qarab bir necha guruhga ajratish mumkin: 1) muallif tili; 2) roviy tili; 3) monolog; 4) dialog; 5) oyat va hadislar. [7.147] “Hayrat ul-abror” va “Maxzan ul-asror” dostonlarida maqolatlargacha bo‘lgan boblar va maqolatlar muallif tilida bayon qilinadi. Bundan tashqari, hikoyatlar deyarli barcha o‘rinda muallif tilidan hikoya qilinadi. Dostonlardagi maqolat va hikoyatlarda muallifning

tasvirlanayotgan voqelikka, shaxslarning xarakterlariga, fe’l-atvoriga munosabati aks etadi. Bu xususiyat “Hayrat ul-abror”da kuchli ifodalangan. Ayniqsa, muallifning salbiy xarakter egalariga bo‘lgan munosabatida o‘z ifodasini topadi. To‘rtinchi maqolatda keltirilgan “Riyoyi shayxlar” haqidagi bobda muallif tili o‘tkir kinoya va istehzoli ohangda ifodalanadi. Shoir ikkiyuzlamachi shayxlar ustidan kuladi, ayovsiz tanqid qiladi va qoralaydi.

“Maxzan ul-asror” dostonida ham muallif nutqi maqolatlar va hikoyatlarda shoirning o‘z ichki kechinmalari, dunyoqarashi va fikr-mulohazalarini bayon qilishda ko‘plab o‘rinda qo‘llanadi. Jumladan, oltinchi maqolatga ilova qilingan “Sayyod, uning iti va tulki” hikoyatida voqealar majoziy obrazlar vositasida yoritiladi va undan so‘ng shoir o‘z mulohazalarini bayon etadi. Hikoyat taqdir hukmiga rozi bo‘lish, g‘am ham shodlik ham o‘tkichiligi, qayg‘uli kunlarda sabr va shukr qilish haqida bo‘lib, hikoyat so‘ngida quyidagi jumlalar muallif tilida beriladi:

Suratimiz asli amaldin chizib,
Qismatimiz ro‘zi azaldin yozib,
Rizq dag‘i ul bitilmish senga,
Sen uni yeb-ichki, berilmish senga.
Garchi xaloyiq necha jahd etdilar,
Rizqlari qoldi u bitilmish qadar. [M.A. – B.93]

Roviy tili haqida filologiya fanlar doktori N.Sharipova shunday deydi: “Hayrat ul-abror”ning o‘n oltinchi maqolatida muslimlar va g‘ayridinlar o‘rtasidagi kurashda Abdulloh Muborak o‘zini tanitmagan holda g‘azotda jasorat ko‘rsatgani roviy Hasan ibn Rabi tilidan hikoya qilinadi:

Qildi rivoyat Hasan ibn Rabi
G‘azv masofida bu amri badi.
Kim bore di ma’raka paykor ila,
Zumrai islomg‘a kuffor ila”. [7.149]

“Maxzan ul-asror” dostonida esa roviy tili berilmagan. Hikoyatlar bevosita muallif tilidan hikoya qilinadi.

“Maxzan ul-asror” hamda “Hayrat ul-abror” dostonlaridagi hikoyatlarda ba’zi o‘rinlarda monologik nutq ham keltiriladi. Jumladan, “Maxzan ul-asror” dostonidagi “Xorun ar-Rashid va sartarosh” hikoyatida quyidagi monolog keltiriladi:

Dedi: “Harorat uni eltmish magar,
Yoki mening dahshatim etmish asar.
Aqldan ozmishmi, bo‘lib tiyra ko‘z,
Yo‘qsa, botinmas edi aytmoqqa so‘z”. [M.A. – B.155]

Bu so‘zlar halifa Xorun ar-Rashidning nutqi bo‘lib, halifaning sochini olgan sartarosh unga kuyov bo‘lishni istab qizini so‘raydi. Tabiiyki, bu jur’at halifaga yoqmaydi va undan shubhalanib o‘z-o‘ziga yuqoridagi so‘zlarni aytadi.

“Hayrat ul-abror” dostonida esa to‘rtinchi maqolatda keltirilgan hikoyatda Abdulloh Ansoriyning o‘z tariqati tamoyili haqidagi fikrlarini keltiradi:

Dedi bukim, ish manga toat turur,

Tengrining amrig‘a itoat turur.

“Hayrat ul-abror” va “Maxzan ul-asror” dostonlarida hikoyatlar tarkibida voqea va vaziyatlarni yoritishda, qahramonlarning xarakterini ochib berishda dialoglardan unumli foydalanilgan. “Hayrat ul-abror” dostonidagi o‘n birinchi maqolatda keltirilgan “Imom Faxr Roziy va Sulton Muhammad Xorazmshoh” haqidagi hikoyat ilm ahli haqida bo‘lib, unda dunyodagi barcha dindorlar imomi va Xorazmshohning o‘zaro ma’rifiy ahamiyatga ega suhbati keltirilgan. Shuningdek, “Maxzan ul-asror” dostonidagi hikoyatlarda ham ko’plab dialogik nutq shakllari uchraydi.

“Maxzan ul-asror” va “Hayrat ul-abror” dostonlarining ko‘plab boblarida islom, taqdir, qiyomat, dunyo hodisalari xususida so‘z yuritilgan. Navoiyshunos A.Hayitmetov bu tasvirlarda Navoiyning ortiqcha hayajonga berilmasligini, kitobxon bilan suhbat olib borayotganda voizlar o‘z nutqlarini fasohatli bo‘lishiga intilganlari kabi Navoiy ham o‘z fikrini chiroyli so‘z va iboralar bilan ifodalashga harakat qilganini ta’kidlaydi. [5.32] Olim bu dostonning uslubini quyi yoki oddiy uslub emas, balki yuqori uslubga mansub deb hisoblaydi. [5.34] Adabiyotshunos olim Y.Is’hoqov o‘rta asrlar o‘zbek she’riyatidagi asosiy uslublarni 1) turkona uslub; 2) mumtoz (klassik) uslub; 3) oliy yoki navoiyona uslub singari turlarga ajratadi. Olim “Navoiy uslubi – besh asr davomida to‘plangan boy adabiy tajribalar zaminida tarbiyalangan ulug’ ijodkor kashfiyotlarining bevosita ifodasidir. Navoiy uslubi barcha uslublar uchun xos bo‘lgan eng xarakterli jihatlarning sintezidan iborat mutlaqo yangi hodisa”, deya ta’rif beradi. [8.302-311]

Xulosa o‘rnida aytish joizki, ilk dostonlar tili badiiy tasvir vositalariga juda boy, unda har ikkala shoir badiiy san’atlarning go‘zal namunalaridan mahorat bilan foydalangan. Bu, o‘z navbatida, qahramonlar ichki dunyosini, ruhiyatini tasvirlashda, hikoyatlar g’oyasini kitobxonga to‘lig‘icha yetkazishda, voqealar rivojini mantiqan shakllantirishda muhim vazifa bajaradi. “Hayrat ul-abror” “Maxzan ul-asror” dostonidan farqli o‘laroq boblar sarlavhalarining sa’jda yozilishi doston tilining badiiyligini ta’minlashga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.,2006.

2. Nizomiy Ganjaviy. Maxzan ul-asror. Forschadan Jamol Kamol tarjimasi. T., 2016.

3. Husayn Boyqaro. Risola – T.:Sharq-Nur, 1991.

4. T.Xo’jayevning Alisher Navoiy “Xamsa”sini o’rganish. Fan nashriyoti. T.: 2014.

5. Hayitmetov A. “Hayrat ul-abror” da uslub rang-barangligi // Navoiyning ijod olami. – T.: Fan, 2001.

6. Doniyorov X. Alisher Navoiy tilining dialektal asoslarini o‘rganish masalasiga doir // Navoiy va adabiy ta’sir masalalari. – T.: Fan, 1968.

7. N.Sharipova. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni poetikasi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand – 2021.

8. Is’hoqov Y. O‘zbek mumtoz she’riyatida uslub // So‘z san’ati so‘zligi. – T.: O‘zbekiston, 2014.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РУССКОГО СЛОВООБРАЗОВАНИЯ

Рахимова Норбибиш Шароповна
Преподаватель кафедры истории и филологии
Азиатского международного университета

Аннотация. Настоящая статья посвящена рассмотрению актуальных проблем словообразования в современном русском языке. В условиях стремительного развития информационных технологий, глобализации и активного взаимодействия культур значительно усилилось влияние иностранных языков, особенно английского, что вызывает трансформации в словообразовательной системе. Особое внимание уделяется вопросам адаптации заимствованных слов, расширению моделей словообразования, а также роли неологизмов в лексической системе языка. Отмечается значительная роль интернет-коммуникации, в которой формируются новые словоформы, зачастую выходящие за пределы традиционных грамматических и морфологических норм. Также в статье рассматриваются трудности, с которыми сталкиваются изучающие русский язык как родной и неродной, особенно в части усвоения сложных словообразовательных моделей. Автор подчёркивает необходимость обновления лингвистических подходов и разработки новых методик преподавания, соответствующих языковым реалиям XXI века. Работа может быть полезна специалистам в области лингвистики, преподавателям, студентам, а также всем, кто интересуется современным состоянием и развитием русского языка.

Ключевые слова: Словообразование, неологизмы, заимствования, морфология, лингвистика, русский язык.

CURRENT PROBLEMS OF RUSSIAN WORD FORMATION

Abstract. This article is devoted to the examination of current problems in word formation in contemporary Russian. In the context of rapid development of information technologies, globalization, and active cultural interaction, the influence of foreign languages, especially English, has significantly increased, causing transformations in the word-formation system. Special attention is given to issues of adaptation of borrowed words, the expansion of word-formation models, as well as the role of neologisms in the lexical system of the language. The significant role of internet communication is noted, where new word forms are created that often go beyond traditional grammatical and morphological norms. The article also discusses difficulties encountered by native and non-native learners of Russian, especially in mastering

complex word-formation models. The author emphasizes the need to update linguistic approaches and develop new teaching methods that correspond to the linguistic realities of the 21st century. This work can be useful for specialists in linguistics, teachers, students, and everyone interested in the current state and development of the Russian language.

Keywords: Word formation, neologisms, borrowings, morphology, linguistics, Russian language.

RUS TILIDA SO‘Z YASASHNING DOLZARBLAR MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy rus tilidagi so‘z yasashning dolzarb muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi, globallashuv va madaniyatlar o‘rtasidagi faol muloqot sharoitida, ayniqsa ingliz tilining ta’siri sezilarli darajada kuchayib, so‘z yasash tizimida o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Maxsus e'tibor qilingan masalalar — qarz so‘zlarning moslashuvi, so‘z yasash modellari kengayishi, shuningdek, tilning leksik tizimidagi neologizmlarning o‘rni. Internet kommunikatsiyasining katta roli qayd etilgan, unda ko‘pincha an’anaviy grammatik va morfologik normalardan tashqarida yangi so‘z shakllari shakllanmoqda. Shuningdek, maqolada rus tilini ona tili va norus tili sifatida o‘rganayotganlarning, ayniqsa murakkab so‘z yasash modellari egallashdagi qiyinchiliklari ko‘rib chiqiladi. Muallif tilshunoslik yondashuvlarini yangilash va XXI asr til haqiqatlariga mos yangi o‘qitish metodikalarini ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi. Mazkur ish tilshunoslik mutaxassislari, o‘qituvchilar, talabalar hamda zamonaviy rus tilining holati va rivoji bilan qiziqqanlar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: So‘z yasash, neologizmlar, qarz so‘zlar, morfologiya, tilshunoslik, rus tili.

Введение. Словообразование представляет собой одну из ключевых подсистем языка, обеспечивающую непрерывное пополнение лексики, а также отражающую изменения, происходящие в общественной, культурной и научной сферах. Как самостоятельный раздел лингвистики, словообразование занимает центральное место в изучении структуры языка, поскольку именно оно служит механизмом продуктивного расширения словарного запаса, сохраняя при этом внутреннюю системность и закономерность[46].

В условиях стремительного развития технологий, активной глобализации и цифровизации все большее количество новых понятий и реалий требует языкового обозначения, что способствует интенсивному формированию неологизмов, заимствованных единиц, а также созданию новых словообразовательных моделей. Эти процессы, с одной стороны, обогащают язык, делая его более гибким и адаптивным, а с другой — ставят под вопрос устойчивость и нормативность существующих словообразовательных структур. В связи с этим актуализируются проблемы

[46] Бабайцева, В. В. (2019). *Русский язык: Теория и практика. Морфология и словообразование*. Москва: Просвещение.

классификации, кодификации и обучения словообразовательным механизмам, особенно в контексте преподавания русского языка как иностранного[47].

Современное словообразование сталкивается с рядом проблем: смешение традиционных и инновационных моделей, трудности в определении лексико-грамматического статуса новых слов, а также слияние разговорной, медийной и сетевой лексики, формирующей новые языковые тенденции. Интернет-коммуникация, в частности, привнесла в язык новые формы — меметические выражения, аббревиатуры, жаргонизмы, многие из которых уже прочно вошли в активный словарь носителей языка[48].

Таким образом, изучение актуальных проблем словообразования в русском языке приобретает особую значимость. Оно необходимо не только для теоретического осмысления процессов, происходящих в языке, но и для выработки практических рекомендаций по обучению, лексикографической фиксации новых слов и поддержания функционального баланса между инновациями и нормой в русском словообразовании.

Методы. Исследование актуальных проблем современного русского словообразования требует применения комплекса методологических подходов, сочетающих как традиционные, так и современные лингвистические методы. Комплексный характер анализа обусловлен многогранностью самого явления словообразования, его функциональной ролью в языковой системе и активным взаимодействием с другими уровнями языка — лексическим, морфологическим, синтаксическим и прагматическим.

В качестве основного метода был использован описательно-аналитический метод, позволяющий детально охарактеризовать современные словообразовательные процессы, их динамику, типологию и структурные особенности. Этот метод дает возможность систематизировать эмпирический материал, выделить основные модели и аномалии в современной практике словообразования, а также проследить изменения в нормативной базе[49].

Дополнительно применялся сопоставительный метод, особенно при анализе заимствованных и неологизированных единиц, адаптированных по различным словообразовательным моделям русского языка. Сравнение функционирования словообразовательных процессов в русском языке с аналогичными явлениями в других языках (в первую очередь английском) позволило выявить закономерности интерференции, а также специфику адаптации заимствованных элементов.

---

[47] Галкина-Федорук, Е. М. (2021). *Современное русское словообразование*. Санкт-Петербург: Лань.

[48] Земская, Е. А. (2020). *Языковая норма и речевая практика: Неологизмы в русском языке XXI века*. Москва: Языки славянской культуры.

[49] Крижанская, Н. В. (2022). Влияние англицизмов на словообразовательные процессы в русском языке. *Вопросы языкознания*, 5, 78–89.

Также использовался статистический метод, особенно при обработке данных из современных корпусов русского языка (например, Национального корпуса русского языка). С его помощью удалось количественно определить частотность тех или иных словообразовательных моделей, степень их продуктивности, а также динамику появления новых словообразовательных единиц за последние два десятилетия[50].

Для анализа языкового материала применялся контекстуально-семантический метод, позволяющий выявить особенности функционирования новых слов в определённых речевых ситуациях, их стилистическую маркированность, экспрессивную окраску и прагматическую направленность. Это особенно важно в контексте анализа интернет-коммуникации, где словообразование часто принимает нетипичные, гибридные формы.

В исследовании также учитывались данные из лексикографических источников, грамматических описаний, научных статей и монографий, а также материалы социолингвистических наблюдений. Применение интердисциплинарного подхода (взаимодействие с социолингвистикой, психолингвистикой, медиалингвистикой) позволило глубже осмыслить влияние социальных факторов на развитие словообразовательной системы[51].

Таким образом, сочетание нескольких методов обеспечило всесторонний и объективный анализ актуальных проблем словообразования, что способствует не только теоретическому описанию явления, но и практической выработке рекомендаций для преподавания и лексикографической практики.

Результаты и обсуждение. В результате проведённого исследования, опирающегося на описательно-аналитический, сопоставительный, статистический и контекстуально-семантический методы, были получены следующие ключевые результаты. Они иллюстрируют не только текущую картину словообразовательной системы русского языка, но и отражают тенденции её трансформации под влиянием заимствований, неологизмов и интернет-коммуникации[52].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da aziz avliyolar qatori Jomiy shaxsiyatiga to‘xtalar ekan, butun ummat ichida zohiriy va ma’naviy kamolotni xuddi u singari to‘liq mujassam etgan zotlar kamdan kam topilishini, zamonasidagi ulamo va fozillar u zotga muridlik bilan sharaflanganini, ko‘plab ijodkorlar Jomiy siyrat va kamolotini yorituvchi kitob va risolalar yozganini ta’kidlaydi[1;488]. Jomiy IX–XV asrlar fors-tojik adabiyoti mumtoz davrining barcha yutuqlarini umumlashtirgan serqirra ijodkor sifatida adabiyot tarixi, adabiyotshunoslik, tasavvuf, falsafa, tarix, musiqa, aruzshunoslik, tilshunoslik singari fan sohalarga salmoqli hissa qo‘shgan. “Odatda ko‘p va rang-barang asarlar bilan o‘zini ko‘rsata olgan ijodkor olimni Sharqda alloma, hozirgi ta’birda esa endsiklopedist olim deydilarki, Hazrat mavlono Jomiy ham, hech shaksiz, ana shunday unvonga ega bo‘lgan shaxsdir”[6;5].

Navoiy Jomiyga bag‘ishlab yozgan “Xamsat ul-mutahayyirin” manoqibida ta’kidlashicha, Hazrat Jomiyning shon-shuhratini eshitib, uning huzuriga uzoq yo‘l bosib kelganlar oddiy insonlar kabi so‘zlari, kiyinishi va taomlanishidan xizmatkorlardan farqlolmasdilar. Hazratdagi zohiriy va ma’naviy bilimlar ustunligi masala berilmaguncha anglanmas, ammo masala o‘rtaga chiqqach, u kishidagi chuqur bilim shu darajada namoyon bo‘lardiki, natijada hech bir kitobga murojaat qilishga hojat qolmasdi [2;739].

Abdurahmon Jomiyning “Haft avrang” turkumi shoir umrining so‘nggi davrlarida yaratilgan bo‘lib, ijodkorga olamshumul shuhrat keltirgan. Ma’lumotlarga qaraganda, shoir dostonlar turkumi ustida 1472-1486-yillar oralig‘ida ishlagan bo‘lib, bu ijodkor umrining 58 yoshdan 72 yoshgacha bo‘lgan o‘n to‘rt yillik davrini qamrab oladi. Jomiyshunos A.Afsahzod “Haft avrang” deb nomlanishining ikki mohiyatini ko‘rsatib, birinchisi “yetti taxt” ma’nosini anglatsa, ikkinchisi Yetti aka-uka yulduzlar turkumi nomi bilan bog‘liqligini yozadi. Afsahzod talqinicha, Jomiy shu yetti masnaviy orqali go‘yo vaznli so‘zni (she’rni) yettita taxtga o‘tqazdi va ular adabiyot osmonini Yetti aka-uka turkum yulduzlariday munavvar etdi [3;300].

Bu borada Bertelsning munosabati boshqacha. Uning talqinicha, Jomiy yozgan bu yetti doston, odatda, qo‘lyozmalarda “Haft avrang” nomi ostida birlashtirilib, bu birlashma va nom katta ehtimol bilan Jomiyga tegishli bo‘lmasligi mumkin, chunki Jomiy salaflari Nizomiy, Amir Xusrav va shogirdi-do‘sti Navoiy singari “beshlik” yozishni maqsad qilgan va bu xususida so‘nggi dostoni “Xiradnomayi Iskandariy”ning muqaddima qismida ham yozib qoldirgan [4;256]. Bertels ta’kidlagan besh kitob sifatida “Tuhfat ul-ahror”, “Subhat ul-abror”, “Yusuf va Zulayho”, “Layli va Majnun”, “Xiradnomayi Iskandariy” nomlari tilga olinib, “Silsilat uz-zahhob”, “Salomon va Absol” keyin kiritilgan dostonlar sifatida e’tirof etiladi. Bu Jomiy hazratlarining o‘zlari yoki boshqa ijodkor yo kotib tomonidan amalga oshirilgani xususida

qaydlar uchramaydi. Xamsanavislik an’anasida mavjud falsafiy-didaktik doston ikkilantirilib (“Tuhfat ul-ahror”, “Subhat ul-abror”), Xusrav hamda Shirin, shoh Bahrom syujetiga javob yozish an’anasidan chekingan holda yangilik sifatida Yusuf va Zulayho syujeti olib kirilgan.

NATIJALAR. “Tuhfat ul-ahror” kirish boblaridayoq muallifning badiiy konsepsiyasi tugal aks etarkan, tabiiyki, salaf va izdoshlarga mushtarak va farqli jihatlar ham ravshan ko‘rinadi. Birinchi va eng muhim tafovut boblar nomlanishida kuzatiladi. Nizomiy va Dehlaviy ilk dostonlarini nomlashda ixchamlikka rioya qilsa, Jomiy bobni uning mohiyatidan kelib chiqqan holda batafsil nomlab, strukturada jiddiy burilish yasaydi. Masalan, Nizomiy paygambar (s.a.v.)ga atalgan boblar “Наъти аввал”, “Наъти дувум”, “Наъти севвум”, “Наъти чаҳорум” kabi qisqa, ixcham nomlash bilan qifoyalansa, Jomiyda “Наъти аввал мубни аз тақдими ҳақиқати вай бар ҳамаи ҳақойик имкони беҳисоб мартаба ва вуҷуди руҳоний соли Оллоҳу Алийа ва саллам” yoki “Наъти саввум мубни аз баъзе муъҷизоти вай, ки аз ҳадду ад мутачовиз аст ва нитоқи нутқ аз иҳота ва он оҷиз” tartibida batafsil sarlavhalanadi. Bu prinsipga barcha muqaddimaviy boblar, maqolat va hikoyatlarda rioya qilinadi. Boblarning bunday batafsil nomlanishi vositasida unda talqin etilayotgan g‘oyani oldindan analiz qilish imkoni tug‘ilib, shu orqali kitobxonni oldindan tayyorlash maqsad qilinadi. Bu muallifning badiiy-tasavvufiy konsepsiyasi bilan aloqador bo‘lib, salaflarni takrorlamaslikka intilgan ijodkor prinsipini ifodalaydi. Jomiy strukturasi hatto Navoiyda ham aynan takrorlanmagan. Navoiyda Jomiydan olingan andoza: bobni batafsil nomlashda emas, balki bobga sarlavhadan so‘ng mukammal debocha berishda kuzatiladi. Jomiyda bob nomining batafsil bayon qilinishi orqali uning umumiy emas, aniq tasavvufiy maqsadni yoritishni nazarda tutgani ayonlashadi. Dastlab mazmuniy yo‘nalish aniq belgilangan holda ruhiy-axloqiy mushohadaga olib kiriladi. Qisqalikdan ko‘ra batafsillik bob ibtidosidanoq bobning aniq mazmuniy chegarasini belgilab beradi. Muallif doston davomida yo‘l ko‘rsatuvchi piri murshid pozitsiyasida turadi va bobdan bobga tasavvufiy saboqlar ulashib, sarlavhalar vositasida mavzuni oydinlashtirib boradi. Jomiydagi bunday yondashuv Qur’on tafsirini yodga soladi, har bir sarlavha oyatga yozilgan sharhni eslatadi.

Munojot va na’tlar strukturasidan “Nizomiy – Jomiy” hamda “Jomiy – Navoiy” adabiy ta’siri oydinlashadi. Munojot va na’tlar sonida Navoiy ilk dostonidagidek miqdor: bir hamd, to‘rt munojot, to‘rt vasf-na’t va bir me’rojnoma-na’t. Dostonning Allohga bag‘ishlangan hamd va munojot boblaridagina Jomiyga ergashish kuzatiladi. Hazrat Jomiy o‘z munojotlarida Allohning yakkaligi, saxovat va karami, haqiqatdan mavjudligini ta’kidlar ekan, yolvorib madad o‘tinadi. So‘nggi munojot, ayniqsa, xarakterli bo‘lib, unda Allohning marhamatiga umid bog‘lagan holda o‘z dostonining Nizomiy va Dehlaviy darajasiga yetkazishini so‘raydi:

Рашҳе аз он бода ба Ҷомӣ расон,
Равнақи назмаш ба Низомӣ расон.
Паст чу хок аст, бирез аз наваш
Ҷуръае аз базмгаҳи Хусраваш. [9; 476-477]

Mazkur misralardan adabiyotshunoslikdagi Jomiyning “Xamsa” yozgan-yozmagani borasidagi ixtilofli qarashlarga barham beriladi. To‘g‘ri, “Haft avrang” tarkibi, Jomiyning an’anadan chekingan o‘rinlari olimlarning turli fikr va qarashlariga sabab bo‘lgani haqiqat. Biroq bu chekinish go‘yo xamsanavis ustozlar bilan belashishda ularga cheksiz hurmat ifodasi sifatida o‘zini e’tirof etmaslikka o‘xshaydi. Aslida ilk doston munojotlaridayoq shoir bu mas’uliyatli vazifa yo‘lida Allohning shafqat va marhamatiga umid bog‘laydi. O‘zini “tuproq misol past bo‘lsa-da” Nizomiy va Dehlaviylar qatoridan joy olishini so‘raydi, nafaqat she’riyatda balki shariatda ham nomdor bo‘lish istagi – shoir ijodiga xos tasavvufiy-ma’rifiy mohiyatni yanada oydinlashtiradi.

Na’t boblar tariblanishida Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy prinsipi bir xil, Navoiyniki esa o‘zgacha. Jomiyda ham Navoiy kiritgani kabi to‘rt vasf-na’t va bir me’rojnoma na’tga o‘rin ajratilgan bo‘lib, ularning tartiblanishida jiddiy farq kuzatiladi. Navoiyda dastlab to‘rt vasf-na’t kelib, so‘ng bir me’rojnoma-na’t kelsa, Jomiyda bir vasf-na’tdan so‘ng bir me’rojnoma-na’tga o‘rin berilib, undan so‘ng yana uch vasf-na’t joylashtiriladi. Miqdoran bir xil, ammo tartiblanishda o‘zgachalik. Bu jiddiy tafovut sanalib, tartiblanishning o‘ziyoq har bir ijodkorga xos farqli badiiy niyatdan darak beradi:

Jomiyda: *bir vasf-na’t → me’rojnoma na’t → uch vasf-na’t*

Navoiyda: *to‘rt vasf na’t → me’rojnoma na’t*

Navoiygacha Nizomiy, Dehlaviy, Jomiyga xos na’tlar strukturasi faqat “Hayrat ul-abror”da butunlay yangilandi. Bu tartiblanish tartibli va tadrijiy kamolot modeli sanaladi. Ya’ni barcha vasf-na’tlarda payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga xos insoniy-axloqiy sifatlar ochilib, so‘ng Me’roj ta’rifi vositasida bu komillikning oliy bosqichi dalillanadi. Jomiyda esa dastlab payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga xos sifatlar ochilib birdan Me’roj ta’rifi orqali yuksak ma’naviy kamolot tasviriga o‘rin ajratiladi, so‘ng uch vasf-na’t doirasida ham Rasuli akramning sifatlari, ham muborak safar natijalariga o‘rin ajratiladi. Ikki ijodkorda ham na’tlar miqdoran teng bo‘lsa-da, tartiblanishning o‘ziyoq farqli badiiy konsepsiya, turli ma’rifiy-didaktik yondashuv hamda na’tlardagi o‘zgacha semantik yukni ifodalaydi. Jomiy na’tlari vositasida payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning yuksak maqomini madh etarkan, uning hayoti, mo‘jizalari hamda Me’roj voqeasi haqida so‘z ochib, shafoatiga umid bog‘laydi hamda yuqori san’atkorligini namoyon etadi [5;6].

MUHOKAMA. Doston strukturasidagi muhim jihatlardan biri shundaki, unda zamona hukmdoriga bag‘ishlangan bob mavjud emas. Doston yozilgan davrda davr hukmdori Husayn Boyqaro bo‘lgan. Bertels Jomiyga bag‘ishlangan monografiyada Sulton Husaynning taxtga chiqishi Jomiyning obro‘sini sezilarli darajada oshirganini, Sulton Husayn har doim darvishlarga mehribon bo‘lib, she’riyatga chuqur muhabbat bilan qaraganini, taxtga chiqish vaqtida ellik besh yoshda bo‘lgan, ilmi va sufiy tabiati bilan Hirotdan ancha uzoqlarda ham mashhur bo‘lgan Jomiyga yuksak hurmat ko‘rsatib e’zozlanganini yozadi [4;256]. Xamsanavislikdagi muhim an’anadan chekinish orqali salaflar bilan adabiy muohasada o‘zini ta’kidlamaslik hamda saroy muhitidan birmuncha yiroq turmush, ilohiy ishq va ma’naviy poklikni yasham tarziga aylantirgan Jomiy o‘z dostoniga bunday bobga o‘rin ajratmagan. Uning

o‘rniga na’tlardan so‘ng “Дар манқабати қутб ут-тариқ, ғавс ул-халойиқ, Хоҷа Баҳоваддин Муҳаммад бинӣ Нақшбанд, қуддисаллоҳу сирраҳ” nomli bobni kiritadi. Bob sarlavhasidan ma’lumki, u “Tariqat qutbi, insonlarning ko‘makchisi, Xoja Bahouddin Muhammad ibn Naqshbandga bag‘ishlanadi (Aloh taolo uning sirlarini muqaddas qilsin). Jomiy o‘zining mutasavviflik faoliyatida Bahouddin Naqshband g‘oyalarini taraqqiy ettirgan Shayx Sa’duddin Qoshg‘ariyga sadoqat ko‘rsatgan, keyinroq uning qiziga uylanib, vafotidan so‘ng faoliyatini davom ettirgan[7;13]. Bertels talqinicha, Shayx Sa’duddin Qoshg‘ariy ta’limoti aynan Bahouddin Naqshband asos solgan tamoyillarga tayanar edi. Jomiy ustozi vafotidan so‘ng pir sifatida faoliyat yurita boshlaganda qirq ikki yoshda bo‘lgan va to‘la yetuklik darajasiga yetgan edi. Shu sababli, Naqshbandiya tariqati ta’limotlari Jomiyning qoni va joniga singib ketgani tabiiy hol, deydi olim[4;215]. Mazkur tariqatga yoshligidan vobastalik tariqat piriga maxsus bob kiritilishiga zamin hozirlagan. Bu bob mohiyatan Xusrav Dehlaviyning “Tuhfat ul-ahror”ida na’tlardan so‘ng joylashtirilgan pir-murshidi Nizomiddin Avliyoga bag‘ishlangan bob bilan bir xil pozitsiyada. Joylashtirish nuqtasi ham ayni.

Bahouddin Naqshband va uning tariqati Jomiy hayotida muhim o‘rin tutgan, uning tadbiri a’moli, turish-turmushi shu tariqat ta’limotiga uyg‘un shakllantirilgan. Jomiy bu tariqat nazariyasini ham puxta egallab, maxsus risola yozgan. Manbalarda Bahouddin Naqshbandning o‘zi mansub bo‘lgan silsilaning oddiy bir bo‘lagi emas, markaziy halqasi sifatida qaralishining sababini aniqlash mushkulligi, undan avvalgi davrlarni yoritgan manbalarga ko‘ra, tariqat Yusuf Hamadoniy davridan Bahouddin davrigacha Hamadoniy va undan keyingi shayxlar “xoja” (hoca) laqabi bilan tanilganliklarini bildirgan holda “Tariq-i Xojagon” nomi bilan mashhur bo‘lgani, ammo Bahouddin davridan boshlab bu tariqat “Tariq-i Naqshbandiy” nomi bilan tanila boshlangani, Bahouddinning vafotidan bir asrdan ortiq vaqt o‘tgach, Abdurahmon Jomiy tariqatning uslublarini bayon etgan risolasiga “Sarrishtayi Tariq-i Xojagon” nomini bergani ta’kidlanadi[8;459].

Bahouddin Naqshbandga manoqib bobdan so‘ng uning tariqat davomchisi Xoja Ubaydullohga bag‘ishlov bob kiritilib, ikki bob bir butun strukturani tashkil etadi, bu bob oldingi bobga mantiqiy davomdir. Chunki Jomiy hazratlari Movarounnahrdagi naqshbandiylik oqimining yirik namoyandasi Xoja Ahror bilan yaqin munosabatda bo‘lgan, o‘zining diniy-tasavvufiy qarashlarini lirik va epik asarlarida keng rivojlantirgan[7;13]. Bertels talqinicha, doston kirish qismlaridagi an’anaviy bag‘ishlov bob o‘rnida Xoja Ubaydulloh Ahror madhi o‘rin olganidan dostonni shu buyuk naqshbandiya piriga bag‘ishlanganini taxmin qilish mumkin[4;257]. Dostonning nomlanishidan ayonki, bu asar Xoja Ahrorga bag‘ishlangan bo‘lib, bu xususida shoir nafaqat muqaddimada balki dostonning oxirida ham yozib qoldirgan.

Jomiy ilk dostonidagi Xoja Bahouddin Naqshband va Xoja Ubaydullohga bag‘ishlov boblar ayni tartibda Navoiy “Hayrat ul-abror”ida ham kiritiladi, faqat strukturadagi o‘rni farqli. Jomiyda na’tlardan so‘ng ketma-ket joylashtirilsa, Navoiyda kirish boblarning so‘nggi ikki bobi sanaladi. Jomiy dostonida mavjud bo‘lmagan: hukmdor va salaflar madhining strukturadagi o‘rni bu ikki zot munosabatiga bo‘shatib berilgan. Bunday strukturaviy tafovut mualliflarga xos

farqli badiiy konsepsiyani ifodalaydi. “Tuhfat ul-ahror”da Xoja Bahouddin Naqshband va Xoja Ubaydulloh madhining na’tlardan so‘ng joylashtirilishi tasavvufiy adabiyotdagi *“Alloh→payg‘ambar→valiy”* strukturasiga mos keladi. Tasavvufiy doirani na’tlar bilan bog‘lab, avvalo, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga muhabbat, so‘ng tariqat ahllariga hurmat bildirish maqsad qilinadi. Navoiyda bu ikki zotga bag‘ishlangan boblarni kirish qismlarning so‘nggi boblari sifatida berish “madhiya-manoqib” tuzilmasidan chekinib, axloqiy-didaktik kontekstda “namunaviy timsollar” sifatida taqdim etiladi. Ilk dostonlarning muhim boshlang‘ich bo‘g‘ini sanalgan kirish boblar ixtiyoriy tanlanib, muallif badiiy niyatidan kelib chiqib, saralangan va tariblangan. Maqolatlargacha nechta bob kiritish va tuzilmani shakllantirish nisbatan ixtiyoriy bo‘lib, “yigirma maqolat + yigirma hikoyat” strukturasiga nisbatan bunday jiddiy o‘zgarishlarni berish birmuncha murakkablik kasb etgan. Hamd, munojot, vasf-na’t, me’rojnoma na’tlar o‘rni barcha xamsanavisda qat’iy bo‘lib, ulardan keyingi boblarning tartiboti muallif xos strategiyasini namoyon etgan. Xususan, asosiy salaf Nizomiyda bu o‘rin zamona hukmdori Faxruddin Bahromshohga atalgan bo‘lsa, Dehlaviyda pir-murshid Nizomiddin Avliyoga, Navoiyda esa ikki asosiy salafga “bo‘shatib berilgan”. Jomiy dostonida hukmdor va salaflarga madh boblarning mavjud emasligi va shu o‘rinlarning Naqshbandiylik silsila namoyandalariga atalishi muallif uchun tariqat pirlari hukmdorlardan ustun ijtimoiy-ma’naviy mavqega egaligini dalillaydi. Dostonning g‘oyaviy markazi homiy hukmdor emas, ma’naviy pir ekanligi anglashiladi. Navoiyda salaf va hukmdor madhining mavjudligi shoirning an’anaga to‘la rioya etganini ifodalab, bu jihat saroy adabiyoti va siyosiy-madaniy iqlim bilan uyg‘unlik kasb etadi. Naqshband va Xoja Ahror madhining keyinroq bo‘lsa-da kiritilishi shoirning naqshbandiylik tariqatiga ko‘rsatgan rag‘bati, bu borada Jomiy strukturasiga suyangani va ustoziga yuksak hurmati hamda minnatdorchilik garmoniyasi sifatida talqin qilish mumkin. Navoiyda prinsip shunday: avliyolarni ulug‘lash bor, ammo siyosiy va diniy asoslar o‘rtasida muvozanat mavjud. Bu, albatta, hukmdor do‘sti Sulton Husayn bilan munosabati, uning topshirig‘i bilan an’anaga qo‘l urgani bilan ham aloqadordir.

Ikki ijodkordagi strukturaviy tafovut ularning individual badiiy niyati, o‘ziga xos tasavvufiy yondashuvi hamda ijodiy muhiti bilan chambarchas aloqador bo‘lib, Jomiyda ma’naviy piri komil markazga qo‘yilsa, Navoiyda struktura ichida joylashtirilib, badiiy balans saqlanadi. Bu ikki kompozitsion tuzilmadagi shunchaki tafovut bo‘lmay, balki xamsanavislarga xos ayri poetik dunyoqarash ifodasidir.

Keyingi “Дар кашфи парда аз ҳақиқати дил ва дар баёни он, ки дил дар паҳлӯи соҳибдил дил шавад” (“Dilning haqiqatidan parda ko‘tarilishi va dil faqat egasi (sohibdil) yonidagina chinakam dilga aylanishi bayoni”) bobi Nizomiy “Maxzan ul-asror”ining o‘n beshinchi bobidagi “Дар тавсифи шаб ва шинохтани дил”ga mohiyatan yaqin. Jomiy qalbni Allohni bilish va anglashning muhim manbayi deb biladi. Uning talqinicha, koinot va undagi har qanday sir, olimlar aqli bilan o‘lchangan har qanday hodisot bir tomchi singari qalb ummonida yo‘qoladi:

Чархи фалак в-он чи бувад дар хумаш,

В-он чи хирад ном ниҳад олимаш!

Дар сиати доираи дил гум аст,

Он ҳама чун қатраву дил қулзум аст. [9;259]

Dilsizlarga ishonib dil berish, shoir nazdida, chin durning qadriga yetmay, arzimas toshga sarf qilish bilan barobar:

Ҳар ки бар ин мӯҳра чу ҳар дил ниҳод,

Дурри гаронмоя ба ҳар мӯҳрадод. [9;259]

Bobda shoirning muhim qimmatli maslahatiga duch kelasiz:

То назанӣ ҳайма ба паҳлуи пир,

Ҳамчу дил аз дил нашавӣ баҳрагир. [9;259]

Bayt tamoman sufiyona xarakterda bo‘lib, unda tasavvufda pir tutishning muhim ahamiyati, pirning solik ma’naviy kamolotidagi o‘rni badiiy ifoda etiladi. Shoir fikricha, haqiqiy qalb ilmi faqat ulug‘ ustoz bilan egallanadi. Bob so‘nggida tasavvufda solik uchun pir-murshidning zarurati xususidagi fikrlar bejizga kiritilmagan. Bu qarashlar boshlang‘ich muxtasar debocha hisoblanib, keyingi uch bob – suhbatlarda rivojlantiriladi. Ketma-ket uch bobda pir va solik suhbatlariga o‘rin beriladi:

17-bob	Суҳбати аввал бо пири равшанзамир дар торики шаб зан ва тахмин ва расидани мурид ба воситаи вай ба давлати илмул яқин
	Zulmat va gumon ichidagi muridning Ilmul-yaqin, ya’ni aql vositasida haqiqatga ishonch hosil qilish maqomiga yetishishida yorqin qalbli pir bilan bo‘lgan Avvalgi suhbat
18-bob	Суҳбати дуввум бо пири соҳибтамкин ва равшан шудани чашми мурид ба нури айнул яқин
	Muridning qalb ko‘zi ochilib, Aynul-yaqin, ya’ni haqiqatni bevosita ko‘ra olish nuriga erishishida sabrli, sohibtamkin (ruhan barqaror, sobitqadam, muvozanatli) pir bilan kechgan Ikkinchi suhbat
19-bob	Суҳбати саввум бо пири ҳақиқатбин ва ёфтани муриди гавҳари мақсуд аз ҳуққаи ҳаққул яқин
	Muridning haqq-ul-yaqin, ya’ni haqiqatni to‘liq yashab his etish, uni o‘zida topish orqali maqsad gavhariga erishishida haqiqatni ko‘ra oladigan pir bilan bo‘lgan Uchinchi suhbat

Suhbatlar doston strukturasidagi funksiyasi jihatidan Nizomiy va Amir Xusrav dostonidagi xilvatlarga, Navoiy dostonidagi hayratlarga o‘xshaydi. Mazkur boblarning barchasi ilk dostonlar yadrosi, uning markaziy asosi sanaladi. Ikki salafdagi xilvatlardan chekinib, suhbatlarga o‘rin berilishi ham Jomiy dostoni strukturasidagi muhim o‘zgarish bo‘lib, bu muallifning naqshbandiylikdagi pir-murid pozitsiyasi doirasidagi qarashlari asosida shakllantirilgan bo‘lib, dostondagi kuchli tasavvufiy xarakterni dalillaydi. Naqshbandiylikdagi “xilvat dar anjuman” (jamoat ichida qalban Alloh bilan birga bo‘lish) tamoyili salaflardagi xilvatlarning suhbatlarga o‘zgartirilishi uchun muhim omil bo’lgan.

Pir-murshidning suhbatlari vositasida solikdagi daraja yuksalib boradi. Suhbatlar – muridning ruhiy kamolot yo‘li hisoblanib, turli darajadagi pir suhbati natijasida muriddagi ma’naviy kamolot ma’lum bir bosqichga yuksaladi.

Birinchi suhbat bob sarlavhasidan ko‘ringani kabi jaholat zulmatidagi murid ishtirokida kechadi. U g‘aflatda bo‘lgani tufayli haqiqatdan butunlay mahrum, biroq tafakkur va aql vositasida unga intiladi. Ravshanzamir – ichki olami nurli, qalbi pok va ma’rifatli pir unga rahnamodir. Bunday pir suhbati hamda ta’limoti vositasida solikda bilim ortadi va buning natijasida u Allohga yaqinlashadi.

Ikkinchi suhbat orqali muridda ichki munavvarlik ro‘y beradi. Bu suhbatdagi ustoz ruhan sobitqadam va ichki muvozanatni saqlay olgan pir (sohibtamkin). U bilan suhbatdan so‘ng muridda qalb ko‘zi ochilib, haqiqatni ko‘ra boshlaydi, ya’ni ravshanlik tomon siljish kuzatiladi.

Uchinchi suhbat – oliy bosqich sanalib, ilohiy sirlardan tamoman bahramand pir vositasida kechgan suhbatdan so‘ng muridda ham haqiqatni to‘la idrok etish qobiliyati shakllanadi.

XULOSA. Jomiydagi bu struktura ma’naviy-ruhiy sayr hamda qalban poklanish bosqichlarini anglatib, pir va murid suhbati vositasida ilohiy nurning qalbdan qalbga o‘tkazish jarayoni ifodalanadi. Ustozning murid tarbiyasidagi roli yoritilib, bu bosqichlarni bosib o‘tish pir rahnamoligidagi solikka nasib etishini muallif muhim dalillar orqali aniq ko‘rsatadi.

Umuman olganda, “Tuhfat ul-ahror” dostoni semantik-struktur qurilishida Abdurahmon Jomiyning naqshbandiylik tariqatiga bo’lgan aloqadorligi muhim o‘rin tutadi. Dostondagi kirish boblar, maqolat va hikoyatlar ham muallifning shu doiradagi fikr-u qarashlari asosida shakllantirilgan. “Tuhfat ul-ahror” dostonini Abdurahmon Jomiyning naqshbandiylik tariqati doirasidagi boy tajribasi va prinsiplari bilan bog‘lab tadqiq etish muallif badiiy-estetik qarashlarini, xususan, doston mohiyatini teranroq anglash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. TAT. O‘n jildlik. O‘ninchi jild. – T.:G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
2. Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin. TAT. O‘n jildlik. Beshinchi jild. – T.:G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
3. Асфаҳзод А. Мавлоно Абдураҳмони Ҷомӣ – адиб ва мутафаккири номӣ. Душанбе: Адиб, 2014.
4. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джами. Москва: Наука, 1965.
5. Низомӣ М.,Собиров Л. Таҳлили муқоисавии “Тӯҳфат ул-аҳрор”-и Ҷомӣ ва «Махзан ул-асрор»-и Низомии Ганҷавӣ. // Вестник Бохтарского государственного университета Имени Носира Хусрава (научный журнал) серия гуманитарных и экономических наук, 1/1 (107). – Бохтар, 2023.
6. Шамсиев П. Улуғ дўстлик лавҳаларидан // Абдураҳмон Жомий ва Алишер Навоий. – Т.:Фан, 1966.

7. Ҳайитметов А. Абдураҳмон Жомий. – Т.: Фан, 1989.
8. Hamid Algar. Bahaeddin Nakşibend. İslam ansiklopedisi, 4.cilt. İstanbul, 2011.
9. Ҷомӣ А. Осор. Ҷилди сеюм. Силсилат-уз-заҳаб. Саломон ва Абсол. Тӯҳфат ул-аҳрор. Душанбе: Адиб, 1987.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ЭМОЦИИ В МАССМЕДИЙНОМ ДИСКУРСЕ: ДИСКУРС-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Александра Каландарова
магистрант I курса
Чирчикского государственного педагогического университета
kalandarovaaleksandra884@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматриваются эмоции с точки зрения лингвистики и их роль в медиадискурсе, Эмоции анализируются как речевые стратегии, функционирующие в условиях определённой жанровой и мультимодальной среды. Цель статьи — выявить, каким образом медиадискурсы кодируют, формируют и транслируют эмоции, оказывая влияние на массовое сознание. Новизна исследования заключается в комплексной концепции анализа эмоций в медиа, учитывающей внутритекстовый и интертекстуальный уровни.

Ключевые слова: медиадискурс, эмоции, лингвистика, эмоции в языке и тексте, эмоциональные скрипты.

OMMAVIY AXBOROT DISKURSIDA EMOTSIYALAR: DISKURS-TILSHUNOSLIK YONDASHUVI

Annotatsiya. Ushbu maqolada emotsiyalar lingvistik nuqtayi nazardan va ularning media diskursdagi o‘rni tahlil qilinadi. Emotsiyalar ma’lum janrli va multimodal muhitda faoliyat yurituvchi nutqiy strategiyalar sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolaning maqsadi — media diskurslar qanday qilib emotsiyalarni kodlashi, shakllantirishi va uzatishini, hamda ularning ommaviy ongga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashdir. Tadqiqotning yangiligi shundaki, u media vositalarida emotsiyalarni matn ichki va intertekstual darajalarda tahlil qilishning kompleks yondashuvini taklif etadi.

Kalit so‘zlar: media diskurs, emotsiyalar, lingvistika, til va matndagi emotsiyalar, emotsional ssenariylar.

EMOTIONS IN MASS MEDIA DISCOURSE: A DISCOURSE-LINGUISTIC APPROACH

Abstract. This article examines emotions from a linguistic perspective and their role in media discourse. Emotions are analyzed as speech strategies functioning within a specific genre and multimodal environment. The aim of the article is to identify how media discourses encode,

shape, and transmit emotions, influencing mass consciousness. The novelty of the study lies in its comprehensive approach to analyzing emotions in the media, taking into account both intratextual and intertextual levels.

Keywords: media discourse, emotions, linguistics, emotions in language and text, emotional scripts.

В настоящее время эмоции становятся неотъемлемой частью цифровой коммуникации. Учитывая масштабность и интенсивность информационных потоков, становится актуальным теоретически осмыслить проблему манипулирования эмоциями в рамках дискурса.

Цель настоящей статьи — рассмотреть эмоции, функционирующие в медиатексте, как лингвистический феномен.

Методологическая база статьи опирается на дискурс-анализ, медиалингвистику, прагматику и семиотику. Исследование основано на многоуровневой модели, включающей: медиальный уровень — платформа и технические условия; текстовый уровень — лексика, синтаксис, риторика; интертекстуальный уровень — отсылки и культурные коды.

Эмоции являются объектом исследований разнообразных дисциплин: психологии, философии, лингвистики. Если ранее специалисты в области психологии не связывали между собой проявление эмоций, сознание и разум языковой личности, то в последние столетия в результате научного интереса к данному понятию образовалось междисциплинарное объединение психологии и языкознания под названием «эмотиология». Большой вклад в данную область внесли такие ученые, как: И.В. Арнольд, Э.С. Азнаурова, В.И. Шаховской, Л.Г. Бабенко, Ю.С. Степанов, А. Вежбицкая. Но на сегодняшний день нет единой точки зрения. В ходе исследований установили, что существуют два понятия: эмоциональность (в психологии) и эмотивность - (в лингвистике) то есть, чувства, выраженные языковыми средствами.

По мнению В.И. Шаховского, в системе языка эмотивность является семантическим компонентом слова, в котором объективируются ее мельчайшие смыслы - эмотивные семы [1,349].

И.В. Арнольд в своих исследованиях отмечает, что: «слово или его вариант обладает эмоциональным компонентом значения, если выражает какую-нибудь эмоцию или чувство. Эмоцией называется относительно кратковременное переживание: радость, огорчение, удовольствие, тревога, гнев, удивление, а чувством - более устойчивое отношение: любовь, ненависть, уважение и т.п.» [2,80].

В контексте изучения эмоций в медиа-дискурсе особое внимание заслуживает понятие эмоционального фрейма – структура, устанавливающая интерпретирующие рамки для восприятия информации аудиторией. Данная структура формируется средствами массовой информации для управления не только контентом, но и

эмоциональной составляющей сообщений. Различные события могут быть представлены через призму одного и того же эмоционального фрейма (например, угрозы, опасности, трагедии), что приводит к стандартизации восприятия массовой аудиторией.

В целях распространения информационного, развлекательного, социально-политического контента СМИ зачастую задействуют эмоции, которые реализуются как систематические сценарии (эмоциональные скрипты). Это повторяющиеся модели выражения чувств, функционирующие в рамках жанра и культурных кодов. Например, в публицистических жанрах приняты выражения трагизма, страха, тревоги, а в развлекательных — восторга и удивления.

Особую роль играют жанровые стратегии: в репортаже — описания с акцентом на факты, в колонке новостей — оценочные обобщения, в постах — высокая экспрессивность и личностная интонация. Все они реализуют определённые типы эмоциональности.

С точки зрения прагматического подхода оправдано выделить еще один аспект-эмоциональные маркеры подлинности. Современные СМИ активно используют субъективные утверждения, персонифицированные эмоции и имитацию диалогичности, чтобы повысить доверие к передаваемой информации. Например, заявления журналистов о "личном положении" или "замешательстве" в информационных сообщениях становятся дополнительным средством воздействия на восприятие аудитории.

Эмоции в медиа кодируются на разных языковых уровнях: лексическом (эмотивная лексика, метафоры, сравнения, эпитеты); синтаксическом — (риторические вопросы, восклицания, повторы); риторическом (гиперболы, анафоры, параллелизмы); нарративном (сторителлинг); мультимодальном (взаимодействие текста с изображением, звуком, шрифтом).

А.А. Данилова в своих научных трудах отметила, что лексические и грамматические приемы и формы воздействия направленно используются современными СМИ на семиотическом (синонимия, эвфемизмы, дисфемизмы, изменение ассоциативного поля, упрощение, овеществление и др.) и метасемиотическом (метафоры, штампы, мифы, введение эксперта) уровнях — в целях осуществления воздействия на общественное сознание [3,74].

На синтаксическом уровне усиливается эффект лексических и грамматических приемов, а также формируется структура высказываний. К синтаксическим приемам относятся: повтор (используется для усиления эмоционального воздействия. Фразы вроде «ужас за ужасом» акцентируют внимание на нарастающей интенсивности негативных событий, создавая у читателя ощущение катастрофичности происходящего), параллельные конструкции, градация (прием, близкий к нейролингвистике).

Лексический выбор также играет ключевую роль. Использование слов вроде «резня» вместо более нейтрального «убийство» усиливает эмоциональную окраску сообщения.

Таким образом, журналист или оратор может сознательно выбирать слова, чтобы усилить (или наоборот — смягчить) эмоциональную реакцию читателя или зрителя.

Применение местоимений, особенно первого лица множественного числа, например «мы под угрозой» или «на нас напали», способствует созданию эффекта вовлечённости. Такая стратегия формирует коллективную эмоциональную идентичность и усиливает чувство принадлежности к группе, находящейся в опасности.

Согласно мнению академика Г.В. Степанова: "Главная особенность использования языка в современном мире — массовый характер коммуникации, то есть небывалое расширение числа общающихся людей и усложнение форм общения, причем не только внутри одноязычного коллектива, но и между носителями разных языков в пределах многонациональной страны и в мировом масштабе. Использование средств массовой информации, не изменяя общей стратегии речевого акта (сообщить что-то или убедить в чем-то), значительно усложняет задачу "говорящего", ведь "адресат" у него теперь не один человек, а миллионы читателей, зрителей, слушателей. Чем больше людей вовлекаются в акт коммуникации, тем более универсальной, общей должна быть форма сообщения"[4,26].

Таким образом, эмоции в медиадискурсе — это не отражение внутренних состояний, а результат лингвистического, жанрового, стилистического конструирования. Воздействие на сознание языковыми средствами представляет собой комплексную лингвистическую систему, находящуюся в непрерывном развитии и связанную с процессами социодинамики общества [5,72].

Перспективным направлением является дальнейшее изучение дискурсивной модели эмоций с акцентом на визуальные и цифровые форматы с целью комплексного анализа данного феномена.

Литература

1. Данилова А.А. Манипулирование словом в средствах массовой информации. М., 2011
2. Шаховский В.И. Эмотивная семантика слова как коммуникативная сущность [Текст] / В.И. Шаховский. - Сб.: Коммуникативные аспекты значения. -Волгоград: Волгр. пед. ин-т, 1990.
3. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык [Текст]: Учебник для вузов / И.В. Арнольд. - 5-е изд., испр. и доп. - М.: Флинта: Наука, 2002.
4. Турамуратова И.И. Эмоционально-образная специфика поэтического дискурса // European science. - 2022. - №. 1 (63)
5. Bernays E.L., Byoir C., Lee J.L. Public relations Энциклопедия «Британика»
6. Степанов Г.В. Стихия языка в стихии споров // Литературная газета. № 26. 1984.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

REPROACH IN PRAGMATICS: THE ROLE OF TONE, CONTEXT, AND IMPLICATURE

Mukhtorova Mokhlaroyim Marufjon kizi
PhD student at Kokand university
moxlaroymuxtorova5@gmail.com

Abstract: Reproach is a speech act that communicates disapproval or criticism, often arising from a perceived social or moral transgression. This study explores how tone, contextual factors, and implicature collectively shape the interpretation and effectiveness of reproach in everyday communication. Drawing on data from authentic conversational exchanges, the analysis demonstrates that subtle shifts in prosodic features (e.g., pitch, stress) and the presence or absence of contextual cues significantly influence how listeners infer speaker intentions. Additionally, we highlight the role of implicature in mitigating or intensifying the perceived severity of a reproach. These findings underscore the dynamic interplay between language use, speaker motivations, and cultural norms, emphasizing the importance of pragmatic competence in both understanding and performing reproach in interpersonal encounters.

Keywords: reproach, pragmatics, tone, context, implicature, speech acts, feedback, social roles.

Аннотация: Упрёк — это речевой акт, выражающий неодобрение или критику, часто возникающий в ответ на предполагаемое социальное или моральное нарушение. В данном исследовании рассматривается, как интонация, контекстуальные факторы и импликатура совместно формируют интерпретацию и эффективность упрёка в повседневной коммуникации. На основе анализа подлинных разговорных взаимодействий показано, что тонкие изменения просодических характеристик (например, высоты тона, ударения), а также наличие или отсутствие контекстуальных подсказок существенно влияют на то, как слушатели интерпретируют намерения говорящего. Кроме того, подчёркивается роль импликатуры в смягчении или усилении воспринимаемой строгости упрёка. Эти выводы подчеркивают динамическое взаимодействие между языковым использованием, мотивациями говорящего и культурными нормами, акцентируя важность прагматической компетенции как для понимания, так и для выражения упрёка в межличностном общении.

Ключевые слова: упрёк, прагматика, интонация, контекст, импликатура, речевые акты, обратная связь, социальные роли.

Annotatsiya: Tanbeh – bu ko‘pincha ijtimoiy yoki axloqiy me’yorlarning buzilishi sifatida qabul qilingan holatlardan kelib chiqadigan norozilik yoki tanqidni ifodalovchi nutq aktidir. Ushbu tadqiqotda tanbehning kundalik muloqotdagi talqin etilishi va samaradorligiga ohang, kontekstual omillar va implikatura qanday ta’sir qilishi o‘rganiladi. Haqiqiy suhbatlardan olingan ma’lumotlarga tayangan holda olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, prosodik xususiyatlardagi (masalan, ohang balandligi, urg‘u) nozik o‘zgarishlar hamda kontekstual ishoralarning mavjudligi yoki yo‘qligi tinglovchilar tomonidan gapiruvchining niyatlarini qanday anglab yetilishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, tanbehning qanchalik jiddiy qabul qilinishini kuchaytirish yoki yumshatishda implikaturaning o‘rni alohida ta’kidlanadi. Ushbu topilmalar til ishlatish, gapiruvchi motivatsiyasi va madaniy me’yorlar o‘rtasidagi dinamik o‘zaro ta’sirni yoritadi hamda tanbehni tushunish va ifoda etishda pragmatik kompetensiyaning muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: tanbeh, pragmatika, ohang, kontekst, implikatura, nutq aktlari, fikr bildirish, ijtimoiy rollar.

INTRODUCTION. Reproach functions as a critical speech act through which speakers convey dissatisfaction, criticism, or censure in response to a perceived transgression. By its very nature, reproach serves as a form of negative feedback, indicating that some norm or expectation has been violated. As such, it occupies a central position in the negotiation of social roles and relationships, providing cues about acceptable behavior and underlying value systems. Through the act of reproach, interactants not only highlight the breach of norms but also signal their stance toward the offender, thereby influencing social harmony and the relative “face” of both parties[1].

From a speech act perspective, reproach can be classified among what Searle terms “expressives,” in that it expresses the speaker’s psychological state vis-à-vis some event. Unlike straightforward directives or assertives, reproaches often involve complex layers of meaning and intention. The perlocutionary effect of a reproach—how it impacts the hearer—may range from prompting regret or an apology, to provoking defensiveness or conflict.

Such variability underscores the importance of analyzing reproach in light of context—both situational (e.g., power dynamics, relationship status) and cultural (e.g., collectivist vs. individualist norms)—as these factors shape how a reproach is formulated and interpreted [2].

In addition to context, tone is central to interpreting reproach. Tone encompasses features such as intonation, pitch, and volume, which together express the speaker’s emotional stance. For instance, a reproach delivered softly and hesitantly may convey mild exasperation, whereas a harsh, loud reproach suggests severe disapproval or anger. These prosodic elements often function as “contextualization cues”, influencing how the hearer perceives the severity and intent of the reproach. Further, tone can either mitigate or intensify the face-threatening potential of this negative feedback, shaping whether the act is ultimately constructive or destructive in relational terms. A third crucial dimension is implicature, or the inferences that arise beyond

the literal content of an utterance. Because reproaches typically involve some degree of indirectness or implied criticism—especially in cultures where direct confrontation is dispreferred—hearers often rely on contextual cues to interpret the full meaning behind the speaker's words. For example, a reproach phrased as a rhetorical question ("Don't you think you've worked on this long enough?") may imply annoyance, impatience, or moral disapproval without explicitly stating it [3]. Recognizing these implicatures is essential for both interlocutors, as failing to detect or appropriately respond to a reproach's implied content can exacerbate tensions or impede conflict resolution.

Despite the ubiquity of reproach in interpersonal communication, comparatively fewer empirical studies have focused on how tone, context, and implicature converge to shape its realization and reception. Much of the extant literature has examined politeness strategies and face-threatening acts more generally, rather than targeting the specific conditions under which reproach arises[7]. The present study aims to address this gap by systematically investigating how these three dimensions—tone, context, and implicature—synergistically affect the way reproach is produced, perceived, and managed across diverse interactional settings. By illuminating these intricate processes, this research contributes to a deeper understanding of pragmatic competence and the role of negative feedback in maintaining or recalibrating social norms.

METHODS. To investigate how tone, context, and implicature collectively shape the act of reproach, we designed a study centered on naturally occurring conversations within English-speaking university settings. A total of 30 spontaneous interactions were recorded, yielding approximately 20 hours of audio data. We recruited participants from a mid-sized English-speaking university, drawing on both undergraduate and graduate students, as well as faculty and staff. Participation was voluntary, and individuals were fully informed about the goals and procedures of the study (see Ten Have 20–22 for ethical considerations in conversation analysis). Written consent ensured compliance with Institutional Review Board (IRB) guidelines for research involving human subjects[9].

To reduce the observer's paradox, participants were encouraged to interact as they normally would; the presence of recording devices was minimized to mitigate discomfort.

Group Discussions: These included seminar-style conversations, group project meetings, and study sessions. Such contexts often involve collaborative tasks and debates, potentially giving rise to reproach when group norms (e.g., shared responsibilities, punctuality) are challenged. *Office Hours:* Interactions between instructors and students sometimes feature reproach regarding missed assignments, unclear communication, or failure to meet expectations *Casual Gatherings:* Informal settings (e.g., cafeteria or campus lounges) allowed for more spontaneous, socially oriented speech, where reproach might manifest in friendly teasing or mild criticism among peers. By capturing a range of situational contexts (academic, semi-formal, and informal), the data set reflects diverse social dynamics and potential reproach triggers, thus enhancing the generalizability of findings[6; 57-76].

All audio data were transcribed following conversation-analytic conventions**,** which prioritize features such as pauses, overlaps, and intonation contours. This approach ensures that both the linguistic and prosodic elements crucial for identifying tone and implicature are documented.

Lexical Markers: Utterances containing explicit cues like “How could you…?” or “You shouldn’t have…” were tagged as reproach. These direct forms often function as clear indicators of moral or behavioral evaluation. *Implicit Cues:* Some reproach emerged through contextually embedded or elliptical expressions—for instance, a speaker’s remark, “Really?” with a raised eyebrow when someone arrives late [8].

Tone: Each reproach segment was further coded for prosodic features, specifically intonation (rising, falling), intensity (soft, moderate, or loud volume), and stress (emphasis on particular words). These cues were determined by spectrographic analysis of audio files (Boersma and Weenink) and by analysts’ auditory judgments.

We cataloged situational details, including physical setting (e.g., classroom, office, lounge), participant roles (e.g., student-student, student-instructor), and social norms relevant to the interaction. Socio-cultural expectations—such as politeness conventions in classroom discourse—were also noted. Coders annotated power asymmetries (e.g., faculty-student) and relational closeness (e.g., friends vs. acquaintances), as both can influence how reproach is delivered and interpreted. Guided by Grice’s Cooperative Principle and its associated maxims (quality, quantity, relevance, manner), we analyzed the inferred meanings that extended beyond literal content. For instance, a speaker saying, “It would’ve been nice if you’d bothered to tell me,” may implicate annoyance or disappointment without explicitly stating it.

Each reproach instance was classified for whether it relied on:

- ✓ Indirectness/Hinting**:** Subtle references that require inferential work to grasp the reproach.
- ✓ Sarcasm/Irony**:** Where the literal meaning contrasts with the intended criticism
- ✓ Rhetorical Questions**:** Questions posed not to elicit information but to convey dissatisfaction (“Was that really necessary?”).

By triangulating these three annotation categories, we sought to capture the multifaceted nature of reproach. This systematic approach goes beyond identifying the mere occurrence of a reproach to illuminate how it is shaped by tonality, contextual constraints, and implied meanings [5].

RESEARCH. A striking finding emerged in relation to prosodic shifts that signaled negative evaluation. In approximately 80% of the cases (N=105 out of 131 identified instances of reproach), a heightened or sharper tone accompanied a direct lexical reproach (e.g., “You should have known better”). This alignment of marked prosody and explicit language often intensified the perceived censure, making the reproach more face-threatening to recipients. Notably, speakers tended to place emphatic stress on “should” or “better,” further underscoring the norm violation and the speaker’s dissatisfaction [5].

On the other hand, a softer or lower pitch frequently co-occurred with indirect or implicit forms of reproach. Instead of bluntly accusing an interlocutor, speakers would, for instance, say, “I’m not sure that was the best approach,” using a quiet, subdued intonation. This prosodic choice seemed to signal the speaker’s desire to mitigate the face-threat inherent in negative feedback, aligning with prior observations that prosody can either soften or intensify the illocutionary force of a speech act. Such findings underscore the importance of contextualization cues, tone provides a crucial interpretive framework that guides listeners in discerning whether the reproach is meant as a friendly caution or a stern rebuke. These observations resonate with Brown and Levinson’s politeness theory, wherein speakers manage the delicate balance between expressing displeasure and preserving the interlocutor’s face. Specifically, a speaker’s decision to vary pitch or volume can be seen as a strategic move—opting for either aggravating or mitigating the force of the reproach—depending on interpersonal goals, power dynamics, and relational closeness. The degree of social distance and power asymmetry played a pivotal role in shaping the form and severity of reproach. In professor–student interactions, indirect reproach strategies were significantly more prevalent—such as rhetorical questions or subtle hints (“Could you revisit the guidelines for late submissions?”)—to minimize direct face-threat. This approach likely reflects the professor’s dual concern: enforcing academic standards while maintaining a supportive learning environment.

Conversely, in peer-to-peer contexts (e.g., among classmates or colleagues), direct forms of reproach (“That was irresponsible”) occurred more frequently. Here, the lower degree of perceived risk to face—because of relatively equal power dynamics—made blunt criticism more acceptable. Such directness aligns with prior work suggesting that in-group or equal-status interlocutors often rely on explicit negative feedback to maintain group norms, provided relational bonds are strong enough to withstand it.

In line with collectivist vs. individualist distinctions participants from collectivist backgrounds showed a marked preference for mitigating language, emphasizing harmony and relational continuity. For example, they might say, “Maybe next time we could try a different approach?” rather than “That was your mistake.” This finding suggests that societal norms regarding politeness and face-saving can significantly shape how reproach is packaged and delivered. In contrast, participants from more individualist backgrounds appeared comfortable with direct statements, perceiving them as efficient or forthright modes of critique.

Lastly, the results highlight implicature as a subtle yet potent mechanism for amplifying or moderating reproach. In approximately 43% of the corpus, speakers relied on unstated criticisms and indirect hints, presuming that shared context or earlier conversational turns would allow hearers to infer the extent of dissatisfaction[4]. An example included, “I noticed some people didn’t quite meet the deadline,” uttered in a neutral tone yet clearly targeting a specific individual who was late.

When implicature served to amplify censure, it often took the form of irony or sarcasm (“Well, that sure went smoothly!” after a glaring mistake). By forcing the listener to decode the

mismatch between literal and intended meanings, the speaker effectively heightened the reproach’s impact. Conversely, dampening implicatures might emerge as gentle nudges or sotto voce remarks, allowing speakers to register disapproval without overt condemnation. This strategy was frequently employed when a face-saving move was warranted—especially in delicate or ongoing interpersonal contexts. Importantly, failures in implicature comprehension frequently escalated interpersonal tension. In about 20% of implicature-based reproaches, listeners either did not grasp the implied criticism or misconstrued the speaker’s intent altogether. Such misunderstandings could lead to defensiveness or confusion, corroborating Grice’s contention that cooperative interpretation is essential for smooth communication. Furthermore, this aligns with conversation-analytic findings that misalignments in interpretive frameworks—whether due to cultural differences or personal expectations—can magnify the face-threatening consequences of negative feedback .

Overall, these results illuminate the complex interplay of tone, context, and implicature in shaping how reproach is formulated, delivered, and interpreted. By carefully modulating prosodic features, choosing direct or indirect strategies, and leveraging (or withholding) implicature, speakers negotiate social norms and relational goals. The data offer concrete evidence that contextual factors (hierarchical vs. peer-level interactions, cultural backgrounds) significantly influence the degree of directness and severity. Simultaneously, implicature can serve as both a cushion against direct confrontation and a sharp tool for intensifying criticism—its efficacy, however, hinges on shared assumptions and interpretive cooperation.

These findings contribute to pragmatic scholarship by reinforcing the idea that speech acts—particularly reproach—cannot be fully understood in isolation from the multidimensional features of discourse. Future research might expand on these insights by exploring additional cultural or institutional contexts, or by integrating non-verbal behaviors (e.g., gesture, facial expression) to further elucidate the nuanced delivery of negative feedback.

DISCUSSION. The current findings illuminate the multifaceted nature of reproach by demonstrating how tone, context, and implicature intersect to influence both speaker strategy and listener interpretation. Each of these dimensions offers a lens through which to understand how negative feedback—particularly reproach—can either escalate tension or facilitate social repair. The data corroborate the notion that prosodic features (e.g., pitch, volume, stress) convey the emotional force behind a reproach. A harsher, more emphatic contour often intensifies the negative evaluation, potentially heightening the face-threatening impact on the listener[1].

Conversely, softer prosody aligns with more indirect forms of reproach, suggesting a strategic effort to mitigate conflict while still indicating dissatisfaction (Tannen 105–107). This aligns with conversation analytic perspectives that treat prosody as a “contextualization cue” guiding the listener in how to interpret the speaker’s illocutionary force.

Social context—including power asymmetries, relational closeness, and cultural norms—further modulates how reproach is formulated and received. In professor–student interactions, the tendency toward indirect reproaches reflects dual motives: maintaining authority while

preserving a cooperative classroom climate. Among peers, more direct strategies are feasible due to the perceived lower risk to face within close or equal-status relationships.

On a cross-cultural level, participants from collectivist backgrounds showed a higher propensity for mitigating language, aligning with broader cultural emphases on relational harmony and face-saving. In contrast, participants socialized in more individualist traditions were comfortable employing direct criticism, often viewing it as forthright or efficient. Such patterns affirm that pragmatic competence in reproach includes not only linguistic but also cultural fluency, as speakers must tailor their negative feedback to situational and cultural expectations[5].

The strategic use of implicature emerged as a means for managing politeness and softening (or intensifying) the force of reproach. By embedding criticism within indirect language, speakers can preserve mutual face and avoid overt confrontation. However, this tactic requires shared knowledge and interpretive cooperation; when listeners fail to decode the implied reproach, misunderstandings may escalate interpersonal tension. The ironic or sarcastic reproaches noted in the data highlight how speakers can ironically heighten disapproval via implicature—what might seem on the surface like a benign or even praising statement can be laden with critical force when decoded correctly.

Taken together, these results emphasize that pragmatic competence—the ability to navigate speech acts skillfully—plays a vital role in maintaining social relationships.

Reproach is inherently risky, as it calls attention to others’ shortcomings or norm violations, yet it also serves a regulatory function by upholding community standards. Speakers who modulate their tone, adapt to the social context, and adeptly deploy implicature are better positioned to preserve rapport while expressing valid concerns or dissatisfaction.

Ultimately, a deeper comprehension of reproach as a dynamic, context-sensitive speech act fosters greater awareness of how language can resolve or exacerbate interpersonal tensions. Mastering the interplay of tone, context, and implicature enables communicators to nuance their criticisms and navigate the delicate territory of negative feedback with minimal relational damage. As communication environments become increasingly diverse and intercultural, such insights prove invaluable for academics, professionals, and everyday interlocutors alike.

CONCLUSION. This study has demonstrated that reproach, as a distinct speech act, is strongly influenced by the interplay of tone, contextual factors, and implicature. Tone—manifested in prosodic cues such as pitch, stress, and intensity—serves as an immediate vehicle for signaling the speaker’s stance and level of disapproval. The social context, including hierarchical relationships and cultural norms, further shapes how reproach is delivered and interpreted; speakers in more formal or unequal power settings often favor indirect strategies that rely on implicature to mitigate face threats. In contrast, reproaches in more equal or familiar contexts frequently employ directness.

Finally, implicature provides a mechanism for speakers to balance politeness and clarity, allowing them to convey negative evaluation without explicit condemnation. Failure to grasp

implicature can lead to misunderstanding or heightened interpersonal tension. Overall, these findings highlight the importance of pragmatic competence for anyone navigating critical or corrective exchanges. Recognizing how tone, context, and implicature work in tandem can enhance communicative effectiveness and preserve social harmony. Future research might extend these insights by examining a broader array of cultures, languages, and situational variables, thereby refining our understanding of how reproach functions across diverse linguistic communities.

REFERENCES

1. Brown, Penelope, and Stephen C. Levinson. *Politeness: Some Universals in Language Usage.* Cambridge UP, 1987.

2. Bublitz, Wolfram**.** *Foundations of Pragmatics.* De Gruyter Mouton, 2011.

3. Grice, H. P**.** *Studies in the Way of Words.* Harvard UP, 1989.

4. Gumperz, John J. *Discourse Strategies.* Cambridge UP, 1982.

5. Haugh, Michael. “Intention in Pragmatics.” *Intercultural Pragmatics*, vol. 5, no. 2, 2008, pp. 239–268.

6. Hepburn, Alexa, and Galina B. Bolden. “The Conversation Analytic Approach to Transcription.” *The Handbook of Conversation Analysis*, edited by Jack Sidnell and Tanya Stivers, Wiley-Blackwell, 2013, pp. 57–76.

7. Schegloff, Emanuel A. *Sequence Organization in Interaction: A Primer in Conversation Analysis I.* Cambridge UP, 2007.

8. Tannen, Deborah. *Talking Voices: Repetition, Dialogue, and Imagery in Conversational Discourse.* Cambridge UP, 1989.

9. Tracy, Karen. *Challenges of Ordinary Democracy: A Case Study in Deliberation and Dissent.* Penn State UP, 2010.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ORCID: 0009-1646-4809

QO‘QON – ADABIY TURIZMI
Immersiv adabiy turizm orqali madaniy va iqtisodiy tiklanish sari

Abdullayeva Madina Manzurovna
« Qo‘qon» davlat muzeyi-qo‘riqxonasi, katta ilmiy xodimi
Email: mabdullayeva0908@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo‘qon shahrining boy adabiy merosi va uni zamonaviy turizm orqali jonlantirish masalasi tahlil etiladi. Maqolada immersiv adabiy turizm tushunchasi, uning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari yoritilgan. Tarixiy manbalar asosida Qo‘qonning XIX asrdagi adabiy muhitdagi roli ochib berilgan, Umarxon, Nodira, Muqimiy, Furqat kabi ijodkorlarning faoliyati tahlil qilingan. Shuningdek, adabiy turizmning iqtisodiy va ijtimoiy foydalari, yangi ish o‘rinlari yaratish, kichik biznesni rivojlantirish va madaniy brend sifatida shahar qiyofasini tiklashdagi o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola yakunida Qo‘qonda adabiy festivallar, interaktiv muzeylar, AR texnologiyalar va sahnalashtirilgan ekskursiyalar orqali immersiv tajribani yaratish g‘oyalari ilgari surilgan. Maqolaning asosiy xulosasi shuki, Qo‘qonning adabiy merosi zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilsa, u nafaqat tarixiy, balki iqtisodiy va madaniy yuksalish omiliga aylanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon, adabiy turizm, madaniy meros, immersiv turizm, Muqimiy, Nodira, Umarxon, iqtisodiy rivojlanish, tarixiy meros, festivallar, turizm infratuzilmasi, madaniy siyosat.

Аннотация: В статье рассматривается литературное наследие города Коканд и возможности его актуализации через современные формы туризма. Особое внимание уделяется концепции иммерсивного литературного туризма как инновационного подхода к сохранению и популяризации культурных ценностей. На основе исторических источников анализируется роль Коканда в развитии поэтической традиции XIX века и вклад таких личностей, как Умархан, Нодира, Мукими и Фуркат. Отдельная часть посвящена экономическим и социальным преимуществам литературного туризма, в том числе созданию новых рабочих мест, поддержке малого бизнеса и привлечению инвестиций. В качестве перспективных направлений предложены литературные фестивали, театрализованные экскурсии, музеи с элементами дополненной реальности. Выводом статьи является то, что интеграция литературного наследия с цифровыми

технологиями способна превратить Коканд в динамичный центр культурного и экономического роста.

Ключевые слова: Коканд, литературный туризм, культурное наследие, иммерсивный туризм, Мукимий, Нодира, Умархан, экономическое развитие, историческое наследие, фестивали, туристическая инфраструктура, культурная политика.

Annotation: This article explores the rich literary heritage of Kokand city and examines the potential of reviving it through modern immersive literary tourism. The study highlights the theoretical foundations and practical applications of immersive tourism as a tool for preserving and promoting cultural identity. Drawing on historical sources, the paper analyzes Kokand’s significant role in 19th-century Uzbek literature, focusing on figures like Umar Khan, Nodira, Muqimiy, and Furqat. It also emphasizes the economic and social benefits of literary tourism, including job creation, development of small businesses, and cultural branding. The article proposes the implementation of literary festivals, interactive museums, augmented reality experiences, and guided tours featuring historical personas. The conclusion underscores that integrating Kokand’s literary legacy with modern technologies can transform the city into a vibrant hub of cultural and economic development.

Keywords: Kokand, literary tourism, cultural heritage, immersive tourism, Muqimiy, Nodira, Umar Khan, economic development, historical heritage, festivals, tourism infrastructure, cultural policy.

KIRISH. O‘zbekiston – qadimiy va boy tarixga ega bo‘lgan mamlakat sifatida dunyoda alohida o‘ringa ega. Mamlakatimizda Buxoro, Samarqand, Xiva kabi tarixiy markazlar bilan bir qatorda, Qo‘qon shahri ham o‘zining adabiy va ma’naviy merosi bilan ajralib turadi.[1] Ayniqsa, XIX asrda Qo‘qon o‘zbek adabiyotining yetakchi markazlaridan biriga aylangan bo‘lib, bu yerda Umarxon, Nodira, Muqimiy, Furqat kabi adabiyot namoyandalari faoliyat yuritgan.[2] Bugungi kunda turizm iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan.[6] Shu jihatdan qaralganda, adabiy va ayniqsa immersiv turizm (ya‘ni, to‘laqonli ishtirok va his etish asosidagi sayohat) orqali madaniy merosni jonlantirish, yosh avlodga tarixni sevdira olish hamda iqtisodiy faoliyatni kuchaytirish imkoniyatlari kengdir. [8] Ushbu maqolada Qo‘qon shahrining adabiy salohiyatini immersiv turizm vositasida yanada ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

1. Qo‘qon – adabiy uyg‘onish markazi

Qo‘qon shahri XIX asrda O‘rta Osiyoning eng muhim siyosiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lgan.[1] Aynan shu yerda Umarxon, Nodira, Muhammad Sharif So‘fizoda, Muqimiy, Furqat kabi taniqli shoir va yozuvchilar ijod qilgan.[2] Umarxon o‘zi ham “Amiriy” taxallusi bilan she’rlar yozgan, saroyda adabiy muhit yaratgan. Nodira Begim esa ayol bo‘lishiga

qaramay, ko‘plab shoirlarga homiylik qilgan, “Komila” taxallusi bilan o‘z asarlarini yozgan. Saroydagi adabiy muhit natijasida Qo‘qonda 300 dan ortiq shoir faoliyat yuritgan.[2]

Qo‘qonda shakllangan bu boy adabiy meros bugungi kunda yosh avlodga to‘g‘ri yetkazilishi kerak. Bu meros orqali faqat tarixni emas, balki o‘zlikni anglash, madaniy g‘urur va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish ham mumkin.[4]

2. Immersiv adabiy turizm nima va u qanday ishlaydi?

Immersiv turizm – bu an’anaviy ekskursiyalardan farqli ravishda, sayohatchining voqelikni nafaqat tomosha qilish, balki uni boshdan kechirishiga imkon beruvchi tajribadir.[6],[8] Adabiy turizmda esa bu shoirlar, yozuvchilar hayoti va ijodi bilan bevosita tanishish, ularning asarlarini eshitish, sahnalashtirilgan chiqishlarda qatnashish kabi usullar orqali amalga oshiriladi.

Misol uchun, Angliyada Vilyam Shekspir tug‘ilgan Stratford-upon-Avon shahrida har yili millionlab sayyohlar adabiy marshrutlar bo‘ylab sayr qiladilar.[7] Shunga o‘xshash tajribani Qo‘qon shahrida ham yaratish mumkin. Quyidagi shakllar immersiv adabiy turizm uchun ayni muddao bo‘lishi mumkin:

Shoirlar obrazidagi gidlar – sayyohlarni Umarxon, Nodira, Muqimiy obrazida kutib olish.

She’rlar o‘qiladigan sayrlar – Muqimiy va Furqat she’rlari tarixiy binolar fonida jonli ijroda yangrashi.[5]

Mobil ilovalar orqali AR (augmented reality) – telefon kamerasidan qaralganda, tarixiy obida ustida she’rlar chiqishi, shoirlarning 3D qiyofasi paydo bo‘lishi.

Adabiy teatrlar va mushoira kechalari – yosh aktyor va san’atkorlar tomonidan jonli sahnalashtirish.

3. Iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlar

Adabiy turizm nafaqat madaniy merosni ommalashtirish, balki iqtisodiy barqarorlik uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi.[7] Quyidagi sohalarda immersiv adabiy turizmdan foydalanilinganda sezilarli o‘sish bo‘lishi mumkin:

Ya`ni, yangi ish o‘rinlari: aktyorlar, gidlar, animatorlar, texnik xodimlar, AR dasturchilar uchun.

Kichik biznes uchun imkoniyat: adabiy motivli kafe, do‘kon, suvenir ishlab chiqaruvchilar.

Sayyohlik infratuzilmasi: mehmonxonalar, qo‘llanmalar, xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashadi.

Investitsiyalar: davlat grantlari, xususiy loyihalarga jalb qilinadigan sarmoyalar.

Qo‘qonda allaqachon bu borada salmoqli harakatlar qilinmoqda. Xususan, xalqaro hunarmandchilik festivali, Qo‘qon kinosi festivali va boshqa madaniy tadbirlar bu jarayonga start bergan.[12]

4. Adabiy festival va tadbirlar – shahar brendi sifatida

Har yili adabiy festival o‘tkazish Qo‘qon brendini yaratadi. Misol uchun, “Qo‘qon - she’riyat poytaxti” festivali quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

Yosh ijodkorlar uchun mushoiralar;

Xalqaro mehmonlar – adabiyotshunoslar, shoirlar, tarjimonlar;

Mahalliy hunarmandlar yarmarkasi;

Madaniy meros obidalarida spektakllar.[11]

Bunday festival nafaqat turizm rivoji, balki mahalliy aholining madaniy faolligini oshiradi, yosh avlodda o‘z tarixiga, tiliga, adabiyotiga mehr uyg‘otadi.

Shu bilan birga Qo`qon shahar me`moriy obidalari- Qo`qon adabiy muhiti bilan uyg`unlashgan holda hab bir ob`ekti immersiv-interaktiv sayohat maskanlari bo`la oladi. Quyida mashxur shoir va adiblar yashab ijod etgan mahalla hududlari, uy muzey va hujra muzeylarni ko`rib chiqamiz:

1. Urda – Adabiy madaniyat markazi

Sharhi: Urda Qo‘qon adabiy hayotining markaziy maskani bo‘lib xizmat qilgan. Xon saroyida mashhur shoirlar - Amiriy, Nodira, Mag`zuna, Muhammad Solih ( Sog`uniy), Ashrafhon Bedil ishtirokida adabiy yig‘inlar o‘tkazilgan.

Immersiv salohiyat: Xon qabulxonasida she’riy chiqishlar, teatr ko‘rinishidagi sahnalar yaratish orqali mehmonlar xuddi tarixning o‘zida bo‘lgandek his qiladi.

2. Jome masjidi – Ruhiy va ma’naviy ilhom manbai

Sharhi: Jome masjidi Qo‘qonning diniy-ma’rifiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Shoirlar aynan shu joyda tasavvufiy g‘oyalarni singdirgan.

Immersiv salohiyat: Tasavvuf she’riyati, zikir va ilohiy ashulalardan foydalanib, ruhi ilhomlantiruvchi tajriba yaratish mumkin.

3. Nodira qabri – Ayol shoirlar xotirasi

Sharhi: Nodirabegim – ayol shoir, davlat arbobi sifatida tarixda iz qoldirgan. Uning qabri atrofida ayol ijodkorlar merosini yodga olish tadbirlari o‘tkaziladi.

Immersiv salohiyat: Qabr ziyorati paytida ayol shoirlarning she’rlari o‘qiladi, ayollar ijodiy maktabi haqida jonli hikoyalar namoyish etiladi.

4. Muqimiy hujra muzeyi – Ustoz-shogird an’anasi

Sharhi: Muqimiy jadid she’riyatining asoschilaridan biri bo‘lib, u faoliyat yuritgan hujra adabiy muloqotlar maskani bo‘lgan.

Immersiv salohiyat: Audio-gidlar, jonli she’rxonlik, kaligrafiya bo‘yicha ustaxonalar orqali adabiy tajriba yaratiladi.

5. Hamza uy-muzeyi – Teatr va adabiyotni uyg‘unlashtirgan makon

Sharhi: Hamza teatr orqali adabiyotni ommaga olib chiqqan. Hamza uy muzeyi orqali shaxsiy buyumlar, asarlari bilan tanishish mumkin.

Immersiv salohiyat: Uyning o‘zida Hamza asarlaridan sahnalar jonlantiriladi, aktyorlar ishtirokida teatrlashtirilgan chiqishlar bo‘lib o‘tadi.

6. Buyuk allomalar muzeyi – Ilmiy va adabiy aloqalar

Sharhi: Bu muzey Qo‘qon ilm-fan va adabiyotning uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shoirlar bilan bir qatorda mutafakkirlar ham ilhom manbai bo‘lgan.

Immersiv salohiyat: Adabiyot va ilm o‘rtasidagi uzviylikni tematik ekspozitsiyalar, videoarxivlar va interaktiv displeylar orqali namoyish etish mumkin.

Umumiy xulosa: Ushbu obidalar immersion (ya‘ni, to‘laqonli ishtirok va his etish asosidagi sayohat) effekti orqali mehmonlarni tarix, she’riyat va ma’naviyatga olib kiradi. Har bir manzil - she’r, hikoya, ruh va tarixni jonlantiruvchi sahna bo‘lib xizmat qiladi.

5. Tarixiy va ilmiy salohiyatni birlashtirish

Qo‘qonning adabiy tarixi bilan bir qatorda, arxeologik va ilmiy jihatdan ham salmoqli ahamiyati bor. Moyi-Muborak va Tepa-Qo‘rg‘on kabi yodgorliklar hududida olib borilgan qazishmalar bu yerda miloddan avvalgi VII asrdayoq taraqqiy etgan sivilizatsiya mavjud bo‘lganini isbotlaydi.[1] Bu tarixni adabiyot bilan uyg‘unlashtirib, keng ko‘lamli ilmiy-adabiy sayohatlarni yo‘lga qo‘yish mumkin.

Qo‘qonning tarixiy merosini o‘rganishda mahalliy olimlar - S. Sirojiddinov, A. Aripov, T. Zohidovlar bilan birgalikda hozirgi kunda Yahyo Dadaboyev, Latif Turdaliyev, M.Abdullayevlar kabi mutaxassislar muhim rol o‘ynab kelishmoqda. [3],[5] Adabiy merosni chuqur o‘rganish, uni yangi avlodga zamonaviy vositalar orqali yetkazish - bugungi kunning asosiy vazifalaridandir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Mazkur maqola orqali Qo‘qon shahrining adabiy salohiyatini, boy madaniy merosini immersiv turizm vositalari orqali jonlantirish imkoniyatlarini ochib berish maqsad qilingan. Adabiy turizmni rivojlantirish orqali nafaqat tarixni saqlab qolish, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan yuksalish ham ta’minlanadi. [6],[7] Bu jarayon yosh avlodni ma’naviy yetuklik sari yetaklaydi va shu bilan birga boshqa davlatlardan tashrif buyurgan turistlarni Qo`qon adabiy muhiti bilan tanishtirishda salohiyatli imkon yaratib, buni zaminida boshqa davlatlar bilan do`stona va diplomatik aloqalar keng yo`lga qo`yilishida samarali hissa qo`shadi. [9],[10]

XULOSA. Qo‘qon- o‘zbek adabiyoti va ma’naviyatining yuragi. Bu shahar adabiyot va madaniyat orqali o‘z kelajagini barpo etish salohiyatiga ega. [6],[8] Immersiv adabiy turizm esa bu salohiyatni amalga oshirishning eng samarali vositalaridan biridir. Davlat idoralari, tadbirkorlar va ijodkorlar ushbu g‘oya atrofida birlashsalar, Qo‘qon nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham adabiy poytaxtga aylanishi mumkin. [11],[12]

Bugun kunga kelib aynan shu yo`nalishda harakat qilish vaqti keldi. Qo‘qonning kelajagi - uning o‘tmishdagi so‘z boyligi, ma’naviy merosi va ijodiy ruhi bilan bog‘liq. Uni zamonaviy shaklda jonlantirish esa barchamizning burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. To‘raqulov A. Qo‘qon xonligi tarixi. – Toshkent: Fan, 2006.

2. Usmonxo‘jayev A. Qo‘qon adabiy muhiti va saroy shoirlari. – Toshkent: Yozuvchi, 1998.

3. Sirojiddinov S. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.

4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

5. Sattorov M. O‘zbek adabiy merosi va tarixiy shaxslar. – Farg‘ona: Ilm Ziyo, 2015.

6. Hakimov N. Turizm nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: “Iqtisodiyot va moliya”, 2012.

7. Qosimova D. O‘zbekistonda madaniy turizmni rivojlantirish yo‘llari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

8. Normatova D. Immersiv ta’lim va turizm: yangi yondashuvlar. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.

9. Fazliddinova Z. Adabiyot va milliy meros integratsiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

10. Islomov A. Sharq mutafakkirlari va ularning merosi. – Toshkent: Fan, 2010.

11. Sayfullayeva N. Adabiy-madaniy merosni turizmda qo‘llash usullari. – Toshkent: Ma’rifat, 2022.

12. Mirvaliyev M. Qo‘qon: tarix va madaniyat durdonasi. – Farg‘ona: Nurli Ziyo, 2018.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

BADIIY MATN JOZIBASI

Niyozmatov Abdullajon Anvarjon o‘g‘li
Qo‘qon davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada lingvopoetikaning asosiy tekshirish obyekti hisoblangan badiiy matnda emotsional-ekspressiv fon yaratuvchi badiiy so‘zning o‘rni va ta’sirchanlikni yuzaga keltirgan omillar Qo‘chqor Norqobil hikoyalarida muallifning tavsifiy tili hamda ayrim qahramonlarning nutqi orqali ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar. Lingvopoetika, matn turlari, badiiy til va uni shakllantiruvchi unsurlar, ko‘chim, metafora, o‘xshatish, takror, ibora, maqol, aytim.

KIRISH

Matnning turlari ko‘p. Matnning ana shu xillari uning strukturasini shakllantirgan umumiy leksikonda ishlatiladigan so‘z va iboralar orqali tafovutlanadi. Lingvopoetikaning tekshirish obyekti badiiy matn hisoblanadi. Lingvopoetika bo‘yicha salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirgan prof. M.Yo‘ldoshevning e’tiroficha, “...har qanday badiiy asarda tilning kommunikativ vazifasi ham reallashadi, ammo estetik vazifa birinchi planda turadi, yetakchilik qiladi”. [2] O‘zbek tilidagi badiiy matnlar, tilshunos olim ta’kidlaganidek, bundan mustasno emas. Ularda sharq she’riyatining uslubi, tasviriy vositalarining ta’siri yaqqol sezilib turadi. Badiiy matnning bu belgilarini dunyo tilshunoslari e’tirof etganlari bu borada ayon haqiqat. Mana bu iqtibos M.Yo‘ldoshev xulosasiga urg‘u bergani rost: “Badiiy matn har qanday nobadiiy matndan farqli o‘laroq, alohida vazifani – kommunikativ vazifa bilan murakkab o‘zaro aloqadorlikda namoyon bo‘luvchi va matnning o‘ziga xos qurilishida hal qiluvchi omil hisoblanuvchi estetik vazifani bajaradi”. [1] Darhaqiqat, agar lingvopoetikaga bag‘ishlangan tadqiqotlar jiddiy ko‘zdan kechirilsa, biz mushohada yuritayotgan yo‘nalishning dastlabki asosi – til, ayni paytda ana shu til orqali ifodalangan poetik maqsad yoki poetik hodisa va uning mazmuniy strukturasidir. Bunda muallifning aytmoqchi bo‘lgan fikrlari turli shakllar orqali namoyon bo‘ladi. Shakllarning xilma-xilligi, turli-tumanligi, tasodifiyligi, kutilmaganligi, ta’sirchanlik darajasi aytilmoqchi bo‘lgan fikrlarning poetik strukturasini tashkil qiladi. Poetik strukturada muallifning kommunikativ niyati, kommunikativ maqsadi, hozirjavobligi, qahramonlar ruhiyati va xarakteriga xos bo‘lgan xususiyatlar aks etadi. Shuning uchun ham lingvopoetik tahlil ikki sohaning yukini yelkasida ko‘tarib turadi. Yuqorida ta’kidlangan ilmiy tushunchalarning mazmuni matn, nutq, ifoda tarkibida aks etadi. Shuning uchun ham badiiy matnning har qanday shakli shoir yoki yozuvchining poetik mahorati asosida lingvistik birliklar mazmuniy

strukturasiga joylanadi. Shu sababli ham lingvopoetikaning xomashyosi hisoblangan matn umumiy til qonuniyatlari majmuasi sifatida talqin qilinadi. [5]

Bulardan kelib chiqadigan aniq to‘xtam shuki, badiiy matnning tili badiiy til yoki badiiy so‘z hisoblanadi. Badiiy til matnning zohirida aniq ko‘rinib turadi; botinan esa uning estetik ta’sirchanligi aniq his qilinib, o‘quvchining shuuridan tashqari, tuyg‘ulariga kuchli ta’sir etadi, o‘quvchini hayajonga soladi, to‘g‘risi, tilning asosiy funksiyalaridan bo‘lgan estetik va gnoseologik (dunyoni bilish) vazifalarini bab-baravar shakllantiradi. Tilning kumulyativ funksiyasi, ya’ni insoniyat qo‘lga kiritgan tajriba va bilimlarni saqlash hamda o‘z navbatida avlodlarga yetkazish funksiyasi ham shu orqali amalga oshiriladi. Bu esa badiiy til (badiiy so‘z – emotsional-ekspressivlik bilan to‘yintirilgan so‘z) maromi va mezonlari yo‘lini muayyan darajada tartiblagan alohida iste’dodlarga nasib etadi. Modomiki shunday ekan, “badiiy til” termini yuzasidan ushbularni aytishni joiz bilamiz.

Ayonki, boshqa tillar qatori o‘zbek tilining umumxalq tili hamda adabiy til sifatida tasniflanishi barchaga ma’lum. Badiiy til sun’iy ravishda paydo bo‘lgan. Aslida, “badiiy til” - umumxalq tili fondida mavjud so‘z va iboralarning muayyan badiiy asarda muallif tomonidan jilo berilgan ko‘rinishi. Muallif tanlangan so‘z yoki iborani tavsifiy matn yoki timsollar nutqiga olib kirar ekan, uning turli variantlarini, ekvivalentlarini, metaforik shakllarini, sinonim, omonim, antonim ko‘rinishlarini, bir so‘z bilan aytganda, ko‘chimga uchrab, ta’sirchanligi ortgan shakllarini tavsifiy hamda diologik matnga singdirib, obraz yaratadi yoki obrazli manzaralar hosil qiladi. Shuning uchun mumtoz va zamonaviy shoirlarning, nosirlarning asarlari o‘qilganda o‘quvchini alohida hayajon qamrab oladi. O‘quvchi o‘ziga tanish bo‘lgan manzaralarni badiiy matn muallifi ko‘zi bilan ko‘radi, uning ilgari surayotgan g‘oyasi bilan nafas oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hazrat Alisher Navoiy nafaqat o‘zbek adabiy tilining asoschisi, balki, shartli ravishda mushohada qilinsa, o‘zbek badiiy tilining ham kashshofi sanaladi. Uning serjilo o‘zbek tilining imkoniyatlarini to‘liq ishga sola olganligi, har bir so‘z yoki iboraga estetik bo‘yoq bera olganligi, so‘z va iboralarni jilvalantirib va jilolantirib berganligi, tilimizni yangi ta’sirchan so‘z va iboralar bilan boyitganligi bilan o‘zbek badiiy tilining kashshofiga aylana olgan. Tilshunos mutafakkir Mahmud Qoshg‘ariy “Devon-u lug‘atit turk”da turkiy til bilan forsiy tilning ikki uloqchi ot singari chopib borayotganligi va turkiy til bu chopishda peshqadamlilikni qo‘lga olganligi va oldinga o‘tib ketganligini ayni Alisher Navoiyning badiiy tili misolida isbotlash mumkin. Alisher Navoiyning badiiy til borasidagi iste’dodi keyingi avlod badiiychilar, jumladan, bugungi kun shoir va nosirlari ijodida ham chuqur iz qoldirgan.

XX asr badiiy tilining zakiy bilimdoni Abdulla Qahhorning o‘zbek tilining rangin va zangin so‘zlarini badiiy matnga singdira bilish mahorati keyingi yillarda Sh.Xolmirzayev, Erkin A’zam, Qo‘chqor Norqobil ijodida ham namoyon bo‘ldi. Ular salaflari izidan borish bilan bir qatorda, xalq tilida mavjud so‘z va iboralarni matndagi o‘rniga qarab “badiiylash”tirdilar. Ularga oxorli fayz berdilar, bular orqali tilimizning naqadar boy, serjilo, o‘zga bir tillarda

uchramaydigan ta’sirchanlik, kishining vujudini zirillatib, ruhini junbushga keltirib yuboradigan qudratini namoyon eta oldilar. Ana shunday til zahmatkashlaridan biri, o‘zbek tilining takrorlanmas jozibasini she’riyati va nasrida, dramatik asarlarida ko‘rsata olgan iste’dodlardan biri Qo‘chqor Norqobil hisoblanadi.

Maqolada Qo‘chqor Norqobilning bir hikoyasi misolida uning ana shunday iste’dodining ayrim qirralariga to‘xtab o‘tamiz. Bu hikoyaning nomi “Hamyon”. Mazkur hikoya zamonaviy mavzuda bo‘lib, unda qahramonlar nutqi shu qadar badiiylashganki, uni xuddi musiqa tinglayotganday o‘qiysiz. Avvaliga shuni aytish joizki, bizning nazarimizda, personajlar tiliga qaraganda, hikoyachi roviyning tili badiiy ta’sirchanligiga ko‘ra bir qadar oldinda turadi. Umuman olganda, Qo‘chqor Norqobilning tasvir va tavsif uslubi boshqa nosirlar uslubiga qaraganda boshqacharoq. Uniki, Sh.Xolmirzayev tili bilan aytganda, shoirona. Qo‘chqor Norqobil nasri tilida mumtoz she’riyatning ifori sezilib turadi: kutilmagan, tandirdan endigina uzilganday jozibali tashbehlar, nozik ifodalar, xalqona iboralarni matnga singdirib yuboradi. Yozuvchi muayyan makon, vaziyat, qahramonlar holati, psixologiyasi va hikoya uchun zarur bo‘lgan unsurlarni yuqori darajada kompozitsion butunlikda berishga, ta’bir joiz bo‘lsa, hikoya uchun zarur bo‘lgan unsurning birortasini e’tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qiladi va bunga erishadi ham. Zikr qilinganlarni yaxlit butunlikda, bir-biriga silsilaviy bog‘liq ravishda beradi. Ayniqsa, til unsurlarining har bir tavsifdagi o‘rni ayni voqelik shiddati bilan chambarchas bog‘liq ravishda kechadi.

NATIJALAR

Tahlil qilinayotgan hikoyada dialogik matndan ko‘ra monologik o‘rinlarga ko‘proq e’tibor berilgan. Lingvopoetik nuqtayi nazardan qaralsa, tavsifiy matn ham tegishli poetizmlar bilan to‘yintirilgan. Dialoglarda esa qahramonlar xarakteri va unga bog‘liq bo‘lgan til (nutq) individuallik kasb etgan. Hikoyada uchta qahramon mavjud: Olim obzey, hamyonini yo‘qotgan Olga Ivanovna va roviy (muallifning o‘zi). Shu o‘rinda bir holatga e’tibor qilish lozim. Hikoyaning dastlabki qismlarida ikki inteligentning, to‘g‘rirog‘i, bir yozuvchi-yu va bir san’atshunosning rus yozuvchisi A.P.Chexovning “Hamyon” nomli asari borasidagi mubohasasi xususida so‘z boradi. Ular Chexov asarini shunday tahlil qiladilarki, dialoglaridan ikki adabiyotshunosning muhokama va mulohazalarini tinglayotganday bo‘lasiz. Bularning barchasini adib o‘zgacha mahorat bilan talqin qiladi. Mana bu mulohazalar fikrimizga dalil bo‘la oladi: “Chexovning ko‘plab hikoyalarida inson qaltis bir vaziyatda qolganda yoki hayajonli holatda uning botinida bir tushunarsiz harakat paydo bo‘ladi, buni hech kim izohlay olmaydi, na tanqidchi, na yozuvchi, Chexovning zo‘rligi shunda. O‘qish jarayonida ana shu ichki harakatni sezib qolsangiz, ye-e-eu, menda ham shunday bo‘luvdi, bu menman-ku, desangiz, Chexov sizni o‘ziga yaqinlashtiradi”. Yoxud “Olim obzey aytgani kabi, chinakam yozuvchining qoshi ostida do‘layib turgan ikki ko‘zidan tashqari, qalbida ham ming-minglab ochiq ko‘zi bo‘larkan...”[4]. Bizningcha, Qo‘chqor Norqobil, hikoya tilini ishlashda, ana shu ochiq ko‘zni “ishga solgan”, ko‘rinadi. Zero muallif nutqidagi poetizmlar, poetik xususiyati

bo‘rtib turgan iboralar syujetning ohanrabosidan tashqari, hikoyaning lisoniy mukammalligi va bundan hosil bo‘ladigan emotsionallikni ta’minlab bera olgan.

Avvalo, muallifning o‘z suhbatdoshini “Olim” antroponimi bilan berishi alohida e’tiborga molik. Balki bu mayda mulohaza bo‘lib tuyilar, lekin olim odamgina Chexovdan xabardor bo‘ladi va hikoyani adabiyotshunosga xos usul bilan tahlil va talqin qila oladi. Uning tasviri va tavsifida yozuvchi o‘ta nazokat bilan ta’sirchan so‘z va iboralarni qo‘llaydi. Masalan, Chexovning mahorati haqida so‘zlash asnosida obzeyga nisbatan *“ikki qo‘lini qanot qildi”, “o‘ng qo‘lini burchak qildi*”[4] singari tesha tegmagan ta’sirchan jest-ifodalarni berishi ham uning xarakter qirrasini yorqin ochib beradi. Bunday olib qaraganda, muallif go‘yo Olim obzey bilan bahsga kirishib, uni yengishni maqsad qilganday ko‘rinadi. Buni *“Olimboyning posongisini pasaytirib qo‘yish mavridi hozir”*,[4] degan o‘yidan ham bilsa bo‘ladi. Muallifning iqroridan ham anglash mumkinki, Olim obzey chakana odamlardan emas. Uning mantiqli so‘zlashini yozuvchi muxtasar tarzda xalqona *“tag-tomirli*” ifodasi bilan beradi. Bundan tashqari, uning obzey bilan bahsda g‘olib bo‘lish ishtiyoqi ba’zi bir mulohazalarida ham namoyon bo‘ladi. Chunonchi, uning ruhiyati bilan bog‘liq *“Obzey xomush tortdi, qovog‘idan yoqqan qor, tomingni bosib qolguday”, “so‘rovim ustiga andava tortdim”*[4] kabi ifodalarda shu holat aniq ko‘rinib turadi. Dastlabki ibora xalq orasida keng tarqalgan: *“qovog‘idan qor yog‘moq” – “xafa bo‘lmoq*” so‘ziga teng keladi. Biroq muallif bu ibora ta’sir kuchini oshirish uchun qo‘shgan *“tomingni bosib qolguday”* ifodasi ta’sirchanlikni ikki karra oshirgan. Keyingisi, ya’ni “*so‘rovim ustiga andava tortdim*” degani butunlay yangicha ibora bo‘lib, xuddi muallif nutqida ishlatilgan “*ikki qo‘lini qanot qildi*”, “*qo‘lini burchak qildi”* singari jestga oid tasvirlar kabi tamomila yangilik hisoblanadi. Til bilan bog‘liq bunday holat Qo‘chqor Norqobilning barcha hikoyalarida uchraydi. Ularning tagzaminida o‘xshatish turib, bular orqali tasvirni kuchaytirib, original ta’sirchanlikka erishadi. Obzeyning bu boradagi chuqur bilimi, mulohazalarining pishiqligi tasvirida muallif mana bunday deydi: *“Zehni zo‘r, zaminni zuvala qiladi. Tatar hamxonamga tan beraman. Yo‘q, bu shunchaki o‘qimagan, kosa tagidagi nimkosaga qatiq uvitadiganlar xilidan”*.[4] Bunda ishlatilgan “*zo‘r*” leksemasi konnotativ ma’no kasb etib, uning bilimdonligi, mulohazakorligini, masalaga yondashuvda alohida qobiliyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. SHu ta’rif davomida *“kosa tagidagi nimkosaga qatiq uvitadiganlar xilidan”* izoh iborasi ham konnotativ mavqega ega. *“Kosa tagida nim kosa”* iborasi kishining tagma’noli so‘zlariga nisbatan ishlatiladi. Biroq unga “*qatiq uvitadiganlar xilidan*” singari ko‘chimning qo‘shilishi matnni naqadar jozibali va bahoning chuqur bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Muallif nutqida “*Osmon tund*”[5] jumlasi keladi. Mazkur gapdagi “*tund*” so‘zi, odatda, inson kayfiyati borasida ishlatiladi. Mazkur so‘zning tabiatga nisbatan ko‘chirish muallifning shoirona tafakkuri mevasi hisoblanadi. Qiziq holatki, osmonning bulutli, yog‘ingarchilik bo‘lishi mumkinligini obzey nutqida “*Osmonning qursog‘iga qurt tushib turibdi, aylanay, moloyim, yomg‘irda cho‘milgingiz keldimi?”* [6]deyilishida ham ibora va ko‘chimlar yetakchilik qilib, lingvopoetik ma’no hosil qilgan. Chunonchi “*qursoq*” so‘zi inson qorniga

nisbatan ko‘proq og‘zaki nutqda ishlatiladi. Obzey nutqida bu so‘zning metaforik ma’no tashishi, qahramon nutqining ta’sirchanligini ifodalagan. O‘zbek tilida “qoringa qurt tushishi”, degan ibora yo‘q. Tatarlarda, ehtimol, shunday talqin bordir, bundan qat’i nazar, *“qursog‘iga qurt tushmoq”* iborasini muallifning bir topilmasi sifatida baholashga arziydi.

MUHOKAMA

Aslini olganda ham, Qo‘chqor Norqobil hikoya va qissalari tilida bu kabi “tesha tegmagan” so‘z va iboralarni ko‘p uchratish mumkin. To‘g‘rirog‘i, yozuvchi ayrim bir o‘rinlarda matnga bevosita o‘zbek tilining Surxon koloritiga tegishli izohlovchi xarakterdagi so‘z va iboralarni mahorat bilan singdirib yuboradi. Ayrim misollarga murojaat qilamiz: shu hikoyada muallif o‘zining yomg‘irda qolgan holatini “ust-boshim *shovi-shalabbo* bo‘ldi”, deb izohlasa, yomg‘irli osmonni “*choki so‘kilgan osmon*” tarzida sifatlaydi. Yomg‘ir yog‘ayotgan paytda o‘zidan boshqa kishilar yo‘qligiga ishora qilib, *“yo‘lakning yolg‘iz devonasi*” bo‘lib chopib boryapman” deya tasvirni jonlantiradi. Bundan keyingi voqealarga notanish ayol kirib keladi. Demak, “qizg‘ish shag‘alqum to‘shalgan yo‘lak”da roviy yolg‘iz emas ekan. Keltirilgan mikromatndagi “*devona*” metaforasi ham muallifning shoirona ko‘chimidir. Yo‘lak tasviridagi “*shag‘alqum*” leksemasi ham yozuvchi tomonidan yasalgan so‘z. Ayolni tanishtirishda ham lingvopoetik ma’no tashuvchi shoirona so‘zlarni mahorat bilan qo‘llaydi. Chunonchi ayolning tashqi ko‘rinishi tasvirida mana bu izohlarni havola etadi: “yo‘q, yolg‘iz emas ekanman, ana *moviy shamsiya* ostida *adl qaddiga harir oq* kofta ilib, tizzadan baland *tizzaishton* kiyib olgan, *ko‘z-ko‘z qilguday xushboqim oppoq uzun oyoqlariga* oq krossovka *yarashiqli* juvon”... [6] Mikromatndagi kursivga olingan so‘z va birikmalarga nazar tashlaylik. Juvonni yomg‘irdan pana qilib kelayotgan matohni “*shamsiya*” deb ataydi. SHamsiya - quyoshdan to‘suvchi ashyo, chunki “shams” “quyosh” demak; bu so‘zning boshqa sinonimlari ham bor. Biroq vaziyat lirizmini kuchaytirish uchun muallif atayin “shamsiya” so‘zini ishlatgan ko‘rinadi. Mazkur so‘zning oldidan kelgan “*moviy*” sifatlashining sinonimi “*ko‘k*”. Agar “ko‘k” so‘zi ishlatilganda ta’sirchanlik anchayin sustlashishi mumkin edi. SHuningdek, qomatiga nisbatan ishlatilgan “*adl*”, kiyimiga tegishli “*harir*” so‘zlari ham she’riyat tiliga xos ijobiy ottenkali poetizmlar. Mikromatndagi “*xushboqim*” poetizmi muallif ijodining mevasi bo‘lgan yasama so‘z. Bu so‘z ham g‘oyat e’tibortortar. Uning oldidan kelgan “*ko‘z-ko‘z qilguday*” ifodasi “*xushboqim*” ma’nosiga parallel ravishda ayol go‘zalligiga yana bir karra urg‘u beradi.

Hikoyada shoirona poetizm bilan to‘yintirilgan yana bir tasvir bor: *“...sutga chayilganday tiniq chehrasiga tabassum yoyildi, yelkasiga tushib tushmagan oltintus sochlari to‘lqin uradi. Xudoyim tarovat-u qomatdan qismagan bu xilqatning ta’rifiga so‘z nochor, birodarlar. Ortimga burilib qarayman, deb yo‘lakdan chiqib, so‘l tomonimdagi zovdan qulab o‘lishimga bir bahya qoldi. Go‘zallikning jodusi bor-da, qurmag‘ur, domiga tushsang, qurbonlik talab qiladi...*”[6] Mikromatndagi “*sutga chayilganday tiniq chehrasi*” tasviridagi “*sutga chayilganday*” o‘xshatishi tasodifan uchragan ayol chehrasining chiroyini ifodalashga xizmat qilgan. Bunda “*tiniq chehra*” birikmasi ham ayni she’riyatga xos. Muallif bu o‘rinda “*yuz*” so‘zining ijobiy ottenka tashuvchi sinonimi bo‘lgan “*chehra*” poetizmini ishlatadi. Undagi

“*Xudoyim tarovat-u qomatdan qismagan bu xilqatning ta’rifiga so‘z nochor, birodarlar*” jumlasi baxshiyona bo‘lib, oxirida kelgan “*birodarlar*” undalmasi, undan oldin kelgan “*ta’rifiga so‘z nochor*” so‘z va birikmalari ham ayolning go‘zal qiyofasi tasvirini to‘ldirib turadi. Muallif undan oldin ma’noni yanada kuchayishini ta’minlash uchun “*Xudoyim tarovat-u qomatdan qismagan xilqat*”, deb ayolni ta’rif etadi. Go‘zallikdan hayratga tushish holatini “*qurmag‘ur*” alqov so‘zi bilan ixcham tarzda ifodalaydi. Odatda “*so‘z ojiz”* sifatida ishlatiladiga ko‘chim “*so‘z nochor*” ko‘chimi bilan berilgan.

Shu qahramon (muallifning o‘zi) tilidan tabiat bilan bog‘liq *“yomg‘ir suv to‘la likopchalar yasagan”, “osmonning tagi teshilib, zardasi qaynagan”*[6] kabi jonlantiruvchi ifodalarda ham ko‘chim ta’sirchan holatni yuzaga keltirgan. Yo‘lakdan topib olingan, yerda ivib yotgan hamyon bilan bog‘liq ko‘chimlarda ham tasviriylik yuqori darajada. Unda hamyon bilan bog‘liq “*bog‘ich*” hamda “*tishlari*” so‘zini qo‘llagan; “*tishlari*” aniq metaforik ma’noga ega, “bog‘ich” so‘zining lingvistikadagi o‘rni sal boshqacharoq. Masalan, “yaktakning bog‘ichi”. Hamyonni qulflashda foydalanilgan qism juda kam hollarda “*bog‘ich*” deb ataladi. Ammo “*tishlari*” metaforasi nutqda ancha aktuallashgan holda ishlatiladi.

XULOSA

Qo‘chqor Norqobil badiiy matni haqidagi mulohazalar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, badiiy adabiyot inson tafakkuriga ikki xil ozuqa olib kiradi. Biri o‘quvchi badiiy asarni o‘qish bilan hosil bo‘ladigan takrorlanmas lazzat bo‘lsa, yana biri uning ongida paydo bo‘ladigan bilim, ya’ni hayot va inson munosabatida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlar haqidagi tasavvur. O‘quvchi har bir badiiy asarni ayni shu maqsadlarda o‘qiydi va undan o‘ziga yarasha hikmat topadi.

Ikkinchidan, badiiy matn ilmiy, rasmiy, publitsistik va boshqa matnlardan farqli o‘laroq, emotsionallik bilan to‘yingan bo‘ladi. Ularda metafora, o‘xshatish, sinonim, omonim, antonim, paronim so‘zlar, ta’sirchan iboralar, hatto dag‘al so‘zlarga ham o‘rin beriladi. Badiiy matn, magarki, estetik maqsad o‘laroq yaratilar ekan, unda ko‘chimga uchragan so‘zlardan tasvir talabi bilan keragicha ishlatish mumkin.

Uchinchidan, o‘zbek yozuvchilari badiiy tildan o‘z uslubi, badiiy niyatidan kelib chiqib qo‘llashda milliy mentalitetning mezonlari va asrlar bo‘yi shakllangan an’analar, ayniqsa, mumtoz she’riyatda keng istifoda qilingan tasviriy vositalardan atroflicha foydalanish tajribalaridan kelib chiqib ijod qilganlar va bular asosida badiiy matnni shakllantirganlar.

To‘rtinchidan, Qo‘chqor Norqobil nasri uslubi boshqa adiblarning nasrdagi usullaridan tamomila farq qilib, nasrda she’riy usullarni istifoda etib, hayotiy va emotsional-ekspressiv quvvatga ega badiiy matnlar yarata olgan adiblar qatorida turadi.

Beshinchidan, Qo‘chqor Norqobilni boshqa qalamkashlardan ajratib turadigan jihati shundaki, adib badiiy matnda ishlatilgan tasviriy so‘z va iboralarga lingvopoetik ma’no berishda peshqadam hisoblanadi. Uning tahlilga tortildgan birgina hikoyasida lingvopoetikaga ob’yekt bo‘ladigan hamma narsa bor – metafora ham, epitet ham, sinonim-u antonim ham, o‘zi mansub

hudud kishilari nutqida ishlatiladigan ifodalar ham. Bularning barchasi Qo‘chqor Norqobilning badiiy matn yaratishda noyob iste’dod sohibi, tilimizning rangin va zanginligini namoyon qiladigan, qisqasi, o‘zbek tilining boy va serqatlam ekanligini namoyish qiladigan adibligiga dalolat bera oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Горелкова М.И., Магомедова Д.М. Линвистический анализ художественного текста. – М.: Русский язык, 1989. – Стр. 5.

2. Йўлдошев М.Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2007. –Б. 95

3. Muqimova Z. O‘tkir Hoshimov asarlari tilining lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari: filol. fan. nomz. …diss. – Toshkent, 2020. –B. 94.

4. Norqobil Q. Samolyotda men ham bor edim. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2023. – B. 3-12.

5. Тошхўжайева Ш. Эркин Аъзам асарларининг лингвопоэтикаси. – Тошкент, Фан, 2015.

6. Холмирзайев Ш. Изтироб. // Қўчқор Норқобил. Кулиб тур, азизим. Қиссалар.- Тошкент, Шарқ, 2004. – Б.3-4.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ИСТОРИЯ И ТЕОРИЯ БИЛИНГВИЗМА: ОТ ИСТОКОВ ДО СОВРЕМЕННОСТИ

Каллибекова Наргиза Турсынбай-кызы
Кокандский государственный университет,
самостоятельный соискатель
nargizkakallibekova@gmail.com
+998905944777

Аннотация: В статье рассматривается феномен билингвизма как многоаспектное лингвистическое и социокультурное явление. Анализируются исторические этапы его формирования, ключевые подходы в лингвистике, а также современное осмысление двуязычия в условиях глобализации. Отдельное внимание уделено влиянию билингвизма на когнитивное развитие личности и его интерпретации в трудах русских и зарубежных учёных.

Ключевые слова: билингвизм, двуязычие, лингвистика, когнитивные процессы, языковая политика, нейролингвистика, межкультурная коммуникация.

THEORY OF BILINGUALISM: FROM ORIGINS TO MODERNITY

Abstract The article explores the phenomenon of bilingualism as a multifaceted linguistic and sociocultural concept. It examines the historical stages of its development, key linguistic approaches, and the modern understanding of bilingualism in the context of globalization. Special attention is paid to the influence of bilingualism on cognitive development and its interpretation in the works of both Russian and international scientists

Keywords: bilingualism, dual language, linguistics, cognitive processes, language policy, neurolinguistics, intercultural communication.

BILINGVIZM TARIXI VA NAZARIYASI: KELIB CHIQISHIDAN HOZIRGI ZAMONGACHA

Annotatsiya: Maqolada bilingvizm hodisasi ko‘p jihatli lingvistik va ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida ko‘rib chiqiladi. Uning shakllanishining tarixiy bosqichlari, lingvistikadagi asosiy yondashuvlar hamda globallashuv sharoitida ikki tillilikning zamonaviy talqinlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, bilingvizmning shaxsning kognitiv rivojlanishiga ta’siri va bu boradagi russ hamda xorijiy olimlarning qarashlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: bilingvizm, ikki tillilik, lingvistika, kognitiv jarayonlar, til siyosati, neyrolingvistika, madaniyatlararo muloqot.

ВВЕДЕНИЕ

Билингвизм представляет собой важное лингвистическое и междисциплинарное явление, которое отражает процессы взаимодействия языков и культур в условиях динамично развивающегося социума. Повышенный интерес к проблеме билингвизма обусловлен не только лингвистическими аспектами, но и социокультурными изменениями, связанными с миграцией, глобализацией и изменением образовательной парадигмы. Вопрос двуязычия выходит за рамки сугубо языкового владения и становится ключевым фактором идентичности и когнитивного развития личности.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДЫ

Происхождение термина билингвизм восходит к латинским корням: bi (два) и lingua (язык). В традиционном понимании билингвизм трактуется как свободное владение двумя языками, применяемыми в различных коммуникативных условиях. Однако с развитием лингвистической мысли понятие стало расширяться и усложняться [1].

Данная статья основана на систематическом обзоре научных источников, включающих теоретические исследования работы последних трех десятилетий. Основным методом является сравнительный анализ, позволяющий выявить ключевые тенденции в понимании билингвизма, а также выделить направления когнитивных и социальных исследований в данной области.

Двуязычие, как социальное явление, существовало ещё в античности. В период феодальной эпохи (V-XVIII вв. в Западной Европе, IX-XVIII вв. в России) возникли стабильные формы и типы двуязычия [5]. Это было вызвано переходом от языческих верований к новым религиям, которые вводили в общество второй, культовый язык, и распространением письменности. В своей грамматике Лудольф [5] точно отметил, что в конце XVII века в Москве в повседневном общении использовался «русский» язык, тогда как в книгах писали «по-славянски», что привело к трудностям простого народа понимать литературную речь. Это и является функциональным двуязычием. Известно, что межгосударственные войны очень часто приводили к тому, что завоеватели стремились вытеснить местные языки и культуры, насаждая собственные. В результате формировалось двуязычие, при котором доминировал язык метрополии, а местные языки и культуры подвергались угнетению и ассимиляции.

В современном мире билингвизм приобретает новые черты, отличающиеся от исторического понимания этого явления. В отличие от прошлого, когда двуязычие часто было результатом географической близости или политического доминирования, сегодня оно все чаще связано с индивидуальным выбором и интересом человека к изучению иностранного языка.

Современные билингвы активно используют оба языка в повседневной жизни, адаптируя их к конкретным коммуникативным ситуациям. Такая гибкость и прагматизм в использовании языков отражают глобализацию и повышенную мобильность населения, приводящие к необходимости эффективного общения в разных культурных и языковых средах. Понятие «двуязычие» в современной лингвистике является предметом активных дискуссий и неоднозначных трактовок. Отсутствие общепринятого определения обусловлено многогранностью и сложностью данного феномена.

Исследователи предлагают различные подходы к определению двуязычия, учитывая такие факторы, как степень владения обоими языками, частота их использования, возраст, в котором происходит овладение языками, и социальные контексты их применения.

Эта концептуальная неопределенность отражает динамическую природу двуязычия и признание его индивидуальных и контекстуальных аспектов.

Социальные и психологические аспекты билингвизма продолжали исследовать современные ученые, такие как Колин Бейкер [7] и Франсуа Грожан [3] которые изучали такие темы, как языковая идентичность, языковая политика и образование в многоязычных обществах. Исследования Колина Бейкера продемонстрировали, что билингвизм оказывает положительное влияние на исполнительные функции, внимание и память, в первую очередь, в детском возрасте. Эти когнитивные преимущества коррелируют с количеством использования обоих языков, причем те билингвы, которые регулярно пользуются обоими языками, демонстрируют более выраженные улучшения. Исследования К. Бейкера [7] подчеркивают значение образования и языковой политики в содействии развитию и поддержанию билингвизма, тем самым раскрывая его благотворное влияние на познавательные способности.

Исследование Франсуа Грожан [3] выявило, что билингвизм не только влияет на языковые способности, но и формирует идентичность и межличностные отношения. Он обнаружил, что люди, владеющие двумя языками, обладают более гибкими взглядами на язык и культуру, что способствует межкультурной коммуникации и пониманию. Кроме того, Ф. Грожан [3] подчеркнул влияние социальных и культурных факторов на восприятие билингвизма, подчеркивая необходимость учитывать контекст при его изучении. Билингвы часто развивают многоязычную идентичность, чувствуя себя принадлежащими к нескольким языковым и культурным группам. Они могут переключаться между разными языками и культурами в зависимости от контекста, что позволяет им адаптироваться к различным социальным ситуациям. Ещё билингвизм может оказывать положительное влияние на такие когнитивные функции, как память, внимание и исполнительные функции.

В российской науке важный вклад в изучение билингвизма внесла И.Р. Катанова [4] в своих экспериментах показала, что билингвы превосходят монолингвов в невербальной памяти, что подтверждает влияние билингвизма на когнитивное развитие.

Философский интерес к языковой природе мышления, а следовательно и к билингвизму, проявлялся в трудах Л. Витгенштейна [2]. Его критика обыденного языка как источника философских недоразумений подчеркивает важность точной языковой формы. Витгенштейн предлагал «реформировать язык» для устранения амбигуальности [2. С.: 192]. Это положение актуально и для билингвизма, где взаимодействие двух языков может вызывать межъязыковую интерференцию и семантические смещения.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖЕНИЕ

Нейролингвистические исследования выявили уникальные нейронные механизмы у билингвов, связанные с обработкой и производством языка. Однако языковая интерференция остается проблемой для билингвов, что подчеркивает необходимость дальнейшего изучения и разработки стратегий для ее минимизации.

Полученные данные указывают на необходимость учитывать билингвизм в образовательной политике и социальной практике, особенно в условиях глобализации. Несмотря на положительное влияние билингвизма на когнитивные процессы, остаются открытыми вопросы о том, как оптимально поддерживать и развивать двуязычие с детства. Социолингвистические исследования подчеркивают влияние социальных и культурных факторов на билингвизм, включая ассимиляцию и роль мотивации.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Билингвизм — это сложное и многогранное явление, имеющее лингвистическую, когнитивную и социальную значимость. Его изучение позволяет выявить не только особенности языковой способности, но и более глубокие механизмы межкультурной коммуникации, формирования идентичности и когнитивного функционирования человека. Современные исследования подтверждают, что билингвизм не ограничивается языковой компетенцией, а затрагивает фундаментальные аспекты человеческого мышления и поведения. Учитывая тенденции глобализации и многоязычия, билингвизм приобретает особую актуальность в современном мире.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С. 120.

2. Витгенштейн Л. Логико-философский трактат. – М.: АСТ, 2020. – 192 с.

3. Грожан, Ф. (1989). Neurolinguists, beware! The bilingual is not two monolinguals in one person. Brain and Language, 36(1), 3–15.

4. Катанова, И.Р. (2009). Влияние билингвизма на вербальную и невербальную память. Вопросы психолингвистики, №9, с. 45–52.

5. Костомаров В. Г. Русский язык среди других языков мира. – М.: Просвещение, 1 Михаилов М. М. Двуязычие в современном мире [Текст] / М. М. Михаилов. – Чебоксары, 1988. – С. 3-5.975. – 176 с.

6. Фишман, Дж. А. Может ли умирать язык? Формулы для теории языковой жизни. – Берлин: Вальтер де Грюйтер, 2001. – 210 с.

7. Colin Baker. Foundations of Bilingual Education and Bilingualism. – Bristol & Buffalo: Multilingual Matters, 2011. – 498 p.

8. Grosjean, F. Bicultural bilinguals // International Journal of Bilingualism. – 2015. – Vol. 19, No 5. – Pp. 572-586.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

O‘ZBEK TILIDAGI SOTSIAL SEMANTIKALI ISHORA FE’LLARI HAQIDA

Mirzajonova Latofat Ubaydillayevna
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola sotsial sema ifodalash xususiyatiga ega bo‘lgan ishora fe’llari tadqiqiga bag‘ishlanadi. Unda ishora fe’llarining o‘ziga xos semantikasi, xususan, o‘z ma’no tarkibida sotsial komponentga ega bo‘lgan ishora fe’llari kommunikantlarning ijtimoiy kelib chiqishi, mavqei, yoshi va boshqa jihatlarini ifoda etishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: antropotsentrizm, verbal va noverbal muloqot, verballashuv, sotsial sema, sotsial mavqe, ishora fe’llari, leksik-semantik guruh.

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию глаголов жестов, обладающих свойством выражать социальную сему. В ней рассматривается специфическая семантика глаголов жестов, в частности, глаголы жестов, имеющие в своем значении социальный компонент, выражают социальное происхождение, статус, возраст и другие характеристики коммуникантов.

Ключевые слова: антропоцентризм, вербальное и невербальное общение, вербализация, социальная сема, социальный статус, глаголы жестов, лексико-семантическая группа.

Abstract: This article is dedicated to the study of gesture verbs that possess the characteristic of expressing social semes. It examines the distinctive semantics of gesture verbs, particularly focusing on those that contain a social component in their meaning. The article discusses how these gesture verbs convey information about the communicants' social background, status, age, and other aspects.

Keywords: anthropocentrism, verbal and nonverbal communication, verbalization, social seme, social status, gesture verbs, lexical-semantic group.

KIRISH. Bugun tilshunoslikda noverbal muloqot va uni yuzaga chiqaruvchi vositalar tadqiqiga oid izlanishlar ko‘lamining kengayib borayotgani lingvistik bilimning zamonaviy yo‘nalishlarida antropotsentrik yondashuv ustuvorlik qilayotganini ko‘rsatadi. Tilni antropotsentrik nuqtayi nazardan tadqiq qilishda inson omili muhim ahamiyat kasb etadi. “Antropotsentrizmda barcha nazariy fikrlarning asosiy burchagiga insonni qo‘yish tendensiyasiga muvofiq inson nafaqat u yoki bu hodisalarning tahliliga jalb etiladi, balki u mazkur tahlil va yakuniy maqsadlar istiqbolini ham belgilab beradi”[15, B.29]. Shuning uchun

ham bu yo‘nalishdagi lingvistik tadqiqotlar o‘zining nufuzi va dolzarbligi bilan sohaning taraqqiyotga erishuviga katta hissa qo‘shib kelmoqda.

Tilshunoslikda o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan keyin paralingvistik vositalarni o‘rganish ishlari ancha kuchaydi. Xususan, o‘zbek tilshunosligiga mazkur tushuncha A.Nurmonov asarlari orqali singdirildi [11;12]. Uning kitoblarida paralingvistik vositalarning umumiy tavsifi, lingvistik va paralingvistik belgilarning o‘zaro munosabati, nutq jarayonida ulardan unumli foydalana olish, umuman, imo-ishoralar va ishora fe’llari haqidagi dastlabki ma’lumotlar qayd etilgan. Keyinchalik esa A.Abduazizov [1;2], S.Mo‘minov [9], Sh.Safarov [13], Sh.Iskandarova [6], M.Saidxonov [14;15], M.Kurbonov [8], B.Ahmedov [3], M.Burxanova [5], N.Xursanov [17], M.Barotova [4] kabi tadqiqotchilarning ishlari orqali mavzuni turli aspektlarda tadqiq qilishga va uni kengroq tavsif etishga erishildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Bilamizki, nutq asosan verbal vositalar orqali yuzaga chiqadi, ya’ni so‘zlar yordamida inson o‘z his-tuyg‘ularini, jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlarni to‘la ifoda etishga qodir. Ammo nutq vaziyati, so‘zlovchining holati uzatilayotgan fikrni turli imo-ishoralar, tovush o‘zgarishlari, tana harakatlari bilan birga kechishini talab etadi. Shu tariqa verbal va noverbal muloqot vositalari uyg‘unlashuvi kuzatiladi.

Verbal muloqotda muayyan axborot tinglovchiga osonlik bilan yetkazilsa-da, unda noverbal muloqot vositalari orqali beriladigan qo‘shimcha ma’lumotlar ifodalanmaydi. Shuning uchun nutq jarayonida noverbal muloqot vositalaridan ham o‘rni kelganda mahorat bilan foydalaniladi. Bu so‘zlovchining nutqiga qo‘shimcha axborot sifatida uzatiladi [8, B.15].

Noverbal muloqot shakllari nutqning mazmundorligini oshiradi va uzatilayotgan ma’lumotni tinglovchiga aniq va ravshan, oson va tabiiy yetkazilishini ta’minlaydi. Noverbal vositalar yordamida muloqotdan ko‘zlangan maqsadga batamom erishiladi [8, B.12]. Demak, verbal va noverbal muloqot shakllari doimo bir-birini to‘ldirib, butlab, mukammallashtirib turadiki, “ba’zi hollarda noverbal vositalarsiz fikr yalang‘och, mantiqiy jihatdan tushunarsiz, psixologik jihatdan noto‘g‘ri bo‘lib qoladi”[14, B.9].

Nutq jarayonida ishlatiluvchi imo-ishoralar insonning turli organlari (bosh, qo‘l, yelka, ko‘z, qosh, lab va boshqalar) harakati bilan amalga oshiriladi. Bularni til birliklari orqali ifodalanishi verballashuv sanaladi. M.Saidxonov aloqa-aralashuvda ishlatiladigan noverbal vositalar lisoniy jihatdan imo-ishora fe’llari, hissiyot va ruhiyatni ifodalovchi so‘zlar va ayrim harakat fe’llari (funksional ishora fe’llari) orqali verballashuvini keltiradi [15, B.121]. Shu o‘rinda aytish kerakki, imo-ishoralarning ma’lum lingvistik birliklar yordamida tasvir qilinishida ishora fe’llarining unumi katta. Mazkur maqolada ishora fe’llari semantikasi va ularning sotsial xususiyatlari haqida so‘z boradi.

Ishora fe’llari fe’lning boshqa leksik-semantik guruhidagi fe’llardan semantik jihatdan farqlanadi va semiotik xususiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan o‘zbek tilshunosligidagi ayrim manbalarda ishora fe’llari alohida leksik-semantik guruh tarzida beriladi. Xususan,

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida ishora fe’llari fe’lning alohida leksik-semantik guruhi sifatida qayd etiladi [10, B.248-249].

M.Sodiqovaning monografiyasida esa ishora semali so‘zlar harakat fe’llari tarkibiga kirgiziladi va ular “Xatti-harakat” (“qiliq” – jest) va uning ifodalanish usullari” guruhida o‘rganiladi. Muallifning ta’kidicha, “Subyekt o‘zining psixologik holat va munosabatini mimikadan tashqari yana turli qo‘shimcha xatti-harakat bilan ifodalaydi. Bunday xatti-harakatlar (“qiliqlar”) oyoq, qo‘l, tana, bosh harakatlari vositasida yoki ularning kompleksida ifodalanishi mumkin”. Anglashilganidek, kishi tana a’zolari orqali ifodalanadigan xatti-harakatlar deyilganda aynan ishora fe’llari nazarda tutilyati. Ishda mazkur guruhga kiruvchi fe’llar o‘z ichida oltita mikroguruh (bosh, qo‘l yelka, gavda harakatlari bilan ifodalanuvchi, shuningdek, o‘tirish va yotish bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyat (poza)ni ifodalovchi fe’llar)ga tasniflanadi [16, B. 68-72] va har bir mirkoguruhga kiruvchi fe’llarning semantik va stilistik xususiyatlari ochiqlanadi.

M.Saidxonovning doktorlik dissertatsiyasida esa o‘zbek tilidagi ishora fe’llarining leksik-semantik guruhi, uning semantikasi, grammatik jihatlari, strukturasi va matniy xususiyatlari ilk bor monografik yo‘nalishda o‘rganiladi [15, B.271]. Ishda ishoralarni ifodalovchi fe’llar va fe’l birikmalari semantikasi batafsil ochib beriladi. Ishoralarni ifodalovchi til birliklarining hosil bo‘lish mexanizmlari kognitiv yondashuv asosida chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda ishora fe’llari inson muayyan organining ramziylashgan harakatidan iborat bo‘lishi e’tiborga olinib, ular somatik, sensual va funksional ishora fe’llariga tasniflanadi [15, B.150] va har bir guruh tarkibidagi fe’llar alohida tahlilga tortiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ishora fe’llari o‘ziga xos semantikaga ega bo‘lib, muayyan vaziyatdan kelib chiqqan holda turli ma’nolarni anglatadi. Ayrim ishora fe’llari borki, ular sotsial sema ifodalash imkoniyatiga ega. Ya’ni muayyan nutq jarayonida qo‘llanadigan imo-ishoralar orqali kommunikantlarning o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy kelib chiqishi, mavqeyi, yoshi va boshqa jihatlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Ular turli ma’nolarni anglatishiga ko‘ra quyidagicha guruhlashtirildi va har bir guruh tarkibiga birlashuvchi fe’llar alohida o‘rganildi:

1) **salomlashuv va xayrlashuv harakatlarini ifodalovchi ishora fe’llari**: Kishilar bir-birlari bilan ko‘rishganda yoki kuzatish, ayirilish fursatida (lisoniy vositalarga qo‘shimcha tarzda yoki ularning o‘rnida) turli nolisoniy harakatlar bilan o‘z kechinmalarini ifoda etadilar. Xususan, *qo‘llarini cho‘zish, boshini silkitish, bo‘ynini engashtirish, qosh-ko‘zini uchirish* va x.k.

Yuqorida aytilganidek, mazkur ishora harakatlari tilda ishora fe’llari bilan ifodalanadi va ularning ayrimlari sotsial semaga egaligi bilan alohidalik kasb etadi. Avvalo so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlar salomlashuvdan boshlanishini e’tiborga olsak, kommunikantlarning o‘zaro ko‘rishuvini aks ettiruvchi *qo‘lini ko‘ksiga qo‘ymoq, qo‘sh qo‘llab ko‘rishmoq, qo‘llarini silkitmoq, qo‘l uchida ko‘rishmoq, qo‘lini ko‘tarmoq, o‘rnidan turmoq, qosh uchirmoq, bir ko‘zini qismoq, yelkasini qoqmoq, yelkasini tutmoq (erkaklar ayollar bilan*

so‘rashilganda), yelkasini siypalamoq, boshini qimirlatmoq kabi ishora fe’llari sotsial semaga ega.

Jumladan, *qo‘lini ko‘ksiga qo‘ymoq, qo‘sh qo‘llab ko‘rishmoq, o‘rnidan turmoq* kabi ishora fe’llari asosan noteng munosabatlarda qo‘llanib, yosh yoki mansab jihatdan quyi shaxsning harakatini ifodalaydi va yuqori hurmat bilan salomlashish tarzini bildiradi. O‘quvchi o‘qituvchisi bilan, kichik yoshdagilar o‘zidan kattalar bilan, xodim boshlig‘i bilan yoki mezbon qardli mehmon bilan salomlashganda mazkur noverbal harakatlar amalga oshiriladi va ular tilda yuqoridagi ishora fe’llari bilan ifodalanadi.

*Jamoa Temurbekni tanib, birovi **qo‘lini qorniga**, boshqa birlari **ko‘ksiga qo‘yib salomlashdilar**.* B.Ahmedov, Amir Temur.

*Karimulla Asadbek yolg‘iz emasdir, degan xavotirda edi. Ichkariga kirgach, yayrab ketdi. Ildam yurib kelib Asadbek bilan **qo‘shqo‘llab so‘rashdi**. Asadbek o‘rnidan qo‘zg‘olmay, **qo‘l uchini berdi**.* T.Malik, Shaytanat.

*Dahlizda uzun bo‘yli, qotmadan kelgan, qoracha cho‘zinchoq yuz, qo‘ng‘ir soqolli kishi ko‘rindi. – Keling, Mamat bova, – Sotvoldi aka **o‘rnidan turib, qo‘shqo‘llab ko‘rishdi**.* A.Taypatov,O‘g‘il.

*U eshikdan kirganda, dahlizda o‘tirgan uch kishi baravar **o‘rnidan turib salom berdi**.* A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.

Mazkur misollarda yuqoridagi fikrlar o‘z tasdig‘ini topgan deb ayta olamiz.

Qo‘l uchida ko‘rishmoq / qo‘l uchini bermoq, boshini qimirlatmoq kabi ishora fe’llarida ham asosan noteng munosabatlar ifoda etiladi, biroq bu fe’llardagi munosabat ko‘pincha mansab, yosh yoki moliyaviy jihatdan ustun kishining quyi pag‘onadigi shaxs bilan salomlashuvini ifodalaydi. Masalan,

*Asadbek Muhiddin ota bilan **quchoqlashib ko‘rishdi**, oshnasiga esa **qo‘l uchini berdi**.* T.Malik, Shaytanat.

*Asrorov kotibaga **bosh silkidi**-da, oldiga hech kimni kiritmaslikni tayinladi.* (Gazetadan) kabi misollarda bu o‘z isbotiga ega bo‘ladi.

Qo‘l(lar)ini silkitmoq, qo‘lini ko‘tarmoq, qosh uchirmoq, bir ko‘zini qismoq kabi ishora fe’llari esa asosan teng munosabatlarni ifoda etadi. Mazkur ishora fe’llari do‘stlar, hamkasblar, qarindoshlar, yaqin tanishlar bilan salomlashish tarzini aks ettiradi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu harakatlarning ayrimlari noteng munosabatlarda (quyi mavqedagi shaxsdan yuqori mavqedagi shaxsga nisbatan) amalga oshirilsa, hurmatsizlik, beadablik holatlarini yuzaga keltirishi mumkin:

*Ular orasida oq-sariqdan kelgan, ko‘zlari doim kulib turadigan Bibisora ham bor edi. Uning kelishgan sumbatini, qop-qora sochlarini dengizdan esayotgan mayin shamol silab-siypalardi. U kulimsirab bizga **qo‘l silkitib qo‘ydi**.* Ch.Aytmatov, Asarlar.

*Ruxsat bersangiz, o‘zimni tanishtirsam, — dedim ruschalab va ayolga dadil boqdim. Derazadan ko‘z uzmay ketayotgan qiz tuyqus yelka qisib piqillab kulib qo‘ydi-da, ayolga **qosh***

uchirdi. *Juvonning ham chehrasiga tabassum yoyildi.* Q.Norqobil, Ko‘zlaringni ko‘rgani keldim.

Mazkur fe’llar qatoridagi *yelka tutmoq, yelkasini qoqmoq, yelkasini siypalamoq, yelkasidan olmoq* kabi fe’llar jinsga ko‘ra farqlanuvchi paralingvistik vositalarni, ya’ni ayollar va erkaklarning ko‘rishuvi bilan bog‘liq harakatlarni ifoda etadi.

M.Kurbonov muloqotda noverbal (paralingvistik) vositalardan foydalanishda milliy yoki umumqabul qilingan norma talablariga muvofiq, jinsiga ko‘ra − gender noverbal vositalarga ham e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. Tadqiqotchi G.Kreyldin tomonidan bildirilgan “ruslarda gender noverbal harakatlari umuman olganda bir xil kechadi”, mazmunidagi fikrlarga “ayrim vaziyatlar borki, ayni bir xil noverbal harakat erkaklarda boshqa, ayollarda boshqacha amalga oshiriladi” deya e’tiroz bildiradi. O‘z qarashlarini Y.Kashina va A.Yegurnovalarning ayol va erkak imo-ishora va harakatlarining samarasi bo‘yicha tahliliy tadqiqot natijalarida ham ayol kishi bilan erkaklarning noverbal muloqotida tafovutlar aniqlangani bilan tasdiqlaydi [8, B.150].

Muloqotda qo‘llanadigan noverbal vositalarning jinsiga ko‘ra farqlanish holati o‘zbek madaniyatida ham uchraydi. Albatta, genderni ifodalovchi noverbal vositalar har bir xalqning milliy-madaniy qadriyatlari va urf-odatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Xususan, *yelkasidan olmoq* / *yelkasini siypalamoq* (yoshi ulug‘ ayollarning erkaklar yelkasini siypalab duo qilishi), *yelka tutmoq* (ayollar bilan salomlashilganda) va *yelkasini qoqmoq* (erkaklar bilan salomlashilganda) kabi ishora fe’llari orqali ifodalangan harakatlar faqat o‘zbek ayol yoki erkaklari tomonidan bajarilishi kuzatiladi.

Xayrlashuv bilan bog‘liq paralingvistik vositalar salomlashuvda kuzatiladigan imo-ishoralar bilan deyarli bir xil. O‘zaro munosabatlar yakunida kommunikatlar tomonidan *qo‘lini ko‘ksiga qo‘ymoq, o‘rnidan turmoq, boshini silkitmoq, qo‘llarini silkitmoq, qo‘llarini ko‘tarmoq* kabi fe’llar bilan ifodalanuvchi harakatlar amalga oshiriladi. Bu fe’llarning qanday sotsial semaga ega ekani yuqorida qayd etilgani sabab alohida to‘xtalib o‘tilmadi.

Demak, paralingvizmlardagi milliy o‘ziga xoslik muayyan xalqning milliy mintaliteti, madaniy dunyoqarashi va ijtimoiy muomala tarziga bog‘liq. Salomlashuv va xayrlashuv harakatlarini ifodalovchi mazkur ishoralar milliy qadriyat sifatida o‘zbek millatining madaniyat darajasini ko‘rsatib beradi.

b) **hurmat va ehtirom ko‘rsatish ma’nosini ifodalovchi ishora fe’llari:** Jamiyatda hurmat va ehtirom ko‘rsatish tuyg‘ularini anglatuvchi ko‘plab ishora harakatlari mavjudki, ular orqali kishilar bir birlarini qadrlash va ulug‘lash munosabatlarini ifoda etishga urinadilar. Bunday noverbal belgilarni ifodalovchi ishora fe’llarining ayrimlari ham sotsial semaga ega.

Qo‘lini ko‘ksiga / qorniga qo‘ymoq, ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘ymoq, ikki qo‘llab ko‘rishmoq, qo‘shqo‘llab ko‘rishmoq, ta’zim qilmoq, ta’zim bajo aylamoq, ta’zim ado qilmoq, bosh egmoq, bo‘yin egmoq, ko‘ziga tik qaramoq, ko‘zini yerga tikmoq, ko‘zini olib qochmoq, o‘qrayib qaramoq kabi ishora fe’llari shular jumlasidandir.

“Nolisoniy vositalarning ishlatilishida kommunikantlarning o‘zaro munosabatlari katta ahamiyat kasb etadi. Muloqot rasmiy, ilmiy, jiddiy, ish yuzasidan bo‘lganda yoki suhbat yuzaga chiqayotgan holat, sharoit ham paralingvizmlarning ishlatilishida ahamiyatli sanaladi. Garchi noverbal vositalarning ishlatilishi tabiiy kechsa-da, kommunikant o‘z nutqini o‘zi boshqara olgani kabi nolisoniy vositalardan ham sharoitdan kelib chiqqan holda foydalanadi” – deya ta’kidlaydi M.Saidxonov va quyidagi parcha orqali fikrlarini dalillaydi:

*Xudoychi “Huzuri muborakka” kirib **ta’zim qildi**…*

– Chaqirdingme? – dedi xon.

– Taqsir!

– Izn beramiz!

*Xudoychi **qulluq qilgan** ko‘yi **orqasi bilan yurib**, birinchi xonaning dahliziga keldi va dahlizda kutib turgan Anvarni “huzuri muborak” sari yo‘lga soldi.*

*Anvar “huzuri muborak”ning eshigida to‘xtab, **ta’zim ado qildi** va uning yonidagilarga ham **yarim ta’zim ishorasini berdi**.*

– Ishlaring yoqshime, mirzo! – deb so‘radi xon.

– Duolar barakasida, qiblagoh, – dedi Anvar. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon [15, B.237].

Demak, mazkur suhbat davomida kuzatilgan ishoralar *ta’zim qilmoq, ta’zim ado qilmoq, qulluq qilmoq, orqasi bilan yurmoq, yarim ta’zim qilmoq* kabi ishora fe’llari bilan ifodalanadi va ular ishtirokchilarning sotsial mavqeyini anglatadi. Bu holatda xudoychi va Anvarning xatti-harakatlari xonga nisbatan cheksiz hurmatni va shu bilan birga, itoatkorlikni aks ettiryapti va bu mazkur ishora fe’llariga sotsial sema yuklayapti. Demak, yuqorida qayd etilgan fe’llarning sotsial xususiyati ular faqat bo‘ysinuvchidan boshliqqa yoki kichik shaxsdan kattalarga nisbatan bajarilgan xatti-harakatlarni ifoda etishida ko‘rinadi.

Anglashilganidek, yuqoridagi parcha rasmiy vaziyatni aks ettiryapti. Shunday bo‘lsa-da ishtirokchilar o‘zaro muloqotda vaziyatdan kelib chiqqan holda turli nolisoniy vositalardan foydalanishi kuzatilyapti. Bundan paralingvistik vositalar rasmiy muloqotda ham qo‘llanishi mumkinligi va ular qo‘shimcha axborot tashish uchun xizmat qilishi tushuniladi.

M.Kurbonovning dissertatsiyasida nutqda insonlarning gavda qismlari yordamida ijtimoiy tabaqalanish holatlarini ifoda qilish mumkinligi qayd etilgan va ular quyidagi noverbal vositalarda aks etishi ta’kidlangan: *bo‘yin egish, gavdasini engashtirish, qo‘llari yerga tekkunga qadar ta’zim qilish, egilib ta’zim qilish, etagini o‘pish, egilib o‘ng qo‘lini o‘pib qo‘yish va bosh kiyimlarini yechib boshni, gavdasini oldinga biroz tashlash* [8, B.133].

Darhaqiqat, mazkur harakatlar muayyan vaziyat ishtirokchilarining sotsial mavqeyiga ishora qiladi, odatda quyi mavqedagi shaxsning xatti-harakatlari sifatida tushuniladi.

d) **buyurish va bo‘ysunish ma’nosini ifodlovchi ishora fe’llari:** Tilda biror istak-talabni bajarishga ko‘rsatma berish yoki muayyan ko‘rsatmaga itoat etish holatlarini nafaqat lisoniy vositalar, balki nolisoniy vositalar bilan ham ifoda etish mumkin. Xususan, *qo‘lini ilmoq qilmoq, ko‘rsatkich barmog‘ini o‘zi tomon qimirlatmoq* kabi ishora fe’llarida “buyurish” semasi ifoda etilsa, *qo‘l ko‘tarmoq, oyog‘iga bosh urmoq, oyog‘iga o‘zini tashlamoq, tiz cho‘kmoq,*

qaddini egmoq, bosh egmoq, boshini xam qilmoq / solintirmoq, boshini quyi solmoq kabi ishora fe’llarida “bo‘ysunish” semasi aks etadi.

Masalan, so‘zlovchi muayyan uzoqlikdagi kishini o‘zi turgan joyga yo‘naltirish uchun (“kel”, “yaqinlash” ma’nosini ifodalash uchun) sharoitga ko‘ra ko‘rsatkich barmog‘ini (ilmoq qilgan holda) o‘zi tomonga qaratib harakatlantirish (qo‘lini ilmoq qilmoq, ko‘rsatkich barmog‘ini o‘zi tomon qimirlatmoq), bosh barmoqdan boshqa to‘rt barmoqni o‘zi tomonga qarab qimirlatish yoki tinglovchiga kaftning orqa qismini qilib qo‘lini o‘zi tomonga harakatlantirish kabi imo-ishoralarni ishlatishi mumkin. So‘zlovchi mana shu ishoralarni qo‘llashda, albatta, paralingvistik vositalardan o‘rinli foydalanishi maqsadga muvofiq.

Aloqa-aralashuv jarayonida kishi ayrim ishoralarni aql buyrug‘iga bo‘ysungan holda amalga oshiradi, ya’ni sharoit, holatga qarab ishlatadi. Yuqorida keltirilgan *qo‘lini ilmoq qilmoq, ko‘rsatkich barmog‘ini o‘zi tomon qimirlatmoq* kabi verbal vositalar bilan ifodalanadigan ishoraviy harakatni hamma holatda, har qanday kishiga nisbatan qo‘llanmasligi uning mushohada asosida ishlatilishidan darak beradi. Masalan, xodim rahbarga, kichik yoshdagi kishi kattalarga nisbatan yoki so‘zlovchi notanish kishini chaqirish uchun bu ishora ishlatilmaydi [15, B.214].

e) **tanbeh berish va erkalash ma’nosini fodalovchi ishora fe’llari**: So‘zlovchi o‘zgalar tomondan bajarilgan xatti-harakatlarga nisbatan o‘zining suyish yoki tanbehlash kabi tuyg‘ularini ifoda etishda ham nolisoniy ishoralardan unumli foydalanadi. *Mushtini ko‘rsatmoq / mushti bilan o‘dag‘aylamoq, qo‘lni bigiz qilmoq, qo‘lni paxsa qilmoq, qo‘lini ilmoq qilmoq, qo‘lini arra qilmoq, qulog‘ini cho‘zmoq, qulog‘ini buramoq* kabi ishora fe’llari tanbehlash ma’nosiga ega bo‘lib, yoshi yoki mansab jihatdan ustun kishining o‘zidan quyi shaxsga nisbatan qilingan harakatlarni ifoda etadi. *Boshini silamoq, boshidan o‘pmoq* kabi ishora fe’llarida erkalash semasi aks etadi. Bular ko‘pincha o‘zaro yaqinlar o‘rtasidagi munosabatlarda qo‘llanib, ko‘pincha yoshi kattalarning kichiklarga, ota-onaning farzandga nisbatan munosabatida yuzaga chiqadi.

XULOSA. Shaxs sotsial belgilarining ifoda etilishida ishora fe’llari o‘ziga xos o‘ringa ega. Yuqorida ko‘rib chiqilgan ishora fe’llaridagi sotsial komponent harakat ishtirokchilarining sotsial mavqiyini ko‘rsatib berishga xizmat qilgan. Demak, bunday ishora fe’llari til tizimida ishoralarni ifoda etish bilan birga, olamning lisoniy modelini shakllantirishda faol ishtirok etishi bilan ham ahamiyatli sanaladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Абдуазизов А. О статусе и критериях установления паралингвистических средств // Филологические науки, 1980, №6. – С. 66-71;
2. Абдуазизов А. Фоностилистик воситаларнинг ўрганилишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1985, №2. – Б. 24-28.;
3. Ахмедов Б.Р. Паралингвистик воситаларнинг гендерологик ва прагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Андижон, 2021. – 153 б.;

4. Baratova M. O‘zbekona paralingvistik vositalarning tizimiy tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (Phd) ... diss. avtoref. – Buxoro, 2023. – 57 b.;
5. Бурханова М. Креолизатив матнларнинг паралингвистик таҳлили: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (Phd) ... дисс. автореф. – Фарғона. 2022. – 56 б.;
6. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – 140 б.;
7. Курбанов М. Ўзбек, усмонли турк, инглиз ва рус тилида новербал мулоқотни ифодаловчи воситалар: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Андижон, 2021. – 132.б.;
8. Курбанов М. Ўзбек, усмонли турк, инглиз ва рус тилида новербал мулоқотни ифодаловчи воситалар тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (Phd) ... дисс. автореф.– Андижон, 2021. – 12 б.
9. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. док-ри дисс. – Тошкент, 2000. – 236 б.;
10. Нурмонов А., Собиров А., Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Шарқ, 2002. – Б. 248-249.
11. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 416 б.;
12. Nurmonov A. O‘zbek tilining paralingvistik vositalari haqida. – Andijon, 1980.
13. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т.: Давлат илмий нашриёти, 2008. – 300 б.;
14. Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. – Тошкент: Фан, 2008. – 83 б.;
15. Саидхонов М. Ўзбек тилида ишораларнинг вербаллашуви ва матний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Фарғона, 2022. – 29 б.
16. Содиқова М. Феъл стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 68-72.
17. Хурсанов Н. Драматик дискурсда вербал ва новербал компонентлар муносабати: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Андижон, 2022. – 144 б.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

БАРОҚХОН МАДРАСАСИ ФАОЛИЯТИ ВА УНГА ЁЗИЛГАН ОЯТ, ҲАДИС ВА ҲИКМАТЛАРНИНГ МАТНИЙ ТАҲЛИЛИ

Абдуллаев Алишер
Тошкент ислом институти ўқитувчиси, Алишер Навоий номидаги Тошкент Давлат ўзбек тили ва адабиёти университети мустақил тадқиқотчиси
(93:516-45-46)

Аннотация. Мазкур мақолада, Тошкент шаҳридаги беш юз йиллик тарихига гувоҳ бўлган мадрасалардан бири бўлмиш Бароқхон мадрасасини қурилиш тарихи, фаолияти, совет иттифоқ пайтдаги ҳолати, Зиёвуддинхон ибн Эшон Бобохон бошчилигида қайта таъмирланиши ҳамда унда ўқитилган фанлар, Ўзбекистон мусулмонлари идораси сифатида фойдаланиши ҳақида маълумот беради. Шу билан бир қаторда, Бароқхон мадрасасига битилган оятлар, ҳадислар, байтлар ва уларнинг маънолари ҳамда мазкур ёзилган ёзувларнинг турлари, хаттотлари ҳақида баҳс қилинган.

Калит сўзлар: Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний бошқармаси, ақоид, усул фиқҳ, Бадул-аъмолий, Китобут тавзий, пештоқ, сулс хати, куфий хати.

Abstract. This article provides information about the Baroqkhan Madrasah, one of the madrasahs in Tashkent that has five hundred years of history. It covers the madrasah’s construction history, activities, condition during the Soviet rule, and its renovation under the leadership of Ziyovuddinkhon ibn Eshon Bobokhon. The article also discusses the subjects taught there and its use as the headquarters of the Muslim Board of Uzbekistan. Additionally, the article examines the Quranic verses, hadiths, and poetic couplets inscribed on the Baroqkhan Madrasah, along with their meanings. It also explores the types of inscriptions used and provides information about the calligraphers who created them.

Keywords: Religious Administration of Muslims of Central Asia and Kazakhstan, aqidah, usul fiqh, Badul-a’mali, Kitabut tavzi, portal, thuluth script, Kufic script.

Аннотация. В данной статье представлена информация об истории строительства медресе Барак-хана, одного из медресе Ташкента с пятисотлетней историей, его деятельности, состоянии во времена Советского Союза, его реконструкции под руководством Зиявуддин-хана ибн Эшон Бабахана, а также о предметах, преподаваемых в нем, и его использовании в качестве Управления мусульман Узбекистана. Кроме того, обсуждались аяты, хадисы, стихи, написанные в медресе Баракхана, их значения, а также виды и каллиграфы этих надписей.

Ключевые слова: Духовное управление мусульман Средней Азии и Казахстана, акида, усуль фикх, Бадуль-а'мали, Китабут тавзи, портал, почерк сульс, куфический почерк.

Бароқхон Тошкентнинг беш юз йиллик тарихига гувоҳ бўлган мадрасалардан биридир. Бу мадраса қадимий илм-фан, маданият ўчоғи ҳисобланади[66]. Мадрасанинг қурилиш тарихи Тошкент шаҳрининг ҳокими бўлган уч киши, Суюнчхўжахон ва у кишининг икки ўғли Келди Муҳаммадхон ва Наврўз ибн Аҳмадхон билан боғлиқ[67]. 1503 йилда Тошкентни қўлга киритган Шайбонийхон унинг бошқарувини Жонибек Султонга топширади. 1509-1524 йиллари эса Суюнчхўжа Тошкент ҳокими бўлади. Суюнчхўжа вафотидан кейин Тошкентни унинг ўғли Султон Муҳаммад (1525-1533 йиллар) ва унинг вафотидан кейин эса (1533 йили) унинг укаси Наврўз Ахмадхон Тошкент хони бўлди. Наврўз Ахмадхон чавандозликда уста, жисмоний машқларга ўч, асосий умри ҳарбий юришларда ўтишига қарамай, халққа мурувватли, юмшоқ ва мулойим феълли киши эди. Шу боис уни “Бароқхон” деб ҳам аташади . Буюк Имом Абу Бакр Муҳаммад ибн Исмоил Қаффол Шоший табаррук мақбараси ёнида Тошкент ҳокимлари ва уларнинг қариндошлари сулолавий хилхонасини барпо этиш ғояси Суюнчхўжахон кўнглига келган эди, дея тахмин қилиш ҳам мумкин. Мадрасанинг жануби-шарқий бурчагида жойлашган дастлабки унча катта бўлмаган мақбара-хонақоҳ ҳам чамаси Суюнчхўжахон фармойишига биноан барпо этилган кўринади. Ўшанда фаолиятини эндигина бошлаган мадраса “Бароқхон” номи билан аталди.

Бароқхон мадрасаси 1509-1770 йиллар оралигида босқичма-босқич қурилган, кейин яхлит бир иморат шаклини олган. Қадимшунослар асосан уч босқичда қурилганини аниқлашган. Архив ҳужжатларига кўра, Бароқхон мадрасаси 1868 йили 34 ҳужра, бир масжид, бир дарсхонадан иборат бўлган. Мадрасада таълим бериш жараёнида 100 яқин дарслик ва адабиётлар ўқитилган. Муҳаммад Солиҳхўжа[68] (1830–1889) ёзишича, мадраса 1886 йилги зилзиладан қаттиқ зарар кўрган, 22 метрли гумбази қулаб тушган. Кейинчалик мадраса қаровсиз қолган ва узоқ вақтгача ҳеч қандай мақсадда ишлатилмаган. 1917 йилга келиб, мадрасани ётоқхонага айлантиришган. Натижада, унинг тарихий кўринишига катта ўзгартиришлар киритилган. 1936 йилдан мадраса кўрлар жамияти ва омборхона сифатида ишлатиб келинди ва қаровсизлигидан йиқиладиган ҳолга тушди. Бошидан ҳар хил кечмишларни ўтказганига қарамай, мадраса бизнинг кунларга ҳам етиб келди.

[66] А.Абдуллаев. Baroqhon madrasasi tarixi. “O‘zbekistonda islom dini ta’limi: tarixi, rivojlanishi va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. – Toshkent: “Renesans press”, 2023. – B.27.

[67] В.Булатов. Бароқхон мадрасаси. – Тошкент: 1972.- Б.6.

[68] Муҳаммад Солиҳхўжа домла Раҳматхўжа ўғли (тахминан 1830–1889) – тошкентлик тарихчи ва географ олим.

XX асрнинг 40 йилларидаги сиёсий вазият туфайли ички сиёсатда динга нисбатан баъзи енгилликлар берилди. 50-йилларида Бароқхон мадрасаси Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний бошқармаси ихтиёрига топширилди. Зиёвуддинхон ибн Эшон Бобохон бошчилигида қайта таъмирланди. Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний бошқармасининг 1945 йил 10 октябрда №4808 рақамли хати билан иккита мадраса[69] очилишига рухсат беришни сўраб, СССР Коммунистик партиясига мурожаат қилади. Юқоридаги мурожаат асосида 1945 йил 29 ноябрда №1879-212 с СНК Ўз ССР қарори билан Диний бошқарма ихтиёрига иккита диний муассаса очилишига рухсат берилади. Шу қарор асосида Тошкент шаҳридаги Бароқхон ва Бухоро шаҳридаги Мир Араб мадрасаси фаолиятига[70] рухсат берилди. Мир Араб мадрасаси 1946 йилда фаолиятини бошлайди. Лекин, Бароқхон мадрасаси ўша даврда кўрлар жамияти учун ётоқхона бўлган. Уларга бошқа жой ажратиш, уларнинг уй билан таъминлаш хам диний бошқарма зиммасида бўлди. Қорасарой кўчасида жойлашган Зиёвуддин қориаканинг дала ҳовлисида[71] бир нечта хонадон қуриб, уларга уй жой қилиб берилди.

Бароқхон мадрасаси Зиёвуддин қори аканинг ҳаракатлари билан таъмирланди, 1956 йилдан ўз фаолиятини (олий[72]) ўқув маскани сифатида қайтадан бошлади. Бароқхон мадрасасига мудир этиб, Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний бошқармаси раис ўринбосари Соттиев Исмоил Махдум мудир, Шоисломов Шокир[73] илмий мудир (завуч) этиб тайинланди. Мир Араб мадрасасида таълим олаётган юқори курс талабалари Бароқхон мадрасасига кўчирилди[74]. Мадрасада 7 нафар устоз 15 та фандан дарс берган[75]. 1960-1961 ўқув йилида икки мадрасада жами 65 нафар талаба ўқиган[76]. Мадрасада ўша даврда талабаларга 25 сўм[77], кейинчалик 40 сўм стипендия берилган. Бир йиллик ўқиш муддати эса, 7 ой бўлган. 1960/61ўқув йилида 5 курслар учун 12 та фан (1 араб тили (нахв), 2 морфология (сарф), 3 араб тилида диктант ёзиш (имло), 4 муховара, 5 ҳадис, 6 мусталахул ҳадис, 7 фиқҳ, 8 тафсир, 9 форс тили, 10 рус тили, 11 СССР тарихи, 12 иқтисодий география[78]) фанлари ўқитилган. 6 курсларга эса, балоғат, араб адабиёти, ақоид фанлари ўқитилган. Диний назорат раҳбариятининг саъй-ҳаракатлари билан, мадрасанинг 20 октябр 1960 йил 4-сонли қарорига[79] асосан, қироат фанидан ҳафтасига 2 соат қўшимча дарс қўйилди. Мадраса устоз ва талабалари жамоатчилик ишларида ҳам

[69] ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 336-иш, 167- варақ
[70] ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 336-иш, 167- варақ
[71] Амирсаидхон Усмонхўжаев. Динимиз фидойилари.Тошкент. 2021. “Тафаккур” - Б.116.
[72] ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат,268-иш, 85- варақ
[73] ЎзМА, 2459-фонд, 1-рўйхат, 268-иш, 35 –варақ.
[74] ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 167- варақ
[75] ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 43- варақ
[76] ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 56-варақ.
[77] ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 3- варақ
[78] ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 2- варақ
[79] ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 110- варақ

фаол иштирок этишган. Шу йили пахта йиғим терими мавсумида устоз ва талабалар томонидан 5 тонна пахта териб беришган[80].

Мадрасада ўқитилаётган ўқув программа ва фанларга эътиборимизнинг қаратсак, Мир Араб мадрасасидан кейинги босқични тақозо қилади. Бароқхон мадрасасини очишдан кўзланган асосий мақсад ҳам, ўрта диний таълимдан кейинги олий дини таълимни барпо этишлик назарда тутилган. Буни ўқитилган фанлардан ҳам билишимиз мумкин. Араб тили фанидан кофия, Араб адабиёти фанидан Адаби дунё ва дин, ақоид фанидан Бадул-аъмолий, усул фиқҳ фанидан Китобут тавзий китоблари ўқитилган. Диний таълимга бўлган эътибор халқ орасида кучайгани, ҳамда диний идоранинг молиявий таъминоти бўлган 13 дан ортиқ зиёратгоҳларни[81] давлат ихтиёрига ўтказилганлиги сабабли шўролар ҳукумати икки мадрасани бирлаштиришга, мадрасаларда кўпроқ дунёвий дарслар ўқитишга эътиборини қаратишди. Ҳатто талабалар маданий (кино, театр, истироҳат боғларига, ҳаммомга бориш) ҳордиқ чиқаришлиги учун ҳар ойда қўшимча 30 сўмдан[82] пул берилган 1961 йил иккита мадраса бирлашиши натижасида Бароқхон мадрасаси ёпилди. 1943 йилдан Эшон Бобохон хонадонида фаолият олиб келаётган диний бошқарма 1961 йили Барақхон мадраса биносига кўчиб ўтди.

Ислом динга нисбатан салбий қарашларда бўлиши, Бароқхон мадрасаси қисқа вақт фаолият олиб борганига қарамасдан бир қанча талабалар чет элга ўқишга юборилган. Саудия Арабистони Мадина шаҳрига уч киши 1.Муҳиддинов Салоҳиддин (Ўзбекистон),

2. Нисанбаев Ратбек (Қозоғистон),

3. Умаров Абдусамад[83] (Қирғизистон) ўқишга тавсия этилган.

Бундан ташқари Миср Араб Республикаси, Ливия, Сурия, Иордания ва бир қатор араб давлатларига 9 та талаба[84] ўқишга юборишга тавсия этилган. Ўрта Осиё ва Қозоғистон дини бошқармаси раҳбарлари ташаббуси билан чет элларда таълим олаётган талабаларни барча харажатлари (оиласини таъминоти ҳамда стипендияси) Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний бошқармаси томонидан таъминлаган[85]. Ҳаттоки, Москва шаҳрига бориб келиш харажатлари ҳам диний бошқарма тарафидан қопланган. Бароқхон мадраса биносидан 2006 йилнинг охиригача Ўзбекистон мусулмонлари идораси қароргоҳи сифатида фойдаланилди

БАРОҚХОН МАДРАСАСИДАГИ ЁЗУВЛАР

Бароқхон мадрасасининг асосий пештоғи шарққа қаратилган бўлиб, ундаги асосий битик оқ рангли *сулс* хатида ёзилган. Унда Қуръони каримдан “Оли Имрон” сурасининг 104 ояти битилган.

[80] ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 3-варақ.
[81] ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 123- варақ
[82] ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 110- варақ
[83] ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 52- варақ
[84] ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 58- варақ
[85] ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 25- варақ

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَٰنِ الرَّحِيمِ

وَلْتَكُن مِّنكُمْ أُمَّةٌ يَدْعُونَ إِلَى الْخَيْرِ وَيَأْمُرُونَ بِالْمَعْرُوفِ وَيَنْهَوْنَ عَنِ الْمُنكَرِ وَأُولَٰئِكَ هُمُ الْمُفْلِحُونَ

Меҳрибон ва раҳмли Аллоҳ номи билан (бошлайман). Сизлардан яхшиликка даъват этадиган, амру маъруф ва наҳйи мункар ишларни олиб борадиган (бир) уммат бўлсин! Айнан улар (охиратда) нажот топувчилардир[86]. Оятнинг тепа қисмига сариқ рангли *куфий* хатда الملك لله البقاء لله “Мулк – Аллоҳники”, “Боқийлик - Аллоҳга хос” калималари такрор – такрор келади. Ушбу китоба Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний идораси раиси, муфтий Шайх Зиёвиддин ибн Эшон Бобохон (1908-1982) таклиф ва тавсиясига биноан, 1978-йил хаттот Ҳабибуллоҳ Солиҳ томонидан амалга оширилган.[87]

Пештоқ қисмининг икки ён томони юқори ва қуйи қисмларида феруза рангли *куфий* хатида الله اكبر – “Аллоҳ буюкдир” калимаси битилган. Икки ён томонинг ўрта қисмида феруза рангли *куфий* хатида يا ربي - “Эй Роббим” дуоси битилган.

Мадраса ички ҳовлиси ғарбий пештоқининг ўнг томонида 2007-йил хаттот Ислом Маматов эскизи асосида *сулс* хатида Қуръони каримда “Шуро” сурасининг 38-ояти битилган.

قال الله تعالى: وَالَّذِينَ اسْتَجَابُوا لِرَبِّهِمْ وَأَقَامُوا الصَّلَاةَ وَأَمْرُهُمْ شُورَىٰ بَيْنَهُمْ وَمِمَّا رَزَقْنَاهُمْ يُنفِقُونَ

Аллоҳ таоло айтади: Улар Парвардигорларига ижобат этган ва намозни мукаммал адо этган зотлардир. Уларнинг ишлари ўзаро маслаҳат (билан) бўлур ва Биз уларни ризқлантирган нарсалардан (муҳтожларга) эҳсон қилурлар.[88]

Оятнинг тепа қисмига эса сариқ рангли *куфий* хатида الملك لله – “Мулк – Аллоҳники” калимаси такрорланиб келтирилган.

Мадраса ички ҳовлиси ғарбий пештоқининг чап томонида эса оқ рангли *сулс* хатида кўк фонга ҳадис битилган.

قال رسول الله صلى الله عليه وسلم: إن العلماء ورثة الأنبياء لم يورثوا ديناراً ولا درهما إنما ورثوا العلم فمن أخذه أخذ بحظ وافر

Расулуллоҳ саллаллоҳу алайҳи ва саллам айтадилар: Олимлар пайғамбарларнинг ворислари ҳисобланади. Пайғамбарлар дирҳаму динорларни мерос қолдирмайди. Улар илмни мерос қилиб қолдирган, ким уни (илмни) олса, улуғ насибага эришади.[89]

Ўзбекистон мусулмонлари идорасининг собиқ раиси, марҳум муфтий Усмонхон Алимов қаламига мансуб (2013-йили Мовароуннаҳр нашриёти томонидан нашр қилинган) «Ҳазрати имом (Ҳастимом)» китобининг 43-44 саҳифасида мадраса меҳробининг ўнг ва чап тарафида форс тилда қуйидаги байтларни келтиради:

حمد بر خالقی کریم و جواد برسولش درود دائم باد

[86] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. Ж.1. – Тошкент: Ҳилол-нашр,2008 – Б. 387.

[87] Фирдавс Абдухолиқов. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар – Тошкент: O‘zbekiston Today. 2016 – Б. 52.

[88] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. Ж.5. – Тошкент: Ҳилол-нашр,2008 – Б. 353.

[89] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Олтин Силсила. Ж.1. Тошкент: Ҳилол-нашр, 2013 – Б. 175.

بعد این گمبذ براق خانی چند سالی تا آباد
حاجی داملا توجهی کردند تاشود مسجدی برایی عباد
تاجران زمانه احسانها کردهند و خدا قبول کند
ملاتوچی ملا فتاح بای صرف کردند تنگه های جیاد
اهتمام نمود قاری غلام ایزد اور اجزای خیر دهاد

Маъноси:
Жаводу карим Яратувчига – ҳамд,
Расулига доим саловатлар бўлсин.
Сўнгра: Бу Бароқхон гумбази
Қанча-қанча йиллар ободлигича қолсин.
Бандалар учун бир масжид бўлсин деб,
Ҳожи домла таважжуҳ қилдилар.
Ўша даврнинг савдогарлари эҳсон қилишди.
Эҳсон қилишди-ю камтарлик бирлан:
Худо қабул қилсин, дейишди.
Мулла Тўйчи Фаттоҳбой
Сарф қилди яхши ҳалол тангаларни.
Қори Ғулом эътибор бердилар,
Аллоҳ унга яхши мукофот берсин!

خواجه ابو القاسم است استایس بود صاحب هنر بلتد نهاد
مسجدی فیض ناک شد اکنون خانقاهی عجب فرح ایجاد
اهل علمان مدرسه بشما دلکشا خانقه مبرک باد
از جهان میرود چه نیک و چه زشت جهد کن نام نیک مائد یاد
شده تاریخ دویمین تعمیر گمبذی گو دو باره شد آباد
نیک بنگر که کفت احرار سخن المعیی برارد یاد

Маъноси:
Бу бинонинг устаси ҳожи Абулқосим.
У киши етук ҳунар эгаси эдилар.
Файзли масжид қад ростлади энди.
Чиройли кўнгилни очадиган хонақоҳ қурилди.
Мусулмонлар бир-бирлари(ни қутлашди) хурсанд бўлганларидан:
Чин дилдан: хонақоҳ муборак бўлсин! Деб.
Жаҳондан ўтади яхши ҳам, ёмон ҳам.
Эй банда, ҳаракат қилгин, сендан фақат яхши ном қолсин.
Иккинчи бора таъмир қилишга тарих бўлди:
Гумбази 1333 ҳ. йили иккинчи маротаба бўлди обод.
Яхшилаб қарасанг, улуғлар айтганидек,

Алмаий сўзидан таърих келиб чиқади[90].

Бу байтлар ҳозирги вақтда сақлаб қолинмаган ва байтнинг иккинчи мисраси бешинчи қаторида таржимада кўрсатилган 1333-ҳижрий сана ёзилмаган. Байтдаги “ گمبذی گو دو باره شد آباد” ва “المعیی” сўзларини Абжад ҳисоби ҳисобланганда ҳам бу сана ифода этилмайди.

Мадраса хонақоҳи гумбазида кўк фонга оқ рангли *сулс* хатида Қуръони каримнинг “Бақара” сураси 256-258- оятлари оқ рангда битилган.

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَٰنِ الرَّحِيمِ

لَا إِكْرَاهَ فِي الدِّينِ قَد تَّبَيَّنَ الرُّشْدُ مِنَ الْغَيِّ فَمَن يَكْفُرْ بِالطَّاغُوتِ وَيُؤْمِن بِاللَّهِ فَقَدِ اسْتَمْسَكَ بِالْعُرْوَةِ الْوُثْقَىٰ لَا انفِصَامَ اللَّهُ وَلِيُّ الَّذِينَ آمَنُوا يُخْرِجُهُم مِّنَ الظُّلُمَاتِ إِلَى النُّورِ وَالَّذِينَ كَفَرُوا أَوْلِيَاؤُهُمُ الطَّاغُوتُ يُخْرِجُونَهُم (256)لَهَا وَاللَّهُ سَمِيعٌ عَلِيمٌ أَلَمْ تَرَ إِلَى الَّذِي حَاجَّ إِبْرَاهِيمَ فِي رَبِّهِ أَنْ آتَاهُ اللَّهُ الْمُلْكَ (257)مِّنَ النُّورِ إِلَى الظُّلُمَاتِ أُولَٰئِكَ أَصْحَابُ النَّارِ هُمْ فِيهَا خَالِدُونَ إِذْ قَالَ إِبْرَاهِيمُ رَبِّيَ الَّذِي يُحْيِي وَيُمِيتُ قَالَ أَنَا أُحْيِي وَأُمِيتُ قَالَ إِبْرَاهِيمُ فَإِنَّ اللَّهَ يَأْتِي بِالشَّمْسِ مِنَ الْمَشْرِقِ فَأْتِ بِهَا مِنَ الْمَغْرِبِ فَبُهِتَ الَّذِي كَفَرَ وَاللَّهُ لَا يَهْدِي الْقَوْمَ الظَّالِمِينَ (258)

256. Меҳрибон ва раҳмли Аллоҳ номи билан (бошлайман). Динга мажбур қилиш йўқ. Батаҳқиқ, ҳақ ботилдан ажради. Ким тоғутга куфр келтириб, Аллоҳга иймон келтирса, батаҳқиқ узилмайдиган мустаҳкам тутқични ушлаган болади. Ва Аллоҳ эшитувчи, билувчи Зотдир. 257. Аллоҳ иймон келтирганларнинг дўстидир. Уларни зулматлардан нурга чиқарур. Куфр келтирганларнинг дўстлари тоғутлардир. Уларни нурдан зулматларга чиқарурлар. Ана ўшалар дўзах эгаларидур. 258. Улар унда абадийдирлар. Аллоҳ подшоҳлик бериб қўйгани сабабидан Иброҳим билан Роббиси ҳақида ҳужжат талашганни билмадингми? Иброҳим: “Менинг Роббим тирилтиради ва ўлдиради”, деганда, у: “Мен тирилтираман ва ўлдираман”, - деди. Иброҳим: “Албатта, Аллоҳ қуёшни Машриқдан чиқарур, бас, сен уни Мағрибдан чиқаргин-чи”, - деди. Бас куфр келтирган лол қолди. Ва, Аллоҳ золим қавмларни ҳидоятга солмас.[91] Бу оятларнинг тепа қисмига эса сариқ рангли *куфий* хатида “Оят ул-Курсий” ва “Асмо ул-ҳусно” (Аллоҳнинг гўзал исмлари) қисман ёзилган. Хаттот – Ислом Маматов ҳисобланади.[92]

اللَّهُ لَا إِلَٰهَ إِلَّا هُوَ الْحَيُّ الْقَيُّومُ لَا تَأْخُذُهُ سِنَةٌ وَلَا نَوْمٌ لَّهُ مَا فِي السَّمَاوَاتِ وَمَا فِي الْأَرْضِ مَن ذَا الَّذِي يَشْفَعُ عِندَهُ إِلَّا بِإِذْنِهِ يَعْلَمُ مَا بَيْنَ أَيْدِيهِمْ وَمَا خَلْفَهُمْ وَلَا يُحِيطُونَ بِشَيْءٍ مِّنْ عِلْمِهِ إِلَّا بِمَا شَاءَ وَسِعَ كُرْسِيُّهُ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضَ وَلَا يَئُودُهُ حِفْظُهُمَا وَهُوَ الْعَلِيُّ الْعَظِيمُ

Аллоҳ, ундан ўзга илоҳ йўқ. У тирикдир ва қайюмдир. Уни мудроқ ҳам, уйқу ҳам олмас. Осмонлару ердаги нарсалар Уникидир. Унинг ҳузурида Ўзининг изнисиз ҳеч ким шафоат қила олмас. У уларнинг олдиларидаги нарсани ҳам, ортларидаги нарсаларни ҳам билур. Унинг илмидан ҳеч нарсани иҳота қила олмаслар, магар Ўзи хоҳлаганини, холос. Унинг курсиси осмонлару ерни қамраган. У уларни муҳофаза қилишдан чарчамас. Ва У Алий ва Азийм Зотдир.[93] Меъморий обидалардаги мазкур битиклар ўз даври ҳақида

[90] У.Алимов. Ҳазрати имом (Ҳастимом). - Тошкент: Мовароуннаҳр, 2013. Б. 44-43.

[91] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. Ж.1. – Тошкент: Ҳилол-нашр,2008 – Б. 364-365.

[92] Фирдавс Абдухолиқов. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар – Тошкент: O‘zbekiston Today. 2016 – Б. 53.

[93] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. Ж.1. – Тошкент: Ҳилол-нашр, 2008 – Б.

қимматли маълумот берувчи бебаҳо мерос ҳисобланади ҳамда аждодларимиз ва миллатимизнинг мақсад ва йўлини белгилаб беради.

ФОЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР

1. В.Булатов. Бароқхон мадрасаси. – Тошкент: 1972.

2. У.Алимов. Ҳазрати имом (Ҳастимом). – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2013.

3. Фирдавс Абдухолиқов. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар – Тошкент: O‘zbekiston Today, 2016.

4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. Ж.5. – Тошкент: Ҳилол-нашр, 2008.

5. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Олтин Силсила. Ж.1. – Тошкент: Ҳилол-нашр, 2013.

6. А.Абдуллаев. Бароқҳон мадрасаси тарихи. “Ўзбекистонда ислом дини таълими: тарихи, ривожланиши ва жамият тараққиётидаги ўрни” мавзусида Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. – Тошкент:

“Renesans press”, 2023.

7. Амирсаидхон Усмонхўжаев. Динимиз фидойилари. – Тошкент: Тафаккур, 2021.

ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 2- варақ

ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 3- варақ

ЎзМА, 2459-фонд, 1-рўйхат, 268-иш, 35 –варақ.

ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 43- варақ

ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат,268-иш, 85- варақ

ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 56-варақ.

ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 110- варақ

ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 268-иш, 123- варақ

ЎзМА. 2456-фонд,1-рўйхат, 336-иш, 167- варақ

361-362.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

НЕМИС ТИЛИ ЗАМОНАВИЙ ФРАЗЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ВАЗИФАЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ

Шухратхон Иямяминова
ЎзМУ профессори

Аннотация: Ушбу мақолада немис тили фразеологиясида олиб борилган тадқиқиотларнинг бугунги кундаги вазифалари ва истиқболлари тўғрисида сўз юритилади. Айниқса мақолада немис олими В.Флайшернинг немис тилининг фразеология соҳасидаги олиб борган тадқиқотлари ҳамда назариялари алоҳида таҳлил қилинади. Мақолада немис фразеологиясини ривожланиш даврлари тўғрисида маълумотлар берилади.

Калит сўзлар: Фразеология, фразеологизм, назария, даврлар, тилшунослар, қиёслаш, тарих, классификация, олимлар, немис тили.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные задачи и перспективы исследований в области немецкой фразеологии. Особое внимание уделено научным трудам и теориям немецкого исследователя В. Флайшера, посвящённым фразеологической системе немецкого языка. В статье также представлены сведения об этапах развития немецкой фразеологии.

Ключевые слова: фразеология, фразеологизм, теория, этапы, лингвисты, сопоставление, история, классификация, учёные, немецкий язык.

Annotation: This article discusses the current tasks and prospects of research conducted in the field of German phraseology. In particular, the article provides a detailed analysis of the research and theories developed by the German scholar W. Fleischer in the area of German phraseology. The article also presents information about the developmental stages of German phraseology.

Keywords: Phraseology, phraseologism, theory, stages, linguists, comparison, history, classification, scholars, German language.

Фразеологиянинг лингвистик фан сифатида шаклланиши тарихан француз олими Ш. Балли [1, 2001] номи билан боғлиқ. Фразеология назариясининг ривожланишига рус тилшунос олимлари В.В. Виноградов [2, 1974], Н.М. Шанский [2, 1969], А.М.Бабкин [2, 1970], И.И.Чернишева [2, 1970], А.В.Кунин [2, 1996], А.Д.Райхштейн [2, 1980], немис тилшунослари Г.Бургер [3, 1998], Э.Доналис [3, 2009], В.Флайшер [3, 1997], ҳамда ўзбек олимлари Ш.Раҳматуллаев [4, 1966], М.Э.Умархўжаев [4, 1983], Л.И.Ройзензон [4, 1975],

А.М.Бушуй, А.Э. Маматов [4, 1991], Б. Йўлдошев, Ғ.Саломов ва бошқалар улкан ҳисса қўшганлар.

Маълумки, фразеологизмлар тарихини ўрганишда бир миллий тилнинг ўзига хос хусусиятлари, луғат тизими, грамматикаси ва бошқа хусусиятларни классификация қилиш орқали тартиблаш мумкин. Умуман, фразеология фсоҳасини ривожланиш тарихини хронологик жиҳатдан *уч даврга* бўлиб ўрганиш мумкин:

Биринчи давр. XIX асрнинг ўрталаридан XX асрнинг 30-йилларигача бўлган даврни ўз ичига олиб, ушбу давр фразеологик тадқиқотларнинг йўлга қўйилиши масаласи Ш.Балли, М.В.Ломоносов, В.И.Даль, А.А.Потебня, Ф.Ф. Фортунатов, Ф.И.Буслаев, А.А.Шахматовларнинг илмий фаолияти билан боғлиқ. Шуни айтиб ўтиш жоизки, биринчи даврда фразеология кўпроқ, лексикография объекти бўлиб хизмат қилган. Бу даврда, фразеологик бирликларни луғатларда акс этиши уларнинг маъноси, этимологиясини изоҳлаш, талқин этишга алоҳида эътибор қаратилган эди.

Иккинчи давр. Е.Д.Поливанов, В.В.Виноградов, С.И.Абакумов, Г.К.Данилов, Г.О. Винокур, В.Н. Державин, А.И. Ефимов, А.Я. Рожанский, И.Е.Аничков каби олимларнинг илмий фаолияти билан боғлиқ, ҳолда ривожланди ва ушбу давр XX асрнинг 30-50-йилларини ўз ичига олади. Яна бу даврни фразеологиянинг мустақил лингвистик соҳа сифатида шаклланиш даври ҳам дейиш мумкин.

Учинчи давр XX асрнинг 60 - йилларидан бошланиб ҳозирги кунгача давом этмоқда. Бу давр фразеологик тадқиқотларда янги методларнинг қўлланилиши, фразеологик назариянинг тез, суръатлар билан ривожланиши ва кўплаб фразеолог мутахассисларнинг етишиб чиққанлиги билан характерланади.

Немис тили фразеологияси соҳасидаги тадқиқотларнинг ривожланиш босқичлари турли даврларига тўғри келади. Масалан бу даврлар 1980 ва 1990 - йилларни, XX - асрнинг охири, XXI - асрнинг дастлабки ўн йиллигини ўз ичига олади.

Тилшуносликда фразеологиянинг асосий йўналишлари қуйидагиларда деб топилган:

1. Тилда қандай тил бирликлари фразеологик бирикмаларни ифода қила олиши ҳақидаги масалани ривожлантириш. Бунда фразеологизмларни пайдо бўлиш механизмлари ва моделлаштириш муаммоларини ҳам ўрганишга тўғри келади.

2. Фразеологизмларнинг семантик мустақиллиги, яъни минимал тил бирликларига нисбатан денотатив маъно жиҳатидан мустақиллиги масаласи.

3. Фразеологиянинг предметини аниқланиши, яъни фразеологик бирикмаларнинг тузилиши, маъноси ва номлаш хусусиятини ҳисобга олган ҳолда аниқлашдан иборат бўлади.

4. Тизим хусусиятини аниқлаш, яъни фразеологик захирани тил тизими сифатида тушуниш, таснифлаш ва синтактик муносабатларни ўрганиш.

5. Коммуникатив - прагматик функция ва таъсир.

6. Функционал - стилистик фарқланишлар, яъни матнда фразеологизмларни қай даражада ва қай мақсадда қўлланиши.

7. Фразеологизмларнинг функционал - услубий тафовутлари.

1980 йилларда фразеология назариясининг анъанавий чегараларини аниқлашга интилиш аниқ сезилади. Фразеологияда интегратив ривожланиш йўли пайдо бўла бошлади. Фразеологизмларнинг тил тизимидаги ўрни ҳақида саволлар тобора кўпроқ пайдо бўлмоқда.

Германистикада фразеология соҳасидаги тадқиқотлари лингвистикадаги умумий ривожланишларнинг таъсири остида бўлмоқда. Анъанавий тарзда ва энг кўп ҳолларда фразеология лексикографияга мурожаат қилади. Фразеология соҳаси фразеологик бирликларнинг тузилишига ва таркибига таяниб, синтаксисга тааллуқли деб қаралади. Шунингдек, тил тарихи ва услубшунослик ҳам фразеологияни ўз тадқиқотларига киритади.

Фразеология соҳасида етарлича қониқарли тарзда ҳал этилмаган муаммолар немис олими Волфганг Флайшер томонидан умумлаштирилган [5, Fleischer, 1997, 234–235]:

1. Фразеологизмларнинг таърифи ва классификацияси – назария ва амалий фаолият учун асос сифатида;

2. Луғат мақоласи доирасида лемматизация ва жойлашуви;

3. “Кам идиомалашган” от ва феъл бирикмаларини таҳлил қилиш (масалан: eine Frage stellen – савол бериш; Antwort geben – жавоб бериш); маъноларини баён этиш;

4. Фразеографиянинг “асосий муаммоси” деб ном шаклининг “лексикографик универсаллиги” билан “психологик жиҳатдан реал ва фойдаланувчига қулай бўлган шакл” ўртасидаги зиддият тушунилади. Муаммо шундаки, кўпгина фразеологик феъл бирликлари одатда ном шаклида эмас, балки предикатив, яъни ҳукмни билдирувчи структурада ишлатилади: масалан, *Gib deinem Herzen (doch mal) einen Stoß! – “Юрағингга кучингни бер” ўрнига: seinem Herzen einen Stoß geben – “юрагига куч бериш”.*

Замонавий фразеология тадқиқотларини ривожлантиришнинг яна бошқа вазифалари ва истиқболлари ҳам В. Флайшер томонидан шакллантирилган [6, Fleischer, 1997, 22–28; 230–246):

Bunday sintaktik tuzilmalar shuningdek, nutqning kompozitsion yaxlitligini ham ta’minlaydi. Ayol tilidagi bunday simmetrik strukturalar uning ichki tartib, fikr izchilligi va hissiy barqarorligini namoyon etadi. Ular orqaligina ayolning ichki harakati – kechinmadan aksilreaksiyagacha – ochib beriladi [6] Adabiy manbalarda parallel konstruktsiyalar ayol obrazining estetik va emotsional ko‘zgusi sifatida ishlatilganini ko‘ramiz. Masalan, Tilavoldi Jo‘rayevning “Bozor dunyo” romanida ayol qahramon shunday deydi:

“Avval chidadim, keyin unutdim, oxiri yig‘ladim…” [7]

Bu gapda parallel sintaksis nafaqat ruhiy holat bosqichlarini ifodalaydi, balki har bir bosqichda ayolga xos qadriyatlarni — chidam, bag‘rikenglik, najot izlash – semantik jihatdan ochib beradi. Demak, parallel tuzilma ayol nutqida estetik, emotsional va qadriyaviy kodlashning eng muhim vositalaridan biridir. Bu vosita orqali ayol o‘z fikrini nafaqat bayon etadi, balki o‘zining madaniy, ruhiy, psixologik pozitsiyasini ham bildiradi. Yana ayol spontan nutqining eng emotsional qatlamini eksklamativ gaplar (ya’ni undovli, hissiy portlashni ifodalovchi gaplar) tashkil etadi. Bu turdagi gaplar odatda ayollar nutqida keng qo’llanilib,bu tuzilmalar vositasida ayollar ichki nozik kechinmalarni,g’azab,xursandchilik,nafrat,sadoqat kabi qadryatlarni ifodalaydilar. Eksklamativ

gaplar ko‘pincha so‘zboshi interyeksiyalar bilan boshlanadi: **voy**, **eh**, **dod**, **nima balo**, **o‘v**, **xudoyo**, **aniqki**, **baribir**, **ajablanarli**, **balki**, **qani**, **nahotki** kabi birikmalar orqali ayolning hayratlanishi, xavotiri yoki ichki dardi bir zumda namoyon bo‘ladi [8]

Misollar:

- “Voy,senga qanday ishonaman?!”
- “Eh,ortimga qaytsammikan?!”
- “Dod,sizga nima bo’ldi o’zi?!”

Bunday gaplar hissiyot va qadriyatlarni to’g’ridan to’g’ri ifodalaydi. Masalan, birinchi misolda — **voy** undovi bilan boshlanayotgan savol gap orqali ishonchsizlik, xavotir bildirilgan. Ikkinchi misolda — **eh** undovi yordamida ikkilanish, umidsizlik ifoda topgan. Uchinchi holatda esa — **dod** so’zi orqali haddan tashqari hayajon va qo‘rquv ifodalanadi. Bularning har biri o‘z-o‘zidan sintaktik vosita sifatida emas, balki ayol ichki kechinmalarni tashqi nutq orqali semantik ifodalashning vositasi sifatida tahlil qilinadi.

Xulosa

Ushbu maqolada ayol spontan nutqining sintaktik xususiyatlari lingvopragmatik va lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollar o‘rtasidagi tabiiy, tayyorlanmagan muloqotda sintaktik vositalar faqat grammatik tuzilma sifatida emas, balki madaniy va psixologik yuklama bilan namoyon bo‘ladi. Xususan, iteratsiya (takror), parallel tuzilmalar, bilvosita gaplar, eksklamativ konstruktsiyalar, intonatsion pauzalar va ilinjli savollar orqali qadriyatlar – sabr, hayo,vafodorlik, muloyimlik va madaniy or-nomus – nutqiy jarayonda ifodalanadi.

Ayol nutqidagi eksklamativlik hissiyotning kuchli portlashi, shartsimon gaplar esa madaniy ehtiyotkorlikni ifodalaydi. Bilvosita gaplar orqali ayol o‘zining ijtimoiy pozitsiyasini himoya qilgan holda fikr bildiradi. Intonatsiya, pauza va ohang esa sintaktik vosita sifatida ayol ruhiyatini, muloqotdagi muvozanatni ta’minlaydi.

Maqolada keltirilgan real til misollari va adabiy namunalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayol spontan nutqi madaniy tafakkurning, ijtimoiy qadriyatlarning, hissiy kechinmalarning sintaktik darajadagi obrazidir. Bu holat ayol muloqotining nafaqat individual, balki ijtimoiy-madaniy hodisa sifatidagi mohiyatini ochib beradi.

Demak, ayolning sintaktik uslubiyati lingvistik struktura bilan cheklanmay, uning orqasida butun madaniy tafakkur, psixologik tajriba va qadriyatlar tizimi yashiringanini bildiradi. Shuning uchun ham ayol nutqi lingvistik tahlilda sintaksis sathida ham alohida e’tiborga loyiq tadqiqot obyekti bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Amonov B. Spontan nutq va uning tahlili. – Toshkent, 2015.

2. Jumayeva D. Bilvosita nutqning madaniy funksiyasi. // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2022. – №3.

3. Saidova M. Sintaktik noaniqlik. – Samarqand: SamDU, 2019.

4. Yo‘ldosheva M. Ayollar tilidagi sintaktik vositalar. – Farg‘ona, 2019.
5. G‘aniyeva M. *Ayol tili va jamiyat*. – Toshkent: Fan, 2020.
6. Eshonqulova Z. *Ayolning til portreti*. – Farg‘ona, 2021.
7. Jo‘rayev T. *Bozor dunyo*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2017.
8. Rasulova D. *Ayol nutqidagi savol konstruktsiyalari*. // Filologiya masalalari, 2023, №1.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

FONETIK SATHDA BAHO MUNOSABATINING IFODALANISHI

Xusanova Nilufar Saydulloyevna
FarDu mustaqil izlanuvchisi
husanovanilufar9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada baho munosabatini ifodalovchi fonetik vositalarning turlari, ularning badiiy matndagi ekspressiv imkoniyatlari va yozuvchi yoki qahramonning subyektiv munosabatini ifodalashdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda tovush takrorlari, tovushlarni cho‘zish, intonatsion uzilishlar va urg‘u orqali baho bildiruvchi fonostilistik vositalar misollar bilan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: baho munosabati, subyekt, obyekt, fonetika, fonostilistika, urg‘u, ohang, alliteratsiya, geminatsiya.

Аннотация: В статье рассматриваются фонетические средства выражения оценочного отношения, их выразительные возможности в художественных текстах и роль в передаче субъективного отношения автора. Особое внимание уделяется повтору звуков, растягиванию, интонационным паузам и ударению.

Ключевые слова: оценочное отношение, лексическая единица, семантика, стилистика, субъективность.

Abstract: This article explores phonetic means of expressing evaluative, attitudes, their expressive functions in literary texts, and their role in conveying the author’s and character’s subjectivity. Particular attention is paid to sound repetitions, intonational pauses, and stress.

Key words: evaluative attitudes, lexical units, phonetic and morphological units, positive and negative.

KIRISH

Baho munosabatlari insonning subyektiv kechinmalari, hissiy holatini aks ettiradi. Ular nafaqat leksik-semantik vositalar, balki fonetik imkoniyatlar orqali ham ifodalanadi. Ayniqsa, badiiy adabiyotda fonetik sathdagi vositalar – urg‘u, intonatsiya, tovushlarni cho‘zish, to‘htam kabilar orqali yozuvchi yoki qahramonning hissiy holatini chuqur tasvirlaydi. Ushbu maqolada aynan fonetik vositalar orqali baho munosabatini ifodalash masalasi nazariy va amaliy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Fonetik vositalar, xususan, tovushlarning cho‘zilishi, undovlar, pauzalar, urg‘ular, ohang o‘zgarishlari orqali ifodalanadigan subyektiv baho matnning emotsional-estetik qiymatini oshiradi. Ushbu maqolada baho munosabatining fonetik sathda ifodalanishi, uning fonografik ko‘rinishlari va ijtimoiy-kognitiv asoslari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Subyektiv bahoning fonetik yo‘l bilan ifodalanishida nutq tovushlari, ularning artikulatsion va akustik xususiyatlari intonatsiya, urg‘u, tembr, pauza, ovoz balandligi va tovushlarning cho‘zilishi kabi prosodik vositalar muhim rol o‘ynaydi, chunki ular nutq egasining hissiy holati va baholovchi munosabatini tinglovchiga ta’sirchan tarzda yetkazish imkonini beradi. Fonetik yo‘l bilan ifodalanishida ko‘proq intonatsiya, juft so‘zlar (otlar) komponentida ayrim fonetik o‘zgartirish bilan aks etadi. Ma’lumki, fonetik sath birliklari so‘zlovchiga nutq vaziyatiga qarab fonetik vositalardan ijobiy yoki salbiy baholashda foydalaniladi. Shunga qaramasdan, tadqiqotimiz natijalariga tayanib aytishimiz mumkinki, o‘zbek va ingliz tili vakillari ham salbiy baholash jarayonida unli tovushlarga ko‘proq, undosh tovushlarga qisman murojaat qilishadi va voqelikka o‘z munosabatlarini bildirishadi.

Tilshunos olim R.Qung‘urov o‘zining “Subyektiv baho formalari” nomli kitobida subyektiv baho munosabatining tilning turli sathlarida, xususan, leksik, morfologik va fonetik qatlamlarida ifodalanishini kompleks tarzda tahlil qilgan. Muallif ushbu sathlar orqali baho bildiruvchi vositalarning shakl, mazmun va funksional xususiyatlarini aniqlab, ularning subyektivlik darajasi, emotsional-ekspressiv yuklamasi va kommunikativ vazifasiga alohida e’tibor qaratdi. Jumladan, fonetik sathda intonatsiya, urgu, to‘htam, morfologik sathda esa affiksal birliklarning (kichraytiruvchi, erkalovchi qo‘shimchalarning), leksik sathda esa bahoviy so‘zlar, metaforik va emotsional leksik birliklarning subyektiv munosabatini ifodalashdagi roli keng yoritilgan.

Tilshunos olim Z.Isaqova o‘zining ilmiy izlanishlarida subyektiv baho munosabatlarining ifodalanishini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganib, ularni ekspressivlik holatiga ko‘ra 3 darajaga ajratishni taklif etadi. Unga ko‘ra, bahoviy ifodalar: quyi, o‘rta, yuqori darajali bo‘lishi mumkin. Bu darajalanish, avvalo, baho bildiruvchi til birliklarining emotsional-ekspressiv yuklamasi, semantik intensivligi hamda subyektning hodisa yoki shaxsga nisbatan bildirgan munosabatining darajasiga qarab belgilanadi.

TAHLIL NATIJALARI

Alliteratsiya – badiiy nutqda biror tovush (odatda undosh tovush)ning takrorlanishi orqali hosil bo‘ladigan fonetik-stilistik san’at vositasidir. U poetik matnda ohangdorlik, emotsional ta’sirchanlik, g‘oya va obrazni kuchaytirish kabi estetik maqsadlarda qo‘llaniladi. Allteratsiya nafaqat ohangdorlik vositasi balki, subyektiv baho ifodalashda ham muhim rol o‘ynaydi. Muallif tomonidan tanlangan undosh tovushlar yordamida ijobiy yoki salbiy munosabat hosil qilinadi. Masalan:

1. ***S***unbul ***s***och, ***s***irti ***s***uluv, ***s***arvi ***s***anobar,

Oyna olib, ***s***unbul ***s***ochim tarayman. (ijobiy)

2. ***A***ylanay, ***a***razlasang ***a***razlayver, ***a***razingdan.(ijobiy, erkalovchi)

Geminatsiya – bu biror tovushning, ayniqsa undosh tovushning ikki marta ketma-ket takrorlanish hodisasi bo‘lib, fonetik va stilistik imkoniyatlardan biri sanaladi. Bu shunchaki

tovush yoki harf takrorlanishi emas, balki so‘zlovchi nutqidagi subyektiv munosabat ifodalash vositasidir. Masalan:

1. *Qo‘shnilardan to**z-z-z**asiga uchraganakansiz-da!*
2. *Sizni ro**s-s**a kutdik?!*

Taqlid so‘zlar (onomatopeya) – bu atrof-muhitdagi tovushlarni, tabiiy hodisalarni, hayvonlar yoki odamlarning tovush chiqarishini bevosita taqlid yo‘li bilan ifodalovchi so‘zlardir. Taqlidiy so‘zlar – tovushlarni yoki hodisalarni eshitilgan shaklda yoritadigan, real hayotdagi ovozlar va hodisalarga bevosita taqlid asosida yuzaga kelgan so‘zlar bo‘lib, ko‘proq fonetik ifodaviylikka ega bo‘lgan birliklardir. Taqlidiy so‘zlar inson ongida real tovushlar bilan bog‘liq tuyg‘u va tasavvurni uyg‘otadi. Bu esa muallifga yoki so‘zlovchiga bahoviy yoki emotsional munosabatni ifodali yetkazish imkonini beradi. Masalan: “*Boboning **g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘iri** ortida mehr bor edi, lekin uni har kim ham anglavermasdi*.”

G‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir taqlidiy so‘zi ko‘pincha noaniq, tushunarsiz, norozilik ifodalovchi tovushlarni anglatadi.

*Ko‘cha bo‘ylab **lapang-lapang** yurib kelayotgan rahbar go‘yo hech narsani bilmaganday beparvo edi.*

Lapang-lapang taqlidiy so‘zi fonetik jihatdan holatni tasvirlash orqali obrazli ifodani kuchaytiradi va ko‘pincha qahramon harakatlariga bahoviy munosabatni sezdiradi. Ularning ishlatilishi nutqda va badiiy matnda subyektiv-emotsional kayfiyatni yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Taqlidiy so‘zlar orqli subyektiv baho – ijobiy, salbiy, neytral munosabat ifodalaydi. Bu so‘zlar tovushlarni taqlid qiladi, lekin ular yordamida insonning hissiy holati, obyektga munosabati ham ko‘rsatiladi. Masalan: *shildir-shildir, jarang-jurung* ijobiy munosabat ifodalashda foydalanilsa, *do‘ng-do‘ng, alang-jalang* esa salbiy munosabat ifodalovchi so‘zlardir.

Supersegment vositalar (ohang, urg‘u, to‘htam) orqali baho munosabatini ifodalashda asosiy omil bo‘lib, bu vositalar yordamida mantdagi qahramon yoki so‘zlovchining ichki kechinmalari, emotsional holati, ijtimoiy munosabati va bahosi bevosita yoki bilvosita ifodalanadi. Ayniqsa, intonatsion o‘zgarishlar orqali kinoya, istehzo, mehr, nafrat, hayrat kabi subyektiv baholar kuchli fonetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan: “*Voy, juda yaxshi bo‘pti-da*!” jumlasidagi ohang va urg‘u kinoyaviy bahoni anglatishi mumkin. Shuningdek, to‘htamning joyida ishlatilishi ham nutqdagi baho munosabatiga ta’sir etadi: “*Men… sizdan bunday gapni… kutmagandim.*” Bu yerda to‘htam dramtik tus beradi va kutilmagan holatga nisbatan salbiy bahoni bildiradi. Ustsigment vositalar yordamida fonetik sathda subyektiv baho ayniqsa, ironik baho munosabatlarini ifodalashda ahamiyatlidir. Ironiya odatda so‘zning yuzaki ma’nosi bilan asl maqsad o‘rtasidagi ziddiyat orqali yuzaga keladi va holat ko‘pincha aynan ustsigment vositalar orqali anglashiladi. Masalan, quydagi jumlani olaylik: “*Zo‘r ish qilibsiz!*” Agar bu gap baland ohang, sust temp va kuchli urg‘u bilan aytilsa, u holda ijobiy baho ifodalangan bo‘lishi mumkin. Ammo tovush pastligi, intonatsiyadagi pasayish, so‘nggi so‘zga

kuchli urg‘u berish orqali bu jumla ironic yoki kinoyaviy tus oladi, so‘zlovchining yashirin nuqtai nazarini ochib beradi.

XULOSA

O‘rganilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, til tizimidagi leksik, fonetik va morfologik birliklar shaxsiy-emotsional munosabatni ifodalashda muhim kommunikativ va stilistik yuklamaga ega. Ushbu birliklar til vositalari orqali subyektning voqelik, shaxs yoki hodisalarga bo‘lgan ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, subyektiv bahoni anglatuvchi birliklarning semantik va pragmatik qiymati matnning emotsional qatlamini boyitadi, uning uslubiy yaxlitligini ta’minlaydi. Shuningdek, tilda mavjud bo‘lgan affikslar, ohang va urg‘u kabi vositalar bahoviylikning lingvopragmatik darajada ifodalanishiga xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, subyektiv baho bildiruvchi birliklar nafaqat nutq egasining ichki munosabatini yoritadi, balki tinglovchiga kuchli ta’sirchanlik, samimiyatni yetkazadi. Bu esa ularning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi va tildagi stilistik rang-baranglikni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dusmatov X., Mahmudova Z. Uslubshunoslik asoslari., Farg‘ona: Classik, 2021.
2. Ixtiyorov A. Turli tizimli tillarda subyektiv munosabat semantikasi va uning lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari misolida): Filol. fan. nom…diss. avtoref. – Namangan. 2024.
3. Leech G.N. Principles of Pragmatics. – London, NY; Logman, 1983.
4. Додонов В.И. Эмоция как ценность. – Москва: Политиздат, 1978.
5. Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодалашнинг усул хамда воситалари. Филол. фан. номз. автореф. – Тошкент. 2002.
6. Исакова З. Инглиз ва ўзбек тилларида баҳо муносабатининг ифодаланиши: Филол. фан. ном. …дисс. автореф. – Наманган. 2022.
7. Қунғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент. 1966.
8. Қунғуров Р., Субеъктив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

HIS-HAYAJON TUSHUNCHASI VA UNING TILDAGI IFODASI

Djurayeva Dilnoza Olimjan qizi
Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti
Electron pochta manzili: djdilnoza16@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada his-hayajon tushunchasining psixologik va lingvistik asoslari chuqur tahlil qilinadi. Inson ruhiyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan his-tuyg‘ular va hissiy kechinmalar tildagi ifoda vositalari orqali qanday namoyon bo‘lishi, ularning leksik-semantik, grammatik hamda uslubiy xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Hissiyotlarni ifodalashda metafora, epitet, kinoya kabi badiiy vositalarning o‘rni, shuningdek, so‘z tanlash va sintaktik tuzilmalarning hissiy ma’no hosil qilishdagi roli o‘rganiladi. Maqolada shuningdek, his-hayajonning ifodalanishida xalqona nutq uslubi, maqol va matallar, badiiy adabiyot va publitsistikada qo‘llanadigan tildagi boy vositalar keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: his-hayajon, hissiy kechinma, leksik vositalar, tildagi ifoda, metafora, ekspressivlik, badiiy til.

ПОНЯТИЕ ЭМОЦИЙ И ЕГО ВЫРАЖЕНИЕ В ЯЗЫКЕ

Аннотация. В статье подробно рассматриваются психологические и лингвистические основы понятия эмоций и переживаний. Анализируется, как чувства и эмоциональные состояния, тесно связанные с человеческой психикой, отражаются в языке через лексико-семантические, грамматические и стилистические средства. Особое внимание уделено роли метафор, эпитетов, иронии, а также выбору слов и синтаксическим конструкциям, формирующим эмоциональную окраску высказываний. В статье также показаны богатые языковые средства, применяемые в народной речи, пословицах, художественной литературе и публицистике для выражения эмоций и чувств.

Ключевые слова: эмоции, эмоциональные переживания, лексические средства, языковое выражение, метафора, экспрессивность, художественная речь.

THE CONCEPT OF EMOTIONS AND ITS EXPRESSION IN LANGUAGE

Abstract. The article examines the psychological and linguistic foundations of the concept of emotions and feelings. It explores how emotional states, closely connected with human psychology, are expressed in language through lexical-semantic, grammatical, and stylistic means. Special focus is placed on the role of metaphors, epithets, irony, as well as word choice

and syntactic structures in creating emotional coloring of speech. The article also highlights the rich linguistic resources used in colloquial speech, proverbs, artistic literature, and journalism to convey emotions and feelings.

Keywords: emotions, emotional states, lexical means, linguistic expression, metaphor, expressiveness, artistic language.

KIRISH

Inson hayoti davomida yuz beradigan barcha voqea-hodisalar uning ruhiy dunyosiga ta’sir etadi va natijada turli xil his-tuyg‘ular, hissiy kechinmalar yuzaga keladi. His-hayajon insonning ichki holatini namoyon etuvchi eng muhim psixik jarayonlardan biri bo‘lib, u shaxsning xulq-atvori, dunyoqarashi va muloqotidagi ohangdorlikni belgilab beradi. Til esa ushbu ichki kechinmalarni tashqi olamga yetkazishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bois, his-hayajonning tildagi ifodasini o‘rganish lingvistika va psixologiya tutashgan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

His-hayajonning tildagi ifodasi nafaqat so‘z boyligida, balki grammatik shakllarda, uslubiy vositalarda, intonatsiyada, hatto ohang va ritmda ham mujassamdir. Shu ma’noda, tilshunoslik va adabiyotshunoslikda his-tuyg‘ularni ifodalovchi vositalarni tadqiq qilish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR SHARHI

G‘oziyevning ta’kidlashicha, inson psixikasida kechadigan his-hayajon jarayonlari insonning xulq-atvori va ijtimoiy muloqotida asosiy motivatsion omil sifatida namoyon bo‘ladi [1]. Muallif o‘zining “Psixologiya: umumiy kurs” (2010) asarida his-tuyg‘ularning fiziologik va ruhiy asoslarini tahlil qilib, ularning nutqda ifodalanishiga alohida e’tibor qaratadi. G‘oziyev fikricha, til hissiy kechinmalarni tashqi dunyoga uzatishda ko‘prik vazifasini bajaradi va bu jarayon intonatsiya, ohang va leksik birliklar bilan uyg‘unlashgan holda kechadi.

Yo‘ldoshev o‘zining “Nutq va uning psixologik asoslari” (2018) asarida nutqning shakllanishida hissiy kechinmalar va ongli jarayonlarning o‘zaro aloqadorligini yoritadi [2]. Uning fikricha, nutqning hissiy bo‘yoqdorligi insonning ruhiy holatidan kelib chiqadi va bu holat nutqdagi so‘z tanlash, sintaktik qurilish hamda ifodaning ohangiga bevosita ta’sir etadi. Yo‘ldoshev, shuningdek, nutqda emotsional vositalarning ko‘payishi tinglovchiga kuchli ta’sir o‘tkazishini alohida ta’kidlaydi.

Xudoyberdiyevning “O‘zbek tilida ekspressiv vositalar tizimi” (2018) asarida his-hayajonni ifodalovchi leksik va uslubiy vositalarning turlari batafsil tahlil qilingan [3]. Muallifning fikricha, o‘zbek tilida metafora, epitet, mubolag‘a kabi vositalar nutqning emotsional va estetik ta’sirini oshiruvchi asosiy elementlar bo‘lib xizmat qiladi. Xudoyberdiyev shuningdek, xalq og‘zaki ijodida, xususan, maqol va matallarda his-hayajonni ifodalovchi obrazlar juda boy ekanini ta’kidlaydi.

Shomahmudovaning “Til va emotsiya: psixolingvistik yondashuv” (2021) asarida his-tuyg‘ularning tilga ko‘chishi neyropsixologik jarayonlar bilan bog‘liq holda izohlanadi [4].

Uning ta’kidlashicha, nutq paytida hissiyotlar markaziy nerv tizimidagi emotsional markazlar faolligi orqali yuzaga chiqadi va bu jarayon ohang, pauza va intonatsiya kabi elementlar bilan kuchaytiriladi. Shomahmudova psixolingvistika nuqtai nazaridan emotsional nutqning o‘ziga xos grammatik va fonetik belgilarini ham aniqlab beradi.

G‘ulomov va Karimovaning “Tilshunoslikka kirish” (2015) asarida his-hayajonning tildagi ifodasi tilning semantik tizimida qanday shakllanishi yoritiladi [5]. Mualliflar fikricha, har bir tilning emotsional imkoniyatlari uning tarixiy rivoji, xalqning madaniyati va psixologiyasi bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli, o‘zbek tilida quvonch, g‘am, g‘azab kabi tuyg‘ularni ifodalovchi birliklar xalqning milliy tafakkurini ham aks ettiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

His-hayajonning tildagi aks etishi murakkab jarayon bo‘lib, u ko‘p qirrali lingvistik mexanizmlar orqali amalga oshadi. Avvalo, leksik-semantik vositalar asosiy o‘rinni egallaydi. Insonning quvonch, g‘am, qo‘rquv, muhabbat yoki nafrat kabi hislari ko‘pincha maxsus emotsional so‘zlar, sinonimik qatlamlar va konnotativ ma’nolarga ega birliklar orqali ifodalanadi. Masalan, “quvonchdan ko‘kka ko‘tarildi”, “g‘azabdan yonib ketdi” kabi iboralar tilimizdagi obrazlilikni oshiradi va his-hayajonni kuchli ifodalaydi.

Badiiy tasvir vositalari ham his-hayajonning til orqali yetkazilishida muhim rol o‘ynaydi. Metafora, epitet, ta’kid, mubolag‘a, kinoya kabi uslublar orqali nutqning ekspressivligi oshadi. Masalan, badiiy adabiyotda muhabbat, hasrat, g‘azab yoki quvonch kabi tuyg‘ularni ifodalashda obrazli vositalar his-tuyg‘ularni kuchaytiradi, o‘quvchining hissiyotiga ta’sir qiladi. Shu bois, tilshunoslikda bu vositalarni o‘rganish, ularning funksional imkoniyatlarini ochib berish alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Shuningdek, grammatik vositalar va sintaktik konstruktsiyalar ham his-hayajonni ifodalashda bevosita qatnashadi. Emotsional holatni ifodalashda undov gaplar, ritorik savollar, so‘z tartibidagi o‘ziga xosliklar, takroriy birliklar ishlatiladi. Masalan, “Qani endi bugun ham kelganida!”, “Voy, bu qanchalik ajoyib!” kabi gaplar so‘zlovchining ichki hissiyotini kuchli ohangda yetkazadi. Intonatsiya va ohang ham bu jarayonning muhim tarkibiy qismidir.

Xalq og‘zaki ijodida ham his-hayajon ifodasi o‘ziga xos ko‘rinishga ega. Maqol, matal, topishmoq va xalq qo‘shiqlarida quvonch, hasrat, minnatdorlik yoki norozilik tuyg‘ulari ramziy ifodalar orqali yetkaziladi. Masalan, “Sevgi — yurakning o‘ti, hasrat — ko‘zning yoshi” kabi xalqona ifodalar his-tuyg‘ularni o‘ziga xos badiiy shaklda yoritadi.

His-hayajonni til orqali o‘rganish psixologik jihatdan ham dolzarbdir, chunki bu jarayon inson ruhiy holatini, ijtimoiy muloqotini va shaxslararo munosabatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Zamonaviy psixolingvistika his-hayajon ifodasining tilga ko‘chish jarayonini neyropsixologik jihatdan ham o‘rganadi, ya’ni nutq hosil bo‘lishida emotsional markazlarning faolligi, ohang va intonatsiyaning shakllanish mexanizmlarini tadqiq qiladi.

NATIJALAR

Tilshunoslikda his-hayajonning tildagi ifodasini o‘rganishda uning tarixiy-lisoniy ildizlariga e’tibor qaratish muhimdir. O‘zbek tilining qadimgi yodgorliklarida, xususan,

“Devonu lug‘otit turk”, “Qutadg‘u bilig” kabi manbalarda insonning quvonch, g‘azab, muhabbat yoki qo‘rquv kabi kechinmalarini ifodalovchi o‘nlab so‘z va iboralar uchraydi. Bu birliklarning aksariyati faqat semantik ma’noga ega bo‘lib qolmay, balki obrazli va ekspressiv tusga ega bo‘lgan. Masalan, qadimiy turkiy adabiyotda “qalbi yonmoq”, “yuragi qaynamoq” kabi frazeologizmlar inson ruhiy holatini kuchli hissiy bo‘yoqda aks ettirgan. Bu esa o‘zbek tilining hozirgi zamon emotsional qatlamida ham saqlanib qolgan va nutqning badiiyligi hamda ta’sirchanligini ta’minlashda davom etmoqda.

Milliy-madaniy omillar ham his-hayajonning til orqali ifodalanishida alohida rol o‘ynaydi. Har bir xalq o‘zining ruhiy dunyosini, qadriyatlari va dunyoqarashini til orqali namoyon qiladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida, xususan, maqol, matal, qo‘shiqlar va dostonlarda his-hayajon ko‘proq ramziy va obrazli vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, “Ko‘ngil ko‘zgusi — so‘z”, “Yurakdagi dard tilga chiqsa, yengillik bo‘lur” kabi iboralar his-hayajonni nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri, balki bilvosita, xalqona falsafa va obrazlar orqali yetkazadi. Bu uslub nutqning emotsional bo‘yoqdorligini oshirib, uni yanada ta’sirchan qiladi. Shuningdek, xalqona nutqda his-hayajonni ifodalovchi o‘xshatishlar, mubolag‘alar (“quvonchdan osmonga chiqdi”, “hasratdan ko‘ngli cho‘kdi”) hissiyotning kuchini oshiruvchi eng ko‘p uchraydigan uslublardan biridir.

Badiiy adabiyot his-hayajonning tildagi ifodasini o‘rganish uchun eng boy material manbalaridan biri hisoblanadi. Cho‘lpon, Oybek, G‘afur G‘ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Qahhor kabi adiblar asarlarida inson hissiyotlari turli xil uslubiy va semantik vositalar orqali yoritilgan. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida muhabbat va iztirob kechinmalari metafora va poetik sintaksis vositalari bilan tasvirlanadi: “Ko‘nglimda uyg‘ongan hislar daryoday toshib, so‘zlarimga sig‘maydi” kabi jumlalar shaxsiy ruhiy holatning kuchli badiiy aksidir. Erkin Vohidovning she’riyatida esa quvonch, sog‘inch, vatanparvarlik kabi hissiyotlar ritmik ohang va fonetik takrorlar orqali kuchaytiriladi, bu esa nutqqa qo‘shimcha musiqiylik bag‘ishlaydi.

His-hayajonning tildagi ifodasi fonetik va intonatsion jihatdan ham chuqur o‘rganilishi lozim bo‘lgan hodisadir. Emotsional nutqda unli va undosh tovushlarning cho‘zilishi, pauza, ritmik uzilishlar va ohangning keskin o‘zgarishi orqali so‘zlovchining ruhiy holati tinglovchiga kuchli ta’sir qiladi. Masalan, badiiy asarlarda yoki sahna nutqida “Oh, sen bormiding!” kabi undovli va cho‘zilma ohanglar his-hayajonni fonetik jihatdan yanada kuchaytiradi. Bu jarayon psixolingvistika nuqtai nazaridan ham alohida ahamiyatga ega, chunki inson miyasi intonatsion o‘zgarishlar orqali hissiy ma’nolarni tezroq qabul qiladi va ularga kuchli javob qaytaradi.

Zamonaviy tilshunoslikda his-hayajonni ifodalovchi vositalarni o‘rganishda korpus lingvistikasi va nutq texnologiyalaridan ham foydalanilmoqda. Katta hajmdagi matnlar tahlili asosida o‘zbek tilida eng ko‘p ishlatiladigan emotsional birliklar, ularning kontekstdagi vazifasi, qo‘llanish chastotasi aniqlanmoqda. Bu esa nutq madaniyatini oshirish, tarjima amaliyotida emotsional ekvivalentlarni to‘g‘ri tanlash va hatto sun’iy intellekt asosidagi ovozli tizimlarni hissiyotli qilish imkonini beradi.

His-hayajonning tildagi ifodasi, shuningdek, shaxslararo muloqotning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ham yoritadi. Nutqda emotsional vositalardan foydalanish insonlar o‘rtasida yaqinlik va ishonch uyg‘otadi, muloqotni samimiy va jonli qiladi. Shu bilan birga, haddan tashqari emotsionallik yoki noto‘g‘ri ishlatilgan ekspressiv vositalar muloqotda tushunmovchilik yoki agressiyani kuchaytirishi mumkin. Shu bois his-hayajonni tilda me’yorida va maqsadga muvofiq ifodalash nutq madaniyatining muhim tarkibiy qismi sanaladi.

His-hayajon va uning tilga ko‘chish jarayonini chuqur anglash uchun uni faqat emotsional holat sifatida emas, balki kognitiv hodisa sifatida ham tahlil qilish zarur. Zamonaviy lingvistika, xususan, kognitiv yondashuv nuqtai nazaridan, his-tuyg‘ular inson tafakkurining muayyan konseptual tizimida shakllanadi va til orqali obrazli modellar asosida namoyon bo‘ladi. Masalan, quvonch holati ko‘pincha “balandlik” metaforasi bilan ifodalanadi (“osmonida uchib yurdi”), g‘azab esa “issiq” va “portlash” metaforalarida ifodalanadi (“g‘azabidan yonib ketdi”, “ich-ichidan portladi”). Bu kabi metaforalar nafaqat tasviriy vosita, balki inson tafakkuridagi hissiyotlarning qanday konseptuallashtirilishini ko‘rsatib beruvchi kognitiv modeldir. Shu bois his-hayajonning tildagi ifodasi nafaqat estetik, balki kognitiv jarayon sifatida ham qaraladi.

Psixolingvistika sohasidagi so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, his-hayajon nutqda ikki darajada aks etadi: birinchi daraja — ongli, ya’ni maqsadli so‘z tanlash va uslubiy vositalardan foydalanish orqali, ikkinchi daraja — ongsiz, ya’ni intonatsiya, ovoz tembri, pauza va ritmik o‘zgarishlar orqali. Ayniqsa, ongsiz darajada yuzaga chiqadigan fonetik o‘zgarishlar tinglovchi ongiga kuchli ta’sir etadi, chunki inson miyasi hissiy ohangni ma’nodan tezroq va kuchliroq qabul qiladi. Shu sababli, badiiy asarlarda yoki jonli nutqda ohangdorlik va pauzalar his-hayajonni yetkazishda so‘zlardan ko‘ra ta’sirchanroq bo‘lishi mumkin.

His-hayajonning tildagi ifodasi kommunikativ funksiyalar nuqtai nazaridan ham muhimdir. Nutqda emotsional vositalar faqat his-tuyg‘uni yetkazish uchun emas, balki muloqotning ta’sirchanligini oshirish, tinglovchini ishontirish, u bilan yaqinlikni ta’minlash, hatto ziddiyatli vaziyatlarda keskinlikni yumshatish uchun ham xizmat qiladi. Masalan, publitsistik nutqda auditoriyani jalb etish uchun ohangdor ritorik savollar, undov gaplar va hissiy kuchli epitetlardan foydalaniladi. Siyosiy nutqlarda esa tinglovchilarda ishonch va ko‘tarinki kayfiyat uyg‘otuvchi metaforalar (“yorug‘ kelajak”, “birgalikda yuksalamiz”) ko‘p uchraydi. Bu vositalar hissiyotlar orqali muloqotning ta’sirchanligini oshirib, uni maqsadga yo‘naltiradi.

Shuningdek, his-hayajonning tilga ko‘chish jarayoni milliy mentalitet va ijtimoiy qadriyatlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek madaniyatida, masalan, hissiyotlar ko‘pincha bilvosita, yumshoq va ramziy shaklda ifodalanadi. “Ko‘ngli tog‘dek bo‘ldi”, “Ko‘zida quyosh charaqladi” kabi obrazli iboralar shaxsning hissiy holatini bevosita emas, balki majoziy tarzda yetkazadi. Bu, bir tomondan, milliy nutq madaniyatining muloyimlikka intilishi bilan izohlanadi, ikkinchi tomondan, badiiy obrazlarning boyligi tufayli nutqning ta’sirchanligini oshiradi.

His-hayajonning til orqali ifodalanishi, shuningdek, psixoterapevtik va ijtimoiy muhitni barqarorlashtiruvchi vosita sifatida ham qaraladi. Emotsional nutq, ayniqsa, she’riyat, badiiy asarlar yoki hatto kundalik muloqotda inson ruhiyatiga yengillik bag‘ishlab, stressni kamaytiradi. Psixologlar ta’kidlashicha, o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri va estetik tarzda ifodalash qobiliyatiga ega shaxslar ruhiy muvozanatni osonroq saqlaydi va muloqotda ijobiy munosabatlarni shakllantira oladi.

XULOSA

His-hayajon tushunchasi va uning tildagi ifodasini o‘rganish nafaqat lingvistika, balki psixologiya va adabiyotshunoslik uchun ham katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Inson hissiyotlari tilda leksik, grammatik va uslubiy vositalar orqali ifodalanib, ular orqali muloqot jarayoni yanada boy va ta’sirchan bo‘ladi. Shu bois, tilshunoslikda his-hayajon ifodasining turli vositalarini o‘rganish, ularni o‘quv jarayonida va amaliy nutqda qo‘llash usullarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. G‘oziyev E. *Psixologiya: umumiy kurs.* – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010. – 456 b.

2. Yo‘ldoshev A. *Nutq va uning psixologik asoslari.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 284 b.

3. Xudoyberdiyev A. *O‘zbek tilida ekspressiv vositalar tizimi.* – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018. – 312 b.

4. Shomahmudova N. *Til va emotsiya: psixolingvistik yondashuv.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 198 b.

5. G‘ulomov S., Karimova N. *Tilshunoslikka kirish.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 276 b.

6. Abdullayeva M. *O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – 352 b.

7. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By.* – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – 256 p.

8. Crystal D. *The Cambridge Encyclopedia of Language.* – Cambridge: Cambridge University Press, 2019. – 540 p.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

TILAK VA ISTAK BILDIRUVCHI NUTQIY AKTLAR: ILLOKUTIV MAQSAD VA JANR DOIRASIDAGI FARQLAR

Jamila Ruziyeva,
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilak va istak bildiruvchi nutqiy aktlarning pragmatik xususiyatlari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. J. Ostin va J. Syorl tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasiga asoslangan holda, bu turdagi aktlarning illokutiv maqsadlari, ularning kontekstga bog‘liq holda turli kommunikativ vazifalarni bajarishi ilmiy nuqtayi nazardan tahlilga tortiladi. Shuningdek, tilak va istaklarning turli nutqiy jarayonda – kundalik muloqot, badiiy adabiyot, rasmiy uslub va shu kabi ko‘plab pragmatik hollarda ifodalanish xususiyatlari va ularning o‘zaro farqlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari tilak va istak bildiruvchi nutqiy aktlarning murakkab pragmatik tuzilishini, ularning nafaqat shaxsiy his-tuyg‘ularni ifodalash, balki bilvosita ko‘rsatmalar berish, komissiv va hatto performativ vazifalarni bajarish qobiliyatini ifoda etadi.

Kalit so‘zlar: nutqiy akt, pragmatika, illokutiv maqsad, tilak, istak, janr, kontekst, ekspressiv, direktiv, komissiv.

РЕЧЕВЫЕ АКТЫ, ВЫРАЖАЮЩИЕ ЖЕЛАНИЯ И ВОЖДЕНИЯ: РАЗЛИЧИЯ В ИЛЛЮКТИВНОЙ ЦЕЛИ И ЖАНРЕ

Абстрактный. В статье анализируются прагматические особенности речевых актов, выражающих желания и стремления, с лингвистической точки зрения. На основе теории речевых актов, разработанной Дж. Остином и Дж. Серлем, с научной точки зрения анализируются иллокутивные цели данных типов актов и выполнение ими различных коммуникативных функций в зависимости от контекста. В нем также рассматриваются характеристики желаний и стремлений, выражаемых в различных речевых процессах — повседневном общении, художественной литературе, официальном стиле и многих других прагматических ситуациях, — и их различия. Результаты исследования раскрывают сложную прагматическую структуру речевых актов, выражающих желания и стремления, их способность не только выражать личные чувства, но и давать косвенные указания, выполнять комиссивные и даже перформативные функции.

Ключевые слова: речевой акт, прагматика, иллокутивная цель, желание, пожелание, жанр, контекст, экспрессивный, директивный, комиссивный.

SPEECH ACTS EXPRESSING WISHES AND DESIRES: DIFFERENCES IN ILLOCUTIVE PURPOSE AND GENRE

Annotation. This article analyzes the pragmatic features of speech acts expressing wishes and desires from a linguistic point of view. Based on the theory of speech acts developed by J. Austin and J. Searle, the illocutionary purposes of these types of acts, their performance of various communicative tasks depending on the context, are analyzed from a scientific point of view. Also, the features of the expression of wishes and desires in various speech processes - everyday communication, fiction, official style and many other pragmatic cases - and their differences are considered. The results of the study reveal the complex pragmatic structure of speech acts expressing wishes and desires, their ability not only to express personal feelings, but also to give indirect instructions, perform commissive and even performative tasks.

Keywords: speech act, pragmatics, illocutionary purpose, wish, desire, genre, context, expressive, directive, commissive.

KIRISH

Kundalik turmushimizda nutqiy muloqot vositasi sifatida tildan foydalanamiz, til esa kommunikatsiya jarayonida turli vazifalarni bajaradi. Nutqiy muloqot tadqiqida pragmatika alohida ahamiyatga ega, sababi, u kontekstda, ya’ni muayyan vaziyatlarda turli uslubiy xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi. Pragmatika tarkibida o‘rganiluvchi nutqiy aktlar nazariyasi markaziy tushuncha sifatida tilshunoslik ilmida asosiy o‘rin tutadi. Bu nazariyaga ko‘ra, til birliklarining ma’lumot uzatish, ushbu jarayonda turli harakatlarni amalga oshirish – so‘rash, buyruq, va’da berish va hokazo – kabi ifodaviy jihatlarni qamrab oladi.

Inson yaratiq sifatida o‘ziga xos ichki olamga, shaxsiy ehtiyoj, xohish va intilishlarga ega. Tilak va istaklar ham shaxs ma’naviy hayotida asosiy rol egallovchi jihatlar sanaladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilgan leksemalarga quyidagicha ta’rif keltiriladi:

“**Tilak** –

1. *Biror istak, niyat bilan, nimanidir tilab aytilgan gap, duo va shu kabilar.*

2. Biror narsani amalga oshirish, unga erishish uchun bo‘lgan ichki intilish, hissiyot; istak, niyat [19]”.

“**Istak** –

1. *Ehtiyoj his-sezgisi; xohish, mayl.*
2. *O‘zgaga qaratilgan, kimsaga nisbatan bo‘lgan yaxshi niyat; tilak [19]”.*

Demak, keltirilgan ikki leksemalar ham inson tabiatidagi nimagadir nisbatan bo‘lgan shaxsiy ehtiyoj, xohishlarni ifoda etuvchi so‘zlar sanaladi. Bu so‘zlar semasida farqlar deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Nutqiy aktlar orasida tilak va istakni ifoda etuvchi birliklar alohida guruhni tashkil etib, o‘ziga xos pragmatik xususiyatlarga ega. Garchi dastlab tilak va istak bildiruvchi aktlar, asosan, ekspressiv (his-tuyg‘ularni ifodalovchi) sifatida qaralishi mumkin bo‘lsa-da, ularning pragmatik imkoniyatlari ancha kengdir. Ularning illokutiv maqsadlari va turli nutqiy janrlardagi ifodalanish shakllarini tahlil qilish tilning kommunikativ salohiyatini

chuqurroq tushunish imkonini beradi. Bizning ushbu maqolamizda ham tilak va istakni anglatuvchi birliklarning nutqiy akt sifatida shakllanishi hamda ularning illokutiv maqsadlaridagi xilma-xillik, shuningdek, ularning ifodalanishidagi pragmatik tafovutlar borasida so‘z yuritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Nutqiy aktlar nazariyasi jahon tilshunosligida turli olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, ulardan biri J. Ostindir [1; 67]. J. Ostin til vositasida bajariladigan aktlarni tadqiq etar ekan, nutqiy akt tuzilmasini uch qismga ajratgan:

1-diagramma. J. Ostin klassifikatsiyasi



J. Syorl esa illokutiv aktlarni quyidagi asosiy guruhlarga tasniflagan: reprezentativlar, direktivlar, komissivlar, ekspressivlar va deklaratsiyalar[2; 53]. Tilak va istak bildiruvchi nutqiy aktlar, ko‘pincha, Syorl tasnifidagi **ekspressivlar** toifasiga kiradi[2;46]. Bunda so‘zlovchi o‘zining ruhiy holatini, his-tuyg‘ularini, xohish yoki ehtiyojlarini ifodalaydi. Masalan: so‘zlovchi jismoniy holasti va unga bog‘liq istakni ifodalash maqsadida “Men charchadim, dam olgim kelyapti”; orzu-istaklarini ifodalash uchun “Qani edi, bugun uyga bora olsam!”; yaxshi niyatni aks ettirish uchun esa “Ishlaringizga muvaffaqiyatlar tilayman” kabi sintaktik butunliklarni qo‘llashi mumkin, bu esa so‘zlovchi nutqiy aktidagi ekspressiv klassifikatsiyaga doir misol bo‘la oladi. Ammo shuni ham qayd etish lozimki, pragmatika nuqtayi nazaridan tilak va istaklar faqatgina ekspressiv vazifani bajarish bilangina cheklanib qolmaydi, ular ishtirok etgan konteksti hamda ifodalanish shakliga qarab boshqa shaklli illokutiv maqsadlarga ham xizmat qilishi mumkin.

METOD VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolada keltirilgan ma’lumotlar ustida lingvistik tadqiqot olib borish uchun qiyosiy tahlil, tasnifiy va tavsifiy metodlardan unumli foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tilak va istakni anglatuvchi nutqiy aktlarning illokutiv maqsadlariga ko‘ra xilma-xil maqsadlarni aks ettirishi mumkin. Ulardan biri to‘g‘ridan to‘g‘ri ekspressiya hisoblanadi – bunda ko‘zlangan asosiy maqsad so‘zlovchining ichki holati, his-tuyg‘ulari, shaxsiy ehtiyoj yoki niyatini ochiq-oydin ko‘rsatib berish maqsadida qo‘llanuvchi ifodalarni yoritib berishdir, masalan, “Men buni chin dildan xohlayman” butunligida so‘zlovchining istagi yaqqol aks etgan bo‘lib, bu nutqiy aktning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bilvosita direktivalar – bu ham tilak va istakni bildiruvchi illokutiv akt shakli bo‘lib, ko‘p hollarda istak shaklidagi ifodalarning tinglovchidan biror harakatni so‘rash yoki buyruq/ko‘rsatma berish bilan aloqador bo‘ladi. Masalan, biror kishidan choy ichishni istaganligi uchun choy so‘rash uchun “Menga bir piyola choy kerak edi” tarzidagi jumlani qo‘llashi yoki buyruq yoki istak ma’nosini aks ettirish uchun esa “Sen bu ishni o‘zing qilishingni juda xohlayman” kabi istak ifodasining yumshoqlik, muloyimlikni ifoda etuvchi buyruq formasidan foydalanish mumkin.

Komissiv maqsad ham nutqiy aktlarning illokutsiyani ifoda etuvchi guruhiga kiradi. Komissiv maqsad shaklidagi illokutsiya so‘zlovchining kelajakda biror harakatni amalga oshirish niyatini yoki va’dasini ham bildirishi mumkin. Jumladan, quyidagi gapda ushbu holat yaqqol namoyon bo‘lgan: “Men sizga bu borada yordam ko‘rsatishni juda ham xohlayman” jumlasida keltirilgan holat rasmiy va’dani ifoda etmasa-da, biroq so‘zlovchining majburiyat olishga tayyorlik holatini ko‘rsatib mazmunan komissiv maqsadni qamrab olmoqda.

Performativ maqsad ham alohida kontekstda ifoda etilib, ma’lum bir rasmiy yoki marosim tadbirlarida tilak bildirishning o‘ziga xos shakli sifatida ko‘zga tashlanadi. Buni quyidagi jadval orqali ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq:

1-jadval. Performativ maqsad akti

T/r	***Sintaktik butunlik***	***Akt turi***
1	*Sizga uzoq umr tilayman*	*Tilakni bildiruvchi illokutiv akt*
2	*Baxtli bo‘ling*	*Tilak ifodalovchi akt*

Bu turdagi aktlar, asosan, rasmiy davrlarda tabrik aytishda, sog‘liq tilash, xayrlashish jarayonida bildiriladigan tilaklar, ko‘pincha, performativ xarakterga ega bo‘ladi – ulardan foydalanishdan ko‘zlangan maqsad muayyan ijtimoiy davralarda tilak, istak illokutsiyasiyasini amalga oshirish hisoblanadi.

Bundan tashqari, tilak va istakni ifoda etuvchi illokutiv aktlar quyidagi jihatdan ikki guruhga klassifikatsiya qilinadi:

1) *ijobiy tilak va istakni ifoda etuvchi illokutsiya;*
2) *salbiy tilak va istakni ifoda etuvchi illokutsiya.*

Ijobiy tilak va istakni anglatuvchi illokutsiya illokutiv aktning yuqorida sanalgan turlariga oid hisoblanadi. Salbiy illokutiv akt esa og‘zaki nutqda, asosan, qarg‘ish shaklida namoyon bo‘ladi – bu kabi shakllar alohida illokutiv maqsadlarga ega. Ular so‘zlovchining II yoki III shaxsga nisbatan norozilik, g‘azab yoki nafratini aks ettirib, unga nisbatan yomonlik tilash va baxtsizlikni ravo ko‘rish maqsadida aytiladigan salbiy ma’noli tilak yoki istaklardir. Ularning

perlokutiv maqsadi tinglovchiga yomonlikni istash, unga ruhiy bosim o‘tkazish va shu kabi salbiy omillarni qamrab oladi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, tilak va istak bildiruvchi nutqiy aktlarning illokutiv maqsadlari kontekst, ifodalanish shakli va so‘zlovchining niyatiga ko‘ra keng qamrovli hisoblanadi. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, tilak va istaklarning ifodalanishi va ularning pragmatik vazifasi turli janrlarga ko‘ra farq qilishi mumkin. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari integratsiyasi doirasida o‘rganiluvchi ushbu akt turi badiiy janrlar miqyosida bir-biridan farq qilishi mumkin. Bunda asar qahramonlari nutqi, muallif tomonidan yondashilgan pozitsiya va umuman olganda, badiiy matnning kommunikativ tabiatini o‘rganishda illokutiv aktga tayanish ushbu jihatlarni ochib berish uchun muhim metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Tilak va istak bildiruvchi nutqiy aktlar insonning ichki dunyosini, uning orzu-umidlari, ehtiyojlari, his-tuyg‘ulari va intilishlarini aks ettiruvchi muhim vositadir. Ular adabiy asarlarda ham keng qo‘llaniladi, biroq ularning qo‘llanilish shakli, funksiyasi va pragmatik vazni she’riyat va nasrda o‘ziga xos o‘xshashlik va farqlarga ega.

She’riy va nasriy janrlarda qo‘llanuvchi tilak va istakni bildiruvchi nutqiy illokutsiya qahramonlar ruhiy holati, xarakter xususiyati, xatti-harakatlarini ochib berishda; syujet rivojiga ta’sir ko‘rsatish hamda asar tarkibidan o‘rin olgan konfliktlarning ochib berilishida o‘zaro o‘xshash jihatlar sifatida e’tirof etiladi. Ular orasidagi farq esa nasr va nazmning janriy xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. She’riy asarlarda tilak va istak, ko‘pincha, bir necha so‘z, jumla yoki hatto bir obraz orqali ifoda etilishi mumkin. Ularda, asosan, ko‘chma ma’no ustuvor hisoblanadi. Bu kabi asarlarda “Qani edi”, “Istaymanki” va shu kabi qolip so‘zlar, shuningdek, -sin qo‘shimchasi asosiga qurilgan buyruq-istak maylli gaplar, asosan, foydalaniladi. Ushbu holat O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning quyidagi she’rida yaqqol namoyon bo‘lgan:

Har kimning ham sochlariga oq tushsin,
Ajin tushsin yuzlariga, dog‘ tushsin.
Har kimning ham quvvat ketib belidan,
Qo‘llariga aso — bir tayoq tushsin [3; 50].

Yuqorida keltirilgan she’riy parchada tilak va istak anglatuvchi illokutiv akt qisqa satrlarda bayon etilmoqda va uning shakllanish qolipi III shaxs buyruq-istak maylining -sin qo‘shimchasi hisoblanadi. She’riy kontekst semantikasi mazmunan olib qaralganda salbiy xarakterga egadek ko‘rinadi, biroq uning asl ma’nosi “har kim ulug‘ yoshlarga yetib yursin”, “qarilik gashtini sursin” ma’nosini yashirin tarzda aks ettirmoqda.

Bundan tashqari, she’riy janrlarda istak va tilakning ifoda etilishi muayyan obrazlar orqali ham gavdalantirilishi mumkin, bunda nutqiy illokutsiya obraz asosida tasvirlanadi, masalan, ozodlik istagi Humo qush timsolida, baxt istagi esa bahor timsollari yordamida ochib beriladi:

Ko‘p ishlarga qodirmiz qo‘lni qo‘lga berishsak,
Humo bo‘lib boshimga qo‘na qolgin, Navro‘zim [1; 1]

Shuningdek, she’riy asarlardagi ritmning musiqaviyligi hamda ohang xususiyatlari tilak va istakni ifoda etuvchi illokutiv aktlarning hissiy kuchini oshiradi, unga alohida ko‘tarinkilik baxsh etadi. Bundan tashqari, she’riy asarlarda tilaklarning, I shaxs nutqidan, ya’ni “men” tomonidan ifodalanishi hamda III shaxsga – “u”ga yo‘naltirilishi illokutiv aktga xos janriy xususiyatlarga subyektiv tus beradi:

Xalq istagi: ozod bo‘lsin bu o‘lka,

Ketsin uning boshidagi ko‘lanka [2; 30].

Keltirilgan misrada Cho‘lpon tomonidan xalq tilagining ifoda etilishi ko‘zga tashlanadi. Bundan ko‘zlangan illokutiv maqsad – lirik qahramonning kuchli hissiyotlari, kechinmalari, armonlari yoki ezgu orzularini maksimal darajada ekspressiv tarzda aks ettirishdir. Ushbu she’rda shoir tomonidan bildirilgan tilak yoki istak she’rdagi umumiy simvolik tizimning bir elementi sifatida xizmat qilmoqda, bunda u nafaqat shaxsiy istak, balki kengroq, umumbashariy yoki ijtimoiy g‘oyani ifodalaydi. Cho‘lpon ijodida esa, ayniqsa, xalq dardi, istagi umumbashariy istak sifatida qalamga olinmoqda. Demak, illokutiv maqsadlarni ifoda etishda shoir tomonidan ilgari surilgan g‘oya badiiy asarda namoyon bo‘lgan xilma-xillikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Nasriy asarlardan o‘rin olgan illokutiv akt esa janriy xususiyatlariga ko‘ra she’riy janrlardan qisman bo‘lsa-da farq qiladi. Nasr, xususan epik janrlar (roman, qissa, hikoya), voqebandlik, keng ko‘lamli tasvir, qahramonlar xarakterining atroflicha tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Tilak va istaklar nasrda turli shakllarda ifodalanishi mumkin: qahramonlarning dialog va monolog(ichki nutq)larida, muallif tasvirida (qahramonning xohishlarini bayon qilish), xatlarda, kundaliklarda va shu kabilarda bu turdagi illokutiv akt ishtirok etishi mumkin. Istakni aks ettiruvchi illokutsiya ham to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita ifodalanish xarakteristikasiga ega bo‘ladi. To‘g‘ridan to‘g‘ri ifodada istak bildiruvchi birliklar bilan yoritib berilishi bilan she’riy asarlar bilan o‘xshashlik kasb etadi:

– Omin, o‘z otangni uyingdan haydagan bo‘lsang, iloyim, kosangning tagi oqarmasin! O‘lsang, otamlab yig‘lovching bo‘lmasin, Ollohu akbar [8, 87]!

Ushbu tilakni ifodalovchi jumla salbiy ma’noga ega bo‘lib, qarg‘ish xarakteriga ega, undan o‘rin olgan birliklar to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalanmoqda.

Bilvosita tilak yoki istak bildirish esa, ko‘pincha, qahramonlarning ruhiy olami, yashirin niyati orqali bayon qilinishi mumkin: *U ertaga buvisinikiga borishni niyat qildi*. ***Maqoladan***. Keltirilgan ushbu gapda istak ifodalovchi illokutsiya ochiqdan ochiq emas, balki bilvosita yo‘sinda tasvirlanmoqda. Shuni ham qayd etish lozimki, bilvosita istak yoki tilakni bildiruvchi nasriy asarlar ushbu jihatiga ko‘ra she’riy asarlardan farq qiladi.

She’riy va nasriy janrlar o‘rtasidagi tilak va istakni anglatuvchi illokutsiyalararo farqni, umuman olganda, quyidagi jadval orqali muqoyasa etish maqsadga muvofiq:

2-jadval. Tilak va istak bildiruvchi illokutsiyaning she’riy va nasriy asarlardagi o‘zaro farqi

Jihatlar	*She’riyat*	*Nasr*
Asosiy Fokus	Hissiyot, kayfiyat, obraz, subyektiv kechinmalarni aks ettiruvchi tilak va istak illokutsiyasi ishtirok etadi.	Voqea, syujet, qahramon, xarakter, obyektiv dunyoga xos tilak va istak bildiruvchi illokutsiya bor.
Shakl	Ixcham, obrazli, ritmik xususiyatga ega.	Keng qamrovli, mufassal, detallashtirilgan, voqeabandlik xususiyatiga ega.
Ifodalanish	Ko‘pincha, metaforik, simvollar orqali aks ettiriladi.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita, dialog, monolog, bayon shaklida namoyon bo‘ladi.
Nuqtayi nazar	Ko‘pincha lirik obraz “men” (birinchi shaxs) hisoblanadi.	Muallif (uchinchi/birinchi shaxs), qahramonlar va ularning ichki dunyosi orqali tasvirlanishi mumkin.
Pragmatik funksiya	Ekspressiv (hissiyotni kuchli ifodalash), estetik pragmatikaga ega.	Xarakterni ochib berish, syujetni harakatlantirish, konflikt kabi masalalarni ochiqlashga harakat qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, tilak va istak bildiruvchi nutqiy aktlar adabiy asarlarning uzviy qismi bo‘lib, ularning pragmatik vazifasi janr xususiyatlaridan kelib chiqqan holda farqlanadi. She’riyatda ular, asosan, lirik qahramonning ichki dunyosi va his-tuyg‘ularini yuqori ekspressiv va obrazli tarzda ifodalashga xizmat qilsa, nasrda ular qahramonlar xarakterini ochish va syujetni harakatga keltirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu farqlar adabiy matnlarning o‘ziga xos strukturasi, maqsadi va o‘quvchiga ta’sir etish usullari bilan uzviy bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulvohid Said Muhammad. Humo bo‘lib boshimga qo‘ngin. 2025-yil 21-mart № 12(64)
2. Austin L. (1962). How to Do Things with Words. Harvard University Press.
3. Muhammad Yusuf. Tanish teraklar. – Toshkent, 1985.
4. Quronov D. Abdulhamid Cho`lpon. Jadidlar. – Toshkent: Yoshlar, 2022. – 160b.
1915-yil 1-yanvarda 1911-yilda Sankt-Peterburg universitetini tamomlagan magistrant V. A. Ivanov ilmiy xodim lavozimiga qabul qilindi. O‘qishdan oldingi yillarda (1910-1914) V. A. Ivanov Erondagi Hisob-ssuda bankida xizmat qilgan va u yerda bir necha uzoq safarlarda bo‘lib, Enzeli, Tehron, Isfaxon, Mashhad, Birjand, Hamadon, Kirmonshoh, Sheroz va boshqa joylarda bo‘lgan.

Bu sayohatlar davomida o‘z ustozi V. A. Jukovskiydan jonli xalq nutqiga qiziqishni qabul qilgan Ivanov eron dialektologiyasi va xalq ijodi bo‘yicha qimmatli materiallarni to‘pladi, bu uning birinchi bosma nutqlariga asos bo‘ldi va ko‘p jihatdan yosh olimning dialektolog va folklorshunos sifatida shakllanishini belgilab berdi. Fors xalq she’riyati haqidagi maqolasida u Bushir - Sheroz - Yazd - Tabas - Sabzavor - Kuchan - Ashxobod [18] rub yo‘nalishida yozib olingan 68 ta qisqa she’r (50 ta to‘rtlik, 16 ta to‘y qo‘shig‘i va boshqalar) ni e’lon qildi. Jukovskiyga ergashib, u xalq she’riyati asarlarining haqiqiyligi - quvnoq, sog‘lom, obrazlarda o‘ta aniq, diniylik va mistikaga yot, ko‘p jihatdan soxta yozma fors adabiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri zid bo‘lgan asarlarning aniq mezonlarini shakllantirdi. Maqolada jonli so‘zlashuvda ko‘pincha adabiy tildan uzoq bo‘lgan shevalardan foydalanadigan Eron aholisi xalq ijodiyoti asarlarida, odatda, adabiy fors tiliga o‘tishi haqida bildirilgan fikr muhim ahamiyatga ega edi. Ivanov ilmiy faoliyatining dastlabki yillaridayoq Eronning diniy-falsafiy ta’limotlari, tasavvuf va zamonaviy mazhablar faoliyatiga jiddiy qiziqish bildirdi, keyinchalik esa uni ismoilizmga qaratdi. Muzeyda ishlagan yillarida yozilgan AMning ismoiliy qo‘lyozmalari haqidagi maqola Ivanovning ismoiliylik tarixi va falsafasi bo‘yicha keyinchalik nashr etilgan asarlarning uzun

ro‘yxatidagi birinchi ishi bo‘lib, 49 [19] nomdan iborat butun bir maxsus kutubxonani tashkil etdi; ularning bir qismi AM qo‘lyozmalari materiallari asosida bajarilgan. Eron bo‘ylab sayohatlar paytida Ivanovning Sharq qo‘lyozmalariga bo‘lgan alohida qiziqishi va ularni to‘plash qobiliyati paydo bo‘ldi.

Xulosa . Maqolada rus matnshunosligining shakllanishi va rivojlanishi bosqichma-bosqich tahlil qilinib, bu sohaning nafaqat mahalliy adabiy merosni o‘rganishga, balki Sharq, xususan, fors matnshunosligi taraqqiyotiga ham salmoqli hissa qo‘shganligi yoritildi. XVI–XVII asrlardan boshlab qo‘lyozmalarni to‘plash, tizimlashtirish va tavsiflash orqali boshlangan tadqiqotlar, Peter I davrida davlat darajasidagi e’tibor bilan mustahkamlangan. XIX–XX asrlarga kelib esa matnshunoslik ilmiy maktab darajasiga ko‘tarilib, A. X. Vostokov, G. F. Miller, L. Shletser, K. F. Kalaydovich, F. A. Rozenberg, V. A. Jukovskiy kabi mashhur rus olimlari tomonidan boyitildi.Maqolada alohida e’tibor fors va sharq adabiyotining tanqidiy nashrlar, tekstologik tahlil va filologik tadqiqotlar orqali o‘rganilishiga qaratilgan. Rozenbergning "Shohnoma" ustidagi izlanishlari, fors miniatyuralari va tasviriy san’ati bo‘yicha tadqiqotlari, Jukovskiyning Anvariy, Xayyom, Bobo Tohir kabi mumtoz shoirlar asarlarini tanqidiy nashr qilishdagi xizmatlari nafaqat rus, balki jahon sharqshunosligi rivojiga ham salmoqli hissa bo‘lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Аз. Муз. Памятка, стр. 32.

2. Ванская коллекция 1917 г. — 39 рукописей; коллекция Учебного отделения МИДа 1919 г .— 168 рукописей. Также несколько частных коллекций: А. А. Семенова (1921) — 10 рукописей, А. А. Половцева (1919) —13 рукописей и др.

3. Научная библиотека К. Г. Залемана, насчитывающая около 1500 изданий по иранистике, влилась в 1917 г. в Библиотеку АМ (см. От-чет РАН за 1917, стр. 105).

4 И. Ю. К р а ч к о в с к и й, Избр. сочинения, т. V, стр. 374.

5. См. список печатных работ Ф. А. Розенберга (ИАН СССР, сер. VIII, 1935, Ко 10, стр. 910—911).

6. Персидская миниатюра конца XVI века работы Али Риза-и Аббаси (ИРАИМК, т.II,1922, стр. 177—189); Об индо-персидской и ново-индий-ской живописи («Восток», кн. II, 1923, стр. 83—91).

7.В.А.Эберман, Персы среди арабских поэтов эпохи Омейядов,— ЗКВ, II, Л., 1927, стр. 113—154; его же, Ал-Хурейми, арабский поэт из Согда, — ЗКВ, V, 1930, стр. 429—450.

8. Материалы к критическому изданию «Шахнаме» и описанию руко-писей Персидского фонда, принадлежащие Ф. А. Розенбергу, хранятся в ЛО ААН.

9.Крачковский, Избр. сочинения, т. V, стр. 376—377.

10. Ф. А. Р о з е н б е р г, О вине и пирах в персидской национальной эпопее,— Сб. Музея антропологии и этнографии при Российской АН, 1918,. стр. 375—394.

11. «Абу-л-Касим ал-Туси, называемый Фирдауси. Книга царей, Шахнаме», Academia, 1934.

12.Очерк жизни и творчества Жуковского см.: В. В. Бартольд, Памяти В. А. Жуковского, — ЗВОРАО, XXV, 1921, стр. 399—415;

13.«Grundiss der iranischen Philologie», Bd I—II, Strassburg, 1895— 1904.

14. ЛО ААН, ф. 87, on. 1, № 111, стр. 7—8; «Аме Аухадэддин Энвери, Материалы для его биографии и характеристики», СПб., 1883.

15.Ал-Музаффарийя», стр. 325—363. Статья была тотчас же переве-дена на английский язык — E. D. K o s s,— JRAS, 1898, стр. 349—366.

16.«Песни Хератского старца», — «Воет, заметки», СПб., 1895, стр. 79—113; «Кое-что о Баба Тахире Голыше», — ЗВОРАО, т. XIII, 1901, стр. 0104—0108.

17. АВ, ф. 17, on. 1. Подробное описание архива Жуковского см.: Ю. Е. Борщевский, К характеристике рукописного наследия В. А. Жуковского, — ОИРВ, V, стр. 28—33; А. Т. Тагирджанов, Ди-ван Баба Кухи в исследованиях В. А. Жуковского, — там же, стр. 59—62

18.Несколько образцов персидской народной поэзии», — ЗВОРАО,т. XXIII, 1916, стр. 33—59

19.Отрывок книги шиитской секты Али-Илахи», — АВ, ф. 19, on. I,№24; «A Biography of Schaykh Armad-i-Jam»,— JRAS, 1917, стр. 291—365; «Исмаилитские рукописи Азиатского музея»,— ИАН, Пг., 1917, стр.359—386; «List of Publication by W. Ivanow up to 1-st January 4962» [б. r.,6. M.].

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

EFEMIZM VA DISEFEMIZM NUQTAYI NAZARIDAN VIZUAL KOGNITIV FE’LLARNING QIYOSIY TAHLILI

Karimjonova Shahloxon Ravshanjonovna
FDU, Ingliz tili amaliy kursi
kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD
shahloxonkarimjonova@gmail.com

ANNOTATSIYA Mazkur maqola o‘zbek va ingliz tillarida qo‘llaniluvchi vizual kognitiv fe’llarning evfemizm va disfemizm nuqtai nazaridan tahliliga bag‘ishlangan. Unda ko‘rish orqali anglanadigan aqliy faoliyatni ifodalovchi fe’llarning (masalan, *ko‘z yummoq, ko‘z suzmoq, chaqchaymoq, glare, gawk* kabi) madaniy, ijtimoiy va psixopragmatik kontekstdagi yumshatilgan yoki qo‘pollashtirilgan ifoda shakllari tadqiq qilinadi. A.M.Katsev tomonidan ajratilgan evfemizm mavzu yo‘nalishlari asosida vizual fe’llarning qanday ma’nodagi o‘zgarishlarga uchrashi, tilning madaniy-funksional yuki va tafakkurdagi aks sadosi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari vizual fe’llarning tilshunoslik, madaniyatshunoslik va kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan tahlil etilishi zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: vizual kognitiv fe’llar, evfemizm, disfemizm, madaniy kontekst, psixopragmatika, ko‘zga oid fe’llar, A.M.Katsev tasnifi, lingvokognitiv tahlil, til va tafakkur, semantik yumshatish.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВИЗУАЛЬНЫХ КОГНИТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ЭВФЕМИЗМА И ДИСФЕМИЗМА

АННОТАЦИЯ Данная статья посвящена анализу визуальных когнитивных глаголов, используемых в узбекском и английском языках, с точки зрения эвфемизма и дисфемизма. В ней исследуются смягчённые или, напротив, грубые формы выражения ментальной деятельности, связанной со зрением (например, *ko‘z yummoq, ko‘z suzmoq, chaqchaymoq, glare, gawk* и др.) в культурном, социальном и психопрагматическом контексте. На основе тематической классификации эвфемизмов, предложенной А.М.Катсевым, проводится анализ семантических преобразований визуальных глаголов, их культурной и функциональной нагрузки, а также отражения в мышлении. Результаты исследования подтверждают необходимость комплексного анализа визуальных глаголов с позиций лингвистики, культурологии и когнитивной лингвистики.

Ключевые слова: визуальные когнитивные глаголы, эвфемизм, дисфемизм, культурный контекст, психопрагматика, глаголы, связанные со зрением, классификация А.М.Катсева, лингвокогнитивный анализ, язык и мышление, семантическое смягчение.

A COMPARATIVE ANALYSIS OF VISUAL COGNITIVE VERBS FROM THE PERSPECTIVE OF EUPHEMISM AND DYSPHEMISM

ABSTRACT This article is dedicated to the analysis of visual cognitive verbs used in Uzbek and English from the perspective of euphemism and dysphemism. It examines softened or, conversely, intensified expressions of mental activity associated with vision (e.g., *ko‘z yummoq*, *ko‘z suzmoq*, *chaqchaymoq, glare, gawk*, etc.) within cultural, social, and psychopragmatic contexts. Based on the thematic classification of euphemisms proposed by A.M. Katsev, the article analyzes how the meanings of visual verbs transform, their cultural-functional load, and how they reflect cognitive processes. The findings of the study support the necessity of analyzing visual verbs through the lenses of linguistics, cultural studies, and cognitive linguistics.

Keywords: visual cognitive verbs, euphemism, dysphemism, cultural context, psychopragmatics, vision-related verbs, A.M. Katsev's classification, linguocognitive analysis, language and thought, semantic softening.

Kirish. Til – inson tafakkurining nafaqat ifodasi, balki uni shakllantiruvchi vosita sifatida, ijtimoiy va madaniy kontekstda faoliyat ko‘rsatadi. Til birliklarining ma’no jihatdan yumshatilgan (evfemizm) yoki kuchaytirilgan (disfemizm) shakllarda qo‘llanishi esa nutqning emotsional va ijtimoiy xususiyatlarini belgilab beradi. Ayniqsa, vizual kognitiv fe’llar – ko‘rish orqali anglanadigan ongli faoliyatni ifodalovchi birliklar – bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Ular madaniyat, axloq, nutq odobi kabi tushunchalar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, tilning yumshoqlik yoki qo‘pollik mezonlari asosida qanday o‘zgarishini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur maqola o‘zbek va ingliz tillarida keng tarqalgan vizual fe’llarning evfemistik va disfemistik variantlarini tahlil qilishga, ularning semantik va pragmatik imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan.

Vizual idrok bilan bog‘liq umumiy ma’nodagi fe’llar ko‘plab tilshunoslar tomonidan o‘rganish obyekti bo‘lib kelgan, ular ushbu til birliklarini ham strukturaviy tilshunoslik doirasida, ham zamonaviy kognitiv yo‘nalishlarda ko‘rib chiqqanlar (E.Svitser, L.Talmi, R.Langaker, U.Kroft, I.Y.Kolesov, A.A.Kretov, Y.V.Paduchova, A.M.Usonene va boshqalar [12, 13,11, 10, 4, 5, 7, 8]).

Adabiyotlar sharhi. Kognitiv tilshunoslik zamonaviy dunyo tilshunosligi tushunchalari paradigmasida mustahkam o‘rin egallaydi. Aynan uning hozirgi bosqichda vujudga kelishi va jadal rivojlanishi asrimiz boshidagi tilshunoslikka xos xususiyatdir. V.Z.Demyankov va E.S.Kubryakovaning ta’rifiga ko‘ra, kognitiv tilshunoslik tilni kognitiv mexanizm sifatida, ya’ni ma’lumotni kodlash va o‘zgartirishda muhim rol o‘ynashini o‘rganadi [6]. Kognitiv

tilshunoslikning zamonaviy tilshunoslik paradigmasida mustahkam o‘rin egallaganligi, uning hozirgi rivojlanish bosqichi tilshunoslikka oid yangi xususiyatlar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Kognitiv tilshunoslik tilni nafaqat kommunikatsiya vositasi sifatida, balki insonning tafakkur jarayonlarining ajralmas qismi sifatida o‘rganadi. V.Z.Demyankov va E.S.Kubryakovaning ta’rifida kognitiv tilshunoslikning asosiy yo‘nalishi tilga kognitiv mexanizm sifatida qarashdir. Bu ma’lumotni kodlash, saqlash va o‘zgartirish jarayonlarida tilning qanday ishlashini tushunishga intilishni anglatadi. Til shu holatda inson tafakkurining aksi, uning ishlashini va rivojlanishini tushunish orqali biz inson ongini, fikrlash tarzi va dunyoqarashini yaxshiroq anglaymiz.

Kognitiv tilshunoslik hozirgi tilshunoslikning yangi bosqichini yaratishda muhim ahamiyatga ega, chunki u tilning nafaqat struktural tomonlarini, balki uning inson miyasidagi psixologik va kognitiv jarayonlar bilan qanday bog‘liqligini ham o‘rganadi. Bu yondashuv tilshunoslikni tilning ruhiy va ijtimoiy aspektlarini o‘z ichiga olgan holda yanada kengroq va chuqurroq o‘rganishga imkon beradi.

Kognitiv lingvistikaning mazmuni I.A.Boduen de Kurtenening quyidagi so‘zlarida yanada aniqroq namoyon bo‘ladi: “...tilga oid tafakkurdan borliq va yo‘qlikning barcha sohalariga, dunyoning barcha ko‘rinishlariga – moddiy, shuningdek, individual-psixologik va ijtimoiy (jamoaviy) jihatlariga oid o‘ziga xos til bilimlari ajratib olinishi mumkin [2]”. Olimning ushbu fikri kognitiv lingvistikaning chuqur va keng qamrovli tabiati haqida muhim nuqtani ochib beradi. Til faqatgina muloqot vositasigina emas, balki inson tafakkuri, dunyoqarashi va borliqni idrok qilish usulining aksidir. Uning fikriga ko‘ra, til orqali inson moddiy va ruhiy olamni, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni tushunishi va tasavvur qilishi mumkin. Bu nuqtayi nazar kognitiv lingvistikaning til va tafakkur o‘rtasidagi aloqani tadqiq qilishdagi asosiy vazifasini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Vizual kognitiv fe’llarni (ya’ni ko‘rish orqali anglanadigan aqliy faoliyatni ifodalovchi fe’llarni) efemizm va disefemizm nuqtai nazaridan tahlil qilish, bu fe’llarning ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday yumshatilgan yoki qo‘pol shakllarda qo‘llanishini ko‘rsatadi. Evfemizm (yunoncha euphemismos – yaxshi gapiraman) narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo‘pol beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol botmaydigan so‘z (ibora)ni qo‘llash [9]. Masalan, o‘lmoq so‘zi o‘rnida ko‘z yummoq kabi ibora yoki so‘z birikmasidan foydalanish.

Evfemiya hodisasi bilan shug‘ullangan tilshunos olimlarning har biri bu hodisaning turli xususiyatlariga tayanib, uni o‘ziga xos tarzda tasniflashga harakat qilgan. Evfemizmlar ham boshqa til birliklari kabi ko‘p qirrali bo‘lgani sababli, bu tasniflarda ularning turli jihatlariga e’tibor qaratilgan va natijalar ham har xil shakllangan. Bu xilma-xilliklar bir-biriga ziddek ko‘rinsa-da, aslida ular o‘zaro bir-birini to‘ldirib borishini ta’kidlash joiz.

Tahlil va natijalar. A.M.Katsev evfemizmlarni 10 ta mavzu doirasiga ajratadi [3]. Quyida vizual kognitiv fe’llarni evfemizm mavzulari doirasida tahlil qilganmiz.

4.1. – jadval

№	Mavzu yo‘nalishi	Vizual-kognitiv fe’l yoki ifoda (o‘zbek tilida)	Vizual-kognitiv fe’l yoki ifoda (ingliz tilida)	Evfemik izoh
1	Ilohiy kuchlar nomi	–	*unseen force, divine sight*	Bevosita “Xudo” demasdan ilohiyotga ishora
2	O‘lim va kasallik	*ko‘z yummoq*	*to close one’s eyes, pass away, fade from view*	“O‘lmoq” so‘zining yumshoq, evfemik shakli
3	Nuqsonlar	–	*has a different way of seeing, limited vision*	“Kechikkan anglash”, “bilmaslik” ma’nosida ishlatiladi
4	Jins bilan bog‘liq	*ko‘z suzmoq, iljayib qaramoq,*	*gave him/her the eye, cast a glance, looked suggestively*	Bevosita jinsiy harakat emas, balki bilvosita ishora
5	Qashshoqlik	*ko‘zi to‘ymaslik, ko‘zi och*	*eyes bigger than one's stomach, hungry look*	Qashshoqlikni muloyim ifodalash
6	Kasblar	*ko‘zdan kechiruvchi (tekshiruvchi, nazoratchi)*	*visual inspector, observer, watcher*	Oddiyroq kasblarni yumshatib aytish (masalan, militsioner)
7	Aqliy/jismoniy nuqson	*ko‘ziga ko‘rinmaydi (idrok qilolmaydi), ko‘zi ko‘r bo‘lmoq*	*doesn’t see the whole picture, vision is clouded*	Aqliy yetishmovchilikni muloyimroq ifodalash
8	Kiyim qismlari	*ko‘z ilg‘amas joylar*	*hidden from view, not for the public eye*	Tananing shaxsiy qismlarini nojo‘ya nomlamasdan ifodalash

Disfemizm hodisasi, evfemizmdan farqli o‘laroq ko‘p o‘rganilmagan. Chunki badiiy adabiyotda yoki madaniy muloqot muhitida odob nuqtai nazaridan ba’zi birliklar to‘g‘ri ifodalangan bo‘lishi mumkin. Tilshunoslikka oid lug‘atlarda esa disfemizm haqida alohida to‘xtalib o‘tilmaydi, u ko‘pincha evfemizm bo‘limi doirasida qisqacha izoh beriladi. Disfemizmga O.Axmanovaning “Tilshunoslik atamalari lug‘ati”da qisqacha ta’rif berilgan bo‘lib, unda shunday deyiladi: “Disfemizm (yoki kakofemizm) – ispan tilida *disfemismo*. Bu uslubiy vosita bo‘lib, matnda biror predmet yoki hodisaning nomini qasddan qo‘pol yoki odobsiz ifoda bilan almashtirishdir. Uning aksi esa – evfemizm [1]”. Masalan, o‘zbek tilida *yomon qaramoq* vizual kognitiv fe’liga *chaqchaymoq, go‘laymoq, bezraymoq, g‘o‘daymoq, olayib qaramoq* kabi fe’llar misol bo‘la oladi. Ingliz tilida *glare* vizual kognitiv fe’liga *to stare down, to gawk, to ogle* kabi fe’llarni misol keltirishimiz mumkin.

Vizual kognitiv fe’llar tahlili evfemizm va disfemizm kabi til hodisalarining inson tafakkuri, madaniyati va nutq odobiga qanday chuqur bog‘liqligini yaqqol ko‘rsatadi. A.M.Katsev tomonidan berilgan evfemizm mavzu yo‘nalishlari asosida olib borilgan tahlil

shuni ko‘rsatadiki, ko‘rish (vizual idrok) bilan bog‘liq ko‘plab fe’l va iboralar madaniy ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. O‘zbek va ingliz tillarida ko‘zga oid fe’llar evfemistik maqsadda ishlatilganda, nozik, odobiy, hatto falsafiy mazmun kasb etadi. Masalan, “ko‘z yummoq” yoki “pass away” fe’llari o‘lim hodisasini yumshoq, madaniy yo‘sinda ifodalasa, “ko‘z ilg‘amas joylar” yoki “not for the public eye” iboralari shaxsiy hayotni nojo‘ya talaffuzsiz anglatadi. Bu kabi fe’llar tilni nafis va ijtimoiy maqbul qilishga xizmat qiladi.

Biroq disfemizm hodisasi esa aksincha, tilning qasddan qo‘pollashtirilgan, tahqirli va salbiy ifodalar orqali kuchli emotsional ta’sir ko‘rsatishiga asoslanadi. Disfemistik vizual fe’llar – masalan, o‘zbek tilida “chaqchaymoq”, “go‘laymoq”, “bezraymoq”, ingliz tilida esa “glare”, “gawk”, “ogle” kabi fe’llar – odatda tanqid, masxara yoki tahdid ma’nosida qo‘llanadi.

Demak, vizual-kognitiv fe’llar tilning faqat leksik vositasi emas, balki madaniy va pragmatik yuklangan muloqot shakllaridir. Ular evfemizmda murosaviy, yumshoq, ijtimoiy maqbul bo‘lsa, disfemizmda zid, tanqidiy va konfliktli kayfiyatni anglatadi. Har ikki holatda ham bu fe’llar tilshunoslik, madaniyatshunoslik va kognitiv lingvistika kesishgan nuqtada chuqur tahlil etilishi lozim bo‘lgan hodisalar sirasiga kiradi.

Iqtiboslar/ Сноски/ References

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С. 133.

2. Бодуэн де Куртуне И.А. Количественность в языковом мышлении // Избранные труды по общему языкознанию. Ч. 1. – М., 1963. – С. 312.

3. Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке. – Ленинград: Наука, 1977. – 65 с.

4. Колесов И.Ю. К вопросу о лингвистике видения и видимого // Международный конгресс по когнитивной лингвистике: сб. ст. – Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г. Р. Державина, 2008. – С. 71-74.;

5. Кретов А.А. Организация ЛСГ зрительного восприятия в индоевропейских языках // Семантические категории сопоставительного изучения русского языка. – Воронеж, 1981. – С. 107-113.;

6. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М., 1996. – С. 53-55.

7. Падучева Е.В. Динамические модели в семантике лексики. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 608 с.;

8. Усонене А.М. Семантика предикатов с глаголами типа see и look. Дисс. … канд. филол. наук. – М., 1983. – 184 с.

9. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 131.

10. Croft W. and Cruse D.A. Cognitive Linguistics: University of Manchester, 2004. – 355 p.;

11. Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar. Theoretical Prerequisites. Vol. 1. – Stanford, California: Stanford University Press, 1987. – 516 p.;

12. Sweetser E. From Etymology to Pragmatics. Metaphorical and cultural aspects of semantic structure. – Cambridge University Press, 1990. – P. 23-48.;

13. Talmy L. Toward a cognitive semantics. VI: Concept structuring systems. – Cambridge: The MIT Press, 2000. – 565 p.;

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ORIENTATSION METAFORALARNING LINGVISTIK TAHLILI: INGLIZ TILIDAGI EMOTSIONAL IBORALAR MISOLIDA

Abdukarimova Nodira
O‘zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti
Lingvistika yo‘nalishi magistratura bitiruvchisi
@abdukarimovanodira16@gmail.com
Baxtiyorova Zarnigor
Webster universiteti Boshqa tillarda so’zlovchilarga
ingliz tilini o’qitish (MA TESOL) yo’nalishi magistrature bitiruvchisi
@baxtiyorovazarnigor6@gmail.com
Raxmatova Moxinur
Qarshi davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti
Lingvistika yo‘nalishi magistratura bitiruvchisi
mokhinurrasulovna1908@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada ingliz tilidagi orientatsion metaforalarning mazmun-mohiyati va ularning inson hissiyotlarini ifodalashdagi o‘rni yoritiladi. Maqolada yuqorilik va pastlik kabi fazoviy qarama-qarshiliklarning konseptual asoslari tahlil qilinib, ularning madaniy va kognitiv xususiyatlari izohlanadi. Tadqiqot natijalari orientatsion metaforalarning universalligini ko‘rsatib, ularni boshqa tillar bilan qiyosiy o‘rganish imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar:*orientatsion metafora, konseptual metafora, yuqorilik–pastlik oppozitsiyasi, emotsional holatlar, lingvistik tahlil.*

Metafora inson tafakkuri va nutqidagi eng qadimiy va samarali til hodisalaridan biri bo‘lib, murakkab tushunchalarni obrazli va tushunarli tarzda ifodalashga xizmat qiladi. U nafaqat badiiy nutqda, balki kundalik muloqotda ham keng qo‘llaniladi. Xususan, orientatsion metaforalar inson ongidagi abstrakt tushunchalarni fazoviy yo‘nalishlar asosida tartibga solib, “yuqori–quyi”, “ichki–tashqi”, “markaz–chet”, “orqa–oldin” kabi qarama-qarshi yo‘nalishlar orqali hissiy holatlarni ifodalash imkonini beradi. Ushbu maqolada orientatsion metaforalar ingliz tilidagi emotsional iboralar misolida lingvistik jihatdan tahlil qilinadi.

Orientatsion metaforalar nazariyasi ko‘plab tilshunoslik olimlar tomonidan tahlil qilingan. Jumladan, Z. Kövecses o‘z tadqiqotlarida orientatsion metaforalarning universalligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, “yuqorilik” deyarli barcha madaniyatlarda quvonch, muvaffaqiyat va faollik bilan, “pastlik” esa qayg‘u, muvaffaqiyatsizlik va sustlik bilan bog‘lanadi. Lakoff (1987)

esa bu hodisani inson tanasining tabiiy holati bilan izohlaydi: tik turgan inson o‘zini yaxshi his qiladi, yiqilgan yoki bukilgan holat esa zaiflik va tushkunlik ramzi sifatida qabul qilinadi. Shu sababli, bu metaforalar ko‘plab tillarda o‘xshash tarzda uchraydi, lekin ba’zi madaniy tafovutlar ham mavjud.

J. Lakoff va M. Jonson tomonidan ilgari surilgan konseptual metafora nazariyasi esa metaforik fikrlashning asosiy mexanizmlarini izohlaydi. Olimlar orientatsion metaforani shunday ta’riflaydi: “Orientational metaphors give a concept a spatial orientation. For example, happy is associated with up, just like happiness is linked to being above.” Bu yondashuvga ko‘ra, insonlar o‘z hayotiy tajribasi va jismoniy idrokiga asoslanib, hissiy holatlarni fazoviy qarama-qarshiliklar bilan ifodalaydi. Bunda yuqorilik ijobiy, pastlik esa salbiy mazmun bilan bog‘lanadi. Olimlar amerikaliklar nutqida tez-tez qo‘llaniluvchi quyidagi jumlalarni “baxt bu - yuqorilik” konseptual metaforasiga misol sifatida keltiradi:

- ✓ I’m feeling up — “Kayfiyatim ko‘tarinki”
- ✓ That boosted my spirits — “Bu mening ruhiyatimni ko‘tardi”
- ✓ On top of the world — “O‘zimni dunyoning eng yuqori cho‘qqisida his qilyapman.”
- ✓ Rise and shine — “Tur va porla!” (quvonchli, faol kayfiyatda uyg‘onishni bildiradi).
- ✓ Sky-high hopes — “Osmondek yuksak umidlarim bor.”
- ✓ Lift someone’s mood — “Birovning kayfiyatini ko‘tarish.”
- ✓ Soar with happiness — “Baxtdan uchib ketayapman.”

Berilgan misollarda qo‘llangan metaforik ifodalar tasodifiy hosil bo‘lmagan, balki insonlarning uzoq yillik jismoniy va madaniy tajribasi natijasida shakllangan. Orientatsion metaforalar “baland-past”, “orqa-oldin”, “yuqori-quyi”, “markaz-chet”, “ichki-tashqi”, “ustki-pastki” va “chuqur-yuzaki” kabi fazoviy yo‘nalishni bildiruvchi leksemalar orqali inson hissiyotlari, fikrlari hamda tasvirlarini ifodalash jarayonida yuzaga keladi. Bu kabi metaforalarda asosiy diqqat joyning o‘zida emas, balki ushbu joy yoki yo‘nalish nomi orqali boshqa bir ma’noni ochib berishidadir. Misol tariqasida, olimlar tomonidan keltirilgan ayrim iboralarda “pastga yo‘nalish” semalari insonning tushkunlik yoki baxtsizlik holatini ifodalash uchun qo‘llanadi. Aksincha, qayg‘u va tushkunlik pastlik bilan bog‘lanadi:

- ✓ I’m feeling down — “Kayfiyatim tushkun”
- ✓ He’s really low these days — “U hozirda juda past kayfiyatda”
- ✓ I fell into a depression — “Men tushkunlikka tushib qoldim”
- ✓ Hit rock bottom — “Eng past darajaga tushib ketmoq.”
- ✓ Down in the dumps — “Tushkunlikda, juda xafa.”
- ✓ Sink into despair — “Umidsizlikka botib ketmoq.”
- ✓ Fall apart — “Butunlay buzilib ketmoq (ruhiy jihatdan).”
- ✓ Low spirits — “Past kayfiyat.”

Bu metaforalar tasodifiy emas, balki uzoq davom etgan jismoniy va madaniy tajribalar asosida shakllangan. Ingliz tilida orientatsion metaforalar emotsional holatlarni ifodalashda asosiy konseptual mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bu turdagi metaforalarda “yuqorilik”

ijobiy, “pastlik” esa salbiy hissiyotlar bilan bog‘lanadi. Ushbu qarama-qarshilik insonning jismoniy tajribasidan kelib chiqib, quvonch holatida o‘zini baland, tushkunlik holatida esa pastda his qilish kabi fazoviy idrok asosida shakllanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu metaforik model nafaqat ingliz tilida, balki ko‘plab boshqa tillarda, jumladan, o‘zbek tilida ham uchrab, madaniyatlararo universallikni namoyon etadi.

Xulosa

Orientatsion metaforalarni o‘rganish inson tafakkuri va til o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Ular insonning kundalik jismoniy va madaniy tajribasi asosida shakllanib, murakkab emotsional holatlarni sodda, ammo obrazli tarzda ifodalash imkonini beradi. Ushbu metaforalar til birliklari orqali inson ongidagi fazoviy tasavvurlarni ifodalaydi va shu yo‘l bilan ma’no yaratish jarayoniga xizmat qiladi. Orientatsion metaforalar nafaqat lingvistik hodisa sifatida, balki kognitiv model sifatida ham ahamiyat kasb etadi, chunki ular til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmini ochib beradi. Shu sababli bu turdagi metaforalarni chuqurroq tadqiq etish tilshunoslik, psixologiya, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik kabi sohalar kesishmasida yangi ilmiy yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.

2. Lakoff, G. (1987). Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. Chicago: University of Chicago Press.

3. Kövecses, Z. (2010). Metaphor: A Practical Introduction (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press.

4. Kövecses, Z. (2005). Metaphor in Culture: Universality and Variation. Cambridge: Cambridge University Press.

5. Gibbs, R. W. (1994). The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding. Cambridge: Cambridge University Press.

6. Barcelona, A. (2000). Metaphor and Metonymy at the Crossroads: A Cognitive Perspective. Berlin: Mouton de Gruyter.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

SINTAKTIK PARADIGMALARNING TUZILISHI XUSUSIDA

F.U.Orzibekov
Toshkent kimyo xalqaro
universiteti mustaqil tadqiqotchisi

АННОТАЦИЯ Maqolada sintaktik paradigmalarning grammatik tuzilishi va ularning grammatik tasnifi haqida ma’lumotlar berilgan. Tilshunoslikda “paradigma” tushunchasi asosan morfologik birliklar tizimi bilan bog‘liq tarzda qo‘llanib kelgan bo‘lsa-da, keyingi davrlarda bu tushuncha sintaktik birliklarga ham tatbiq etila boshlanganligi ilmiy asoslangan. Predikativ munosabatni ro‘yobga chiqaruvchi qurilmalarda ham morfologiya va sintaksisga tegishli tomonlar bo‘lishi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: sintaktik paradigma, mazmuniy grammatika, paradigmatik munosabat, vertikal (ichki) bog‘lanish, paradigmatika, assotsiativ ongiy bog‘lanishlar, semantik sath, morfologik sath, sintaktik sath, sintagmatik zanjir, nutq zanjiri, nutqiy faoliyat.

АННОТАЦИЯ В статье приводятся сведения о грамматической структуре синтаксических парадигм и их грамматической классификации. Хотя понятие «парадигма» в лингвистике использовалось в основном в связи с системой морфологических единиц, в последнее время научно доказано, что это понятие также стало применяться к синтаксическим единицам. Сообщается также, что приемы, реализующие предикативное отношение, также имеют аспекты, связанные с морфологией и синтаксисом.

Ключевые слова: синтаксическая парадигма, субстантивная грамматика, парадигматическое отношение, вертикальная (внутренняя) связь, парадигматика, ассоциативные мыслительные связи, семантический уровень, морфологический уровень, синтаксический уровень, синтагматическая цепь, речевая цепь, речевая деятельность.

ANNOTATION The article provides information on the grammatical structure of syntactic paradigms and their grammatical classification. Although the concept of “paradigm” in linguistics has been used mainly in connection with the system of morphological units, in recent times it is scientifically proven that this concept has also begun to be applied to syntactic units. It is also reported that the devices that implement the predicative relationship also have aspects related to morphology and syntax.

Keywords: syntactic paradigm, substantive grammar, paradigmatic relationship, vertical (internal) connection, paradigmatics, associative mental connections, semantic level, morphological level, syntactic level, syntagmatic chain, speech chain, speech activity.

Tilshunoslikda “paradigma” tushunchasi asosan morfologik birliklar tizimi bilan bog‘liq tarzda qo‘llanib kelgan bo‘lsa-da, keyingi davrlarda bu tushuncha sintaktik birliklarga ham tatbiq etila boshlandi. Paradigma – bu biror grammatik birlikning turli so‘zlashuv vaziyati va vazifalarda almashinish imkoniyatiga ega variantlar to‘plamidir. Sintaktik paradigma esa, o‘z navbatida, tarkibiy jihatdan farqlanuvchi, ammo semantik va funksional jihatdan yaqin bo‘lgan sintaktik konstruksiyalar tizimidir.

Mazmuniy grammatikada paradigmatik munosabat tilning har bir alohida sathi birliklarining sistema ichida mavjudligi, yoki boshqacha aytganda, ularning sistemada yashashlari tarzini taqozo etadi. F.do‘ Sossyur til birliklarining paradigmatik munosabati (Sossyur terminologiyasida assotsiativ munosabat) ketma-ketlik qoidasiga bo‘ysunmasligini, mazkur munosabat muayyan uyushma a’zolari o‘rtasida ro‘y berishini qayd etadi va shu munosabatdagi til birliklari ongimizda alohida guruhlar tarzida mavjud bo‘lishini ta’kidlaydi. Har qanday so‘z u yoki bu tarzda fikran o‘zi bilan bog‘lanadigan narsani xotiraga keltirishi mumkin [Соссюр, Фердинанд Дў., 2019: 145]. F.do‘ Sossyur paradigmatik munosabatni ketma-ket nutq oqimida emas, balki ongda til birliklarining bir-biri bilan aloqadorlikda mavjudligi tarzida tushuntiradi. Uningcha, paradigmatik munosabat (yoki assotsiativ munosabat) – bu til birliklarining bir tizim doirasida almashtirish imkoniyati asosida yuzaga keladigan munosabatdir. Masalan: *kitob, daftar, qalam* – so‘zlari bir-birining o‘rnida paydo bo‘lishi mumkin bo‘ladi. Fe’llar: *kelmoq, bormoq, yurmoq* – har biri harakat bildiradi, ongda bir toifadagi birliklar sifatida jamlanadi.

Bu jihatdan qaralganda, paradigmatik munosabat tilning vertikal (ichki) bog‘lanish tizimi bo‘lib, u til birliklarini sintagma ichida emas, balki sistematik xotira asosida, ya’ni ongda mavjud asosiy qoidalar asosida birlashtiradi. Sossyur fikriga ko‘ra, nutqda bu birliklar ketma-ket tarzda ishlatilmasa ham, ular ongda mavjud bo‘ladi va semantik tanlov imkoniyati yaratadi. Bu esa paradigmatik munosabatni semantik va psixolinguistik jihatdan ham muhim qiladi.

Ushbu fikr nazariy jihatdan to‘g‘ri bo‘lib, til birliklarining ko‘zga ko‘rinmas, ammo kuchli tizimli munosabatlarini tushunishda muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, Sossyurning paradigmatik munosabat haqidagi nazariyasi zamonaviy tilshunoslik, xususan, mazmuniy grammatika, leksikologiya, psixolingvistika kabi sohalar uchun mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Keyinchalik bu til birliklarining o‘zaro munosabatlariga katta e’tibor berilib, “paradigmatik munosabat” yoki “paradigmatika” atamasi bilan nomlana boshlandi [В.Брендаль, 1965: 207-209]. Bizningcha, bu bilan to‘liq qo‘shilish mumkin, zero, “paradigmatik munosabat” yoki “paradigmatika” atamasi bir-biri bilan bevosita bog‘liqdir. Bu fikr aynan strukturaviy tilshunoslik va funksional grammatika doirasida shakllangan yondashuvni anglatadi. V.Brendall asarlarida paradigmatik munosabatlar tilning ichki tizimi sifatida qaraladi. U til birliklarining bir-biri bilan ketma-ketlikda emas, balki tanlov asosida bog‘lanishini paradigmatik yondashuv deb hisoblaydi. Bu yondashuv Ferdinand de Sossyurning qarashlari bilan uzviy bog‘liq.

V.Brendal nazarida paradigmatik munosabat, assotsiativ ongiy bog‘lanishlar, ya’ni ma’lum bir birlik o‘rnida almashtirilishi mumkin bo‘lgan birliklar to‘plami. Bu munosabatlar og‘zaki nutqda ko‘rinmaydi, lekin sistemada mavjud va mazmun tanlashda muhim rol o‘ynaydi. U tilshunoslikda paradigmatik munosabatlarni:

Semantik sathda (masalan: sinonimlar, antonimlar)

Morfologik sathda (masalan: zamon paradigmalarida)

Sintaktik sathda (masalan: subyekt pozitsiyasini egallashi mumkin bo‘lgan so‘zlar) kabi ko‘rinishlarda tahlil qiladi.

Bu haqda mulohaza yuritganda V.Brendal, tilning aniq ishlatilishi (yani nutq) sintagmatik zanjir orqali yuzaga chiqsa ham, uning ichki tuzilishi paradigmatik tizim orqali belgilanadi. Bu jihatdan u paradigmatik munosabatlarni nutqning ichki qurilishi sifatida talqin qiladi. Brendal paradigmatik munosabatlarni tilning asosiy strukturaviy elementi sifatida e’tirof etadi va bu munosabatlarning tizim doirasida mavjudligini, ularsiz tilning semantik va grammatika tizimini to‘laqonli tushunib bo‘lmasligini ta’kidlaydi.

Predikativ munosabatni ro‘yobga chiqaruvchi qurilmalarda ham morfologiya va sintaksisga tegishli tomonlar bo‘ladi. Shu jihatdan u so‘z birikmasiga o‘xshaydi. Lekin predikativ munosabat ikki bosh bo‘lakli gaplarning mantiqiy-grammatik asosini tashkil qilsa, so‘z birikmalarining mantiqiy-grammatik asosini predikativ munosabatlar tashkil qiladi [С.Б.Иноятов, 1989: 12]. S.Inoyatovning “predikativ munosabat ikki bosh bo‘lakli gaplarning mantiqiy-grammatik asosini tashkil qilsa, so‘z birikmalarining mantiqiy-grammatik asosini predikativ munosabatlar tashkil qiladi” degan fikri lingvistik nuqtayi nazardan diqqatga sazovor va bahsli jihatlarni qamrab oladi. Bu fikrni tahlil qilishda bir necha muhim jihatlarni hisobga olish zarur. Predikativ munosabat – gap tuzilishining asosiy ma’no-grammatik aloqasidir. U subyekt va predikat o‘rtasidagi munosabat bo‘lib, ma’lum bir voqelik yoki holatni ma’lum bir vaqtda bor yoki yo‘qligini, sodir bo‘lishini yoki bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, u faqat gapda emas, balki boshqa birliklarda ham o‘zini ko‘rsatishi mumkin, lekin uning funktsional markazi asosan gap hisoblanadi.

S.Inoyatov so‘z birikmasini ham mantiqiy-grammatik jihatdan predikativ munosabatga bog‘lashga harakat qilmoqda. Lekin so‘z birikmalari, qoida tariqasida, nominativ xususiyatga ega bo‘lib, ularda predikativlik to‘liq darajada emas, balki faqat yashirin holatda bo‘ladi. Masalan, *“talaba kelishi”* so‘z birikmasida *“talaba keladi”* degan predikativlik potentsiali bor, lekin u aniq gap emas.

Gap to‘liq fikrni ifoda qiluvchi birlik bo‘lsa, so‘z birikmasi nominativ-leksik birliklar birligi hisoblanadi. Shu jihatdan, gapda predikativ munosabat aniq shaklda ro‘yobga chiqadi, so‘z birikmasida esa u yashirin, potentsial bo‘lib qoladi. Inoyatov bu yerda nazariy tahlilni bir oz umumlashtirib, ikki turli grammatik birlik o‘rtasidagi chegarani mukammal belgilamagan.

S.Inoyatovning fikridagi ilmiy asos – bu grammatik birliklar o‘rtasidagi bog‘liqlikni izlash, mantiqiy-grammatik asos tushunchasini keng ma’noda tushunishga urinishdir. Ammo predikativlik faqat so‘z birikmalarining emas, balki gaplarning tabiiy belgisi sifatida qaralishi

lozim. So‘z birikmalaridagi munosabatlar ko‘proq subordinativ (tobe) xarakterga ega bo‘ladi, ularda subyekt-predikat munosabati emas, balki bosh-qo‘shimcha munosabatlar ustuvor bo‘ladi.

S.Inoyatovning fikri ilmiy jihatdan keng yondoshuvni anglatsa-da, unda predikativ munosabatning aniq va potentsial ko‘rinishlari o‘rtasidagi farq yetarlicha aniqlashtirilmagan. So‘z birikmalarida predikativ munosabat emas, balki sintaktik bog‘liqlik asosiy rol o‘ynaydi. Demak, predikativ munosabat – gapga xos belgidir, so‘z birikmalarida u to‘liq shaklda emas, balki ifodalanish ehtimoli sifatida mavjud bo‘ladi.

Sintaktik paradigma deb, biror sintaktik vazifani bajaruvchi va bir-birini so‘zlashuv vaziyati muqobillashtira oladigan gap yoki gap bo‘laklarining tizimlashtirilgan majmuasiga aytiladi. Bu kabi qurilishli gaplar tashqi shakl jihatidan farqli bo‘lsa-da, ular umumiy ma’no, kommunikativ maqsad yoki grammatik vazifa nuqtayi nazaridan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Misol uchun, o‘zbek tilida *“U kitob o‘qiyapti”, “Kitobni u o‘qiyapti” yoki “O‘qiyapti u kitobni”* kabi gaplar bir xil harakatni bildiradi, biroq ularning shakli, urg‘u va uslubiy tuslanishi farqlidir. Shunga qaramay, bu gaplar sintaktik paradigma doirasida qaraladi.

Paradigmatik munosabat tushunchasi, albatta “paradigma” termini bilan uzviy bog‘lanadi. Tilshunoslikda paradigma termini ikki xil ma’noda qo‘llaniladi: 1.Tilning sistemasi va strukturasi qoidalariga mos holda muayyan invariant doirasida mavjud bo‘lgan variantlar. Bu variantlardan biri kommunikativ jarayonda har safar so‘zlovchi tomonidan tanlanadi. 2.Nutq zanjirida til sistemasi unsurlarining tasniflanishi [Р.Ю.Кобрин, 1987: 31]”. Bu haqda mulohaza yuritganda R.Y.Kobrin bu qarashi orqali paradigmani til tizimining ichki strukturasi asosida tushuntiradi. Ya’ni: Paradigma bu, biror invariant shakl asosida hosil qilinadigan, grammatik yoki leksik variantlar majmuasidir (masalan: *“bor”, “bordi”, “boradi”, “borar”* va h.k.).

Mazmuniy grammatikada har bir kommunikativ vaziyatda so‘zlovchi ushbu variantlardan birini tanlab ishlatadi, bu esa paradigmatik munosabatlarning tanlov xususiyatini ko‘rsatadi. Bu yondashuv tilning potensial imkoniyatlariga asoslangan bo‘lib, Ferdinand de Sossyur ta’kidlaganidek, “langue” – ya’ni til tizimi doirasida qaraladi. Bu tushuncha til strukturasi haqidagi nazariyalarni (masalan, strukturallik, sistemaviylik) qo‘llab-quvvatlaydi. Paradigma bu yerda turg‘un, kognitiv model sifatida namoyon bo‘ladi.

R.Y.Kobrinning paradigmaga ikkinchi yondashuvi – bu paradigmani nutqdagi aniq kontekstda, ya’ni sintagmatik munosabatlar doirasida ko‘rib chiqadi. Bu qarashga ko‘ra, har bir nutq zanjiri, har bir so‘z birligi, unga bog‘liq bo‘lgan paradigmatik unsurlar orqali tasniflanadi. Masalan, gapda ishlatilgan “keladi” so‘zi o‘rniga “kelar”, “kelgan”, “kelmoqda” kabi boshqa birliklarni ham joylashtirish mumkinligi nutqdagi aniq tanlov imkoniyatini bildiradi.

Demak, paradigmalar nafaqat tizimdagi imkoniyat sifatida, balki aniq nutqning tasniflovchi vositasi sifatida ham mavjud. Bunday yondashuv paradigmani nutq (parole) doirasida, ya’ni til unsurlarining kontekstual aloqalari orqali o‘rganishga imkon beradi. Zamonaviy kognitiv lingvistika va funksional grammatika nazariyalari bilan hamohang.

R.Y.Kobrinning paradigmaga bergan ikki tomonlama yondashuvi ilmiy asosli bo‘lib, tilning tizim (langue) va nutq (parole) sathlarini integratsiyalashgan holda tushuntirishga xizmat qiladi. Paradigmatik munosabatlar faqat variantlar majmuasi sifatida emas, balki nutq zanjiridagi tanlov asoslari, ya’ni sintagmatik muhitdagi semantik va grammatik mosliklar orqali ham o‘z ifodasini topadi. Shu bois, R.Y.Kobrinning fikri tilshunoslikdagi paradigmaga doir yondashuvlarni ko‘p qirrali, tizimli va dinamik shaklda ochib beradi. Bu esa paradigmalarni faqat statik emas, balki kommunikativ-harakatdagi model sifatida ham tushunishga asos yaratadi.

Xulosa shuki, sintaktik paradigma til tizimining dinamik xususiyatini ochib beruvchi birlikdir. U gap qurilmaining imkoniyatlarini, sintaktik variantlarning shakllanish mexanizmini va ularning so‘zlashuv vaziyatida qanday qo‘llanilishini aniqlashga yordam beradi. Paradigmalarning mavjudligi tilda moslashuvchanlik, ifoda shakllarining tanlovi va kommunikativ vaziyatga moslashish imkonini beradi. Shu sababli sintaktik paradigma grammatik kategoriya sifatida tilshunoslikda nazariy va amaliy ahamiyatga ega hodisa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Соссюр, Фердинанд Дў. Умумий тилшунослик курси. Француз тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. – Тошкент, 2019. – Б. 145.

2. Брендаль В. Структуральная лингвистика. В книге Звигенцев В.А. История языкознания. Часть 2. – 1965. – С.207-209.

3. Иноятов С.Б. Ўзбек тилида предикатив муносабат /Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент. – 1999. 12-б.

4. Кобрин Р.Ю. Языковые отношения и базовые единицы языка // Вопросы языкознания, 1987, № 5. – С. 31.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDC: 8.82.82/-9.82-32

A LOVING FATHER’S HEART IN A BRUTAL WORLD OF V. NABOKOV’S NOVEL “BEND SINISTER”

Pulatova Sabina Sharifovna,
Second-year PhD student of Bukhara State University
s.sh.pulatova@buxdu.uz

Abstract: *This article is devoted to the analysis of the artistic depiction of a loving father’s heart, willing to make any sacrifice for his child, in Vladimir Nabokov’s novel “Bend Sinister” (1947). In society dominated by a totalitarian regime, personal freedom and independent thought are systematically suppressed through ideological pressure. In such circumstances, Adam Krug, a world-renowned philosopher known for his liberal views, firmly refuses to support the ruthless regime. Despite the arrest of his friends one after another, Krug remains steadfast in his position. However, when a threat arises to the life of his only son, David, he becomes willing to leave his homeland and abandon the very ideals he has defended throughout his life. To uncover the ideological and thematic essence of the novel, the study employs several literary analysis methods: the sociological approach reveals the oppressive nature of the totalitarian regime; the historical-literary method examines the influence of the socio-political context on the author’s worldview; and the psychological analysis sheds light on the protagonist’s inner struggles and emotional turmoil.*

Key words: *totalitarian regime, freedom, liberal views, ideological pressure, idea, historical-literary method, sociological approach, psychological analysis.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola Vladimir Nabokovning 1947-yilda yozilgan “Bend Sinister” romanida mehrga to‘la, farzandi uchun har qanday qurbonlikka tayyor ota qalbining badiiy talqinini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Asarda mustabid tuzum hukm surayotgan jamiyatda shaxsiy erkinlik va mustaqil fikr mafkuraviy taz’yiq yo‘li bilan bostiriladi. Bunday sharoitda o‘zining liberal qarashlari bilan jahonga tanilgan faylasuf Adam Krug shavqatsiz rejimni qo‘llab-quvvatlashdan qat’iy bosh tortadi. Do‘stlari birin-krtin hibsga olinayotganiga qaramay, o‘z positsiyasida qat’iy turadi. Biroq yagona farzandi David hayotiga xavf tug‘ilganda, Krug tug‘ilib o‘sgan ona yurtini tark etishga va butun umri davomida himoya qilib kelgan g‘oyalardan voz kechishga tayyor bo‘ladi. Roman g‘oyasi va mavzusining ichki mohiyatini ochib berish maqsadida tadqiqotda bir nechta adabiy tahlil usullaridan foydalanilgan: ijtimoiy yondashuv orqali totalitar tuzumning zulmkor mohiyati ochib beriladi, tarixiy-adabiy usul yordamida asar yaratilgan davrning muallif dunyoqarashiga ta’siri tahlil*

qilinadi, psixolok tahlil esa bosh qahramonning ichki kechinmalari va ruhiy iztiroblarini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *totalitar tuzum, erkinlik, liberal qarashlar, mafkuraviy taz’yiq, g‘oya, tarixiy-adabiy usul, ijtimoiy yondashuv, psixologik tahlil.*

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу художественного воплощения образа отца, исполненного любви и готового на любые жертвы ради своего ребёнка, в романе «Bend Sinister» (1947). В обществе, где господствует тоталитарный режим, личная свобода и независимость мысли подавляются с помощью идеологического давления. В таких условиях философ Адам Круг, известный своими либеральными взглядами, решительно отказывается поддерживать жестокий режим. Несмотря на арест своих друзей одного за другим, он твёрдо стоит на своей позиции. Однако, когда возникает угроза жизни его единственного сына Давида, Круг готов покинуть родину и отказаться от идеалов, которые он отстаивал всю жизнь. С целью раскрытия идейной и тематической сути романа в исследовании используются различные методы литературного анализа: с помощью социологического подхода раскрывается угнетающая природа тоталитарного режима; историко-литературный метод позволяет проанализировать влияние эпохи на мировоззрение автора; психологический анализ помогает глубже внутренние переживания и душевные страдания главного героя.*

Ключевые слова: *тоталитарный режим, свобода, либеральные взгляды, идеологическое давление, идея, историко-литературный метод, социологический подход, психологический анализ.*

Introduction: “Bend Sinister” (1947) is a second English novel of V. Nabokov and his first composed on American soil [7.3]. It offers a deep exploration of social relations under idiotic and despicable regimes of Fascists and Bolshevists. The theme of political terror has been investigated thoroughly in the scientific researches of Z.M. Chemodurova, M. Grishakova, A. O. Drozdova, S.F. Schaeffer, L.L. Lee, but the motif of “a loving father’s heart” remains largely unexplored. This study aims, through the use of literary analysis tools such as historical-literary method, sociological approach, and psychological analysis to reveal the resilience of the liberal intellectual Adam Krug, who resists a totalitarian regime, but ultimately sacrifices everything for the sake of his only child David. By focusing on the theme of “a loving father’s heart”, the article contributes to a profound comprehension of how V. Nabokov transforms personal experiences into universal artistic expressions.

Literature review: The literary scholar N. Karimov evaluates the 20th century as one of the most significant periods in human history and states: *“No matter how much blood was shed, no matter how many injustices and acts of cruelty occurred in this century, humanity nevertheless took a great step toward the future* [9.2]. Indeed, this century stands out as the most paradoxical era in the development of humankind – marked not only by unprecedented and

horrific tragedies but also by remarkable achievements in science and technology. Political revolutions in various parts of the world, the First and Second World Wars, the collapse of vast colonial empires, the rise and fall of the Soviet Union – such political upheavals defined the socio-psychological landscape of the entire century.

Literature, as the artistic reflection of life, has captured the spiritual state of humanity, the transformations in social consciousness, and the crisis of eternal values against the backdrop of the profound chaos and ideological confrontations of the past century. Naturally, the tragic historical events left a powerful imprint on the life and literary activity of Vladimir Nabokov, the author of the work under our historical-literary analysis.

The following lines of renowned Nabokovian scholar Brian Boyd: *“Vladimir Nabokov, uprooted by both the Russian Revolution and World War II, could hardly ignore the cataclysms of modern history that so skewed his life.”* [4.3] affirm the way in which V. Nabokov’s fate and creative path were fundamentally shaped by his forced emigration from Russia after the 1917 Revolution, his subsequent departure from Europe, and his eventual relocation to America on the eve of World War II.

In particular, Hitler’s rise to power in Germany and intensification of his political influence during the years of World War II found a direct echo in V. Nabokov’s literary works, with his writing beginning to take on an explicitly political character. Examples of such politically charged works include the short stories “Double Talk” (1945) and “Conversation Piece, 1945”, the poem “On Rulers” (“О правителях”), and the novels “Bend Sinister” (1947) and “Pnin” [8. 242]. Among these, the most overtly political is “Bend Sinister” which also reveals thematic parallels with his earlier Russian novel “Invitation to Beheading” (“Приглашение на казнь”, 1935). At the same time, “Bend Sinister is viewed as author’s personal contribution to the fight against fascism [5. 173].

V. Nabokov began writing this 18-chapter novel in December 1941 and completed it in June 1946. Unfortunately, when the novel was published in June 1947, it failed to attract significant attention of readers and critics – just like his first English work, “The Real Life of Sebastian Knight” (1941). However, unlike his debut English novel, “Bend Sinister” received largely positive critical evaluations [16]. One of the most favorable reviews came from Hal Borland in his article titled “Strategy of Terror.” H. Borland praised the novel as *“a powerful and affecting portrayal of the fate of a civilized man in a despotic state.”* In his review, he stressed: *“if this novel fails to find its readers, it will be a serious mistake, because the war is not yet over. The struggle between free thought and totalitarian power remains a pressing issue for us* [2. 10]*.”*

In the early American critical approaches, the novel was predominantly interpreted and highly praised as a satirical work that sharply criticized the narrow-mindedness and absurdity inherent in totalitarian thinking and actions – largely due to the fact that it was published during a time of heightened Cold War tensions and growing anti-Soviet sentiment [16].

Bashkir villages are distinguished by their greatest development. They are characterized by a complex meter rhythm, all of them are based on the pentatonic scale, their melos has a wide range (from b.6 - ch.8), has a brightly national coloring in various pentatonic modes. And the expanded melody is identical to a full poetic stanza, the lines of which are often built on 7-8 or 9-10 syllable verses. Along with this, in almost all songs (with the exception of “At ektelər kitergə”), the movement of the melody goes from top to bottom, like a sinking exclamation, similar to Tatar lamentations, which also begin in the upper register with the achievement of a pitch peak and further downward development of the melody, leading to a lower tonal support. The great development of lament songs among the Bashkirs is associated, first of all, with the fact that their farewell lament songs had an established traditional form and were very widespread, since in this culture there were entire schools for teaching the performance of songs. And this allowed the song patterns of farewell rituals to survive, and, moreover, to evolve.

Musical and poetic genres of folklore of many ethnic groups. Among the peoples studied, they are more fully preserved among the Kazakhs, Tatars and Bashkirs. Exploring Russian

lamentations, Yu. Kruglov points out that “...wedding lamentations are a stable, traditional genre; as specific comparisons of texts have shown..., they can coincide verbatim with each other. This is also evidenced by the presence among the lamentations of special typical lamentations and the form of their execution” [153, 52 p.]. The same can be said about similar genres of Turkic-speaking peoples, for whom a certain genre variety of lament songs has its own tune, verse, content, and significant differences are associated with the tradition of improvisation.

LITERATURE

1. Konkka U.S. Karelian wedding lamenter – ITKETTÄJÄ “cause of crying” // Folklore and ethnography. Rituals and ritual folklore. – L.: Nauka, 1974. – 276 p.

2. Sultangareeva R.A. Bashkir wedding ritual folklore. – Ufa: Gilem, 1994. – 191 p.

3. Aranovskaya O.R. On the folklore origins of the concept of “Catharsis” // Folklore and ethnography. Rituals and ritual folklore. – L.: Nauka, 1974. – 276 p.

4. Kruglov Yu.G. On the improvisational nature of wedding lamentations // Questions of genres of Russian folklore. – M.: Moscow State University Publishing House, 1972. – 132 p.

5. Nigmedzyanov M.N. Tatar folk song. – Kazan: Magarif, 2003. – 255 p.

6. Auezov M.O. Thoughts from different years. – Alma-Ata: Kazgoslitizdat, 1961. – 544 p. 7. Kokumbayeva B.Zh. Family ritual laments of Kazakhs and lyrical songs on the theme of loss (some aspects of interaction). – Manuscript of a dissertation for the degree of candidate of art history. – Alma-Ata, 1989.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

FITONIMLARNING O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI

Yakubova Gulchexra Ziyatovna
Qarshi xalqaro universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya So‘nggi yillarda fitonimlar o‘zbek tilshunosligida sof lingvistik muammo asosida ham tadqiq qilinmoqda. Keyingi davr tadqiqotlarida fitonimlarning turli tillar misolida qiyoslanishi kun tartibiga olib chiqilmoqda. Ushbu maqolada fitonimlarning vujudga kelishi va shakllanish bosqichlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: botanika, fitonim, termin, o‘simlik, leksika, lug‘at, leksikografiya, terminologiya, til, biologiya.

ИЗУЧЕНИЕ ФИТОНИМОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация В последние годы фитонимы также исследуются в узбекском языкознании на основе чисто лингвистической проблемы. В последующих исследованиях на повестку дня ставится сравнение фитонимов на примере разных языков. В этой статье рассматриваются этапы возникновения и формирования фитонимов.

Ключевые слова: ботаника, фитоним, термин, растение, лексика, словарь, лексикография, терминология, язык, биология.

STUDY OF PHYTONYMS IN UZBEK LINGUISTICS

Abstract In recent years, phytonyms are also studied in Uzbek linguistics on the basis of a purely linguistic problem. In subsequent studies, the comparison of phytonyms on the example of different languages is put on the agenda. This article examines the stages of the emergence and formation of phytonyms.

Keywords: botany, phytonym, term, plant, vocabulary, dictionary, lexicography, terminology, language, biology.

Kirish. Ilmiy faoliyatning rivojlanishi tilshunoslikda terminologiyaning mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanishi va rivojlanishiga muhim hissa qo‘shdi. Milliy terminologiya va terminografiyaning rivoji ushbu jarayon bilan uzviy bog‘liqdir. Zamonaviy jamiyatda terminlar ilmiy muloqotda muhim ma’lumot manbai sifatida xizmat qilib, turli sohalarni o‘zlashtirishda yo‘naltiruvchi vazifani bajaradi. Ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtirishda terminlarning ahamiyati beqiyos bo‘lib, ular jahon tilshunosligida har bir ilmiy sohaning ajralmas qismi

sifatida rivojlanmoqda. O‘simliklarni ifodalovchi leksik birikmalarni o‘z ichiga olgan botanik terminlarning shakllanishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Insoniyatning hayot tarzi va yashash sharoitlari o‘simliklar olami bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Botanika, “o‘simliklar haqidagi fanlar majmui” sifatida, bir necha asrlik tarixga ega bo‘lib, ushbu soha bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar uzoq yillik rivojlanish natijasidir. Botanika va fitologiya ilmda sinonim sifatida ishlatiladi[1]. O‘zbek tilida fitonimlarning shakllanishi, ularning rivojlanish bosqichlari, leksik-semantik o‘zgarishlari va adabiy til me’yorlariga muvofiqligini tizimlashtirish milliy tilshunoslik oldidagi muhim vazifalardan biridir. Bu masalalar sohaning ilmiy asoslarini mustahkamlash va terminologik tizimni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Terminlar, har qanday leksik birlik kabi, o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega. Tilshunos H.Dadaboyev terminlarni quyidagicha ta’riflaydi: “Fan va texnikada sun’iy o‘ylab topilgan yoki tabiiy tildan olingan maxsus so‘z sanaladi. Bunday so‘zlarning qo‘llanish sohasi u yoki bu ilmiy maktab vakillari tomonidan aniqlashtiriladi va chegaralanadi” [2:5]. Umumiy til leksikasidan farqli o‘laroq, ilm-fan va texnikaga xos terminlar iyerarxik tuzilishga ega bo‘lib, muayyan terminologik tizim doirasida birlashadi. Ushbu tizim ichida terminlar o‘ziga xos semantik ma’noga ega bo‘lib, ularning mazmuni faqat shu tizim kontekstida aniq ifodalanadi. Har bir termin o‘ziga xos mantiqiy va tushunchaga bog‘liq ma’no maydoniga ega bo‘lib, bu maydon tizimning umumiy tuzilishi bilan chambarchas bog‘lanadi. Ilm-fan sohasidagi har qanday rivojlanish yangi terminlarning vujudga kelishi yoki mavjud terminlarning semantik jihatdan aniqlashuvi va kengayishiga bevosita ta’sir qiladi. Terminologik tizimlarning shakllanishi va rivojlanishi ilmiy-texnik jarayonlarning tezlashishiga xizmat qiladi. Yangi tushunchalar va kashfiyotlarning paydo bo‘lishi terminlarning semantik doirasini kengaytiradi, shu bilan birga ularning iyerarxik tizimdagi o‘rni va o‘zaro aloqalari aniqlanadi. Bu jarayon ilmiy muloqotni soddalashtirish bilan birga, turli fanlar o‘rtasidagi integratsiyani ta’minlaydi va bilimlarning chuqur va tizimli rivojlanishiga zamin yaratadi.

Fitonimlar tahlil qilinayotganda ularning faqat terminologik ma’nosi emas, balki umumiy til birligi sifatidagi xususiyatlari ham chuqur o‘rganilishi zarur. O‘simliklar olami insoniyat uchun dunyo yaralishidan buyon tanish bo‘lib, tilning paydo bo‘lishi bilan birga o‘simliklarga oid tushunchalar muayyan leksik birliklar orqali ifodalana boshlagan. Shu nuqtai nazardan, fitonimlarning leksikografik talqiniga doir tadqiqotlarda ularning umumiy til birligi sifatidagi o‘rni va ahamiyatini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. O‘zbek tilidagi eng qadimgi yozma yodgorliklarda o‘simlik nomlari bilan bog‘liq ko‘plab misollar uchraydi. Masalan, eng muhim qadimiy yozma manbalardan biri bo‘lgan “Irq bitigi” (Ta’birnoma) asarida o‘simlik nomlariga ishora qiluvchi misralar mavjud:

“*Men mardonavor chipor lochinman,*
Sandal daraxti uzra qo‘nib
Shodlanaman.
Bilib qo‘ying: bu - yaxshi” [3:158].

Matnda *sandal daraxti* kabi o‘simlik nomlari qo‘shimcha izohlarsiz keltirilgan bo‘lib, bu ularning foydalanuvchilar uchun tanish ekanligini ko‘rsatadi. O‘simliklar olami ajdodlarimiz hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida o‘simlik nomlari inson faoliyati bilan bog‘liq predmetlar qatorida tilga olingan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Keyingi davrlarda sharq qomusiy olimlari tomonidan yaratilgan asarlarda fitonimlar terminologik ma’noda qo‘llanilgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Abu Bakr ar-Roziy kabi allomalar o‘z asarlarida o‘simliklarning xususiyatlari va inson hayotidagi ahamiyatini keng yoritgan. Ayniqsa, Ibn Sino va Abu Bakr ar-Roziy o‘simliklarning tibbiyotdagi foydali va zararli xususiyatlarini tahlil qilib, ularning inson salomatligiga ta’sirini aniqlagan. Fanlarni tarmoqlarga ajratish va tizimli tasniflash tabiatshunoslikning asosiy masalalaridan biridir va bu jarayon falsafiy yondashuvni talab qiladi. Ibn Sino bu masalaga alohida e’tibor qaratib, o‘simliklarni ilmiy tahlil qilish va mantiqiy tartibda tasniflash uchun qoidaga asoslangan tizim ishlab chiqqan. Uning yondashuvi o‘simliklarni ilmiy jihatdan joylashtirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu borada quyidagi fikrlarni keltirish mumkin: “Fitonim nomlari qadim tarix asarlari orqali bizgacha yetib kelgan bo‘lib, xususan, bir o‘simlik nomlarining ikki-uch xil variant qo`llangan Abu Rayhon Beruniy qalamiga mansub “Saydana”, Ibn Sinoning “Tib qonunlari”, “Kitob ush-shifo”, Boburning “Boburnoma” kabi asarlaro o‘simlik nomlari qayd etilgan mashhur asarlar hisoblanadi” [4:811-816]. Ibn Sino asarlarida X-XI asrlarda mamlakatimizda mavjud bo‘lgan, tibbiyotda qo‘llaniladigan o‘simliklarning nomlari va xususiyatlari alifbo tartibida tizimlashtirilgan. Fitonimlarning bunday tartibda joylashtirilishi terminologik yondashuv natijasidir. Masalan, *mosh* o‘simligining *javhari boqila*g‘a yaqinligi, yozda iste’mol qilishning foydaliligi va ezilgan holda asab kasalliklarida samarali ekanligi haqida batafsil ma’lumot keltirilgan[5:243]. Shunday qilib, fitonimlar uzoq vaqtdan beri biologiya va botanika sohasida terminologik birliklar sifatida faol o‘rganib kelinmoqda.

Tushunchalar va ularning nomlari tilshunoslikning asosiy vositasi – so‘z sifatida qaralib, tilshunoslikning o‘rganish obyekti sifatida ham xizmat qiladi. Fitonimlar inson xotirasida o‘ziga xos mikrotizim, ya’ni tizimni shakllantiradi. Har qanday tizimda bo‘lgani kabi, fitonimlar mikrotizimida ham tarkibiy elementlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar mavjud. Ushbu munosabatlar asosida fitonimlar inson xotirasida joylashadi, masalan, daraxtsimonlar (mevali va mevasiz turlarga bo‘linadi), butasimonlar va o‘tsimonlar sifatida tasniflanadi. Umuman olganda, tilshunoslikda fitonimlar turli nuqtai nazardan keng o‘rganilgan. Masalan, o‘zbek tilshunosi A.Qurbonov o‘zbek tilidagi don mahsulotlari va uni yetishtirish xo‘jaligi sohasiga doir terminlarni lingvistik tadqiq qildi[6]. Bu tadqiqot nafaqat o‘simlik nomlarini, balki ushbu soha bilan bog‘liq boshqa leksik birliklarni ham tahlilga tortdi. Shunday bo‘lsa-da, *suli, bug‘doy, arpa, guruch* kabi o‘simliklar va ularning nomlarining lingvistik tahlili tadqiqotda muhim o‘rin egalladi. Tilshunos H.Jamolxonovning tadqiqoti o‘zbek fitonimlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi[7]. Ushbu tadqiqotda o‘zbek botanik terminologiyasining shakllanishi tahlil qilinib, uning rivojlanish bosqichlari aniqlandi. Garchi tadqiqot asosan

tahliliy yondashuvga asoslangan bo‘lsa-da, fitonimlarning lingvistik xususiyatlariga ham e’tibor qaratildi. Muhimi, H.Jamolxonov tadqiqotida botanik terminlar, jumladan fitonimlar, ilk bor tizimlashtirildi va ularning shakllanish bosqichlari o‘rganildi. Tadqiqot o‘zbek botanik terminologiyasining uzoq yillik tarixga ega ekanligini asoslab berdi. Botanika, shu jumladan tabiatshunoslik fani, mamlakatimiz ta’lim tizimida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o‘qitila boshlandi, bu jarayon jadidlar faoliyati bilan bevosita bog‘liq edi. Yangi usul maktablarida tabiatshunoslik, biologiya va tilshunoslik kabi sohalarga alohida e’tibor qaratildi. Tabiatshunoslik darslarida o‘qituvchilar o‘quvchilarni o‘simliklar va hayvonot olami bilan tanishtirishga yo‘naltirdilar.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). XX asrning o‘rtalaridan boshlab O‘zbekistonda biologiya o‘qitish metodikasiga doir ilmiy tadqiqotlar yo‘lga qo‘yildi. Bu davrda chop etilgan biologiya darsliklari, asosan, markaziy darsliklarning sifatsiz tarjimasi sifatida tayyorlangani sababli o‘quvchilar uchun tushunishda qiyinchiliklar keltirib chiqardi. Ayniqsa, botanika faniga oid terminologiya ruscha yoki xalqaro terminlar ta’sirida shakllandi. Ushbu muammolarni hal qilish maqsadida 1961-yilda Toshkent davlat universitetida “Biologiya o‘qitish metodikasi” kafedrasi tashkil etildi. Ushbu kafedraning asosiy maqsadi botanika, zoologiya va umumiy biologiya fanlari bo‘yicha mahalliy o‘quv vositalarini ishlab chiqish edi. A.T.G‘ofurov, I.A.Norbekov, M.Ortiqov, J.Tolipova, M.Mahkamov kabi metodist olimlar botanika darslarining mazmunini va uslubiy jihatdan boyitilishini, shuningdek, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash masalalariga katta e’tibor qaratdilar. Ular dars jarayonlarini rang-barang qilish va o‘quv jarayonini samarali tashkil etish yo‘lida muhim ishlar amalga oshirdilar. Natijada, botanik terminologiya, xususan, fitonimlar bo‘yicha muhim manbalar to‘plandi. Tilshunos H.Jamolxonovning tadqiqoti ushbu ijtimoiy ehtiyojlar asosida yuzaga keldi.

Istiqloldan so‘ng fitonimlar tadqiqida yangi yondashuvlar kuzatildi. Xususan, G.Negmatova o‘zbek tilidagi fitonimlarning badiiy matnlardagi qo‘llanilish imkoniyatlarini o‘rganib, ularning lingvopoetik jihatlarini tahlil qildi[9]. Darhaqiqat, fitonimlarning metaforik qo‘llanilishi ularning tilshunoslik va poetik imkoniyatlarining kengligini namoyon etadi. Mumtoz adabiyotda go‘zal yorning gulga, sochning sunbulga, qadning niholga o‘xshatilishi kabi tasvirlar keng tarqalgan bo‘lib, bu o‘xshatish va ko‘chimlar she’riy asarlarning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidagi misralarda ushbu xususiyatlar yaqqol ko‘rinadi:

“*Xating aro uzoring sabza ichinda lola,*

Ul chashmi purxumoring loladag‘i g‘azola” [10:85].

Misralarda *sabza* (yam-yashil maysa) va *lola* kabi fitonimlardan foydalanilganiga guvoh bo‘lish mumkin. Umuman olganda, badiiy matnlarda ishlatiladigan fitonimlar o‘zlarining ifodalovchi tushunchalarining xususiyatlarini aks ettiradi. Masalan, *gul* o‘zining tashqi ko‘rinishi bilan inson kayfiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, shu sababli ayollarning go‘zalligi ko‘pincha gulga qiyoslanadi. *Nihol*ning yosh va tekis xususiyati uni yorning qad-qomatiga o‘xshatish uchun asos bo‘ladi. Xuddi shu tarzda, *sunbul*ning buramaligi va gajakligi yor

sochlarini tasvirlashda ishlatiladi. Sarv esa “janub mamlakatlarida o‘sadigan, ignabargli doim yashil, tik daraxt” [11:553] sifatida qad-qomatning ramzi sifatida qo‘llaniladi. Ushbu tashbeh adabiyotda shunchalik keng tarqalganki, uning lingvopoetik talqini umumiy lug‘atlarda ham o‘z aksini topgan:

“SARV 2 *ko‘chma poet.* Qaddi-qomati, bo‘y-basti kelishgan, xushqomat. *Jonga huzur, dilga farog‘at, Sarvim yaxshi, sunbulim yaxshi.* O.Yunus” [11:553].

Lug‘at maqolasining illyustrativ misollar qismida *sarv* o‘simligi bilan bir qatorda *sunbul*ning ham keltirilganini ko‘rish mumkin. Bu o‘simlik nomlarining badiiy matnlarda ijodkorning niyatini ifodalashda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Fitonimlarning poetik qo‘llanilishi ularning badiiy adabiyotdagi samarali ta’sirini ta’minlaydi, bu esa ularning lingvopoetik imkoniyatlarining kengligini namoyon etadi.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida fitonimlar sof lingvistik muammo sifatida keng qamrovda o‘rganilmoqda. Tilshunos N.Pazliddinova o‘zbek tilidagi fitonimlarning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qildi[12]. Har qanday leksik birlik inson xotirasida o‘zining leksik-semantik doirasi va qamroviga ko‘ra muayyan bog‘liqliklar asosida shakllanadi. Xususan, fitonimlar o‘zlarining sinonimlari, antonimlari, omonimlari, paronimlari va partoniimlari bilan murakkab munosabatlar tizimida xotirada joylashadi. Ularning nutqda qo‘llanilishi kontekstual shart-sharoitlarga bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. Ya’ni, fitonimlarning qaysi leksik birliklar bilan birikishi va nutqda qanday maqsadlarda ishlatilishi ularning leksik-semantik xususiyatlari bilan bevosita aloqador bo‘ladi. Umuman olganda, N.Pazliddinova tadqiqoti o‘zbek tili leksik tizimidagi fitonimlarning o‘rnini aniqlashda muhim ilmiy ishlar qatoriga kiradi.

So‘nggi davr tadqiqotlarida fitonimlar turli tillar misolida qiyosiy tahlil qilish masalasi dolzarb mavzu sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Olamning lisoniy tasviri turli tillarda xalqlarning turmush tarzi, dunyoqarashi va borliqni idrok etish xususiyatlariga ko‘ra farqlanishi bu tadqiqotlarning asosiy sababini tashkil etadi. Tilshunos M.Xoshimxo‘jayeva tomonidan fitonimlarni uch tilda qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan dissertatsion tadqiqot olamning lisoniy tasviridagi farqlarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi[13]. Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi fitonimlarning qiyosiy tahlili ma’naviy va madaniy qarashlari jihatidan bir-biridan farq qiluvchi xalqlarning o‘simliklar kabi jonli mavjudotlarga bo‘lgan munosabatini aniqlashga xizmat qildi. “Olamning lisoniy manzarasi tegishli til jamoasi ongida tarixan shakllangan va uning tilida barqarorlashgan dunyo haqidagi tasavvurlar, dunyoni anglash va bilish usullarining jami bo‘lib, u mazkur til sohiblarining barchasi uchun odatiy, tabiiy va majburiydir” [14:3-12]. Aynan shu odatiylik va majburiylik olamning lisoniy manzarasining uzluksizligini, muntazamligini ta’minlab, uning avloddan avlodga, bir davrdan boshqasiga o‘tishini kafolatlaydi.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida fitonimlarni umumiy tarzda emas, balki ularning muayyan ichki guruhlariga qaratilgan tadqiqotlar ham e’tiborga olinmoqda. Bu yondashuv tadqiqot obyektini toraytirish orqali uni chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. O.Xo‘jamurodova tomonidan o‘zbek tilidagi gulchilik bilan bog‘liq leksikani tahlil qilishga

bag‘ishlangan tadqiqotda o‘simliklarning muayyan bir guruhini tashkil etuvchi gullar va ularga aloqador faoliyat tadqiqot obyekti sifatida tanlandi[15]. Tilshunoslikda o‘simlikshunoslik leksikasi va unga doir atoqli otlar majmuasining til va nutqdagi qo‘llanilish xususiyatlarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu tadqiqotlar nafaqat leksika va terminologiya sohasiga, balki lingvokulturologiya rivojiga ham muhim hissa qo‘shadi. Ta’kidlanishicha, muayyan semantik guruhni tashkil etuvchi leksik birliklarni o‘rganish umumiy leksik tizimni tahlil qilishni osonlashtiradi. Shu nuqtai nazardan, fitonimlar va ularning til tizimidagi o‘rnini aniqlashga xizmat qiluvchi tadqiqotlar o‘zining dolzarbligini doimo saqlab qoladi.

Xulosa. O‘zbek va rus tilshunosligida fitonimlar turli jihatlardan o‘rganilgan. Ularning umumiy til birligi sifatidagi xususiyatlari hamda botanika sohasiga xos terminologik birlik sifatidagi ahamiyati ikki tilda ham keng tahlil qilingan. Fitonimlarning ichki semantik guruhlari, masalan, gullar, daraxtlar va boshqa turlarga oid xususiyatlari alohida-alohida tadqiq etilgan. Bundan tashqari, polisemantik fitonimlarning ko‘chma ma’nolari poetik maqsadlarga xizmat qilishi lingvopoetik va lingvokulturologik tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Biroq fitonimlarning leksikografik talqini masalasi tilshunoslar tomonidan yetarlicha e’tiborga olinmagan. Ayniqsa, qardosh bo‘lmagan tillardagi fitonimlarning leksikografik talqinlarini qiyosiy tahlil qilish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Bunday tadqiqotlar nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ega, chunki lug‘atlar yaratish va mavjud lug‘atlarni takomillashtirish har bir tilshunosning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu tadqiqotlar tilning leksik boyligini saqlash, rivojlantirish va standartlashtirishga xizmat qiladi, shu bilan birga turli tillar o‘rtasidagi semantik va madaniy o‘zaro ta’sirlarni aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://ru.wikipedia.org/wiki/Ботаника [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 20.09.2024.
2. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 136 b.
3. Эски туркий битигларнинг ўрганилиши: бажарилган ва бўлғуси ишлар. Илмий йиғин ёзмалари. – Тошкент: ТДШУ, 2024. – 240 б.
4. Avezova Y. “Tib qonunlari”da fitonimlar talqini // Central Asian academic journal of scientific research. Volume 2. Issue 5. 2022. – P.811-816.
5. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари: уч жилдлик сайланма, 1-жилд. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.243. – 303 б.
6. Курбонов А. Термины зерновых культур и зерного хозяйства узбекского языка: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1975. – 24 с.
7. Жамолхонов Ҳ. Ўзбек ботаника терминологиясининг шаклланиш ва ривожланиш тарихидан: Филол. фанл. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1969. – 25 б.
8. Ibragimov J. Nutqiy sistema lisoniy imkoniyatlar voqelanishi ko‘zgusida // Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024. №9. – B.12-15.

9. Негматова Г. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадиий қўлланиши: Филол. фанл. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 21 б.

10. Zahiriddin Muhammad Bobur. Qaro zulfing firoqda. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2019. – 124 b.

11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildlik. 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B.553. – 824 b.

12. Пазлиддинова Н. Ўзбек тилида фитонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фанл. б. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 52 б.

13. Хошимхўжаеаа М. Оламнинг лисоний тасвирида фитонимлар (инглиз, рус ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фанл. б. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 44 б.

14. Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. 2015. №3. – Б.3-12.

15. Xo‘jamurodova O. O‘zbek tilining gulchilik leksikasi: Filol. fanl. b. fals. dokt. diss. avtoref. – Qarshi, 2024. – 53 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

КОГНИТИВНЫЕ ОСНОВЫ ГЕНДЕРНЫХ КАТЕГОРИЙ В ЯЗЫКЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ В ЛИНГВИСТИКЕ

Комилова Нилуфар Абдылкадымовна
Руководитель центра изучения языков, PhD
Ферганского государственного университета
nilufar.abdilkadimovna@gmail.com
Orcid: 0000-0003-2618-6010

Аннотация. В данной статье рассматриваются механизмы формирования гендерных категорий языка и анализируются теоретические подходы в современной лингвистике. Исследование основано на существующих теориях и концепциях отечественных и зарубежных ученых. Особое внимание уделяется психолингвистическим аспектам восприятия гендерных маркеров и их роли в языковой категоризации. Результаты показывают, что гендерная категоризация представляет собой сложный когнитивный процесс, формирующийся на основе взаимодействия семантических, морфологических и прагматических факторов.

Ключевые слова: гендерная категория, когнитивная лингвистика, языковая категоризация, психолингвистика, морфологические категории

TILDAGI GENDER KATEGORIYALARINING KOGNITIV ASOSLARI VA TILSHUNOSLIKDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilning gender kategoriyalarining shakllanish mexanizmlari va zamonaviy tilshunoslikdagi nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot mahalliy va xorijiy olimlarning mavjud nazariya va konsepsiyalari asosida olib borilgan. Gender belgilarining psixolingvistik jihatlarini qabul qilish va til kategorizatsiyasidagi rollariga alohida e'tibor qaratilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, gender kategorizatsiya semantik, morfologik va pragmatik omillarning o'zaro ta'siri asosida shakllanadigan murakkab kognitiv jarayon hisoblanadi.

Kalit so'zlar: gender kategoriyasi, kognitiv tilshunoslik, til kategorizatsiyasi, psixolingvistika, morfologik kategoriyalar

COGNITIVE FOUNDATIONS OF GENDER CATEGORIES IN LANGUAGE AND MODERN APPROACHES IN LINGUISTICS

Abstract. This article analyzes the mechanisms of formation of gender categories of language and theoretical approaches in modern linguistics. The study was conducted on the basis of existing theories and concepts of domestic and foreign scientists. Particular attention is paid to the roles of Gender characters in the adoption of psycholinguistic aspects and language categorization.nnotation. This article analyzes the mechanisms of formation of gender categories of language and theoretical approaches in modern linguistics. The study was conducted on the basis of existing theories and concepts of domestic and foreign scientists. Particular attention is paid to the roles of Gender characters in the adoption of psycholinguistic aspects and language categorization. The results show that gender categorization is a complex cognitive process that is formed on the basis of the interaction of semantic, morphological and pragmatic factors.

Keywords: gender category, cognitive linguistics, language categorization, psycholinguistics, morphological

ВВЕДЕНИЕ

Проблема гендерных категорий в языке остается одной из наиболее дискуссионных в современной лингвистике. Традиционно рассматриваемый как чисто грамматическое явление, языковой гендер в последние десятилетия все чаще анализируется с позиций когнитивной науки, что открывает новые перспективы для понимания механизмов языковой категоризации. Когнитивный подход к изучению гендерных систем позволяет выявить глубинные связи между ментальными процессами носителей языка и способами организации грамматических категорий. Актуальность данного исследования обусловлена необходимостью систематизации современных теоретических подходов к пониманию когнитивных основ гендерной категоризации и выявления перспективных направлений дальнейших исследований в этой области. Гендерная система языка представляет собой уникальный объект для изучения взаимодействия универсальных когнитивных принципов и языково-специфических грамматических структур.

МЕТОДОЛОГИЯ И АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ

Методологической основой исследования служит анализ теоретических работ, посвященных когнитивным аспектам языкового гендера. Анализируются как классические труды по данной тематике, так и современные исследования, отражающие новейшие тенденции в изучении гендерных категорий. Когнитивная лингвистика, развивающаяся с 1970-х годов, предложила принципиально новый взгляд на природу языковых категорий, включая гендер. Основополагающей для понимания когнитивных механизмов гендерной категоризации является теория прототипов Э. Рош, которая объясняет организацию категорий через центральные и периферийные элементы [3]. В контексте гендерных систем это означает, что носители языка воспринимают определенные семантические и морфологические признаки как более типичные для конкретного гендерного класса.

Исследования Г. Корбетта демонстрируют, что гендерные системы различных языков обнаруживают универсальные когнитивные принципы организации, несмотря на значительные структурные различия [4]. Автор выделяет семантическое ядро гендерных категорий, связанное с биологическим полом, и показывает, как от этого ядра происходит расширение категорий на основе различных когнитивных механизмов, включая метафору и метонимию. Отечественные исследования, представленные в работах А.В. Бондарко, подчеркивают роль функционально-семантических полей в организации гендерных оппозиций [5]. Эти подходы позволяют понять, как когнитивные структуры отражаются в грамматической организации языка.

Психолингвистические исследования А. Карамаццы показывают, что обработка гендерной информации в мозге происходит на различных уровнях языковой системы одновременно [6]. Нейролингвистические данные свидетельствуют о том, что гендерные категории активируются автоматически при восприятии и производстве речи, что указывает на их глубокую интеграцию в когнитивную систему языка. У. Крофт в своих работах по когнитивной типологии демонстрирует, что принципы организации гендерных систем отражают общие закономерности человеческого познания [7].

В узбекском языкознании вопросы гендерной категории рассматривались в работах М.Ю. Юсупова с точки зрения места и функций в языковой системе [8]. В трудах Г.Г. Гуломова по теории грамматики обсуждаются когнитивные основы морфологических категорий [9]. Исследования Ш.С. Сафарова по когнитивной лингвистике рассматривают психологические механизмы языковой категоризации [10].

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Анализ современных теоретических подходов позволяет выделить несколько ключевых направлений в изучении когнитивных основ гендерных категорий. Первое направление связано с концептуальной метафорой как основным механизмом расширения гендерных категорий. Исследования показывают, что носители языка используют метафорические переносы для включения неодушевленных объектов в гендерные классы, основываясь на перцептивных и концептуальных аналогиях. Например, в русском языке женский род часто ассоциируется с понятиями мягкости, округлости, в то время как мужской род связывается с твердостью и угловатостью форм. Этот процесс метафорического переноса не является произвольным, а следует определенным когнитивным закономерностям, связанным с человеческим восприятием физического мира.

Второе направление исследований фокусируется на роли социальных и культурных факторов в формировании когнитивных схем гендерной категоризации. Работы социолингвистов демонстрируют, что восприятие гендерных категорий может варьироваться в зависимости от социокультурного контекста, что указывает на взаимодействие универсальных когнитивных механизмов с культурно-специфическими факторами. Третье направление связано с исследованием процессов усвоения гендерных

категорий в онтогенезе. Психолингвистические данные показывают, что дети усваивают гендерные маркеры через сложное взаимодействие морфологических, семантических и прагматических подсказок, что свидетельствует о многоуровневой природе этих категорий.

Особого внимания заслуживает вопрос о соотношении семантических и формальных принципов в организации гендерных систем. Современные исследования показывают, что даже в языках с формально организованными гендерными системами семантические факторы играют важную роль в категоризации. Это указывает на то, что когнитивные механизмы, лежащие в основе гендерной категоризации, имеют глубокие концептуальные корни и не могут быть сведены исключительно к формальным грамматическим правилам. В узбекском языкознании изучение гендерной категории приобретает особое значение в контексте структурных особенностей тюркских языков, где гендерная категория выражается иначе, чем в индоевропейских языках.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведенный анализ современных теоретических подходов к изучению когнитивных основ гендерных категорий позволяет сделать вывод о том, что языковой гендер представляет собой сложное когнитивное явление, формирующееся на основе взаимодействия универсальных принципов человеческого познания и языково-специфических механизмов грамматикализации. Когнитивная лингвистика предоставляет мощный инструментарий для понимания глубинных механизмов организации гендерных систем, выходящий за рамки традиционного структурного анализа. Перспективы дальнейших исследований связаны с интеграцией данных нейролингвистики, психолингвистики и типологии для создания комплексной теории когнитивных основ языкового гендера. Особое значение приобретают исследования, направленные на выявление универсальных когнитивных принципов гендерной категоризации и их проявлений в различных языковых системах.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Lakoff, G. (1987). Women, Fire and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. University of Chicago Press.
2. Langacker, R. W. (2008). Cognitive Grammar: A Basic Introduction. Oxford University Press.
3. Rosch, E. (1978). Principles of categorization. In E. Rosch & B. Lloyd (Eds.), Cognition and categorization (pp. 27-48). Lawrence Erlbaum Associates.
4. Corbett, G. G. (1991). Gender. Cambridge University Press.
5. Бондарко, А. В. (2002). Теория морфологических категорий и аспектологические исследования. М.: Языки славянской культуры.
6. Caramazza, A. (1997). How many levels of processing are there in lexical access? Cognitive Neuropsychology, 14(2), 177-208.

7. Croft, W. (2003). Typology and Universals. Cambridge University Press.
8. Юсупов, М. Ю. (2015). Морфологические категории узбекского языка. Ташкент: Узбекистан.
9. Гуломов, Г. Г. (2003). Грамматика узбекского языка. Ташкент: Укитувчи.
10. Сафаров, Ш. С. (2008). Когнитивная лингвистика. Ташкент: Янги аср авлоди.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ISKANDAR ZULQARNAYN OBRAZING AMIR TEMUR TIMSOLIDAGI TALQINLARI

Pardayeva Iroda Mamayunusovna,
dotsent, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Samarqand davlat chet tillari instituti,
Samarqand, O‘zbekiston
E-mail:pardayevairoda74@mail.com
orcid.org/0000-0003-0229-1748
Turabekova Laylo Shavkat qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
turabekovalayloshavkatovna@gmail.com

Annotatsiya: Amir Temur Iskandar Zulqarnayn (Iskandar Zulqarnayn)ning hukmronligini qonuniylashtirish va umumbashariy podshohlik haqidagi qarashlarini mustahkamlash uchun uning qiyofasini strategik jihatdan qayta talqin qildi. Ushbu maqolada Temurning Iskandarning tarixiy manbalar, adabiyot va san’atdagi timsoli ko‘rib chiqilib, fors, islom va turkiy an’analarning uyg‘unligi yoritilgan. Temur Iskandarning zabtlari va hikmatlariga moslashib, uning g‘oyaviy va siyosiy ta’sirini kuchaytirdi.

Kalit so‘zlar: Iskandar Zulqarnayn, Amir Temur, temuriylar mafkurasi, tarixiy vakillik, afsonaviy podshohlik.

KIRISH

Iskandar Zulqarnayn (Iskandar Zulqarnayn) siymosi turli tsivilizatsiyalar, xususan, fors, islom va turkiy an’analar tasavvurini o‘ziga rom etgan. Ham buyuk bosqinchi, ham ilohiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi hukmdor sifatida e’zozlangan Iskandar siymosi asrlar davomida taraqqiy etib, tarixiy faktlarni mifologik unsurlar bilan uyg‘unlashtirgan. Uning merosi hikmat, adolat va ilohiy taqdir mavzularini o‘zida mujassam etgan holda oddiy harbiy zabtlardan ham ustun bo‘lib, uni ideal podshohlik namunasiga aylantirdi. Bu afsonaviy shaxsga moslashishga intilgan hukmdorlar orasida Amir Temur (Temur) o‘zining siyosiy va mafkuraviy intilishlariga xizmat qilish maqsadida Iskandar afsonasini faol qabul qilgan va qayta shakllantirgan shaxs sifatida alohida ajralib turadi. Temuriylar saltanatining asoschisi Amir Temur nafaqat kuchli harbiy strateg, balki qonuniylikning kuchli qiyofasini yaratishga chuqur sarmoya kiritgan hukmdor ham edi. Uning O’rta Osiyo, Yaqin Sharq va Janubiy Osiyoning ayrim qismlari bo’ylab qilgan

zabtlari ko’pincha katta mafkuraviy rivoyatda tasvirlangan, bu esa uni o’tmishdagi afsonaviy hukmdorlar bilan taqqoslanadigan ilohiy tanlangan rahbar sifatida ko’rsatgan. O‘zini Iskandar Zulqarnayn bilan bog‘lash orqali Temur o‘zining fors, islom va mo‘g‘ul ta’sirini o‘zida mujassam etgan buyuk imperiya an’analarining qonuniy davomchisi sifatidagi da’vosini kuchaytirishga harakat qildi.

Iskandar afsonasi Temurga uning shaxsiyatini shakllantirish uchun ideal tarixiy va afsonaviy asosni taqdim etdi. Fors adabiyotida, xususan, Firdavsiyning “Shohnoma”si va Nizomiyning “Iskandarnomasi” kabi asarlarda Iskandar dono va adolatli hukmdor sifatida tasvirlangan, uning zabtlari ilohiy irodasi bilan yo‘naltirilgan. Temur va uning saroy solnomachilari bu rivoyatlarni mohirlik bilan moslab, o‘z hukmronligi bilan Iskandar hukmronligi o‘rtasidagi o‘xshashlikni ta’kidlaganlar [2].

Bu nafaqat o’zini ulug’lash vositasi, balki uning keng va xilma-xil imperiyasini umumiy mafkuraviy asosda birlashtirishning strategik vositasi edi. Ushbu maqolada Amir Temurning Iskandar Zulqarnayn obrazini talqin qilish va ifodalashning turli usullari o‘rganiladi. Tadqiqotda Temuriylar davriga oid tarixiy yilnomalar, adabiy matnlar va badiiy tasvirlarni tahlil qilish orqali Temur o‘zining podshohlik qiyofasini yaratishda Iskandar afsonasidan qanday foydalanganini tushunishga harakat qiladi. Bundan tashqari, u Temurning o’zini Iskandar bilan birlashtirishi uning siyosati, saroy madaniyati va tarixiy merosiga qanday ta’sir qilganini ko’rsatib, ushbu vakillikning kengroq siyosiy va madaniy oqibatlarini o’rganadi.

ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYA

Iskandar Zulqarnayn tarixiy va adabiy an’analarda

Iskandar Zulqarnayn (Iskandar Zulqarnayn) siymosi turli tarixiy va adabiy an’analarda sezilarli o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Arrianning “Anabasis Aleksandriy”, Plutarxning “Iskandarning hayoti” kabi yunon va rim manbalarida u harbiy daho va davlat arbobi sifatida tasvirlangan bo‘lsa, keyingi fors va islom an’analari uning merosini yanada ma’naviy va falsafiy nuqtai nazardan qayta talqin qilgan. Firdavsiy, Nizomiy kabi fors shoirlari Iskandarni ilohiy hikmatga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgan adolatli va donishmand hukmdor sifatida ko‘rsatib, uning shunchaki g‘olib emas, ideal hukmdor sifatidagi rolini ta’kidlaganlar.

Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa” (beshlik) qismi bo‘lgan “Iskandarnoma”si Iskandarni faylasuf-shoh sifatida taqdim etadi, uning missiyasi harbiy bosqinchilikdan tashqari, intellektual va axloqiy ma’rifatni ham qamrab olgan. Xuddi shunday, Firdavsiyning “Shohnoma”si ham Iskandarni fors podshohlari avlodiga qo‘shib, uni fors monarxiyasi an’analari bilan uyg‘unlashtiradi. Bu adabiy asarlar Iskandarni fors madaniyatida idrok etishda hal qiluvchi rol o‘ynab, o‘z obro‘-e’tiborini oqlashga intilayotgan keyingi hukmdorlar uchun namuna bo‘ldi [6].

Iskandarning islomiy talqinlari uning afsonaviy mavqeini yanada oshirdi. Qur’on (18:83-98) “Zul-Qarnayn” (Ikki shoxli) nomli figuraga ishora qiladi, ko’plab musulmon olimlari, jumladan, At-Tabariy va Al-Mas’udiy uni Iskandar Zulqarnayn deb atashgan. Bu an’anaga ko’ra, Iskandar o’zining harbiy yutuqlari bilan birga ruhiy hokimiyatini mustahkamlab, Xudo tomonidan ma’qullangan solih hukmdorga aylanadi. Fors va islomiy unsurlarning bunday

uyg‘unligi Iskandarning ham ilohiy yo‘l-yo‘riqli, ham siyosiy jihatdan hukmron bo‘lgan hukmdor sifatidagi kuchli qiyofasini yaratdi [7].

Temuriylar siyosiy mafkurasi va Iskandar siymosining o‘zlashtirilishi

Amir Temurning siyosiy mafkurasiga fors, islom va mo‘g‘ul an’analari chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Beatris Forbes Manz o’zining “Temurlanning yuksalishi va hukmronligi” (1989) kitobida Temur tarixiy va afsonaviy pretsedentlarga tayanib, qanday qilib o’z hukmronligini qonuniylashtirishga harakat qilgani haqida gapiradi. Chingiziylar nasliga tayangan mo’g’ul hukmdorlaridan farqli o’laroq, Chingizxondan to’g’ridan-to’g’ri kelib chiqishi bo’lmagan Temur Iskandar Zulqarnayn kabi fors va islom afsonaviy shaxslarini o’zlashtirib olish kabi muqobil strategiyalarni qo’lladi [4].

Jan Aubin (2000) Temurning fors mafkurasidan foydalanishini yanada o‘rganib, Temuriylar saroyi Temurni Iskandar va Sosoniy podshohlari kabi siymolar bilan bog‘lab, uni umuminsoniy hukmdor sifatida ataylab yaratganligini ta’kidlaydi. Bu aloqalarni mustahkamlashda Temur solnomachilari, xususan, Sharafiddin Ali Yazdiy o‘zining “Zafarnoma”sida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Yazdiy Temurni hukmdor sifatida ko‘rsatadi, uning zabtlari Iskandardagi kabi ilohiy ruxsat bergan va dunyoni adolatli tartib ostida birlashtirishga qaratilgan [1].

R.D.MakChesni va Mariya Eva Subtelni ham Temuriylar tarixnavisligining Temur obrazini yaratishdagi rolini o‘rganib, munozaraga hissa qo‘shadilar. Ularning asarlarida Temur saroyi ziyolilari fors va islom tarixiy rivoyatlarini uning imperatorlik ambitsiyalariga moslashtirish uchun qanday qilib moslashgani ko‘rsatilgan. Temur o‘zini Iskandar bilan bog‘lash orqali nafaqat buyuk bosqinchilarning davomchisi, balki o‘zini kengroq ma’naviy va falsafiy hukmronlik an’analari doirasidagi mavqega ega bo‘ldi [5].

Temuriylar madaniyatida Iskandarning badiiy-me’moriy timsollari

Iskandar afsonasining Temurning o‘zini namoyon etishiga ta’siri faqat tarixiy matnlar bilan cheklanmaydi; temuriylar san’ati va me’morchiligida ham yaqqol ko’rinadi. Liza Golombek va Sheyla Bleyrning temuriylar badiiy an’analariga oid tadqiqotlari Temurning g‘oyaviy da’volarini mustahkamlash uchun tasviriy madaniyat qanday qo‘llanilganligini ochib beradi. Temuriylarning miniatyura rasmlarida Iskandar ko’pincha qahramonlik va podshohlik muhitida tasvirlangan, ba’zan hatto Temur va Iskandar o’rtasida bevosita vizual parallellik ham chizilgan [3].

Temuriylar me’morchiligida ham ana shu g’oyaviy bog’liqlik o’z aksini topgan. Temur davrida qurilgan Samarqanddagi Bibixonim masjidi va Gur-e Amir maqbarasi kabi ulug‘vor inshootlarda Temurning ilohiy marhamati va imperatorlik qarashlari ramzi bo‘lgan elementlar – ko‘pincha Iskandar bilan bog‘liq atributlar mavjud edi. Temuriylar yodgorliklarida topilgan bitiklarda ba’zan Iskandarning afsonaviy sayohatlari va istilolari haqida so‘z yuritilib, Temur saltanatini buyuk bosqinchi merosi bilan yanada bog‘lagan.

Ushbu tadqiqot birlamchi manbalar, fors adabiy matnlari va temuriylar tasviriy madaniyatini o‘rganib, Temur o‘zining podshohlik qiyofasini yaratishda Iskandar afsonasidan

qanday foydalangani to‘g‘risida yaxlit tushuncha berish orqali bu bo‘shliqni bartaraf etishga qaratilgan.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda Amir Temurning Iskandar Zulqarnayn talqinini tahlil qilishda tarixiy, adabiy va badiiy tahlillarni o‘zida mujassamlashtirgan holda ko‘p tarmoqli yondashuv qo‘llaniladi. Temuriylar davriga oid birlamchi tarixiy manbalar, jumladan Sharafiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”si Temur saroyi yilnomachilari uning obrazini Iskandarga nisbatan qanday qurganligini tushunish uchun o‘rganiladi. Bu manbalar Iskandar afsonasining evolyutsiyasi va temuriylar davridagi moslashuvini kuzatish uchun At-Tabariy va Al-Mas’udiy kabi oldingi fors va islom tarixnavislik matnlari bilan taqqoslanadi.

Tadqiqotda, shuningdek, Iskandarning faylasuf shoh va ilohiy hukmdor sifatidagi idrokini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynagan mumtoz fors asarlari, jumladan Nizomiyning “Iskandarnoma”si va Firdavsiyning “Shohnoma”si tahlili uchun adabiy tanqiddan foydalaniladi. Tadqiqot Temuriylar davridagi she’r va yozuvlarni o‘rganib, Temur va uning ziyolilar doirasi uning qonuniyligini mustahkamlash uchun bu rivoyatlarni qanday o‘zlashtirganini o‘rganadi.

San’at tarixi tahlili temuriylar miniatyura rasmlari, me’moriy yozuvlar va qirollik timsollarini o‘rganishda qo‘llaniladi. Tadqiqot Bibixonim masjidi va Gur-e Amir maqbarasi kabi inshootlardagi motivlarga, shuningdek, fors miniatyura rasmidagi badiiy tasvirlarga e’tibor qaratib, Iskandar va Temurning vizual tasvirlarini o‘rganadi. Tangalar va qirollik timsollarini tekshirish temuriylar targ‘ibotidagi Temur va Iskandar o‘rtasidagi ramziy aloqani yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Bundan tashqari, Temurning Iskandar afsonasidan kengroq tarixiy doirada foydalanishini kontekstlashtirish uchun qiyosiy tahlil o‘tkaziladi. Bunga Iskandar merosiga murojaat qilgan Abbosiylar, Safaviylar va Usmoniylar kabi boshqa hukmdorlar bilan solishtirish, shuningdek, temuriylar mafkurasiga mo‘g‘ul va fors ta’sirini tahlil qilish kiradi. Ushbu yondashuvlarni sintez qilish orqali tadqiqot Temur Iskandar Zulqarnayn qiyofasini umumbashariy podshohlikka da’vosini mustahkamlash uchun qanday qilib strategik jihatdan o‘zlashtirgani haqida har tomonlama tushuncha beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Natijalar

Tadqiqot Amir Temurning Iskandar Zulqarnayn haqidagi talqini uning hukmronligini qonuniylashtirishga qaratilgan ataylab qilingan mafkuraviy strategiya ekanligini ko‘rsatadi. Tarixiy manbalar, adabiy asarlar va badiiy tasvirlarni tahlil qilish bir nechta muhim xulosalarni ajratib ko’rsatadi:

Tarixiy qonuniyat: Temuriylar yilnomalarida, xususan, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida Temur Iskandarga o‘xshash ilohiy rahbar sifatida tasvirlangan. Temurning ajdodlari Chingiziylar bo‘lmagani uchun u o‘zining umuminsoniy hukmdor sifatida qonuniyligini isbotlash uchun Iskandar rivoyatini qabul qildi.

Adabiy ta’sir: Nizomiyning “Iskandarnomasi” va Firdavsiyning “Shohnoma”si kabi fors adabiy an’analari Temurning o‘zini namoyon etishini shakllantirgan. Temuriylar saroy shoirlari va tarixchilari bu rivoyatlarni qayta talqin qilib, Temurning zabtlarini Iskandarning afsonaviy sayohatlari bilan uyg‘unlashtirganlar.

Tasviriy va me’moriy tasvir: Temuriylar davri miniatyuralarida Iskandar ko‘pincha Temurni eslatuvchi tarzda tasvirlangan. Monumental arxitekturada, jumladan Bibixonim masjidi va Gur-e Amir maqbarasida Temurning Iskandar merosi bilan aloqadorligini mustahkamlovchi yozuvlar va ramziy ma’lumotlar mavjud.

Qiyosiy hukmronlik: Boshqa islom va fors hukmdorlari Iskandarga ishora qilgan bo‘lsalar, Temurning o‘z merosiga da’vosi saroy adabiyoti, tasviriy madaniyat va siyosiy mafkurada chuqurroq joy olgan.

Muhokama

Natijalar shuni ko’rsatadiki, Temurning Iskandar qissasidan foydalanishi shunchaki tarixiy shaxsga hurmat emas, balki siyosiy va mafkuraviy maqsadlarda strategik vosita bo’lgan. Chingiziylar avlodi orqali o‘z hukmronligini oqlagan mo‘g‘ul hukmdorlaridan farqli o‘laroq, Temur qonuniylikning boshqa shaklini qurishga majbur bo‘ldi. O’zini Iskandar bilan birlashtirib, Temur o’zini ilohiy tanlangan hukmdor sifatida ko’rsatdi, uning zabtlari oddiy harbiy yurishlar emas, balki Iskandarning dunyo tartibining davomi edi.

Bu obrazning shakllanishida fors adabiyotining o‘rni katta. Nizomiyning “Iskandarnomasi” va Firdavsiyning “Shohnoma”si allaqachon Iskandarni faylasuf-shoh va ilohiy hukmdorga aylantirgan, Temur saroy ziyolilari uni yanada moslashtirgan. Bu moslashuv Temurga fors va islomiy auditoriyani jalb qilish imkonini berdi va uning hukmronligini harbiy kuchdan tashqari mustahkamladi.

Temurning Iskandar bilan aloqasini mustahkamlashda san’at va me’morchilik ham hal qiluvchi rol o‘ynadi. Iskandar obrazlarini miniatyuralar, qirollik yozuvlari va me’moriy loyihalarga kiritish orqali Temur o‘zining afsonaviy bosqinchi bilan aloqadorligini vizual tarzda tasdiqladi. Vizual madaniyatdan strategik foydalanish siyosiy mafkura bir nechta vositalar orqali qanday mustahkamlanganligini ko’rsatadi.

Safaviylar va Usmonlilar kabi keyingi hukmdorlar bilan qiyosiy tahlil Temurning Iskandar afsonasiga o‘ziga xos yondashuvini ko‘rsatadi. Boshqa hukmdorlar Iskandarga ishora qilgan bo‘lsalar, Temur afsonani uning shaxsiga chuqur singdirib, undan o‘z imperiyasini birlashtirish va umuminsoniy podshohlikka da’vosini mustahkamlash uchun foydalangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda maqola shuni ko‘rsatadiki, Amir Temurning Iskandar Zulqarnayn haqidagi talqini o‘z hukmronligini qonuniylashtirish va umuminsoniy hukmdor sifatidagi qiyofasini mustahkamlash uchun qo‘llanilgan puxta tuzilgan mafkuraviy vosita bo‘lgan. Afsonaviy bosqinchi shaxsini qabul qilib, Temur o’zini yaxshi shakllangan tarixiy va adabiy an’analar doirasida joylashtirdi, unda Iskandar ilohiy rahbar, faylasuf shoh va dunyo zabt etuvchi sifatida tasvirlangan. Temur saroy tarixchilari, xususan, “Zafarnoma”da uning ilohiy

missiyasini ta’kidlab, Iskandarning afsonaviy istilolari bilan bevosita o‘xshashlik ko‘rsatdilar. Fors adabiy an’analari, jumladan Nizomiy va Firdavsiy asarlari Temurni Iskandarning qonuniy davomchisi sifatida ko‘rsatishga moslashtirilib, uning fors va islomiy tomoshabinlar orasida qonuniyligini ta’minladi. Bundan tashqari, temuriylar tasviriy madaniyati, jumladan, miniatyura rasmlari va monumental arxitektura bu rivoyatni mustahkamlashda hal qiluvchi rol o‘ynagan. Temuriylar davri qo‘lyozmalarida Iskandarning badiiy tasvirlari va me’moriy bitiklardagi ramziy ma’lumotlar Temurning afsonaviy siymo bilan aloqasini yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Iskandar merosiga murojaat qilgan boshqa hukmdorlar bilan qiyosiy tahlil Temurning afsonani o‘ziga xos va keng o‘zlashtirganini ko‘rsatadi. Iskandarga tanlab murojaat qilgan Safaviylar va Usmoniylar kabi keyingi sulolalardan farqli o’laroq, Temur afsonani o’zining siyosiy mafkurasiga chuqur singdirib, undan o’z imperiyasini birlashtiruvchi kuch sifatida foydalangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. - Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1948.

2. Алишер Навоий. *Хазойин ул-маоний*. (Ҳ.Сулаймон,). – Тошкент: Фан,1983.

3. Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. - Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1968.

4. Valixo‘jayev B. Mumtoz siymolar. II jildlik, II jild. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002.

5. Davlatov O. Alisher Navoiy va Amir Temur. - Ziyo.uz sayti. 2016

6. Hayitmetov A: Navoiyxonlik suhbatlari; Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик. — Тошкент: "Тамаддун", 2021..

7. G‘aniyeva S: Navoiyxonlik suhbatlari. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик. 11 жилд. — Тошкент: "Тамаддун", 2021.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

СОМАТИЗМЫ КАК ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ

Муратова Нозанин Музаффаровна
преподаватель кафедры русской филологии ФерГУ

Аннотация В статье рассматриваются соматизмы как самостоятельный лингвистический феномен, охватывающий лексику, связанную с телесностью человека. Анализируется структура и семантика соматических лексем в русском языке, их метафорическое и символическое переосмысление, а также функционально-стилистическое разнообразие в различных типах дискурса. Особое внимание уделяется концептуализации частей тела в языковом сознании носителей, а также роли соматизмов в формировании фразеологических единиц и идиом.

Ключевые слова: соматизмы, части тела, лингвокультурология, фразеология, метафора, когнитивная лингвистика, телесность, семантика, языковая картина мира, идиомы.

Современное языкознание приобретает всё более междисциплинарный характер. К анализу языка интегрируются такие области, как психология, философия, культурология, социология, информационные технологии, биолингвистика. Например:

нейролингвистика исследует связь языка и деятельности мозга;

компьютерная лингвистика – язык искусственного интеллекта, системы перевода, чат-боты;

гендерная лингвистика – различия в речи мужчин и женщин.

Современная лингвистика отходит от жёстких грамматических моделей и анализирует язык во взаимодействии с социальными, культурными, когнитивными и технологическими системами. Это расширяет возможности лингвистики и превращает её в интерактивную, современную и гуманистическую науку. Сегодняшняя лингвистика – это путь к пониманию человека через язык, его мировоззрения, культуры, сознания и места в обществе.

Соматизмы в лингвистике – это слова (преимущественно имена существительные), обозначающие части тела человека или животного. Термин происходит от греч. *sōma* – «тело». Изначально слово «соматический» употреблялось в медицине в значении «телесный, относящийся к телу» (в противоположность «психическому»). В научный обиход понятие соматизм было введено финно-угроведом Ф.О. Вакком, который впервые

применил его при анализе эстонских фразеологизмов, содержащих названия частей тела[96]. Вакк заключил, что соматическая фразеология относится к одному из древнейших пластов языка и включает наиболее частотные, базовые единицы лексики. Действительно, соматическая лексика представляет собой одну из универсальных и древнейших групп слов в любом языке. Человек с доисторических времён осмыслял себя и окружающий мир через призму собственного тела и ощущений, возникающих при участии органов чувств и частей тела. Поэтому названия частей тела составляют универсальный пласт словарного фонда, присущий всем языкам мира, и выступают продуктивной основой для семантических переносов (метафор) и образования устойчивых выражений.

Соматизмы обладают конкретным, предметным значением – они называют части физического тела, но при этом характеризуются богатым потенциалом переносных значений. Многие соматизмы полисемичны: например, слово *«голова»* помимо прямого значения («часть тела») имеет значения «ум, умственные способности», «глава, руководитель» и др.; *«рука»* может означать не только конечность, но и умение (*«рука набита»*), власть или причастность (*«рука руку моет»*), помощника (*«правая рука»*) и т.д. Подобная семантическая многоплановость обусловлена тем, что части тела издавна служат источником метафоризации: на их основе люди осмысляют абстрактные понятия через конкретные образы тела. В частности, во многих культурах «сердце» ассоциируется с чувствами и переживаниями (любовь, сожаление, смелость), «голова» – с разумом, интеллектом или их отсутствием, «руки» – с навыками, трудом или, напротив, бездельем, «глаза» – со зрением и знанием, «язык» – с речью и общением, «ноги» – с передвижением, самостоятельностью и т.д. Таким образом, соматизмы образуют ядро базовых понятий, через которые человек структурирует опыт; это объясняет их высокую частотность и богатую семантическую сочетаемостьelib.bspu.byelib.bspu.by. Соматическая лексика относится к зоне конкретной лексики, описываемой «без обращения к энциклопедическим сведениям»; при её описании важен вопрос, что является семантически первичным – анатомическая форма или функция. Согласно А. Вежбицкой[97], для внешних частей тела достаточно топографического (пространственного) определения, тогда как для внутренних органов требуется смешанное функционально-топографическое толкование, учитывающее и расположение, и роль органа[98]. Таким образом, значения соматизмов раскрываются через комбинацию признаков формы, положения в теле и выполняемой функции.

В подавляющем большинстве соматизмы принадлежат к классу существительных, называющих конкретные объекты (конкретная субстантивная лексика). Грамматически

[96]Вакк Ф. О. О соматической фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореферат дис. … канд. филол. наук. Таллин, 1964.
[97] Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. М., 1999
[98] Там же.

это обычно имена собственных частей тела, которые могут иметь категориальные особенности в разных языках. Например, в русском языке названия частей тела обычно употребляются с притяжательным местоимением только при необходимости уточнения, тогда как в английском – практически всегда (*«у меня болит голова» – “I have a headache”*, досл. «моя голова болит»). Соматизмы могут образовывать уменьшительные и оценочные формы (*ручища, головёнка, носище* и др.), а также дериваты (прилагательные типа *головной, ручной, сердечный*). В составе устойчивых выражений соматизмы нередко употребляются в особых синтаксических формах: например, в русских фразеологизмах встречаются исторические падежные формы (*сломя голову* – деепричастный оборот, буквально «сломав голову», со значением *«очень быстро, стремглав»*), особые числовые формы (*точить лясы* – множественное число слова *«ляз»*, устаревшего названия челюсти, со значением *«болтать попусту»*) и др. Подобные архаичные грамматические формы сохраняются в идиомах, подчёркивая их устойчивость. В целом же, с точки зрения морфологии, соматизмы – это обычные именные единицы языка, способные склоняться (в языках флективного строя, как русский) или принимать показатели притяжательности (в тюркских языках и др.), согласуясь с грамматическими нормами данного языка.

В научной литературе предложены различные подходы к классификации соматической лексики. Прежде всего соматизмы разделяют по анатомическому принципу – в зависимости от того, какую часть тела они называют. Выделяются группы соматизмов, соотносимые с основными областями тела человека[99], например: названия наружных частей тела (голова, рука, нога, глаз и др.), названия частей лица (глаз, нос, рот, ухо, щека…), названия внутренних органов (сердце, печень, лёгкие, желудок и т.п.), названия элементов костной системы (кость, череп, позвоночник…), наименования органов чувств (язык как орган вкуса, глаз как орган зрения и т.д.), а также других систем организма (кровь, кожа, нервы и пр. – хотя они не являются частями тела в узком смысле, они напрямую связаны с телом). Сходную систематизацию предложил А.М. Кочеваткин[100], разделив всю соматическую лексику на группы: сомонимическая (наружные части и области тела), сплахнонимическая (внутренние органы), ангионимическая (кровеносная система), остеонимическая (костная система) и сенсонимическая (органы чувств) Такой классификационный подход отражает объективное строение тела человека.

[99] О.В.Старых. СОМАТИЗМЫ КАК ОСОБЫЙ КЛАСС СЛОВ В ЛЕКСИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ ЦЕРКОВНОСЛАВЯНСКОГО ЯЗЫКА. – Вестник ПСТГУ III: Филология 2011. Вып. 2 (24). – С.80–85.

[100] Кочеваткин А. М. Соматическая лексика в диалектах эрзянского языка (лингвогеографический анализ): Дис. … канд. филол. наук. Саранск, 1999.

Существует также классификация по происхождению и универсальности соматизмов. Р.М. Вайнтрауб[101] выделил две группы: *натуральные* и *конвенциональные* соматизмы.

Натуральные – это названия основных частей тела, которые формируются естественным образом в любом языке на базе общечеловеческого опыта (например, *голова, рука, нога* и др. есть во всех языках мира). Их появление обусловлено законами человеческого мышления и одинаковостью физического строения людей, поэтому такие соматизмы являются универсальными.

Конвенциональные соматизмы связаны с осмыслением тела в специфических условиях культуры каждого народа; к ним относятся, к примеру, такие единицы, как *«душа»* в русском языке. Понятие *«душа»* не является материальной частью тела, однако в русской языковой картине мира оно воспринимается как внутренняя сущность человека, аналогичная «органу» чувств или переживаний. Вайтрауб относит *«душу»* к соматизмам условно, как продукт культурных традиций, и подчеркивает, что подобные конвенциональные единицы характерны не для всех языков, а лишь для отдельных культур.

Помимо этого, исследователи предлагают критерий функциональной значимости соматизмов. Так, А.О. Кармышков[102] разделил соматизмы на:

1) лексические соматизмы, обязательные для обозначения частей тела (например, *голова, рука* и пр.);

2) названия элементов систем организма (*кость, кожа, кровь* и т.д.), которые связаны с телом, хотя прямо не обозначают внешнюю часть тела;

3) слова, не включаемые им в корпус соматизмов ввиду отсутствия функциональной обязательности – например, *слеза, пот*, поскольку они не являются постоянными «частями» организма, а лишь его выделениями. Данный подход довольно узкий и спорный, но он акцентирует различие между центральными, неизменными элементами тела и вторичными, непостоянными явлениями.

Наконец, важна классификация соматизмов по семантико-прагматическим функциям, то есть по тем смысловым и коммуникативным ролям, которые они играют в языке. Соматизмы – частый компонент фразеологии, и их роль в устойчивых оборотах позволяет делить такие выражения на тематические группы, отражающие ключевые аспекты характеристики человека. Благодаря антропоморфности языка, фразеологизмы с названиями частей тела группируются вокруг нескольких коннотативных центров в семантическом поле «Человек»: внешний облик, характер, умственные способности, эмоциональное состояние, физические действия. Соответственно, можно говорить о

[101]Вайнтрауб Р. М. Опыт сопоставления соматической фразеологии в славянских языках // Вопросы фразеологии. – 1998. – №3. – С. 157–162

[102] Кармышков А.О. Соматические фразеологизмы в русском и кыргызском языках: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Бишкек, 1992.

фразеологических объединениях соматизмов по темам: например, идиомы, описывающие внешность человека (*«как с иголочки» – досл. «одетый с иголки», соматism: иголка – о аккуратно одетом человеке), выражения, характеризующие черты характера или интеллекта («семь пятниц на неделе» – о непостоянном человеке; «без царя в голове» – о глупце; «широкая душа» – о великодушном, открытом человеке), фразеологизмы для обозначения эмоций и чувств (*«душа в пятки ушла» – о внезапном страхе; *«сердце разрывается»* – о глубокой тоске; *«на сердце кошки скребут»* – о грусти и беспокойстве) и т.д. Кроме того, по прагматике высказывания можно различать соматические выражения с положительной или отрицательной оценкой, нейтральные и эмоционально-экспрессивные, официально-книжные и разговорно-просторечные. Например, с компонентом *«голова»* в русском языке существует целая гамма фразеологизмов с разной коннотацией: *«золотая голова»* (высокая положительная оценка ума или таланта), *«горячая голова»* (негативно: горячность, склонность к поспешным решениям), *«дурная голова»* (бранно: глупец), *«голова садовая»* (иронично-пренебрежительное прозвище недалёкого человека) и т.п. Стилистическая окраска соматических единиц тесно связана с национально-культурным контекстом, о чём скажем подробнее ниже.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Вакк Ф. О. О соматической фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореферат дис. … канд. филол. наук. Таллин, 1964.

2. Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. М., 1999.

3. О.В.Старых. СОМАТИЗМЫ КАК ОСОБЫЙ КЛАСС СЛОВ ЛЕКСИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ ЦЕРКОВНОСЛАВЯНСКОГО ЯЗЫКА. – Вестник ПСТГУ III: Филология 2011. Вып. 2 (24). – С.80–85.

4. Кочеваткин А. М. Соматическая лексика в диалектах эрзянского языка (лингвогеографический анализ): Дис. … канд. филол. наук. Саранск, 1999.

5. Вайнтрауб Р. М. Опыт сопоставления соматической фразеологии в славянских языках // Вопросы фразеологии. – 1998. – №3. – С. 157–162

6. Кармышков А.О. Соматические фразеологизмы в русском и кыргызском языках: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Бишкек, 1992.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

JAHON VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIK VA PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING O‘RGANILISHI

O‘rinova Sayyora Xolmirzayevna
TDYU huzuridagi Namangan viloyat akademik litseyi
“Tillar” kafedrasi ona tili va adabiyoti fani
bosh o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada o‘zbek tilining frazeologik tizimi har tomonlama chuqur tahlil qilinadi. Jumladan, frazeologizmlarning kelib chiqishi, semantik boyligi, grammatik struktura va uslubiy xususiyatlari nazariy va amaliy nuqtai nazardan yoritilgan. Tadqiqotda frazeologik birliklar xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, mentaliteti va milliy tafakkurining ifodasi sifatida qaraladi. Shuningdek, frazeologizmlarning obrazlilik darajasi, ularning ko‘chma ma’noli ifoda vositasi sifatidagi ahamiyati, nutqdagi ekspressivlik va emotsionallikni oshirishdagi roli alohida o‘rganiladi. Maqolada frazeologik birliklarning okkazional qo‘llanilishi, stilistik qatlamlarga ko‘ra farqlanishi, funksional-sintaktik imkoniyatlari, poetik tilda qo‘llanishi ham tahlil qilinadi. Turli tilshunoslar tomonidan berilgan ta’riflar solishtirilib, umumlashma xulosa chiqarilgan. Muallif o‘zbek tilidagi frazeologizmlarning tasnifi va ularning xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liqligiga ham to‘xtaladi. Tadqiqot natijalari frazeologiyaning tilshunoslikdagi o‘rni va amaliy ahamiyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, o‘zbek tili, semantika, stilistika, xalq og‘zaki ijodi, obrazlilik, ekspressivlik, mentalitet, funksional-sintaktik tahlil, tilshunoslik.*

Annotation This article provides a comprehensive analysis of the phraseological system of the Uzbek language. It explores the origin of phraseological units, their semantic richness, grammatical structure, and stylistic features from both theoretical and practical perspectives. The study views phraseological expressions as reflections of the people's historical memory, worldview, mentality, and national thinking. Particular attention is paid to the degree of imagery, their role as figurative expressions, and their function in enhancing expressiveness and emotionality in speech. The article also examines occasional uses of phraseological units, their classification according to stylistic layers, functional-syntactic features, and application in poetic language. Definitions given by various linguists are compared and summarized. The author highlights the classification of Uzbek phraseological expressions and their connection to oral folk art. The findings contribute to expanding the role and practical significance of phraseology in linguistic studies.

Keywords: *phraseologism, Uzbek language, semantics, stylistics, oral folk art, imagery, expressiveness, mentality, functional-syntactic analysis, linguistics.*

Аннотация В данной статье всесторонне анализируется фразеологическая система узбекского языка. Рассматриваются происхождение фразеологизмов, их семантическое богатство, грамматическая структура и стилистические особенности с теоретической и практической точек зрения. Фразеологические единицы рассматриваются как отражение исторической памяти народа, мировоззрения, менталитета и национального мышления. Особое внимание уделяется степени образности, значению фразеологизмов как переносных выражений, а также их роли в повышении экспрессивности и эмоциональности речи. Также анализируется окказиональное употребление фразеологизмов, их разграничение по стилистическим уровням, функционально-синтаксические возможности и использование в поэтическом языке. Сравниваются и обобщаются определения, данные различными лингвистами. Автор также обращается к классификации фразеологизмов в узбекском языке и их связи с устным народным творчеством. Результаты исследования способствуют расширению значения и практической ценности фразеологии в лингвистике.

Ключевые слова: *фразеологизм, узбекский язык, семантика, стилистика, устное народное творчество, образность, экспрессивность, менталитет, функционально-синтаксический анализ, лингвистика.*

Kirish

Har bir millatning madaniyati, tarixiy tajribasi va dunyoqarashi, avvalo, uning tilida, ayniqsa, tildagi o‘ziga xos iboralarda – frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topadi. (Mahmudov, 2005: 12–13). Frazeologiya – bu nafaqat tilshunoslikning muhim sohasi, balki xalq ruhiy dunyosining, milliy mentalitetining, ijtimoiy-siyosiy tajribasining ham aksidir. (Madvaliev, 2003: 7) O‘zbek tilining frazeologik tizimi boy, rang-barang va ko‘p qatlamli bo‘lib, unda o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan urf-odatlari, an’analari, qadriyatlari, estetik qarashlari mujassamdir. (Madvaliev, 2003: 15–16).

So‘nggi yillarda tilshunoslikda frazeologik birliklarni faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki madaniy antropologik va sotsiolinguistik fenomen sifatida ham o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Bunday yondashuv frazeologizmlarning chuqurroq semantik qatlamlarini ochib berishga, ularning xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liqligini va uslubiy imkoniyatlarini kengroq yoritishga zamin yaratadi.

Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi frazeologizmlarning kelib chiqishi, semantik boyligi, grammatik va stilistik xususiyatlari, obrazlilik darajasi hamda ularning poetik tildagi qo‘llanishi ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan chuqur o‘rganiladi. Tadqiqot, shuningdek, frazeologik birliklarning funksional-sintaktik imkoniyatlarini ochib berishga ham qaratilgan bo‘lib, bu holat ularni nutqiy jarayonda to‘g‘ri va samarali qo‘llashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologiya nafaqat tildagi barqaror iboralar majmui, balki xalq tafakkuri, mentaliteti va milliy ruhining ko‘zgusidir. Shu boisdan ham mazkur mavzuni tadqiq etish, uni ilmiy-nazariy asoslash va tilshunoslikdagi o‘rni hamda ahamiyatini aniqlash bugungi tilshunoslik ilmi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda frazeologik birliklarning mazmuni va ularning adabiy nutqdagi funksional imkoniyatlarini aniqlash maqsadida bir nechta ilmiy-tahliliy yondashuvlar qo‘llanildi. Xususan, **tasniflovchi-deskriptiv metod** frazeologik birliklarni tavsiflab berish, ularning strukturaviy va semantik xususiyatlarini ochib berishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qildi. (Begmatov, 2010: 22) **Qiyosiy-tipologik yondashuv** orqali o‘zbek adabiy tilida va xalq og‘zaki ijodida mavjud bo‘lgan frazeologizmlar o‘zaro solishtirildi, ularning umumiylik va farqli jihatlari aniqlab chiqildi. (Eshonqulov, 2020: 45)

Shuningdek, frazeologik birliklarning poetik matnlardagi estetik vazifasini ochib berishda **lingvopoetik tahlil** metodidan foydalanildi. (Yo‘ldoshev, 2019: 33) Bu usul badiiy kontekstda frazeologizmlarning ma’no rang-barangligi va emotsional yuklamasini tahlil qilishga yordam berdi.

Tadqiqot obyekti sifatida **O‘zbek adabiy tili va xalq og‘zaki ijodida qo‘llaniladigan frazeologik birliklar** tanlab olindi. Ular **semantik, uslubiy va sintaktik mezonlar** asosida chuqur tahlil qilindi. Frazeologik birliklarning ichki shakli, tashqi tuzilishi, emotsional-ekspressiv qiymati hamda konnotativ ma’nolari keng miqyosda o‘rganildi.

Bundan tashqari, A. Madvaliev, N. Mahmudov, E. Begmatov kabi taniqli o‘zbek tilshunoslarining frazeologiyaga oid ilmiy qarashlari, berilgan ta’rif va tasniflari o‘zaro **solishtirma tahlil** asosida o‘rganildi, ularning nazariy yondashuvlari ushbu tadqiqotga nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. Bu esa mavzuga yanada chuqur ilmiy yondashuvni ta’minladi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilidagi frazeologik birliklar tilimizda ko‘chma ma’noni ifodalovchi muhim vosita sifatida keng qo‘llanadi. (Xolmatov, 2017: 68) Ular nutqga obrazlilik, emotsional ifodalilik, uslubiy boylik kabi xususiyatlarni olib kiradi. Ayniqsa, badiiy adabiyotda ushbu birliklarning qo‘llanishi matnning estetik ta’sirini kuchaytiradi. Frazeologizmlarning poetik tildagi faolligi ularning obrazlilik darajasining yuqoriligi va o‘quvchi yoki tinglovchida muayyan tasavvur uyg‘otish qobiliyati bilan izohlanadi. (Norqulova, 2021: 52)

Tahlillar natijasida frazeologik birliklarning okkazional qo‘llanishi yozuvchi yoki so‘zlovchining individual uslubini belgilashda muhim omil ekani aniqlandi. (Begmatov, 2010: 61) Bunday holatlar adabiy tilning boy imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi hamda tilshunoslikda stilistik izlanishlar uchun yangi ufqlarni ochadi. Shuningdek, ushbu birliklarning sintaktik strukturalardagi o‘rni, gap bo‘laklari sifatidagi ishtiroki, funksional yuklamasi hamda stilistik qatlamlar (rasmiy, og‘zaki, poetik va b.) bo‘yicha farqlanishi kuzatildi. Bu esa ularni tizimli va kompleks tahlil qilish zaruratini tasdiqlaydi.

Munozara

Frazeologizmlar o‘zbek xalqining og‘zaki ijodi va tarixiy-tarixiy tafakkuri mahsuli sifatida milliy tilning asosiy bo‘g‘inini tashkil etadi. (Mahmudov, 2005: 98). Ular nafaqat kommunikativ vosita, balki milliy ong va mentalitetni aks ettiruvchi madaniy belgilar majmui sifatida ham e’tiborni tortadi. Ba’zi hollarda ularning kelib chiqishi arxaik unsurlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu holat o‘zbek tilining izchil taraqqiyoti va tarixiy bosqichlarini yoritishda muhim tilshunoslik manbaiga aylanadi.

Ushbu tadqiqot doirasida aniqlanganidek, frazeologizmlarning poetik matnlardagi roli nihoyatda ahamiyatlidir. Ular obrazlilik, emotsionallik, ekspressivlik kabi nutqiy sifatlarni kuchaytiradi hamda yozuvchi uslubini individuallashtirishda faol ishtirok etadi. Xususan, okkazional frazeologizmlarning ishlatilishi adibning badiiy mahorati va uslubiy yangilikka intilishini ifodalaydi.(Eshonqulov, 2020: 112)Bunday holatlar nafaqat lingvistik, balki stilistik, semiotik va madaniy nuqtai nazardan ham o‘rganilishi lozim bo‘lgan fenomen sanaladi.

Frazeologik birliklarning funksional-sintaktik imkoniyatlari ularning har xil grammatik rollarda ishtirok etishini va turli stilistik qatlamlarda faol ishlatilishini ko‘rsatdi. Jumladan, ular oddiy nutqdan tortib poetik, publitsistik va dramatik uslublargacha bo‘lgan keng maydonda uchraydi. Ayniqsa, badiiy adabiyotda ular orqali asar syujeti, obrazlar psixologiyasi va muallif munosabati yanada chuqurroq ifodalanadi. Bu esa frazeologizmlarni psixolingvistik nuqtai nazardan ham tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi, chunki ular inson tafakkurining tuzilishi va so‘zlashuvdagi emotsional yuklamalarni ochib beradi.

Shuningdek, o‘zbek tilida frazeologizmlarning ko‘p qavatli ma’nosi (polysemiyasi) va ko‘chma mazmuni ularni o‘quvchi yoki tinglovchida kuchli semantik assotsiatsiyalar uyg‘otuvchi vositaga aylantiradi. Bu jihat ularning kommunikativ yukini oshiribgina qolmay, balki matnning estetik qadrini ham belgilaydi. Ular orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, madaniy yodgorliklari va tarixiy xotirasi ifodalanadi.

Demak, tadqiqotdan anglashiladiki, frazeologik birliklar faqat til birligi sifatida emas, balki madaniy-milliy identifikatsiyaning muhim komponenti bo‘lib xizmat qiladi. Ularni har tomonlama tadqiq qilish o‘zbek tilshunosligining nazariy va amaliy asoslarini boyitishga xizmat qiladi.

Xulosa

Frazeologik birliklar nafaqat tilning badiiy-estetik boyligini aks ettiruvchi vosita, balki xalqning asrlar davomida shakllangan milliy tafakkuri, tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va ruhiy olamining ko‘zgusidir. Ushbu tadqiqot davomida aniqlanishicha, frazeologizmlar o‘zbek tilida faqatgina ifoda vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy-ma’naviy hodisa sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ularning semantik qatlamlari, stilistik ko‘p funksionalligi va kontekstga mos ravishda o‘zgaruvchan tabiatini tahlil qilish o‘zbek tilshunosligining dolzarb yo‘nalishlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. (Norqulova, 2021: 129)

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, frazeologizmlar uslubiy qatlamlar bo‘yicha farqlanibgina qolmay, balki har bir uslubiy kontekstda yangi semantik yuklamaga ega bo‘ladi. Ayniqsa,

adabiy-badiiy nutqdagi obrazlilik va emotsional-ta’sirchanlikni kuchaytirishda ular muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday birliklarning ma’no ko‘lami faqat lug‘aviy tafsir bilan cheklanib qolmay, balki ularning madaniy asoslarini, xalq og‘zaki ijodidagi ildizlarini, funksional qirralarini hisobga olgan holda yondashishni talab etadi.

Mazkur maqolada keltirilgan ilmiy xulosalar va kuzatuvlar o‘zbek frazeologiyasining nazariy asoslarini yanada boyitish, amaliy qo‘llanish doiralarini kengaytirish hamda frazeologizmlarni lingvokulturologik va stilistik nuqtai nazardan chuqur tadqiq etishga turtki bo‘lishi mumkin. (Xolmatov, 2017: 140). Tadqiqot natijalari, shuningdek, frazeologik birliklarni tarjima, matn tahlili, kommunikativ strategiyalar va til madaniyatiga oid boshqa yo‘nalishlarda qo‘llash uchun mustahkam metodologik asos yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Begmatov, E.** (2010). *Frazeologiyaning uslubiy qatlamlari* (s. 22, 61). Toshkent: Fan.
2. **Eshonqulov, M.** (2020). *O‘zbek tilida frazeologik birliklarning poetik funksiyasi* (s. 45, 112). Samarqand: Ma’naviyat.
3. **Madvaliev, A.** (2003). *O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati* (s. 7, 15–16). Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
4. **Mahmudov, N.** (2005). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili* (s. 12–13, 98). Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
5. **Norqulova, D.** (2021). *Til va madaniyat: frazeologik birliklarning lingvokulturologik talqini* (s. 52, 129). Buxoro: Ilm ziyo.
6. **Xolmatov, U.** (2017). *Frazeologizmlar: semantika va stilistika* (s. 68, 140). Toshkent: Akademnashr.
7. **Yo‘ldoshev, O.** (2019). *Badiiy matnda frazeologik birliklar* (s. 33). Termiz: Surxon nashriyoti.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

УДК 8.81.44

СОВРЕМЕННЫЕ МОДЕЛИ АВТОМАТИЧЕСКОГО РАСПОЗНАВАНИЯ УЗБЕКСКОЙ РЕЧИ

Авезов Сухроб Собирович
PhD, преподаватель кафедры русского языка и литературы
Бухарский государственный университет
1990senigama@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются новейшие модели и методы автоматического распознавания речи (АРР) для узбекского языка. Обсуждается прогресс в создании открытых корпусов узбекской речи и нейросетевых моделей «speech-to-text», а также их результаты. Особое внимание уделяется лингвистическим факторам, таким как агглютинативная морфология узбекского языка, влияющим на качество распознавания.

Ключевые слова: автоматическое распознавание речи, узбекский язык, агглютинативная морфология, низкоресурсные языки, корпус речи, языковая модель, глубокое обучение, нейронные сети, end-to-end модели

O‘ZBEK NUTQINI AVTOMATIK TANIB OLISHNING ZAMONAVIY MODELLARI

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tili uchun nutqni avtomatik tanib olishning (NAT) eng so‘nggi modellari va usullari tahlil qilinadi. O‘zbek nutqining ochiq korpuslarini va “nutqdan matnga” neyron tarmoq modellarini yaratishdagi yutuqlar hamda ularning natijalari muhokama etiladi. Tanib olish sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi o‘zbek tilining agglyutinativ morfologiyasi kabi lingvistik omillarga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: nutqni avtomatik tanib olish, o‘zbek tili, agglyutinativ morfologiya, kam resursli tillar, nutq korpusi, til modeli, chuqur o‘rganish, neyron tarmoqlar, end-to-end modellar

MODERN MODELS OF AUTOMATIC UZBEK SPEECH RECOGNITION

Abstract. This article examines the latest models and methods of automatic speech recognition (ASR) for the Uzbek language. It discusses the progress in creating open Uzbek speech corpora and “speech-to-text” neural network models, as well as their results. Special attention is paid to linguistic factors, such as the agglutinative morphology of the Uzbek language, which influence the quality of recognition.

Keywords: automatic speech recognition, Uzbek language, agglutinative morphology, low-resource languages, speech corpus, language model, deep learning, neural networks, end-to-end models

Введение. Узбекский язык является государственный язык Узбекистана, однако его системы автоматического распознавания речи (APP) долго отставали из-за дефицита открытых аудиоданных. «Ранние модели строились на крошечных закрытых корпусах и решали узкие задачи, что мешало воспроизводимости и сопоставимости результатов» [1:442]. Ситуация изменилась с появлением открытых корпусов и нейросетевых методов. Несмотря на агглютинативную морфологию и огромный словоформный запас, опыт работы с другими тюркскими языками подтверждает жизнеспособность таких подходов для узбекского. Настоящее исследование подводит итоги текущему развитию APP для узбекского, анализирует существующие ресурсы и модели и обозначает ключевые проблемы дальнейшего прогресса.

Методы и источники исследования. Обзор выполнен аналитико-сравнительным методом. Изучены англо-, русско- и узбекоязычные работы: М.Мусаев, С.Мухсуходжаева, И.Хужаяров, Э.Хасанов, М.Очилов, Х.А,Варол (корпус USC и базовые результаты), А.Мухамадиев, И.Хужаяров, О.Джураев, Ж.Чо (гибридные DNN-HMM и end-to-end модели) [2:58] и сводка ISSAI о мультиязычной системе для десяти тюркских языков, включая узбекский. У.Назиралиев подчёркивает «растущий спрос на APP и необходимость учёта морфологической специфики» [3:38]. Сравнение результатов, выполненное с учётом различий в корпусах и метриках, выявило устойчивые тенденции и лучшие практики разработки узбекских «speech-to-text»-моделей.

Результаты исследования. «USC (2020, 105 ч, 958 дикторов, CC BY 4.0) стал первым эталонным датасетом. Mozilla Common Voice собрал более 200 ч узбекской речи (80 ч верифицировано). FeruzaSpeech (2024, 60 ч, одна дикторша, латиница/кириллица)» [4]. Эти открытые корпусы дают единую базу для обучения и сравнения ASR-моделей.

Таблица 1. Основные речевые корпусы для узбекского языка

Корпус	Объём аудио	Говорящие	Примечания
USC (Uzbek Speech Corpus)	≈105 часов	958	Озвученные тексты (разговорный и книжный стиль), открытый доступ
ozilla Common Voice (узб.)	≈80 часов (валид.)	>2000	Краудсорсинговый сбор данных, лицензия CC0
FeruzaSpeech	60 часов	1	Студийная озвучка книг и новостей, транскрипции на лат. и кир.

Точность моделей. С открытием USC качество узбекского ASR выросло. DNN-HMM дала ≈ 24% WER, а end-to-end bi-LSTM-CTC/Attention – 17,4%.

Мультиязычный ISSAI-подход (10 тюркских языков) снизил ошибку до < 5% по символам (≈10–15 % WER). Подключение языковой модели UzLM (80 млн слов) уменьшило символную ошибку до 5,26%.

Архитектуры и приёмы. Испытаны HMM-основанные, чисто E2E (transformer) и гибридные DNN-HMM + CTC схемы; последняя дала ≈18% WER. Субсловные BPE-128k единицы улучшили dev, но ухудшили тест (+0,7% WER), поэтому предпочли токенизацию целых слов, что указывает на необходимость более тонких морфологических представлений для агглютинативного узбекского.

Обсуждение. Агглютинативность узбекского языка взрывает объём словаря, делая n-gram-LM разреженными и усложняя нейросетевые LM. Возможное решение – «лемматизация или морфемный анализ, попытка использовать 128 k BPE-юнитов улучшила dev, но не тест» [5: 71], поэтому требуется морфологически осведомлённая сегментация. Корпусы охватывают главным образом литературный вариант. диалектное многообразие остаётся непокрытым, хотя мульти-язычная модель ISSAI частично смягчает проблему. Письменность двойная (латиница / кириллица) и в процессе реформы, что обязывает ASR поддерживать конвертацию график и надёжную текстовую нормализацию (числа, даты, аббревиатуры, имена).

С практической точки зрения, реализовать APP для узбекского сегодня проще, чем когда-либо, благодаря наличию открытых моделей и библиотек. Чтобы продемонстрировать это, приведём небольшой пример кода на Python с использованием готовой модели на основе Whisper (fine-tuned на узбекских данных):

```
from transformers import pipeline
asr_pipeline = pipeline("automatic-speech-recognition",
                        model="aslon1213/whisper-small-uz-with-uzbekvoice")
result = asr_pipeline("sample_uzbek_audio.wav")
print(result["text"])
```

Рис. 1. Код на Python с использованием готовой модели на основе Whisper

Предобученные узбекские ASR-модели выкладываются на HuggingFace. Их легко скачать, применить к аудиофайлу и дообучить под узкоспециализированный домен методом transfer learning. Точность оценивают метриками WER и CER, для их расчёта достаточно вызвать библиотеку jiwer.

```
!pip install jiwer
from jiwer import wer
ref = "To'plangan ma'lumotlarimiz testi"
hyp = "To'plangan ma'lumotlarimiz testi"
print("WER:", wer(ref, hyp))
```

Рис. 2. Вызов библиотеки

Заключение. Узбекское ASR прошло путь от малых экспериментов к нейросетевым моделям с точностью 85–95%. Прорыв обеспечили открытые корпусы (USC, FeruzaSpeech) и современные DL-подходы. Остаются задачи: морфология, диалекты, мощные LM и текстовая нормализация. Необходимы новые размеченные данные и адаптация моделей к узбекской специфике. Опора на опыт тюркских языков обещает дальнейший рост качества.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Musaev M., Muxsuxodjaeva S., Khujayarov I., Khassanov E., Ochilov M., Varol H.A. USC: An Open-Source Uzbek Speech Corpus and Initial Speech Recognition Experiments //International Conference on Speech and Computer. – Cham : Springer International Publishing, 2021. – C. 437-447.

2. Mukhamadiyev A., Khujayarov I., Djuraev O., Cho J. Automatic Speech Recognition Method Based on Deep Learning Approaches for Uzbek Language. Sensors 2022, 22, 3683. https://doi.org/10.3390/s22103683

3. Naziraliyev O‘. Nutqni tanib olishni amalga oshirish bosqichlari // Management and Future Technologies. – 2024. – Vol. 1, No. 1. – B. 37–42.

4. Povey A., Povey K. FeruzaSpeech: A 60 Hour Uzbek Read Speech Corpus with Punctuation, Casing, and Context // arXiv preprint arXiv:2410.00035. – 2024.

5. Mukhamadiyev A., Mukhiddinov M., Khujayarov I., Ochilov M., Cho J. Development of Language Models for Continuous Uzbek Speech Recognition System. Sensors 2023, 23, 1145. https://doi.org/10.3390/s23031145

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

AMIRIY IJODIDA JOMI JAM OBRAZINING TURLI TASVIRLARI

Musharrafxon Imomaliyeva Ilhomjon qizi
Qo‘qon universiteti
Pedagogika va psixologiya
kafedrasi katta o‘qituvchisi
Tel: (91) 2002073, e-mail:imomaliyevamusharrafxon@gmail.com

ANNOTATSIYA Ushbu ishda Amiriy ijodida **Jamshid jomi** obrazining turli badiiy talqinlari o‘rganiladi. Jamshid jomi Sharq adabiyotida donishmandlik, kashfiyot va ilohiy haqiqat ramzi sifatida talqin qilinadi. Amiriy asarlarida bu obraz orqali olam sirlarining idrok etilishi, tafakkur va basiratning yuksak darajasi ifodalangan. Tadqiqotda muallifning Jamshid jomiga bergan ramziy, falsafiy va axloqiy ma’nolari tahlil qilinadi hamda ularning tasavvufiy talqin bilan uzviy bog‘liqligi yoritiladi. Bu orqali Amiriy dunyoqarashining chuqurligi va uning badiiy-estetik qarashlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, timsol, obraz, Jamshid jomi, ko‘zgu, maqsad, niyat, izdoshlik.

АННОТАЦИЯ В данной работе рассматриваются различные художественные интерпретации образа Джамшида Джами в творчестве Амири. Джамшид Джами трактуется в восточной литературе как символ мудрости, открытия и божественной истины. В произведениях Амири этот образ выражает восприятие тайн мира, высокий уровень созерцания и прозрения. В исследовании анализируются символические, философские и нравственные смыслы, придаваемые автором образу Джамшида Джами, и подчеркивается их неразрывная связь с мистической интерпретацией. Это раскрывает глубину мировоззрения Амири и его художественно-эстетические взгляды.

Ключевые слова: суфизм, символ, образ, Джамшид Джами, зеркало, цель, намерение, последователь.

ANNOTATION This work studies various artistic interpretations of the image of the Jamshid Jami in Amiri's work. The Jamshid Jami is interpreted in Eastern literature as a symbol of wisdom, discovery and divine truth. In Amiri's works, this image expresses the perception of the secrets of the world, a high level of contemplation and insight. The study analyzes the symbolic, philosophical and moral meanings given by the author to the Jamshid Jami and highlights their inextricable connection with the mystical interpretation. This reveals the depth of Amiri's worldview and his artistic and aesthetic views.

Keywords: Sufism, symbol, image, Jamshid Jami, mirror, goal, intention, follower.

KIRISH

“Ma’lumki, tasavvuf yo‘li − kamolot yo‘li. Tariqatning har bir bosqichi insondagi bir qusurni bartaraf etib, bir fazilatni ziyoda qiladi. Bu yo‘lni bosib o‘tgan inson esa moddiq bog‘liqliklardan butkul qutulib, faqat ruh bilan qoladi. Bunday inson dunyoni, odamlarni, hatto o‘z jismini unutadi, butun fikru zikri yolg‘iz Parvardigori olamga qaratilgan bo‘aldi. Shariat, tariqat va haqiqat bosqichlarini bosib o‘tgan, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, axloqini tarbiyalab, o‘zini ilohiy maqomga yetkazgan bunday odamlar tasavvufda komil inson atalib, so‘fiyona adabiyot boshdan-oyoq insonning kamolotga erishish jarani, bu yo‘ldagi ranju mashaqqatlari, quvonchu tashvishlari, solikning tariqatnin gu yoki bu bosqichidagi o‘y-kechinmalari, muayyan hol yuzlangan so‘fiyning iztirob va jazvalari, haqiqat maqomini egallagan orif insonning ilohiy mahbubaga bo‘lgan his-tuyg‘ulari, uning ilohiy fayzga kon qalbidan qaynab chiqqan hikmatlar ifodasidan iborat. Komil insonlarni madh etish, komil inson qalbining tebranishlarini qalamga olish, kamolot yo‘lida parda bo‘lgan − dunyo, nafs, odamlarni mazammat etish, ilohiy muhabbatni ulug‘lash, so‘fiyona g‘oyalarni targ‘ib-tashviq qilish barcha mutasavvuf shoirlar ijodining asosini tashkil etadi. Chunonchi, Amiriy ijodida o‘zlikdan kechish, fano, foniylik, faqr, vahdat (tavhid), baqo, tavakkul, qanoat, nafsni yengish, dunyoga ko‘ngil bermaslik kabi tasavvufiy tushunchalar, so‘fiy, darvesh, orif, pir, murshid, mayxona piri, dayr piri singari komil inson sifatlari, faqr ahli, fano ahli, sidq ahli, dil ahli kabi tariqat ahlini bildirib keladigan tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq, yagona tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bu so‘z va tushunchalarning o‘zaro bog‘lanib, yaxlit zanjir hosil qilinishi tasavvur qilish uchun komillik yo‘lining ta’rifini keltirishning o‘zi kifoya. Aslida tasavvuf falsafasida ham ular bir-birini taqozo qiladigan, bir-birini to‘ldiradigan tushunchalar hisoblanadi. ma’lumki, kamolot yo‘liga kirgan kishi solik, murid, so‘fiy, toilb, darvesh kabi nomlar, xarobot ahli, faqr ahli, suluk ahli, dayr ahli singari sifatlar bilan yuritiladi. Bu yo‘lni pirsiz bosib o‘tish mumkin emasligi sababidan u o‘ziga dastlab bir murshidi komil tanlaydi. Pir, murshid, piri mayxona, piri maykada, piri dayr, piri mug‘on, piri xammor, soqiy, aqli kull, piri xarobot, piri ishq kabi nomlar bilan esa so‘fiyning kamolo tsari boshlaydigan ikki dunyo siridan ogoh sohibdil inson ulug‘lanadi. Tariqat yo‘liga kirgan solik faqrni shior qilib olib, o‘zlikka qarshi kurash boshlaydi. Bu jarayonda u nafs, dunyo va jism talablarini yengib, o‘zini fano maqomiga yetkazadi, foniy bo‘ladi. Foniylik, fanodan keyin esa baqo keladi. Baqoga yetgan solik Komil inson hisoblanadi. u Haq va xalq orasida vosita bo‘ladi. Uning qalb ko‘zgusi oyinai jahonnamo, Jamshid jomiday bo‘lib. Butun dunyo sir-asrori unda aks etib turadi. Demak, ko‘zgu, Jamshid jomi, oyinai jahonnamo so‘zlari ham Komil inson bilan bog‘liq bo‘lib, uning ilohiy fayz shu’lasidan charaqlab turgan shaffof qalbini bildiradi. Riyozat yo‘llarini bosib o‘tib, komillik maqomini egallagan, Haqqa muqarrab (yaqin) bo‘lgan bunday solih insonlarni so‘fiy, orif, oshiq, rind, sidq ahli, faqr ahli, vasl ahli, ahli dil, ahli tahqiq, ahli ishq, ahli nazar, ahli roz, ahli dard, ahli niyoz, murshidi ishq, piri ishq, fano ahli, ma’no ahli, safo ahli, vafo ahli, aqli kull, sahibasror, ahli haqiqat, porso, ahli karam, tab’ ahli, ahli idrok, himmat ahli, rizo ahli, dayr ahli, shavq ahli, ahli saloh kabi nomlar va sifatlar bilan ataganlar”[1,23].

Bundan tashqari, mumtoz she’riyatda komil inson ko‘z, yuz, og‘iz, lab, bel kabi badiiy timsollar, yor, do‘st, mahbub singari sifatlar bilan ham ta’rif-tavsif etiladi. Bunda yuz − komil insonning ilohiy nurdan charog‘on chehrasini, ko‘z − uning ikki oalm asroridan voqif, muridni imtihon etuvchi, sinovdan o‘tkazuvchi qalb ko‘zini, og‘iz − ilohiy ma’rifatdan ogoh etuvchi so‘zini, lab − bu jonbaxsh kalomning mazmuni, bel − komil inson xayolini, ingichka bel − bu xayolning nozikligini bildiradi va hokazo. Tolib bu og‘izni undan iloghiy kalom yog‘ilishi, bu belni Olloh haqiqatini idrok etar darajada nozikligi uchun sevadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ishida **Amiriy ijodida Jomi Jam obrazining tasvirlanishi** turli jihatlari bilan tahlil qilinadi. Tadqiqotda adabiy tahlil, qiyosiy-tipologik yondashuv va tarixiy-konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi.

Birinchidan, **adabiy-tahliliy yondashuv** orqali Amiriy asarlarida Jomi Jam obrazining ifodalanish uslubi, badiiy vositalar va poetik tafakkur mezonlari aniqlab borildi. Bu orqali obrazning poetik ko‘lami va estetik yuklamasi chuqurroq ochib berildi.

Ikkinchidan, **qiyosiy yondashuv** asosida Amiriyda uchraydigan Jomi Jam obrazlari fors-tojik adabiyoti va Sharq mumtoz she’riyatida mavjud bo‘lgan an’anaviy Jam obrazlari bilan solishtirildi. Ayniqsa, Navoiy, Hofiz, Attor, Nizomiy singari mutafakkirlar ijodidagi mazkur obrazga bo‘lgan yondashuvlar bilan qiyosiy tahlil o‘tkazildi.

Uchinchidan, **tarixiy-kontekstual tahlil** orqali Amiriy yashagan davrning siyosiy-ijtimoiy va madaniy muhitiga e’tibor qaratildi. Bu esa Jomi Jam obrazining shakllanishi va ifodalanishida zamonaviy tafakkur va milliy-madaniy kontekstning tutgan o‘rnini ochib berishga xizmat qildi.

Tadqiqotda **matnlar tahlili** asosiy metod sifatida olib borildi. Amiriy ijodidagi dostonlar, qasida va g‘azallarda Jam obraziga doir badiiy fragmentlar tanlab olinib, ularning semantik, ideologik va poetik jihatlari o‘rganildi. Shuningdek, **intertekstual tahlil** orqali Amiriy tomonidan ishlatilgan diniy, tarixiy va falsafiy matnlar bilan bog‘lanishlar aniqlab borildi.

Tadqiqotda shuningdek quyidagi nazariy manbalarga tayanildi:

1. Sharq she’riyati va timsollar tizimi haqidagi klassik va zamonaviy tadqiqotlar,
2. Jomi va Jam obraziga doir sufiylik manbalari,
3. Amiriy asarlarining ilmiy-tanqidiy nashrlari va sharhlari.

Shu asosda Amiriy tomonidan yaratilgan Jomi Jam obrazlari nafaqat badiiy obraz sifatida, balki **axloqiy-estetik g‘oya va timsollar tizimining** bir qismi sifatida tahlil qilindi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqotda mukammal va chuqur xulosalarga olib kelish imkonini berdi.

NATIJALAR

Jam, ya’ni, Jamshid – qadimgi Eronning afsonaviy podshohi. U jomi jahonnamo – jahonni ko‘rsatadigan jom ixtiro qilgan bo‘lib, unda dunyodagi nafaqat hozirgi, balki o‘tmishda yuz bergan va kelajakda sodir bo‘ladigan voqea-hodisalar ham aks etar ekan. Mumtoz she’riyatda may qadahi va komil inson qalbini ham ilohiy sirlarni o‘zida saqlashi jihatidan oyinai

jahonnamoga tenglashtiriladi. Amiriy ijodida ham Jomi Jam obrazi sermahsul tarzda foydalanilgan. Lirik qahramonning soqiydan aynan nima uchun “jomi Jam” keltirishini so‘rayotganligi quyidagi bayt mazmunida yanada ochiqroq ayon bo‘ladi:

Netay gar jomi Jam birla Sikandar ko‘zgusi bo‘lsa,

Bu kun dayr ichra, soqiy, qismatim singan safol etmish[2,136]

Shoirning tasavvufiy qarashlari bilan bog‘liq ushbu baytni tasavvufshunos olim, professor N.Komilov shunday tahlil etadi: “Inson agar faqat dunyo tashvishlari (zangi) bilan bog‘lansa; u Ilohiy nurdan bebahra qoladi. Holbuki, insonning oliy maqsadi – o‘z Asliyatini idrok etish va Unga qaytishdir. Shu bois u ko‘ngil kirlarini yuvib, uni Alloh nuri aks etgan jomga aylantirishi lozim, chunki ana shu darajaga yetgan odam dunyoning o‘zi Alloh jamoli aks etgan mazhar va jom ekanligini anglab yetadi. Shunda inson o‘zini qudratli, mukammal his etadi va faqir xoksor bo‘lsa ham bu muhabbat otashida pishib, podsho Jamshiddanda kuchliroq sezadi”[3,16].

Tadqiqotchi A.Qozixo‘jayev ushbu baytda Hazrat Navoiy e’tirofi ila shoir Amiriy ham podshoh Jamshidning mayni ixtiro qilishi va ichiga may to‘ldirilsa, jahonni ko‘rsatuvchi jomni yasattirishi haqidagi “rivoyatlarga ishora qilib, birinchidan, orif inson qalbi ham olamni va ilohiy tajalliyni ko‘rsatadigan ko‘zgudir, chunki u Ishq, ilohiy sirlar, hikmatlarga to‘la degan g‘oyani ifodalasa, ikkinchidan, darveshning siniq ko‘ngli (“Sing‘on safol”) Jamshid kabi shohlar qadahidan ham e’tiborliroq, qimmatliroq bo‘lib, ayni shu “Singan ko‘ngillar” Iloh nurini aks ettirib, dunyoni ko‘rsata oladi”, degan fikrni bildiradi” [4,177].

“Mayi vahdat bir siniq ko‘ngilga tushsa, g‘arib, bechora qalbidan o‘rin olsa, butun borliq mohiyatini anglovchi, g‘ayr naqshlaridan toza ko‘ngilga aylanadi. O‘tayotgan umrining har bir lahzasida, har bir damida podshohlik maqomiga ko‘tariladi”[4,178].

Shu o‘rinda Aziziddin Nasafiyning quyidagi so‘zlarini eslash o‘rinli: “...Shunday soliklar borki, ularning qalb oynasi hayrat ahli bilan payvasta bo‘lishi mumkin. Ammo ularning qalb oynasi aql va nafs bilan, ularning ba’zilari ba’zilari bilan munosabat paydo qilishi ham mumkin. Va inson qalb oynasi komildur. Ammo jomi jahonnamo va oynayi jahonnamo (olamni aks ettiruvchi oyna) odamiyga xosdir. Mavjudot tizimi odamizod bilan o‘z yakuniga yetadi, odamizod mavjudotning eng yuksak ko‘rinishi bo‘ldi, ba’zida eng so‘nggi yaratilgan vujud Odam ekanligi bilan bu oyina mukammallashdi” [5,17].

Tugan mir’otida ko‘rgil jahon timsoliini har dam,

Skandar ko‘zgusiga solmagil ko‘z, jomi Jam chekma[2,295].

Dargahida xok bo‘lg‘on oshiqi bechoraning

Masnadi Jam, toji Iskandardin istig‘nosi bor[2,118].

“Ey darvesh, odamni yaratishdan maqsad komil insondur. Ya’ni: biz odam jomi jahonnamodir va unda poklik va soflik namoyon bo‘ladi deganimiz – bu bir nurdir, bizning murodimiz komil insondir” [5,39].

Ba’zi g‘azallarida shoir jomi Jam bilan yana bir ramziy timsol mir’oti Iskandarni ham qo‘llaydi.

Jomi Jam mir’otida dog‘imni ko‘rsatsam, Amir,

Tavqi hayrat bo‘ldi Iskandarga ko‘zgu halqasi[2,325].

Jamshid va Iskandarga, jom bilan ko‘zguga vafo qilmagan o‘tkinchi dunyo oshiq uchun ham g‘animat. Shu sababli u bir dam bo‘lsa ham jom va ko‘zguning shaydosi, egasi bo‘lishga muhtoj.

Ko‘zgu adabiy nuqtai nazardan anglashilgan tilsim timsoligina emas, o‘z-o‘zini idrok etish vositasi hamdir. Zero, komillik yo‘li idrok etish tadrijidir. O‘zni yoki olamni idrok etish – bilish, anglash muayyan chegarada emas, bir necha bosqichlarda egallanadi.

Tasavvufda zohir va botinning nisbati muhim masalalardan. Jaloliddin Rumiyning kishini “Yo asling kabi ko‘rin, yo ko‘ringaning kabi bo‘l” degan hikmati ham shu masalaga oid. Bu masala Aziziddin Nasafiyning mazkur risolasida shunday talqin qilinadi: “Hech shubha yo‘qki, zohirning botinga ta’sirlari bor. Shuningdek, botinning ham zohirga ta’sirlari bor. Bas, donishmandning suhbatida riyozat va mujohada ta’sirida zohir to‘g‘ri bo‘lgandan keyin botin ham tuz bo‘lur. Zohir va botin tuz bo‘lgandan keyin botin ikki olam arosida poklandi. Bir tomoni shahodat olami bo‘lar, ikkinchi tomoni g‘ayb olami”[5,37].

Naqshi qadaming muyassar o‘lsa,

Naylay bu jahonda jomi Jamni[2,345].

Mumtoz lirikada jomi Jam timsolining yana bir istilohiy ma’nosi qo‘llaniladi. Bu o‘xshatish tasavvufiy tushunchalar negizida vujudga kelgan bo‘lib, u ma’rifat bodasi bilan limmo-lim orif ko‘nglini anglatadi.

Jomi Jam xarobot, mayxona timsollari bilan birga qo‘llaniladi. Ushbu maskanda oshiq ishq sharobidan bahramand bo‘ladi Tasavvufda ushbu maydan bahramand bo‘lgan oshiq qiyofasi – yorning go‘zalligini ko‘rib mast bo‘lgan yoki ma’shuqa marhamatiga musharraf bo‘lib, o‘zligini butkul unutgan sarxush holatda tasvirlanadi.

Kimsakim oyinaro‘lar ilgida jomi tarab

Ko‘rsa, anga hasrati Iskandaru Jam bormukin?![2,284]

Shoirning talaygina g‘azallarida mashhur jomi Jam tilga olinadi. Bu timsol shoir nazarida ko‘ngil, dunyo, hayot ma’nosida, jomdagi may esa muhabbat sharobi, tiriklik suvi sifatida tasvirlanadi. Yana Amiriy ba’zi baytlarida jomi Jam timsoliga qarshi singan safolni tilga oladi va bu orqali o‘z ruhiy holatini bo‘rttirish, oshiqning mungli qiyofasini kuchaytirishga erishadi.

MUHOKAMA

Amiriy ijodida Jomi Jam obrazining turli tasvirlari, asosan, timsollar orqali berilgan bo‘lib, bu obraz nafaqat estetik-falsafiy ma’noga ega, balki muallifning dunyoqarashi, axloqiy ideal va ruhiy izlanishlarini ham aks ettiradi. Jumladan, Jamshid jomi — ya’ni “Jomi Jam” timsoli orqali dunyoni idrok etish, haqiqatni anglash, komillikka yetishish kabi yuksak g‘oyalar ifoda etiladi.

Muhokama davomida aniqlanishicha, Amiriy Jomi Jam obrazidan ko‘p hollarda bashariyat taqdirini bilish, kelajakni anglash, komil insonni izlash kabi g‘oyalarni yoritishda foydalanadi. Bu timsol Amiriy uchun shunchaki tarixiy yoki afsonaviy obraz emas, balki tasavvufiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lgan universal timsoldir. Bu yondashuv Amiriy tafakkurining chuqurligi va uning Sharq poetikasidagi ramzlar tizimini qanday mahorat bilan o‘zlashtirganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, muhokama davomida Jomi Jam obrazining turli kontekstlarda turlicha talqin qilinishi — ya’ni siyosiy-ijtimoiy, axloqiy, ma’naviy, falsafiy mazmun kasb etishi kuzatildi. Ba’zi she’riy parchalarida Jam jomi — davlat ramzi yoki adolat belgisi sifatida; ayrim holatlarda esa ilm, idrok, ilohiy sirlarning kaliti sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat Amiriy ijodidagi ko‘pma’nolilik (polisemantik) va badiiy ramzlarning chuqur qatlamliligini isbotlaydi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, Amiriy klassik Sharq she’riyatidagi an’anaviy obrazlarga o‘ziga xos yondashgan. U Jomi Jam timsolini shakl jihatidan Nizomiy, Hofiz, Navoiy, Jomiy kabi ijodkorlarga yaqinlashgan bo‘lsa-da, mazmun va g‘oya jihatdan uni zamonaviy talqin bilan boyitgan. Ayniqsa, tasavvufiy ruhiyat va komil inson g‘oyasi bilan yo‘g‘rilgan falsafiy satrlar bunga yaqqol misoldir.

Yana bir muhim jihat — Amiriyda Jomi Jam obrazining intertekstual xususiyatlari ham muhim o‘rin tutadi. U diniy, tarixiy va afsonaviy matnlarga ishora qilgan holda bu obrazni o‘quvchi ongida jonli va ko‘p qirrali ko‘rinishda gavdalantirgan. Bu orqali Amiriy nafaqat shoir, balki tafakkur egasi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, Amiriy ijodidagi Jomi Jam obrazi — bu Sharq poetikasidagi ramziy-falsafiy tafakkur mahsuli bo‘lib, u orqali muallif o‘zining ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy pozitsiyasini ifoda etadi. Bu obraz tadqiqi Amiriy poetikasining murakkabligini va uning Sharq adabiy tafakkuridagi tutgan o‘rnini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

XULOSA

Shoir lirik she’rlarida oshiqning tuyg‘u va qalb kechinmalarini, qolaversa, o‘zining so‘fiyona qarashlarini badiiy ifoda etishda shoh Jamshid obrazidan mohirona foydalangan. Umuman olganda, Amiriy ijodida Jamshid va uning jomi bilan bog‘liq baytlar talaygina. Ayni damda Jamshid va jomi Jam bilan bog‘liq talqinlar shoir ijodiy merosining mohiyatini chuqurroq anglash imkoniyatini ham berdi. Shoir ijodining yuksak idealini tashkil qiluvchi inson axloqi jomi Jamni qo‘llash orqali ham ibratli xulosalangan.

Mazkur tadqiqot davomida Amiriy ijodida Jomi Jam obrazining turli badiiy talqinlari tahlil qilinar ekan, quyidagi asosiy ilmiy-nazariy xulosalarga kelindi:

1. **Jomi Jam obrazi Amiriy ijodida ko‘p qatlamli ramz** sifatida talqin qilinadi. Bu obraz orqali muallif nafaqat badiiy-estetik go‘zallikni, balki ma’naviy-axloqiy va falsafiy tushunchalarni ham ifodalaydi.

2. Amiriy asarlarida Jamshid jomi — **haqiqatni izlash, ilohiy bilimga erishish, komillikka intilish** timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa shoirning tasavvufiy-falsafiy qarashlari bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

3. Tadqiqotda aniqlanishicha, Amiriy Jomi Jam obrazini yaratishda **Sharq adabiyoti an’analari va ramzlar tizimiga suyanadi**, biroq uni o‘ziga xos tarzda talqin etib, yangi ma’no-yuklamalar bilan boyitadi.

4. Shoir Jomi Jam obrazidan **ijtimoiy, axloqiy va siyosiy g‘oyalarni** ifodalashda ham foydalanadi. Bu holat Amiriyning faqatgina shoir emas, balki fikr egasi, ziyoli inson sifatidagi qiyofasini ochib beradi.

5. Tadqiqot davomida Amiriy ijodidagi Jomi Jam obrazlari **intertekstual jihatdan boy** ekanligi aniqlandi. U diniy manbalar, tarixiy rivoyatlar va klassik matnlar bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi.

6. Umuman olganda, Amiriy tomonidan yaratilgan Jomi Jam obrazi Sharq poetikasida shakllangan an’anaviy obrazlar tizimining davomi bo‘lishi bilan birga, **yangicha badiiy-falsafiy mazmun** bilan to‘ldirilgan timsol sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Mazkur tadqiqot Amiriy ijodini yanada chuqurroq o‘rganish, uning obrazlar tizimidagi timsollar semantikasi va falsafiy mazmunini kengroq tahlil qilish imkonini beradi. Shu boisdan Jomi Jam obrazining boshqa mumtoz shoirlar ijodidagi ko‘rinishlari bilan **qiyosiy tadqiqotlar** o‘tkazish istiqbollari mavjud.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ochilov E.Tasavvuf haqida suhbatlar.- Toshkent: O‘zbekiston , 2009-B.23-24
2. Amiriy. Devon. Ikki jildlik. I. O‘zbekcha she’rlar (Nashrga tayyorlovchilar: A.Madaminov, E.Ochilov, Z.Qobilova, O.Davlatov). II. Tojikcha she’rlar (Nashrga tayyorlovchilar: Z.Qobilova, O.Davlatov). – Toshkent: “Tamaddun”, 2017.
3. Komilov N. Ma’nolar olamiga safar. – Toshkent: Tamaddun, 2012. – B. 16.
4. Qozixo‘jayev A. “Xazoyin ul-maoniy” devonidagi ilk g‘azal poetikasi xususida // O‘zbek adabiyoti masalalari(ilmiy maqolalar to‘plami). – Toshkent, 2013. – B. 177.
5. Nasafiy, Aziziddin. Komil inson (Olim Davlatov tarjimasi). – “Jahon adabiyoti” jurnali. 2/2019. – B.37.
6. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. Hamkor konferensiyalar, 1(11), 260-263.
7. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(09), 187-191.
8. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In E-Conference Globe (pp. 25-26).
9. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10, 121-123.
10. Musharrafxon, I., & Nigora, M. (2024). YOSH AVLODGA KITOBXONLIK KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O ‘RNI. Kokand University Research Base, 216-219.
11. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 271-276.

12. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 173-176.

13. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In Конференции.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

HAMID OLIMJON SHE’RIY ASARLARIDA LISONIY ANTONIMLAR LINGVOPOETIKASI

Imamova Gulnora Talibovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola antonimlarning tilshunoslikdagi ahamiyati, ularning turlari va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Antonim so‘zlarning o‘zaro qarama-qarshiligi orqali ma’noni boyitadi va tilni yanada rang-barang qiladi. Maqolada antonimlarning lingvistik jihatlari, ularning foydalanish kontekstlari va nutq jarayonidagi roli batafsil ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Antonimlar, lisoniy antonimlar, lingvopoetika, qarama-qarshilik, tilshunoslik, semantika, mantiqiy markaz, ma’no.

Аннотация: В статье анализируется значение антонимов в лингвистике, их виды и особенности. Антонимы обогащают значение слов посредством их взаимного противопоставления и делают язык более разнообразным. В статье подробно рассматриваются лингвистические аспекты антонимов, контексты их употребления и их роль в речевом процессе.

Ключевые слова: Антонимы, языковые антонимы, лингвопоэтика, противопоставление, лингвистика, семантика, логический центр, значение.

Abstract: This article analyzes the importance of antonyms in linguistics, their types and specific features. Antonyms enrich the meaning of words through their mutual opposition and make the language more diverse. The article examines in detail the linguistic aspects of antonyms, their contexts of use and their role in the speech process.

Keywords: Antonyms, linguistic antonyms, linguopoetics, opposition, linguistics, semantics, logical center, meaning.

Antonim so‘zi ham yunoncha bo‘lib anti – zid va onyma – nom, ya’ni zid nomlar, so‘zlar demakdir. Antonimlar bir-biriga zid, qarama-qarshi bo‘lgan tushunchalarni ifodalaydi. Shunday qilib, qarama-qarshi tushuncha yo tasavvurlarni ifodalaydigan, so‘z ma’nolari orasidagi ziddiyatni bildiradigan so‘zlarga antonimlar deyiladi. (3.75-25-b)

So‘z boshlayin endi *yaxshi, yomondan,*
Ko‘zlarimning nuri bo‘lgan do‘mbiram.
Sen qo‘limda, kezib o‘tdim jahondan,
Yuragimning jo‘ri bo‘lgan do‘mbiram. *(*Do‘mbiraning maqtovi (Abdulla shoirga).

Ushbu misralardagi yaxshi –yomon so‘zlari o‘zaro antonimik juftlikni tashkil qilgan. Sinonim so‘zlar sinonimik qatorni tashkil qiladi va unda ikki va undan ortiq so‘zlar o‘zaro sinonim bo‘ladi. Omonimlar ham ikki yoki undan ortiq ba’zan to‘rt, besh so‘zgacha omonimlar hosil bo‘ladi, lekin antonimlar faqat ikki so‘zdan iborat bo‘ladi hamda bunday birliklar antonimik juftlik deb ataladi.

Adabiyotlarda lisoniy va kontekstual yoki nutqiy antonimlar farqlanadi, shuningdek, zid ma’nolilik so‘zlar o‘rtasida, iboralar o‘rtasida, so‘z va iboralar o‘rtasida hamda morfologik ko‘rsatkichlar o‘rtasida hosil bo‘lishi mumkin.

Antonimiya hodisasi xuddi sinonimiya singari bir so‘z turkumi doirasida yuz beradi. Tilda asosan belgi bildiruvchi so‘zlar sifat va ravish turkumida ko‘plab antonimik juftliklarni uchratamiz. Shuningdek, ot va fe’l turkumlarida antonim so‘zlar mavjud. Tilshunoslar bu haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Har qanday so‘z antonimik munosabatga kirishavermaydi. Shunday bo‘lishi tabiiy, chunki juda ko‘pgina narsa-hodisalar o‘zining ziddiga ega emas. Qarama-qarshi (zid) juftiga egalik hodisasi ko‘proq narsa-hodisalarning belgisida kuzatiladi” (6.443 б. –Б.119)

Hamid Olimjon she’rlari, dostonlari, dramalarida, asosan, lisoniy antonimlardan mahorat bilan foydalangan. Badiiyatda foydalanilgan antonimlar zid ma’nolilikni ta’kidlash uchun qo‘llanadi va ayni paytga lingvopoetik vosita hisoblanadi.

Buvimning har qissasi, / Har bir qilgan hissasi
Fikrimni tortar edi, / Havasim ortar edi.
Tinglar edim betinim, / Uzun tunlar yotib jim,
Seza olardim kuchin, / Ko‘pi *yolg‘on*, ko‘pi *chin*. (“Oygul bilan Baxtiyor”)

Sevimli shoirimiz Hamid Olimjonning bolalik xotiralari, Komila ayadan eshitgan ertaklari ta’sirida yozilgan “Oygul bilan Baxtiyor” ertagining boshlanishidagi ushbu mashhur satrlar o‘zining ohangdorligi bilan eshituvchida alohida kayfiyat uyg‘otadi. Bola – shoir iqror bo‘lganidek, uzun tunlarda buvisidan eshitgan qissalarning *ko‘pi yolg‘on, ko‘pi chin.* Ushbu ertakning oson va ravon o‘qilishida marvaridday tizilgan so‘zlarning ahamiyati beqiyos. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, yolg‘on va chin antonimik juftlik hisoblanadi, bu antonim so‘zlar sifat turkumiga mansub.

Ravish turkumiga mansub antonimlardan “shodlik”ni kuylagan she’rlarida mahorat bilan foydalangan:

Shoirlarni *ko‘p* o‘qib chiqdim, / Bilmaganim qoldi juda *kam*.
O‘qib chiqdim, chuvaldi fikrim / Ko‘raverib hammasida g‘am.
Fuzuliyni oldim qo‘limga, / Majnun bo‘lib yig‘lab qichqirdi
Va Navoiy tushib yo‘limga, / Faryod bilan o‘rnidan turdi. (“Shodlikni kuylaganimning sababi”)

Shoirning mashhur she’ri qarshilantirish bilan boshlanadi, ya’ni *ko‘p* o‘qigani, bilmagani *juda kam* qolganini ta’kidlaydi. Ko‘p o‘qigani mashhur shoirlar: Fuzuliy, Navoiy, Lermontov, Xofiz, Pushkin, Shekspir, Xayyom asarlarida nega hammasida g‘am bor, nega ularda shodlik

yo‘q, nega shoirlar g‘amni kuylaydi-yu shodlikni kuylamaydi, degan savolni o‘rtaga qo‘yadi. Va Xayyomdan javob ham topadi: “Chunki g‘amga oshnodir hol, Qayg‘u bilan to‘lig‘dir ayyom”. Ko‘p-kam ziddiyatida faqat miqdor qarama-qarshiligi emas, balki shoirning bilim doirasi, dunyoqarashi, adabiyotga muhabbatining ta’kidi ham bor.

She’rning boshi bilan oxirigacha bo‘lgan jarayonda umumiy zidlik bor:

Shodlik yo‘lga boshladi meni, / Baxtiyorlik bo‘ldi odatim.

Shoir bo‘lib shodlik va baxtni / Kuylamaklik zo‘r saodatim.

Chunki elim qayg‘uni bilmas, / Chunki yo‘qdir vatanda motam.

Ozod xalqim boshiga kelmas, /Endi sira musibat va g‘am. (“Shodlikni kuylaganimning sababi”)

She’rdagi “g‘am”, “faryod”, “musibat”, “qayg‘u” so‘zlariga nisbatan “shodlik”, “baxtiyorlik”, “baxt”, “saodat” so‘zlari qarshilantiriladi va uning umumiy mazmuni mana shu antonimlar vositasida namoyon bo‘ladi.

Quyidagi antonimlar mavhum tushunchalarning zidlash bilan birga ularni ta’kidlash uchun qo‘llanilgan:

Harna bo‘lay, aylasam *jafo,* / Sevinchimni boy berib qo‘ysam.

Harna bo‘lay, etmasam *vafo* / Sendan boshqa birovni sevsam.

Dardlarimga topmayin chora / Va *do‘stga* zor, *dushmanlarga* xor.

Mayli bo‘lay tanho, ovora / Mendan qochsin hamisha bahor. (“Xayoling-la o‘tadi tunlar”)

Shoirning “Xayoling-la o‘tadi tunlar” she’ridan olingan parchada ikki antonimik juftlik bor: *jafo-vafo, do‘st-dushman.* Antonimlar qadimdan o‘zbek adabiyotida eng chiroyli, ta’sirli badiiyat namunalarini yaratishga xizmat qilganligi ayon. Aynan *vafo-jafo* antonimik juftligi bilan “dilbar shaxs” Bobur Mirzo mashhur ruboiysida tazodning go‘zal namunasini yaratgan:

Har kimki, *vafo* qilsa, *vaf*o topqusidir,

Har kimki, *jaf*o qilsa, *jafo* topqusidir.

Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonliq hargiz,

Har kimki, yomon bo‘lsa, jazo topqusidir!

Hamid Olimjonning mumtoz adabyot bilimdoni bo‘lganligi hech kimga sir emas. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo she’riyatining oshnosi bo‘lganligi tayin. She’rdagi *javo-vafo* juftligi lirik qahramonning sevikli insoniga “jafo” qila olmasligi, doim unga “vafo”li bo‘lishini tasvirlagan. Va bu tasvirni ta’kidlash uchun sendan boshqani sevsam *harna bo‘lay* (har nima bo‘lay) birligini misralar boshida takrorlagan. Antonimik juftlik she’rning ta’sirchanligi oshirish uchun qo‘llanilgan:

Harna bo‘lay, aylasam *jafo,* / Sevinchimni boy berib qo‘ysam.

Harna bo‘lay, etmasam *vafo* / Sendan boshqa birovni sevsam. (“Xayoling-la o‘tadi tunlar”)

Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, zid ma’nolilik narsa, belgi, vaqt, joy, holat va mavhum tushunchalar aro mavjud bo‘ladi.

Badiiy adabiyot tili tahlilining zukko bilimdoni M.Yo‘ldoshev ta’kidlaganlaridek, “Tilda zid ma’noli so‘zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta’sirchanligini ta’minlashda qulay vositalardan biridir”. (1.123 б. –Б.54.)

Antonimlar badiiy adabiyotda tazod san’atini, antiteza hodisasini yuzaga keltiradi. “Antiteza grekcha qarama-qarshi so‘zidan olingan bo‘lib, bir-biriga zid tushuncha, fikr va hissiyotlarni ifodalashda, ularga qiyosiy tavsif berishda qo‘llanuvchi tasviriy vositalardan biridir. U mumtoz adabiyotda tazod deb ham yuritiladi”. (2.87 б. – Б.40.)

Hamid Olimjon o‘z she’rlarida, dostonlarida, dramalarida til antonimlaridan va nutqiy antonimlardan o‘z badiiy maqsadi yo‘lida unumli foydalangan.

Bolalar uchun ravon, sodda tilda yozilgan “Semurg‘” yoki Parizod bilan Bunyod” she’riy ertagida podshoh o‘z qizini turmushga bera olmaganidan jig‘ibiyroni chiqib, norozi bo‘lgan holatini shunday tasvirlaydi:

O‘z qizidan pushaymon / Bo‘lib shuning uchun xon
Kecha-kunduz o‘ylaydi, / Yoz bilan kuz o‘ylaydi:
“El rasmini qilmagan, / Sevgi nima bilmagan,
Qari qizni netayin? / Chiqib qayga ketayin?
Qaylarga urayin bosh? / Buncha sovuq, bag‘ritosh
Qizni qaydan yaratdim? / O‘zimni o‘tga otdim. (“Semurg‘” yoki Parizod bilan Bunyod”)

Ushbu misralarda xonning holatini bo‘rttirib ko‘rsatish uchun *kecha-kunduz* vaqt ma’nosidagi antonimlarni qo‘llaydi, ya’ni qizining taqdiridan pushaymon bo‘lib, tinimsiz o‘ylovda. Bu “tinimsiz”, “davomiylik” ma’nolarini *kecha-kunduz* antonimik juftligi ochib bergan bo‘lsa, voqelikni yanada rivojlantirish uchun keyingi misralarda *yoz bilan kuz* birligi ham qo‘llanilgan. “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”da *kechasi - kunduzi* so‘zlari antonimik juftlik sifatida tavsiflangan, lekin yoz va kuz antonim sifatida berilmagan. (5.231 б. – Б.115)

Antonimlarni monografik planda o‘rgangan olim R.Shukurov o‘zbek tilshunosligiga so‘zlarning antonym bo‘lish-bo‘lmasligini aniqlashda muhim omil –mantiqiqy markaz tushunchasini kiritdi. (4.147 б. –Б.29.) Shu muallif ot antonimlarning tavsifida tilshunoslarning fikrlarini qiyoslaydi, shuningdek, va shunday deydi: “Tilshunos E.I.Rodicheva vaqt va tomonga oid antonimlarni quyidagicha chegaralaydi: “Paytga doir antonimlarni belgilash uchun, sutka doira deb faraz qilinsa, bu doira markazidan o‘tkaziladigan tik chiziqlarning qarama-qarshi tomonlaridagi nuqtalar nuqtalar va ularning nomlari bir-biriga nisbatan antonim hisoblanadi. Xuddi shuningdek, bir yilni doira deb faraz qilinsa, uning qarama-qarshi qutblaridagi fasllarning nomlari bir-biriga nisbatan antonim bo‘lishi mumkin”. (4.147 б. –Б. 23.) Bundan kelib chiqadiki, kecha va kunduz o‘zaro antonimlik hosil qiladi, lekin yoz va kuz antonim emas. Chunki yoz va qish antonimi uchun mantiqiy markaz bahor bo‘ladi, bahor va kuz antonimi uchun mantiqiqy markaz yoz hisoblanadi. Yuqoridagi misralarda esa kecha-kunduz antonimidagi davomiylik, vaqt, tinimsizlik ma’nosini bo‘rttirish uchun, kuchaytirish uchun

qo‘llanilgan. Shuningdek, keyingi misralarda kecha-kunduz o‘ylangan xonning g‘azabi ifodalangan.

Badiiy matnlarning boshqa matn turlaridan farqi so‘zlovchining fikrlarini ta’sirchan ifodalashga imkoniyat berishi bilan ham belgilanadi. Bu imkoyatlar, albatta, badiiy matnning qaysi turi ekanligiga qarab ham kengayib boraveradi. Yozuvchi yoki shoirlarning olamga, odamlarga, voqelikka o‘z munosabatini bildirishi, maqsadlarini ifodalashiga badiiy matnni hosil qiluvchi til birliklari ko‘makchi bo‘ladi. Yuqorida tahlil qilayotganimiz, vaqt bildiruvcvhi antonim so‘zlardan mazkur doston voqelari rivojida unumli foydalanganligining guvohi bo‘ldik:

Xon qizin olmoq uchun, Elga sinalmoq uchun,
Baxtim bormi ekan, deb, Menga yormi ekan, deb,
Kela berdilar bari, Kattakon chinor sari.
Yetti *kecha*, yetti *kun*, / Yetti *kunduz*, yetti *tun*
Zo‘r chinorga chiqmoqqa, Chiqib uni yiqmoqqa
Hamma hezlab ko‘rdilar, O‘zni o‘qday urdilar. (“Semurg‘” yoki Parizod bilan Bunyod”)

Bu misralarda ham *kecha va kun (kunduzi), kunduz va tun* antonimik juftliklari mavjud. Voqeadan ma’lumki, xon qizi erga tegmioq uchun shart qo‘ygan, buni bajarib, xon qiziga erishmoqni orzu qilib uzoq-yaqindan pahlavon yigitlar kelmoqda. E’tibor qaratilsa, birinchi misrada avval, kecha so‘zi, keyin tun so‘zi, keyingi misrada esa avval kunduz so‘zi, keyin tun so‘zi qo‘llanilgan. Yetti kun kecha-yu kunduz talabgorlar kelibdi, lekin chinorga o‘zni o‘qday ursa ham chiqolmabdi. Yetti kecha-yu yetti kunduz yoki qirq kecha-yu qirq kunduz o‘zbek xalq og‘zaki ijodida ko‘p uchraydi. Asosan, yaxshiliklar uchun ishlatiladi yetti kecha-yu yetti kunduz to‘y qilibdi, yoki qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y qilibdi kabi. Lekin dostondagi bu holatda yetti *kecha*, yetti *kun*, yetti *kunduz*, yetti *tun* chinorga chiqmoqchi, uni yiqmoqchi bo‘lgan yigitlarga baxt va omad ramzi bo‘lib kelmadi. Bu misralarda ayni antonimlar bilan hosil bo‘lgan ma’no ko‘plik ma’nosi hamdir. Chunki juda ham ko‘p yigitlar xon qiziga uylanish umidida kelganligini isbotlash, bo‘rttirish, zidlikni ta’kidlash maqsadida yetti *kecha*, yetti *kun*, yetti *kunduz*, yetti *tun* davomiy talabgorlar keldi. Bu voqelikka shoirning munosabati ham u foydalangan til birliklaridan anglashilib turadi.

Hamid Olimjon tilning mazkur imkoniyatidan mahorat bilan foydalanib, behad ta’sirchan va go‘zal ifodalar, obrazlar yaratganligini yuqoridagi tahlillardan ham ko‘rishimiz mumkin. Har bir so‘zni sevib, so‘zning ma’nosini sezib yaratilgan she’rlari hali hanuz tillarda doston.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. –Тошкент: Фан, 2007. – 123 б. –Б.54.)

2. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 87 б. – Б.40.)

3. Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1969. –75 б. –Б.25

4. Р.Шукуров. Ўзбек тилида антонимлар. –Тошкент: Фан, 1977. –147 б. –Б.29.)

5. (Ш.Раҳматуллаев, Н.Маматов, Р.Шукуров. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 231 б. – Б.115)

6. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980. –443 б. –Б.119.).

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

LINGUA-STYLISTIC DEVICES IN ENGLISH AND UZBEK NEWS: A COMPARATIVE STUDY

Jamoldinova Gulazima Nodirbek qizi,
Graduate student of the Department of Language and Literature
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
gulazimaabdunabiyeva13@gmail.com
+998 97 991 24 07

Annotation This article presents a comparative analysis of linguistic stylistic devices employed in English and Uzbek news discourse. The research focuses on identifying common and distinctive stylistic features—such as metaphor, alliteration, and syntactic parallelism—that contribute to the expressiveness and communicative effectiveness of news language. The study is based on descriptive and contrastive methods of linguistic analysis. The results demonstrate how cultural and linguistic contexts influence stylistic preferences, offering valuable insights for cross-cultural communication and media linguistics.

Keywords: stylistic devices, news discourse, linguistic comparison, metaphor, communicative function.

ЛИНГВОСТИЛИСТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ НОВОСТЯХ: СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

Аннотация В статье проводится сравнительный анализ лингвистических стилистических средств, используемых в англоязычных и узбекоязычных новостных текстах. Основное внимание уделяется таким элементам, как метафора, аллитерация и синтаксический параллелизм, которые усиливают выразительность и коммуникативную эффективность новостного дискурса. Исследование основано на описательном и сопоставительном методах. Результаты демонстрируют влияние культурного и языкового контекста на выбор стилистических средств, что представляет интерес для межкультурной коммуникации и лингвистики СМИ.

Ключевые слова: стилистические средства, новостной дискурс, лингвистическое сравнение, метафора, коммуникативная функция.

INGLIZ VA O‘ZBEK YANGILIKLARI MATNLARIDAGI LINGVISTIK USLUBIY VOSITALAR: QIYOSIY TADQIQOT

Annotatsiya Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek yangilik matnlarida qo‘llaniladigan lingvistik stilistik vositalarning qiyosiy tahlili berilgan. Tadqiqot metafora, alliteratsiya va

sintaktik parallelizm kabi uslublarni o‘rganib, yangilik diskursining ifodaviylik va ta’sirchanligini aniqlashga qaratilgan. Tahlil tavsifiy va qiyosiy yondashuvlar asosida olib borilgan. Olingan natijalar madaniy va tilshunoslik omillari stilistik tanlovga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi hamda ommaviy axborot vositalarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: stilistik vositalar, yangilik diskursi, lingvistik qiyoslash, metafora, kommunikativ funksiya.

Introduction. In today’s era of globalization and rapidly developing information technologies, mass media plays a crucial role in shaping public consciousness and social discourse. Among media genres, news texts are considered particularly influential, as they communicate events and viewpoints with immediacy and persuasive impact. The linguistic and stylistic features of news reporting thus remain a central focus in modern linguistic research [3,6].

The President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, has repeatedly emphasized the importance of strengthening the national information space, promoting media literacy, and advancing the country’s media policy. In his book “We Will Build a New Uzbekistan Together,” he highlights: “Mass media should serve the people and play an active role in addressing social issues.” These words underscore the importance of not only the content of media texts but also the language and stylistic tools used to convey meaning [5].

This study arises from the need to explore the functional use of stylistic devices in media discourse. It seeks to analyze the ways in which English and Uzbek news texts utilize linguistic stylistic devices to influence the reader and deliver nuanced messages. The focus will be on identifying common figures such as metaphor, repetition, rhetorical questions, and parallel structures, and examining how these tools are employed across two linguistic and cultural contexts.

The main aim of this study is to compare and analyze stylistic devices in English and Uzbek news texts, determine their frequency, types, and communicative functions, and uncover stylistic tendencies unique to each language. The specific objectives are:

- To compile a corpus of English and Uzbek news articles;
- To identify and classify the major stylistic devices used;
- To analyze the functional roles of these devices in context;
- To compare stylistic approaches across both languages.

This research is academically significant due to its focus on stylistic analysis within the specific genre of news reporting, an area that bridges linguistics, journalism, and cultural studies [4,10]. By highlighting the linguistic choices made in media narratives, the study offers both theoretical insights and practical value. It may benefit translators, linguists, journalists, and students engaged in philology and cross-cultural communication [2,9].

Literature Review and Methodology. The study of stylistic devices in journalistic discourse has long attracted the attention of scholars in both linguistics and media studies. In

particular, the use of metaphor, metonymy, alliteration, hyperbole, and rhetorical questions has been explored as a means of shaping readers' perception and enhancing textual expressiveness. Renowned linguists such as Geoffrey Leech (1969), Roman Jakobson (1960), and Michael Halliday (1978) laid the foundation for stylistics by emphasizing the relationship between linguistic form and communicative function [3].

In Uzbek linguistics, researchers such as A. Madrahimov and Z. Nurmonov have contributed significantly to the study of stylistic features in media texts, focusing on the unique expressive tools found in the Uzbek language. Their works highlight the role of national-cultural elements in shaping the stylistic identity of Uzbek journalism. Meanwhile, contemporary researchers like D. Crystal and N. Fairclough have advanced critical discourse analysis, integrating social and political contexts into the interpretation of stylistic devices [2,11].

Despite substantial contributions to stylistic theory and journalistic language, comparative studies between English and Uzbek news discourse remain limited. Few investigations have systematically explored the similarities and differences in stylistic tools used by English and Uzbek language journalists [8]. This study aims to fill that gap by providing a cross-linguistic stylistic comparison based on authentic media texts.

The methodological framework of this study is based on descriptive, comparative, and qualitative methods of linguistic analysis. The research is conducted through the following stages:

1.	**Corpus Compilation**	A bilingual corpus of 30 news articles (15 in English and 15 in Uzbek) was compiled from reputable online platforms such as The Guardian, BBC News, Kun.uz, and Gazeta.uz. The selected texts focus on general news in politics, society, and economics.
2.	**Selection Criteria**	Articles were chosen based on publication within the past two years, an objective reporting style, and the presence of clearly identifiable stylistic features.
3.	**Identification and Classification**	Linguistic stylistic devices were manually identified and classified according to classical stylistic taxonomy (e.g., tropes, figures of speech, syntactic parallelism). Focus was placed on metaphor, personification, repetition, ellipsis, inversion, and rhetorical questions [3,6].
4.	**Comparative analysis**	Stylistic devices were analyzed comparatively across the two languages based on their frequency, function, and stylistic effect. The aim was to determine both universal and language-specific stylistic trends [8].
5.	**Contextual Interpretation:**	Selected examples were interpreted in their broader communicative and cultural context to evaluate the function of stylistic devices within media discourse [10].

This combination of linguistic and comparative analysis offers a comprehensive approach for evaluating how stylistic devices function within English and Uzbek news texts. The methods chosen ensure both empirical rigor and contextual depth, allowing for nuanced conclusions on the stylistic dynamics of journalistic discourse in two distinct linguistic systems.

Results. The comparative analysis of selected English and Uzbek news articles revealed notable similarities and differences in the usage of linguistic stylistic devices. The study focused on identifying the most commonly employed stylistic tools and understanding their function and frequency across both languages.

In English news texts, metaphor emerged as the most frequently used stylistic device. Journalists often employed vivid metaphors to simplify complex political or economic situations, allowing readers to form quick associations. For instance, phrases such as "the economy is on life support" or "a political storm is brewing" were common [3,6]. In addition to metaphor, rhetorical questions, alliteration, and ellipsis were frequently observed. These devices served to emphasize urgency or to create a rhythm that increased reader engagement.

In contrast, Uzbek news articles demonstrated a more traditional and emotionally expressive use of stylistic devices. The most prominent tools included mubolag‘a (hyperbole), tazod (contrast), and takror (repetition). These elements were often embedded in culturally resonant contexts, emphasizing values such as national pride, social unity, and optimism. For example, statements such as "xalqimiz hech qachon bunga o‘xshash yutuqlarga erishmagan edi" illustrated a typical use of hyperbolic language to inspire and persuade. The syntactic structure also differed significantly. English texts showed flexibility in sentence structure, frequently using inversion and parallelism for stylistic effect. Uzbek news texts, however, followed more formal syntactic patterns but used repetition effectively to reinforce key messages and maintain rhythm [9]. Overall, both English and Uzbek news articles employed stylistic devices extensively, though the type and purpose of those devices varied in line with cultural and journalistic traditions.

Discussion. The findings of the study indicate that linguistic stylistic devices in news discourse serve not only aesthetic or rhetorical functions but also reflect deeper cultural, ideological, and communicative norms. In English-language journalism, the use of stylistic devices is closely tied to the principles of critical analysis, irony, and reader engagement. Metaphors, rhetorical questions, and ellipsis are used to create subtlety, provoke thought, or shape public opinion without overt persuasion. The preference for metaphor in English journalism reflects a culture of abstraction and conceptual framing. Such metaphors help readers grasp abstract political or economic processes through more concrete or familiar imagery. Furthermore, the flexible use of syntax allows English journalists to structure information dynamically, often placing emphasis on dramatic developments or unresolved issues [1,4].

In contrast, stylistic devices in Uzbek journalism are more closely aligned with emotional expression, social cohesion, and national ideology. Devices such as repetition and hyperbole are not merely decorative; they function as tools for affirmation and solidarity. By repeating key

phrases and using expressive exaggeration, journalists reinforce messages aligned with state policies, national development goals, and collective identity.

The differences observed are not only linguistic but also ideological. While English media often function as a platform for debate and critique, Uzbek media tend to emphasize unity, positivity, and progress. This is particularly evident in how both languages stylistically frame government actions or public events. Uzbek articles frequently reference presidential speeches and national reforms, often introducing them with emotionally charged stylistic framing, such as metaphors of rebirth, renewal, and strength. The discussion of the results highlights how stylistic choices in news media are shaped by both linguistic resources and cultural expectations. Understanding these stylistic differences is essential for appreciating the diversity of journalistic discourse and for improving cross-cultural communication and media literacy [4,11].

Conclusion. This comparative study of English and Uzbek news texts revealed distinct patterns in the use of linguistic stylistic devices, shaped by cultural, ideological, and journalistic traditions [3,6]. While English media tend to employ metaphor and rhetorical tools to provoke critical thought, Uzbek media prioritize emotionally resonant devices like repetition and hyperbole to inspire unity and national pride. Understanding these stylistic preferences enhances cross-cultural awareness and deepens our interpretation of news discourse. Future research may explore how these patterns evolve in response to global media influences.

LITERATURE

1. Bekmurodov M. O‘zbek matbuotidagi uslubiy vositalarning lingvistik xususiyatlari. – Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2012. B. 45–51.

2. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.

3. Galperin I.R. Stylistics. – Moscow: Higher School Publishing House, 1977.

4. Hudoyberganova D. O‘zbek tilida matbuot uslubining zamonaviy ko‘rinishlari. – Toshkent: O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, 2016. B. 28–36.

5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 1997.

6. Kukharenko V.A. A Book of English Stylistics. – Moscow: URSS, 2005.

7. Madvaliev A. O‘zbek tilshunosligida uslubshunoslik masalalari. – Toshkent: Fan, 2009.

8. Nazarova M. «Linguistik uslubiy vositalar va ularning media matnlardagi funksiyalari» // Filologik tadqiqotlar, №3(7). – Toshkent, 2021.

9. Skrebnev Y.M. Fundamentals of English Stylistics. – Voronezh: IST Publishing, 2003.

10. Tursunova G. Matbuot tilining lingvistik va uslubiy xususiyatlari. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2015. B. 66–72.

11. Wodak R., van Dijk T.A. Discourse and Ideology. – London: Sage Publications, 2000. P. 102–109.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO‘Z-GAPLAR

Karimova Zulnura G‘ulamqodirovna
Toshkent davlat agrar universiteti
Tillar kafedrasi dotsenti
purelight16.09@gmail.com

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida so‘z-gap tushunchasi, uning o‘rni va ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan. So‘z-gaplar shaklan so‘z, mazmunan esa to‘liq gap vazifasini bajaradigan til birligi sifatida baholanib, turli manbalarda ularning mohiyati, turlari va morfologik tuzilishiga oid qarashlar xilma-xilligi tahlil qilingan. So‘z-gaplar zamonaviy tilshunoslikda muhim ilmiy obyektlardan biri sifatida qaralib, ularni chuqur tahlil etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: so‘z-gaplar, o‘zbek tilshunosligi, yondashuv, gap, formal-funksional, sintaktik, morfologik.

СЛОВО-ПРЕДЛОЖЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

АННОТАЦИЯ В данной статье анализируется понятие слово-предложение в узбекском языкознании, его роль и научные подходы к его изучению. Слово-предложения рассматриваются как языковые единицы, которые по форме являются словами, но по содержанию выполняют функцию полного предложения. В работе рассматривается многообразие взглядов, представленных в различных источниках, относительно сущности, типов и морфологической структуры слово-предложений. Слово-предложения рассматриваются как один из важных объектов современного языкознания, и их всесторонний анализ считается актуальной научной задачей.

Ключевые слова: слово-предложения, узбекское языкознание, подход, предложение, формально-функциональный, синтаксический, морфологический.

WORD-SENTENCES IN UZBEK LINGUISTICS

ABSTRACT This article analyzes the concept of the word-sentence (so‘z-gap) in Uzbek linguistics, its significance, and various scholarly approaches to it. Word-sentences are considered linguistic units that are structurally words but semantically perform the function of complete sentences. The study examines diverse perspectives found in different sources regarding their essence, classification, and morphological structure. Word-sentences are

regarded as important objects of study in modern linguistics, and conducting an in-depth analysis of them is considered a relevant and pressing issue.

Keywords: word-sentences, Uzbek linguistics, approach, sentence, formal-functional, syntactic, morphological.

Kirish. So‘z-gaplar shaklan so‘z yoki so‘z birikmasi, lekin butun bir gap ma’nosiga ega bo‘lgan til birligi hisoblanib, nutqning samaradorligini oshirishga, qisqa va ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Tilshunoslikda, xususan, tilshunoslikning bir qator pragmalingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika kabi sohalarida so‘z-gaplar tadqiqi muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, o‘zbek tilshunosligida shu kunga qadar so‘z-gaplarning an’anaviy, formal-funksional hamda antropotsentrik aspektdagi ayrim tahlillari amalga oshirilgan. Ammo bu yo‘nalishlardagi ishlarda so‘z-gaplar turlicha tavsiflangan, hatto ularning tasnifida ham har xillik kuzatiladi.

Asosiy qism. Ilmiy manbalar tahlili o‘zbek tilshunosligida so‘z-gaplar alohida tadqiqot obyekti sifatida, shu bilan birga, boshqa muammolar tarkibida o‘rganilganligini ko‘rsatdi. Ya’ni:

1. So‘z-gaplar sodda gaplarning alohida turi sifatida maxsus tadqiq etildi.

2. So‘z-gaplar bo‘laklarga bo‘linmaydigan gaplar, bir sostabli gaplarning turi sifatida o‘rganildi.

3. So‘z-gaplar to‘liqsiz gaplar, tasdiq va inkor gaplar tarkibida o‘rganildi.

4. So‘z-gaplar morfologik aspektda undov va modal so‘zlar tahlilida, ularning sintaktik vazifasi bilan bog‘liq holda o‘rganildi.

5. So‘z-gaplar morfologik sathda alohida so‘z turkumi sifatida ajratilib tadqiq etildi.

Anglashiladiki, o‘zbek tilshunosligida so‘z-gaplar turli yondashuvlarda o‘rganib kelindi va nafaqat sintaktik, balki morfologik, morfologik-sintaktik hodisa sifatida ham talqin qilindi.

An’anaviy tilshunoslikda so‘z-gaplar sodda gaplar tarkibida uning alohida turi sifatida tavsiflandi. Bu qarash, avvalo, sintaksis masalalari, xususan, sodda gap tahliliga oid ilmiy manbalarda hamda darslik va o‘quv qo‘llanmalarida ilgari surildi.

So‘z-gaplarning sodda gaplarning alohida turi ekanligi haqidagi qarashlar A.N.Kononovning “Грамматика узбекского языка”, A.G‘ulomovning “Sodda gap” asarida, E.Shodmonovning “Hozirgi zamon o‘zbek tilida so‘z-gaplar” deb nomlangan tadqiqot ishida, G‘.Abdurahmonovning “O‘zbek tili grammatikasi” (Sintaksis), B.O‘rinboyevning “O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi”, O‘zR FA tilshunos olimlari tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili grammatikasi” kitoblarida ko‘zga tashlanadi. Jumladan, A.N.Kononovning “Грамматика узбекского языка” kitobida so‘z-gaplar alohida ajratib tavsiflanmagan bo‘lsa-da, undov so‘zlar tahlilida undovlarning so‘z-gap ekanligi, ular so‘z turkumi bo‘la olmasligi takidlanadi.[1]

E.Shodmonov ham o‘z tadqiqot ishida so‘z-gaplarni gapning alohida turi sifatida talqin qilgan. U “Hozirgi zamon o‘zbek tilida so‘z-gaplar” deb nomlangan tadqiqot ishida o‘zbek tilida so‘z-gaplarning qanday morfologik birliklar bilan ifodalanishi, predikativlik xususiyati,

intonatsiyasi, undalma va kirish so‘zlardan farqi, kontekst, nutq vaziyati bilan bog‘lanishi, dialog va monolog, qo‘shma gaplar tarkibida kelishi, ifoda maqsadi hamda intonatsion xususiyati asosida ichki turlarga bo‘linishi haqida ma’lumot berdi.[2] Shuningdek, tilshunos so‘z-gaplarning morfologik asosi – material manbayi quyidagi so‘z va iboralardan iborat ekanligini ko‘rsatgan: 1. Undov so‘z va undov iboralar. 2. Modal so‘z va modal iboralar. 3. Bosh kelishik shaklidagi vokativ otlar. 3. Ayrim yuklamalar. 4. Tasviriy so‘zlar.

G‘.Abdurahmonovning “O‘zbek tili grammatikasi” (Sintaksis) kitobida so‘z-gaplar bir sostavli gaplarning turi sifatida keltirilgan. Olim so‘z-gaplarga quyidagicha tavsif bergan: “Maxsus ohang bilan talaffuz qilinadigan, ammo biror hukm yoki mavjudlik ifodalamagan so‘z va so‘z birikmalari atov gap bo‘la olmaydi. Ular so‘z-gapni tashkil etadi… Ular bir yoki bir turdagi so‘zdan iborat bo‘lib, turli his-tuyg‘ular ifodalanayotgan fikrga turli munosabatlarni bildiradi... Bunday gaplar tobe yoki hokim bo‘laklarni talab ham etmaydi, ularda biror bo‘lakning “yashiringani” ham sezilmaydi. Ular oldin aytib o‘tilgan fikrga modal munosabatlarni ifodalaydi. Shuning uchun ham ular ko‘proq dialog, ba’zan monolog gaplarda qo‘llanadi. Ana shu xususiyatlarga ko‘ra ular to‘liqsiz gaplardan ham, hatto bir sostavli gaplardan ham farqlanib turadi”. [3]

Ushbu kitobda so‘z-gaplarning quyidagi turlari ajratilgan: 1.Tasdiq bildiruvchi so‘z-gaplar (*ha, shunday, to‘g‘ri, yaxshi, albatta, xo‘b, bo‘lmasam-chi*). 2. Inkor so‘z-gaplar (*aksincha, yo‘q*). 3. So‘roq so‘z-gaplar (*nahot, nahotki*). 4. His-tuyg‘u so‘z-gaplar (*uh, bay-bay, ha-ha, dod, voydod, salom, qulluq*). 5. Modal gaplar.

B.O‘rinboyevning so‘zlashuv nutqining sintaktik xususiyatlari tahliliga bag‘ishlangan kitobida ham so‘z-gaplar sodda gaplarning alohida turi sifatida talqin qilinib, so‘zlashuv nutqida qo‘llanishi xususiyatlari ochib berilgan. Olim so‘z-gaplarga tavsif berar ekan, ularni vokativ gaplardan farqlash lozimligini ta’kidlagan. Uning fikricha, vokativ gaplar har doim ham so‘z-gap sifatida kelavermaydi, shunga ko‘ra vokativ gaplarni so‘z-gap deb hisoblash to‘g‘ri emas. Tilshunos so‘z-gaplarni semantik jihatdan tasniflagan. U inkor ottenkasini bildiruvchi so‘z-gaplar, tasdiq ottenkasini bildiruvchi so‘z-gaplar, so‘roq so‘z-gaplar, emotsional so‘z-gaplarni ajratgan. [4]

So‘z-gaplar to‘liqsiz gaplar, tasdiq va inkor gaplar tarkibida ham o‘rganilgan. Jumladan, A.Boboyevaning to‘liqsiz gaplar tadqiqiga bag‘ishlangan ishida so‘z-gaplarga ham munosabat bildirilib, ularning to‘liqsiz gaplardan farqli xususiyatlari ochib berilgan. [5]

O‘zbek tilida tasdiq va inkorning ifodalanishi masalasi yoritilgan A.Nurmonovning tadqiqot ishida *ha, yo‘q* so‘zlarining gapda tasdiq va inkorni ifodalab, so‘z-gap vazifasida kelishi ko‘rsatilgan. [6] Olimning “So‘zlarni turkumlarga ajratish muammolari” nomli maqolasida esa tasdiq-nkor so‘zlar undovlar, modpl so‘zlar, taklif so‘zlar qatorida oraliq so‘zlarga kiritiladi. [7]

Ba’zi manbalarda *ha, yo‘q* so‘zlari modal so‘zlar sifatida o‘rganilgan.[8] Ayrim tilshunoslar bu so‘zlar gapda o‘z maqomini o‘zgartirmasligi, shu sababli modal so‘zlardan farq qilishini ta’kilashadi.[9] R.Bobokalonov esa ularni tasdiq-inkor so‘z-gaplarga kiritadi. [10]

So‘z-gaplarning bo‘laklarga bo‘linmaydigan gap turi sifatida tavsiflanishi A.G‘ulomovning “Sodda gap” asarida hamda hammualliflikda yozilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida kuzatiladi. A.G‘ulomov so‘z-gaplarni “bo‘laklarga ajratilmaydigan gaplar” deb nomlaydi.[11] U bo‘laklarga ajratilmaydigan bunday gaplarning bir so‘z, ba’zan turg‘un birikma bilan ifodalanishi, o‘ziga maxsus aniqlovchi olib yoyilmasligi, emotsiya, shu tusdagi istak-buyurish, biror hodisaga qanday qarash kabilarni ifodalashi va shu jihatidan buyruq bildiradigan gaplar, emotsional baho bildiradigan gaplar, tasdiq va inkor bildiradigan gaplar, muomala odatlarini bildiradigan gaplarga bo‘linishini bayon qilgan.

So‘z-gaplarning bo‘laklarga bo‘linmaydigan gaplar turi sifatida izohlanishi S.Rahimov va B.Umurqulovlarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida ham kuzatiladi. Kitob mualliflari bu turga mansub so‘z-gaplar orqali nutqda quyidagi ma’nolar ifodalashini qayd etishgan:

1. Tasdiq yo inkor: *Mayli, xo‘p, yaxshi, yo‘q.*
2. So‘roq: *Rostmi? Bo‘ptimi?*
3. Rasm-odat: *Omonlik. Sog‘lik. Assalom.*
4. Tahsin: *Balli. Ofarin. Rahmat.*
5. Buyruq: *Bas. Jim.*
6. His-hayajon: *Eh. Uf. Voydod.*

Kitobda to‘liqsiz gaplarning turi sifatida *Yo‘q* so‘z-gapi keltirilgan:

– *Siz bu yerlarda oldin ham bo‘lganmisiz?* (To‘liq gap)

– *Yo‘q.* (To‘liqsiz gap). [12]

Ushbu xulosadan anglashiladiki, keyingi yillarda yaratilayotgan ba’zi o‘quv adabiyotlarda ham so‘z-gaplar bo‘laklarga bo‘linmaydigan gap turi sifatida izohlanmoqda.

Ayrim tilshunoslar so‘z-gaplarga nisbatan *bo‘laklarga bo‘linmaydigan gaplar* terminining qo‘llanilishini ma’qullashmaydi. Jumladan, N.Mahmudov va A.Nurmonov hammuallifligida yozilgan “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi” kitobida *bo‘laklarga bo‘linmaydigan gaplar* terminidan ko‘ra so‘z-gap termini qo‘llash maqsadga muvofiq ekanligi ta’kidlanadi. Kitobda bayon qilinishicha, “so‘z-gap atamasi gapning moddiy asosi bitta so‘zdan tashkil topganligiga ishora kiladi. Lekin bitta so‘zdan yuqoridagi tipdagi gaplardan tashqari, to‘liqsyz va bir tarkibli gaplar ham ifodalanishi mumkin. Undash gaplar, vokativ gaplar atamasi esa matniy bog‘liq gaplarning faqat bir turini – undalma asosida shakllangan murakkablashgan gaplarni o‘z ichiga oladi. [13]

Qator manbalarda alohida so‘zlar guruhidagi ayrim undov so‘zlar (*salom, rahmat, tashakkur* kabilar) va modal so‘zlarning sintaktik vazifalariga izoh berishda ularning gapda kirish so‘z va so‘z-gap vazifasida kelishi ta’kidlanadi. Bu holat ayni birliklarning gapda sintaktik vazifasi – so‘z-gaplik xususiyatini ham namoyish qilishi bilan bog‘liq. Jumladan, R.A.Komiljonovaning tadqiqot ishida o‘zbek tilidagi modal so‘zlarning morfologik xususiyatlari hamda gapdagi sintaktik vazifalari yoritilgan.

Tadqiqotda modal so‘zlar quyidagi 2 turga ajratilgan: 1) kirish-modal so‘zlar; 2) qo‘shma kesim komponenti bo‘lib keluvchi modal so‘zlar.[14] Ko‘rinadiki, tadqiqotchi modal so‘zlarni

tasniflashda ularning turli xususiyatiga e’tibor qaratgan. Ya’ni, tasnifda modal so‘zlarning gapda bajargan sintaktik vazifasi hamda qo‘shma kesimni hosil qilishi inobatga olingan. Ammo tadqiqotchi negadir modal so‘zlarning so‘z-gaplik funksiyasini inobatga olmagan.

Modal so‘zlarning so‘z-gaplik xususiyati O‘.Lafasovning tadqiqot ishida ham e’tirof etilgan. U o‘zbek tilida subyektiv munosabat ifodalovchi modal so‘zlarning dialogik nutqda so‘z-gap vazifasida qo‘llanish xususiyatlari yoritgan. [15]

O‘zbek chog‘ishtirma tilshunosligida modal so‘zlar turli tizimli tillar misolida qiyosan o‘rganilgan ishlar ham mavjud. Jumladan, S.Saidovning o‘zbek va nemis tillaridagi modal so‘zlar tadqiqiga bag‘ishlangan chog‘ishtirma aspektdagi tadqiqotida modal so‘zlarning morfologik xususiyatlari bilan birga, gapda bajaradigan sintaktik vazifalari, xususan, so‘z-gap vazifasida kelishi qayd etilgan. [16]

M.M.Jo‘rayevaning tadqiqot ishida esa fransuz va o‘zbek tillaridagi modal ma’no ifodalovchi birliklar tahlilga tortilgan. Tadqiqotchi bu tillardagi modal so‘zlarni kelib chiqishi jihatidan tasniflagan. U bu belgisiga ko‘ra modal so‘zlarni sof modallar hamda vazifadosh modal so‘zlarga ajratgan. Tadqiqotchining fikricha, vazifadosh modallar qaysidir so‘z turkumiga oid bo‘la turib, o‘rni kelganda so‘zlovchining o‘z fikriga qo‘shimcha munosabatini anglatish uchun modal so‘z sifatida qo‘llanadigan lug‘aviy birliklar (*to‘g‘risi, chamasi, aftidan, muhimi, ehtimol*)dir. [17]

O‘zbek tilshunosligida so‘z-gaplar tadqiqiga R.Bobokalonovning yondashuvi ajralib turadi. Tadqiqotchi o‘zbek tilidagi so‘z-gaplarni morfologik sathda alohida so‘z turkumi sifatida tadqiq qildi. Uning nomzodlik ishida undov, modal, tasdiq-inkor va taklif-xitob bildiruvchi morfologik birliklar so‘z-gaplar turkumiga birlashtirildi.

R.Bobokolonov so‘z-gaplarni mustaqil so‘zlar, yordamchi so‘zlar va sodda yoxud qo‘shma gaplardan farq qiluvchi quyidagi belgilarini ko‘rsatadi:

1) mustaqil holda gap bo‘la olish;

2) gap tarkibida shu gapning biror bo‘lagi bilan sintaktik aloqaga kirisha olmaslik;

3) o‘ziga xos g‘ayrioddiy ma’noga ega bo‘lish;

4) bog‘lama bilan birika olmasligi va shuning uchun mayl, zamon, shaxs/son shakllariga ega emasligi.

Tadqiqotchi mana shu to‘rt asosiy belgi so‘z-gaplarning leksik, grammatik va semantik jihatdan alohida hodisa va turkum ekanligini ko‘rsatuvchi belgilar ekanligini ta’kidlaydi. [18:10]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilshunosligida ham, jahon tilshunosligining boshqa yo‘nalishlarida kuzatilganidek, so‘z-gaplar masalasi katta qiziqish uyg‘otib kelmoqda. Bu borada so‘z-gaplarning mazmuniy-strukturaviy xususiyatlari, tildagi funksiyasi, kommunikativ rollari hamda qo‘llanish doirasi atroflicha o‘rganilmoqda. Xususan, so‘z-gap tushunchasining aniq ta’rifi, uning gapdan farqi, sintaktik mustaqilligi, bayondagi ta’sirchanligi kabi jihatlar muhokama qilib kelinmoqda. Umuman olganda, so‘z-gaplar zamonaviy tilshunoslikda

kommunikativ-pragmatik vazifalari, nutqdagi emotsional ta’siri, modallik bilan bog‘liq xususiyatlari va ularni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

АДАБИЁТЛАР/REFERENCES:

1. Кононов А.Н. Грамматика узбекского языка. – Ташкент: Государственное УзССР. – С. 226- 227.
2. Шодмонов Э. Ҳозирги замон ўзбек тилида сўз-гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1970. – 230 б.
3. Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 34-36.
4. Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. – Тошкент, 1974. – 147 б.
5. Бобоева А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида тўлиқсиз гаплар. – Тошкент: Фан, 1978. – 103 б.
6. Нурмонов А. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1982. – 152 с.
7. Нурмонов А. Сўзларни туркумларга ажратиш муаммолари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. – Андижон, 2010. – Б.6-8.
8. Турниязова Ш.Н. Матн деривациясида инкор ва тасдиқ сўзларнинг ўрни // https:// inlibrary.uz/index. php/ mlrfear/article/download/5824/6004.
9. Солихов Ф. Ш. Модальные слова, выражающие значение модальности предположения в английском языке // https://cyberleninka.ru/article/n/modalnye-slova-vyrazhayuschie-znachenie-modalnosti-predpolozheniya-v-angliyskom-yazyke/viewer
10. Бобокалонов Р.Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 135 б.
11. Ғуломов А. Содда гап. – Тошкент: Фан, 1955. – Б.12-18; Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987.
12. Раҳимов С., Б.Умуркулов. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент: “Молия” нашриёти, 2003. – Б.228.
13. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (Синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 70-71.
14. Комилжонова Р.А. Ҳозирги замон ўзбек тилида модал сўзлар. – Тошкент, 1975. – Б. 128–143.
15. Лафасов Ў. Диалогик нутқда субъектив модалликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 26 б.
16. Саидов С. Модальные слова в немецком и узбекском языках: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 1967. – 23 б.
17. Жўраева М.М. Француз ва ўзбек эртакларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий- маданий хусусиятлари. – Тошкент: Фан нашриёти, 2016. – Б.127.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ONA TILINI O‘QITISHDA LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV

Jumayev Anvar
Jizzax viloyati Zafarobod tumani 8-maktab o‘qituvchisi
E-mail: jumayevanvar965@gmail.com
Ilmiy rahbar: f.f.f.d (PhD), dots. ***F. Jumayeva***

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida leksikologiya, morfologiya, sintaksisni o‘qitishda lingvokulturologik yondashuvning o‘rni va ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: so‘z, lingvokulturologiya, leksikologiya, leksik ma’no, morfologiya, sintaksis, grammatik ma’no, ona tili.

Аннотация. В данной статье освещается роль и значение лингвокультурологического подхода в преподавании лексикологии, морфологии и синтаксиса на уроках родного языка.

Ключевые слова: слово, лингвокультурология, лексикология, лексическое значение, морфология, синтаксис, грамматическое значение, родной язык.

Abstract. This article highlights the role and importance of the linguocultural approach in teaching lexicology, morphology, and syntax in native language lessons.

Key words*:* word, linguoculturology, lexicology, lexical meaning, morphology, syntax, grammatical meaning, native language.

Leksikologiyani o‘rganishda lingvokultorologik yondashuv tilning madaniy tomonini ochib berish, til birliklarining ma’nosi va funksiyalarini to‘liq tushunishga yordam beradi. Leksikologiyani o‘qitishda leksik birliklarning madaniy konnotatsiyalarini aniqlash, milliy mentalitetning leksik ifodalarini o‘rganish va tilning ijtimoiy funktsiyalarini tahlil qilish o‘quvchilarning so‘z boyligini va milliy-madaniy tasavvurini boyitadi.

Belgi hayotimizda biror-bir ishora qiladigan ko‘rinish, obraz, shakllar hisoblanadi. Misol keltiradigan bo‘lsak, so‘roq belgisi (?) yoki turli xil yo‘l belgilarini (P) ko‘rganimizda bu shakllar nimagadir ishora qilayotganini yaqqol fahmlaymiz. Ramzlar esa o‘sha belgilarning boshqa ma'no xususiyatiga ko‘chishidan hosil bo‘ladi, o‘z ma’nosida emas balki yangi tushunchalarni bildirib keladi. Misol uchun o‘zbekligimizni aks ettiruvchi *atlas* so‘zi haqida gapiradigan bo‘lsak. Bu so‘z o‘zbekning azaliy urf-odatlari, yorqin tabiati, madaniyatini o‘zida namoyon etadi. Bu so‘z orqali o‘quvchilar ongiga yurtimizning go‘zal tabiati, dalalarda ochilib turgan qip-qizil lolalar, bu go‘zallikning atlas ranglarida aks etishi, momolarimizning o‘y-fikrlari haqida ma’lumotlar, tasavvur-tushunchalar singdiriladi. Bunday milliylikning ramziy

ifodasi bo‘lgan so‘zlar tilimizda bisyor ekanligi barchamizga ma’lum. O‘zbek milliy madaniyatiga xos bo‘lgan so‘zlarga misol qilib yana *sumalak* so‘zini keltiramiz. *Sumalak* qadim-qadimdan o‘zbek xalqining eng sevimli va qadrli taomi hisoblanadi. Uning tarixi, bahor taomi sifatida qardlanishi haqidagi rivoyatlarni so‘zlab berish orqali o‘quvchilarda shu so‘zni tushunish bilan birga milliy qadriyatlarga muhabbat tuyg‘usi shakllanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda o‘quvchilarga milliy qadriyatlarimiz, milliy tarbiyamizni chuqurroq singdirish zarurati bor. Buni amalga oshirishda milliy madaniyatimizni o‘zida aks ettiruvchi so‘zlar, ibora va maqollardan unumli foydalanish yosh avlodning milliy didi, gururi, vatanga muhabbatini qadriyat darajasida yuksaltiradi. Milliy liboslar sirasiga kiruvchi *yaxtak* so‘zi fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘z bo‘lib, *yax* – muz degan ma’noda keladi. O‘zbek milliy kiyimlari ichida paxtasi yo‘q, hamma sevib kiyadigan milliy kiyim hisoblanadi.

Yana bir misol, o‘zbek milliy madaniyatini o‘zida aks ettiruvchi *do‘ppi* so‘zini olaylik. Bu so‘zning leksik ma'nosi: asosan, dumaloq yoki to‘garak shakldagi narsa, bosh kiyimi. Do‘ppi qadimdan erkaklar, ayollarning milliy bosh kiyimi hisoblanadi. *Do‘ppi* so‘zi o‘zbeklarning milliy-madaniy ramziga aylangan. O‘zbekistonda do‘ppi nafaqat kiyimning bir turi, balki xalq madaniyatining tarkibiy qismidir. Bugungi kunda do‘ppini faqat ayrim holatlarda: oilaviy tantanalarda, dafn marosimlari yoki bayramlarda kiyilganini ko‘ramiz. Do‘ppiga tushirilgan naqshlar o‘zbek xalqining o‘y-xayollari, orzu-umidlari haqida so‘zlaydi. Har bitta rasm, chiziqlarda chuqur ma'no-mazmun, sir mujassam. Hozirgacha xalq orasida do‘ppilar haqidagi afsonalar va rivoyatlar saqlanib kelinadi.

Barqaror birikmalarning madaniy semalarini tahlil qilish orqali ham o‘quvchilarga madaniyatimiz haqida keng bilim-tushunchalarni beramiz. Barqaror birikmalar qiyosi orqali turli xalqlarning urf-odatlari, o‘y-xayollari, orzu-umidlari, turmush tarzi, tarixini o‘rganish imkoni mavjud. O‘zbekcha barqaror birikmalarning mazmuniy muqobili boshqa tillarda ham ko‘plab uchraydi. O‘zbek xalq maqollaridan biri “Chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin” bo‘lib, bu maqol mazmunidan ota-bobolarimizning o‘z ishiga nihoyatda mas’uliyatli bo‘lishganini fahmlaymiz. Maqolning mazmuniga diqqat qaratadigan bo‘lsak, har bir ishni shu ishning ustasi, bilimdoni bajargani ma’qulligi uqtirilmoqda. Biron-bir kasbga o‘zi qiziqmagan holda kelib qolgan va bilmasdan, qiziqmasdan ish olib borayotgan odam shu soha bo‘yicha hech qanday yutuqqa erishmaydi, boshqalarga nafi tegmaydi. O‘z ishini sevgan insongina shu ishning ustasi, bilimdoniga aylanadi va bunday insonlarda yaratuvchanlik qobiliyati rivojlanadi hamda shu soha rivojiga, jamiyat rivojiga ulkan hissa qo‘shadi. Shunday bilim-tushunchalarni so‘z ma’nosi tahlili orqali o‘quvchilar ongiga yetkazish, milly tafakkur, dunyoqarashni rivojlantiradi.

Til faqatgina aloqa vositasi emas, balki milliy madaniyatning muhim elementidir. Shu sababli, morfologiyani o‘rganishda lingvokultorologik yondashuvning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Tilshunoslikning morfologiya (morf – shakl, logos – ta’limot) bo‘limi so‘zlarning ma’nosi va shakllari, so‘z turkumlari haqida biz uchun muhim ma’lumotlarni beruvchi bo‘lim hisoblanadi. Maktab darsliklarining 6-va 7- sinf ona tili kitobida mustaqil va yordamchi so‘z

turkumlari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Morfologiya tilshunoslikning keng qamrovli bo‘limi ekanligini hisobga olsak, aynan shu bo‘limda o‘quvchilarga juda katta lingvomadaniy saboqlarni berishimiz mumkin. Shu bois ona tili darslarini tashkil etishda bunga alohida e’tibor qaratish milliy ong, tafakkur rivojida samarali usullardan biridir.

Ot so‘z turkumini o‘rganishda madaniy birliklardan foydalanib, o‘quvchilarga o‘zbek xalqining qadriyatlari, urf-odat, marosimlari haqida ma’lumot berish muhim masalalardan biridir. Chunki narsa-hodisalar nomida milliy-madaniy xususiyatlar ham aks etib turadi. Chetdan kirib kelayotgan begona madaniyatlarning ta’sir doirasi kuchayib borayotga shunday bir davrda yoshlarni milliyligimiz uchun yot bo‘lgan odatlardan asrash, xalqimizga xos bo‘lgan qadimiy urf-odatlar bilan tanishtirib borish, ma’naviyatli xalqimizning o‘gitlari, pand-nasihatlarini milliy-madaniy qarashlarini ong-u shuuriga singdirish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Ot so‘z turkumiga mansub bo‘lgan *sabr* so‘zi tahliliga e’tibor qarataylik. O‘zbek xalqi azaldan sabr - bardoshli xalq bo‘lib kelgan. Sabr bu -qiyinchilik, tashvishli kunlarda oz hayotiga rozilik shukronalik qilish demakdir. Xalqimizda “Sabr tagi sariq oltin” maqoli bejizga aytilmagan. Ota - bobolarimiz qancha qiyinchilik, og‘ir - zahmatli kunlarda ham sabr qilib, yon-atrofidagi ozidan ham mushkul ahvolga tushib qolgan insonlarga yordam qo‘lini cho‘zishgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida temirchi ota oilasining mehribonchiliklari haqida o‘quvchilarga so‘zlab berish, ularning o‘zbekona mehr-muhabbatini yuksak darajada anglatish o‘qituvchlarida milliy g‘urur, iftixor tuyg‘usini jonlantiradi.

O‘zbek milliy madaniyati, urf-odatlarini ifoda etuvchi son soz turkumiga oid so‘zlar ham o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi va milliy tarbiyaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bilamizki, son so‘z turkumi miqdor va tartibni bildiruvchi so‘zlardan tashkil topgan. Har qanday hisob-kitobni amalga oshirishda sonlar yordamga keladi. O‘zbek xalqi sonlarni faqat hisob amali uchun emas, ramziy ifodalar uchun ham qo‘llab kelishgan. Sonlarga milliy tafakkur, urf-odatlar haqidagi bilimlar jo etilgan. Ona tilini o‘qitishda “sehrli sonlar” deb ataluvchi sonlarga, jumladan: 3, 7, 9, 20, 40 sonlariga ham e’tibor qaratiladi. Dars jarayonida bu sonlarda ifoda topgan ramziy ma’noning hosil bo‘lish tarixi, unga sabab bo‘lgan omillar haqida gapirib o‘tish o‘zbek xalqining tafakkuri, orzu-umidlari, o‘y-xayollari, milliy-madaniy, diniy qarashlari haqida bilim hosil qiladi. Shuningdek, bunday milliy-madaniy tushunchalarni ifoda etuvchi so‘zlarning qo‘llanilishi haqida bilimga ega bo‘lish va nutqda ulardan o‘z o‘rnida foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Atrofga nazar tashlasak, yetti raqami bizni qurshab olgandek tuyuladi: yetti mo‘jiza, yetti xazina, hafta kunlari, moddalarning yetti ko‘rinishi, yetti musiqiy nota, yetti avlod, yetti iqlim, yetti sayyora va h.k. Yetti soni butun dunyo xalqlari madaniyatida muayyan bir ramziy ifodani anglatishi barchamizga ma’lum. O‘zbeklar uchun yetti raqami ijobiy ma’nolarni bildirib keladi. Sharq xalqlari madaniyatida yetti avlodni, ota-bobolarini bilish talab etiladi. U qaysi avlod vakili, otasi kim va qanday inson bo‘lgan, ulardan oldingi bobolari qanday kishilar bo‘lgan va qanday yumush bilan shug‘ullangan, umuman, shunday yetti ota-bobosini surishtish madaniyatning muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

O‘zbek tilida yetti raqami ishtirokidagi ko‘plab maqol-matallar, iboralarni uchratamiz: “Yetti o‘lchab, bir kes”, “O‘zini yettinchi osmonda his qildi” va h.k. To‘y-marosimlarda: *uch kunlik, yettisi, to‘qqizi, qirqi* kabi urf-odat nomlari ko‘plab uchraydi. Azador xonadonda 9 oygacha telvizor ko‘rish va hursandchilik marosimlarini o‘tkazish umuman mumkin emas deb qaraladi. Xalq tilida “Suv yetti dumalasa, halol” iborasi ham ishlatiladi. Uni amalda choyni uch marta qaytarish, ya’ni yetti marta dumalatish holatida kuzatamiz. Shuningdek kelin kuyovlarning 40 kunlik, chaqaloqlarning ham 40 kunlik chilla saqlashi bilan bog‘liq amallarda ham ularni turli yomonliklardan asrashga urinish, aytaylik ko‘z tegishi, kasalliklardan asrash kabi ko‘plab maqsadlar mujassam etilgan bo‘lib, bu amallarning ba’ri chuqur ilmiy-nazari asosga ega.

Halol so‘zi sifat so‘z turkumiga mansub so‘z hisoblanadi. Bunday xislatga ega bo‘lgan insonlarni ham xalqimizning orasida obro‘-e’tibori baland. Maktab o‘quvchilarining kelajakda maktab ostonasini xatlab o‘tib katta hayot yo‘liga qadam qo‘yganida ularning xalqimiz, elimiz, o‘z mahallasi orasida hurmat-e’tibor topishi uchun bu so‘zlarning nafaqat leksik ma’nosi, shuningdek, milliy-madaniy xususiyatlarini ham yetkazib berish zarur bo‘ladi.

Morfologiya fanini o‘rganishda lingvokultorologik birliklarning ahamiyati juda katta. Ushbu yondashuv morfologik hodisalarni faqatgina leksik-grammatik jihatdan emas, balki madaniy va ijtimoiy kontekstda tahlil qilishga imkon beradi. Bu esa tilni chuqurroq va to‘liqroq tushunishga, milliy mentalitet va madaniyatni o‘rganishga yordam beradi.

Sintaksis tilshunoslikning gap tuzilishi, gap bo‘laklari orasidagi munosabatlar va gaplarning bir-biriga bog‘lanishini o‘rganadigan bo‘limi hisoblanadi. An’anaviy sintaksis tadqiqotlari ko‘pincha gaplarning grammatik tuzilishiga, ularning tarkibiy qismlariga va ular orasidagi munosabatlarga qaratilgan. Tilning sintaktik tuzilishi ham madaniy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanib, rivojlanadi. Shu sababli, sintaksisni o‘rganishda lingvokultorologik yondashuvning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

So‘z birikmalari o‘z ichida ma’no xususiyatiga ko‘ra, bog‘lovchi vositalarning turiga ko‘ra farq qiladi. Jumladan, *foydali ish* so‘z birikmasi, avvalo, o‘quvchilarga mazmuniy jihati tushuntirib o‘tiladi. O‘quvchilar o‘zlarining bo‘sh vaqtlarini turli xil bekorchi yumushlar bilan o‘tkazmasdan o‘zlariga kerakli bo‘lgan, kelajaklari uchun muhim bo‘lgan fanlarni o‘rganishi, o‘zlari qiziqqan kasb bo‘yicha turli xil to‘g‘araklarga borishi, uy-ro‘zg‘or ishlarida, bog‘dorchilikda ota-onalari, bobo-buvilariga qo‘ldan kelguncha yordam berishliklari zarurligi uqtiriladi. Ota-bobolarimiz hech qachon vaqtlarini bekorchi ishlarga sarflamaganliklari, doimo mehnat bilan mashg‘ul bo‘lganligini shu mazmundagi matnlar vositasida tushuntirish zarur. O‘quvchilarga so‘z birikmasining mazmun-mohiyati tushuntirilgach, uning grammatik xussiyatlari o‘rgatilsa, o‘quvchida nutqni idrok etish va nutq tuzish qobiliyatlari keng rivojlanadi, kognitiv malakalari milliy-madaniy konnotatsiyalar bilan boyitiladi.

So‘zlar sintaktik jihatdan teng va tobe munosabatda bog‘lanish hosil qiladi. Tobe bog‘lanish natijasida so‘z birikmasi, teng bog‘lanish natijasida esa so‘z qo‘shilmalari yuzaga chiqadi. *Foydali ish* birikmasi bitishuvli bog‘lanishga misol bo‘ladi. Chunki bu bog‘lanishda

ikki so‘z bir-biriga hech qanday grammatik vositalarsiz faqatgina ohang va tartib yordamida birikadi. Bunda tobe so‘z – *foydali*, hokim so‘z esa – *ish*. Tobe so‘z hokim so‘zning ma’nosini izohlab, to‘ldirib, aniqlashtirib keladi. So‘z birikmalari hokim so‘zning qaysi so‘z turkumiga mansub ekanligiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: otli so‘z birikmasi va fe’lli so‘z birikmasi. Hokim so‘zning sof fe’l yoki ravishdosh shaklida kelishi fe’lli so‘z birikmasini, shu shakllardan tashqari barcha so‘zlar bilan kelishi otli so‘z birikmasini hosil qiladi. Bu so‘z birikmasining hokim qismi *ish* so‘zi ot so‘z turkumiga mansub bo‘lgani uchun otli so‘z birikmasiga misol tariqasida keltiriladi. So‘z birikmalari tobe so‘zning qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelishiga ko‘ra esa uch turga bo‘linadi: aniqlovchili, to‘ldiruvchili va holli so‘z birikmalari. Berilgan so‘z birikmasidagi tobe so‘z *foydali* so‘zi narsaning belgisini bildirib kelganligi uchun aniqlovchi deb olsak, *foydali ish* birikmasi aniqlovchili so‘z birikmasiga misol bo‘ladi. Shunday tahlillar asosida sintaktik birliklarning semantik, grammatik xususiyatlari o‘rgatiladi, shuningdek, birikma tarkibidagi har bir so‘zning yoki birikmada aks etgan umimiy ma’no-mazmuning milliy-madaniy xususiyatlari yoritiladi.

Sintaksisni o‘rganishda lingvokultorologik yondashuv tilning madaniy va ijtimoiy tomonlarini ochib berishga, til birliklarining ma’nosi va funktsiyalarini to‘liq tushunishga yordam beradi. Bu yondashuv sintaksisga doir izlanishlarning sifatini va samaradorligini oshiradi. Tilni kognitiv, pragmatik, psixologik, madaniy jihatdan chuqurroq anglashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo‘raboyeva Z. Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: Ma’naviyat. 2011. – 224 b.

2. Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.–224 b.

3. Ona tili 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. –224 b.

4. Qodirov M., Ne’matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili: 8-sinf uchun darslik. – T.: Cho‘lpon, 2010. – 144 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

XOSIYAT RUSTAMOVA SHE’RIYATIDA SUKUT LINGVOSTILISTIKASI

Xurinisa Xudoyberdiyeva
Namangan davlat universiteti doktoranti
***Email**:xudoyberdiyevaxurininsa@gmail.com*

Annotatsiya: *maqolada Xosiyat Rustamova she’rlarida qo‘llangan sukut lingvostilistik yondashuv asosida tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *inversiya, ellipsis, takror, qisqartmalar, sukut, ritorik so‘roq.*

Annotation: *This article analyzes the use of ellipsis, silence, and rhetorical questions in the poetry of Xosiyat Rustamova from a linguostylistic perspective.*

Keywords: *inversion, ellipsis, repetition, abbreviation, silence, rhetorical question.*

Аннотация: *В статье с лингвостилистической точки зрения проанализированы такие поэтические средства, как эллипсис, пауза (молчание) и риторический вопрос, использованные в стихах Хосият Рустамовой.*

Ключевые слова: *инверсия, эллипсис, повтор, сокращения, пауза, риторический вопрос*

O‘zbek adabiyotida XXI asr ijodkorlari orasida o‘ziga xos uslubi, poetik obrazlar tizimi va sintaktik vositalardan foydalanish usullari bilan ajralib turuvchi ijodkorlardan biri Xosiyat Rustamovadir. Uning she’riyatida milliy qadriyatlar, ruhiy kechinmalar, tabiat manzaralari hamda ayol qalbining nozik tuyg‘ulari poetik sintaksis vositalarda o‘z ifodasini topgan.

Ma’lumki, poetik sintaksis, adabiy matnning nafaqat grammatik qurilishini, balki estetik ta’sirchanlik darajasini ham belgilaydi. Badiiy matn estetik butunlik sifatida benihoya serqatlam hodisa hisoblanadi. Unda ifodalangan asosiy g‘oya mazmunni tushunish, anglash ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir. Har qanday matnning mazmunini tushunish uchun til leksikasi va grammatikasini, badiiy matnning o‘ziga xos lisoniy poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim bo‘ladi.[103] Bu esa o‘z o‘rnida badiiy matnga lingvostilistik yondashuvni talab qiladi.

Xosiyat Rustamova she’rlarining o‘ziga xosligini ta’minlovchi poetik figuralardan biri – sukut. Bu usulda so‘zlovchi nutq jarayonida tinglovchi uchun ma’lum bo‘lgan qismini ataylab bayon etmaydi. Shunga qaramay nutqda so‘zlovchi maqsadi aniq bilinib turadi.

Zim-ziyo kechalar…
Sovuq…
Dasht…

[103] Йуллошев М. Балиий матн лингвопоэтикаси. - Тошкентг: Фан, 2008. - Б. 27.

Adir…

Ko‘chada ko‘rinmas biror tirik jon.

[“Qartaygan bog‘larni…” Rido 77-b]

Ushbu she’riy parchada sukut markaziy badiiy vosita sifatida ifodalangan. Bu nafaqat ma’noda, balki tuzilish, ifoda uslubi va grafik shakl orqali ham namoyon bo‘ladi. “Zim-ziyo kechalar…” jumlasi yorug‘likning to‘liq yo‘qligi, qorong‘ulikning eng yuqori darajasini ifodalaydi. “Sovuq…” – tovushni yutuvchi holat, harakatni sekinlashtiradi, go‘yo hayotni to‘xtab qolgandek ifodalaydi. “Dasht… Adir…” so‘zlari keng, bo‘sh, odamdan yiroq hududlarni bildiradi. Dasht va adir – kengliklar, ammo bu kengliklarda hayot harakati yo‘q. Bu – makon orqali ifodalangan sukut na’munasi. “Ko‘chada ko‘rinmas biror tirik jon.” yakuniy satri sukutning kulminatsiyasidir. Har bir obraz – qorong‘ulik, sovuq, bo‘sh makon – sukutni turli sezgi organlari orqali (ko‘z, teri, quloq) namoyon bo‘lishini aminlaydi. Misralardagi uch nuqta (…) pauza ifodasi (og‘zaki nutqdagi jimlik), fikrning tugallanmaganligi, sukutni o‘quvchiga eshittirishga urinish vositasidir. Bu she’rda sukut – shunchaki jimlik emas. U ruhiy holatning ifodasi, bo‘shliqning badiiy shakli, mazmunga aylangan jimlik.

Yashash nima o‘zi?

Oh, xo‘rlik nima?

Azobmi…

Qiynoqmi – yaxshi ko‘rmoqlik?

Yig‘lama…

Yig‘lama…

Sho‘rlikkanam-a,

Yashashdan osonmi xayrlashmoqlik?

[“Ba’zan yig‘ilaring tegadi jonga” Rido 79-b]

Keltirgan she’r chuqur, emotsional, falsafiy mazmunga ega. Unda yashash va azob, sevgi va xo‘rlik, yig‘i va sukut, hayot va o‘lim qarama-qarshiliklari poetik vositalar orqali ifodalangan. Aynan sukut bu she’rning ichki tovushi vazifasini bajargan. Uch nuqtalar (…) orqali berilgan sukut bu yerda – sukutning grafik ko‘rinishi. U fikr to‘xtab qolganini emas, aytolmay qolgan, yurakda turgan alamni eshittiradi. Bu nuqtalar ortida ichki qichqiriq bor. Ikki martalik takror *(“Yig‘lama… Yig‘lama…”)* nafaqat tasalli, balki beqaror ruhiy holat, ichki iztirob aksidir. So‘roq gaplar orqali berilgan sukut *(“Yashash nima o‘zi?”, “Xo‘rlik nima?”, “Yashashdan osonmi xayrlashmoqlik?”)* filosofik savollardir.

She’rda asosiy mavzu – yashash og‘irligi. Bu og‘irlik qichqiriq bilan emas, sukut orqali aks ettiriladi. Bu she’rda sukut – gapirmaslik emas, balki yurakda gapirgandek so‘zsiz hayqirishdir.

Boshim aylanmoqda…

Boshim…

Negadir…

Ko‘zimga qaramang - ko‘zlarim mani,

Shunchaki yig‘ladi…

Shunchaki axir…

[“Marina Svetayeva bilan yolgviz…” Rido 85-b]

Ushbu she’r parchasi his-tuyg‘ular bilan to‘la bo‘lib, undagi **sukut** (jimjitlik, tovushsiz ifoda) alohida lingvostilistik vosita sifatida namoyon bo‘lgan. “Boshim aylanmoqda… Boshim…” – takror va ellipsis (jumlaning to‘liq emasligi) orqali ruhiy holat, chalkashlik, noaniqlik ifodalanadi. So‘z yetmayotgan paytda sukut holatni “davom ettiradi”. Nuqtalar (…) – ruhiy iztirob, hayajon yoki tushkunlikka ishora qiladi. Gapning to‘liq emasligi, uni davom ettirishga til ojizligini bildiradi. “Ko‘zimga qaramang ko‘zlarim mani,” – bu yerda keyingi jumla to‘liq emas. Sukut orqali muallif yoki qahramon o‘zini “ochib yuborishni""istamaydi, o‘z dardini yashirishga harakat qiladi. Sukut bu yerda himoya, hissiyotlarni yashirish vositasi sifatida ishlatilgan. “Shunchaki yig‘ladi… Shunchaki axir…”– “Shunchaki” so‘zi ikki marta ishlatilgani holda, yana sukut (nuqtalar bilan) qo‘llanilgan. Bu hissiyotlarning soddaligini emas, balki chuqurligini ko‘rsatadi. Gap to‘liq aytilmagan, ammo aynan shu jimlik — chuqur ma’noni uzatadi. Bu sukut yig‘i orqali ifoda topgan dardni kuchaytiradi. Matnda sukut stilistik vosita sifatida muhim rol o‘ynaydi. U emotsiyani kuchaytiradi, ichki kechinmalarni ifodalaydi, gapiruvchi ruhiyatini ochib beradi va muallifning “gapirib bo‘lmas” dardini yetkazadi. Bunday uslub ko‘pincha lirik, dramatik yoki psixologik matnlarda qo‘llanadi.

Xosiyat Rustamova she’riyatida sukut – ya’ni so‘zsiz ifoda shakli muhim lingvostilistik vosita sifatida matnning semantik va emotsionalligini ifodalashga hizmat qilgan. Sukut ko‘pincha ongli ravishda tanlanib, muallif tomonidan aytilmaslik orqali fikr va tuyg‘ularni chuqurroq ifodalash, ruhiy holatni yoritish vositasi sifatida qo‘llaniladi. Bu poetik usul o‘quvchini mulohaza yuritishga, satr ortidagi ma’nolarni izlashga undaydi va she’rning ichki dramatizmini kuchaytiradi.

Lingvostilistik jihatdan sukut shoiraning individual uslubida poetik pauza, hissiy to‘xtalish yoki chuqur kechinmalarni anglatadigan badiiy mexanizmga aylanadi. Ayniqsa, lirik subyektning ichki ziddiyatlarini, aytilishi mushkul bo‘lgan dard yoki iztirobni yetkazishda sukut kuchli emotsional vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bois, Xosiyat Rustamova she’rlarida sukut – bu shunchaki so‘zsiz qolish emas, balki badiiy ifodaning estetik va semantik chuqurligini ta’minlaydigan stilistik hodisa bo‘lib, poetik nutqning ichki ovozini ochib beruvchi lingvostilistik komponent sifatida alohida ahamiyatga ega.

Xosiyat Rustamovaning she’riyatida poetik sintaksis vositalari shunchaki grammatik birliklar emas, balki chuqur ma’no yuklangan, hissiy-ruhiy holatlarni ifodalovchi kuchli stilistik qurol sifatida foydalanilgan. Uning ijodida takror, ellipsis, inversiya kabi sintaktik usullar tuyg‘ularni kuchaytirish, ohangdorlik yaratish va o‘quvchini ruhiy ta’sir ostida qoldirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, so‘z tartibining noan’anaviyligidan foydalanish orqali shoiraning poetik obrazlari yanada jonli va ta’sirchan aks ettirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Xosiyat Rustamovaning poetik sintaksisdagi lingvostilistik yondashuvi o‘zbek she’riyatida individual obrazlilik va badiiy til imkoniyatlarining

kengayishida muhim o‘rin egallaydi. Uning uslubi zamonaviy poeziyada estetik yangilanishlarning yorqin namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu jihatlar, shubhasiz, adabiy tilshunoslik va stilistika nuqtai nazaridan ham chuqur ilmiy tadqiqotlar uchun boy materialdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Йуллошев М. Балиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкенгт: Фан, 2008. – Б. 27.
2. Хожиев А. Тилшуносллнк терминларининг изохли-лугати. - Тошкент: Укитувчи, 2000. – Б.133.
3. Ибрагимова Ф. Бадиий матнда эллипсис ва жим колиш муиосабати чусусида // Тил ва адабиёт таълими. - Тошкент, 2009. – Б. 18
4. Yo‘ldoshev.M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan. 2007. – B.69.
5. Йулдошев.М., Ядгаров.К. Бадиий матннинг лисоний тахлили. – Тошкент, 2007. – Б.61.
6. Xosiyat Rustamova. Devor. G’ofur G’ulom nomidagi nashryot. –Toshkent, 2006.
7. Xosiyat rustamova. Rido. “Yangi asr avlodi”. – Toshkent, 2004.
8. Uluqov.N., Salixodjayeva.H. Habib Sadulla she’riyati lingvopoetikasi. Namangan, 2017.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

OMON MUXTOR IJODINING O‘ZIGA XOSLIGI VA USLUB MUAMMOSI

Sharifov Siroj Zarif o‘g‘li
Samarqand davlat universiteti Phd mustaqil tadqiqotchisi
sharifovsiroj3 @ gmail.com
Tel.: +99893 999-77-24

Annotatsiya: Ushbu maqolada Omon Muxtor asarlarining tili, kompozitsion qurilishi, adabiy tur va janrlar orasidagi sinkretiklik, o‘ziga xos tasvir usuli, ifoda tarzi hamda shakl va mazmun birligi, umuman aytganda romanlaridagi o‘ziga xos yondashuv – uslubi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: uslub, she’riyat va nasr uyg‘unligi, tarixiylik va zamonaviylik, absurd, intermatn, xalq og‘zaki ijodi, ramz va timsollar.

СВОЙСТВО ТВОРЧЕСТВА АМОНА МУХТОРА И ПРОБЛЕМА СТИЛЯ

Аннотация: В статье рассматриваются язык произведений Амона Мухтора, композиционная структура, синкретизм литературных родов и жанров, уникальный способ изображения, манера выражения и единство формы и содержания, и в целом уникальный подход – стиль – в его романах.

Ключевые слова: стиль, гармония поэзии и прозы, историчность и современность, абсурд, интертекст, народное устное творчество, символы и эмблемы.

THE IDENTITY OF AMON MUKHTOR'S WORK AND THE PROBLEM OF STYLE

Annotation: This article discusses the language of Amon Mukhar's works, compositional structure, syncretism between literary types and genres, a unique method of depiction, style of expression and unity of form and content, and in general, a unique approach - style - in his novels.

Keywords: style, harmony of poetry and prose, historicity and modernity, absurd, intertext, folk oral creativity, symbols and emblems.

Biror-bir ijodkorning o‘ziga xos bo‘lgan ijod yo‘li – uslubi haqida gapirishdan oldin, avvalo, mazkur adabiy istilohning tub mohiyatini tushunib olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Adabiyotshunoslik lug‘atida uslub atamasiga shunday ta’rif beriladi: “Uslub (arabcha – tartib, usul, yo‘sin, tarz) – poetikaning muhim kategoriyalaridan biri bo‘lib, badiiy asarning u yoki bu

tarzdagi shakliy qurilishini belgilovchi muhim prinsipdir. U antropologik, ya’ni ijodkor shaxsi bilan bog‘liq kategoriya sanalib, ijodkorning ijodiy individualligini belgilab beradi”[104]. Jadid bobomiz Abdurauf Fitrat ham o‘zining “Adabiyot qoidalari” asarida uslubni quyidagicha ta’riflaydi: “Butun o‘zbek yozg‘uchilarining ifodalari o‘zbekcha bo‘lg‘ani holda har birining o‘ziga maxsus bir uslubi bordir. Biroq, uslubdag‘i bu hol tuban, kuchsiz adib-yozg‘uchining asarlarida o‘zini ochiq ko‘rsata olmaydir. Kuchsiz yozg‘uchilarning uslublari bir-biriga o‘xshab qoladir. Ular oddiy uslubda, umumiy til uslubida yozadir. Shoir-yozg‘uchi san’atkorlikda ko‘tarila borg‘an sayi(n) o‘ziga maxsus bir uslub yarata boshlaydir...

Uslub – bu ijodkorning o‘ziga xos bir individual ijod yo‘li hisoblanar ekan, bu haqda adabiyotshunos Ummat To‘ychiyev ham quydagicha munosabat bildiradi: “U avvalo, ijtimoiy tuzum yoki hodisa, yozuvchi shaxsiyati – iste’dod yo‘nalishi, saviya darajasi, qarash doirasi, shaxsiy tajribasi va biografiyasi, shular asosida o‘z g‘oya va o‘z obrazlariga ega bo‘lishi, o‘zi yaxshi bilgan sohani tasvirlashi, tasvirlari asosida o‘zi turishi va kimlarga mo‘ljallab yozishi uning o‘ziga xos uslubini yuzaga keltiradi”[105].

Omon Muxtor ijodiy uslubi boshqa ijodkorlar ijodida mutlaqo uchramaydigan, uchrasa ham juda kam uchraydigan, faqatgina ijodkorning o‘ziga xos bo‘lgan quyidagi alohidaliklar bilan ajralib turadi:

1. She’riyat va nasr uyg‘unligi. Bu uslub aslida, xalq og‘zaki ijodidagi dostonlarga xos xususiyat bo‘lib, unda baxshi doston qahramoni kechinmasini ifodalashda unumli foydalangan. Omon Muxtor romanlaridagi bu jihat esa o‘quvchi-kitobxonga asar qahramonlari ruhiyatini chizib berish bilan bir qatorda, o‘zi aytmoqchi bo‘lgan fikrlarga qo‘shimcha kuch berishga harakat qiladi.

Omon Muxtor romanlari uslubi haqida ilmiy tadqiqot olib borgan yosh adabiyotshunos Anvar Xo‘jamqulov ham adib ijodidagi nasr va nazm uyg‘unligi haqida shunday deydi: “Omon Muxtor romanlarida hissiy vaziyatni she’riy jumlalar bilan ifodalash orqali o‘quvchiga xulosa berishga shoshilmaydi, balki xulosa chiqarishni o‘quvchining o‘ziga qo‘yib beradi. Bu esa adib asarlarini o‘quvchi o‘zi istaganicha talqin qilishiga, tushunishiga, voqeliklarni anglab etishiga va umuman, asar haqida xolis baho berishiga imkoniyat yaratadi[106]. Adib asarlaridagi she’riyat va nasr uyg‘unligi haqida gapirar ekan yana bir adabiy tahlilchi Zunnunova S.: “Garchi adib nasr janrida ijod qilgan bo‘lsa-da, uning nasrida she’riy ruh, musiqiylik va ritmika kuchli seziladi. Bu esa uslubga o‘ziga xos badiiy estetik ta’sir beradi”[107], - deb ta’kidlaydi.

2. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanish. Yozuvchi romanlarida xalq og‘zaki ijodining turli janrlaridan: maqol, matal, xalq qo‘shiqlari, afsona va rivoyatlar, ertag-u naqllardan unumli foydalanadi. Xususan, ”Ffu”, ”Ayollar mamlakati va saltanati”, “Xotin podshoh”, “Aflotun” kabi romanlarida yozuvchi xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘g‘ridan

[104] Д. Қуронов, З. Мамажонов, М. Шералийева. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Академнашр , 2013. – Б. 341
[105] Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 367.
[106] Xo’jamqulov A. Omon Muxtor romanlarida poetik uslub muammosi. Filol. fan. d-ri (PhD)... diss.. - Samarqand, 2024. – 42-43 b.
[107] Zunnunova S. O‘zbek adabiyotida poetik tafakkur. – Toshkent: Yozuvchi, 2007. – B. 188.

to‘g‘ri yoki folklor namunalar syujetini muallif tilidan qayta ishlanib bayon qilinishi kuzatiladi. Bunday folklor namunalarining badiiy asarga olib kirilishi asarning til boyligini oshirishda, ijodkorning ma’naviy-estetik dunyoqarashini obrazli va betakror ifodalashda, fikrlarni dalillashda, qahramonlar ruhiyatini ochishda, umuman, badiiy asarning mazmunini boyitishga xizmat qilgan.

3. Falsafiylik va ramziylik. Badiiy asarga bunday yondashuv ayniqsa, istiqlol davri o‘zbek romanchiligida ancha jadallashib, ma’naviy-ruhiy, axloqiy-maishiy hamda ijtimoiy-siyosiy masalalarga doir umumbashariy muammolarni ramziy-majoziy, falsafiy-estetik talqin etishga intilish kuchaydi. Jumladan, O.Muxtorning “Ming bir qiyofa, “Ko‘zgu oldidagi odam”, “Tepalikdagi xaroba”, «Aflotun», “Maydon”, “Ayollar mamlakati va saltanati” kabi asarlaridagi ramziyliklar muhim poetik vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Ramzlar orqali jamiyatdagi eng og‘riqli muammolar boshqa romanlardan ko‘ra «Ming bir qiyofa» ko‘proq aks etgan. Bu haqda Rasul To‘xtaboyevning fikrlari ham yuqoridagi mulohazalarimizni tasdiqlaydi: “Omon Muxtor badiiy-falsafiy tafakkurga boy yozuvchi. Xususan, “ Ming bir qiyofa” romanidagi ramz va timsollar orqali insonning ichki olami va ijtimoiy muammolar chuqur aks ettirilgan”[108].

“Maydon” romanida maydon hamda osma quti (lift) ham ramziy ma’nodagi makon tasviri bo‘lib, Maydon – bu dunyo, olam, borliq, bu borliqda kimdir dard chekadi, kimdir esa ko‘z yosh to‘kadi Osma quti esa insoniyat boshiga tushishi kerak bo‘lgan umuminsoniy muammolar ramzi bo‘lb gavdalanadi.

4. Tarixiylik va zamonaviylik. Omon Muxtor aksariyat romanlarida tarixiylik va zamonaviylikning badiiy sentezi ko‘zga tashanadi. Uning “Aflotun”, “Navoiy va rassom Abulxayr”, “Maydon” kabi romanlarida tarixiy syujet ustuvor bo‘lib, asarda yozuvchi tarixiy obrazlar va voqelikni faqatgina o‘tmishni tasvirlash vositasi emas, balki milliy o‘zlikni anglash, ruhiy uyg‘onish manbai sifatida talqin etadi. Tarixiy shaxslarning hayot yo‘li, tarixiy voqealar tasviri “Tepalikdagi xaroba” romani ham syujetining salmoqli qismini tashkil etsa-da, asar tarixiy mavzuda yozilgan romanlardan jiddiy farqlanadi. “Tepalikdagi xaroba” romanida tarixga qaytish xayol va fantastika yordamida amalga oshib, roman badiiyati sehrli va jozibali ruh bilan boyitishga xizmat qilgan. Bu asarlarda tarix nafaqat voqealilik tarzida, balki axloqiy-ma’naviy qadriyatlarni tiklash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

“Ko‘zgu oldidagi odam”, “FFU”, “Maydon”, “Muhabbat o‘limdan kuchli” kabi zamonaviy mavzudagi romanlarida ham bugungi jamiyatning murakkab ruhiy va ijtimoiy muammolarini ochib beriladi. Muallif bu romanlarida ham tarixiy mavzularda bo‘lgani kabi jamiyatdagi ma’naviy inqiroz, shaxsiy iztirob, shaxs va davlat, ruhiy izlanishlar, insoniylik kabi mavzularni chuqur yoritib beradi.

5. Sharq va g‘arb adabiy an’analar sentezi. Omon Muxtor o‘z romanlarida sharq falsafasi va g‘arb adabiy-uslubiy yondashuvlarini o‘ziga xos tarzda sintez qilgan holda, o‘zbek

[108] To‘xtaboyev R. Zamonaviy o‘zbek nasri poetikasi. Toshkent: Fan, 2001. – B. 215-220.

romanchiligida o‘ziga xos maktab yaratgan ijodkor hisoblanadi. Adib ijodidagi falsafiy-fikriy teranglik, ruhiy-psixologik tahlillarga moyillik ham sharq va g‘arb adabiy an'analarining uyg‘unlashtirganidan dalolat beradi. Adib ijodidagi bunday badiiy sentizga adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov shunday baho beradi: “Postmodernizmning o‘zbekcha talqini aynan Omon Muxtor asarlarida shakllangan”[109].

Omon Muxtor romanlarida sharq adabiyotigagina xos bo‘lgan hamda g‘arb adabiy tafakkurida mavjud bo‘lgan jihatlarni birma-bir ko‘rib chiqamiz:

1) Adib ijodidagi sharq falsafaga xos bo‘lgan jihatlar quydagilar:

a) Tasavvufiy falsafaning ustuvorligi.

b) O‘zbek xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyoti an'analari: maqol, matal, hikmatli so‘zlar, va xalqona til uslubi.

2) Adib ijodidagi g‘arb tafakkuriga xos bo‘lgan jihatlar quydagilar mavjud:

a) Modernizm va postmodernizmga xos bo‘lgan jihatlar: romanlarda vaqt va makon tushunchalarining buzulishi va nisbiylashuvi, ichki monolog, ironiya va kollaj kabi uslublar, xronologik syujet buzilishi (retrospektiv, assotsiativ usullar) an’anaviy syujet va shakldan voz kechish…;

b) Voqelikning absurd talqini. Bunda asar qahramonlari o‘z hayotlaridan ma’no axtarib, turli-tuman ko‘rguliklarni boshidan o‘tkazishadi. Syurrealistik tasvir elementlari. Bunda real hayot bilan noreal hayot, tush bilan o‘ng, tarix va bugun aralash holda kelib, aniq zamon va makon tasviridan voz kechiladi. Adibning “Tepalikdagi xaroba” romanida syurrealistik tasvir elementlari yaqqol seziladi;

c) Eksistensializm unsurlari – inson mavjudligining mavjud-mohiyati, yolg‘izlik, tanlovda ikkilanish, ichki irodaviy kurash.

Omon Muxtor romanlarida yuqorida sanab o‘tilgan sharq va g‘arb an’analarining sintezlashganini ko‘ramiz. bu ikki yondashuv asarda qarama-qarshi konfliktni vujudga keltirmay, balki uyg‘unlashtiruvchi vosita sifatida ishlaydi.

Omon Muxtor ijodiy uslubi haqida gapirilganda ijodiga, xossatan, romanlariga nisbatan turli xil achchiq-chuchuk fikrlar aytildi. Ba’zi bir adabiyotshunoslar ijodidagi “betartiblik” haqida gapirsa, “romanmi yo risola” (“Ishq ahli” romani nazarda tutilgan) tarzidagi kestiqlar bilan javob so‘raganlar ham bo‘ldi. Bu borada adabiyotshunos Umarali Normatovning “Ijod sehri” kitobidan o‘rin olgan “Romanning yangi umri” nomli D. Quronov bilan adabiy suhbat ko‘rinishida yozilgan maqolasida adib romanlariga nazar tashlanib, romanlariga xos bo‘lgan umumiy jihat, adibning o‘ziga xos bo‘lgan uslubi, umuman, ijodkorning ijodiy poetikasiga haqqoniy baho berilgan deb o‘ylayman. Jumladan, D.Quronov yozuvchi romanlari haqida shunday deydi: “O.Muxtor ijodiy izlanishlaridagi eng maqbul jihat shuki, uning modern adabiyotiga xos usul va qarashlarni o‘zlashtirishda yuksak darajadagi ijodiylik kuzatiladi. Xususan, adib milliy folklor, diniy rivoyatlar va Sharq mumtoz adabiyotiga xos norealistik

[109] G‘afurov I. “Postmodernizm va o‘zbek adabiyoti”, T.: Ma’naviyat, 2015.

usullarni asos qilib oladi-da, ularni modern usullari bilan boyitadi, natijada ular milliy adabiy zaminning o‘zidan o‘sib chiqqandek, sof milliy estetik hodisadek taassurot qoldiradi…[110] Umuman aytganda, modern adabiyoti mahsuli sifatida yaratilgan romanlar, jumladan, Omon Muxtor romanlarining badiiy quvvati, kompozitsiyasi, syujet tarkibi yengilgina “hazm qilinmaganidan” ko‘plab munozaralarga sabab bo‘lib keladi. Shu sababli ham adibning noan’anaviy yo‘lda yozilgan romanlari xususida oxirgi xulosani aytib bo‘lmaydi. Biroq shuni aytib o‘tish kerakki, ijodkorning eng katta yutug‘i ham, aslida, mana shunday bahs-munozaralarni yarata olganida deb o‘ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Д. Қуронов, З. Мамажонов, М. Шералийева. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Академнашр , 2013. – Б. 341

2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Маънафият, 2006. – Б. 17.

3. Normatov U. “Adabiy jarayon va zamon”, T.: “Fan”, 2007.

4. Rasulov A. “Zamonaviy o‘zbek romanining poetikasi” – Toshkent: Fan, 2006. – B. 178.

5. Normatov U. Zamonaviy o‘zbek nasri muammolari va o‘ziga xosligi. Toshkent: Fan, 2012. – B. 87-95.

6. Karimova G. Postmodern tafakkur va o‘zbek romani, 2020, B. – 78

7. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 228.

[110] Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 228.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

TIKUVCHILIK TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Hakimova Ziyoda Tohirjon qizi,
filologiya fanlari bo‘yichga falsafa doktori, (PhD)

Annotatsiya: Ushbu bo‘limda ingliz va o‘zbek tillarida qo‘llaniladigan tikuvchilik terminlarining leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Terminlarning ma’no tuzilmasi, ularning semantik guruhlari, ko‘pma’nolilik, sinonimiya, terminologik moslik hamda tarjimadagi farqlarga alohida e’tibor qaratilgan. Qiyosiy jadval asosida ikki til terminlarining leksik ekvivalentlari va ularning ma’nodagi tafovutlari ko‘rsatib berilgan. Tahlil natijalariga asoslanib, ushbu terminlar sohasida leksikografik va tarjimaviy faoliyatni tashkil etish uchun amaliy tavsiyalar ilgari suriladi. Mazkur yondashuv kasbiy til materiallarini ilmiy tizimlashtirish va sanoat hamda ta’lim sohasida ularni samarali qo‘llash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: tikuvchilik terminlari, leksik-semantik xususiyat, sinonimiya, ko‘pma’nolilik, tarjima, semantik tahlil, ingliz tili, o‘zbek tili, qiyosiy terminologiya, amaliy tilshunoslik

LEXICAL AND SEMANTIC FEATURES OF SEWING TERMINOLOGY

Abstract: This section analyzes the lexical and semantic features of sewing terminology used in English and Uzbek. Special attention is given to the semantic structure of terms, their classification into semantic groups, polysemy, synonymy, terminological equivalence, and translation differences. A comparative table illustrates the lexical equivalents of terms in both languages and highlights their semantic distinctions. Based on the findings, practical recommendations are proposed for lexicographic and translation practices related to sewing terminology. This approach contributes to the scientific systematization of professional language materials and promotes their effective application in both industry and education.

Keywords: sewing terminology, lexical-semantic features, synonymy, polysemy, translation, semantic analysis, English language, Uzbek language, comparative terminology, applied linguistics

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ШВЕЙНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация: В данном разделе анализируются лексико-семантические особенности швейной терминологии, используемой в английском и узбекском языках. Особое внимание уделяется семантической структуре терминов, их классификации по семантическим группам, полисемии, синонимии, терминологическому соответствию и

различиям в переводе. Сравнительная таблица демонстрирует лексические эквиваленты терминов в обоих языках и подчеркивает различия в их значении. На основе полученных данных предложены практические рекомендации по лексикографической и переводческой работе в области швейной терминологии. Такой подход способствует научной систематизации профессиональных языковых материалов и эффективному их применению в промышленности и образовании.

Ключевые слова: швейная терминология, лексико-семантические особенности, синонимия, полисемия, перевод, семантический анализ, английский язык, узбекский язык, сравнительная терминология, прикладное языкознание.

KIRISH

Tikuvchilik sohasiga oid terminlar har bir xalqning madaniyati, kasbiy tajribasi va texnologik taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning letikuvchilik terminlari, leksik-semantik xususiyat, sinonimiya, ko‘pma’nolilik, tarjima, semantik tahlil, ingliz tili, o‘zbek tili, qiyosiy terminologiya, amaliy tilshunoslikksik-semantik xususiyatlari tilshunoslik nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilishga arziydi. Har qanday kasbiy sohada bo‘lgani kabi, tikuvchilik sohasida ham o‘ziga xos atamalar tizimi shakllangan bo‘lib, bu terminlar semantik jihatdan turli guruhlarga ajraladi.

METODOLOGIYA

Tikuvchilik terminlari, avvalo, nomlash funksiyasini bajaradi. Ya’ni ular muayyan asbob-uskunalar, matolar, kiyim detallari yoki tikuv usullarini bildiradi. Bunday terminlar ko‘pincha konkret predmetlar yoki jarayonlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ingliz tilidagi “needle”, “thread”, “seam”, “button”, “scissors” kabi so‘zlar aniq bir asbob yoki detalni bildiradi. O‘zbek tilida esa ularga mos tarzda “igna”, “ip”, “chok”, “tugma”, “qaychi” atamalari ishlatiladi. Ularning har biri o‘zining leksik shakli bilan aniqlik kiritadi, semantik tomondan esa maxsus bir kasb doirasidagi ma’lumotni bildiradi.

NATIJALAR

Tikuvchilik terminlari semantik jihatdan bir nechta guruhlarga ajraladi. Birinchi guruhga asbob-uskunalar terminlari kiradi. Bular, odatda, tikuvchilik jarayonida bevosita ishtirok etuvchi jismoniy ob’ektlarni ifodalaydi. Ikkinchi guruhni materiallar va matolar nomlari tashkil qiladi. Bunday terminlar xomashyo turini va ularning ishlov berilgan holatini ifodalaydi. Uchinchi guruhga tikish usullari va texnikalariga oid atamalar kiradi. Bular protsessual semantik yuklamaga ega bo‘lib, harakat, uslub yoki texnikani anglatadi. To‘rtinchi guruh esa kiyim detallari va ularning andozalarini bildiruvchi terminlardan iborat.

Tikuvchilik sohasida terminlarning semantik xususiyatlari sinonimiya va ko‘pma’nolilik jihatidan ham tahlil qilinishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “seam” va “stitch” so‘zlari ayrim hollarda bir-biriga yaqin ishlatilgan bo‘lsa-da, ularning semantik tafovuti mavjud. “Seam” ikki matoni birlashtiruvchi chiziqli chokni bildirsa, “stitch” har bir tikuv harakatini bildiradi. Shuningdek, “dart” termini umumiy ingliz tilida o‘q otish vositasi ma’nosini bildirsa,

tikuvchilikda u kiyimning toraytirilgan qismi – qiya chok ma’nosini anglatadi. O‘zbek tilida esa bu termin faqatgina tikuvchilik doirasidagi ma’noda qo‘llaniladi.

MUHOKAMA

O‘zbek va ingliz tillaridagi tikuvchilik atamalarini qiyosiy o‘rganish ularning semantik tizimida qanday o‘xshashlik va tafovutlar mavjudligini ochib beradi. Bu tafovutlar ko‘pincha madaniy va texnologik rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lib, terminlarning shakllanishida milliylik va kasbiy an’analar muhim rol o‘ynaydi.

Tikuvchilik terminlarining leksik-semantik tahlili ularni tarjima qilish, ilmiy tasniflash, leksikografik ishlanmalar yaratish hamda sanoat va ta’limda samarali qo‘llash imkonini beradi. Bu turdagi tahlil amaliy tilshunoslik doirasida muhim ahamiyat kasb etadi va kasbiy kommunikatsiyaning aniqligi hamda samaradorligini ta’minlaydi.

1. Inglizcha va o‘zbekcha tikuvchilik terminlarining qiyosiy jadvali 1.1

Inglizcha termin	**O‘zbekcha ekvivalenti**	**Semantik izoh**
Needle	Igna	Matoni tikishda ishlatiladigan uchli metall vosita
Thread	Ip	Tikuv jarayonida matoni birlashtirish uchun ishlatiladi
Seam	Chok	Matoning biriktirilgan, choklangan qismi
Dart	Qat / chok chizig‘i	Kiyimni tana shakliga moslashtirish uchun tikilgan qiya chok
Pattern	Andoza / qolip	Kiyim qirqimi uchun mato ustiga chiziladigan shakl
Pleat	Bukma	Matoni yig‘ib, hajm va shakl berish uchun ishlatiladigan usul
Hem	Qayirma chok	Matoning chetini qayirib tikish
Bobbin	Moki	Mashina ichida ip saqlovchi g‘altakcha
Presser foot	Bosuvchi oyoqcha	Tikuv mashinasida matoni bosib turadigan detal
Thimble	Angishvona	Ignadan barmoqni himoya qiluvchi metall quloqcha

2. Semantik guruhlar bo‘yicha ajratish

A) **Asbob-uskunalar**: needle, scissors, bobbin, thimble, presser foot – konkret fizik obyektlar, foydalanish maqsadi aniq.

B) **Materiallar va to‘qimalar**: cotton, silk, muslin, polyester – tabiiy va sun’iy xomashyo nomlari, rang, tuzilma va sifati bilan tavsiflanadi.

C) **Jarayon va texnikalar**: pleating, hemming, overlocking – harakatlarni bildiruvchi so‘zlar, asosan fe’llardan yasalgan bo‘lishi mumkin.

D) **Kiyim qismlari va detallar**: collar, cuff, dart, waistband – shakl va joylashuvga ko‘ra tahlil qilinadi.

3. Semantik kuzatuvlar va tahlil

Tikuvchilik terminlari orasida ko‘p hollarda terminologik sinonimlar va qisqargan shakllar uchraydi. Masalan, “overlock” mashinasi texnik jihatdan “serger” deb ham yuritiladi. Shuningdek, matoning yon kesilish holatini anglatuvchi “bias” so‘zi ingliz tilida stilistik yoki hissiy ma’nolarda ham ishlatilishi mumkin. Bu esa ko‘pma’nolilikka misol bo‘ladi.

Boshqa tomondan, o‘zbek tilidagi “qayirma chok” yoki “yoqa qismi” kabi iboraviy terminlar ingliz tilida bitta so‘z bilan ifodalanishi mumkin. Bu tilning strukturasiga bog‘liq

bo‘lib, tahlil jarayonida tarjimaviy muammolarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, ko‘p komponentli atamalarni tarjima qilishda semantik aniqlikni saqlash uchun izohli yondashuv zarur.

XULOSA

Tikuvchilik terminlarining leksik-semantik tahlili ularning tuzilishi, ma’nodagi o‘xshashlik va tafovutlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa tarjima jarayonida aniq ekvivalentlarni tanlash, lug‘at tuzishda to‘g‘ri tasnifni amalga oshirish, shuningdek, sanoat va ta’lim sohasida qo‘llash uchun qulay metodik yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Dadaboyev, Hamidulla.0 ‘zbek Terminologiyasi: o’quv qo’llanma . Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - 6- b.
2. Hakimova Z. T. Q. Kognitiv tilshunoslikda metafora termini va unga turlicha yondashuvlar //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 1976-1981.
3. Hakimova Z. THE INFLUENCE OF FRENCH BORROWINGS ON THE ENGLISH LANGUAGE //Студенческий вестник. – 2021. – №. 10-4. – С. 13-15.
4. Hakimova, Z. . (2024). INGLIZ IBORALARIDA TIKUVCHILIK ATAMALARINING O‘RNI. Наука и инновация, 2(25), 4–6. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/46452
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tikuvchilik.
6. S.M.A’zamov. Inglizcha-o’zbekcha to’qimachilik va yengil sanoat terminlarinbing strukruktur-semantik tahlili. Fil.fan. fals.doktori(PhD) disser. Andijon, 2021. – B.57.
7. The analysis of metaphors and metonymies in political speeches. ZT Hakimova. Asian Journal of Multidimensional Research 10 (12), 721-726
8. Yule G. The Study of Language. – Cambridge University Press. – 2010. –P. 340.
9. А.М.Мухин ва Ж.М.Меленевский .The Grammatical Structures of English, Russian, Uzbek. Part I.Тошкент. “Ўқитувчи”. 1986. – Б. 27.
10. Ахманова О. С.,Тер-Мкртичан С.А. Научное определение как лингвистическая и семиотическая проблема. Проблематика определений терминов в словарях разных типов.-М.: Наука, 1976.- С.57-63.
11. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т.%. Сборник статей по языкознанию. - М., 1961.-С.3-10.
12. Герд А.С. Значение термина и научное знание//Научно- техническая информация. Серия 2. -М.,1991. №10. - С.1-4.
13. Л.Б. Основные закономерности английской терминологии. Томск, Омск, Изд-во гос. ун-та 1987. – 198 с.
14. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. – Тошкент: Университет, 2007. – 186 б.
15. Саримсоков Х.А. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминларининг чоғиштирма тадқиқи Фил. фан. ф. д-ри. (PhD) ... дисс. Тошкент 2020.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

NATAN MALLAYEVNING “O‘ZBEK ADABIYOTI MASALALARI” ADABIY-TANQIDIY MAQOLALAR TO‘PLAMIDA NASHR QILINGAN DASTLABKI MAQOLASI XUSUSIDA

Temirova Anora Cho‘yan qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi
anoratemirova071@gmail.com, +998 99 791 98 26

Annotatsiya: Ushbu maqolada Natan Mallayevning “O‘zbek adabiyoti masalalari” adabiy-tanqidiy maqolalar to‘plamining 1959-yil 1-sonida nashr qilingan dastlabki maqolasi xususida, ya’ni “XV asr tazkiralarining tarixiy-adabiy ahamiyati” nomli maqolasining dastlabki o‘rinlaridan ma’lumotlar beriladi. Sababi, professor Natan Mallayevning ushbu maqolasi jami 36 sahifani tashkil qiladi. Maqolada olim N.Mallayev tazkira tuzish IX asrda vujudga kelishi, tazkira asarlari dastlab arab tilida, keyinroq esa fors-tojik tilida yaratila boshlagani, o‘zbek tazkirachiligiga Alisher Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” asari bilan asos solgani haqidagi zaruriy ma’lumotlarni bergan. Bizning ushbu maqolamizda olim Natan Mallayevning Muhammad Avfiyning “Lubob ul-albob” hamda Jomiyning “Bahoriston” asariga oid o‘rinlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tazkira, “Lubob ul-albob”, “Tazkirat ush-shuaro”, “Bahoriston”, “Majolis un-nafois”, o‘zbek tazkiranavisligi, fors-tojik tazkiranavisligi, bosmaxona, qo‘lyozma kitoblar, ravza, afsona, rivoyat, yozuvchilar biografiyasi.

О ПЕРВЫХ СТАТЬЯХ НАТАНА МАЛЛАЕВА, ОПУБЛИКОВАННЫХ В СБОРНИКЕ ЛИТЕРАТУРНО-КРИТИЧЕСКИХ СТАТЕЙ «ВОПРОСЫ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ»

Аннотация: В данной статье представлена информация о первой статье сборника литературно-критических статей Натана Маллаева «Вопросы узбекской литературы», опубликованного в 1959 году в выпуске №1, а именно о первых абзацах его статьи под названием «Историко-литературное значение тазкира XV века». Об этом свидетельствует объём статьи профессора Натана Маллаева, составляющий около 36 страниц. В статье учёный Н. Маллаев приводит необходимые сведения о возникновении письменности тазкира в IX веке, о том, что произведения тазкира сначала создавались на арабском языке, а затем на персидско-таджикском, и о том, что Алишер Навои своим произведением «Маджолисун нафоис» заложил основу узбекского тазкира. В данной

статье представлен анализ позиций учёного Натана Маллаева относительно произведений «Лубоб ул-албоб» Мухаммада Авфи и «Бахористан» Джами.
Ключевые слова: тазкира, «Любобул албоб», «Тазкиратуш шуаро», «Бахористан», «Маджолисун нафоис», узбекская письменность тазкира, персидско-таджикская письменность тазкира, типография, рукописные книги, равза, легенда, повествование, биографии писателей.

ON THE FIRST ARTICLES PUBLISHED BY NATAN MALLAYEV IN THE COLLECTION OF LITERARY AND CRITICAL ARTICLES "ISSUES OF UZBEK LITERATURE"

Abstract: This article provides information about the first article of Natan Mallayev's collection of literary and critical articles "Issues of Uzbek Literature" published in 1959 in issue 1, namely the first paragraphs of his article entitled "Historical and Literary Significance of the 15th Century Tazkiras". The reason is that this article by Professor Natan Mallayev consists of approximately 36 pages. In the article, the scientist N. Mallayev provides the necessary information about the emergence of tazkira writing in the 9th century, that tazkira works were first created in Arabic, and later in Persian-Tajik, and that Alisher Navoi laid the foundation for Uzbek tazkira with his work "Majolisun Nafois". In this article, our analysis of the positions of the scientist Natan Mallayev on Muhammad Avfi's "Lubob ul-albob" and Jami's "Bahoristan" is presented.

Keywords: tazkira, “Lubob ul-albob”, “Tazkirat ush-shuaro”, “Bahoristan”, “Majolisun nafois”, Uzbek tazkira writing, Persian-Tajik tazkira writing, printing house, manuscript books, ravza, legend, narration, biographies of writers.

KIRISH.

Natan Mallayevning Alisher Navoiy ijodiga bag‘ishlangan “XV asr tazkiralarining tarixiy-adabiy ahamiyati” nomli birinchi maqolasi 1959-yilda e’lon qilingan [1]. Ma’lumki, bu yillarda ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tug‘ilgan kunining 520 yillik to‘yini o‘tkazishga katta tayyorgarlik boshlab yuborilgan edi. Natan Mallayev ana shu to‘y munosabati bilan yozgan ushbu maqolasida Alisher Navoiyning o‘zbek tazkiranavisligi tarixidagi ulkan xizmatini, o‘zbek tazkirachiligiga so‘z mulkining sultoni “Majolisun nafois” asari bilan asos solgani hamda o‘zbek adabiyotida tazkirachilik XX asrning boshlarigacha davom etgani haqida ma’lumot beradi. Maqola 255-sahifadan boshlanib, 291-sahifaga qadar jami 36 sahifani tashkil qiladi. Ushbu maqolani yozishda olim 1903-1907-yillarda E.Broun tomonidan “Lubob ul-albob”ning Leydendagi nashridan Alisher Navoiy tanlangan asarlarining III tomi, Bertelsning “Nizami” S. Ayniyning “Namunai adabiyoti tojik”, “Tazkiratush shuaro”, “Bahoriston”, Rudakiy she’riyatidan foydalangan holatda tazkirachilikning o‘tmish adabiyotshunosligida muhim sohalardan biri ekanligini, adabiyot tarixini va adabiy-estetik qarashlarni o‘rganishda katta ahamiyatga ega ekanligini ochib beradi.

“XV asr tazkiralarining tarixiy-adabiy ahamiyati” maqolasida N.Mallayev tazkira tuzish IX asrda vujudga kelishi, tazkira asarlari dastlab arab tilida, keyinroq esa fors-tojik tilida yaratila boshlagani, o‘zbek tazkirachiligiga Alisher Navoiy o‘zining “Majolisun nafois” asari bilan asos solgani haqidagi zaruriy ma’lumotlarning berilishi bilan boshlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Tarixda mavjud: Muhammad Avfiyning “Lubob ul-albob”, “Taboqat us-sufiya” (Abdurahmon Sulamiy, X-XI asarlar), “Tazkirat ul-avliyo” (Farididdin Attor, XII asr), “Nafahot ul-uns” (Abdurahmon Jomiy, XV asr), Abu Tohir Xotuniyning (XI) “Manoqib ush-shuaro”, Davlatshoh Samarqandiyning Navoiyga bag‘ishlangan “Tazkirat ush-shuaro” (1486), Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” singari tazkiralari asrlar davomida mutaxassislar tomonidan tekshirib kelingan. Tazkiralarda adib ijodi va mahoratiga munosabat bildirish asnosida muallifning adabiy-tanqidiy qarashlari aks ettirilgan.

Natan Mallayevning ma’lumotlariga ko‘ra: bosmaxonaning yo‘qligi, qo‘lyozma kitoblarning kamligi va juda qimmat bo‘lishi natijasida adabiyot bilan qiziquvchi kishilar ko‘pincha alohida adabiy parchalarni yoki butun lirik she’rlarni maxsus daftarga ko‘chirib olar yoxud ko‘chirtirar edilar. Mashhur yozuvchilarning asarlaridan namuna sifatida tuzilgan bunday daftarlarda biografik ma’lumotlar u yoqda tursin ko‘pincha avtorlarning nomi ham ko‘rsatilmas edi. Lekin vaqt o‘tishi bilan mazkur daftarlardgi yozuvchilarning soni ko‘payib, adabiy namunalarning hajmi kengayib boradi, ularda yozuvchilrning hayoti va faoliyati haqida ma’lumot berish, asarlari haaqida mulohaza yuritish zaruriyati tug‘iladi. Mana shunday to‘plamlar ilk tazkiralar ekanligini zaruriy ma’lumotlar vositasida ochib beradi.

XX asrning 50-60-yillariga qadar saqlanib qolgan eng qadimgi tazkiralardan biri N.Mallayev ma’lumotiga ko‘ra, XIII asrning birinchi choragida buxorolik Muhammad Avfiy tomonidan yaratilgan “Lubob ul-albob” (“O‘zaklarning o‘zagi”) tazkirasidir. Ushbu tazkirada IX-XII asrlarning ko‘plab yozuvchilari o‘rin olgani, ularning asarlaridan ma’lumot berilgani va ayrim biografik hamda adabiy-tanqidiy mulohazalar bayon etilgani haqida ma’lumotlar mavjud. Shu o‘rinda olim Muhammad Avfiyning latifa va rivoyat xarakteridagi ma’lumotlarga ortiq darajada berilib ketib, faktik ma’lumotlarga kam e’tibor berganini, E.Bertelsning 1956-yilda nashr qilingan “Nizami” asari bilan tanishib chiqish jarayonida, ushbu asarda, ya’ni “Lubob ul-albob” asarida deyarli o‘z zamondoshi Nizomiy Ganjaviy haqida ham biror arzigulik ma’lumot yozib qoldirmaganini, bunday kamchiliklar keyingi asrlarda yaratilgan tazkiralarga ham taalluqliligini ta’kidlaydi. Shu o‘rinda olim, XV asrda badiiy adabiyotning rivojlanib, katta muvafaqqiyatlarga erishishi Jomiy hamda Navoiy kabi ulug‘ so‘z san’atkorlarining yetishishi adabiyotshunoslikning, jumladan tazkirachilikning taraqqiysiga ham samarali ta’siri mavjuligini Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” hamda Abduramon Jomiyning “Bahoriston” asarining 7-ravzasi (bobi) “She’r va shoirlar” tazkira xarakteri haqidaligini alohida ta’kidlaydi. N.Mallayev ushbu maqolasida bevosita tazkira sifatida XV asrda ikki yirik asar yaratilgani, ya’ni Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkiratush shuaro” hamda Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarlarini dalillar asosida ko‘rsatib bergan. Jumladan

N.Mallayev yozadi [2] : “Bahoriston” qardosh tojik xalqining buyuk san’atkori va olimi Abdurahmon Jomiyning ijodida katta o‘rin tutgan asarlardan biridir. “Bahoriston” o‘z xarakteri bilan mashhur eron yozuvchisi Shayx Muslihiddin Sa’diyning “Guliston” asariga yaqin turib, u didaktik-prozaik asar sifatida 1486-1487-yillarda yaratildi. “Bahoriston” asari ham “Guliston” kabi 8 qismdan - ravzadan iborat: 1-ravza shayxlar va avliyolar haqida; 2-ravza hakimlar va donishmandlarning so‘zlari; 3-ravza podsholarga nasihat; 4-ravza sahovat va himmat haqida; 5-ravza oshiqlar sarguzashti va ishq bobida; 6-ravza hazil va mutoyiba; 7-ravza she’r va shoirlar haqida; 8-ravza masallar.

Olim N.Mallayev ma’lumotiga ko‘ra, Jomiy “Bahoriston”da axloq, odob masalalari haqida fikr yuritadi, ibratli hikoyalar, masallar, tanbihlar hamda xilma-xil she’rlar bitadi. Adabiyotning tarbiyabiy-estetik roliga katta ahamiyat beradi, o‘z asarining maxsus bir ravzasini poeziya va yozuvchilarga bag‘ishlaydi hamda Jomiy bu bilan badiiy so‘z san’atiga ishtiyoq va muhabbat tug‘dirishga intiladi. Ushbu maqolada N.Mallayev, Jomiy “Bahoriston” asarining 7-ravzasi 2 qismdan iboratligi: 1. “So‘z san’ati haqida”, hamda 2. “Shoirlar tazkirasi” deb nomlanishini ma’lum qiladi. Birinchi qism ikkinchi qismga bir muqaddima shaklida bo‘lib, Jomiy yozuvchilar haqida ma’lumot berish va fikr yuritishdan avval so‘z san’ati haqida qisqa bo‘lsa ham ma’lumot berishni lozim ko‘rgan. Jomiy badiiy so‘z, vazn, qofiya, radif, badiiy til vositalari va boshqalar haqida ma’lumot beradi. Olim N.Mallayev o‘zining maqolasida “Bahoriston” asaridan 15 dan ortiq she’riy hamda nasriy parchalar keltirib, asarning o‘zbekcha tarjimalari haqida ham ma’lumot beradi. Ushbu she’riy hamda nasriy parchalar vazn, qofiya, badiiy til haqida, she’r qism (tur)lardan iboratligi, qasida, g‘azal, masnaviy, qit’a va ruboiy haqida ma’lumot berish jarayonida bir masalaga alohida to‘xtalib o‘tadi. Jumladan, Jomiy o‘tmish shoirlarining ko‘pi qasida, madhiya va va’zda ko‘proq ijod etgani, keyingi yozuvchilarning esa ko‘proq g‘azal bilan shug‘ullanishi va ularning soni xiyla ko‘p ekanini ta’kidlaydi. Somoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar davrida yetishgan shoirlarning ko‘pchiligi qasida yozish bilan ko‘proq shug‘ullanganini yozib qoldiradi.

Olim N.Mallayev “Bahoriston” asarining 7-ravzasida tazkiraga oid umumiy xususiyatlarini quyidagilar deya ta’kidlab o‘tadi: Jomiy o‘z davrining traditsiyasiga muvofiq ravzadagi ma’lumotlarning manbaini ko‘rsatmaydi. Shubhasiz, asar avtori, Jomiy ko‘p manbalardan tarixiy kitoblar, xotiralar, lug‘atlardan, Rashidaddin Vatvot, Nizomiy, Aruziy Samarqandiy va boshqalarning asarlaridan foydalangan. Yana shuni ta’kidlash lozimki, avtor ko‘pincha biror fakt yoki ma’lumotni keltirsa, ham unga nisbatan o‘z munosabatini bayon etmaydi. Shuning natijasida ba’zi bir noaniq yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar izohsiz qolib ketadi, bunga misol qilib, Firdavsiy haqidagi ma’lumotni keltiradi. Xususan, olimning fikricha, Jomiy Firdavsiy haqida so‘zlar ekan, turli xil rivoyat va afsonalarga tanqidiy yondoshmaydi. Shuning natijasida haqiqat bilan afsona qorishib ketgani haqida ma’lumot beradi. Ayrim yozuvchilarning yashagan davri haqida bevosita yoki bilvosita ma’lumot berilsa ham, ba’zilari haqida ma’lumot berilmaydi. Jomiy ayrim yozuvchilarning asarlarini sanab o‘tadi, ba’zilarini tilga ham olmaydi. N.Mallayev “Bahoriston”da yozuvchilarga umumiyroq tarzda bo‘lsa ham baho berilganini,

ularning ijodi uchun xarakterli bo‘lgan ayrim xususiyatlar batafsil qayd etilganini, tanqidiy fikr-mulohaza yuritilganini ta’kidlab o‘tadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Professor N.Mallayev yozuvchilar biografiyasiga doir fakt va ma’lumtolardan Jomiy “Bahoriston” asarining 7-ravzasida eng birinchi Rudakiy haqida ma’lumot berganligini, chunki Rudakiy fors-tojik adabiy tili va adabiyotining asoschisi “Odamush shuaro” - “shoirlar odamatosi”, ya’ni birinchi shoir deb atalganini ta’kidlab yozadi.

N.Mallayev Jomiyning “Bahoriston” asarini tahlil qilar ekan, quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: Rudakiy “Movarounnahr shoirlaridandir va tug‘ma ko‘r bo‘lgan. Ammo shundy zehni va fahmi o‘tkir bo‘lganki, 7 yoshida qur’oni sharifni batamom yod olib, qiroat qilar edi va she’r aytar edi. Hamda kuy go‘zalligiga mayl qo‘yib cholg‘uchilikka berildi, ud asbobini o‘rgandi va bunda shuhrat qozondi. Nasr ibn Ahmad uni tarbiyat qilgan deydilar” [3]. Shundan so‘ng olim, “Bahoriston” asarida Rudakiyning forsiy she’riy parchalarini erkin hamda muqobil tarjimalari orqali ochib beradi. Olimning “XV asr tazkiralarining tarixiy-adabiy ahamiyati” nomli maqolasida Jomiyning “Bahoriston” asarining 7-ravzasida yuqorida keltirilgan asosli, faktik ma’lumotlardan tashqari Unsuriy, Xo‘ja Imod Faqiya, Firdavsiy, Nosir Xisrav, Salmon Savojiy, Sa’diy, Hasan Dehlaviy, Hofiz, Xusrav Dehlaviy, Kotibiy haqida ham zaruriy ma’lumotlar berilgan.

N.Mallayev ma’lumotlariga ko‘ra, “Bahoriston”ning 7-ravzasi XX asrning 50-60-yillarida ham ma’lum tarixiy-adabiy qimmatini saqlagan. Xususan ushbu asar fors-tojik tilidagi adabiyot tarixini o‘rganish uchun ahamiyatli. Shu bilan birga ravza o‘zbek klassik adabiyoti, o‘zbek klassik adabiyotining cho‘qqisi Navoiyning hayoti va ijodini o‘rganish uchun ham mo‘tabar bir manbadir. Navoiy va Jomiy faoliyatida biz ikki xalq-o‘zbek va tojik xalqlarining madaniy aloqasi va hamkorligini yorqin ko‘ramiz. Navoiyning Jomiyga bergan yuksak bahosi, unga bir ustoz san’atkor sifatida munosabatda bo‘lishi hamda Jomiyning Navoiyga ehtiromi, uning iodiy dahosiga bergan yuksak bahosi ma’lum. Jomiyning Navoiyga munosabati jumladan “Bahoriston”da o‘z ifodasini topgan. “Bahoriston”da Jomiy Navoiyni tadbirli va fazilatli davlat arbobi sifatida taqdirlaydi. Shu bilan birga uning ijodiy faoliyati va asarlari haqida so‘zlaydi. Alisherni so‘z o‘yini bilan “Aliser” (“yaxshi sifatlar”) deb ataydi, Abdurahmon Jomiy o‘z asarida Alisher Navoiyga fors-tojikcha bergan ta’rifni olim N.Mallayev o‘z maqolasida quyidagicha o‘zbek tilida tarjimasini keltiradi: “Garchi uning ta’bidagi, quvvat va qobiliyatidagi kenglik tufayli turkiy va forsiy she’rlari ko‘p bo‘lsa ham, uning turkiy tilga mayli ko‘proqdir. Bu tildagi g‘azalllari o‘n ming (bayt)dan ziyoda bo‘lur va Nizomiy “Xamsa”siga javoban yaratgan masnaviylari 30 ming baytga yaqin, o‘sha tilda undan ko‘p va undan yaxshiroq hech kim she’r aytgan va nazm gavharlarini tizgan emas”. Bu bir ustoz so‘z san’atkorining ikkinchi bir ustoz so‘z san’atkori haqida aytgan obyektiv fikri va mo‘tabar bahosidir.

Professor N.Mallayevning fikricha, garchi “Bahoriston”ning 7-ravzasida yozuvchilarning biografiyasiga doir ma’lumotlar, adabiy-tanqidiy mulohazalar izchil va to‘la bo‘lmasa ham, u o‘z davri madaniy-adabiy hayoti va estetik fikrlarining rivojida ma’lum ahamiyatga ega bo‘ldi.

U kitobxonlarni ulug‘ san’atkorlar ijodiga qiziqtirdi va ular haqida, qisman bo‘lsa-da ma’lumot berdi. Jomiy yirik so‘z san’atkorlari haqida so‘zlash va ularning asarlaridan namunalar keltirish bilan so‘z san’atiga nisbatan ishtiyoq tug‘diradi hamda zamonasi yozuvchilarini o‘tmishning atoqli san’atkorlaridan ta’lim olishga undaydi deb yozadi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, olim N.Mallayevning “XV asr tazkiralarining tarixiy-adabiy ahamiyati” nomli maqolasida tazkirachilikning vujudga kelishi hamda uning rivojlanishi haqidagi zaruriy ma’lumotlarni asosli faktlar hamda qiyosiy dalillar asosida birma-bir tahlilga olgani bilan qimmatlidir. Ushbu ma’lumotlar Muhmmad Avfiy tomonidan yaratilgan “Lubobul albob” (“O‘zaklarning o‘zagi”) tazkirasi hamda Jomiyning “Bahoriston” asarining 7-ravzasi haqida. Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asarining 7-ravzasi o‘tmish adabiyotshunosligining muhim yodgorliklaridan biri bo‘lib, u adabiyot tarixini o‘rganishda qimmatli manbadir. Bu manbadan tanqidiy foydalanish X-XV asrlar adabiyotini kengroq yoritishga xizmat qiladi. Keyingi maqolalarimizda olim N.Mallayevning XV asr tazkiralarining tarixiy-adabiy ahamiyati” maqolasining davomiy qismlarini yana bir bor tahlil qilamiz. Professor N.Mallayevning ushbu maqolasi jami 36 sahifani tashkil qilganligi sababli, maqolamiz sahifalarini inobatga olishimiz zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Маллаев Н. “XV аср тазкираларининг тарихий-адабий аҳамияти” // Ўзбек адабиёти масалалари. – Тошкент, 1959. - .№. 1 - Б. 255.
2. Маллаев Н. “XV аср тазкираларининг тарихий-адабий аҳамияти” // Ўзбек адабиёти масалалари. – Тошкент, 1959. - .№. 1 - Б. 256.
3. Маллаев Н. “XV аср тазкираларининг тарихий-адабий аҳамияти” // Ўзбек адабиёти масалалари. – Тошкент, 1959. - .№. 1 - Б. 260.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

MUHAMMAD AMINXO‘JA MUQIMIY G‘AZALIYOTIDA FOLKLORIZIMLARNING KO’RINISHLARI

Namuna Tursunova,
Qo‘qon universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning g’azallarida folklorizmlarning mavqeini aniqlangan. Shoirning folklorga xos motiv obraz, o‘xshatish, jonlantirish, takror kabi tasviriy vositalar, xalq olqishlari, qarg‘ishlari, askiyalari, hikmatli so‘zlar va xalqning e’tiqod tarzidan badiiy maqsad ifodasi uchun mahorat bilan foydalangani tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: G‘azal, folklorizm, motiv, obraz, tasviriy vosita, o‘xshatish, jonlantirish, takror, olqish, qarg‘ish, askiya, hikmatli so‘zlar, xalqning e’tiqod tarzi.

Abstract. This article identifies the role of folklorisms in the ghazals of Muhammad Aminkhodja Mukimi. The poet's skillful use of folklore motifs, imagery, similes, animation, repetition, folk praises, curses, ascites, wise sayings, and folk beliefs to express his artistic goal is analyzed.

Keywords: Ghazal, folklore, motif, image, figurative language, simile, animation, repetition, praise, curse, askiya, wise words, folk beliefs.

Аннотация. В статье рассматривается роль фольклоризмов в газелях Мухаммада Аминходжи Мукими. Анализируется умелое использование поэтом фольклорных мотивов, образов, сравнений, одушевления, повторов, народных восхвалений, проклятий, ацитов, мудрых изречений и народных поверий для выражения своей художественной цели.

Ключевые слова: Газель, фольклор, мотив, образ, образный язык, сравнение, одушевление, повторение, похвала, проклятие, аския, мудрые слова, народные верования.

KIRISH

Adabiy jarayonning uzviy qismi sifatida shakllangan xalq og‘zaki ijodi — folklor, o‘zining badiiy ifoda vositalari, obrazlar tizimi, poetik shakllari va estetik mezonlari bilan yozma adabiyotga doimiy ta’sir ko‘rsatib kelgan. Xalqning hayot tarzi, dunyoqarashi, orzu-armonlari, axloqiy me’yorlari va estetik didi, avvalo, og‘zaki ijod namunalarida mujassam bo‘lgan bo‘lsa, bu an’analar keyinchalik yozma adabiyotda ham yangi badiiy shakllar, g‘oya va obrazlar orqali

davom ettirilgan. Ayniqsa, o‘zbek adabiyotining taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan XIX asr Qo’qon adabiy muhitida folklor unsurlarining o‘ziga xos tarzda adabiy matnga singdirilganini kuzatish mumkin. Xususan, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy (1850–1903) ijodi o‘z davrining ijtimoiy-ma’naviy muhitini, xalq kayfiyatini badiiy ifodalagan holda, o‘zbek mumtoz adabiyotining mazmunan va shaklan boyishiga xizmat qilgan. Muqimiy o‘z g‘azallarida mumtoz she’riyatning an’anaviy mavzulari — ishq, tabiat, hayot falsafasi bilan birga, xalqona ruh, til soddaligi va hayotiy obrazlar orqali xalq og‘zaki ijodining ko‘plab unsurlarini badiiy matnga olib kirgan. Uning she’riyati — ayni ma’noda, xalq ruhiyatining adabiy ifodasidir.

Ushbu maqolada Muqimiy g‘azaliyotidagi folklorizmlarning ko‘rinishlari, ya’ni xalq og‘zaki ijodining badiiy vosita, timsollar tizimi, ibora va janr shakllarida qanday aks etgani o‘rganiladi. G‘azallarida uchraydigan maqollar, xalqona iboralar, masal, afsona va xalq timsollarining qo‘llanish uslubi Muqimiyning adabiy-estetik qarashlari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu folklor unsurlarining Muqimiy g’azaliyotiga qanday estetik yuklama bergani ham tahlil etiladi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, unda Muqimiy g‘azaliyotiga yangi — folkloristik nuqtai nazardan yondashish orqali uning poetik dunyoqarashi va xalqona ruhdagi ijodiy uslubini yanada chuqurroq anglash imkoniyati yaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

“Xalq ijodining asosiy turlari va tarkibiy qismlaridan biri og‘zaki badiiy ijoddir. O‘zbek folklorshunosligining shakllanish davrlarida og‘zaki so‘z san’atiga nisbatan el adabiyoti, og‘zaki adabiyot, og‘iz adabiyoti kabi turli-tuman atamalar ishlatilgan. Keyinchalik xalq og‘zaki badiiy ijodining (og‘zaki so‘z san’atining) barcha namunalarini o‘z ichiga oluvchi termin sifatida o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi va o‘zbek folklori atamalari mustahkam ravishda o‘zlashdi.” [1.249]

Muqimiyning g‘azaliyotidagi xalqona ruh, soddalik va hayotiylik bilan bog‘liq jihatlar bir qator tadqiqotlarda qayd etilgan bo‘lsa-da, bu she’riyatda folklor elementlarining tizimli o‘rganilishi hali to‘liq yakuniga yetmagan masalalardan biri sanaladi. Muqimiy ijodining umumiy badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi va jamiyatga munosabati haqida G‘afur G‘ulom, Uyg’un, G’ulom Karimov, Abdulatif Turdialiyev, Zebo Kobilova, Qo‘ldosh Pardayev kabi adabiyotshunoslarning ilmiy izlanishlarida muhim mulohazalar ilgari surilgan. Xususan, Shuningdek adabiyotshunos olima M.Tojiboyevaning ilmiy izlanishlari ham tahsinga sazovor. “Muqimiy she’riyatidagi xalqona ruh og‘zaki nutqda, ko‘proq so‘zlashuv jarayonida erkalash, iltifot, ba’zan minnatdorchilikning o‘zbekona shakli sifatida “o‘rgulay”, “aylanay”, “tasadduq”, “esonmisiz?”, “omonmisiz?” so‘zlari ko‘p uchraydi”.[2.192] Lekin mazkur ilmiy izlanishlarda Muqimiy ijodidagi folklorizmlarning yoritilishi shoir mahoratini to’la qonli ochib bera olmagan. Ushbu maqolada ularning Muqimiy g‘azallarida folklorizmlarning qanday funksional vazifa bajarayotgani, ularning badiiy-estetik ahamiyati ochib beriladi.

METADOLOGIYA

Xalqchil shoiri Muqimiy ham folklorga xos motiv, obraz, ohang va tasviriy vositalardan ilhomlangan va asarlarida mahorat bilan foydalangan. Uning she’rlari hali siyohi qurimay turib xalq ichiga keng tarqalgan. Bu mashhurlikning siri – shoir she’rlarining xalq qo‘shiqlari ruhi va ohangida yozilganida edi. Mazkur maqolada Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy g‘azaliyotida folklorizmlarning qanday shakllarda va badiiy funksiyada namoyon bo‘lishi, ularning poetik matn tarkibidagi roli va estetik ahamiyatini aniqlash maqsad qilingan. Shu boisdan maqolada adabiy-folkloristik tahlil**,** immanent yondashuv**,** kontekstual, tarixiy-madabiy, qiyosiy, analiz va tipologik usullar asosiy metodlar sifatida qo‘llanildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Muqimiy ham o‘z davri ijodkorlari qatori o‘z she’rlarida folklorga xos sodda shakl va ifoda uslubi, an’anaviy epik obraz va motivlar, o‘ynoqi va serjilo ohangdan foydalangan. Bu orqali milliy she’riyatga yangicha ruh olib kirgan. Muqimiy va uning Furqat, Zavqiy, Muhayyir kabi zamondoshlari an’anaviy mavzularda ham ko‘plab asarlar yaratish barobarida, nazm tili va uslubini ancha soddalashtirib, xalqqa yaqinlashtirdilar.

Bir umr xalq ichida yurgan, xalq birla birga nafas olgan, xalq turmushi, orzu-o‘ylarini yaxshi bilgan Muqimiy xalqona so‘z va iboralarni topib ishlatishga juda usta. Shoir she’rlari sodda, tushunarli, ayni paytda, ta’sirchan va nishonga bexato tegishi bilan o‘ziga xos badiiy qimmat kasb etadi.

Oshno bo‘ldim desam, ko‘nglung sening begonada, [3.117]

kabi sof xalqona misralarni Muqimiydek xalqchil shoirgina ijod qilishi mumkin.

Muqimiy o‘z she’rlarida xalqona so‘z va iboralar, maqol-matallar, naqllar va qanotli so‘zlar, asrlarni bo‘ylab kelayotgan an’analar va urf-odatlar, rasm-rusumlar va irim-sirimlar, xalq qarashlari va e’tiqod tarzidan badiiy maqsadi ifodasi uchun mahorat bilan foydalanish orqali she’rlarining xalqchilligi va ta’sirchanligini ta’minlaydi, badiiy barkamollikka erishadi. Bu she’rlarda xalq bamisoli o‘zini ko‘zguda ko‘rganday bo‘ladi, dilidan kechgan, tilidan o‘tgan fikr-u o‘ylarini o‘qiganday bo‘ladi. Shu jihatdan qaraganda, Muqimiy uslubi shaxsiyati, yashagan davri, adabiy muhiti, ijod olami bilan belgilanadi. Chunki Muqimiy shaxsiyatidagi soddalik, samimiylik, insoniylik, xalqona ifoda kabi sifatlar uning ijodiga ham ko‘chgan. “O‘rgulsun”, “O‘ynaylik, Kulaylik”, “Aylansun”, “Tokaygacha”, “Mayligamu”, “O‘rgulay” radifli g‘azallarida buning isbotini ko‘rish mumkin.

Ey yaxshilar, kelaylik, bir joyga yig‘ilaylik,
O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik.
Bu umr ekan baqosiz, dunyoyi dun vafosiz,
O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik. [3.52]

Ushbu g‘azal sof so‘zlashuv uslubida. Unda og‘zaki nutqda ishlatiladigan “O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik” jumlalari har bir baytning ikkinchi misrasida takrorlanib she’rning ohangdorligini, sodda va tushunarli bo‘lishini ta’minlagan.

Hijrondagi oshiq holatini esa mana bunday chizadi:

Hajr ila tinmay ko‘zimdin ko‘rmasam ashkim kelur,

G‘ayr ila ko‘rsam mabodo xud-baxud rashkim kelur [3.35]

“Seni ko‘rmasam, hajringda tinmay ko‘z yoshi to‘kaman. Mabodo seni boshqa bilan ko‘rguday bo‘lsam, o‘z-o‘zidan rashkim keladi”.

Shoir tashbehlari ham o‘zining xalqonaligi bilan e’tiborni tortadi. Chunonchi, bir baytida: “Boshimda sochimning tolalaridan ham ko‘p savdolaring borki, zulfingning muattar tuzog‘idan xalos bo‘lmoqning sirayam iloji yo‘q”, – deya nozik lutf vositasida o‘tkir mubolag‘a qiladi:

Xalos o‘lmoq muanbar domi zulfingdin iloji yo‘q,

Boshimda mo‘yi sardin ham fuzun savdolaring bordur [3.33].

“Seni deb xalq ichida mundoq fitnalar qo‘zg‘olgan ekan, bunga o‘zingning ham bir qarashda ko‘ngillarni o‘ziga tortadigan husn-u jozibang ham sababdir”, – deydi boshqa bir baytida:

Xaloyiq ichrakim qo‘zg‘aldi mundog‘ fitnalar bois,

O‘zingni ham biroz, lekin ko‘ngul orolig‘ing bordur [3.33].

Muqimiy kayfiyati yo‘q tund ma’shuqa holatini ifodalash uchun “ko‘ngliga qil ham sig‘maydi” degan xalqona iboradan mahorat bilan foydalanib, tasvirning ta’sir kuchini oshirishga erishadi:

Mo‘y ham tab’ig‘a sig‘may tund o‘lub, gap yoqmagay,

Toblanib har rang yuz alvonlig‘ingdin o‘rgulay.[3.128]

Albatta, shoir xalqona so‘z va iboralardan keng foydalanishiga qaramay o‘zining fikr-u mushohadalari, tuyg‘u-kechinmalari, tasvir va ifodalarini oddiygina bayon qilish bilan kifoyalanmaydi, bil’aks rang-barang badiiy san’atlarni mahorat bilan qo‘llab, she’rlarining shaklan go‘zal, mazmunan teran, badiiy barkamol chiqishiga harakat qiladi. Chunonchi, mumtoz she’riyatda ma’shuqaning qoshi yoy, qilich va boshqa o‘tkir va keskir qurollarga nisbat beriladi. Shoir shundan foydalanib: “Oshiqlaringning boshini olish uchun qoshingning shamshirini haddan ziyod tezlama – yosh boshingga ishq ahlining qonini daryo qilib oqizma”, – tarzida mubolag‘ali lutflar qiladi:

Qoshni shamshirini bosh kesmakka burro qilma ko‘p,

Yosh boshingga muncha ham qonlarni daryo qilma ko‘p [3.23]

“Eshikdin ursang-u quvsangki, ketmas bir gadoyingman”, “Har kecha yodingda ming yo‘l uyqudin uyg‘onaman”, “Man bu g‘am bozorida yurmakka holim qolmadi”, “Goh-gohe ko‘z uchi birlan nazar sol, aylanay”, “Shum raqiblar ko‘zig‘a olamni tor aylab keling”, “Ishq o‘tig‘a kuydi mag‘zi ustuxon”, “Fe’l-u atvoringni sog‘indim yomon”, “Chiqdi hijron chillasi, keldi bahorim, xayriyat”, “Qilmasam zikringni kesulsun zabon” singari ko‘pdan-ko‘p xalqona misra va iboralar Muqimiyning qanchalik xalqchil shoir bo‘lganligini yorqin ko‘rsatadi.

Muqimiy ijodini kuzatar ekanmiz, etnografik folklorizmlardan foydalanish ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunonchi, quyidagi baytida o‘zbeklarning madaniy turmush tarzi - xalqning mehmon oldiga dasturxon solish odatidan ma’shuqaning visolidan bahramand etishini iltimos qilish uchun foydalanadi:

Xoni vaslingga bore aylasang netar mehmon,

Hajr kunjida tokay o‘tmas osh tamog‘lardin [3.100].

“Hech qursa bir marta visoling dasturxoniga chorlab, mehmon qilsang, bir yering kamayib qoladimi, axir, qachongacha hijron go‘shasida tomoqlardan taom o‘tmaydi?”

She’r o‘quvchi uchun yozilar ekan, uning didi, saviyasi, talab va ehtiyoji albatta hisobga olinishi kerak. Muqimiy hamisha ko‘ngilga yo‘l topadigan va ma’naviy oziq bo‘ladigan she’rlar yozishga intiladi. Jumladan, quyidagi baytida: “Ey sarvi ra’no, agar suratingni ko‘rish mumkin bo‘lsa-yu, uni qorachiq kabi ko‘zim ichiga jo qilib olsa edim”, – deya xalqona, ayni paytda betakror tashbeh qo‘llaydi:

Mumkin o‘lsa ko‘rmog‘im, ey sarvi ra’no, surating,

Aylasam chashmim aro mardum kabi jo surating [3.74]

Sevimli yor suratini qorachiq kabi ko‘zga jo etish – uni ko‘z gavhariga aylantirish u bilan bir umr birga bo‘lish demakdir. Ana shu sharhi bir risola bo‘lgulik fikrni shoir kutilmagan tashbeh vositasida bir misra qatiga joylaydi. Bu, o‘z-o‘zidan, mahorat mahsuli.

Kishining ko‘zi uchsa, mehmon keladi deb irim qilinadi. Shoir ma’shuqa tashrifini xalq ichida keng tarqalgan ayni irim bilan bog‘laydi:

Bu kun nogah munavvar shomimi aylarga, ey ahbob,

Ko‘zum uchkay, magar mehmon kelur mastona-mastona [3.39]

XULOSA

Tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, Muqimiy xalq og‘zaki ijodi atalgan hayotbaxsh chashmadan qonib-qonib suv ichgan, folklor unsurlaridan o‘z ijodida “ko‘p va xo‘b” foydalangan va bu orqali o‘z she’rlarining soddaligi va ravonligi, jarangdorligi va ta’sirchanligi, xalqchilligi va badiiy barkamolligini ta’minlagan shoirlar sirasiga kiradi. Oddiylik va soddalik, ravonlik va jarangdorlik, qisqalik va lo‘ndalik, xalqona ifoda va tasvir, hayotiy timsol-u tashbehlardan keng istifoda etish Muqimiy uslubining yetakchi xususiyati bo‘lib, shoir she’rlarining xalqchilligi va badiiy barkamolligini ta’minlagan asosiy omillar ham ayni shu bilan belgilanadi. Shoir xalq olqishlari va qarg‘ishlari, askiyalar, hikmatli so‘zlardan, xalqning e’tiqod tarzidan badiiy maqsad ifodasi uchun mahorat bilan foydalangan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзаев Т. Фольклор ва унинг асосий хусусиятлари. XX аср Ўзбек фольклоршунослиги антологияси. (Тузувчилар:Тўлабоев О, Жўраев М ва бошқалар)Ўзбекистон миллий енциклопедияси. Тошкент-2017.-Б. 249.

2. Tojiboyeva M. Muqimiyning xalqona ruhdagi she’riyati xususida. “Qo‘qon adabiy muhiti va uchinchi renessans” (xalqaro ilmiy-amaliy anjuman). Farg‘ona: Farg‘ona. 2022. –B.192

3. Муқимий. Тўла асарлар тўплами. (Нашрга тайёрловчи: Турдиалиев А). –Тошкент. Иқтисодиёт, 2021. –384. б.

4. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(9), 58-67.

5. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O ‘RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(1), 215-219.

6. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.

7. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *10*, 121-123.

8. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 260-263.

9. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(09), 187-191.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПРЕПОДАВАНИЮ ГРАММАТИКИ РУССКОГО ЯЗЫКА: ТРУДНОСТИ ДЛЯ ИНОСТРАННЫХ УЧАЩИХСЯ

Xakimova Go‘zalina Murodjonovna
University of Business and Science 3 kurs talabasi
linahakimova0@gmail.com
+998998296811

Аннотация: Эта статья посвящена актуальной проблеме методики преподавания грамматических основ русского языка для студентов, не являющихся носителями. В работе рассматриваются характерные трудности, которые испытывают иностранные обучающиеся при изучении русской морфологии и синтаксиса, а также выделяются причины этих затруднений — от лингвистических различий до психолого-педагогических факторов. Предлагаются современные методические решения, направленные на повышение эффективности обучения, включая адаптацию учебных материалов, интеграцию цифровых технологий, контекстный и дифференцированный подходы. Подчёркивается необходимость учитывать культурную и языковую дистанцию между учащимся и изучаемым языком.

Ключевые слова: русский язык как иностранный, грамматика, трудности обучения, методика преподавания, иноязычные студенты, дидактика, грамматическая адаптация

Abstract: This article is devoted to the current problem of methods of teaching the grammatical foundations of the Russian language to students who are not native speakers. The paper examines the typical difficulties that foreign students experience when studying Russian morphology and syntax, and identifies the causes of these difficulties - from linguistic differences to psychological and pedagogical factors. Modern methodological solutions aimed at improving the effectiveness of training are proposed, including the adaptation of educational materials, the integration of digital technologies, contextual and differentiated approaches. The need to take into account the cultural and linguistic distance between the student and the language being studied is emphasized.

Keywords: Russian as a foreign language, grammar, learning difficulties, teaching methods, foreign language students, didactics, grammatical adaptation

Annotatsiya: Ushbu maqola ona tili bo'lmagan talabalarga rus tilining grammatik asoslarini o'rgatish usullarining dolzarb muammosiga bag'ishlangan. Maqolada rus morfologiyasi va sintaksisini o'rganishda chet ellik talabalar duch keladigan tipik qiyinchiliklar ko'rib chiqiladi va bu qiyinchiliklarning sabablari - lingvistik farqlardan psixologik va

pedagogik omillargacha aniqlanadi. O‘qitish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan zamonaviy uslubiy yechimlar, jumladan, o‘quv materiallarini moslashtirish, raqamli texnologiyalar integratsiyasi, kontekstli va tabaqalashtirilgan yondashuvlar taklif etilmoqda. Talaba va o‘rganilayotgan til o‘rtasidagi madaniy va lingvistik masofani hisobga olish zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Rus tili chet tili sifatida, grammatika, o'rganishdagi qiyinchiliklar, o'qitish usullari, chet tili talabalari, didaktika, grammatik moslashuv

Изучение грамматики русского языка иностранными обучающимися — один из наиболее сложных аспектов овладения РКИ[1]. Несмотря на развитие современных методов преподавания и наличие разнообразных учебников, проблемы в освоении грамматических категорий сохраняются[2]. Это связано как с внутренними особенностями грамматической системы русского языка (богатство форм, флективность, вариативность), так и с внешними — межъязыковыми и социокультурными различиями[3].

Многие иностранные студенты подходят к грамматике как к механической системе правил, что препятствует её органичному усвоению. В то же время преподаватели сталкиваются с задачей не только передать знания, но и адаптировать материал под специфику конкретной аудитории. Всё это требует гибкой методической стратегии и глубокого понимания лингводидактических принципов.

Специфика грамматической системы русского языка в контексте РКИ

Грамматический строй русского языка для носителей кажется естественным, но для иноязычных студентов — непривычным и перегруженным деталями. Ниже рассмотрим те компоненты, которые вызывают наибольшее затруднение[4].

Падежная система Наличие шести падежей (а в некоторых формах и семи) с разнообразием значений и форм, а также их зависимость от глагольного управления, предлогов и контекста, представляет серьёзную нагрузку на обучающегося. Особенно трудно даётся различение предложного и родительного падежей после предлогов: *о книге — без книги*[5].

Категория вида глагола Видовое противопоставление (совершенный/ несовершенный) не всегда имеет прямые параллели в других языках. Ошибки в выборе глагольного вида — одна из самых распространённых в устной и письменной речи иностранных студентов[6]. Например, *«Я буду написать»* вместо *«Я напишу»*.

Сложность согласования Для успешного построения фразы студенту нужно синхронизировать род, число, падеж всех членов предложения, включая местоимения, числительные, существительные, прилагательные. Нарушения в согласовании делают речь неестественной.

Синтаксическая свобода с коммуникативной функцией

Порядок слов в русском языке относительно свободен, но не произволен: он зависит от логики, акцентов, интонации[7]. Иностранные учащиеся часто переносят прямой порядок слов из родного языка, нарушая коммуникативную цель высказывания[8].

Причины затруднений иностранных студентов при изучении грамматики

Межъязыковая интерференция Учащиеся склонны переносить структуры родного языка в русский. Например, студенты из языков с аналитическим строем (английский, китайский) испытывают сложности с изменением словоформ.

Культурная дистанция Восприятие языковых конструкций обусловлено культурным кодом. Например, использование формы вежливости или определённого порядка слов может восприниматься как неестественное или непонятное.

Когнитивные особенности восприятия языка Некоторые студенты демонстрируют трудности в абстрагировании и обобщении грамматических правил. Сложные теоретические объяснения вызывают замешательство, особенно на начальном уровне.

Психологические барьеры Страх ошибиться, неуверенность в себе, недостаточная языковая практика тормозят освоение грамматических структур. Особенно остро эта проблема стоит в группах с неоднородным уровнем подготовки[10].

Методические принципы и подходы в преподавании грамматики Современная методика преподавания грамматики РКИ базируется на нескольких ключевых принципах:

Контекстуализация Грамматика должна изучаться не в отрыве от лексики и реальной речи, а как инструмент для выполнения коммуникативных задач. Использование диалогов, ситуационных упражнений, рассказов помогает закрепить грамматические формы в контексте.

Дифференциация обучения Необходимо учитывать лингвистический и культурный бэкграунд студентов. Например, студенту из Турции и студенту из Кореи может требоваться разный подход к объяснению одной и той же грамматической темы.

Визуализация и наглядность Использование схем, таблиц, цветового кодирования форм облегчает восприятие материала. Особенно это эффективно при обучении падежам и глагольным формам.

Пошаговая автоматизация После теоретического объяснения важно переходить к серии упражнений, в которых учащийся постепенно автоматизирует употребление формы: от изолированной до спонтанной речи[9].

Практические рекомендации преподавателю

- Использовать **метод "от текста к правилу"**, позволяющий сначала почувствовать структуру, а потом осознать правило.
- Внедрять **грамматические игры и интерактив**, чтобы снять напряжение и усилить мотивацию.

- Создавать **групповые упражнения**, где студенты обсуждают грамматические задачи — это способствует формированию языковой интуиции.
- Включать в обучение **цифровые технологии** (приложения, платформы, квизы), позволяющие индивидуализировать процесс.
- Проводить **частотный отбор грамматики**, выделяя те темы, которые наиболее часто встречаются в бытовом и учебном общении.

Примеры распространённых ошибок и пути их устранения

Ошибка	**Причина**	**Метод устранения**
«Он пошёл в магазин и купил хлеба»	Неправильный род/падеж	Контрастивный анализ форм
«Я говорит по-русски хорошо»	Нарушение согласования	Моделирование фраз в парах
«Она ехала домой на автобус» (вместо «на автобусе»)	Пропуск предлога	Контекстуальные упражнения
«Ты будет делать?»	Ошибка в форме будущего времени	Автоматизация спряжений

Особенности преподавания на разных уровнях владения языком

Начальный уровень (A1–A2)

Здесь важна максимальная опора на визуальные образы, моделирование типичных ситуаций (магазин, улица, общественный транспорт), использование минимального объёма правил и опора на интуицию.

Средний уровень (B1–B2) Преподаватель вводит более сложные конструкции (причастия, деепричастия, косвенная речь). Акцент делается на правильную стилистическую окраску речи.

Продвинутый уровень (C1–C2) На этом этапе студент способен анализировать и сравнивать стилистические оттенки грамматических форм, уместность их употребления в различных регистрах. Здесь возможна работа с текстами СМИ, публицистикой, научной и художественной речью.

Заключение Эффективное преподавание русской грамматики иностранным учащимся требует комплексного подхода, сочетающего традиционные и инновационные методики. Сложность грамматической системы русского языка должна компенсироваться логичной подачей, визуальной поддержкой и постоянной практикой в речи. Понимание причин трудностей — ключ к их преодолению. Учёт индивидуальных особенностей, языкового опыта и культурного фона учащихся позволяет выстроить обучение, соответствующее их потребностям и возможностям.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Воронцова, А. М. Методика преподавания русского как иностранного. — М.: Флинта, 2021. — С 256.

2. Леонтьева, Н. И. Грамматика в РКИ: проблемы и пути их решения. — СПб.: Лань, 2020. — С 198.

3. Бондарко, А. В. Теория грамматического значения. — М.: Наука, 2019. — С 312.

4. Костомаров, В. Г. Русский язык в иноязычной аудитории. — М.: Русский язык, 2018. — С 221.

5. Стернин, И. А. Лингводидактика. — Воронеж: ВГУ, 2020. — С 180.

6. Князева, И. В. Современные технологии преподавания РКИ. — Екатеринбург: УрФУ, 2021. — С 194.

7. Жирмунский, В. М. Сравнительное языкознание и методы преподавания. — М.: Логос, 2022. — С 208.

8. Ефремова, И. И. Психолингвистические аспекты усвоения грамматики. — Казань: Университетская книга, 2019. — С 163.

9. Агафонова, С. И. Обучение грамматике через контекст. — М.: Знание, 2023. — С 245.

10. Пискунова, Л. В. Дифференцированный подход в обучении иностранцев. — СПб.: Каро, 2020. — С 176.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

NEMISCHA LUG‘ATLARNING TIL VA MADANIYAT TARIXIDA TUTGAN O‘RNI

Rahimova Mahzuna Husan qizi
O‘zbekiston Milliy Universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti,
Nemis filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
mahzuna95@yandex.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada nemis tili tarixi va madaniyatidagi lug‘atshunoslik fanining ahamiyati va uning yuzaga kelishi, olimlar tomonidan bildirilgan nazariyalar tahliliga to‘xtalib o‘tildi. Shuningdek, davrlararo madaniy jarayonlarning lug‘at tuzish jarayoniga ta’siri keng yoritib berildi. Tilshunoslik sohasing bo‘limi lug’atshunoslik har qanday davrda o‘z ahamiyatiga ega va bir qancha bosqichlardan o‘tgan soha hisoblanadi. Lug‘atshunoslikning madaniyat, til tarixi kabi sohalar bilan chambarchas bog‘liqligi o‘z navbatida bu sohaning rivojlanishida salmoqli hissa qo‘shadi. Olimlarning nazariy qarashlaridan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlash joizki, lug‘at tuzish qanchalik mashaqqatli jarayon bo‘lmasin, xalqlarni bir biriga bog‘lab turadigan rishta sifatida qaralsa to‘g‘ri bo‘ladi degan fikrdamiz.

Kalit so‘zlar: madaniyat va til tarixi, nemis leksikografiyasi, tilshunoslik, lug‘atshunoslik, lug‘at tuzish, madaniy jarayon.

МЕСТО НЕМЕЦКИХ СЛОВАРЕЙ В ИСТОРИИ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ

Аннотация: В статье рассматривается значение лексикографии в истории и культуре немецкого языка, ее возникновение и анализ теорий, высказанных учеными. Также широко освещается влияние межпериодных культурных процессов на процесс лексикографии. Лексикография, как раздел языкознания, всегда была важна и прошла несколько этапов. Тесная связь лексикографии с такими направлениями, как история культуры и языка, в свою очередь, вносит существенный вклад в развитие этой области. Исходя из теоретических воззрений ученых, стоит отметить, что, каким бы трудоемким ни был процесс составления словаря, мы считаем, что было бы правильным рассматривать его как связь, объединяющую народы.

Ключевые слова: история культуры и языка, немецкая лексикография, языкознание, лексикология, словарный состав, культурный процесс.

THE PLACE OF GERMAN DICTIONARIES IN THE HISTORY OF LANGUAGE AND CULTURE

Annotation: The article examines the significance of lexicography in the history and culture of the German language, its origins and analysis of the theories put forward by scholars. The influence of inter-period cultural processes on the process of lexicography is also widely covered. Lexicography, a branch of linguistics, has always been important and has gone through several stages. The close connection of lexicography with such areas as culture and language history, in turn, makes a significant contribution to the development of this field. Based on the theoretical views of scientists, it is worth noting that, no matter how laborious the process of compiling a dictionary is, we believe that it would be correct to consider it as a bond that binds peoples together.

Keywords: history of culture and language, German lexicography, linguistics, lexicology, vocabulary building, cultural process.

KIRISH: Zamonaviy dunyoda xalqaro tashkilotlar bilan birga xorijiy tillarda yoshlarga mo‘ljallangan va ular ishtirokida tayyorlangan turli ilmiy-ommabop hamda ko‘ngilochar ko‘rsatuvlar, bolalar uchun mo‘ljallangan xorijiy tildagi televizion asarlarni dublyajsiz, asl tilida, zarur hollarda o‘zbek, ingliz va rus tillariga titrli tarjima qilgan holda efirga uzatish kabi masalalar bilan bog‘liq Vazirlar Mahkamasining qarori dolzarb ahamiyatga egadir [1]. Shu hisobda xorijiy tillarni o‘rganish uchun eng muhim manba bu- lug‘atdir. Lug‘at tuzish jarayoni va prinsiplarini o‘rganadigan fan leksikografiya deb atalib [2, B.9], o‘z tarixi va rivojlanish bosqichlariga ega soha hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Lug‘atshunoslikda ilmiy ishlar olib borgan olimlar lug‘at tuzishda lingvistik va nazariy bilimlarga asoslangan holda, sotsiologik va ilm-fan tarixi kontekstlarini o‘zida aks ettiradi. Nemis olimi Ulrike Hass Zumkehr o‘zining “*Deutsche Wörterbücher –Brennpunkt von Sprach- und Kulturgeschichte”* kitobida nemis tilida so‘zlashuvchi davlatlarda zamonaviy madaniyat konsepsiyasiga asoslangan lug‘atlar tarixini aks ettiradi. Bunda u lug‘at tuzishda ilmiy va ijtimoiy kontekstlarni yoritib beradi. Leksikograflarning asosiy nazariyalari va umumiy xulosalariga to‘xtalgandan so‘ng, VIII asrdan XX asrgacha bo‘lgan xronologik nazariy bilimlarni uz ichiga oladi. Keyin esa tizimli jihatlar: milliy va Yevropa leksikografiyasi, sinonimlar tartibi, til va mavzu leksikasi o‘rtasidagi munosabat, tilni baholaydigan lug‘atlar va yangi ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlaydi. Bunda lug’atlar, birinchi navbatda til o‘rganuvchining so‘z boyligini oshirish uchun tilni o‘rgatishning eng yaxshi usuli hisoblanadi.

Til tarixini tadqiq qilishni lug‘atlarning tarixiy manbalarini o‘rganish bilan boshlash lozim, chunki lug‘at tuzish jarayonida aynan kommunikatsiya jarayonidagi matnlar hisobga olinadi [1, B. 643-646]. Leksikografiya tarixiga doir metodik qarashlar birinchi bo‘lib Shaeder, keyinroq Wiegand tomonidan kengroq yoritilgan. Ulrike Hass Zumkehr o‘zining “Deutsche Wörterbücher - Brennpunkt von Sprach- und Kulturgeschichte” nomli asarida o‘rta asrlardan to hozirgi kungacha nemis tili leksikografiyasi tarixini tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai

nazaridan ko‘rib chiqishga va shu bilan birga nemis lug‘atshunosligiga ijtimoiy-madaniy va ilmiy-tarixiy nuqtai nazardan e’tibor qaratgan.

Ulrike Hass Zumkehr ilmiy izlanishlari natijasida, o‘z asarida nemis leksikografiyasi tarixining xronologik va tematik ilovalar asosida zamonaviy lug‘atlarda kalit so‘zlar soni va ularning alifbo tartibida taqsimlanishi, nemis tili lug‘atining taxminiy hajmi, shuningdek, leksikografik manbalar, tadqiqotlar bibliografiyasi bo‘yicha ham ma’lumotlar beradi.

Leksikografiya tarixiga nazar tashlasak, lug‘atdan o‘rta asrlarda vosita sifatida foydalanilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ilk o‘rta asr glossografiyasida esa Abrogan tipidagi lug‘at to‘plamlari yanada rivojlantirilganiga guvoh bo‘lish mumkin. Lug‘atshunoslik fani rivojlanishining birinchi bosqichida lotin lemmalarini alifbo tartibida qayta tartiblangan, bunda dastlab matnda berilgan so‘zlarning lug‘ati tuzilgan bo‘lib, bu matn lug‘ati deb ataladi. Keyingi tarixiy bosqichlarda bir nechta matn lug‘atlari alifbo tartibida birlashtirilib, tobora kengayib borayotgan lug‘atlar to‘plamini tashkil etdi, shuning uchun bir yoki bir nechta maxsus matnlarga bog‘liqlik asta-sekin kamayib bordi.

Nemis olimi Ryszard Lipczuk esa Ulrike Hass Zumkehr tomonidan yaratilgan “Deutsche Wörterbücher – Brennpunkt von Sprach – und Kulturgeschichte” asari haqida so‘z yuritar ekan, „umuman olganda, juda foydali, nazariy jihatdan asosli asar, nemis leksikografiyasi tarixiga qisman yangicha nuqtai nazardan qaralgan qiziqarli va tanqidiy sharhlash” deb fikr yuritadi [2, B.3-4]. Darhaqiqat, kitobda nemis leksikografiyasining ham tarixiy, ham qisman yangicha yondashuvlari aks ettirilganligini guvohi bo‘lish mumkin.

Tilshunos olim Yozef Tot esa ushbu asarga quyidagicha fikr bildiradi: „kitobning muhim tomoni shundaki, rivojlanishning davrlararo yo‘nalishlari va nazariy va madaniy tarix o‘rtasidagi tizimli bog‘liqlik haqidagi xulosalar tilshunoslar, ayniqsa leksikograflar uchun ham, nemis tilshunosligiga qiziqqan talabalar uchun ham tushunarli bo‘lib qoladi. Shuning uchun ushbu kitobni yuqorida aytib o‘tilgan mutaxassislar doirasiga samimiy tavsiya qilish mumkin“ [3, B.15].

Umumiy foydalanishda lug’atlar turli xil savollar bo‘yicha ma’lumot beruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi va turli manbalarni tushunish uchun ishlatiladi. Bu kitobda ularga birinchi navbatda lug‘atlarni shakllantirishga yordam bergan madaniy-tarixiy pozitsiyalar va jarayonlarni bilib olish mumkin bo‘lgan manbalar maqomi berilgan.

Yakob Grimm “Nemis tili lug‘ati” asarida shunday yozadi: Lug’atning maqsadi nima? Uning keng qamrovli universalligini hisobga olsak, u faqat bitta asosiy maqsadga ega bo‘lishi mumkin. U tilning muqaddas boyligini barpo etishi, uning butun xazinasini asrab-avaylashi va uning kirish eshigini hamma uchun ochiq tutishi kerak. Omonatga qo‘yilgan har qanday manba esa o‘tmishi va buguni chambarchas bog’langan xalqning oliyjanob yodgorligiga aylanadi [4, B.12]. Bundan kelib chiqadiki, lug‘atlar tilning xazinasidir va bundan barcha foydalanishi mumkin.

So‘zlarning ma’nosini aniqlash bilan shug‘ullanadigan leksikologning nazariy bilimiga to‘liq mos ravishda, Hass Zumkehr o‘z tadqiqotining markaziy mavzusi sifatida madaniyat

tarixidan foydalanishdan oldin madaniyatning ta’rifini berib o‘tadi. U bunda Klifford Geyertzning nazariyasiga tayanadi, u madaniyatni ijtimoiy guruh (va undagi shaxslar) o‘rtasidagi sharhlovchi ramka“ sifatida tushuntiradi [5, B.14].

Xaydrun Kemper , Andreas Gardt, Oskar Rayxman va Anya Lobenshteyn-Rayxman, Gerbert Ernst Viyegand va Piter Eisenberg ham o‘zlarining lug‘atshunoslik asari hamda lug‘atshunoslik tarixiga qiziqishlari bilan olim Hass Zumkehrni leksikografiyaga oid nazariya yaratishida ruhlantirdilar.

Ushbu kitob o‘rta asrlardan to hozirgi kungacha tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan. nemis tili leksikografiyasi tarixini o‘z ichiga oladi. U tilning ijtimoiy funksiyalari va jamiyatda til va tildan foydalanish bo‘yicha mulohazalarni asosiy deb hisoblaydigan tilshunoslik faniga asoslanadi.

Lug‘atlar tarixi til tarixini aks ettirish bilan birga, turli ijtimoiy-tarixiy jihatlarni o‘z ichiga oladi. Lug‘at va ijtimoiy tarix o‘rtasidagi bog’liqlik shundaki, leksikografiya tilning rivojlanishiga va jamiyatning madaniy yo‘nalishiga sezilarli hissa qo‘shadi. Lug‘atlarning tarixi va siyosiy ahamiyati shundan kelib chiqadiki, odamlar o‘z tilini va ayniqsa, lug‘atini mintaqaviy yoki milliy o‘ziga xosligining ramzi sifatida tushunadilar. Til hamjamiyati uchun uning lug‘ati grammatik qoidalar tizimidan ko‘proq ramziy va aniqroq ahamiyatga ega bo‘ladi.

Lug‘at tarixi va ijtimoiy tarix o‘rtasida mavjud bo‘lgan aloqalar, taqdim etilgan tadqiqotlar natijalari asosida, ularning o‘zaro ta’sirini va bir - birini to‘ldirishini ko‘rsatadi. Ushbu aloqalar, shubhasiz, tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida chuqur tadqiqotlar o‘tkazish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu bog‘liqlikning mavjudligi, mazkur fanlarning metodologik asoslarini yangilash va boyitish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi.

Lug‘at tarixiga oid tadqiqotlar, tilshunoslik va madaniyatshunoslikdagi tarixiy lug‘atlardan amaliy foydalanish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni qulay formatda taqdim etish maqsadida ishlab chiqilgan. Masalan, XVIII asr oxirida bo‘lib o‘tgan konstitutsiyaviy munozaralar bilan shug‘ullanuvchi har bir tadqiqotchi ushbu davrdagi ayrim so‘zlarning ma’nosi va semantikasi haqida aniqlik kiritishga intilgan. Buning uchun, birinchidan, u qaysi lug’atlardan foydalanish; ikkinchidan, bu lug‘atlar konstitutsiyaviy munozaraga qanchalik to‘g’ri kelishini tahlil qilish; uchinchidan esa, qaysi siyosiy g‘oyalar leksik tasvirga ta’sir ko‘rsatganini o‘rganishi muhimdir.

Tilshunoslik tarixi sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar, zamonamizda tarixiy lug’atlarning manba qiymatini yanada chuqurroq kashf etishni boshladi [7, B.643-646]. Biroq, tarixiy lug‘atlarning vazifasi avvalambor, so‘z tarixini aniqlashdan iborat emas, balki ularning muloqot matnlaridagi o‘rni bilan ahamiyatlidir. Shu sababli, tarixiy lug‘atlarni tahlil qilish va ularning ijtimoiy va siyosiy kontekstini tushunish zarurati tildan foydalanish tafakkurining muhim jihatlaridan biridir.

Manbalardan to‘g‘ri foydalanish uchun ularning ijtimoiy va kommunikativ kontekstini tushunish zarurdir. Nemis leksikografiyasining qadimgi davridagi lug‘atlarning bir-biriga va boshqa matnlar bilan o‘zaro bog‘liqligi, ularni tarixiy manba sifatida ishlatishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Shu sababli, turli ta’sirlarni ajratish va hisobga olish muhimdir.

Madaniyatshunoslik va lug‘at tarixi, leksikografik nazariya va metodologiyaga yangi nazariyalar va usullar kiritish imkoniyatlarini taqdim etadi. Leksikografiya tarixiga doir uslubiy tahlillar dastlab Shaeder, keyinroq Viegand tomonidan o‘rganib chiqilgan. Ular leksikografiya tarixining turli yo‘nalishlarini, jumladan, ilmiy-tarixiy va ijtimoiy-madaniy shakllarini ajratib ko‘rsatadilar. Sheder leksikografiya tarixining lingvistik-tarixiy ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlaydi [6, B.48].

Lug‘at tuzish jarayoni siyosiy ta’sirlardan xoli emas, shuningdek, lug’atshunoslik tarixidan ma’lumki, bu jarayon bevosita madaniyatshunoslik bilan ham bog’liqdir.

Nemis tili leksikografiyasining tarixi tor ma’noda tanlangan lug‘atlarning xronologik tavsifi, ularning xarakterli xususiyatlarini tushuntirish va leksikograflarning biografik taqdimotidan iborat bo‘ladi. Bu esa har bir davr yoki muayyan mualliflarning lingvistik va uslubiy nazariyalarini o‘z ichiga oladi.

Nemis tili leksikografiyasi nemis tilidagi barcha lug‘atlar va mavzuga oid ma’lumotlar to‘plamini, shuningdek, o‘z navbatida lug’at tuzish jarayonlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham anglatadi.

NATIJALAR

Bugungi kunda lug‘atlarning soni ko‘pligiga qaramasdan, ularning har biri o‘ziga xosdir. Biroq, eng asosiy nemis tili lug‘atlarining o‘ziga xos ko‘rinishi asrlar davomida ixtisoslashgan doiralarda ishlab chiqilgan. Nemis leksikografiyasi tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan olimlardan Yakob Grimm, Dasypodius, Maaler, Stiyeler, Frish, Adelung kabilarni keltirish mumkin. Ushbu mualliflar nemis tilida yaratilgan bir tilli izohli lug‘atlarning mualliflari hisoblanadi. Darhaqiqat, ularning asarlari keyingi lug‘atshunoslarning ilmiy izlanishlarida asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Bundan kelib chiqadiki, bir tilli lug‘atlar boshqa lug‘atlarning asosiy negizi bo‘lib xizmat qilishi mumkin ekan.

Shu bilan birga madaniy-tarixiy jarayonlar ham leksikografik rivojlanish jarayoniga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Birgina XIX asrning o‘zida nemis filologiyasining paydo bo‘lishi “ilmiy” va “ommabop” lug‘atlar o‘rtasidagi farqni ochib berdi, bu esa Germaniyada lug‘atshunoslik fanining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Nemis leksikografiyasi tarixi Yevropa leksikografiyasiga bog‘liq bo‘lib, alifbo tartibida tuzilgan izohli hamda sinonimik lug‘atlarda bu o‘z aksini topadi. Shu bilan bir qatorda ta’kidlash lozimki, XIV, XV, XVI asrlarda bir tilli va ikki tilli lug‘atlar, jumladan sinonimik hamda qomusiy lug‘atlar yaratilishi ham bir vaqtning o‘zida rivojlana boshlagan.

Leksikografiya fanining rivojlanishida madaniyat va madaniyat tarixi o‘z ahamiyatiga ega, chunki “ijtimoiy jarayonlar va tuzilmalar, xalqning turmush tarzi va mentaliteti, shuningdek, jamiyat va ijtimoiy guruhlarning qadriyatlari va fikrlash me’yorlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni” o‘rganuvchi ilmiy fan madaniyatshunoslikdir. Bundan kelib chiqadiki, siyosatshunoslik, sosiologiya, ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy fanlar ham o‘zaro bog‘liqdirlar.

Amerikalik antropolog Klifford Geyertz madaniyat tushunchasini mohiyatan semiotik hamda ijtimoiy hodisalarga bog‘liq ravishda jamiyat tomonidan idrok etiladigan voqea-hodisalar yig‘indisi deya ta’riflaydi [9,B.31].

Madaniyatni tadqiq qiluvchi antropologlar, birinchi navbatda, nonverbal belgilar bilan ham keng shug‘ullanishgan. Masalan, Klifford Geyertz Baliyadagi xo‘roz urushini va unda ishtirok etganlar uchun ahamiyatini tasvirlaydi; bu yerda ko‘z qisish, bosh chayqash va hokazolar o‘z ma’nosiga ega bo‘lgan harakatlar bo‘lib, bu ishoralarning ahamiyati va ma’nosi ushbu guruh ishtirokchilari uchun ma’lum va talqin qilinishi kerak bo‘lgan belgilardir. Filologlar esa aksincha, madaniy hodisa haqida gap ketganda, ular birinchi navbatda lisoniy belgilar, turli murakkablikdagi gaplar, matnlar, jumlalar, so‘zlar bilan bog‘liq holda holatni tasvirlash bilan shug‘ullanadilar.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, lug‘atlar ikki jihatdan madaniy ahamiyatga ega bo‘ladi: birinchidan, ular so‘zlarning konseptual mazmunini ifoda etishga qaratilgan bo‘ladi, ikkinchidan, matn turi yoki alohida matn sifatida ular madaniy yo‘nalish tizimidagi belgilar hisoblanadi. Masalan, Grimm lug‘ati XIX asr boshidagi ensiklopediyalar ramzi sifatida qaralgan. Demak, lug‘atlar lingvistik belgilarni o‘z ichiga oladi va bu kabi belgilarning izohlanishi ham leksikografiyaning madaniy va lingvistik masalasidir.

Madaniyat bilan bog‘liq hodisalar aytish mumkini, til strukturalari orqali o‘z aksini topadi shuningdek, madaniy va lingvistik belgilarning ma’nosi faqat shaxslararo munosabatlarda paydo bo‘lishi va mavjud bo‘lishi mumkin.

Madaniyat va til o‘rtasidagi bog‘liqlik esa, ma’lum bir guruhda o‘z aksini topadi va aynan ushbu guruh a’zolarigina bu madaniy lingvistik ma’noni anglay oladilar.

Tarix va madaniyatning chambarchas bog‘liqligi turli davrlarda o‘z xususiyatiga ega hisoblanadi. Masalan fransuz, ingliz, umumevropa madaniyati va boshqalardan farqli o‘laroq, nemis madaniyatining o‘ziga xosligi genetik sabablarga ko‘ra emas, balki tarixiy sabablarga ko‘ra farqlanadi.

Leksikografiya tarixini madaniyat tarixi sifatida tushunish lug‘atlarni va ularning tegishli xususiyatlarini tarixiy davrda bir yoki bir nechta ijtimoiy guruhlarning madaniy yo‘nalish tizimining elementlari sifatida tushunishni anglatadi. Masalan, leksikograf o‘z lug‘atini alifbo tartibida yoki tematik tartibga solish prinsipi davlatlar o‘rtasida tilni talqin qilishga hissa qo‘shadi.

Alifbo tarzida tartiblash nemis tilining alohida til sifatidagi o‘rni va lug‘atning amaliy ahamiyatini belgilab beradi. Leksikograflarning ilmiy ishlari esa madaniy va ijtimoiy nuqtai nazaridan ham hisobga olinadi. Shuningdek, lug‘atning madaniyatdagi o‘rni ham kengroq miqyosda belgilanishi kerak.

MUHOKAMA

Leksikografiya shunchaki ilmiy fan bo‘libgina qolmay, leksikografik faoliyat va uning natijalari tizimining muhim tarkibiy qismidir[8, B.87] Darhaqiqat, ma’lum tarixiy sharoitlarda

lug‘atlar milliy ramz sifatida (masalan, XIX asr Germaniyada) yoki tashqi savdo aloqalari uchun zarur manba sifatida ahamiyatga ega bo‘lgan.

Tilshunos olim Viegand lug‘atlarni ishlab chiqishda lozim bo‘lgan quyidagi sifatlarni sanab o‘tadi: diniy e’tiqodning tarqalishi; savdoni rivojlantirish; xalqaro turizmni rivojlantirish; milliy ongni mustahkamlash; ijtimoiy ongni barqarorlashtirish; tildagi turfa xillikni bartaraf etish; tilni boshqa tillar ta’siridan tozalash; yagona yozma tilni rivojlantirish; umumiy tilning barqarorlashishi; til me’yorlarining bajarilishini ta’minlash; boshqa lingvistik-madaniy yoki madaniy-ma’rifiy masalalarni amalga oshirish; til - siyosiy harakatlarni qo‘llab - quvvatlash; siyosiy leksikografik sohada tilni bevosita nazorat qilish va ilmiy faoliyatni rag‘batlantirish; til bilan bog’liq ijtimoiy aloqalarni ta’minlash [10, B.59].

Bundan kelib chiqadiki, lug‘atshunos olim eng avvalo, lug‘at qanday maqsadda tuzilayotganligiga e’tibor qaratishi lozim. Madaniy va lingvistik jihatdan lug‘atlar ma’lum bir tilni keng targ‘ib qilish, bu orqali nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy jihatdan ham rivojlantirish imkonini berishi lozim. Birgina misol qilib keltiradigan bo‘lsak, savdogar boshqa davlatdan tovar keltirmoqchi bo‘lganda albatta o‘sha tildagi ma’lum bir leksikaga ehtiyoj sezadi va bunda asosan lug’atlardan foydalanadi. Yoki biror sayyoh boshqa biror bir davlatga sayohat qilganda o‘sha tildagi ayrim so‘zlarga murojaat qiladi. Bunda nafaqat kitob shaklidagi lug‘atlar, balki hozirgi kunda asosan elektron lug‘atlar ham katta ahamiyatga egadir. Shuningdek, yozma demokratik munosabatlarda ham har ikkala tilning leksik boyligi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Lug‘atlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarda muhim ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda, ma’lum bir tilning boshqa tillar ta’siridan himoya qilish va tilning xilma-xilligini bartaraf etish vazifasini ham bajaradi. Bu bilan tilning lug‘at boyligi umumiy barqaror til me’yorlarini nazorat qilishi va til bilan bog’liq ijtimoiy aloqalarni o‘zida aks ettirishi lozimdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, lug‘atshunoslik fan sifatida o‘z tarixiy bosqichlariga ega va hozirgi kungacha rivojlanib kelmoqda. Ahamiyatlisi shundaki, bu jarayon bevosita tarix, madaniyat bilan chambarchas bog‘liqdir.Tarixiy va madaniy jarayonlar insonlarning lug‘atlarga bo‘lgan ehtiyojini oshirib kelgan va shuningdek, davlatlar o‘rtasidagi aloqa manbai sifatida hamda tillar leksikologiyasining asosiy ramzi sifatida qaraladi.

Lug‘at tuzish jarayoni esa ancha murakkab va mashaqqatli bo‘lib, lug‘atshunosdan ma’lum bir til va hattoki tarix va madaniyatni chuqur bilishi ham talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ”Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi qarori. 312-son 19.05.2021//URL:https://lex.uz/https://lex.uz/docs/5431845?ONDATE=15.05.2024#-5432775/ 1. (Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan “On measures to effectively organize the popularization of foreign language learning”)

2. Normamatov S. Leksikografiya asoslari.–Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2020.–Bet 9.

3. Wiegand H.E. Historische Lexikographie. In: Sprachgeschichte. Ein Handbuch zur Geschichte der deutschen Sprache und ihrer Erforschung.–Berlin, New York: Walter de Gruyter,1998.–S.15.

4. Ryszard Lipczuk. Germanistik Heft. –Berlin: Walter de Gruyter, 2001.–S.12.

5. József Tóth in: Studia Germanica Heft. –Berlin: Walter de Gruyter,2003.–S.14.

6. Jacob Grimm, Wilhelm Grimm. Deutsches Wörterbuch.–Leipzig :Hirzel,1854.–S.48.

7. Hass Zumkehr. Deutsche Wörterbücher - Brennpunkt von Sprach- und Kulturgeschichte.– Berlin: De Gruyter, 2001.–S 311.

8. Schaeder B. Germanistische Lexikographie.–Tübingen: Niemeyer, 1987.–S.59.

9. Clifford James Geertz. Interpretation of Cultures: Selected Essays.–New York: Basic books,1973.–S.31.

10. Wiegand H.E. Wörterbuchforschung. Untersuchungen zur Wörterbuchbenutzung, zur Theorie, Geschichte, Kritik und Autmatisierung der Lexikographie. 1. Teilband.–Berlin, New York: Walter de Gruyter, 1998.–S.45.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK 808.3
https://orcid.org/0009-0001-8661-2344

THE DEGREE OF DIFFERENTIATION OF DEICTIC ELEMENTS IN GERMAN RELIGIOUS TEXTS

Abdurakhmonova Rano Kosimovna
Head of the Department of Language Studies, PhD
Namangan Academic Lyceum of the MIA of the Republic of Uzbekistan
r.abdurahmonova@mail.ru

Abstract: This research explores the degree of differentiation of deictic expressions in German religious texts. It investigates how personal, spatial, and temporal deixis functions in theological discourse, with special attention to the contextual and interpretive frameworks that influence referential clarity. The analysis reveals that deictic elements in religious language serve not only a grammatical role but also a sociocultural and theological one, shaping the interaction between speaker, text, and divine authority.

Key words: Deixis, German religious texts, personal pronouns, contextual reference, discourse analysis, theological language, linguistic differentiation.

NEMIS DINIY MATNLARIDA DEIKTIK ELEMENTLARNING FARQLANISH DARAJASI

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot nemis tilidagi diniy matnlarda deyktik birliklarning differensiallik darajasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda shaxsiy, makoniy va zamoniy deiksis birliklarining teologik nutqda qanday ishlatilishi tahlil qilinadi. Ayniqsa, matnning kontekstual va interpretativ jihatlari ularning ma’noviy aniqligini qanday belgilashiga e’tibor qaratilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, diniy tildagi deiktik birliklar nafaqat grammatik vosita, balki ijtimoiy, madaniy va ilohiy mazmunga ega bo‘lib, muqaddas matn doirasida muallif, tinglovchi va ilohiy manba o‘rtasidagi aloqani shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: Deiksis, nemis diniy matnlari, shaxs olmoshlari, kontekstual ishora, nutq tahlili, teologik til, lingvistik differensiallik.

СТЕПЕНЬ ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ ДЕЙКТИЧЕСКИХ ЭЛЕМЕНТОВ В НЕМЕЦКИХ РЕЛИГИОЗНЫХ ТЕКСТАХ

Аннотация: Данное исследование посвящено изучению степени дифференциации дейктических единиц в религиозных текстах на немецком языке. В нём анализируется использование личной, пространственной и временной дейксиса в теологической речи. Особое внимание уделяется тому, как контекстуальные и интерпретационные аспекты текста влияют на семантическую определённость указательных элементов. Исследование показывает, что дейктические единицы в религиозном языке выполняют не только грамматическую функцию, но также обладают социокультурным и богословским содержанием, играя важную роль в формировании связи между автором, слушателем и божественным источником в пределах сакрального текста.

Ключевые слова: Дейксис, религиозные тексты на немецком языке, личные местоимения, контекстуальная отсылка, анализ речи, теологический язык, лингвистическая дифференциация.

INTRODUCTION

The degree of differentiation of deictic elements (deiktische Ausdrücke) in German religious texts is a significant topic of research in the fields of linguistics and religious text analysis. These expressions are crucial in the communicative function of language, helping to ensure the clarity of reference and contextual relevance between speaker and listener. The particular features of deictic elements in German religious texts—their variation across registers and contexts, and their influence on structural and semantic aspects of language—form the basis for numerous scholarly inquiries.

Religious texts are distinguished by their unique language and stylistic features. In these texts, the use of deictic expressions (deiktische Ausdrücke) tends to be more complex and veiled than in secular texts. Religious discourse often includes esoteric meanings and symbolic representations, aiming not only to convey information but also to educate and spiritually elevate. Thus, the degree of differentiation of deictic expressions changes depending on context and frequently functions as a tool for revealing deeper meanings.

The differentiation of deictic elements in German religious texts is grounded in their semantic and pragmatic functions. For example, personal deictics (personale Deixis) — such as ich, du, er/sie — are often used in ambiguous or symbolic ways. The speaker, in referring to themselves or others, does not merely provide concrete information but constructs symbolic or theological representations. This deepens the level of differentiation, as their meaning arises not just from immediate discourse but also from broader cultural and religious frameworks.

Likewise, spatial deictics (lokale Deixis) — words like hier, dort, dieser Ort — are often used symbolically to refer to spiritual or theological space and time. For instance, the phrase “an diesem Ort” may not refer to a physical location, but rather a spiritual state or sacred space. This reveals a unique degree of differentiation, as the deictics represent broader abstract concepts that are essential to the interpretation of religious messages[1]

Temporal deictics (temporale Deixis) in German religious texts also carry specific symbolic meanings. Expressions such as jetzt, dann, früher do not merely indicate points in time but may allude to theological concepts such as eternity, sacred time, or the spiritual experience of temporality. Through these expressions, the author encourages the reader to understand time as a spiritual dimension rather than merely a physical measure. As a result, the differentiation of temporal deictic expressions is elevated, their meaning rooted in both context and doctrinal significance.

Finally, the functional role of deictic elements (deiktische Elemente) contributes to their degree of differentiation. In German religious texts, these elements appear both in dialogic and monologic forms. In dialogues, they help establish direct communication between the author and the reader, while in monologues, they serve didactic and theoretical purposes. In each case, their meaning and differentiation shift based on context: in dialogues, they tend to be explicit and referential; in monologues, they take on symbolic and interpretive dimensions.

LITERATURE REVIEW AND METHODOLOGY

The study of deixis (Deixis) has long held a central place in linguistic research, particularly in the domains of pragmatics and discourse analysis. Foundational works by Karl Bühler (1934) [2] and later by Stephen C. Levinson (1983)[3] have established deixis as a key linguistic tool for contextual reference, categorizing it into personal, spatial, temporal, social, and discourse deixis. Levinson's categorization is especially influential in modern pragmatic analysis and provides the theoretical basis for investigating referential structures in complex texts.

In the context of religious texts, linguistic scholars such as Ernst-August Gutt (2000) and Hans-Georg Gadamer (1975) have emphasized the interpretive and hermeneutic nature of sacred language, noting that deixis in religious discourse often functions beyond mere reference. These texts are saturated with symbolic, esoteric, and doctrinal elements that recontextualize deictic expressions, making them essential to spiritual interpretation[4]

German religious texts, especially those of Lutheran, Catholic, and mystical traditions, present a unique linguistic landscape where deixis functions both structurally and theologically. Research by Claudia Welz (2011) and Ulrich Luz (1990) has shown that deixis in religious texts not only serves grammatical cohesion but also reflects the speaker’s position relative to divine authority, sacred time, and moral space.

Despite this, few studies offer an in-depth analysis of the degree of differentiation among deictic elements in such texts. This study fills that gap by analyzing how deictic expressions in German religious discourse differ in clarity, symbolic load, and contextual dependence across various genres and theological intentions.

This research employs a qualitative textual analysis grounded in pragmatic linguistics and discourse analysis, with a particular focus on German religious texts. The methodology includes the following steps:

Corpus Selection: A representative corpus of German religious texts was compiled, including excerpts from the Bible (Luther translation), sermons by Martin Luther and Dietrich

Bonhoeffer, and contemporary theological writings. Texts were selected to ensure diversity in denomination, time period, and theological genre.

Deictic Element Identification: All instances of personal (ich, du, er/sie), spatial (hier, dort, dieser Ort), and temporal (jetzt, damals, künftig) deixis were identified and categorized according to Levinson’s framework[5]

Contextual and Functional Analysis: Each deictic expression was examined in its immediate textual context to determine its referential clarity, symbolic meaning, and dependency on theological constructs. Attention was paid to whether the deixis functioned literally or figuratively, and how much it relied on prior religious knowledge or shared belief systems.

Comparative Analysis: The findings were compared across text types (e.g., scripture vs. sermon vs. theological essay) to assess the degree of differentiation, i.e., how explicitly or implicitly the deictic references function and vary in complexity.

Interpretive Framework: The analysis was guided by hermeneutic principles (Gadamer) and pragmatic theory (Levinson, Gumperz), allowing for both linguistic precision and theological sensitivity in interpreting the data.

This mixed approach provides both a micro-level (linguistic) and macro-level (cultural and theological) understanding of how deictic expressions function in German religious discourse.

RESULTS AND DISCUSSION

This study analyzed the use and differentiation of deictic elements in German religious texts, focusing on personal, spatial, and temporal deixis. The results reveal that in religious discourse, deictic expressions are highly context-dependent and semantically layered, often functioning beyond their literal grammatical roles.

Personal deixis in religious texts often serves symbolic or theological functions. Pronouns such as ich (I), du (you), and er/sie (he/she) are frequently used to represent not just individuals but divine figures or collective identities. For instance, in biblical texts, the use of ich by Jesus Christ (“Ich bin der Weg und die Wahrheit und das Leben”) conveys more than first-person reference — it embodies a theological truth. Similarly, the pronoun du in commandments (“Du sollst keine anderen Götter haben neben mir”) [6]addresses not only the individual but represents a broader moral imperative for all believers. These examples show that personal deictics in religious texts are differentiated through symbolic and doctrinal layers, and their interpretation requires theological context.

Spatial deixis in religious texts often reflects spiritual rather than physical location. Words such as hier (here), da (there), and dieser Ort (this place) are used to mark sacred or metaphysical spaces. For example, the statement “Wo zwei oder drei versammelt sind in meinem Namen, da bin ich mitten unter ihnen” uses the adverb da to indicate a spiritual presence, not a geographical one. In another case, dies in “Dies ist das Haus des Herrn” marks a location not only physically but as a sacred place. The spatial deixis in these examples is thus differentiated through its metaphorical and symbolic use, depending heavily on religious interpretation[7]

Temporal deixis in religious discourse often represents theological time. Expressions like jetzt (now), dann (then), or am Anfang (in the beginning) frequently extend beyond ordinary chronological markers. For instance, in “Jetzt ist die Zeit der Gnade,” the term jetzt signifies a divine opportunity, a moment in sacred time rather than secular present. Similarly, am Anfang refers to the mythical beginning of creation, indicating not just the start of linear time but the origin of existence in theological terms[8] Temporal deictics in these contexts thus demonstrate a high degree of differentiation by expressing doctrinal and eschatological meaning.

Overall, the analysis shows that deictic expressions in German religious texts exhibit a high degree of differentiation. Their interpretation often requires familiarity with the religious, cultural, and symbolic frameworks within which they function. Unlike in everyday language, where deixis typically refers to immediate and concrete contexts, in religious texts, deixis operates on multiple levels: literal, symbolic, doctrinal, and metaphysical. This layered functionality contributes to their complex and differentiated nature.

The study also found that the text type affects deixis usage. In sermons and prayers, deictic elements tend to be more direct and dialogic, aimed at engaging the audience personally. In contrast, scriptural and theological texts often employ more abstract and symbolic deixis, aligning with the narrative or expository style. These variations reflect the multifunctional nature of deixis in religious communication and reinforce the need for contextual and interpretive analysis.

CONCLUSION

This study has demonstrated that deictic elements in German religious texts possess a high degree of differentiation due to their complex functional roles, symbolic meanings, and strong dependence on religious context. Unlike in everyday communication, where deixis primarily serves to point to immediate participants, places, or times, religious deixis operates across multiple interpretive layers—literal, theological, spiritual, and doctrinal.

Personal deictics such as ich and du serve not only grammatical purposes but also signify divine presence, moral authority, or collective identity. Spatial deixis in religious contexts often transcends physical geography, pointing instead to sacred space or spiritual states. Temporal deixis highlights the non-linear nature of sacred time, reflecting eschatological and theological frameworks.

The degree of differentiation is significantly influenced by text genre: sermons employ more direct and accessible deixis for engagement, while scriptural texts employ abstract and symbol-laden deixis intended for deeper theological reflection. This highlights the multifunctionality and interpretive richness of deictic expressions in sacred discourse.

Understanding these linguistic mechanisms contributes to both linguistic pragmatics and theological hermeneutics. The findings emphasize the importance of interdisciplinary approaches when analyzing religious texts, combining linguistic analysis with contextual theological insight. This research also opens avenues for further exploration into deixis in other religious traditions and comparative linguistic studies.

REFERENCES:

1. Abdukarimov, O. (2018). A Functional Analysis of Deictic Elements in German Religious Texts. Philological Research Papers, 5(2), 22–30.
2. Bühler, K. (1934). Sprachtheorie: Die Darstellungsfunktion der Sprache. Jena: Fischer.
3. Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Gutt, E.-A. (2000). Translation and Relevance: Cognition and Context. Manchester: St. Jerome Publishing.
5. Gadamer, H.-G. (1975). Truth and Method. New York: Seabury Press.
6. Welz, C. (2011). Love's Transcendence and the Problem of Theodicy. Tübingen: Mohr Siebeck.
7. Luz, U. (1990). The Theology of the Gospel of Matthew. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Lyons, J. (1977). Semantics (Vol. 2). Cambridge: Cambridge University Press.
9. Fillmore, C. J. (1997). Lectures on Deixis. Stanford: CSLI Publications.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA BAHONING IFODALANISHI

Aminova Amira O‘lmas qizi
Nishon tumani 32-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi
E-mail: amiraaminova22@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tashqi ko‘rinishni ifodalaydigan, insonlarning psixologik-intellektual (aqliy) sifatlarini anglatadigan, gender ma’noni voqelantiruvchi, kasb–korni ifodalovchi hamda yoshni anglatadigan maqollarda bahoning ifodalanishi borasida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: maqol, konsept, baho konsepti, baho munosabati, ijobiy baho, salbiy baho, neytral baho, nutq vaziyati.

Аннотация. В статье рассматривается выражение оценки в пословицах, отражающих внешность, психоинтеллектуальные (психические) качества людей, пол, профессию и возраст.

Ключевые слова: пословица, концепт, оценочный концепт, оценочная установка, положительная оценка, отрицательная оценка, нейтральная оценка, речевая ситуация.

Abstract. The article discusses the expression of evaluation in proverbs that express appearance, psychological-intellectual (mental) qualities of people, gender, profession, and age.

Keywords: proverb, concept, evaluation concept, evaluation attitude, positive evaluation, negative evaluation, neutral evaluation, speech situation.

Aytish mumkinki, xalq maqollari lingvistik tahlilga tilshunoslikning yangi paradigmalari paydo bo‘lishi natijasi o‘laroq tortilmoqda. Xususan, uning pragmatik tahlili tilshunoslik, ayniqsa, lingvokulturologiya uchun qimmatli ma’lumotlar beradi. Masalan, bir maqolning o‘zi nutq vaziyati, so‘zlovchining maqsad va vazifalari, kommunikantlarning o‘zaro munosabatiga bog‘liq ravishda turli-tuman ma’nolarni ifodalaydi. Jahon tilshunosligida olamning milliy, lisoniy manzarasi, turli millatlar estetik qadriyatlari, turmush tarzi va an’analarining tilda ifodalanishini konsept nuqtayi nazaridan asoslash masalalariga alohida diqqat qaratilmoqda. Aytish mumkinki, xalq maqollari lingvistik tahlilga tilshunoslikning yangi paradigmalari paydo bo‘lishi natijasi o‘laroq tortilmoqda. Xususan, uning pragmatik tahlili tilshunoslik, ayniqsa, lingvokulturologiya uchun qimmatli ma’lumotlar beradi. Masalan, bir maqolning o‘zi nutq vaziyati, so‘zlovchining maqsad va vazifalari, kommunikantlarning o‘zaro munosabatiga bog‘liq ravishda turli-tuman ma’nolarni ifodalaydi. Jahon tilshunosligida olamning milliy,

lisoniy manzarasi, turli millatlar estetik qadriyatlari, turmush tarzi va an’analarining tilda ifodalanishini konsept nuqtayi nazaridan asoslash masalalariga alohida diqqat qaratilmoqda.

Maqollar baho munosabatini ifodalashi, fikrni, tasvirni bo‘rttirishi, ta’sirchanlikni oshirishi, emotsional holatni aks ettirishi, badiiy matnga jonli nutq ottenkasini berishi bilan pragmatik qiymatga ega bo‘ladi. Quyida turli ma’nolarni ifodalovchi maqollarda bahoning ifodalanishi xususida so‘z boradi.

1. Tashqi ko‘rinishni ifodalaydigan maqollarda bahoning ifodalanishi. Muloqot jarayonida tashqi qiyofaning (gavda tuzilishi, husn-malohat,bo‘y o‘lchami) ham ahamiyati bor bo‘lib, ayrim muloqotdoshlar o‘z suhbatdoshining tashqi ko‘rinishiga baho berib u bilan aloqa-aralashuvga kirishadi. Xalq orasidagi maqollarda pakana, novcha odamlarga nisbatan salbiy baho mavjud bo‘lib, bunday kishilarning tashqi ko‘rinishidan kelib chiqib qanday inson ekanligini taxmin qiladilar. “Pakana fitna bo‘lur, novcha – ahmoq”. Chiroyli leksemasining o‘zida ijobiylik aks etadi va maqollarda ham yuzi, husni chiroyli kishilarga nisbatan ijobiy baho ifodalanadi: “Chiroyli qizning nozi bor”.

2. Insonlarning psixologik-intellektual (aqliy) sifatlarini anglatadigan maqollarda bahoning ifodalanishi.

Ayrim holatlarda shaxsga baho berishda kishi ongining me’yoriy holatga nisbatan rivojlangan yo rivojlanmagan (ziyrak – tentak) ekani asos qilib olinadi. Bu turdagi maqollarda ham ijobiy va salbiy baho reallashadi: “Tentakning o‘ti tepasida yonar”, “Tentak tepsa temirni uzadi”, “Tentak cho‘qmor yig‘ar, chumsah cho‘p yig‘ar”, “Devonaga ikki dunyo barobar”, “Telbaning terisi qalin”, “Telba tosh to‘plar”, “Ahmoq do‘st yovdan yomon” maqollarida telba, devona, o‘zi bajarayotgan ishini aqlan anglay olmaydigan kishilarning salbiy xususiyati aks etgan. “Ahmoq avval so‘ylaydi, so‘ng o‘ylaydi” maqolida “ahmoqlik” sifatiga salbiy munosabat ifodalangan.

“Aroqxo‘r ulfat – keltirar kulfat”, “Piyon ulfat – ziyon ulfat”, “Mast kayf qiladi, o‘zini hayf qiladi”, “Mast kishiga gulzor bilan sho‘razor barobar”, “Mast keldi – past keldi”, “Aroqxo‘r – o‘ziga qonxo‘r”, “Aroq ichgan o‘ziga kafan bichar” kabi maqollarda esa fiziologik va psixologik jihatdan normal holatda bo‘lmagan kishilarga nisbatan salbiy baho munosabati ifodalanadi.

3. Gender ma’noni voqelantiruvchi maqollarda bahoning ifodalanishi.

Gender – ijtimoiy jins, insonning jamiyatdagi xulq-atvori. Bu ayol va erkak jihatini o‘rganadigan me’yor. Ba’zida gender “erkak” va “ayol” tushunchalari sinonimi sifatida ham qo‘llanadi. Ushbu o‘rinda “gender” atamasini biz ayni shu ma’noda qo‘llaymiz. O‘zbek erkak va ayol nutqi til birliklarini tanlash va qo‘llash jihatdan ham farqlarga ega. Lisoniy birliklardan biri maqollar barcha uchun umumiy birlik bo‘lganligi bois, erkak va ayol nutqida birdek qo‘llanilishi mumkin. Bu albatta mutlaq fikr emas. Sababi kommunikatsiya jarayoning kechishi nutq vaziyati, so‘zlovchi va tinglovchining xarakter-xususiyati, suhbat uslubi, vaziyat, atrof-muhit, yosh, kasb, ma’lumot, psixologik xususiyatlar, suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabat va boshqalarga bog‘liq. O‘zbek tilidagi maqollarning bir qanchasi “ayol” va “erkak”ka baho berish

uchun xoslangan. Baho munosabati aks etgan o‘zbek xalq maqollarida ayol kishining oiladagi roli, o‘rni, uning oqilaligi, donoligi, pazandaligi, sarishtaligi kabi ijobiy xislatlari, shuning bilan birga nodonligi, sir saqlay olmasligi, uy ishlarida no‘noqligi kabi salbiy xususiyatlari inobatga olinadi. Aynan shu jihatlardan kelib chiqib ayolga nisbatan ijobiy yoki salbiy baho munosabati bildiriladi:“Ayolning sarishtasi, ro‘zg‘orning farishtasi”. “Ayol so‘m qilar, erkak — chaqa”, “Ayolning sunbuli — yigitning dili”, “O‘g‘ri do‘qi bilan qo‘rqitar, Yomon ayol — yig‘isi bilan”, “Taqdirli ayol — tadbirli ayol”, “Ayolning o‘ttizga kirgani — O‘tin bo‘lgani”.

4. Kasb–korni ifodalovchi maqollarda bahoning ifodalanishi. O‘zbek tilida “mullalik”, “baxshichilik”, “so‘filik”, “jalloblik”, “savdogarlik”, “kinnachilik”, “bo‘zchilik”, “kulolchilik”, “kosiblik”, “bo‘yoqchilik” kabi kasb-korni ifodalovchi maqollarda baho munosabati aks etadi.

“Mulla” so‘zi semantik jihatdan o‘qimishli, madrasa ta’limini ko‘rgan, din arbobi kabi komponentlarni birlashtirsa, kinoyaviy tagma’nosi savodsiz, hiylakor, tullak va boshqalar. Masalan: “Mulla, mullaning ishi hiyla” maqolini tahlilga tortaylik. O‘tgan davrlarda din vakillari bo‘lmish mullalarning aksariyati boy tabaqa vakillariga xizmat qilgan. Boylar tomonidan beriladigan mablag‘, sovg‘a-salomlar evaziga ularning buyurgan ishlarini hiylakorlik bilan bajarganlar. Masalan, yoshi o‘tib qolgan, qari boylarga kambag‘al, nochor oilaning qizini turmushga chiqishga rozi qildirib, qizning ota-onasiga turli hiylalar ishlatganlar. Mullalarning shu va boshqa harakatlarini ko‘rgan xalq tomonidan qo‘llangan bu maqolda salbiy baho munosabati yaqqol ko‘rinib turibdi. Yuqoridagi maqolning “Odamning yomoni mulla, mullaning ishi hiyla”, “Mulla o‘zining foydasiga bo‘lsa, kitobning chetidan fatvo topadi”, “Mo‘ltoni mulla anqov elni aldab yer” kabi bir qancha sinonimlarida ham faqatgina salbiy baho berish yetakchilik qiladi.

“Baxshichilik” tushunchasi bilan bog‘lanuvchi maqollarda esa faqat ijobiy baho aks etadi: “Baxshi to‘rda yayraydi, Mulla go‘rda”. Baxshi elning to‘y-u marakasida to‘rda o‘tirib doston o‘qib elning ko‘nglini quvontiradi, diliga quvonch, xursandchilik baxsh etadi. Baxshining bu xizmatiga yarasha xalq ham uni to‘rda o‘tqazib qo‘yib turli ne’matlar bilan siylaydi, hurmat-ehtirom ko‘rsatadi. Har bir kishi o‘ziga munosib yerda munosib muomalani ko‘radi. Baxshilarga nisbatan ijobiy baho, mullalarga salbiy baho munosabatining ifodalanishini ushbu maqolda kuzatish mumkin.

“So‘filik” bilan bog‘liq maqollarda “ochko‘zlik” semasi aks etgan holda, salbiy baho ifodalanadi: “So‘fining og‘zi azonda, ikki ko‘zi qozonda”.So‘fi – masjidda azon aytuvchi kishi, muazzin. So‘filarga ham xalq yomon ko‘z bilan qaragan. Ularning ochko‘z, badnafs, nafsini tiya olmasligi tanqid ostiga olingan. Maqolda so‘filarning ayni shu xususiyatiga qarab salbiy baho berilmoqda. Ushbu maqolda salbiy bahoning ikki turini kuzatish mumkin. Birinchi navbatda, so‘z so‘filar xususida ketadi va ularga odamlar tomonidan berilgan subyektiv baho aniqrog‘i salbiy baho bo‘rtib turganligi sababli “kasb-kor jihatdan baho berish” asosiy o‘ringa chiqadi. Shuni aytish lozimki, matn mazmunidan kelib chiqib, baho berish “so‘fi”ga tegishli bo‘lmasa, aksincha so‘fidagi “ochko‘zlik” xususiyatiga berilayotgan baho birinchi planga

chiqsa, unda bunday baho ifodalash “xarakter-xususiyatga baho berish” deb baholanadi. E’tibor qaratish lozimki, har ikki holatda ham faqatgina salbiy baho ifodalash mavjud.

“Jalloblik” bilan shug‘ullanuvchilarga nisbatan salbiy baho ifodalash “Jallob – turgan-bitgani qallob” maqolida ham uchraydi. Jallob – narsani bir kishidan olib sotuvchi kishi. Bunday kishilar harakatchan, beqaror, o‘zgaruvchan bo‘ladi. O‘z manfaati yo‘lida turli nayranglar ishlatadi. Aldam-qaldam, qing‘ir ishlar qiladigan firibgar kishilar ham jalloblardir. Shu sababdan ham ularga nisbatan salbiy baho beriladi. Maqolda salbiy baho berishning ikki turi ifodalanishi xususidagi fikrlarimiz ushbu maqolga ham tegishlidir.

“Kinnachilik” bilan shug‘ullanuvchi kishi “kinnachi” deb ataladi. Ularning xatti-harakati, o‘zini tutishi, o‘tirib-turishiga salbiy munosabat ifodalash bevosita “kinnachi” so‘zining o‘ziga yuklatilgan va kasb egasini anglatuvchi atama salbiylikni o‘z bo‘yniga oladi: ”Kinnachining kovushi o‘zidan ilgari yo‘rg‘alar”. Kinna soluvchi, kinna solish bilan shug‘ullanuvchi shaxs, kinnakashlar biror kishi chaqirsa pul yoki narsa umidida “oyog‘ini qo‘liga olib chopadi”. Kinnachilarning bunday xarakteridan kelib chiqqan holda, maqolni bir narsa unumidan umidvor bo‘lib, elburutdan yuguruvchilarga nisbatan salbiy baho ifodalash maqsadida ham qo‘llaydilar.

Maqollarning evolyuativ vazifasidan biri ogohlantirishdir. Savdogarlik bilan shug‘ullanuvchi kishilarga nisbatan salbiy baho ifodalangan maqollarda bunday kishilar bilan do‘st bo‘lmaslik kerakligi xususidagi ogohlantirish mavjud:”Eshak eti go‘sht bo‘lmas, savdogar hech do‘st bo‘lmas”, “Shikanda go‘sht bo‘lmas, savdogar do‘st bo‘lmas”, “Yulg‘unning oti bo‘lmas, Savdogarning – do‘sti”, “Qaroqchi yo‘lni poylar, Savdogar go‘lni tovlar”. “Bo‘yoqchi bo‘yoqqa yolchimas,bo‘zchi belboqqa” maqolida ikki kasb egasiga nisbatan achinish nutqiy akti mavjud. Ma’lumki, har bir hunarmand mehnat faoliyati davomida ishlab chiqargan buyumlarining saralarini bozorga chiqaradi. Bozorda sotilmay qolgan mahsulotlarini esa tashlab yuborishga ko‘zi qiymay, kundalik ehtiyoji uchun ishlatadi. Bu holat takrorlangan sayin hunarmand ishlab chiqargan mahsulotlarining yaxshilarini sotib, ulardan o‘z ehtiyoji uchun foydalanolmay qoladi[111]. Bu maqolda har ikki kasb bilan shug‘ullanuvchilarga neytral baho munosabati ifodalangan. “Kulol mo‘ndida suv ichar” maqoli “kulolchilik” bilan bog‘liq bo‘lib, neytral baho ifodalangan maqollar sirasiga kiritiladi.

5. Yoshni anglatadigan maqollarda bahoning ifodalanishi.

Yosh jihatdan shaxsga baho berish ham maqollarda o‘z aksini topgan: “Yoshdan xato, kattadan uzr”, “Bola, bolaning ishi chala”, “Qarisi bor uyning parisi bor”, “Aqlli qariya – oqib turgan daryo”, “Qariya – qarindoshlar moytug‘i”. Yoshlikning go‘zal, unutilmas damlari har bir kishida zavq uyg‘otadi. Yoshlikda har bir inson o‘ynab-kuladi, hayotdan bahra olib yashaydi. Sog‘lomlik, tanning baquvvatligi uning ishtiyoqiga ishtiyoq qo‘shadi. Odam qarigach sog‘ligini yo‘qotadi, qo‘lidan mador, belidan kuch ketadi. Turli kasalliklar birma-bir yo‘qlab kelaveradi. Shunday bo‘lsa-da, yoshi ulug‘, ko‘pni ko‘rgan kishilarning hayotdagi tajribasi kichiklar uchun juda zarur. “Yoshdan xato, kattadan uzr” maqolida yoshi kattalardagi kechirimlilik

[111]Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. дис. автореф. — Самарқанд 2019. — Б. 21

xususiyatidan kelib chiqib, ijobiy baho berilsa, yoshlarning yoshlikka borib xato qilishiga nisbatan kuchsiz salbiy munosabat ifodalanmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Бакирова М.Р. Понятие оценки в пословицах татарского и английского языков //Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2009. – №1 – С. 137-139

2. Бегматов А.Б. «Аёл» образини ифодаловчи макол ва фразеологизмлар (француз тили мисолида)//Ученый XXI века международный научный журнал. – 2016. – № 3-4 (16). – С. 55-57

3. Жўраева Б. М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф. –Самарқанд, 2019. – Б. 74

4. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati. –T: Fan, 2013. – B. 69

5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3 жилд. –Т:” Университет”, 2009. –Б. 27

6. Йигиталиев У. С. Ўзбек тилида «одам» ва «жинс» концептлари билан боғлиқ ассоциатив-вербал бирликлар. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (Phd) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 54

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 194.

8. Ўзбекистон Миллий энсиклопедияси. –Тошкент. –Б.168

9. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2013. – 509 b.

10. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси, 1990. – 524 б.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

TENG VA TOBE BOG‘LANISHLAR: UYUSHIQ BO‘LAKLAR TAHLILI (Maktab darsliklari asosida)

Feruza Uralovna Jumayeva
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqola uyushiq bo‘lakli gaplarning grammatik qurilishi va sintaktik tahlil jarayonini o‘rganishga qaratilgan. Unda uyushiq bo‘lakli gaplarda yuzaga keladigan teng va tobe bog‘lanishlar, ularning farqlari hamda ularni hosil qiluvchi vositalarning funksional imkoniyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, uyushiq bo‘laklarning sintaktik tuzilishi va gapdagi vazifalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: teng bog‘lanish, tobe bog‘lanish, so‘z, so‘z birikmasi, so‘z qo‘shilmasi, teng bog‘lanishli so‘z birikmalari, teng bog‘lanishli so‘z qo‘shilmalari, uyushiq bo‘laklar, mustaqil kesim, nomustaqil kesim, gap.

Аннотация. Данная статья направлена на изучение грамматического строения и процесса синтаксического анализа предложений с однородными членами. В ней рассматриваются сочинительные и подчинительные связи, возникающие в таких предложениях, их различия, а также функциональные возможности средств, с помощью которых эти связи формируются. Кроме того, проанализированы синтаксическая структура однородных членов и их функции в предложении.

Ключевые слова: равноправный союз, подчинительный союз, слово, фраза, словосочетание, равносвязанные словосочетания, равносвязанные словосочетания, связанные предложения, независимое предложение, зависимое предложение, предложение.

Abstract. This article is aimed at studying the grammatical structure and syntactic analysis process of compound sentences with homogeneous parts. It examines the coordinating and subordinating connections that arise in such sentences, their differences, and the functional capabilities of the means used to form them. In addition, the syntactic structure and functions of homogeneous parts within a sentence are analyzed.

Key words*:* equal conjunction, subordinate conjunction, word, phrase, word combination, equally connected phrase combinations, equally connected word combinations, connected clauses, independent clause, dependent clause, sentence.

So‘zlar o‘zaro teng yoki tobe munosabatda bog‘lanadi. Teng bog‘lanish so‘z qo‘shilmasini, tobe bog‘lanish esa so‘z birikmasini hosil qiladi. So‘zlarning teng munosabatda,

sanash ohangida bog‘lanishi so‘z qo‘shilmasini hosil qilsa, bir so‘z (tobe so‘z) ikkinchi bir so‘z (hokim so‘z)ning ma’nosini aniqlab, to‘ldirib, izohlab kelganda so‘z birikmasi hosil bo‘ladi. Teng bog‘lanish so‘z, so‘z birikmasi yoki gaplar doirasida yuzaga keladi. M., *ona va bola* bog‘lanishi so‘z qo‘shilmasi bo‘lib, ikki so‘zning teng huquqli bog‘lanishidan hosil bo‘lgan. *Issiq choy va yumshoq non* bog‘lanishi esa teng bog‘lanishli so‘z birikmalarini hosil qilgan bo‘lib, tarkibi o‘zaro teng darajada bog‘langan ikkita so‘z birikmasidan iborat: “issiq choy” – so‘z birikmasi (sifat+ot); “yumshoq non” – so‘z birikmasi (sifat+ot). Ular «va» biriktiruv bog‘lovchisi yordamida bog‘langan. Mustaqil yoki nomustaqil gaplarning o‘zaro teng bog‘lanishi kuzatiladi. Nomustaqil gaplarning teng bog‘lanishiga quyidagi misolni keltiraylik:

Yuzi gul, sochi sumbul —
Bizning qayg‘uli Oygul
Bir oz o‘ylab turdi-da,
Ko‘zini chirt yumdi-da,
O‘zini suvga otdi,
Shu ondayoq u botdi. (Hamid Olimjon)

Ushbu she’riy parchada keltirilgan *“Yuzi gul, sochi sumbul”* misrasida ikki nomustaqil gapning teng bog‘lanishishini kuzatamiz. Bular: *Yuzi gul (yuzi* – nomustaqil ega, *gul* – nomustaqil kesim*) va sochi sumbul (sochi* – nomustaqil ega, *sumbul* – nomustaqil kesim*)*. Bunday bog‘lanishli gaplar mustaqil tarzda qo‘llanilmaydi, boisi bunday gaplarning kesimi (hokim qismi), boshqa bir gap bo‘lagiga tobelanadi, bunday gaplar birikmali holda muayyan bir gap bo‘lagini izohlab, unga tobelanib keladi. Mustaqil gaplarning kesimi esa hech qanday gap bo‘lagiga tobelanmaydi. O‘zaro teng bog‘langan mustaqil gaplar bog‘langan qo‘shma gaplar hisoblanadi. M.: *Bahor keldi va gullar ochildi*. Teng bog‘lanishli birliklarda sanash ohangi va mazmuni bo‘ladi. Ba’zan so‘z qo‘shilmasi va juft so‘zlar tarkibi bir xil so‘zlardan iborat bo‘ladi. Juft so‘zlar sodda so‘zlar kabi umumlashma tushuncha ifodalaydi. M.: *Kartoshka-piyoz oldim*. Bu gapda *kartoshka-piyoz* so‘zi juft so‘z bo‘lib, umumlashma ma’no “sabzavotlar” ma’nosini bildiradi. Juft so‘z umumlashtirish, so‘z qo‘shilmasi esa alohida-alohida sanab ko‘rsatish vazifasida bo‘ladi. *Kitob-daftar oldim* gapida *kitob-daftar* juft so‘z bo‘lib, “kitob, daftar va shu uyaga mansub o‘quv qurollarining jami” ma’nosini bildirsa. *Kitob va daftar oldim* gapida *kitob va daftar* uyushiq bo‘lak *(*so‘z qo‘shilmasi) bo‘lib, faqat shu ikki narsa “kitob” va “daftar” olinganini anglatadi. *-u, -yu* yuklamalari ba’zan bog‘lovchi vazifasida ham qo‘llaniladi. Ular juft so‘z tarkibida kelsa, yuklama vazifasida bo‘ladi. M., *U erta-yu kech mehnat qiladi* gapida *erta-yu kech* so‘zi “har doim, doimiy, uzluksiz” kabi ma’nolarni beradi. Vaqt ma’nosini bildiruvchi bu zid so‘zlarni juftlash bilan yasama so‘z hosil qilingan. Juft so‘z yasalganda umumiylik ma’nosi bo‘ladi: *tog‘-u tosh, er-u xotin, yosh-u qari*. Bog‘lovchi vazifasidagi *-u, -yu* yordamchilari teng bog‘lanishni yuzaga keltiruvchi vosita sifatida, narsa-hodisalarni alohida-alohida sanab ko‘rsatish ma’no-munosabati hosil qilishda ishtirok etadi: *Ona va bola – gul-u lola* (maqol).

So‘zlarning teng bog‘lanishi “so‘z qo‘shilmasi”ni, so‘z birikmalarining teng bo‘g‘lanishi “teng bog‘lanishli so‘z birikmalari”ni, so‘z qo‘shilmalarining o‘zaro teng bog‘lanishi esa “teng bog‘lanishli so‘z qo‘shilmalari”ni hosil qiladi. So‘z qo‘shilmasining tarkibi sodda, qo‘shma, juft, takroriy, qisqartma so‘zlardan iborat bo‘ladi. M.: *katta va kichik* (sodda so‘zlar); *kitob-daftar va kiyim-kechak* (har ikkala qismi juft so‘z). Teng bog‘lanishli so‘z birikmalari ikkiga ajraladi:

1. Teng bog‘lanishli erkin birikmalar: *Qirlardagi lolalar va tog‘ etaklaridagi binafshalar kishiga huzur bag‘ishlaydi.*

2. Teng bog‘lanishli turg‘un birikmalar: *Mehri daryo, qo‘li ochiq insonlar.*

Teng bog‘lanish yana so‘z birikmasi va so‘zning (*bir payola choy va non*); so‘z, so‘z birikmasi va so‘z qo‘shilmasining (*Men sizga O‘zbekistonning uzoq qishloqlaridan birida o‘sgan, beg‘ubor yaylov havosidan chiniqqan, bir necha bor yirtqich hayvonlar hujumiga yo‘liqqan qo‘rqmas va kamtar, kamgap va qaysar bir bola haqida hikoya qilmoqchiman*. (Yo.Sh.)); sodda gaplarning (*Hasharda hamma ishladi: yoshlar ariq tozaladi, qizlar maydonni supurdi, kattalar mashinaga yukni ortdi*); murakkab gaplarning; sodda va murakkab gaplarning o‘zaro teng bog‘lanishi asosida hosil bo‘ladi. Teng bog‘lanishli so‘z, so‘z birikmasi va gaplar o‘zaro sanash ohanggi (yozuvda vergul bilan beriladi), teng bog‘lovchilar (biriktiriv, zidlov, ayiruv, inkor), teng bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar (yuklama, ko‘makchi) yordamida bog‘lanadi. Gapda teng bog‘lanishli so‘z, so‘z birikmalari yoki nomustaqil gaplar uyushiq bo‘laklarni hosil qiladi.

So‘z qo‘shilmasi	Uyushiq bo‘lakli gap
Kartoshka va piyoz	*Bozordan kartoshka va piyoz oldim.*

Uyushiq bo‘laklar quyidagi belgi-xususiyatlarga ega bo‘ladi:

1. Bir turdagi gap bo‘laklar uyushib keladi:

a) uyushiq ega. *Nasiba va Dilshod keldi*;

b) uyushiq kesim. *Men tikuvchi va o‘qituvchiman*;

d) uyushiq to‘ldiruvchi. *Non va choyni keltirdi*;

e) uyushiq aniqlovchi. *Oq, qizil gullar ochildi*;

f) uyushiq hol. *Tez va ravon gapirdi*;

g) uyushiq undalma. *Otalar, onalar, farzandlaringizni yaxshi tarbiya qiling*.

2. Uyushiq bo‘laklar bir xil sintaktik vazifada kelgani bois bir-xil so‘roqqa javob bo‘ladi. M., *Nasiba va Dilshod keldi.* Kim keldi? – *Nasiba va Dilshod; Oq, qizil gullar ochildi*. Qanday gullar? – *Oq, qizil.*

3. Uyushiq bo‘laklar o‘zaro teng aloqada bog‘lanadi va gapda bitta gap bo‘lagiga tobelanadi. M., *Men non va choy keltirdim* gapida *non va choy* (teng bog‘lanish); *non keltirdim, choy keltirdim* (tobe bog‘lanish). Buni chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin:



Kitoblarni, daftarlarni ukam va singlim uchun oldim gapidagi teng va tobe bog‘lanishlar soni quyidagicha:

1. Teng bog‘lanishlar soni ikkita: *kitoblarni, daftarlarni*; *ukam va singlim uchun*

2. Tobe bog‘lanishlar soni 4ta: *singlim uchun oldim, ukam uchun oldim, kitoblarni oldim, daftarlarni oldim*.



Ba’zi gaplarda uyushiq bo‘laklar birdan ortiq bo‘ladi va har biri alohida-alohida gap bo‘laklariga tobelanadi. M.: *Pulemyot, miltiqlarning ovoziga xotin-xalaj, bola-chaqalarning yig‘isi, dod-voyi qo‘shilib ketdi.* (O‘. Umarbekov)



a) Uyushiq ega kesimga tobelangan: *yig‘isi, dod-voyi qo‘shilib ketdi;*

b) Uyushiq qaratqich aniqlovchi uyushiq egaga tobelangan: *xotin-xalaj, bola-chaqalarning yig‘isi, dod-voyi;*

d) Uyushiq qaratqich aniqlovchi to‘ldiruvchiga tobelangan: *Pulemyot, miltiqlarning ovoziga.*

5. Uyushiq bo‘laklar o‘zaro teng bog‘lovchilar va teng bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar yoki tenglik ohangi vositasida bog‘lanadi.

I. Teng bog‘lovchilar vositasida:

A) Biriktiruv bog‘lovchisi: *Non va choy oldim*.

B) Zidlov bog‘lovchisi: *Bu katta, ammo kichik emas*.

S) Ayiruv bog‘lovchisi: *Goh qor, goh yomg‘ir yog‘adi*.

D) Inkor bog‘lovchisi: *Na qor, na yomg‘ir yog‘di*.

II. Teng bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar yordamida: *ona bilan bola.*

III. Tenglik, sanash ohangi vositasida: *Qor, yomg‘ir yog‘di.*

6. Gapda uyushiq bo‘laklar tobe qism bo‘lganda ularni hokim qismga bog‘lovchi vositalar: kelishik qo‘shimchalari, ko‘makchilar yoki ayrim lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar har bir uyushiq bo‘lak oxiriga bir xil shaklda qo‘shiladi. Bu holda uyushiq bo‘laklarning ma’nosi ta’kidlanadi va har biri urg‘uli tarzda talaffuz qilinadi. M.: *O‘rikni, olmani oldi*; *O‘riklarni, olmalarni oldi*; *Ukam uchun, akam uchun oldim*. Ayrim hollarda bu grammatik shakllar faqat oxirgi uyushiq bo‘lakka qo‘shiladi va oldingilariga ham taalluqli bo‘ladi. M.: *Olma, o‘rikni oldim; Ukam va akam uchun oldim. Men onam, otam va opam bilan xayrlashib, yo‘lga tushdim.* Ba’zan bunday grammatik shakllar uyushiq bo‘laklarga aralash holda qo‘shiladi, shu shaklda ham uyushiq bo‘laklar bir xil sintaktik vazifasini bajaradi. M.: *Yomg‘ir tez va shiddat bilan yog‘di.* Ushbu jumlada *tez* (ravish, grammatik shakllarsiz, ohang vositasida bog‘langan) va

shiddat bilan (ot, ko‘makchi vositada bog‘langan) bo‘laklari ikki xil grammatik shaklda bo‘lsa-da, har ikkisi ham *yog‘di* (fe’l)ga “tarz” ma’nosiga ko‘ra to‘g‘ridan-to‘g‘ri tobelangan hamda gapda uyushiq hol vazifasini bajargan.

8. Uyushiq bo‘laklar tarkiban bir turkum yoki turli turkumga mansub so‘zlardan iborat bo‘ladi, shunday bo‘lsa-da, gapdagi sintaktik vazifasi bir xil bo‘ladi. Masalan: *Non va choy olindi* jumlasida uyushiq bo‘laklar bir turkumga mansub so‘zlardan (*non* – ot, *choy* – ot) iborat bo‘lib, gapda ega vazifasida kelgan. *U hayajon bilan, tez-tez, bo‘gilib so‘zlar edi* jumlasida esa uyushiq bo‘laklar turli turkumlarga mansub so‘zlardan iborat bo‘lib (*hayajon* – ot, *tez-tez* – ravish, *bo‘gilib* – fe’l), gapda hol vazifasini bajargan.

9. Uyushiq bo‘laklar ba’zan bir xil yoki har xil leksik-semantik guruhlarga mansub so‘zlar tarkib topadi. M.: *Nargiza va Dilnoza keldi.* (Ikkalasi ham atoqli ot); *Dilshod va haligi o‘qituvchi gapirdi*. (Atoqli va turdosh ot); *Qizil va oq gullar ochildi*. (Ikkalasi ham rang-tus bildiruvchi sifat); *Qizil, loppi yuzi qizardi*. (Rang-tus bildiruvchi sifat, hajm-o‘lchov bildiruvchi sifat)

10. Uyushiq bo‘laklar sanash ohangida talaffuz qilinadi va yozuvda bu ohang vergul bilan ifodalanadi. Uyushiq bo‘laklar gap mazmuniga ta’sir etadi va uni murakkablashtiradi. M.: *Kecha ertalab keldi* – bu gapdagi *kecha ertalab* bo‘laklari orasida sanash ohangi mavjud emas, gap mazmunidan ayni bir paytda amalga oshirilgan harakat ma’nosi anglashiladi.



Kecha, ertalab keldi – bu gapda esa uyushiq bo‘lak mavjud bo‘lib, sanash mazmuni va ohangini ifodalagan, gapda ikki alohida vaqt: “kecha” va “ertalab” sanab o‘tilgan. Bundan harakatning shu ikki mahalda ketma-ket va tartibli tarzda amalga oshgani ma’lum bo‘ladi.



11. Uyushiq bo‘laklar tarkiban so‘z, so‘z birikmasi yoki gaplardan tashkil topgan bo‘ladi. Ko‘pincha, uyushiq bo‘laklar tarkibi faqat so‘zlardan iborat bo‘ladi. M.: *Atirgul va lola ochildi.* Ba’zan uyushuq bo‘laklar tarkibi faqat so‘z birikmalaridan iborat bo‘ladi. M.: *Oq atirgul va qizil lola ochildi.* Ba’zida nomustaqil gaplardan iborat bo‘ladi: *Sochi qora, qoshi qalin, ko‘zlari katta-katta bir kishi bo‘lgan voqeani so‘zlab berdi.* So‘z, so‘z birikmasi aralash holda ishtirok etadi. M.: *Maxdum bo‘ychan, olago‘sht, siyrak mo‘y, oq tan, istarasi issiq bir domla edi.* (Abdulla Qodiriy)

12. Moslashuvli bog‘lanishda uyushiq bo‘laklar hokim qism tarkibida bo‘lsa, egalik qo‘shimchasi yoki kesimlik shakllarini oladi. Egalik qo‘shimchasi har bir uyushiq bo‘lakka yoki faqat oxirgi uyushiq bo‘lakka qo‘shiladi. M.: *Mening kitobim va daftarim; mening kitob va daftarim.* Gapda ikki yoki undan ortiq kesim ishtirok etgan bo‘lsa, bunday gaplar qo‘shma gap yoki uyushiq bo‘lakli sodda gaplar bo‘ladi. Buni farqlashda kesimlik shakllariga e’tibor

qaratiladi. Kesimlik shakllari oxirgi kesim tarkibida kelib, oldingilariga ham taalluqli bo‘lsa, uyushiq kesimli sodda gap sifatida, kesimlik shakllari har bir kesim tarkibida alohida-alohida qo‘llangan bo‘lsa, bunday gap qo‘shma gap sifatida tahlil etiladi. M.: *Men tikuvchi va o‘qituvchiman. Biz o‘qib, o‘granib chiqdik.* (Uyushiq kesimli sodda gap); *Men tikuvchiman va o‘qituvchiman. Biz o‘qib chiqdik, o‘rganib chiqdik.* (Qo‘shma gap).

Uyushiq bo‘laklarni tahlil etish uchun gapdagi barcha teng va tobe bog‘lanishlarni o‘rganib chiqish zarur bo‘ladi. Bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Dastlab gap bo‘laklari tahlil etiladi. Gap bo‘laklarini tahlil etishda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

1. Gapdagi leksik birlikning ma’nosi izohlanadi, ular borliqdagi qanday narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatni ifoda etishi aniqlanadi.

2. Gapning mazmun-mohiyatini tushunish, tahlil etish zarur bo‘ladi.

3. Ega va kesimning chegarasi aniqlanadi.

4. Ega va kesimga to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) tobelanuvchi har bir sodda yoki birikmali gap bo‘laklarining chegarasi aniqlab chiqiladi. M.: *Pulemyot, miltiqlarning ovoziga xotin-xalaj, bola-chaqalarning yig‘isi, dod-voyi qo‘shilib ketdi.* (O‘. Umarbekov)

Kesimga bevosita tobelanuvchi bo‘laklar		Kesim
Pulemyot, miltiqlarning ovoziga	*xotin-xalaj, bola-chaqalarning yig‘isi, dod-voyi*	*qo‘shilib ketdi.*
Nimaga qo‘shilib ketdi?	Nima qo‘shilib ketdi?	Nima qildi?
Birikmali to‘ldiruvchi	Birikmali ega	Kesim

Gap bo‘laklari birikmali holda kelsa, uning hokim bo‘lagi qanday vazifada ekanligi aniqlanadi. Agar hokim bo‘lagi to‘ldiruvchi bo‘lsa, demak bu birikma gapda bir butun holga birikmali to‘ldiruvchi sifatida tahlil etiladi. Gap bo‘laklarini ajratishda dastlab kesimga bevosita tobelanuvchi bo‘laklar, keyin bilvosita tobelanuvchi bo‘laklar tahlil etiladi. So‘ngra (mavjud bo‘lsa) kesimga bilvosita tobelanuvchi bo‘laklarga tobe bo‘lgan bo‘laklar ajratiladi. Gap bo‘laklari shu tarzda ketma-ket tahlil etiladi, dastlab birikmali tarzda so‘ngra shu birikmalarning tarkibiy qismlari alohida-alohida ajratib tahlil etiladi va natijada har bir gap bo‘lagining vazifasi aniqlanadi. Gap bo‘laklari tahlili gap oxiridagi bo‘lak, ya’ni kesimdan unga tobelanuvchi bo‘laklarga tomon yo‘naladi, o‘ngdan chapga tomon amalga oshiriladi. Dastlab hokim qismning so‘rog‘i aniqlanadi, so‘ngra hokim qismga so‘roq berish bilan unga tobe bo‘lgan bo‘lakning vazifasi aniqlanadi. Yuqorida berilgan misolni tahlil etishda kesimga bevosita tobelanuvchi bo‘laklar birikmali holda ajratildi: *Pulemyot, miltiqlarning ovoziga /xotin-xalaj, bola-chaqalarning yig‘isi, dod-voyi/ qo‘shilib ketdi.* Dastlab birikmali eganing kesimga bog‘lanishi o‘rganiladi. Birikmali ega tarkibidagi tobe-hokim bo‘laklarning bir-biriga bog‘lanishi chizmalarda tasvirlanadi va bosqichma-bosqich teng va tobe bog‘lanishlar tahlil etiladi:



Birinchi bosqich		
Birikmali ega		Kesim
Pulemyot, miltiqlarning ovoziga nima qo‘shilib ketdi?		Nima qildi?
Xotin-xalaj, bola-chaqalarning yig‘isi, dod-voyi		*qo‘shilib ketdi.*
Ikkinchi bosqich		
Birikmali ega tarkibidagi hokim qism (ya’ni kesimga bevosita bog‘lanuvchi bo‘lak, ega) alohidalanadi.		Kesim
Yig‘isi, dod-voyi		*qo‘shilib ketdi.*
Egaga tobelanuvchi bo‘laklar aniqlanadi (teng bog‘lanish tahlil etiladi)		
Kimning	yig‘isi, dod-voyi?	
Xotin-xalaj, bola-chaqalarning	*yig‘isi, dod-voyi*	
Uyushiq aniqlovchi (teng bo‘lanish)	Ega (teng bo‘lanish)	
Uchinchi bosqich (tobe bog‘lanishlar aniqlanadi)		
Kimning yig‘isi, dod-voyi? (tobe qism)	Nima qo‘shilib ketdi? (ham hokim, ham tobe vazifada)	Nima qildi? (hokim qism)
xotin-xalajning yig‘isi *xotin-xalajning dod-voyi* *bola-chaqalarning yig‘isi* *bola-chaqalarning dod-voyi*	*yig‘isi qo‘shilib ketdi.* *dod-voyi qo‘shilib ketdi.*	*qo‘shilib ketdi*.
Moslashuvli so‘z birikmasi	Moslashuvli bo‘g‘lanish III shaxs birlikdagi ega va kesim bog‘lanishi	Kesim

Gapdagi birikmali to‘ldiruvchining kesimga tobelanishini tahlil etishda dastlab birikmali to‘ldiruvchi tarkibidagi tobe-hokim bog‘lanishlarning tasviri chizmalarda beriladi va bosqichma-bosqich teng va tobe bog‘lanishlar tahlil etiladi:

Birinchi bosqich		
Birikmali to‘ldiruvchi		Kesim
Pulemyot, miltiqlarning ovoziga		*qo‘shilib ketdi.*
Nimaga		qo‘shilib ketdi?
Ikkinchi bosqich		
Birikmali to‘ldiruvchi tarkibidagi hokim qism (ya’ni kesimga bevosita bog‘lanuvchi bo‘lak, to‘ldiruvchi) alohidalanadi.		Kesim
Ovoziga		*qo‘shilib ketdi.*
To‘ldiruvchiga tobelanuvchi bo‘laklar ajratiladi (teng bog‘lanish tahlil etiladi)		
Nimaning	*ovoziga?*	
Pulemyot, miltiqlarning	*ovoziga*	

Uyushiq aniqlovchi (teng bo‘lanish)	To‘ldiruvchi	
Uchinchi bosqich (tobe bog‘lanishlar aniqlanadi)		
Nimaning ovozi? (Tobe qism)	Nimaga qo‘shilib ketmoq? (Ham hokim, ham tobe vazifada)	Nima qildi? (Hokim qism)
Pulemyotning ovozi *Miltiqlarning ovozi*	*Ovoziga qo‘shilib ketmoq*	*qo‘shilib ketdi.*
Moslashuvli so‘z birikmasi	Boshqaruvli so‘z birikmasi	Kesim

Ushbu gapda 3 ta uyushiq bo‘lak qatnashgan: *pulemyot, miltiqlarning; xotin-xalaj, bola-chaqalarning; yig‘isi, dod-voyi.* Tobe bog‘lanishlar sonini aniqlash uchun gap bo‘laklari ajratib tahlil qilinadi. M.: Nima qildi? – *qo‘shilib ketdi* (kesim); Nima qo‘shilib ketdi? – *yig‘isi, dod-voyi* (uyushiq ega); Kimlarning yig‘isi, dod-voyi qo‘shilib ketdi? – *xotin-xalaj, bola-chaqalarning* (uyushiq qaratqich aniqlovchi); Nimaga qo‘shilib ketdi? – *ovoziga* (to‘ldiruvchi); Nimaning ovoziga qo‘shilib ketdi? – *pulemyot, miltiqlarning* (uyushiq qaratqich aniqlovchi)

Tobe bog‘lanish	
So‘z birikmasi	Gap (ega va kesim)
xotin-xalajning yig‘isi *xotin-xalajning dod-voyi* *bola-chaqalarning yig‘isi* *bola-chaqalarning dod-voyi* *ovoziga qo‘shilib ketmoq* *pulemyotning ovozi* *miltiqlarning ovozi*	*yig‘isi qo‘shilib ketdi.* *dod-voyi qo‘shilib ketdi.*

Tobe bog‘lanishlar asosida so‘z birikmasi yoki gap hosil bo‘ladi. Ikkinchi darajali bo‘laklar (ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol) barcha gap bo‘laklariga tobelanish xususiyatiga ega bo‘ladi. Ular gapda ham hokim, ham tobe bo‘lak vazifasida keladi. Kesim esa ikki turli bo‘ladi:

1. Ham hokim, ham tobe munosabatda bog‘lanish hosil qila oladigan kesimlar nomustaqil kesimlar hisoblanadi. M.: *Qoshi qora odam* (so‘z birikmasi: *qoshi* – nomustaqil ega, *qora* – nomustaqil kesim)



Gul ekilgan dala (so‘z birikmasi: *gul* – nomustaqil ega, *ekilgan* – nomustaqil kesim)



2. Gapda faqat hokim qism bo‘lib, hech qaysi gap bo‘lagiga tobelanmaydigan kesim mustaqil kesim hisoblanadi: *Bahor keldi* (bahor – ega, keldi – mustaqil kesim).

Bahor kelib, gullar ochildi gapida esa *kelib* bo‘lagi nomustaqil kesim bo‘lib, *bahor* (nomustaqil ega)ga nisbatan hokim, *ochildi* (mustaqil kesim)ga nisbatan tobe bo‘ladi.



Kelib so‘zi *ochildi* so‘zida ifoda topgan harakat-holatning bajarilish payti yoki sababini izohlaydi: *kelgach ochildi*; *kelgani uchun ochildi*. Gap tarkibidan so‘z birikmalarini ajratishda to‘ldiruvchi, aniqlovchi, holni boshqarib kelgan mustaqil va nomustaqil kesimlarni (agar u fe’l bo‘lsa) fe’lning noaniq (harakat nomi) shakliga keltirish mumkin bo‘ladi, ammo ega va kesim bog‘lanishida fe’l kesimni harakat nomi shakliga keltirib bo‘lmaydi. M., *Men kitob o‘qidim* gapi tarkibidan bitta so‘z birikmasini ajratish mumkin: *kitob o‘qimoq*, ammo bu gap tarkibidagi ega va kesim bog‘lanishini *men o‘qimoq* tarzida (hokim qismdagi fe’l harakat nomi shaklida) qo‘llab bo‘lmaydi, chunki ega I shaxs birlik ma’nosini bildiradi, shu ma’nosi bilan kesimning *-m* shaxs-son qo‘shimchasi bildirgan ma’noga moslashadi. Tobe bog‘lanishlar asosida so‘z birikmasi yoki ega va kesim bog‘lanishi (gap) hosil bo‘ladi. *Men kitob o‘qidim* gapida ikkita tobe bog‘lanish mavjud bo‘lib, bitta so‘z birikmasi (*kitob o‘qimoq*), bitta ega va kesimning moslashuvli bog‘lanishi (*Men o‘qidim*) ajratiladi. Hokim qismda kesimlik shakllari yoki ma’nosi bo‘lsa, gap, agar mavjud bo‘lmasa, so‘z birikmasi hosil bo‘ladi.

Tobe bog‘lanish	
So‘z birikmasi	Gap
Moslashuv	
Mening kitobim	*Men o‘qidim*
Boshqaruv	
Kitobni o‘qimoq	*Kitobni o‘qidim*
Bitishuv	
Yaxshi o‘qimoq	*Yaxshi o‘qidim*

Teng va tobe bog‘lanishlar quyidagi belgi-xususiyatlarga ko‘ra farqlanadi:

Teng bog‘lanish		
So‘zlar	Gap bo‘laklari	Gaplar
Olma va o‘rik	*Olma va o‘rik ekdik.*	*Shamol bo‘ldi va barglar to‘kildi.*

So‘z qo‘shilmasi	Uyushiq bo‘laklar. (gap bo‘laklarining teng munosabatda bog‘lanishi)	Bog‘langan qo‘shma gap

Tobe bog‘lanish		
So‘zlar	Gap bo‘laklari	Gaplar
Olmani yemoq	*Olmani yedim*	*Shamol bo‘ldi, shuning uchun barglar to‘kildi*
So‘z birikmasi	Gap bo‘laklarining tobe-hokim munosabatida bog‘lanishi	Ergashgan qo‘shma gaplar

Xullas, uyushiq bo‘laklarning o‘zaro teng va boshqa gap bo‘laklariga tobe munosabatda bo‘lanishi va buni yuzaga kelturivchi grammatik vositalarni o‘rganish, uyushiq bo‘laklarning sintaktik vazifalarini aniqlash uchun uyushiq bo‘lakli gap tarkibidagi barcha gap bo‘laklarining sintaktik vazifasini tekshirish, gapdagi teng va tobe bog‘lanishlar, ularning qanday grammatik vositalar yordamida bog‘langanini aniqlash zarur bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmonov A., Sobirov A., Mahmudov N., Qosimova N., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1,2,3-kitoblar. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining I,II,III bosqich talabalari uchun darslik. –T.: 2014. -591 b.

2. Qodirov M., Ne’matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili: 8-sinf uchun darslik. – T.: Cho‘lpon, 2010. – 144 b.

3. Qodirov M., Ne’matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. To‘rtinchi nashr. – T.: Cho‘lpon, 2019. – 144 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ИНТЕРЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ПРОСТРАНСТВА В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Ботирова Зухра Жураевна
Учитель русского языка высшей категории
специализированной школы Кумкурганского района

Аннотация В данной статье рассматривается интерлингвистический анализ концепта пространства в русском и узбекском языках. Исследование сосредоточено на выявлении семантических, лексических и грамматических особенностей, отражающих пространственные отношения в указанных языках. Опираясь на корпусные данные, примеры из художественной литературы и устной речи, анализируются пространственные предлоги, послелоги, наречия, существительные с пространственным значением, а также грамматические конструкции, выражающие локативность, движение и направление. В статье выявлены типологические различия в представлении вертикали, горизонтали, внутреннего/внешнего пространства, а также различия в когнитивной категоризации и культурных моделях, связанных с пространством. Работа опирается на принципы когнитивной лингвистики и лингвокультурологии. Результаты исследования позволяют более глубоко понять языковую картину мира русскоязычных и узбекоязычных носителей.

Ключевые слова: пространство, когнитивная лингвистика, локативность, узбекский язык, русский язык, интерлингвистика, лингвокультурология, пространственные конструкции, языковая картина мира, семантика пространства

Abstract: This article presents an interlinguistic analysis of the concept of space in Russian and Uzbek languages. The study focuses on identifying semantic, lexical, and grammatical features reflecting spatial relations in both languages. Based on corpus data, examples from literature and spoken discourse, the article analyzes spatial prepositions, postpositions, adverbs, spatial nouns, and grammatical constructions expressing location, movement, and direction. The study reveals typological differences in the representation of verticality, horizontality, internal/external space, as well as differences in cognitive categorization and cultural models related to space. The research is grounded in the principles of cognitive linguistics and linguoculturology. The findings contribute to a deeper understanding of the linguistic worldview of Russian and Uzbek speakers.

Keywords: space, cognitive linguistics, locativity, Uzbek language, Russian language, interlinguistics, linguacultural studies, spatial constructions, linguistic picture of the world, semantics of space.

Введение

Понятие пространства является фундаментальной категорией в любой культуре и языке. Языковая репрезентация пространства отражает особенности восприятия и интерпретации мира его носителями, а потому служит важным источником для межъязыкового и межкультурного анализа. Пространственные отношения в языке проявляются через целый спектр лексико-грамматических средств, начиная с предлогов, послелогов и наречий, и заканчивая грамматическими категориями, выражающими локализацию, движение, ориентацию и расстояние. Изучение этих средств позволяет проникнуть в глубинные когнитивные процессы, лежащие в основе языка.

Русский и узбекский языки принадлежат к разным языковым семьям: русский — к индоевропейской (славянской) группе, а узбекский — к тюркской. Соответственно, их грамматические системы, способы выражения пространственных отношений и концептуализация мира значительно различаются. Это делает их сопоставление особенно интересным с точки зрения типологической лингвистики и когнитивной семантики. В то время как русский язык использует широкий набор падежей с пространственными предлогами (в, на, под, между и т. д.), узбекский язык опирается на послелоги и агглютинативные формы для обозначения аналогичных отношений (ichida — в, ustida — на, orqasida — за).

Целью настоящего исследования является выявление и анализ особенностей представления пространства в русском и узбекском языках с опорой на межъязыковое сопоставление. В задачи исследования входит:

1. Анализ лексико-грамматических средств выражения пространства в обоих языках;
2. Сравнение семантики пространственных единиц и выявление системных соответствий и расхождений;
3. Выявление когнитивных и культурных моделей, лежащих в основе пространственной категоризации;
4. Установление типологических признаков представления пространства в русском и узбекском языках.

Актуальность данного исследования обусловлена необходимостью более глубокого понимания взаимодействия языка и мышления, культурных различий в интерпретации базовых понятий и расширением межъязыковой компетенции в сфере лингвистики. Кроме того, пространственные категории играют важную роль в машинном переводе, преподавании языков, межкультурной коммуникации и когнитивной психологии, что делает их исследование практически значимым.

Объектом анализа выступают лексико-грамматические средства выражения пространства, а предметом — их интерлингвистическое сопоставление на материале русского и узбекского языков. Корпус исследования включает данные Национального корпуса русского языка (НКРЯ), узбекского национального корпуса (O‘zbek Milliy Korpus), а также художественные, публицистические и разговорные тексты.

Теоретико-методологическую основу исследования составляют труды в области когнитивной лингвистики (Лакофф, Джонсон, Лангакер), лингвокультурологии (Красных, Воркачев), а также типологические описания русской и узбекской грамматик. В статье используется метод сопоставительного анализа, когнитивный метод, дискурсивный и контекстуальный анализ, элементы корпусной лингвистики.

Таким образом, данная работа направлена на системный анализ языковых репрезентаций пространства в двух разных языковых системах. Подобный подход позволит не только выявить структурные и семантические особенности, но и понять, каким образом культура и мышление отражаются в языке, формируя уникальную языковую картину мира носителей.

Методология

Методология данного исследования строится на синтезе сравнительно-типологического анализа, когнитивного подхода и инструментов корпусной лингвистики. Основной задачей методологического аппарата является выявление общих и специфических черт в способах лингвистического выражения пространственных категорий в русском и узбекском языках, а также определение влияния культурных факторов на когнитивное представление пространства.

1. **Корпусный анализ.** В качестве эмпирической базы исследования использовались тексты из:

- Национального корпуса русского языка (НКРЯ),
- O‘zbek Milliy Korpus (Узбекский Национальный корпус).

Анализировались более 1000 единиц, содержащих пространственную семантику — предлоги, послелоги, наречия, глаголы движения, существительные, выражающие локативность. Тексты отбирались из художественной, разговорной и публицистической речи.

2. **Сравнительно-типологический метод.** Позволяет выявить сходства и различия между языками на уровне:

- грамматических структур (падежи, аффиксы),
- синтаксических моделей (порядок слов),
- морфологических средств (флексия vs. агглютинация).

Сопоставление осуществлялось по ключевым семантическим параметрам: направление, положение, расстояние, внутренняя/внешняя локализация.

3. **Когнитивный подход.** Применялись теории:

- концептуальных метафор (Лакофф и Джонсон),

- фреймов (Ч. Филлмор),
- пространственных схем (Лангакер).

Анализировались ментальные образы, через которые носители репрезентируют пространство (например, тело-центрированные координаты в узбекском языке: oldida – перед, orqasida – позади).

4. **Контекстуально-дискурсивный анализ.** Выявлялись прагматические функции пространственных конструкций в зависимости от жанра, речевой ситуации и коммуникативной цели (например, в нарративах, инструкциях, диалогах и др.).
5. **Качественно-количественная обработка.** Составлены таблицы частотности, ранжирования по частоте употребления, графики корреляций между формой и функцией. Применены методы категоризации: классификация по семантическому типу (контейнер, поверхность, точка, путь и т.д.).

Результаты

Применение изложенной выше методологии дало возможность получить целый ряд значимых результатов, отражающих особенности представления пространства в русском и узбекском языках. Ниже приведены основные направления анализа и выявленные закономерности:

1. **Формально-грамматические различия в выражении пространственных отношений.** В русском языке пространственные отношения преимущественно выражаются при помощи предлогов и падежных форм (в доме, под столом, на крыше), в то время как в узбекском языке основным средством являются послелоги и агглютинативные суффиксы (uyda — в доме, stol ostida — под столом, tomda — на крыше). Это указывает на структурные расхождения в типологии выражения локативности.
2. **Семантические особенности локализации.** Пространственные предлоги и послелоги демонстрируют различную степень конкретности. Например, русское «в» может охватывать широкий спектр локативных ситуаций (в комнате, в лесу, в тетради), тогда как узбекское «ichida» (внутри) более узко употребляется в контекстах, предполагающих замкнутое пространство. Это различие обусловлено когнитивными стратегиями категоризации пространства в обоих языках.
3. **Вертикальные и горизонтальные отношения.** В русском языке выражение вертикали и горизонтали может быть синкретичным (на крыше, под деревом), тогда как в узбекском языке различие выражается яснее: ustida (сверху), ostida (снизу), yonida (сбоку), orqasida (позади). Это демонстрирует более подробную пространственную артикуляцию в узбекском языке, которая может быть связана с особенностями тюркской картографической системы координат.
4. **Динамика движения.** В русском языке движение сопровождается изменением падежа: иду в парк (вин. падеж), нахожусь в парке (предл. падеж), что маркирует направленность. В узбекском языке движение выражается глагольной

конструкцией с направительным послелогом: bog‘ga ketyapman (иду в парк). Сочетание глагола движения и послелога чётко указывает на направленность действия.

5. **Метаязыковые и культурные особенности.** В узбекском языке пространственные ориентиры часто включают телесно-когнитивную основу: oldida (впереди), orqasida (сзади), chapida (слева), o‘ngida (справа), что отражает ориентацию относительно говорящего. В русском языке подобные ориентиры также существуют (перед, сзади), но их употребление менее системно. Это различие связано с культурной моделью пространственной навигации.
6. **Частотность и контекстуальное варьирование.** В корпусном анализе отмечено, что в русском языке доминируют конструкции с предлогами «в», «на», «под», тогда как в узбекском — наиболее частотны «da», «ustida», «ichida». Особенно интересно, что в разговорной узбекской речи наблюдается тенденция к опущению послелогов, если ситуация ясна из контекста — это типичное явление прагматической экономии.
7. **Фреймы и когнитивные схемы.** Построенные фреймы, отражающие представление пространства, показали, что в русском языке преобладает объектно-ориентированная схема (направленность на объект, вокруг него), а в узбекском — субъектно-ориентированная (связь позиции с телом говорящего и восприятием движения).

Таким образом, проведённый анализ выявил не только грамматические и семантические различия, но и глубинные когнитивные стратегии, через которые языки представляют и категоризуют пространство. Эти различия особенно важны для межкультурной коммуникации, перевода, преподавания языков и межъязыкового моделирования.

Анализ и обсуждение

Анализ выявленных различий в языковом выражении пространственных отношений в русском и узбекском языках позволяет рассмотреть несколько важных аспектов, касающихся как типологической, так и когнитивной природы этих различий.

Во-первых, структурные различия между агглютинативной природой узбекского языка и флективной системой русского языка приводят к различным способам кодирования пространственных значений. Узбекский язык использует послелоги и аффиксацию, тогда как в русском доминируют предлоги с падежами. Это обусловливает различие в распределении синтаксических ролей и последовательности элементов в предложении.

Во-вторых, когнитивные различия отражаются в ориентации: узбекский язык чаще исходит из телесно-пространственной позиции субъекта (связь с ориентирами тела), тогда как русский язык более объектно-центричен. Это особенно заметно в описаниях движения и расположения объектов.

Ниже представлена сравнительная таблица, отражающая ключевые различия в репрезентации пространственных конструкций:

Пространственная категория	**Русский язык**	**Узбекский язык**	**Комментарий**
Внутреннее пространство	в комнате, в доме	uyda, xona ichida	У русских падеж + предлог, у узбеков — послелог
Поверхностное расположение	на столе	stol ustida	Сходное значение, разные формы
Под объектом	под деревом	daraxt ostida	Аналогично, но порядок слов различен
Направление движения	в парк, на работу	bog‘ga, ishga	В русском — изменение падежа, в узбекском — аффикс
Слева/справа	слева, справа	chapida, o‘ngida	В узбекском — тело-ориентированная система
Позади/впереди	сзади, впереди	orqasida, oldida	Узбекский язык чаще использует эти формы
Между	между домами	uylar orasida	У узбеков — аффиксация + «o‘rta/orasida»
Вне чего-либо	вне границ, вне дома	uydan tashqari, tashqarisida	У русских — абстрактный предлог, у узбеков — постпозиция

Данный анализ показывает, что в русском языке наблюдается тенденция к большей абстракции и обобщению пространственных категорий, тогда как узбекский язык более точно и телесно ориентирован в обозначении пространства.

Кроме того, языковая картина мира демонстрирует культурные предпочтения в интерпретации пространства. Например, в узбекской культуре большое значение имеет понятие «orqa» (задняя часть) как символ скрытого, недоступного, в то время как «old» (передняя часть) ассоциируется с открытым, уважаемым. В русском языке подобная символика также присутствует (например, выражения «в первых рядах», «отсидеться в тылу»), однако она менее системно выражена.

С точки зрения преподавания и перевода, различия в пространственной категоризации могут вызывать трудности. Например, при переводе с узбекского на русский может теряться точность положения объекта, если не учесть телесную ориентированность исходного текста.

Наконец, обсуждение полученных данных указывает на необходимость дальнейшего изучения динамических аспектов пространственной репрезентации (например, глаголы движения), а также интеграции данных из других тюркских и славянских языков для выявления универсалий и уникальных особенностей.

Таким образом, анализ и обсуждение результатов подчеркивают как структурные, так и когнитивные различия в представлении пространства, подтверждая, что язык не только отражает, но и формирует уникальную картину мира.

Заключение.

Проведённый интерлингвистический анализ пространственных категорий в русском и узбекском языках позволил выявить как типологические, так и когнитивные различия в способах представления пространства. Обнаружено, что русский язык преимущественно использует падежно-предложные конструкции, ориентированные на объект, тогда как узбекский язык строит пространственные конструкции на основе послелогов и телесно-ориентированных схем.

Исследование показало, что различия в выражении пространственных отношений не сводятся только к грамматике: они глубоко укоренены в когнитивных и культурных моделях носителей языка. Узбекская система пространственной ориентированности тесно связана с представлениями о теле, движении и социальном контексте, в то время как русская — более абстрактна и универсализирована. Эти различия необходимо учитывать при преподавании языков, межкультурной коммуникации и машинном переводе.

Применённая методология, включающая корпусный, когнитивный, сравнительно-типологический и дискурсивный подходы, доказала свою эффективность в лингвистическом сопоставлении. Построенные таблицы, фреймы и семантические модели обеспечили многоуровневое понимание пространственной репрезентации в языках.

В перспективе планируется расширение исследования за счёт включения других тюркских и славянских языков, а также более глубокое изучение динамических пространственных конструкций, в частности, глаголов движения и их взаимодействия с пространственными наречиями.

Таким образом, язык не только отражает физическую реальность, но и структурирует её в соответствии с ментальными, культурными и коммуникативными установками. Сравнительный анализ русского и узбекского языков позволяет глубже понять, как через грамматику и лексику строится уникальное пространственное восприятие мира.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. — М.: Языки славянской культуры, 2004.

2. Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. — М.: Гнозис, 2002.

3. Воркачев С.Г. Языковая картина мира как проблема лингвокультурологии. — М.: ИФ РАН, 2011.

4. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. — М.: Едиториал УРСС, 2004.

5. Филлмор Ч. Рамочная семантика. // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIII. — М., 1986.

6. Langacker R. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. 1. Theoretical Prerequisites. — Stanford University Press, 1987.

7. Ахмедов А. Ўзбек тилида локатив маънолар ифодаси. — Тошкент: Фан, 1999.

8. Юлдашев Ш. Ўзбек тили грамматикаси. — Тошкент: Ўқитувчи, 2006.

9. Национальный корпус русского языка. URL: https://ruscorpora.ru (дата обращения: 24.06.2025).

10. Ўзбек миллий корпуси. URL: https://corpus.uzbekcorpus.uz (дата обращения: 24.06.2025).

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

NEMIS TILIDAGI ASOSIY ASPEKTUAL KATEGORIYALAR

Azizova Z.A.
Samarqand davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola nemis tilidagi asosiy aspektual toifalarga va aspektuallikni ifodalash vositalarining o'zgaruvchanligi muammosiga bag'ishlangan. Aspektuallikni ifodalash vositalarining ishlash xususiyatlarini alohida kategoriya sifatida o'rganishga va nutqning nutqni amalga oshirish kontekstida turli lingvistik vositalarning o'zaro ta'siriga e'tibor uning funktsional grammatika, sotsialingvistika va kognitiv lingvistika, shuningdek, nutq nazariyasi kabi zamonaviy sohalar uchun dolzarbligini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: aspektuallik kategoriyasi, daraja kategoriyasi, harakat fe’llari, mukammal fe’llar, to‘liqsizlik fe’llari, yakuniylik va bo‘shlik, aspektual ma’nolar.

ОСНОВНЫЕ АСПЕКТУАЛЬНЫЕ КАТЕГОРИИ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: Данная статья посвящена основным аспектуальным категориям немецкого языка и проблеме изменчивости средств выражения аспектуальности. Особое внимание уделяется изучению особенностей функционирования средств выражения аспектуальности как отдельной категории, а также взаимодействию различных лингвистических средств в контексте реализации речи. Это определяет актуальность темы для таких современных областей, как функциональная грамматика, социолингвистика, когнитивная лингвистика и теория речи.

Ключевые слова: категория аспектуальности, категория степени, глаголы действия, совершенные глаголы, глаголы неполноты, завершённость и незавершённость, аспектуальные значения.

MAIN ASPECTUAL CATEGORIES IN THE GERMAN LANGUAGE

Abstract: This article is devoted to the main aspectual categories in the German language and the issue of variability in the means of expressing aspectuality. Particular attention is paid to studying the functional features of aspectual markers as an independent category, as well as the interaction of various linguistic tools in the context of speech realization. This highlights the relevance of the topic for such modern fields as functional grammar, sociolinguistics, cognitive linguistics, and speech theory.

Keywords: aspectual category, degree category, action verbs, perfect verbs, incompleteness verbs, completeness and incompleteness, aspectual meanings.

KIRISH

Nemis tilida aspektuallikning grammatik kategoriyasi mavjud emas. Biroq, aspektuallik funktsional-semantik soha sifatida, o'zaro ta'sir qiluvchi lingvistik vositalardan (morfologik, sintaktik, so'z yasash, leksik-grammatik, leksik va ularning turli birikmalaridan) tashkil topgan, aspektual munosabatlar sohasiga tegishli semantik funktsiyalarning umumiyligi bilan birlashtirilgan, har bir tilda mavjud. Barcha tillarda u yoki bu tarzda o'zaro ta'sir qiluvchi lingvistik vositalar taqdim etiladi, ular vaqt bo'yicha harakatning mohiyatini ifodalaydi [Bondarko, 2001, p. [76-77]. Nemis tilidagi fe'l o'zining leksik ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan aspektual soyalarga ega [Gulyga, Natanzon, 2004, p. [124].

V.G. Admoni nemis tilidagi fe'llarni semantik-grammatik mezonlarga ko'ra ajratadi. Kursiv/to‘g‘ri kelmaydigan fe’llarni va yakunlovchi/takroriy fe’llarni farqlaydi. Kursiv fe'llar - bu jarayonni oddiy temporal kursida, hech qanday maqsadga intilmasdan tasvirlaydigan fe'llar (schlafen 'uyqu', beben 'tremble', stehen 'turish', blühen 'gullash'). V.G.ning terminativ fe'llariga. Admoniyga maqsadga erishishga qaratilgan jarayonni bildiruvchi, tugatishga intiladiganlar kiradi (aufblühen “gullash”, kommen “kelish”, erklingen “tovush qilish”) [Admoni, 1986, p. 175–176]. Nemis grammatika kitoblarida odatda fe'l harakat usullari haqida so'z boradi (Aktionsarten der Verben). Duden grammatikasi og'zaki harakat usullarini fe'l bilan belgilangan hodisani ifodalash vositasi sifatida tavsiflaydi (hodisa turi, jarayon turi, harakat turi) va og'zaki harakat usullarini to'rt toifaga ajratadi [Fabricius-Hansen, 2009, p. 390].

Jarayonning vaqt turi (die zeitliche Verlaufsweise). Bu turkumga vaqt bilan chegaralangan ish-harakatni ifodalovchi fe'llar (mukammal fe'l) va davomiy, to'liq bo'lmagan yoki doimiy harakatni ifodalovchi fe'llar (durativ/imperfektif fe'l) kiradi. Birinchi, mukammal fe'llarni quyidagi kichik toifalarga bo'lish mumkin:

- inchoative fe'llar (ingressive/inchoative Verben): hodisaning boshlanishini bildiradi (losrennen 'yugurish', aufstehen 'turish'); - aniqlovchi/natijali fe’llar (egressiven Verben): hodisaning tugashini bildiradi (aufessen ‘to eat, to finish yeating’; ausklingen ‘tugamoq, tugallanmoq’) [Helbig, 1998, S. 72-73]; -mutatsion fe'llar (mutativ Verben): vaqt chegarasisiz bir holatdan ikkinchi holatga o'tishni bildiradi (sich erkälten 'sovuqni tutish'; rosten 'zang') [Helbig, 1998, S. 66-67]; - sabab fe'llari (kausative/faktitive Verben): yangi holatga o'tish sababini yoki sababini bildiradi (schwärzen 'qora bo'lish'; beugen 'egilish') [Helbig, 1998, S. 72-73].

Takrorlash toifasi (die Wiederholung). Ushbu turkumga harakatlarning takrorlanishini ifodalovchi fe'llar kiradi - iterativ yoki takrorlanuvchi fe'llar (iterativ Verben). Masalan, sticheln “igna bilan tez ishlash” (immer wieder stechen); krabbeln “chizmoq”.

Daraja, intensivlik toifasi (der Grad, die Intensität). Bu turkumga biror ish-harakatni katta yoki kichik darajada ifodalovchi fe’llar kiradi. Masalan, schnitzen "kesish" va kräftig schneiden "qattiq kesish" (intensiv fe'l/intensiv); lächeln “tabassum qilmoq” va verhalten lachen “o‘zboshimchalik bilan kulmoq” (kichraytiruvchi fe’l) [Duden, 1995, 83-84-betlar].

Og'zaki harakat uslubini qo'shimcha leksik vositalar, so'z yasash vositalari yoki sintaktik vositalar (Ausdruck der Aktionsart durch zusätzliche lexikalische Mittel, Wortbildungsmittel yoki sintaktik vositalar) bilan ifodalash. Og'zaki harakat uslubi qo'shimcha so'zlar va konstruktsiyalar yordamida ifodalanishi mumkin. Masalan, mukammal jihat: ishni boshlash/tugatish, tugatish, tugatish, birdan jiringlash. Nomukammal tomoni: roman yozish, gullash, doimiy ishlash.

Og'zaki harakat usuli so'z yasalishi - prefikslar, qo'shimchalar, ildiz unlining umlauti yordamida ham ifodalanishi mumkin. Masalan, kampfen ‘kurash’, erkämpfen ‘g‘olib bo‘lmoq’ (prefiks usuli yordamida, egressiv), sarfdan ‘qurbonlik qilmoq’,pendieren ‘qurbonlik qilmoq’ (qo‘shimchasi usuli yordamida, intensiv), husten ‘yo‘tal, hüsteln ‘yo‘tal, dimivu’ dan foydalanib). Og'zaki harakat uslubini ifodalash uchun yordamchi (Hilfsverben) va xizmat (Funktionsverben) fe'llari bilan konstruktsiyalar kabi sintaktik vositalardan foydalanish mumkin. Chorshanba. ikkita misol: Der Baum steht in Blüte "Daraxt gullaydi"; Daraxt gullaydi. Birinchi misoldagi stehen fe'li yordamchi fe'l sifatida ishlatilgan. Boshqa misollar: Der Schüler bleibt sitzen ‘Talaba o‘tirishni davom ettiradi’; Talaba o'tiradi. Birinchi misoldagi bleiben fe'li harakatning davomiyligini ta'kidlaydi.

Fe'llarning leksik ma'nolari fe'llar bilan ifodalangan harakatlarning chegarasi va chegarasizligini aks ettiradi [Pavlov, 1984, s. 50]. Limit va chegarasiz fe'llar bir qator kichik sinflarga bo'linadi - og'zaki harakat usullari. Cheklovchi fe'llar orasida quyidagi harakat usullari ajralib turadi [Shubik, 1987, p. 167]: - incipient (aufleuchten 'yorug'lash', aufschreien 'baqirmoq', erblicken 'ko'rish', ertönen 'tovush qilish', loslaufen 'yugurish', losschlagen 'urmoq'); - samarali (auslernen 'o'rganish', auswachsen 'o'stirish', aufbauen 'qurmoq', aufessen 'ovqatlanish', durchbohren 'burg'ulash', durchlesen 'o'qish', entfärben 'oqartirish', entwaffnen 'qurolsizlantirish', verken", drive", olib kelmoq, keltirmoq, kommen ‘kelmoq’); - to‘ldiruvchi (zu Ende singen ‘qo‘shiq aytishni tugatish’, zu Ende spielen ‘o‘ynab tugatish’) harakatning yakuniy bosqichi tugaganligini bildiradi; To‘liq qiymatli fe’llardagi zu Ende komponenti alohida shakllangan prefiks sifatida qaraladi [Rizaev, 1981, b. 214–215]; - instant (aufblitzen 'flesh-flesh', aufgreifen 'grab', finden 'top', platzen 'portlash', zuklappen 'slam shut'); - attenuativ (anheben 'ko'tarish'); susaytiruvchi yoki yumshatuvchi harakat usuli samarali harakatning zaiflashgan, to'liq bo'lmagan namoyon bo'lishini ifodalaydi [Shelyakin, 1987, p. [76]. Infinity quyidagi harakat usullariga xosdir: - statik (schlafen 'uyqu qilish', sitzen 'o'tirish'); rivojlanishdan mahrum bo'lgan statik jarayonning ma'nosiga ega [Shelyakin, 1983, p. 193]; bu harakat uslubidagi fe'llar ob'ektning fazoda ma'lum bir holatda mavjudligini tasvirlaydi va nemis tilida eng ko'p qo'llaniladi]; - munosabat (enthalten 'o'z ichiga olish', gehören 'aid qilish'); - bir hil (arbeiten 'ishlash', leiten 'boshqarish', suchen 'izlash', spazieren gehen 'yurish'); bunday fe'llar uzoq muddatli jarayonlarni ifodalaydi, lekin ularning semantikasida na sub'ekt yoki ob'ektning o'zgarishlar ketma-ketligi momenti, na ularning kosmosdagi harakatining bir yo'nalishliligi talab qilinmaydi [Shubik, 1987, s. 168]; - uzluksiz (fortbestehen 'mavjud bo'lishni davom ettirish', fortwirken 'harakat qilishda davom etish', weiterfahren 'sayohat qilishni davom

ettirish', weiterspielen 'o'ynashni davom ettirish', andauern 'davom etish'); takrorlanadigan, uzoq muddatli harakatni ifodalash, unda takrorlanadigan narsa bor; - intervalgacha yumshatuvchi (hüsteln 'yo'tal', spötteln 'masxara qilish'). So'z yasovchi formatlardan foydalangan holda og'zaki harakat uslubini tavsiflash nemis tilida keng tarqalmagan. Shunday qilib, nemis tili aspektual ma'nolarni keng ko'lamda ifodalashi mumkin.

Biroq, nemis tilida aspektuallik haqida fe'lning alohida grammatik kategoriyasi sifatida gapirish mumkin emas. Bu juda o'ziga xos va rus tilidagi aspektuallikdan farq qiladi. Nemis tilidagi aspektual ma'nolar fe'l harakat usullari yordamida ifodalanadi. Bundan tashqari, fe'l harakat usullari qo'shimcha leksik va sintaktik vositalar bilan ifodalanishi mumkin. Nemis tilida davomiylik, qo'shimcha ma'nolar, tugallanish va to'liqsizlik ma'nolari turli til darajalarining ko'plab vositalari bilan amalga oshirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Admoni V. G. Nemis tilining nazariy grammatikasi: Zamonaviy qurilish. Ger. lang. – 4-nashr. qayta ko'rib chiqilgan - M.: Ta'lim, 1986. - 336 b.

2. Bondarko A. V. Funksional grammatika tamoyillari va aspektologiya masalalari. 2-nashr. – M.: URSS tahririyati, 2001. – 201 b.

3. Gulyga E. V., Natanzon M. D. Nemis tili grammatikasi. Darslik. – M.: “Menejer” nashriyoti, 2004. – 400 b.

4. Maslov Yu. S. Fe’l turiga oid savollar. – M.: Chet el adabiyoti nashriyoti, 1962. – 438 b. 20.

5. Rizaev B.X. Doimiy komponentli yakuniy analitik konstruktsiyalar - zu Ende predlogli birikmasi. // Tilshunoslik: Grammatik va leksik semantika. M., 1981. – B. 212-220.

6. Shubik S. A. Nemis tilida aspektuallik va ovoz // Grammatik ma'no nazariyasi va aspektologik tadqiqot / Mas'ul. ed. A. V. Bondarko. – L.: Fan, 1984. – 279 b.

7. Duden. Deutschen Gegenwartssprache grammatikasi. – 5 völlig neu bearbeitete und erw. Ajralish. – B. 4. – 1995. –S. 864

8. Gerxard Xelbig. Deutsche Grammatik.-L.1998, S.72–73.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ABDUQAYUM YO‘LDOSHEV HIKOYALARIDA BADIIY TASVIR VOSITALARINING QO’LLANISHI

Toshpo’latova Dilchehra Azamat qizi
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV mavze
E-mail: dilchehratoshpolatova9904@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada portret, badiiy detal singari kompozitsiya vositalarining hikoyachilikdagi o‘rni, muallif maqsadini ochib berishda ularning yordami, shuningdek, asarda tasvirlangan qahramonlar tashqi qiyofasi bilan ularning ichki dunyosidagi mutanosibliklar Abduqayum Yo‘ldoshevning bir qator “Alvido go‘zallik”, “Puankare”, “Mix” hikoyalari misolida tadqiq etildi.*

Kalit so‘zlar: *kompozitsiya vositalari,yozuvchi g‘oyaviy-badiiy niyati, qahramon ruhiyati, badiiy detal, portret tasviri, shakl va mazmun,, yozuvchi uslubi, ijodiy niyat qahramon, ovul, atlas, “xotira daftari”, miltiq, portfel, plastmassa idish, sterna quvur, mix, doska.*

THE USE OF ARTISTIC IMAGERY DEVICES IN ABDUQAYUM YO‘LDOSHEV’S SHORT STORIES

Abstract:*This article explores the role of compositional devices such as portrait and artistic detail in storytelling, focusing on how they help reveal the author’s artistic and ideological intent. Using Abduqayum Yo‘ldoshev’s short stories “Farewell, Beauty,” “Poincaré,” and “The Nail” as case studies, the paper examines the harmony between the characters’ external appearances and their inner worlds. It also analyzes how specific details convey deeper meanings and contribute to character development. The author’s narrative style and use of imagery are central to the discussion.*

Keywords: *compositional devices, author’s artistic intent, character psychology, artistic detail, portrait description, form and content, narrative style, creative intent, protagonist, village, atlas, “memory notebook,” rifle, briefcase, plastic container, sternum pipe, nail, board.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ СРЕДСТВ ИЗОБРАЖЕНИЯ В РАССКАЗАХ АБДУКАЮМА ЙУЛДАШЕВА

Аннотация:*В данной статье рассматривается роль таких композиционных средств, как портрет и художественная деталь, в повествовании, а также их значение в раскрытии авторского замысла. Анализируется соответствие между внешним*

обликом персонажей и их внутренним миром на примере рассказов Абдукаюма Йўлдошева «Прощай, красота», «Пуанкаре» и «Гвоздь».

Ключевые слова: *композиционные средства, идейно-художественный замысел писателя, духовный мир героя, художественная деталь, портретная характеристика, форма и содержание, авторский стиль, творческое намерение, герой, аул, атлас, «тетрадь памяти», ружьё, портфель, пластиковая посуда, трубка стерна, гвозд.*

Kirish: Badiiy adabiyotda obrazning tashqi hamda ichki qiyofasini yaratishda o‘ziga xos mashaqqat talab etadigan jarayonlardan biri hisoblanadi. Rassom tashqi qiyofani bo‘yoqlar yordamida chizsa, yozuvchi bu ishni so‘zlar vositasida amalga oshiradi. Qaysidir ma’noda ikkisining ham bajarayotgan vazifasi tasvirdan iborat bo‘lsa-da, so‘z ustasining zimmasidagi yuk ulkan bo‘ladi. Chunki u so‘z yordamida o‘zi tasvirlayotgan obrazning ham ichki, ham tashqi tasvirini yoritib berishi kerak. Bunda yuzdagi mimikalardan tortib to ichki dunyodagi evrilishlar ham bir-biriga monand bo‘lishi lozim. Jumladan, ijodkor Abduqayum Yo‘ldoshev ham portret yaratishda o‘ziga xos mahoratga ega yozuvchilardan hisoblanadi. Adib o‘z qahramonlarining tashqi qiyofasini maromiga yetkazib tasvirlash bilan birga uning ichki portretini ham obrazning kayfiyatiga, xatt-harakatiga munosib tarzda ochib beradi. Yozuvchi hikoyalarida qahramonlar ruhiyatini ochishda badiiy tasvir vositalarining o‘rnini aniqlash mazvuning **dolzarb**ligini ko‘rsatadi.

Mazkur maqolada badiiy portret va detalning hikoyachilikda tutgan o‘rnini Abduqayum Yo‘ldoshev hikoyalari misolida o‘rganib, ushbu tasvir vositalaridan muallif mahorati masalasini tekshirish **maqsad** qilingan va o‘z oldiga quyidagilarni **vazifa** qilib qo‘yadi:

- kompozitsiya vositalarining yozuvchi g‘oyaviy-badiiy niyatini aniqlashdagi xizmatini aniqlash;
- tashqi tasvir bilan qahramon ruhiyatining bir-biriga muvofiqligini isbotlash;
- muallif mahorati masalasini tekshirish.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida Abduqayum Yo‘ldoshevning “Alvido go‘zallik”, “Puankare”, “Mix” hikoyalari olingan. Masalani yoritishda qiyosiy-tipologik, konseptual tahlil, hamda kontekstual tadqiq metodlardan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili:

San’at asaridagihar bir badiiy tasvir vositalari ijodkorning g‘oyaviy-badiiy niyatini ochishga yordam beradi. Abduqayun Yo‘ldoshevning “ Alvido go‘zallik” hikoyasida asar qahramonining tashqi ta’sir natijasida bir yil ichida ham tashqi, ham ichki qiyofaning o‘zgarganini ko‘rishimiz mumkin. Hikoyada qurib sahroga aylanayotgan ovulga tog‘dan kelin tushadi. Kelinning go‘zalligi haqidagi ta’riflar butun qishloqqa tarqab ketadi. Muallif shu o‘rinda kelinning tashqi portretini quyidagicha tasvirlaydi:

“… Ayollar bashorat qilishgan ekan. To‘ydan keyin oradan ikki hafta o‘tar-o‘tmas, Muslim aka xotinini chopiqqa chiqardi. Shunda biz ko‘rdik, darhaqiqat, kelinchak juda chiroyli edi.

Ismiyam jismiga monand: Oysuluv. Atlas ko‘ylak-lozim kiygan, yaltirab turgan sochi taqimini o‘padigan, oppoq yuzli, kipriklari uzun-uzun, jismi nozikkina bu ayolni bolalar negadir “Kumush checha”, deb chaqirishardi”[1:56].

Ijodkor ayolning tashqi qiyofasini bir o‘rinda jamlab tasvirlasa, uning ichki dunyosidagi go‘zallikni sochma tarzda ma’lum bir o‘rinlarda berib ketadi. Ovozidagi noziklik, kamsuqumlik, jur’atsizligi qishloqdagi shang‘i bir-birini, bir-birini sensirab gapiradigan xotinlarning g‘ashini keltirar, gap bilan chimdib-chimdib olishar, bundan tashqari, eri Muslim aka (asarda shu tarzda aytib ketiladi) oilada o‘zining ustunligini sezdirib qo‘yish uchun rafiqasini ko‘pchilik oldida qo‘pol muomalada bo‘lar, haqoratli so‘zlar bilan uni behurmat qilardi. Yosh kelinning chekka- chekkalarda yig‘lashlari uning tabiati qanchalik nozik ekanligidan guvoh bo‘ladi. Boshqa kuni kelinchak o‘zining she’rlar yozilgan xotira daftarini olib kelganida qo‘shni ayollar uni masxara qilib, turmush qurgan ayol sobiq sevgilisiga atab she’r yozgan deb, sha’ma qilishadi. Bundan ta’nalarga chidolmagan kelinchak daftarni yoqib yuborishga majbur bo‘ladi, boshqa kuni yorilib-qorayib ketgan qo‘llariga surish uchun “vazelin” olib kelganda yana uni malomat qilib ustidan kulishadi. Oradan bir yil vaqt o‘tgandan so‘ng mas’uma, go‘zal ayol muhitning asriga aylanadi. Endi ayol nafaqat tashqi qiyofasi, balki xarakteridagi o‘zgarishlar orqali qishloq ayollarining aksini o‘zida namoyon qiladi:“…Ha, og‘zingdan qoning kelsin, Nuri, ochiritingga qarasang o‘lasanmi?! Mening bolamam uyda chirqirab yotibdi-ku! Yo sening bolang bola, meniki itning bolasimi?.. Hali otasi yotibdi boshini ko‘tarolmay…Men dong qotib qoldim va shu tarafga qaradim. Paqirlarini, plastmassa idishlarini sisterna quvuridan oqayotgan suvga birinchi bo‘llib qo‘yishga urinib bir-birlarini sur-sur qilayotgan ayollar to‘pi ichida turgan bir qop-qoragina, dog‘ bosgan mushtday yuzini ajin to‘rlatgan, sochlari to‘zib ketgan, eski xalat kiygan juvon baqirmoqda edi. Darvoqe, ayollarning hammasi baqir-chaqir qilishar, ammo men faqat shu juvonning so‘zlarini eshitardim. Zero, bu o‘sha, bir yilgina muqaddam go‘zalligi va ma’sumaligi bilan bizni hayratlarga solgan Oysuluv yanga edi…” Muhit o‘z ustunligini ko‘rsatadi. Yuqorida aytganimizdek , barcha ketayotgan yo‘ldan keskari tomon yurgan ojiza o‘z yo‘nalishini olomon yurgan tomonga o‘zgartirishga majbur bo‘ladi. Adib o‘z qahramonining go‘zal bo‘lgan paytlarida qalbining ham shunga munosib ravishda go‘zalligini so‘z yordamida ochib bersa, vaqt, muhit hukmini o‘tkazgan ayolning keyingi qiyofasini ham mohirlik bilan tasvirlaydi. Bunda ijodkorning asardan ko‘zlagan maqsadining portret vositasida ro‘yobga chiqaradi.

Badiiy asarda detal (fr. Detail – tafsilot , mayda-chuyda) badiiy asarda muayyan mazmun ifodalovchi, g‘oyaviy-badiiy yuk tashuvchi tafsilot. U voqelik yaratish vositasi bo‘lib, tasvirlayotgan narsa-hodisani konkretlashtiradi, uni hissiy idrok qilish mumkin bo‘lgan tarzda gavdalantiradi. Badiiy detal muallifga qahramon xarakterini ochib berishda yordam beradi. Bunday xarakterli tafsilot so‘zlashuvchining ismi, o‘z vaqtida va noto‘g‘ri vaqtda aytilgan qahramon so‘zi , so‘zlani almashtirish yoki atrofdagi kichik bir detal sifatida olingan oshyo ham qaysidir ma’noda asarning butun mazmunini yoxud qahramonlar qiyofasini ochib bera oladi. Abduqayum Yo‘ldoshev ham detallardan foydalanishda Chexovning asarda tasvirlangan miltiq

uning oxirida otilishi kerak , degan uslubiga tayanadi. Bir qaraganda arzimas tuyulgan badiiy detal vositasida qahramonlarning ruhiyatini to‘la ochib bera oladi. Fikrimiz isboti o‘laroq ijodkorning “ Puankare” hikoyasidagi portfelni oladigan bo‘lsak, asar qahramoni sotuvchining portfel haqida aytgan ta’rifiga shu darajada ishonadiki, go‘yo ta’riflanganidek asil mol o‘z egasiga yuz yil xizmat qilishi kerakdek. Biroq u o‘ttiz besh yil ichida butunlay ishlatib bo‘lmas darajaga keladi:

“ Mana o‘sha portfel. Yuz yil emish! Bir asrning uchdan birini o‘tab-o‘tamay yuzimga o‘xshab bujmayib, qarimsiq bo‘lib qoldi; bir xil joylarining terisi ko‘chgan, kal boshimni eslatadi. Mol ham egasiga o‘xsharkan-da. Buyam kamday, bo‘sh qopga o‘xshab sira tik turmaydi, ichiga u-bu solsam sal qaddini g‘oz tutganday bo‘ladi, ammo bu aldamchi taassurot, sal o‘tmay yana qiyshayib qoladi. Qulf degan jonivor ishdan chiqqaniga-ku, necha zamonlar bo‘lgan: men yopib charchayman, u bo‘lsa “shirq” etib ochilib ketishdan erinmaydi. Shunga portfelni qo‘ltiqlab yo bo‘lmasa bag‘rimga mahkam bosib yurishga majburman. Kambag‘alning boyligi yonida bo‘lgani ma’qul. Yo‘qsa, hov bir galgiday moshin-poshin turtib ketsa, qog‘ozlarimning bari sochilib ketish mumkin..”[2:7].

Bunda ijodkor kichik bir detalni asar boshida tasvirlay turib qahramonining hikoya qilinmish hayotidan bashorat qiladi. O‘ttiz besh yil ichida portefel qay ahvolga tushsa, uning ham poyonsiz deb hisoblagan umri davomida tashqi qiyofasi shu ahvolga kelganligini , orzularining sarobini, o‘tgan umridagi noroziligini anglatib ketsa, “Mix” hikoyasida tasvirlangan badiiy detal mix hayotdagi yo‘q joydan paydo bo‘lib, kishilarning shaxsiy turmushini zaharlaydigan “MIX”lar qiyofasini ochib berishda ko‘maklashadi. Asarda qahramoni muallim eski uyini buzib yangi uy qurmoqchi bo‘ladi. Ishni dastlab yangi hashamdor darvoza o‘rnatishdan boshlaydi. Qishloqdagi o‘tganni o‘rog‘ini, ketganni ketmonini oladigan, umri birovlar ustidan “yozish” bilab o‘tayotgan qishloqdosh nishoniga muallim tushib qoladi. Universitetda ishlab pora olganligi uning orqasidan “qasr” qurayotganligini, buni tegishli joylarga yozishini aytadi. Maqsadi nima ekanligi so‘raganda : “ Men birdan o‘yib olmayman. Asta tirnayman, tirnayveraman. Tirnalgan joy yaraga aylanadi, keyin yiringlaydi, oxiri hamma yoqni zaharlab tashlaydi”, deb oldindan mixning bashoratini aytadi. Shundan so‘ng muallimning tinchligi buzilib, qilayotgan ishining noqununiy ekanligi haqidagi xabar tegishli joylardan taftishlar o‘tkazilishiga olib keladi. Bu orada muallim uydagi qo‘lbola doskadan chiqib yotgan zanglagan mixga bilagini urib oladi. Bunda e’tibor bermasdan ishida davom etadi. Ertasi kuni mix tilgan joy qichisha boshlaydi , ammo bunga ham bee’tibor qaraydi. Keyin yara achishadi, yiringlaydi. Ammo shifokorga uchrashishda o‘zida na xafsala va na vaqt topa oladi. Chunki u hamqishlog‘i kavlagan chohlarni yopish bilan band edi. Asar oxirida esa:“ Oradan ikki hafta o‘tdi.

Elmurod domla qishloqqa bir ko‘ylagining yengi bo‘sh holda qaytib keldi…

Kuzga borib Elmurod domla darvozani yarim puliga bir amallab sotdi va usta yollab , bir xonali hujra qurdirib oldi. Qish o‘tib olsin-chi, keyin bir gap bo‘lar…

Aytishlaricha, shu kunlarda Elmurod domla do‘kondan yarim kilo mix xarid qilsayam chekini talab qilib olishni unutmas ekan: har ehtimolga qarshi-da, mobodo tekshirib qolishsa, “mana hammasi qonuniy” deb ko‘rsatish uchun…”[1:167].

Ko‘rinib turibdiki, ijodkor badiiy detal mix orqali jamiyatdagi damlar hayotini zaharlovchi, har bir ishiga aralashib, yaxshilikdan ham yomonlik izlashga o‘rganib qolgan toifani xarakterini ochib beradi. Bu o‘rinda detal ham o‘ziga yuklatilgan vazifani ortig‘i bilan bajara oladi.

XULOSA

Asar organizmida muallif foydasiga xizmat qilmaydigan birorta organizm uchramaydi. Ularning o‘rnini almashtirish, olib tashlash yoxud yangi narsa kiritish mumkin emas. Agar shunday qilinsa, asar to‘qimasi buziladi, badiiylikka ziyon yetadi. Buning isbotini Abduqayum Yo‘ldoshevning yuqorida tahlili berilgan hikoyalari misolida ham ko‘rdik. Yozuvchining “Alvido go‘zallik” hikoyasida hikoyachi qahramon uchun go‘zallik timsoli bo‘lgan ayolning muhit ta’sirida nafaqat ayollik jozibasini yo‘qotishi, balki o‘ziga berilgan go‘zal xulqdan-da mahrum bo‘lishiga guvoh bo‘ldik. “Puankare”da orzulari sarobga aylangan olimning qismati unga yuz yil xizmat qilishiga va’da berib sotilgan portfel misolida qiyoslash orqali ochib beriladi. So‘nggi tahlilga tortilgan “Mix” hikoyasida esa arzimagan narsadan katta muammolar yasab atrofidagilar hayotini tanazzulga yuz tutishiga sabab bo‘ladigan kimsalar obrazi badiiy detal mix yordamida qiyoslab tasvirlanadi. Ijodkor ham o‘z o‘rnida hikoyalarida badiiy portret va detaldan unumli foydalana olgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yo‘ldoshev A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. – T.: Yangi asr avlodi, 2021.
2. Yo’ldoshev A. “Puankare“ Jahon adabiyoti” jurnali. 2012, 9-son
3. Normatov U. Kichik mo‘jizalar // O‘zAS. – 1982-yil 14-may.
4. Parandovskiy Y. So‘z kimyosi. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2022. – 364.b
5. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004.
6. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 548 б.
7. Каримов Ҳ. Истиқлол даври адабиёти. –T.: Yangi nashr, 2010. – 364 б.
8. Қўшжонов М. Моҳият ва бадият. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 1977. – 232 б.
9. Назаров Б. Бу сеҳрли дунё. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1980.
10. Yo‘ldoshev A. Alvido go‘zallik. – Toshkent.: O‘zbekiston. 2011. – 362 b.
11. Yo‘ldoshev A. Sahrodagi muhabbat. – Toshkent.: Cho‘lpon. 2019. – 176 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

FIKRLASHNING KELIB CHIQISHI VA UNING INSON HAYOTIDA TUTGAN AHAMIYATI. FIKRLASH TURLARI.

Suyunova Nargiza Abdurashid qizi
Toshkent davlat texnika universiteti doktoranti
nargizasuyunova55@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola fikrlash va uning turlarini inson hayotida tutgan o‘rni va ahamiyatini o‘rganishga va rivojlantirishga qaratilgan. Fikrning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi asoslar bilan keltirilgan. Fikrlash turlari, ularning xossalari va hayotiy tatbiqlari aniq misollar bilan yoritib berilgan. Nutq, tafakkur va ongning fikrlash tizimidan iborat ekanligi va ularning uzviy bog‘liqligi keltirilgan. Tanqidiy, deduktiv va induktiv fikrlash va shu kabi fikrlash turlarini rivojlantiruvchi faoliyatlar va kundalik hayotimizdagi ularning ko‘rinshlariga izoh berilgan.

Kalit so‘lar: Tafakkur, moddiy olam, aqliy faoliyat, nutq, deduktiv, tanqidiy, induktiv, analitik fikrlash, tergov tafakkuri, sintetik, konvergent, sinvergent, kontseptual, metaforik fikrlash, supraordinatsiya, infraordination, izordinatsiya.

ПРОИСХОЖДЕНИЕ МЫШЛЕНИЯ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА. ТИПЫ МЫШЛЕНИЯ

Аннотация: Целью данной статьи является изучение и разработка роли и значения мышления и его видов в жизни человека. Излагается история возникновения и развития мышления с основами. На конкретных примерах иллюстрируются виды мышления, их свойства и практическое применение. Показывается, что речь, мышление и сознание состоят из мыслительной системы и их неразрывная связь. Объясняется критическое, дедуктивное и индуктивное мышление и виды деятельности, развивающие подобные виды мышления, и их проявления в нашей повседневной жизни.

Ключевые слова: Мысль, материальный мир, умственная деятельность, речь, дедуктивное, критическое, индуктивное, аналитическое мышление, исследовательское мышление, синтетическое, конвергентное, синергетическое, концептуальное, метафорическое мышление, супраординация, инфраординация, изординация

THE ORIGIN OF THINKING AND ITS IMPORTANCE IN HUMAN LIFE. TYPES OF THINKING

Annotation: This article is aimed at studying and developing the role and importance of thinking in human life and its types. The history of the emergence and development of thought

is presented with the basics. The types of thinking, their properties and practical applications are illustrated with specific examples. The fact that speech, thinking and consciousness consist of a thinking system and their inextricable connection are presented. Critical, deductive and inductive thinking and activities that develop similar types of thinking and their manifestations in our everyday life are explained.

Key words: Thought, material world, mental activity, speech, deductive, critical, inductive, analytical thinking, investigative thinking, synthetic, convergent, synergetic, conceptual, metaphorical thinking, supraordination, infraordination, isordina- tion.

KIRISH

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar olib borilmoqda. Bularning natijasida yangi texnika va texnologiyalar yaratish davri hukm surmoqda. Dastlab har bir ixtiro va yangiliklar esa albatta fikrning natijasi bo‘lib xizmat qilgan.

Fikrlash barcha odamlarda keng tarqalgan bo‘lib, har bir shaxs o‘ziga xos bilim va ko‘nikmalarga ega. Boshqacha qilib aytganda, har bir inson turli xil fikrlash jarayonlarini qabul qilishi va rivojlanishi mumkin.

Fikrlash aniq va chegaralangan faoliyat sifatida talqin qilinsa-da, bu jarayon oddiy emas. Boshqacha qilib aytganda, fikrlash va fikrlash jarayonlarini amalga oshirishning muayyan usuli yo‘q. Operatsion fikrning bir nechta o‘ziga xos usullari aniqlangan. Shu sababli, bugungi kunda odamlar turli xil fikrlash uslublarini taqdim etishi mumkin degan fikr qo‘llab-quvvatlanmoqda. Muayyan bilim faoliyati fikrlashning bir yoki boshqa turlaridan ko‘proq foyda keltirishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tafakkur moddiy olam qonuniyatlarini, tabiat va ijtimoiy-tarixiy hayotdagi sabab-oqibat munosabatlarini, inson ruhiyati qonuniyatlarini tushunish imkonini beradi. Aqliy faoliyat natijalarini qo‘llash sohasi bo‘lgan amaliyot fikrlash faoliyatining manbai bo‘lib xizmat qiladi. Fikrlash aqliy faoliyat sifatida miyaning funktsiyasidir. Oddiy ruhiy jarayonlar, masalan, sezgilar uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan yuqori darajadagi miya jarayonlari fikrlashning fiziologik asosini tashkil qiladi. Ammo hozirgi vaqtda fikrlash jarayonini ta’minlaydigan barcha fiziologik tuzilmalarning o‘zaro ta'sirining tartibi va ahamiyati haqida aniq tasavvur yo‘q.

Bu yo‘nalishda jahon olimlari tadqiqotlar o‘tkazgan bo‘lib ulardan Jean Piaget, The Origins of Intelligence in Children. New York: International Universities Press. (1952); Biology and Knowledge. Chicago: University of Chicago Press. (1971) kabi manbalarida bolalarda mantiqiy fikrlashning rivojlanish bosqichlarini yoritib bergan. Robert Ennis Tanqidiy fikrlash nazariyasi asoschilardan biri, A Logical Basis for Measuring Critical Thinking Skills. (1985) Educational Leadership; Critical Thinking: A Streamlined Conception. (1991). Teaching Philosophy va Benjamin Bloom (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The

Classification of Educational Goals. Bilim darajalari taksonomiyasi orqali fikrlashni baholash yo‘nalishida tadqiqotlar o‘tkazgan.

MUHOKAMA

Miyaning old qismlari fikrlashda alohida ahamiyatga ega ekanligi shubhasiz. Bundan tashqari, fikrlashning gnostik funktsiyasini ta’minlaydigan miya yarim korteksining sohasi, shuningdek, fikrlash jarayonini ta'minlaydigan miyaning nutq markazlari ham katta ahamiyatga ega. Mantiqiy xotiraning bir turi ham aqliy jarayondir. Demak, u eslash xususiyatiga ham ega bo‘lib, talabalar o‘quv jarayonida oliy va o‘rta maktab o‘qituvchilari tomonidan tushuntirilgan teorema, qonun va qoidalar, kompleks xossalarni ayrim holatlarga o‘tkazishda deduksiya usulidan foydalanib fikr yuritadilar va ularni asoslab beradilar.

Psixologiyada nutq fikrlash faoliyati vositasi sifatida qaraladi. Odatda nutq fikrlash jarayonida hukm, xulosa va tushunchalar shaklida ifodalanadi. Shuning uchun hukm, xulosa va tushunchalar tafakkurning o‘ziga xos shakllari deb ataladi. Jahon psixologlarining fikricha, yuqorida tahlil qilingan tafakkur sifatlari ularning asosiy belgilari bilan uzviy bog‘liqdir. Tafakkur odatda nazariy va amaliy fikrlashga bo‘linadi. Nazariy tafakkurda konseptual va obrazli tafakkur, amaliy tafakkurda esa ko‘rgazmali-obrazli va ko‘rgazmali-harakatli tafakkur farqlanadi.

Tafakkurning asosiy va eng muhim xususiyati moddiy voqelikning turli tomonlarini ajratish va mustaqil ravishda yangi umumlashmalarni yaratish qobiliyatidir. Odam oddiy narsalar haqida fikr yuritar ekan, bu ularning tashqi belgilari bilan cheklanmaydi, balki hodisaning mohiyatini ochishga intiladi, oddiy hayot haqiqatidan umumiy qonuniyat yaratishga harakat qiladi.

Shubhasiz, inson ongida hali o‘rganilmagan, to‘liq foydalanilmagan zaxira va imkoniyatlar mavjud. Tafakkurni o‘rganish orqali biz ana shu zahiralarni to`liq ochish, fan va texnika taraqqiyotini faollashtirisha olamiz. Chunki har qanday kashfiyot, yangilik, taraqqiyot inson aql-zakovati mahsulidir. Binobarin, ilm-fan va texnika taraqqiyoti ko‘p jihatdan gumanitar fanlarning rivojlanishiga bog‘liq.

Narsa va hodisalar haqida nazariy fikr bildirish tarixiy taraqqiyotning biroz kechroq davriga to‘g‘ri keladi. Ilm-fanning yer yuzida paydo bo‘lganligi haqida bizgacha yetib kelgan ma’lumotlar bu fikrimizga dalil bo‘la oladi. Qadimgi avlodlar va ajdodlarimizda yer maydonini qadamlar va ko‘z bilan o‘lchash bo‘yicha amaliy bilimlarning to‘planishi natijasida geometriya fani ochilgan. Odamlarning barmoq sanashlari hayot talabini qondira olmaganidan keyin narsa va hodisalarni tasvirlash, shartli belgilarni qoldirish natijasida tarix fani vujudga keldi. Shuning uchun ham insonning amaliy va nazariy faoliyati bir-biri bilan bog'liq bo‘lib, u yoki bu narsani doimo talab qiladi.

NATIJALAR

Genetik kelib chiqishi nuqtai nazaridan amaliy faoliyat birlamchi sanalib, obraz va fikrlarni aks ettiruvchi nazariy faoliyat esa amaliy faoliyat ma’lum bir rivojlanish darajasiga erishgandan so‘ng ajratilgan. Bu jarayon bir necha o‘n minglab yo‘llar bilan sodir bo‘lgan. Xulosa qilib

aytish mumkinki, muayyan ijtimoiy muhitda yashovchi kishilarning ehtiyojlari, xulq-atvor motivlari, qiziqishlari, intilishlari, moyilliklari, aqliy qobiliyatlari va xatto faoliyati ham har xil. Xuddi shu sababga ko‘ra, ularning tafakkuri turli vaziyatlarda turlicha shakllanadi va namoyon bo‘ladi. Oldin ta’kidlaganimizdek, inson bilish, amaliy va nazariy vazifalarni hal etish, nutq orqali bildirilgan boshqa odamlarning fikrlarini tinglash, muloqotga kirishish, ularning fikrini tushunish jarayoni haqida fikr yuritildi.

Umuman olganda, fikrlashning har xil turlarini bilish va rivojlantirishni o‘rganish muhimdir. Bu haqiqat insonning bilim qobiliyatlaridan to‘liq foydalanish va turli muammolar uchun turli qobiliyatlarni rivojlantirishga imkon beradi.

Fikrlash turlari

1. Deduktiv fikrlash - bu bir qator fikrlardan xulosa chiqarishga imkon beradigan fikrlash turi. Boshqacha aytganda, bu “umumiy” dan boshlanib, “o‘ziga xos” narsaga erishish uchun boshlangan aqliy jarayondir.

Fikrlashning bunday turi narsalarning sababi va kelib chiqishiga qaratilgan. Bu xulosalar va mumkin bo‘lgan yechimlarni keltirib chiqarish uchun muammo tomonlarini batafsil tahlil qilishni talab qiladi. Kundalik ravishda keng qo‘llaniladigan fikrlash jarayoni bo‘lib, odamlar xulosa chiqarish uchun bunday fikrlash turini ishga solishadi.

2. Tanqidiy fikrlash - bu narsalarni ifodalashga harakat qiladigan bilimlarni tashkil etish usulini tahlil qilish, tushunish va baholashga asoslangan aqliy jarayon.

U yuqori amaliy fikr sifatida tasniflanadi. Bu orqali bilim eng samarali va asosli xulosaga kelishda ishlatiladi. Tanqidiy fikrlash shu tariqa fikrlarni konkret xulosalarga olib kelish uchun tahliliy baholaydi. Ushbu xulosalar shaxsning axloqi, qadriyatlari va shaxsiy prinsiplariga asoslanadi. Shunday qilib, ushbu tafakkur turi orqali bilish qobiliyati shaxsning shaxsiy xususiyatlari bilan birlashadi. Demak, u nafaqat tafakkur tarzini, balki mavjudotni ham belgilaydi.

3. Induktiv fikrlash qarama-qarshi fikrlash usulini belgilaydi. Shunday qilib, fikr yuritishning bu usuli umumiy tushuncha haqida izlash bilan tavsiflanadi.

Keng ko‘lamli xulosalar olish uchun o‘ziga xos qism. Ularni o‘xshash holatga aylantirish uchun uzoq vaziyatlarni qidiradi va shu bilan vaziyatlarni umumlashtiradi. Shu sababli induktiv fikrlashning maqsadi dalillarning ehtimolligini o‘lchashga imkon beradigan dalillarni o‘rganishdan, shuningdek kuchli induktiv dalillarni yaratish qoidalaridan iborat.

4. Analitik fikrlash axborotni tahlil qilish, buzish, ajratishdan iborat. Bu tartibli bo‘lish bilan tavsiflanadi, ya’ni ta’qib qilinadigan ratsional ketma-ketlikni taqdim etadi. Shu tarzda, analitik fikrlashga asoslangan muammolarni yechish umumiylikdan boshlanadi va uni to‘liq anglash uchun uning o‘ziga xos xususiyatlarini buzadi. U har doim javob topishga qaratilgan, shuning uchun u o‘ta hal qiluvchi fikrlash turlaridan biridir.

5. Tergov tafakkuri narsalarni tekshirishga qaratilgan. U buni puxta, qiziqish va qat’iyat bilan bajaradi.

Shu ma’noda, ushbu turdagi mulohazalar o‘zaro munosabatni ham, bilim jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi. Tergov tafakkuri tafakkur tarzini talab qiladi. Unda savollar va yechimlar doimiy ravishda ishlab chiqiladi. Bu ijodkorlik va tahlil o‘rtasidagi aralashdan iborat. Ya’ni, elementlarni baholash va tekshirishning bir qismi. Ammo uning maqsadi imtihonning o‘zi bilan tugamaydi, balki tekshirilayotgan jihatlar asosida yangi savollar va gipotezalarni shakllantirishni talab qiladi. Nomidan ko‘rinib turibdiki, ushbu fikrlash turi tadqiqot va rivojlanish va turning evolyutsiyasi uchun asosiy hisoblanadi.

6. Tizimli fikrlash - bu turli xil quyi tizimlar yoki o‘zaro bog‘liq omillardan tashkil topgan tizimda yuzaga keladigan fikrlash turi. U narsalarning to‘liqroq va sodda ko‘rinishini tushunishga qaratilgan yuqori darajada tuzilgan fikrlash turidan iborat.

Narsalarning qanday ishlashini tushunishga va ularning xususiyatlarini keltirib chiqaradigan muammolarni hal qilishga harakat qiladi. Bugungi kungacha uchta asosiy yo‘nalishda: fizika, antropologiya va ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishlarda keng qo‘llanilgan murakkab fikr hisoblanadi.

7. Ijodiy fikrlash yaratish qobiliyatiga ega bo‘lgan bilim jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Bu haqiqat yangi bo‘lgan yoki fikrlash orqali qolganlardan farq qiladigan elementlarning rivojlanishiga turtki beradi. Shunday qilib, ijodiy fikrlash o‘ziga xosligi, egiluvchanligi va ravonligi bilan ajralib turadigan bilimlarni egallash deb ta’riflanishi mumkin.

U bugungi kunda eng qimmatli kognitiv strategiyalardan biri hisoblanadi, chunki u muammolarni yangicha shakllantirish, tuzish va hal qilishga imkon beradi. Ushbu turdagi fikrlashni rivojlantirish oson emas, shuning uchun unga erishishga imkon beradigan ba’zi texnikalar mavjud. Eng asosiylari, morfologik tahlil, o‘xshashliklar, jonlantirilgan g‘oyalar, rang ilhomi, hamdardlik, 635 usuli va Skamper texnikasi.

8. Sintetik fikrlash narsalarni tashkil etuvchi turli elementlarning tahlili bilan tavsiflanadi. Uning asosiy maqsadi ma’lum bir mavzudagi g‘oyalarni kamaytirishdir. Bu shaxsiy o‘rganish uchun muhim bo‘lgan fikrlash turlaridan biridir. Sintez tafakkuri elementlarni xotirada saqlashga imkon beradi, chunki ular umumlashtiruvchi jarayonga duch keladi.

9. So‘roqli fikrlash savollarga va muhim jihatlarni so‘roq qilishga asoslanadi. Mavjud mavzuning o‘ziga xos xususiyatlarini asta-sekin bilish uchun savoldan foydalanadi. Shu tarzda, savolli fikrlash savollardan foydalanish natijasida paydo bo‘ladigan fikrlash tarzini belgilaydi. Ushbu mulohazada hech qachon kamchilik bo‘lmaydi, chunki aynan shu element o‘z fikrlashini rivojlantirishga va ma’lumot olishga imkon beradi.

Ko‘tarilgan savollar orqali yakuniy xulosa chiqarish uchun ma’lumotlar olinadi. Fikrlashning bunday turi asosan eng muhim element, uchinchi shaxslar orqali olinishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarga tegishli mavzular bilan shug‘ullanish uchun ishlatiladi.

10. Turli fikrlash - ikki tomonlama fikrlash, shuningdek, lateral fikrlash deb ham ataladi. Bu doimo muhokama qiladigan, shubha qiladigan va alternativalarni izlaydigan fikrlashning bir turi. Bu mantiqiy fikrlashning antitezisidir. Nomidan ko‘rinib turibdiki, uning asosiy maqsadi ilgari o‘rnatilgan yechimlar yoki elementlardan ajralib chiqishga asoslangan.

11. Konvergent fikrlash o‘z navbatida, divergent tafakkurga qarama-qarshi fikr yuritish turidir. Darhaqiqat, divergent fikrlash miyaning o‘ng yarim sharidagi asabiy jarayonlar tomonidan boshqarilishi uchun qo‘yilgan bo‘lsa, konvergent fikrlash chap yarim shardagi jarayonlar tomonidan boshqariladi.

12. Sinvergent fikrlash yaqinda paydo bo‘lgan va Maykl Gelb tomonidan o‘ylab topilgan divergent va konvergent fikrlash o‘rtasidagi kombinatsiyani anglatadi. Bu konvergent tafakkurning batafsil va baholash tomonlarini o‘z ichiga olgan va ularni divergent tafakkur bilan bog‘liq bo‘lgan muqobil va yangi jarayonlar bilan bog‘laydigan fikrlash uslubidir. Ushbu mulohazani rivojlantirish, ijodni tahlil bilan bog‘lashga imkon beradi.

13. Kontseptual fikrlash muammolarni aks ettirish va o‘z-o‘zini baholashni rivojlantirishni ichiga oladi. Bu ijodiy fikrlash bilan chambarchas bog‘liq va uning asosiy maqsadi aniq yechimlarni topishdir. Biroq, xilma-xil fikrlashdan farqli o‘laroq, ushbu fikrlash turi ilgari mavjud bo‘lgan uyushmalarni ko‘rib chiqishga qaratilgan. Kontseptual fikrlash mavhumlik va aks ettirishni nazarda tutadi va bu turli ilmiy, kundalik va professional sohalarda juda muhimdir. Xuddi shunday, u to‘rtta asosiy intellektual operatsiyalarning rivojlanishi bilan tavsiflanadi:

- Supraordinatsiya: aniq tushunchalarni ular tarkibiga kiritilgan kengroq tushunchalar bilan bog‘lashdan iborat.
- Infraordination: kengroq va umumlashtirilgan tushunchalarga kiritilgan aniq tushunchalarni o‘zaro bog‘lashdan iborat.
- Izordinatsiya: ikkita tushunchaning ma’lum bir munosabati bilan shug‘ullanadi va boshqalar bilan munosabatlar orqali tushunchalarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.
- Istisno: boshqa elementlar bilan farq qilishi yoki bir xil emasligi bilan ajralib turadigan elementlarni aniqlashdan iborat.

14. Metaforik fikrlash yangi aloqalarni o‘rnatishga asoslangan. Bu fikrlashning juda ijodiy turi, ammo u yangi elementlarni yaratish yoki olishga emas, balki mavjud elementlar o‘rtasidagi yangi aloqalarga e’tibor beradi.

Fikrlashning ushbu turi bilan hikoyalar yaratish, tasavvurni rivojlantirish va ushbu elementlar orqali ba’zi jihatlarni baham ko‘radigan yaxshi farqlangan jihatlar o‘rtasida yangi aloqalarni yaratish mumkin.

15. An’anaviy tafakkur mantiqiy jarayonlardan foydalanish bilan tavsiflanadi. U yechimga e’tibor qaratadi va uni hal qilish uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan elementlarni topish uchun o‘xshash real vaziyatlarni izlashga qaratilgan. Odatda qat’iy va oldindan ishlab chiqilgan sxemalar orqali ishlab chiqiladi. U vertikal fikrlash asoslaridan birini tashkil etadi, bunda mantiq bir yo‘nalishli rolga ega bo‘ladi va chiziqli hamda izchil yo‘lni rivojlantiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, fikrlash - bu inson faoliyatini, uning o‘zligini kuchi, qudratini, o‘zligini tashkil qiluvchi ma’naviy-insoniy sifatdir. Fikrlash rivoji ijtimoiy-iqtisodiy

taraqqiyotni asosiy xarakatlantiruvchi kuch bo‘lganligi uchun fikr rivojining tarixi inson munosabatini belgilovchi asosiy ijtimoiy tamoyillar tarixiga bog’liq bo‘libgan. Inson yaratilishining ilk davrlarida fikr tabiatdagi jarayonlarini anglash ulardan yashash uchun foydalanish va o‘zini muhofaza qilish shaklida bo‘lgan. Shu tariqa inson fikri rivojlanib inson mehnatining boshqa moddiy-ma’naviy ko’rinishlari vujudga kela boshlagan. Fikrning quvvati - uning ilmiyligi, chuqurligi, fikrning ziynati, ezgu niyat, maqsadga bag‘ishlanganligi, kengligi, sofligi, aniq sohaga yo’nalganligidir. Fikr tarbiyasi haqida buyuk pedagog A.Avloniy “Fikr tarbiyasida eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinib, kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir” deydi. Fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog’liqdir. “Dars ila ikkisi bir biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga joylashgan. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar” deydi Prezidentimiz I.Karimov “Tafakkur” jurnalining bosh muharriri bilan bo’lgan suhbatda. Demak, inson o‘z hikayoti va faoliyatini mazmunli o‘tkazish uchun avvalo o‘zini o‘rab turgan borliqni bilishi, yuksak aql va tajriba egasi bo‘lishi lozim. Chunki inson aqli va uning hayotida muhim o‘rin tutishi, aql-idrok tufayligina inson donolik, teran fikr, rostgo‘ylik, to‘g‘rilik, uzoqni ko’ra bilish, nafsning kuyiga tushmaslik kabi xususiyatlarni amalga oshirishi mumkin. Xalqimizning “Aql insonning ko‘rki”, “Aql suvdan tiniq, oynaday ravshan” kabi naqllar bejiz aytilmagan. Shuning uchun ham aql inson uchun g‘oyat oliy ne’matdir. Qomusiy olim Imom al-Buxoriy ilm o‘rganishni yuqori darajaga qo‘yib, o‘z asarlarida quyidagi fikrlarni ilgari suradilar: “Kishi ilm bobida nafaqat o‘zidan yuqori yoki tengdoshlaridan, balki o‘zidan past bo‘lganlardan hadis olmaguncha, yetuk muhaddis bo‘la olmaydi”. Imom Buxoriyning ushbu fikri o‘quv faoliyatining ijobiy motivlari ustoz-muallim tomonidan shakllantirilishiga urg‘u beradi. Bugungi kunda ta’lim sohasida misli ko‘rilmagan yangiliklar pedagog xodimlarni yanada jadal ishlashga da’vat etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘QUVCHILARDA FIKRLASH JARAYONI Mardonov Erkin Xasanovich.
2. Sh.Mirziyoyevning “Mamlakatimizda ta`lim–tarbiya tizimini takomillashtirish “Ilm –fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari bo`yicha videoselektor yig`ilishi” dagi nutqi 30 –oktabr 2020- yil.
3. G‘afforova Mustaqil fikrlashga o‘rgatish bugungi kunda ta’limning asosiy vazifalaridan biridir. Boshlang‘ich ta’lim jurnali. 2012 y. 9 –son
4. Quronov M. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy pedagogik asoslar: Ped. Fan. dokt. Diss-T: 1998
5. O’quvchilarning mustaqil fikrlashini tarkib toptirishning pedagogik ahamiyati. Xalqaro konferensiya. G.Novosibirsk 2021 y.
6. Suyunova N.A “Advantages of logical-systemed teaching and some ways for improving it” ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ международный научный электронный журнал. ISSN: 3030-3680

ЧАСТЬ-21 ТОМ-4 Май - 2024 год. 77-80 стр

7. Suyunova N.A “Ta’limda mantiq tushunchasi va o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish” Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў Илимий-методикалық журнал 2024 4/4-сан ISSN 2181-7138. 80-83 bet

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

O‘ZBEK REKLAMA SHIORLARINING O‘ZIGA XOSLIGI VA ULARNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Ilxamov Boxodir Baxtiyorovich
Toshkent davlat O‘zbek Tili va Adabiyoti universiteti
2-bosqich tayanch doktoranti
E-pochta manzili: bilhomov@inbox.ru

Annotatsiya: Dunyo bo‘ylab reklama televideniya,radio,internet va bannerlarda joylashtirilar ekan, ularning eng asosiy quroli shiorlar bo‘ladi. Shiorlarning iste’molchilarga salbiy va ijobiy ta’sir qilinishi ko‘p jihatdan tarjimalarga ham bog‘liq hisoblanadi. Ularning tarjimalarida xalq va millatnig tarixi,mentaliteti,urf-odatlari,madaniyati va shularga o‘xshash omillarni tilshunoslik nuqtai nazaridan kelib chiqib yaratish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan muammolardan biridir

Kalit so‘zlar: Milliy til normasi, frazeologiya, ijtimoiy qadriyatlar, madaniy xotira, milliy qadriyatlar va jamiyat ongiga ta’sir, antropotsentrik yondashuv, lingvistik va psixologik xususiyatlar

CHARACTERISTICS OF UZBEKISTAN ADVERTISING SLOGANS AND THEIR SOCIAL SIGNIFICANCE

Annotation: As advertising is placed on television, radio, the Internet and banners around the world, slogans are their main tool. The negative and positive impact of slogans on consumers largely depends on translations. Creating their translations from a linguistic perspective, taking into account the history, mentality, customs, culture and similar factors of the people and nation, is one of the problems facing modern linguistics.Keywords: Slogans, use of slogans in advertising, historical foundations of slogans, early types of advertising, types of advertising and slogans in countries, advertising as a tool of thought for society, basic errors in translation, examples of slogan translations

Keywords: Национальная языковая норма, фразеология, социальные ценности, культурная память, национальные ценности и влияние на общественное сознание, антропоцентрический подход, лингвистические и психологические характеристики

Kirish.O‘zbekiston hududiga zamonaviy reklamalar ko‘rinishidagi ilk e’lonlar XX asrning boshlarida kirib kela boshlagan. Dastlabki reklamalar ko‘chalardagi peshlavha, devorlar, simyog‘ochlar va shunga o‘xshash odamlar gavjum bo‘ladigan yerlarga o‘rnatilgan. Zamonaviy

texnologiyalarning kirib kelishi bilan,reklamalar ko‘lami oshib bordi va ulardagi so‘zlarning ham qiymati yuqorilay boshladi. Chunki reklamalardagi shiorlar orqali bevosita inson ong ostiga ta’sir qilinishi barcha uchun ma’lum bo‘la boshladi.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Yevropa va A.Q.SH olimlari tomonidan reklamar tarjimasi muammolari bo‘yicha ilmiy ishlar,maqolalar,tezislar e’lon qila boshlandi. O‘zbek olimlari ham bu sohada talay ishlar amalga oshirishgan.A’zamjon Jo‘rayevning ta’kidlashicha, o‘zbek reklama shiorlari, boshqa tillardagi reklamalardan farqli o‘laroq, nafaqat mahsulotni targ‘ib qilish, balki madaniy xotira, milliy qadriyatlar va jamiyat ongiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida tuziladi. Shiorlar orqali reklama muallifi iste’molchining shaxsiy tajribasi, tarixiy-madaniy xotirasi, milliy dunyoqarashini inobatga oladi. Bu jihat ularni kommunikativ va madaniy jihatdan boy qiladi.

Reklama shiorlari har qanday marketing strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular iste’molchilarga mahsulot yoki xizmatning asosiy afzalliklarini qisqacha va esda qolarli tarzda yetkazish uchun xizmat qiladi. O‘zbek reklama shiorlari o‘ziga xos madaniy, lingvistik va psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni xorijiy reklamalar bilan qiyosiy tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Ushbu maqolada xorijiy nashrlarda keltirilgan fikrlar asosida o‘zbek reklama shiorlarining lingvistik va madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi.Kosimbetova va Suyarova o‘zbek reklama shiorlarining samaradorligi, tuzilishi va lingvistik birliklari asosida tahlil qilinishini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, qisqa, ritmik va esda qolarli shiorlar ko‘proq e’tiborni jalb qiladi. Mualliflar mnemonik vositalarning – ritm, aliteratsiya va assonansiyaning – ta’siri haqida shunday yozadilar: “Mnemonik vositalar (qo‘shiq, ritm, aliteratsiya va assonansiya) shiorni yodda saqlashni osonlashtiradi”.

Makhamadmusaeva stilistik vositalarning – metafora, inversiya, parallelizm va boshqa uslublarning – reklamadagi ahamiyatiga urg‘u beradi. Uning fikricha, “metaforalar reklama shiorlariga hissiy yuk beradi, aliteratsiya va takrorlash esa yodda saqlanishiga yordam beradi”. Bundan tashqari, o‘zbek reklama shiorlarida kollektivlik, oilaviy qadriyatlar va milliylik kabi madaniy omillar kuchli aks etadi.Khidirova va Ismatova reklama shiorlarini tarjima qilishda faqat til jihati emas, balki madaniy va ijtimoiy omillarni ham inobatga olish zarurligini ta’kidlaydi. Ular yozadilar: “Tarjima – bu asl matnni qayta yaratish va talqin qilish san’atidir. Tarjimon chuqur filologik bilimga ega bo‘lishi bilan birga, yuqori ijodiylikka ham ega bo‘lishi kerak”. Nematov esa shiorlarni tarjima qilishda auditoriyaning madaniy qadriyatlari va hissiyati alohida e’tibor bilan ko‘rib chiqilishi kerakligini qayd etadi.

1. *“Shedroye Leto – Pazanda bekalar siri” → “Oshpazlarning siri”*
2. *“Hot Lunch – ta’mi o‘zgacha mazali” → “Hot Lunch – betakror mazali”*
3. *“Makiz – muhabbat ila tayyorlangan” → “Sevgi bilan tayyorlangan”*
4. *“Artel – xalq tanlovi” → “Millat tanlovi”*
5. *“Artel – doimo birga” → “Doimo birga”*
6. *“Pantene Prove – Fantastic Smoothness” → “Fantastik yumshoqlik”*

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

O‘zbek reklama shiorlari asosan madaniy va kommunikativ jihatdan boy bo‘lib, milliy til normasi, frazeologiya va ijtimoiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Ular ko‘p hollarda oddiy savdodan ko‘ra, ijtimoiy-hissiy ta’sirga urg‘u beradi; auditoriyani nafaqat xarid qilishga, balki milliy tushunchalar orqali e’tiborga chorlaydi. Shior tili antropotsentrik — ya’ni, u shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lib, modellashtirilgan auditoriyani nazarda tutadi. Bu jihat uni global reklamalardan ajratib turadi.O‘zbek reklama shiorlari, boshqa tillardagi reklamalardan farqli o‘laroq, nafaqat mahsulotni targ‘ib qilish, balki madaniy xotira, milliy qadriyatlar va jamiyat ongiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida tuziladi. Shiorlar orqali reklama muallifi iste’molchining shaxsiy tajribasi, tarixiy-madaniy xotirasi, milliy dunyoqarashini inobatga oladi. Bu jihat ularni kommunikativ va madaniy jihatdan boy qiladi.Masalan, “*Ona mehri bilan tayyorlangan mahsulot*!” shiori madaniy va ijtimoiy qadriyatga tayanadi. O‘zbek jamiyatida ona timsoli iliqlik, halollik va ishonchlilik bilan bog‘liq. Shior bu obraz orqali mahsulotga nisbatan emotsional ishonch uyg‘otadi. Bu shior frazeologik qurilishga ega. “Ona mehri” iborasi zamirida mehribonlik, g‘amxo‘rlik va tabiiylik tushunchasi yotadi. Bu esa reklama iste’molchida mahsulotni iste’mol qilishdan oldin emotsional asos yaratadi.Yana bir misol: “*Non — mo‘tabar, biznikisi esa a’losi*!” shiori madaniy jihatdan nonning muqaddasligi haqidagi xalq e’tiqodiga tayanadi. O‘zbek xalq orasida non “yerga tashlanmaydigan”, “oldindan pishiriladigan” timsol bo‘lib, reklama buni sog‘liq bilan bog‘lab, qadimiy qadriyatga zamonaviy konnotatsiya yuklaydi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results)

“Rivojlangan til sohibi bo‘lgan insonning ulkan yutug‘i shundaki, uning nazdida dunyo xuddi ikki barobar kattalashgandek bo‘ladi. Til yordamida u o‘zining shaxsiy tajribasiga kirmaydigan va bevosita qabul qilinmaydigan predmetlardan ham foydalana oladi. Inson ikkinchi dunyoga ega bo‘ladiki, tilda bilvosita aks etuvchi predmetlar, so‘z bilan ifodalanadigan obrazlar, ob’ektlar, munosabatlar va xususiyatlar dunyosi ham kiradi. Inson bu obrazlarni ular amalda bor-yo‘qligidan qat’iy nazar, o‘z xohishiga qarab nomlashi, gapirishi, demakki, mana shu ikkinchi dunyoni boshqarishi mumkin”, deb ta’kidlaydi[112].Reklama matnida til imkoniyatlaridan foydalanilar ekan, tilning psixologik tabiati va emotsionalligiga ko‘proq e’tibor qaratiladi. O‘ta zamonaviylikning targ‘ib qilinishi insoniylikdan va o‘z-o‘zini anglash qoidalaridan uzoqlashishga olib kelishi mumkin.

Reklama mahsuloti	Salbiy ta’sir	Tavsiya
“Kango” rezina saqichlari	Orqa fonda va bolalar aytgan qo‘shiq yo‘nalishi va bolalarni sho‘xlikka undovchi “Kango” qani?” jumlasi	Dadasi ishga ketayotganda: “Qizim, nima olib kelay?” – deb so‘rasa, bola hursand bo‘lib: “Kango!!!” deb otasini kuzatib, -

[112] Gumboldt V. fon. (1984). Izbrannыe trudы po yazыkoznaniyu. Moskva: Izdatelstvo Progress.

		“Biz sizni kutamiz!!!” degan so‘zlarni aytsa, milliy tarbiyaviy ahamiyati oshadi.
“Snikers” shokoladi	“Snikers”ni to‘xtatma!” jumlasi o‘zbek tili nutqiy muloqotiga xos emas va o‘smir yoshdagilarning kiyinishi, raqs tushish madaniyati milliy mentalitetimizdan uzoq.	“Snikers” boshqacha-da!” yoki “Snikers”dan quvvat ol!” tarzida berish mumkin. Mahsulotning tarkibi, foydali tomonlari va to‘yimliligini ko‘rsatib bersa, yaxshi qabul qilinadi.
“Okeyk” shirinligi	Xotin erini kalla bilan ag‘daradi.	Turmush o‘rtog‘i ishdan kelishiga shirinlikni taqdim qilib, “Okeyk” charchog‘ingizni yozadi” – deyishi mumkin.
“Dav” sovuni	Ayollarning badani ochiq holatda ko‘rsatiladi.	Qo‘l yoki yuzni yuvib, “Dav” bilan yoqimlisiz!” – degan ma’qul. Mahsulotning tarkibi, foydali tomonlari, narxi va afzalliklari yoritib berilsa ham, yaxshi qabul qilinadi.
“Profi-education ” o‘quv markazi	Yoshlarni o‘qishga emas, “Spark” avtomobiliga qiziqishini oshiryapti.	O‘qish imkoniyatlari va bolalarning kelajakdagi orzu- umidiga yo‘l ko‘rsatuvchi reklama roligi tayyorlansa, yaxshiroq va natijaliroq chiqadi.
“Trimol” dorisi	“Taq-taqdan ho‘-ho‘gacha” sloganining o‘zi tushunarsiz va izohtalab.	cha” sloganining o‘zi tushunarsiz va izohtalab. Mahsulotning tarkibi, foydali tomonlari, narxi va afzalliklariyoritib berilsa ham, yaxshi qabul qilinadi.
“Inson bo‘l” reklamasi	Hayvonlarni haqoratlash yoki insonga tenglashtirishga o‘xshatib qo‘yilgan.	“Hayvonot olamini asraylik” jumlasi ishlatilsa, tushunarli bo‘lardi.
Coca cola mahsuloti	Inson ismlari yozib qo‘yiladi	Diniy ismlar yozilmasligi yaxshi bo‘lar edi

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

O‘zbek tilidagi reklama shiorlari ko‘pincha xalq maqollari, nasihatlar, diniy-axloqiy qadriyatlar va urf-odatlarga tayangan holda yaratilishi ularning madaniy ildizlarga chuqur bog‘langanligini ko‘rsatadi.O‘zbek reklama shiorlari iste'molchiga mahsulot yoki xizmat haqidagi axborotni yetkazish bilan birga, uni muayyan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlariga yo‘naltiradi. Misol tariqasida, “Halollik – eng katta boylik!”, “Bolam sog‘ligi – mening boyligim” kabi shiorlar reklama ob’ekti bilan birga axloqiy-ijtimoiy tushunchalarni ham ilgari suradi. Bu esa reklama vositasining oddiy marketing instrumenti emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi vosita sifatidagi rolini ko‘rsatadi.Bob davomida o‘zbek reklama shiorlari boshqa madaniy muhitlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinmasligi, balki ularni moslashtirishda madaniy kodlarni hisobga olish zarurligi qayd etildi. Zero, reklama shiorlarining ta’sirchanligi ularning nafaqat til, balki madaniyat bilan uyg‘unligiga ham bog‘liq. Shunday ekan, o‘zbek reklama shiorlari madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida nafaqat iqtisodiy, balki sotsiokulturolojik omil sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yankelovich, D. (2005). *The Problem of Clutter in Advertising*. New York Times Reports; shuningdek, qarang: Zeng, F., Huang, L., & Dou, W. (2009). *Social factors in user perceptions of advertising on social networking sites*. *International Journal of Advertising*, 28(3), 447–478.

2. Toffler, E. (1980). *The Third Wave*. New York: William Morrow & Company. (O‘zbek tiliga tarjimasi: “Uchinchi to‘lqin”, tarj. O. Teshaboyev, Toshkent: “O‘zbekiston”, 2001).

3. Л.Чернышева “Реклама социально-культурном сервисе и туризме” стр. 10 Новосибирск 2017

4. Nematov M. (2025). Pragmatic Aspects of Advertisement Translation. Journal of Uzbek Discourse Research, 1(1).

5. Kosimbetova A., Suyarova Kh. (2023). Characteristics, Structure and Functions of Uzbek Advertisement Slogans. European Journal of Literature and Linguistics, 1(1).

6. Makhamadmusaeva D. (2025). The Language of Uzbek Advertisements and Their Stylistic Features. Excellencia: Journal of Language, 3(5).

7. A. Jo‘rayev. Reklama tilining lingvopragmatik xususiyatlari. – T.: 2020.

8. Maslow, A. H. A theory of human motivation. Psychological Review, 50, (1943) 4-july 370–396

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

DIREKT VA INDIREKT NUTQIY AKTLARNING IFODALANISHDAGI MADANIY FARQLARI

Suyunova Mohinur Ilxom qizi
Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti
2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya Mazkur maqolada turli tillarda nutqiy aktlarning direkt va indirekt ifoda shakllaridagi madaniy tafovutlari tahlil qilinadi. Empirik tadqiqotlar va nazariy yondashuvlarga tayanilgan holda, madaniyat, ijtimoiy me’yorlar va odoblilik strategiyalarining iltimos, rad etish, uzr so‘rash, maqtov va shikoyat kabi nutqiy aktlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, ikkinchi til o‘rganuvchilar nutqida kuzatiladigan pragmatik transfer va madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati ta’kidlanadi. Maqolada o‘zbek tilshunosligida olib borilayotgan tadqiqotlarning holati va empirik yondashuvlarning zarurati ham ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: nutqiy akt, to‘g‘ridan-to‘g‘rilik, bilvosita ifoda, madaniyatlararo pragmatika, odoblilik nazariyasi, pragmatik transfer

CULTURAL DIFFERENCES IN THE EXPRESSION OF DIRECT AND INDIRECT SPEECH ACTS

Abstract This article explores the cultural differences in the expression of direct and indirect speech acts across various languages. Drawing upon a wide range of empirical studies and theoretical frameworks, the study highlights how cultural norms, politeness strategies, and social context influence the formulation and interpretation of speech acts such as requests, refusals, apologies, compliments, and complaints. The research reviews key works in English, Japanese, Persian, Arabic, and Uzbek, emphasizing pragma linguistic and sociocultural variables. Special attention is given to the pragmatic transfer phenomena among non-native speakers and the relevance of speech act analysis in language teaching and intercultural communication. The paper also outlines the current state of research in Uzbek and identifies the need for more corpus-based, empirical studies in this area.

Keywords: speech act, directness, indirectness, cross-cultural pragmatics, politeness theory, pragmatic transfer

КУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ВЫРАЖЕНИИ ПРЯМЫХ И КОСВЕННЫХ РЕЧЕВЫХ АКТОВ

Аннотация В данной статье рассматриваются культурные различия в реализации прямых и косвенных речевых актов в различных языках. На основе эмпирических исследований и теоретических подходов анализируются факторы, влияющие на формулировку речевых актов, включая культурные нормы, стратегии вежливости и социальный контекст. Особое внимание уделяется феномену прагматического трансфера у изучающих иностранный язык, а также важности анализа речевых актов в преподавании языков и межкультурной коммуникации. Подчёркивается необходимость более широких корпусных и эмпирических исследований в узбекском языке.

Ключевые слова: речевой акт, прямота, косвенность, межкультурная прагматика, теория вежливости, прагматический трансфер

So‘nggi yillarda tilshunoslik doirasida nutqiy aktlar masalasi dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Ayniqsa, bu yo‘nalish madaniyatlararo muloqotda paydo bo‘ladigan farqlarni anglash va ularga moslashish jarayonini osonlashtiruvchi vosita sifatida talqin qilinmoqda. Nutqiy aktlar bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar turli tillar hamda ularning orqasida turgan madaniy kodlar nuqtayi nazaridan o‘rganilib, ularning kommunikativ xatti-harakatlarga ta’siri aniqlanmoqda. Har holda, nutqiy aktlarni har tomonlama mukammal o‘rgangan tadqiqotlar hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, bu mavzu pragmalingvistik izlanishlar uchun asosiy manba vazifasini bajarmoqda.

Amaliy tilshunoslik doirasida nutqiy aktlarning til va madaniyat bilan bog‘liq strategik ifodalanish usullari ustida keng qamrovli empirik tahlillar olib borilgan (Blum-Kulka & House, 1989; Meier, 1992; Olshtain, 1989; Olshtain & Blum-Kulka, 1985; Vollmer & Olshtain, 1989). Ushbu tahlillar kommunikativ va pragmatik kompetensiyalar (Canale & Swain, 1980; Hymes, 1974; Leech, 1983; Thomas, 1983), madaniyatlararo muloqotga oid konsepsiyalar (Hofstede, 1980, 1991; Triandis, 1995), odoblilik nazariyalari (Brown & Levinson, 1987) hamda Grice (1975) tomonidan ilgari surilgan hamkorlik prinsipi asosida shakllangan nazariy platforma doirasida amalga oshirilgan.

Olshtain va Blum-Kulka (1985) nutqiy aktlar tadqiqotining asosiy vazifasi sifatida insonlar o‘rtasidagi til orqali o‘zaro tushunishni chuqurlashtirishni ko‘rsatadi. Bu tadqiqotlar doirasida xilma-xil til va madaniyatlarda bir xil sharoitda yuzaga kelgan nutqiy jarayonlarning qanday farqli tarzda amalga oshirilishini o‘rganish va bu farqlarni tasniflash muhim deb topilgan.

Shuningdek, nutqiy aktlar bo‘yicha olib borilgan empirik tadqiqotlar madaniy va ijtimoiy kontekstning nutq ifodalanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashga xizmat qilgan (Meier, 1995, 1997, 1999; Richards & Schmidt, 1983). Bu orqali mavjud nazariyalar – odoblilik modeli (Brown & Levinson, 1987) va madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyalari (Gudykunst & Ting-Toomey, 1988; Hall, 1976; Okabe, 1983) – yangi empirik asosda qayta ko‘rib chiqish imkoniyati paydo bo‘lgan.

Nutqiy aktlar, ayniqsa, chet tili yoki ikkinchi tilni o‘rgatishda alohida o‘rin tutadi. Bu boradagi tadqiqotlar nutqiy aktlarni to‘g‘ri va madaniy jihatdan maqbul tarzda ifodalash

ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali madaniyatlararo tushunmovchiliklarning oldini olishga xizmat qilmoqda (Meier, 1995; Takahashi & Beebe, 1993). Shu bilan birga, bunday izlanishlar tildagi o‘quv materiallarini ishlab chiqish va til o‘rgatuvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi (Bardovi-Harlig, 1996).

1980-yillardan boshlab ko‘plab nutqiy aktlar yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotlar ularning turli tillarda qanday ifodalanishini tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar, asosan, ona tili bo‘lmagan so‘zlovchilarning nutqiy aktlarni amalga oshirishidagi usullarni solishtirish orqali amalga oshirilgan. Garchi yapon va ivrit tillari ba’zan bu umumiy doiradan mustasno tarzda o‘rganilgan bo‘lsa-da, ko‘pchilik tadqiqotlar G‘arb tillariga, xususan, AQSh ingliz tiliga qaratilgan. Tadqiqotlarda eng ko‘p o‘rganilgan nutqiy akt turlari uzr so‘rash va so‘rov bo‘lib, ular G‘arb va Osiyo tillarida ifoda shakllari, madaniy asoslar va strategik yondashuvlar nuqtayi nazaridan solishtirilgan. Shu bilan birga, rad etish, shikoyat, minnatdorchilik, tavsiya, maqtov va tuzatish aktlari ham keng tahlil qilingan.

Beebe va boshqalar (1990) olib borgan tadqiqotda ingliz va yapon tillarida rad etish strategiyalari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yapon tilida rad etishlar ko‘proq noaniq, yumshatilgan shaklda ifodalangan. Bundan tashqari, ingliz tilini o‘rganayotgan yaponiyaliklar nutqida pragmatik transfer kuzatilgan.

Fukushima va Iwata (1987) esa so‘rov va taklif aktlarining yapon va amerika ingliz tilidagi realizatsiya shakllarini qiyosiy o‘rgangan. Ularning tadqiqotida semantik formulalar ketma-ketligi, ya’ni uzr – sabab – so‘rov shaklidagi tartibda o‘xshashlik aniqlangan. Yaponiyalik so‘zlovchilarda esa ijtimoiy-madaniy omillar, ayniqsa, suhbatdosh bilan yaqinlik darajasi asosiy rol o‘ynagan.

Eslamirasekh (1993) fors va ingliz tillarida so‘rov aktining ifodalanishidagi farqlarni aniqlab bergan. Forsiyzabonlar ko‘proq to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘rov ifodalaridan foydalangan bo‘lsa-da, bular muloyimlik markerlari bilan muvozanatga keltirilgan.

Ichki madaniyat doirasidagi nutqiy aktlar (intralingual) yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotlar soni nisbatan kam bo‘lsa-da, ularning ayrimlari lingvopragmatik tafsilotlarni ochib bergan. Masalan, Boxer (1989, 1993) amerikaliklar orasidagi shikoyat aktlarini tahlil qilib, turli javob strategiyalarini ajratib bergan. Natijalar hamdardlik strategiyasining ustuvorligini ko‘rsatgan.

Goldschmidt (1989) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda esa iltimos akti turli omillar: ishtirokchilarning jinsi, maqomi, yoshi va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq tarzda tahlil qilingan. Natijada, yashirin majburiyat, yashirin iltimos va ochiq iltimos kabi turlari ajratilgan.

Valentine (1994) hindistonlik ingliz tilida so‘zlovchilarning kundalik suhbatlardagi kelishuv va norozi bo‘lish strategiyalarini o‘rganib chiqqan. Ayollar va erkaklar o‘rtasida strategik yondashuvlarda farqlar aniqlangan.

So‘nggi yillarda arab tilida ham nutqiy aktlar bo‘yicha sezilarli izlanishlar amalga oshirilgan. Nelson va boshqalar (1993, 1996) misrlik va amerikalik so‘zlovchilarning kompliment va ularga javob shakllarini taqqoslagan. Arabcha ifodalarda poetik va iboraviy shakllar ustuvor bo‘lgan.

Hussein va Hammouri (1998) iordaniyaliklarning uzr so‘rash strategiyalarini amerikaliklar bilan taqqoslab, arab madaniyatiga xos diniy va iboraviy unsurlarni aniqlagan. Ghawi (1993) tomonidan esa ingliz tilini o‘rganayotgan arabiyzabonlarning strategik transfer holatlari tahlil qilingan.

Stevens (1993) rad etish aktini amerikalik, misrlik va arabiyzabon ingliz tili o‘rganuvchilari orasida tahlil qilib, ularning noto‘g‘ri transfer sabablari va strategik xatoliklarini ochib bergan.

Nelson va boshqalar (1998) maqom (status) omiliga asoslangan rad etish aktlarini tadqiq qilgan. Misrliklar ko‘proq to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalardan foydalangan, amerikaliklar esa minnatdorchilik bildiruvchi strategiyalarni afzal ko‘rgan.

Xorijiy tilshunoslikda S. Levinsonning "Pragmatics" asari konversatsion implikatura, presuppozitsiya va deiksis bilan nutqiy aktlarni uyg‘un holda tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi. R. Stening nemis tilidagi nutqiy aktlarning grammatik-strukturaviy ifodalanishiga e’tibor qaratgan.

O‘zbek tilshunosligida esa bu soha endilikda rivojlanmoqda. M. Nazarov (2010) o‘zbek tilidagi iltimos aktlarini tahlil qilib, ularning direkt va indirekt shakllarini ijtimoiy kontekst bilan bog‘lab ko‘rsatgan. B. Karimov (2015) esa uzr so‘rash aktining diniy va etik jihatlariga urg‘u bergan. D. Komilova (2018) o‘zbek tilidagi rad etish aktida yumshatish strategiyalarining ustuvorligini ko‘rsatgan. N. Shoazimova (2019) komplimentga javob shakllarini inkor va kamtarlik asosida tushuntirgan.H. Karimov, M. Hoshimov va Sh. Sirojiddinovlarning ishlari esa o‘zbek tilida nutqiy aktlarning ijtimoiy, psixologik va kontekstual asoslarini tahlil qilib, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi.

Yakuniy natijalar shuni anglatadiki, tilshunoslikda nutqiy aktlarni lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilish nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy kommunikatsiya jarayonlarida ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv orqali til o‘rganuvchilarning madaniyatlararo muloqotdagi kompetensiyasi mustahkamlanadi, noto‘g‘ri tushunish va kommunikativ uzilishlarning oldi olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bardovi-Harlig, K. (1996). Pragmatics and language teaching: Bringing pragmatics and pedagogy together. *Pragmatics and Language Learning*, 7, 21–39.
2. Beebe, L. M., Takahashi, T., & Uliss-Weltz, R. (1990). Pragmatic transfer in ESL refusals. In R. C. Scarcella, E. S. Andersen, & S. D. Krashen (Eds.), *Developing communicative competence in a second language* (pp. 55–73). Newbury House.
3. Blum-Kulka, S., & House, J. (1989). Cross-cultural and situational variation in requesting behavior. In S. Blum-Kulka, J. House, & G. Kasper (Eds.), *Cross-cultural pragmatics: Requests and apologies* (pp. 123–154). Ablex.
4. Boxer, D. (1989). The role of second-order politeness in indirect complaints. *Journal of Pragmatics*, 14(1), 101–111.

5. Boxer, D. (1993). Complaining and commiserating: A speech act view of solidarity in spoken American English. New York: Peter Lang.

6. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language*

7. Goldschmidt, M. (1989). Requests in American English: A social-interactional approach. *Unpublished doctoral dissertation*, University of California.

8. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and semantics* (Vol. 3, pp. 41–58). Academic Press.

9. Gudykunst, W. B., & Ting-Toomey, S. (1988). *Culture and interpersonal communication*. Sage Publications.

10. Hall, E. T. (1976). *Beyond culture*. Anchor Books.

11. Hofstede, G. (1980). *Culture’s consequences: International differences in work-related values*. Sage Publications.

12. Hofstede, G. (1991). *Cultures and organizations: Software of the mind*. McGraw-Hill.

13. Hoshimov, M. (2020). *O‘zbek tilida psixolingvistik faoliyat: Shaxs, ong va muhit o‘zaro ta’siri*. Toshkent: Akademnashr.

14. Hymes, D. (1974). *Foundations in sociolinguistics: An ethnographic approach*. University of Pennsylvania Press.

15. Karimov, B. (2015). O‘zbek madaniyatida uzr so‘rash nutqiy aktining lingvomadaniy xususiyatlari. *Filologiya Masalalari*, 2(1), 45–52.

16. Karimov, H. (2020). *Pragmatik lingvistika asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

17. Komilova, D. (2018). O‘zbek tilidagi rad etish aktining lingvopragmatik tahlili. *Filologiya Masalalari*, 4(3), 70–78.

18. Leech, G. N. (1983). *Principles of pragmatics*. Longman.

19. Meier, A. J. (1992). Identifying polite discourse in intercultural communication. *Journal of Pragmatics*, 18(3), 261–281.

20. Nazarov, M. (2010). O‘zbek tilida iltimos aktining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. *O‘zbek Tili va Adabiyoti*, 4, 35–42.

21. Nelson, G., Al Batal, M., & Echols, E. (1993). Compliments in cross-cultural perspective: The case of American English and Arabic. *Applied Linguistics*, 14(4), 411–432.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

OGAHIYNING “TA’VIZ UL-OSHIQIN” DEVONI LEKSIK QATLAMI. O‘Z VA O‘ZLASHMA QATLAM SO‘ZLAR TADQIQI

Jumaboyeva Dilfuza Alisherovna
O‘zMU Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi
2-kurs magistranti
Dilfuzajumaboyeva2@gmail.com

Annotatsiya Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” devoni yirik hajmdagi lirik merosni o‘zida jamlagan badiiy asardir. Asarning lingvistik va badiiy xususiyatlarini o‘rganish kun tartibidagi masalalardan biriga aylanmoqda, chunki ushbu devon hali to‘liq o‘rganilmagan. Biz ham devonning leksik qatlamini o‘rganishni maqsad qildik. Maqolada “Ta’viz ul-oshiqin” devoni tarkibidagi so‘zlarning etimologik tahlili amalga oshirildi. Turkiycha, arabcha va forcha so‘zlarning qo‘llanilishi, ularning devon tuzilgan davrdan oldingi va keyingi davrlarda qanday o‘zgarishlarga uchraganligi, sinonimlari haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, ko‘z, ko‘ngil, qardosh va noqardosh tillar, geneologik xususiyat, tifl, tag‘ofil, mongloy, mardum, g‘ilmon

Аннотация Диван Огахи “Тавиз уль-Ошикин”-произведение искусства, содержащее обширное наследие. Изучение лингвистических и художественных особенностей произведения становится одним из актуальных вопросов, поскольку диван до сих пор не изучен в полной мере. Нашей целью также было изучение лексического пласта дивана. В статье представлен этимологический анализ слов, содержащихся в диване “Тавиз уль-Ошикин”. Приводятся важные сведения об употреблении тюркских, арабских и персидских слов, об их изменении до и после составления дивана, а также о синонимах.

Ключевые слова: собственный слой, ассимилированный слой, глаз, сердце, братские и небратские языки, генеалогический признак, тифл, тагофил, монглой, мардум, гилмон

Annotation Ogahi’s “Ta’viz ul-oshiqin” divan is a work of art that contains a large amount of lyrical heritage. The study of the linguistic and artistic features of the work is becoming one of the issues on the agenda, since this divan has not yet been fully studied. We olso aimed to study the lexical layer of the divan. The article provides an etymological analysis of the words contained in the “Ta’viz ul-oshiqin” divan. Important information is provided about the use of Turkic, Arabic and Persian words, how they changed in the periods before and after the divan was compiled, and synonyms.

Keywords: native layer, adopted layer, eye, heart, fraternal and non-fraternal languages, genealogical feature, tifl, tagophile, mongloy, mardum, gilmon

KIRISH. Umumxalq tili boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar xisobiga ancha boyib boradi, bu ushbu xalqning madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jihatdan o‘zga mamlakatlar bilan olib borgan aloqalari natijasida ro‘y beradi. Bunda tilda ma’lum o‘zgarishlar yuz beradi: ayrim so‘zlar butunlay yo‘qolib tarixiy so‘zlarga aylanadi, ayrimlari o‘z atash ma’nolarini yo‘qotib boshqa tushunchaga aylanadi, ya’ni arxaiklashadi, chetdan kirib kelgan so‘zlar hisobiga tildagi so‘zlarning yangi sinonimlari paydo bo‘la boshlaydi. Bularning barchasi til lug‘at tarkibining boyishiga olib keladi. Xalqlarning o‘zaro aloqalari, tillarning bir-biriga ta’siri turli davr va sharoitlarda o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bunday o‘zaro ta’sir ayrim davrlarda kuchsiz darajada bo‘lsa, boshqa bir davrda sezilarli va samarali kechadi. Shu bilan birga, ba’zi vaqtlarda mazkur jarayon stixiyali tarzda ro‘y bersa, uni ma’lum qonun-qoidalar asosida yo‘lga solish, unga insoniyatning faol aralashuvi talab etiladi [1.152]

Til o‘z rivojlnish davrida murakkab tarixiy jarayonni bosib o‘tadi, bunda tilning leksik qatlamining tarixiy shakllanishi va rivojlanishini aniqlash uchun so‘zlarni tarixiy-etimologik jihatdan o‘rganish zarur. Til lug‘at tarkibini tarixiy-etimologik jihatdan, ya’ni so‘zlarning genetik manbalariga ko‘ra tadqiq etish o‘zbek tilining qanday qardosh va noqardosh chet tillari bilan aloqada bo‘lgani, mazkur tilda qaysi tillarning ta’siri mavjudligini aniqlashga ko‘maklashadi. Pirovardida, bunday izlanishlar o‘zbek tili so‘z boyligi, grammatik qurilishining tarixiy yo‘llarini anglashda nihoyatda muhimdir [2.54]. O‘zbek tilshunosligida leksik qatlamlar yuzasidan bir necha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsada [3.87], “Ta’viz ul-oshiqin” devoni leksikasi maxsus o‘rganilmagan. Shu sababdan tadqiqotimizning ushbu faslida devon so‘z boyligining geneologik xususiyatlarini yoritishni maqsad qildik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O‘zbek tili leksikasida o‘z va o‘zlashma qatlam so ‘zlar tahliliga oid tadqiqotlar Bahtiyor Mengliyev, kabilar tomonidan amalga oshirilgan. B.Mengliyev o‘zbek tili bir necha xususiyatlariga ko‘ra leksikasini tasniflaydi. Xususan, leksemalarni o‘zlashgan-o‘zlashmaganligiga ko‘ra *o‘z qatlam* va *o‘zlashma qatlamga* ajratadi. Olim o‘z qatlamga oid so‘zlar turkiy so‘zlar ekanligini ta’kidlab bir qator belgilarga ega ekanligini aytadi: bu qatlamga oid leksemalarning o‘zagi, asosan, bir yoki ikki bo‘g‘inli bo‘ladi; ikki bo‘g‘inli so‘z ko‘proq ochiq bo‘g‘indan tuziladi; leksemalar r, l, h tovushlari bilan boshlanmaydi va hk. B.Mengliyev leksemalarni qo‘llanish miqdoriga ko‘ra *qo‘llanishi chegaralangan* va *qo‘llanishi chegaralanmagan* leksikaga ajratadi. Tarixiylik nuqtayi nazaridan *zamonaviy, eskirgan* va *tarixiy* leksikaga ajratadi va har bir tasnifni mukammal izohlaydi.

NATIJA VA MUHOKAMA. O‘z qatlam. Til o‘z va o‘zlashma qatlam so‘zlardan tashkil topadi. O‘z qatlam tilning taraqqiyoti davrida faqat o‘z ichki imkoniyatlari asosida shakllangan so‘zlardan iboratdir. Tilshunosligimizda o‘z qatlam xususida bir qator fikr va mulohazalar mavjud. Jumladan, Azim Hojiyev “O‘z qatlamga o‘zbek tilining o‘ziniki bo‘lgan, shuningdek,

turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar kiradi [4.121]” desa, Sh.Rahmatullayev “O‘z qatlam deganda aslan shu tilniki bo‘lgan so‘zlar va shular asosidagi yasalishlar, shuningdek, o‘z affikslari bilan boshqa til so‘zlaridan yasalishlar tushuniladi[5.173]” degan mulohazalarni bildiradilar. Devon leksikasining bir qismini tashkil etgan turkiy so‘zlar umumturkiy va o‘zbekcha so‘zlardan iboratdir.

Tilshunoslikda leksikaning ichki imkoniyatlar asosida rivojlanishida quyidagi hodisalar asosiy omil sanaladi: 1) ichki manbalar orqali so‘z yasash yo‘li bilan leksikaning boyishi; 2) eskirgan, tarixiy va umuman eski obidalarda bo‘lgan lug‘aviy birliklar asosida leksikaning boyishi; 3) adabiy til leksikasining dialektik so‘zlar hisobiga boyishi [6.128].

Ko‘karmak – “ko‘k tusga kirmoq”. Bu fe’l “moviy, zangori” ma’nosini anglatuvchi kö:k sifatiga qadimgi turkiy tildagi –(ä)r qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan. O‘zbek tilida esa yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: kö:k + är = kö:kär > kökär > kokär

Ko‘z – “ko‘rish a’zosi”. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu ot asli kö:z tarzida talaffuz qilingan(ЭСТЯ, III, 60), keyinroq ö: unlisining cho‘ziqlik belgisi (ПДП, 396; ДС, 320), o‘zbek tilida esa yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: kö:z > köz > ko‘z.

Qatra ko‘z abridin oqmay toatim bog‘i qurub,

Vaqt erur ashki nadomatdin yetursang nam ango”. (2014.27)

Buyuk – eski turkiy tildagi bädük so‘zidan kelib chiqqan, “juda katta, ulug‘” ma’nolarida keladi. Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi “yirik” ma’nosini anglatgan biy sifatining bo‘y shaklidan –ü qo‘shimchasi bilan yasalgan fe’lga –k sifat yasovchisini qo‘shib yasalgan. O‘zbek tilida o‘ unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: bo‘y + ü = bo‘yu + k = büyük > buyuk . Buyuk so‘ziga katta, ulug‘, azim, zo‘r, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant, azamat so‘zlarini sinonim sifatida keltirishimiz mumkin [8.119] Ogahiy devonida ushbu so‘z biyik tarzida uchraydi:

Ul sarvari zamonki, biyikdur maqom anga,

Qad xamduru falak qilibon ehtirom ango. (2014.30)

Sovuq – “harorati past”. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu sifat “harorati pasay” ma’nosini anglatuvchi соғы fe’liga қ qo ‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan: соғы + қ = соғық. Bu so ‘zning ikkinchi bo ‘g ‘inidagi ы unlisi saqlangan, shu usul bilan bu sifat соғуқ otidan farqlangan. Afsuski, bunday farqlanish keyinchalik davom ettirilmagan. O‘zbek tilidagi ғ undoshi в undoshiga, о unlisi â unlisiga, ы unlisi у unlisiga almashgan: соғы + қ = соғық > совық > câвуқ [9.292]

Sovuqg‘a bu qish ortib shiddatu kin,

Qochurdi xalqdin oromu tamkin. (2014.246)

Chigirtka – ekinzorlarga zarar keltiruvchi, to‘g‘ri qanotlilar turkumiga mansub hasharot. Qadimgi turkiy tilda shunday ma’noni anglatgan so‘z чекўргä tarzida talaffuz qilingan. Bu ot turk tilida чекирге shaklida mavjud. Ushbu so‘zlar oxiridagi –гä(-ге) qismi fe’ldan ot yasaydi. …Turkiy tillardagi чекир fe’li tovushga taqlidni ifodalagan. O‘zbek tilidagi чигиртка so‘zi ana shu чекир fe’lining takror ma’nosini ifodalovchi –т qo‘shimchasi qo‘shilgan shaklidan –кä qo‘shimchasi bilan yasalgan. Keyinchalik ikki unli oralig‘idagi к undoshi г ga, o‘zbek tilida е

unlisi и ga almashgan: чекир + т = чекирт + кä = чекирткä > чегирткä > чигирткä. Devonda chigirtka so‘zi malax shaklida keladi:

Xatti yo mo‘ru malax, yo sabzai rayhonmudur,

Yo xati mushafmu, yo mir’oti husni javhari. (2014.383)

Ko‘ngil – “insonning his-tuyg ‘u, kechinmalar olami”, “dil”, “qalb”. Bu ot asli qadimgi turkiy tildagi “his-tuyg ‘uga beril“ ma’nosini anglatgan көң fe’lidan – (ÿ)л qo‘shimchasi bilan yasalgan. O‘zbek tilida ikkinchi bo‘g‘indagi ÿ unlisi и unlisiga almashgan, ö unlisining yumshoq belgisi yo‘qolgan: көң + ÿл = кÿңÿл > кÿң > коңил.

Solma ko‘z ushbu jahon shavqig‘a zinhor, ey ko‘ngul,

Ayrila olmas balog‘a bo‘lma duchor, ey ko‘ngul…

Ogahiy devonida bu so‘z *“ko‘ngul”* shaklida uchraydi. Shuningdek, devonda unga sinonim so‘zlar sifatida *dil* va *qalb* so‘zlari ham keltiriladi. Bundan tashqari, devonda quyidagi turkiycha so‘zlar faol qo‘llanilgan: yiroq, kun, yo‘l, bog‘, suv, el, quloq, sosig‘ (sassiq), bosh, yosh, o‘lmak, sol, og‘iz, sog‘, sevmak, aylanmak, o‘g‘ul, kirpik, ayoq va boshqalar. Turkiy so‘zlarning aksariyati bir yoki ikki bo‘g‘indan iborat bo‘lganligi bois o‘qilishi ham ancha oson bo‘lgan.

O‘zlashma qatlam. Dunyoda biror bir til yo‘qki, mustaqil rivojlansa va boshqa tillar bilan aloqa qilmay taraqqiy etsa. Bugungi kunda dunyoda yetti mingga yaqin til mavjud bo‘lib, ula bir-birlari bilan doimiy aloqada bo‘ladilar. Bunday aloqa birinchi navbatda ularning lug‘at boyligida ko‘rinadi. Dunyoning qay bir nuqtasida ilm-fan, san-at, texnika va boshqa sohalarda kashfiyot, yangilik sodir bo‘lsa, u shu millat tilida o‘z aksini topadi. Boshqa tillarda sh tushunchaning muqobili topiladi, agar muqobili bo‘lmasa, kashfiyot yaratilgan tildagi variant, so‘z, nom qabul qilinadi. Kashfiyot-yangilikning muqobil varianti bir tilda bo‘lishi mumkin, boshqa tilda bo‘lmasligi mumkin. Muqobil varianti bor tillar o‘z variantini, muqobil varianti yo‘q tillar o‘zga, asl variantni qabul qilishga majbur bo‘ladilar: kompyuter, agronom, klaster kabi [10.195]. Boshqa qardosh turkiy tillar singri o‘zbek adabiy tili uchun ham so‘z o‘zlashtirish xarakterli hisoblanadi. XI asrga oid o‘zlashmalarning o‘zbek adabiy tiliga kirib kelishida fors-tojik va arab tilidan o‘zbekchaga o‘girilgan badiiy tarjimalarning roli sezilarli edi. Fors-tojik tili: bu davrda ma’muriy, huquqiy, tijoriy, ilmiy, diniy tushunchalarni ifodalovchi sharq tillari so‘zlarining o‘zbek adabiy tiliga o‘zlashishida vositachi vazifasini bajaradi.Tabiiyki, chet so‘zlarning turli soha leksikasiga o‘zlashishi farqlanadi. Jumladan, xarbiy terminologiya mo‘g‘ulcha so‘zlar hisobiga kengaygan bo‘lsa, ma’muriy-siyosiy, tijoriy-moliyaviy, ilmiy, diniy leksika esa asosan arabcha, fors-tojikcha o‘zlashmalar orqali boyigan [11.78] .

Arabcha o‘zlashmalar. O‘rta Osiyoga arablar bosqinidan so‘ng, nafaqt islom dini, balki madaniyati, yozuvi va tili ham kirib keldi. Arab tili ham fan, ham ijod tiliga aylandi, arab alifbosi joriy etildi. Shu bilan birgalikda, arab tilidan juda ko‘p so‘zlar o‘zlashdi va turkiy til tashqi imkoniyatlar asosida boyib bordi. Yevropada lotin tili bir vaqtlar xalqaro til, ilm-fan tili bo‘lganidek, arab tili ham Osiyoda uch yuz yil davomida shunga o‘xshash mavqeda bo‘lgan. Arab yozuvining qo‘llanilishi bevosita tilning ta’sirini ham kuchaytirgan, yozuv bora-bora

mahalliy xalqlarning o‘z yozuviga aylanib ketganidek, arab, fors-tojik tillaridan o‘zlashgan necha minglab so‘zlar ham o‘zbek tilining o‘z mulkiga, uning boyligiga aylanib ketgan ” [12.23].

Tilning lug‘at qatlamida saqlagan, ammo muloqotda ko‘p qo‘llanilmaydigan, keng ommaga tushunarli bo‘lgan, ma’lum davrlarda iste’molda bo‘lgan, lekin hozirda foydalanilmaydigan so‘zlar arxaik so‘zlar sanaladi. Devonda arxaik so‘zlar ko‘p uchraydi, ular orasida o‘zlashma qatlamga oid so‘zlar ham salmoqli. Devon tarkibidagi ayrim so‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilmaydi va bunday so‘zlar tarixiy leksika nomini olgan: tifl(bola), hubob(ko‘pik), mutarro(musaffo), tag‘ofil(ko‘rib ko‘rmaslikka olish). Devonda qo‘llangan arabcha so‘zlarni quyidagi mavzuviy guruhlarga ajratish mumkin:

1. Mavhum tushunchalarni anglatuvchi so‘zlar: g‘amza,
2. Maishiy turmush bilan bog‘liq so‘zlar;
3. Diniy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar;
4. Ta’lim-tarbiyaga oid so‘zlar.

“Ta’viz ul-oshiqin” devoni tarkibida arabcha so‘zlar miqdor jihatidan so‘zlar fors-tojikcha so‘zlardan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi: mehnat, visol, maosh, soat, rizbon, surat, furqat, dahr, jafo, boqiy, jannat, halovat, avqot, tamosho, musaxxar, g‘aflat, zohid, ushshoq, irfon, qiyomat, karam, munavvar kabi. Shuningdek, arabcha o‘zlashmalarning ko ‘plik varianti ham faol qo‘llanilgan: avqot (vaqtlar), hujjoj (hojilar), asror (sirlar), avroq(varoqlar), amlok (mulklar), amvoj (mavjlar), rayohin (rayhon), she’r (shuaro), ahbob (habiblar) kabi. *“Baxtsizlik, uqubat”* ma’nosidagi mehnat leksemasi devonda qo‘llanilgan:

Falak zulmidin emin bir kishi ermas, magar ulkim,

Oning olidadur bu dahr ayshu mehnati yakson. (2014.241)

Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida ham shu ma’noda qo‘llangan: öčär mehnat otï – musibatning olovi o‘chadi. Alisher Navoiy asarlarida bu leksema “musibat, balo; g‘am, dard; mashaqqat” ma’nolarida ishlatilgan: mehnat dashti sargardonligidin parishon xilqatingni yig‘ishtirdum. Bu so‘z hozirda *“biror maqsad uchun qaratilgan aqliy yoki jismoniy faoliyat; ish”* ma’nosida qo‘llanadi [13.39].

ANATIL (Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati)da “uchrashuv, birlashuv, erishuv, yaqinlashuv, yetishuv” ma‘nolarida kelgan ***visol*** so‘zi ishq mavzusi yoritilgan she’rlarda ko‘p uchraydi: “Ravza bog‘i visolin istar esang, Bo‘l onaning ayog‘i tufrog‘i”(“Arbain” XV-61) . Ogahiy devonida ham xuddi shu ma’noda qo‘llanilgan:

Sharbatu visolingdin komim aylagil shirin,

Kim, firoqi zahridin usru talx komingman. (2014.250)

Soat so‘zi *“joylandi”, “qamrab oldi”* ma’nolarini anglatuvchi arabcha ŝaa fe’lidan –at(un) qo‘shimchasi bilan yasalgan bo‘lib, bir kecha kunduzning 24 qismdan biriga teng vaqt ma’nosini bildirgan, shu ma’nodan vaqt o‘lchovini ko‘rsatuvchi asbob ma’nosi o‘sib chiqqan. (O‘TEL.II.388) Ogahiy devonida quyidagicha qo‘llanilgan:

Manga yo‘l suhbatig‘a bermadi dildor bir soat,

Visoli bodasidin qilmadi sarshor bir soat. (2014.73)

Arabchadan o‘zlashgan *qulzum* leksemasi XVII-XIX asr adabiy tilida ham keng qo‘llanilgan. U Arabistondagi qizil dengiz atoqli otidan kelib chiqqan. Turdining *“Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman, Kelturam amvojg‘a bahri talotum Turdiman”* baytida, Ogahiyning quyidagi baytida uning ma’joziy ma’nosi namoyon bo‘lgan [14.262] :

So‘zdur bu jahon ahli aro qulzumi jarf,

Pokiza maoni angadur durri shigarf. (2014.441)

Rizvon islomda jannat eshiklarini qo‘riqlovchi farishtadir. “Rizvon” so‘zi Qur’onda mavjud emas, bu nom keyingi davr manbalarida, Me’roj rivoyatlarida uchraydi . ANATILda *“sakkiz behishtning biri, rozilik va mamnuniyat jannati”* deya keltirilgan: *“Oning ko‘yida qil arzi niyozim, Dame ul ravzai rizvon sari es”* (“Xazoyin ul-maoniy”). Rizvon so‘zi Ogahiy devonning 20 o‘rnida qo‘llanilgan:

Topmasam la’ling zulolin hojat ermastur manga,

Obi hayvon sharbatiyu bog‘i rizvon kavsari. (2014.266).

Baytdan ko‘rishimiz mumkinki, Ogahiy rizvon so‘zini *“jannat”* ma’nosida qo‘llaydi.

Mardum so‘zi ANATILda *“ko‘z qorachig‘i, ko‘z qorasi* ” ma’nolarida keladi: *“Chu sensen ayni insoniyat, o‘lsang diydayi pinhon, Qarong‘udur jahon andoqki, ko‘zda bo‘lmasa mardum”*(“Xazoyin ul-maoniy”). Navoiy ushbu so‘zning yana bir ma’nosi, ya’ni “odam, inson”ni ham keltiradi*: “Ishq daryosi ani mardumi obiy etkan, Hajr sahrosi aro guli biyobon etkan”* (“Xazoyin ul-maoniy”). Ogahiy devonida 7 o‘rinda ushbu so‘zga murojaat qiladi:

Yod etma qaro ko‘zlilarning mardumi chashmin,

Mardum deyub oldanmaki, ichduklari qondur. (2014.320)

Baytning birinchi misrasida mardurm so‘zi *“ko‘z qorachig‘i”* ma’nosida, ikkinchi misrada esa *“odam”* ma’nosida kelgan.

Kahkashon–*“yulduzli osmonda ko‘rinadigan oq yo‘l, somon yo‘li”*(ANATIL.II.104): *“Hilol eshigi halqasidin nishon, Vale anda zanjir o‘lib kahkashon”*(“Vaqfiya”). Navoiy kahkashonni *“zanjir”*ga o‘xshatadi. Ogahiy devonida ham bu so‘z ayni shaklda uchraydi:

Ko‘shob beliga kahkashondin kamar,

Olib ilgiga mohi navdin tabar. (2014.18)

Ushbu so‘z devonning 5 o‘rnida qo‘llanilgan.

G‘ilmon arabcha – (“g‘ulâm”, ko‘plik g‘ilman) o‘g‘il yoki xizmatkor ma’nosini bildiradi. Qur’onda jannat ne’matlaridan biri bo‘lgan xizmatchi o‘g‘il bolalar sifatida tilga olingan. Bu so‘z arabcha g‘-l-m asosidan kelib chiqqan [18] . “Ta’viz ul-oshiqi” devonining 14 o‘rnida g‘ilmon so‘zi uchraydi:

Sho‘xlari hur ila g‘ilmon kibi,

Hur ila g‘ilmon demayin, jon kibi. (2014.453)

Baytda shoir *ruju’* badiiy san’atidan mahorat bilan foydalangan. G‘ilmon so‘zi aksariyat o‘rinlarda hur (Islom an’anasiga ko‘ra, taqvodorlar bilan birgalikda jannatda yashaydigan,

jismoniy va ma’naviy kamchiliklardan xoli bo‘lgan nihoyatda go‘zal qizlar)lar bilan birgalikda tasvirlanadi.

Forscha o‘zlashmalar. “Ta’viz ul-oshiqin”da qo‘llangan fors-tojikcha so‘zlarning aksariyati shakliy o‘zgarishsiz eski o‘zbek tilida ham aks etgan: do ‘st, oftob, oshno, shikor kabi. Shuningdek, diloviz, xirad, diyda, do‘st, oshno va shu kabi. Devonda qo‘llanilgan ***osmon*** so‘zi forcha o‘zlashma bo‘lib, boshqa tillardan o‘zlashgan bir qator so‘zlar bilan sinonimik qatorni hosil qiladi. Masalan, turkiycha *ko‘k, arabcha falak, samo, arsh*, forsiycha *gardun, charx* kabi so‘zlar sinonimiya hodisasi ostida birlashadi. Ushbu so‘zning “Devoni lug‘otit turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Muqaddimat ul adab”, “O‘g‘uznoma”, “Tafsir”, “Qissasi Rabg‘uziy”, “Kitob ul-idrok” kabi asarlarda faol qo‘llanilganini ko ‘rish mumkin [15.53] . Osmon so‘ziga sinonim bo‘lgan *arsh* so‘zi ilk bor “Qutadg‘u bilig”da, keyinchalik “Qissasul anbiyo”sida qo‘llanilgan. Ogahiy devonida falak so‘zi 16 o‘rinda qo‘llanilgan:

Yetib yuz ajz ul ostong‘a,
Nechukkim zarra yetgay osmong‘a. (2014.465)

Bo‘ston forscha – *“bog‘, tomorqa, poliz”.* 1. Gul bilan qoplangan, gul ekilgan maydon. 2. Bog‘-rog‘li, obod yer [16.256] .

Otashin gul garchi ziynatdur bo‘stonig‘a,
Barq erur har yel uchurgan bargi bulbul jonig‘a. (2014.379)

Bo‘ston so‘zi devonda o‘zining bir nechta sinonimlari bilan birga keladi: *chaman, gulzor, guliston, gulshan* kabi. Bularning barchasi fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar hisoblanadi. Gulzor bu tojik tilidagi gul otiga *“mo‘l”* ma’nosini ifodalaydigan -zor qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan bo‘lib, *“guli ko‘p yer”* ma’nosini anglatadi .

Dil maband ayyomi ishratroki dar gulzori dahr,
Vaxshiyu kam fursatu bee’tibor, omad bahor. (2014.530)

Devondagi forscha g‘azallarda ushbu so‘z faol qo‘llangan. Chaman so‘zi PRSda chämän shaklida keltirilib, “maysazor” ma’nosini anglatishi, TRSda chaman shaklida keltirilib, yuqoridagi ma’nodan tashqari, *“gulzor”* ma’nosini ham anglatishi aytilgan. O‘zbek tiliga tojik tilidagi “gulzor” ma’nosi olingan.

Chamanlar ichra har yon ochilib gul,
Yozib gisusini gul uzra sunbul. (2014.486)

Guliston bu tojik tilidagi gul otiga *“mo‘l yerlar”* ma’nosini bildiruvchi –(i)ston qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilingan bo‘lib, “gullar makoni” ma’nosini anglatadi.

Ey pari, jamolingni pardadin namoyon qil,
Orazing gulin ochib, bazmni guliston qil. (2014.356)

Gulshan so‘zi tojikcha gul otiga *“mo‘l joy”* ma’nosini ifodalaydigan –shan qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilingan bo‘lib, *“gullar mo‘l-ko‘l joy”* ma’nosini anglatadi .

Kecha-kunduz qilma gulbongingni past, ey andalib,
Kim, sanga besh kun bu gulshan ichra mehmon bo‘ldi gul. (2014.356)

Devonda gulshan so‘zi 117, chaman 37, bo‘ston 36, gulzor 30 o‘rinda qo‘llanilgan.

XULOSA. “Ta’viz ul-oshiqin” devoni hajman yirik va ko‘lamli asardir, shu sababli uning leksikasi yirik tadqiqotlar uchun obyekt bo‘la oladi. Ushbu maqolada devon tarkibidagi so‘zlarning bir qismi o‘rganildi va etimologik jihatdan tahlil qilindi. Natija shuni ko‘rsatadiki, shoir qo‘llagan so‘zlarning ko‘pchiligi turkiy so‘zlar hisoblanadi, keyingi o‘rinda arab va fors-tojik tilidan o‘zlashgn so‘zlar turadi. Shuningdek, fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlarning sinonimik qatori ham berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбек адабий тилининг тараққиёти.3 жилд.Лексика. –Т.: Фан, 1991. –Б. 152.
2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Т.:Фан, 1985. –Б.54.
3. Мамажонова Г. Ўзбек тили лексикаси тараққиётининг баъзи масалари. –Т.:Фан, 1978. –Б. 87.
4. Shoabduraxmonov Sh, Asqarova M, Hojiyev A, Rasulov I, Doniyorov X. Hozirgi O‘zbek adabiy tili. 1-qism. –Toshkent, 1980. –B. 121
5. Tursunov U, Muxtorov J, Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent.: O‘zbekiston, 1992. –B. 173
6. Ўзбек адабий тилининг тараққиёти.3 жилд.Лексика. –Т.: Фан, 1991. –Б. 128.
7. Lapasov J. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. –Toshkent,1994. –B. 262
8. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Т.: “Ўқитувчи”, 1974. –Б. 119.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати(туркий сўзлар). –Т.: “Университет”, 2000. –Б. 292.
10. Qodirov Z. Tilda bazur va ustqurma. –T.:Rresearch focus, 2022. –B. 195.
11. Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий” лексикаси. “Академия”, – Тошкент, 2008. –Б. 78.
12. Isoqov F. O ‘zbek tili va yozuvi. –Toshkent: O ‘qituvchi, 1995. –B. 23
13. . Xolmurodova M. “Qutadg‘u bilig” leksikasi. —T.: “Nodirabegim” nashriyoti, 2020. –B. 39.
14. Lapasov J. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. –Toshkent,1994. –B. 262
15. Dadaboyev H. Hamidov Z, Xolmonova Z. O‘zbek adabiy tili leksikasi tarixi. –Toshkent.: Fan,2007. –B. 53
16. O‘TIL. 1-jild (To ‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr). –Toshkent.: G ‘afur G‘ulon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B. 701
17. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/G%CA%BBilmon
18. Muhammadrizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Asarlar. VI jildlik. Nashrga tayyorlovchi: G‘ulom Karim, muharrir: Dolimov S. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. (Tadqiqot ishida keltirilgan misollar Ogahiyning ushbu devonidan olindi)

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK: 1751

LINGVISTIK EKSPERTIZADA MATN MUALLIFINI ANIQLASH

Dedaxanova Muazzam Altmishbayevna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
E-mail: filologmuazzam@gmail.com
Telefon: (+998) 97 9411007

Annotatsiya. Sud ishlarida lingvistik ekspertiza matn muallifini aniqlash, qalbakilikni oydinlashtirish, jinoyat izlarini ko‘rsatuvchi lingvistik xususiyatlarni tahlil qilish va boshqalar uchun ham qo‘llanadi. Shunga ko‘ra mazkur maqola lingvistik ekspertiza usullari va texnologiyalarining rivojlanishidagi ahamiyatli jihatlar masalasiga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: *lingvistik ekspertiza, lingvistik xususiyat, shaxsiy yozishma, jinoyatni aniqlash, ovozli nutq tekshiruvi, yozma matn ekspertizasi, tovar belgilari ekspertizasi, mualliflik ekspertizasi*.

DETERMINING THE AUTHOR OF A TEXT IN LINGUISTIC EXPERTISE

Abstract. In court cases, linguistic examination is used to identify the author of a text, to clarify forgery, to analyze linguistic features indicating traces of a crime, etc. Accordingly, this article is devoted to the issue of significant aspects in the development of linguistic examination methods and technologies.

Keywords: *linguistic examination, linguistic feature, personal correspondence, crime detection, voice speech analysis, written text examination, trademark examination, authorship examination.*

KIRISH

Lingvistik ekspertiza yurisprudensiyada sud-ekspertizalari tarkibida shakllangan bo‘lib, tilshunoslikda yangi ilmiy yo‘nalish sirasiga kiradi. Ilmiy yo‘nalish sifatida baholashimizning o‘ziga xos sabablari ham mavjud: lingvistik ekspertizalar me’yorini ishlab chiqish va o‘tkazish jarayonida lingvistik bilimlarni amaliyotga tatbiq etish talab etiladi. Bunda tor ixtisoslikdagi bilimlar emas, keng qamrovdagi bilimlar majmuasi kerak bo‘ladi [2: B. 59-62]. Albatta, lingvist-ekspert ekspertiza jarayonida mavjud tadqiqotlar, lug‘at va qo‘llanmalardan foydalanishga ehtiyoj sezadi. Turli tipdagi munozarali vaziyatlarda lingvistik bilimlarni joriy

qilish va yuridik jihatdan mutanosiblashtirishga ehtiyoj mavjud va bu yildan yilga ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Lingvistik ekspertiza dalillar asosida haqiqatni yuzaga chiqaradi. Shunga ko‘ra, uning “taklif etilayotgan tipologiyasiga rasmiy va norasmiy ekspertiza, ovozli nutq tekshiruvi, yozma matn ekspertizasi, tovar belgilari ekspertizasi, mualliflik ekspertizasi, og‘zaki-vizual ekspertiza kiradi” [4]. Savdo belgisi va mualliflik huquqining buzilishi, plagiat, “kod”langan logotip va yorliqlar, matn avtorizatsiyasi, haqorat, tuhmat mazmunidagi yozishmalar, davlat tuzumiga qarshi qaratilgan ekstremistik siyosiy xabarlarda so‘zning kontekstual ma’nosi, hatto alohida so‘zlarning yozilish ma’nosi va og‘zaki matnlar, elektron pochta xabarlari, ijtimoiy tarmoqlardagi bahsli yozishmalar, kibir-jinoyatlarni fosh etish, ichki ishlarga topshirilgan tortishuvli ayblovlar, vasiyatnomalar va o‘z joniga qasd qilish yozuvlarining asl mohiyatini aniqlash va xulosa chiqarishda lingvistik ekspertizaning o‘rni sezilarli darajada o‘sdi [3].

Maqolada differensial-semantik, qiyosiy va lingvistik xususiyatlarni birlashtirgan holda til usullaridan kompleks foydalanildi.

NATIJALAR

Ma’lumki, WhatsApp, Instagram, Facebook, Telegram va Twitter tarmoqlari orqali obunachilar bir-biri bilan aloqa qilishadi va bu jarayonda o‘zlarining maqsadlarini ochiq-oydin yoki yashirin tarzda bayon qilishadi. Bu jarayonda esa ularning maqsadi, istagi, amalga oshirgan ishi va boshqa shu turdagi faoliyatlari bilan birgalikda ijtimoiy toifasi, jinsi, yoshi, hududiy kelib chiqishi, kasbiga oid belgilar ham namoyon bo‘ladi. Lingvistik ekspertizaning eng dolzarb mavzulari markazida turgan turlaridan biri – bu shaxsiy yozishmalar orqali jinoyatchini aniqlash. Jinoyat turlari ko‘p bo‘lishiga qaramasdan hozirgi kunda turli metodlar orqali jinoyatchi shaxsini aniqlash takomillashib bormoqda. Biz yillar davomida tilshunoslikning tarkibiy elementi sifatida o‘rganadigan argolar, jargonlar, shevaga oid so‘zlar, turli xil kanselyarizmlar jinoyatchi shaxsini aniqlashda asosiy birlik bo‘lib xizmat qilmoqda.



1-rasm. Jinoyatchini aniqlashda nutqiy birlik

Ana shu tahlillar asl jinoyatchi yoki qonunbuzarni aniqlashga imkon beradi. Masalan, ekspert muallifi ma’lum bo‘lmagan xatlarni tahlil qilishda, matn muallifining til xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida uning ijtimoiy toifasi, yoshi, jinsi, kelib chiqish hududi kabi ma’lumotlarga oydinlik kiritadi. Sud-mualliflik tahlili lingvistikaga qaratilgan barcha darajadagi leksik, semantik, sintaktik va nutq, shuningdek, imlo, punktuatsion, stilistik jihatlar tekshiriladi.

2-rasm. Sud-mualliflik tahlili

Har qanday matnda muallifning o‘ziga xosligi ushbu lingvistik xususiyatlarni umumlashtirgan holda atributga asoslanadi. Bir yoki bir nechta munozarali matnlar mavjud bo‘lgan vaqtda esa mualliflik atributini aniqlash yanada murakkablashadi. Bahsli matnlar tahdid xatlari, vasiyatnomalar, o‘z joniga qasd qilish to‘g‘risidagi yozuvlar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Ammo so‘nggi o‘n yil ichida tahlil obyektlari miqdori o‘sdi. Elektron pochta xabarlari, matnli xabarlar va so‘nggi twitlar, Instagram, Facebook va WhatsApp xabarlari, Twitter singari ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar almashinuvi soni oshdi. Ushbu tendensiya sud tilshunosining vazifasini murakkablashtirdi, chunki matn qanchalik qisqa bo‘lsa, unda xususiy atributlar shuncha kam bo‘ladi. Yoki kishi sha’ni va qadr-qimmatiga tahdid qiluvchi xat, murojaatlarni tahlil qilishda haqorat qiluvchi shaxsga hukm chiqarmaydi va bu ekspertning vakolati emas. U haqoratning darajasi, ta’sir doirasi, sabab va oqibatlarini tekshirib, yakuniy xulosa beradi. Xulosa hukm xarakterida emas, ekspert mavjud dalillar asosida yashirin jihatlarni yaqqol ochib ko‘rsatadi. Albatta, ekspertning zimmasidagi vazifa ham o‘ta mas’uliyatli va tajriba talab etadigan jarayon. Ekspert lingvistik ekspertizani amalga oshirish jarayonida turli manbalar, usul va vositalarga tayanadi. Zero, lingvistik ekspertiza natijasi bevosita sud hukmi yo‘nalishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ekspertiza o‘tkazish uchun turli tipdagi ma’lumot va axborotlar bazasi zarur bo‘ladi. Lingvistik ekspertiza sud-kriminalistik jarayonlarning jiddiylashuvi va murakkablashuvi asnosida yuzaga kelgan yangi soha bo‘lsa-da, uning tarmoqlari ham kengayib borishi shubhasiz [3]. Shunga ko‘ra, vaqt o‘tishi bilan lingvistik ekspertiza usullari va texnologiyalari yanada murakkablashishi bilan birga takomillashib boradi. Hozirgi vaqtda

lingvistik ekspertiza korpus lingvistikasi, hisoblash lingvistikasi va statistik ma’lumotlarni tahlil qilish kabi zamonaviy lingvistik nazariya va metodlarni qo‘llashga asoslanadi.

MUHOKAMA

Lingvistik ekspertiza sud ishlari, kriminologiya, xalqaro munosabatlar, siyosat, marketing va reklama kabi turli sohalarda qo‘llanilishi mumkin. Sud ishlarida lingvistik ekspertiza matn muallifini aniqlash, qalbakilikni oydinlashtirish, jinoyatni ko‘rsatuvchi lingvistik xususiyatlarni tahlil qilish va boshqalar uchun qo‘llanishi mumkin. Bu jinoiy, fuqarolik va ma’muriy ishlarda foydalidir. Siyosatda lingvistik ekspertiza siyosiy nutqlar, bahslarni tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkin. Bu manipulyatsiya, hissiy vositalardan foydalanish va siyosiy matnlardagi yashirin ma’nolarni aniqlashga ko‘maklashadi [1: B. 137-139].

Og'zaki-vizual tekshiruvlarning tadqiqot obyekti og'zaki va og'zaki bo'lmagan ma'lumotlarning kombinatsiyasi, ya'ni tasvir hamda matnning kombinatsiyasi sifatida murakkab xususiyatga ega. Frazeologik birlik sifatida ham "so'zlovchining o'zini tanishtirgan shaxs yoki shaxslar guruhining ustunligi belgisi sifatida talqin qilinadigan ijobiy his-tuyg'ularni so'zlovchi tomonidan ifodalanishi" ma'nosida ham, erkin ibora sifatida ham qo'llanilishi mumkin [4].

Marketing va reklama sohasida lingvistik ekspertiza reklama matnlari, shiorlar va logotiplarni tahlil qilishda foydali bo‘lishi mumkin. U reklamada qo‘llaniladigan hissiy va psixologik usullarni aniqlashga va ularning samaradorligini baholashga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, lingvistik sud ekspertizasi tilshunoslik, kriminologiya va huquqni birlashtirgan muhim va dolzarb tadqiqot sohasidir. U keng ko‘lamli ilovalarga ega va turli sohalar uchun foydali va ahamiyatlidir. Lingvistik ekspertiza usullari va texnologiyalarining rivojlanishi aniqroq va obyektiv natijalarga erishish imkonini beradi, bu esa uni zamonaviy sud ishlari va tadqiqotlarida ajralmas vositaga aylantiradi. Sud kriminologiyasida lingvistik ekspertiza jinoyatlarni tergov qilish, gumonlanuvchilarni aniqlash, hujjatlar va aloqalarni tahlil qilishda yordam beradi. U turli matnlarning lingvistik xususiyatlarini qiyoslash yoki muayyan jinoyat bilan bog‘liq lingvistik xususiyatlarni tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkin. Bu jinoiy, fuqarolik va ma’muriy ishlarda foydali bo‘lishi tabiiy.

Xalqaro munosabatlarda lingvistik ekspertiza hujjatlarni tahlil qilish, tarjimalar va lingvistik iboralarni izohlashda foydali bo‘lishi mumkin. U tarjima va talqinlardagi xatolar, tushunmovchiliklar yoki yashirin ma’nolarni aniqlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Belkin R.S. (1997). Sud ekspertizasi kursi. 3 jildlik, 2-jild: Xususiy sud ekspertiza nazariyalari. – M.

2. Dedaxanova, M. A. (2022). Nazariy tilshunoslikda lingvistik shaxs muammosi. Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali, 2(8).

3. Musulmonova K. (2021). Lingvistik ekspertizaning umumiy metodlari – Til va adabiyot ta’limi jurnali. 8-son https://tsuull.uz/sites/default/files/2.musulmonova_kamola_km-8-son_compressed.pdf

4. Баранов А.Н. (2000). Теория лингвистических экспертиз как направление прикладной лингвистики. (http://www.dialog-21.ru)

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ABDULLA QODIRIYNING “YIGITCHILIKDA” HAJVIY HIKOYASIDA QO‘LLANILGAN TAGMA’NONING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Mehmonova Sarvinoz Is’hoq qizi
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
Email: ergashevasarvinoz942@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “Yigitchilikda” hikoyasida qo‘llanilgan tagma’noning leksik-semantik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda muallif til boyliklaridan foydalanib, hajviylik ruhini kuchaytiruvchi, yashirin ma’no qatlamlari orqali ijtimoiy tanqidni ifodalovchi tagma’nolarni badiiy uslubda berishga erishadi. Ushbu tagma’nolar semantik jihatdan ko‘p qavatli bo‘lib, o‘z ichida kinoya, istehzo, metafora, qarama-qarshilik va boshqa ma’no vositalarini mujassamlashtiradi.

Kalit so‘zlar: realizm, presuppozitsiya, tagma’no, hajv, leksik-semantik, kinoya, satira, pragmatika, yumor, tanqid.

Kirish. O‘zbek badiiy adabiyotida realizm va satira unsurlarini uyg‘unlashtirgan ijodkorlardan biri Abdulla Qodiriydir. Uning “Yigitchilikda” hikoyasi XIX asr oxiri va XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy hayot muammolarini yoritishga qaratilgan, mayin satira va teran kinoya vositalaridan unumli foydalangan asardir. Abdulla Qodiriy bu hikoyasida xalqning turmush tarzini, muhitdagi illatlarni, ayniqsa, yoshlardagi loqaydlik, jaholat va soxta bilimga asoslangan da’volarni hajviy uslubda fosh etadi. Adabiy matnni tag‘ma’no (presuppozitsiya) nuqtayi nazaridan tahlil qilish esa bunday asarlarning ichki qatlamini ochishda muhim omildir.[7] Ayniqsa, leksik-semantik vositalar orqali hosil bo‘ladigan tag‘ma’nolar badiiy niyatni, muallif pozitsiyasini aniqlashda beqiyos ahamiyatga ega. Tagma’no shakllari lingvistik pragmatika yo‘nalishining asosiy muammolaridan biri sanaladi. Tagma’no o‘zining turlicha ko‘rinishlari bilan xarakterlanib, u piching, kinoya, kesatiq tushunchalarini ham qamrab oladi. Bu masalalarning lingvistik pragmatika tarkibiga kiritilishining asosi bor. Kinoya va uning ko‘rinishlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri pragmatika sohasi bilan bog‘lamay turib, bular haqida fikr yuritib bo‘lmaydi. Jumladan, lingvistik pragmatika va uning muammolari, nutqiy akt, presuppozitsiya, yopiq va yig‘iq mazmun ko‘rinishlari, shuningdek, tagma’no va kinoya turlari doimo subyekt-obyekt, so‘zlovchi-tinglovchi munosabatida namoyon bo‘ladi.[5]

Adabiyotlar tahlili. Abdulla Qodiriy ijodidagi hajviylik masalasi XX asr o‘zbek adabiyoti va tanqidchiligida doimiy ilmiy qiziqish uyg‘otgan mavzulardan biridir. Bu borada oli borilgan ilmiy izlanishlar asosan Qodiriyning nasriy asarlaridagi kulgi, istehzo, kinoya va tanqidiy

obrazlar orqali namoyon bo‘lgan hajviy unsurlarni tahlil qilishga qaratilgan. Xususan, U.Normatov. “Serjilo kulgi” (1991). Ushbu asar Qodiriy hajviyotining o‘zbek adabiyotidagi tutgan o‘rni va shakllanish jarayonini o‘rganishda muhim manba sanaladi. Normatov Qodiriy satirasining xalqona ildizlarini ochib berishga, uning hajv orqali ijtimoiy illatlar kabi muammolarni fosh etishda, tur xil pragmatik vositalardan foydalanganini izohlab o‘tgan. [4]

Tagma’no masalasi bevosita termin sifatida ochiq aytilmagan, ammo uslubiy va ideologik kinoya shaklida tahlil qilingan. Bundan tashqari, adabiyotshunos olimlarimizdan Oybek “Abdulla Qodiriyning ijodiy yo’li” nomli asari ham diqqatga sazovordir. [7]

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Abdulla Qodiriy hajviyotini o‘rganish orqali pragmatik terminlardan hisoblangan tagma’no va uning leksik-semantik xususiyatlariga e’tibor qaratilgan. Tadqiqot jarayonida tavsifiy-lisoniy, kontekstual-analitik, stilistik- tekstolog metodlardan foydalanildi. **Tahlil va natijalar. Tag‘ma’noning nazariy asoslari va semantik tabiati**. Tag‘ma’no – bu til birliklari orqali ifoda etilgan, ammo bevosita aytilmagan, o‘quvchi yoki tinglovchi tomonidan anglanishi kutilgan ma’nodir. U presuppozitsiya deb atalib, ko‘pincha nutq konteksti, suhbat ishtirokchilarining umumiy bilim doirasi va madaniy kodlari orqali yuzaga chiqadi. G.Yule ta’kidlashicha, presuppozitsiya gaplovchi tomonidan aksiomatik tarzda qabul qilingan va tinglovchiga ham ma’lum deb hisoblangan axborotdir. [3] Leksik-semantik presuppozitsiya esa so‘z yoki ibora tarkibida yashirin tarzda mavjud bo‘lib, u kontekstdagi voqelikni anglatadi. Masalan, “qayta urinish” deganda, oldin urinish bo‘lgani ma’lum bo‘ladi.

“Yigitchilikda” hikoyasida leksik-semantik tag‘ma’no ifodalari:

1. Kinoya va ironik tag‘ma’no. ***“Bolamizga usta topib berdik. Ustamiz juda olim kishi ekan, besh vaqt namozini o‘qiydi, so‘zini e’tikdan oshirmaydi...”*****[**1] Bu yerda “olim” va “so‘zini etikdan oshirmaydi” iboralari tashqi jihatdan ijobiy baho bersa-da, kontekstdan usta haqidagi befarqlik, savodsizlik va yolg‘on e’tiqodga ishora qilinmoqda. Tagma’no, ko‘pincha, propozitsiya vositasida bayon qilinib, faqat ba’zi holatlardagina propozitsiyadan keyin muallif izohi sifatida oshkora verbal bayonga ega bo‘ladi. Ko‘p hollarda so‘zlovchi o‘zi uchun muhim bo‘lgan axborot ko‘rinishlaridan birini oshkora bayon qilishni istamaganligi uchun uni matn ichiga tagma’no sifatida joylashtiradi. Oshkora bayonga ega bo‘lmagan tagma’no ko‘rinishi, garchi berilgan bo‘lsa-da, tinglovchi uchun ma’lum bo‘ladi.

2. Frazeologizmlar orqali berilgan tag‘ma’nolar. Masalan**,*****“Ustam har gal dars o‘rniga og‘iz ko‘tarardi”*** - bu ibora orqali muallifning tanqidi berilgan: bu ustozlar aslida tarbiya emas, salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

3. Antitezalar orqali tag‘ma’no hosil qilish. Misol uchun**,*****“Ustam: Haromdan hazar qil!’ der edilaru, birovning tandirida pishgan nonni olib ketaveradilar.”*** Parchada keltirilgan ikki qism orasida ziddiyat mavjud. Ustozning 'halollik' haqidagi da’vosi amaliy harakati bilan inkor etiladi. [1]

4. Soxta bilim va mavqega ega kinoya. Qodiriy “Yigitchilikda” hikoyasida soxta bilimli, sun’iy mavqe orttirgan, lekin aslida nodon, o‘zini pishiq qilib ko‘rsatadigan kishilarni o‘ta nafis

va ta’sirchan kinoya orqali fosh etadi. U bu orqali o‘z davrining jamiyatidagi madaniy va ma’naviy inqiroz, mutelik ruhi, hamda yolg‘on maqom orttirish illatlarini ochib beradi**.** Masalan, **“*Men bo‘lsam…yigitchilikda qop-qora, do‘ppi bosgan, etik kiygan, barmoqlarida uzuk, bir barmog‘ida misqolchalik uzuk- bas,shu yetarli!”*** Bu yerda qahramon yigitchilikda odamlar hurmatini qozonish uchun, kiyim va tashqi ko‘rinish kabi yuzaki belgilar bilan “shaxsiyat” qozonishga urinadi. Ammo bu soxta mavqeni kinoya bilan tasvirlayotgan muallif bu orqali aslida bilim va fazilatdan yiroq, o‘zini ko‘rsatishga ishqiboz, lekin bo‘sh odamlarni tanqid qiladi. Muallif bu odamlarni fosh qilmaydi, balki kulgiga oladi: ***“Ustam men o‘qiyotgan daftarimga qarab: ‘Bo‘ldi, endi sen mashhur muallim bo‘lasan’, der edilar.”*** Ushbu ibora kulgi bilan ishlatilgan. Muallif soxta bilimlar asosida qurilgan ijtimoiy maqomlarni tanqid qiladi.[1]

5. Ijtimoiy tag‘ma’nolar. Bunday tagma’nolar matnda bevosita aytilmagan, lekin ijtimoiy kontekst, muhit, tarixiy davr yoki jamiyatdagi mavjud muammolar orqali anglashiladigan ma’no tushuniladi. Bunday tagma’no o‘quvchidan yoki tinglovchidan muayyan ijtimoiy-madaniy bilimlarni talab etadi. Abdulla Qodiriy o‘zining hajviy hikoyalari asosida ijtimoiy tagma’noning tahlili keltiriladi: ***“Ustam savol berar, javobni o‘zi aytar, men esa yod olardim.”*** Bu jumlada presuppozitsiya shuki, o‘quvchi mustaqil fikrlashga undalmayapti, bu esa ana shu davrdagi ta’lim tizimini tanqid qiladi. Bundan tashqari, “O‘liklar gapiradilar” hikoyasida marhumlar hayotda qilgan gunohlaridan o‘zlari kulishadi, go‘yo ular qilgan ishlari “oddiy” dek tasvirlanadi. Bu yerda ijtimoiy axloqiy buzilish, odob, va vijdon tanqidi, beparvolik, qo‘rqmaslik muhitini ko‘rsatadi. Qodiriy hayotda jazoga loyiq ishlar qilgan kishilar o‘lgach, ularni “tabiiy” deb oqlovchi jamiyatga kinoya qiladi.

Yigitchilikda hikoyasi o‘zbek hajviy adabiyotining muhim namunasidir. Asarda ochiqcha aytilmaydigan, ammo kontekst orqali seziladigan tagma’nolar muallifning jamiyatga, ta’lim tizimiga va o‘z o‘tmishiga nisbatan tanqidiy munosabatini ochib beradi. Kinoyaviy ifoda orqali ustoz zo‘ravonligining asl mazmun-mohiyatini aks etadi: “ ***Domla meni juda yaxshi ko‘rardi. Har kuni meni eslashni unutmasdi.***” Bu ibora sintaktik jihatdan ijobiy bo‘lsa-da semantik jihatdan mutlaqo sallbiy tagma’noni o‘zida aks ettiradi. Muallif ustozning uni har kuni kaltaklashini “eslash” deb kinoya qilinadi. Bu yerda ochiq tanqid qilinmaydi, biroq o‘quvchi bu “mehr”ning aslida zo‘ravonlik ekanini kontekstdan fahmlaydi. “***Qamchi bilan urilishi ham bir shirin dars edi.*”** Bu ibora badiiy kinoyaning yorqin namunasi bo‘lib, undagi “shirin” so‘zi aslida “achchiq” ma’noni bildiradi. O‘quvchini kaltaklash orqali tarbiya qilish oddiy hol sifatida tasvirlansa-da, muallif bu usulni tanqid qiladi. Ya’ni, tagma’no orqali o‘quvchi zamonaviy ta’limda bunday shavqatsiz yondashuvlarga joy yo‘qligini anglaydi.

Bundan tashqari, o‘tmishni quvonch bilan eslash ham pragmatik tagma’noning namunasi hisoblanadi. Masalan, “***Qanday yaxshi kunlar edi. Har kungi qamchi, har kungi dars…”*** Bu yerda muallif o‘tmishni “yaxshi kunlar “deb ataydi. Biroq kontekstda bu so‘zlar istehzo bilan qo‘llanilgan: muallif uchun bu voqealar shunchalik og‘ir bo‘lganidan, uni yengil ohangda eslash orqali tanqid kuchaytiriladi. Bu implikatura Graysning maksimlaridan, ayniqsa, sifatlilik va

moslik maksimlariga zid ravishda yuzaga keladi. Asarda hajv vositasida madrasaviy ta’lim tanqidi ham ko‘zga tashlanadi. Xususan, *“**Domlaning bu mehribonligi tufayli biz bir yil ichida Qur’onni o‘rganib, birovlar bilan savollashadigan bo‘ldik.”*** Bu yerda “mehribonlik” va “savollashadigan”kabi so‘zlar bilan madrasadagi o‘qitish jarayonining samarasizligi yashirin tanqid qilinadi. Ya’ni, zo‘ravonlik vositasida o‘rganilgan bilim shaklan bor, lekin mazmunan kuchsiz. Bu kontekstual tagma’no o‘quvchini diniy ta’limdagi eski uslublari ustidan o‘ylashga chorlaydi. [1] Abdulla Qodiriy ijodida shs va shunga o‘xshash holatlarni ko‘plab o‘rinlarda uchratishimiz mumkin.

Xulosa. Abdulla Qodiriyning “Yigitchilikda” hikoyasi leksik-semantik tag‘ma’nolar bilan to‘yingan bo‘lib, ularning har biri muallifning tanqidiy ruhini, ijtimoiy illatlarga nisbatan munosabatini ifoda etadi. Asardagi har bir kinoya, istehzo yoki xalqona ibora ichki tag‘ma’no orqali o‘quvchiga teranroq ijtimoiy ma’lumot beradi. Pragmatik yondashuvda bunday presuppozitsiyalar asarning badiiy qiymatini oshiribgina qolmay, balki uning jamiyat hayotidagi o‘rnini ham belgilaydi. Mazkur tadqiqot davomida Qodiriy asarlaridagi hajviy ifoda vositalarining lingvopragmatik mohiyati ochib berildi. Bu esa adibning nafaqat badiiy mahoratini, balki uning zamonasini chuqur anglagan ijodkor sifatidagi rolini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, o‘zbek adabiyotida hajv vositasida berilgan tagma’no mazmunlarini aniqlash, ularning semantik va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha yanada keng qamrovli tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligini aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qodiriy.A. (Jadid adabiyoti namoyondalari). Asarlar. 1-jild. – T.: “Zabarjad media”. 2022.
2. Levinson, S. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press.
3. Yule, G. (1996). Pragmatics. Oxford University Press.
4. Xudoyberganova, D. (2011). Nutq faoliyati pragmatikasi. – T.: Fan.
5. Bobojonov, O. (2007). O‘zbek tili leksikologiyasi. – T.: O‘zbekiston.
6. Jo‘raev, M. (2014). “Tag‘ma’no va uning matndagi ifodalanishi”. Filologiya masalalari, №2.
7. Rahmatullaeva, D. (2020). “Pragmatik tahlilning zamonaviy yondoshuvlari”. O‘zMU ilmiy axborotlari, №1.
8. Xaitov, E. (2009). Tilshunoslikka kirish. – T.: O‘qituvchi.
9. Karimov, H. (2018). “Adabiy matnda yashirin semantik qatlamlar”. Til va adabiyot ta’limi, №3.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

RITORIK NUTQDA HOSIL BO‘LADIGAN MA’NO TURLARI VA INKORNING FUNKSIONAL VAZIFASI

Toshxonov Lochinbek Tursunboyevich
Namangan davlat universiteti
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ihtisosligi 3-bosqich doktoranti
+998979718802
lochin@inbox.ru
https://orcid.org/0000-0002-1171-5402

Annotatsiya: Maqolada ritorik nutqda shakllanadigan ma’no turlari hamda inkor vositasining funksional vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda siyosiy nutqlar, zamonaviy ifodalar va A. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidan olingan misollar asosida inkorning denotativ, konnotativ, pragmatik, ironik, metaforik va ekspressiv ma’nolarga qanday ta’sir qilishi ko‘rib chiqilgan. Muallif inkorning ritorik ta’sirini oshirish, fikrni aniqlashtirish, qarama-qarshiliklarni ifodalash va emotsional kuch berishdagi o‘rnini asoslaydi. Tadqiqot natijalari inkor shakllarining adabiy va ijtimoiy matnlarda tanqidiy va satirik vazifalarni ham bajarishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Ritorik nutq, ma’no turlari, inkor, funksional vazifa, denotatsiya, konnotatsiya, pragmatika, metafora, ironiy, ekspressivlik, ijodiy tahlil, siyosiy nutq, tanqidiy ifoda.

TYPES OF MEANING IN RHETORICAL SPEECH AND THE FUNCTIONAL ROLE OF NEGATION

Annotation: This article analyzes the types of meanings that emerge in rhetorical speech and the functional roles of negation. The study examines how negation affects denotative, connotative, pragmatic, ironic, metaphoric, and expressive meanings using examples from political speeches, contemporary expressions, and excerpts from A. Cholpon’s novel Night and Day. The author substantiates the role of negation in enhancing rhetorical impact, clarifying thoughts, expressing contrast, and adding emotional intensity. The results show that forms of negation also serve critical and satirical functions in literary and social texts.

Keywords: Rhetorical speech, types of meaning, negation, functional role, denotation, connotation, pragmatics, metaphor, irony, expressiveness, literary analysis, political speech, critical expression.

ТИПЫ ЗНАЧЕНИЙ В РИТОРИЧЕСКОЙ РЕЧИ И ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ РОЛЬ ОТРИЦАНИЯ

Аннотация: В статье рассматриваются виды значений, формирующихся в риторической речи, а также функциональные задачи отрицания. На основе политических речей, современных выражений и отрывков из романа А.Чулпона «Ночь и день» анализируется влияние отрицания на денотативные, коннотативные, прагматические, иронические, метафорические и экспрессивные значения. Автор обосновывает роль отрицания в усилении риторического воздействия, уточнении мысли, выражении противопоставлений и придании эмоциональной силы. Результаты исследования показывают, что формы отрицания также выполняют критическую и сатирическую функцию в литературных и социальных текстах.

Ключевые слова: Риторическая речь, типы значений, отрицание, функциональная роль, денотация, коннотация, прагматика, метафора, ирония, экспрессивность, литературный анализ, политическая речь, критическое выражение.

Kirish

Ritorik nutq — bu tinglovchiga ta’sir ko‘rsatish, fikr va hissiyotlarni ta’sirchan va aniq yetkazish san’atidir. U asosan siyosiy, ijtimoiy, adabiy va ommaviy nutqlarda qo‘llaniladi. Ritorik usullar orqali ma’no yanada kuchaytiriladi, emotsional va obrazli tus oladi. Ritorik nutqda hosil bo‘ladigan ma’no turlari orasida denotativ, konnotativ, pragmatik, ironik, metaforik va ekspressiv ma’nolar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, inkor (negatsiya) vositasi ushbu ma’nolarni aniqlashtirish, kuchaytirish va qarama-qarshiliklarni ko‘rsatishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada ritorik nutqda inkor shakllarining funksional vazifalari o‘rganiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Tadqiqot sifatida matn tahlili usuli tanlandi. Analiz obyekti sifatida siyosiy ritorika, zamonaviy nutqiy ifodalar va XX asr boshidagi o‘zbek jadid adabiyotidan A. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi parchalar tanlab olindi. Tahlil asosan inkor shakllarining qanday ma’no hosil qilgani, ritorik ta’sirni qanday oshirgani, hissiy/emotsional ta’sirga qanday xizmat qilganiga qaratildi. Misollar semantik (ma’no) va pragmatik jihatdan tahlil qilindi.

Natijalar

Tahlillar asosida quyidagi ma’no turlari aniqlangan:

Aniq ma’no (denotatsiya) – lug‘aviy asosiy ma’no: Misol: “Sher” – hayvon sifatida.

Yashirin ma’no (konnotatsiya) – madaniy yoki hissiy yuklama: Misol: “Sher” – jasorat timsoli.

Pragmatik ma’no – kontekst asosida anglash: Misol: “Havo juda salqin” – deraza yopilishi lozimligiga ishora.

Ironik ma’no – teskari ma’no orqali ta’sir: Misol: “Ajoyib ish qilding!” – tanqid sifatida.

Metaforik ma’no – obrazli, ko‘chma ma’no: Misol: “Uning ko‘zlari – ikki qalb.”

Ekspressiv ma’no – emotsional kuch beruvchi so‘zlar: Misol: “Bu dahshatli xato!”

Ritorik inkorning funksional vazifalari quyidagilar orqali aniqlandi:

Aniqlikni oshirish: “Bu loyiha moliyalashtirilmaydi, balki davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.”

Noto‘g‘ri tushunchalarni rad etish: “Bu qaror huquqlarni cheklamaydi, aksincha ularni himoya qiladi.”

Qarama-qarshilikni ifodalash: “Kelishdi, lekin shartnoma imzolanmadi.”

Tushunmovchilikni oldini olish: “Bu dori kasallikni davolaydi, lekin oldini olmaydi.”

Inkor shakllarining asosiy ko‘rinishlari:

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri inkor: “Bu fikr to‘g‘ri emas.”
2. Zidlov bog‘lovchilar bilan: “U boy emas, balki mehnatkash.”
3. Kuchaytiruvchi olmoshlar bilan: “Hech qanday noqonuniy harakatlar yo‘q.”
4. Ritorik savollar shaklida: “Bu adolatlimi? Hech ham emas!”

Adabiy misollarda inkorning ritorik ta’siri yana ham aniq ko‘rinadi. A.Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidan olingan quyidagi misollar bunga yaqqol dalildir:

Oddiy inkor: “Hech kimsa mingboshidan norozi bo‘lganlari yo‘qdur.”

Kuchaytiruvchi inkor: “U shariatga xilof ilmlarini ta’lim bergani…”

Satirik inkor: “Narigilar mingboshi emas, kech kuzdagi chivindan battar.”

MUHOKAMA.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inkor shakllari ritorik nutqda bir nechta asosiy vazifalarni bajaradi:

Ta’sirchanlikni kuchaytiradi: Inkor vositasi bilan aytilgan gap qat’iyroq, murosasizroq bo‘ladi. Masalan, siyosiy nutqda: “Biz orqaga chekinmaymiz va tashqi bosimlarga taslim bo‘lmaymiz!” kabi ikki tomonlama inkor qat’iylikni ta’kidlaydi va zaiflik tasavvurini yo‘q qiladi. A. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida “Hech kimsa mingboshidan norozi bo‘lganlari yo‘qdur” iborasi jamoaviy his-tuyg‘uni tasdiqlab, tasvirlangan shaxsning nufuzini kuchaytiradi.

Fikrni aniq belgilaydi: Inkor noto‘g‘ri talqinlarni rad etish orqali chalkashlikni kamaytiradi. Zamonaviy o‘zbek siyosiy nutqlarida, masalan: “Bu islohotlar iqtisodiy inqirozga olib kelmaydi, aksincha, barqarorlikni ta’minlaydi” kabi iboralar fikrni aniqlashtiradi. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida: “U shariatga xilof ilmlarini ta’lim bergani…” iborasi inkor orqali ta’limning diniy normalarga zid ekanligini aniq ko‘rsatadi.

Qarama-qarshi g‘oyalarni ajratadi: “Emas, balki” yoki “aksincha” kabi bog‘lovchilar bilan inkor qarama-qarshilikni ta’kidlaydi. Masalan: “Biz eski usullarga qaytmaymiz, balki yangi imkoniyatlarni kashf qilamiz” iborasi taraqqiyotni ta’kidlaydi. Cho‘lponning asarida: “Narigilar mingboshi emas, kech kuzdagi chivindan battar” iborasi satira orqali qarama-qarshilikni kuchaytiradi.

Emotsional kuch beradi: Inkor tanqid, e’tiroz yoki achchiq haqiqatni ifodalab, hissiy holatni oshiradi. Siyosiy nutqda: “Bu adolatsizlikni hech qachon qabul qilmaymiz!” kabi

iboralar qat’iy qarshilikni bildiradi. Cho‘lponning “Bu adolatlimi? Hech ham emas!” kabi ritorik savollari ijtimoiy normalarga tanqidni kuchaytiradi. Yana bir zamonaviy misol: “Bu voqea fojiali emas, balki o‘ta dahshatli!” – inkor orqali hissiy ta’sirni oshiradi.

Adabiy matnlarda tanqidiy va satirik vazifalar: Inkor adabiy asarlarda ijtimoiy muammolarni ochish uchun ishlatiladi. Cho‘lponning “U shunday odamki, hech qachon o‘z so‘zida turmagan” iborasi ikkiyuzlamachilikni fosh qiladi. Zamonaviy satira misolida: “U rahbar emas, faqat o‘z manfaatini o‘ylovchi odam” iborasi tanqidni keskinlashtiradi.

Ritorik savollarni kuchaytiradi: Inkor bilan ritorik savollar yanada ta’sirli bo‘ladi. Siyosiy nutqda: “Bizning xalqimiz bunchalik qashshoqlikni loyiqmi? Yo‘q, hech qanday holatda!” kabi iboralar e’tirozni kuchaytiradi. Cho‘lponning “Bu jamiyat o‘zgarishni xohlamaydimi? Yo‘q, unday emas!” iborasi fikrni o‘quvchiga yetkazadi.

XULOSA

Ritorik nutqda hosil bo‘ladigan ma’no turlari, ayniqsa inkor vositasi, fikrni kuchaytirish, aniq ifodalash va hissiy ta’sirni oshirishda samarali vositadir. Inkor yordamida ijtimoiy, siyosiy va adabiy matnlarda fikrga aniqlik, tanqidiy ohang, va kuchli emotsional ta’sir beriladi. Adabiy asarlarda inkor ayniqsa tanqidiy va satirik vazifalarni bajarib, davr muammolariga munosabat bildiradi. Bu holat o‘zbek ritorikasida inkorning ahamiyatini yuksak darajada ekanligini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Ахманова О, Беленкая В. Инглиз тилидаги феъл замонларининг морфологияси, Аспест ва Тахис - М, 1975-йил.

2. Басариа И.А. Замонавий инглиз нутқида инкорнинг предикатив шакллари коллигатсия ва коллокатсиянинг бирлиги сифатида. Дисс филол фанлари номзоди -М, 1990-йил, 192- бет.

3. Герхелиа Г.К. Замонавий инглиз фразеологияси -М, 1989, 184-бет

4. Комова Т. А. Тил ва нутқда модал феълларнинг қўлланилиши - М, 1990, 140-бет

5. Комова Т.А. Инглиз тилидаги феълларнинг грамматик морфологик категориялари тизимида инкор категориясининг ифодаланиши– М, 1985-йил, 91-бет.

6. Toshxonov L.T. E’tiroz tushunchasini ifodalovchi verbal inkorning grammatik kategoriya va nutq predmeti sifatida ifodalanishi // Scientific Bulletin of NamSU – Научный вестник НамГУ – NamDU ilmiy axborotnomasi. – 2023. – № 8. – S. 515–520.

7. Toshxonov L.T. E’tiroz kategoriyasi va modallik tushunchalarining polemik asarlarda ifodalanishi // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. – 2023. – № 8/4 (105). – S. 74–80.

8. Toshxonov L.T. Expression objection by negative methods in the construction of literary discourse // Journal of Advanced Linguistic Studies. Volume 10, Issue № 2, Jul-Dec 2023. –P 246-253.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

MUQADDAS QADAMJO NOMLARI:TOPONIMIK VA LINGVISTIK TAHLIL

Maqsudova Feruza Jo`ravoy qizi
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
feruzaxonmaqsudova72@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada muqaddas qadamjo nomlari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. O`zbekistonda mavjud bo`lgan muqaddas qadamjolar, xususan, diniy jihatdan ahamiyatga molik bo`lgan joy nomlarining nomlanish sabablari, tarixiy, diniy va ijtimoiy konteksda ko`rib chiqiladi. Jumladan, toponimik nomlarning shakllanish omillari, mavzuiy guruhlari, struktur tuzilishi, semantik hamda etimologik xususiyatlari ochib beriladi.Shuningdek, muqaddas qadamjo nomlarining ijtimoiy ahamiyati,ya’ni xalq ongidagi o’rni va roli haqidagi masalalar yoritiladi.

Kalit so`zlar: Muqaddas qadamjo, ziyoratgoh, toponimika, diniy -madaniy meros, o’zbek tilshunosligi,onomastika

Abstract This article analyzes the names of sacred places from a linguistic perspective. The names of sacred places in Uzbekistan, in particular, the reasons for the naming of religiously significant places, are considered in a historical, religious and social context. In particular, the factors of formation of toponymic names, thematic groups, structural structure, semantic and etymological features are revealed. In addition, the issues of the social significance of the names of sacred places, that is, their place and role in the public consciousness are highlighted.

Keywords: Holy place, place of pilgrimage, toponymy, religious and cultural heritage, Uzbek linguistics, onomastics

Аннотация В данной статье анализируются названия сакральных мест с лингвистических позиций. Названия сакральных мест в Узбекистане, в частности, причины наименования религиозно значимых мест, рассматриваются в историческом, религиозном и социальном контексте. В частности, раскрываются факторы формирования топонимических названий, тематические группы, структурная структура, семантические и этимологические особенности. Кроме того, освещаются вопросы социальной значимости названий сакральных мест, то есть их место и роль в общественном сознании.

Ключевые слова: Святое место, место паломничества, топонимика, религиозно-культурное наследие, узбекское языкознание, ономастика

KIRISH

Onomastikaning bugungi kunda dunyo tilshunosligining tez rivojlanayotgan yo’nalishlaridan biri toponimikadir.U tilshunoslik, geografiya, tarix, madaniyat kabilarning kesishgan nuqtasida joylashgan fan sohasidir.

Muqaddas joylar tarixiy davrdan to shu kungacha insoniyat madaniyati, ma’naviyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Qadimiy ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar biror tarixiy voqea yoki chuqur ruhiy tajribalar bilan bog`liqdir. Ularning eng qiziqarli va o`ziga xos jihati ularning nomlaridir.Muqaddas joylarning nomlari ko`pincha o`sha hudud madaniyati, qadriyatlarini aks ettiradi, o`sha joyga xos bo`lgan til va dunyoqarashga asoslanadi. Bunday nomlar geografik manzillarni belgilash bilan birga, ko’pincha chuqur ma`naviy yoki afsonaviy ma’no-mazmunni o`zida mujassam etadi. Ko`plab muqaddas joylar nomlari diniy qissalar, tarixiy shaxslar, tarixiy voqealar,urf-odat, marosimlar bilan bog`liq.Aynan shu sababli bu nomlar insonlar uchun eslatma bo’lib xizmat qiladi. Ular insonlarni ular bilan bog`liq voqelik va hodisalarni eslashga undaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Dunyo tilshunosligida muqaddas qadamjo nomlarining o`rganilishi ko`p qirrali ilmiy yo`nalish bo`lib, bu orqali tillarning rivoji, insoniyatning diniy, madaniy va ijtimoiy ongida chuqur o`rin tutadi. Har bir nom til, tarix, madaniyat, e’tiqod kabiarning tutashgan nuqtasidir. Dunyo olimlari tadqiqotlarida mazkur mavzudagi turli yondashuvlar asosida o`rganilogan o`rinlar talaygina. Muqaddas qadamjo dizayni (Fuchs, 2004), muqaddas joylarga insonlarning aralashuvi natijasida monumental makonga aylantirilishi, ziyorat yo`llari bo`ylab meroslarning qiymati (Roben Komilo), shahidlar maqbarasi, qabrlar, muqaddas joylarga sig`inish (M. Bacci), muqaddas joyla va qabristonlar marosim landshaftining bir qismi ekanligi(Valk, 2015) , muqaddas yer turizmi(Polat and Arslan, 2019) **,**qabr toshlardagi shaxs ismlarining mintaqaviy va milliy o`ziga xoslikni ifoda etishi (Vayta.R), muqaddas suv havzalari, (Bhattacharya *et al.*, 2024), (Abdalaal, Saleh and Essam, 2024), ”Terapevtik makon”(Foley, 2011) kabi ko`plab qarash va tahlillar fikrimiz dalili bo`la oladi.

O`zbek tilshunos olimlari tomonidan ham toponimikaga oid ko`plab tadqiqotlar olib borilgan. Y.G`.G`ulomov, R.N.Nabiyev, A.R.Muhammadjonov, H.Hasanov, F.Abdullayev, Z.Do`simov, S.Ibrohimov, E.Begmatov, A.Ishayev, S.Qorayev, T.Nafasov, R.Qo`ng`urov, B.O`rinboyev, N.Begaliyev, N.Uluqov lar tomonidan joy nomlarini o`rganish bo`yicha keng ko`lamli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, T. Ernazarov, Sh.Qodirova, L.Karimova, T.Rahmatov, S.Gubayeva, Y.Xo`jamberdiyev, J.Latipov, N.Oxunov, S.Nayimov, N.Mingboyev, A.Zokirov, X.Xolmo`minov, O`.Oripov, A.Turobov, Sh.Temirov kabi olimlar joy nomlarini lisoniy jihatdan monografik tarzda tadqiq etganlar. Yuqoridagi ta’kidlab o`tilgan tadqiqotardan farqli o`laroq ushbu maqolada muqaddas qadamjolarning nomlarini mavzuiy,strurktur, semantik, etimologik va fonetik jihatdan jamlab tilshunoslik nuqtayi nazardan o`rganish, tadqiq etish kabi jihatlarga, xususan, mavzuiy guruhlariga oid fikrlar bayon etilgan. . Ushbu jarayonda madaniy-antropologik va sotsiologik metodologiyalar asosida ilmiy

adabiyotlar tahlili, joylarga tashrif, suhbat, kontent-tahlil hamda kartografik metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Farg`ona vodiysi Markaziy Osiyoning eng qadimiy va diqqatga sazovor qismi bo`lib, uning geografik, madaniy va diniy boyligi muqaddas qadamjolarda o`z aksini topgan. Quyida mazkur hududda joylashgan, muqaddas hisoblangan maskanlar, ularning nomlari xususidagi fikrlar bayon etiladi. Farg`ona vodiysidagi qadamjolar haqida so`z yuritar ekanmiz, avallo, ularning mavzuiy guruhlarga ajratish masalasiga e’tibor qaratamiz.

Muqaddas qadamjo nomlarini o`rganish mobaynida ularni quyidagi mavzular asosida guruhlashni maqsadga muvofiq deb topdik:

1.Shaxs nomlari asosida yasalgan muqaddas qadamjo nomlari

2. Tarixiy voqealar asosida yasalgan muqaddas qadamjo nomlari

3. E`tiqod bilan bog’liq muqaddas qadamjo nomlari

4. Kasb-kor, hunar bilan bog’liq muqaddas qadamjo nomlari.

Tahlillar shuni ko`rsatadiki, yuqoridagilardan eng keng ko`lamdagi qadamjo nomlari shaxs nomlari asosida hosil bo`lgan. Jumladan, Andijon viloyatida hozirga qadar 50 ta masjid, 4 ta madrasa, 10 ta ziyoratgoh saqlanib qolgan bo`lib, ular nomining askari shaxs nomlari bilan bog`liq. “Muhammad Siddiq Eshon” ziyoratgohi, “Mehmoni Valiy” ziyoratgohi, “Qarabosh ota” ziyoratgohi, “Yunus ota” ziyoratgohi, “Xo’jaqambar ota” ziyoratgohi, “Fozilmon ota” ziyoratgohi, “Manak ota” ziyoratgohi, “Qambar ota” ziyoratgohi, “Yunusxoji” masjidi, “Xo`ja Abdulloh tug`dor” majmuasi, “Usmonxoji” masjidi,”Devonaboy”masjidi, “Xolid ibn Valid” masjidi, “Mirzaqul bo`lish” madrasasi, “Otaqo`zi”madrasasi, “Qutayba ibn Muslim” maqbarasi, “Imom Ota”(Imom Muhammad Hanafiy) maqbarasi, “Yunusali ota G`oziyev” milliy uyi, “Ahmadbekxodja” mehmonxonasi kabilar shular jumlasidandir. Bunday qadamjo nomlari Farg`ona viloyatida ham ko`pchilikni tashkil etadi. “Ahmad Al-Farg`oniy” yodgorlik majmuasi, “Xoja Forso” masjidi, “Xo`ja egiz” masjidi, “Xo`ja Ma’oz” yodgorligi, “Bobo Ahtam” ziyoratgohi, “Sa’d Vaqqos” ziyoratgohi, “Hazrat Ali Shohimardon” ziyoratgohi, “Xo`ja Ro`shnoyi” ziyoratgohi, “Qori Soqiy ota” ziyoratgohi, “Xo`jam Podshoh” ziyoratgohi, “Bibi Ubayda” ziyoratgohi, “Shohsalim xalifa” maqbarasi, “Shoto`ra” madrasasi, “Xudoyiorxon” o’rdasi, “Sohibzoda Hazrat” madrasasi, “Norbo`tabiy” madrasalari nomlari ham shaxs nomi asosida bugungi kundga qadar yetib kelgan.

“Otoulloxon” masjidi, “Uvays Al-Qaraniy” majmuasi, “Shayx Is’hoq eshon” jome masjidi, “Mulla qirg`iz” madrasasi, “Sayyid Jalolxo`ja” masjidi, “G`oyibnazar qozi” madrasasi, “A’loxon Mahdum” jome masjidi, “Mahdumi eshon” jome masjidi, “Qorapolvon ota” ziyoratgohi, “O’n bir Ahmad” ziyoratgohi, “Xo`ja amin” maqbarasi, “Mavlaviy Namangoniy” maqbarasi, “Xoja Abdurahmon ibn Avf “ maqbarasi, “Devona buva” maqbarsi, “Qodirxo’ja eshon” uyi nomli muqaddas qadamjolar Namangan agionimlar hisoblanadi. Ko`rib turganimizdek, ko`pgina qadamjolar ma’lum bir shaxsning,ya’ni tarixiy shaxslar, diniy arboblar yoki avliyolar nomi bilan bog`liq bo`lib, bu joylar xalq orasida muqaddas sanaladi va ehtirom

bilan eslab,saqlanib kelinadi. Mazkur nomlar ikki qismdan iborat: shaxs nomi va joy nomi. Aksariyat hollarda “qadamjo”, “maqbara”, “ota”, “bobo”, Xo`ja” so’zlari bilan birikkan. Bu kabi so`zlar shaxsga nisbatan ehtirom, hurmatni ifodalaydi va joy nomiga muqaddaslik tusini beradi. Shaxs nomi asosida yasalgan qadamjolarning ijtimoiy va madaniy ahamiyati shundaki, bu maskanlar orqali tarixiy shaxslar yodga olinadi, ularning tarixdagi o`rni, xizmati qadrlanadi, bu jarayonda xalq ziyorat qilish orqali o`z e’tiqodini ham mustahkamlaydi, nomlarda qo`llanilgan eski unvonlar,ismlar va so`zlar o`zbek tilining tarixiy qatlamini aks ettiradi. Bundan tashqari bu kabi qadamjolar sayyohlik obyektlari hisoblanib, ziyorat turizmining bir qismini tashkil etadi. Demak, shaxs nomi asosida shakllangan muqaddas qadamjo nomlari o`zbek toponimik merosining ajralmas qismini tashkil etadi.Bunday nomlar o`zida nafaqat diniy, tarixiy, ijtimoiy,balki lingvistik ma’lumotlarni ham mujassam etgan bo’lib, ularni o’rganish toponimika,etnografiya va madaniyatshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Andijon, Namangan, Farg`ona viloyatlari o`zining boy madaniy merosi, tarixiy obidalari va diniy e`tiqod bilan bog`liq muhim maskanlari bilan masdhhur. Shu boisdan mazkur hududlarda muqaddas qadamjo nomlarining tarixiy voqealar asosida,e`tiqod bilan bog`liq holda yoki kasb-kor, hunar bilan bog`liq ravishda yuzaga kelgan ko`rinishlari ham mavjud. Ularni o`rganish va tahlil qilish oldimizdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

XULOSA

Muqaddas qadamjolar mavzusi nafaqat diniy, balki madaniy, tarixiy va toponimik jihatdan ham chuqur ahamiyatga ega. Ular nafaqat ziyoratgohlar sifatida, balki mahalliy xalqning e’tiqodi, an’analari va madaniy o‘ziga xosliklarini aks ettiruvchi markazlar sifatida ham o‘rganilishi zarur. Toponimik tahlil muqaddas qadamjolar nomlarining kelib chiqishini, ularning shakllanish jarayonini va shu orqali ularning insonlar hayotidagi o`rni va ahamitatini o‘rnini tushunishga yordamberadi. Bu esa o‘z navbatida, muqaddas qadamjolarning tarixiy rivojlanishi va ularning madaniy -ijtimoiy muloqotdagi rolini yanada chuqurroq o‘rganishga zamin yaratadi.

Shuningdek, muqaddas qadamjolar borasida olib borilgan tadqiqotlar ularning atrofidagi mahalliy urf-odatlar, folklor va diniy marosimlar haqidagi ma’lumotlarningbham ko`payishiga muhim omil bo`lib xizmat qiladi. Bu joylar jamiyatning ma’naviy qadr-qimmatini mustahkamlash, xalqaro madaniy meros sifatida e’tirof etilishi va himoya qilinishiga xizmat qiluvchi noyob manba hisoblanadi. Muqaddas qadamjolarning madaniy va toponimik jihatdan o‘rganilishi, ularning tarixiy xotirani saqlashdagi ahamiyatini ham ochib beradi.

Natijada, muqaddas qadamjolarni to‘g‘ri anglash va qadrlash orqali nafaqat diniy, balki madaniy va tarixiy merosni asrash va rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Ularning o‘rganilishi ilmiy tadqiqotlarda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga, shuningdek, mahalliy va xalqaro darajada madaniy turizmni rivojlantirishga ham hissa qo‘shadi. Shu boisdan, muqaddas qadamjolarni toponimik va madaniy tahlil qilish, ularning nafaqat mahalliy, balki xalqaro, keng miqyosdagidagi madaniyatlar orasida ahamiyatini yanada oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1.B. Qilichev. Onomastika,o`quv qo`llanma. – Buxoro: 2023

2.E.A.Begmatov. O`zbek onomastikasi masalalari. – Toshkent: Fan,2013

3.B. Yo`ldoshev.O`zbek onomastikasi masalalari. – Samarqand,2011

4.R.Y. Xudoyberganov, N. Uluqov, M.T.Mirakmalov va boshq.O’zbekiston joy nomlarining izohli lug`ati. – Toshkent: donishmadlar ziyosi, 2022.

5.Abdalaal, A., Saleh, M. and Essam, A. (2024) ‘The holy Nile of Egypt’, *The Nile River System, Africa: Ecohydrology and Management from Catchment to Coast*, pp. 149–176. Available at: https://doi.org/10.1016/B978-0-323-90122-2.00003-6.

6.Valk, H. (2007) ‘Choosing holy places’, *Journal of Roman Archaeology*, 67, pp. 201–212.

7.Fuchs, R. (2004) ‘Sites of memory in the Holy Land: the design of the British war cemeteries in Mandate Palestine’, *Journal of Historical Geography*, 30(4), pp. 643–664. Available at: https://doi.org/10.1016/S0305-7488(03)00003-3.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ПРОБЛЕМА ЛЕКСИЧЕСКОЙ АМБИВАЛЕНТНОСТИ В ОФИЦИАЛЬНО-ДЕЛОВОМ СТИЛЕ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Наталья КИМ
Ташкентский государственный университет востоковедения
Узбекистан
ORCID: https://orcid.org/0000-0003-1065-1061
Гульшода ЮНУСОВА
Ташкентский государственный университет востоковедения
Узбекистан
Мохира ЖУМАЕВА
Ташкентский государственный университет востоковедения
Узбекистан

Аннотация. Решение проблемы лексической амбивалентности требует комплексного подхода, включая отбор лексики, учет контекста, привлечение профессиональных переводчиков и использование современных технологий. Лексика (어휘) – словарный фонд языка, отражающий изменения в обществе и обогащающийся новыми терминами. Корейская лексика включает слова родного языка (고유어), иероглифического происхождения (한자어) и иностранного происхождения (외래어), а также идиомы (관용어), пословицы (속담) и сложные слова (연어). Лексика также отражает социально-классовые, профессиональные и возрастные различия. Внутренняя структура семантики подразделяется на объектную (денотативную) и понятийную (сигнификативную) сферы. Лексическое своеобразие в корейском языке формируется под влиянием функциональных задач языка в социальном обществе.

Ключевые слова: корейский язык, лексика, лексическая амбивалентность, контекст, объекный, денотативный, стиль, официально-деловой, коммуникация, лингвистическая задача, контент, внутренняя структура

THE PROBLEM OF LEXICAL AMBIVALENCE IN OFFICIAL BUSINESS STYLE IN KOREAN

Abstract. Solving the problem of lexical ambivalence requires a comprehensive approach, including vocabulary selection, consideration of context, engagement of professional translators, and the use of modern technologies. Vocabulary (어휘) is the lexical stock of a

language, reflecting changes in society and enriched with new terms. Korean vocabulary includes native words (고유어), Sino-Korean words (한자어), and loanwords (외래어), as well as idioms (관용어), proverbs (속담), and compound words (연어). Vocabulary also reflects social-class, professional, and age-related differences. The internal structure of semantics is divided into objective (denotative) and conceptual (significative) spheres. The lexical distinctiveness of the Korean language is shaped by the influence of the functional roles of language in social society.

Keywords*: Korean language, vocabulary, lexical ambivalence, context, object, denotative, style, official-business, communication, linguistic task, content, internal structure.*

KOREYS TILIDAGI RASMIY-ISHBILARMONLIK USLUBIDA LEKSIK AMBIVALENTLIK MUAMMOSI

Annotatsiya Leksik ambivalentlik muammosini hal etish kompleks yondashuvni talab qiladi. Bunga leksikani tanlash, kontekstni hisobga olish, professional tarjimonlarni jalb etish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kiradi. Leksika (어휘) — tilning lug‘at boyligi bo‘lib, u jamiyatdagi o‘zgarishlarni aks ettiradi va yangi terminlar bilan boyib boradi. Koreys leksikasi ona tili so‘zlari (고유어), xitoy-koreys kelib chiqishidagi so‘zlar (한자어), xorijiy so‘zlar (외래어), shuningdek idiomalar (관용어), maqollar (속담) va qo‘shma so‘zlar (연어)ni o‘z ichiga oladi. Leksika, shuningdek, ijtimoiy-sinfiy, kasbiy va yoshga oid farqlarni ham ifodalaydi. Semantikaning ichki tuzilishi obyektiv (denotativ) va konseptual (signifikativ) sohalarga bo‘linadi. Koreys tilidagi leksik o‘ziga xoslik tilning ijtimoiy jamiyatdagi funksional vazifalari ta’sirida shakllanadi.

Kalit so‘zlar: koreys tili, leksika, leksik ambivalentlik, kontekst, obyektiv, denotativ, uslub, rasmiy-ishbilarmonlik, kommunikatsiya, lingvistik vazifa, kontent, ichki tuzilma.

1. Введение

Мировая глобализация показывает, что онлайн-присутствие является ключевым фактором успеха для любого государства, качество лингвистического оформления официальных веб-ресурсов приобретает особую значимость. Корейские государственные сайты, стремясь предоставить информацию широкой аудитории, сталкиваются с проблемой лексической амбивалентности (어휘적 모호성), которая может существенно повлиять на восприятие контента. Суть проблемы заключается в неоднозначности значений некоторых лексических единиц, используемых в текстах. Это может быть обусловлено как историческими особенностями развития корейского языка, так и заимствованиями из других языков, в частности, из китайского (한문). Слова,

имеющие несколько значений, в зависимости от контекста, могут быть неправильно интерпретированы иностранными пользователями или даже носителями языка, не обладающими достаточными знаниями в данной области. Лексическая амбивалентность (어휘적 모호성) может проявляться в различных формах, например, омонимы (동음이의어) – слова, имеющие одинаковое написание и звучание, но разное значение – могут создавать путаницу, если не учтен контекст или синонимы (동의어), имеющие близкие, но не идентичные значения, могут использоваться неточно, что приводит к искажению смысла. Особенно такого рода неточностей зависит от знания корейского языка как родного языка или иностранного языка. Проблема, безусловно, выявляется и том, что корейский язык может выступать как второй иностранный язык (Second Foreign Language) для многих студентов. Здесь следует обратитть особое внимание. Для изучающих корейский язык, особенно как второй иностранный, лексическая амбивалентность представляет собой серьезный вызов. Необходимость различать тонкие нюансы значений, учитывать контекст употребления и понимать культурные коннотации слов требует значительных усилий и постоянной практики. Ошибки в интерпретации лексически амбивалентных единиц могут приводить к недопониманию, комическим ситуациям и даже к искажению коммуникации. Одним из способов преодоления трудностей, связанных с лексической амбивалентностью, является активное использование словарей и корпусов текстов. Внимательное изучение примеров употребления слов в различных контекстах помогает лучше понять их значения и оттенки. Кроме того, полезно обращаться к носителям языка за разъяснениями и консультациями. Важным аспектом является также развитие лингвистической интуиции. Чем больше студент погружается в язык, тем легче ему становится распознавать лексическую амбивалентность и выбирать наиболее подходящее значение слова в конкретной ситуации. Чтение корейской литературы, просмотр фильмов и сериалов на корейском языке, общение с носителями языка – все это способствует развитию лингвистической интуиции. Преподавателям корейского языка следует уделять особое внимание проблеме лексической амбивалентности. Включение в учебные программы упражнений на распознавание и интерпретацию лексически амбивалентных единиц, анализ реальных примеров из корейской речи и литературы, использование интерактивных методов обучения – все это может помочь студентам успешно справиться с этой сложной, но важной областью корейской лексики.

2. Проблема лексической амбивалентности как важная лингвистическая задача исследователей

Выше нами отмечалось, что лексическая неоднозначность может создать ещё большие трудности для изучающих корейский язык, особенно для тех, кто изучает корейский как второй язык. Слова, которые носители языка естественным образом

понимают в контексте, могут легко вызывать недопонимание у изучающих иностранные языки, поскольку им сложно их различать. Например, корейское слово «눈» может означать как часть тела, так и снег, падающий с неба. Наличие такой полисемии может привести к тому, что изучающие неверно истолкуют значение, если они не понимают контекст. Более того, поскольку корейский язык зависит от контекста, значение слова часто определяется логикой всего предложения. Поэтому изучающим необходимо развивать способность понимать не только значение отдельных слов, но и их роль и изменения смысла в предложении. Для этого требуется нечто большее, чем просто расширение словарного запаса, важно также понимание корейской культуры.

Кроме того, система степеней почтения в корейском языке может быть фактором, ещё больше усугубляющим лексическую неоднозначность. Даже для слов с одинаковым значением необходимо выбирать разные слова в зависимости от цели или ситуации, в которой они используются. Например, даже базовый глагол «먹다» иногда необходимо выразить как «드시다» или «잡수시다», чтобы выразить уважение. Эта система почтительности усложняет выбор лексики для учащихся и может привести к недопониманию из-за неправильного использования лексики. Поэтому при обучении корейскому языку следует использовать различные методы обучения для устранения лексической неоднозначности. Важно не просто запоминать значение слова, а показать, как оно используется в различных контекстах. Лексическая амбивалентность является неотъемлемой частью корейского языка, и ее понимание имеет решающее значение для успешной коммуникации. Постоянное изучение, практика и внимание к контексту – вот ключи к преодолению трудностей, связанных с этим явлением.

Решение проблемы лексической амбивалентности требует комплексного подхода. Необходимо проводить тщательный отбор лексики, учитывать контекст использования слов, а также предоставлять пояснения к терминам, имеющим неоднозначное значение. Важным является привлечение профессиональных переводчиков и редакторов, обладающих глубоким знанием корейского языка и культуры. Кроме того, следует активно использовать современные технологии, такие как автоматизированные системы проверки качества текста, которые могут выявлять случаи потенциальной неоднозначности. К вопросу о лексико-семантических особенностях корейского языка всё чаще обращаются как корейские, так и зарубежные исследователи. В рамках данного исследования были изучены труды Ким Ён Чун (김영준) [113], Хонг Чу Хён (홍주현)[114],

[113] 김영준, 김경일. 대한민국 대통령의 언어스타일: 연설문에 나타난 언어적 특성과 심리적 특성. Volume 30 Issue 3, 아주대학교, 2019. – p. 360-365. См.: https://koreascience.kr/article/JAKO201929165026471.page

[114] 홍주현, 윤해진. 18대 대통령 선거 후보자의 연설문 네트워크 분석: 단어의 가시성(visibility)과 단어 간 연결성(connectivity)을 중심으로. Volume 14 Issue 9, 국민대학교, 2014. – p. 240-246. См.: https://koreascience.kr/article/JAKO201430169052474.page

Михо Чу (Miho Choo)[115], Ми Юнг Пак (Mi Yung Park)[116], Люсейн Браун (Lucein Brown)[117], Т.В. Аннушкина[118], Цинь Паньпань[119] и др.

Ким Ён Чун (김영준) и Ким Кёнг Иль (김경일) рассматривали официальную речь с позиции психолингвистики, проведя контент-анализ речей первых лиц Республики Корея. Их подход позволил выявить связь между лексическими особенностями официального дискурса и психологическим настроем автора речи. Работа Хонг Чу Хён (홍주현) и Юн Хэ Чин (윤해진) сосредоточена на структурном анализе предвыборных выступлений кандидатов, в которых ключевым аспектом стало определение семантической взаимосвязи лексем посредством сетевого анализа.

Значительный вклад в изучение вежливости и формальности в корейской речи внесла работа Люсейна Брауна (Lucein Brown)[120]. В работе подчеркивается, что в любой речи особого внимания требует грамматические особенности в лексических единицах, а именно, наличие отдельной лексики для выражения вежливых форм. Исследования Т.В.Аннушкиной[121] и Цинь Паньпань[122] посвящены жанру поздравительной речи как особому типу официальной коммуникации. В частности, в работах Т.В.Аннушкиной и Цинь Паньпань рассматривали лексический состав в материале официальных речей и находили, что подбор лексического сочетания есть важный коммуникативный инструмент, обладающий не только социальной функцией, но и воспитательной.

Выше нами отмечалось, что следует опираться на ключевые понятия лексики и семантики, с особым акцентом на структурную организацию речи, функции лексических единиц и культурную специфику корейской лексики. К примеру исследование заимствований, проведённое Юнджунг О (Yoonjung Oh) и Хюнджунг Сон (Hyunjung Son)[123], показывает тенденцию активного внедрения англицизмов в официальную речь, особенно в контекстах международной политики и бизнеса, что отражает процессы глобализации и культурного обмена.

---

[115] Miho Choo. Teaching Language Styles of Korean. Vol. 3, Penn State University Press, 1999. – p.56-60. См.: https://www.jstor.org/stable/42922234?searchText

[116] Mi Yung Park. Teachers’ Use of the Intimate Speech Style in the Korean Language Classroom. Vol. 17, Penn State University Press, 2012. – p. 86-91. См.: https://www.jstor.org/stable/42922296?searchText=formal

[117] Lucein Brown. Expressive, social and gendered meanings of Korean honorifics. Vol. 17(2), Korean Linguistics, 2015.

[118] Аннушкина Т.В. Поздравительная речь в разных сферах общения: содержание – композиция – стиль. – М.: 2016. – 156 с.

[119] Цинь Паньпань. Деловое письмо-поздравление в русском языке на фоне китайского: комплексная характеристика речевого жанра. – Новосибирск, 2022. – 190 с.

[120] Lucein Brown. Expressive, social and gendered meanings of Korean honorifics. Vol. 17(2), Korean Linguistics, 2015. – p. 669-675.

[121] Аннушкина Т.В. Поздравительная речь в разных сферах общения: содержание – композиция – стиль. – М.: 2016. – 156 с.

[122] Цинь Паньпань. Деловое письмо-поздравление в русском языке на фоне китайского: комплексная характеристика речевого жанра. – Новосибирск, 2022. – 190 с.

[123] Yoonjung Oh and Hyunjung Son. Lexical borrowing in Korean: a diachronic approach based on a corpus analysis. Corpus Linguistics and Linguistic Theory, 2023. – p. 140-148. См.: https://www.degruyter.com/document/doi/10.1515/cllt-2022-0102/html

Изучение особенностей лексики и значения в любом языке, в том числе в корейском языке, предполагает определение лексико-семантических признаков. Обращают на себя внимание исследования Ким Ён Чун (김영준) и Ким Кёнг Иль (김경일)[124].

При анализе официальной речи значительное внимание уделяется лексическому составу языка. Согласно определению, данному В.Н. Ярцевой[125], лексика (어휘) – это совокупность всех слов языка, отражающих его словарный фонд. Термин "лексика" применяется как в отношении отдельных слоёв словарного запаса (например, бытовая, деловая, поэтическая лексика), так и в более широком смысле – для обозначения всех слов, использованных конкретным автором или в рамках одного произведения, что характерно и для корейского языка.

Лексика выступает объектом изучения таких разделов языкознания, как лексикология, семасиология[126] и ономасиология[127]. Она прямо или опосредованно отражает изменения действительности, реагируя на процессы, происходящие в материальной и культурной жизни общества, и постоянно обогащается за счёт новых единиц, обозначающих новые явления, процессы и понятия. Расширение и развитие различных сфер материального производства, науки и техники способствует появлению специальных терминов и формированию новых терминологических слоёв. Со временем такие термины нередко входят в состав общеупотребительной лексики, что связано с повышением уровня общей образованности и научной компетентности среднестатистического носителя языка.

Согласно Ф.М. Мусаеву (Farkhod M. Musayev)[128], лексика корейского языка содержит слова, заимствованные из китайского, санскрита, монгольского, а иногда и европейских языков. По своему происхождению корейская лексика делится на 2 типа. К первому типу относятся слова родного языка (고유어), слова иероглифического происхождения (한자어) и слова иностранного происхождения (외래어). Ко второму типу относятся идиомы (관용어), пословицы (속담) и сложные слова (연어).

---

[124] 김영준, 김경일. 대한민국 대통령의 언어스타일: 연설문에 나타난 언어적 특성과 심리적 특성. Volume 30 Issue 3, 아주대학교, 2019. – p. 360-365. См.: https://koreascience.kr/article/JAKO201929165026471.page

[125] Ярцева В.Н. Большой энциклопедический словарь. Языкознание. – М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. – С. 257-258.

[126] От греч. σημασία – значение, смысл и λόγος – слово, учение) – в русской и европейской традиции: раздел языкознания, занимающийся лексической семантикой, т.е. значениями слов и словосочетаний, которые используются для названия, номинации отдельных предметов и явлений действительности. См.: https://les.academic.ru/

[127] От др.-греч. ὀνομᾰσία – именование, обозначение, перечисление + др.-греч. λογος – слово, речь), наука об именах – теория *номинации*; один из двух разделов семантики, противопоставленный семасиологии по направлению исследования. Если семасиология идёт от обозначения к значению, то ономасиология ведёт исследования от вещи или явления к мысли об этой вещи, явлении и к их обозначению языковыми средствами. См.: https://les.academic.ru/

[128] Farkhod M. Musayev. Concept and Characteristics of Korean Linguistics. Vol. 3, European International Journal of Philological Sciences, 2023. – P. 14 – 18. См.: https://doi.org/10.55640/eijps-03-06-04

fonetik usullar orqali kuchaytiriladi: **a**literatsiya va assonans. **Aliteratsiya bu** undosh tovushlarning takrori orqali hissiy kuchayish misol uchun *“Darding dilimda daryo, dod solaman dildor…”* **Assonans esa** unli tovushlar takrori orqali ruhiy holatni ifodalash: *“Ko‘ngil to‘lib-toshib to‘lqinlanar…”.* Intonatsiya va urg‘u **ham fonetik usullardan bo’lib, s**hoir so‘zlarni maxsus ohangda joylashtiradi, bu esa ekspressiv aktni ta’sirchan qiladi: *“Ketding... nega?! Nega endi?”.* Bunday gaplar sintaktik jihatdan so‘roq va undov aralashmasi bo‘lib, hissiy portlashni ko‘rsatadi.

Sintaktik vositalar orqali ham she’rlarni ifodalab o’tadigan bo’lsak, sintaksis darajasida ekspressivlik quyidagi usullar bilan yuzaga chiqadi: u**ndov va so‘roq gaplar, e**kspressiv aktlar ko‘pincha so‘roq shaklda bo‘ladi. Bu holat shoirning ichki savollarini, iztiroblarini ifoda etadi misol uchun, *“Senmiding, yuragimni parchalagan tun?”.* Undov gaplar esa hissiyotning to‘g‘ridan-to‘g‘ri portlashi hisoblanadi: *“Oh, sevgi! Sen qanday azob!”. Biz she’riy baytlarda* ellipsis va inversiyani **ham ko’p uchratishimiz mumkin bo’lib, s**o‘z tushirilishi (ellipsis) yoki so‘z tartibining o‘zgarishi (inversiya) hisoblanadi bular poetik ekspressiyani kuchaytirishda muhum rol o’ynaydi. Misol uchun, *“Kelding sen... yuragim titradi yana.”* Takror va parallelizm **ham** she’riyatda so‘z va sintaktik birliklarning takrori bo’lib emotsional yuklamani oshiradi: *“Sog‘indim seni, sog‘indim yana, Sog‘indim tunlarda, tongda, yana…”*

She’riyatda **leksik-semantik** vositalar orqali ekspressiv aktlar ko‘pincha baholovchi leksik birliklar orqali yuzaga chiqadi. **Ijobiy baholash bo’lsa** aziz, muqaddas, mehribon, osuda kabi so’zlardan foydalaniladi, s**albiy ifoda etilsa** telba, yolg‘onchi, zolim, qonxo‘r kabi so’zlarni misol tariqasida olishimiz mumkin. Misol uchun: ***“Sen — zulmat ichra birgina yulduz, Sen — qalbimdagi muqaddas iz.”***

Sinonim va antonimlar o‘yinlari ham she’rdagi nutq aktlaridagi emotsiyani sezilarli darajada kuchaytiradi, *“Yig‘layman, zorlanaman, izlayman seni…”.* Qarama-qarshi so‘zlar esa ichki tortishuvni ifodalaydi, ***“Sevaman seni, nafrat ila birga!”***

She’riy ekspressivlikning asosiy vositalaridan biri – metafora va metanimiyadir. Chunki shoirlar his-tuyg‘ularini obrazli tarzda ifoda etadilar: ***“Yuragim — huvillagan sahro, Yoding — qum bo‘roni.”*** Bu yerda ekspressiv akt ichki bo‘shliq, sog‘inch va yo‘qotish hisini ko‘rsatadi. Stilistik vositalar orqali ham ekspressivlikni nomoyon etish shoirlarga hos hisoblanadi masalan i**roniya va kinoya.** Ekspressiv aktlar kinoya orqali ham ifoda topadi, bu esa ichki norozilik yoki achchiq haqiqatni estetik tarzda yetkazadi: ***“Sen yo‘q ekansan — osmonim tiniq, yuragim sokin!”.*** Bunda kinoya orqali ranjish, yolg‘on quvonch ifodalanadi. **Poetik personaj va l**irik qahramon (“men”)ning nutqi orqali ham shoir ekspressiv aktlarni tinglovchiga bevosita yo‘naltiradi: ***“Men — hijron dardida yonayotgan yurak, Men — sening sog‘inchingda izg‘iydigan shamol.”*** Bu holatda shoir ekspressiv aktni o‘zining lirik “men”i orqali o‘quvchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatadi.

Ekspressiv aktlarning poetik funksiyalari. Ekspressiv aktlar she’riy matnda nafaqat hissiy balki **kompozitsion** va **kommunikativ** funksiyalarga ham ega hisoblanadi.

Funksiya	Izoh
Estetik	Hissiy go‘zallikni ifodalaydi
Kommunikativ	O‘quvchi bilan hissiy aloqani shakllantiradi
Struktura yaratuvchi	She’rning dramatik kuchini oshiradi
Identifikatsion	O‘quvchini shoir kechinmalariga sherik qiladi

Ekspressiv nutq aktlarining she’riyatda ifodalanishini bir necha misollar orqali ko’rib chiqamiz.

a) **Alisher Navoiy**

“Dilimni har dam o‘rtar g‘am, netayin,
Visoling yo‘q, hijrondin o‘tayin.”

Bu baytda ekspressiv akt **afsuslanish**, **ruhiy azob**, **ma’yuslik** orqali ifodalanmoqda. Shoir dardini bevosita aytmaydi, balki **poetik vositalar** orqali his-tuyg‘ularini yetkazadi. “Netayin” – bu bir so‘zli ekspressiv akt bo‘lib, **hollari og‘ir, umidsizlik** holatini bildiradi. Bu yerda “dilimni o‘rtar” degan metafora ham ekspressivlikni kuchaytiradi.

b) Zahiriddin Muhammad **Bobur**

“Yig‘larim men har kecha, to kun chiqmas,
Ko‘zlarimda dardimning izlari bor.”

Yig‘lash – bu bevosita ekspressiv akt bo‘lib, Bobur dardini, ruhiy ezg‘inligini his-tuyg‘ular orqali berayotganini ko‘ramiz. “Ko‘zlarimda dardimning izlari bor” iborasi **metonimiya** orqali kechinmani yanada kuchaytirgan.

c) **Erkin Vohidov**

“Yashayman deb yashayapman, yurak,
Tinch bo‘lmasang, ne qilayman sen bilan?”

Bu she’rda lirik qahramon **ekspressiv so‘roq** orqali o‘z yuragiga murojaat qiladi. Bu — **ichki dialog** bo‘lib, ko‘ngil bilan o‘z “men”i o‘rtasidagi ziddiyatni ifoda etadi. Ekspressiv akt “ne qilayman sen bilan” degan jumlada **umidsizlik**, **tushkunlik** va **ichki iztirob** holatida ifodalanmoqda.

d) **Abdulla Oripov**

“Bu yurakda faqat sen bor, boshqasi yo‘q,
Bu yurak faqat sen uchun yongandir doq.”

Shoir sevgi orqali o‘z kechinmalarini bayon etmoqda. “Faqat sen bor” va “sen uchun yongandir” iboralari **absolyut sevgi, sadoqat va fidoiylik**ni bildiradi. Bu holatda ekspressiv akt ijobiy emotsiyalar – **sevgi, sadoqat, muhabbat** orqali yuzaga chiqadi.

e) **Usmon Azim**

“Men sening g‘amingda yondim, qog‘ozday,
So‘zlarim tutun bo‘lib uchdi havoga.”

Bu misralarda ekspressiv akt **dard**, **iztirob**, **yo‘qotish**ni anglatadi. “Yondim, qog‘ozday” – bu kuchli **metaforik ifoda**, poetik obraz orqali shoirning holati dramatik tarzda ifodalanmoqda. So‘zlarning “tutun”ga aylanishi – ekspressivlikni kuchaytiruvchi **simvolik usul**dir.

f) **Shukrullo**

“Sen kelding, yuragim uyg‘ondi yana,
Ko‘zlarimda tong nuri porladi…”

Bu misralar ekspressiv akt sifatida **quvonch**, **umid**, **ruhiy yuksalish** tuyg‘ularini bildiradi. “Yuragim uyg‘ondi” – bu shoir qalbida yuz bergan ijobiy o‘zgarish, hissiy yangilanishni anglatadi. She’rdagi tong nuri – **umid va baxt timsoli** sifatida ekspressiv semantik yuklama beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, mazkur maqolada ekspressiv nutq aktlarining nazariy asoslari, ularning lingvopragmatik xususiyatlari hamda o‘zbek she’riyatida qanday ifoda topishi tahlil qilindi. Quyidagi xulosalarga kelish mumkin: e**kspressiv nutq aktlari** – bu gaplovchining subyektiv holati, hissiy kayfiyati va munosabatini ifodalovchi nutq birliklaridir. Ular tilning emotsional qatlamini tashkil qiladi.

Ekspressiv aktlar **adabiy matn**, ayniqsa **she’riy nutq**da chuqur, ko‘p qatlamli tarzda ifodalanadi. Shoir o‘z kechinmalarini bevosita yoki obrazli vositalar orqali ifoda etadi.

She’riyatda ekspressivlik **fonetik (intonatsiya, aliteratsiya), leksik (emotiv so‘zlar, baholovchi birliklar), sintaktik (undov, so‘roq gaplar, inversiya), hamda stilistik (metafora, kinoya, takror)** vositalar orqali kuchaytiriladi.

Ekspressiv aktlar nafaqat shoirning kechinmalarini yetkazadi, balki o‘quvchini ham emotsional dunyoga jalb qiladi, hissiy aloqani ta’minlaydi va matnning estetik ta’sir kuchini oshiradi.

O‘zbek she’riyatining klassik va zamonaviy namoyandalarida ekspressiv nutq aktlari poetik tilda o‘ziga xos tarzda ifoda topgan bo‘lib, ular milliy adabiy tafakkurning hissiy-estetik imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, ekspressiv aktlar she’riyat tilining estetik mohiyatini anglashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular orqali shoirning ichki dunyosi va o‘quvchining ruhiy qabul qilish mexanizmi o‘zaro uyg‘unlikda ishlaydi. Bu esa adabiy matnni pragmatik va estetik jihatdan to‘liq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Austin J.L. **How to Do Things with Words.** Oxford University Press, 1962.

2. Searle J.R. **Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language.** Cambridge University Press, 1969.

3. Karimov R. **Nutq aktlari nazariyasi va uning lingvopragmatik tahlili.** – Toshkent: Fan, 2009.

4. Quronov D. **Hozirgi o‘zbek adabiy tili.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.

5. To‘xtaboyev A. **Til va estetik ifoda vositalari.** – Toshkent: TDPU, 2015.

6. Vohidov E. **Tanlangan asarlar.** 2-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2006.

7. Oripov A. **Saylanma.** – Toshkent: Sharq, 2010.

8. Rasulov B. **Til pragmatikasi: nazariyasi va amaliyoti.** – Buxoro: BDU nashriyoti, 2018.

9. G‘aniyeva M. **She’riyat va obrazlilik.** – Toshkent: Akademnashr, 2020.

10. Azim U. **Tanlangan asarlar.** – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK: 801.82:81.302
ORCID:0009-0004-7243-6003

COMMON PHONETIC MISTAKES MADE BY UZBEK LEARNERS OF ENGLISH

Khabibulloyeva Sohiba Komiljon kizi
2 nd course student of a Foreign language and literature lower courses of Denau Entrepreneurship and Pedagogy Institute

Abstract This article explores the most prevalent phonetic errors encountered by Uzbek learners of English. These errors include vowel shifts, consonant substitutions, pronouncing consonant clusters, stress misplacement, and intonation mismatches. The study also analyzes the linguistic, psychological, and methodological reasons behind these errors. The findings aim to offer insights for improving English language pronunciation instruction in Uzbekistan.

Keywords: learners, shadowing, practice, mistakes, phonetic, mispronouncing.

РАСПРОСТРАНЕННЫЕ ФОНЕТИЧЕСКИЕ ОШИБКИ, ДОПУСКАЕМЫЕ УЗБЕКСКИМИ УЧАЩИМИСЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация В данной статье рассматриваются наиболее распространенные фонетические ошибки, с которыми сталкиваются узбекские учащиеся при изучении английского языка. Эти ошибки включают в себя смещение гласных, замену согласных, трудности в произношении групп согласных, неправильную постановку ударения и несоответствия в интонации. В исследовании также анализируются лингвистические, психологические и методологические причины этих ошибок. Результаты исследования призваны дать ценные сведения для совершенствования преподавания английского произношения в Узбекистане.

Ключевые слова: учащиеся, теневой повтор (shadowing), практика, ошибки, фонетический, неправильное произношение.

O‘ZBEK O‘RGANUVCHILARI TOMONIDAN INGLIZ TALAFFUZIDA UCHRAYDIGAN ASOSIY XATOLAR.

Annotatsiya Ushbu maqolada ingliz tilini o‘rganayotgan o‘zbekistonlik talabalar duch keladigan eng keng tarqalgan fonetik xatolar ko‘rib chiqiladi. Bu xatolarga unli tovushlarning o‘zgarishi, undosh tovushlarni almashtirish, undoshlar birikmasini talaffuz qilishdagi

qiyinchiliklar, so‘zlarga noto‘g‘ri urg‘u berish va intonatsiyadagi nomuvofiqliklar kiradi. Tadqiqotda ushbu xatolarning lingvistik, psixologik va metodologik sabablari ham tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda ingliz tili talaffuzini o‘qitishni takomillashtirish bo‘yicha takliflar berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: o‘rganuvchilar, ergashib takrorlash (shadowing), mashq qilish, xatolar, fonetik, noto‘g‘ri talaffuz qilish.

Introduction. English pronunciation is a crucial component of language learning, yet it remains one of the most challenging aspects for Uzbek learners. Despite years of English education, many students struggle with producing sounds accurately, leading to misunderstandings and lack of confidence. These difficulties arise primarily due to the phonological differences between English and Uzbek, inadequate phonetic training, and the limited exposure to authentic English sounds. The extra cause of this case, maybe related to the different language family members. This means, English belongs to Indian-European language family, and Uzbek belongs o Altaic language family.

Methodology. This article employs qualitative content analysis based on: classroom observations, analysis of student recordings, secondary literature review, including Uzbek and international linguistic studies. Participants were intermediate-level Uzbek students enrolled at Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy. Their pronunciation was recorded and assessed using the International Phonetic Alphabet (IPA) framework.

Results. The analysis reveals several recurring errors:

1. Vowel Substitution

Uzbek has fewer vowel sounds than English. Students often replace unfamiliar English vowels with the closest Uzbek equivalent. For example, /æ/ is replaced with /e/, making cat sound like [ket]

2. Consonant Issues

/θ/ and /ð/ are usually pronounced as /s/ or /z/ (e.g., think → sink).

Final consonants are sometimes dropped due to Uzbek phonotactics (e.g., cold → col). Sometimes, consonant clusters can be a great challenge for learners too, for example, "solemn"-[mn], they cannot pronounce both of them when they come together.

3. Stress Misplacement

Word stress is often placed incorrectly, especially in multisyllabic words. For example, phoTOgraphy is pronounced as PHOtography.

4. Intonation Problems

Intonation patterns in questions or complex sentences often follow Uzbek intonation rules, making speech sound unnatural or confusing to native speakers.

5. Misunderstanding the relationship between sounds and letters: This is further complicated by the fact that the phonetic and spelling systems in English, in particular, do not correspond to each other.

The main cause of vowel substitution is the lack of these sounds in L1. However, if the students have enough practice by listening and imitation like practice, they can easily solve this problem. Some people also argue that shadowing is helpful in this case.

The reasons of having stress misplacement and consonant issues is that having different phonological rules in two languages.

Discussion. These mistakes can be attributed to several factors:

L1 Interference: Learners subconsciously apply Uzbek phonological rules when speaking English.

Lack of Exposure: Students mostly hear English from Uzbek teachers, who may themselves have incorrect pronunciation.

Teaching Gaps: Phonetics is often overlooked in textbooks and syllabi.

Psychological Barriers: Fear of being judged prevents students from practicing aloud.

Information and communication technologies (ICT) play a significant role in supporting students who have some problems with phonetics in the modern educational process. Specially designed mobile applications, voice-to-text software, and AI-powered grammar checkers create considerable ease for students in learning the English language. In particular, programs such as "Ghotit," "ClaroRead," "Kurzweil 3000," and "Speechify" provide the ability to read text aloud, highlight words, and automatically analyze spelling and grammar.

Visual resources—that is, presenting language elements through colorful word cards, interactive whiteboards, slides, and diagrams—increase the opportunity for students who want to learn the language on a contextual and logical basis. Graphic organizers created for each topic (for example, mind maps or Venn diagrams) help in comprehending the content of the text in a holistic manner.

Adapted textbooks are also part of the curriculum designed for dyslexia. Such textbooks use special fonts (e.g., "OpenDyslexic" or "Dyslexie font"), abbreviated texts, short sentences, and simplified grammar to identify visual differences between letters and words.

The teacher and environment factor. English language teachers working with students must have special training, meaning they need to be knowledgeable. The teacher should not only teach grammar or vocabulary but also monitor each student's psychological state, self-confidence, and motivation. By creating a positive psychological environment, being tolerant of mistakes, and encouraging every small achievement of the student, it is possible to turn a student into an active and successful language learner.

Conclusion. Addressing phonetic issues in English learning requires a holistic approach that includes curriculum reform, improved teacher training, and greater use of technology. With focused attention, Uzbek learners can significantly improve their English pronunciation.

REFERENCES

1. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.

2. Roach, P. (2009). English Phonetics and Phonology. Cambridge University Press.

3. Kelly, G. (2000). How to Teach Pronunciation. Pearson Education.

4. Omonova, G. (2023). “Ingliz tilida fonetik tizim va o‘quvchilarning xatolari”, CyberLeninka

5. Karimova, M. (2021). “Ingliz tilida eng ko‘p uchraydigan xatolar”, Scribd

6. Saidova, N. (2022). “O‘zbekistonda ingliz tilini o‘qitishdagi kamchiliklar”, O‘zbek ilmiy jurnali

7. Walker, R. (2010). Teaching the Pronunciation of English as a Lingua Franca. Oxford University Press.

8. Underhill, A. (2005). Sound Foundations: Learning and Teaching Pronunciation. Macmillan.

9. Khabibulloeva, G. (2025). THE IMPORTANCE OF TEACHING GEOGRAPHY AT THE PRIMARY SCHOOLS. *TAMADDUN NURI JURNALI*, *1*(64), 83-85.

10. Komiljonovna, K. G. (2025, February). THE USAGE OF PHRASEOLOGICAL AND IDIOMATIC UNITS IN THE NOVEL" THE WHITE SHIP" BY CHINGIZ AITMATOV. In The Conference Hub (pp. 30-33).

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK: 821.512.133

TILSHUNOSLIKDA PERSONAJ LEKSEMASINING MA’NOSI VA GENEZISI

Ulliyeva Sanobar Haydarovna
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachlik va biotexnologiyalar universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
ullievasanobar@gmail.com

Annotatsiya: Lisoniy birliklar yordamida personaj yaratish so‘z san’atining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, obraz xarakterini, tashqi qiyofasini, xulq-atvorini tasvirlashda turli til vositalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Mazkur maqolada “personaj” leksemasining izohli lug‘atlardagi ma’nosi va ta’riflarini, tilshunoslikdagi talqinlarini, personaj xarakterini yaratishda foydalaniladigan turli lisoniy birliklari ko‘rib chiqilgan. Lisoniy birliklar yordamida personaj obrazini yaratishning qahramon tashqi ko‘rinishi tavsifi, Ichki monolog, o‘xshatish va metafora, dialog, qahramonning ijtimoiy mavqeyi va ma’lumoti bilan bog‘liq lisoniy birliklar, takrorlar kabi ba’zi usullari sanab o‘tilgan va O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi, “Tushda kechgan umrlar”, “Ikki eshik orasi” romanlari misolida atroflicha tahlilga tortilgan. Badiiy asardagi ko‘zga tashlanib turadigan personaj shaxsining xarakter, tashqi ko‘rinish, o‘zaro munosabat, motiv, ramziylik, evolyutsiya kabi bir qancha jihatlari sanab o‘tilgan va asarlardan olingan parchalar yordamida tahlil qilingan. Personaj xarakterini yaratishda foydalaniladigan lisoniy birliklar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy asar, persona, to‘qima, motiv, qahramon, ramziylik, evolyutsiya, til birliklari, so‘z, dialog, gapning tuzilishi.

Аннотация: Создание персонажа с помощью языковых единиц является одним из важнейших аспектов искусства слова, включающим использование различных языковых средств для описания характера, внешности и поведения образа. В данной статье рассматриваются значение и определения лексемы «персонаж» в толковых словарях, её интерпретации в языкознании, а также различные языковые единицы, используемые для создания характера персонажа. Перечислены некоторые методы создания образа персонажа с помощью языковых единиц, такие как описание внешности героя, внутренний монолог, сравнения и метафоры, диалог, языковые единицы, связанные с социальным положением и образованием героя, повторы, и они подробно проанализированы на примерах повести Уткира Хошимова «Дела миров», романов «Жизнь, прожитая во сне» и «Между двух дверей». Перечислены и проанализированы на

примерах из произведений такие аспекты личности персонажа, как характер, внешность, взаимоотношения, мотивы, символизм, эволюция. Рассмотрены языковые единицы, используемые для создания характера персонажа.

Ключевые слова: художественное произведение, персонаж, вымысел, мотив, герой, символика, эволюция, языковые единицы, слово, диалог, структура предложения.

Annotation: Character creation using linguistic units is one of the most important aspects of the art of words, which involves the use of various linguistic means to describe the image's character, appearance, and behavior. This article examines the meaning and definitions of the lexeme "character" in explanatory dictionaries, its interpretations in linguistics, and the various linguistic units used to create a character's personality. Some methods of creating a character image through linguistic units are listed and analyzed in detail using examples from Otkir Hashimov's novella "The Affairs of the World" and novels "A Life Lived in Dreams" and "Between Two Doors." These methods include descriptions of the hero's appearance, inner monologue, similes and metaphors, dialogue, linguistic units related to the hero's social status and education, and repetitions. Several aspects of the character's personality evident in the literary work, such as character traits, appearance, interpersonal relationships, motives, symbolism, and evolution, are listed and analyzed using excerpts from the works. Linguistic units used in creating a character's personality are considered.

Keywords: literary work, character, fiction, motive, hero, symbolism, evolution, linguistic units, word, dialogue, sentence structure.

KIRISH. Personaj leksemasi badiiy adabiyot va kinoda, shuningdek, san’at asarlari yaratiladigan boshqa sohalarda ham asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Badiiy asarda personaj xarakterini yaratishda lisoniy birliklar muhim o‘rin tutadi. Til nafaqat ma’lumot yetkazish vositasi, balki muallifga his-tuyg‘ularni anglatish va personajning teran qiyofasini yaratish imkonini beradigan vositadir.

“Personaj” – bu harakat subyekti, voqea tashabbuskori yoki qurboni bo‘lgan shaxs. Bu leksema ko‘p ma’noga ega bo‘lib, turli kontekstlarda qo‘llanishi mumkin. Uning ilk qo‘llanilishi teatr bilan bog‘liq. Qadimgi Yunonistonda “personaj” so‘zi rol o‘ynalayotgan obrazning o‘ziga xos xarakterini ifodalash uchun aktyorlar yuzlariga kiyadigan niqob ma’nosida ishlatilgan. “Personaj” leksemasi lotincha “*persona*” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “niqob” yoki “shaxs” degan ma’noni anglatadi. Qadimgi Rimda aktyorlar sahnada nutq so‘zlab, obrazning xarakterini va hissiy holatini aks ettiruvchi niqoblar kiyishgan. Ushbu niqoblar “persona” deb nomlangan. Keyinchalik, o‘rta asrlarda bu so‘z aktyor o‘ynagan “rol” yoki shaxs “xarakteri”ga nisbatan qo‘llanila boshlandi. Bugungi kunda personaj leksemasi turli jabhalarda, jumladan, adabiyot, kino, teatr, kompyuter o‘yinlari va boshqa sohalarda qo‘llanadi. Odatda, uni kengroq ma’noda adabiyot, kino, televideniye va san’atning boshqa turlaridagi har qanday badiiy qahramonga nisbatan qo‘llash mumkin.

Badiiy adabiyotlarda “personaj” asarning asosiy elementi hisoblanadi. U o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlar, kuchli va zaif tomonlari, boshqa belgilari hamda atrof-muhit bilan munosabatlariga ega bo‘lgan xarakter sifatida ta’riflanishi mumkin. Kino va teatrda “personaj” sujet yaratilishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi va uni muayyan rol o‘ynaydigan aktyor deb ta’riflash mumkin. Kompyuter o‘yinlarida “personaj” – bu boshqariladigan o‘yinchi yoki o‘yin olamidagi o‘zi o‘ynamaydigan xarakter NPC (Non-Player Character) sifatida yashashi mumkin bo‘lgan o‘yin obyekti sanaladi.

Personajning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, u yozuvchilar va rassomlarga kitobxonlar, tomoshabinlar yoki o‘yinchilarning tasavvurini qamrab oladigan noyob va qiziqarli xarakterlarni yaratish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Izohli lug‘atlarda personaj leksemasi, odatda, badiiy asar sujetini harakatga keltiruvchi to‘qima obraz sifatida ta’riflanadi. Masalan, rus tilining onlayn izohli lug‘atida personajga “1. Dramatik yoki adabiy asardagi harakatdagi shaxs. 2. Ko‘chma ma’noda: zot, kimsa” [1] degan ta’rif berilgan.

Boshqa lug‘atlarda personajga berilgan ta’riflar kengaytirilgan yoki takomillashgan ko‘rinishda kelishi mumkin. Misol uchun, S.I.Ojegov va N.Y.Shvedovalar muharrirligida nashr qilingan “Rus tilining izohli lug‘ati”da *personaj* “Adabiy asardagi, spektakldagi qahramon (harakatdagi shaxs), shuningdek, rangtasvir janrlarining predmeti sifatidagi shaxs” deya ta’riflanadi. Bundan tashqari, ushbu lug‘atda personaj timsol yoki allegoriya bo‘lishi mumkinligi, ya’ni qandaydir o‘ziga xos mafkuraviy yoki falsafiy tushunchani aks ettirishi ham ta’kidlanadi. Masalan, Jorj Oruellning “1984” romanidagi qahramonlar kommunizm va totalitarizmning turli qirralarini ifodalaganlari singari.

S.A.Kuznetsov tahriri ostidagi “Rus tilining izohli lug‘ati”da ham personajga yuqoridagiga o‘xshash ta’rif berilganini ko‘rishimiz mumkin: “Personaj – (frans. *personnage*, lot. *persona* – shaxs) badiiy, dramatik asardagi, rassomlik janrlaridagi harakatdagi shaxs. To‘qima personaj. Ikkinchi darajali personaj” [4].

Personaj leksemasining o‘zbek tilida qo‘llanilishi bo‘yicha quyidagi izohni keltirishimiz mumkin: “Personaj – (lot. *persona* – shaxs) san’at va badiiy adabiyotda (hikoya, roman, pyesa, kinofilm kabilarda) muallif tomonidan tasvir etilgan har bir shaxs”[2].

Demak, “personaj” deganda adabiy yoki san’at asarida tasvirlangan yoki ifodalangan obraz yoki qahramon, shuningdek, sujet tarkibiga kiruvchi badiiy xarakter tushuniladi. Kengroq ma’noda, “personaj” deganda real hayotdagi shaxsga taalluqli xarakter, axloqiy fazilat yoki xatti-harakat ham tushuniladi. Unga qisqa va lo‘nda ta’rif beradigan bo‘lsak, personaj – bu san’at asarida harakat qilayotgan to‘qima shaxs yoki jonivor obrazi deyishimiz mumkin.

Yuqoridagi barcha izohlarda qayd etilishicha “personaj” so‘zi asosan adabiyotga (boshqa san’at turlariga qaraganda ko‘proq) tegishli ekanligi va u xarakterni, ya’ni shaxsni bildiradi. Personaj ot so‘z turkumiga mansubligi jihatidan shaxs ma’nosini bildirishini sinonimlar lug‘atlari ham tasdiqlaydi. Aytaylik, N.Abramovning “Ruscha sinonimlar va ma’no jihatdan yaqin iboralar lug‘ati”da personaj deganda “inson” tushunilishiga ishora bor. “Inson”

maqolasida, o‘z navbatida, shunday deyilgan: “Inson, shaxs, odam, er, individ, individuallik” [3].

Tilshunoslikda “personaj” leksemasi adabiy yoki badiiy matndagi to‘qima yoki real shaxs bo‘lgan lisoniy birlikni anglatish uchun ishlatiladi. Bu leksema tilshunoslikda muayyan ahamiyatga ega, chunki u tadqiqotchilarga matnlarni tahlil qilish va izohlash, shuningdek, ularning mazmuni va tuzilishini tavsiflashda yordam beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Badiiy asardagi personaj shaxsi ko‘p jihatlari bilan ko‘zga tashlanib turadi. Ulardan ba’zilarini sanab o‘tamiz:

Xarakter. Bu – asardagi qahramonning xulq-atvori va harakatlarini belgilaydigan fazilatlar, xususiyat va qirralari to‘plami. Xarakter ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin va hissiy barqarorlik, aql, iroda, mehribonlik, shafqatsizlik, xudbinlik kabi xususiyatlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Qahramon xarakterini yozuvchi, albatta, lisoniy birliklar yordamida ochib beradi. O‘.Hoshimovning biz tahlil qilayotgan qissa va romanlarida ham o‘z xarakteriga ega qahramonlar anchagina. Masalan, “Dunyoning ishlari” qissasida Ona obrazi (o‘zbek onalarining xarakterini, xususiyatlarini o‘zida aks ettirishi bilan birga, halimlik, sokinlik, odamoxunlik, oqilalik, yumshoqfe’llilik kabi o‘ziga xos xislatlari bilan ajralib turadi); “Tushda kechgan umrlar” romanida Soat G‘aniyev, Qurbonoy xola obrazlari; “Ikki eshik orasi” romanida Oqsoqol, Bashorat, Umar zakunchi obrazlari bunga yaqqol misoldir. Bu qahramonlar xarakterini yaratishda o‘ziga xos leksik (Umar zakunchi nutqida uchraydigan “o‘rtoqlar” so‘zi va “zakonniy” varvarizmi), frazeologik (belida belbog‘i bor – Orif oqsoqol nutqida), morfologik (xex – undov so‘z, Soat G‘aniyev nutqida ko‘p qo‘llanilib, “ishonmaslik, mensimaslik, bepisandlik, nafrat” ma’nolarini va uning holatini ifodalaydi), sintaktik birliklardan (aylanay, o‘rgilay, qoqindiq, jon bolam – Hakima aya nutqida, “xaloyiq” so‘zining Orif oqsoqol nutqida undalma vazifasida kelishi) foydalanilgan: “*To‘g‘ri mening ham agronomlik diplomim yo‘q. Lekin zakonniy bitta gapni aytib qo‘yay: raz menga xo‘jalikni ishonib topshirdilaringmi, qattiq ishlaymiz”* [5].

Tashqi ko‘rinish. Xarakterning tashqi kiyim-kechagi, xulq-atvori, imo-ishoralari va yuz ifodalari kabi xususiyatlari tashqi ko‘rinishda mujassam topadi. Asarda qahramonning tashqi ko‘rinishi ham til birliklari yordamida ifodalanadi: Masalan, “Ikki eshik orasi” romanida muallimning ziyoli kiyinishi, Umar zakunchining chaqmoq telpagi, Robiyaning yerga tegib turgan sochi, Shomurodning mo‘ylovi kabilarni misol keltirish mumkin: *Dadam tekis qilib dazmollangan oppoq ityoqa ko‘ylak kiyib, chuchvaranusxa bo‘yinbog‘ bog‘lab yuradigan odam edi* [5].

Motivlar. Asardagi qahramonning harakatlarini belgilab beradigan narsa. Motivlar har xil bo‘lishi mumkin, qo‘rquv va kuchga bo‘lgan ishtiyoqdan to sevgi va fidoyilikkacha. Qahramonning maqsadlari oddiy, masalan, moddiy farovonlikka erishish yoki hayotda o‘z o‘rnini topish kabi murakkab bo‘lishi mumkin. Masalan, “Ikki eshik orasi” romanidagi Orif oqsoqol. U – o‘z yurti va xalqi uchun jon kuydiridagan, shu sabab xalq hurmat-izzatiga sazovor

bo‘lgan inson. Roman oxiriga qadar xalqim deb yashash hissi bu obrazni tark etmaydi. Uni raislikdan olishganda, Husan Duma o‘z qo‘ling bilan amalingni berding deb jahli chiqqanida, unga quyidagi fikrlarni aytadi: *– Amal nima?! – Oqsoqol beparvo qo‘l siltadi. – Menga qolsa, raislik u yoqda tursin, ming marta katta amaliyam misoli oyog‘ingdagi etikday gap. Seni amalga xalq ko‘tardimi, davlat o‘tqazib qo‘yadimi, baribir “Mana shu etikni kiygin-da, kerak bo‘lsa suv kechib, kerak bo‘lsa loy kechib, yurtning xizmatini qilgin, deydi* [5]. Bu bilan biz Oqsoqolni amalparast emas, xalqparvar ekanini bilib olamiz.

O‘zaro munosabat. Qahramonning boshqa personajlar bilan o‘zaro munosabatlari ziddiyatli yoki do‘stona bo‘lishi mumkin. Bu munosabatlarda sevgi, do‘stlik yoki dushmanlik ustunlik qiladi. Bu munosabat dialog, monolog asosida ochib beriladi. Masalan, Soat G‘aniyevning atrofdagilarga munosabati asosan monolog, xotiralar, qisman dialog orqali ochib berilgan: *So‘tag-ey! Jo‘jaxo‘roz-ey! Qo‘yib bersa, meni so‘roq qilmoqchi! Meni-ya! Jangovar Qizil Bayroq Qizil Yulduz ordenlari kavaleri, kimsan Komissarni-ya! Avval burningni artib ol, mishiqi! Sovet organining kuni shularga qoldimi endi? Qayoqqa qarab ketyapmiz o‘zi? Xo‘p zamonlar o‘tgan ekan-da? Egningda charm palto. Boshingda shapka. Yoningda nagan. Qaysi eshikni taqillatsang ko‘radi-yu, taxta bo‘ladi-qoladi. “Grajdanin falonchi sizmi?” – desang, tili kalimaga kelmaydi, unsurning!..* [6]. Yozuvchi bu obrazni shu qadar mahorat bilan tasvirlaganki, uning insonlarga nafrati bolaligidan shakllangani va bu nafrat uni qanday kimsaga aylantirgani ochib berilgan: *Dushman! Hammasi dushman! Ilonning bolasi – ilon, chayonning bolasi – chayon!... – Soat daf’atan xayoliga kelgan gapdan ko‘nglida alam va ayni paytda allanechuk yengillik tuydi* [6]. Qahramon nutqida keltirilgan kichik mikro matnda qo‘llanilgan salbiy bo‘ yoqqa ega *so‘tak, jo‘jaxo‘roz, mishiqi, unsur, dushman, ilon, chayon* so‘zlarining o‘zi uning kishilarga munosabatini yaqqol ifodalab turibdi.

Evolyutsiya. Asar davomida qahramonda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. O‘sish o‘z-o‘zini anglash, xatolarni tushunish, qiyinchiliklarni idrok etish va yengish kabilarni o‘z ichiga oladi. “Tushda kechgan umrlar” romanidagi Rustamning boshidan o‘tgan voqealar, urushda bo‘lishi, ruhiy iztiroblar sabab uning qiynalishlari o‘zi yozib borgan kundaligi orqali aks etgan.

Ramziylik. Personaj asarda ramz yoki metafora sifatida ishlatilishi mumkin. Ramziylik ochiq yoki yashirin bo‘lishi, g‘oyalar va tushunchalarni hamda ma’nolarni yetkazish uchun ishlatilishi mumkin. Personaj shaxsiyatining ana shu jihatlari birgalikda asarda murakkab va o‘ziga xos obraz yaratilishiga xizmat qiladi.

Personaj xarakterini yaratishda qo‘llaniladigan asosiy usullardan biri lisoniy birliklar sanaladigan so‘z va iboralarni tanlashdir. Muallif qahramonni tasvirlash uchun tanlagan so‘zlar juda ahamiyatli bo‘lib, kitobxon tomonidan qahramonning qanday qabul qilinishiga ta’sir qiladi. Misol uchun, agar qahramon “oliyjanob”, “adolatli” yoki “mehribon” deb ta’riflangan bo‘lsa, kitobxon uni yoqtirishi mumkin. Boshqa tomondan, agar qahramon “xudbin”, “shafqatsiz”, “ayyor” deb ta’riflansa, u o‘quvchida salbiy his-tuyg‘ularni uyg‘otishi mumkin. Bundan tashqari, so‘z va iboralarni tanlash muallifga xarakterning ba’zi xususiyatlarini

yetkazish imkonini beradi. Masalan, muallif tabiat bilan bog‘liq metaforalarni ko‘p ishlatsa, bu xarakterning xotirjamligi va vazminligini ta’kidlashi mumkin. Agar muallif juda ko‘p “tajovuzkor harakat” semali fe’llarni yoki so‘zlarni ishlatsa, bu personajning yovuzligini yoki tajovuzkorligini ta’kidlashi mumkin.

Dialog – bu badiiy asar qahramonlarining suhbatlari. Bu to‘g‘ridan to‘g‘ri nutq yoki bilvosita nutq sifatida taqdim etilishi mumkin. Dialog personaj xarakteri haqidagi ma’lumotni uning nimani qanday aytishi orqali yetkazish imkonini beradi. Dialog orqali muallif xarakter, uning xususiyatlari va shaxsiyatiga ishora qilishi mumkin. Qahramonning nutqi ham, so‘z tanlashi ham uning xarakteri haqida ma’lumot beradi. Misol uchun, personaj tez yoki juda cho‘zib gapiradigan bo‘lishi yoki u juda ko‘p murakkab jumlalar va ibratli hamda mazmundor iboralarni ishlatishi mumkin. Bundan tashqari, xarakter o‘ziga xos jargondan foydalanishi mumkinki, bu muallifga xarakterning ba’zi xususiyatlarini, masalan, uning ijtimoiy mavqeyi yoki ma’lum bir doira yoki madaniyatga mansubligini yetkazishga yordam beradi. Bundan tashqari, dialog muallifga qahramonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni va ularning bir-biriga munosabatini ko‘rsatishga yordam beradi. Personajlar o‘rtasidagi dialoglar do‘stlik, raqobat, dushmanlik va hokazolarni ko‘rsatishi mumkin.

Til birliklari so‘z va dialogdan tashqari gap tuzilishi va atrof-muhit tavsifini ham o‘z ichiga olishi mumkin. Jumla tuzilishi yozuvchiga qahramonning his-tuyg‘ularini va kayfiyatini yetkazishga yordam beradi. Muhit tavsifi esa muallifga qahramon shaxsiyatini yaratishda qo‘l keladi. Misol uchun, agar personaj hashamat va nafosat bilan o‘ralgan bo‘lsa, bu uning yuqori ijtimoiy mavqeyi va boyligini ko‘rsatishi mumkin. Agar u chirkin va yoqimsiz joyda bo‘lsa, bu uning past ijtimoiy mavqeyi va qashshoqligini ko‘rsatishi mumkin.

Biroq personaj jonli chiqishi uchun u mantiqan izchil va o‘ziga xos ichki motivatsiyaga ega bo‘lishi kerak. Personaj ishonarli chiqishi uchun yozuvchilar uning xatti-harakati va qarorlari qanday motiv hamda qadriyatlarga tayanishini, uning zaif tomonlari nimada ekanligini, turli vaziyatlar va boshqa qahramonlar bilan qanday munosabatda bo‘lishini tushunishlari kerak. Personaj o‘zini tutishidagi nomuvofiqlik yoki lisoniy asoslanmaganlik obraz yaxlitligi va ishonarliligini buzishi mumkin. Shuningdek, personaj kitobxon yoki tomoshabinga uni osongina tushunishga yordam beradigan o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Personaj tasviri nafaqat jismoniy (tashqi ko‘rinishi, yoshi, jinsi, millati), balki psixologik (fe’l-atvori, temperamenti, dunyoqarashi, madaniy va ijtimoiy odatlari) jihatlarini ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Bundan tashqari, personaj yaratishning muhim jihati uning hikoya davomida rivojlanishi va evolyutsiyasidir. Xarakter butun hikoya davomida o‘zgarishi va rivojlanishi, o‘zining yangi qirralarini aks ettirishi va harakatlarida izchillik bo‘lishi kerak. U qiyinchiliklarga duch kelishi va to‘siqlarni yengib o‘tishi kerak, bu o‘quvchi yoki tomoshabinga uning xarakterini hamda motivatsiyasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Lisoniy birliklar yordamida personaj yaratish so‘z san’atining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, obraz xarakterini, tashqi qiyofasini, xulq-atvorini tasvirlashda turli til vositalaridan

foydalanishni o‘z ichiga oladi. Lisoniy birliklar yordamida personaj obrazini yaratishning ba’zi usullari quyidagilardan iborat:

Qahramon tashqi ko‘rinishi tavsifi. Xarakterning jismoniy xususiyatlarining tavsifi (bo‘yi, vazni, soch rangi, ko‘zlari, yuz shakli, kiyim xususiyatlari), shuningdek, mimika va imo-ishoralarining tavsifi.

Dialog. Dialog qahramonning xarakterini va shaxsiyatini ko‘rsatish, shuningdek, his-tuyg‘u va fikrlarni yetkazish uchun ishlatiladi.

Ichki monolog. Ichki monolog qahramonning ichki kechinmalarini, fikrlarini va his-tuyg‘ularini yetkazish uchun ishlatilishi mumkin, bu kitobxonga uning xarakterini va motivlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

O‘xshatish va metafora. O‘xshatish va metaforalardan foydalanish yanada yorqinroq va esda qolarli xarakter yaratishga yordam beradi.

Qahramonning ijtimoiy mavqeyi va ma’lumoti bilan bog‘liq lisoniy birliklar. Leksik birikmalar va grammatik konstruksiyalar kabi turli xil til vositalaridan foydalanish personajning ijtimoiy mavqeyi va ta’lim darajasini yetkazishga yordam beradi.

Takrorlar. Takrorlash xarakter tavsiflarining ta’siri va esda qolishini oshirish uchun ishlatilishi mumkin.

XULOSA. Adabiyotda jonli, taniqli obrazlarni yaratish mexanizmlarini tushunish uchun adabiy qahramonlar xarakterini shakllantirish usullari, ularning ichki xususiyatlari tahlili muhimdir.

Adabiy personaj leksemasining til tizimidagi ahamiyati uning badiiy asarning umumiy mazmuniga ta’sirida ko‘rinadi.

Umuman olganda, lisoniy birliklardan foydalangan holda personaj yaratish murakkab jarayon bo‘lib, adabiy asar muallifidan tilni yaxshi bilishi, esda qolarli va jonli xarakter obrazini yaratish uchun turli til vositalaridan foydalana bilishni talab qiladi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan nazariy masalalar badiiy asarlardagi adabiy qahramonlarni til va badiiy hodisa sifatida chuqurroq tahlil qilish va tushunish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Толковый словарь русского языка. Под ред. Ушакова онлайн. https://ushakovdictionary.ru/word.php?wordid=48152. (Explanatory Dictionary of the Russian Language. Edited by Ushakov. Online).

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Jild III. L–P. – Тошкент: G‘afur G‘ulom, 2023. – B.706. (Explanatory Dictionary of the Uzbek Language. Volume III. L–P. – Tashkent: Gafur Gulam, 2023. – p. 706.

3.Абрамов Н. Словарь русских синонимов и сходных по смыслу выражений. – Москва: Русские словари, 1999. – С.115.(Abramov N. (1999). Dictionary of Russian Synonyms and Similar Expressions. – Moscow: Russkie slovari, 1999. – p. 115.).

4.Толковый словарь русского языка. Под ред. С.А.Кузнецова. https://gufo.me/dict/kuznetsov.(Explanatory Dictionary of the Russian Language. Edited by S.A. Kuznetsov.).

5. O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Nurli dunyo, 2023. – 77-57-80-b. (Hashimov, O‘tkir. (2023). Ikki eshik orasi (Between Two Doors). – Tashkent: Nurli dunyo, 2023. – pp. 77-57-80.).

6. O‘tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – 24-32-b.(Hashimov, O‘tkir. (2019).Tushda kechgan umrlar (Lives Passed in a Dream). – Tashkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – pp. 24-32.*).*

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

IDENTITY AND LANGUAGE CHOICE IN MULTILINGUAL SOCIETIES

Aktamova Visola Bakhtiyor kizi.
Master’s student at the Uzbekistan World Languages University
aktamovavisola@gmail.com +998978038010

Annotation: In this article was illustrated that the policy–ideology–practice triangulation offered a multi-scalar lens: legal texts, media discourses, and lived interaction illuminate different resolution levels of the same phenomenon. Second, diachronic digital ethnography – archiving social-media interactions every two months – captured real-time ideological shifts, avoiding the static snapshot bias that plagues traditional ethnography.

Key words: Dimensions, glossary-like, a pluricentric language, multilingual contexts, English lexicon, phraseology, near-minority.

Аннотация: В этой статье было показано, что триангуляция политики, идеологии и практики предлагает многоуровневую перспективу: юридические тексты, медиадискурсы и живое взаимодействие освещают различные уровни разрешения одного и того же феномена. Во-вторых, диахроническая цифровая этнография – архивирование взаимодействий в социальных сетях каждые два месяца – зафиксировала изменения в идеологии в реальном времени, избегая статического смещения снимков, которое мучает традиционную этнографию.

Ключевые слова: Размеры, подобный глоссарию, плурицентрический язык, многоязычные контексты, английский лексикон, фразеология, близкий к меньшинству.

Annotatsiya: Ushbu maqolada siyosat-ideologiya-amaliyot trifonksiyasi ko‘p darajali ko‘rinish taklif etgani ko‘rsatilgan: huquqiy matnlar, ommaviy axborot vositalari muhokamalari va yashash interaksiyalari bir xil hodisaning turli hal etish darajalarini yoritadi. Ikkinchidan, dinamik raqamli etnografiya – har ikki oyda ijtimoiy media interaksiyalarini arxivlash – haqiqiy vaqt ichida ideologik o'zgarishlarni qayd etib boradi va an'anaviy etnografiya bilan bog'liq statik kadr burilishidan qochadi.

Kalit so'zlar: O'lchovlar, glossariyga o'xshash, plurikentrik til, ko'p tilli kontekstlar, ingliz leksikoni, frazeologiya, kamchilikka yaqin.

The sociocultural dimensions of multilingualism extend well beyond mere linguistic competence, encompassing how speakers negotiate their identity and sense of belonging within diverse social contexts. In communities where English, Uzbek, and Russian interact – whether through historical ties, educational policies, migration patterns, or globalization – individuals

and groups select languages to express affinities, manage power relations, and project various aspects of self. According to *Merriam-Webster* (n.d., s.v. “identity”), identity is “the distinguishing character or personality of an individual,” a concept that in sociolinguistics includes collective dimensions such as group membership and ethnolinguistic loyalty. This subchapter examines how language choice contributes to identity formation among speakers of English, Uzbek, and Russian, underscoring the specialized terms, theoretical constructs, and practical realities that shape multilingual interactions.

Multilingual contexts involve a wide array of technical terms that help capture the complexity of language and identity. Below is a glossary-like overview (Table 1), defining key concepts pertinent to the study of language choice and identity among English, Uzbek, and Russian speakers.

Term	**Definition**
Identity	A set of characteristics, affiliations, and roles through which individuals and groups understand and represent themselves (*Merriam-Webster*, n.d.).
Ethnolinguistic Identity	The sense of belonging tied to an ethnic group and its language, influencing cultural practices and self-identification (Giles & Johnson, 1987).
Language Repertoire	The full range of linguistic varieties (dialects, registers, codes) an individual can use depending on context (*Oxford English Dictionary*, n.d., s.v. “repertoire”).
Language Domain	A specific social or situational context (e.g., home, workplace, media) in which a given language is used (Fishman, 1972).
Diglossia	A sociolinguistic condition where two varieties of the same language (or two languages) coexist in complementary functional distribution (Ferguson, 1959).
Polyglossia	An extension of diglossia, involving multiple languages or varieties fulfilling differentiated roles within a community (Mohamad, 1987).
Language Ideology	Beliefs or attitudes regarding the legitimacy, purity, or social value of particular languages or dialects (Woolard & Schieffelin, 1994).
Language Policy	Formal or informal rules governing language use and status in institutions such as schools, government agencies, or media outlets (Spolsky, 2004).
Language Planning	Deliberate efforts to influence language function, structure, or acquisition through policy and institutional measures (Kaplan & Baldauf, 1997).
Mother Tongue	The first language learned at home during early childhood, also called L1 (*Collins English Dictionary*, n.d., s.v. “mother tongue”).
Second Language (L2)	A language learned after the mother tongue, often for education or employment opportunities (*Merriam-Webster*, n.d., s.v. “second language”).
Heritage Language	A minority or ancestral language spoken by members of a cultural group, often maintained for identity reasons (Valdés, 2000).
Accent	Distinctive pronunciation patterns reflecting regional or social background (*Merriam-Webster*, n.d., s.v. “accent”).
Dialect	A regional or social variant of a language with unique vocabulary, grammar, or pronunciation (Trudgill, 2000).

Standard Variety	The form of a language typically codified in official documents, education, and media (Milroy & Milroy, 2012).
Prestige Variety	A language or dialect regarded as socially advantageous or of higher status within a community (Labov, 2001).
Linguistic Market	The socio-economic environment in which language skills can be exchanged for social or material rewards (Bourdieu, 1991).
Diaspora	A group of people who live outside their shared country of origin or ancestry but maintain active connections with it (Safran, 1991).
Language Shift	The process by which a community transitions from using one language to another across generations (Fishman, 1991).
Language Maintenance	Efforts and practices aimed at preserving and continuing the use of a minority or heritage language (Holmes, 2013).
Domain Analysis	The study of how language choice varies across domains such as family, religion, work, and education (Fishman, 1972).
Linguistic Capital	The value assigned to language skills within social and economic structures (Bourdieu, 1991).
Intergenerational Transmission	The passing of language skills from one generation to the next (Fishman, 1991).
Linguistic Stigma	Negative perceptions attached to a particular language or dialect, often leading to discrimination (Lippi-Green, 2012).
Linguistic Landscape	The visibility of languages in public spaces (e.g., signage, billboards, graffiti) that reflect sociocultural dynamics (Landry & Bourhis, 1997).
Group Identity	The collective sense of self shared by members of a particular social group (Tajfel & Turner, 1979).
Ethnolinguistic Vitality	The potential of a language group to survive based on status, demographic strength, and institutional support (Giles, Bourhis, & Taylor, 1977).
Core Values	The principal cultural norms or beliefs upheld by a group, often reinforced through language (Schwartz, 1992).
Linguistic Assimilation	The process wherein speakers adopt the dominant language at the expense of their heritage language (Piller, 2016).
Language Loyalty	Commitment of speakers to retain their ancestral language in the face of pressures to shift (Fishman, 1991).
Boundary Marking	Using language choice to distinguish in-group vs. out-group members (Barth, 1969).
Speech Community	A group of people who share norms and rules for language use (Gumperz, 1982).
Translanguaging	A dynamic process in which multilingual speakers blend or alternate multiple languages fluidly (García & Li Wei, 2014).
Accommodation	Adjusting one’s language style to align with or diverge from an interlocutor’s language (Giles, 1973).
Language Attitude	Speakers’ beliefs and feelings about different languages or varieties, influencing communication and identity (Baker, 1992).

Повесть Михаила Ляшенко «Человек-луч» представляет собой яркий образец советской научной фантастики, созданной в культурном контексте Узбекистана. Здесь будущее осмысляется не только как продолжение технического прогресса, но и как философский вызов человеческой природе и идентичности. Через герменевтический, культурно-философский и постколониальный ракурс текст раскрывается как сложная структура смыслов, моделирующих возможные сценарии будущего.

Центральный персонаж, Юрий Сергеев, — типичный представитель советской молодежи, воспитанный в духе рационализма и научного энтузиазма. Однако сюжет вскоре выходит за пределы привычного социалистического реализма. Юрий получает странную телеграмму: «Капитан, капитан, подтянитесь. Только смелым покоряются моря» [4, с.6] Этот бессмысленный, с виду абсурдный текст становится прологом к целой череде нарушений реальности, предвестником прихода иного знания. Это и есть момент,

в котором «будущее» как концепт начинает функционировать не в плоскости технологического планирования, а как неожиданное, нарушающее рациональность явление.

Появление «летающей картошки» с выгравированными буквами («Просьба… вернуть… по адресу… — прочел Бубырь. — Г… я… об… п/я 7..» Чего это, мама, а? И еще, смотри! «АГ-181-ИНФ». [4]) — один из примеров иррационального в обыденность.

Эти знаки вторжения не только сбивают с толку, но и ставят под сомнение саму возможность научного объяснения происходящего. В этом проявляется философская тревога перед будущим, где человек уже не является хозяином бытия.

Подобные же аномалии пронизывают текст и далее. В частности, описания природы приобретают гротескный, алогичный характер. Природа начинает вести себя как живая, ироничная сила, подрывающая устоявшуюся картину мира. Это может быть прочитано через культурно-философский подход как символ хаотизации мира, не поддающегося контролю научной парадигмой.

Кульминацией повествования становится трансформация героя в чистую энергию. Это превращение героя в луч света — один из ключевых философских символов текста. С одной стороны, оно апеллирует к идее научного прогресса, то есть человек преодолевает плоть, становясь информацией, энергией, чистым разумом. С другой стороны — это трансцендентный опыт, выходящий за пределы материального, что сближает повесть с восточной мистической традицией, в которой «свет» — это синоним откровения и просветления.

Центральным фантастическим элементом рассказа «Веточка из каменного сада» [10] является легенда о каменном саде царя Шаддода. Этот сад, описанный как место, где деревья и цветы сделаны из драгоценных камней, существует на грани мифа и реальности. Для главного героя, Саида, сад становится символом неразгаданных тайн природы, а его обнаружение — моментом соприкосновения с чем-то необъяснимым. Пещера с её сталактитами, напоминающими окаменевшие растения, воплощает эту легенду в реальности, создавая эффект «научной фантастики», где природа сама становится творцом чудес.

Главный герой, мечтающий стать геологом, воспринимает мир через призму научного поиска. Фантастический элемент усиливается, когда в пещере обнаруживается человек, скрывающийся от мира. Его образ, напоминающий «косматого джинна» из рассказов местных мальчишек, добавляет мистическую ноту. Это сочетание реальной трагедии (судьбы Аманбая) и почти сказочного антуража создаёт эффект «фантастического реализма», где граница между правдой и вымыслом размыта.

Каменная веточка, которая становится ключевым символом рассказа, объединяет в себе научный и фантастический аспекты. С одной стороны, это реальный минерал, интересный с геологической точки зрения. С другой — это артефакт, связывающий прошлое и настоящее, миф и реальность. Её «медово-золотистый» цвет и форма,

напоминающая живую ветку, подчёркивают, как природа может создавать чудеса, недоступные человеческому пониманию.

Рассказ не использует традиционные научно-фантастические технологии или инопланетные миры, но он показывает, что фантастика может скрываться в самом обычном мире — в камнях, легендах и человеческих судьбах. Через призму научного интереса героя автор раскрывает, что даже в самых реалистичных обстоятельствах есть место для чуда. Таким образом, рассказ «Веточка из каменного сада» — это не просто история о выздоровлении и взрослении, но и размышление о том, как наука и мифология переплетаются в нашем восприятии мира.

Научно-фантастический мир в рассказе существует не как отдельная реальность, а как часть окружающей природы, которая хранит в себе неразгаданные тайны. Через легенды, геологические открытия и человеческие судьбы автор показывает, что фантастика — это не всегда вымысел, иногда это просто ещё не познанная сторона действительности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Русскоязычная научная фантастика, создаваемая в Узбекистане, представляет собой уникальный культурный феномен, формировавшийся на пересечении советской идеологии, восточной духовной традиции и современных философских и технонаучных поисков. Несмотря на то, что данное направление долгое время оставалось на периферии как научного, так и литературного дискурса, анализ произведений таких авторов, как Зоя Туманова, Валерий Нечипоренко и Михаил Ляшенко, демонстрирует его значительный художественный и философский потенциал.

Исследованные тексты позволяют утверждать, что научная фантастика в русскоязычной литературе Узбекистана выходит за пределы традиционного жанрового восприятия и становится способом философской рефлексии над будущим, человеком и его местом в мире. Авторы создают оригинальные концепции будущего, в которых технологии неразрывно связаны с духовностью, научное знание — с мифопоэтическими структурами, а образ человека — с кризисами идентичности и трансформацией субъекта.

Так, Зоя Туманова переосмысляет будущее как внутреннюю духовную категорию, опираясь на метафору света, легенду, природный символизм. Михаил Ляшенко в повести «Человек-луч» развивает мотив онтологической трансформации и выхода за пределы человеческой природы, при этом наделяя повествование философским подтекстом, связанным с потерей устойчивости рационального мира. Валерий Нечипоренко в своих произведениях поднимает этические и антропологические вопросы, исследуя возможности и пределы научного вмешательства в природу и в саму сущность человека.

Использование герменевтического, культурно-философского, мотивного и постколониального методов позволило выявить многослойную структуру смыслов, встраивающихся в локальный контекст, но одновременно взаимодействующих с глобальными моделями научной фантастики. Эти тексты демонстрируют, что будущее в

них мыслится не как механистическое продолжение настоящего, а как зона смысловой неопределенности, открытая для философского исследования, духовного роста и культурной саморефлексии.

Таким образом, русскоязычная научная фантастика Узбекистана представляет собой не только художественную практику, но и ценную форму культурно-философского мышления, заслуживающую дальнейшего научного осмысления в рамках как региональных, так и общемировых гуманитарных исследований. Она демонстрирует, как в условиях культурного многообразия и исторических трансформаций может формироваться оригинальное литературное мышление о будущем — мышление, способное предложить новые ответы на старые вопросы о человеке, времени, знании и бытии.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. “Science fiction.” Merriam-Webster.com Dictionary, Merriam-Webster, https://www.merriam-webster.com/dictionary/science%20fiction. Дано в переводе автора.

2. Ахмедов Р. Ш. В поисках обобщающего определения термина «Научная фантастика» // Достижения науки и образования. 2019. №8-1 (49). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/v-poiskah-obobschayuschego-opredeleniya-termina-nauchnaya-fantastika

3. Гадамер Х.-Г. Истина и метод. — М.: Прогресс, 1988. — 702 с.

4. Ляшенко М. Человек-луч. — Ташкент: Изд-во литературы и искусства Узбекистана, 1960. — 176 с.

5. Неелов.Е.М. Фольклорный интертекст русской фантастики/ – Петрозаводск.,2002. — 241 с.

6. Нечипоренко В. Подопечные // Звезда Востока. — 1987. — № 7. — С. 101–115.

7. Николаев Д. Д. Русская проза 1920-1930-х годов: авантюрная, фантастическая и историческая проза / Д. Д. Николаев. – Москва: Наука, 2006. – 688 с.

8. Новопрудский В. «Операция «Биомен», антология. – Ташкент: Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1990 г. - 400стр.

9. Рикёр П. Конфликт интерпретаций. — М.: Академический проект, 2004. — 528 с.

10. Туманова З. Веточка из каменного сада. — Ташкент: Изд-во им. Гафура Гуляма, 1995. — 232 с.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

BOBURNING “MUBAYYIN” ASARI VA UNING BADIIY-ESTETIK HAMDA AXLOQIY-FALSAFIY JIHATLARI

Maxmudova Nargiza Shokirovna
Farg‘ona Davlat Universiteti adabiyotshunoslik kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada Boburning diniy-ma’rifiy, badiiy-estetik va axloqiy-falsafiy tafakkurining shakllanishiga ta’sir qilgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy omillar, shuningdek, “Mubayyin” asarining yaratilish sabablari va mazmuni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Asar masnaviy janrda yozilgan bo‘lib, unda islom dini, shariat qonunlari, hukmdorlik mas’uliyati va axloqiy qadriyatlar badiiy shaklda ifodalanadi. Tadqiqotda asarning poetikasi, kompozitsiyasi, diniy-falsafiy mazmuni va badiiy vositalari yoritiladi hamda Boburning tarjimonlik va adabiy ijoddagi ijodiy yondashuvi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Bobur, Mubayyin, diniy-ma’rifiy tafakkur, badiiy-estetik, axloqiy-falsafiy, masnaviy janr, shariat, islom dini, hukmdorlik mas’uliyati, poetika, tarjima.

Annotation This article scientifically analyzes the socio-political and cultural factors influencing the formation of Bobur’s religious-enlightenment, artistic-aesthetic, and ethical-philosophical thought, as well as the reasons for the creation and content of the work “Mubayyin.” Written in the masnavi genre, the work artistically expresses Islamic religion, Sharia law, rulership responsibility, and moral values. The study highlights the poetics, composition, religious-philosophical content, and artistic devices of the work, revealing Bobur’s creative approach in translation and literary creativity.

Keywords: Bobur, Mubayyin, religious-enlightenment thought, artistic-aesthetic, ethical-philosophical, masnavi genre, Sharia, Islam, rulership responsibility, poetics, translation

Аннотация В статье научно анализируются социально-политические и культурные факторы, влияющие на формирование религиозно-просветительского, художественно-эстетического и нравственно-философского мышления Бабура, а также причины создания и содержание произведения «Мубайин». Написанное в жанре маснави, произведение художественно выражает исламскую религию, шариатское право, ответственность правителя и моральные ценности. В исследовании освещаются поэтика, композиция, религиозно-философское содержание и художественные средства произведения, раскрывается творческий подход Бабура в переводе и литературном творчестве.

Ключевые слова: Бабур, Мубайин, религиозно-просветительское мышление, художественно-эстетическое, нравственно-философское, жанр маснави, шариат, ислам, ответственность правителя, поэтика, перевод

Boburning “Mubayyin” asari yaratilishiga bir qator tarixiy, siyosiy va diniy omillar sabab bo‘lgan. Eng avvalo, XVI asr boshlarida Boburning Hindistonga yurishlari natijasida yangi bir madaniy muhitga kirib kelgani, o‘z davlatchilik konsepsiyasini diniy-ma’rifiy asoslar bilan mustahkamlashga ehtiyoj tug‘ilgani asar yaratilishining asosiy omillaridandir. Bobur o‘zining diniy bilimlari, shariatga sadoqati va musulmon hukmdori sifatida mas’uliyatini chuqur anglagani sababli, vorislari uchun diniy-ma’naviy va siyosiy dasturilamal bo‘ladigan asar yozishga ehtiyoj sezgan.

“Mubayyin” asari, avvalo, Boburning o‘z o‘g‘illari – Humoyun va Komron Mirzolarga diniy aqidalar, shariat qonunlari, islom axloqi va hukmdorlik mas’uliyatini o‘rgatish maqsadida yozilgan.

“Mubayyin” asari nafaqat diniy, balki tarixiy ahamiyatga ham ega. U XVI asrda yashagan Boburning diniy dunyoqarashi, tafakkur darajasi va ijtimoiy mas’uliyatini ko’rsatadi. Asar orqali Bobur o’z zamonasidagi diniy-ma’rifiy muammolarga befarq bo’lmagan xalqni ma’rifatga chorlovchi rahbar bo’lganini ko’ramiz.

Bu asar orqali Bobur o‘zining shaxsiy tajribasi, e’tiqodi va siyosiy qarashlarini diniy-me’yoriy shaklda ifoda etgan. Shuningdek, asar musulmon hukmdorlari uchun o‘ziga xos siyosiy-diniy qo‘llanma vazifasini bajaradi. Demakki, “Mubayyin” faqat diniy risola emas, balki diniy asoslangan boshqaruv falsafasi hamdir.

“Mubayyin” asari masnaviy janrida yozilgan bo‘lib, poetik shaklda bayon etilgan diniy va siyosiy g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. Asar quyidagi asosiy qismlardan iborat:

a) Kirish – unda islom dinining besh farzi: iymon, salot, zakot, savm, haj haqida umumiy ma’lumot beriladi.

b) E’tiqodiy boblar – iymonning tafsiloti, Allohning subutiy sifatlari, payg‘ambarlar, oxiratga e’tiqod, farishta va muqaddas kitoblarga bo‘lgan ishonch kabi masalalar keng yoritiladi.

c) Payg‘ambar va sahobalar fazilati – Muhammad (s.a.v.)ning meroji va sahobalarning xizmatlari yuksak e’tirof etiladi.

d) Fiqhiy masalalar – namoz, zakot, haj ziyorati va boshqa ibodatlar haqidagi shariat qoidalari bayon qilinadi.

e) Axloqiy-ruhiy masalalar – mo‘min va fosiq imom orqasida namoz o‘qish, axloqiy tozalik, oxiratga tayyorgarlik, savol-javob, do‘zax va jannat kabi tushunchalar izohlanadi.

f) Xotima – iymonning natijalari va inson hayotidagi ma’naviy yuksalish hamda ilohiy inoyatga erishish yo‘llari haqida yakuniy xulosalar beriladi.

Asar soddaligi va ravonligi bilan ajralib turadi. Unda murakkab diniy atamalar oddiy tilda, xalq tushunadigan shaklda tushuntirilgan. Bobur arabcha va forscha so’zlar bilan bir qatorda o’zbek tilining boy imkoniyatlaridan ham keng foydalangan.

“Mubayyin” – diniy, siyosiy va axloqiy g‘oyalarni birlashtirgan murakkab, ko‘p qatlamli asardir. Unda Bobur musulmon shohining diniy ma’rifati qanday bo‘lishi kerakligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab beradi. Shuningdek, bu asar o‘z davrining diniy-fiqhiy tafakkur darajasini, shariat asosidagi siyosiy yondashuvni, va axloqiy qadriyatlarning boshqaruvdagi o‘rnini aks ettiradi. A.Qayumovning ta’kidlashicha, “Mubayyin”ni diniy risoladan ko‘ra siyosiy-iqtisodiy traktat sifatida talqin etish uni ko‘proq ijtimoiy-ma’naviy mazmunga ega asar sifatida baholashga asos yaratadi.

Asar *masnaviy janrida* yozilgan. Masnaviy – bu sharq adabiyotida keng tarqalgan she’riy shakl bo‘lib, unda har bir bayt o‘z ichida qofiyalangan bo‘ladi (masalan: a-a, b-b, c-c tarzida). Bobur ushbu asarni she’r shaklida bayon qilgan, lekin u faqat adabiy go‘zallikni ko‘zlamaydi, balki *diniy, axloqiy, siyosiy va fiqhiy mazmun* beradi. Demak, bu asar poetik shaklda yozilgan diniy-siyosiy risola hisoblanadi.

Poetika – bu adabiyotda asarning badiiy shakli, uslubi, janri, til vositalari va obrazlar tizimi bilan bog‘liq tushuncha. “Mubayyin” asarining poetikasi quyidagicha tavsiflanadi:

–Masnaviy shakl (she’riy, qofiyali baytlar bilan yozilgan);

–Didaktik yo‘nalish (o‘rgatuvchi va ma’rifiy ruh);

–Diniy-falsafiy mazmun (iymon, ibodat, axloq);

–Siyosiy-davlat boshqaruviga oid g‘oyalar (hukmdorlik mas’uliyati, shariat asosida boshqaruv).

Asarda qo‘llanilgan poetik vositalar – *tashbeh (o‘xshatish), istiora (ko‘chma ma’no), tajnis (so‘z o‘yini), mubolag‘a, talmeh* kabi badiiy san’atlar orqali diniy haqiqatlar go‘zal misralar vositasida ochib beriladi. Xususan, iymon, qiyomat, jannat, do‘zax, shafoat, sirot kabi islom aqidalarining murakkab tushunchalari obrazli ifodalar bilan boyitilgan.

Arosat ahli – kim, bulardin o'tar,

Do‘zax ustida ko‘prugiga yetar.

Bu yerda oxirat manzarasi – Arosat maydoni, do‘zax va sirat ko‘prigi kabi diniy-ma’naviy tushunchalar orqali insonning axloqiy va ruhiy holati badiiy obrazlar bilan ifoda etilgan. “Arosat ahli”, “do‘zax”, “ko‘prik” kabi obrazlar kuchli tasviriy ifoda vositalaridir. Bu so‘zlar orqali muayyan holat — qiyomat kuni, jazolanish va najotga erishish manzarasi ko‘z oldimizda jonlanadi. Bu tasvirlar tinglovchida haybat, qo‘rquv va najot umidi kabi murakkab hissiyotlarni uyg‘otadi. She’riy san’atlardan tajnis (so‘z o‘yini) – “o‘tar” va “yetar” – harakatga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular o‘zaro semantik (ma’no) jihatdan ham yaqin: biri sinovdan o‘tishni, ikkinchisi maqsadga yetishni anglatadi.

Bu-dur *iymon* Xudog‘a kelturmak,

Shirk cheritin zamirdin so‘rmak.

Aytqil, Lo-iloho-illol-loh,

Ayt, ma’nosidin ham ul ogoh.

She’rda muvozanatli qofiya tizimi mavjud bo‘lib, *kelturmak – so‘rmak, illo-l-loh–ul ogoh.* Birinchi ikki misrada -turmak / -urmak fe’l yasovchi qo‘shimchalar orqali qofiyalashgan. Uchinchi va to‘rtinchi misrada esa “Lo iloha illo-l-loh” iborasi bilan “ul ogoh” orasidagi -loh va -goh ohangdosh tovushlar qofiya vazifasini bajaradi. Bu qofiyalash she’rning ritmini kuchaytiradi va xotirada saqlanishini osonlashtiradi.

Tazod: iymon keltirish bilan shirkni so‘rmak (yuvish, yo‘qotish) o‘rtasida aniq qarama-qarshilik bor. Iymon – tozalik va birlik ramzi, shirk esa ruhiy ifloslik va jo‘shqinlik ramzi sifatida berilgan. Bu qarama-qarshilik orqali iymonning ahamiyati chuqurroq anglatiladi. Didaktik ruh (nasihat san’ati): she’r nasihat uslubida yozilgan. “Aytqil”, “Ayt” kabi amr fe’llari orqali shoir o‘quvchiga murojaat qiladi. Bu orqali u diniy tushunchani quruq axborot sifatida emas, balki amaliy, hayotiy yo‘l-yo‘riq sifatida tushuntiradi. Ushbu uslub o‘quvchini faqat o‘qishga emas, amal qilishga da’vat etadi.Shoir bu misralar orqali iymon faqat til bilan aytiladigan ibora emas, balki qalbdan kelib chiqadigan chuqur e’tiqod ekanini poetik va ta’sirchan uslubda yetkazgan. Bu jihatlar ushbu baytni nafaqat diniy-axloqiy, balki badiiy-nazariy nuqtai nazardan ham yuksak baholash imkonini beradi.

Yo‘lchisiz yo‘lda kim bora olg‘ay,

Borsa avval qadamda-o‘q qolg‘ay.

Ushbu misra tashbeh (o‘xshatish) san'at turiga mansub bo‘lib, birinchi qatorda yo‘lchisiz yo‘l – aniq bir yo‘ldan maqsadga yetishish uchun yo‘lchi (rahbar, yo‘l ko‘rsatuvchi) ya’ni Rasulilloh yo‘lboshi ekanligi ta'kidlanadi. Buni, ya'ni yo‘lchisiz yo‘lni o‘q bilan o‘xshatish orqali, o‘qning yo‘ldan chiqishi yoki yo‘lsizligi tasvirlanadi.

Shoir bu yerda ramziy ma’noda piri murshidsiz yurish mushkul ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu baytda istiora san’ati ha mohirona qo’llanilgan: yo’l: hayot, ruhiy tarbiya yoki ma’naviy yo’lga istioradir, o‘q: dushmanlik, sinov va halokat kabi ma’nolarning ramzi sifatida ishlatilgan.

Kim-ki Ahmad kibi-ki badraqadur,

Yo‘lda ne xavf bo‘lsa ne boqa-dur.

Komron bo‘l jahonda davlat ko‘r,

Yuz tuman obro‘yu izzat ko‘r.

Bu baytda shoir duo, tilak va baraka mazmunini ifodalamoqda. U boshqa bir shaxsga shon-sharaf, izzat-ikrom tilamoqda. G’azal ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan.

Ushbu misrada bir nechta badiiy san’at turlari mujassamdir. Mubolag‘a (bo‘rttirish): “Yuz tuman obro‘yu izzat ko‘r” – bu yerda “yuz tuman” iborasi son jihatdan emas, ko‘p, benihoya darajada katta obro‘-e’tibor ma’nosida ishlatilgan.

Tashbeh (o‘xshatish):“Davlat ko‘r” degan ifoda baxt, boylik, farovonlikni bildiradi.

Bu yerda “davlat” tushunchasi moddiy boylik yoki ma’naviy yuksaklikka o‘xshatilgan, lekin bu tashbeh bilvosita, ya’ni so‘zsiz o‘xshatish (istiora shaklida) ifodalangan. Parallelizm (mazmuniy uyg‘unlik). Ikkala misra mazmunan bir-birini to‘ldiradi:“Komron bo‘l” – baxtli bo‘l, “davlat ko‘r”, “obro‘-izzat ko‘r” – baxt, boylik, e’tibor, izzat top.

Bu mazmuniy va ritmik parallelizm san’atidir, she’riy uyushqoqlik yaratadi.“Komron bo‘l jahonda davlat ko‘r, yuz tuman obro‘yu izzat ko‘r” misrasi asosan mubolag‘a (yuz tuman), istiora (davlat ko‘r), va mazmuniy parallelizm san’atlari bilan bezatilgan bo‘lib, unda shoir Komron deya o‘g‘lining ismiga so‘ngra uning ma’nosiga ishora qilgan, ya’ni komronlik (baxt), davlat (boylik), obro‘ va izzat tilamoqda – ya’ni duoyi-salom ifoda qilmoqda. O‘g‘li Humoyunni ham xuddi shunday o‘xshatishlar bilan tasvirlaydi. Boburning poetik tilga ega bo‘lgan bu diniy risolasi o‘quvchini nafaqat ilmiy jihatdan, balki hissiy-ma’naviy jihatdan ham tarbiyalaydi. She’riy ifoda orqali nasihatomuz mazmunlar yanada chuqurroq ta’sir ko‘rsatadi.

“Mubayyin”dagi poetika shunchaki badiiy bezak emas, balki diniy-ma’rifiy g‘oyalarni singdirishning kuchli vositasidir. Bobur bu asarda hukmdor, islomiy mutafakkir va shoir sifatida o‘z salohiyatini birlashtirgan. Natijada, “Mubayyin” nafaqat diniy risola, balki she’riy-falsafiy meros sifatida ham ahamiyatlidir.Bugungi kunda “Mubayyin” asari islomiy ma’rifat, axloqiy tarbiya va madaniyat sohalarida o’z dolzarbligini yo’qotmagan. Yoshlar orasida diniy savodxonlikni oshirishda bu kabi asarlardan foydalanish juda foydalidir.Zamonaviy ta’limda Bobur asarlarini , xususan “Mubayyin”ni o’rganish orqali o’quvchilarni diniy bag’rikenglik, sabr-toqat va ezgulik kabi qadriyatlarga o’rgatish mumkin.Shunday qilib, “Mubayyin” Boburiy davr mafkurasi va boshqaruv ideologiyasini tushunishda beqiyos manba bo‘lib, u faqat diniy risola emas, balki davlatchilik tamoyillarini islomiy asoslarda izohlaydigan amaliy qo‘llanmadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мубаййин. . –Тошкент: А.Қодирий номидаги адабиёт нашриёти. 2000.

2.Қаюмов А. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. –Тошкент: Фан, 2008.

3. Адизова И. Сўзумни ўқуб англағайсен ўзумни.. –Тошкент: G‘.G‘ulom номидаги нашриёт- matbaa ijodiy uyi, 2008.

4. Олимов М. “Бобурнома”да Аллоҳ исмлари ва сифатлари талқини. . –Тошкент: Фан, 2002.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

O‘ZBEK MATNLARIDA TILNING EKSPRESSIV VOSITALARI: METAFORA, EPITET, KINOYA, TAMSIL

Tillayeva Rayxona Tuxtasinovna,
Namangan davlat pedagogika instituti Filologiya kafedrasi mudiri
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent
e-mail: rayxona_tillayeva_05@mail.ru, +998-94-153-11-13
ORCID: 0000-0002-0018-5530
Mamarasulova Gulshoda Bekmirza qizi
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talablasi
+ 998334673535 gulshodamamarasulova7@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyoti va publitsistikasida keng qo‘llaniladigan tilning ekspressiv vositalari — metafora, epitet, kinoya va tamsilning badiiy matndagi o‘rni va funksional imkoniyatlari tahlil etiladi. Til birliklarining bu shakllari matnning badiiy-estetik qiymatini oshirish, muallifning ichki kechinmalari va munosabatini ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot davomida o‘zbek yozma va og‘zaki adabiyotidan namunalar asosida har bir vositaning mazmun berish xususiyatlari, obraz yaratishdagi roli, shuningdek, o‘quvchi ongiga ta’siri yoritiladi. Ekspressiv vositalarning madaniy va ijtimoiy kontekstda qanday anglashilishini ko‘rsatish orqali ularning semantik kengayishlariga ham e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek tilshunosligi va stilistika sohasi uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so’zlar: metafora, epitet, kinoya, tamsil, ekspressiv vositalar, badiiy ifoda, obrazlilik, stilistika, semantika, o‘zbek adabiyoti, badiiy til, til vositalari.

Kirish: Til inson tafakkuri, dunyoqarashi va ruhiy olamini ifodalovchi eng muhim vositalardan biridir. Har bir millat o‘z tili orqali nafaqat atrof-muhitni, balki o‘zining tarixiy taraqqiyoti, madaniyati va estetik dunyoqarashini ham ifodalaydi. [134]Shu ma’noda til nafaqat aloqa vositasi, balki badiiy-estetik qiymatga ega bo‘lgan boy madaniy qatlamni o‘zida mujassam etgan hodisadir. Xususan, badiiy adabiyotda tilning imkoniyatlaridan turlicha foydalaniladi. Adib tilni faqat axborot yetkazish vositasi sifatida emas, balki go‘zallik, ta’sirchanlik, obrazlilik vositasi sifatida ham ishga soladi[135]. Bu jarayonda ekspressiv vositalar – ya’ni tilning ifodali, ta’sirchan, estetik yuklama olgan birliklari muhim rol o‘ynaydi.

[134] G‘ulomov, N. O‘zbek tili stilistikasi. – T.: O‘qituvchi, 1982. – 256 b.
[135] Jo‘raev, N. Badiiy tafakkur va til. – T.: Fan, 2001. – 304 b.

Ekspressiv vositalar tilning badiiy, obrazli shaklda ishlatilishini ta’minlaydi. Ular orasida metafora, epitet, kinoya va tamsil kabi vositalar o‘zbek adabiyotida ham keng qo‘llaniladi. Bu vositalar matnga chuqur mazmun, hissiy rang-baranglik va estetik joziba bag‘ishlaydi. Adabiy matnda bu vositalarning mahorat bilan qo‘llanishi obrazlarning jonli, ta’sirchan bo‘lishiga xizmat qiladi[136][3]. Shuningdek, ular matnning g‘oya va mazmunini chuqurlashtiradi, o‘quvchida muayyan hissiy kechinmalar uyg‘otadi.

O‘zbek adabiyoti, xususan, poeziya va nasrda metafora, epitet, kinoya, tamsil kabi ekspressiv vositalar qadimdan keng qo‘llanib kelinadi[137]. Alisher Navoiy, Ogahiy, Furqat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi ijodkorlar o‘z asarlarida bu vositalardan mahorat bilan foydalanganlar[138]. Ularning har biri tildagi ekspressivlik imkoniyatlarini individual uslub asosida boyitgan. Masalan, Alisher Navoiy asarlarida metafora va epitetlar murakkab, ko‘p qatlamli ma’no kasb etsa, Erkin Vohidov she’riyatida bu vositalar zamonaviy estetik talablarga javob beradigan shaklda namoyon bo‘ladi[139].

Metafora – bu bir narsani boshqa bir narsa orqali obrazli tarzda ifodalash vositasidir. U inson tafakkurining poetik shakllanishida, borliqni obrazli idrok etishda muhim rol o‘ynaydi. Metafora orqali adib murakkab tushunchalarni oddiy, ammo obrazli ifodalar bilan bayon qiladi. Bu esa o‘quvchiga osonroq tushunish, obrazni chuqurroq his etish imkonini beradi[140].

Epitet esa so‘zga estetik-emosional baho beruvchi aniqlovchi bo‘lib, obrazga joziba, ta’sirchanlik kiritadi. Epitetlar yordamida adib obrazni bezaydi, unga hissiy tus beradi, uning xarakterini ochib beradi. Epitet, odatda, sifatlar shaklida namoyon bo‘ladi, ammo ayrim hollarda ot, ravish va fe’l shaklida ham uchraydi. O‘zbek adabiyotida “ko‘ngil quyoshi”, “dilzaxar so‘zlar”, “yorug‘ umidlar” kabi epitetlar badiiy ifodaning keng imkoniyatlarini namoyish etadi[141].

Kinoya esa o‘ta nozik badiiy vosita bo‘lib, asl niyatni zid shaklda ifodalashga asoslanadi. Bu vosita adib tomonidan tanqid, istehzo, masxara yoki nozik ishora qilish vositasi sifatida ishlatiladi. Kinoya – mantiqiy tafakkur va badiiy didni talab qiladigan murakkab vositadir. U asarda yashirin mazmunni anglashga, chuqur tahlil qilishga undaydi[142]. O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotida kinoya ko‘pincha ijtimoiy-siyosiy tanqid vositasi sifatida ishlatilgan.

Tamsil esa allegorik obraz orqali ma’naviy-axloqiy g‘oya yoki hayotiy haqiqatni ifodalovchi ekspressiv vosita bo‘lib, u ko‘proq nasriy asarlarda, masalan, maqollar, rivoyatlar, ertaklar va hikoyatlarda ko‘proq qo‘llaniladi. Tamsil badiiy tasvir vositasi bo‘lishi bilan birga, didaktik mazmunga ega bo‘lib, o‘quvchini ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim rol

[136] Qodirov, A. Adabiy til uslubi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 212 b.
[137] Rasulov, A. Adabiy til va badiiy nutq. – T.: O‘zbekiston, 2005. – 180 b.
[138] Mirzaeva, D. Tilshunoslikka kirish. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 176 b.
[139] G‘anieva, M. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1998. – 280 b.
[140] Rajabov, A. Til va obraz. – T.: Akademnashr, 2014. – 192 b.
[141] Boymurodov, A. O‘zbek adabiyotida badiiy ifoda vositalari. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 200 b.
[142] Sa’dulla, Q. Badiiy tafakkur va uslub. – T.: Fan, 2006. – 240 b.

o‘ynaydi. O‘zbek adabiyotidagi “Maymun va ayiq”, “To‘ti va savdogar” kabi tamsiliy hikoyatlar xalq tafakkurining mahsuli bo‘lib, ularning aksariyati ramziy va ibratli xarakter kasb etadi[143][10].

Til vositalarining bunday ekspressiv shaklda qo‘llanishi nafaqat adabiy matnning estetik qimmatini oshiradi, balki uning ijtimoiy, madaniy va falsafiy qatlamlarini ham boyitadi. Shuning uchun ekspressiv vositalarni tahlil qilish, ularning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni va badiiy ahamiyatini aniqlash ilmiy jihatdan ham, estetik jihatdan ham dolzarbdir.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi o‘zbek matnlarida ekspressiv vositalar – metafora, epitet, kinoya va tamsilning qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganish, ularning badiiy-estetik ahamiyatini ochib berishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek adabiyoti namunalari – she’riyat va nasr asarlari tanlab olingan. [144]Predmet esa bu asarlarda qo‘llanilgan ekspressiv vositalarning funksional va semantik xususiyatlaridir.

Ushbu mavzu doirasida tahliliy-deskriptiv, taqqoslama-tahliliy va stilistik usullar asosida tahlil olib boriladi. Asosiy e’tibor ekspressiv vositalarning matndagi funksiyasi, ularning obraz yaratishdagi roli va estetik yuklamasini ochib berishga qaratiladi. Shuningdek, mumtoz va zamonaviy adabiy matnlar qiyosiy tahlil qilinadi[145].

Ekspressiv vositalarning tahlili o‘zbek adabiy tilining boy imkoniyatlarini ochib berishga, ijodkorlarning uslubiy mahoratini yoritishga xizmat qiladi. Bunday tadqiqotlar nafaqat tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlariga, balki maktab va oliy ta’lim tizimidagi o‘quv jarayonlariga ham amaliy yordam bera oladi. Shuningdek, ekspressiv vositalarning o‘rganilishi zamonaviy adabiy jarayonlar, tarjima amaliyoti, madaniyatlararo muloqot nuqtayi nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi[146].

Adabiyotlar tahlili: Metafora haqida alohida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Masalan, O‘zbekiston Milliy Universiteti professori B. Yo‘ldoshevning “O‘zbek tilining badiiy uslubiy vositalari” (2015) monografiyasida metaforaning matndagi obraz yaratish va semantik kengayishini tahlil qilgan. U metaforani tilning kreativ salohiyati va badiiy ifoda kuchi sifatida ko‘rsatib, uning ijtimoiy-madaniy kontekstda ham shakllanishini ta’kidlaydi. **Epitet** mavzusi bo‘yicha Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universitetining olimi M. Xasanovning “O‘zbek adabiyotida uslubiy vositalar” (2018) maqolasida epitetning ruhiy kechinmalarni ifodalashdagi o‘rni va badiiy matnga estetik ta’siri yoritilgan. U epitetlarning emotsional soha va ifoda vositasi sifatida badiiy matnlarning tuzilishida qanday rol o‘ynashini tahlil qiladi.

Kinoya va uning publitsistika hamda badiiy matndagi o‘rni haqida Farg‘ona Davlat Universitetining filologiya fanlari nomzodi S. Rahimovning “Kinoya va uning o‘zbek tilida uslubiy funksiyalari” (2020) maqolasi mavjud. Maqolada kinoyaning ijtimoiy tanqid, hazil va ironiyaning o‘ziga xos shakli sifatida qo‘llanishi va uning til orqali jamiyat hayotidagi nozik

[143] Karimov, I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
[144] Lotman, Yu. M. San’atning semiotikasi / tarj. S. Mirvaliyev. – T.: Fan, 2007. – 144 b.
[145] Bekmurodov, A., Nurmatov, N. Zamonaviy stilistika va matn tahlili. – T.: Fan, 2020. – 216 b.
[146] O‘zbek milliy ensiklopediyasi. 20 jildlik. – T.: Milliy ensiklopediya, 2000–2007

masalalarni ifodalashdagi ahamiyati batafsil ko‘rsatib o‘tilgan. **Tamsil** vositasi esa o‘zbek xalq adabiyotining ajralmas qismi bo‘lib, klassik va zamonaviy asarlarda keng qo‘llaniladi.

O‘zbek tilshunosligi sohasidagi yirik mutaxassislar, xususan, N. Qo‘ziyevning “O‘zbek badiiy tilining tamsil vositalari” (2017) ilmiy ishlari tamsilning axloqiy-ma’rifiy vazifasi, obrazli ifodasi va uning badiiy matnga ta’siri haqida chuqur tahlil beradi Ushbu ilmiy manbalar va tadqiqotlar ko‘rsatadiki, tilning ekspressiv vositalari o‘zbek adabiyotida nafaqat estetik go‘zallik, balki fikrni aniq va ta’sirchan yetkazishda, madaniy va ijtimoiy kontekstni aks ettirishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, ular o‘quvchi ongida chuqur taassurot qoldirishga xizmat qiladi va badiiy matnning semantik qatlamlarini boyitadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tadqiqotda o‘zbek adabiyoti va publitsistikasida tilning ekspressiv vositalari — metafora, epitet, kinoya va tamsilning badiiy matndagi o‘rni va funksional imkoniyatlarini o‘rganish uchun quyidagi metodlar qo‘llanildi:

Ushbu metod yordamida o‘zbek yozma va og‘zaki adabiyotidagi turli janrlardan namunalar tanlab olindi. Tanlangan matnlardagi ekspressiv vositalar aniqlanib, ularning mazmun berish, obraz yaratish va badiiy-estetik funktsiyalariga e’tibor qaratildi. Til birliklari kontekstida semantik va stilistik xususiyatlar chuqur o‘rganildi. Tadqiqot davomida ekspressiv vositalarning matn mazmunidagi funksiyalari, muallifning ichki kechinmalari va his-tuyg‘ularini ifodalashdagi o‘rni sifat jihatidan tahlil qilindi. Badiiy matnlarda bu vositalarning qanday ifodalanishi, o‘quvchi ongiga ta’siri va ularning obrazlilik darajasi o‘rganildi. Til birliklarining madaniy va ijtimoiy kontekstda qanday anglashilishini aniqlash maqsadida, ekspressiv vositalar o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajribasi doirasida tahlil qilindi. Bu orqali ularning semantik kengayishi va ko‘p qirrali ma’nolari o‘rganildi.

O‘zbek adabiyoti va publitsistikasidagi turli davrlar va janrlardagi metafora, epitet, kinoya va tamsil vositalarining ishlatilishi taqqoslandi. Bu metod yordamida tilning ekspressiv vositalarining rivojlanish tendensiyalari va badiiy uslubdagi o‘ziga xosliklari aniqlanib, umumiy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotda klassik va zamonaviy o‘zbek adabiyotining turli asarlaridan, shuningdek, gazeta, jurnal publitsistik materiallaridan misollar yig‘ildi. Bu materiallar orqali til birliklarining badiiy va kommunikativ funksiyalari tahlil qilindi. Tilning ekspressiv vositalari haqida mavjud tilshunoslik va stilistika nazariyalari, shuningdek, xalqaro va milliy ilmiy manbalar o‘rganilib, ularning konseptual doirasi tadqiqotga tatbiq etildi.

Natija: Mazkur tadqiqotda o‘zbek adabiyoti va publitsistikasida tilning ekspressiv vositalari — metafora, epitet, kinoya va tamsilning badiiy matndagi o‘rni va funksional imkoniyatlari batafsil o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu til birliklari badiiy asarlarda muallifning his-tuyg‘ularini, fikrlarini aniq va jonli ifodalashda, shuningdek, o‘quvchi ongida kuchli obrazlar yaratishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Metafora va epitet kabi ekspressiv vositalar matnning badiiy-estetik qiyofasini yanada boyitadi, fikrlarni yanada ta’sirli, jonli va tushunarli qiladi. Kinoya va tamsil esa voqea va holatlarni noaniq, nozik shaklda ifodalash imkonini berib, o‘quvchini fikrlashga undaydi va

matnga chuqur ma’no yuklaydi. Tadqiqot davomida olingan adabiy va publitsistik namunalar asosida ushbu vositalarning mazmun berish xususiyatlari va madaniy-iqtisodiy kontekstda qanday qabul qilinishi tahlil qilindi.

Shuningdek, ekspressiv vositalarning o‘zbek tilidagi semantik kengayishlari va ularning madaniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi alohida ta’kidlandi. Til birliklarining madaniy kontekstda to‘g‘ri talqin qilinishi badiiy matnni chuqurroq tushunishga yordam beradi, uning ta’sir doirasini kengaytiradi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ekspressiv til vositalarini o‘rganish o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunoslik sohasida nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega. Bu vositalar asosida o‘quvchilar, yozuvchilar va tadqiqotchilar tilning badiiy imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Shu bilan birga, tilning ekspressiv jihatlarini chuqurroq anglash, adabiy va publitsistik asarlarning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda ko‘rsatilgan metodlar va tahlillar o‘zbek tilining badiiy-estetik imkoniyatlarini yanada oshirishda muhim asos bo‘lib xizmat qilishi, tilning milliy madaniyat va an’analarini saqlashda samarali vosita ekanligi isbotlandi.

Xulosa: O‘zbek adabiy matnlarining badiiy kuchi va estetik jozibasi ko‘p jihatdan tilning ekspressiv vositalari – metafora, epitet, kinoya va tamsil kabi obrazli ifoda shakllarining samarali qo‘llanilishiga bog‘liq. Ushbu vositalar nafaqat adabiy asarning estetik qiymatini oshiradi, balki uning semantik qatlamlarini chuqurlashtiradi, o‘quvchiga muallif fikrini teran va obrazli tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Metafora orqali abstrakt tushunchalar hayotiy va jonli obrazlar orqali tasvirlanadi, epitet esa obrazning estetik va emotsional rangini boyitadi. Kinoya badiiy matnda nozik tanqid, istehzo va yashirin ma’noni yetkazish uchun kuchli qurol bo‘lib xizmat qiladi, tamsil esa ibratli voqea va obrazlar orqali axloqiy, ijtimoiy g‘oyalarni chuqur ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida va yozma adabiyotda bu vositalarning ildizi chuqur, amaliy namunalari serobdir. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekspressiv vositalarning qo‘llanishi yozuvchining individual uslubini belgilashda, matnning semantik zichligini oshirishda va obrazli tafakkurni namoyon qilishda beqiyos rol o‘ynaydi. Mumtoz adabiyotda ular ko‘proq estetik-falsafiy yo‘nalishda ishlatilgan bo‘lsa, zamonaviy adabiyotda ekspressivlik orqali ijtimoiy va psixologik muammolar yoritiladi. Shuningdek, bu vositalar tarjima amaliyotida, til o‘rgatish jarayonida, adabiy ta’limda va matn tahlilida katta metodik ahamiyatga ega. Ularning lingvopoetik va uslubiy xususiyatlarini chuqur o‘rganish tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida yangi ilmiy qarashlar va yondashuvlar shakllanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G‘ulomov, N. O‘zbek tili stilistikasi. – T.: O‘qituvchi, 1982. – 256 b.
2. Jo‘raev, N. Badiiy tafakkur va til. – T.: Fan, 2001. – 304 b.
3 Qodirov, A. Adabiy til uslubi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 212 b.
4 Rasulov, A. Adabiy til va badiiy nutq. – T.: O‘zbekiston, 2005. – 180 b.
5 Mirzaeva, D. Tilshunoslikka kirish. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 176 b.

6 G‘anieva, M. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1998. – 280 b.
7 Rajabov, A. Til va obraz. – T.: Akademnashr, 2014. – 192 b.
8 Boymurodov, A. O‘zbek adabiyotida badiiy ifoda vositalari. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 200 b.
9 Sa’dulla, Q. Badiiy tafakkur va uslub. – T.: Fan, 2006. – 240 b.
10 Karimov, I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
11 Lotman, Yu. M. San’atning semiotikasi / tarj. S. Mirvaliyev. – T.: Fan, 2007. – 144 b.
12 Bekmurodov, A., Nurmatov, N. Zamonaviy stilistika va matn tahlili. – T.: Fan, 2020. – 216 b.
13 O‘zbek milliy ensiklopediyasi. 20 jildlik. – T.: Milliy ensiklopediya, 2000–2007

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

NOVELLA JANRINING JAHON HIKOYACHILIGI BILAN BOG‘LIQLIGI

Samatova Gulnoza Nematjonovna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada novella janrining shakllanishi, rivojlanishi va uning jahon hikoyachilik an’analari bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil etiladi. Novella janriga xos kompozitsion, uslubiy va mavzuviy xususiyatlar turli davr va mintaqalardagi adabiy tajribalar misolida yoritiladi. Jahon adabiyotida hikoya va novella o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar, ularning badiiy ifoda vositalaridagi o‘ziga xosliklar qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida klassik va zamonaviy yozuvchilarning asarlari asosida novella janrining universalligi va badiiy imkoniyatlari namoyon etiladi.

Kalit so‘zlar: novella, hikoya, jahon adabiyoti, janr xususiyatlari, qiyosiy tahlil, badiiy ifoda, kompozitsiya.

Аннотация. В статье анализируются формирование и развитие жанра новеллы, а также его взаимосвязь с мировыми традициями рассказа. Рассматриваются композиционные, стилистические и тематические особенности новеллы на примере литературного опыта различных эпох и регионов. Проводится сравнительный анализ сходств и различий между рассказом и новеллой в мировой литературе, выявляются их уникальные художественные приёмы. На материале произведений классических и современных писателей демонстрируются универсальность и художественные возможности жанра новеллы.

Ключевые слова: новелла, рассказ, мировая литература, жанровые особенности, сравнительный анализ, художественное выражение, композиция.

Abstract. This article examines the formation and development of the novella genre and its interrelation with global short story traditions. It explores the compositional, stylistic, and thematic features of the novella through literary experiences from various periods and regions. A comparative analysis is conducted to identify the similarities and differences between the short story and the novella in world literature, highlighting their distinctive artistic techniques. Drawing on works by both classic and contemporary authors, the study demonstrates the universality and artistic potential of the novella genre.

Keywords: novella, short story, world literature, genre features, comparative analysis, artistic expression, composition.

Inson psixikasi bilan bog‘liq epik asar arixtektonikasida asrlar osha sayqallanib kelayotgan, muammo va masalalar, estetik qamrov hamda hissiy tovlanishlar o‘z ifodasini topishi tayin. Yozuvchi qaysi davr farzandi bo‘lishidan qat’iy nazar, epik vaqt tig‘izligini talqin etar ekan, zamon va makonda kechuvchi estetik olam ichidagi voqeliklarni tasvirlashga o‘zida katta ehtiyoj tuyadi. Chunki yozuvchi o‘z davrining farzandi, o‘zidan oldingi salaflar ijodini taraqqiy ettiradi yoki unga yangicha shakl, ifoda hamda tasvir kriteriylarini tuhfa qiladi. Mana shu taqdimotda hayotning o‘ziga tan sinovlari, aqidalari, nazariyalari tajassumini topib boradi. Antik yunon madaniyatidan oziqlangan har bir janr modifikatsiyasida “vaqtning intensiv ko‘rinishi” namoyon bo‘ladi. Ijodkorlar an’anaga yondashuvda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratarkan, davriy silsilalar negizida yuzaga kelgan botiniy axloq normalari hamisha inson mayllarining faqatgina bir tomonini idroklashga qodirligini talqin qilish muhimligini ilgari suradi. Aristotel qayd etishicha: “Asar voqeasi – fabulalarning ayrimlari oddiy, boshqalari esa o‘zaro chirmashib ketgan bo‘ladi. Chunki rivoyatlarda aks etgan voqealar ham xuddi shundaydir. Men, shunday to‘xtovsiz va yagona voqeani sodda deb aytamanki, unday voqea davomida (yuqorida aytilganidek) taqdir o‘zgarishi keskin burilishsiz va to‘satdan anglashsiz sodir bo‘ladi, chirmashgan fabulada esa voqealar keskin burilish va to‘satdan anglash yoki ularning har ikkisi vositasida sodir bo‘ladi. Buning hammasi voqea mantiqidan, avvalgi voqeaning zaruriyat yo ehtimollik asosidagi davomi tarzida kelib chiqishi kerak. Chunki biron narsa sababli boshqa narsaning kelib chiqishi bir narsadan keyin boshqa narsaning yuz brishi o‘rtasida katta farq bor”, - deya alohida ta’kidlaydi. deydi. Keltirilgan iqtibosdan anglashiladiki, har qanday janr o‘zining mazmun va mohiyati, shakliy tuzilishidan kelib chiqib, o‘zidan oldingi janrlar qurshovida toblanib, yo davom etadi, yoki o‘zgacha bir yo‘sinda namoyon bo‘ladi. Demak, ijodkor biror janrni kashf qilarkan, voqelik (fabula) hali hayotning ma’lum bir tomonini ifoda qilishga qaratilgani bilan o‘lchanadi. Ana shu konsepsiya biror bir janr qotib qolgan emasligini dalolatlaydi.

Barchamizga ma’lumki, har qanday janr ildizi, shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari o‘zidan oldingi hayotda bo‘layotgan voqelikning qaysidir jihatini yuzaga chiqarishga qodirligini dalolatlaydi. Ayni shu damda, inson obraziga katta e’tibor qaratish lozim. Voqelikning asrlar davomida qayta ifoda etilishi, davrning og‘riqlari, inson ehtiyojining o‘ziga xosligi, muammoning nimaga qartilgani bilan ham o‘lchanadi. Jahon adabiyotida – novella janri genezisi haqida so‘z yuritganda ham yuqoridagi talqinlarning konseptual mohiyatini tushunib yetish mumkin.Uyida janrning estetik va kompozitsion mohiyati borasida nazariy qarashlarga to‘xtalib o‘tamiz. “Novella janri - dunyo adabiyotida asrlar mobaynida malakaviy jixatdan takomillashib kelgan janrlardan biri xisoblanadi. Uning tarixiy ildizlari lotincha exemple, fablio, masal, xalk ertaklariga tutashadi. Binobarin, XIII asrdagi oksitan tilida avvaldan mavjud, an’anaviy materiallar taxrirlangan yangidan bayon etilgan mushoxada «nova» tarzida kullanilgan. Shundan sung italyancha “novella” atamasi xosil bulgan, XV asrdan boshlab esa istilox Yevropa davlatlarida keng ommalashgan” – degan qarashlarni bir qator olimlar ilgari surgan degan to‘xtamga keladi. Adabiyotshunoslik lug‘atida esa: “Italyancha “yangilik”

so‘zidan olingan ***novella*** ham dastlab mazmun hodisasi edi: ***novella*** deyilganda, jonli qiziqish uyg‘otuvchi yangi voqeani hikoya qiluvchi asar tushunilgan. Ayni chog‘da, novella o‘ziga xos shakl xususiyatlariga ham ega bo‘lgan: qisqalik, syujet o‘tkirligi va b. Keyincha novellaga xos shakliy xususiyatlar muqimlashib, o‘ziga xos shakl novella yuzaga keladi. Shuningdek shakl va mazmunning bir-biriga o‘tishi, bir asar doirasida ham kuzatiladi. bu badiiy asar ***sistema*** ekani, har qanday sistema quyi va yuqori darajadagi strukturaviy bo‘laklardan tarkib topishi bilan bog‘liq”, - degan to‘xtamga keladi. Akademik M.Qo‘shjonov janrning modusiga diqqat qaratib: “Novellaning o‘ziga xos xususiyatlari ham yo‘q emas, ba’zilar tasavvur qilganidek, asarning hajmi kichikligida ham emas. Hozirgi kun adabiyotshunosligida novellaning o‘ziga xos xarakterli holati va voqealarning keskin burilishida ixcham, pishiq syujet, kutilmagan yechim asosida ko‘rsatib berishdan iborat deb hisoblanadi”, -deya mantiqiy urg‘ulaydi. Adabiyotshunos A.Muxtorov janrning estetik mohiyati haqida: “Mumtoz arab adabiyotida novella” asarida “Latifa va novella tasvir usuliga ko‘ra juda yaqin janrlar va ba’zan bu latifa yoki novella ekanligini aytish qiyin bo‘ladi. Latifa og‘zaki bayonga, novella esa yozma bayonga moyildir. Ko‘pincha, yozma ko‘rinishdagi novella latifaning rivojlantirilgani bo‘ladi”, qabilidagi nazariy qarashlarni ilgari suradi.

